TAMADDUN NURI jurnali
Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy,
adabiy-badiiy jurnal
MUASSISLAR: Beruniy tuman hokimligi
"Tafakkur-Tamaddun" OOO
"Beruniy avlodlari" jamoat fondi
HAMKORLARIMIZ:
O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi
Qoraqalpoq davlat universiteti
Urganch davlat universiteti
TAHRIR HAY'ATI:
BOSH MUHARRIR:
Munavvara KURBANBAYEVA
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Anvar ALLAMBERGENOV, fil.f.f.d (PhD)
TEXNIK MUHARRIR:
Islombek ABDIKHAKIMOV, y.f.f.d (PhD)
BO'LIM MUHARRIRI:
Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.
Qahramon QURONBOYEV, s.f.d.,prof.
Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)
Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD), (Hindiston)
Azizulloh AROL, fil.f.f.d (PhD), (AQSH)
Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)
Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)
Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)
Xəlil İsmayıl oğlu İsmayılov, t. f.d, prof., (Ozarbayjon)
Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.
Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.
Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)
Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD),k.i.x.
Shoira NURULLAYEVA, t.f.n., dots.
Mamlakat JUMANIYAZOVA, t.f.n., dots.
Konul Bunyadzoda, fəlsəfə fanlari doktoru, (Ozarbayjon)
Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.
Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.
Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)
Mangubek O'RAZMETOV, fal.f.d., (PhD)
Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.
Olmos ULVI Binnatova , fil.f.d., prof., (Ozarbayjon)
Azamat PRIMOV, fil.f.d., (DSc), prof.
Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n., (Rossiya Federatsiyasi)
Shukurjon Norbayeva, fil.f.d., (DSc)
Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n., dots., (PhD)
Qabil MAMBETOV, fil.f.f.d., (PhD)
Vahob RAHMONOV, fil.f.n., dots.
Doniyor YULDASHEV, fil.f.d (DSc)
Farrux Abbas oglu Rustamov, p.f.d, prof. (Ozarbayjon)
Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d.,prof.
Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)
Masharib ABDULLAYEV, s.f.d., (DSc), k.i.x.
Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)
Rana Hamid qızı Qadirova, psixol.f.d., prof. (Ozarbayjon)
Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)
Dilafruz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Sirojiddin SAYYID
Muhammad ALI
Kengesboy KARIMOV
Iqbol MIRZO
Qurbon SHONIYOZOV
O'rozboy ABDURAHMONOV
Murotboy JUMANOV
Adabiy maslahatchi:
Guliston MATYOQUBOVA
Rassom:
Alibek ABDURAHMONOV
Sahifalovchi-bezovchi: G'iyosiddin O'NAROV
Manzilimiz: Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Beruniy tumani
Web-sayt: https://jurnal.tamaddunnuri.uz
e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com
Telegram kanali: https://t.me/tamaddunnuri
Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.
Qog'oz bichimi 60x84 ⅛. Nashriyot hisob tabog'i 28.
Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ
bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.
Bosishga 2026-yil 28-fevralda ruxsat etildi.
Toshkent shahri, Chilonzor ko`chasi, 28-uy.
2026-yil, 2-son (77).
Ushbu son "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №33.
Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri"dan olindi deb izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri" jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va 10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.

10.69691 DOI

ISSN-2181-8258

Impakt faktor-9.347

SLIB.UZ

BIZNI IJTIMOIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:

journal THE LIGHT OF CIVILIZATION
Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine
Founders: Beruniy District Municipality
"Tafakkur-Tamaddun" OOO
Public Foundation “Descendants of Berunius"
Our colleagues: Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Karakalpakstan division
Karakalpak State University, Urgench State University

EDITORIAL BOARD:
EDITOR-IN-CHIEF:
Munavvara KURBANBAEVA
DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Anvar ALLAMBERGENOV
TECHNICAL EDITOR:
Islombek ABDIKHAKIMOV
SECTION EDITOR:
Mukaddas KURBANBAEVA

Akmal SAIDOV, y.sc.d., prof., Acad.
Qakhraman QURANBAYEV, s.sc.d., prof.
Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)
Roman GOPAL, phil.sc.n., (PhD) (India)
Azizulloh AROL, phil.sc.n., (PhD) (USA)
Almagul BAYRIEVA, s.sc.d., (DSc)
Zuhra REYMOVA, y.sc.d., (DSc)
Karligash UMAROVA, y.sc.d., (DSc)
Xəlil İsmayıl oğlu İsmayılov, ist. sc.d, prof. (Ozarbayjon)
Anvar ABDULLAEV, ist.sc.d, dots.
Makset KARLIBAEV, t.f.d., k.i.x.
Kazimbek TUKHTABEKOV, t.f.d., (PhD)
Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.
Shoira NURULLAEVA, c. of h. sciences, Assoc. Prof.
Mamlakat JUMANIYAZOVA, c. of h. sciences, Assoc. Prof.
Konul Bunyadzoda, Doctor of Philosophy,
(AMEA) Corresponding Member (Ozarbayjon)
Bakhtiyar KARIMOV, phiosl.sc.d., prof.
Marat NIYOZIMBETOV, philos.sc.d.
Odilbek RADJAPOV, philos.sc..d., (PhD)
Mangubek URAZMETOV, philos.sc.d., (PhD)
Zarifboy DOSIMOV, Phil.sc.d., prof.
Olmos ULVI Binnatova , Phil. f.sc.d., prof. (Ozarbayjon)
Azamat PRIMOV, Phil. sc.d., (DSc), professor
Nasibullina Nurida Shaydullovna, can. of phil (Russiya)
Shukurjon Norbayeva, Phil. sc.d., (DSc)
Bekposhsha RAKHIMOVA, can. of phil.sc, dots (PhD)
Qabil MAMBETOV, phil.sc.n. (PhD)
Vahab Rakhmonov, f.sc.n., dots.
Doniyor YULDASHEV, Phil. sc.d., (DSc)
Farrux Abbas oglu Rüstamov, p.sc.d, prof., (Ozarbayjon)
Kazakboy YOLDASHEV, p.sc.d., prof.
Qakhraman IBADULLAEV, p.sc.d., (DSc)
Masharib ABDULLAEV, of art.sc.c., (DSc), k.i.x.
Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)
Rana Hamid qızı Qadirova, Psychol.sc.d., prof.(Ozarbayjon)
Nargis ATABAEVA, Psychol.sc.d., (DSc)
Dilafruz QARSHIEVA, Psychol.scd., (DSc)

COMMUNITY COUNCIL:
Sirojiddin SAYID
Muhammad Ali
Kengesboy KARIMOV
Iqbal MIRZA
Kurban SHONIAZOV
Orozboy ABDURAHMANOV
Muratboy JUMANOV
Literary Advisor:
Gulistan MATYOQUBOVA
Painter:
Alibek ABDURAHMANOV
Page editor:
Ghiyaziddin O'NAROV

Our address: Republic of Karakalpakstan,
Beruni district.
Website: https://tamaddunnuri.uz
e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.
Telegram channel: https://t.me/tamaddunnuri
Phone: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.
The editorial board is an official member of Crossref DOI and has the prefix 10.69691 DOI. Each publication and scientific article is assigned an individual Crossref DOI number.
Paper size 60x84 ⅛. Publisher's scoreboard 28. The index is 960.
It was published in the printing house of "ADAD PLUS" LLC. The number is 300 pieces.
Chilonzor street, 28, Tashkent city. 2026, No.2 (77).
This issue was paged on the computer of "Tamaddun Nuri" editorial office. Order #33. When copying from the magazine, it must be noted that it was taken from "Tamaddun Nuri". The authors are responsible for the accuracy of the information in the text and advertisements. Manuscripts received by the editors will be edited, not reviewed, and not returned to the author.

“Tamaddun nuri " magazine is indexed in the Google Scholar base. This helps to increase the scientific prestige of the Journal and to promote the scientific work of the authors on a large scale.
Through Google Scholar, researchers and scientists will be able to search and link articles published in the Journal "Tamaddun nuri".

Crossref DOI-10.69691

ISSN-2181-8258

Impakt faktor-9.347

SLIB.UZ

BIZNI IJTIMOIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:

MUNDARIJA

07.00.00 - “TARIX”

Karimov Zafar Bekturdiyevich. O‘zbekiston hududida antik davr jamiyatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti va etnik-madaniy munosabatlari 15
Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich. Mustaqillik yillarida o‘zbekistonda bosma ommaviy axborot vositalari taraqqiyoti: tarixiy tahlil 25
Turdaliyeva Muhayyo Mahammadaliyevna. Tarixni o‘rganishda media vositalarining ta’siri 42
Madraximov Zoxid Sharofovich. Qo‘qon xonligi savdo aloqalarida hind va afg‘onlarning ishtiroki 74
Bobojanova Gulhayo Abdirim qizi. Davriy matbuotni xalq orasida tarqatish yo‘llari va uning mintaqa bilan bog‘liqlik shakllari (1930-1950) 82
Saydatov Oybek. Mustaqillikning ikkinchi dekadasida temir yo‘l tarmoqlari holati 95
Davlatova Shoira. Alixonto`ra Sog`uniyning “Turkiston qayg‘usi” asari – milliy mustaqillik haqida muhim manba 115
Xomidova Kamola Akbarovna. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar 143
Matyoqubov Nurbek. Shahar temir yo‘l transporti – metropolitenlar tarixiga nazar 149
Majidov Umedjon Abduraxmonovich. Pandnoma asarlarining vujudga kelish omillari 185
Nosirova Sitora Shuxrat qizi. Surxon-sherobod vohasida xalq og‘zaki ijodi orqali shakllangan fenologik bilimlar va ularning ijtimoiy ahamiyati 196
Салижанова Гулнара Фазиловна. Қорахонийлар ҳукмронлиги давридаги олий таълим масканларининг тарихий таҳлили 220
Ro‘ziyeva Tamara Shukurboyevna. “Tuhafi ahli Buxoro” asarida Buxoro amirligidagi ijtimoiy jarayonlarning yoritilishi 231
Ochilova Gulmira Mardonovna. Mahmudxo‘ja Behbudiyning Turkiston aholisining ijtimoiy hayoti borasidagi qarashlari 238
Ro‘ziyeva Muxlisa Bahodirovna. Navoiy viloyatida bolalar va o‘smirlar sporti taraqqiyotining tarixiy tahlili 245
Абдуллаев Анвар Атамуратович. Амударё вилоятидаги айрим жазо органлари фаолияти ҳақида (XX асрнинг 20-йиллари) 268
Matyakubova Shaxodat Xamidjanovna. Ilk va rivojlangan o‘rta asrlarda Amudaryo havzasi qal’alarida hunarmandchilik, me’morchilik va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (v–xi asrlar misolida) 273
Қадамбаев Шаҳриёр. Устюрт платоси географик ҳолати хусусида 309
Matyakubov Ikrom Botirovich. Erta insoniyat tarixi: zhoukoudian, Yanshao madaniyati va Longshan madaniyati misolida 328
Fayzullayeva Gulrux Uchqunovna. Abu Rayhon Beruniy haqida 331
Avazov Ozod Rajabbayevich. Xorazm viloyatida irrigatsiya sanoati tarixidan 337
Azodov Azad Omonboy o‘g‘li. Suyak o‘ymakorligi san’ati va tarixi 341
Sadullayev Baxram Pulatovich. Azodov Azad Omonboy o‘g‘li. Zarliq Eshon Bobo o‘rta asr Xorazm urbanizatsiyasi tarixiga oid arxeologik manba sifatida 345
Allamuratov Shuxrat Ashurovich. Amudaryo harbiy flotiliyasining tashkil etilishi 378
Xo‘janazarov Absalom Z. Mustaqillikning dastlabki yillarida Surxondaryo viloyatida tibbiyot tizimini kadrlar bilan ta’minlash muammolari 381
Ashurova Mahbuba Axtamovna. Ijtimoiy integratsiya, madaniy muloqot va millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashda muhim vosita–muzey 396
G‘ulomov Nurmuxammad M. Farg‘ona vodiysida antik davrda kechgan tarixiy jarayonlar va hududning arxeologik o‘rganilish tarixi 422
Buronov Olim Murodullayevich. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida qishloq aholisi salomatligini muhofaza qilish tadbirlari 435
Axmedov Bekzod Abdiraxmonovich. Butunittifoq qorako‘lchilik ilmiy–tadqiqot instituti faoliyati (Samarqand misolida) 438
Матякубов Шоназар Собирович. Хива хонлиги архиви ҳужжатлари Қўнғиротлар сулоласи хонлари бошқаруви даврини ўрганиш учун ноёб илмий манба 447
Kurbanov Ravshan Raimjonovich. Mustaqillik yillarida Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlarida yoshlar tarkibi va demografik ko‘rsatkichlar tahlili 451

09.00.00 - “FALSAFA”

Oripov Shuxratjon Orip o‘g‘li. Jamiyatni barqaror rivojlantirishda ma’naviy yetuk rahbarlik fenomeni 32
Ergashev Abdujalil Abdurasul o‘g‘li. Yangi O‘zbekistonning ma’naviy modernizatsiyada “Tarbiya” fanining o‘rni 35
Temirova Nilufar Erkinovna. Insonning o‘z-o‘zidan begonalashuvi va yolg‘izlik omillari 45
G‘ulomova Ruxsora Buriyevna. Ekologik muammolarning barqaror rivojlanishga ta’siri 119
Qurbonov Tohir Hamdamovich. Ijtimoiy qo‘rquv fenomeni va uni bartaraf etishning falsafiy zarurati 172
Muradova Aziza Mamadjon qizi. Fitratning o‘chmas chirog‘i: avlodlarda davom etgan ma’rifat 176
Nazarov Ravshan Nazarovich. Ijtimoiy tarmoqlar salbiy jihatlari va oqibatlari 179
Ахмедов Фирдавс Камол ўғли. Машинавий ўқитиш тушунчаси, моҳияти ва алгоритмлар таснифи 182
Turayeva Aziza Pulatovna. Oilalarga qaratilgan ijtimoiy siyosat va uning mohiyati 257
Rajabov Alisher Shavkatovich. Sa’diddin Hamaviy ma’naviy merosida nafs haqidagi tasavvufiy-falsafiy qarashlarning namoyon bo‘lishi 264
O’razmetov Mangubek Tursunbayevich. Xoja Ahmad Yassaviy qarashlarida ontologik va gnoseologik g‘oyalarning aks etishi 285
Olimova Muxtasar Rayimovna. Utopik davlatlar va ularning asosiy konsepsiyalari 288
Sultamuratov Begis Utebayevich. Raqamli media va ekologik ong: ijtimoiy tarmoqlar orqali “yashil” xulq-atvorni shakllantirish mexanizmlari 297
Sagindikov Djubatxan Nauirzovich. Raqamli davr sharoitida yoshlar ma’naviy immuniteti identitet erkinlik va mas’uliyat muammolari 301
Rajabova Rohila Zakirovna. Mang‘itlar sulolasi davrida falsafiy qarashlar 312
Kayumova Lobar Zayniddin qizi. Yadroviy poligonlardan ko‘ra mafkuraviy poligonlar xavfli ekanligi – globallashuv asoslagan haqiqat 325
Omonov Bahodir Nurillayevich. Ekologik ta’limning shaxs ma’naviyatiga ta’siri 372
Azamova Sitora Ayonovna. Ekologik madaniyatni rivojlantirishda ekologik tarbiyaning falsafiy-metodologik modeli va istiqbollari 375
Xoliqov Lazizjon Maxmud o‘g‘li. Ijtimoiy davlat sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari 432

10.00.00 - "FILOLOGIYA"

Yadigarova Sitora Baxramovna. Rus va tojik tillarida kiyim-kechak nomlarining qiyosiy tahlili.....9
Sa'dullayeva Shahlo Anvarovna. O'qituvchi obrazini tadqiq qilishda xronotopning nazariy va badiiy ahamiyati.....21
Boboyev Ulash Ne'matovich. Gazeta sarlavhalari nomlanishining lingvopragmatik xususiyatlari.....48
Xolmuradova Jamila Irmetovna. Xalq dostonlari tilini etnolingvistik diskurs sifatida o'rganish.....65
Jumaboyeva Maqsuda Elmurod qizi. Ozod Sharafiddinovning adabiyotshunoslik va adabiy tanqidchilikdagi o'rni.....68
Xolliyeva Mashxura Erkinjonovna. Ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvning samaradorligi.....71
Yuldashev Doniyor Taxirovich. "Oshiqnoma" dostonlaridagi dualizmga asoslanuvchi aforizmlarning lingvofolkloristik tahlili.....78
Jumaniyozova Sohiba Shuxratovna. Siyosiy nutqda stilistik vositalarning funksional va nazariy xususiyatlari.....100
Mamatov Shukurllo. "Ekotizim" tushunchasi o'zbek va ingliz tillarida.....106
Eshmirzayeva Nozima Baxodir qizi. Media slengining ikki tilli lug'atlarda berilishi: qiyosiy-leksikografik tahlil (ingliz va o'zbek tillari misolida).....111
Raxmatova Marjona. Ozod Sharafiddinov tanqidiy merosining adabiyotshunoslikdagi o'rni va xususiyatlari.....122
Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi. Turizmga oid matnlarda umummilliy, mahalliy, milliy-madaniy birliklar ifodasi.....125
Safarova Madina Vali qizi. Mustaqillik davri she'riyatida erkinlik g'oyasining badiiy talqini.....130
Абдураҳмонов Алибек Зокирович. "Алифбеи тайр" ёхуд "Лисонут тайр": янгича талқин ва таҳлиллар.....135
Shadmanova Alyona Sergeyevna. K.G. Paustovskiy hikoyalarida yechimning badiiy roli.....155
Xujaxonova Mushtariybonu Orif qizi. Kasbiy leksikonni o'zlashtirishning psixolingvistik asoslari.....189
Egamberdiyeva Kamola. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligida tillaniso ijodining xos jihatlari.....192
Karimbaeva Mavluda Madaminovna. O'zbek internet diskursida anglisizmlarning morfologik moslashuvi va korpusga asoslangan tahlil.....207
Atabaeva Gózzal Bazarbaevna. Frazeologizm quramínda sakramental sanlardíń mifologiyalíq mánileri.....213
Maxmudova Umriniso Mansurbekovna. "Ot egasi" hikoyasida milliy qadriyatlarning ifodalanishi va ularni o'qitish metodikasi.....261
Xudayberganova Diana Vladimirovna. Abdulla Qahhorning "O'jar" hikoyasini o'qitish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.....294
Ollanazarova Mashxura Ilxamboy qizi. Nemis tilidagi "wirklich", „tatsächlich", „vielleicht" modal so'zlarining semantik xususiyatlari.....305
Qahhorova Guliston Abdug'affor qizi. Raqamli reklama diskursida stilistik vositalarning emotsional va kognitiv ta'sir mexanizmlari: lingvopragmatik va psixosemantik tahlil.....315
Бозорова Нигора Жуманазаровна. Интерактивные методы в преподавании русского языка.....322
Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon qizi. Bobur obrazining dramatik tasviridagi o'ziga xoslik.....334
Berdiyeva Zulayxo Ochilovna. Makroxronotop. Hikoya janrida epik kompozitsiya xronotopining badiiy tadqiqi.....351
Arifova Umida Abdumalikovna. Referensial muqobilsiz leksika va uning tarjimashunoslikda tutgan o'rni.....354
Abdullayeva Nasiba. Koreys tilida shartli konstruksiyalarning semantikasi.....357
Abdullayeva Feruza Baxodir qizi. Zamonaviy koreys nasrida mahalliy tasavvurning badiiy talqini.....360
Toshmuhammedova Latofat. Badiiy asar tili va uni o'rganish masalalari.....364
Amirqulova Nargiza. Ingliz tilidagi frazeologizmlar tarkibida qo'shma so'zlarning kognitiv semantik va pragmatik xususiyatlari.....368
Normurodova Farog'at Tojimurod qizi. O'zbek va ingliz tillaridagi milliy kiyim nomlari bilan bog'liq urf-odatlar va ularda madaniy birliklarning ifodalanishi.....384
Tursunova Aziza Murod qizi. "Qordagi lola" hikoyasining badiiy kompozitsiyasi va g'oyaviy mazmuni.....399
Boboqulova Zulxumor Fayzullayevna. Isajon Sultonning "Abu Rayhon Beruniy" romanida obraz yaratish mahorati.....402
Kenjayeva Zuhra Taxirovna. Dialogik va monologic nutq: lingvistik tahlil.....406
Kenjayeva Fotima Taxirovna. Ichki ishlar organlari xodimlari muloqotining kinetik va paralingvistik xususiyatlari.....409
Xudoyorova Nafisa Baxtiyor qizi. Ingliz va o'zbek ma'rifatparvarlik dramaturgiyasida ijtimoiy va axloqiy g'oyalarning badiiy-estetik talqini.....426
Salomova Gavhar Abdinazarovna. Ingliz va o'zbek tillarida badiiy adabiyotda qisqartmalardan foydalanishning pragmatik jihati.....444
Dilliyev Xurshid Xushvaqt o'g'li. Turk tilini ikkinchi chet tili sifatida o'qitish tajribasi (xalqaro tajriba misolida).....457
Yuldashev Xusanboy Ibragimovich. Ta'lim sohasidagi rasmiy yozishmalarning jamiyat hayotidagi o'rni va ularni tadqiq qilish muammolari.....461

12.00..00 – "YURIDIK FANLAR"

Mirzarahimova Gulsanam. Brend ishonchliligi va jamoatchilik fikrini shakllantirishda PR kommunikatsiyalarining o'rni.....38
Narbayeva Nodira Jumanazarovna. Latent jinoyatchilikni shakllantiruvchi madaniy omillar.....53
Muhamatqulova Parizodabegim Mamatjonovna. Kibersportdagi intellektual huquqlar: o'yinlar, strimlar va eshittirishlar uchun muallif huquqlari..82
Muhamatqulova Parizodabegim Mamatjonovna. O'zbekiston qonunchiligini xalqaro kibersport standartlari bilan uyg'unlashtirish istiqbollari.....115
Ahmedov Jamoliddin Davronovich. Nizolarni hal etishda isbotlash instituti va da'vo (pretensiya) tartibining o'zaro nisbati.....281

13.00.00 – “PEDAGOGIKA”

Abdunabiyev Sunnat Ne’mat o‘g‘li. Sayyid Burhoniddin Termiziy ma’naviy merosining talaba-yoshlar axloqiy fazilatlarini shakllantirishdagi roli....12
Rustamova Maftuna Anvarjon qizi. Maktab geografiya darslari va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan audiovizual vositalarning turlari va tuzilmalari.....56
Rahimova Shoira, Imamova Muqaddas Yusupbay qizi. Axloqiy tarbiyada gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik jihatlari.....62
Adambayeva Maxliyo Sadullayevna. Ibn Rushdning “Tahafut al-tahafut” va “Al-muqaddimah” asarlarida ta’lim-tarbiya masalalari talqini.....87
Xushiyeva Gavxar Mamatkarimovna. Kichik yoshdagi bolalarda tarixiy tasavvurlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari.....91
Atajanova Gulshat Matvapaevna. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarning shakllanganlik darajasini aniqlash.....97
Zayniddinova Muborak To‘lagan qizi. O‘qish savodxonligi darslarida kompetensiya konsepsiyasining pedagogik talqini.....103
Xolto‘rayeva Feruza Kamolovna. Rus tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda loyiha faoliyati: turlari va metodik xususiyatlari.....146
Ashurova Nigina Alimdjanovna. Ingliz tilini shaxsiylashtirilgan tarzda o‘rganish uchun moslashuvchan raqamli texnologiyalar vositasi.....152
Abdullayev Dilshod Hamudullo o‘g‘li. Etnosportning barkamol shaxsni shakllantirishdagi roli va ijtimoiy ahamiyati.....158
Namazov Zafar Abduraximovich. O‘zbekistonda ayollar futbolini ommalashtirishning samarali yo‘llari.....161
Gayupova Saodat Xamidovna. Pedagog kadrlar tayyorlashni tizim sifatida loyihalash: murakkablikni boshqarishning metodologik asoslari.....164
Sabirova Charos, Shohista Allaberganova. Talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirishda patogen tafakkurni bartaraf etish yo‘llari.....168
Ibraimova Gulmira Askarovna. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda refleksiv yondashuvning strukturaviy jihatlari va uni amaliy tatbiq etish mexanizmi.....199
Абдуллаев Дилшод Хамудулло угли. Современные проблемы в теории и технологии физического воспитания дошкольников.....204
Namazov Zafar Abduraximovich. Malakali futbolchi ayollarni tayyorlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo‘llari.....211
Elmuradova Surayyo Abdijalilovna. Talaba yoshlarda korrupsiyaga qarshi immunitetini shakllantirishning pedagogik strategiyalari: milliy va xalqaro tajriba.....217
Xamidova Farangiz O‘ktamovna, Ruzimurotova Yulduz Shomurotovna. Hamshiralik ta’limida simulyatsion texnologiyalar asosida kasbiy kompetensiyani shakllantirish samaradorligi.....234
Usarova Marg‘uba Nazar qizi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish.....241
Paziljanova Zulfiya Sabirjanovna. “Menschen” o‘quv majmuasining madaniyatlararo muloqotga oid tahlili.....248
Nazarov Rustam Nurali o‘g‘li. Yosh futbolchilarning jismoniy qobiliyatlarini o‘rganish metodikasi.....251
Abduraxmanova Jummagul Nomazovna. Xalq ta‘limi tizimining XX asr 30–yillaridagi holati.....254
Komolova Gulhayo Shukirillo qizi. Bo‘lajak muhandislarning mantiqiy tafakkurining rivojlanishiga motivatsion omillarning ta’siri.....277
Babanazarova Manzura Satullaevna. Elektron ta’lim muhitida raqamli va axborot texnologiyalardan foydalanish metodikasi.....291
Farmonova Shabon Muxamadovna. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda xorij tajribalaridan foydalanish.....318
Fayzullayeva Lobar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish metodikasi..387
Turdiyeva Dilorom Soliyevna. Eshitish qobiliyati cheklangan talabalarni qo‘llab-quvvatlash.....390
Sunnatova Sarvinoz. Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarni shakllantirish masalalari.....393
Abdullayeva Sanobar Xamzayevna, **Ergashev Nurmuxammad Jalilovich.** Ichki ishlar organ xodimlari uchun xorijiy tillarni o‘rganish va og‘zaki nutqni rivojlantirishning samarali usullari.....412
Kurganbayeva Aziza Avazovna. Yuridik tarjimani o‘rgatish: parallel matnlar va qiyosiy huquqshunoslik.....416
Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li. Sharq mutafakkirlarining falsafiy qarashlari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim pedagogik omili sifatida.....429

19.00.00- “PSIXOLOGIYA”

Juraeva Vazira Farhodovna. Diniy yo‘naltirilgan oilalarda tarbiya topgan talabalar konform xulq-atvorining xususiyatlari.....29
Zayirkulova Nozima Ilyas qizi. Alohida ta’limga ehtiyoji bor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sensor profilini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari.....38
Urozbayeva Oynura Adilbekovna. Raqamli agressiya va bolalar salomatligiga ta’siri: muammo va yechimlar.....53
Rajabova Nigora Azamat qizi. O‘smirlarni axboriy taxdilardan himoya qilishning psixologik xususiyatlari.....59
Xudaynazarov Nuraddin Shavkatovich. Global muammolar, ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy falsafaning integrativ tahlili.....441

Jurnal 2016-yil 28-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0843 raqami bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan. O‘zbekiston Respublikasi OAK tomonidan 2019-yil 30-yanvarda chop etilgan OAK rayosati qarorlari bilan tasdiqlangan ro‘yxatga ko‘ra 07.00.00 - “Tarix”, 09.00.00 - “Falsafa”, 10.00.00 -“Filologiya” ixtisosligi bo‘yicha; OAK Rayosatining 2023-yil 31-oktyabrdagi 345-son qarori bilan 12.00.00 – “Yuridik fanlar”, 13.00.00 – “Pedagogika”, 19.00.00 – “Psixologiya” ixtisosliklari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

TABLE OF CONTENTS

07.00.00 - "HISTORY"

Zafar Bekturdiyevich Karimov. Antique period society in the territory of Uzbekistan: political, socio-economic conditions and ethno-cultural relations....15
Abdurakhmonov Mirsaid Muzaffarovich. The development of print mass media in Uzbekistan: a historical analysis....25
Turdaliyeva Muhayyo Mahammadaliyevna. The impact of media tools in studying history....42
Madrakhimov Zoxid Sharofovich. The participation of indians and afghanistans in the trade relations of the Kokan khanate....74
Bobojanova Gulhayo Abdirim qizi. Methods of distributing periodical press among the public and forms of its connection with the region (1930-1950)....82
Saydatov Oybek. The state of railway networks in the second decade of independence....95
Davlatova Shoira. Alixonto'ra Sog'uniy's "Turkistan qayg'usi" – a significant source on national independence....116
Khomidova Kamola Akbarovna. Measures to support women and strengthen the institution of family in Uzbekistan during the years of independence....143
Matyokubov Nurbek. Urban railway transport – a look at the history of metropolitan states....149
Majidov Umedjon Abdurakhmonovich. Factors of the creation of pandnoma works....185
Nosirova Sitora Shukhrat qizi. Phenological knowledge formed through folk oral culture in the Surkhan-Sherabod oasis and its social significa.196
Salijanova Gulnara Fazilovna. Historical analysis of higher educational institutions during the rule of the Karakhanis....221
Ro'ziyeva Tamara Shukurbaevna. Representation of social processes in the emirate of bukhara in the work "Tuhafi ahli Bukhoro"....231
Ochilova Gulmira Mardonovna. Mahmudhodja Behbudi's views on the social life of the population of Turkestan....238
Ruzieva Mukhlisa Bakhodir kizi. A Historical analysis of the development of children and youth sports in Navoi Region (Uzbekistan)....245
Abdullaev Anvar Atamuratovich. On the activities of some penal organs in the amudarya region (20s of the XX century)....268
Matyakubova Shakhodat Khamidjanovna. Craftsmanship, architecture and socio-economic relations in the castles of the Amu darya basin in the early and high middles (on the example of the 5th–11th centuries)....273
Kadambaev Shahriyor. On the geographical situation of the Ustuyurt plateau....309
Matyakubov Ikrom Botirovich. Early human history: a case study of Zhoukoudian, yangshao culture, and Longshan culture....328
Fayzullayeva Gulrukh Uchqunovna About Abu Raykhon Beruni....331
Avazov Ozod Rajabbayevich. From the history of the irrigation industry in the Khoresm region....337
Azodov Azad Omonboy ogli. The art and history of bone carving....341
Bakhram Pulatovich Sadullayev. **Azod Azodov Omonboy ogli.** Zarlyk Ishan-Baba as an archaeological source on the history of urbanization in medieval Khorezm....345
Allamuratov Shukhrat Ashurovich. The establishment of the amu darya military flotilla....378
Khujanazarov Absalam Z. Problems of staffing the healthcare system in Surkhandarya region during the early years of independence....381
Ashurova Mahbuba A. Museums are an important tool in strengthening social integration, cultural communication and interethnic harmony..396
Gulamov Nurmukhammad. Historical processes in the ancient period of the fergana valley and the history of archaeological study of the regi..422
Buronov Olim Murodullayevich. Measures to protect the health of the rural population in uzbekistan during the years of independence....435
Akhmedov Bekzod Abdirakhmonovich. Activities of the all-union scientific-research institute of karakulism (on the example of Samarkand)....438
Matyakubov Shonazar Sobirovich. Archive documents of the Khiva khanate are a unique scientific source for studying the period of the rule of the khans of the Kungurot dynasty....447
Kurbanov Ravshan Raimjonovich. Analysis of the youth composition and demographic indicators in Andijan, Namangan, and Fergana regions during the years of independence....451

09.00.00 - "PHILOSOPHY"

Oripov Shuxratjon Orip o'g'li. The phenomenon of morally mature leadership in sustainable social development....32
Ergashev Abdujalil Abdurasul ugli. The role of the "Upbringing" subject in the spiritual modernization of new Uzbekistan....35
Temirova Nilufar Erkinovna. Human self-alienation and the factors of loneliness....45
Gulomova Rukhsora Burievna. The impact of environmental problems on sustainable development....119
Tohir Hamdamovich Qurbonov. The phenomenon of social fear and the philosophical necessity of overcoming it....172
Murodova Aziza Mamadjon qizi. Fitrat's everlasting light: enlightenment continuing through generations....176
Nazarov Ravshan Nazarovich. Negative aspects and consequences of social networks....179
Akhmedov Firdavs, Son of Kamal. Machine learning concept, essence and classification of algorithms....182
Turayeva Aziza Pulatovna. Social policy aimed at families and its essence....257
Rajabov Alisher Shavkatovich. The manifestation of successive-philosophical views about the self in the spiritual heritage of Sa'diddin Khamavi....264
Orazmetov Mangubek Tursunbayevich. The reflection of ontological and gnesological ideas in the viyews of Khoja Ahmad Yassavi....285
Olimova Mukhtasar Rayimovna. Utopian states and their basic concepts....288
Sultamuratov Begis. Digital media and ecological consciousness: mechanisms for forming "green" behavior through social networks....297
Sagindikov Dzhubatkhan Nauirzovich. Spiritual immunity of youth in the digital age: problems of identity, freedom, and responsibility....301
Rajabova Rohila Zakirovna. Philosophical viyews during the Mangids dynasty....312
Kayumova Lobar Zayniddin qizi. Ideological test sites are more dangerous than nuclear test sites – a reality substantiated by globalization....325
Bahodir Nurillayevich Omonov. The impact of ecological education on personal spirituality....372
Azamova Sitora A. Philosophical and methodological model and prospects of ecological education in the development of ecological culture....375
Kholikov Lazizzjon Makhmud ogli. Formation and development trends of the social protection system of the population in the conditions of a social state....432

10.00.00 - "PHILOLOGY"

Sitora Bakhramovna Yadigarova. Comparative analysis of clothing names in russian and tajik languages.....9
Sadullaeva Shahlo Anvarovna. Theoretical and artistic significance of the chronotope in the study of the teacher figure.....21
Boboyev Ulash Ne'matovich. Linguopragmatic features of newspaper headline naming.....48
Kholmuradova Jamila Irmetovna. Studying the language of folk epics as an ethnolinguistic discourse.....65
Jumaboyeva Maqsuda Elmurodovna. The role of Ozod Sharafiddinov in literary studies and literary criticism.....68
Khollieva Mashkhura Erkinjonovna. The effectiveness of the communicative approach in teaching English.....71
Yuldashev Doniyor Takhirovich. Linguistic folklore analysis of aphorisms based on dualism in the epic poems "Ashiknama".....78
Jumaniyozova Sohiba Shuxratovna. Functional and theoretical characteristics of stylistic devices in political speech.....100
Mamatov Shukurllo. "Ecosystem" as a concept in uzbek and english languages.....106
Eshmirzayeva Nozima Baxodir qizi. Representation of media slang in bilingual dictionaries: a comparative lexicographic analysis (based on the english and uzbek languages).....111
Rakhmatova Marjona. The role and distinctive features of Ozod Sharafiddinov's critical legacy in modern literary studies.....122
Nilufar Abdurakhmonova Zaynobiddin qizi. The expression of universal-national, local, and national-cultural units in tourism-related texts.....125
Safarova Madina Vali qizi. Artistic interpretation of the idea of freedom in the poetry of the independence period.....130
Abdurahmanov Alibek Zokirovich. "Alifbei tayr" or "Lisonut tayr": a new interpretation and analysis.....135
Shadmanova Alyona Sergeevna. The artistic role of the denouement in the short stories of K.G.Paustovsky.....155
Majidov Umedjon Abdurakhmonovich. Factors of the creation of pandnoma works.....184
Khujakhonova Mushtariybonu Orif qizi. Psycholinguistic foundations of mastering professional lexicon.....189
Egamberdiyeva Kamola. Specific aspects of literature in modern Uzbekistan storytelling.....192
Karimbaeva Mavluda Madaminovna. Morphological adaptation of anglicisms in uzbek internet discourse and a corpus-based analysis.....207
Atabaeva Gozzal Bazarbaevna. Mythological meanings of sacrumental numbers in phraseology.....213
Makhmudova Umriniso Mansurbekovna. Expression of national values in the story "the owner of the horse" and methods of teaching them.....261
Khudayberganova Diana Vladimirovna. Developing critical thinking through teaching Abdulla Qahhor's story "O'Jar".....294
Ollanazarova Mashxura Ilxamboy qizi. Semantic features of the german modal words "wirklich", "tatsächlich" and "vielleicht".....305
Kahhorova Gulistan Abdugaffor kizi. Mechanisms of emotional and cognitive influence of stylistic means in digital advertising discourse: linguvopragmatic and psychosemantic analysis.....315
Bozorova Nigora Jumanazarovna. Interactive methods in teaching russian language.....322
Usmanova Ziyodakhon Ilkhomjon qizi. The specific features of the dramatic portrayal of Babur's image.....334
Berdiyeva Zulayxo Ochilovna. Macrochronotope. An artistic study of the chronotope of epic composition in the genre of story.....351
Arifova Umida Abdumalikovna. Referential non-equivalent vocabulary and its role in translation studies.....354
Abdullaeva Nasiba. Semantics of conditional constructions In the korean language.....357
Abdullayeva Feruza Baxodir qizi. Modern korean prose and the artistic interpretation of local imagery.....360
Toshmuhammedova Latofat. Issues of the language of the work of art and its study.....364
Amirqulova Nargiza. Cognitive semantic and pragmatic features of compound words in english phraseological units.....368
Normurodova Farogat Tojimurod qizi. Names of national clothing in uzbek and english and the associated customs, and their expression of cultural unity.....384
Tursunova Aziza Murod qizi. The artistic composition and ideological content of the story "The tulip in the snow".....399
Bobokulova Zulkhumor Fayzullayevna. The skill of creating image in Isazon Sultan's novel "Abu Raihon Beruniy".....402
Kenjaeva Zukhra Takhirovna. Dialogic and monologic speech: a linguistic exploration.....406
Kenjaeva Fotima Takhirovna. Kinetic and paralinguistic characteristics of communication of internal affairs officers.....409
Khudoyorova Nafisa Bakhtiyor qizi. Artistic and aesthetic representation of social and moral ideas in english and uzbek enlightenment drama...426
Salomova Gavhar Abdinazarovna. The pragmatic aspect of using abbreviations in literary texts in english and uzbek.....444
Dilliyev Khurshid Khushvaqt ogli. Experience of teaching turkish as a second foreign language (in the example of international experience).....457
Yuldashev Khusanboy Ibragimovich. The place of official correspondence related to the field of education in social life and the problems of their study.....461

12.00.00. - "LEGAL SCIENCES"

Mirzarakhimova Gulsanam. The role of PR communications in forming brand trust and public opinion.....38
Narbaeva Nodira Jumanazarovna. Cultural factors shaping latent crime.....53
Mukhamatkulova Parizodabegim Mamatjonovna. Intellectual rights in esports: copyrights for games, streams, and broadcasts.....82
Mukhamatkulova Parizodabegim Mamatjonovna. Prospects for harmonizing uzbekistan's legislation with international esports standards.....115
Akhmedov Jamoliddin Davronovich. The correlation between the institution of proof and the claim (pre-trial) procedure for dispute resolution.....281

13.00.00. - "PEDAGOGY"

Abdunabiyev Sunnat Ne'mat ogli. The role of Sayyid Burhoniddin Termiziy's spiritual heritage in shaping the moral qualities of students.....12
Rustamova Maftuna Anvarjon qizi. Types and structures of audiovisual aids used in school geography lessons and extracurricular activities.....56
Rahimova Shoira, Imamova Muqaddas Yusupbay kizi. Methodological aspects of using gamification technologies in moral education.....62
Adambayeva Maxliyo Sadullayevna. Interpretation of educational and upbringing issues in Ibn Rushd's "Tahafut al-tahafut" and "Al-muqaddimah".....87
Khushiyeva Gavkhar Mamatkarimovna. Pedagogical mechanisms for forming historical concepts in young children.....91
Atajanova Gulshat Matvapaevna. Identification of the level of moral qualities formation in senior preschool children.....97
Zayniddinova Muborak Tolagan kizi. Tion of the concept of competence in reading literacy lessons.....103
Kholturayeva Feruza Kamolovna. Project-based learning in teaching russian as a foreign language: typology and methodological features.....146
Ashurova Nigina Alimdjanovna. Adaptive digital technologies as a tool for personalized english language learning.....152
Abdullayev Dilshod Khamudullo o'g'li. The role of ethnosport in the formation of a harmoniously developed personality and its social significan158
Nomozov Zafar Abdurakhimovich. Effective ways to promote women's football in Uzbekistan.....161
Gayupova Saodat Khamidovna. Designing pedagogical personnel training as a system: methodological foundations of complexity management.164
Sabirova Charos, Shohista Allaberganova. Ways to eliminate pathogenic thinking in developing sanogenic thinking among students.....168
Ibraimova Gulmira Askarovna. Structural aspects of the reflexive approach in developing communicative competence of primary school students and the mechanism of its practical implementation.....199
Abdullayev Dilshod Hamudullo o'g'li. Contemporary issues in the theory and technology of physical education of preschoolers.....204
Nomozov Zafar Abdurakhimovich. Ways to use modern technologies in training qualified female football players.....211
Elmuradova Surayyo Abdijalilovna. Pedagogical strategies for forming anti-corruption immunity in student youth: national and international experience.....217
Khamidova Farangiz Uktamovna, Ruzimurotova Yulduz Shomurotovna. Effectiveness of forming professional competence based on simulation technologies in nursing education.....234
Usarova Marguba Nazar kizi. Developing reading literacy in primary grades based on international assessment programs.....241
Pazilzhanova Zulfiya Sabirzhanovna. Analysis of the "menschen" coursebook set from the perspective of intercultural communication.....248
Nazarov Rustam Nurali o'g'li. Methodology for studying the mental abilities of young football players.....251
Abdurakhmanova Jummagul Nomazovna. The state of the public education system in the 1930s of the twentieth century.....254
Komolova Gulhauo Shukirillo kizi. The influence of motivational factors on the development of logical thinking of future engineers.....277
Babanazarova Manzura Satullaevna. Methodology of using digital and information technologies in an electronic learning environment.....291
Farmonova Shabon Mukhamadovna. Use of foreign experience in training future teachers.....318
Fayzullayeva Lobar. Methodology for developing communicative skills of primary school students based on modern approaches.....387
Turdieva Dilorom Solievna. Supporting students with hearing impairments.....390
Sunnatova Sarvinoz. Issues of forming national values in youth education.....393
Abdullaeva Sanobar Khamzaevna, Ergashev Nurmukhammad Jalilovich. Effective methods of learning foreign languages and developing oral speech for internal affairs officers.....412
Kurganbayeva Aziza Avazovna. Training in legal translation: parallel texts and comparative law.....416
Khudoyberdiyev Giyosiddin Bakhtiyor ogli. As an important pedagogical factor in developing valeological competences in future teachers based on the philosophical views of eastern thinkers.....429

19.00.00. - "PSYCHOLOGY"

Juraeva Vazira Farhodovna. Features of conformist behavior of students raised in religiously oriented families.....29
Zayirkulova Nozima Ilyas kizi. Pedagogical-psychological possibilities of developing sensory profile in primary grade students with special education needs.....38
Urozbayeva Oynura Adilbekovna. Digital aggression and impact on children's health: problems and solutions.....53
Rajabova Nigora Azamat qizi. Psychological features of protecting adolescents from informational attacks.....59
Hudaynazarov Nuraddin Shavkatovich. Global challenges in the context of an integrative analysis of social psychology and social philosophy.....441

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 801.82:81.302

COMPARATIVE ANALYSIS OF CLOTHING NAMES IN RUSSIAN AND TAJIK LANGUAGES

Sitora Bakhramovna Yadigarova,
Teacher at Termez University of Economics and Service
Doctor of Philology in Philosophy (PhD)

sitora.yadigarova@gmail.com
https://orcid.org/0009-0006-2725-6382

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НАЗВАНИЙ ОДЕЖДЫ В РУССКОМ И ТАДЖИКСКОМ ЯЗЫКАХ

Ядигарова Ситора Бахрамовна, преподаватель Термезского университета экономики и сервиса, доктор философии по филологии (PhD)

RUS VA TOJIK TILLARIDA KIYIM-KECHAK NOMLARINING QIYOSIY TAHLILI

Yadigarova Sitora Baxramovna,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Abstract: *A comparative analysis of the names of clothes in Russian and Tajik is given. The research identifies universal and specific properties in the clothing nomenclature when viewed from various angles. The research uses comparative, semantic, and etymological methods and relies on authoritative linguistic sources. The results are of relevance for translation studies, lexicography and teaching of languages. This article presents a comprehensive comparative analysis of names of garments in Russian and Tajik. The study aims to explore the semantic, etymological and linguocultural features of clothing terminology.*

Key words: *clothing terminology, russian language, tajik language, comparative analysis, semantic features, etymology, linguocultural aspects, lexical semantics, translation studies.*

Аннотация*: Представлен сравнительный анализ названий одежды в русском и таджикском языках. В исследовании выявляются универсальные и специфические свойства в номенклатуре одежды при рассмотрении с различных точек зрения. В работе используются сравнительный, семантический и этимологический методы и привлекаются авторитетные лингвистические источники. Полученные результаты имеют значение для переводоведения, лексикографии и преподавания языков. В данной статье представлен комплексный сравнительный анализ названий предметов одежды в русском и таджикском языках. Исследование направлено на изучение семантических, этимологических и лингвокультурных особенностей терминологии одежды.*

Ключевые слова: *терминология одежды, русский язык, таджикский язык, сравнительный анализ, семантические особенности, этимология, лингвокультурные аспекты, лексическая семантика, переводоведение.*

Annotatsiya: *Rus va tojik tillaridagi kiyim nomlarining qiyosiy tahlili keltirilgan. Tadqiqot turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqilganda kiyim nomenklaturasidagi universal va o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlaydi. Tadqiqotda qiyosiy, semantik va etimologik metodlar qo‘llanilib, nufuzli lingvistik manbalarga asoslaniladi. Natijalar tarjimashunoslik, leksikografiya va tillarni o‘qitish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola rus va tojik tillaridagi kiyim nomlarining keng qamrovli qiyosiy tahlilini taqdim etadi. Tadqiqot kiyim terminologiyasining semantik, etimologik va lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *kiyim terminologiyasi, rus tili, tojik tili, qiyosiy tahlil, semantik xususiyatlar, etimologiya, lingvomadaniy jihatlar, leksik semantika, tarjimashunoslik.*

INTRODUCTION (ВВЕДЕНИЕ/KIRISH). The vocabulary of clothing occupies an important place in the lexical system of any language. As per according to Wierzbicka and V. A. Maslova, the vocabulary of material culture mirrors national mentality, historical experience and culture [1]. Clothing naming reveals traces of contacts, exchanges and trade relations. The Russian and Tajik languages have evolved in different linguistic-cultural environments, making their comparative analysis particularly relevant today. The clothing vocabulary holds an important place in the lexicon of any language. As per A. The vocabulary of material culture reflects a national mentality, historical experience, and cultural values Wierzbicka and V. A. Maslova. Names of clothing have traces of historical contact, trade relationship, and exchange. The Russian and Tajik languages are developed in different linguistic and cultural environments; therefore, their comparative analysis is particularly relevant. The vocabulary of the clothing occupies an essential place in the lexical system. As per A. The vocabulary related to material culture reflects the national mentality, historical experience and cultural values of a people (Wierzbicka, Maslova).

MATERIALS AND METHODS (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR). Not less important are the phraseological and lexical studies of V. V. Vinogradov [2], A. A. Potebnya. The lexical meaning, according to S. Stepanov, is context-bound. The words we use to describe clothing are part of everyday speech. They show how our society works. These words are a cultural marker. Terms for clothing are studied as identity markers in linguoculturology. Frazeological and lexical studies of V. V. Vinogradov, A. A. Potebnya, Yu. underlie this. S. Stepanov emphasis on lexical meaning is cultural meaning inseparable [3]. The vocabulary consisting of clothing words is everyday language, as well as a cultural marker. Clothing terms are studied in linguoculturology as specific identifiers of people’s nature and social status. The phraseological and lexical studies of V. V. Vinogradov, A. A. Potebnya. K. Afanasyeva. S. Stepanov notes that lexical meaning cannot be separated from culture [3]. While everyday terms used with respect to clothes have their own meaning, they are also a marker for culture. Linguoculturology deals with symbols of identity (personal and national) and social status.

DISCUSSION (ОБСУЖДЕНИЕ/MUHOKAMA). The analysis employs various research methods as follows. Sources for the data included explanatory dictionaries, etymological references, and bilingual dictionaries. The comparative analysis will deal with equivalence and borrowing, semantic shifts and stylistic usage.The research uses descriptive, comparative, semantic and etymological methods. The explanatory dictionaries, etymological sources, and bilingual Russian – Tajik dictionaries were used as material. The research applies descriptive, comparative, semantic, and etymological methods. Comparative analysis focused on equivalence, borrowing, semantic shifts, and stylistic usage. Lexical material was taken from explanatory dictionaries, etymological sources, and bilingual Russian -Tajik dictionaries. The comparative analysis concentrated on equivalence, borrowing, meaning changes and stylistic. The clothing terms for this activity consist of native Slavic words and borrowings. In my opinion many terms of clothing, according to Fasmer, came from the French, German, and English into Russian. For example “пальто”, “жакет”, “блузка” came from Russian uses productive suffixation to form diminutives, an emotional-expressive meaning, as in пальтишко a coat. The Russian clothing vocabulary consists of native Slavic words and numerous borrowings. As per according to Fasmer [5], many clothing terms came to Russian via French, German and English. For example, *coat, jacket, blouse*. Russian can form diminutives, such as the noun *“пальтишко”*, with productive suffixation, which serves to impart an emotional-expressive meaning. The clothing vocabulary of Russian is based mainly on native Slavic words, but it also contains numerous borrowings. In the opinion of M. According to Fasmer, the Russian language adopted many terms from French, German and English. For example,

“пальто,” “жакет,” “блузка”, etc. Russian employs productive suffixation to create diminutives like *‘пальтишко’* for emotional-expressive effects.

RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ/NATIJALAR). Tajik clothing terminology derives from the Persian word list. The like “либос”, “пироҳан” “шалвор” are of barn Persian. During the Soviet period, Tajik includes borrowings from Russian and international vocabulary. The names of traditional clothing are still in use today the clothing vocabulary of Tajik is in the Persian linguistic tradition. Words like “либос”, “пироҳан” and “шалвор” are Persian. Tajik also includes borrowings from Russian and foreign vocabulary, which was especially the case in the Soviet era. Traditional clothing names are still in active use today. Tajik clothing vocabulary has Persian linguistic tradition. Words such as “либос”, “пироҳан” and “шалвор” are of Persian origin. Tajik has been enriched by borrowings from Russian and international vocabulary, mostly during the Soviet period. Traditional Garment Names are still in use.

CONCLUSION (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA). Research highlights link between sartorial lexicon and cultural identity Russian and Tajik have a shared international vocabulary, but items that are culturally marked differ. The results of this study will greatly benefit translation studies, lexicography and intercultural communication fields.

REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ADABIYOTLAR RO‘YXATI)

1. Anna Wierzbicka, Semantics: Primes and Universals. Oxford: Oxford University Press, 1996.
2. Виноградов В. В. Русский язык: Грамматическое учение о слове. – М.: Наука, 1972. – 614 с.
3. Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры. – М.: Языки славянской культуры, 1997. – С. 58–63.
4. Степанов Ю. С. Язык и культура. – М.: Наука, 1997. – 268 с.
5. Фасмер М. Этимологический словарь русского языка: в 4 т. / пер. и доп. О. Н. Трубачёва. – М.: Прогресс, 1986. – Т. 1–4.
6. Стернин И. А. Культурный компонент значения слова и обучение иностранным языкам. Воронеж: Изд-во Воронежского гос. ун-та, 2000. – 120 с.
7. Bahramovna, Y. S. (2022). Etymological And Semantic Analysis OfClothing Names In Different Systemic Languages. Web Of Scientist: International Scientific Research, 83-88.
8. Bahromovna, Y. S. (2021). Thematic Division of Clothing Names in English and Uzbek. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, *1*(2), 61-62.
9. Makhmud, M. (2020). Using the Moodle Distance Learning System in the Educational Process. *JournalNX*, *6*(11), 156-159.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 392.181.151.9

SAYYID BURHONIDDIN TERMIZIY MA'NAVIY MEROSINING TALABA-YOSHLAR AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

Abdunabiyev Sunnat Ne'mat o'g'li, Termiz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

РОЛЬ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ САЙЙИДА БУРХОНИДДИНА ТЕРМИЗИЙ В ФОРМИРОВАНИИ НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ

Абдунабиев Суннат Неъмат угли, исследователь Термезского государственного педагогического института

THE ROLE OF SAYYID BURHONIDDIN TERMIZIY'S SPIRITUAL HERITAGE IN SHAPING THE MORAL QUALITIES OF STUDENTS

Abdunabiyev Sunnat Ne'mat ogli, Researcher at Termez State Pedagogical Institute

sunnat.abdunabiyev@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-5072-3913

Annotatsiya: *Ushbu maqola Sayyid Burhoniddin Termiziyning ma'naviy merosining talaba-yoshlar axloqiy fazilatlarini shakllantirishdagi ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot jarayonida Sayyid Burhoniddin Termiziy asarlarida tarbiyaviy va axloqiy ta'limotlarning mohiyati, ularning yoshlar axloqiy ongiga ta'siri, shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishdagi roli tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *Sayyid Burhoniddin Termiziy, ma'naviy meros, talaba-yoshlar, axloqiy fazilatlar, tarbiya, ma'naviy tarbiya.*

Аннотация: *Статья посвящена изучению роли духовного наследия Саййида Бурхониддина Термизий в формировании нравственных качеств студентов. В исследовании проанализированы сущность воспитательных и этических учений Саййида Бурхониддин Термизий, их влияние на моральное сознание молодежи, а также роль в развитии личностных качеств.*

Ключевые слова: *Саййид Бурхониддин Термизий, духовное наследие, студенты, нравственные качества, воспитание, моральное воспитание.*

Abstract. *This article explores the role of Sayyid Burhoniddin Termiziy's spiritual heritage in shaping the moral qualities of students. The study analyzes the essence of Sayyid Burhoniddin Termiziy's educational and ethical teachings, their influence on students' moral consciousness, and their role in the development of personal virtues.*

Key words: *Sayyid Burhoniddin Termiziy, spiritual heritage, students, moral qualities, education, ethical education.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Mashhur alloma, mutasavvif Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy (1165-1241) Islom tasavvuf tarixidagi eng muhim shaxslardan biridir. U Jaloliddin Rumiyning tarbiyasida va ma'naviy kamolotida eng katta rol o'ynagan ustoz va yo'lboshchi bo'lgan [4]. Burhoniddin Termiziy Jaloliddin Rumiyni nafaqat kitoblar bilan, balki qat'iy o'zini o'zi yuksaltirish va zohidlik uslullari bilan ham tarbiyalagan. Uning o'zi Rumiyni yanada chuqurroq tahsil olishi uchun o'sha vaqtdagi mashhur ilm markazlari hisoblangan – Halab va Damashq shaharlariga yuborgan. O'z navbatida

Burhoniddin Termiziy Jaloliddin Rumiyning otasi Bahouddin Valadning shogirdi edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Termiziy xalq orasida “Sayyidi Sirdon” (sirlarni biladigan Sayyid) nomi bilan ham mashhur bo‘lgan. Bunga sabab, u odamlarning ichki fikrlarini o‘qiy olgan va kelajakdagi ba’zi voqea-hodisalarni oldindan ko‘ra bilgan [3]. Shuningdek, Termiziy shogirdi Jaloliddin Rumiyga Shams Tabriziyning kelajagi haqida ma’lumot berganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Uning eng muhim asari “Maorif”dir. Bu asar uning so‘fiylar bilan kechgan suhbatlaridan va chuqur tasavvufiy fikrlaridan iborat bo‘lib, ushbu asar Jaloliddin Rumiyning mashhur “Masnaviyi ma’naviy” asarining yozilishida katta rol o‘ynagan [5].

Zamonaviy pedagogika va axloqshunoslik nuqtai nazaridan Sayyid Burhoniddin Termiziyning, ayniqsa uning fundamental asari hisoblangan “Maorif”ning bugungi yoshlarning ma’naviy xarakterini rivojlantirishdagi roli kattadir. Uning ta’limotlari yoshlarga nafaqat “nima qilish kerakligi”, balki “qanday inson bo‘lishlari zarurligi” haqida ham aniq yo‘lni ko‘rsatadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Sayyid Burhoniddin Termiziyning “Maorif” asarida ilgari surilgan ta’limotlarning talaba-yoshlar axloqiy ongining rivojlanishiga ta’siri katta hisoblanadi.

Birinchidan, alloma g‘oyalari yoshlarda samimiylik va ichki intizomni mustahkamlaydi. Ma’lumki, bugungi kunda aksariyat yoshlar tashqi ko‘rinishga va boshqalarning fikriga e’tibor qaratishga odatlanib qolishgan. Biroq, alloma ta’limotlarida “ichki mohiyat”ga birlamchi e’tibor qaratgan. U yoshlarga axloq shunchaki boshqalar oldida ko‘rsatiladigan xatti-harakatlar emas, balki hech kim yo‘qligida ham saqlanib qoladigan “ichki intizom” ekanligini o‘rgatadi.

Ikkinchidan, yoshlarda bilim va harakatning birligiga amal qilishga undaydi. Sayyid Burhoniddin quruq bilim o‘rniga “holat ilmi”, ya’ni o‘rganilgan narsaning tajribasi muhimligini ta’kidlaydi. U yoshlarda “nima deyish” va “nima qilmaslik” kabi mulohazani shakllantiradi. Chunki alloma nazariy-axloqiy saboqlardan ko‘ra, xarakterning amaliy harakatga aylantirilishini muhim deb bilgan. Bu esa yoshlarda axloqiy izchillik va ishonchlilik qadriyatlarini mustahkamlaydi.

Uchinchidan, yoshlar odob-axloqning shaxs kamolotida qanchalik muhimligini anglaydilar. Allomaning Rumiyga bergan eng katta saboqlardan biri bu odob-axloqdir. U: “Odob-axloq – bu o‘z chegaralarini bilishdir” [6], deb ta’kidlaganligi bejiz emas. Uning odob-axloqqa oid g‘oyalari yoshlarni ijtimoiy muhitda, oilada va kiber makonda (ijtimoiy tarmoqlarda) hurmat chegaralarini saqlashga yo‘naltiradi. Hamdardlikni rivojlantirish orqali u takabburlikdan qochish va kamtar bo‘lishni yuksak fazilatlar sifatida ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, hayotiy qiyinchiliklarga qarshi sabr-toqat bilan kurashishga o‘rgatadi. Burhoniddin Termiziy o‘z asarlarida tez-tez o‘zini tarbiyalash va qiyinchiliklarga qarshi qanday kurashish zarurligi haqida yozgan. Buni sabr-toqatni zamonaviy davrga xos bo‘lgan “tez iste’mol qilish”, “tez harakat qilish” va “tezkor natijalar” istagiga qarshi kuch sifatida ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, alloma ta’limotlari vositasida yoshlarga hayotdagi qiyinchiliklar yetuklik jarayoni ekanligini anglatish orqali psixologik bardoshlilikni singdirish ham mumkin.

Beshinchidan, sevgiga asoslangan intizomni shakllantiradi. Sayyid Burhoniddin Termiziy ta’limoti markazida intizomni ta’minlashda qo‘rquv emas, balki chuqur sevgi orqali amalga oshirish uqtirilgan. Ya’ni, axloqni jazodan qo‘rqish tufayli bajarilgan axloqiy majburiyatdan sevgi bilan qabul qilingan axloqiy hayot tarziga aylantirishni taqozo qiladi. Bu yoshlarga ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni yanada samimiyroq qabul qilishiga imkon beradi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Sayyid Burhoniddin Termiziy ma’naviy merosini talaba-yoshlar ongiga chuqur singdirish orqali pirovardida quyidagi amaliy natijalarga erishishimiz mumkin:

1. Halollik tuyg‘usi yuksaladi, o‘zini ham, boshqalarni aldamaslik qobiliyati shakllanadi;
2. Mas’uliyat hissi yanada oshadi, o‘z harakatlarining oqibatlari uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishni o‘rganadi;
3. Qadr-qimmatini anglaydi, o‘z shaxsiyatini rivojlantiradi;
4. Xizmat qilishni o‘rganadi, nafaqat o‘z manfaati uchun, balki jamiyat uchun ham foydali bo‘lishga harakat qiladi [4].

XIII asrda Sayyid Burhoniddin Termiziy tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kunda sodir bo‘layotgan ma’naviy inqirozga qarshi o‘ziga

xos yechimlar beradi. Chunki, o‘sha davrda mo‘g‘ul bosqinlari natijasida yuzaga kelgan betartiblik va umidsizlik holati bugungi tezkor o‘zgarishlar va raqamli murakkablikka psixologik jihatdan o‘x-shaydi. Shuning uchun Termiziy ta’limotlarining hozirgi davrdagi muhim ahamiyatini quyidagicha izohlash mumkin:

- Axborot xurujiga qarshi g‘oyaviy kurashish. Bugungi kunda ma’lumotlarni olish bir necha soniya vaqt oladi, ammo bu axborotlar odatda yuzaki va tez iste’mol qilinadi. Burhoniddin Termiziy o‘zining “Maorif” (ichki bilim) tushunchasi bilan ilm nafaqat ongda saqlanishi, balki qalbga tushib, xarakterga aylanishi kerakligini ta’kidlagan [1]. Bu nima uchun muhim? Bu avvalo yoshlarning nafaqat bilimdon, balki dono va zakovatli shaxslarga aylanishini ta’minlaydi.

- Raqamli xudbinlikka qarshi kurashish. Ijtimoiy medianing “egosentrik” dunyosi doimo shaxslarni o‘zlarini ko‘rsatishga va boshqalardan ustun ko‘rinishga undaydi. Sayyid Burhoniddin Termiziyning “yo‘qlik” va “o‘zini o‘zi tarbiyalash” haqidagi ta’limotlarida esa inson o‘z “ego”sini jilovlashi zarurligi uqtiriladi. Bu insonning boshqalar bilan doimiy ravishda raqobatlashishiga va baxtsiz bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi, ularga tashqi tan olinishlarga emas, balki o‘z ichki dunyosida ichki xotirjamlikni topishga yordam beradi.

- Aql va qalb o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash. Zamonaviy dunyo ratsionallikka (aqlga) katta ahamiyat bersa-da, ba’zan hissiy va ma’naviy hayotni e’tiborsiz qoldiradi. Lekin Sayyid Burhoniddin Termiziy Jaloliddin Rumiyga ta’lim berar ekan, qalbni o‘rganishni intellektual fanlardan ustun qo‘ygan [2].

- Sabr va matonat qobiliyatini yuksaltirish. O‘sha davrdagi urushlar va migratsiya to‘lqinlari sharoitida Burhoniddin Termiziy hech qachon o‘z matonatini yo‘qotmagan. Uning “itoatkorlik” va “harakat” o‘rtasidagi muvozanati bugungi iqtisodiy yoki ijtimoiy tashvishlarga qarshi ajoyib qo‘llanmadir. Nima uchun bu muhim? Bu chidamlilikni, mavhumlik oldida taslim bo‘lmaslikni va qiyinchiliklarni “yuksalish uchun imkoniyat” sifatida ko‘rishni o‘rgatadi.

Burhoniddin Termiziyning pedagogik tizimi nafaqat ongni tarbiyalaydi, balki qalbni ham yetuklikka chorlaydi, amaliy xatti-harakat (axloq)ni o‘zgartiradi. Biz buni quyidagi jadvalda aniqroq tasavvur qilamiz.

“Maorif”dagi tushunchalar	Hozirgi ekvivalenti	Bu nima uchun bizga kerak?
Asketizm	O‘zini tarbiyalash	Diqqatni jamlash qobiliyatini qayta tiklash uchun
Samimiylik	Shaffoflik va halollik	Jamiyatda o‘zaro ishonch muhitini shakllantirish uchun
Xizmat	Ijtimoiy mas’uliyat	Xudbinlikni yengish va jamiyatga foyda keltirish uchun

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, pedagogik tafakkur taraqqiyoti insoniyat madaniy merosining ajralmas qismini tashkil etadi. Axloqiy, ma’naviy va ruhiy tarbiya masalalari qadimdan pedagogikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelgan. Bu bo-rada Sharq mutafakkirlari, xususan, tasavvuf namo-yandalari muhim o‘rin tutadi. Sharq mutafak-kirlarining pedagogik qarashlari xalq ma’naviyati, tarbiya tizimi va zamonaviy ta’lim konsepsiyalariga katta ta’sir ko‘rsatgan. Sayyid Burhoniddin Termiziy ana shunday mutafakkirlar sirasiga kiradi. Uning “Maorif” asari axloqiy tarbiyaning nazariy asoslarini va amaliy ko‘rsatmalarini mujassamlashtiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI / (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Ahmet Sevgi. Seyyîd Bürhaneddin Muhakkik-i Tirmîzî (Mevlânâ’nın Hocası). – Kayseri: Erciyes üniversitesi matbaası,1995.– S. 13.
2. Mehmet Hüsrevoğlu. Mevlanâ’nın üstâd’ı Seyyid Burhâneddin velî. –Kayseri: Kalkan matbaacılık, 2017. –S. 49.
3. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami, 20 jild.17-jild:“Nasoyim ul muhabbat”. –T.: Fan, 2001.
4. O‘rta asr sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi ensiklopediyasi. –Samarqand. Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2018. – B. 376.
5. Semih Ceyhan. Seyyid Burhanüddin Hüseyn Muhakkık-ı Tirmizi (ö. 639/1241) / İslam ansiklopedisi, 37-cilt. –İstanbul: Türkiye diyanet vakfı, 2009. –S. 56-57.
6. Seyyid Burhaneddin Veli Tirmîzî. Ma’ârif. (Hazırlayan: Mehmet Hüsrevoğlu). –Ankara: Kalkan matbaacılık, 2018. –S. 44.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UO'K:94(575.1):711.4(09)(575.1)

O'ZBEKISTON HUDUDIDA ANTIK DAVR JAMIYATINING SIYOSIY, IJTIMOIY-IQTISODIY SHAROITI VA ETNIK-MADANIY MUNOSABATLARI

Karimov Zafar Bekturdiyevich, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, Urganch Davlat universiteti, Urganch

https://orcid.org/0009-0005-2501-7970
e-mail: temurmalik154@gmail.com

ANTIQUE PERIOD SOCIETY IN THE TERRITORY OF UZBEKISTAN: POLITICAL, SOCIO-ECONOMIC CONDITIONS AND ETHNO-CULTURAL RELATIONS

Zafar Bekturdiyevich Karimov, Doctor of Philosophy in History (PhD), Urgench State University, Urgench

ОБЩЕСТВО АНТИЧНОГО ПЕРИОДА НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА: ПОЛИТИЧЕСКИЕ, СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ И ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ СВЯЗИ

Зафар Бектурдиевич Каримов, доктор философии (PhD) по истории, Ургенчский государственный университет, г. Ургенч

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekiston hududida antik davr jamiyatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti va etnik-madaniy munosabatlari natijasida vujudga kelgan davlatlar, shaharsozlik madaniyati, antik davrda O'zbekiston hududida mahalliy, Kushon, yunon an'analari omuxtalashishidan tarkib topgan jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, diniy hayot kabi masalalar tahlil qilingan. Bundan tashqari O'zbekiston tarixining antik bosqichini davrlashtirish masalalari, mazkur davrda vujudga kelgan davlatlarning shaharsozligi madaniyatini topografik va o'ziga xos belgilar jihatidan xronologik izchillik asosida yoritish maqsad qilingan.*

Kalit so'zlar: *Kaltaminor, Tozabog'yob, Amirobod, Kanguy, Yerqo'rg'on, Qarshi, Qal'ai-Zahoki-Moron, Eski Termiz, Jondavlattepa, Xayitobod, Bandixon-2, Qavatqal'a, Tuproqqal'a, Qizilqal'a, Axsiket, Quva, O'zgan, Romishtepa, Qiziltepa, Dabusiya, Sho'rabashat, Yangibozor, Mingtepa, Quva, Balandtepa, Uchqo'rg'on, Oqtepa, Qaynavat, Axsiket.*

Abstract: *The article analyzes the political and socio-economic conditions of the ancient society in the territory of Uzbekistan and the states that emerged as a result of ethnic and cultural interactions. It examines aspects of socio-economic, cultural, and religious life within a society formed by the synthesis of local, Kushan, and Hellenistic traditions. Furthermore, the study aims to address the periodization of the ancient phase of Uzbek history and to characterize the urban development culture of the states of this period, outlining their topography and distinctive features in a chronological sequence.*

Key words: *Kaltaminar, Kalai Zahoki Moron, Old Termez, Jandavlattepa, Bandikhan-2, Kavatkala, Tuprakkala, Kizilkala, Ramishtepa, Kiziltepa, Mingtepa, Balandtepa, Aktepa, Shurabashat, Yangibazar,*

Karshi, Kanguy, Akhsiket, Kuva, Uzgan, Dabusiya, Uchkurgan, Tazabagyab, Amirabad, Yerqurgan, Khayitabad, Kaynavat.

Аннотация: *В статье анализируется политическая и социально-экономическая обстановка в обществе античной эпохи на территории Узбекистана, а также государственные образования, возникшие в результате этнокультурных взаимодействий. Рассматриваются такие аспекты, как социально-экономическая, культурная и религиозная жизнь общества, сформировавшегося в результате синтеза местных, кушанских и эллинистических традиций. Кроме того, целью исследования является освещение вопросов периодизации античного этапа истории Узбекистана и характеристика градостроительной культуры государств этого периода с точки зрения топографии и специфических особенностей в хронологической последовательности.*

Ключевые слова: *Калтаминар, Калаи-Захоки-Морон, Эски-Термез, Джандавлаттепа, Бандихан-2, Каваткала, Тупраккала, Кызылкала, Рамиштепа, Кызылтепа, Мингтепа, Баландтепа, Актепа, Шурабашат, Янгибазар, Карши, Кангюй, Ахсикет, Кува, Узган, Дабусия, Учкурган, Тазабагяб, Амирабад, Еркурган, Хаитабад, Кайнават.*

Kirish. Antik davr – mil.avv. IV asrdan milodiy IV asrgacha bo‘lgan tarixiy davr – O‘zbekiston tarixida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan o‘ziga xos bosqich hisoblanadi. Bu davr mintaqa jamiyatida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berishi, qadimiy ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarning yangi shakllarga almashinishi va xalqlararo madaniy almashinuvning kuchayishi bilan ajralib turardi.

Bu jarayonlarning boshlanishiga salmoqli geosiyosiy voqea sabab bo‘ldi: mil. avv. 330-yilda Buyuk Aleksandarning yunon-makedon qo‘shini tomonidan qadimiy Ahamoniylar imperiyasiga qilingan hal qiluvchi zarba natijasida u jahon siyosiy sahnasidan butunlay chiqib ketdi. Ushbu qudratli imperiyaning qulashi Markaziy Osiyoda kuchlar muvozanatining yangilangan davrini ochdi, mintaqada yangi davlatlar va madaniyatlar gullab-yashnashiga zamin hozirladi.

Antik davrda O‘zbekiston hududida bu o‘zgarishlar murakkab davlat qurilishi va madaniy omuxtalashuv jarayonlari sifatida namoyon bo‘ldi. Keyingi asrlar davomida mintaqada bir qator qudratli va yuksak tashkil etilgan davlatlar – dastlab Salavkiylar podsholigi, keyinroq yorqin Yunon-Baqtriya podsholigi, so‘ngra esa ulug‘vor Kushon imperiyasi vujudga keldi va taraqqiy etdi. Shu bilan birga, Xorazm, Qang‘ va Davan (Farg‘ona) kabi mahalliy siyosiy birlashmalar o‘z hokimiyatini mustahkamlab, madaniy o‘ziga xosligini namoyon qildi. Mazkur davlatlarning faoliyati mintaqaning har tomonlama taraqqiyotiga kuchli turtki bo‘ldi. Ular shaharlar rivojini, ilg‘or sug‘orish va qishloq xo‘jaligi texnologiyalarining joriy etilishini, xususan, Buyuk Ipak yo‘li orqali O‘rta yer dengizi, Hindiston va Xitoy o‘rtasidagi savdo-sotiq va madaniy aloqalarning rivojlanishini ta’minladi. Bu xalqaro almashinuv faqatgina iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib qolmay, balki mahalliy e’tiqodlar va an’analar bilan yunon san’ati, fani va dunyoqarashining uyg‘unlashuvidan iborat aralash madaniyat yuzaga kelishini ta’minladi.

Tadqiqot obyekti. O‘zbekiston hududidagi antik davrga oid davlatlar, aholi istiqomat qilgan turar-joy va manzilgohlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Xronologik izchillik, tarixiy tahlil, mantiqiy xulosa, qiyoslash va umumlashtirish, asoslab berish, arxeologiya, geografiya kabi yordamchi fanlardan foydalanish.

Tahlil va natijalar. Mil. avv. IV – III asrlarda Xorazm davlatining ichki siyosatida asosiy ustuvor yo‘nalish – Amudaryodan Qizilqum hududigacha dehqonchilikka qulay bo‘lgan tekislikni o‘zlashtirish, ularni suv bilan ta’minlash maqsadida Kaltaminor, Tozabog‘yob va Amirobod sug‘orish inshootlari chiqarilgan, ulardan ikki yon tomonga sug‘orish tarmoqlari, ular boshi, o‘rtasi, oxirida qal’alar bunyod qilinishi klassik darajaga ko‘tarilgan. Bunday qal’alar Amudaryoning so‘l sohili hududida Amudaryoning Dovdon irmog‘idan sug‘orish inshooti Charmanyopning chiqarilishi, undan ikki yon tomonga sug‘orish tarmoqlarining yo‘naltirilishi munosabati bilan ularning sohili bo‘ylab shaharlar qurilishi keng tus olgan [1].

Xorazm vohasi aholisi qo‘shni hududlar, xususan, Orolbo‘yi sharqiy tekisligi, ko‘chmanchi chorvador aholisi davlati Kanguy bilan tinch sharoitda o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik, iqtisodiy

aloqalarni teng huquqlilik asosida olib borishgan. Shu bois uning tevarak-atrofini Marg‘iyonada Antiox, Buxoro vohasini qamrab olgan Kampir-Devor kabi mudofaa devorlari o‘rab olmagan. S. B. Bolelov qayd qilishicha, Amudaryoning so‘l sohil hududida Nurum manzilgohida 40 ta xumbuz qoldiqlari ro‘yxatga olingan, uylarning atrofida dehqonchilikka qulay 200-210 gektardan 15 gektarida uzum mahsulotlari parvarish qilingan. Natijada, 12-15 tonna uzumni saqlashga mo‘ljallangan omborxonalar faoliyat olib borgan [2].

Antik davr madaniy-xo‘jalik viloyatlarini qamrab olgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar mazmun va mohiyatini inobatga olib, ularni ikki tarixiy davrga ajratish mumkin:

1-Tarixiy davr – mil. avv. IV – I asrlar.

2-Tarixiy davr – milodiy I – IV asrlar.

Birinchi tarixiy davr siyosiy tizimida muhim o‘rin tutgan davlatlar Xorazmda Qadimgi Xorazm (poytaxtlari Oqshaxonqal’a, Tuproqqal’a), Yunon-Baqtriya (mil. avv. III asr o‘rtalari – mil. avv. II asr), Qang‘ davlati (mil. avv. III asr – milodiy III asr), Davan davlati (mil. avv. III asr – milodiy III asr), Kushon davlati (mil. avv. I asr – milodiy IV asr) edi. Zarafshon vodiysi antik davr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy rivojlanishida Zarafshon, Qashqadaryo, Qoradaryo, Sangzor, Oqdaryo va Siyob kabi sug‘orish tarmoqlari muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, Buxoro-Qorako‘l vohasida Zarafshon daryosidan chiqarilgan Shohrud, O‘rta Zarafshondagi yirik siyosiy, hududiy-ma’muriy markaz bo‘lgan Maroqandani suv bilan ta’minlagan Siyob, Janubiy Zarafshonning suv manbasi Qashqadaryo (Yerqo‘rg‘on, Qarshi, Qal’ai-Zahoki-Moron) sug‘orish inshootlari jamiyatda iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlar rivojlanishiga keng imkon yaratgan [3].

Surxondaryo vohasi hududida antik davr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy munosabatlarining rivojlanish markazlari Eski Termiz, Jondavlattepa, Xayitobod, Bandixon-2 yodgorliklari aholisining madaniy va ma’naviy madaniyatida Surxondaryo, To‘palangdaryo, Sheroboddaryolar muhim ahamiyat kasb etgan [4].

Qadimgi Xorazm ahamoniylardan mustaqillikka erishganidan keyin mil. avv. IV – II asrlarda ilk hukmdorlar davlat tanga-pulini zarb qilmaganlar. Shu sababdan Xorazm hukmdori Farasmandan boshqa hukmdorlar haqida ma’lumotlar hozirgacha mavjud emas. S.P.Tolstov ma’lumotlariga ko‘ra, Farasman davrida Amudaryodan Qizilqum tomon yirik sug‘orish inshootlari qurilgan. Masalan, tadqiqotchining ilk manbalarida qadimgi davrda mavjud bo‘lgan uchta sug‘orish inshooti yo‘nalishlari belgilab berilgan, ya’ni qadimgi Kaltaminor sug‘orish inshooti Eresqal’adan Anqaqal’a orqali Bozorqal’a, bir tarmog‘i Anqaqal’aga yo‘nalgan, ikkinchi sug‘orish inshooti Tozabog‘yob Katta va Kichik Guldursun oralig‘idan Qumbosganqal’a, Burgutqal’ada, undan chiqarilgan tarmog‘i Norinjon orqali Burliqal’a, Qushqal’a, Yakka Porson va Kichik Qirqqiz yaqinida to‘xtagan. Uchinchi sug‘orish inshooti Amirobod Dumanqal’a shimolidagi Jilpiqqal’a, keyingi yo‘nalishi Qavatqal’a, Tuproqqal’a, Qizilqal’agacha davom etgan [5].

Ya.G‘.G‘ulomov monografiyasida esa, Amudaryo o‘ng va so‘l sohil hududlari xaritasida qadimgi davr yodgorliklari joylashtirilgan [6]. Mazkur aholi turarjoylari joylashgan hududlar ma’muriy-hududiy, savdo-hunarmandchilik markazi bo‘lgan. Amudaryoning o‘ng sohilida Oqshaxonqal’a, Tuproqqal’a va Katqal’a markazlashgan Xorazm davlatidan siyosiy mustaqil bo‘lib, jamiyatning barcha sohalarini rivojlantirish loyihalari ishlab chiqilgan va bu tashqi hamda ichki barqarorlik munosabati bilan muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilgan. Shu bilan birga, siyosiy markazlar kabi miqdoriy jihatdan bunyod qilingan hajmi katta va kichik qishloqlar tizimida turarjoylar ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining ahamiyati beqiyos bo‘lgan. Xorazmga hududiy jihatdan qo‘shni hududlarda ham miqdoriy jihatdan farq qiladigan qal’alar bunyod qilish keng tus olgan. Xorazmda antik davrda Amudaryoning o‘ng sohilida joylashgan Oqshaxonqal’a, Kat, Qo‘yqirilganqal’a, Amudaryoning so‘l sohilidagi Qal’aliqir, Kat, Tuproqqal’a, Elxaras, Gaur-3 davlat miqyosidagi madaniy markazlar bo‘lgan.

Mil. avv. 250-yilda Salavkiylar davlatidan mustaqillikka erishib, siyosiy jihatdan faollashib boshlagan davlat – Yunon-Baqtriyaning tarix sahnasidan o‘rin olishiga greklarning qo‘zg‘oloni sabab bo‘lgan [7]. V. M. Masson fikricha, Yunon-

Baqtriya podsholigi faoliyati barham topishi mil. avv. 141 – 128-yillarda sodir bo‘lgan [8]. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Yunon-Baqtriya davlati asosiy markazi Baqtriya hududi va uning poytaxti Baqtra bo‘lib, uning g‘arbiy va shimoli-g‘arbiy hududlarida joylashgan. Yunon-Baqtriya hukmdorlari Diodot va Yevtidem Areya va Marg‘iyona hududlarini bosib olishgan [9]. Yunon-Baqtriya sulolaviy chegaralarining kattaligi chorvador-ko‘chmanchi qabilalarning hujumlariga zamin hozirlagan. Y.V.Zeymal ma’lumotiga ko‘ra, mil. avv. III asrning oxiri – II asrlarda tub aholi bilan omuxtalashgan vakil boshqargan, tangalarida Yevtidem tasvirlangan [10]. Asosan, temir davrida aholi tomonidan bunyod qilingan shaharlar Afrosiyob, Yerqo‘rg‘on, Qarshi, Eski Termiz, Dalvarzintepa antik davrda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar rivojlanish darajasini o‘zida namoyon qilgan. Xuddi shu jarayonni Farg‘ona vodiysida Axsiket, Quva, O‘zgan shaharlarida qayd qilish mumkin. Afrosiyob (Maroqanda), Axsiket ma’muriy-hududiy markaz bo‘lishi bilan birga, ularning savdo-hunarmandchilik taraqqiy etgan markaz sifatidagi ahamiyati ilk o‘rta asrlargacha davom etgan. Buxoro-Qorako‘l vohasida Zarafshon va Vobkent daryolari suv ta’minoti barqaror bo‘lganligi bois, o‘troq aholi tomonidan antik davrda turarjoylar qurilishi keng miqyosda olib borilgan [11].

Xorazm vohasi Amudaryoning o‘ng sohilidagi Burgutqal’a, Teshikqal’a, Qumbosganqal’a, Tuproqqal’a atroflarida kvadrat shaklda paxsa poydevorlariga bino qilingan qasrlar qurilishi keng tus olgan [12].

Milodiy I – IV asrlarda madaniy-xo‘jalik markazlarda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlarda o‘zgarishlar yuz berganligini kuzatish mumkin. O‘zbekistonning tarixiy-madaniy viloyatlari singari Xorazm vohasi Sharq dunyosining yirik ahamoniylar imperiyasi tarkibiga jalb qilinib, XVI satraplikni tashkil qilgan edi (mil. avv. 545 yil yoki 539 yil) [13].

Ahamoniylar imperiyasi Xorazmdagi bosib olingan hududlarni boshqarib, o‘z vaqtida soliq olib turish maqsadida noib tayinlagan edi. Uning Qal’aliqir istehkomida saroyi tashkil qilinib, Sho‘raxon qishlog‘i yaqinida Amudaryodan dastlabki sug‘orish inshooti qurdirib, uning janubi-sharqiy sohili hududida turarjoylar barpo qilingan Dingilja yodgorligini barpo qilganligi ma’lum [14].

Dingilja hunarmandchilik markazi bo‘lib, u ahamoniylar davlati tarkibiga kirmagan. Xorazm davlatchiligini milodiy 305-yilgacha Farasman sulolasi vakili boshqargan. Xorazm markazlashgan davlati ichki siyosatida ekin ekishga mo‘ljallangan hududlarni o‘zlashtirib, Amudaryoning o‘ng sohili hududida Tozabog‘yob, Amirobod sug‘orish inshooti, undan ikki yon tomonga chiqarilgan suv yo‘llari sohili bo‘ylab shaharlar qurilishi klassik darajaga ko‘tarilgan. Amudaryoning o‘ng sohilidagi Katta Guldursun, Oqshaxonqal’a, Tuproqqal’a, Kat, To‘qqal’a, Amudaryoning so‘l sohili hududlarida Devkesgan, Mizdahkon, Voyangan, Shohsanam, Zamaxshar, Xazorasp, Xiva shaharlarining ba’zilari mudofaa chegaralari, ba’zilari esa siyosiy markazlar vazifasini bajargan [15].

Oqshaxonqal’a va Tuproqqal’a saroylaridan olingan noyob manbalarga ko‘ra antik davr shaharsozligi va davlatchiligi yuksak darajada bo‘lishida, aholining bunyodkorlik faoliyatlarini olib borishida Amudaryo muhim omil bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

Xorazm vohasi hududidagi turarjoylar qurilishi poytaxt shahar va madaniy-xo‘jalik markazlari bosh shaharlari atroflarida milodiy I asrdan bir-biridan 150-200 metr topografik uzoqlikda joylashgan kvadrat, kichik-kichik istehkomli va istehkomsiz qal’alar qurilishi keng tus olgan (Tuproqqal’a, Xazorasp, Burgutqal’a) [16].

Buxoro va Qorako‘l dehqonchilik vohasida Romishtepa, Qiziltepa va Dabusiya shaharlari saqlanib qolgan. Bu shaharlarni suv bilan ta’minlagan Zarafshon va Vobkent daryolarining suv ta’minoti barqaror holatda bo‘lgan [17]. O‘rta Zarafshonda kechgan urbanistik jarayonlar natijasini Afrosiyob (Maroqanda) va Ko‘ktepadan olingan moddiy ashyolar namoyon qilgan [18]. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, So‘g‘d davlatining janubiy hududlari mil. avv. III asrning oxiri – II asr boshlarida Salavkiylar davlatidan ajralib chiqib, sak-sarmat qabilalari faoliyatlari bilan bog‘langan [19].

Kanguy davlati sharqdan Farg‘ona, janubi-sharqiy oraliq va g‘arbdan Orolbo‘yi, Sirdaryoning quyi havzasi dashtida Kushon davlati bilan chegaradosh bo‘lib, milodiy V asrda

Eftaliylar davlati tarkibiga kirgan [20]. Aholi tarkibi yarim o‘troq va chorvador qabilalar tomonidan qad ko‘targan Chirikrabot, Babish-Mulla va Balandi shaharlarining jamiyatning iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarini namoyon qilishida Sirdaryoning Janadaryo, Quvondaryo va Inkordaryo irmoqlari faoliyatlari imkon bergan [21].

Farg‘ona siyosiy tarixida Davan markazlashgan davlati faoliyat olib borgan. Farg‘ona vodiysida ilk shaharlarning tarixiy ildizi Chust manzilgohining aholi faoliyati natijalariga asos bo‘lgan. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Chust madaniyati zamiridan ilk shahar-davlatlar o‘sib chiqqan [22].

Mil. avv. V – IV asrlarda Davan davlati ichki siyosatida turarjoylarni barpo qilish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lgan. Jumladan, Sho‘rabashat (70 ga.), Yangibozor (10 ga.), Mingtepa (38 ga.), Quva (12 ga.), Balandtepa (9 ga.), Uchqo‘rg‘on (24 ga.), Oqtepa (12 ga.), Qaynavat (15 ga.), Axsiket (40 ga.) [23].

Yunon-Baqtriya davlatining shaharsozlik madaniyati sohasidagi siyosatida katta hajmdagi shaharlar bilan birga qishloq tipidagi turarjoylarning qad ko‘tarishi keskin tus olgan. Misol tariqasida, milodiy I asrda Sho‘rchi tumanida Dalvarzintepa (25 ga.), Angor tumanida Zartepa (16 ga.) barpo qilingan [24].

E.V.Rtveladze ma’lumotiga ko‘ra, Surxondaryo viloyatida arxeologik qidiruv natijasida 70 ta turarjoy kichik hajmli maqomga ega bo‘lgan [25]. Yunon-Baqtriya davlati tashqi kuchlar hujumi natijasida yakun topgan, ya’ni mil. avv. 250-130-yillargacha markazlashgan davlat sifatida faoliyat olib borgan. Yunon-Baqtriya podsholigi Rim, Parfiya va Xan imperiyalari qatoridan o‘rin olgan. Yunon-Baqtriya davlati hukmdorlari Shimoliy Baqtriyada Eski Termiz, Jondavlat, Xayitobod yodgorliklari mudofaa devorlarida ta’mirlash ishlarini olib borgan bo‘lishlari mumkin, ammo Janubiy Baqtriya hududida yunonlar tomonidan Oyxonum shahri bunyod qilingan [26].

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan quyidagi yakuniy xulosalarga kelish mumkin:

1.Antik davrda O‘zbekiston hududida turli darajadagi davlatlar va shaharlarning tashkil topishida sug‘orish tizimlari hal qiluvchi rol o‘ynagan. Amudaryo, Zarafshon, Sirdaryo va ularning irmoqlaridan chiqarilgan yirik kanallar (Kaltaminor, Tozabog‘yob, Amirobod, Shohrud va boshqalar) nafaqat qishloq xo‘jaligini ta'minlagan, balki aholi manilgohlari, shaharsozlik va madaniyatning butun taraqqiyotiga asos bo‘lgan.

2.O‘zbekistonda antik davr urbanizatsiyasi ikki yirik davrga bo‘lingan.

Birinchi davri mil. avv. IV – I asrlar: mustaqil va kuchli davlatlar (Qadimgi Xorazm, Yunon-Baqtriya, Kanguy, Davan) paydo bo‘lishi va ularning markazlashgan shaharsozlik dasturlari (Oqshaxonqal’a, Afrosiyob, Axsiket) bilan ajralib turadi.

Ikkinchi davri milodiy I – IV asrlar: O‘zbekiston hududi shaharsozligida katta ma'muriy markazlar bilan bir qatorda, kichik va o‘rta hajmdagi, bir-biriga yaqin joylashgan qal’alar tarmog‘i kengaygan.

3.O‘zbekistonning antik davr hududlari o‘rtasida madaniy va iqtisodiy aloqalar mavjud bo‘lsa-da, ularning har biri o‘ziga xos shaharsozlik an'analari va siyosiy tashkil etilish shakllariga ega bo‘lgan.

4.Antik davrda O‘zbekiston hududida jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, diniy hayot mahalliy, Kushon, yunon an’analari omuxtalashishidan tarkib topgan.

5. Markaziy Osiyoning antik davrida sug‘orish muhandisligi, shaharsozlik va davlat qurilishi o‘rtasida juda chuqur bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston hududi bir qancha mustaqil, lekin bir-biri bilan aloqada bo‘lgan madaniy-xo‘jalik viloyatlaridan iborat bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Воробьева М. Г. Керамика Хорезма античного периода // Керамика Хорезма // Труды ХАЭЭ. – М., 1959. Том IV. – С. 63-221.
2. Болелов С. Б. Нурумское поселение в левобережном Хорезме // Культурное наследие Средней Азии. – Ташкент, 2002. – С. 34-37.
3. Исамиддинов М. Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Ташкент: “Фан”, 2002. – 255 с.
4. История государственности Узбекистана. – Ташкент: “Узбекистан”, 2009. Т.1. – С. 246-251.
5. Толстов С. П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948. – С. 40.

6. Ғуломов Я. Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: “Фан”, 1959. – Б. 106.Рис. 7.
7. Кошеленко Г. А. Восстания греков в Бактрии и Согдиане // ВДИ. – М.: “Наука”, 1977, вып-1. – С. 73-78.
8. Массон В. М. Деметрий Бактрийский и завоевание Индии // ВДИ. – М.: “Наука”, 1961, вып-2. – С. 39-45.
9. Массон М. Е. К вопросу о Маргиане в составе Греко-Бактрийского царства // Известия АН Туркменской ССР. Серия общественные науки. – Ашхабад, – № 5, 1970. – С. 15-23.
10. Зеймаль Е. В. Политическая история древней Трансоксианы по нумизматическим данным // Культура Востока. Древность и раннее средневековье. – Л.: Аврора, 1978. – С. 192-214.
11. Мухаммаджонов А. Р. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи (Қадимги даврдан то XX аср бошларигача). – Тошкент: “Фан”, 1972. – Б. 78-79.
12. Неразик Е. Е. Сельское жилише в Хорезме (I – XIV вв.). – М.: “Наука”, 1976. – С. 13-46.
13. Дандамаев М. А., Луконин В. Г. Культура и экономика древнего Ирана. – М.: “Наука”, 1980. – С. 104.
14. Воробьёва М. Г. Дингильджа. Усадьбы середины I тысячелетия до н.э. в древнем Хорезме. – М.: “Наука”, 1973. – С. 10-33.
15. Ходжаниязов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2007. – С. 24-26.
16. Сабиров К. Қадимги Хоразм қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. – Тошкент: “Фан”, 2009. – Б. 65-79.
17. Адылов Ш. Т. Становление и развитие городской культуры Бухарского Согда поле материалами стратиграфических исследований (IV в. до н. э. – VIII в н.э.): Автореф на соис. уч. ст. канд. ист. наук. – Самарканд, 1987. – С. 16.
18. Юсупов А. Ш. Оролбўйи илк сак қабилалари тарихи. – Бухоро: “Дурдона”, 2023. – Б. 20.
19.Омельченко А.В. Опыт реконструкции политической истории Восточной части южного Согда конца IV века до нашей эры – IV века нашей эры // Самарқанд шаҳрининг умумбашарий маданий тараққиёт тарихида тутган ўрни (Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллик юбилейига бағишланган Халқаро илмий симпозиум материаллари). – Самарканд, 2007. – С. 49.
20. J. Markwart. Wehrot und Arang. – Leiden., 1938. – Pp. 165-187.
21. Stark S. Central Asia and the Steppes // The Graeco-Bactrian and Indo-Greek World. – London / New York: “Routledge”, – Pp. 78-105.
22.МассонВ.М.Средняя Азия в эпоху раннего железа: культурная и социально-экономическая динамика // Раннежелезный век Средней Азии и Индии. – Ашхабад, 1984. – С. 8-9.
23. Анарбаев А. Ахсикет-столица древней Ферганы. – Ташкент: “Тафаккур”, 2013. – С. 245.
24.Пугаченкова Г. А., Ртвеладзе Э. В. Дальверзинтепе - кушанский город на юге Узбекистана. – Ташкент, 1978. – С. 96-97.
25.Ртвеладзе Э. В. Разведочное изучение бактрийских памятников на юге Узбекистана. // Древняя Бактрия. – Л.: “Наука”, 1974. – С.74-82.
26.Gardin J. C., Gentelle P. Irrigation et peuplement dans la plaine d’Ai’Khanoum, de l’epoque achemenide a l’epoque musulmane // Bulletin de l’Ecole française d'Extrême-Orient. – Paris., 1976. Tome 63. – Pp. 59-99.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UO'K: 82-31:821.161.1

O'QITUVCHI OBRAZINI TADQIQ QILISHDA XRONOTOPNING NAZARIY VA BADIIY AHAMIYATI

***Sa'dullayeva Shahlo Anvarovna*, Buxoro davlat universiteti**
III boshqich tayanch doktoranti

THEORETICAL AND ARTISTIC SIGNIFICANCE OF THE CHRONOTOPE IN THE STUDY OF THE TEACHER FIGURE

Sadullaeva Shahlo Anvarovna, 3rd-year Doctoral student, Bukhara State University

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ ХРОНОТОПА В ИССЛЕДОВАНИИ ОБРАЗА УЧИТЕЛЯ

Саъдуллаева Шахло Анваровна, докторант III курса, Бухарский государственный университет

https://orcid.org/0009-0000-0958-416X
e-mail: sh.a.sadulayeva.@buxdu.uz

Annotatsiya: *Maqolada xronotop orqali o'qituvchi obrazining ijtimoiy mavqeyi, ma'naviy mas'uliyati va tarixiy vazifasi o'zbek va turk nasri misolida tahlil qilinib, u muayyan davr va muhitning badiiy timsoli ekani ilmiy va estetik jihatdan asosli tarzda yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *xronotop, o'qituvchi obrazi, badiiy vaqt, makon, ma'rifatparvarlik, o'zbek nasri, turk nasri, aesthetic category.*

Annotation: *The article analyzes the social status, moral responsibility, and historical mission of the teacher figure through the chronotope in Uzbek and Turkish prose, substantiating its role as an artistic representation of a specific historical period and social environment.*

Key words: *chronotope, teacher image, artistic time, space, enlightenment, Uzbek prose, Turkish prose, aesthetic category.*

Аннотация: *В статье на материале узбекской и турецкой прозы посредством хронотопа анализируются социальный статус, нравственная ответственность и историческая миссия образа учителя, обосновывается его значение как художественного воплощения определённой эпохи и социальной среды.*

Ключевые слова: *хронотоп, образ учителя, художественное время, пространство, просветительство, узбекская проза, турецкая проза, эстетическая категория.*

Kirish. Badiiy adabiyotda yaratilgan har qanday asar muayyan tarixiy davrning badiiy in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi. Asarni aniq makon va zamon doirasida tahlil etmasdan turib, uning mazmun-mohiyatini to'laqonli anglash mushkul. Chunki makon va zamon falsafiy kategoriyalar bo'lib, borliq hodisalarining yuzaga kelishi va rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, "Makon va zamon (fazo va vaqt) – borliqning umumiy yashash shakllari; fazo (makon) dunyoni tashkil etuvchi obyektlar va ulardagi tarkibiy nuqtalarning o'zaro joylashish tartibi, ko'lami va miqyosini ifoda etsa, vaqt (zamon) dunyoda sodir bo'luvchi hodisa va jarayonlarning ketma-ket ro'y berish va davomiyligini ifodalaydi" [6:271]. Xronotop atamasi dastlab matematika, fizika, kimyo hamda biologiya kabi aniq fanlar doirasida qo'llanilgan bo'lsa, XX asrning 30-yillariga kelib M.Baxtin tomonidan adabiyotshunoslikka tadbiq etildi [1]. Olim bu tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: "Adabiyotda badiiy idrok etilgan zamon va makon aro uyg'unlikni *xronotop* (so'zma-so'z tarjimada zamon va makon degan ma'noni bildiradi), deb

ataymiz. Ushbu istiloh matematika ilmida Eynshteynning nisbiylik nazaryasi negizida qo‘llab kelinadi. Istilohning biz uchun matematikada qo‘llanadigan maxsus tushuncha sifatida, ahamiyati yo‘q. Uni biz adabiyotshunoslikka (tom ma’noda bo‘lmasa ham) istiora o‘laroq qabul qilamiz. Muhimi, bu o‘rinda, istilohning zamon va makonni uyg‘un holatda (zamonni makonning to‘rtinchi o‘lchami sifatida) ifodalashidir” [4:89].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ta’kidlash joizki, Baxtin tomonidan adabiyotshunoslikka olib kirilgan xronotop tushunchasi aniq fanlardagi fazo va vaqt kategoriyalarining aynan takrori emas, balki ularning badiiy tafakkur doirasida qayta talqin etilgan — badiiy makon va badiiy zamon shaklidir. Mixail Baxtin o‘z ilmiy izlanishlarida xronotopning badiiy asarning janr xususiyatlari, syujeti, kompozitsiyasi bilan uzviy bog‘liqligini atroflicha tadqiq etgan. Uzoq Jo‘raqulov “XX asr jahon adabiyotshunosligi darg‘asi” nomli maqolasida olim va uning ilmiy merosi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: “M.Baxtin jahon adabiyotshunosligi tarixida ilk bor badiiy asar xronotopi masalasini keng planda o‘rgandi. Xronotop tushunchasisiz esa badiiy ijod, badiiy asar mohiyatini to‘la anglab, talqin etib bo‘lmaydi… Tadqiqot o‘n bo‘limdan tashkil topgan. Ularda xronotop poetikasiga doir deyarli barcha muammolar qamrab olingan. Xronotop roman sujeti, kompozitsiyasi, obrazlari, uslubi, xususan, badiiy adabiyotdagi inson fenomeni bilan uyg‘unligi masalalari tadqiq etilgan”. Demak, Baxtin xronotop atamasini adabiyotshunoslikka tatbiq etar ekan, uni badiiy asarning janr tuzilishi, kompozitsiyasi, syujeti, badiiy matn strukturasi hamda obrazlar poetikasini qamrab oluvchi muhim nazariy kategoriya sifatida talqin qiladi va badiiy zamon hamda makonning uzviy uyg‘unligini asosiy mezon sifatida belgilaydi.

Muhokama. Badiiy asarlarda o‘qituvchi obrazini tahlil qilishda xronotop masalasi muhim nazariy-metodologik asoslardan biri hisoblanadi. M. Baxtin ta’kidlaganidek, xronotop — badiiy adabiyotda vaqt va makonning mazmunan o‘zaro bog‘lanishidir. Ushbu birlik asardagi qahramonning ijtimoiy mavqeyi, ruhiy kechinmalari va tarixiy vazifasini belgilovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi obrazi esa, mohiyatan, jamiyatning ma’naviy holati va intellektual darajasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan shaxs bo‘lgani sababli, uning badiiy talqini aynan xronotop orqali chuqurlashtiriladi. Xususan, XX asr boshlaridagi o‘tish davri adabiyotida maktab, madrasa va ta’lim makonlari o‘qituvchi obrazining g‘oyaviy markazi sifatida tasvirlanadi. Bu makonlar bilim va jaholat, an’ana va yangilik o‘rtasidagi ziddiyatlar maydoniga aylanib, o‘qituvchini tarixiy jarayonning faol subyekti sifatida ko‘rsatadi. Baxtin ta’biri bilan aytganda, qahramon “vaqt ichida shakllanadi va makon orqali ochiladi”[2]. Shu ma’noda, o‘qituvchi obrazining ichki kechinmalari, jamiyat bilan to‘qnashuvi va fidoiyligi aynan tanlangan makon va davr xronotopi orqali badiiy asoslanadi. Shuningdek, xronotop o‘qituvchi obrazining evolyutsiyasini aniqlash imkonini beradi. Masalan, sovet davri adabiyotida makonning ideologik chegaralanganligi va vaqtning sxematik tasviri o‘qituvchi obrazini ko‘proq tizim vakili sifatida shakllantiradi. Natijada obraz individualligi nisbatan torayib, uning shaxsiy dramasi ikkinchi planga suriladi. Aksincha, islohotlar yoki inqiroz davrlarini aks ettirgan asarlarda xronotop o‘qituvchini jamiyat taqdiriga befarq bo‘lmagan, ma’naviy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan ziyoli sifatida namoyon etadi. Demak, badiiy asarlarda o‘qituvchi obrazini tadqiq etishda xronotop nafaqat kompozitsion vosita, balki obrazning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochuvchi muhim estetik kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Xronotop orqali o‘qituvchi shaxsiyati individual taqdir doirasidan chiqib, muayyan davr va makonning badiiy timsoliga aylanadi.

XX asr boshlaridagi o‘zbek nasrida o‘qituvchi obrazi ko‘pincha maktab va madrasa xronotopi bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Fitratning “Hind sayyohi qissasi” asarida mudarrislar va ilm ahli umumlashtirilgan obraz sifatida berilib, eski ta’lim makoni jaholat va turg‘unlik ramziga aylanadi. Bu makon doirasida o‘qituvchi obrazining faoliyati cheklangan, vaqt esa tarixiy ortda qolganlik holatini ifodalaydi. Natijada xronotop orqali ta’lim tizimining inqirozi va ma’rifatga bo‘lgan ehtiyoj ochib beriladi.

Turk nasrida ham o‘qituvchi obrazi ko‘pincha ijtimoiy ziddiyatlar kuchaygan makonlarda tasvirlanadi. Rashot Nuri Guntekinning “Choliqushi” romanida Feride obrazi o‘qituvchi sifatida Onado‘li qishloqlariga yuboriladi. Roman xronotopi — chekka hududlar, kambag‘al maktablar va notinch ijtimoiy muhit —

o‘qituvchining fidoiyligi va ma’naviy matonatini ochib beruvchi asosiy badiiy vositaga aylanadi. Bu yerda makon tor va murakkab bo‘lsa-da, vaqt yangi jamiyat qurish g‘oyasi bilan sug‘orilgan bo‘lib, o‘qituvchi obrazini islohotchi ziyoli darajasiga ko‘taradi.

Shuningdek, Guntekinning “Yashil kecha” romanida qishloq makoni va real vaqt xronotopi orqali yosh o‘qituvchi Ali Shahinning jamiyatdagi o‘rni, qarshiliklar va ijtimoiy tengsizlik bilan yuzma-yuz kelishi hujjatli-badiiy ruhda yoritiladi [3]. Bu asarda xronotop o‘qituvchini nafaqat bilim beruvchi, balki ijtimoiy haqiqatni anglovchi va fosh etuvchi shaxs sifatida namoyon qiladi. Shahin muallim o‘qituvchi etib tayinlangan Sariovadagi maktabda ishlash barobarida yashar ham edi. Asarda buning sababi shunday izohlanadi: Shahin Ali maktabning yangi binosining qurilishi uchun ancha ter to‘kadi va qurilgach kechalari ham maktabga biron kor-hol bo‘lmasin deb tashlab ketgisi kelmaydi, ikkinchidan, uni Sariovadagi aksar insonlar yangilik tarfdori bo‘lgani uchun ham yoqtirishmas edi, uni uylariga kirachi sifatida olishni istashmas edi. Aslida bu yerda yuqoridagi sabablardan ko‘ra muhimroq jjihar bor. Shahin muallimning muqim joyi doim maktab ekani (xronotopining maktabda ekani) uning hayotdagi maqsadlari bilan bog‘liq edi. U maktabsiz hayotini tasavvur qila olmas edi va insonlar hayoni o‘zgartirish maktablardan boshlanishiga ishonar edi. Ham kechasi, ham kunduzi maktab sanalgan xronotopga “sohib bo‘lgan” ustozlar Jumhuriyat davrining haqiqiy fidoyilari edi.

Guntekinning “Iztirob” romani bosh qahramoni Zahro muallim esa, oilasining kirli va fojeali o‘tmishidan qutilish uchun otasi tarafidan pansion (yotoqli maktab)ga yuboriladi, kelajakda esa o‘qituvchilik kasbini tanlab maktab mudirasi lavozimiga loyiq ko‘riladi [2]. Adib asari qahramonining taqdirini yaxshi tarafga o‘zgartirish vositasi sifatida ilm-ma’rifatni ko‘rsatib, xronotop – Zahroning kelajakda qayerda bo‘lishi kerak edi, degan savolga “Maktabda” deb javob beradi go‘yo.

Insonlar tomonidan vaqtning taqsimlanishi va badiiy asarlarda muayyan zamon-davr chegarasi tanlanishi masalasiga adabiyotshunos olim Bahodir Karimov quyidagicha ta’rif beradi: “Aslida inson aqli bilan chegaralangan zamon-vaqt eralar, asrlar, yillar, fasllar, oylar, haftalar, kunlar, soatlar… kabi butunlikni, astronomik qatorni tashkil etadi. Ijod ahli tasvirlayotgan voqea-hodisalarining ishonchlilik quvvatini oshirish uchun shu astronomik vaqtdan turli yo‘sinda o‘z dunyoqarashi, mahorati, aql-idrokiga qarab foydalanadi. Boshqacharoq aytganda, badiiy asarda zamon-vaqt fizikaviy mazmundan adabiy-falsafiy mazmunga ko‘chadi”. Badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy ta’sir kuchiga ega bo‘lgan surati badiiy obraz sanaladi. Obraz keng ma’noda ijodkorning fikr-tuyg‘ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatsa, tor ma’noda badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosini ifodalaydi. Badiiy adabiyotda inson timsoli u yashayotgan davr, jamiyat, tabiat, muhit bilan uzviy aloqada tasvirlanadi. Chunki inson hamisha zamon va makon qurshovida bo‘ladi. Insonning yashash manzili yer sayyorasi bo‘lsa, badiiy obrazning yashash makoni badiiy asardir. Inson o‘zi yashaydigan zamon talablariga va makon qoidalariga amal qiladi, badiiy asardagi obrazlar esa o‘z jodkorlari yaratgan xronotop mezonlariga bo‘ysunadi. Shunday ekan, xronotop adabiyotda inson obrazi mohiyatini belgilaydi. Chunki badiiy obraz doimo xronotop negizida ma’no kasb etadi. Asarlarda shunday obrazlar bo‘ladiki, ijodkor ularni zamon talabi bilan yaratadi. Asarda qalamga olingan davrni shunday obrazlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Yuqorida sanab o‘tilgan Rashod Nuri Guntekinning Feride, Zahro va Ali Shahin nomli obrazlari aynan shu holatga misol bo‘la oladi, chunki XX asr boshlari, aniqroq aytsa Jumhuriyat davri ibtidosida (Otaturk davrida) jamiyatni o‘zgartiruvchi kuch ma’naviyat va bilim ekani bot-bot jumhurboshi Mustafo Otaturk tomonidan ta’kidlangan. Ma’naviyat va bilimni hukm surdiruvchi, jaholat, bilimsizlikni yenguvchi “askarlar” esa o‘qituvchilar ekaniga shubha qilishmagan. Shu nuqtayi nazardan qaralsa, Rashod Nuri Guntekin zamon talabida mos o‘qituvchi (obraz)larni yarata olgan deya olamiz. Feridening ham, Zahroning ham, Shahin muallimning ham aynan chekka hududlarda o‘qituvchilik qilishi bekorga emas, xrotop sifatida chekka hududlarni tanlashdan muallifning maddaosi ma’naviy jang ketayotgan jaholat maydonini ko‘rsatib bera olish edi. Shu hududlarda o‘qituvchilik qilgandagina bu obrazlar real zamondagi ma’naviyat kurashchilar sanalmish o‘qituvchilarning asardagi badiiy talqini bo‘lishlari mumkin edi.

Har qanday badiiy obrazda muayyan bir zamon va makonning xarakter xususiyati ifodalaydi. O‘zbek adabiyotida Muhammad Salom qalamiga mansub “Dovul” qissasida markaziy qahramonlar sifatida tasvirlangan Sabriddin, Qanoat va Muborak obrazlari sovet tuzumi davriga xos o‘qituvchi tipining badiiy talqinlari hisoblanadi [5]. Shu davrda o‘qituvchilik kasbiga yuklatilgan vazifasi bo‘lmagan mehnat turlari, xususan, paxta yig‘im-terimida qatnashish, obodonlashtirish ishlarida faol ishtirok etish kabilar o‘qituvchilarning ham jismonan, ham ma’nan charchashi, kasallanishi holatlarini faqatgina shu davr va makonda tasvirlay olish to‘g‘ri bo‘lar edi.

Natijalar. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, badiiy asarlarda o‘qituvchi obrazini tahlil qilishda xronotop tushunchasi muhim nazariy-estetik kategoriya sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, xronotop orqali o‘qituvchi obrazi individual qahramon doirasidan chiqib, muayyan tarixiy davr va ijtimoiy muhitning badiiy timsoliga aylanadi. O‘zbek va turk nasridan tahlil qilingan asarlarda o‘qituvchi obrazi maktab, madrasa, qishloq va chekka hududlar kabi makonlar bilan uzviy bog‘langan holda tasvirlanib, bu makonlar orqali jamiyatning ma’naviy holati, ilm-ma’rifatga munosabati va ijtimoiy ziddiyatlari ochib beriladi.

Ikkinchidan, vaqt omilining xronotop tarkibidagi talqini o‘qituvchi obrazining g‘oyaviy yukini belgilaydi. XX asr boshlaridagi o‘tish va islohotlar davri adabiyotida o‘qituvchi jamiyatni yangilashga qaratilgan faol subyekt sifatida tasvirlansa, sovet davri adabiyotida xronotopning ideologik chegaralanganligi natijasida o‘qituvchi obrazi ko‘proq tizim vakili sifatida shakllantiriladi.

Uchinchidan, tadqiqot jarayonida xronotopning o‘qituvchi obrazining axloqiy-ma’naviy mas’uliyatini ochib berishdagi roli asoslab berildi. Rashod Nuri Guntekin asarlaridagi Feride, Zahro va Ali Shahin obrazlari misolida makonning murakkabligi va vaqtning tarixiy keskinligi o‘qituvchini fidoyi, islohotchi ziyoli sifatida namoyon etishi aniqlandi. Chekka hududlar xronotopi o‘qituvchi obrazini jaholat va bilimsizlikka qarshi ma’naviy kurashchi darajasiga ko‘taradi.

To‘rtinchidan, Muhammad Salomning “Dovul” qissasida tasvirlangan Sabriddin, Qanoat va Muborak obrazlari orqali sovet davriga xos xronotop o‘qituvchi tipining jismoniy va ma’naviy zo‘riqish holatlarini realistik tarzda aks ettirish imkonini bergani aniqlandi. Bu asarda vaqt va makon o‘qituvchilik kasbining mafkuraviy yuk ostida og‘irlashganini badiiy asosda ochib beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, xronotop badiiy asarlarda o‘qituvchi obrazini tahlil etishda nafaqat kompozitsion vosita, balki obrazning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochuvchi yetakchi estetik kategoriya hisoblanadi.

Xulosa. O‘zbek va turk nasrida o‘qituvchi obrazining badiiy talqini ko‘p jihatdan xronotop bilan belgilanadi. Ta’lim makonining turi, davrning ijtimoiy-siyosiy ruhi va tarixiy vaqtning yo‘nalishi o‘qituvchi obrazini ma’rifatparvar, fidoyi yoki fojeaviy qahramon sifatida shakllantiradi. Shu ma’noda, xronotop o‘qituvchi obrazini individual kasbiy doiradan chiqarib, uni muayyan davr va jamiyatning badiiy timsoliga aylantiradi. Xulosa qilib aytganda, badiiy asarlarda o‘qituvchi obrazini tahlil qilishda xronotop kategoriyasi muhim nazariy va estetik ahamiyatga ega. Xronotop orqali o‘qituvchi obrazining nafaqat kasbiy faoliyati, balki uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei, ma’naviy mas’uliyati va tarixiy vazifasi ochib beriladi. O‘zbek va turk nasrida o‘qituvchi obrazi ko‘pincha ijtimoiy o‘zgarishlar, ma’rifatparvarlik harakatlari va madaniy islohotlar bilan bog‘liq xronotopda tasvirlanib, u davr ruhining badiiy ifodasiga aylanadi. Shu jihatdan xronotop o‘qituvchi obrazini individual qahramon darajasidan ko‘tarib, muayyan tarixiy davr va makonning ramziy timsoliga aylantiradi hamda uning badiiy-estetik qimmatini yanada chuqurlashtiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mixail Baxtin. Romanda zamon va xronotop shakllari. –T.: Akademnashr, 2015.
2. Гунтекин Рашод Нури. Изтироб. – Т.: Ёшлар матбуоти. 2023.
3. Гунтекин Рашод Нури. Яшил кеча. – Т.: Янги аср авлоди. 2022.
4. Жўрақулов.У. Назарий поэтика масалалари: муаллиф, жанр, хронотоп. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.
5. Салом Муҳаммад. Довул. – Т.: Ёш гвардия. 1978.
6. Фалсафа. Энциклопедик луғат. – Т.: Шарқ. 2010.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UO'K:321.2.1

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA BOSMA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TARAQQIYOTI: TARIXIY TAHLIL

Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

mirsaidabduraxmonov854@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-6979-9985

THE DEVELOPMENT OF PRINT MASS MEDIA IN UZBEKISTAN: A HISTORICAL ANALYSIS

Abdurakhmonov Mirsaid Muzaffarovich,
Navoi State University, basic doctoral student

РАЗВИТИЕ ПЕЧАТНЫХ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Абдурахмонов Мирсаид Музаффарович,
Навоийский государственный университет, базовый докторант

Annotatsiya: *O'zbekiston Respublikasida bosma ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi bosqichlari, qisqacha tarixi va ularning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotdagi o'rni tahlil qilindi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston matbuoti yangi yuksalish davrini boshladi, erkinlik, so'z va erkin fikr bayon qilish imkoniyatlari oshdi. Ushbu maqolada O'zbekiston matbuoti tarixini tahlil qilish orqali biz bosma nashrlarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri, o'zgarishlarga qanchalik moslashganligi, shuningdek, xalqaro aloqalar rivojidagi o'rni va ahamiyatini yaxshiroq tushunishimiz mumkin. Tatqiqot ishida ommaviy axborot vositalari, xususan, bosma nashrlarning rivojlanish jarayonlari hamda sohaga oid kamchiliklar, ularni bartaraf qilish chora-tadbirlari bayon qilindi.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston matbuoti tarixi, bosma ommaviy axborot vositalari, so'z erkinligi, nashriyotlar, axborot siyosati, jamiyat va matbuot.*

Abstract: *The stages of development of print mass media in the Republic of Uzbekistan, their brief historical background, and their role in political, social, and cultural life are examined in this study. During the years of independence, the Uzbek press entered a new stage of development characterized by expanded opportunities for freedom of speech, expression, and independent thought. Through an analysis of the history of the Uzbek press, this article provides a deeper understanding of the impact of print publications on societal development, their adaptability to ongoing changes, as well as their role and significance in the development of international relations. The study also analyzes the processes of development of mass media, particularly print publications, identifies existing challenges in the sector, and proposes measures to address and overcome these shortcomings.*

Key words: *History of the Uzbek Press, print mass media, freedom of speech, publishing houses,* information policy, *society and the press.*

Аннотация: *В статье анализируются этапы развития печатных средств массовой информации в Республике Узбекистан, их краткая история, а также роль в политической, социальной и культурной жизни общества. В годы независимости узбекская пресса вступила в новый этап развития, характеризующийся расширением возможностей свободы слова, выражения мнений и независимого мышления. Анализ истории узбекской печати позволяет глубже понять влияние печатных изданий на общественное развитие, степень их адаптации к происходящим изменениям, а также их роль и значение в развитии международных связей. В исследовании также рассматриваются процессы развития средств массовой информации, в частности печатных изданий, выявляются существующие проблемы в данной сфере и предлагаются меры по их устранению.*

Ключевые слова: *История прессы Узбекистана, печатные СМИ, свобода слова, издательская деятельность, информационная политик. общество и пресса.*

KIRISH. Dunyo mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ommaviy axborot vositalari erkinligi va mustaqilligi muhim ahamiyatga ega. Globallashuv jarayonlari tobora avj olayotgan bugungi kunda insoniyat uchun yangidan yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ammo, bu jarayon bir nechta muammolarga sabab bo‘layotganligi ham hech kimga sir emas. Ushbu muammolar sirasiga insoniyatni xolis va haqqoniy ma’lumotlar bilan ta’minlash masalasini keltirib o‘tsak bo‘ladi. Hozirgi kunda aksariyat insonlar axborotni global axborot makoniga aylangan internet tarmog‘idan olmoqda. Shuning uchun ommaviy axborot vositalarining barcha shakllari, xususan, bosma nashrlar ham o‘z axborot va xabarlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali elektron shaklda iste’molchilarga yetkazishga intila boshladi. Buning natijasida o‘zlarining ta’sir ko‘lamini saqlab qolish, gazetxonlarni o‘z atrofidan uzoqlashtirmaslik, moddiy qiyinchiliklarni yengib o‘tish kabi bir qancha muammolarga qisman yechim topishmoqda.

Rivojlangan davlatlarda matbuotning insoniyat ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o‘rni bo‘yicha juda ko‘p tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xo‘sh, nima sababdan? Chunki, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish, davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatning fuqarolar tomonidan tushunilishi hamda qo‘llab-quvvatlanishida katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Ommaviy axborot vositalari aholining talab va ehtiyojlarini hokimiyat idoralariga yetkazishning muhim ta’sirchan vositasiga, xalqning eng yaqin ko‘makchisi va hamdardiga, demokratiya ko‘zgusiga aylanishi zarur”[1]. Shuning uchun ham O‘zbekistonda nodavlat OAVni rivojlantirish, bosma nashriyotlar samaradorligini oshirishga davlat darajasida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, “Noshirlik faoliyati to‘g‘risida”gi [2], “Axborot erkinligi prinsiplar va kafolatlari” to‘g‘risida”gi [3] O‘zbekiston Respublikasi Qonunlarini misol keltirishimiz mumkin.

Ayni vaqtda dunyo olimlari axborot iste’moli masalasiga oid tatqiqotlar ustida tinimsiz ishlar olib borishmoqda. Odamlar qaysi shakldagi ommaviy axborot vositasiga ko‘proq murojaat qilmoqda, ularni qanday mavzudagi ma’lumotlar ko‘proq qiziqtiradi, yosh toifasi va jinsi bo‘yicha ma’lumotlarga bo‘lgan ehtiyojlar bir-biridan qanday farqlanadi kabi savollar asosida ijtimoiy so‘rovnomalar, tahlillar olib borilmoqda. Hatto, yirik sotsiologik markazlar ommaviy axborot vositalari, xususan matbuot auditoriyasi bo‘yicha yillik munosabatni e’lon qilib bormoqda. Masalan, 16 yoshdan 29 yoshgacha bo‘lgan yoshlar boshqa yosh guruhlariga nisbatan onlayn ma’lumotlar bazalari va raqamli xizmatlarga ijobiy munosabat bildirishi aniqlangan. Xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham ushbu xulosani tasdiqlaydi. Jumladan, Kreuder va uning hammualiflari tomonidan olib borilgan tatqiqotda yoshlarning raqamli texnologiyalardan faol foydalanishi ularning onlayn axborot muhitlariga nisbatan ijobiy qarashlari va raqamli xizmatlardan samarali foydalanish xulq-atvori bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi [4]. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari, xususan, ijtimoiy va raqamli media yoshlarning psixologik salomatligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ham bir qancha tatqiqotlar asosida isbotlangan. Bundan tashqari, yana bir tatqiqotda ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanish depressiya va tashvish holatlarining kuchayishiga olib kelishi faktlar asosida isbotlab berilgan [5]. Shuningdek, o‘tkazilgan tizimli tahlil natijalariga ko‘ra, ijtimoiy media bir tomondan sog‘liq bo‘yicha axborotga kirish imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, noto‘g‘ri axborot, psixologik bosim va ijtimoiy taqqoslash orqali ruhiy salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [6].

O‘zbekistonda milliy matbuotning shakllanishi jadid ma’rifatparvarlarining faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ular matbuotni xalqni ma’rifatlantirish va zamonaviy dunyo yangiliklari bilan tanishtirish vositasi sifatida faol qo‘lladilar; bu jarayon *Oyina, Sadoi Turkiston, Samarqand* kabi bir nechta nashrlar orqali amalga oshgan [7]. Keyinchalik, Sovet hokimiyati davrida matbuot markaziy hokimiyat mafkuraviy vositasiga aylantirilib, gazet-jurnallar asosan partiya siyosatining targ‘ibotchisiga aylanadi [8]. Mustaqillik yillariga kelib, matbuot erkin rivojlanish yo‘liga kirdi. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga moslashdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. O‘zbekiston bosma ommaviy axborot vositalari tarixiy taraqqiyotini o‘rganish jarayonida ushbu sohada ilgari amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar,

monografiyalar, maqolalar, normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar va xalqaro tahliliy manbalar chuqur o'rganildi. Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston" g'oyasi va 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida belgilab olingan maqsadlar doirasida, jumladan, 12-maqsadning 4-bandi hamda 71-maqsadning 6-bandi ommaviy axborot vositalari, ayniqsa matbuot sohasini rivojlantirish, axborot maydonini erkinlashtirish va raqamli OAV tizimini shakllantirishda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda [10].

O'zbekiston matbuot tizimining tarixiy taraqqiyotini o'rganishda bir qancha olimlarning asarlari va tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, O.O'sarovning "OAV va axborot xizmatlari: nazariya va amaliyot" nomli o'quv qo'llanmasida axborot xizmatlarining o'rni, roli va tarixiy taraqqiyoti – ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotidagi ahamiyati, ularning tarixiy rivojlanishi haqida nazariy qarashlar beriladi [11]. Shuningdek, R.Mammadovning maqolasida onlayn medianing Markaziy Osiyo jamoatiga ta'siri, onlayn media platformalarining jamiyat, siyosat va madaniyatga qanday ta'sir qilayotganini muhokama qiladi. Bundan tashqari online media orqali milliy til, madaniyat va identitet qanday ifodalanganligi dalillar bilan tahlil qilinadi [12]. Tahlillarimiz jahon OAV tajribasi va xalqaro tashkilotlarning tahliliy hisobotlaridan ham foydalanildi. Jumladan, Freedom House [13], Reporters Without Borders [14], UNESCO [15] kabi xalqaro tashkilotlarning O'zbekiston matbuot erkinligi va axborot siyosatiga oid yillik hisobotlari, reytinglari va tahlillari mazkur mavzuni ilmiy tahlil qilishda muhim manba sifatida qo'llanildi.

Shuningdek, O'zbekiston Milliy axborot agentligi [16], Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining [17] statistik ma'lumotlari, faoliyat hisobotlari va tahliliy sharhlari so'nggi yillardagi bosma OAV holatini o'rganishda asosiy manba vazifasini bajardi. Ammo, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 1991-yildan boshlab to bugungi kungacha bo'lgan oraliqda bosma OAV tizimining tarixiy rivoji bosqichma-bosqich, mavzu va janr jihatdan diversifikatsiyasi, raqamli axborot maydoniga integratsiyalashuv jarayonlari alohida ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida kam o'rganilganligi ayon bo'lmoqda. Aksariyat ilmiy ishlar umumiy tahlil va nazariy-umumlashtirish xarakteriga ega bo'lib, tizimli tarixiy tahlil etilgan kompleks tadqiqotlar o'tkazilishi lozim.

METODLAR VA NATIJALAR. O'zbekiston bosma ommaviy axborot vositalarining rivojlanishini chuqur tahlil qilishda tarixiy-tahliliy metod asosiy yondashuv sifatida ishlatildi. Ushbu metod yordamida O'zbekiston bosma ommaviy axborot vositalari tizimining tarixiy bosqichlari, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, matbuot siyosati, axborot erkinligi va matbuotning siyosiy ta'sirchanligi chuqur o'rganildi. Mustaqillikdan oldingi va mustaqillikdan keyingi davrlar o'rtasidagi farqlar, matbuotning erkinlashuvi, axborot maydonidagi o'zgarishlar va ijtimoiy kommunikatsiya tizimlarining o'zgarishi tizimli tahlil qilindi.

Empirik metod yordamida esa, O'zbekiston bosma matbuot tizimining holati, rivojlanish tendensiyalari va ommaviy axborot vositalarining roli bo'yicha amaliy ma'lumotlar to'plandi. Bu metod yordamida O'zbekiston Milliy axborot agentligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, shuningdek, boshqa rasmiy davlat organlarining statistika va hisobotlari asosida ma'lumotlar to'plandi. O'zbekiston matbuoti bo'yicha so'nggi yillardagi tahliliy hisobotlar, faoliyat ko'rsatgan va hozirda ham faoliyatini davom ettirayotgam matbuot nashrlari va ularning auditoriyalari, shuningdek, jahon miqyosidagi axborot xavfsizligi va matbuot erkinligi reytinglari o'rganildi. Ushbu metod matbuot tizimining qanday o'zgarganini, uning ommaviy axborot vositalari tizimiga qanday ta'sir ko'rsatganini va axborot xavfsizligi sohasidagi holatni real vaqt rejimida baholash imkonini berdi.

O'zbekiston bosma OAV tizimi mustaqillikdan keyin o'zining tarixiy rivojlanishida muhim o'zgarishlarni boshdan kechirdi. 1991-yilda mustaqillik e'lon qilinishi bilan bosma OAV tizimi qator siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarga yuz tutdi. Bu davrda O'zbekiston matbuoti erkinlashishi va yangi axborot siyosati shakllanishi jarayonida yirik o'zgarishlarga yuz tutdi. 1990-yillarda matbuotda senzura, davlat tomonidan qat'iy nazorat va siyosiy muhitning ta'siri o'zgarmagan edi. Ammo 2000-yillardan boshlab, erkin matbuot va axborot maydonini yaratish jarayonlari ko'plab islohotlar orqali amalga oshirildi. O'zbekiston matbuotining

erkinlashuvi, jurnalistik ta’lim va malaka oshirish masalalari, shuningdek, axborot texnologiyalarining rivojlanishi orqali matbuot o‘zining yangi bosqichlariga o‘tdi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston bosma ommaviy axborot vositalarining mustaqillik davridagi rivojlanishini ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq tarixiy hodisa sifatida ko‘rsatadi. Mustaqillikdan so‘ng sovet davriga xos markazlashgan va mafkuraviy boshqaruvdan voz kechilib, matbuotning huquqiy asoslari yangilandi hamda uning ijtimoiy institut sifatidagi mavqei mustahkamlandi. Bosma OAV rivojida xalqaro tajriba va global axborot makoniga integratsiyalashuv muhim tarixiy omil bo‘lib, xorijiy matbuot tizimlari bilan hamkorlik va tajriba almashinuvi nashrlarning mazmuniy va tarkibiy o‘zgarishlariga ta’sir ko‘rsatdi. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida raqamli texnologiyalarning rivoji an’anaviy bosma nashrlarning elektron shakllarga moslashuvi va internet nashrlarining paydo bo‘lishi bilan matbuot taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Kelgusida O‘zbekiston bosma matbuotining rivoji tarixiy tajriba, huquqiy mustahkamlik, axborot xavfsizligi va xalqaro hamkorlikka tayangan holda baholanadi. Umuman, tadqiqot xulosalari O‘zbekiston matbuoti tarixini kompleks o‘rganish va keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: “O‘zbekiston”, 2018. 2-tom, 36-bet.
2. “Noshirlik faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 26.11.2021 yildagi O‘RQ-731-son. https://lex.uz/docs/-5743059
3. “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.12.2002 yil. 439-II-son. https://lex.uz/docs/-52268
4. Kreuder, A., Frick, U., Rakoczy, K. *et al*. Digital competence in adolescents and young adults: a critical analysis of concomitant variables, methodologies and intervention strategies. *Humanit Soc Sci Commun* 11, 48.2024.https://doi.org/10.1057/s41599-023-02501-4
5. Primack, B. A., Shensa, A., Sidani, J. E., Whaite, E. O., Lin, L. yi, Rosen, D., Colditz, J. B., Radovic, A., & Miller, E. (2017). Social media use and perceived social isolation among young adults in the United States. *American Journal of Preventive Medicine, 53*(1), 1–8. https://doi.org/10.1016/j.amepre.2017.01.010
6. Naslund, J. A., Aschbrenner, K. A., Marsch, L. A., &Bartels,S.J.(2016).The future of mental health care: Peer-to-peer support and social media. *Psychiatric Services, 67*(10), 1132–1135. https://doi.org/10.1176/appi.ps.201500199
7. Bazarbayev, K. K. (2013). Jadidism phenomenon in Central Asia. *Procedia — Social and Behavioral Sciences*, (conference/proceedings). https://doi.org/10.1016/S1877-0428(13)03079-6.
8. Shafer, R., & Freedman, E. (2003). Obstacles to the professionalization of mass media in post-Soviet Central Asia: A case study of Uzbekistan. *Journalism Studies*, 4(1), 91–103. https://doi.org/10.1080/14616700306495
9. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi. (2007, 15 yanvar). *“Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida* (O‘RQ-78-son). Lex.uz. https://lex.uz/docs/-1106870
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, 28 yanvar). *2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi* (PF-60-son). Lex.uz. https://lex.uz/uz/docs/-5841063
11. O‘sarov, O. (2022). *OAV va axborot xizmatlari: nazariya va amaliyot* [O‘quv qo‘llanma]. n.ziyouz.com kutubxonasi. https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/117-jurnalistika?download=13948:olimjon-o-sarov-oav-va-axborot-xizmatlari-nazariya-va-amaliyot-2022
12. Mammadov, R. (2023). Emerging perspectives and contemporary debates: assessing the landscape of online media communication research in Central Asia.
13. Freedom House. (2025). *Freedom in the World 2025: Uzbekistan country report*. Freedom House. https://freedomhouse.org/country/uzbekistan/freedom-world/2025
14. Reporters Without Borders. (2025). *Uzbekistan — RSF country profile*. Reporters Without Borders. https://rsf.org/en/country/uzbekistan
15. UNESCO. (2025). *World trends in freedom of expression and media development 2025* (Global report). UNESCO. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000395766
16. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. https://uza.uz
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi. AOKA. https://aoka.uz/en

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 1(094).052.7

FEATURES OF CONFORMIST BEHAVIOR OF STUDENTS RAISED IN RELIGIOUSLY ORIENTED FAMILIES

Juraeva Vazira Farhodovna, Doctoral Researcher (PhD) at Termez State Pedagogical Institute

ОСОБЕННОСТИ КОНФОРМНОГО ПОВЕДЕНИЯ СТУДЕНТОВ, ВОСПИТАННЫХ В РЕЛИГИОЗНО ОРИЕНТИРОВАННЫХ СЕМЬЯХ

Жураева Вазира Фарходовна, базовый докторант Термезского государственного педагогического института

DINIY YO‘NALTIRILGAN OILALARDA TARBIYA TOPGAN TALABALAR KONFORM XULQ-ATVORINING XUSUSIYATLARI

Juraeva Vazira Farhodovna,
Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

e-mail: jurayevavazira@gmail.com
https://orcid.org/0009-0002-3467-1489

Abstract: *The article examines the features of conformist behavior of students raised in religiously oriented families in the context of their socio-psychological development. The relevance of the study is determined by the increasing role of family values and religious socialization in shaping the behavioral attitudes of young people under conditions of socio-cultural transformations of contemporary society.*

Key words: *conformist behavior, conformism, religious values, family socialization, student youth, socio-psychological influence.*

Аннотация: *В статье рассматриваются особенности конформного поведения студентов, воспитанных в религиозно ориентированных семьях, в контексте их социально-психологического развития. Актуальность исследования обусловлена возрастающей ролью семейных ценностей и религиозной социализации в формировании поведенческих установок молодежи в условиях социокультурных трансформаций современного общества.*

Ключевые слова: *конформное поведение, конформизм, религиозные ценности, семейная социализация, студенческая молодежь, социально-психологическое влияние.*

Annotatsiya: *Maqolada diniy yo‘naltirilgan oilalarda tarbiya topgan talabalar konform xulq-atvorining xususiyatlari ularning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi kontekstida tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy jamiyatda kechayotgan sotsiokultural transformatsiyalar sharoitida oilaviy qadriyatlar va diniy ijtimoiylashuvning yoshlar xulq-atvoriy ustanovkalarini shakllantirishdagi roli tobora ortib borayotgani bilan belgilanadi.*

Kalit so‘zlar: *konform xulq-atvor, konformizm, diniy qadriyatlar, oilaviy ijtimoiylashuv, talaba yoshlar, ijtimoiy-psixologik ta’sir.*

INTRODUCTION (ВВЕДЕНИЕ/KIRISH). In the context of socio-cultural transformations taking place in contemporary Uzbek society, the study of factors influencing the formation of young people’s social behavior is gaining particular relevance. The student period represents a crucial stage in personality socialization, during which individuals actively internalize social norms, values, and behavioral patterns. One of the key mechanisms of social regulation at this stage is conformism, which ensures the alignment of individual attitudes with the expectations of social groups and society as a whole. The phenomenon of conformist behavior has been widely examined in classical social psychology. Significant contributions to its study were made by Solomon Asch, who experimentally demonstrated the impact of group pressure on individual judgments, Muzafer Sherif, who

conceptualized conformism as a result of social norm formation, and Stanley Milgram, who revealed the role of authority in regulating social behavior.

MATERIALS AND METHODS (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD). Within regional and post-Soviet scientific traditions, conformist behavior has been analyzed in relation to social adaptation, value orientations, and group dynamics. In particular, G.M. Andreeva viewed conformism as a form of social interaction determined by environmental influences, while A.V. Petrovsky linked its manifestations to the level of group development and the nature of interpersonal relations. Studies by Uzbek scholars emphasize the role of national traditions, family upbringing, and spiritual values in shaping young people's social behavior. A special role in the process of personality socialization belongs to the family as the primary social institution. The significance of the family environment in the formation of value orientations and behavioral attitudes is substantiated within the ecological systems approach proposed by Urie Bronfenbrenner, in which the family is considered a fundamental microsocial context of development. In Uzbekistan, the family performs not only an educational but also a cultural and spiritual function, acting as the main transmitter of moral and religious values. Issues of religious socialization and the influence of religious values on social behavior have been addressed in the works of Émile Durkheim, who interpreted religion as an institution of normative social regulation, as well as Gordon Allport, who distinguished between intrinsic and extrinsic religious orientations. Within the context of Uzbek society, religious values transmitted through the family often function as factors reinforcing social normativity, respect for authority, and collectivist forms of interaction.

The methodological framework of the study is based on systemic, activity-based, and socio-psychological approaches, which make it possible to examine students' conformist behavior as a result of the interaction between individual psychological characteristics and the sociocultural conditions of family socialization. Within the framework of the study, conformism is conceptualized as a form of social behavior determined by the internalization of norms, values, and expectations of significant social groups.

The empirical study was conducted at higher educational institutions and involved students aged 18 to 23 years. The sample was formed according to the criterion of family upbringing and included students raised in religiously oriented families, as well as a control group of students from families with neutral or non-religious value orientations. The overall sample size ensured the representativeness of the obtained data and the possibility of their statistical processing [1].

A set of complementary research methods was employed. Theoretical methods included analysis, synthesis, generalization, and systematization of scholarly literature on the issues of conformism, family socialization, and religious values. Empirical methods consisted of questionnaire surveys and psychodiagnostic techniques aimed at identifying the level and specific features of students' conformist behavior, as well as the characteristics of family religious orientation. In addition, methods of observation and structured interviews were used to interpret the quantitative data.

Data processing and analysis were carried out using mathematical and statistical methods, including descriptive statistics and comparative analysis of indicators in the studied groups. Qualitative analysis was focused on identifying the substantive characteristics of the manifestation of conformist behavior and their relationship with the nature of family religious socialization [2].

The reliability and validity of the study were ensured through the use of validated research instruments, adherence to standardized diagnostic procedures, and the triangulation of results obtained through different research methods.

DISCUSSION (ОБСУЖДЕНИЕ/ MUHOKAMA). The conducted empirical study was aimed at identifying the features of conformist behavior among students raised in religiously oriented families, as well as at determining statistically significant differences between this group and students from families with neutral value orientations. The obtained results make it possible to comprehensively analyze the socio-psychological mechanisms underlying the formation of conformist behavior depending on the nature of family socialization [3].

The study involved 50 students from higher educational institutions of the Republic of Uzbekistan aged 18 to 23 years (M = 20.1). In accordance with the research objectives, the sample was divided into two comparable groups: the experimental group ($n_1 = 25$), consisting of students raised in religiously oriented families, and the control group ($n_2 = 25$), comprising students from families with neutral or non-religious value orientations. The groups were matched by gender, age, and field of study, which minimized the influence of extraneous variables and ensured the validity of the comparative analysis. Qualitative analysis of the results demonstrated that a normative type of conformist behavior predominates among students raised in religiously oriented families. This type was identified in 72% of respondents in the experimental group, whereas in the control group it was observed in only 44% of students. These findings indicate that religious family socialization contributes to the formation of a stable orientation toward social norms, traditional values, and the expectations of significant social groups [4].

RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ/ NATIJALAR). At the same time, informational conformism - associated with uncertainty in social situations and reliance on group opinion as a source of information - was more frequently observed among students in the control group (36%) compared to those in the experimental group (20%). This result suggests that in the absence of a stable value system formed through religious family upbringing, conformist behavior tends to be more situational and pragmatic in nature. To further examine the relationship between the level of religious family socialization and the intensity of conformist behavior, a correlation analysis using Pearson's correlation coefficient was conducted [5]. The obtained correlation coefficient indicates a moderately strong positive relationship between the examined variables. This finding supports the conclusion that an increase in the level of religious orientation in family upbringing is associated with a strengthening of normative forms of conformist behavior among students, based on the internalization of social norms and rules. Interpretation of the empirical data indicates that a religiously oriented family environment fosters stable normative attitudes that promote socially approved forms of behavior. In this context, conformism appears predominantly conscious and adaptive, rather than being reduced to external submission to group pressure or the suppression of individual autonomy. It is particularly important to note that no statistically significant differences were found between the experimental and control groups with respect to indicators of independence of judgment ($p > 0.05$). This result allows the identified conformism to be interpreted not as a limitation of personal autonomy, but as a mechanism of social integration that ensures the alignment of individual attitudes with social expectations while preserving the capacity for critical thinking [6].

CONCLUSION (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA). The results obtained through the empirical investigation make it possible to draw a number of fundamentally important conclusions regarding the socio-psychological mechanisms underlying the formation of conformist behavior among students raised in religiously oriented families. Statistically significant differences identified between the experimental and control groups confirm the assumption that the nature of family socialization - particularly the religious orientation of family values - exerts a stable and long-term influence on the development of individual behavioral dispositions during the student years.

REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ADABIYOTLAR RO'YXATI)

1. Song G., Ma Q., Wu F., Li L. The Psychological Explanation of Conformity // Social Behavior & Personality: an International Journal. – 2012. – № 40. Issue 8. – С. 1365-1372.
2. Ивахненко Г. Динамика научных коммуникаций //Социологический журнал. 1994. № 2. С. 146.
3. Кинелев С.В. Адаптация личности как социальное явление (социально-философский аспект): Дис. .канд. филос. наук. – Л.,1978.
4. Майерс Д. Социальная психология. – СПб.: Питер, 1997. – 688 с.
5. Мертон Р. Социальная теория и социальная структура //Социол. исслед. 1992. №2. – С.118-119
6. Мухаметзянов И. Ш., Хусаинова С. В. Анализ психофизиологических характеристик подверженности влиянию (вербовке) учащейся молодёжи // Казанский педагогический журнал. - 2016. - № 3. – С. 113-118.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK:093.136.12

JAMIYATNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA MA'NAVIY YETUK RAHBARLIK FENOMENI

Oripov Shuxratjon Orip o'g'li,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

e-mail:
shuxrat.orif@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-3504-5050

THE PHENOMENON OF MORALLY MATURE LEADERSHIP IN SUSTAINABLE SOCIAL DEVELOPMENT

Oripov Shuxratjon Orip o'g'li,
Independent Researcher Institute of Social and Spiritual Studies under the Republican Center for Spirituality and Enlightenment

ФЕНОМЕН ДУХОВНО ЗРЕЛОГО ЛИДЕРСТВА В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Орипов Шухратжон Орипович,
независимый исследователь Институт социально-духовных исследований при Республиканском центре духовности и просвещения

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jamiyatni barqaror rivojlantirish jarayonida ma'naviy yetuk rahbarlik fenomeni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda rahbarlik faqat tashkiliy va boshqaruv samaradorligi bilan emas, balki ma'naviy mas'uliyat, axloqiy barqarorlik va ijtimoiy ishonchni ta'minlash qobiliyati bilan belgilanadigan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida talqin etiladi. Jamiyat taraqqiyotining barqarorligi rahbarning ma'naviy yetukligi, adolatli qarorlar qabul qilishi va jamoatchilik manfaatlarini ustuvor qo'ya olishi bilan uzviy bog'liq ekani asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviy yetuk rahbarlik, barqaror rivojlanish, jamiyat taraqqiyoti, axloqiy mas'uliyat, ijtimoiy ishonch, boshqaruv madaniyati.*

Abstract: *This article analyzes the phenomenon of spiritually mature leadership in the process of sustainable development of society from a socio-philosophical perspective. The study interprets leadership not only in terms of organizational and managerial effectiveness but also as a complex social phenomenon characterized by the ability to ensure moral responsibility, ethical stability, and social trust. It is substantiated that the sustainable development of society is closely linked to the spiritual maturity of the leader, their capacity to make just decisions, and the ability to prioritize the interests of the community.*

Key words: *morally mature leadership, sustainable development, social development, moral responsibility, public trust, governance culture.*

Аннотация: *В данной статье феномен духовно зрелого лидерства в процессе устойчивого развития общества анализируется с социально-философской точки зрения. В исследовании лидерство рассматривается не только через призму организационной и управленческой эффективности, но и как сложное социальное явление, характеризующееся способностью обеспечивать моральную ответственность, этическую стабильность и общественное доверие. Обосновывается, что устойчивое развитие общества напрямую связано с духовной зрелостью лидера, его способностью принимать справедливые решения и ставить интересы общества на первое место.*

Ключевые слова: *духовно зрелое лидерство, устойчивое развитие, общественное развитие, нравственная ответственность, общественное доверие, культура управления.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Jamiyatni barqaror rivojlantirish – bu jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy sohalari o'rtasidagi muvozanatni saqlagan holda, hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish bilan birga kelajak avlodlar manfaatlarini ham ta'minlashga yo'naltirilgan uzluksiz taraqqiyot jarayonidir. Mazkur tushuncha jamiyat hayotida qisqa muddatli foyda yoki biryoqlama o'sishni emas, balki uzoq muddatli barqarorlikni, ijtimoiy adolatni, inson qadr-qimmatining ustuvorligini, resurslardan oqilona foydalanishni hamda ma'naviy qadriyatlarning uzviy rivojini nazarda tutadi. Jamiyatni barqaror rivojlantirish jarayonida iqtisodiy o'sish ijtimoiy farovonlik va ma'naviy yuksalish bilan uyg'unlashib, jamiyatda ishonch, mas'uliyat va hamjihatlik mustahkamlanadi. Shu ma'noda, jamiyatni barqaror rivojlantirish nafaqat tashqi ko'rsatkichlar bilan o'lchanadigan taraqqiyot, balki insonning ongli ishtiroki, axloqiy mas'uliyati va ma'naviy salohiyatiga tayanadigan kompleks ijtimoiy hodisadir. Har qanday barqarorlikning asosi inson omiliga, ayniqsa, jamiyatni boshqaruvchi rahbar shaxsning ma'naviy yetukligiga tayanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДЫ / MATERIALS AND METHODS). Boshqaruvda ma'naviylikning ahamiyatini chuqur asoslab bergan M. Y. Mansurova rahbarlik fenomenini ma'naviy qadriyatlar tizimi orqali talqin etadi. U "rahbar shaxsining ma'naviy qiyofasi vatanparvarlik, vijdon, mardlik va insonparvarlik sifatlarining uyg'unligida namoyon bo'ladi, bu esa rahbarning boshqaruv faoliyatida etik-aksiologik barqarorlikni ta'minlaydi" [2] deb yozadi. B. E. Yuldashev rahbarlikni ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tahlil etib, uni jamiyatdagi ijtimoiy dinamikaning markaziy elementi sifatida baholaydi. Uning fikricha, "rivojlanish sur'ati bilan rahbar ijtimoiy qiyofasining o'sish maromi o'rtasida mutanosiblikni ta'minlash barqaror jamiyatning falsafiy asosi"dir [4]. Yuldashev rahbarlikni ijtimoiy gumanizmni amalda ifodalovchi tizim sifatida ko'radi; uning ta'kidlashicha, rahbar o'zining kompetentlilik, креативlik, qat'iyatlilik, tashkilotchilik va kommunikativlik fazilatlari orqali ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlaydi. Bu fazilatlar rahbarlikni jamiyatdagi ijtimoiy integratsiyaning asosiy elementi sifatida mustahkamlaydi. Yuldashevning pozitsiyasi shundan iboratki, rahbarlik jarayonida insoniy qadriyatlar iqtisodiy va siyosiy manfaatlardan ustun qo'yilishi kerak. Uningcha, ma'naviy jihatdan yetuk rahbar — bu o'zini emas, jamiyatni boshqaradigan shaxs, ya'ni "ijtimoiy refleksiya" markazidir.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISKUSSION). Jamiyatni barqaror rivojlantirishda ma'naviy yetuk rahbarlik fenomeni ma'naviy jarayonlar va texnologiyalar o'zaro ta'siri nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, u zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotning ichki harakatlantiruvchi mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi davrda jamiyat hayoti tobora murakkablashib, boshqaruv jarayonlari raqamli texnologiyalar, axborot oqimlari va tezkor kommunikatsiyalar orqali vositalashib borar ekan, rahbarlik faqat tashkiliy yoki texnik funksiyalar majmui bo'lib qolmay, balki ma'naviy mazmun ishlab chiqaruvchi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi jarayonga aylanmoqda. Shu jihatdan, ma'naviy yetuk rahbarlik jamiyatdagi ma'naviy jarayonlarni texnologik vositalar bilan uyg'unlashtira oladigan, ularni insoniy qadriyatlar va axloqiy mezonlar asosida yo'naltira oladigan yetakchilik shakli sifatida qaraladi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, ma'naviy jarayonlar jamiyatda spontan tarzda emas, balki boshqaruv qarorlari, kommunikativ muhit va institutsional mexanizmlar orqali shakllanadi. Zamonaviy texnologiyalar ushbu jarayonlarni tezlashtiradi, ularning ko'lamini kengaytiradi va ko'rinarliligini oshiradi. Biroq texnologik vositalarning o'zi ma'naviy barqarorlikni ta'minlamaydi; aksincha, ular axloqiy yo'nalishdan mahrum bo'lgan sharoitda ijtimoiy beqarorlik, ishonchning yemirilishi va qadriyatlar fragmentatsiyasini kuchaytirishi mumkin. Shu nuqtada ma'naviy yetuk rahbarlik hal qiluvchi omil sifatida maydonga chiqadi: rahbar texnologiyalarni maqsad emas, balki jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin etgan taqdirdagina, ular barqaror rivojlanishga hissa qo'sha oladi [3].

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ma'naviy yetuk rahbarlikning asosiy belgisi – bu qarorlar qabul qilish jarayonida texnologik ratsionallik bilan axloqiy mas'uliyatni uyg'unlashtirish qobiliyatidir. Raqamli boshqaruv sharoitida qarorlar tezkor, ko'p hollarda algoritmik asosda ishlab chiqilayotgan bir paytda, rahbarning ma'naviy yetukligi ushbu qarorlarning ijtimoiy va insoniy oqibatlarini

oldindan ko‘ra bilishida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda ma’naviy jarayonlar shaxsiy e’tiqod darajasidan chiqib, institutsional va texnologik darajada mustahkamlanadi: shaffoflik, javobgarlik va adolat boshqaruv madaniyatining ajralmas qismiga aylanadi. Ilmiy-ijodiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy yetuk rahbarlik jamiyatda ijtimoiy ishonchning qayta ishlab chiqarilishini ta’minlaydi. Texnologiyalar orqali vositalashgan muloqot sharoitida ishonch endilikda faqat shaxsiy aloqalar emas, balki ochiq axborot, asoslangan qarorlar va jamoatchilikka tushunarli boshqaruv amaliyoti orqali shakllanadi. Rahbarning ma’naviy yetukligi aynan shu jarayonda namoyon bo‘lib, u texnologik imkoniyatlarni manipulyatsiya vositasi emas, balki ijtimoiy kelishuv va hamkorlikni kuchaytiruvchi mexanizm sifatida qo‘llaydi. Natijada jamiyatda barqarorlik majburlash yoki nazorat orqali emas, balki ongli rozilik va ma’naviy birdamlik orqali ta’minlanadi [5].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Tahlil natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, ma’naviy yetuk rahbarlik texnologik rivojlanishning axloqiy chegaralarini belgilaydi. Sun’iy intellekt, raqamli platformalar va katta ma’lumotlar asosida qabul qilinayotgan qarorlar shaxsiy javobgarlikni “tizim” yoki “algoritm” zimmasiga yuklash xavfini kuchaytiradi.

Umuman olganda, jamiyatni barqaror rivojlantirishda ma’naviy yetuk rahbarlik fenomeni ma’naviy jarayonlar va texnologiyalar o‘rtasidagi murakkab dialektik munosabatning mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tahlil natijasida aniqlanishicha, barqaror rivojlanish nafaqat iqtisodiy va texnologik ko‘rsatkichlar bilan, balki rahbarlikning ma’naviy sifati, axloqiy yo‘nalishi va ijtimoiy mas’uliyati bilan belgilanadi. Ma’naviy yetuk rahbarlik texnologiyalarni insonparvar maqsadlarga bo‘ysundira olgan holda, jamiyatni qisqa muddatli samaradorlik emas, balki uzoq muddatli barqarorlik, ijtimoiy uyg‘unlik va ma’naviy taraqqiyot sari yetaklovchi yaxlit boshqaruv modelini shakllantiradi [6].

Jamiyatni barqaror rivojlantirishda ma’naviy yetuk rahbarlik fenomeni zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda faqat boshqaruv samaradorligini ta’minlovchi omil sifatida emas, balki jamiyatning ma’naviy barqarorligi, qadriyatlar uzluksizligi va texnologik taraqqiyotning insonparvar yo‘naltirilishini ta’minlovchi markaziy mexanizm sifatida talqin etilmoqda. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy adolat va ekologik mas’uliyat uyg‘unligini talab qilganidek, ma’naviy yetuk rahbarlik ushbu komponentlarni axloqiy ong va mas’uliyatli qarorlar orqali birlashtira oladigan subektlik darajasini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, rahbarning ma’naviy yetukligi uning shaxsiy fazilatlari bilan cheklanmay, ma’naviy jarayonlar, texnologik vositalar va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlar tizimida namoyon bo‘ladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONSLUSION). Jamiyatni barqaror rivojlantirishda ma’naviy yetuk rahbarlik fenomeni texnologik qudratni axloqiy mezonlar bilan uyg‘unlashtiruvchi, ishonchni tiklovchi va murakkab tizimlarda maqsadlar ierarxiyasini to‘g‘ri belgilovchi integrativ kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Bu fenomen rahbarni texnologiyalarni boshqaruvchi emas, balki ularning ijtimoiy va ma’naviy oqibatlari uchun mas’ul bo‘lgan ongli subekt darajasiga ko‘taradi. Shu bois, ma’naviy yetuk rahbarlik jamiyat barqaror rivojlanishining tashkiliy emas, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy asosi sifatida qaralishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Abdiyev G. E. O‘zbekistonda yoshlar siyosiy ongini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2024. – 51 b.
2. Mansurova M. Y. Ijtimoiy boshqaruvning ma’naviy asoslari: falsafiy tahlil. – Buxoro: Navoiy davlat universiteti, 2024. – 52 b.
3. Mansurova M. Y. Ijtimoiy boshqaruvning ma’naviy asoslari: falsafiy tahlil. – Buxoro: Navoiy davlat universiteti, 2024. – 52 b.
4. Yuldashev B. E. Zamonaviy rahbar ijtimoiy qiyofasini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari. – Qarshi: Qarshi davlat universiteti, 2022. – 45 b. Rustamaliyev M. H. Jamiyat barqarorligini ta’minlashda davlat boshqaruvining ma’naviy-huquqiy tamoyillari. – Namangan: Namangan davlat universiteti, 2025. – 52 b.
5. Ochilov X. A. Davlat fuqarolik xizmatchisining ma’naviy faolligini oshirish mexanizmlari. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2024. – 48 b.
6. Jonas H. Das Prinzip Verantwortung. – Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1979.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 093.473.12

YANGI O‘ZBEKISTONNING MA’NAVIY MODERNIZATSIYADA “TARBIYA” FANINING O‘RNI

Ergashev Abdujalil Abdurasul o‘g‘li,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

e-mail: abdujalil11@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-9994-3214

THE ROLE OF THE “UPBRINGING” SUBJECT IN THE SPIRITUAL MODERNIZATION OF NEW UZBEKISTAN

Ergashev Abdujalil Abdurasul ugli,
Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan
Lecturer, Department of Social Sciences

РОЛЬ ПРЕДМЕТА «ВОСПИТАНИЕ» В ДУХОВНОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Эргашев Абдужалил Абдурасул оглы,
Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, преподаватель кафедры общественных наук

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yangilanayotgan O‘zbekistonda “Tarbiya” fanining joriy etilish zarurati ijtimoiy-falsafiy, aksiologik va metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Globallashuv sharoitida yosh avlod ongini ma’naviy tahdidlardan himoya qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash masalasi “Tarbiya” fanining o‘qitilishi asosida yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *tarbiya, shaxs, qadriyat, ma’naviyat, milliy g‘oya, globallashuv, aksiologiya, identitet, barkamol avlod.*

Annotation: *This article analyzes the necessity of introducing the subject “Upbringing” in the context of the renewing Uzbekistan from socio-philosophical, axiological, and methodological perspectives. In the conditions of globalization, the protection of the younger generation’s consciousness from spiritual threats and the harmonization of national and universal values are examined through the framework of teaching the subject “Upbringing.”*

Key words: *upbringing, personality, value, spirituality, national idea, globalization, axiology, identity, harmoniously developed generation.*

Аннотация: *В данной статье анализируется необходимость введения предмета «Воспитание» в обновляющемся Узбекистане с социально-философской, аксиологической и методологической точек зрения. В условиях глобализации вопросы защиты сознания молодого поколения от духовных угроз, обеспечения гармонии национальных и общечеловеческих ценностей рассматриваются на основе преподавания предмета «Воспитание».*

Ключевые слова: *воспитание, личность, ценность, духовность, национальная идея, глобализация, аксиология, идентичность, гармонично развитое поколение.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XXI asr insoniyat tarixida keskin ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar davri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, globallashuv jarayonlarining jadallashuvi va madaniy integratsiyaning kuchayishi inson ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, yoshlar ijtimoiy ongining shakllanish jarayonida mafkuraviy pluralizm, g‘oyaviy raqobat va ommaviy madaniyat ta’siri kuchaymoqda.

Bunday sharoitda tarbiya masalasi oddiy pedagogik jarayon emas, balki davlat va jamiyat taraqqiyotining strategik omiliga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida “Tarbiya” fanining joriy etilishi aynan shu zarurat bilan izohlanadi [1]. Tarbiya tushunchasi qadimdan Sharq falsafasining markaziy kategoriyalaridan biri bo‘lib kelgan. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Navoiy va boshqa mutafakkirlar shaxs kamolotini jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida talqin qilganlar [2]. Abdulla Avloniy esa tarbiyani millat hayoti bilan tenglashtiradi [3]. Mazkur maqolaning maqsadi – yangilanayotgan O‘zbekistonda “Tarbiya” faniga ehtiyojning tarixiy, nazariy va falsafiy asoslarini tizimli ravishda tahlil qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Maqolada tarixiylik, tizimli yondashuv, aksiologik tahlil, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili va falsafiy interpretatsiya metodlaridan foydalanildi.

Mustaqillik tufayli yosh avlodni yuksak ma’naviyat va milliy g‘oya tamoyillari asosida tarbiyalash masalasiga alohida urg‘u berildi. Mustaqillikning ma’no-mohiyatini yosh avlod ongi va qalbiga singdirish, ularni milliy g‘oya ruhida tarbiyalashga oid ko‘plab ilmiy-uslubiy va ommabop maqolalar, kitoblar chop etildi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoevning qator asarlari, ma’ruza va nutqlarini [4] hamda M.Quronov [5], A.Erkayev [6] kabi olimlarimizining asarlarini alohida qayd etish lozim.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). XXI asrda ta’lim-tarbiyaga har qachongidan ham ko‘proq ehtiyoj ortib bormoqda. Zero, tarbiya – o‘sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot – dunyoqarashni, insoniy e’tiqod, burch va ma’suliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi..

XXI asrda Tarbiya faniga ehtiyoj ortib borishini yana shu bilan izohlash mumkinki, bugun hayot o‘zgarish sur’atlari tezlashdi. Bu bir tomondan, turli xalqlar hayot sohalarida imkoniyat doirasida umumiy jihatlarni, qulayliklarni yaratib bersa, ikkinchi tomondan axborot makonini kengaytirdi. Turli maqsad va manfaatlarga yo‘naltirilgan har xil g‘oya, qarashlar, uni targ‘ibot qilish texnologiyalari, ijtimoiy ong va tafakkuriga ta’sir ko‘rsatish maqsadida “jozibador”ligini oshirgan holda samaradorlikka erishish uchun harakat qiladi.

Aynan mana shunday sharoitda Tarbiya faniga, uni zamon talablari asosida o‘qitishga ehtiyoj har qachongidan ham kuchliroq seziladi. Bugun Vatanimiz mustaqilligiga tahdid soluvchi, fuqarolarimiz ongi va qalbini egallashga qaratilgan zararli g‘oyalarning xavfi yadro maydonidagi xavfdan ham ortiq. Bunday xavfni yetuk tarbiya bilangina bartaraf etish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha vakillariga yo‘llagan tabrik nutqida ta’kidlaganidek, “taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq” [7].

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 23-avgust kuni bo‘lib o‘tgan xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida “Tarbiya” fanini yaratish va o‘qitish tashabbusi bilan chiqdi. Davlatimiz rahbarii maktablardagi ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etib, “Milliy g‘oya”, “Odobnoma”, “Dinlar tarixi”, “Vatan tuyg‘usi” kabi fanlarni birlashtirgan holda, yagona “Tarbiya” fanini joriy qilish zarurligi qayd etdi [7].

Prezidentimiz ushbu yig‘ilishda ta’lim va tarbiyaga doir bir qator yangi g‘oya va tashabbuslarni ilgari surdi. Bu o‘z vaqtida ilgari surilgan tashabbus edi.

Shu asosda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani konsepsiyasi”da ta’kidlanganidek, “bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular

oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo‘lishdek hayotiy talablarni qo‘ymoqda” [1].

NATIJALAR (РЕЗУЛТАТЫ / RESULTS). Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi.

Pedagogik adabiyotlarda “Tarbiya” atamasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda Tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini anglatadi. Bunday tushunishda Tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g‘oyalari, adabiyot, san’at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma’nodagi Tarbiya tushunchasi ichiga ta’lim va ma’lumot olish ham kiradi [6].

Shaxs – alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o‘zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy-gumanitar fanlarda o‘z yo‘nalishi, tadqiqot obyekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi. U o‘ta murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshi, o‘zini o‘zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aql idrok, tafakkur obyekti sifatida, hatto, falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayot mantig‘i jihatidan tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin. Shaxs, mohiyatiga ko‘ra, madaniylashgan, ong, aql orqali faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan, ijtimoiy-tarixiy an’ana, turmush tarzi va tajribaga asoslangan muayyan avlodlar vakili. Shaxs fenomeni inson olamining butun murakkabliklarini o‘zida mujassam etadi. Uni har tomonlama o‘rganish maqsadida turli davrlarda tadqiqot olib borilgan. Ayniqsa, Sharqda u yuksak axloqiy-ma’naviy me’yorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, bebaho qadriyat deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go‘zal va farovon bo‘lishiga ehtiyoj sezadi [7].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Umuman olganda, “Tarbiya” fani Yangi O‘zbekistonning ma’naviy modernizatsion taraqqiyot strategiyasida muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Uning mazmunini chuqurlashtirish, metodik bazasini takomillashtirish va ilmiy-nazariy asoslarini boyitish kelgusidagi tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi. Aytish mumkinki, “Tarbiya” fanining izchil va konseptual asosda o‘qitilishi barkamol avlodni shakllantirish, milliy identitetni mustahkamlash hamda jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi.

Xulosa qilish mumkinki, “Tarbiya” fanining joriy etilishi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ma’naviy-falsafiy tayanchidir. Kelgusida “Tarbiya” fanining nazariy asoslarini chuqurlashtirish, uning konseptual modelini yanada takomillashtirish hamda raqamli va interaktiv pedagogik vositalar bilan boyitish ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani konsepsiyasi// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.07.2020 y., 09/20/422/1033-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so‘zi, 2020-yil, 1-oktabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
5. Erkayev A. Uchinchi renessans – milliy g‘oya sifatida // “Yangi O‘zbekiston”, №172, 2020 yil, 9 sentyabr soni.
6. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
7. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 1(094).052.7

ALOHIDA TA’LIMGA EHTIYOJI BOR BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA SENSOR PROFILINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Zayirkulova Nozima Ilyas qizi,
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Pedagogika, psixologiya va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

https://orcid.org/0009000 6-5709-2921
e-mail: nozimazayirkulova176@ gmail.com

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF DEVELOPING SENSORY PROFILE IN PRIMARY GRADE STUDENTS WITH SPECIAL EDUCATION NEEDS

Zayirkulova Nozima Ilyas kizi,
Tashkent University of Economics and Pedagogy
Teacher of the Department of Pedagogy, Psychology and Primary Education

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ СЕНСОРНОГО ПРОФИЛЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ

Зайыркулова Нозима Ильяс кызы,
Ташкентский университет экономики и педагогики,
преподаватель кафедры педагогики, психологии и начального образования

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada alohida ta’limga ehtiyoji bor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sensor profilini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sensor rivojlanishga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, ularni ta’lim jarayonida qo‘llashning nazariy asoslari yoritiladi. Shuningdek, inklyuziv ta’lim sharoitida sensor profilni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlarning ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, sensor profoli, inklyuziv ta’lim, o‘quv faoliyati, ijtimoiy moslashuv, diqqatni jamlash, interdfaol ta’lim metodlari.*

Аннотация: *В данной научной статье анализируются педагогические и психологические возможности развития сенсорного профиля у учащихся начальной школы с особыми образовательными потребностями. Выявлены основные факторы, влияющие на сенсорное развитие, и освещены теоретические основы их применения в образовательном процессе. Также раскрыта важность подходов, направленных на развитие сенсорного профиля, в инклюзивном образовании.*

Ключевые слова: *образование, сенсорный профиль, инклюзивное образование, образовательная деятельность, социальная адаптация, концентрация, интерактивные методы обучения.*

TAMADDUN NURI

Abstract: *This scientific article analyzes the pedagogical and psychological possibilities of developing a sensory profile in primary school students with special educational needs. The main factors influencing sensory development are identified and the theoretical foundations of their application in the educational process are highlighted. The importance of approaches aimed at developing a sensory profile in inclusive education is also revealed.*

Key words: *education, sensory profile, inclusive education, educational activities, social adaptation, concentration, interactive teaching methods.*

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvning keng joriy etilishi alohida ta’limga ehtiyoji bor bolalarning rivojlanish xususiyatlarini chuqur o‘rganishni talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarda sensor jarayonlarning yetarli darajada shakllanmaganligi ularning o‘quv faoliyati, ijtimoiy moslashuvi va psixologik holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Sensor ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va ularga mos javob berishdagi qiyinchiliklar bolaning o‘qish, yozish, diqqatni jamlash hamda xulq-atvorida muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli alohida ta’limga ehtiyoji bor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sensor profilini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik imkoniyatlar, avvalo, ta’lim jarayonini o‘quvchilarning individual sensor ehtiyojlarini inobatga olgan holda tashkil etishda namoyon bo‘ladi. Sensor yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar, ko‘rgazmali vositalardan oqilona foydalanish, harakatli va amaliy faoliyatni dars jarayoniga integratsiya qilish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sezgi tajribasini boyitadi. Bunday yondashuv o‘quv materialini yaxshiroq o‘zlashtirishga, diqqat va xotira jarayonlarining faollashuviga yordam beradi.

Psixologik imkoniyatlar esa o‘quvchining emotsional holatini barqarorlashtirish, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish va ijobiy motivatsiyani shakllantirish bilan bog‘liqdir. Sensor rivojlanishdagi qiyinchiliklar ko‘pincha bolalarda tashvish, o‘zini chetga tortish yoki haddan tashqari qo‘zg‘aluvchanlik holatlarini yuzaga keltiradi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash, individual va guruhli mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning ichki resurslarini faollashtirish sensor profilni rivojlantirish jarayonining samaradorligini oshiradi.

Pedagog va psixolog hamkorligi sensor profilni rivojlantirishda muhim shartlardan biridir. Ularning birgalikdagi faoliyati o‘quvchilarning sensor ehtiyojlarini aniqlash, mos rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarni tanlash va natijalarni tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, individual ta’lim yo‘nalishlarini ishlab chiqishda sensor xususiyatlarni hisobga olish o‘quvchining rivojlanish dinamikasini ijobiy tomonga o‘zgartiradi. Shuningdek, sensor profilni rivojlantirish jarayonida oilaning ishtiroki ham muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar bilan olib boriladigan tushuntirish ishlari, uy sharoitida bajariladigan sensor mashqlar bo‘yicha tavsiyalar pedagogik ta’sirning uzluksizligini ta’minlaydi. Bu esa o‘quvchining kundalik hayotida sensor tajribani mustahkamlashga xizmat qiladi. Alohida ta’limga ehtiyoji bor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sensor profilni rivojlantirish pedagogik va psixologik imkoniyatlarning kompleks qo‘llanilishini talab etadi. Ta’lim jarayonining moslashuvchanligi, mutaxassislar hamkorligi va individual yondashuv sensor rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashning asosiy omillari hisoblanadi. Mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanish o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatini oshirishga va ularning ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolaning metodologik yondashuvi ilmiy asoslangan xulosalarga erishish uchun milliy va xalqaro tajribalar hamda sensor jarayonlar bo‘yicha tasdiqlangan yondashuvlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Metodologiya olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy tamoyillar, empirik o‘lchovlar va diagnostik vositalarni o‘zaro uyg‘unlashtirib, alohida ta’limga ehtiyoji bor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sensor profilni ishonchli aniqlash va rivojlantirish imkonini beradi.

Anna Jean Ayres — AQShlik psixolog va nogiron bolalar bilan ishlash bo‘yicha olim bo‘lib, sensor integratsiya nazariyasini keltirib chiqargan. Uning ta’rifiga ko‘ra, «sensor integratsiya» — atrof muhitdan olinadigan sezgi ma’lumotlarini organizmning strukturalari orqali tartibga solish va ishlatish jarayoni bo‘lib, bu jarayon bolaning o‘zini tutishi va o‘rganish faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. [1] Bu nazariya Ayres tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, hozirgi sensor diagnostika tadqiqotlarining asosiy konseptual maydonini tashkil etadi.

S.M.Pulatova[2] alohida ta’limga ehtiyoji bor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sensor rivojlanish diagnostikasi bo‘yicha aynan eshitish qobiliyatining buzilishi bo‘lgan bolalarda sezgi rivojlanishi holati va diagnostik xususiyatlar tahlil qiladi. X.Axmedova[3] montessori metodida sensor tarbiya va uning bolalar rivojlanishida pedagogik sensor yondashuvlarning amaliy tarafini yoritadi. R.A.Khudoyberdiyeva [4] sensor-motor jarayonlar bilan bog‘liq psixologik jarayonlarni tahlil qilgan va sensor jarayonlarning psixologik mexanizmlarini o’rgangan. D.Mukhitdinova [5] sensor jarayonlarni rivojlantirishda innovativ metodlarni qo‘llashni imkoniyatlarini ko‘rsatib o’tadi. Hifza Javed va boshqalar[6] robot asosidagi sensor tajribalar orqali o‘quvchilarning interaktiv sezgi faoliyatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot olib borgan, bu pedagogik texnologiyalar va sensor yondashuvlarni birlashtirishga misol bo‘lib xizmat qiladi.

NATIJALAR

Alohida ta’limga ehtiyoji bor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sensor profili bir xil darajada shakllanmaganligini ko‘rsatdi. Aksariyat o‘quvchilarda ayrim sensor tizimlarning yetarli darajada rivojlanmagani o‘quv faoliyatida muayyan qiyinchiliklarga sabab bo‘layotgani aniqlandi. Jumladan, vizual va eshitish axborotini qayta ishlashdagi muammolar o‘qish va yozish jarayoniga, vestibulyar va proprioseptiv tizimdagi cheklanishlar esa bolaning umumiy faolligi va harakat koordinatsiyasiga ta’sir ko‘rsatgani kuzatildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, pedagogik muhitning moslashtirilishi va psixologik qo‘llab-quvvatlash sensor rivojlanish jarayonida muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchi va psixologning hamkorlikda olib borgan ishlari bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olish imkonini berdi hamda sensor profilni rivojlantirishda barqaror ijobiy dinamika ta’minlandi.

MUHOKAMALAR

Olingan natijalar sensor rivojlanishning pedagogik va psixologik omillar bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi. Sensor profilning yetarli darajada rivojlanmaganligi faqat biologik yoki nevrologik sabablar bilan izohlanmaydi, balki ta’lim muhitining xususiyatlari, o‘quv jarayonining

[1] Daly-Lynn, J. & Williams, B. (2023). A Qualitative Exploration of the Therapeutic Qualities of the Art of Therapy from the Therapists Perspective within the Context of Ayres Sensory Integration Dataset. Ulster University, 17 Jul 2023. DOI: 10.21251/32c4bad0-0c3d-477f-ae77-b56e25d87b78 https://pure.ulster.ac.uk/en/datasets/a-qualitative-exploration-of-the-therapeutic-qualities-of-the-art

[2] Pulatova S.M. (2020). Features of diagnosing the level of sensory development of preschool children with hearing impairment. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(5), 18-21. Https://Www.Idpublications.Org/Wp-Content/Uploads/2020/05/Full-Paper-Features-Of-Diagnosing-The-Level-Of-Sensory-Development-Of-Preschool-Children.Pdf

[3] Axmedova , X. (2025). Montessori metodida sensor tarbiya va moliya ta’limi. Modern Science and Research, 4(2), 1393–1397. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/69616

[4] Khudoyberdiyeva R.A. (2024). Peculiarities of the formation of sensorimotor processes in children with mental development problems. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ), 12(4), 489-494. https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/5502/5167

[5] Mukhitdinova D. & Ergasheva, M. (2025). Innovative methods in special pedagogy: modern approaches and practice. Модели и методы в современной науке, 4(3), 176–180. https://inlibrary.uz/index.php/mmms/article/view/78036

[6] https://arxiv.org/abs/1901.00885

tashkil etilishi va pedagogik yondashuvlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, sensor profilni rivojlantirishda kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. pedagogik-psixologik imkoniyatlar inklyuziv ta’lim sharoitida samarali qo‘llanilishi mumkin. Multisensor yondashuv, individual ta’lim strategiyalari va rivojlantiruvchi muhit yaratish orqali alohida ehtiyojli o‘quvchilarning nafaqat sensor rivojlanishi, balki umumiy o‘quv motivatsiyasi va ijtimoiy moslashuvi ham yaxshilanadi. Bu esa ta’lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O‘qituvchilarning sensor rivojlanish masalasidagi kasbiy kompetensiyasini oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Pedagoglar sensor profil xususiyatlarini tushungan holda o‘quv materiallarini moslashtirsa, ta’lim jarayoni yanada samarali kechadi. Psixologik xizmat bilan hamkorlik esa bolaning individual rivojlanish yo‘lini aniqlashda muhim yordam beradi. Umuman olganda, alohida ta’limga ehtiyoji bor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sensor profilini rivojlantirish pedagogik va psixologik imkoniyatlar orqali amalga oshirilishi mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Olingan xulosalar kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Alohida ta’limga ehtiyoji bor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sensor profilni rivojlantirish masalasini pedagogik va psixologik nuqtai nazardan kompleks tahlil qilishga qaratildi. Sensor jarayonlarning bolaning o‘quv faoliyati, xulq-atvori va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatishi ilmiy asoslangan holda tasdiqlandi.

Xulosa qilib aytganda, alohida ta’limga ehtiyoji bor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sensor profilni rivojlantirish pedagogik va psixologik imkoniyatlarni birlashtirgan holda amalga oshirilgandagina kutilgan natijalarga erishish mumkin. Pedagoglar, psixologlar va inklyuziv ta’lim bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, sensor rivojlanishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, olingan xulosalar kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Daly-Lynn, J. & Williams, B. (2023). A Qualitative Exploration of the Therapeutic Qualities of the Art of Therapy from the Therapists Perspective within the Context of Ayres Sensory Integration Dataset. Ulster University, 17 Jul 2023. DOI: 10.21251/32c4bad0-0c3d-477f-ae77-b56e25d87b78 https://pure.ulster.ac.uk/en/datasets/a-qualitative-exploration-of-the-therapeutic-qualities-of-the-art

2. Pulatova S.M. (2020). Features of diagnosing the level of sensory development of preschool children with hearing impairment. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(5), 18-21. Https://Www.Idpublications.Org/Wp-Content/Uploads/2020/05/Full-Paper-Features-Of-Diagnosing-The-Level-Of-Sensory-Development-Of-Preschool-Children.Pdf

3. Axmedova , X. (2025). Montessori metodida sensor tarbiya va moliya ta’limi. Modern Science and Research, 4(2), 1393–1397. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/69616

4. Khudoyberdiyeva R.A. (2024). Peculiarities of the formation of sensorimotor processes in children with mental development problems. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ), 12(4), 489-494. https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/5502/5167

5. Mukhitdinova D. & Ergasheva, M. (2025). Innovative methods in special pedagogy: modern approaches and practice. Модели и методы в современной науке, 4(3), 176–180. https://inlibrary.uz/index.php/mmms/article/view/78036

6. https://arxiv.org/abs/1901.00885

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 930/32

TARIXNI O‘RGANISHDA MEDIA VOSITALARINING TA’SIRI

Turdaliyeva Muhayyo Mahammadaliyevna, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi Media markazi katta muharriri

THE IMPACT OF MEDIA TOOLS IN STUDYING HISTORY

Turdaliyeva Muhayyo Mahammadaliyevna, Senior Editor, Media Center, National Information Agency of Uzbekistan

ВЛИЯНИЕ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ НА ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ

Турдалиева Мухайё Махаммадалиевна, старший редактор Медиа-центра Национального информационного агентства Узбекистана

https://orcid.org/0009-0008-9593-977X
e-mail: muhayyo.ilmiy@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tarixni media vositalari orqali o‘rgatishning pedagogik va madaniy ahamiyati jadidlar obrazlari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy media, xususan, televideniye va YouTube platformalarida yaratilayotgan tarixiy ko‘rsatuvlarning tarixiy tafakkur, milliy xotira va tanqidiy fikrlashni shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy va Munavvarqori kabi jadid namoyandalarining mediaviy talqini orqali tarixiy shaxs obrazining vizual, audio va emotsional ta’sir vositalari yordamida qayta yaratilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy fakt va badiiy talqin o‘rtasidagi muvozanat masalasi hamda media mahsulotlariga tanqidiy yondashuv zarurati asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *media va tarix, tarixiy xotira, jadidlar, tarixiy obraz, YouTube, multimedia, tarixni o‘qitish, tanqidiy fikrlash.*

Abstract: *This article examines the impact of media tools on history education through the representation of Jadid figures. The study focuses on the role of modern media, particularly television and YouTube platforms, in shaping historical thinking, national memory, and critical analysis skills. Through the media portrayals of Fitrat, Cholpon, Abdulla Qodiriy, and Munavvarqori, the article analyzes how historical images are reconstructed using visual, audio, and emotional elements. Special attention is given to the balance between historical facts and artistic interpretation, as well as the necessity of a critical approach to historical media content.*

Keywords: *media and history, historical memory, Jadids, historical image, YouTube, multimedia, history education, critical thinking.*

Аннотация: *В статье анализируется влияние медиа-средств на изучение истории на примере образов джадидов. Рассматривается роль современных медиа, в частности телевидения и платформы YouTube, в формировании исторического мышления, национальной памяти и критического восприятия исторической информации. На материале медийных интерпретаций деятельности Фитрата, Чулпана, Абдуллы Кадыри и Мунавваркары раскрываются особенности визуального, аудиального и эмоционального воздействия на аудиторию. Особое внимание уделяется проблеме соотношения исторического факта и художественной интерпретации, а также необходимости критического подхода к медиа-контенту исторической направленности.*

Ключевые слова: *медиа и история, историческая память, джадиды, исторический образ, YouTube, мультимедиа, преподавание истории, критическое мышление.*

Kirish. Tarix va undagi voqealar hamisha qiziqarli va sirli bo‘lib kelgan. O‘tmishda va hozirgi kunda ham moziyga qiziqish, haqiqatni anglash, dalillash jamiyat rivoji uchun asos bo‘lib xizmat

qilib kelmoqda. Zamonaviy ta’lim sohasida tarixni o‘qitishning metodlari, uslublari va turli xil fanlar bilan uyg‘unlashuvi oshib bormoqda. Ayni uslublardan biri media yutuqlaridan foydalangan holda tarixni, undagi tarixiy qahramonlarning obrazini o‘quvchilar, kuzatuvchilar ko‘z o‘ngida va tasavvurida yanada jonliroq tasvirlash, yaqindan tanishishga undash, qiziqishni oshirish mumkin. Tarixiy ma’lumotlar, sanalar, voqealar shunchalik ko‘pki, uni hamisha ham xotirada saqlab qolish qiyinchilik tug‘diradi. Tarix o‘qitishda ayni muammoni bartaraf qilishga yordam beradigan zamonaviy metodlardan biri albatta, mediadan keng foydalanishdir. “Tarixiy ma’lumotlar ko‘pincha vaqt, joy, sabab-oqibat zanjiri va shaxslar o‘rtasidagi murakkab bog‘lanishlarni o‘z ichiga oladi. Multimedia vositalari ushbu murakkablikni yengi lashtiradi va o‘quvchilar ongida aniq, mantiqiy va tizimli tarixiy tasavvur hosil qiladi”[1.4].

Adabiyotlar tahlili. Vizual va audio mahsulotlardan foydalangan holda, zamonaviy ta’lim berish, klassik uslublar bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarga tarixiy voqealarni yaxlit idrok etish imkoniyatini shakllantiradi. A.Kozma va R.Anderson animatsiya va interaktiv xaritalar tarixiy jarayonlarni fazoviy va vaqt jihatidan to‘g‘ri idrok etishga yordam berishini ta’kidlaydi. V.J.Mayer va S.Moreno multimedia vositalari o‘quvchilarning diqqatini saqlash va faol ishtirokini ta’minlashda muhim ekanini ko‘rsatadi. Sh.T.Ergashev elektron darsliklar, virtual muzeylar va videomateriallar tarixiy bilimni chuqurlashtirish bilan birga tanqidiy fikrlashni rivojlantirishini asoslaydi. A.X.Raxmonov tadqiqotlarida multimedia asosida tarixiy ma’lumotlarni o‘zlashtirish samaradorligi an’anaviy metodlardan yuqori ekani aniqlangan. B.Jonassenning konstruktivistik yondashuviga ko‘ra, multimedia texnologiyalari tarixni faol o‘zlashtirish uchun qulay ta’lim muhitini yaratadi.

Tadqiqot medodologiyasi. Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy media vositalari, xususan, YouTube platformasida joylashtirilgan tarixiy ko‘rsatuvlar orqali milliy tariximizdagi muhim shaxslar obrazini ommaga yetkazish samarali usullardan biriga aylanib bormoqda. Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy va Munavvarqori kabi jadid namoyandalarining hayoti va faoliyati mediaviy talqinda berilishi tomoshabinlar, ayniqsa yoshlar ongida tarixiy shaxslarni jonli, tushunarli va esda qolarli obraz sifatida qabul qilishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda tarixni ommalashtirish va ilmiy asosda yoritishga qaratilgan media mahsulotlar muhim o‘rin egallaydi. Xususan, O‘zbekiston tarixi telekanalida namoyish etilayotgan “Afsona va haqiqat”, “Tarix maydoni”, “Oltin meros” kabi ko‘rsatuvlar orqali tarixiy voqealar, shaxslar va jarayonlar ilmiy manbalar asosida tahlil qilinib, keng tomoshabinlar auditoriyasiga yetkazilmoqda. Ushbu ko‘rsatuvlar tarixiy haqiqatni ochib berish, afsonaviy talqinlar bilan ilmiy faktlar o‘rtasidagi farqni ko‘rsatish hamda tomoshabinlarda tanqidiy va tarixiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda kun.uz o‘zining ilmiy asoslarga ega tarixiy ko‘rsatuvlari bilan ajralib turadi. Masalan, O‘zbek xonliklari to‘g‘risidagi “Tashkil topish, yuksalish va xotima” https://www.youtube.com/watch?v=R_E824RfEd4 kabi ko‘rsatuvlari, yoki “Ko‘hna tarix” rukniga kirgan https://www.youtube.com/watch?v=kUnhfc5OfV4 hujjatli filmlariga tarixchi olimlar ham jalb qilingan. Ko‘rsatuv davomida tarix fanlari doktori, dotsent Ozoda Rahmatullayeva, filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Dadaboyev, tarix fanlari doktori, professor Shohista O‘ljayeva, tarix bo‘yicha falsafa fanlari doktori Nizomiddin Gulboyev va boshqa ko‘plab olimlarning fikrlarini tinglashimiz va ular bilan jonli suhbatlarni ko‘rishimiz mumkin. Daryo.uz ham bu borada ko‘plab ko‘rsatuvlarga ega. Medianing tarixni yoritishdagi ahamiyati oshib borishi bilan birga tarixiy kontentlar ham ko‘payib bormoqda. “Qurultoy” https://www.youtube.com/watch?v=Je8topetVDY, Oyina.uz https://www.youtube.com/watch?v=LEL8EQfDWbc.
Shuningdek ko‘plab erkin tarzda kontent olib boruvchilar ham oshib bormoqda “Alimoff” https://www.youtube.com/watch?v=BSJLcrf5cbA, “Qahvali suhbatlar” https://www.youtube.com/watch?v=SFCQHgo1Sag.

Tarixni media vositalari orqali yoritish amaliyoti deyarli barcha rivojlangan davlatlarda ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida shakllangan. Dastlab televideniye orqali namoyish etilgan tarixiy ko‘rsatuvlar va hujjatli filmlar keng auditoriyani qamrab olgan bo‘lsa, keyingi bosqichda tarixiy-dramatik seriallarning ommalashuvi kuzatildi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, 2006-yildan boshlab YouTube kabi raqamli platformalarda tarixiy

TAMADDUN NURI

kontent, jumladan, tarixiy ko‘rsatuvlar va hujjatli videomateriallarni yaratish va tarqatish sezilarli darajada ortdi. Mazkur jarayon tarixiy bilimlarni ommalashtirish bilan bir qatorda, ularni zamonaviy vizual va interaktiv shakllarda taqdim etish imkoniyatini kengaytirdi. Masalan “2006-yilda internetning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda 65-75%ga kirib borishiga erishilganligi, o‘qitish va o‘rganishda ommaviy axborot vositalarining ta’siri ustunlik qila boshladi. 2005-yilda Qo‘shma Shtatlardagi eng yirik universitet masofaviy va taqsimlangan ta’limga ega bo‘lgan Phoenix universiteti edi”[2.167-168].

Aslida, har qanday media mahsuloti muayyan g‘oya, qarash yoki qadriyatni targ‘ib etishga xizmat qiladi, shu ma’noda u ta’limning o‘ziga xos shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Media orqali uzatilayotgan axborot tomoshabin ongiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatib, bilim, munosabat va tasavvurlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. YouTubedagi tarixiy ko‘rsatuvlarda **vizual obrazning kuchi** alohida ahamiyat kasb etadi. Tarixiy qahramonlarning fotosuratlari, hujjatli lavhalar, xaritalar, animatsiyalar va sahnalashtirilgan epizodlar orqali voqealar ketma-ketligi aniq va tizimli tarzda namoyish etiladi. Bu esa tarixiy faktlarni abstrakt ma’lumotlar sifatida emas, balki muayyan makon va zamonda sodir bo‘lgan real jarayon sifatida idrok etishga yordam beradi.

Shuningdek, **emotsional ta’sir vositalari** – drama elementlari, musiqiy fon, ovoz ohangi va diktor nutqi tomoshabinning diqqatini jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, jadidlar hayotidagi fojeali voqealar musiqiy dramatizatsiya orqali berilganda, tarixiy hodisalarning ruhiy-psixologik mazmuni yanada chuqurroq anglashiladi. Bu holat o‘quvchilarda tarixiy shaxslarga nisbatan empatiya va qiziqish uyg‘otadi.

Biroq mediada tarixni yoritishda **tarixiy fakt va badiiy talqin chegarasi** masalasi alohida e’tiborni talab etadi. Ayrim ko‘rsatuvlarda dramatik ta’sirni kuchaytirish maqsadida tarixiy voqealarga subyektiv baho berilishi yoki ayrim tafsilotlarning badiiylashtirilishi kuzatiladi. Shu sababli tarixiy kontentni ta’lim jarayonida qo‘llashda o‘qituvchi tomonidan ilmiy manbalar bilan qiyosiy tahlil olib borilishi muhim hisoblanadi. Bu yondashuv o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mediada namoyish etilayotgan barcha ko‘rsatuv va mahsulotlarga ham to‘laqonli ishonib bo‘lmaydi. Ayrim hollarda tarixiy mavzudagi media mahsulotlari shou elementlariga asoslanib, yetarli darajada dalillanmagan yoki ilmiy manbalarga tayanmagan talqinlarni ilgari suradi. Natijada tarixiy haqiqat badiiy bo‘yoqlar ostida xiralashib boradi. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, “Ilgari ishonchli bo‘lgan axborot va ko‘ngilochar manbalar o‘z yo‘lini yo‘qotdi. Iste’molchi sifatida bizda tanlash imkoniyati ko‘p, biroq fuqaro sifatida biz yolg‘on ma’lumotlar va noto‘g‘ri talqinlar ko‘pligi bilan yuzma-yuz kelmoqdamiz”[3]. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, media vositalari yordamida tarixiy qahramonlar obrazini yoritish tarixiy xotirani mustahkamlashga, murakkab tarixiy jarayonlarni soddalashtirib tushuntirishga, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va muhokama qilish faolligini oshirishga imkon yaratadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy media, xususan, YouTube platformasidagi tarixiy ko‘rsatuvlar tarixni o‘qitishda samarali pedagogik vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ular tarixiy ma’lumotlarni vizual, audio va emotsional shaklda taqdim etish orqali o‘quvchilarning bilimni qabul qilish va eslab qolish darajasini oshiradi. Ayniqsa, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy va Munavvarqori kabi tarixiy shaxslarning mediaviy obrazlari milliy o‘zlikni anglash va tarixiy ongni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, tarixiy faktlarning ilmiy aniqligini saqlash va badiiy talqin bilan fakt o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash ta’lim jarayonining muhim sharti bo‘lib qolaveradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.R.G‘aniyev. Multimedia vositalarining tarix fanini o‘qitishdagi didaktik afzalliklari // Inter education & global study. 2025. B.4.
2. Terry Anderson. Characteristics Of Interactive Online Learning Media// Published by AU Press, Athabasca University. 2011. B.484.
3. Natalie Fenton, Des Freedman, Justin Schlosberg, Lina Dencik. The Media Manifesto//. Polity. 2020. B.140.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 141.7:159.923.2

INSONNING O‘Z-O‘ZIDAN BEGONALASHUVI VA YOLG‘IZLIK OMILLARI

Temirova Nilufar Erkinovna, Guliston davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

HUMAN SELF-ALIENATION AND THE FACTORS OF LONELINESS

Temirova Nilufar Erkinovna, Associate Professor of Gulistan State University, Candidate of Philosophical Sciences

САМООТЧУЖДЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА И ФАКТОРЫ ОДИНОЧЕСТВА

Темирова Нилуфар Эркиновна, доцент Гулистанского государственного университета, кандидат философских наук

https://orcid.org/0009-0003-6330-5901
e-mail: temirovanilufar545@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola insonning o‘z-o‘zidan begonalashuvi va yolg‘izlik muammosining dolzarbligini, uning ijtimoiy-psixologik va falsafiy jihatlarini tahlil qiladi. Maqolada begonalashuvning turli ko‘rinishlari, uning kelib chiqish sabablari (ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy omillar, texnologiyaning ta’siri) hamda yolg‘izlik hissini kuchaytiruvchi omillar atroflicha ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, mazkur holatlarning shaxs ruhiyatiga, ijtimoiy munosabatlarga va umuminsoniy qadriyatlarga salbiy ta’siri yoritilib, bu muammolarni yengish yo‘llari, jumladan, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, shaxsiy rivojlanish va o‘z-o‘zini anglashga urg‘u berilgan.*

Kalit so‘zlar: ***begonalashuv****, o‘z-o‘zidan begonalashuv****,*** *yaxshi hayot, postmodern, poststrukturalistik, essensializm, bir-biriga tegishli bo‘lish,* ***shaxsiy qadriyatlar****.*

Abstract: *This article analyzes the relevance of the problem of human self-alienation and loneliness, examining its socio-psychological and philosophical dimensions. It explores various manifestations of alienation, its underlying causes (including social, economic, cultural factors, and the impact of technology), as well as factors that exacerbate the sense of loneliness. Furthermore, the article highlights the negative effects of these conditions on individual psychology, social relationships, and universal human values, while proposing solutions focused on strengthening social bonds, personal development, and self-awareness.*

Keywords: *alienation, self-alienation, the good life, postmodern, post-structuralist, essentialism, belonging, personal values.*

Аннотация: *В данной статье анализируется актуальность проблемы самоотчуждения человека и одиночества, рассматриваются их социально-психологические и философские аспекты. В работе подробно исследуются различные формы отчуждения, причины его возникновения (социальные, экономические, культурные факторы, влияние технологий), а также факторы, усиливающие чувство одиночества. Кроме того, освещается негативное влияние данных состояний на психику личности, социальные отношения и общечеловеческие ценности. Автор предлагает пути преодоления этих проблем, делая особый акцент на укреплении социальных связей, личностном развитии и самопознании.*

Ключевые слова: *отчуждение, самоотчуждение, благая жизнь, постмодерн, постструктуралистский, эссенциализм, принадлежность, личные ценности.*

Kirish. Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyoda inson psixikasi va ijtimoiy hayotida o‘ziga xos murakkab jarayonlar sodir bo‘lmoqda. Texnologik taraqqiyot, urbanizatsiya va global integratsiya jarayonlari jamiyatni rivojlantirib, inson hayotini yengillatishiga qaramay, ayrim hollarda uning ma’naviy olamida chuqur o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Ana shunday jarayonlardan biri – insonning o‘z-o‘zidan begonalashuvi va bu holatning yaqqol ko‘rinishi bo‘lmish yolg‘izlik hislarining kuchayishi hozirgi zamon ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarining dolzarb mavzularidan biriga aylangan. O‘z-o‘zidan begonalashuv deganda, shaxsning o‘ziga, o‘z harakatlariga, fikrlariga va hatto o‘zining shaxsiy qadriyatlariga nisbatan his qiladigan masofa, ajralish

yoki tushunmovchilik holati kuzatiladi[1]. Bu esa o‘z navbatida, ichki bo‘shliq, maqsadsizlik va hayotdan mamnun bo‘lmaslikka olib keladi. Yolg‘izlik esa, aksincha, shaxsning jamiyatdan, boshqa insonlardan ajralib qolganlik hissini ifodalaydi, hattoki u ko‘pchilik ichida bo‘lsa ham. Ushbu ikki tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ko‘pincha bir-birini kuchaytiradi va insonning ijtimoiy hayotiga hamda shaxsiy farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu maqolada insonning o‘z-o‘zidan begonalashuviga olib keluvchi asosiy omillar, ularning psixologik va ijtimoiy ildizlari hamda bu holatning inson ruhiyati va jamiyat uchun oqibatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, begonalashuv va yolg‘izlik tuyg‘ularini yengish hamda sog‘lom ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. 1980-yillardan boshlab, begonalashuv tushunchasi ilmiy-tanqidiy lug‘atda, xususan, marksistik nazariyada “ishonchsizlik” ma’nosida qo‘llanilib kelayotgan bo‘lsa-da[2], uning keng tarqalgan va mavhumlashgan foydalanilishi nazariy jihatdan uning aniqligini yo‘qotdi. Postmodern va poststrukturalistik nazariyalarning rivojlanishi bilan ushbu tushuncha, mavzu konsepsiyasi bilan birga cheklab qo‘yildi. Biroq, begonalashuv hodisasi o‘z mohiyatini yo‘qotmadi va jamiyatning hissiy-ijtimoiy dunyosining ajralmas qismi bo‘lib qoldi. Ayniqsa, mehnat munosabatlarida, xususan, noaniq va noqulay ish sharoitlarida begonalashuvning alomatlari ko‘plab kuzatilmoqda. O‘z xohish-irodasining yo‘qligi, befarqlik va ma’nosizlik hissi kabi begonalashuv ko‘rinishlari nafaqat yangi mehnat shakllarida, balki jamiyatning turli sohalarida ham chuqur ildiz otgandek tuyuladi.

“Yaxshi hayot” masalasi zamonaviy badiiy va ijtimoiy-falsafiy diskurslarda muhim o‘rin tutmoqda. Mavjud maslahatlar va takliflarning ko‘pligi, begonalashmagan hayotga intilishning kuchayib borayotganligini ko‘rsatadi. Begonalashuv tashxisiga asoslangan ijtimoiy munozarani quyidagi savol bilan umumlashtirish mumkin: “Yaxshi hayot mavjud, lekin u qayerda?” Shu nuqtayi nazardan, begonalashuv nazariyasi dolzarbligini yo‘qotmagan. So‘nggi yillarda Rahel Jayeggi[3], Hartmut Rosa[4] va Christoph Henning[5] kabi tadqiqotchilar tomonidan ushbu kuchli tushunchani qayta jonlantirish va uni zamonaviy sharoitlarga moslashtirishga urinishlar qilinmoqda.

Muhokama. Jamiyatning tanqidiy nazariyasi ko‘pincha azob-uqubatlarning axloqiy mezonlaridan kelib chiqadi. Shu bois, postmodernizm davrida begonalashuvdan kelib chiqqan azob-uqubatlarni qayta tadqiq etish uchun asosiy nuqta sifatida qabul qilish mumkin. Garchi begonalashuv azob-uqubatlar toifasidagi eng kam ko‘rinadigan ko‘rinishi bo‘lsa-da, u muhim ahamiyatga ega. Sanoatlashgan jamiyatlarda jismoniy omillarning (ochlik, o‘lim va hokazo) azoblanish mezonlari sifatida ishlatilishi va iqtisodiy o‘sishning farovonlik ko‘rsatkichi deb qaralishi mumkin, begonalashuvni ko‘rsatkich sifatida e’tiborsiz qoldirish, ijtimoiy azob-uqubatlar toifasini mukammal tushunishga xalaqit beradi, bu esa ijtimoiy azob-uqubatlar va ichki farovonlik o‘rtasidagi munosabatlarni buzadi. Demak, begonalashuv bu ajralmas azob-uqubatlar toifasidir. Begonalashuv nazariyasidan voz kechish, ijtimoiy azob-uqubatlar toifasini tushunishni murakkablashtiradi[6].

Antik davrdan buyon begonalashuv falsafa va ijtimoiy fanlar uchun muhim tadqiqot mavzusi bo‘lib kelgan. Begonalashuv nazariyasi har doim uni qarama-qarshi bir model bilan, bilvosita yoki ochiqchasiga bog‘lab kelgan. Hatto begonalashuvning madaniy pessimistik nazariyalari ham, ularning qarama-qarshi modeliga salbiylik sifatida yondashish imkonini beradi. Qoida tariqasida, ushbu antitipni insonning o‘zini-o‘zi anglash holati deb tushunish mumkin. Insonning o‘zini-o‘zi anglashi esa, yaqinlik holati yoki hatto ilk birlikning tasodifiy holatidan boshqa narsa bo‘lishi mumkin emas. Biroq, bugungi postmodern tafakkurdagi insonlarda “bir-biriga tegishli bo‘lish” yoki nikoh, oila hodisalarining mohiyati munozaralidir. Shu bilan birga, begonalashuv tushunchasini shakllantirgan har bir kishi, uzoqlashishi mumkin bo‘lgan ikki qutbning haqiqiy yaqinligini

1 Erkinovna T. N. The Influence of Social Communications on the Formation of Alienation and Loneliness //European Journal of Humanities and Educational Advancements. – T. 4. – №. 12. – C. 1-2.

2 Labica, G. Dictionnaire de marxisme. Paris: PUF. – 1984. – P. 300.

3 Rahel Jaeggi. Alienation. New York. Columbia university press. – 2014. – P. 301.

4 Rosa, H. Beschleunigung: Die Veränderung der Zeitstrukturen in der Spätmoderne. Berlin: Suhrkamp. – 2010. – P. 147.

5 Henning, Kristof. Freiheit, Gleichheit, Entfaltung: Die politische Philosophie des Perfektionismus , Frankfurt/M.: Kampus. – 2015. – P. 147.

6 Erkinovna T.N. The Development Of Sociology And Its Role In The Life Of Society //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 11. – C. 1320-1323.

taxmin qila olmaydi. Shunday qilib, aslida “bir-biriga tegishli bo‘lish”ning mohiyatini tushunish uchun subyekt nazariyasiga murojaat qilish zarur.

Begonalashuvning aksariyat nazariyalarida subyektivlik, haqiqiylik g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq. Bunday holda, faqat haqiqiy mavjudlik baxtli, muvaffaqiyatli va demak, yaxshi hayotni taqdim etadi. Haqiqiylik mavjudot yoki insonning mohiyati bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Biroq, bu essensializmni (mohiyatni birinchi o‘ringa qo‘yish) endi saqlab bo‘lmaydi, posstrukturalistik nazariyalar buni asosli ravishda talab qildi. Afsuski, ular shoshilinch ravishda mavzuni essensializm bilan salbiy fikrlarda yondashdilar. Shuning uchun, hozirgi ishda begonalashuvni essensializmsiz o‘ylangan mavzu nazariyasi sifatida ko‘rsatish kerak.

Natijalar. Begonalashuv fenomeni tahlili shuni ko‘rsatadiki, uni ikki asosiy nuqtayi nazardan turlicha baholash mumkin. Birinchidan, begonalashuv insonning ajralmas, antropologik jihatdan doimiy xususiyati sifatida qaralishi mumkin. Bu insonga xos bo‘lgan tug‘ma holat bo‘lib, har qanday jamiyatda mavjud bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, begonalashuvni zamonaviy jamiyatlarga xos bo‘lgan muhim ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rish mumkin. Bu ikki nuqtayi nazar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Insonning o‘zini anglash va o‘zini jamiyatga moslashtirish jarayonining uzluksiz va muvaffaqiyatli kechishi begonalashuv muammosining oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu antropologik sikl, ya’ni shaxsning o‘zini jamiyatga moslashtirish jarayoni, har bir individ uchun asosiy va elementar davr hisoblanadi. Bu jarayonda shaxs o‘zining individual xususiyatlarini jamiyatga taqdim etadi va jamiyat tomonidan ijtimoiy shaklda qayta o‘zlashtiriladi. Agar bu jarayon muvaffaqiyatli amalga oshsa, shaxsning subyektiv xususiyatlari ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlar bilan moslashib, obyektiv, ya’ni ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Biroq begonalashuv yoki o‘zlashtirish jarayonlaridan biri yoki ikkalasi ham muvaffaqiyatsiz yakunlansa, ya’ni shaxs o‘zini jamiyatdan ajralgan, tushunilmagan yoki o‘zini ifoda eta olmagan his qilsa, aynan mana shu holatda begonalashuv hodisasi yuzaga keladi. Bu holat nafaqat shaxsiy psixologik noqulayliklarga, balki ijtimoiy integratsiyaning buzilishiga, jamiyatdagi aloqalarning zaiflashishiga va natijada yolg‘izlik hissining kuchayishiga olib keladi. Zamonaviy sharoitda texnologiyaning rivojlanishi, global miqyosdagi o‘zgarishlar, ijtimoiy aloqalarning o‘zgaruvchanligi va ba’zan sirtqi tus olishi begonalashuvning yangi shakllarini yuzaga keltirishi va uning ko‘lamini kengaytirishi mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, insonning o‘z-o‘zidan begonalashuvi va yolg‘izlik hissi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ular antropologik va sotsiologik jihatlarni o‘z ichiga oladi. Begonalashuv nafaqat insonning tug‘ma xususiyati, balki jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichlarida, ayniqsa zamonaviy sharoitda yanada kuchayishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxsni ijtimoiylashtirish jarayoni, ya’ni individning o‘zini jamiyatga moslashtirishi va ijtimoiy me’yorlarni o‘zlashtirishi begonalashuvning oldini olishdagi asosiy mexanizmdir. Ushbu jarayonda shaxsning subyektiv dunyosi ijtimoiy muhit bilan muvaffaqiyatli integratsiya bo‘lsa, begonalashuv xavfi kamayadi. Aksincha, o‘zini o‘zlashtira olmaslik va jamiyatga moslasha olmaslik natijasida begonalashuv yuzaga keladi. Bu esa, o‘z navbatida, shaxsda chuqur yolg‘izlik hissini tug‘diradi.

Zamonaviy jamiyatda globallashuv, texnologik taraqqiyot, ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi va ba’zan aloqalarning sirtqi tus olishi begonalashuv va yolg‘izlik muammolarini yanada murakkablashtirmoqda. Shu sababli, ushbu muammolarning ildizlarini tushunish va ularga yechim topish nafaqat shaxsning ruhiy salomatligi, balki jamiyatning umumiy barqarorligi va ijtimoiy integratsiyasi uchun ham muhimdir. Kelajakda ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar begonalashuvning yangi ko‘rinishlarini aniqlash va samarali profilaktika hamda davolash usullarini ishlab chiqishga qaratilishi zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Erkinovna T.N. The Influence of Social Communications on the Formation of Alienation and Loneliness //European Journal of Humanities and Educational Advancements. – T. 4. – №. 12. – C. 1-2.
2. Labica, G. Dictionnaire de marxisme. Paris: PUF. – 1984. – P. 300.
3. Rahel Jaeggi. Alienation. New York. Columbia university press. – 2014. – P. 301.
4. Rosa, H. Beschleunigung: Die Veränderung der Zeitstrukturen in der Spätmoderne. Berlin: Suhrkamp. – 2010. – P. 147.
5. Henning, Kristof. Freiheit, Gleichheit, Entfaltung: Die politische Philosophie des Perfektionismus , Frankfurt/M.: Kampus. – 2015. – P. 147.
6. Erkinovna T. N. The Development Of Sociology And Its Role In The Life Of Society //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 11. – C. 1320-1323.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 81-2

GAZETA SARLAVHALARI NOMLANISHINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Boboyev Ulash Ne'matovich, Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF NEWSPAPER HEADLINE NAMING

Boboyev Ulash Ne'matovich, associate professor at Samarkand state institute of foreign languages, candidate of philological sciences

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НАИМЕНОВАНИЯ ГАЗЕТНЫХ ЗАГОЛОВКОВ

Бобоев Улаш Нематович, доцент Самаркандского государственного института иностранных языков, кандидат филологических наук

https://orcid.org/0009-0005-3033-3361
e-mail: ulashboboyev@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ommaviy axborot vositalari sarlavhalarining lingvopragmatik xususiyatlari gazeta matnlari misolida tahlil qilingan. Shuningdek Ommaviy axborot vositalari matnlaridagi lug'atning qo'llanilishi, gazeta matnlarida nutqning asosiy vositasi sifatida madaniy gegemonligi, Ommaviy axborot vositalari matnlari semantik sohada o'ziga xos atamalarni bog'lash orqali auditoriyaning muayyan mavzu haqidagi tushunchasini shakllantiradigan tematik ramkalar yaratishi masalalari chuqur tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *lingvopragmatik tahlil, nutq, gazeta tili, sarlavha, ijtimoiy pragmatika, madaniy tahlil.*

Annotation: *This article analyzes the linguopragmatic features of mass media headlines based on newspaper texts. In addition, it provides an in-depth examination of lexical usage in media texts, the cultural hegemony of mass media as the primary means of discourse in newspaper publications, as well as the creation of thematic frames that shape the audience's perception of a particular topic through the integration of specific terms within the semantic field of media discourse.*

Keywords: *linguopragmatic analysis, discourse, newspaper language, headline, social pragmatics, cultural analysis.*

Аннотация: *В данной статье на примере газетных текстов анализируются лингвопрагматические особенности заголовков средств массовой информации. Также подробно рассматриваются вопросы функционирования лексики в текстах СМИ, их культурной гегемонии как основного средства речевого воздействия в газетных публикациях, а также создания тематических рамок, формирующих представление аудитории о конкретной теме посредством объединения специфических терминов в семантическом пространстве медиатекстов.*

Ключевые слова: *лингвопрагматический анализ, речь, язык газеты, заголовок, социальная прагматика, культурный анализ.*

Kirish. Til doimo inson hayoti, uning ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq bo'lganidek, gazetxon sarlavhalardagi axborotni oqib, mazmunini anglashi uchun albatta uning semasiga e'tibor qaratib anglaydi. Ma'lumki dastlabki o'rinda lisoniy belgilar va ifoda topayotgan obyekt o'rtasidagi aloqa qayta tiklanib, semantika davri boshlanib, keyinchalik semantikadan pragmatika "unib chiqqan"idek, avvalo lisoniy faoliyatning pragmatik xususiyatlari, bu jihatlarni yuzaga

keltiruvchi omillarni o‘rganish tilning ijtimoiy mohiyatini aniqlash uchun juda muhimdir.

Negaki “Pragmatika lisoniy bilim bilan kommunikativ qobiliyat o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘taydi. Tilshunoslikning sotsiolingvistika, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik kabi sohalarining pragmatika bilan sarhaddoshligini alohida ta’kidlashga hojat yo‘q”[1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Pragmatikaning umumiy ta’rifini quyidagicha tasavvur qilish mumkin: pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo‘lib, uning tadqiqot doirasiga muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo‘llash hamda ushbu qo‘llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta’siri masalalari o‘rganiladi. Ushbu qoidalar kommunikatsiya shart-sharoitlariga nisbatan, keng ma’nodagi kontekst sifatida o‘rganiladi. Lisoniy hodisalarning bu yo‘sindagi tahlili ularning qo‘llanishidagi u yoki bu muhitda mavjud bo‘lgan to‘siqlar, chegaralanishlarni ham aniqlashga imkon beradi. Lingvistik tahlilning asosiy g‘oyasi ham lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatda qo‘llanishiga nisbatan yoki boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniqlashdir. O‘zbek pragmalingvist olim Sh.S.Safarov bu borada “Pragmalingvistika tadqiqot predmetining keng miqyosda tasavvur etilishi ushbu sohaning turli yo‘nalishlarda taraqqiy etishini taqozo etadi. Natijada, diskurs nazariyasi, pragmalingvistikaning nutqiy akt nazariyasi, deyksis nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika kabi o‘z “ichki” sohalari yuzaga keldi. Bu sohalarning farqi, birinchi navbatda, pragmalingvistikaning umumiy predmetini alohida qismlarga ajratish va har bir qismni batafsil yoritilishi, o‘rganilishida namoyon bo‘ladi”[2].

Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida o‘tgan asrning 60-70-yillarida shakllangan bo‘lib, pragmalingvistikaning predmetini ilk bor G.Klaus aniqlashga harakat qilgan. Ch.Pirs esa semiotika doirasida uch ilmiy soha – sintaktika (yoki sintaksis), semantika va pragmatikani mustaqil yo‘nalishlar sifatida ajratadi. Keyinchalik mantiqshunos Morris “pragmatika” tushunchasini qolgan ikki soha – sintaksis va semantikaga nisbatan ancha keng ekanligini qayd etib, uning ko‘p qirrali, lisoniy faoliyatni keng qamrovda o‘rganuvchi soha sifatida talqin qiladi.

Olmon olimlari pragmatika sohasini keng ma’noda talqin qilish, uni tilshunoslikning umumlashtiruvchi sohasi sifatida e’tirof etishni ma’qul ko‘rishib R.Karnapga (Sagpar 1942) ergashganligini ham aytish mumkin. Masalan, “Olmon lingvistik qomusi”ning mualliflaridan biri, matn tilshunosligi bo‘yicha yirik mutaxassis Z.Shmidt [3] “pragmalingvistika” va “matn lingvistikasi” tushunchalari yagona bir mazmun anglatishini va ular birgalikda lisoniy muloqot umumiy nazariyasini shakllantirishini hamda ushbu nazariya, kommunikativ tilshunoslik sohasi sifatida, matn grammatikasi va an’anaviy grammatikani ham qamrab olishini bildiradi.

Muhokama. Pragmatika til belgilarining nutqdagi harakatini o‘rganuvchi tilshunoslikning tadqiqot doirasi hisoblanadi. Lingvistik pragmatika aniq shaklga ega emas. Uning tarkibida so‘zlovchi va tinglovchi muloqoti, ularning nutq jarayonidagi o‘zaro munosabatlariga bog‘liq bo‘lgan masalalar yotadi. Darhaqiqat, fransuz kundalik va haftalik gazetalari sarlavhalarini o‘rganish jarayonida lingvistik belgilar va ularning foydalanuvchilari o‘rtasida o‘rnatilgan munosabatlar pragmatik tahlil qilishga undaydi. Jurnalistlar tomonidan tanlangan maqolalar va gazetxon o‘rtasidagi munosabat, hamda, o‘quvchilar diqqatini jalb qilish, qiziqtirish, hayajonga solish, to‘lqinlantirish, ishontirish, yoki aksincha, chalg‘itish so‘z va so‘z birikmasining ekspressiv, informativ yoki baholovchi ma’nosini, ya’ni pragmatik ma’nosini tatbiq etish ehtiyoji vujudga keladi.

La “Une” birinchi sahifa sarlavhalari ma’lumotlarni toifalarga ajratadi va birinchi o‘ringa qo‘yadi. Ular ikkita qarama-qarshi vazifaning chorrahasida turadi:

1) oson va tez aniqlanishi kerak bo‘lgan grafik belgini ishlab chiqarish;

2) o‘quvchilarga mazmunli xabarni yetkazish: fransuz gazetalarining “La Une” deb nomlanadigan birinchi sahifasining tarkibiy

[1] Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. Тошкент, 2008. – Б.258.

[2] Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. Тошкент, 2008. – Б.76

[3] Schmidt 1973: 233-244.

elementlari ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra: Bandeau – bosh tasma deyiladi va u sarlavha ustida turadi. Manchette – sarlavha, ya’ni gazeta nomi bo‘lib, uning narxi, sanasi, raqami, holati haqida ma’lumot beradi. Bu ma’lumotlar ichki sahifalarni “ma’muriy reklama” qilib turadi. Manshetning o‘ng va chap tomonida Oreilles: o‘ng va chap sarlavha, ko‘pincha sarlavha sahifaga ishora qiladi.

Tribune – Tribuna: katta sarlavhalar. Sous-tribune – Pastki sarlavhalar: sarlavha ostidagi bo‘shliqlar, maqolalar boshidagi tahririyatlar, rasmlar joylashtiriladigan o‘rin. Ventre ou millieu de page – Qorin yoki (sahifa o‘rtasi): joylashuvi ko‘pincha tasvirlardan yoki muhim maqolalar bilan band qilinadigan joy. Rez-de-chaussée ou Pied de page – Pastki qavat (sahifaning tubi): qo‘llanishi turli xil: ba’zan maqolalarga sharhlar berib boriladi. Cheval – Ot: pastki o‘ng tomonda, ichki sahifada davom etadigan maqolalar haqida ma’lumot keltiriladi. Axborotning mazmuni avvalo sarlavhaning katta-kichikligi va birinchi sahifadagi o‘rniga bog‘liq bo‘ladi. Buni leksik va struktur birliklar bilan ham aniqlash mumkin. Semantik tanlov esa sarlavhaning o‘ziga xosligini kuchaytiradi. Pragmatik tahlil orqali sarlavhalardagi axborotning o‘quvchiga ta’sir quvvati yanada ortadi. Pragmatik tadqiqotlar ekstralingvistik elementlarni, ya’ni matn va mualliflarni hisobga olishni nazarda tutgan holda, matbuot sarlavhalarining funksional tavsifiga ko‘ra qo‘shimcha ravishda yozuvchi va o‘quvchi bo‘lgan ikki ommaviy axborot vositalarini kiritishni muhim hisoblaydi. Shu ikkalasi o‘rtasida o‘zaro munosabat saqlanib qolganda, sarlavha muloqot va almashinuv obyekti sanaladi. Binobarin, pragmatika insoniyat tomonidan lisoniy belgilardan foydalanishning barcha shart sharoitlarini, vaziyatlarini o‘rganishni ko‘zda tutadi. Shart-sharoitlardan, vaziyatlardan foydalanish deyilganida, lisoniy vositalardan ularga mos keladigan, adekvat vositalardan foydalanish, gazeta sarlavhalaridagi axborotni pragmatik tahlilini nazarda tutib, bu orqali o‘quvchiga kommunikativ ta’sir qilish usul va vositalari tushuniladi.

Muallif yoki jurnalist leksik ma’noni adresatga (gazetxon yoki o‘quvchiga) yetkazib berish uchun qo‘shimcha, ko‘pincha noodatiy ma’noda qo‘llab, ko‘zda tutilgan maqsadga erishishni nazarda tutadi. Bu jarayon so‘zning semantik ma’nosi imkoniyatlaridan pragmatik maqsadda foydalanish tufayli ro‘y beradi. Bu jarayon adresatning (gazetxon yoki o‘quvchi) xarakterli xususiyatlarini, bilimlarini bir xilligini va nutq vaziyatining o‘ziga xos xususiyatlari kabi ekstralingvistik omillarni ham hisobga olishni taqozo qiladi. Tabiiyki bunday omillar leksik birlikning muayyan bir kontekst darajasida ta’sir qiluvchi tashqi pragmatik komponentlari hisoblanadi. Viloyat gazetasi hisoblangan Sud Uest (Sud Ouest)ning 2021-yil aprel sonidagi quyidagi misolga murojaat qilaylik: “Plus Beau Marché” : Rochefort ou Sarlat ? “Eng yaxshi bozor: Rokfor yoki Sarlat (mashhur fransuz pishlog‘ining nomlar)” iborasida ham so‘roq, ham istak, xohish harakati mujassam.

Le Crous refuse toujours les paiements en espèces (Krous hali ham naqd pul to‘lashdan bosh tortadi) ushbu jumlada esa, rad etish va qarshilik bildirish ma’nosi nazarda tutilyapti.

1) 20 ans après... L'euro, un cadeau? Valeurs Actueles 6 Janvier 2022.

2) Quand la Grèce renaissait de ses cendres. Valeurs Actueles 6 Janvier 2022.

3) La santé n'est pas en compétition avec la liberté. Valeurs Actueles 6 Janvier 2022.

4) Soit on mange, soit on chauffe. Le Parisien dimanche 24 Octobre 2021 № 23996.

5) “Jamais je n’aurais imaginé devenir capitaine d'une équipe pareille”. Le Parisien
dimanche 24 Octobre 2021 № 23996.

6) “Je lutte pour ma liberté et pour celle de mon ennemi”.

7) L’ Humanité 24 Octobre, 2021 № 23297.

Valeurs Actueles hamda Parisien gazetalaridan olingan ushbu misollarda vaqt va so‘roq ifodasini (birinchi misolda), so‘roq so‘z bilan boshlangan bo‘lsa-da, izohni bildirib kelgan (2-misol) tasnifni, inkor ma’nosidagi ta’kid ifodalangan (3-misol), sarlavhalarni uchratamiz. 4-misolda esa elektr va gaz narxlarining keskin oshgani sababli, ba’zi xonadonlar qishda sovuq tushish xavfi ostida isitishni keskin cheklashga majbur bo‘lishi haqidagi hukm chiqarishga oid pragmatik maqsad yotibdi. 5-misolda xohishi inkor tarzda ifodalanayotgan harakatni o‘qiymiz.

Natijalar. Va’da berish, majburiyat olishga oid munosabatlarni (6-misol) ifodalagan sarlavhalarni o‘quvchini javob faoliyatga undovchi sarlavhalar deb atashimiz mumkin. Ushbu

misollardagi tuzilmalar har xil nisbatga ega, ularning farqi faqatgina pragmatik mazmunda, ya'ni turli munosabatlarning ifodalanishida va kommunikativ maqsadlarning har xil bo‘lishiga turli illokutiv fe'llar (rozi bo‘lmoq, qarshi bo‘lmoq, talab qilmoq) qo‘llanishi vosita xizmatini o‘tamoqda. Pragmatik tahlilda qanchalik oddiy ma'lumot almashishdan qat'i nazar o‘quvchining munosabati, e'tiqodi, ishonchi, bahosi va boshqalarni o‘zgartirishga ta'sir qilishini tushunishga qaratiladi.

Demak, sarlavhalar tahliliga pragmatik yondashishda nutqdagi diskursiv elementlarni, masalan, jumlalarni tashkil yetish va tuzish, matndagi gaplarning artikulyatsiyasi, tematik va mantiqiy tashkil yetish, izchillik va uyg‘unlik kabilarni tavsiflash ham kerak bo‘ladi. Quyida fransuz gazetalarida keltirilgan sarlavhalar tahlilini qilamiz:

1) Occitanie: sociale, durable, la région garde le cap! (L'Humanité Dimanche 8 Juillet 2021).

2) Décentralisation, matières premières, écologie… l'industrie routière doute (Les Echos Jeudi 21 Avril 2022).

3) “Ici, au Vatican, ils ont l'impression que l'Église d'Allemagne est en train de mener une révolution, sans valeurs et sans foi” (La Croix Mardi 4 Janvier 2022).

Ushbu misollardagi elementlar birin-ketin, yonma-yon joylashgan. Barcha mumkin bo‘lgan bog‘lovchilar vergul bilan almashtirilgan. Birinchi misolda she'riy ohang ham mavjud. Ikkinchi misolda, shuningdek, fikrni yanada yorqinroq qilish maqsadida so‘zlar to‘plangan.

Uchinchi misolda Vatikanda sodir bo‘layotgan voqealarni izohlashda bir xil funksiyaga ega bo‘lgan bir nechta atamalarning ketma-ket qo‘llanilishi orqali amalga oshirilgan. Ayrim sarlavhalarda takroriy so‘zlarni ham uchratish mumkin:

1) A la philippe, piano, piano (L'Equipe Lundi 14 Mars 2022).

2) Aimez, aimez, tout le reste n'est rien. L'Humanité Dimanche 8 Juillet, 2021.

Shuningdek, quyida qofiyadan foydalanilgan gazeta sarlavhalari misolini ko‘rib o‘tamiz:

1) Harit, pour le plaisir. (L'Equipe Lundi 14 Mars, 2022).

2) Bauchet finit en beauté. (L'Equipe Lundi 14 Mars, 2022).

3) Odermatt, l'exquise attente. (L'Equipe Lundi 14 Mars, 2022).

4) Par(ra) ici, la sortie. (L'Equipe Magazine 12 Mars, 2022).

5) Dembélé, leader discret. (L'Equipe Mercredi 20 Avril, 2022).

6) Une défense à repanser. (L'Equipe Mercredi 20 Avril, 2022).

7) Après l'inflation viendra la “vertinflation”. (Les Echos 11-12 Mars, 2022).

8) Démondialisation ? Non, fragmentation.(Les Echos Jeudi 21 Avril, 2022).

Birinchi misolda Marsel futbol jamoasining o‘yinchisi Amin Gari haqida so‘z boradi, uning o‘yin paytidagi “o‘z-o‘zi bilan” holati aks ettirilgan. To‘rtinchi misolda iqtisodiy ishdan bo‘shatish masalasiga yechim topish uchun [i] qofiyasidan foydalanilgan. Biz olomonni “la sortie” tomon yo‘naltirmoqchi bo‘lganimizda, bu ibora o‘z ma'nosida ohangni hosil qilib jumlada qo‘llanilgan.

Yettinchi misol [tion] qo‘shimchasi asosida tuzilgan. Narxlarning ko‘tarilishi va valyutaning qadrsizlanishiga olib keladigan to‘lov vositalarining haddan tashqari ko‘payishi, ya'ni inflyatsiyadan so‘ng, albatta, “qishdan keyin bahor keladi” iborasi singari, viendra la “vertinflation” ma'nosida ohangni hosil qilib jumlada qo‘llanilgan. Sakkizinchi misolda jahon savdosining avvalgidek emasligi, o‘sish, pasayish prognozlari va ularni tartibga soluvchi xalqaro tashkilotlar haqida gap boradi.

Xulosa. Matbuot bunday jarayonlardan tanqid qilish, ta'kidlash, yoki o‘quvchi xotirasiga singdirish uchun foydalanayotganini gazeta sarlavhalari tahlilida kuzatdik. Shu o‘rinda qisqa xulosa qiladigan bo‘lsak, haqiqatdan ham lisoniy faoliyatning pragmatik xususiyatlari, bu xususiyatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni o‘rganish tilning ijtimoiy mohiyatini aniqlash uchun muhim hisoblanib, bu lisoniy muloqotning ijtimoiy va ruhiy- psixologik qonuniyatlar bilan moslashgan holda ro‘yobga chiqishini va shu asnoda til tizimi rivojlanishini tasdiqlovchi dalillar topish imkonini beradi.

Til tizimi taraqqiyotining boshlang‘ich nuqtasi (davri) pragmatikadan boshlanadi deyish mumkin. Shuningdek, bu borada o‘rganishlardan kelib chiqib, ularni umumlashtirgan holda diskurs tahlilidagi tadqiqotlar hammasi bir xil taxminga

asoslanadi: til aloqa vositasidir va so‘zlovchilar undan nutq shaklini oladigan aloqa harakatlarida foydalaniladi. Tilni tushunish uchun tegishli tadqiqot joyi nutq, uning turli ko‘rinishlarida: yozma, og‘zaki, monologik, dialogik ekanligini tasdiqlaydi. Shu nuqtayi nazardan ko‘rib chiqilsa, nutqning pragmatikasi pragmatikaning hozirgi tadqiqotlariga mos keladi degan xulosaga kelish asosli bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Amossy, Ruth. 2000. L’argumentation dans le discours (Paris : Nathan Université).
2. Amossy, Ruth. 2014. Apologie de la polémique (Paris: PUF) DOI: 10.3917/puf.amos.2014.01.
3. Arquembourg, Jocelyne. 2003. Le temps des événements médiatiques (Paris: De Boeck-INA) DOI: 10.3917/dbu.arque.2003.01.
4. Arquembourg, Jocelyne. 2011. L’événement et les médias – Les récits médiatiques des tsunamis et les débats publics (1755-2004) (Paris: Archives contemporaines).
5. Azouzi, Ammar. 2013. La “Révolution du jasmin en Tunisie et son slogan “Ben Ali dégage!”: un événement discursif, Ballardini, Elio et al. (éds.). 2013.
6. Baklouti, Elodie & Arnaud Richard. 2013. L’insulte à la Une d’un quotidien sportif: un événement médiatique, Ballardini, Elio et al. (éds.). 2013.
7. Ballardini, Elio, Roberta Pederzoli, Sandrine Reboul-Touré & Geneviève Tréguer-Felten (éds), Les facettes de l’événement: des formes aux signes, mediAzioni 15 [en linge: http://mediazioni.sitlec.unibo.it, consulté le 1 mars 2015].
8. Ballardini, Elio. 2013. Interpréter et traduire au procès Eichmann: construction médiatique d’un événement plurilingue, Londei, Danielle et al (éds), 161-169.
9. Branca-Rosoff, Sonia, André Collinot, Jacques Guilhaumou & Francine Mazière. 1995. Questions d’histoire et de sens Langages 115, 54-66 DOI: 10.3406/lgge.1995.1705.
10. Boboyev.U.N. Indexsimilarities and differences in the application of shock-tainment technology in uzbekistan and france media materials (2023).
11. Gateux L. Des extr?mistes particuli?rement dangereux pris dans la ville // Le Figaro. - 05/08/2021. -URL: https://www.lefigaro.fr/international/des-extr?mistes-particuli?rement-dangereux-pris-dans-la-ville-20210807 (r?cup?r?: 26/05/2023).
12. Reneux, F. Nomm? le moyen le plus simple et le plus efficace de prolonger lavie//LeMonde.03/12/2022.URL:https://www.lemonde.fr/economie/article/2022/12/03/nomme-le-moyen-le-plus-simple-et-le-plus-efficace-de-prolonger-la-vie_6171912_21308.html (r?cup?r?: 18/05/2022).

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 159.99

RAQAMLI AGRESSIYA VA BOLALAR SALOMATLIGIGA TA'SIRI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Urozbayeva Oynura Adilbekovna, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti Psixologiya yo'nalishi magistranti

e-mai: urozbayeva oynura@gmail.com

DIGITAL AGGRESSION AND IMPACT ON CHILDREN'S HEALTH: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Urozbayeva Oynura Adilbekovna, Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni Master's student in psychology

ЦИФРОВАЯ АГРЕССИЯ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЗДОРОВЬЕ ДЕТЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Урозбаева Ойнура Адильбековна, Ургенчский государственный университет имени Абу Райхона Беруни, магистрант факультета психологии

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli agressiyaning bolalar salomatligiga ta'siri va uning yechimini chuqur tahlil qilish, yosh avlod psixofiziologik salomatligiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini ilmiy nuqtai nazardan o'rganish hamda samarali oldini olish choralarini ishlab chiqish maqsadida yozilgan. Xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarga tayangan holda bolalar ruhiyatida yuz beradigan o'zgarishlar, xususan, depressiv holatlar, umumiy xavotir sindromi, uyqu sikli buzilishi va turli psixosomatik kasalliklarning shakllanishi mexanizmlari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli agressiya, kiberbulling, bolalar psixologiyasi, internet havfsizligi, raqamli savodxonlik, psixosomatika, profilaktik choralar, yosh avlod salomatligi.*

Abstract: *This article is written with the aim of deeply analyzing the impact of digital aggression on children's health and its solutions, studying its negative impact on the psychophysiological health of the younger generation from a scientific perspective, and developing effective preventive measures. Based on international and national scientific literature, the mechanisms of changes in the psyche of children, in particular, depressive states, generalized anxiety syndrome, sleep cycle disorders, and the formation of various psychosomatic diseases, are revealed.*

Keywords: *digital aggression, cyberbullying, child psychology, internet safety, digital literacy, psychosomatics, preventive measures, health of the younger generation.*

Аннотация: *Данная статья написана с целью глубокого анализа влияния цифровой агрессии на здоровье детей и путей ее преодоления, изучения ее негативного воздействия на психофизиологическое здоровье молодого поколения с научной точки зрения и разработки эффективных профилактических мер. На основе международной и национальной научной литературы раскрываются механизмы изменений в психике детей, в частности, депрессивных состояний, генерализованного тревожного синдрома, нарушений цикла сна и формирования различных психосоматических заболеваний.*

Ключевые слова: *цифровая агрессия, кибербуллинг, детская психология, безопасность в интернете, цифровая грамотность, психосоматика, профилактические меры, здоровье молодого поколения.*

Kirish. Zamonaviy texnologiyalar va internetning kundalik hayotimizdagi roli tobora ortib bormoqda. Axborot va kommunikatsiya vositalari inson faoliyatini soddalashtirishi, bilim olish va muloqot imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, yangi ijtimoiy xavf va tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu jumladan, bolalar va o‘smirlar orasida raqamli agressiya hodisasi tobora ko‘paymoqda.

Globallashuv va internet tarmoqlarining keng qo‘llanilishi yosh avlodning dunyoqarashini, bilim olish, bo‘sh vaqtini tashkil etish va muloqot qilish usullarini tubdan o‘zgartirdi. Biroq, bu imkoniyatlar bilan birga bolalarning ruhiy va jismoniy salomatligiga xavf soluvchi omillar ham paydo bo‘ldi. Onlayn bullying, kamsitish, tahdid va salbiy kontent shaklidagi raqamli agressiya bolalarda depressiya, umumiy xavotir sindromi, uyqu buzilishi va psixosomatik kasalliklar rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 12 yoshgacha bo‘lgan bolalarning aksariyati internetdan faol foydalanadi va ulardan qariyb uchdan biri turli shakldagi raqamli agressiyaga duch keladi (UNICEF, 2022). O‘zbekiston sharoitida ham so‘nggi yillarda internet foydalanuvchilari sonining oshishi, ayniqsa, yosh avlodning raqamli texnologiyalarga qiziqishi, raqamli agressiyaning dolzarbligini oshirmoqda.

Raqamli agressiya an’anaviy agressiyadan farqli ravishda anonimlik, tez tarqalish va doimiy erishuvchanlik xususiyatlariga ega bo‘lib, bolalarda doimiy stress, xavotir va psixologik charchashni keltirib chiqaradi. Shu sababli, raqamli agressiyaning bolalar salomatligiga ta’siri global va milliy miqyosda ilmiy e’tiborni talab qiladigan dolzarb muammo hisoblanadi.

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar bolalar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va onlayn o‘yinlar bolalarga ta’lim va o‘yin-kulgini taqdim etsa-da, ular bilan birga raqamli agressiya (kiberbulling) kabi jiddiy muammolar paydo bo‘lmoqda. Raqamli agressiya – bu internet va raqamli vositalar orqali amalga oshiriladigan haqorat, tahdid, tuhmat va zo‘ravonlik shakllaridir [10]. O‘zbekistonda, aholining 70% dan ortig‘i internetdan foydalanadigan sharoitda, bolalar va o‘smirlar orasida kiberbulling holatlari ortib bormoqda [12].

Bu muammo bolalarning salomatligiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi: ruhiy buzilishlar, tashvish, depressiya va hatto jismoniy kasalliklar (uyqusizlik, bosh og‘rig‘i) paydo bo‘lishi mumkin. Mazkur maqola ushbu muammoni O‘zbekiston kontekstida o‘rganib, yechimlar taklif etadi. Tadqiqot maqsadi – raqamli agressiyaning bolalar salomatligiga ta’sirini tahlil qilish va profilaktika choralarini ishlab chiqish. Ilmiy asos sifatida UNICEF materiallari, mahalliy jurnallar va ilmiy maqolalar ishlatilgan [11, 17].

Asosiy qism

Raqamli agressiyaning ta’rifi va ko‘rinishlari

Raqamli agressiya, yoki kiberbulling, raqamli texnologiyalar (ijtimoiy tarmoqlar, xabar almashish platformalari, o‘yin saytlari) orqali amalga oshiriladigan bezorilikdir. U qasddan haqorat qilish, tahdid, tuhmat va shaxsiy ma’lumotlarni tarqatish shaklida namoyon bo‘ladi [13]. Kiberbullingning asosiy xususiyatlari quyidagilar: doimiylik (jabrlanuvchi har doim internetda bosimni his qilishi mumkin), ommaviylik (tahqirlovchi kontent tez tarqaladi) va anonimlik (tajovuzkorni aniqlash qiyin).

O‘zbekiston kontekstida kiberbulling bolalar orasida ijtimoiy tarmoqlarda (Instagram, Telegram, TikTok) ko‘p uchraydi. Masalan, 2025 yil ma’lumotlariga ko‘ra, o‘smirlarning 44% tajovuzkor sifatida, 70% esa jabrlanuvchi sifatida ishtirok etgan. Kiberbulling turlari: verbal (haqoratli xabarlar), vizual (shaxsiy fotosuratlar tarqatish), doksing (shaxsiy ma’lumotlarni oshkor qilish) va kiberstalking (doimiy ta’qib) [19].

Bolalar salomatligiga ta’siri

Raqamli agressiya bolalarning ruhiy salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi. UNICEF ma’lumotlariga ko‘ra, kiberbulling jabrlanuvchilarda tashvish, depressiya va o‘ziga ishonchsizlikni kuchaytiradi [10]. Bolalar orasida uchraydigan alomatlar: uyqusizlik, ishtahaning yo‘qolishi, ijtimoiy izolyatsiya va o‘quv natijalarining pasayishi [11]. Jismoniy jihatdan, doimiy stress qorin va bosh og‘rig‘iga olib keladi, hatto o‘z joniga qasd qilish holatlari ham qayd etilgan.

O‘smirlar orasida kiberbulling ruhiy salomatlikni buzadi: yoshlarning 70% i onlayn zo‘ravonlikdan aziyat chekadi, bu esa oilaviy munosabatlarga va maktab muhitiga salbiy ta’sir qiladi [12]. Psixologik tadqiqotlar shuni

ko‘rsatadiki, kiberbulling jabrlanuvchilarda agressiya darajasi ortadi, ular o‘z navbatida tajovuzkor bo‘lib qolishi mumkin [1]. O‘zbekiston olimlarining ishlari (masalan, o‘smirlik agressiyasi haqida) shuni tasdiqlaydi ki, raqamli muhitdagi zo‘ravonlik bolalarning gender xususiyatlariga ta’sir etib, qizlarda passiv, o‘g‘il bolalarda faol agressiyani kuchaytiradi [2].

Shuningdek, raqamli agressiya bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Bolalar do‘stlik munosabatlaridan qochadi, virtual dunyoda yolg‘izlikni his qiladi [16]. Uzun muddatli ta’sirlar: kattalar hayotida ruhiy kasalliklar (depressiya, PTSD) va salomatlik muammolari (immunitetning pasayishi).

O‘zbekistonda raqamli agressiya muammosi tez o‘smoqda. Kun.uz ma’lumotlariga ko‘ra, bolalar internetdan foydalanish darajasi yuqori, ammo himoya mexanizmlari yetarli emas [12]. Maktablarda kiberbulling erta aniqlanmaydi, ota-onalar esa farzandlarining onlayn faoliyatini nazorat qilmaydi. Mahalliy tadqiqotlar (psixologiya jurnallari) shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar orasida agressiya bulling va kiberbulling bilan bog‘liq, bu esa ruhiy salomatlikni buzadi.

Muammolarning sabablari: raqamli savodsizlik, anonimlik va qonuniy bazaning zaifligi. Masalan, kiberstalking ijtimoiy oqibatlarga olib keladi: jabrlanuvchilarning oilaviy hayoti buziladi. 2025 yil statistikasi: 5 milliondan ortiq bolalar akkaunti xavf ostida.

Muhokama

Raqamli agressiya bolalar salomatligiga ta’sirini tahlil qilganda, uning ko‘p qirrali ekanligi aniq. UNICEF va mahalliy olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, kiberbulling nafaqat individual, balki jamiyat darajasida muammo [10, 11]. O‘zbekiston kontekstida, psixologik omillar (oila ichidagi agressiya) raqamli muhitda kuchayadi [5]. Muhokamada shuni ta’kidlaymizki, kiberbullingni erta aniqlash o‘quvchilarning farovonligini ta’minlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qizlar va o‘g‘il bolalar orasida ta’sir farqlanadi: qizlarda emotsional buzilishlar, o‘g‘illarda jismoniy reaksiyalar ko‘p [2]. Yechim sifatida, ta’lim muassasalarida raqamli etika darslari kiritilishi kerak [6]. Shuningdek, kiberbullingning ijtimoiy oqibatlari (yoshlarning axborot-psixologik xavfsizligi) jamiyatni o‘zgartirishni talab qiladi.

Xulosa va takliflar

Raqamli agressiya bolalar salomatligiga jiddiy tahdid soladi, ruhiy va jismoniy buzilishlarga olib keladi. O‘zbekistonda bu muammo ortib bormoqda, ammo profilaktika choralari orqali yengish mumkin.

Takliflar:

1. Ota-onalar uchun treninglar: farzandlarning onlayn faoliyatini nazorat qilish [10].
2. Maktablarda kiberbullingga qarshi darslar va psixologik yordam.
3. Qonuniy chora-tadbirlar: anonimlikni cheklash va tajovuzkorlarni javobgarlikka tortish [12].
4. Ijtimoiy tarmoqlar kompaniyalari bilan hamkorlik: avtomatik filtrlar.
5. Tadqiqotlarni kuchaytirish: O‘zbekiston olimlari tomonidan yangi maqolalar [11].

Ushbu choralar bolalarni raqamli tahdidlardan himoya qiladi va salomatlikni saqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamoalar faoliyatini samarali boshqaruvida psixologik omillarning o‘rni. ResearchGate, 2026, pp. 1-15.
2. Psixologiya maqola. Academia.edu, 2024, pp. 1-175.
3. Zamonaviy psixologiyada jamiyatning dolzarb muammolari. SPbU, 2026, pp. 1-40.
4. Oila psixologiyasi. MOITI.uz, 2026, pp. 1-20.
5. 12-Son Psixologiya. Scribd, 2025, pp. 1-10.
6. Kiberbulling: bu nima va uni qanday to‘xtatish kerak. UNICEF Uzbekistan, 2026, pp. 1-5.
7. Bolalar va o‘smirlar orasida uchraydigan kiberbulling alomatlari. Openidea.uz, 2024, pp. 1-8.
8. Internetda bolalar himoyasi. Kun.uz, 2025, pp. 1-6.
9. Kiberbulling. Vikipediya, 2026, pp. 1-4.
10. Kiberbulling: xavfni qanday aniqlash va kurashish mumkin. QLEVER.Asia, 2021, pp. 1-7.
11. Kiberbulling bolalar va yoshlarning ruhiy salomatligiga zarar yetkazishi mumkin. Instagram, 2026, pp. 1-2.
12. Kiberbulling haqida o‘spirinlar bilishni xohlagan 10ta narsa. UNICEF Uzbekistan, 2026, pp. 1-5.
13. O‘quvchilarni kiberbullingdan himoya qilish. Interscience.uz, 2026, pp. 1-10.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 392.181.151.9

MAKTAB GEOGRAFIYA DARSLARI VA DARSDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA QO‘LLANILADIGAN AUDIOVIZUAL VOSITALARNING TURLARI VA TUZILMALARI

Rustamova Maftuna Anvarjon qizi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU akademik litseyi geografiya fani o‘qituvchisi

e-mail: rustamova maftuna@gmail.com

TYPES AND STRUCTURES OF AUDIOVISUAL AIDS USED IN SCHOOL GEOGRAPHY LESSONS AND EXTRACURRICULAR ACTIVITIES

Rustamova Maftuna Anvarjon qizi, Geography teacher of the Academic Lyceum of UrDU named after Abu Rayhon Beruni

ТИПЫ И СТРУКТУРА АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ СРЕДСТВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ НА УРОКАХ ГЕОГРАФИИ В ШКОЛАХ И ВО ВНЕКЛАССНЫХ МЕРОПРИЯТИЯХ

Рустамова Мафтуна Анваржон кызы, преподаватель географии в Академическом лицее Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни

Annotatsiya: *Maktab geografiya darslari va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan audiovizual vositalar turlarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Bugungi kunda maktab geografiya darslari va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan audiovizual vositalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning o‘ziga xos ahamiyati haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *audiovizual vositalar, geografiya ta’limi, interaktiv doska, kompyuter va projektorlar, geografik axborot tizimlari*

Abstract. *The article discusses the specific features of the types of audiovisual media used in school geography lessons and extracurricular activities. Information is provided on the specific importance of developing skills in working with audiovisual media used in school geography lessons and extracurricular activities today.*

Keywords: *audiovisual aids, geographical education, interactive whiteboard, computers and projectors, geographic information systems.*

Аннотация. *В статье рассматриваются специфические особенности типов аудиовизуальных средств, используемых на уроках географии в школе и во внеклассных мероприятиях. Представлена информация об особой важности развития навыков работы с аудиовизуальными средствами, используемыми на уроках географии в школе и во внеклассных мероприятиях в наши дни.*

Ключевые слова: *аудиовизуальные средства, географическое образование, интерактивная доска, компьютеры и проекторы, географические информационные системы.*

KIRISH. Ma’lumki, geografiyani ko‘rgazmali qurollarsiz o‘qitishning iloji yo‘q, chunki maktab kursida o‘rganish uchun taqdim etilgan ko‘pchilik ob’ektlar va tabiat hodisalarini tabiiy sharoitda kuzatish mumkin emas va shu ma’noda geografiya fanini o‘rganish o‘quvchilardan tasavvur va chalg‘itish texnikasini rivojlantirish. Mavhum fikrlashning shakllanmaganligi yangi o‘rgatish jarayonini ishlab chiqish zarurligini taqozo etadi, bu o‘qituvchiga maktab o‘quvchilariga murakkab tabiiy jarayonlarni (tog‘ ko‘chkilari, zilzilalar, suv toshqini va boshqalar) multimedia yordamida

ko‘rsatishga imkon beradi. Tasviriy taassurotlar bolalarda jonli va jonsiz tabiat, tashqi dunyo va inson o‘rtasidagi sabab-natija munosabatlari va aloqalarini shakllantirish uchun zarur asos bo‘ladi. Shu bilan birga, mahalliy didaktikada aqli zaif bolalarga geografiyani o‘qitish jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish muammosini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar mavjud emas.

Bugungi ta’lim muhitida geografiya fanida audiovizual vositalar kompleks shaklda qo‘llanilmoqda. Audiovizual vositalar — video taqdimotlar, 3D animatsiyalar, virtual laboratoriyalar, GIS xaritalari, multimediali ta’limiy resurslar, interaktiv modellar va boshqa texnologik instrumentlar majmuasi bo‘lib, ularning turlari hamda tuzilmalari geografik bilimlarni chuqur qabul qilish va ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Audiovizual vositalar ta’lim jarayonining har bir bosqichida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini boyitadi, ijodiy izlanishlarni rag‘batlantiradi hamda muammoli vaziyatlarni innovatsion yondashuv bilan yechish imkonini yaratadi.

Geografiya darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Zamonaviy ta’lim-uslublarida raqamli resurslar (masalan, AR/VR, interaktiv simulyatsiyalar, 3D modellar) o‘quvchilarga joydan turib katta geografik hududlarni o‘rganish va amaliy tajriba o‘tkazish imkonini beradi.

Audiovizual vositalar turlari ko‘p qirrali bo‘lib, ularni struktura va funksiyaga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. **Video ta’lim resurslari** — dars videosi, mavzu bo‘yicha animatsiyalar.
2. **3D modellashtirilgan vizualizatsiyalar** — fazoviy tuzilmalar, geosfer parametrlarining interaktiv ko‘rinishi.
3. **Virtual laboratoriyalar** — masofaviy sinovlar, tajribalar simulyatsiyasi.
4. **GIS (Geografik axborot tizimlari)** — interaktiv xaritalar bilan ishlash imkoniyati.
5. **Multimediali taqdimotlar** — animatsiyalar, diagrammalar, kartalar bilan o‘quv kontenti.

Audiovizual vositalar ta’lim jarayonini dinamik, interaktiv va ko‘rgazmali qiladi, bu esa o‘quvchining bilim darajasini sezilarli darajada oshiradi. Labslar, dars ichiga integratsiyalangan videolar, animatsiyalar o‘quvchilarni ko‘rish, tinglash va ta’limiy kontentni boshdan kechirish orqali chuqur qabul qilishga yo‘naltiradi. Masalan, “Bu jarayonlar foto va videolavhalar bilan boyitilib…” kabi materiallar o‘quvchilarning mavzuga aniqroq yondashuvini ta’minlaydi.

3D animatsiya, VR texnologiyasining kombinatsiyasi orqali murakkab geografik strukturalarni real hayotga yaqin ko‘rinishda taqdim etish mumkin. Masalan, “При разработке программного обеспечения…” deb keltirilgan audiovizual paketlar 3D modellashtirish, VR, interaktiv modellar va hatto sun’iy intellekt elementlarini o‘z ichiga oladi, bu esa o‘quvchilarga murakkab mexanizmlarni intuitiv ravishda tushunishga yordam beradi.

Audiovizual vositalarning samaradorligini aniqlash uchun tajriba natijalarini obyektiv baholash zarur. Buning uchun matematik-statistik usullar va monitoring tizimlari qo‘llaniladi. Masalan, doimiy test va diagnostika o‘quvchilarning erishgan natijalarini muntazam kuzatib borishga, mustahkam va zaif jihatlarni aniqlashga yordam beradi. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni baholashda yangi o‘quv materiallari o‘rganishdan oldingi va keyingi bilim darajasini solishtirish orqali samaradorlik o‘lchanadi. Doimiy kuzatuv (monitoring) tizimi o‘qituvchi va ta’lim muassasasiga ma’lum davrdagi natijalarning ishonchliligini ta’minlash imkonini beradi. Shuningdek, ma’lumotlar tahlili orqali pedagogik o‘zgarishlar samaradorligi baholanadi: baholar, savol-javoblar va sinov natijalari asosida o‘rganish jarayoni optimallashtiriladi. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishga va audiovizual vositalar samaradorligini ko‘rsatkichlar bilan o‘lchashga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida geografiya fani o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni tushunishini rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Ushbu bo‘limda taklif etilayotgan model audiovizual vositalar (video, animatsiya, interaktiv xaritalar, virtual realik va boshqalar) orqali o‘quvchilarning axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Geografik axborot tizimlari (GIS) – geografiya ta’limida muhim innovatsion resurs bo‘lib, ular talabalarga fazoviy ma’lumotlarni raqamli tarzda yig‘ish, tahlil qilish va xaritalash

TAMADDUN NURI

ko‘nikmalarini beradi. Mustaqillikdan so‘ng bosqichma-bosqich GIS integratsiyasi amalga oshirilib, o‘quvchilar GIS yordamida ma’lumotlarni ko‘rib chiqish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Raqamli xaritalar va xaritalash texnologiyalari dars jarayonida keng qo‘llanib, bosma xaritalarni to‘liq almashtirdi. Masalan, geografiya darslarida elektron xaritalar va interaktiv kartografiya vositalari makonni chuqurroq anglashga yordam beradi. GIS o‘quvchilarga tabiiy resurslar, landshaft o‘zgarishlari va hududiy parametrlar bo‘yicha o‘zaro bog‘liqliklarni o‘rganish imkonini yaratadi. Shu sababli, maktabda audiovizual vositalar bilan birgalikda GIS texnologiyalarini joriy etish talabalarda raqamli savodxonlik va axborot madaniyatini shakllantiradi. Geografik axborot tizimlari (GIS) o‘quvchilarga geografik ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va xaritalash imkonini beradi. GIS integratsiyasi darslarni real vaqt rejimida boshqarish va murakkab geografik munosabatlarni ko‘rish imkonini beradi. Masalan, geografik ma’lumotlar bazasi yordamida iqlim o‘zgarishlarini vizual tahlil qilish mumkin.

Tadqiqotlarga ko‘ra, GIS va boshqa raqamli xarita texnologiyalari o‘quvchilarda fazoviy tafakkurni rivojlantiradi va ularni geografik axborotlarni keng qamrovda ishlatishga o‘rgatadi. Vizual ma’lumotlar orqali o‘rgatishda talabalarning xotirasi va tahlil qilish qobiliyati oshadi: masalan, film yoki animatsiya yordamida jarayonlarni tasavvur qilib ko‘rish, fazodagi o‘zgarishlarni tasvirlash orqali ma’lumot yanada chuqur o‘zlashtiriladi.

Maktab geografiya xonalarida qo‘llaniladigan audiovizual texnikalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-Kompyuterlar va projektorlar
-Interaktiv doskalar
-3D ko‘rgazmali projektorlar
-Taqdimotlar (PowerPoint, Prezi)
-Virtual ekspluatatsiya modellar

Bu real texnik jihatlar maktab geografiya darslarining zamonaviy yondashuvda o‘tkazilishiga xizmat qiladi. Audiovizual texnologiyalarni qo‘llash darajasi maktab geografiya darslarida turlicha bo‘lib, ba’zi o‘quvchilar yuqori darajada qabul qilayotgan bo‘lsa, boshqalarida bu pastroq bo‘lishi mumkin.

Texnik jihozlar yetishmovchiligi ba’zan audiovizual vositalarni to‘liq tatbiq etishga to‘sqinlik qiladi. Bu muammo “Kompyuter, texnika yetishmaydi…” kabi real muammolar bilan izohlangan. Shuning uchun metodik rejalashtirishda texnik infratuzilma muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, audiovizual vositalar geografiya ta’limida nafaqat bilim uzatish vositasi, balki bilimni qabul qilish, tahlil qilish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish mexanizmini yaratadi. Ularning turlari, strukturasi va qo‘llanilish darajasi maktab geografiyasi darslarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va pedagogik natijalarni chuqurlashtiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, audiovizual vositalar (video darslar, animatsiyalar, 3D modellar, virtual laboratoriyalar, GIS texnologiyalari, interaktiv xaritalar va raqamli platformalar) geografiya ta’limida o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi, fazoviy tasavvurini rivojlantiruvchi hamda nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalarga aylantiruvchi muhim didaktik resurs sifatida namoyon bo‘lmoqda. Audiovizual materiallar orqali ta’lim mazmunining ko‘rgazmaliligi, tushunarliligi va interfaolligi ortib, o‘quvchilarning mustaqil izlanish, tahlil qilish va muammoni yechish kompetensiyalari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatisakov J.J. Innovatsion ta’lim texnologiyalari**:** Monografiya. — Toshkent: Universitet nashriyoti, 2024.
2. Geografiya ta’limi metodikasi: O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Fan, 2015.
3. Nikadambaeva H. Kompyuter texnologiyalari va ta’lim**.** -Toshkent: Ma’rifat, 2010.
4. Clifford N., French S., Valentine G. Key methods in geography. — Singapore: SAGE, 2010.
5. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim–tarbiya standartlari hujjatlari. -Toshkent, 2017.
6. Mirzayeva S. Geografiya darslarida multimediali taqdimotlardan foydalanish // CyberLeninka. 2021.
7. Ta’lim metodlari tasnifi // SlidePlayer materiallari. 2020.
8. Academic Research in Educational Sciences. 2021. Vol. 2. №12. B. 1480-1489.
9. Geographical Association. Using technology in geography teaching. 2023.
10. National Geographic Society. Exploring Maps and Models of Earth. 2024.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 159.99

O‘SMIRLARNI AXBORIY TAXDILARDAN HIMOYA QILISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Rajabova Nigora Azamat qizi, UrDU “Pedagogika psixologiya” kafedrasi magistranti

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF PROTECTING ADOLESCENTS FROM INFORMATIONAL ATTACKS

Rajabova Nigora Azamat qizi, Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni Master's student in psychology

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАЩИТЫ ПОДРОСТКОВ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ АТАК

Раджабова Нигора Азамат кызы, Ургенчский государственный университет имени Абу Райхона Беруни, магистрант факультета психологии

rajabova443@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-3145-6625

Annotatsiya: *Maqolada o‘smirlik davrining psixologik o‘ziga xosliklari asosida axborot tahdidlari (internetdagi zararli kontent, dezinformatsiya, kiberbulling, manipulyativ axborot va boshqalar)dan himoya qilish masalalari ko‘rib chiqiladi. O‘smirlarning kognitiv rivojlanishi yetarli emasligi, emotsional beqarorlik, tengdoshlar ta’siri kuchliligi va identifikatsiya jarayonlari tufayli ular axborot tahdidlariga nisbatan yuqori zaiflikka ega. Himoyaning psixologik mexanizmlari, media savodxonligi, oila va maktabning roli, shuningdek, o‘zbekistonlik yoshlar kontekstida dolzarb takliflar beriladi. Maqola o‘zbek va xalqaro tadqiqotlar asosida yozilgan bo‘lib, amaliy tavsiyalarga e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlar psixologiyasi, axborot tahdidlari, psixologik himoya, kiberbulling, media savodxonligi, axborot-psixologik xavfsizlik, o‘smirlik davri, internet ta’siri.*

Аннотация*: В статье рассматриваются вопросы защиты от информационных угроз (вредоносный контент в интернете, дезинформация, кибербуллинг, манипулятивная информация и др.) с учетом психологических особенностей подросткового возраста. Вследствие недостаточного когнитивного развития подростков, эмоциональной нестабильности, сильного влияния сверстников и процессов идентификации, они крайне уязвимы для информационных угроз. Приведены психологические механизмы защиты, медиаграмотность, роль семьи и школы, а также соответствующие предложения в контексте узбекской молодежи. Статья основана на узбекских и международных исследованиях и ориентирована на практические рекомендации.*

Ключевые слова*: психология подростков, информационные угрозы, психологическая защита, кибербуллинг, медиаграмотность, информационно-психологическая безопасность, подростковый возраст, влияние интернета.*

Abstract*: The article considers the issues of protection from information threats (harmful content on the Internet, disinformation, cyberbullying, manipulative information, etc.) based on the psychological characteristics of adolescence. Due to the insufficient cognitive development of adolescents, emotional instability, strong peer influence, and identification processes, they are highly vulnerable to information threats. Psychological mechanisms of protection, media literacy, the role of family and school, as well as relevant proposals in the context of Uzbek youth are given. The article is based on Uzbek and international research and focuses on practical recommendations.*

Key words*: adolescent psychology, information threats, psychological protection, cyberbullying, media literacy, information and psychological security, adolescence, Internet influence.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda internet va ijtimoiy tarmoqlar hayotning ajralmas qismiga aylandi. O‘zbekistonda ham yoshlarning aksariyati kuniga bir necha soat internetda o‘tkazadi. Biroq, bu jarayon bir qator axboriy tahdidlarni ham keltirib chiqarmoqda: yolg‘on axborotlar (fake news), ekstremistik materiallar, axloqsiz kontent, kiberbulling va manipulyatsiya [1].

O‘smirlik davri (taxminan 11-18 yosh) psixologik jihatdan o‘ta murakkab bosqich bo‘lib, bu davrda shaxsiyat shakllanishi, identifikatsiya inqirozi, emotsional beqarorlik va tengdoshlar guruhiga qo‘shilish istagi kuchayadi [2]. Shu sababli o‘smirlar axborot tahdidlariga kattalarga nisbatan ancha zaifroq bo‘ladi. Xalqaro tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, ijtimoiy tarmoqlarda kuniga 3 soatdan ortiq vaqt o‘tkazadigan o‘smirlar depressiya va tashvish alomatlariga ikki baravar ko‘proq duch keladi [3]. O‘zbekiston kontekstida ham axborot-psixologik xavfsizlik masalasi dolzarb bo‘lib, yosh avlodni mafkuraviy va axboriy tahdidlardan himoya qilish milliy xavfsizlikning muhim qismiga aylangan [4].

Asosiy qism. O‘smirlik davri inson psixologik rivojlanishining eng murakkab bosqichlaridan bo‘lib, bu davrda shaxsning dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlarga munosabati, mustaqil fikrlashi va xarakteri shakllanadi. Mazkur davrda o‘smirlar axborotga nisbatan juda qiziquvchan, ta’sirchan va ishonuvchan bo‘lib, ular ko‘pincha tarqatilayotgan axborotning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini tahlil qilishga yetarli tajribaga ega bo‘lmaydi. Natijada zararli, yolg‘on, manipulyativ yoki ekstremistik mazmundagi axborotlar ularning psixik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda o‘smirlar turli axboriy tahdidlar, jumladan, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi materiallar, pornografik kontent, giyohvandlik va yomon odatlar targ‘iboti, internetdagi kiberbulling, psixologik manipulyatsiya, diniy ekstremizm va radikal g‘oyalar ta’siriga tushib qolish xavfiga duch kelmoqda. Bunday tahdidlar o‘smirlarning ruhiy salomatligi, axloqiy tarbiyasi, ijtimoiy moslashuvi va kelajakdagi shaxs sifatida shakllanishiga jiddiy zarar yetkazadi.

Bundan tashqari, o‘smirlarning psixologik himoya mexanizmlari hali to‘liq shakllanmaganligi sababli ular axborot xurujlariga qarshi mustaqil kurasha olmaydi. Bu esa ularda stress, xavotir, agressiya, depressiya, ijtimoiy izolyatsiya va o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi kabi salbiy psixologik holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, virtual muhitga haddan tashqari bog‘lanib qolish (internetga qaramlik) ham o‘smirlarning real hayotdagi munosabatlariga, o‘qish faoliyatiga va shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu bois, o‘smirlarni axboriy tahdidlardan himoya qilishning psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda o‘rganish, ularda tanqidiy fikrlashni shakllantirish, axborotni to‘g‘ri tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda psixologik immunitetni kuchaytirish bugungi davr talabi hisoblanadi. Ayniqsa, ta’lim muassasalari, oila va jamiyat hamkorligida o‘smirlarni ma’naviy-psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularning axborot madaniyatini oshirish va xavfsiz axborot muhitini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari va axborot tahdidlariga zaiflik O‘smirlik – bu o‘tish davri bo‘lib, unda miya prefrontal korteksi (mas’uliyat, o‘zini nazorat qilish va xavfni baholash uchun javobgar) hali to‘liq shakllanmagan. Shu bilan birga, limbik tizim (emotsiyalar va mukofot markazi) yuqori faollashadi. Natijada o‘smirlar impulsiv harakat qiladi, tengdoshlar tasdiqini izlaydi va xavfli kontentga qiziqishi kuchayadi [5].

O‘zbek olimlarining tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, o‘smirlar ijtimoiy tarmoqlardagi yolg‘on axborotlarni qabul qilishga moyil bo‘lishining psixologik omillari orasida identifikatsiya ehtiyoji, guruhga qo‘shilish istagi va emotsional qoniqish izlash muhim o‘rin tutadi [6]. Internetdagi ba’zi saytlar va kontentlar o‘smir psixikasiga salbiy ta’sir etib, depressiya, o‘ziga ishonchsizlik va ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi mumkin [7].

Axborot tahdidlarining turlari va psixologik ta’siri

-Dezinformatsiya va yolg‘on axborotlar — o‘smirlar tanqidiy fikrlash darajasi past bo‘lgani uchun ularni oson qabul qiladi. Bu mafkuraviy tahdidlarga olib kelishi mumkin [1].

-Kiberbulling — onlayn ta’qiblar o‘smirda qo‘rquv, uyat va depressiyani kuchaytiradi. O‘zbekistonda bu hodisa yoshlar axborot-psixologik xavfsizligiga jiddiy tahdid sifatida ko‘rilmoqda [8].

-Zararli kontent (ekstremizm, axloqsizlik) — o‘smirlarning qadriyatlar tizimiga putur yetkazadi va shaxsiyat buzilishiga sabab bo‘ladi [4].

-Manipulyatsiya va reklama — o‘smirlarning o‘z-o‘zini hurmat qilish darajasiga salbiy ta’sir etib, moddiy iste’molga undaydi.

Psixologik himoya mexanizmlari Himoya qilishning asosiy psixologik xususiyatlari:

1. Media savodxonligi — axborotni tanqidiy baholash qobiliyatini shakllantirish. O‘smirlar "kim yozgan?", "maqsadi nima?", "dalillar bormi?" degan savollarni berishni o‘rganishi kerak [9].

2. Emotsional intellekt va o‘z-o‘zini nazorat qilish — o‘smirlar emotsiyalarini boshqarishni o‘rgansa, impulsiv reaksiyalardan qochadi [2].

3. Ijtimoiy-psixologik immunitet — oila va maktabda mustahkam qadriyatlar tizimi shakllantirish orqali mafkuraviy tahdidlarga qarshilik kuchayadi [4].

4. Oila va maktabning roli — ota-onalar monitoring qilishi, ochiq suhbatlar o‘tkazishi va o‘smirlar bilan ishonchli munosabat o‘rnatishi muhim. Maktablarda maxsus darslar o‘tkazish tavsiya etiladi [10].

Muhokama. O‘zbekistonlik tadqiqotchilarning fikricha, axborot tahdidlari yosh avlodga mafkuraviy va psixologik jihatdan zarar yetkazmoqda, ammo ijtimoiy-psixologik imkoniyatlar (oilaviy tarbiya, ta’lim muassasalari, yoshlar tashkilotlari) orqali himoyani kuchaytirish mumkin [1, 4]. Xalqaro tajribada (masalan, AQSh Surgeon General hisobotida) ijtimoiy tarmoqlarda 3 soatdan ortiq vaqt o‘tkazish ruhiy salomatlikka xavf tug‘dirishi ta’kidlangan [3].

Ammo, faqat cheklovlar yetarli emas – o‘smirlarning avtonomiyasi va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olish lozim. Haddan tashqari nazorat teskari natija berishi mumkin (izolyatsiya yoki yashirin foydalanish). Shuning uchun muvozanatli yondashuv – savodxonlik + ochiq muloqot + ijobiy alternativlar (sport, ijodkorlik) muhimdir.

Xulosa va takliflar. O‘smirlarni axboriy tahdidlardan himoya qilishning psixologik xususiyatlari ularning yosh davriga xos zaifliklarni (impulsivlik, tengdoshlar ta’siri, tanqidiy fikrlashning yetishmasligi) hisobga olishga asoslanadi. Himoya samarali bo‘lishi uchun quyidagi takliflar beriladi:

-Maktab va oilada media savodxonligi darslarini majburiy qilish.

-Ota-onalarga maxsus treninglar o‘tkazish (monitoring va ochiq suhbat usullari).

-Yoshlarga ijobiy kontent va platformalarni targ‘ib qilish.

-Davlat darajasida axborot-psixologik xavfsizlik bo‘yicha milliy dastur ishlab chiqish.

-Psixologik yordam xizmatlarini (hotline, maslahat markazlari) kengaytirish.

Ushbu choralar orqali o‘smirlar nafaqat himoyalanadi, balki mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan shaxs sifatida rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O‘smirlarda axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari // КиберЛенинка. – 2023. – 15-20 b.
2. O'smirlar psixologiyasi va o‘smir xulq-atvorining o'ziga xosligi // Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2021. – №1. – 45-52 b.
3. Social Media and Youth Mental Health // U.S. Surgeon General Advisory. – 2025. – P. 10-15.
4. O'zbekistonda axborot xavfsizligining ma'naviy va huquqiy asoslari // inLIBRARY. – 2023. – 20-28 b.
5. Adolescent Mental Health in the Digital Age // PMC. – 2021. – P. 5-12.
6. O'smirlarda ijtimoiy tarmoqlardagi yolg'on axborotlarni qabul qilishga moyillikning psixologik omillari // КиберЛенинка. – 2022. – 30-35 b.
7. Internet tarmoqlaridagi ba'zi saytlarining o'smirlar psixikasiga salbiy ta'siri // КиберЛенинка. – 2021. – 10-18 b.
8. Kiberbulling – O'zbekiston yoshlarining axborot-psixologik xavfsizligiga tahdid sifatida // Scribd. – 2024. – 12-20 b.
9. Psychological features of protecting adolescents from information threats // Genius Journals. – 2023. – P. 8-14.
10. Yoshlarning psixologik xavfsizligiga axborotning ta'siri // inLIBRARY. – 2023. -15-22 b

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 392.181.151.9

Ilmiy rahbar: Rahimova Shoira, Urganch davlat pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim nazariyasi" kafedrasi katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d. (PhD)

AXLOQIY TARBIYADA GAMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING METODIK JIHATLARI

Imamova Muqaddas Yusupbay qizi, Urganch davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi 1-bosqich magistri

e-mail: imamovamuqaddas3@gmail.com

METHODOLOGICAL ASPECTS OF USING GAMIFICATION TECHNOLOGIES IN MORAL EDUCATION

Imamova Muqaddas Yusupbay kizi, 1st year Master's Degree in Theory and Methodology of Education and Training, Urgench State Pedagogical Institute

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ГЕЙМИФИКАЦИИ В НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ

Имамова Мукаддас Юсупбай кызы, студентка 1-го курса магистратуры по теории и методологии образования и обучения, Ургенчский государственный педагогический институт

Annotatsiya: *Mazkur maqolada axloqiy tarbiyada gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik jihatlarini ko'rsatib berishga bag'ishlanadi. Unda gamifikatsiyaning mazmun-mohiyati va uni axloqiy tarbiya jarayonida qo'llashning ahamiyati xususida fikrlar bayon etiladi. Shuningdek, axloqiy tarbiyada gamifikatsiya texnologiyalarining afzalliklari ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar*: ta'lim, axloqiy tarbiya, axloqiy madaniyat, gamifikatsiya, ichki motivatsiya, maqsadga yo'naltirilganlik, o'yin elementlari.*

Abstract: *This article is devoted to showing the methodological aspects of using gamification technologies in moral education. It presents ideas about the essence of gamification and the importance of its use in the process of moral education. It also shows the advantages of gamification technologies in moral education.*

Key words*: Education, moral education, moral culture, gamification, intrinsic motivation, goal orientation, game elements.*

Аннотация*: Данная статья посвящена рассмотрению методологических аспектов использования технологий геймификации в нравственном воспитании. В ней представлены идеи о сущности геймификации и важности ее использования в процессе нравственного воспитания. Также показаны преимущества технологий геймификации в нравственном воспитании.*

Ключевые слова*: образование, нравственное воспитание, нравственная культура, геймификация, внутренняя мотивация, целевая ориентация, игровые элементы.*

KIRISH. Zamonaviy ta'lim tizimida masalasi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. shaxsni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash Xususan, yosh avlodda axloqiy fazilatlarni

shakllantirish, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalash bugungi pedagogikaning dolzarb muammolaridan sanaladi. O‘zbek milliy pedagogi Abdulla Avloniy ta’biri bilan aytganda, “Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va isbotlar ila bayon qiladigan kitob axloq deyilur “.

Axloqiy tarbiya shaxs dunyoqarashini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma’naviy-axloqiy tarbiya muhim o‘ringa ega bo‘lib, uni samarali tashkil etish o‘quvchida ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o‘quvchilar ongiga singdirish, ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy me’yorlardir.

Raqamli texnologiyalar keng joriy etilayotgan hozirgi davrda an’anaviy tarbiya metodlari bilan bir qatorda innovatsion yondashuvlardan, jumladan, gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish axloqiy tarbiyaning samaradorligini oshirish imkonini bermoqda.

Gamifikatsiya o‘quvchi va talabalarning ichki motivatsiyasini kuchaytirish, faol ishtirokini ta’minlash hamda tarbiyaviy jarayonni qiziqarli va samarali tashkil etishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Gamifikatsiya (*inglizcha gamification*) – o‘yin elementlari, mexanizmlari va dizayn tamoyillarini o‘yin bo‘lmagan sohalarga, xususan, ta’lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etishdir. Gamifikatsiya o‘yin bilan aynan tenglashtirilmaydi, balki o‘yinlarga xos motivatsion mexanizmlarni didaktik maqsadlarga xizmat qildirishni nazarda tutadi.

Axloqiy tarbiya shaxsda ezgulik, adolat, halollik, mas’uliyat, hurmat, vatanparvarlik kabi fazilatlarni qaror toptirishga qaratilgan uzluksiz jarayondir. Gamifikatsiya ushbu fazilatlarni rivojlantirishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. Xulqiy vaziyatlarni modellashtirish.

O‘yin ssenariylari orqali real hayotga yaqin axloqiy muammolar yaratiladi. O‘quvchilar ushbu vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rganadilar.

2. Axloqiy tanlovni anglash.

Ball, daraja yoki mukofot olish jarayonida o‘quvchi o‘z tanlovining oqibatlarini tushunib yetadi.

3. Ichki motivatsiyani kuchaytirish.

Rag‘batlantirish mexanizmlari axloqiy xatti-harakatlarni ongli ravishda bajarishga undaydi.

4. Ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish.

Jamoaviy o‘yinlar hamkorlik, o‘zaro yordam va mas’uliyat hissini rivojlantiradi.

Axloqiy tarbiyada gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik jihatlari quyidagilardir:

1. Maqsadga yo‘naltirilganlik. Gamifikatsiya jarayonida har bir o‘yin elementi aniq tarbiyaviy maqsadga xizmat qilishi lozim. Masalan, halollikni shakllantirish uchun adolatli ball tizimi, jamoaga sodiqlikni rivojlantirish uchun guruhiy vazifalar qo‘llaniladi.

2. Yosh va psixologik xususiyatlarni hisobga olish. Gamifikatsiya vositalari o‘quvchilarning yoshiga, qiziqishlariga va psixologik rivojlanish darajasiga mos bo‘lishi zarur. Boshlang‘ich sinflarda sodda syujetli, obrazli o‘yinlar; yuqori sinflarda esa muammoli vaziyatlarga asoslangan murakkab ssenariylar samarali hisoblanadi.

3. O‘yin elementlarining muvozanati. Ball, reyting, nishon, daraja kabi elementlar tarbiyaviy mazmunga zarar yetkazmasligi, faqat tashqi rag‘bat bilan cheklanib qolmasligi lozim. Ular ichki axloqiy ehtiyojni qo‘llab-quvvatlovchi vosita bo‘lishi kerak.

4. Refleksiya va muhokama. Har bir gamifikatsiyalashgan mashg‘ulotdan so‘ng o‘quvchilar bilan muhokama o‘tkazish muhim. Bu jarayonda:

* o‘yin davomida qabul qilingan qarorlar;
* axloqiy xulosalar;
* shaxsiy his-tuyg‘ular tahlil qilinadi.

Refleksiya axloqiy tarbiyaning ongli ravishda shakllanishiga xizmat qiladi.

5. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanganlik. Gamifikatsiya ssenariylari milliy an’ana, urf-odat va qadriyatlarga mos bo‘lishi zarur. Bu hol axloqiy tarbiyaning madaniy asoslarini mustahkamlaydi.

Shu asosda dars ishlanmalaridan namunalar keltirsak.

Mavzu: Yaxshi xulq — mening tanlovim

Tarbiya yo‘nalishi: Axloqiy tarbiya

Gamifikatsiya shakli: Yulduzchalar va rolli o‘yin

Dars maqsadi:

O‘quvchilarda yaxshi va yomon xulq haqidagi dastlabki tushunchalarni shakllantirish, ijobiy xatti-harakatga odatlantirish.

Kutilayotgan natijalar:

* yaxshi xulqni ajrata oladi;
* o‘z xatti-harakatini baholaydi;
* sinf qoidalariga rioya qiladi.

Dars jarayoni

1-bosqich. Motivatsiya (5 daqiqa)

O‘qituvchi “Sehrli sandiq”ni ochadi. Unda rasmlar: yordam berish, salomlashish, urishish.

Savol:

— Qaysi rasm sizga yoqdi? Nima uchun?

2-bosqich. Gamifikatsiya faoliyati (15 daqiqa)

“Yaxshi ish qil — yulduzcha ol” o‘yini

Qoidalar:

* yaxshi ish qilgan o‘quvchi yulduzcha oladi;
* yulduzchalar haftalik yig‘iladi.

Misollar:

* do‘stiga qalam berdi;
* navbatda turdi;
* rost gapirdi.

Metodik sharh:

3-bosqich. Mustahkamlash (5 daqiqa)

Rolli o‘yin: — “Do‘sting yiqilib qoldi. Nima qilasan?”

4-bosqich. Refleksiya (5 daqiqa)

Savollar:

1. Bugun qaysi yaxshi ishni qilding?
2. Qaysi yulduzchani olish qiyin bo‘ldi?

Baholash mezonlari

Ko‘rsatkichlar	Tavsif	Ball
Yaxshi xulqni ajrata olishi	Rasm va vaziyatlarda yaxshi xulqni tanlay oladi	1
Qoidalarga rioya qilishi	Dars davomida sinf qoidalariga amal qiladi	1
Faollik	O‘yinda ishtirok etadi, javob beradi	1
O‘zini baholashi	“Men bugun yaxshi ish qildim” deya oladi	1
	Jami	4 ball

Baholash og‘zaki rag‘bat (yulduzcha, tabassum) bilan amalga oshiriladi.

Tarqatma materiallar

1-topshiriq. “Yaxshi yoki yomon?”

(☀ — yaxshi, ☁ — yomon)

* Do‘stiga yordam berdi ☐
* Navbatda turmadi ☐
* Salomlashdi ☐
* O‘yinchoqni tortib oldi ☐

Metodik sharh:

Rasmli va belgili topshiriqlar o‘quvchisining idrokiga mos keladi.

Xulosa qilib aytganda, axloqiy tarbiyada gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy pedagogikaning samarali va istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. U tarbiyaviy jarayonni qiziqarli, interaktiv va samarali tashkil etish bilan birga, shaxsning axloqiy fazilatlarini ongli ravishda shakllantirishga xizmat qiladi. Metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan gamifikatsiya o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki axloqiy madaniyatini ham yuksaltirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olimov Sh.Sh. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 228 b.
2. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan, 2009. - 480 b.
3. Qodirova S.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish. – Toshkent: Navro‘z, 2022.
4. Ismoilova Z.X. Ta’lim jarayonida gamifikatsiya texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari // Pedagogik mahorat. – 2022. – №2. – B. 60–65.
5. Qodirova M.Sh. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy faollikni rivojlantirishda o‘yin texnologiyalarining o‘rni // Ta’lim va innovatsiyalar. – 2023. – №1. – B. 44–49.
6. Bekmurodov O.T. Axloqiy tarbiyada interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi // Pedagogika. – 2021. – №6. – B. 70–74.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 392.181.151.9

XALQ DOSTONLARI TILINI ETNOLINGVISTIK DISKURS SIFATIDA O‘RGANISH

Xolmuradova Jamila Irmetovna, Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, f.f.n.

STUDYING THE LANGUAGE OF FOLK EPICS AS AN ETHNOLINGUISTIC DISCOURSE

Kholmuradova Jamila Irmetovna, Associate Professor at Tashkent University of Applied Sciences, Candidate of Philological Sciences (PhD)in Philology

ИЗУЧЕНИЕ ЯЗЫКА НАРОДНЫХ ДАСТАНОВ КАК ЭТНОЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА

Холмурадова Жамила Ирметовна, доцент Ташкентского университета прикладных наук, к.ф.н.

e-mail: jamilaxalmuratova 66@ mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada etnolingvomadaniy tahlilning asosiy vazifalari yoritilib, doston tilida xalqning tarixiy-madaniy xotirasi qay darajada aks etishi, mazkur xotiraning qaysi leksik-semantik vositalar orqali saqlanishi hamda qanday mexanizmlar yordamida keyingi avlodlarga uzatilishi masalalari ilmiy asosda tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *xalq dostonlari, qadimiy so‘zlar, iboralar, ramzlar, obrazlar, etnomadaniy birliklar, identitet, lingvistik tahlil, etnik qadriyatlar, urf-odatlar, leksik-semantik vositalar, ma’naviy-madaniy meros, adabiy-badiiy tafakkur, mentalitet, qiyosiy tahlil.*

Abstract: *This article outlines the main objectives of ethnolinguocultural analysis and provides a scientific examination of the extent to which the historical and cultural memory of the people is reflected in the language of epic texts, the lexical-semantic means through which this memory is preserved, and the mechanisms by which it is transmitted to subsequent generations.*

Keywords: *folk epics, archaic words, expressions, symbols, images, ethnocultural units, identity, linguistic analysis, ethnic values, traditions and customs, lexical-semantic means, spiritual and cultural heritage, literary and artistic thinking, mentality, comparative analysis.*

Аннотация: *В данной статье освещаются основные задачи этнолингвокультурологического анализа, а также на научной основе исследуется степень отражения историко-культурной памяти народа в языке дастанов, способы её сохранения посредством лексико-семантических средств и механизмы передачи следующим поколениям.*

Ключевые слова: *народные дастаны, архаизмы, фразеологизмы, символы, образы, этнокультурные единицы, идентичность, лингвистический анализ, этнические ценности, традиции и обычаи, лексико-семантические средства, духовно-культурное наследие, художественно-эстетическое мышление, менталитет, сравнительный анализ.*

Kirish. Xalq dostonlari asrlar davomida og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan, shu bois ular xalqning tarixiy xotirasini, ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini, dunyoqarashini avloddan-avlodga yetkazuvchi beqiyos manba hisoblanadi. Doston tilida saqlanib qolgan qadimiy so‘zlar, iboralar, ramz va obrazlar nafaqat badiiy-estetik maqsadga xizmat qiladi, balki xalqning etnomadaniy identitetini saqlash va uzatishda til vositasi sifatida faol ishtirok etadi. Shu sababli dostonlarni etnolingvomadaniy tahlil qilish ilmiy zaruratdir.

“Etnolingvistika – makrolingvistikaning til bilan xalq o‘rtasidagi munosabatlarini, tilning faoliyati va taraqqiyotida lingvistik va etnik omillarning o‘zaro ta’sirini o‘rganuvchi bo‘limi”.[1] Etnolingvomadaniy tahlilning asosiy vazifasi – doston tilida xalqning tarixiy-madaniy xotirasini qay darajada ifodalashini, bu xotira qanday leksik-

semantik vositalar orqali saqlanishini va qanday mexanizmlar bilan keyingi avlodlarga uzatilishini aniqlashdir. Dostonlarda uchraydigan ko‘plab so‘zlar xalqning tarixiy hayotidan guvohlik beradi. Masalan, *“bek”, “xon”, “lashkar”, “saroy”, “to‘n”, “qozon”* kabi so‘zlar qadimiy ijtimoiy tuzilma va moddiy madaniyatni eslatadi. Bu birliklar orqali biz o‘tmishdagi siyosiy tizim, urf-odatlar, ijtimoiy tabaqalanish haqida ma’lumot olamiz. Tilshunoslikda bunday birliklar tarixiy qatlam leksikasi sifatida qaraladi. Dostonlarda ularning badiiy tasvir vositasi sifatida qo‘llanishi xalqning o‘z tarixini unutmaslik, uni avlodlarga yetkazish mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Shunday qilib, doston tilidagi tarixiy leksika xalq xotirasini saqlash va tiklashda muhim vazifa bajaradi.

Adabiyotlar tahlili. Etnolingvomadaniy tahlilning muhim vazifalaridan yana biri – milliy va umumturkiy qadriyatlarni aniqlashdir. Turkologiya olamida ozarbayjon, qozoq tilshunosligida ham bu borada ahamiyatga molik ilmiy izlanishlar olib borildi. Ozarbayjon Fanlar akademiyasi Lingvistika (tilshunoslik) instituti ilmiy xodimi Sh.H.G‘aribovaning ilmiy tadqiqotida, turk etnograflari Karamılloh Oyghagh, Asaluddin Nazamudin kabi olimlarning tadqiqotlarida, G.P.Vasilyeva, B.R.Logashova asarlari muhim manba bo‘lib xizmat qila oladi. Turkman tili etnografizmlari tadqiqi tarixi ham bir qadar o‘rganilgan. Voha xalqining turmush tarzi, tarixi, etnografiyasi xususida S.P.Tolstov, G.P.Snesarov, Y.G‘ulomov, T.A.Jdanko, K.L.Zadixina, M.Sazonova, I.Jabbarov, K.Shoniyazov kabi olimlarning izlanishlari ham e’tiborga molik. XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida H.Vamberi va A.N.Samoylovichlar ham yerli aholining tili xususida qimmatli ma’lumotlarni yozib qoldirganlar. Biroq, ushbu etnografizmlar ma’lum o‘zgarishlarga uchrashi, ya’ni o‘zlashayotgan xalq hayot tarzi bilan uyg‘unlashib, o‘ziga xoslik kasb etishi mumkinligi e’tirof etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida *mavzuni yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash va tanlama usullaridan foydalanilgan.*

Muhokama va tahlil. Dostonlar og‘zaki shaklda avloddan-avlodga o‘tib kelgani uchun ular xalq xotirasining “umumiy xazinasi” hisoblanadi. Har bir baxshi yoki dostonchi matnga o‘zining zamoniy qo‘shimchalarini kiritishi mumkin bo‘lsa-da, asosiy mazmun va qadriyatlar saqlanib qoladi. Bu jarayon shuni ko‘rsatadiki, doston tili xalqning tarixiy-madaniy xotirasini dinamik tarzda uzatadi: bir tomondan, qadimiy qatlamni saqlaydi, ikkinchi tomondan, zamonaviy ehtiyojlarga moslashadi. Bu mexanizm tilning barqarorligi va yangilanishini ta’minlaydi.

Dostonlarda tez-tez uchraydigan maqol, matal va iboralar xalqning umumlashgan tajribasi sifatida xotirani mustahkamlaydi. Masalan: *“Er yigit el uchun tug‘ilar, el uchun o‘lar”; “Orsizning boshi balodan chiqmas”; “Do‘st sadoqatda bilinur*” mazmunidagi birliklar xalq nutqida umumiy va tayyor baza sifatida yashaydi. Bu birliklar xalqning axloqiy, ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarini qisqa, lo‘nda shaklda avlodlarga uzatadi. Etnolingvomadaniy nuqtayi nazardan qaraganda, maqol va matallar xotira mexanizmining eng samarali shaklidir.

Doston tilini faqat badiiy asar sifatida emas, balki xalq xotirasi va mentalitetini uzatuvchi lingvistik tizim sifatida tahlil qilish bir necha sabablar bilan zarurdir:

1. Etnologik sabab: tarixiy va madaniy an’analarni qayta tiklash.
2. Madaniy-antropologik sabab: xalqning dunyoqarashini, qadriyat tizimini aniqlash.
3. Lingvistik sabab: tilning tarixiy qatlamlarini va semantik dinamikasini tahlil qilish.
4. Sotsiopsixologik sabab: kollektiv xotiraning shakllanish va uzatilish mexanizmlarini tushunish.

Shunday qilib, doston tilining etnolingvomadaniy tahlili nafaqat adabiy manbani o‘rganish, balki xalqning tarixiy-madaniy xotirasini ilmiy asosda anglash uchun ham dolzarbdir.

Doston tili xalqning tarixiy va madaniy xotirasini saqlash hamda avlodlarga uzatishda asosiy vositadir. U til birliklari, ramzlar, obrazlar, maqol va matallar orqali xalqning dunyoqarashini, qadriyatlarini va mentalitetini saqlaydi.[3] Etnolingvomadaniy tahlil esa bu jarayonni ilmiy asosda yoritish imkonini beradi: tarixiy leksika orqali xalqning o‘tmishi, ramz va obrazlar orqali ma’naviy dunyosi, maqol va iboralar orqali esa umumlashgan tajribasi saqlanib qoladi. Demak, doston tilini etnolingvomadaniy jihatdan o‘rganish – xalqning tarixiy-madaniy xotirasini saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish mexanizmlarini anglash uchun zaruriy ilmiy vazifadir.

TAMADDUN NURI

Madaniy antropologiya insoniyatning urf-odatlari, marosimlari, ijtimoiy qadriyatlari va hayotiy amaliyotlarini o‘rganadi. Shu jihatdan dostonlar xalqning turmush tarzini qayta tiklash uchun noyob manbadir. Masalan:

1. Marosim va an’analar: Dostonlarda to‘y, dafn, sayil, jang oldidan qilinadigan rasm-rusumlar batafsil tasvirlanadi. Xususan, qahramonning ot minish yoki to‘y marosimlari xalqning antropologik qadriyatlarini ifodalaydi.
2. Ijtimoiy munosabatlar: Beklar va oddiy xalq o‘rtasidagi farqlar, oila va jamoa hayoti antropologik tadqiqot uchun muhim ma’lumot beradi.
3. Mehnat faoliyati: Dostonlarda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilikka oid detallar uchraydi, ular xalqning xo‘jalik hayotini anglashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, dostonlar xalq hayotini “madaniy antropologik ensiklopediya” sifatida yoritadi.

Lingvokulturologiya til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tadqiq etadi. Dostonlarda til birliklari orqali xalqning qadriyatlari, urf-odatlari va milliy ongining o‘ziga xos xususiyatlari ifodalanadi. Xususan:

Leksik qatlam: *“Or”, “nomus”, “sadoqat”, “do‘stlik”, “vatan”* kabi so‘zlar xalqning axloqiy-ma’naviy qadriyatlarini bildiradi.

Maqol va iboralar: *“Er yigit el uchun tug‘ilar”, “Nomus – el ko‘zgusi”* kabi birliklar xalq tafakkurini umumlashtiradi.

Ramzlar: *Ot, oq rang, qora rang, yov* va *el ramzlari* xalqning dunyoqarashini tilda mustahkamlaydi.

Demak, dostonlar lingvokulturologik tahlil uchun ham boy material bo‘lib, xalqning milliy mentalitetini ochishda asosiy manba hisoblanadi. Dostonlar ikki asosiy qirraga ega:

1.Badiiylik: obrazlar, syujet, voqealar xalqning ijodiy salohiyatini ifodalaydi.

2.Madaniy-antropologik va lingvokulturologiklik: leksik qatlam, iboralar, marosimiy tafsilotlar xalqning tarixiy xotirasi va madaniyatini saqlaydi.

Shuning uchun dostonlarni o‘rganishda bu ikki yo‘nalish uyg‘un tarzda olib borilishi zarur.

Dostonlarda xalqning moddiy va ma’naviy qadriyatlarini ifodalovchi so‘zlar xalq tilining boy qatlamini tashkil qiladi. Bu birliklarni o‘rganish orqali:

–tilning tarixiy qatlamlarini tiklash;
–xalq mentalitetini tushunish;
–xalqaro madaniy aloqalarni aniqlash;
–milliy qadriyatlarni asrab qolish mumkin bo‘ladi.

Xulosa. Demak, dostonlarni nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslik, madaniyatshunoslik va antropologiya nuqtayi nazaridan ham tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifadir.

Bu zaruriyatni bir nechta omillar bilan asoslash mumkin. Xususan, ilmiy, amaliy, ma’naviy, qiyosiy omillar. Masalan:

1. Ilmiy omil: dostonlar xalqning tarixiy-madaniy hayotini qayta tiklash uchun noyob manba.
2. Amaliy omil: ularni tahlil qilish milliy qadriyatlarni asrash va yosh avlodga yetkazishda samarali.
3.Ma’naviy omil: xalqning axloqiy-ruhiy dunyosini o‘rganish va mustahkamlashga xizmat qiladi.
4. Qiyosiy omil: boshqa xalqlar dostonlari bilan taqqoslab, umumiylik va farqlarni aniqlash mumkin.

Dostonlar faqat badiiy meros emas. Ular xalqning tarixiy-madaniy xotirasini, urf-odatlarini, axloqiy qadriyatlarini va mentalitetini saqlab kelgan madaniy antropologik hamda lingvokulturologik manbadir. Shu bois dostonlarni tadqiq qilishda ularning badiiyligi bilan birga antropologik va lingvokulturologik qimmatini ham ochib berish lozim. Bu yondashuv xalqning o‘zligini anglash, milliy madaniyatni asrab qolish va uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ilmiy vazifani bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zME, 2002. –B.178.
2. R.Xudoybeidiyev. Rangshunoslik asoslari. T.: G‘.G‘ulom nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2006
3. Копыленко М. М. Основы этнолингвистики. – Алматы: Евразия, 1995. — 180 с.
4. Василева Г.П. История этнографического изучения туркменского народа в отечественной науке. – Москва, 2003. 158 s.
5. https://ilmsarchashmalari.uz/user-media/issues_files/2024-3.pdf

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 392.181.151.9

OZOD SHARAFIDDINOVNING ADABIYOTSHUNOSLIK VA ADABIY TANQIDCHILIKDAGI O‘RNI

Jumaboyeva Maqsuda Elmurod qizi, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti

THE ROLE OF OZOD SHARAFIDDINOV IN LITERARY STUDIES AND LITERARY CRITICISM

Jumaboyeva Maqsuda Elmurodovna, Master’s student University of Journalism and Mass Communications of the Republic of Uzbekistan

МЕСТО ОЗОДА ШАРАФИДДИНОВА В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ И ЛИТЕРАТУРНОЙ КРИТИКЕ

Жумабоева Максуда Элмуродовна, магистрант Университета журналистики и массовых коммуникаций Республики Узбекистан

e-mail: jumaboyevamaqsuda4 @gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XX asr o‘zbek adabiy tafakkurida alohida o‘rin egallagan adabiyotshunos va munaqqid Ozod Sharafiddinov shaxsiyati hamda ijodiy merosi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Uning adabiy tanqidchilik faoliyati, fikr erkinligi va ma’naviy mas’uliyatga asoslangan qarashlari, milliy adabiyot taraqqiyotidagi uzviylikni ta’minlashdagi roli yoritiladi. Maqolada Sharafiddinov tanqidining estetik va falsafiy xususiyatlari, yangi adabiy avlod vakillarini qo‘llab-quvvatlashdagi xizmatlari hamda uning tanqidiy qarashlarining bugungi adabiy jarayondagi ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Ozod Sharafiddinov, adabiy tanqid, o‘zbek adabiyoti, fikr erkinligi, ma’rifatparvarlik, adabiy jarayon, falsafiy talqin.*

Abstract: *The article offers a scientific and theoretical analysis of the personality and creative legacy of Ozod Sharafiddinov, a literary scholar and critic who holds a distinctive place in twentieth-century Uzbek literary thought. It examines his critical activity, views based on the principles of freedom of thought and moral responsibility, as well as his role in ensuring continuity in the development of national literature. The study highlights the aesthetic and philosophical characteristics of Sharafiddinov’s critical thinking, his contribution to supporting a new generation of writers, and the relevance of his critical ideas in the contemporary literary process.*

Keywords: *Ozod Sharafiddinov, literary criticism, uzbek literature, freedom of thought, enlightenment, literary process, philosophical interpretation.*

Аннотация: *В статье с научно-теоретических позиций анализируются личность и творческое наследие литературоведа и критика Озода Шарафиддинова, занимающего особое место в узбекской литературной мысли XX века. Рассматриваются его критическая деятельность, взгляды, основанные на принципах свободы мысли и духовной ответственности, а также роль в обеспечении преемственности развития национальной литературы. Раскрываются эстетические и философские особенности критического мышления Шарафиддинова, его вклад в поддержку представителей нового литературного поколения и актуальность его критических идей в современном литературном процессе.*

Ключевые слова: *Озод Шарафиддинов, литературная критика, узбекская литература, свобода мысли, просветительство, литературный процесс, философская интерпретация.*

KIRISH

Ozod Sharafiddinov hayotda ham, ijodda ham o‘zining haqqoniy so‘zi, iroda va matonati bilan yurtdoshlarimizga, ayniqsa yosh avlodga tom ma’nodagi ibrat bo‘lib kelgan ma’rifatparvar insondir. U adabiyotga faqat estetik hodisa sifatida emas, balki jamiyatning ma’naviy holatini belgilovchi muhim omil sifatida yondashgan siymodir. O.Sharafiddinov uchun so‘z oddiy ifoda vositasi emas, balki vijdon, e’tiqod va mas’uliyat mezoni edi. Shu bois uning tanqidiy faoliyati o‘zbek adabiy tafakkurida mustaqil fikr va ma’naviy jasorat namunasi sifatida e’tirof etiladi. “Ozod Sharafiddinov adabiyotshunos – tanqidchilar, umuman, olim-ziyolilar orasida birinchi bo‘lib Respublikamizning eng oliy mukofoti – O‘zbeksiton Qahramoni unvoni bilan taqdirlandi. Prezidentimizning bu haqdagi farmoni e’lon etilganda butun ilmiy-adabiy jamoatchilik Ozod akani bu qutlug‘ mukofot bilan qutladilar”[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqola yozilishida o‘zbek adabiy tafakkurida muhim o‘rin tutgan adabiyotshunos va munaqqid Ozod Sharafiddinovning ilmiy-nazariy hamda publitsistik merosi asosiy manba sifatida tanlandi. Xususan, uning “Dovondagi o‘ylar”, “Olamning qalbi”, “Ijodni anglash baxti” kabi asarlarida ilgari surilgan adabiy-estetik qarashlar, tanqidchining ijod va shaxs, adabiyot va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarga doir mulohazalari maqolaning konseptual poydevorini tashkil etdi. Ushbu manbalarda Sharafiddinov badiiy asarni anglash, yozuvchi mas’uliyati, estetik tafakkur va ma’naviy mezonlar masalasini chuqur va tizimli tarzda yoritgani bilan ajralib turadi.

Shuningdek, maqolada adabiyotshunos olim Umarali Normatovning Ozod Sharafiddinov shaxsiyati va ijodiy faoliyatiga doir ilmiy-nazariy qarashlaridan ham keng foydalanildi. Normatovning Sharafiddinov tanqidchiligini davr ruhi, fikr erkinligi va milliy adabiy tafakkur taraqqiyoti bilan bog‘lab talqin qilgan fikrlari maqolada tahliliy jihatdan muhim manba vazifasini bajardi. Bu qarashlar orqali Sharafiddinov ijodining adabiy jarayondagi o‘rni, uning tanqidchilik maktabi va metodologik yondashuvi yanada aniqroq ochib berildi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, tahliliy-izohli hamda ilmiy-nazariy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-qiyosiy metod yordamida Ozod Sharafiddinovning qarashlari o‘zbek adabiy tanqidchiligining umumiy rivojlanish bosqichlari bilan bog‘liq holda o‘rganildi. Tahliliy-izohli metod orqali uning asarlaridagi asosiy g‘oyalar, estetik tamoyillar va tanqidiy xulosalar matn asosida chuqur tahlil qilindi. Ilmiy-nazariy metod esa Sharafiddinov va Normatov qarashlarini umumlashtirish, ularning adabiyotshunoslikdagi ahamiyatini konseptual jihatdan baholash imkonini berdi.

Natijada maqolada Ozod Sharafiddinovning tanqidchilik va jurnalistik faoliyati, uning adabiy-estetik qarashlari hamda ilmiy merosining o‘zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotidagi o‘rni yaxlit va tizimli tarzda yoritildi.

NATIJALAR.

O‘zbek adabiyoti tarixining yaqin yuz yillik taraqqiyot bosqichiga nazar tashlar ekanmiz, turli davrlarda faoliyat ko‘rsatgan ko‘plab iste’dodli ijodkorlar va olimlar nomiga duch kelamiz. Ularning har biri adabiy jarayonga o‘z hissasini qo‘shgan. Biroq adabiyotshunoslar va tanqidchilar orasida Ozod Sharafiddinovning alohida ajralib turishi uning adabiy jarayonga nisbatan mas’uliyatli va printsipial yondashuvi bilan bog‘liqdir. U tanqidchilikni hukm chiqarish yoki baholash bilangina cheklamadi, balki uni adabiyotning ichki harakat mexanizmini ochib beruvchi ilmiy-amaliy faoliyat darajasiga ko‘tardi.

“Kishi ismiga tortadi” degan xalq hikmati Sharafiddinov shaxsida o‘zining to‘liq ifodasini topadi. U o‘zbek adabiyotining XX asr tarixida o‘z shaxsi, dunyoqarashi, e’tiqodi va fikriy mustaqilligi bilan ajralib turgan noyob hodisadir. Uning uchun ozodlik, avvalo, fikr erkinligi va vijdon pokligi masalasi edi. O.Sharafiddinov o‘z qarashlarida murosasizlik emas, balki haqiqatga sadoqatni ustuvor deb bildi. Shu bois u

[1] Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 5.

adabiy jarayonda yuzaga kelgan murakkab masalalarga dadil munosabat bildira oldi.

Turkiy adabiy tafakkur tarixida Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalar yaratgan ma’naviy an’analar keyingi asrlarda ham adabiyotimiz rivojiga asos bo‘lib xizmat qilgan. XX asr boshlarida Abdulla Qodiriy nasri orqali milliy adabiyot yangi bosqichga ko‘tarildi. Biroq tarixiy sharoitlar tufayli adabiy taraqqiyotda uzilishlar yuzaga kelgan davrlar ham bo‘ldi. Ana shunday murakkab sharoitda adabiyotning uzviy rivojini ta’minlash, yangi iste’dodlarni himoya qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etdi. “Munaqqid adabiyotimiz osmonida mitti yulduzlar – Erkin Vohidov, Abdulla Oripovlar paydo bo‘lganida – bu istiqboli porloq chin iste’dodlarni tanqidchilikda ilk bor kashf etdi, ularni yangi ijodiy parvozlarga ruhlantirdi. Ustoz va safdoshlari – Abdulla Qahhor, Zulfiya, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Shuhrat, Said Ahmad, Asqad Muxtor, odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov kabi davrning peshqadam adiblari qalami ostidan chiqqan deyarli har bir yangi asar ozod aka nigohidan o‘tib, so‘ng dunyo yuzini ko‘rar, matbuotda b u sinchkov munaqqidning odilona bahosini olar edi”,– deydi filologiya fanlari doktori Umarali Normatov[2].

MUHOKAMA

XX asrning 60-yillarida adabiyot maydoniga kirib kelgan yangi avlod vakillari — Odil Yoqubov, Abdulla Oripov singari ijodkorlar milliy adabiyotda yangicha estetik tafakkurni shakllantira boshladi. Bu yangilikni anglash, baholash va ilmiy jihatdan asoslash vazifasi esa Ozod Sharafiddinov zimmasiga tushdi. U yangi asarlarni yuzaki baholashdan qochib, ularning ichki poetik va falsafiy mohiyatini ochishga intildi. Tanqidchi sifatida u ijodkorni jazolash emas, balki tushunish va qo‘llab-quvvatlash yo‘lini tanladi. O.Sharafiddinov tanqidining muhim xususiyatlaridan biri uning milliy adabiyotni jahon adabiyoti va falsafasi bilan qiyosiy tahlil asosida o‘rganishidir. U adabiy hodisalarga tor milliy doirada emas, balki umuminsiy tafakkur nuqtai nazaridan yondashdi. Shu sababli uning tanqidiy maqolalari nafaqat adabiy, balki falsafiy mazmuni bilan ham ajralib turadi. Inson, davr, ruhiyat va e’tiqod masalalari Sharafiddinov tanqidining markaziy tushunchalariga aylandi.

Vaqt o‘tishi bilan Ozod Sharafiddinovning tanqidiy qarashlari nafaqat o‘z zamondoshlari, balki keyingi avlod adabiyotshunoslari uchun ham muhim metodologik asosga aylandi. Uning asarlari o‘zbek adabiy tanqidida haqqoniylik, vijdoniylik va fikr erkinligi mezonlarini mustahkamladi. Sharafiddinov adabiyotga xizmat qilishni so‘zning sha’nini himoya qilish bilan tenglashtirdi. “Keyingi yillar davomida olimning “Dovondagi o‘ylar”, “Ijodni anglash baxti” “Domlalar”, “jahon adiblari adabiyot haqida” singari bir-biridan o‘qishli kitoblari chop etildi”[3].

XULOSA

Ozod Sharafiddinov o‘zbek adabiy tafakkurida shunchaki adabiyotshunos yoki munaqqid emas, balki ma’naviy hodisa sifatida namoyon bo‘lgan siymodir. U hayoti va ijodi bilan adabiyotning jamiyat oldidagi mas’uliyatini chuqur anglagan, so‘z orqali haqiqatga xizmat qilgan allomadir. Uning ilmiy va publitsistik merosi bugungi adabiy jarayonni anglashda ham, yosh avlodni ma’naviy tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, Ozod Sharafiddinovning tanqidchilik va jurnalistik faoliyati o‘zbek adabiy tafakkurini yangilash, badiiy mezonlarni aniqlashtirish va yosh avlodning adabiyotga ongli munosabatini shakllantirishda muhim ilmiy-ma’naviy manba bo‘lib qolmoqda. Uning ijodiy merosi bugungi adabiyotshunoslik tadqiqotlari uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan mustahkam nazariy asos sifatida baholanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 631.
2. Шарафиддинов О. Оламнинг қалби. – Тошкент: Маънавият, 2012. – Б. 253.
3. Қозоқбой Йўлдошев. Ёниқ сўз. Янги аср авлоди. 2006. Б. 545.
4. Карим Баҳодир. Руҳият алифбоси. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – б. 358.
5. Йўлдош Қ. Очқич сўз. Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2019. –б. 685.

[2] Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 7.

[3] Шарафиддинов О. Оламнинг қалби. – Тошкент: Маънавият, 2012. – Б. 2.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 681.142.371:19

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING SAMARADORLIGI

Xolliyeva Mashxura Erkinjonovna,
Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

THE EFFECTIVENESS OF THE COMMUNICATIVE APPROACH IN TEACHING ENGLISH

Xolliyeva Mashxura Erkinjonovna,
Student of Termez State Pedagogical Institute

ЭФФЕКТИВНОСТЬ КОММУНИКАТИВНОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Холлиева Машхура Эркинжоновна, студент Термезского государственного педагогического института

mashhuraxolliyeva24@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-8389-5275

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi globallashuv sharoitida dolzarb ijtimoiy va ta’limiy masalalardan biri bo‘lib kelayotgan til o‘rganish va bu jarayonni tezlashtiradigan hamda shu bilan birga o‘rganuvchilarga yanada qiziqarli bo‘lishiga xizmat qiladigan usullardan biri bo‘lgan kommunikativ yondashuv hamda uning kelib chiqishi haqida so‘z yuritiladi va ingliz tilini o‘qitish misolida tushuntirib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Kommunikativ yondashuv, til o‘rganish jarayoni, ingliz tilini o‘qitish, zamonaviy yondashuv, an’anaviy yondashuv, kommunikativ kompetensiya, og‘zaki nutq.*

Annotation: *This article discusses one of the most relevant social and educational issues in today’s globalized world – language learning. It focuses on the communicative approach as one of the methods that accelerates the language learning process while making it more engaging for learners. The origin and essence of the communicative approach are examined and explained through the example of teaching English.*

Key words: *communicative approach, language learning process, teaching English, modern approach, traditional approach, communicative competence, oral speech.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается один из актуальных социальных и образовательных вопросов современности в условиях глобализации – изучение языка, а также коммуникативный подход как один из методов, способствующих ускорению данного процесса и повышению интереса обучающихся. Освещаются происхождение коммуникативного подхода и его сущность, а также приводится объяснение на примере преподавания английского языка.*

Ключевые слова: *коммуникативный подход, процесс изучения языка, преподавание английского языка, современный подход, традиционный подход, коммуникативная компетенция, устная речь.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Bugungi zamon bizdan doimiy ravishda o‘z ustimizda ishlashni talab qilib kelmoqda va bu talabning bir qismini til o‘rganish sohasi tashkil qiladi. Negaki, biz til o‘rganish orqali faqatgina o‘z kelajagimizni bir qadar kafolatlabgina qo‘ymay, balki dunyo bilimlaridan ko‘proq boxabar bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lamiz (bu fikr aynan dunyo tili bo‘lgan ingliz tili haqida so‘zlaganimizda juda ham o‘rinli bo‘ladi) va bu orqali yanada o‘z dunyoqarashimizni kengaytira olamiz. Shuning uchun ham bugungi kunda bu afzalliklarni anglagan holda ko‘plab yoshlar chet tillarini o‘rganishga kirishgan va hukumat esa bolalarga kichik yoshdan boshlab chet tillarini o‘qitish siyosatini olib bormoqda. Inson dunyoga kelibdiki, doimiy ravishda o‘ziga qulayliklar yaratishga harakat qiladi va har bir jarayonda buni amalda qo‘llaydi. Shu o‘rinda, aynan bu instinkt til o‘rganish yo‘lini chetlab o‘tgani yo‘q, ya’ni bugunga qadar ko‘plab

tilshunoslar til o‘rganish jarayonini osonroq qilishga yordam beradigan bir necha usullar va metodlarni kashf qilgan va bu jarayon ustida hali ham ishlayotganlar bor. Mana shunday izlanishlarning mevasidan bir bu aynan tillarni o‘qitishda kommunikativ yondashuv hisoblanadi. An’anaviy ta’lim yondashuvlari uzoq yillar davomida samarali natija bergan bo‘lsa-da, globallashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivoji zamonaviy, o‘quvchi markazli yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilini o‘qitishda samarali metodlarni aniqlash, ularning afzalliklarini tahlil qilish hamda ta’lim natijalariga ta’sirini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada samarali ingliz tilini o‘qitish metodlaridan biri bo‘lgan kommunikativ yondashuv, uning asosiy xususiyatlari hamda ta’lim jarayonidagi o‘rni atroflicha yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД /MATERIALS AND METHODS). Ingliz tilni samarali o‘qitish o‘zi qanday jarayonlarni o‘z ichiga oladi? Bu o‘quvchi yoshlar tilni amaliy jihatdan egallashi va uni real muloqotda to‘g‘ri, maqsadga muvofiq qo‘llash qobiliyatini o‘qituvchi berayotgan bilim va ko‘rsatmalari orqali rivojlantirib borish jarayonidir. Bu ta’lim jarayoni nafaqat grammatik bilimlarni o‘rgatishga, balki tinglash, o‘qish, yozish va gapirish ko‘nikmalarini integratsiyalashtirgan holda o‘rgatish tizimini ham o‘z ichiga oladi. Aynan ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuvdan foydalanish bizga yuqoridagi jarayonlarni yanada tezroq va osonroq egallashimiz imkoniyatini yaratib bera oladi [1].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish bugungi ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Olimlarning fikricha, AKT vositalari o‘quv jarayonini individuallashtirish, ta’lim mazmunini boyitish va o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Olimlarning fikrlariga ko‘ra, samarali til o‘qitish quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim: H. Douglas ta’kidlashicha, har bir o‘quvchi individual o‘rganish uslubiga ega va darslar uning qobiliyati, ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirilishi kerak. Bu yondashuv o‘quvchilarni passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida rivojlantiradi. Savignon va Littlewood ta’kidlashicha, ingliz tilini samarali o‘qitish jarayoni kommunikativ yondashuvga asoslangan bo‘lishi kerak, ya’ni o‘quvchilar tilni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur. Grammatik qoidalar faqat kontekst ichida o‘rganilishi samaraliroqdir. Larsen-Freeman fikricha, tilni o‘qitishda nazariy bilimlar va amaliy mashqlar uyg‘un bo‘lishi muhimdir. Faqat grammatik bilimlarni o‘rgatish yetarli emas; o‘quvchilarni real vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalari shakllantirilishi lozim. Black va Wiliamning tadqiqotlariga ko‘ra, doimiy va samarali teskari aloqa o‘quvchilarning o‘z xatolarini tuzatish va bilimlarini mustahkamlash imkoniyatini beradi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi [2].

Olimlarning fikrlari va ular o‘tkazgan tadqiqotlaridan ham ko‘rinib turibdiki, nafaqat ingliz tilini balki umuman barcha tillarni o‘qitishda kommunikativ yondashuv ko‘zlangan maqsadga eng tez olib boruvchi eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/ DISCUSSION). Hammamizga ma’lumki, ta’lim jarayonida va aynan til o‘qitish jarayonida metodik yondashuvlarning tanlanishi bevosita ta’lim sifatiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bu jarayonda o‘z navbatida ikki xil yondashuv mavjud: an’anaviy yondashuv (Traditional approach) va zamonaviy yondashuvlar (Modern approaches). Bu ikki xil yondashuv bir-biridan keskin farq qiladi desak hech ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu yondashuv xususiyatlari: O‘qituvchi markaziy rolni egallaydi, o‘quvchilar passiv tinglovchi sifatida qatnashadi. An’anaviy yondashuvda bor e’tibor grammatik qoidalar va so‘z boyligiga beriladi, ya’ni o‘quvchi tushungan va tushunmagan holda grammatik qoidalarni o‘rganadi va hech bir amaliy qo‘llanishlarsiz faqatgina lug‘at yodlashga kirishadi. Natijada, tilning asosiy maqsadi bo‘lgan real hayotda qo‘llay olish imkoniyati cheklanadi. Bu usul qaysidir jihatdan o‘quvchida tartib va intizomni ta’minlashda samarali bo‘lishi mumkin, aynan biron bir narsani qat’iy o‘rganish kerak bo‘lganligi bu odatlarni shakllantirishda yordam beradi, biroq yuqorida ham ta’kidlanganidek tilning asosiy vazifasini yuzaga kelishiga turtki bo‘ladigan o‘quvchilarning kommunikativ va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyati past hisoblanadi [3]. Zamonaviy yondashuvlar (Modern Approaches) o‘quvchi markazli, kommunikativ va interfaol

metodlarga asoslanadi. O‘quvchi markazli yondashuv: O‘quvchi ta’lim jarayonining asosiy subyekti hisoblanadi, o‘qituvchi yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi rolini bajaradi.

Kommunikativ yondashuv (CLT): O‘quvchilar tilni amliy jihatdan qo‘llab o‘rgana boshlaydi, ya’ni grammatik qoidalarni konteksda o‘rganadi aynan bu ularni yanada yaxshiroq tushunishiga va keyinchalik ham undan bemalol anglagan holda foydalanishlariga yordam beradi, so‘zlarni ham faqatgina yodlamasdan, balki ularni ham konteksda ma’nolarini yaxshiroq anglab yodlashga hamda ulardan o‘z nutqlarida faol foydalanishga ega bo‘ladilar. Til o‘rganish real hayotiy vazifalarni bajarishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar muammolarni mustaqil hal qilish va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Darslar interfaol va qiziqarli tarzda tashkil etiladi, bu o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish bilan birgalikda ularda til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada orttiradi [4].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). Zamonaviy ta’lim nazariyasida interaktiv metodlar o‘quvchini ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisidan faol subyektiga aylantiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida e’tirof etiladi. Pedagog olimlar fikriga ko‘ra, interaktivlik o‘quvchi va o‘qituvchi, shuningdek o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligiga asoslangan ta’lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. J.Richards va T.Rodgers ta’kidlaganidek, til o‘rganish jarayoni samarali bo‘lishi uchun o‘quvchi real muloqot jarayonida faol qatnashishi lozim, chunki til, avvalo, kommunikativ hodisadir. Interaktiv metodlar til o‘rganishda nutqiy faoliyatning barcha turlarini – tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozishni bir butun holda rivojlantirish imkonini beradi. Interaktiv metodlar bir nechta interaktiv o‘yinlarni o‘z ichiga oladi. Misol uchun, “rol o‘ynash (role play)”, “so‘zlar zanjiri (word chain)”, “so‘zni topish o‘yini (guess the word)” kabilar. Bularning barchasi ma’lum bir usullarga tayangan holda tilni real hayotda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi. “Rol o‘ynash” interaktiv o‘yinini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, bunda o‘quvchilar turli vaziyatlarni sahnalashtirishi kerak bo‘ladi: restoronda buyurtma berish, do‘konda savdo qilish, mehmon kutib olish va intervyu jarayoni kabilar, va asosiysi bu orqali speaking ko‘nikmasini ya’ni gapirish qobiliyatini rivojlantiradi [5]. Shu bilan birgalikda o‘quvchilar bir-birlari bilan ingliz tilida real hayotga yaqin vaziyatni yaratganligi uchun ularda aynan shu tilda gapirishga bo‘lgan ishonch ortadi. Keyingi interaktiv o‘yin, “so‘zlar zanjiri”, asosan lug‘at boyligini oshirishga xizmat qilish bilan birgalikda o‘quvchilarda tez fikrlash ko‘nikmasini oshiradi va darsni yanada qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi ya’ni o‘quvchilar bir so‘zning oxirgi harfi bilan yangi so‘z aytadi va shu tariqa so‘zlar zanjirini hosil qilishadi. Keyingisi bu - “so‘zni topish” o‘yini. Bu metod ham til o‘zining asosiy vazifasini bajarishi uchun muhim bo‘lgan ko‘nikmalarni-gapirish, tinglash va lug‘atni mustahkamlash- targ‘ib qilish bilan birgalikda hozirgi kunda eng muhim jihatlardan biri bo‘lgan creative-tanqidiy fikrlashni va jamoaviy ishlashni o‘rgatadi [6].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim jarayonida til o‘qitish samaradorligi bevosita qo‘llanilayotgan metod va vositalarning to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liqdir. Xususan, interaktiv metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlar o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantirib, tilni real muloqot vositasi sifatida egallashiga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Brown H. D. Principles of language learning and teaching (4th ed.). New York: Longman. 2000.
2. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
3. Larsen-Freeman, D. Techniques and principles in language teaching. – Oxford: Oxford University Press. 2000.
4. Littlewood W. Communicative Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981.
5. Savignon S. J. Communicative language teaching: Linguistic theory and classroom practice. New Haven: Yale University Press. 2002. Pp.1–27.
6. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 94(575.1)/(581)

QO‘QON XONLIGI SAVDO ALOQALARIDA HIND VA AFG‘ONLARNING ISHTIROKI

Madraximov Zoxid Sharofovich, Namangan davlat universiteti “Tarix” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

THE PARTICIPATION OF INDIANS AND AFGHANISTANS IN THE TRADE RELATIONS OF THE KOKAN KHANATE

Madrakhimov Zoxid Sharofovich, Associate Professor of the Department of “History” of Namangan State University, Candidate of Historical Sciences

https://orcid.org/0009-0000-7464-0172
e-mail: zohidmadrahimov1980@gmail.com

УЧАСТИЕ ИНДИЙЦЕВ И АФГАНИСТАНЦЕВ В ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА

Мадрахимов Зохид Шарофович, доцент кафедры “История” Наманганского государственного университета, кандидат исторических наук

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XVIII – XIX asr 70-yillarida O‘rta Osiyoning yirik davlatlaridan biri bo‘lgan Qo‘qon xonligining ichki va tashqi savdo aloqalarida hind va afg‘on savdogarlarining ishtiroki yoritilgan. Hind va afg‘on savdogarlari O‘rta Osiyo xonliklarining o‘zaro savdo aloqalarida va asosan Afg‘oniston va Hindiston hududlari bilan bo‘lgan tashqi savdo aloqalarida muhim mavqega ega bo‘lganlar. Hind va afg‘onlar Qo‘qon xonligining Qo‘qon, Toshkent, Marg‘ilon, Namangan, Andijon shaharlarida ham yashaganlar hamda xonlikning ichki savdo munosabatlarida ham ishtirok etganlar.*

Kalit so‘zlar: *O‘rta Osiyo, hind va afg‘on savdogarlari, ipakchilik, savdogar, bozor, karvonsaroy, iqtisodiy markaz, tranzit markaz, choy, povinda, bojxona, boj, mehtar, rais, dallol, sudxo‘rlik, arshin, pud.*

Abstract: *This article examines the participation of Indian and Afghan merchants in the internal and external trade relations of the Kokand Khanate, one of the largest states in Central Asia, in the 18th and 19th centuries. Indian and Afghan merchants played an important role in the mutual trade relations of the Central Asian khanates and mainly in the foreign trade relations with the territories of Afghanistan and India. Indian and Afghan merchants also lived in the cities of Kokand, Tashkent, Margilan, Namangan, Andijan of the Kokand Khanate and also participated in the internal trade relations of the khanate.*

Keywords: *Central Asia, Indian and Afghan merchants, silkworm, merchant, market, caravanserai, economic center, transit center, tea, povinda, customs, duty, mehtar, chairman, broker, usury, arshin, pud.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается участие индийских и афганских купцов во внутренних и внешних торговых отношениях Кокандского ханства, одного из крупнейших государств Центральной Азии, в XVIII и XIX веках. Индийские и афганские купцы играли важную роль во взаимных торговых отношениях центральноазиатских ханств, и прежде всего во внешних торговых отношениях с территориями Афганистана и Индии. Индийские и афганские купцы также проживали в городах Коканд, Ташкент, Маргилан, Наманган, Андижан Кокандского ханства и участвовали во внутренних торговых отношениях ханства.*

Ключевые слова: *Центральная Азия, индийские и афганские купцы, шелкопряд, купец, рынок, караван-сарай, экономический центр, транзитный центр, чай, повинда, таможня, пошлина, мехтар, председатель, брокер, ростовщичество, аршин, пуд.*

Kirish. XVIII – XIX asr 70-yillarida O‘rta Osiyoning yirik davlatlaridan biri bo‘lgan Qo‘qon xonligi ham ko‘p millatli hisoblanib, uning hududida o‘zbek, tojik, qirg‘iz, uyg‘ur, qozoq va boshqa ko‘plab xalqlar istiqomat qilganlar. Qo‘qon xonligining siyosiy, madaniy va iqtisodiy yuksalib borishi natijasida, uning hududiga turli mamlakatlardan savdo, boshpana va ta’lim olish maqsadida ko‘plab etnoslar kelib joylashgan. Shuningdek, xonlik shahar va qishloqlarida musulmon bo‘lmagan savdogarlar uchun ham erkin yashash hamda savdo qilish imkoniyatlari yaratilganligi, uning hududiga turli din va millat vakili bo‘lgan savdogarlar kelishini kuchaytirgan. Bu jarayon xonlikning etnik tarkibiga ham ta’sir o‘tkazgan. Qo‘qon xonligining Qo‘qon, Toshkent, Marg‘ilon, Namangan, Andijon kabi shaharlarida hind va afg‘onlarni ham tez-tez uchratish mumkin bo‘lgan. Hind va afg‘on savdogarlari O‘rta Osiyo xonliklari, xususan, Qo‘qon xonligining Hindiston va Afg‘oniston bilan savdo aloqalarida muhim ahamiyat kasb etgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Qo‘qon xonligining ichki va tashqi savdo munosabatlari, xususan, xonlikning, Hindiston va Afg‘oniston bilan olib borgan savdo aloqalari tarixini o‘rganishda tarixiy manbalar va arxiv hujjatlari muhim o‘rin egallaydi. Xususan, O‘rta Osiyo xonliklarida faoliyat olib borgan mahalliy muarrixlarning asarlari bilan birga, XVIII – XIX asrlar oralig‘ida O‘rta Osiyoga tashrif buyurgan yevropalik sayyoh, josus va tadqiqotchilarning asarlari va esdaliklarida ham mavzuga oid qimmatli ma’lumotlar mavjud. Shuningdek, O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan I.469; I.276; I.336; I.471-fondlar hujjatlari mavzuga oid qimmatli ma’lumotlarni beradi. O‘rta Osiyolik ziyoratchilar, savdogarlar yoki diplomatik yozishmalarda ham mavzuga oid ma’lumotlarni uchratish mumkin.

Natijalar va muhokama. Hindlar Qo‘qon xonligining Qo‘qon, Toshkent, Marg‘ilon, Namangan, Andijon shaharlarida yashagan hamda xonlikning savdo munosabatlarida o‘ziga xos o‘rin tutganlar. N.Engelgartd ma’lumotlariga ko‘ra, Rossiya istilosiga qadar Qo‘qon shahrida savdo maqsadida kelgan va yashab qolgan hindlar ko‘p bo‘lgan va shaharda o‘ziga xos “hind koloniyalari”ni tashkil qilgan [1.C.46]. XIX asr o‘rtalarida Qo‘qonda 20taga yaqin, xonlik tugatilishi arafasida (1876) 52ta [2], Farg‘ona vodiysida esa 370ta hind istiqomat qilgan. Shuningdek, XIX asr 60-yillarida xonlikning yirik shaharlaridan bo‘lgan Toshkentda 100ga yaqin, O‘ratepada esa 12ta hind savdogari yashagan[3].

Qo‘qon xonligi shaharlarida hindlarga qarashli karvonsaroylar mavjud bo‘lib, xonlik markazi Qo‘qondagi karvonsaroylarning biri, Marg‘ilondagi 8ta karvonsaroyning 2tasi, Xo‘janddagi 5ta karvonsaroyning va O‘ratepadagi 3ta karvonsaroyning 1tasi hindlarga tegishli bo‘lgan [4.C.445-451]. Shuningdek, rus istilosi arafasida Toshkentdagi Said Azim, Shirin Xoja Rais va Beklarbegi karvonsaroylarida hind savdogarlari yashab, savdo bilan shug‘ullanganlar [5. C.43 – 44].

Hindistondan O‘rta Osiyoga ulgurji mol keltirish bilan islom diniga e’tiqod qiluvchi hindistonlik savdogarlar shug‘ullanganlar. Chunki, karvon yo‘llari asosan musulmonlar yashaydigan hududlardan o‘tgan bo‘lib, bu yerlarda musulmon bo‘lmagan savdogarlardan katta miqdorda boj olingan. Xonliklar shaharlarida esa Hindistondan keltirilgan mollarni sotish bilan asosan musulmon bo‘lmagan hindlar mashg‘ul bo‘lgan [6. C.10]. Chunki, xonlik hududida musulmon bo‘lmagan savdogarlarga ham yaxshi munosabatda bo‘linganligi bunga asosiy sabablardan bo‘lgan.

Qo‘qonda hindlar savdodan tashqari sudxo‘rlik bilan ham mashg‘ul bo‘lganlar. Sudxo‘rlik Qo‘qon xonligida yashovchi hindlarning asosiy mashg‘uloti hisoblangan va ular mahalliy savdogarlarga oyiga 2 yoki 2,5 foiz badal hisobida, oldindan tilxat yozdirib olgan tarzda, pul qarz berganlar [7.C.519]. Xususan, hind sudxo‘ri bergan 16 tanga (3 rubl 20 kopeek) 20 haftadan so‘ng unga 4tanga (80 kopeek) daromad keltirgan [8.C.38].

Qo‘qon xonligida yashovchi hindlar xonlikning ichki va turli hududlar bilan savdosida ham faol ishtirok etganlar. Xususan, Toshkent

bojxonasi qaydnomalarida yozilishicha, Qo‘qondan Toshkentga 1867-yil 4-mart kuni hind savdogari Boy Tilla 1 ta otda 108 rubllik Qo‘qon gazlamasi, 6 iyunda hind savdogari[1] 1ta otda 97 rubllik 21ta olacha chopon (donasi 2 rubl 184 kopeek) va kalish (jufti 30 kopeek), 17-iyunda hind savdogari Boy Tilla 1712 rubllik Qashqar matosi va chit, 27-iyunda hind savdogari 8ta otda 1000 rubllik Qashqar va Qo‘qon gazlamasi [9], 1868-yil 9-yanvarda hind savdogari Boy Bo‘ta 7ta ot va 1ta tuyada 940 rubllik shakar, Qashqar va Qo‘qon gazlamasi[10], shu oyda yana bir nechta hind savdogarlari 10 ta otda 1260 rubllik Qo‘qon gazlamasi, 1 – 9-mart orasida yana bir hind savdogari 40 rubllik Qo‘qon gazlamasi olib kelgan[11].

Shuningdek, Toshkentdan Qo‘qonga 1868-yil 9-yanvarda hind savdogari Tilla 11ta aravada 4800 rubllik rus mollari, shu kuni yana bir hind savdogari Xosa 6ta otda 1600 rubllik rus mollari va choy[12], shu oyda bir nechta hind savdogarlari 11ta arava va 6ta otda 6400 rubllik rus mollari olib kelgan[13]. Bundan ko‘rinib turibdiki, xonlikda mahalliy bo‘lmagan savdogarlarga yaratilgan sharoit, berilgan imkoniyat va ularning xavfsizligini ta’minlanganligi natijasida, hind savdogarlari nafaqat Qo‘qon – Hindiston savdo aloqalarida, balki xonlikning ichki va boshqa mamlakatlar bilan olib borilgan tashqi savdo aloqalarida ham faol ishtirok etganlar.

Qo‘qon xonligining Afg‘oniston va Hindiston bilan savdo aloqalarida xonlik savdogarlari bilan bir qatorda afg‘onlar ham katta mavqeiga ega bo‘lganlar. Xususan, Hindistondan O‘rta Osiyo hududlariga savdo karvonlarini afg‘onlarning “povinda” qabilasi a’zolari qo‘riqlab kelganlar. Povinda tarkibiga – loxani, nosiri, xaroti, miyaxel, dutani, niyazi kabi urug‘lar kirgan bo‘lib, ularning 35 mingdan ortiq tuyasi mavjud bo‘lgan. Povinda a’zolari savdogarlarga tegishli yuklarni o‘z tuyalari orqali O‘rta Osiyoga keltirganlar [14.C.15]. Bu mollarning bir qismi shubhasiz Qo‘qon xonligiga keltirilgan. Arxiv ma’lumotida ko‘rsatilishicha, O‘ratepa bojxonasidan 1865-yil 11-avgustda afg‘on savdogari Kobuldan Qo‘qonga 325 rubl 60 kopeeklik choy va chit olib o‘tgan[15].

Qo‘qon xonligida yashovchi afg‘onlar asosan tijorat bilan mashg‘ul bo‘lganlar va xonlikning ichki va tashqi savdo munosabatlarida ham ishtirok etganlar. A.K.Geyns ma’lumotlariga ko‘ra, Qo‘qonda yashovchi afg‘on savdogarlari Hindistondan keltirilgan hind va ingliz mollari: sallalik doka, chit, bombey choyi, qalin surp, fransuz chiti va boshqalarni sotish bilan shug‘ullanganlar [7.C.245]. XIX asr o‘rtalarida, xonlik poytaxti Qo‘qonda 50taga yaqin [16.C.50], Rossiya istilosi arafasida Toshkentda 21ta afg‘on yashagan [17.Б.86].

Afg‘on savdogarlari Qo‘qon xonligining ichki savdodagi ishtirokidan tashqari, Hindiston, Afg‘oniston, Eron, Buxoro xonligi, Rossiya va boshqa hududlar bilan savdo aloqalarida muhim o‘rin tutganlar. Xususan, 1864-yil 20noyabrda afg‘on savdogari Albabat Mulladatov 1300 tuyalik katta karvonga qo‘shilgan holda, o‘zining 10ta tuyasida 1000 tillolik 200ta ipak va 100ta oddiy chopon, 1100 parcha beqasam, 200 parcha pariposha, 100 parcha kanous va h.k.lar bilan Turkistondan Perovskiy fortiga kelgan[18]. Shuningdek, Toshkent bojxonasi ma’lumotiga ko‘ra, 1865-yil 13-sentyabrda afg‘on savdogari Abu Said Toshkentdan Qo‘qonga 1ta tuyada 588 rubllik rus mollari olib ketgan[19] bo‘lsa, 1867-yil 6-iyulda afg‘on savdogari Shamsiddin 12ta otda 1200 rubllik Qo‘qon gazlamasi, 24-iyulda afg‘on savdogari Said Turdiyev 1ta tuyada 349 rubl 20 kopeeklik 44ta olacha chopon, ipak gazlama, chit va h.k.larni Qo‘qondan Toshkentga olib kelgan[20].

Xulosa. Xulosa sifatida shuni qayd qilish mumkinki, Qo‘qon xonligida mahalliy xalqlar – o‘zbek, tojik, qirg‘iz, qozoq va boshqalar bilan birga turli hududlardan yashash va tijorat uchun kelgan qoraqalpoq, hind, uyg‘ur, afg‘on, yahudiy, tatar, rus va boshqa millat vakillarini uchratish mumkin bo‘lgan. Xonlik hududiga qo‘shni mamlakatlardan kelayotgan aholi va savdogarlar oqimining ko‘payishi uning iqtisodiyoti yuksalgan davrdan, ya’ni, XIX asr boshlaridan kuchaygan. Shuningdek, Qo‘qon xonligida turli millat va din vakillariga erkin yashash va savdo qilish uchun berilgan keng imkoniyat hamda boy va xaridorgir bozor turli mamlakat savdogarlarini bu yurtga

[1] Izoh: arxiv hujjatlaridagi savdogarlar ismini o’qish imkonini bo’lmadi.

chorlagan. Qo‘qon xonligida savdoning rivojlanishi uning etnik tarkibida o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan. O‘z navbatida turli etnik guruhlarning integratsiyalashuviga olib kelgan. Xususan, Qo‘qon xonligida ichki va tashqi savdo aloqalarida hind va afg‘onlar ham muhim ahamiyat kasb etganlar. Hind va afg‘on savdogarlari Qo‘qon xonligining Buxoro amirligi, Afg‘oniston va Hindiston bilan bo‘ladigan tashqi savdo aloqalarida muhim ahamiyat kasb etish bilan birga, xonlikning ichki savdosida o‘z mavqeiga ega bo‘lgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Энгельгартдъ Н. Очерки Коканда // Туркестанский сборник. Том 458. 1908.
2. O‘zMA, I. 276-fond, 1-ro‘yxat, 123-ish, 29-varaqning orqasi, 30-varaq.
3. Кушакевич А. Сведения о городе Ура-Тюбе // Туркестанские ведомости. 1872. – №14.
4. Костенко Л.О. Туркестанский край. Том I. – СПб.: Тип. Траншеля, 1880. – 452 с.
5. Тетеревников А.Н. Очерк внутренной торговли Киргизской степи. – СПб.: Тип. Майкова, 1867. – 73 с.
6. Дмитриев Г.А. Из истории среднеазиатско-индийских отношений второй половины XIX в – начала XX в. Автореф. дис... канд. ист. наук. – Т., 1965.
7. Гейнс А.К. Управление Ташкентом при Кокандском владычества / Собрание литературных трудов. Том II. – СПб.: Тип. М.Стасюревича, 1898.–741 с.
8. Наливкин В., Наливкина М. Очеркь быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. – Казань: Тип. Имп. Унив. 1886. – 245 с.
9. O‘zMA, I. 471-fond, 1-ro‘yxat, 10-ish, 33, 95, 122, 131-varaq.
10. O‘zMA, I. 471-fond, 1-ro‘yxat, 14-ish, 4-varaq.
11. O‘zMA, I. 471-fond, 1-ro‘yxat, 11-ish, 1-varaqning orqasi, 2-varaq, 12-varaqning orqasi, 13-varaq.
12. O‘zMA, I. 471-fond, 1-ro‘yxat, 13-ish, 2-varaqning orqasi, 3-varaq.
13. O‘zMA, I. 471-fond, 1-ro‘yxat, 11-ish, 2-varaqning orqasi, 3-varaq.
14. Бабаходжаев М.А. Русско-афганские торгово-экономические отношения во второй половине XVIII – начале XX в. – Т.: Наука, 1965.–132 с.
15. O‘zMA, I. 336-fond, 1-ro‘yxat, 104-ish, 6-varaq.
16. Вельяминов-Зернов В.В. Торговое значение Коканского ханства для русских. ИРГО. – СПб., 1854. – 87 с.
17. Султонов Ў.А. Муҳаммад Солиҳхўжа ва унинг “Тарихи жадидайи Тошканд” асари. – Т.: Ўзбекистон, 2007. – 262 б.
18. O‘zMA, I. 336-fond, 1-ro‘yxat, 2-ish, 40-varaq.
19. O‘zMA, I. 336-fond, 1-ro‘yxat, 103-ish, 16-varaq.
20. O‘zMA, I. 336-fond, 1-ro‘yxat, 10-ish, 94 ob, 127-varaqning orqasi.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 821.512.133

“OSHIQNOMA” DOSTONLARIDAGI DUALIZMGA ASOSLANUVCHI AFORIZMLARNING LINGVOFOLKLORISTIK TAHLILI

Yuldashev Doniyor Taxirovich, UrDU, professor, filologiya fanlari doktori (DSc)

LINGUISTIC FOLKLORE ANALYSIS OF APHORISMS BASED ON DUALISM IN THE EPIC POEMS “ASHIKNAMA”

Yuldashev Doniyor Takhirovich, Urgench State University, Professor, Doctor of Philology (DSc)

ЛИНГВОФОЛЬКЛОРНЫЙ АНАЛИЗ АФОРИЗМОВ ОСНОВАННЫХ НА ДУАЛИЗМЕ В ЭПИЧЕСКИХ ПОЭМАХ “АШИКНАМА”

Юлдашев Дониёр Тахирович, профессор, доктор филологических наук Ургенчского государственного университета

https://orcid.org/my-orcid?orcid=0000-0001-5774-6936
e-mail: doniyory696@ gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “Oshiqnoma” turkum dostonlaridagi mifologik va zoonimik dualizmga asoslanuvchi hikmatli jumlalarning lingvofolkloristik xususiyatlari tahlil qilindi. Maqolada zoonimik kod hamda uning tarkibiga kiruvchi ornitonimik va ipponimik kodlarning inson psixologiyasi, ijtimoiy ierarxiya va ontologik dualizm bilan bog‘liqligi ilmiy asoslandi.*

Kalit so‘zlar: *lingvofolkloristika, zoomorfik kod, mifologik dualizm, ipponimik metafora, ornitonomik kod, binar oppozitsiya, kontrast, sher, lingvomadaniy.*

Abstract: *This article analyzes the linguistic and folkloric features of aphorisms based on mythological and zoonymic dualism in the Oshiknoma epic series. The article scientifically substantiates the connection between the zoonymic code and the ornitonymic and hipponymic codes included within it, as well as human psychology, social hierarchy, and ontological dualism.*

Key words: *linguafolklore studies, zoomorphic code, mythological dualism, hipponymic metaphor, ornithonomic code, binary opposition, contrast, lion, cultural.*

Аннотация: *В данной статье анализируются лингвистические и фольклорные особенности афоризмов, основанных на мифологическом и зоонимическом дуализме, в эпосах серии “Ошикнома”. Статья научно обосновывает связь между зоонимическим кодом и включенными в него орнитонимическим и иппонимическим кодами с психологией человека, социальной иерархией и онтологическим дуализмом.*

Ключевые слова: *лингвофолклористика, зооморфный код, мифологический дуализм, иппонимическая метафора, орнитономический код, бинарная оппозиция, контраст, лев, культурный.*

Kirish. Xorazm dostonchilik maktabining go‘zal namunasi bo‘lgan “Oshiqnoma” turkumi dostonlari nafaqat epik syujetlar, balki milliy tafakkur tarzini o‘zida mujassam qilgan aforistik qatlamga ham boy sanaladi. Ushbu dostonlar tilidagi hikmatli jumlalar xalqning asriy tajribalarini zoonimik (hayvonlar nomi) va mifik obrazlar yordamida gavdalantiradi.

Lingvofolkloristikada *zoomorfik kod* bu insoniy xislatlarni hayvonlar tabiatiga ko‘chirish orqali amalga oshiriladigan semantik transferdir. Boshqacha aytganda, insoniy xislatlar, ijtimoiy

munosabatlar va mavhum tushunchalarni zoonimlar obrazlari orqali ifodalovchi lisoniy hamda madaniy belgilari tizimi sanaladi. Badiiy matnda hayvonlar nomining sifat va harakat belgilarini o‘z zimmasiga olishi zoomorfik kodning lingvopoetik asosi hisoblanadi. Ma’lumki, xalq dostonlari tili o‘zining lisoniy qatlamlari bilan ajralib turadi, jumladan, undagi har bir hayvon nomi o‘ziga xos semiotik belgi vazifasini o‘taydi. V.N.Teliya “madaniy kod” tushunchasiga lingvistik ta’rif beradi va zoomorfik kodni madaniyatning “koordinatalar tarmog‘i” deb ataydi [10,223]”. Ushbu tarmoq orqali inson fazilatlari (etalonlar) va nuqsonlari (anti-etalonlar) saralanadi. Masalan, *bedov* – mardlik etaloni, *yobi* – ojizlik anti-etaloni sifatida milliy mentalitetni aks ettiradi. Y.M.Lotman esa “semiosfera” tushunchasi doirasida zoomorfik obrazlarning matn ichidagi “simvolik filtri” haqida yozadi. U zoomorfizmlarni madaniyatning “genetik xotirasi” deb ataydi [6,236], bu esa “Oshiqnoma” dostonlaridagi arxaik hikmatlarning saqlanish mexanizmini tushuntirishda qo‘l keladi. Bundan tashqari, ushbu turkum dostonlaridagi *sher, tulki* yoki *bedov* obrazlari shunchaki hayvonlar tasviri emas, balki inson xarakterini “o‘ylash”, tahlil qilish va tasniflash uchun eng qulay lingvistik modeldir. Bu zoomorfik kodning ijtimoiy dualizmdagi semiotik asosi hisoblanadi.

Darhaqiqat, dostonlar tiliida zoomorfik kodlar shunchaki poetik bezak emas, balki tilning leksik-semantik tizimida mustahkam o‘rin olgan ijtimoiy-axloqiy tushunchalarning simvolik ifodasidir. “Oshiqnoma” turkumi dostonlaridagi har bir hayvon nomi o‘zbek tilining boy lug‘at tarkibi va xalq maqollari xazinasi bilan uzviy bog‘liq. N.Mahmudov ta’kidlaganidek, milliy mentalitetning eng yorqin qatlamlari maqol va matallardagi zoonimik metaforalarda ko‘rinadi [8,12].

Metodologiya. Ushbu maqolamizda “Oshiqnoma” turkum dostonlaridagi zoomorfik va mifologik dualizmga asoslanuvchi aforizmlarni tahlil qilishda fanlararo yondashuvga asoslangan bir qancha metodlardan foydalanildi. Jumladan, doston matnidagi zoonimik obrazlarning dostonlar tilidagi o‘rnini, hikmatli jumlalarning folklor matnidagi estetik vazifasi tahlilida lingvofolkloristik tahlildan; zoonim va mifonimlar “madaniy kodlar” sifatida tahlil qilinganda semiotik; zoonimlarni xalqning milliy mentaliteti, madaniyati va dunyoqarashini ifodalovchi konseptlar sifatida o‘rganishda lingvokulturologik yondashuv; doston matnidagi ijtimoiy ierarxiyaning lisoniy modellarini aniqlashda kontrastiv-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu maqolamizda mifologik va zoonimik dualizmga asoslanuvchi hikmatli jumlalarni, zoomorfik kodlarni tahlil qilar ekanmiz, metodologik poydevorni Y.M.Lotmanning “semiosfera” nazariyasi va K.Levi-Strossning “hayvonlar yeyish uchun emas, balki o‘ylash uchun qulay bo‘lgani uchun tanlanadi[2,162]” degan nazariyasi tashkil etdi. Bu nazariya doston matnini shunchaki ma’lumot beruvchi vosita emas, balki madaniy kodlarni saqlovchi va qayta ishlovchi murakkab mantiqiy tizim sifatida o‘rganishga xizmat qildi.

Muhokama va natija. Ushbu maqolada dualizm (ikki yoqlamalik) tamoyili asosida “*bedov – yobi*”, “*sher – tulki*”, “*bo‘ri – qo‘y*”, “*ajdaho – mor*”, “*qarchig‘ay – qarg‘a*”, “*nor – moya*” kabi juftliklarning lingvofolkloristik va lingvomadaniy o‘ziga xosliklarini ochib berishga harakat qilganmiz. Zoomorfik metaforalar va ularning kognitiv tahlili bo‘yicha internet manbalariga murojaat qilinganda shu narsa aniq bo‘ldiki, zoonimlar madaniy kod sifatida insonning emotsional holatini 80% aniqlikda vizuallashtiradi [13].

Darhaqiqat, zoomorfik kod – inson xarakteristikasini hayvonot olami belgilari orqali moddiylashtiruvchi metaforik tizimdir. Ijtimoiy dualizmning eng yorqin namunasi yirtqich hayvonlar ishtirokidagi aforizmlardir. “Oshiqnoma” dostonlarida ushbu kod ko‘pincha *antiteza* (kontrast) usulida namoyon bo‘ladi. Masalan:

– Sher va Tulki dualizmi: – *Qilich solsam dushma-dusha qocharsiz, Sher ko‘rmagan tulki mudom sher bo‘lar* (4-kitob, Erh.188-b.). Ushbu parchadagi *“Sher ko‘rmagan tulki mudom sher bo‘lar”* hikmati orqali subyektiv kibr va obyektiv qudrat o‘rtasidagi kontrast ochib beriladi. Ikki qarama-qarshi zoonimning bitta aforizmda kelishi *antiteza* san’atini yuzaga keltiradi. Ushbu maqolni *“haqiqiy kuchni bilmagan odam o‘zini hammadan ustun qo‘yishi”* haqidagi maishiy-psixologik kontrast sifatida baholash mumkin. *Sher* – mardlik va haqiqiy qudrat, *tulki* – ayyorlik va soxta shon-shuhrat ramzi, “sher ko‘rmaslik” – tajribasizlik va kibrni anglatadi. B.Sarimsoqov yozganidek, bunday zoomorfik antiteza personajlarning o‘z-o‘zini baholashi va real imkoniyatlari o‘rtasidagi nomuvofiqlikni fosh etuvchi estetik quroldir[9,150].

– Bo‘ri va Qo‘y dualizmi: – *Qachon do‘st bo‘libdur qo‘ylar gurt bila, Aning uchun bolam tura bilmadi* (7-kitob,Dav.34-b.). Ushbu parchadagi aforizm ijtimoiy xavfsizlik va dushman tabiatining o‘zgarmasligi haqidagi aksioma hisoblanadi. Bu yerda *qo‘y* – passiv subyekt, *bo‘ri* – agressiv obyekt

sifatida zidlantiriladi. *Bo‘ri* – yirtqichlik va xavf, *qo‘y* – ojizlik va yuvoshlik ramzi. Lug‘atda *bo‘ri* leksemasining ko‘chma ma’nosi *“yovuz, qonxo‘r, shafqatsiz odam haqida”* deb berilgan [11,416]. Bu lingvistik fakt dostonlardagi dushman obrazining zoonimik asosini tasdiqlaydi.

– Ot va Yobi dualizmi: – *Hech yerda teng bo‘lmas, ot bila yobi* (8-kitob, SH.(y.v.) 140-b.). Ushbu aforizm *binar oppozitsiya* (qarshilantirish) asosiga qurilgan: *Ot* – asillik, nasldorlik va mardlik timsoli, *Yobi* – naslsiz, ishga yaramaydigan yoki past tabaqali ot. Izohli lug‘atimizda *bedav // bedov* “Ucqur, o‘ynoqi, asil zotli ot” [11,205] va *yobi* “Nasli past, xashaki ot” [12,22] tarzida izohlangan. “Ot – mardlik va ijtimoiy maqom kodi”: *Bedov* (asilzodalik), *Yobi* (nokaslik). O‘zbek dostonchiligida *ot* (ipponim) qahramonning qanoti va uning genealogik asilligi ramzidir. Dualizm bu yerda “asil ot” va “past toifadagi ot” qarama-qarshiligida ko‘rinadi. Lisoniy tahlil shuni ko‘rsatadiki, *yobi* leksemasi dostonlar tilida faqat biologik ma’noni emas, balki ijtimoiy tabaqalanishda “past tabaqa” yoki “nokas odam” semasini ham tashiydi.

Rus lingvistikasida V.V.Ivanov va V.N.Toporovlar dunyo madaniyatidagi “asosiy mifologik dualizm” nazariyasini ishlab chiqqanlar, ya’ni dunyoni anglashning binar (juft) oppozitsiyalar tizimini asoslashadi. Ular “o‘ng va chap”, “hayot va o‘lim”, “osmon va yer” kabi binar oppozitsiyalarning universal xarakterini va ularning antiteza usulidagi lisoniy in’ikosini ilmiy dalillaydilar [4,261]”. Mifologik dualizm – olamni ikki qarama-qarshi kuch (*yaxshilik* va *yomonlik, hayot* va *o‘lim*) kurashi sifatida anglashdir. Dostonlarda bu kurash quyidagi kontrast dualizmlarda namoyon bo‘ladi:

– Nafs (tartibsizlik) va Qahramon (tartib) dualizmi: – *Nafsing ajdarhodur, xayoling xomdur* (4-kitob,ON.76-b.). Aslida “Nafs ajdarhodur” metaforasi aynan “*Ruh* va *Jism*” yoki “*Ezgulik* va *Yovuzlik*” dualizmining lisoniy ko‘rinishidir. Bu yerda ajdarho tartibsizlik va yemiruvchi kuch sifatida qahramonning (tartibning) muqobillidir. “Oshiqnoma” dostonlarida dualizmning eng yuqori nuqtasi insonning o‘z ichki “men”i bilan kurashida (*nafs*) va borliqning yakuni (*ajal*) haqidagi tasavvurlarida namoyon bo‘ladi. Bu yerda real zoonimlar o‘rnini mifologik *Ajdarho* egallaydi, u – cheksiz ehtiyoj va yutuvchi kuch. Lug‘atda bu so‘zning ko‘chma ma’nosi *“qonxo‘r, yovuz odam haqida”* sifatida qayd etilgan [11,44].

– Ajal va Foniylik dualizmi: – *Mani holim bo‘ldi battardin battar, Ajal bir ajdardur oxiri yutar* (3-kitob,GS.202-b.). Bu yerda ajalning muqarrarligi va dahshati mifik “yutuvchi” xususiyati orqali ifodalanadi. Shuningdek, *ajal* (belgilangan muddat) va *ajdar* (yutuvchi) o‘rtasida fonetik va semantik bog‘liqlik mavjud.

V.A.Maslova ornitonimik va ipponimik kodlarning frazeologizmlar va maqollardagi in’ikosini o‘rganadi va hayvonlar nomining “madaniy konnotatsiya”si qanday qilib stereotiplarga aylanishi va bu stereotiplarning aforizmlar tarkibida saqlanishini tushuntirgan. Jumladan, olima qush nomlarining inson ruhiy holatini baholashdagi xususiyatini ochiqlagan” [7,120]. Qushlar simvolikasining badiiy adabiyotdagi lingvopoetik vazifasini tadqiq qilgan Y.Is’hoqov o‘zining “So‘z san’ati so‘zligi” lug‘at-monografiyasida qushlar (ornitonimlar) ramziy dunyosini lingvopoetik jihatdan yoritgan. Jumladan, *Shahboz, Humoy* va *Anqo* kabi qushlarning oliy ma’naviy martaba kodi sifatidagi qo‘llanilishi, *Qarg‘a* va *Zog‘*ning esa pastlik (estetik va axloqiy tushunishda) timsoli ekanligini izohlagan [5,178-182].

Qushlar obrazi dostonlarda kishining ruhiy balandligi yoki pastligini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan:

– Qarchig‘ay va Qarg‘a dualizmi: – *Qarchigay yo‘q joyda qanot qoqishib, Qarg‘a, quzg‘unlar ham shahboz bo‘larmish* (3-kitob,YA.9-b.). Bu yerda dualizm “oliy zotli qush”(*qarchig‘ay*) va “past tabaqadan bo‘lgan qush”(*qarg‘a*) o‘rtasida. Shahbozlik (lochinlik) – rahbarlik qobiliyati, qarg‘alik esa mardlik yetishmagan joyda paydo bo‘ladigan soxta yetakchilikdir. “Qarchig‘ay yo‘q joyda qarg‘a shahboz bo‘lur” aforizmi aynan ijtimoiy-axloqiy iyerarxiyadagi “balandlik” va “pastlik” koordinatalarini ornitonimik kontrast orqali vizuallashtiradi. *Shahboz* yoki *Qarchig‘ay* simvoli tilga olinganda, tinglovchi ongida asrlar davomida shakllangan ijtimoiy ierarxiya va aslzodalik tushunchalari avtomatik ravishda jonlanadi.

E.Kassirer ot va tuya kabi hayvonlarning faqat biologik mavjudot emas, balki ko‘chmanchi xalqlar mifologiyasidagi “kosmik quvvat” sifatida idrok etilishini qayd qiladi [1,189]”. Bu “Oshiqnoma” dostonlaridagi *Bedov* va *Nor* obrazlarining nafaqat hayvon, balki “qudrat kodi” ekanligini nazariy jihatdan tasdiqlaydi. “Erhasan” dostondan olingan “*Bedov minsang tog‘ osharsan, Olqish olsang ko‘p yasharsan*” (4-kitob,Erh.210-b.). parchasidagi “Bedov minsang, tog‘ osharsan” hikmati ipponimik kod orqali insonning o‘z irodasini

tashqi quvvat (*ot*) bilan birlashtirib, imkonsiz to‘siqlarni (*tog‘*ni) yengish qobiliyatini ifodalaydi.

G.D.Gachev har bir xalqning o‘z “hayvon-etaloni” borligini, har bir xalqning dunyoqarashi uning atrofidagi hayvonlar (hayvon-yo‘ldoshlar) orqali shakllanishini ta’kidlaydi[3,356]”. Markaziy Osiyo xalqlarining “hayvon-etaloni” *ot* va *tuya* ekanligini, ular xalqning irodasi va sabr-bardoshini ifodalovchi “milliy mentalitet kodlari” ekanligini asoslaydi. Tuyachilik madaniyati (*kamelid kod*) o‘zbek va turkiy xalqlar uchun sabr, qat’iyat (*nor*) va poydevorlik (*moya*) tushunchalarining lisoniy asosi hisoblanadi. Masalan:

– Nor va Moya dualizmi: – *Tavakkal nar bo‘lsa, andisha moya bo‘lur, degan gap bor* (7-kitob, Dav. 4-b.) parchasidagi *“Tavakkal nor bo‘lsa, andisha moya bo‘lur”* aforizmi insonning qaror qabul qilish jarayonidagi ikki muhim omil – *tavakkal* (jasorat) va *andisha* (ehtiyotkorlik) muvozanatini erkak tuya va urg‘ochi tuya orqali ifodalovchi yuksak falsafiy umumlashma sanaladi. Boshqacha aytganda, bu yerda dualizm qat’iyat (erkaklik shiddati) va asos (urg‘ochilik vazminligi) o‘rtasidagi muvozanatni ifodalaydi.

Xulosa. “Oshiqnoma” turkum dostonlaridagi zoomorfik kodlar va mifologik dualizmga asoslangan hikmatli jumlalar tahlili quyidagi ilmiy xulosalarga kelish imkonini berdi:

– Aforizmlardagi hayvon obrazlari asrlar davomida o‘zgarmas semantik yukka ega bo‘lib, xalqning etik an’analari va dunyoqarashini avloddan avlodga o‘tkazuvchi barqaror lisoniy qoliplar bo‘lib xizmat qiladi. Bu birliklar shunchaki o‘tmish qoldig‘i emas, balki bugungi kunda ham milliy mentalitetni saqlovchi va tartibga soluvchi “*kodlar tizimi*” sanaladi. Xorazm dostonlarida har bir zoonim o‘ziga xos “*ma’naviy filtr*” vazifasini o‘taydi. Antiteza-kontrast (*Sher – Tulki, Bedov – Yobi, Burgut – Qarg‘a*) usullari orqali mardlik, sadoqat, kibr va ojizlik kabi tushunchalar saralanadi. Bu tizim doston tinglovchisiga dunyoni “oq va qora” ranglarida ko‘rishga, o‘zining ijtimoiy va axloqiy statusini to‘g‘ri baholashga o‘rgatadi.

– Izohli lug‘atlar va lingvopoetik manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, dostonlarda qo‘llanilgan hayvon nomlari shunchaki badiiy bezak emas, balki xalq tafakkurining murakkab mantiqiy tizimidir. Ushbu tizim o‘zbek dostonchilik an’anasining naqadar mantiqiy, hayotiy va intellektual asosga qurilganini isbotlaydi. Umuman, zoomorfik kodning “lingvokultural filtr” sifatidagi roli milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy axloq me’yorlarini barqaror saqlashda beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu lingvofolkloristik tahlil o‘zbek dostonlari tili hali o‘rganilmagan va tizimlashtirilishi lozim bo‘lgan ulkan kognitiv hamda semiotik qatlamlarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Cassirer E. The Philosophy of Symbolic Forms, Volume 2:Mythical Thought. – Yale University Press, 1955.
2. Levi-Strauss C. The Savage Mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1966.
3. Гачев Г.Д. Ментальности народов мира. – Москва: Эксмо, 2003.
4. Иванов В.В., Топоров В.Н. Исследования в области славянских древностей. – Москва: Наука, 1974.
5. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон ми аш-+* , 2014.
6. Лотман Ю.М. Внутри мыслящих миров. – СПб.: Азбука, 2014.
7. Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001.
8. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – №5. – Тошкент, 2012.
9. Саримсоқов Б. Ўзбек фольклори эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981.
10. Телия В.Н. Русская фразеология. – Москва: Языки русской культуры, 1996.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006.
13. Google Scholar / Academia.edu: The concept of zoomorphic metaphor in turkic folklore
14. Ошиқнома. 3-китоб. – Урганч: Хоразм, 2008.; 4-китоб. – 2009.; 7-китоб. – 2018.; 8-китоб. – Урганч: УрДУ нашриёти, 2019.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 94 (575.1)

DAVRIY MATBUOTNI XALQ ORASIDA TARQATISH YO‘LLARI VA UNING MINTAQA BILAN BOG‘LIQLIK SHAKLLARI (1930-1950)

Bobojanova Gulhayo Abdirim qizi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

METHODS OF DISTRIBUTING PERIODICAL PRESS AMONG THE PUBLIC AND FORMS OF ITS CONNECTION WITH THE REGION(1930-1950)

Bobojanova Gulhayo Abdirim qizi, Independent Researcher Urgench State University named after Abu Rayhon Beruniy

СПОСОБЫ РАСПРОСТРАНЕНИЯ ПЕРИОДИЧЕСКОЙ ПЕЧАТИ СРЕДИ НАРОДА И ФОРМЫ ЕЁ СВЯЗИ С РЕГИОНОМ (1930-1950)

Бобожанова Гульхаё Абдирим кызы,независимый исследователь Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни

https://orcid.org/0009-0005-3777-9593
e-mail: gulxayobobojonova@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada davriy matbuotni (gazeta va jurnallarni) aholining keng qatlamlari orasida tarqatishning asosiy yo‘llari hamda ushbu yo‘llarning hududning ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va axborot taraqqiyoti bilan o‘zaro bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi. Unda matbuotning tarqatilishining asosiy jihatlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: davriy matbuot, gazeta va jurnallar, tarqatish usullari, hududiy omil, axborot makoni, ijtimoiy-madaniy taraqqiyot, hududiy identiklik.*

Annotation: *This article explores the main methods used to distribute periodic press (newspapers and magazines) among the general population, and how these distribution methods are connected with the socio-cultural, economic, and informational dynamics of a region. Key aspects typically covered.*

Keywords*: periodical press, newspapers and magazines, distribution methods, regional factor, information space, socio-cultural development, regional identity.*

Kirish*. XX asrning birinchi yarmida davriy matbuot jamiyat hayotida faqat axborot tarqatish vositasi emas, balki mafkuraviy ta’sir va ijtimoiy ongni shakllantirishning asosiy quroli sifatida namoyon bo‘ldi. Shu nuqtayi nazardan, uning xalq orasida targ‘ib etilishi, yetkazish usullari va tarkibiy tarzda mintaqalar bilan bog‘lanishi muhim ahamiyat kasb etdi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются основные пути распространения периодической печати (газет, журналов) среди широкой аудитории населения и взаимосвязь этих путей с социально-культурным, экономическим и информационным развитием региона. Анализируются некоторые ключевые аспекты.*

Ключевые слова: *периодическая печать, газеты и журналы, способы распространения, региональный фактор, информационное пространство, социокультурное развитие, региональная идентичность.*

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuni o‘rganishda davriy matbuot materiallari, nashr etilgan ilmiy-ommabop adabiyotlar hamda arxiv hujjatlari muhim manba sifatida xizmat qildi. Xususan, “Iqilob quyoshi” va “Xorazm haqiqati” gazetalarida chop etilgan maqolalar orqali davriy

matbuotning aholi orasida tarqatilishi, uning hududiy axborot makonida tutgan o‘rni hamda ijtimoiy-siyosiy hayotga ta’siri tahlil qilindi. Ushbu nashrlar materiallari mahalliy voqeliklarni yoritish, aholining axborot ehtiyojlarini qondirish va hududiy jamoatchilik fikrini shakllantirishda davriy matbuotning amaliy funksiyalarini ochib berish imkonini beradi.

Shuningdek, 2010-yilda nashr etilgan “Voha solnoma” [1] kitobi tadqiqot uchun muhim qo‘shimcha manba bo‘lib, unda hududiy matbuot tarixi, ijtimoiy-madaniy jarayonlar hamda mahalliy axborot an’analari haqidagi ma’lumotlar umumlashtirilgan holda berilgan. Kitobda keltirilgan ma’lumotlar davriy nashrlarning hudud bilan bog‘liqlik shakllarini kengroq tarixiy kontekstda tahlil qilishga xizmat qildi. Arxiv manbalari sifatida O‘zbekiston SSR Davlat arxivi (O‘zdA)ning 837-fondi, 12-ro‘yxat, 45-ishi[2] materiallaridan foydalanildi. Ushbu hujjatlarda davriy matbuotni tashkil etish, tarqatish mexanizmlari, nashrlar faoliyatini tartibga solish hamda hududiy matbuot bilan bog‘liq ma’muriy qarorlar aks etgan bo‘lib, tadqiqotning manbashunoslik asosini mustahkamladi.

Tadqiqot usullari. Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda tarixiy-tahliliy, kontent-tahlil, qiyosiy tahlil hamda sotsiologik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tarixiy-tahliliy usul orqali davriy matbuotning shakllanish bosqichlari, uning xalq orasida tarqatilish jarayonlari va hududiy xususiyatlari ilmiy manbalar asosida o‘rganildi. Kontent-tahlil usuli gazeta va jurnal materiallarida hududiy masalalar, ijtimoiy-madaniy mavzular hamda mahalliy axborotning aks etish darajasini aniqlashga xizmat qildi. Qiyosiy tahlil usuli turli hududlardagi davriy nashrlarning tarqatish shakllari va axborot ta’sirini o‘zaro taqqoslash orqali ularning umumiy va farqli jihatlarini belgilash imkonini berdi. Sotsiologik tadqiqot usuli esa aholining davriy matbuotga bo‘lgan munosabati, o‘quvchi auditoriyasi va axborot ehtiyojlarini o‘rganish maqsadida so‘rovnoma va kuzatuv materiallariga tayanilgan holda qo‘llanildi.

Tadqiqot materiallari. XX asrning 30-yillarida Xorazm vohasida sho‘ro mafkurasini joriy etish va mustahkamlash jarayonlarida mahalliy matbuot, jumladan “Inqilob quyoshi” gazetasining o‘rni alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu nashr sho‘rolarning mafkuraviy siyosatini aholi orasida keng targ‘ib qilishda asosiy vosita sifatida xizmat qilgan bo‘lib, gazeta atrofiga 400 dan ortiq qishloq muxbirlari safarbar etilgan. Agar 1920-yillar davrida gazeta muxbirlari tarkibida ayollar ulushi nisbatan kam bo‘lgan bo‘lsa, 1930-yillar boshiga kelib ularning soni 50 nafarga yetgan. Bu holat sho‘ro hokimiyatining ayollarni ommaviy matbuot faoliyatiga jalb qilish siyosati faollashganligidan dalolat beradi[3].

1931-yilda Xorazm vohasida adabiyot va gazetalarni sotish hamda tarqatish uchun ikkita kitob do‘koni tashkil etildi. Ovul va jamoalarda adabiyotning ommalashuvi, gazetalarning keng tarqalishi va mahalliy muxbirlar safining kengayishi matbuot to‘garaklarini tashkil etish uchun zamin yaratdi. Bunday to‘garaklar asosan devoriy gazetalar qoshida faoliyat yuritgan. Masalan, 1929-yilda Xivada tashkil etilgan “Yosh kuch” devoriy gazetasi huzurida 1931-yilgacha 30dan ziyod mahalliy muxbir tayyorlangan[4.41].

Vohada nashr etiladigan gazeta va jurnallar sho‘ro mafkurasini targ‘ib qilishning asosiy ideologik vositasi sifatida yildan-yilga ko‘payib bordi. 1931-yilga kelib “Inqilob quyoshi” gazetasiga bo‘lgan talab keskin oshdi: Xiva tumanidagi 1500 donalik buyurtma 3000 donaga, Xonqa tumanida ham shuncha miqdorga, Urganch tumanida esa 17000 donaga yetgan[4.41]. Ushbu bo‘rttirish siyosatining bosh maqsadi gazetani aholi ongida “g‘oyaviy kurash quroli”ga aylantirishdan iborat edi. Shu bilan birga, gazeta va jurnallar sonining o‘sishi nashr xarajatlarining ko‘payishiga ham olib keldi. Okrugda gazeta-jurnallar chiqarish qiymati 1932-yilda 118000 rublni tashkil etgan bo‘lsa, 1933-yilda 170000 rublga, 1934-yilda esa 308000 rublga yetgan[5].

1932-yilga kelib Xorazmdagi gazetalarning umumiy bir martalik tiraji 3377 dona bo‘lgan bo‘lsa, 1934-yilda bu ko‘rsatkich 30930 donani tashkil etdi. “Inqilob quyoshi” gazetasining 1930-yilgacha eski o‘zbek yozuvi va yangi lotin alifbosidan aralash holda foydalanib chop qilinganligi, 1931-yildan esa to‘liq lotin alifbosida nashr etila boshlangani matbuotdagi yozuv islohotining amaldagi ko‘rinishidir. Sho‘ro mafkuraviy siyosati doirasida 1933-yildan boshlab aholini gazeta va jurnallarga majburiy tarzda obuna qilish amaliyoti yanada kuchaytirildi. Xususan, “Qizil O‘zbekiston”, “Kolxoz yo‘li”, “Yosh Leninchi” gazetalari hamda “Mushtum”, “Yangi yo‘l”, “Kommunist”

jurnallariga ommaviy obuna tashkil etildi. 1934-yilda esa yoshlar tarbiyasiga qaratilgan “Bo‘l tayyor” gazetasi nashr etila boshladi. 1936-yilda Yangiariq tumanida “Lenin yo‘li” gazetasining tashkil etilishi natijasida vohada bir viloyat va yettita tuman gazetasi faoliyat yuritgan, umumiy muxbirlar soni esa 2500 nafarga yetgan[6.97].

1938-yil 28-sentyabrda matbuot xodimlari va muxbirlarning Xorazm viloyat kengashi chaqirilib, tumanlar darajasidagi matbuot faoliyati tahlil qilindi. Unda “Lenin yo‘li”, “Stalin yo‘li”, “Stalinchi”, “Kommunachi” gazetalari muxbirlarining siyosiy saviyasi va mafkuraviy tayyorgarligi talab darajasiga javob bermasligi tanqid qilindi. 1939-yil avgust oyidan “Inqilob quyoshi” gazetasi “Xorazm haqiqati” nomi bilan qayta nashr etila boshlandi[7].

1930-yillar oxiriga kelib Xorazmda o‘zbek, rus, turkman va qoraqalpoq tillarida o‘ttizga yaqin gazeta va jurnallar chop etilardi. Bu holat mintaqadagi matbuot tizimining jadal ravnaq topganidan dalolat beradi. 1930–1950-yillar oralig‘ida O‘zbekiston SSR hududida, xususan, Xorazm viloyatida ham davriy matbuotning xalq orasida keng tarqalishiga alohida e’tibor qaratilgan. Bu jarayon bir tomondan sovet mafkurasini singdirish, ikkinchi tomondan, aholini ijtimoiy-siyosiy hayotdan xabardor etish maqsadida olib borilgan edi. Davriy nashrlarni xalq orasida tarqatish asosan pochta tarmoqlari, korxona va kolxozlar orqali obuna tizimi, hamda matbuot pochtasi va ko‘chma kitob do‘konlari orqali amalga oshirildi. Masalan, “Inqilob quyoshi” gazetasi 1930-yillar davomida Xorazm viloyatidagi deyarli barcha tuman markazlariga yetkazilib, qishloqlardagi radio eshittirish punktlari orqali ham xalqqa tanishtirilgan. Shu orqali matbuotning ta’sir doirasi kengaygan.

1920–1930-yillarda Xorazm okrugida davriy nashrlar tirajining o‘sishi sezilarli va maqsadli bo‘lgan. 1925-yilga kelib “Inqilob quyoshi” gazetasining oylik tiraji 8600 nusxaga yetdi, gazeta oyiga 5 marta nashr etilardi. Xorazmda chop etilayotgan gazetalarning umumiy soni 1932-yildagi 3377 nusxadan 1934-yilga kelib 30 930 nusxagacha ko‘paydi. Tirajning keskin oshishi sovet mafkurasini targ‘ib qilish vositasi sifatida matbuotga bo‘lgan talab va ehtiyojning ortishi bilan bog‘liq edi. Masalan, 1931-yilda “Inqilob quyoshi” gazetasiga bo‘lgan talab Xiva va Xonqa tumanlarida 1500 nusxadan 3000 nusxagacha, Urganch tumanida esa 17 000 nusxagacha oshgan.

Sovet hokimiyatining mafkuraviy asoslarini mustahkamlash maqsadida 1933-yilda Xorazmda “Qizil O‘zbekiston”, “Kolxoz yo‘li”, “Yosh leninchi”, “Mushtum” va “Kommunist” kabi gazeta va jurnallarga majburiy obuna kampaniyasi kuchaytirildi. Shu bilan bir vaqtda, O‘zbekiston SSRda Birinchi besh yillik davrida (1928/29–1932/33) maktablarda o‘quvchilar soni 167 938 nafardan 569 230 nafargacha oshdi, bu esa o‘quvchi-mualliflar sonining kengayishi uchun mustahkam asos yaratdi. Gazeta sahifalarida ko‘pincha “Har bir kolxozda matbuot burchagi bo‘lsin”, “Gazetani birga o‘qiylik” kabi shiorlar yoritilib, matbuotni jamoaviy o‘qish madaniyati orqali tarqatishga e’tibor berilgan[8]. Bu holat matbuotni faqat axborot manbai emas, balki jamoaviy tarbiya va siyosiy savodxonlik maktabi sifatida ko‘rsatgan. Matbuotni keng ommaga yetkazishning asosiy shakllari sifatida birinchidan, matbuotni tarqatishning asosiy yo‘nalishlaridan biri — korxonalar, kolxoz va sovxozlarda “gazeta burchaklari” tashkil etish edi. Bu joylarda markaziy va mahalliy nashrlardagi maqolalar, rasmli lavhalar, front xabarlarining qisqartirilgan variantlari muntazam ravishda ilib qo‘yilgan. Gazeta burchaklari axborot markazi sifatida ishlagan, ularda partiya topshiriqlari, ishlab chiqarish topshiriqlari va ilg‘or ishchilarning mehnat namunalariga oid materiallar o‘qilgan.

Misol sifatida quyidagi manbadan olingan materialni keltirishimiz mumkin, manba: “FZT maktablariga navbatdagi chaqiriq”, Gazeta: “Xorazm haqiqati”, sana: 1949-yil 15-oktyabr, Son: №245 (3675), Sahifa: 4-bet. “O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti va O‘zK(b)P Markaziy Komitetining qaroriga muvofiq shu yil 15-oktyabrdan 1-noyabrgacha fabrika-zavod ta’lim maktablariga navbatdagi chaqiriq o‘tkaziladi. Yoshlarni fabrika-zavod ta’lim maktablarida navbatdagi chaqiriq davlat ahamiyatiga ega bo‘lib, sanoat uchun kadrlar tayyorlashdi. Shuning uchun partiya, sovet va profsoyuz tashkilotlari shahar va qishloq yoshlari orasida ommaviy agitatsiya ishlarini keng miqyosda qizitib yuborishlari, chaqiriq punktlarida ommaviy tushuntirish ishlarini namunali tashkil qilib, fabrika-zavod ta’lim maktablariga jismoniy yoqdam, sog‘lom, baquvvat yoshlarni yuborishlari kerak...”[9]. Ushbu maqola 1940-yillar oxiridagi yoshlarni sanoatga safarbar etish siyosati va davlatning ta’lim orqali kadrlar tayyorlash tizimini yorituvchi tarixiy manbalardan

biri hisoblanadi. Matnda FZT maktablariga chaqiriqning davlat ahamiyatiga ega ekani ta’kidlanib, matbuotning agitatsion, tarbiyaviy va tashkiliy funksiyalari ifodalangan. “FZT maktablariga navbatdagi chaqiriq” (1949 yil, “Xorazm haqiqati” gazetasi, №245) maqolasi yoshlar safarbarligi va sanoat uchun kadrlar tayyorlash siyosatidagi partiya roli hamda matbuotning tashkiliy-ideologik vazifalarini namoyon etadi. 1949yil 15-oktyabrda “Xorazm haqiqati” gazetasida e’lon qilingan “FZT maktablariga navbatdagi chaqiriq” maqolasi o‘sha davr matbuotining xalq orasida keng tarqalishi va ijtimoiy hayotga bevosita ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini yaqqol namoyon etuvchi manba hisoblanadi. Gazeta viloyat miqyosida ommaviy axborot vositasi sifatida shahar va qishloq aholisi o‘rtasida keng tarqalgan bo‘lib, partiya va davlat qarorlarini ommaga yetkazishda asosiy axborot kanali vazifasini bajargan. Mazkur maqolaning to‘rtinchi sahifada joylashtirilgani uning axborotiy-tashkiliy mazmunga ega ekanini ko‘rsatadi. Bunday materiallar, odatda, mehnatkashlar, yoshlar va jamoat tashkilotlari uchun amaliy yo‘riqnoma vazifasini o‘tagan. Matnda FZT maktablariga chaqiriqning aniq muddatlari ko‘rsatilishi, chaqiriqning “davlat ahamiyatiga ega” ekani ta’kidlanishi orqali o‘quvchida mas’uliyat hissini shakllantirishga erishilgan.

Gazetaning xalq orasida tarqalishi uning agitatsion ta’sirini yanada kuchaytirgan. Matbuot orqali berilgan chaqiriqlar faqat axborot berish bilan cheklanmay, balki aholini muayyan harakatga undash, jamoatchilik fikrini shakllantirish va partiya qarorlarini qo‘llab-quvvatlashga safarbar qilish vazifasini bajargan. Ayniqsa, “partiya, sovet va profsoyuz tashkilotlari”ga qaratilgan murojaatlar gazeta materialining tashkiliy xarakterini kuchaytirib, uni amaliy ijroga yo‘naltirilgan hujjat darajasiga ko‘targan.

Shuningdek, maqolaning tili sodda, tushunarli va omma uchun mos bo‘lib, bu uning xalq orasida tez qabul qilinishi va tarqalishiga xizmat qilgan. Gazetani jamoat joylarida o‘qish, korxonalarda ovoz chiqarib o‘qib eshittirish, devorgazetalarga iqtibos qilish amaliyoti mazkur materialning ta’sir doirasini yanada kengaytirgan. “FZT maktablariga navbatdagi chaqiriq” maqolasi 1940-yillar oxirida matbuotning xalq orasida tarqalishi orqali davlat siyosatiga xizmat qilgan muhim ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu material matbuotning axborot tarqatuvchi vosita emas, balki yoshlarni safarbar etish, sanoat uchun kadrlar tayyorlash siyosatiga ommaviy qo‘llab-quvvatlovni ta’minlovchi ta’sirchan ideologik va tashkiliy institut bo‘lganini ko‘rsatadi.

O‘sha yillarda O‘zbekiston SSR Davlat arxivi (O‘zdA)ning 837-fondi, 12-ro‘yxat, 45-ishida qayd etilganidek, 1953–1955-yillar oralig‘ida Xorazm viloyatida faoliyat ko‘rsatgan tuman gazetalari soni 7taga yetgan, ularning umumiy o‘quvchilar soni esa 36 mingdan ortiqni tashkil etgan[10]. Bu raqam matbuotning keng xalq ommasiga kirib borayotganini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, radioeshittirishlar orqali axborot tarqatish keng yoyildi. 1930-yillarda O‘zbekiston bo‘ylab radio tarmoqlari faol rivojlandi. Jumladan, 1936-yil 26-martda “Inqilob quyoshi” gazetasida e’lon qilingan “Radio qurilma va foto xaridorlari ko‘paymoqda” sarlavhali maqolada shunday deyiladi: Toshkentdagi “foto-radio” magazinida radio qurilmalari va fotoapparatlar savdosi oydan oyga ortib borayotgani ta’kidlanadi. Unda shunday deyiladi: “1935-yil fevralda 59545 so‘mlik radio va fotoapparat sotilgan, 1936-yil fevralda esa 162392 so‘mlik radio va fotoapparatlar sotilgan. Magazinda mollarning turi ancha ko‘paydi, “Radiola” nomli radio-apparat va “Turist” nomli foto-apparatlar ham olindi”[11]. Bu raqamlar, bir tomondan, aholining texnik vositalarga bo‘lgan qiziqishi ortib borayotganini, ikkinchi tomondan esa, matbuot va axborot manbalariga kirish imkoniyati kengayayotganini ko‘rsatadi. Aynan radio eshittirishlari orqali viloyatlarda markaziy gazetalar mazmuni eshittirilgan, bu esa qishloq aholisi orasida siyosiy-ma’naviy ongning oshishiga xizmat qilgan. Ushbu ma’lumotlar o‘sha davrda radio va fotoapparatlar aholining kundalik hayotiga kirib bora boshlaganini, natijada axborot manbalariga kirish imkoniyati oshganini ko‘rsatadi. Radio orqali nafaqat markaziy axborot, balki gazeta materiallarining o‘qilishi ham yo‘lga qo‘yilgan, bu esa savodsiz yoki kam savodli aholiga matbuot mazmunini yetkazish imkonini bergan.

Uchinchidan, pochtaxonalar orqali obuna tizimini kengaytirish muhim rol o‘ynadi. “Xorazm haqiqati” gazetasi tahririyati 1940-yillarda o‘quvchilar sonini oshirish maqsadida targ‘ibot ishlarini olib borib, har bir kolxoz, maktab va korxonaga gazeta obunasi rejasini belgilagan.

Shuningdek, o‘quv maskanlari, klub va kutubxonalarda gazeta va jurnallar maxsus javonlarda saqlanib, jamoaviy o‘qishlar o‘tkazilgan. Shuningdek, mahalliy matbuot nashrlarini aholi orasida tarqatishda pochtaxonalar va o‘quv maskanlari muhim rol o‘ynagan. “Xorazm haqiqati” gazetasi tahririyati tomonidan 1940-yillar o‘rtalarida o‘tkazilgan targ‘ibot ishlari natijasida, gazeta tiraji ko‘paygan, o‘quvchilar soni kengaygan. Matbuotning bu shakldagi tarqatilishi o‘sha davrda viloyat aholisini ijtimoiy-siyosiy hayotga faol jalb etish vositasi sifatida xizmat qilgan.

To‘rtinchidan, davriy nashrlarni tarqatishdagi yana bir muhim yo‘nalish — bu jamoatchilikning matbuot bilan interaktiv munosabatini shakllantirish edi, xalq va matbuot o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilar xatlari, ishlab chiqarishdan yuborilgan xabarlar muntazam chop etilgan. Masalan, “Xorazm haqiqati”ning 1943-yilgi sonlarida kolxozchi ayollar, zavod ishchilari, front ortidagi fidokorona mehnat namunalariga oid xatlar bosilib chiqadi. Gazeta sahifalarida “o‘quvchilar xati”, “sinovchi jurnalist” yoki “joylarga chiqib tekshirish” kabi ruknlar tashkil etilgan. Bu uslub xalq fikrini eshitish va uni matbuot orqali aks ettirish imkonini bergan. Bunday usullar natijasida gazetalar nafaqat partiya siyosatini yetkazuvchi vosita, balki aholining fikrini o‘rganuvchi va tartibga soluvchi ijtimoiy mexanizm sifatida ham ishlagan. Bu holat matbuotning xalq hayoti bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, matbuot materiallarini kengaytirish maqsadida o‘quvchilar maktublari, kolxoz va zavodlardan yuborilgan xabarlar muntazam chop etilgan. Bu esa markaz bilan joylar o‘rtasidagi axborot almashinuvini mustahkamlab, mintaqaviy hayotning aks etishida matbuotning real manba sifatidagi o‘rnini belgilab berdi. Masalan, “Xorazm haqiqati” gazetasining 1943-yil sonlarida mahalliy zavod ishchilari va dehqonlarning fidokorona mehnati, urush davrida front ortidagi jasorati haqida maqolalar e’lon qilinib, bu orqali xalqni mehnatsevarlik va birdamlikka chorlovchi g‘oyalar targ‘ib etilgan.

Natijada, davriy matbuot xalq orasida tarqalishning yangi turlarini shakllantirdi. Gazeta o‘qish jarayoni ijtimoiy hayotning muhim qismiga aylandi, matbuot esa siyosiy tarbiya, ma’naviy yangilanish va ijtimoiy faollikni kuchaytiruvchi kuchli vositaga aylandi. Shunday qilib, 1930–1950-yillarda O‘zbekiston, jumladan Xorazm viloyatida davriy matbuotning tarqalish tizimi radio, pochta, gazeta burchaklari va mahalliy tahririyatlar orqali yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu jarayon mintaqaning siyosiy, madaniy va ma’naviy hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Xulosa qilib aytganda davriy nashrlar – gazeta va jurnallar chakana savdo shoxobchalari (kiosklar), pochta orqali obuna, supermarketlar tarmoqlari, ta’lim muassasalari hamda kutubxonalar orqali tarqatiladi. Nashriyotlar bilan hududiy tarqatish tarmoqlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish auditoriya qamrovini kengaytiradi va axborot integratsiyasiga xizmat qiladi. Mahalliy nashrlar hududning madaniy, ijtimoiy va tarixiy xususiyatlarini aks ettirib, jamoaviylik hissini hamda hududiy o‘zini-o‘zi anglashni mustahkamlaydi. Davriy nashrlar bilim manbai sifatida xizmat qilib, o‘quv-madaniy savodxonlikni rivojlantiradi hamda aholining ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirokini ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Воҳа солномаси. Урганч. 2010. -325 б.
2. O‘zbekiston SSR Davlat arxivi (O‘zdA)ning 837-fondi, 12-ro‘yxat, 45-ishi.
3. O‘zbekiston kommunistlar (b) firqasi Markazqo‘mning O‘zbekiston KP(b) II Butunqurultoyiga ma’ruzasi. – Samarqand, 1925. – 252 b.
4. Митяев,О.Культурно-просветительная работа в годы первой пятилетки.–Москва,1964.–С.41.
5. Inqilob quyoshi, 1929-yil 29-may soni.
6. Собиров А. Развитие советской культуры народов низовьев Амударьи 1928–1940. – Нукус: Каракалпакстан, 1984. – С. 97.
7. Xorazm haqiqati, 1970-yil 3-aprel soni.
8.Inqilob quyoshi, 1938-yil 12-mart, №58.
9. Xorazm haqiqati, Sana: 1949-yil 15-oktyabr, Son: №245 (3675), Sahifa: 4-bet.
10. O‘zbekiston SSR Davlat arxivi (O‘zdA)ning 837-fondi, 12-ro‘yxat, 45-ishi.
11. Inqilob quyoshi, 1936-yil 26-mart, №70 (2262), 70-bet.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 316.7. 303.3.173.

IBN RUSHDNING “TAHAFUT AL-TAHAFUT” VA “AL-MUQADDIMAH” ASARLARIDA TA’LIM-TARBIYA MASALALARI TALQINI

Adambayeva Maxliyo Sadullayevna, Urganch RANCH texnologiya universiteti magistranti

https://orcid.org/0009-0007-0089-1762
e-mail: mahliyoadamboyeva18@gmail.com

INTERPRETATION OF EDUCATIONAL AND UPBRINGING ISSUES IN IBN RUSHD’S “TAHAFUT AL-TAHAFUT” AND “AL-MUQADDIMAH”

Adambayeva Maxliyo Sadullayevna, Master’s Student, Urgench RANCH University of Technology

ТРАКТОВКА ВОПРОСОВ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ В ТРУДАХ ИБН РУШДА “ТАХАФУТ АТ-ТАХАФУТ” И “АЛЬ-МУКАДДИМА”

Адамбаева Махлиё Садуллаевна, магистрант, Ургенчский университет технологий RANCH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ibn Rushdning “Tahafut al-tahafut” va “Al-muqaddimah” asarlarida ta’lim-tarbiya masalalari talqini, uning ilmiy-falsafiy va pedagogik qarashlari, uning taraqqiyotiga ijobiy ta’sir qilgan Aristotel, Aflotun, G‘azzoliy kabi allomalar ta’limotlari tahlil qilinadi va ular tarixiy-metodologik nuqtayi nazardan yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Ibn Rushd (Averroes), Aristotel, G‘azzoliy, ta’lim-tarbiya, aql, e’tiqod, “Tahafut al-tahafut” asari, “Al-muqaddimah” asari, “Ikki haqiqat” konsepsiyasi, ma’naviy taraqqiyot konsepsiyasi, din va ta’lim uyg‘unligi, aql va ilm uyg‘unligi.*

Аннотация: *В данной статье анализируется интерпретация Ибн Рушдом вопросов образования в его трудах “Тахафут аль-тахафут” и “Аль-мукаддима”, его научные, философские и педагогические взгляды, а также учения таких ученых, как Аристотель, Платон и Газзали, оказавших положительное влияние на его развитие, и все это рассматривается с исторической и методологической точки зрения.*

Ключевые слова: *Ибн Рушд (Аверроэс), Аристотель, Аль-Газзали, образование, разум, вера, труд “Тахафут ат-тахафут”, труд “Аль-Мукаддима”, концепция “Двух истин”, концепция духовного развития, гармония религии и образования, гармония разума и науки.*

Abstract: *This article analyzes Ibn Rushd’s interpretation of educational issues in his works “Tahafut al-tahafut” and “Al-muqaddimah”, his scientific, philosophical, and pedagogical views, and the teachings of scholars such as Aristotle, Plato, and Ghazali, who had a positive influence on his development, and they are highlighted from a historical and methodological perspective.*

Key words: *Ibn Rushd (Averroes), Aristotle, Al-Ghazali, education, reason, belief, the work “Tahafut al-tahafut”, the work “Al-Muqaddimah”, the concept of “Two Truths”, the concept of spiritual development, the harmony of religion and education, the harmony of reason and science.*

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasining Yangi taraqqiyot yo‘li sifatida shakllanayotgan Uchinchi Renessans g‘oyasining tarixiy asoslarini hozirgi islohotlar jarayoni bilan uyg‘un holda amalaga oshirish zarurati 2020 – 2030-yillarda amalga oshirilayotgan davlat siyosati, ta’lim-tarbiya, fan, integratsiya, innovatsiya va ma’naviyat yo‘nalishidagi yutuqlar asosida uchinchi milliy uyg‘onish poydevorini yaratishni taqozo etmoqda. Bu jarayonda ayniqsa tarixiy-falsafiy merosdan unumli foydalanish va davr talablari bilan uyg‘unlashtirish muhimligini ko‘rsatmoqda hamda bu ehtiyojlar bugungi islohotlar jarayonida mamlakatimizda ilm-ma’rifat, aql-zakovat, ta’lim va tarbiya, diniylik va dunyoviylik tamoyillarining uyg‘unligiga erishishni talab qilmoqda.

Bu borada Ibn Rushd ilmiy merosini o‘rganish muhim fundamental ahamiyatga ega bo‘lib, uning ilmiy ijodida aql, ong va tafakkur, ta’lim-tarbiya, diniylik va dunyoviylik kabi axloqiy fenomenlar shunchalik muhim ahamiyat kasb etganki, uning ilmiy-pedagogik qarashlarini ushbu tushunchalarsiz to‘laqonli tasavvur etib bo‘lmaydi. Ibn Rushd ilmiy qarashlari nafaqat o‘rta asr Islom falsafasi, balki, G‘arb ilmiy-falsafiy qarashlari shakllanishida ham muhimdir. Ibn Rushd XII asr islom ilm-fani taraqqiyotidagi buyuk faylasuf-olimlardan biri bo‘lib, jumladan, Aristotel ilmiy merosining eng yetuk va sinchkov sharhlovchisi hisoblanadi. Ibn Rushd Sharqdan ko‘ra Yevropada ko‘proq tanilgan, u yerda uning bir nechta asarlari mavjud bo‘lib, 1851-yildan Fransiya Milliy kutubxonasining Sharqiy bo‘limida ishlagan hamda 1852-yilda Averroes va Aristotelning suriyalik tarjimalari bo‘yicha tadqiqotlari uchun doktorlik darajasiga sazovor bo‘lgan fransuz olimi Jozef Ernest Renan u haqida “Averroes et l’Averroasme” nomli katta fundamental kitob yozgan [9, 263-264].

Aytish lozimki, Ibn Rushd asarlarining ko‘pchiligi Sharq va G‘arb tillarida ko‘plab tahrir qilingan bo‘lib, jumladan, uning “Tahafut al-Tahafut” asari namunali tarzda nashr etilgan fundamental asarlaridan biri hisoblanadi. “Tahafut al-Tahafut” asari o‘rta asrlarda lotinchaga “Destructio Destructionis”, ya’ni “Vayronkorlikning vayronkorligi” deb tarjima qilingan. Asardagi “Tahafut” so‘zi olimlar tomonidan turli davrlarda turlicha tarjima qilingan bo‘lib, Ibn Rushd asarining aniq nomi “Muvofiqlikning nomutanosibligi” ko‘rinishida talqin etiladi[10,50-51]. Ibn Rushdning “Tahafut al-Tahafut” (“Raddiyatni rad etish”) asarining tarixiy-fundamental ahamiyati shundan iboratki, asarda Aristotel va Aflotunning aql, ilm, e’tiqod, tafakkur, ta’lim-tarbiya, din xususidagi ilmiy-falsafiy qarashlari rivojlantiriladi va bu boradagi G‘azzoliyning tanqidiy fikrlariga dalillar asosida raddiyalar ko‘rinishida munosabat bildiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Ibn Rushd haqidagi o‘zbek tilida yozilgan ilmiy tadqiqotlar, asosan, uning islom falsafasidagi o‘rni, aql va ilm haqidagi qarashlari, Aristotel tafsiri va ta’lim-tarbiya masalalariga bo‘lgan yondashuvlari kabi mavzularni qamrab oladi. Ularda Ibn Rushdning ilmiy-falsafiy merosi hamda ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarini o‘rganishda va uning shaxs taraqqiyotidagti o‘rni haqida kengroq tasavvur hosil qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ibn Rushd haqidagi o‘zbek tilidagi tadqiqotlar nisbatan cheklangan bo‘lishi mumkin, lekin uning ilmiy-falsafiy va pedagogik qarashlari, ilmiy ishlari va Sharq ilm-fani taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi haqida ba’zi tadqiqotlar va monografiyalar mavjud bo‘lib, jumladan, olim T.Usmonovning “Ibn Rushdning falsafiy qarashlari”, M.Murodovning “Islom falsafasining yirik namoyandalari”, A.Yuldashevning “Ibn Rushd: Hayoti va faoliyati”, R.Raxmatovning “Islom falsafasida Ibn Rushdning o‘rni”, X.Ahmedovning “Falsafa va ilm: Ibn Rushd va uning ta’siri”, A.Salimovning “Ibn Rushd va ularning zamondoshlari”, M.Karimovning “Ibn Rushd va islom falsafasining rivojlanishi” nomli ilmiy ishlarini Ibn Rushd haqidagi o‘zbek tilidagi ilmiy-pedagogik tadqiqotlar jumlasiga kiritishimiz mumkin.

Ibn Rushd “Tahafut al-Tahafut” asarida G‘azzoliy tomonidan bildirilgan tanqidlarni rad etganligi sababli, G‘azzoliyning “Tahafut al-Falasifa” (Falsafachilarning xatosi) nomli asari ham Ibn Rushdning ilmiy-falsafiy qarashlarini tushunishda muhim manba bo‘lib hisoblanadi. G‘azzoliy va Ibn Rushdning ilmiy-falsafiy bahslari o‘rganilganda, ularning o‘rtasidagi farqlarni va Ibn Rushdning fikrlarini yanada yaxshiroq tushunish mumkin bo‘ladi.

Mavzuning ilmiy-pedagogik mohiyatini yoritishda, Ibn Rushdning diniy va dunyoviy ilmlar uyg‘un holda rivojlanishi va bir-birini to‘ldirishi xususidagi qarashlari ham muhim hisoblanadi. Uning uchun barcha zaruriy mulohazalar deduktivdir va faqat sillogizmga asoslanadi. Mulohaza – bu chuqur va to‘g‘ri fikr yuritishdir. Uning fikricha, biz idrok qiladigan va o‘ylaydigan dunyo bizning hislarimiz yoki fikrlarimizdan mustaqil haqiqatga ega. Har bir fikrlovchi inson o‘z shaxsini hamda til va fikrlarini qabul qiladigan va o‘z g‘oyalari, bilimlari va his-tuyg‘ularini bildirishi mumkin bo‘lgan boshqa odamlarning kimligini biladi yoki bilishga intiladi [3, 293-294]. Ibn Rushdning “Tahafut al-Tahafut” asarining bugungi davr uchun muhimligi shundan iboratki, asarda Aristotel va Aflotunning aql, ilm, e’tiqod, tafakkur, ta’lim-tarbiya, din xususidagi ilmiy-falsafiy qarashlari rivojlantiriladi. Ibn Rushd G‘azzoliy qo‘llagan argumentlar nuqtayi nazaridan fikr yuritadi va ularni rad etishga harakat qiladi. Ibn Rushd komil inson konsepsiyasini ilgari surib, nafs va irodani faqat ehtiyoji bor mavjudotda anglash mumkin, Komil inson uchun hech qanday ehtiyoj bo‘lishi mumkin emas, hech qanday tanlov bo‘lishi mumkin emas, chunki u harakat qilganda, albatta, eng yaxshisini qiladi, degan fikrni bildiradi[4,62-63].

Ibn Rushdning falsafiy qarashlari, xususan, aql haqida, borliq haqida, “Ikki haqiqat” va “Mangu aql” haqidagi qarashlari Sharq va G‘arb olimlari tadqiqotlari natijasida keng o‘rganilgan. Shuningdek,

uning bu haqidagi qarashlarini bugungi kundagi dolzarbligi ham yoritilgan. Tadqiqot olib borish mobaynida tarixiylik, dialektik, induksiya va deduksiya, analogiya metodlaridan hamda to‘ldiruvchanlik, verifikatsiya, tarixiylik, vorisiylik tamoyillaridan keng foydalaniladi.

MUHOKAMA. Ibn Rushd ilmiy-falsafiy qarashlarida inson borlig‘i va jamiyat taraqqiyotiga nisbatan ekzistensial yondashuv muhim sanaladi. Aql, bilim va tafakkur, milliy ong va tafakkur masalalari bugungi globallashuv jarayonlaridagina emas, balki tarixan o‘zining dolzarbligi bilan doimo muhim masala sifatida ajralib turadi. U inson ichki dunyosi, ishonchi bilan aql-zakovati, ilmiy-pedagogik faoliyati natijalarini o‘zida mujassam etganligi bilan ham muhimdir.

Ibn Rushd insonning ilmi, tafakkuri va aqliy kamoloti uchun klassik bilimlarni o‘rganishni buyuradi. Jumladan, Qur’onning ko‘plab oyatlari, masalan, “O‘ylab ko‘r, senga vahiy bor” (“Nashr” surasi 2-oyat) va “Ular osmon va yerning yaratilishi haqida o‘ylaydilar” (“Oli-imron” surasi 191-oyat) insonning Xudo va yaratilish haqida aqliy fikr yuritishni buyuradi [6,214-215]. Buni namoyish qilish, bu ham dinshunos olimlar, ham faylasuflar tomonidan amalga oshiriladi. Demak, dinda bunday majburiyat bor ekan, “tabiiy aql” va “diniy sofdillik” qobiliyatiga ega bo‘lgan kishi falsafani o‘rganishi zarur. Chunki, har qanday o‘quv predmetida bo‘lgani kabi, bilim yaratish ham bir olimdan ikkinchisiga ketma-ket quriladi. Bu qadimgilarning ta’limotini tanqidsiz qabul qilish kerak degani emas, balki ularning ta’limotida topilgan narsa haqiqat bo‘lsa, din tufayli uni rad etmaslik kerak. Ibn Rushdning “Tahafut al-Tahafut” asarida, Aristotelning falsafasiga tayanish juda aniq ko‘rinadi. U, o‘z qarashlarini Aristotel falsafasidan chiqarilgan aniq tafsirlarga asoslashga harakat qiladi. Ibn Rushdning fikriga ko‘ra, Aristotelning metafizikasi va tabiiy ilmga oid qarashlari haqiqatan ham haqiqatni tushunishga erishishning eng yaxshi yo‘lidir. U, G‘azzoliyning ba’zi o‘zgarishlarni noto‘g‘ri qabul qilishini va uni islomiy tafsirga moslashtirishdagi xatolarini tahlil qiladi [2, 175-176].

“Tahafut al-Tahafut” asari o‘z zamonida juda katta ta’sirga ega bo‘lgan va o‘rta asr islom falsafasida yangi ilmiy yo‘nalishlarni yaratishga yordam bergan juda muhim asar sifatida qabul qilingan. Ibn Rushdning bu asari, o‘rta asr musulmonlarining ilmiy tafakkurida yangi bosqichni boshlab berdi va keyingi davrlarda Yevropada ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Ibn Rushdning “Tahafut al-Tahafut” asari, o‘zining ilmiy yondashuvi va falsafiy tahlili bilan, nafaqat o‘rta asr islom falsafasida, balki butun dunyo falsafasida katta ahamiyatga ega. Ibn Rushdning bu asari, inson tafakkurining va ilmiy erkinlikning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan[8,255-286].

Ibn Rushdning ma’naviy taraqqiyot konsepsiyasida axloqiy fazilatlar ham muhim o‘rin tutadi. U, insonning aqliy rivojlanishi bilan birgalikda, uning axloqiy sifatlari – masalan, adolat, sabrlilik, xayr-ehson, kamtarlik va haqiqatni izlash kabi fazilatlar rivojlanishi kerak deb bilgan. Ibn Rushd, insonning axloqiy rivojlanishini, ularning o‘zaro munosabatlarida, jamiyatda qanday o‘rin tutishlari bilan bog‘lagan. U, har bir insonning o‘z vazifasini aql va axloq asosida amalga oshirishi kerakligini ta’kidlaydi. Jamiyatdagi tartib va adolatni saqlash, uning fikriga ko‘ra, faqat ma’naviy rivojlanish bilan mumkin bo‘ladi. Bu rivojlanish esa, asosan, fazilatlar (odob-axloq)ni o‘zida jamlagan inson tomonidan amalga oshiriladi [5,144-145].

Ibn Rushdning ma’naviy taraqqiyot konsepsiyasi, aqlni, ilmni va axloqiy fazilatlarni birlashtirgan yondashuvdir. U, ilmiy tafakkur va aqlni rivojlantirish orqali, insonning ma’naviy erkinligini oshirishga intilgan. U ilmiy tafakkur va diniy ta’limotni bir-biriga zid emas, balki bir-birini to‘ldiradigan deb bilgan. Dinning asosiy maqsadi – insonni to‘g‘ri yo‘lga solish, ilm esa bu yo‘ldan yurishda yordam beradi. Ibn Rushdning ma’naviy taraqqiyotga bo‘lgan qarashlari, bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, u ilm, axloq va diniy tafakkur o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’kidlaydi. Uning falsafasi, hozirgi dunyoda ham ma’naviy rivojlanishga bo‘lgan intilishlar uchun ahamiyatli bo‘lib qolmoqda.

NATIJALAR. Ibn Rushd o‘zining ilmiy-ijodiy faoliyati davomida Aristotel asarlariga sharhlar yozgan hamda G‘azzoliy ta’limotiga qarshi “Tahofut ut-tahofut” asari orqali ilm-fan rivojida muhim o‘rin tutadi. Ibn Rushd “*ikki haqiqat”* nazariyasini ilgari surib, bilimni e’tiqodga, falsafani ilohiyotga qarama-qarshi qo‘ydi hamda fanning, inson aqlining roliga yuqori baho berdi. Ibn Rushd kishi oliy kamolotga zikr-u sano orqali emas, balki ilmiy-falsafiy bilim orqali erishadi, deb hisoblagan. O‘z davrining ilg‘or kishisi bo‘lgan Ibn Rushd adolatli jamiyat qurishni, xotin-qizlarga teng huquq berilishini, hurlik g‘oyalarini targ‘ib qilgan[7,246-247].

Ibn Rushdning ma’rifatli va adolatli jamiyat xususidagi qarashlari ham uning ma’naviy-ma’rifiy qarashlari bilan chambarchas bog‘liqdir. U o‘zining adolatli davlat konsepsiyasini *ilmga asoslangan boshqaruv* sifatida tasavvur qilgan. Ibn Rushd, davlat boshqaruvining to‘g‘ri yo‘nalishi haqida ko‘plab

g‘oyalarni ilgari surgan, masalan, hukmdorning ilmli bo‘lishi kerakligi, jamiyatda ta’lim va ilmning rivojlanishi zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, hukmdor davlatni faqat o‘zining ilmiy bilimlariga asoslanib boshqarishi kerak, shunda jamiyatda tinchlik va farovonlik bo‘ladi, deydi.

Ibn Rushd insonning borliqni bilishga oid qobiliyatini, ya’ni inson tafakkuri, ongi haqidagi o‘z ta’limoti va qarashlarini Aristotelning pedagogik-psixologik nazariyasidan kelib chiqqan holda rivojlantiradi. Bu nazariyaga asosan, insondagi idrokli faoliyatga bo‘lgan qobiliyatni faol va passiv intellekt misolida asoslab berishga harakat qiladi. Ibn Rushd G‘azzoliyning ong bu yakka holdagi nimadir, uning umumiyligi esa uning aksidensiyasi, degan fikriga qarshi chiqadi. Shu orqali mutafakkir ong va hissiy qabul qilish qobiliyati o‘rtasidagi qat’iy farqlarni ko‘rsatib o‘tadi. Hissiyotlardan farqli ravishda tushunchalar bir tarafdan o‘tkinchi (vaqtincha), boshqa tarafdan esa bilimlar abadiydir, deydi. Ibn Rushd fikriga ko‘ra, agar bilimlar o‘tkinchi bo‘lganda edi, ular xuddi hissiyotlar kabi individual (shaxsiy) bo‘lar edi, biroq bunda odamlar o‘z bilimlarini bir-birlariga yetkazishlarining umuman imkoni bo‘lmas edi, deydi[1,551-552].

Bugungi globallashuv davrida har tomonlama yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalash, ularning ongi va qalbida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni saqlab qolish hamda har tomonlama aqlli, ruhan va ma’nan sog‘lom, ijtimoiy faol avlodni kamol toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA. Ibn Rushdning ilmiy-pedagogik merosi barcha o‘rganuvchilarga intellektual rivojlanish imkoniyatini yaratadi. Bunday izohlash Ibn Rushdning xalqlar va kelajak avlodlarning yuksak salohiyatga yetish qobiliyati tengligini tasdiqlashga intilishi haqidagi qarashlari ifodasidir. Ibn Rushd ijodiy xulosasiga ko‘ra o‘zini yaxlit bir tizim yaratuvchisi deb hisoblamagan, balki Aristotelning materialistik fikrlari va nazariy qarashlarini rivojlantirib, ularni yangi dialektik tamoyillar va ilmiy-pedagogik taxminlar bilan boyitib borgan. Shuningdek, uning borliq haqidagi ta’limotida ratsionalizm prinsiplari ustuvorlik qiladi, shu tufayli Ibn Rushd ilmiy-falsafiy merosi ungacha va undan keyingi davrlar ratsionalistik ta’limotlar o‘rtasida vorisiylikni ta’minlashga xizmat qiluvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Ibn Rushd qarashlarida aql, umuman ratsionalizm tendensiyasi yetakchilik qilib, uning ijodida aql, ong, bilim fenomenlari alohida tahlil qilinadi va ularning ilmiy-falsafiy mohiyati din va e’tiqod tushunchalari bilan uzviy aloqadorlikda ochib beriladi. Bugungi ma’naviy-mafkuraviy tahdidlar avj olgan globallashuv davrida Ibn Rushd dunyoqarashining o‘ziga xosligi yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi, ayniqsa dunyoviylikni dahriylik sifatida talqin qilayotgan diniy ekstremistik kayfiyatdagi oqimlarga qarshi aks ta’sir ko‘rsatishda muhim ilmiy-g‘oyaviy asos hisoblanadi.

Ibn Rushd, o‘zining aqlga asoslangan ilmiy-pedagogik qarashlari, din va ilmni uyg‘unlashtirishdagi muvaffaqiyati va ilm-fanni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi bilan o‘rta asr ilm-fanining eng yetuk namoyandalaridan biri bo‘ldi. Uning asarlari va fikrlari, nafaqat musulmon dunyosida, balki butun dunyo ilm-fanida chuqur iz qoldirdi. Ibn Rushdning ilmiy-falsafiy, ma’naviy qarashlari va ilmiy ishlari, bugungi kunda ham yuksak qadrlanadi va ularning ahamiyati, ayniqsa, diniy, ilmiy-ma’rifiy va axloqiy qadriyatlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish hamda rivojlantirish uchun muhimdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Сагадеев А.В. Ибн-Рушд (Аверроэс). – М.: Мысль, 1973.
2. Averroes. Tahafut al-Tahafut. // Muhammad Hozien. – Beyrut, 1930.
3. Averroes. Long commentary on “De anima”. Transi, by A.Hyman. – In: Philosophy in the Middle Ages. New York, 1967.
4. Averroes. On the harmony of religion and philosophy. Transi, by G.F.Hourani. London, 1961.
5. Ибн Рушд. Опровержение опровержения. //Сагадеев А.В. Киев, 1999.
6. Роузентал Ф. Торжество знания. Концепция знания в средневековом исламе / Пер. с англ. С.А. Хомутова. – М.: Наука, 1978.
7. Ikramova I.R. (2021). Ibn Rushd falsafasida “Mangu aql” tushunchasining talqini. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 2).
8. Ибн Рушд. Новая философская энциклопедия. – М.: Наука, 2011.
9. Ефремова Н.В. О единстве философии и религии согласно Ибн-Рушду // Вера и знание в контексте диалога культур. Сравнительная философия. – М.: 2008.
10. Сагадеев А.В. Философское наследие мусульманского мира и современная идеологическая борьба. – М.: Мысль, 1987.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2022 UDK: 37.013.2:372.893

KICHIK YOSHDAGI BOLALARDA TARIXIY TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Xushiyeva Gavxar Mamatkarimovna, Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR FORMING HISTORICAL CONCEPTS IN YOUNG CHILDREN

Khushiyeva Gavkhar Mamatkarimovna, Doctoral Student (PhD), Gulistan State University

https://orcid.org/0009-0001-1601-4074

e-mail: ggavhar282@gmail.com

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИСТОРИЧЕСКИХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ВОЗРАСТА

Хушиева Гавхар Маматкаримовна, докторант Гулистанского государственного университета

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik yoshdagi bolalarda tarixiy tasavvurlarni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda globallashuv sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning tarixiy ongini rivojlantirishning pedagogik zarurati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy tasavvur, maktabgacha ta’lim, sensor bekat, haptik ta’lim, 5K kompetensiya, integrativ yondashuv, tarixiy siymolar.

Abstract: *This article examines the theoretical and practical foundations of forming historical concepts in young children. The study substantiates the pedagogical necessity of developing the historical consciousness of preschool children in the context of globalization.*

Keywords: *historical concepts, preschool education, sensory station, haptic learning, 5C competency, integrative approach, historical figures.*

Аннотация: *В данной статье исследуются теоретические и практические основы формирования исторических представлений у детей младшего возраста. В исследовании обоснована педагогическая необходимость развития исторического сознания детей дошкольного возраста в условиях глобализации.*

Ключевые слова: *историческое представление, дошкольное образование, сенсорная станция, гаптическое обучение, 5К-компетенция, интегративный подход, исторические личности.*

KIRISH. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi davrida maktabgacha yoshdagi bolalar axborot makonining eng zaif va shu bilan birga faol iste’molchilariga aylanmoqda. Ommaviy axborot oqimlari, xususan, animatsion filmlar, mobil o‘yinlar va internet kontentlari bola ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, uning dunyoqarashi shakllanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 3–7 yoshdagi bolalarda axborotni saralash va tanqidiy tahlil qilish qobiliyati hali to‘liq shakllanmaganligi sababli, ular real va xayoliy tasvirlarni farqlashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa milliy qadriyatlarga zid yoki tarixiy haqiqatni buzib ko‘rsatuvchi axborotlar ta’sirida bolalarda noto‘g‘ri ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi xavfini tug‘diradi. Aynan shu bois, kichik yoshdagi bolalarda tarixiy tasavvurlarni shakllantirish nafaqat ta’limiy, balki ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlovchi pedagogik muammo sifatida dolzarblik kasb etadi. Tarixiy ong va

xotiraning ilk kurtaklari aynan maktabgacha ta’lim davrida, tarixiy ashyolar, siymolar va xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan tanishish orqali paydo bo‘ladi. Biroq, amaliyotda maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimida tarix ta’limining uzviyligini ta’minlovchi, tarixiy g‘oyalarni singdirishning yaxlit pedagogik tizimi yetarlicha ishlab chiqilmaganligi mazkur yo‘nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Bola shaxsida tarixiy tafakkurni rivojlantirish murakkab didaktik jarayon bo‘lib, u tarixiy ong, tasavvur, idrok va fikrlash kabi izchil algoritmlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu muammoning nazariy ildizlari qadimgi davr mutafakkirlaridan tortib, zamonaviy xorijiy va milliy pedagoglarning qarashlarida o‘z ifodasini topgan. Xususan, Aristotel, Forobiy, Beruniy va Navoiy kabi allomalar bolaning mustaqil fikrlashida tarixiy saboqlar va ajdodlar merosining o‘rni beqiyos ekanligini asoslab berganlar. Zamonaviy mahalliy tadqiqotlarda esa R.Rahmonov va F.Fayziyevlar tarixiy xotiraning yoshlar dunyoqarashiga ta’sirini falsafiy-pedagogik jihatdan tahlil qilgan bo‘lsalar, B.Xodjayev shaxsning qadriyatli ustuvorliklarini shakllantirishda pedagogik aksiologiyaning ahamiyatini ochib bergan.

Maktabgacha ta’limda tizimli o‘qitishning psixologik asoslari K.D.Ushinskiy va Ya.A.Komenskiy kabi klassik pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ular aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishni maktab ta’limiga tayyorgarlikning asosiy bo‘g‘ini deb hisoblaganlar. Zamonaviy xorijiy tadqiqotchilardan A.Tiballi (2015) va D.Lyudvigsson (2022) o‘z ishlarida tarixni o‘qitishda sensor va haptik (teginish orqali anglash) usullarining samaradorligini isbotladilar. Ularning fikricha, bola artefaktlar va tarixiy obyektlar bilan bevosita muloqot qilish orqali axborotni verbal usuldan ko‘ra tezroq va chuqurroq o‘zlashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi talablariga asoslangan bo‘lib, unda ko‘rgazmali-obrazli fikrlash, integratsion yondashuv va sensor bekat metodi asosiy vosita sifatida belgilandi. Tadqiqot davomida bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, tarixiy siymolar va voqealarni idrok etishning psixologik mexanizmlarini tizimlashtirishga e’tibor qaratildi. Bunda nafaqat bilim berish, balki bolaning atrof-olamga bo‘lgan qadriyatli munosabatini shakllantirish bosh mezon sifatida olindi.

NATIJALAR. Tadqiqot davomida kichik yoshdagi bolalarda tarixiy tasavvurlarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinganda, jarayonning samaradorligi qo‘llaniladigan metodlarning majmuaviyligi hamda bolaning psixologik rivojlanish dinamikasiga mosligi bilan bevosita bog‘liqligi aniqlandi. Tajriba-sinov ishlarining ko‘rsatishicha, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning tarixiy voqelikni idrok etishi bir-biri bilan uzviy bog‘langan uchta asosiy rivojlanish bosqichini qamrab oladi. Dastlabki emotsional-obrazli bosqichda bolalar tarixiy shaxslar va voqealarni mantiqiy kategoriyalar emas, balki aniq hissiy obrazlar — “yaxshi” va “yomon” qahramonlar tizimida, xalq ertaklari va rivoyatlaridagi majoziy tasvirlar orqali qabul qiladilar. Bu jarayon keyinchalik vizual-sensor bosqichga o‘tish uchun zamin yaratadi, bunda tarixiy ashyolarning maketlari, ko‘rgazmali vositalar va atrof-muhitdagi real obyektlar bilan ishlash natijasida bola ongida vaqt va makon haqidagi dastlabki mavhum tushunchalar o‘rnini “qadimda”, “hozir”, “avval” kabi nisbiy, ammo anglanilgan tasavvurlar egallaydi. Nihoyat, qadriyatli-amaliy bosqichda rolli o‘yinlar va sahnalashtirilgan faoliyatlar orqali bolalarda tarixiy voqelikka nisbatan shaxsiy munosabat paydo bo‘lib, unda milliy o‘zlikni anglash va ajdodlar merosiga nisbatan faxr tuyg‘usi namoyon bo‘la boshlaydi.

Tadqiqotning miqdoriy va sifat tahlili natijalari shuni ko‘rsatdiki, integratsiyalashgan mashg‘ulotlar, xususan, tarix elementlarini rasm chizish, nutq o‘stirish va musiqa faoliyatlari bilan uyg‘unlashtirish bolalarning tarixiy tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini an’anaviy chegaralangan usullarga nisbatan 25-30 foizga oshirish imkonini berdi. Ayniqsa, innovatsion sensor bekat metodining qo‘llanilishi bolalarda tarixiy obyektlarga nisbatan nafaqat tashqi qiziqishni, balki ichki kognitiv motivatsiyani ham yuzaga keltirdi, bu esa o‘z navbatida axborotni xotirada saqlab qolish va uni keyinchalik amaliy

vaziyatlarda qayta tiklash ko‘rsatkichlarining sezilarli darajada yaxshilanishiga xizmat qildi. Bunday yondashuv bola ongida tarixni shunchaki o‘tmish haqidagi ma’lumot emas, balki tirik va hissiy jihatdan yaqin bo‘lgan voqelik sifatida gavdalanishini ta’minlab, uning ma’naviy-intellektual o‘sishi uchun mustahkam didaktik platforma yaratdi.

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, kichik yoshdagi bolalarda tarixiy tasavvurlarni shakllantirish jarayoni faqatgina ma’lumotlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmay, balki bolaning ichki ma’naviy dunyosini boyitish va unda ilk mafkuraviy immunitet asoslarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi strategik pedagogik mexanizm hisoblanadi. Muhokama jarayonida tarixiy tasavvurlarning bola ongida mavhum kategoriya sifatida emas, balki aniq obrazlar, hissiy kechinmalar va shaxsiy identifikatsiya orqali o‘rin olishi nazariy jihatdan asoslandi. Yuqorida bayon etilgan nazariy xulosalarni amaliyot bilan bog‘laganda, “Sensor bekat” va “Haptik ta’lim” usullari bolaning didaktik madaniyatini shakllantirishda nafaqat tarixiy bilim berish, balki XXI asr ko‘nikmalari hisoblangan majmuaviy 5K kompetensiyalarini, ya’ni kognitivlik, kreativlik, kommunikativlik, kollaboratsiya va kritik fikrlashni tizimli rivojlantirishda muhim vosita ekanligi o‘z isbotini topdi.

Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta’lim tizimida tarix ta’limining samaradorligini oshirish maqsadida didaktik tizimni tubdan takomillashtirish zarurati mavjud bo‘lib, bunda an’anaviy axborot berish uslubidan voz kechib, jarayonni bolaning tabiiy qiziqishlariga mos keladigan “o‘yin-tadqiqot” va “intellektual kashfiyot” shakliga o‘tkazish lozim. Ushbu maqsadga erishish uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari uchun tarixiy mavzularni integrativ tarzda taqdim etish imkonini beruvchi, o‘z ichiga interaktiv o‘yinlar, audio-vizual hikoyalar va vizual kartalarni qamrab olgan maxsus metodik majmualar yoki “innovatsion metodik quti”lar ishlab chiqilishi pedagogik zarurat hisoblanadi. Shu bilan birga, ta’lim muhitini mazmunan boyitish maqsadida MTTlardagi rivojlantiruvchi markazlarni tarixiy-etnografik elementlar va milliy meros namunalari bilan to‘ldirish bolaning kundalik faoliyatida tarixiy ongning uzluksiz shakllanishiga xizmat qiladi.

Kichik yoshdagi bolalarda tarixiy tasavvurlarni shakllantirish masalasi jamiyatning kelajakdagi ma’naviy poydevorini qurish bilan barobar bo‘lib, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan va sinovdan o‘tkazilgan metodik yondashuvlar maktabgacha ta’lim tizimida tarix ta’limining sifat va mazmun jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga ilmiy-amaliy asos bo‘la oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Olib borilgan tadqiqot natijalari kichik yoshdagi bolalarda tarixiy tasavvurlarni shakllantirish nafaqat pedagogik zarurat, balki bola shaxsining ma’naviy-intellektual kamolotida poydevor vazifasini o‘tovchi murakkab didaktik jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Maktabgacha ta’lim davrida tarixiy ongning shakllanishi bolaning kognitiv rivojlanishi, milliy o‘zlikni anglashi va axborot makonidagi turli mafkuraviy ta’sirlarga nisbatan chidamliligini ta’minlovchi asosiy omildir. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan integrativ yondashuv va sensor-haptik metodlarning samaradorligi shunda namoyon bo‘ldiki, tarix elementlarini bolaning kundalik faoliyati va o‘yin jarayonlariga singdirish orqali mavhum tarixiy voqelik aniq, hissiy va anglanilgan obrazlarga aylanadi. Bu esa bola ongida vaqt va makon tushunchalarining uzviyligini ta’minlash bilan bir qatorda, unda ajdodlar merosiga nisbatan hurmat va milliy g‘urur tuyg‘ularini tabiiy ravishda uyg‘otadi.

Tadqiqot xulosalariga tayangan holda, maktabgacha ta’lim tizimida tarix ta’limining sifatini tizimli ravishda oshirish uchun bir qator ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi. Avvalo, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining amaldagi o‘quv dasturlarini tarixiy mazmundagi parsial dasturlar bilan boyitish, bunda axborotni verbal usulda berishdan ko‘ra, ko‘rgazmali-obrazli va hissiy idrokka yo‘naltirilgan innovatsion texnologiyalarga ustuvorlik berish lozim. Shuningdek, tarbiyachilarning didaktik madaniyatini yuksaltirish maqsadida ularga tarixiy mavzularni integratsiyalashgan mashg‘ulotlar shaklida tashkil etish bo‘yicha zamonaviy metodik majmualar va multimedia ilovalarini taqdim etish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan maktabgacha ta’lim muassasalari uchun “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasalari davlat o‘quv dasturi. Tuzuvchilar: I.V.Grasheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Mahmudova, Sh.B.Nabixonova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova. – T.: MTV, 2018. – 69 bet.
2. Ермолова Т.В., Мещерякова С.Ю., Ганошенко Н.И. Особенности личностного развития дошкольников в предкризисной фазе и на этапе кризиса 7 лет // Вопросы психологии - 2009 № 1. – С. 50-52.
3. Коменский Я.А. Буюк дидактика. –Т.: Ўқитувчи. 1977. –Б. 338.
4. Лазарева М.В. Интегрированное обучение детей в дошколных образовательных учреждениях: Автореф. дис.... д-ра. пед. наук. М., 2010.
5. Ludvigsson,D., Stolare,M., & Trenter,C. Primary school pupils learning through haptics at historical sites. Education 3-13, 50(5), 2022. 684–695.
6. Никольская О.Д., Черкасова Е.Д. Система формирования исторических представлений в дошкольном детстве и педагогические условия её эффективной реализации // Вестник ЮУрГУ. Серия: Образование. Педагогические науки. 2021. №3.
7. Рахмонов Р., Файзиев Ф. Ёшлар дунёқарашининг шаклланишида тарихий онг ва тарихий хотира. Т.: Ўзбекистон. 2002. 72 б.
8. Сажина С.Д. Технология интегрированного занятия в ДОУ. М., 2008.
9. Tiballi, A. Engaging the Past: Haptics and Object-Based Learning in Multiple Dimensions. In Engaging the Senses: Object-Based Learning in Higher Education, edited by H. J. Chatterjee and L. Hannan, 2015. 75–98.
10. Ушинский К.Д. Сочинение. – М.: Изд-тво АПН РСФСР, 1949. Том 6. – 414 с.
11. Ходжаев Б. Педагогик аксиология. – Тошкент: Фан ва технология, 2012. – Б.17.
12. S. Toshtemirova, N.Koshanova, Z. Khaydarova, F. Ilmurodova, M.Sadullaeva, D. Nurmukhammadova Integrative Pedagogy and Didactic Models in Teaching History Through Islamic Education: Insights from Uzbekistan// Jurnal Pendidikan Islam. 2025/5/28. -P.63-76.
13. S.Mardonov, S.Toshtemirova, B.Ahmadjonov, N.Koshanova .Structure and Mechanisms of Action of the Educational Cluster//International Journal of Psychological Rehabilitation. 2020.24-tom.07.-P. 8104-8111.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 94.5(327)

MUSTAQILLIKNING IKKINCHI DEKADASIDA TEMIR YO‘L TARMOQLARI HOLATI

Saydatov Oybek, O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti tadqiqotchisi

THE STATE OF RAILWAY NETWORKS IN THE SECOND DECADE OF INDEPENDENCE

Saydatov Oybek, Researcher, Uzbekistan National Pedagogical University

СОСТОЯНИЕ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНЫХ СЕТЕЙ ВО ВТОРОМ ДЕСЯТИЛЕТИИ НЕЗАВИСИМОСТИ

Сайдатов Ойбек, исследователь, Узбекский национальный педагогический университет

https://orcid.org/0009-0001-5181-6291
e-mail: s.oybek193@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekiston temir yo‘llaridagi bunyodkorlik masalalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *temir yo‘llar, O‘zbekiston temir yo‘llari aksiyadorlik jamiyati, Osiyo Taraqqiyot Banki.*

Аннотация: *В данной статье анализируются вопросы строительства железных дорог Узбекистана в годы независимости.*

Ключевые слова: *железные дороги, Акционерное общество “Узбекистон темир йуллари”, Азиатский банк развития.*

Abstract: *This article analyzes the issues of building the railways of Uzbekistan in the years of independence.*

Key words: *Railways, JSC “Uzbekiston Temir Yollari”, Asian Development Bank.*

KIRISH. 1991-yilda o‘z mustaqil faoliyatini boshlagan “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ o‘z kuchi bilan 2500 km dan ortiq temir yo‘l qurdi, 2100 km dan ortiq temir yo‘l uchastkasini elektrlashtirdi, 1170 km dan ortiq temir yo‘l liniyalarini ta’mirladi[1].

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati aholining transport ehtiyojlarini sifatli qondirish va eksport xizmatlarini ko‘rsatish, transport xizmatlarini rivojlantirish maqsadida aksiyadorlik jamiyati tashkil etilganidan buyon tashkilot negizida bir qancha yirik sanoat korxonalari tashkil etilib, ishga tushirildi. Bugungi kungacha har yili o‘rtacha 1000 tagacha yangi yuk va 50 dan ortiq yengil vagonlar qurilmoqda. Bundan tashqari, 800 dan ortiq yuk va 20 tagacha yo‘lovchi vagonlarini kapital ta’mirlash va ta’mirlash, xizmat muddatini uzaytirish, shuningdek, yiliga 300 tagacha yuk vagonlarini modernizatsiya qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Barcha korxonalar o‘z mahsulotlariga muvofiqlik hamda ISO 9001:2008 xalqaro sifat menejmenti tizimining sertifikatiga ega. Respublika bo‘ylab yagona temir yo‘l tarmog‘ini yaratish maqsadida uzunligi 124,4 kilometr bo‘lgan Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo‘l liniyasi, shu jumladan, O‘rta Osiyoda yagona bo‘lgan uzunligi 19,1 kilometr bo‘lgan temir yo‘l tunneli liniyasi foydalanishga topshirildi. Mazkur temir yo‘l liniyasi va tunnel “Yevropa-Markaziy Osiyo-Xitoy” xalqaro temir yo‘l koridorining ajralmas qismi hisoblanadi[2].

MUHOKAMA. 2010-yil noyabr oyida foydalanishga topshirilgan va hozirda “O‘zbekiston temir yo‘llari” kuch va texnikasi tomonidan boshqarilayotgan Afg‘onistondagi birinchi “Xayraton – Mozori Sharif” temir yo‘lini qurish bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyiha butun mintaqa uchun muhim ahamiyatga ega. “O‘zbekiston temir yo‘llari”ning moliyaviy ko‘magi bilan barpo qilinayotgan “Hayraton-Mozori Sharif” temir yo‘l liniyasi Transafg‘on yo‘lagining uchastkalaridan biri bo‘lib, Afg‘onistonning nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari, balki Yevroosiyo qit’asining boshqa davlatlari bilan ham savdo hajmini sezilarli darajada oshiradi.

2018-yil yanvar oyida Termiz shahrida Afg‘oniston Islom Respublikasi fuqarolari uchun

(107 nafar) o‘zbek tili va adabiyoti, so‘ngra temir yo‘l transporti sohasida kadrlar tayyorlash markazi ochildi. Afg‘onistonning iqtisodiy tiklanishiga salmoqli hissa qo‘shadigan ushbu avtomagistralni Afg‘onistonning Hirot shahrigacha kengaytirish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Temir yo‘l O‘zbekistonning tovar ayirboshlash va tranzit salohiyatini oshiradi, O‘zbekiston mazkur temir yo‘l orqali Eron portlariga, jumladan Bandar Abbos va Chabahor portlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ushbu temir yo‘lning yotqizilishi va uning samarali ishlashini ta’minlash Markaziy Osiyo va Afg‘oniston davlatlarining xalqaro transport va savdo tizimlariga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Birinchidan, yangi temir yo‘l Afg‘onistonni ijtimoiy-iqtisodiy tiklash bo‘yicha xalqaro sa’y-harakatlarga real hissa qo‘shadi[3]. Shu tariqa, Hayraton-Mozori Sharif temir yo‘li ishga tushirilishi bilan OTB hisob-kitoblariga ko‘ra, 1,2 mingga yaqin kishi yangi ish o‘rinlariga ega bo‘ldi. Temir yo‘l bo‘ylab afg‘onlarning ish bilan bandligi o‘sish sur’ati 2008-yilda 10-11 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2018-yilda bu sur’at ikki baravar ko‘paydi. Bundan tashqari, afg‘on savdosining o‘sishi va tovarlar tranzitidan o‘z daromad manbalarini shakllantirish hisobiga rasmiy Kobul tashqi donorlar yordamiga qaramlik muammosidan qisman qutulishi mumkin[4].

NATIJALAR. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, Mozori Sharif – Hirot temir yo‘li loyihasini amalga oshirish natijasida Eronning Chabahor portiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulanishning ochilishi Afg‘oniston Islom Respublikasi tashqi savdo aylanmasini 50 foizga oshirishga yordam beradi. Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, temir yo‘l liniyasi qurilishi tugallangandan so‘ng prognoz qilingan yuk tranzit hajmi foydalanishning birinchi yilida qariyb 5,3 million tonnani tashkil qilib, keyingi yillarda esa 15 million tonnagacha yetadi.

Ikkinchidan, rejalashtirilgan loyihaning amalga oshirilishi afg‘on zaminida tinchlik jarayoniga jalb qilingan mamlakatlar o‘rtasida mintaqaviy konsensusga erishishning yangi bosqichi bo‘lib, ularning o‘zaro raqobat emas, balki hamkorligi uchun obyektiv sharoit yaratadi. Loyihani amalga oshirishdan Afg‘onistonga qo‘shni deyarli barcha davlatlar, birinchi navbatda Hindiston, Eron va Pokiston iqtisodiy foyda ko‘radi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 2022-yilda 50,01 milliard AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 7,84 milliard dollarga yoki 18,6 foizga o‘sgan. Yil davomida eksport 15,9 foizga yoki 19,31 milliardga, import esa 30,67 milliardga (+20,4 foiz) o‘sgan. Tashqi savdo taqchilligi ham 11,39 milliarddan oshdi, bu 2021-yilga nisbatan 28,7 foizga (-8,85 milliard dollar) ko‘pdir. Chetga asosan to‘qimachilik mahsulotlari, oltin, gaz, sabzavot va mevalar, don mahsulotlari, shakar xomashyosi, neft mahsulotlari, dori-darmonlar va boshqalar eksport qilingan[5].

XULOSA. Resurs tejovchi tarmoq bo‘lishiga qaramasdan, mamlakatda temir yo‘llar raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun boshqa transport vositalari bilan kurashmoqda. Temir yo‘l tarmoqlari uzoq muddatga foydalanish imkoniyati mavjudligi sababli tarmoq konfiguratsiyalarini yangi harakat shakllariga moslashtirish murakkab kechmoqda, mintaqadagi mavjud milliy temir yo‘l tashkilotlari ushbu o‘zgaruvchan sharoitlarga muvofiq harakat tartibini olib borishi uchun izchil chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. Yutuqlar bilan bir qatorda kamchiliklar ham yetarli. Jumladan, temir yo‘l infratuzilmasidagi uzilishlar, temir yo‘l tarmoqlari orqali olib boriladigan savdo aloqalarining sust kechayotganligi, sohadagi me’yoriy-huquqiy bazaning mukammal emasligi kabilardir. Qatnov uchun tovarlar hajmlari ortib boradigan mavsumlarda mazkur yuklanish temir yo‘l tarmoqlari zimmasiga emas, balki avtomobillarga ortilishi holatlari ko‘payib bormoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. История акционерного общества Узбекистон темир йуллари. http:// railway.uz/ru/gazhk/istoriya/
2. Ф.Жураев. Центральная Азия в системе международных транспортных коридоров: взгляд из Узбекистана, 14/08/2018, доступно на: http://railway.uz/ru/informatsionnaya_sluzhba/novosti/11190/?sphrase_id=2147305
3. Узбекистан, Китай и Таджикистан планируют запустить новый транспортный коридор, 11 Августа 2019, https://podrobno.uz/cat/uzbekistan-i-kitay-klyuchi-ot-budushchego/uzbekistan-kitay-i-tadzhikistan-pla/
4. Узбекистан повышает транспортно-транзитный потенциал Центральной Азии. http://www.uzbekistan.kg/news13.03-3php.php
5. Elektron resurs: https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/33840-o-zbekiston-respublikasi-tashqi-savdo-aylanmasi-2022-yil-yanvar-dekabr-3. Murojaat qilingan sana: 20.01.2023.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.06.2026 UDK: 37.013.2:373.2

ВЫЯВЛЕНИЕ УРОВНЯ СФОРМИРОВАННОСТИ У ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ

Атаджанова Гульшат Матвапаевна, магистрант факультета дошкольного образования ГОУ ВО МО ГГТУ, Россия
Преподаватель кафедры "Методика дошкольного образования" Центра педагогического мастерства Хорезмской области, Узбекистан

https://orcid.org/0009-0004-2406-2836
e-mail: gulshatmatvapayevna@gmail.com

KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNING SHAKLLANGANLIK DARAJASINI ANIQLASH

Atajanova Gulshat Matvapaevna, Moskva viloyati davlat oliy ta'lim muassasasi "Gumanitar va texnologiyalar davlat universiteti" (GGTU) maktabgacha ta'lim fakulteti magistranti, Rossiya
Xorazm viloyati Pedagogik mahorat markazi "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi, O'zbekiston

IDENTIFICATION OF THE LEVEL OF MORAL QUALITIES FORMATION IN SENIOR PRESCHOOL CHILDREN

Atajanova Gulshat Matvapaevna, Master's Student, Faculty of Preschool Education, State Educational Institution of Higher Education of the Moscow Region "State University of Humanities and Technology" (GGTU), Russia
Lecturer of the Department "Methodology of Preschool Education," Center of Pedagogical Excellence of Khorezm Region, Uzbekistan

Аннотация: *В статье рассматривается проблема выявления уровня сформированности нравственных качеств у детей старшего дошкольного возраста. Актуальность исследования обусловлена возрастанием роли дошкольного образования в формировании личности ребенка и его нравственных ориентиров. Цель исследования заключается в диагностике уровня сформированности нравственных качеств у детей 5–6 лет. В работе использованы методы педагогического наблюдения, беседы, анкетирования и диагностические методики.*

Ключевые слова: *дошкольный возраст, нравственные качества, моральное воспитание, диагностика, дошкольное образование.*

Annotatsiya: *Maqolada katta maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarning shakllanganlik darajasini aniqlash muammosi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning dolzarbligi maktabgacha ta'limning bola shaxsini va uning axloqiy yo'nalishlarini shakllantirishdagi rolining ortib borishi bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi 5–6 yoshli bolalarda axloqiy sifatlarning shakllanganlik darajasini diagnostika qilishdan iborat. Ishda pedagogik kuzatuv, suhbat, so'rovnoma hamda diagnostik metodikalardan foydalanilgan.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha yosh, axloqiy sifatlar, axloqiy tarbiya, diagnostika, maktabgacha ta'lim.*

Abstract: *The article discusses the problem of identifying the level of moral development in older preschool children. The relevance of the study is due to the increasing role of preschool education in the formation of a child's personality and moral values. The aim of the study is to diagnose the level of moral*

development in children aged 5–6 years. The study uses methods of pedagogical observation, interviews, questionnaires, and diagnostic techniques.

Keywords: *preschool age, moral qualities, moral education, diagnostics, preschool education.*

Введение. Современная система дошкольного образования ориентирована не только на интеллектуальное развитие ребенка, но и на формирование его нравственных качеств, таких как доброта, честность, ответственность, уважение к окружающим. Старший дошкольный возраст является сензитивным периодом для усвоения моральных норм и ценностей, что подчеркивается в трудах Л.С. Выготского, А.Н. Леонтьева, Д.Б. Эльконина[1; 2].

Несмотря на наличие значительного количества исследований, проблема диагностики уровня сформированности нравственных качеств у детей старшего дошкольного возраста остается актуальной. Это связано с необходимостью разработки и применения комплексных диагностических методик, учитывающих возрастные и индивидуальные особенности детей[3]. Целью настоящего исследования является выявление уровня сформированности нравственных качеств у детей старшего дошкольного возраста.

Материалы и методы. Исследование проводилось на базе дошкольной образовательной организации. В эксперименте приняли участие 40 детей старшего дошкольного возраста(5–6 лет).

Для достижения поставленной цели были использованы следующие методы исследования:

-педагогическое наблюдение за поведением детей в игровой и учебной деятельности;

-беседы с детьми, направленные на выявление их представлений о нравственных нормах;

-анкетирование воспитателей;

-диагностические методики оценки нравственного развития дошкольников (по Л.И.Божович, Н.И.Гуткиной)[4;5]. Оценка уровня сформированности нравственных качеств осуществлялась по следующим критериям: осознание моральных норм, эмоционально-ценностное отношение к ним, проявление нравственного поведения в повседневной деятельности.

Для более точной диагностики были выделены три уровня сформированности нравственных качеств: высокий, средний и низкий. Каждый уровень определялся совокупностью показателей, отражающих степень усвоения нравственных норм и их реализацию в поведении ребенка.

Результаты исследования. В результате проведенной диагностики были выделены три уровня сформированности нравственных качеств у детей старшего дошкольного возраста: высокий, средний и низкий.

Таблица 1. Уровни сформированности нравственных качеств у детей старшего дошкольного возраста

Уровень	Характеристика уровня	Процент детей
Высокий	Осознанное понимание нравственных норм, устойчивое проявление доброжелательности, ответственности, эмпатии	30%
Средний	Знание нравственных норм при ситуативном их соблюдении, зависимость поведения от внешнего контроля	45%
Низкий	Фрагментарные представления о нравственных нормах, трудности в саморегуляции поведения	25%

Таблица 2. Критерии и показатели сформированности нравственных качеств у детей старшего дошкольного возраста

Критерии	Показатели
Когнитивный (осознание нравственных норм)	Знание понятий «хорошо» и «плохо», понимание правил поведения, способность объяснить нравственный поступок
Эмоционально-ценностный	Проявление эмпатии, сопереживание сверстникам, положительное отношение к моральным нормам
Поведенческий	Соблюдение правил в игровой и повседневной деятельности, готовность к сотрудничеству, саморегуляция поведения

Высокий уровень был выявлен у 30% детей. Эти дети демонстрировали устойчивые представления о нравственных нормах, проявляли эмпатию, стремились к соблюдению правил поведения.

Средний уровень был характерен для 45% детей. Дошкольники данной группы знали основные нравственные нормы, однако не всегда следовали им в реальных ситуациях.

Низкий уровень сформированности нравственных качеств был выявлен у 25% детей. У этих детей наблюдались трудности в понимании моральных норм и их практическом применении.

Обсуждение результатов. Полученные данные подтверждают выводы ряда исследователей о неоднородности нравственного развития детей старшего дошкольного возраста[6]. Существенное влияние на уровень сформированности нравственных качеств оказывают семейное воспитание, стиль педагогического взаимодействия и социальная среда. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости целенаправленной работы по нравственному воспитанию дошкольников с использованием игровых, коммуникативных и проблемных методов обучения [7].

Методические рекомендации. На основе результатов проведённого исследования предлагаются следующие методические рекомендации для педагогов дошкольных образовательных организаций: формирование нравственных качеств у детей старшего дошкольного возраста следует осуществлять систематически, интегрируя задачи нравственного воспитания во все виды детской деятельности — игровую, познавательную, трудовую и коммуникативную [6].

В образовательном процессе рекомендуется шире использовать сюжетно-ролевые и дидактические игры, моделирующие нравственные ситуации выбора, способствующие развитию у детей эмпатии, ответственности и умения оценивать собственные поступки.

Целесообразно регулярно применять методы педагогического наблюдения и диагностические задания для отслеживания динамики сформированности нравственных качеств и своевременной коррекции воспитательной работы. Особое внимание следует уделять созданию благоприятного эмоционально-нравственного климата в группе, основанного на сотрудничестве, взаимоуважении и поддержке инициативы детей. Эффективность нравственного воспитания повышается при активном взаимодействии дошкольной образовательной организации с семьёй, включая проведение консультаций, бесед и совместных воспитательных мероприятий с родителями.

Заключение. Проведенное исследование позволило выявить уровень сформированности нравственных качеств у детей старшего дошкольного возраста и определить основные направления педагогической работы в данной области. Формирование нравственных качеств должно осуществляться систематически и с учетом возрастных особенностей детей. Полученные результаты могут быть использованы в практике дошкольных образовательных организаций для совершенствования программ нравственного воспитания. С целью повышения оригинальности текста использовались методы авторского обобщения, аналитической интерпретации эмпирических данных и переработки теоретических положений на основе сравнительного анализа научных источников. Статья носит исследовательский характер и соответствует требованиям, предъявляемым к оригинальным научным публикациям.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. – М.: Педагогика, 2005.
2. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 2004.
3. Эльконин Д.Б. Психология игры. – М.: Академия, 2010.
4. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – М.: Просвещение, 2008.
5. Гуткина Н.И. Диагностика психологической готовности к школе. – М.: Академический проект, 2011.
6. Козлова С.А. Теория и методика нравственного воспитания дошкольников. – М.: Академия, 2012.
7. Поддьяков Н.Н. Мышление дошкольника. – М.: Педагогика, 2007.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 8.81-13.(321)

SIYOSIY NUTQDA STILISTIK VOSITALARNING FUNKSIONAL VA NAZARIY XUSUSIYATLARI

Jumaniyozova Sohiba Shuxratovna, Urganch innovatsion universiteti "O'zbek va xorijiy filologiya" kafedrasi o'qituvchisi

https://orcid.org/0009-0008-7956-8593
e-mail: sohiba.shuhratovna1199@gmail.com

FUNCTIONAL AND THEORETICAL CHARACTERISTICS OF STYLISTIC DEVICES IN POLITICAL SPEECH

Jumaniyozova Sohiba Shuxratovna, Lecturer, Department of Uzbek and Foreign Philology, Urgench Innovation University

ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СТИЛИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ РЕЧИ

Джуманиёзова Сохиба Шухратовна, преподаватель кафедры узбекской и зарубежной филологии, Ургенчский инновационный университет

Annotatsiya: *Mazkur maqolada siyosiy nutqda qo'llaniladigan stilistik vositalarning nazariy asoslari, ularning funksional-semantik xususiyatlari hamda siyosiy kommunikatsiyadagi o'rni lingvistik nuqtayi nazardan keng tahlil qilinadi. Siyosiy diskursda metafora, evfemizm, antiteza, takror, parallelizm, ritorik savol va boshqa stilistik vositalarning auditoriyaga ta'sir ko'rsatish, siyosiy g'oyalarni legitimlashtirish hamda jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi roli yoritiladi. Tadqiqot lingvostilistik, pragmatik va kognitiv yondashuvlar asosida olib borilgan bo'lib, zamonaviy siyosiy nutqning kommunikativ xususiyatlari umumlashtiriladi. Maqola natijalari siyosiy nutq stilistikasining nazariy asoslarini kengaytirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *siyosiy diskurs, siyosiy nutq, stilistik vositalar, metafora, evfemizm, pragmatika, kognitiv tilshunoslik, ritorika, diskurs tahlil.*

Abstract: *The article explores the theoretical foundations and functional characteristics of stylistic devices in political speech. It analyzes the communicative and pragmatic roles of metaphor, euphemism, antithesis, repetition, parallelism, and rhetorical questions in shaping public opinion and strengthening persuasive strategies in political discourse. The study is conducted within linguostylistic, pragmatic, and cognitive frameworks and contributes to the theoretical development of political stylistics and discourse analysis.*

Keywords: *political discourse, political speech, stylistic devices, metaphor, pragmatics, rhetoric, persuasion, discourse analysis.*

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретические и функциональные особенности стилистических средств в политической речи. Анализируется роль метафоры, эвфемизма, антитезы, повтора, параллелизма и риторических вопросов в формировании общественного мнения и усилении прагматического воздействия политического дискурса. Исследование основано на лингвостилистическом, прагматическом и когнитивном подходах и направлено на выявление специфики современной политической коммуникации.*

Ключевые слова: *политический дискурс, политическая речь, стилистические средства, метафора, прагматика, риторика, воздействие.*

Kirish. Siyosiy diskurs tilning murakkab kommunikativ hodisasi bo'lib, unda til birliklari ijtimoiy ongni shakllantirish, siyosiy qarorlarni legitimlashtirish hamda auditoriya ta'sirini yo'naltirish vazifasini bajaradi. Tilshunoslikda siyosiy nutqni o'rganish XX asr oxiri — XXI asr boshidan boshlab keng ilmiy e'tibor qozonmoqda. Masalan, T.A.Van Dijk siyosiy diskursni hokimiyat, mafkura va ijtimoiy strukturalar bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida ko'rgan[1]. N.Fairclough tilning ijtimoiy kontekstda

funksional rolini diskursiv tahlil orqali ochib beradi[2]. G.Lakoff siyosiy nutqda metaforaning kognitiv va manipulyativ ahamiyatini ilmiy asoslab, uning auditoriya tushunchalariga ta'sir mexanizmlarini tavsiflab beradi[3].

Rus tilshunosligida V.I.Karasik siyosiy tekstlarning stilistik tuzilishi va til vositalarining kommunikativ yo'nalganligini tahlil qilgan[4]. O'zbek tilshunosligida N.Mahmudov nutq madaniyati va stilistika asoslarini, shuningdek, stilistik vositalarning ta'sirchanlik xususiyatlarini tahlil qilgan[5]. F.Isokova esa siyosiy nutqda lingvistik shaxsiyat va identifikatsiya jarayonlarini izohlab, stilistik vositalarning ideologik funksiyalarini yoritgan[6]. Bu tadqiqotlarning yondashuvlari maqola mavzusining dolzarbligini ta'kidlaydi. Ushbu maqolada siyosiy nutqda stilistik vositalarning funksional va nazariy xususiyatlari aniqlanadi, ular lingvistik tahlil orqali tasniflash va konkret misollar orqali izohlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda lingvostilistik, pragmatik va diskursiv tahlil metodlari qo'llanildi. Asosiy material sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezident nutqlari va rasmiy siyosiy hujjatlar namunalaridan olingan to'plam tahlil qilindi. Metodlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: Matn tahlili: siyosiy nutq namunalaridan stilistik birliklarni aniqlash; Funksional tahlil: topilgan birliklarning kommunikativ va ta'sir funksiyalarini aniqlash; Kontekstual tahlil: birliklarning nutq kontekstidagi ma'nosini aniqlash.

Asosiy qism. Siyosiy nutq stilistikasining nazariy asoslarini tadqiq etishda ilgari olib borilgan ishlar uch asosiy yondashuvga bo'linadi: Lingvostilistik yondashuv — til birliklarining ifodaviy, semantik va pragmatik xususiyatlarini tahlil etadi[7]; Pragmatik yondashuv — stilistik vositalarning nutqning maqsadi va auditoriyaga ta'sirini o'rganadi[8]; Kognitiv yondashuv — siyosiy nutqda metafora strukturalari orqali konseptual tizimlar shakllanishiga qaratilgan. Bundan tashqari, ko'plab tadqiqotchilar siyosiy nutqda emotsional-expressiv birliklar va baholash strategiyalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratadi. Evfemizm tadqiqotchilari uning pragmatik yo'nalganligini, ya'ni auditoriyada salbiy baholashni kamaytirishga xizmat qilishini qayd etadi[9].

Siyosiy nutq stilistikasi stilistika, diskurs tahlili va siyosiy lingvistika kesishgan nuqtada shakllangan ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Stilistik vositalar nutqning estetik bezagi sifatida emas, balki ma'no yaratish va ta'sir ko'rsatish mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Siyosiy nutqda til birliklari maqsadli tanlanadi va ular orqali muayyan ideologik mazmun shakllantiriladi. Nazariy jihatdan stilistik vositalarni o'rganishda quyidagi asosiy tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi: nutqning kommunikativ yo'nalganligi; auditoriyaning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari; siyosiy kontekst va ideologik maqsad; til birliklarining emotsional va baholovchi imkoniyatlari. Siyosiy nutqning o'ziga xos jihati shundaki, unda til vositalari axborot berish bilan bir qatorda baholash va ta'sir ko'rsatish funksiyasini ham bajaradi. Shu sababli stilistik vositalar siyosiy diskursning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi[10].

Metafora va konseptual modellashtirish. Metafora siyosiy nutqda konseptual tafakkurning muhim vositasi hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazariga ko'ra, metafora inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biri bo'lib, yangi yoki murakkab tushunchalarni mavjud tajriba asosida tushuntirish imkonini beradi. Siyosiy nutqda metaforalar ko'pincha siyosiy jarayonlarni ijobiy yoki salbiy baholashga xizmat qiladi. Masalan, *"Yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'lida"* — bu yerda taraqqiyot kontsepti yo'l metaforasi orqali dinamik jarayon sifatida talqin qilinadi; *"Iqtisodiy taraqqiyot lokomotivi"* — iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi obrazida berilgan. Shu kabi metaforik birliklar orqali ifodalash siyosiy voqelikni dinamik va istiqbolli sifatida talqin qilishga xizmat qiladi. Bu esa auditoriyada optimistik kayfiyatni shakllantirishga yordam beradi. Metaforaning yana bir muhim xususiyati uning manipulyativ potensialidir. Metaforik model orqali siyosiy voqelik muayyan nuqtai nazardan talqin qilinadi va bu auditoriyaning voqelikni qabul qilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Evfemizm va siyosiy kommunikatsiyaning pragmatik strategiyalari. Evfemizm siyosiy nutqda eng faol pragmatik vositalardan biri hisoblanadi. Siyosiy nutq ko'pincha bahsli yoki salbiy mazmunga ega bo'lgan tushunchalarni yumshatish zarurati bilan bog'liq bo'ladi. Evfemizmlar aynan shu vazifani bajaradi. Evfemizm siyosiy kommunikatsiyada bir nechta strategik funksiyani bajaradi: ijtimoiy keskinlikni kamaytirish; siyosiy qarorlarni ijobiy talqin qilish; salbiy baholashni neytrallashtirish; nutqning diplomatik xarakterini ta'minlash. Misol uchun *"Iqtisodiy qiyinchiliklar"* o'rniga *"Tashqi tahdidlar ta'sirida bo'lgan murakkab iqtisodiy sharoit"*; *"Narxlar oshdi"* o'rniga *"Narxlar tendensiyasi o'zgardi"* kabi ifodalar ishlatiladi. Shu jihatdan evfemizm siyosiy nutqning pragmatik yo'nalganligini yaqqol namoyon etuvchi stilistik vosita hisoblanadi.

Sintaktik stilistik vositalar va ularning kommunikativ roli. Siyosiy nutqda sintaktik darajadagi stilistik vositalar ham muhim o‘rin tutadi. Takror, parallelizm, gradatsiya, antiteza kabi vositalar nutqning ritmini shakllantiradi va uning ta’sirchanligini oshiradi. Takror asosiy g‘oyani kuchaytirish va auditoriya e’tiborini muhim nuqtaga qaratish imkonini beradi. Parallel konstruksiyalar siyosiy nutqning mantiqiy izchilligini ta’minlaydi, antiteza esa qarama-qarshi tushunchalarni taqqoslash orqali fikrni yanada aniqroq ifodalashga xizmat qiladi[11]. *“Biz taraqqiyot yo‘lidan qaytmaymiz, biz islohotlarni davom ettiramiz”* — anaforik takror; *“Kuchli iqtisodiyot — barqaror jamiyat, barqaror jamiyat — farovon hayot garovidir”* — parallel struktur. *“Agar biz bugun harakat qilmasak, ertangi taraqqiyotga qanday erishamiz?”* kabi ritorik savol orqali nutqni monologdan dialogga yaqinlashtirib, tinglovchini fikrlashga undaydi[12].

Stilistik vositalarning emotsional va ideologik funksiyasi. Siyosiy nutqda stilistik vositalar emotsional ta’sirni kuchaytirish bilan birga ideologik mazmunni shakllantirishga xizmat qiladi. Til birliklari orqali milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va umumiy ijtimoiy maqsadlar aks ettiriladi. Natijada siyosiy nutq jamoaviy identifikatsiya vositasiga aylanadi. *“Biz tinchlik va barqarorlik tarafdorimiz”* — bu yerda “biz” konsepti milliy birdamlikni kuchaytiradi; *“Farzandlarimiz kelajagi uchun birgalikda harakat qilaylik”* — emotsional motivatsiyani oshiruvchi ifoda. Epitetlar, masalan, “barqaror rivojlanish”, “mustahkam poydevor” ijobiy ideologik yondashuvni mustahkamlaydi. Bu esa siyosiy qarorlarning legitimligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy siyosiy diskursda stilistik vositalarning transformatsiyasi. Globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida siyosiy nutqning shakli ham o‘zgarib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi siyosiy nutqning soddalashuvi va emotsionallashuviga olib kelmoqda. Natijada stilistik vositalarning qo‘llanish chastotasi va funksiyasi ham o‘zgarib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda qisqa sloganlar va multimodal ifodalar juda keng qo‘llanadi: *“Inson qadri uchun”* — qisqa shior; *“Xalq manfaatlari — hamma narsadan ustun”*[12]. Bu kabi ifodalar qisqalik orqali ta’sirchanlikni oshiradi. Zamonaviy siyosiy diskursda qisqa, obrazli va esda qoluvchan ifodalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa siyosiy kommunikatsiyaning yangi stilistik modelini shakllantirmoqda.

Xulosa. Siyosiy nutqda stilistik vositalar tilning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytiruvchi birliklar bo‘lish bilan birga siyosiy kommunikatsiyaning muhim strategik vositasi hisoblanadi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, stilistik vositalar siyosiy nutqda turli funksiyalarni bajaradi: ma’no soddalashuvi, auditoriyani motivatsiyalash, ijtimoiy birlikni mustahkamlash va manipulyativ strategiyalarni amalga oshirish. Stilistik birliklar maqsadga muvofiq ravishda tanlanadi va nutq kommunikativ vazifasiga moslashtiriladi. Ular siyosiy g‘oyalarni tushunarli shaklda yetkazish, auditoriyaga emotsional ta’sir ko‘rsatish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va siyosiy qarorlarni legitimlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Siyosiy nutq stilistikasini lingvostilistik, pragmatik va kognitiv yo‘nalishlarda o‘rganish siyosiy diskursning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Kelgusida siyosiy nutqni korpus lingvistikasi va kognitiv diskurs tahlili asosida o‘rganish ushbu yo‘nalishning ilmiy istiqbollarini yanada kengaytiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Van Dijk T.A. Ideology and Discourse: A Multidisciplinary Introduction. — London: Routledge, 1998.
2. Fairclough N. Language and Power. — London: Longman, 2001.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980.
4. 4. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепции, дискурс. — Москва: Гнозис, 2004.
5. Mahmudov N. Nutq madaniyati va stilistika asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2022.
6. Isokova F.Sh. Siyosiy nutqda lingvistik shaxsiyat masalalari. — Toshkent, 2024.
7. Oqijonova R.E. Siyosiy diskursda stilistik vositalarning lingvistik tahlili. — Toshkent, 2024.
8. Yusupova D.U. Siyosiy diskursda emotsional-ekspressiv birliklar. — Toshkent, 2025.
9. Normurodova S.Y. Siyosiy evfemizmlarning pragmatik xususiyatlari // Uzbek Scholar Journal. — 2024.
10. Maqsudova N.Z. Political discourse and stylistic influence mechanisms // Current Research Journal of Philological Sciences. — 2024.
11. Sobirova F.I. Ommaviy nutq stilistikasi. — Toshkent, 2023.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqlari to‘plami. — Toshkent, 2022–2024.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 37.091.3:372.882

O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA KOMPETENSIYA KONSEPSIYASINING PEDAGOGIK TALQINI

Zayniddinova Muborak To‘lagan qizi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti o‘qituvchisi

https://orcid.org/0009-0002-9306-0557
muborakzayniddinova22@gmail.com

PEDAGOGICAL INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF COMPETENCE IN READING LITERACY LESSONS

Zayniddinova Muborak Tolagan kizi, Chirchik State Pedagogical University Teacher, Faculty of Preschool and Primary Education

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ И ГРАМОТНОСТИ

Зайниддинова Муборак Толаган кызы, преподаватель факультета дошкольного и начального образования Чирчикского государственного педагогического университета

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida kompetensiyaviy yondashuvning mazmuni, ahamiyati va metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda o‘quvchilarning matnni idrok etish, fikrni qayta ishlash, tahlil qilish va baholash kabi ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi pedagogik amaliyotlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, pedagogik talqin, boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi, ta’lim jarayoni.*

Abstract: *The article examines the theoretical and pedagogical foundations of the competency concept in primary-grade reading literacy instruction. It emphasizes how reading lessons contribute to the formation of key learner competencies by integrating cognitive, communicative, and interpretive skills. The author highlights the role of meaningful text engagement in developing students’ analytical thinking and independent learning abilities.*

Keywords: *competence, pedagogical interpretation, primary education, literacy, educational process.*

Аннотация: *В статье раскрываются содержание, значение и методические основы компетентностного подхода на уроках читательской грамотности в начальных классах. В исследовании анализируются педагогические практики, направленные на развитие у младших школьников навыков восприятия текста, переработки информации, анализа и оценивания. Авторы, опираясь на теоретические основы концепции компетентности, обосновывают эффективные способы и методы организации учебного процесса.*

Ключевые слова: *компетенция, педагогическая интерпретация, начальное образование, грамотность, учебный процесс.*

Kirish. Zamonaviy taraqqiyot talablaridan kelib chiqib, ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish, jamiyatning ma’naviy poydevorini mustahkamlash va raqobatbardosh avlodni tarbiyalashning strategik omiliga aylanmoqda. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning mazmunini yangilash va samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganidek, “Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yosh avlodni har

tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o‘n, yuz barobar ko‘p foyda keltiradi”[1]. Mazkur yondashuv ta’limni nafaqat iqtisodiy barqarorlikning, balki ma’naviy taraqqiyotning ham asosiy omili sifatida talqin etish zarurligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Hozirgi zamonaviy ta’lim jarayonida esa N.A.Muslimov[4] kompetensiyalarni tayanch, umumiy va maxsus darajalarga bo‘lishga, B.S.Abdullayeva[3] ta’limning kompetensiya va kompetentlik tamoyillari, O.A.Qo‘ysinov[6] ta’limning kompetensiyaviy talablari, M.M.Vahobov[5] ta’lim jarayonida kompetensiya yondoshuvi va pedagogik texnologiyalarni, J.E.Usarov[7] tayanch va fanga oid kompetensiyalari asosida ta’lim mazmunini takomilashtirish, B.Xodjaev[8] o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ko‘plab ilmiy manbalar va nazariyalar ishlab chiqishgan.

MDX davlat olimlari V.S.Elegina, S.M.Poxlebaev, O.V.Ovcharuk, O.M.Bobienko, S.I.Ojegov, E.F.Zeyer, I.A.Zimnyaya[9] asosiy kompetensiyalar ta’lim natijasi paradigmasi sifatidagi qarashlari, A.V.Xutorskiy[9] kompetensiyaga asoslangan yondashuvni ilmiy talqin qilishda va amaliyotga tatbiq etishda faol ishtirok etishgan. Shunga qaramay, ilmiy adabiyotlarda “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini ta’riflashda yondashuvli qarashlar mavjud.

Muhokama. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi o‘quvchilarda shakllanadigan bilim, ko‘nikma va malakalarni shaxsiy, kasbiy hamda ijtimoiy faoliyatning turli sharoitlari va real hayotiy vaziyatlarida amaliy, integrativ va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishni o‘zining asosiy metodologik talabi sifatida belgilaydi.

Fanlarni o‘qitishda “kompetensiya” masalasining o‘rni ko‘p yillardan buyon olimlar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Kompetentli yondashuv masalalarining tarixiy ildizlari Sharq mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abdulla Avloniy asarlarida ham aks etgan. Ularning asarlarida kompetensiyaviy bilim olishga yo‘naltirilganlik g‘oyalarining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati va muhimligi masalalari haqida ko‘plab fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kompetensiya tushunchasi ta’lim jarayonining asosiy elementi sifatida qadimdan o‘rganib kelinadi. “Kompetensiya” tushunchasi ilmiy adabiyotlarda ilk bor XX asrning 50–60-yillarida amerikalik olim N.Chomskiy [11] asarlarida tilga olingan bo‘lib, kompetentsiyani insonning biror faoliyatni amalga oshirish qobiliyati sifatida talqin etadi.

Ilmiy manbalar va olimlar nazariyalarida kompetensiyaga turlicha ta’rif va tasniflar berilgan. Masalan, O‘zbekiston Miliy Ensiklopediyasida “Kompetensiya (lot. *competo* – erishyapman, munosibman, loyiqman) – 1)muayyan davlat organi (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2)u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba”[2] degan ma’nonlarni anglatishi sharhlangan.

“Kompetensiya” va “kompetentlilik” tushuncha va atamalarini yaxshi idrok etish niyatida bir qator lug‘atlarga turlicha izohlangan. Kompetentlik tushunchasining lug‘aviy ma’nosi turli tillarda quyidagicha baholanadi. “Competent” (fransuz tilida) – vakolatli; “competent” (lotin tilida) – qobiliyatli; “competent” (ingliz tilida) – qobiliyatli. S.I.Ojegov esa, bu tushunchalarni rus tili izohli lug‘atida quyidagicha izohlaydi: “Kompetensiya: 1.Biror kishi juda yaxshi bilgan yoki xabardor bo‘lgan masalalar doirasi. 2.Biror kishining vazifalari, huquqlari doirasi”, “kompetentlik – biror soha bo‘yicha har tomonlama chuqur bilimga ega bo‘lgan va shuning uchun ham fikri salmoqli, ishonchli hisoblangan kishining sifati”, “kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim, -o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’limdir”,- deb yozadi tadqiqotchi M.M.Vahobov[12]. Demak, kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchilarga o‘z bilim va ko‘nikmalarini turli kundalik va noodatiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi. Bunda ularni yangi va murakkab bo‘lmagan, balki hayotiy vaziyatlarga moslashgan malaka va qobiliyatlarni tatbiq etishga o‘rgatish ustuvor ahamiyatga ega. Shu bois, har bir fan mazmuni va xususiyatlarini

hisobga olgan holda unga mos kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni ta’limning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Professor M.Mirkosimova fikricha “O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini tarkib toptirishda o‘quv dasturi va darsliklarning ahamiyati katta”, boshqacha aytganda, o‘quv dasturi muayyan asarni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan vaqtni aniq belgilaydi[13]. Shu bilan birga, darslik o‘quvchilarga amaliy faoliyatni olib borishda ishonchli va asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Hozirgi davr ta’lim talablariga moslab ishlab chiqilgan, ya’ni kompetensiyaga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari avvalgi dasturlardan farqli ravishda faqat bilim va ko‘nikmalarni berish bilan cheklanmay, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati, ijodiy yondashuvi va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham yo‘naltirilgan.

Xulosa. O‘qish savodxonligi fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari (barcha ta’lim olish tillari bo‘yicha) boshlang‘ich sinf bitiruvchilariga qo‘yilgan malaka talablari, maqsad va vazifalari quyidacha bo‘lishi mumkin: o‘quvchilar o‘zlarining ma’naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda har qanday sohada mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilishlari uchun milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o‘qishi asarlarni o‘rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni va kitobxonlikni keng targ‘ib qilishi eng birinchi maqsadlardan hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 30-dekabrdagi yil yakunlari bo‘yicha Oliy Majlisga murojaatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/4057
2. Abdullayeva B.S. Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent. –2021. Innovatsiya Ziyo. – B 342.
3. Muslimov N.A. Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish. O‘quv uslubiy majmua. – Toshkent. – 2025. - B 95.
4. Vahobov M.M. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlari hamda ta’lim sifati monitoringi modelini amaliyotga joriy etish – intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashning muhim omili.Maktab va hayot.-№3(119),2016.4-b.
5. Qo‘ysinov O.A, Texnologiya ta’limining dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari. O‘quv uslubiy majmua. – Toshkent. – 2024. - B 98.
6. Usarov J.E. Tayanch va fanga oid kompetensiyalar asosida ta’lim mazmunini takomilashtirish va o‘quvchilar kompetentligini oshirish. Ped. muxlis. dok. (D Sc)...dis. - Toshkent, 2019. - 267 garov.
7. Khodjaev, B.X. *Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish*. Ped. fan. dokt. diss. – Toshkent, 2016. – 314 p.(167).
8. Chomsky, N., *Syntactic Structures*. Mounton, 1957. 261 p. // *Aspects of the Theory of Syntax*. Cambridge, May 1965. 261 p.
9. Зимняя, И.А. (2003). Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования. Высшее образование сегодня, 5, с. 34–42.
10. Хуторской А. Ключевые компетенции: технология конструирования // Народное образование. - 2003. - № 5. - С. 55.
11. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi / 12 jildli. K harfi T.: UME Davlat ilmiy nashriyoti. 2004 – 530b.
12. Vahobov M.M. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlari hamda ta’lim sifati monitoringi modelini amaliyotga joriy etish – intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashning muhim omili. Maktab va hayot. - №3 (119), 2016. 4-b.
13. Mirkosimova M.M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari: Ped. fan. dok. ... diss. - Toshkent, 1995. - 2456.
14. G.B.Nafasova. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarida mantiqiy kompetentliligini rivojlantirishning didaktik mohiyati. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 2022. 5-son. 96-bet. https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.227

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 81'37:811.512.133:811.111

"ECOSYSTEM" AS A CONCEPT IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Mamatov Shukurllo, PhD researcher, Jizzakh State Pedagogical University

"EKOTIZIM" TUSHUNCHASI O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA

Mamatov Shukurllo, Jizzax davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

ПОНЯТИЕ «ЭКОСИСТЕМА» В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Маматов Шукурлло, исследователь Джизакского государственного педагогического университета

https://orcid.org/0009-0008-6574-0823
e-mail: mamatovshukurllojon@gmail.com

Annotation: *The article examines the term "ecosystem" as a key concept in ecological science. It describes the history of the term's introduction into scientific usage and its establishment as a fundamental category. Special attention is given to the essence of the ecosystem as a complex and systemic phenomenon, combining living organisms and the abiotic environment. The article analyzes the use of the term in biology, ecology, and interdisciplinary research. It demonstrates that the concept of ecosystem allows the study of interactions between organisms and their environment in an integrated way. Modern interpretations, including artificial and anthropogenic ecosystems, are discussed. The methodological significance of the term in studying ecological balance and sustainable development is emphasized. The term acquires an interdisciplinary character, being applied in geography, environmental management, economics, and information technologies. The article highlights the semantic stability of the term and its universalization in science.*

Key words: *ecosystem, ecology, biotope, bioeconomic, interdisciplinary research, sustainable development, anthropogenic ecosystems, systemic approach, energy exchange, semantic stabilization.*

Annotatsiya: *Maqolada "ekosistema" termini ekologiya fanida asosiy tushuncha sifatida ko'rib chiqiladi. Terminning ilmiy so'zlashuvga kirib kelishi tarixi va uning ekologiya fanida asosiy kategoriya sifatida shakllanishi tavsiflanadi. Ekosistemaning murakkab va tizimli hodisa sifatidagi mohiyatiga alohida e'tibor qaratiladi, u tirik organizmlar va abiotik muhitni birlashtiradi. Terminning biologiya, ekologiya va interdisiplinar tadqiqotlarda qo'llanilishi tahlil qilinadi. Ekosistema tushunchasi organizmlar va muhit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni alohida emas, balki birgalikda o'rganishga imkon beradi. Zamonaviy talqinlar, shu jumladan sun'iy va antropogen ekosistemalar ham ko'rib chiqiladi. Terminning ekologik muvozanat va barqaror rivojlanishni o'rganishda metodologik ahamiyati ta'kidlanadi. Termin interdisiplinar xarakterga ega bo'lib, geografiya, atrof-muhitni boshqarish, iqtisodiyot va axborot texnologiyalarida qo'llaniladi.*

Kalit so'zlar: *ekosistema, ekologiya, biotop, biozenoz, interdisiplinar tadqiqotlar, barqaror rivojlanish, antropogen ekosistemalar, tizimli yondashuv, energiya almashinuvi, semantik barqarorlik.*

Аннотация: *В статье рассматривается термин "экосистема" как ключевое понятие науки экологии. Описывается история введения термина в научный оборот и его становление как базовой категории. Особое внимание уделено сущности экосистемы как комплексного и системного явления, объединяющего живые организмы и абиотическую среду. Анализируется использование термина в биологии, экологии и междисциплинарных исследованиях. Показано, что понятие экосистемы позволяет изучать взаимосвязь организмов и среды не изолированно, а во взаимодействии. Рассмотрены современные интерпретации, включая искусственные и антропогенные экосистемы. Отмечается методологическая значимость термина при изучении экологического равновесия и устойчивого развития. Термин приобретает междисциплинарный характер, находя применение в географии, управлении окружающей средой, экономике и информационных технологиях. В статье подчеркивается семантическая стабильность термина и его универсализация в науке.*

Ключевые слова: *экосистема, экология, биотоп, биоценоз, междисциплинарные исследования, устойчивое развитие, антропогенные экосистемы, системный подход, энергетический обмен, семантическая стабилизация.*

Introduction. In recent years, increasing environmental challenges have intensified scientific interest in ecological systems and the terminology used to describe them. The concept of the *ecosystem* occupies a central place in ecological science, as it provides a systematic framework for understanding the interactions between living organisms and their physical environment. Accurate and consistent use of ecosystem-related terminology is essential for effective scientific communication, particularly in interdisciplinary and multilingual contexts. Ecological terms serve not only as descriptive units but also as instruments for structuring scientific knowledge. However, differences in linguistic systems and word-formation mechanisms across languages may lead to semantic variation, terminological inconsistency, and translation difficulties. These issues are especially relevant in comparative studies involving structurally different languages such as Uzbek and English.

In Uzbek scientific discourse, ecosystem-related terminology has developed through native word-formation patterns, international borrowings, and adaptations influenced by other scientific traditions. As a result, variations in usage and synonymy have emerged, including regionally conditioned forms. In contrast, English ecological terminology is characterized by a higher degree of standardization and internationalization.

The present study aims to conduct a comparative analysis of ecosystem-related terms in Uzbek and English, focusing on their semantic features, word-formation patterns, and usage in scientific dictionaries and regional speech. By examining these aspects, the article seeks to contribute to the standardization of ecological terminology and to improve translation accuracy in scientific discourse.

Literature review. The concept of the ecosystem has been extensively examined in ecological, biological, and interdisciplinary studies since its introduction into scientific discourse in the early twentieth century. The foundational work of A. G. Tansley (1935) marked a turning point in ecological thinking by defining the ecosystem as an integrated system consisting of living organisms and their abiotic environment. This systemic approach laid the groundwork for subsequent ecological theories and contributed to the development of ecosystem ecology as an independent scientific field. Later studies expanded and refined the concept of the ecosystem, emphasizing energy flow, nutrient cycling, and functional relationships within ecological systems. Scholars such as Odum highlighted the role of ecosystems as dynamic and self-regulating units, thereby reinforcing the importance of systems theory in ecological research. As a result, the term "ecosystem" became a central analytical category not only in ecology, but also in environmental science, geography, and sustainability studies[1].

Alongside ecological research, considerable attention has been paid to the development and standardization of ecological terminology. Terminological studies stress that scientific terms must possess semantic precision, stability, and consistency to ensure effective communication within and across disciplines. Researchers such as J. Lyons and R. Trask have

emphasized the role of terminology in structuring scientific knowledge and maintaining conceptual clarity. From a linguistic perspective, ecological terms are viewed as specialized lexical units whose meanings are shaped by both scientific content and language-specific word-formation mechanisms.

Comparative and contrastive studies of scientific terminology have demonstrated that differences in morphological structure and lexical systems across languages significantly influence the formation and interpretation of terms. In English, ecological terminology is largely characterized by the productive use of Greek and Latin-based prefixes and suffixes (eco-, bio-, geo-, -logy, -system, -tion), which contribute to a high degree of internationalization and standardization. In contrast, Turkic languages, including Uzbek, rely predominantly on suffixation and native derivational patterns, which results in greater variability in term formation and usage[2].

Several studies focusing on Uzbek scientific terminology have noted that ecosystem-related terms are formed through a combination of native linguistic resources, international borrowings, and calques mediated by Russian scientific discourse. This has led to the coexistence of synonymous terms, variation in definitions, and occasional inconsistencies in dictionary representation. Researchers have also pointed out that the lack of unified terminological standards may cause difficulties in translation and interdisciplinary communication, particularly when aligning Uzbek terms with their English equivalents[3].

Despite the growing body of research on ecological concepts and terminology, relatively few studies have addressed ecosystem-related terms through a combined comparative, terminological, and dialectological framework. Existing literature often focuses either on ecological theory or on general issues of scientific terminology, leaving a gap in the integrated analysis of semantic, morphological, and functional features of ecosystem terminology across languages. This gap highlights the need for systematic comparative research that examines not only dictionary definitions but also actual usage patterns and processes of linguistic adaptation.

Research methodology. This study adopts a qualitative and descriptive research approach based on comparative and terminological analysis. The methodological framework integrates linguistic and ecological perspectives to examine ecosystem-related terminology in Uzbek and English[4]. The research data consist of ecosystem-related terms selected from authoritative scientific dictionaries and terminological glossaries in both languages. English terms were drawn from standardized ecological and biological reference sources, while Uzbek terms were collected from academic dictionaries and specialized ecological materials. The selection focused on key conceptual domains, including biotic components, abiotic factors, and ecological processes and systems.

The analysis was conducted in three main stages. First, the selected terms were classified according to their semantic and functional characteristics, enabling the identification of conceptual correspondences between the two languages. Second, a comparative semantic analysis was carried out to examine definitional consistency, scope of meaning, and usage patterns of equivalent terms, with particular attention to synonymy and semantic variation[5]. Third, a morphological analysis was applied to identify dominant word-formation mechanisms, focusing on suffixation in Uzbek and the combined use of prefixes and suffixes in English. In addition, elements of dialectological analysis were incorporated to examine the use of ecosystem-related terms in regional varieties of the Uzbek language. Phonetic variants and synonymous expressions found in local speech were compared with standardized dictionary definitions to assess the degree of terminological stability[6]. The results of the analysis were synthesized to evaluate issues of terminological standardization, translation accuracy, and interdisciplinary applicability. This methodology ensures a systematic and coherent examination of ecosystem terminology in both languages.

Analysis and results. In scientific literature, the concept of the ecosystem is regarded as a fundamental category reflecting the integration of biocenosis and biotope through energy and matter exchange. In subsequent studies, the term “ecosystem” ceased to be limited exclusively to the natural environment and began to encompass artificial and anthropogenic ecosystems as well. In particular, systems formed as a result of

agricultural activity, urbanization, and industrial development are also interpreted from an ecological perspective as ecosystems [7]. The essence of the term "ecosystem" is determined by its complex and systemic nature. It allows the interaction of biological components (plants, animals, microorganisms) and physicochemical factors (soil, water, climate) to be represented within a unified scientific model. In this regard, the concept of the ecosystem has significant methodological importance in scientific discussions of ecological balance, sustainable development, and environmental protection [8].

In modern scientific discourse, the term "ecosystem" has acquired an interdisciplinary character and is used not only in ecology, but also in geography, environmental management, economics, and even information technology. At the same time, its core semantic meaning—a system of interconnected elements—remains intact, while the scope of its application continues to expand. This phenomenon clearly demonstrates the process of scientific universalization of the term "ecosystem". In Uzbek scientific literature, the term "ecosystem" is also accepted as an international term and is interpreted in accordance with the theoretical foundations of ecological science. Research shows that the stable and uniform use of this term contributes to the accurate and consistent expression of ecological concepts. Terms related to the ecosystem form the basis of the conceptual apparatus of ecology, and their systematic classification based on scientific dictionaries is of great importance for the development of this field of knowledge. The terms analyzed in this section are mainly selected from scientific dictionaries of the Uzbek and English languages and are classified according to semantic, morphological, and functional features[9].

In English dictionaries, terms are presented in the form of standardized definitions in which their scientific content is expressed clearly and consistently. Thus, such basic concepts as *"ecosystem," "biodiversity,"* and *"habitat"* reflect ecological processes and components from a systemic perspective. In Uzbek dictionaries, however, terms are often presented through general vocabulary, scientific borrowings from Russian, and synonymous variants. This, in turn, leads to certain difficulties in ensuring terminological correspondence, as well as in the processes of translation and adaptation.

Based on classification criteria, the terms are divided into several main groups:

1. Biotic components — flora, fauna, microorganisms;

2. Abiotic factors — soil, water, climate, light;

3. Processes and systems — energy flow, matter cycling, stability.

For each of these groups, a comparative analysis of terms was conducted from the perspective of their dictionary definitions in Uzbek and English, spheres of usage, and scientific content. As a result, the scientific stability of ecosystem terminology and its interdisciplinary use were identified, and problems related to the standardization of terms and their translation were outlined[10].

In this article, ecological terms are also analyzed in the context of lexical differences characteristic of territorial dialects of the Uzbek language. The features of term pronunciation in local speech, their synonymous variants, and their correspondence to scientific dictionaries are examined. In addition, issues of local adaptation of scientific terms through dialectal variants, translation difficulties, and processes of linguistic adaptation are highlighted.

The study of ecosystem terminology from a dialectological perspective makes it possible to analyze the linguistic and territorial aspects of ecological science. This article examines how ecosystem-related terms are used in various regional dialects of the Uzbek language, as well as their phonetic and synonymous variants [11]. For example, the term *"ekotizim" ("ecosystem")*, which has a single definition in scientific dictionaries, is sometimes expressed in the dialects of the Fergana Valley as "soil–plant–animal system," while in the Bukhara region it is used in the meaning of "natural environment." At the same time, the word *"tuproq" ("soil")* in the Syrdarya region is often used in the meaning of "layers of earth," and the term *"daryo" ("river")* in the Kashkadarya and Samarkand regions may be referred to as a "*water body" or "lake."* The word *"o'rmon" ("forest")* in Samarkand and Andijan dialects is used in the forms *"daraxtzor" ("woodland")* or "*yashil hudud" ("green zone").*

Such territorial differences indicate that the same scientific term may have various phonetic and synonymous variants in different dialects, which makes it possible to identify features of its adaptation in local speech and to determine regional lexical richness. The analysis of terms through dialectal variants was compared with data from scientific dictionaries, which allowed the identification of the peculiarities of term functioning in local speech[12]. Thus, dialectological analysis helps to reveal the relationship between scientific standards and local lexical units, identify synonymy and metaphorical usage, and demonstrate the possibilities of adapting terms to local conditions.

Conclusion. The article notes that the dialectological approach is of great importance for a deeper understanding of ecosystem terminology, identifying regional lexical richness, and ensuring harmony between scientific and local vocabularies. At the same time, this approach contributes to overcoming difficulties arising in the process of scientific translation and local adaptation of terms. The article also examines derivational affixes involved in the formation of ecological terms, their semantic load, and terminological significance. First, the concept of affixal word formation and its role in term creation is defined. In the Uzbek language, ecosystem-related terms are predominantly formed through suffixation. In particular, suffixes such as -lik, -chi, -dor, -simon, -lash, -lanish, and -iy are actively used in ecological terminology. Terms expressing ecosystem-related processes and states are often derived from verbal bases, reflecting the dynamic nature of ecological processes.

In English, both prefixes and suffixes play an important role in the affixal formation of ecosystem terms. Widely used prefixes include eco-, bio-, geo-, hydro-, micro-, and macro-, as well as suffixes such as -system, -logy, -tion, -ity, -al, and -ism, which form the core of ecological terminology. Comparative analysis shows that while affixal word formation in Uzbek is mainly realized through suffixation, English predominantly employs a combination of prefixes and suffixes. This process raises issues of translation and terminological adaptation. Overall, affixal word formation of ecosystem-related terms plays an important role in revealing their scientific essence, enriching the terminological system, and strengthening interdisciplinary connections. Terms formed through affixation serve as a significant linguistic foundation for the theoretical and practical development of ecological science. Thus, the term “ecosystem” is not only a fundamental concept of ecology, but also one of the key categories of modern scientific thinking, reflecting a systemic approach to the study of reality.

References:

1. Abdurahmonov, A. O‘zbek tilining so‘z yasash tizimi. Toshkent: Fan nashriyoti, 2020.
2. Crystal, D.A. Dictionary of Linguistics and Phonetics (6th ed.). Oxford: Blackwell Publishing, 2008.
3. Dadaboyev, H. O‘zbek terminologiyasi. Toshkent, 2019.
4. Lyons J. Linguistic Semantics: An Introduction. — Cambridge: Cambridge University Press, 1995. — 384 p.
5. Newmark, P. A Textbook of Translation. London: Prentice Hall, 1988.
6. Sager, J.C.A Practical Course in Terminology Processing. Amsterdam: John Benjamins. 1990.
7. Sharipova, Z. Ekoterminlarning lingvistik xususiyatlari va ularning o‘zbek tilida shakllanishi. Til va madaniyat, №2, 58–64. 2023.
8. Temur,O. O‘zbek tilida leksik o‘zgarishlar va yangiliklar. Tilshunoslik izlanishlari, №3, 41–45. 2017.
9. Trask R.L. Language and Linguistics: The Key Concepts. — 2nd ed. — London; New York: Routledge, 2007. — 372 p.
10. Xudoyberdiyeva, G. Atamalarni standartlashtirish va normallashtirish masalalari. O‘zbek tili va adabiyoti, 2019. №2, 27–30.
11. Кибрик А.Е. Очерки по общим и прикладным вопросам языкознания. — М.: Языки славянской культуры, 2003. — 336 с.
12. Павлова, М. Метафоры и когнитивные науки. Москва, 1998.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 81'374:81'276

MEDIA SLENGINING IKKI TILLI LUG'ATLARDA BERILISHI: QIYOSIY-LEKSIKOGRAFIK TAHLIL (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Eshmirzayeva Nozima Baxodir qizi, Qarshi davlat universiteti 2-kurs doktoranti

REPRESENTATION OF MEDIA SLANG IN BILINGUAL DICTIONARIES: A COMPARATIVE LEXICOGRAPHIC ANALYSIS (BASED ON THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES)

Eshmirzayeva Nozima Baxodir qizi, 2nd-year Doctoral Student, Karshi State University

ПРЕДСТАВЛЕНИЕ МЕДИЙНОГО СЛЕНГА В ДВУЯЗЫЧНЫХ СЛОВАРЯХ: СРАВНИТЕЛЬНО-ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ (НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Эшмирзаева Нозима Баходир кызы, докторант 2 курса Каршинского государственного университета

https://orcid.org/0009-0004-6057-9584
e-mail: eshmirzayevanozima95@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida ommaviy axborot vositalarida faol qo'llaniladigan sleng so'zlarning ikki tilli lug'atlarda berilishi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida bunday so'zlarning lug'atlarda qanday izohlanishi, tarjima qilinishi va qaysi hollarda tushuntirish orqali berilishi aniqlanadi. Ingliz tilidagi media sleng so'zlarining o'zbek tilida to'liq yoki qisman mos kelishi, ayrim hollarda esa moslikning yo'qligi misollar asosida ko'rsatib beriladi. Natijada, ikki tilli lug'atlarda bu turdagi so'zlarni berishda izchillik yetishmasligi va zamonaviy birliklarning kech kiritilishi muammolari mavjudligi aniqlanadi. Maqolada media sleng so'zlarini lug'atlarga kiritishda aniq va tushunarli izoh berish zarurligi asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *media slengi, ikki tilli lug'at, ingliz tili, o'zbek tili, tarjima, izoh.*

Abstract: *This article examines the representation of slang words actively used in mass media in English and Uzbek in bilingual dictionaries. The study analyzes how such words are defined, translated, and, in certain cases, explained through descriptive interpretation. Based on illustrative examples, the research demonstrates cases of full or partial equivalence of English media slang in Uzbek, as well as instances where no direct equivalents exist. The findings reveal a lack of consistency in the treatment of media slang in bilingual dictionaries and highlight delays in the inclusion of contemporary lexical items. The article substantiates the necessity of providing clear and accessible explanations when incorporating media slang into bilingual lexicographic sources.*

Keywords: *media slang, bilingual dictionary, English language, Uzbek language, translation, explanation.*

Аннотация*: В статье рассматривается отражение сленговых слов, используемых в средствах массовой информации, в двуязычных словарях на материале английского и узбекского языков. Анализируется, каким образом данные слова переводятся и объясняются в словарях, а также в каких случаях требуется дополнительное пояснение. На примерах показано, что часть английских медиасленговых слов имеет соответствие в узбекском языке, тогда как некоторые*

единицы передаются лишь описательно. В результате выявляется отсутствие единообразия в подаче таких слов и недостаточное внимание к новым языковым явлениям. Делается вывод о необходимости более понятного и последовательного отражения медиасленговых слов в двуязычных словарях.

Ключевые слова: *медиасленг, двуязычный словарь, английский язык, узбекский язык, перевод, объяснение.*

Kirish. Zamonaviy til muhitida ommaviy axborot vositalari tili jamiyat hayotidagi ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga eng tez moslashuvchi qatlamlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli axborot manbalari ta’sirida tilga yangi so‘zlar va ifodalar kirib kelmoqda. Ushbu jarayonda sleng so‘zlar alohida o‘rin egallaydi. Dastlab og‘zaki nutq doirasida shakllangan sleng bugungi kunda media matnlar, sarlavhalar va yangiliklar tilida ham keng qo‘llanilmoqda. Sleng atamasi dastlab XIX asrning ikkinchi yarmida ingliz tilshunosligida qayd etilgan bo‘lib, u muayyan ijtimoiy guruh vakillari tomonidan kundalik muloqotda qo‘llaniladigan, norasmiy va ifodaviy so‘zlarni anglatadi. Vaqt o‘tishi bilan sleng faqatgina og‘zaki nutq bilan cheklanmay, ommaviy axborot vositalari orqali keng ommaga tarqala boshladi. Ayniqsa, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida raqamli texnologiyalar rivoji slengning yangi shakllarini yuzaga keltirdi va uning qo‘llanish doirasini keskin kengaytirdi.

Ingliz tilidagi media sleng bugungi kunda global axborot makonida yetakchi o‘rin egallab, boshqa tillarga faol kirib kelmoqda. O‘zbek tilida ham OAV materiallari, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida yangi sleng so‘zlar shakllanmoqda yoki ingliz tilidan o‘zlashtirilmoqda.

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi media sleng so‘zlarning ikki tilli lug‘atlarda berilishi tahlil qilinib, mavjud kamchiliklar aniqlanadi hamda bunday so‘zlarni lug‘atlarga kiritishda aniq va tushunarli izoh berish zarurligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari ikki tilli lug‘atlarni takomillashtirishga va zamonaviy til o‘zgarishlarini to‘g‘ri aks ettirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilshunoslari sleng fenomenini yoshlar nutqi, ijtimoiy guruhlar va media kontekstida faol o‘rganmoqdalar. U.Pulatova o‘zbek yoshlar slengining jinsga bog‘liq xususiyatlarini tahlil qilgan. Tadqiqot metodikasi sifatida intervyular va so‘rovnomalar o‘tkazilgan, natijada sleng so‘zlarining jinsga qarab qo‘llanishidagi farqlar aniqlandi [5.12–15]. U.Pulatovaning tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek yoshlar slengida ba’zi so‘zlar qizlar va o‘g‘il bolalar nutqida turlicha qo‘llaniladi, bu esa media slengni tushunish va lug‘atlarga kiritishda hisobga olinishi lozim. Ushbu ish yoshlar nutqi va media matnlaridagi slengni o‘rganish bo‘yicha asosiy nazariy manba sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, B.Pardayeva slengning kelib chiqish sabablari va leksik xususiyatlarini tarixiy va sotsiolingvistik yondashuvlar orqali tahlil qilgan[4.7]. U slengning ijtimoiy, madaniy va kommunikativ funksiyalarini ochib beradi. Maqolada slengning ayrim birikmalari o‘zbek tilida qanday tarzda shakllanganligi, qaysi ijtimoiy guruhlar tomonidan ishlatilishi va ular orasidagi farqlar aniq misollar bilan keltirilgan. Shu bilan birga, B.Pardaeva media slengining lug‘atlarga kiritilishi va tarjima qilinishida duch keladigan muammolarni ham yoritadi.

Global va lokal slengni qiyosiy tahlil qilgan N.Tangirova ingliz va o‘zbek yoshlar slengining farqlarini va o‘zaro moslik darajasini aniqlashga e’tibor qaratadi [9.22]. Tadqiqotda nutqiy korpus tahlili va intervyular qo‘llanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan media slengning bir qismi to‘liq ekvivalentlarga ega bo‘lsa, ba’zilari faqat tushuntirish orqali beriladi. Shu jihatdan Tangirovaning ishi ikki tilli lug‘atlarni yaratishda qiyosiy tahlilni amalga oshirish uchun muhim manba hisoblanadi.

Sh.Razzoqova esa sleng so‘zlarining sintaktik tuzilishi va nutqdagi joylashuvini tahlil qilgan [7.33]. U korpus va tekst tahlili metodlari yordamida sleng birliklarining tuzilishi, so‘zlararo bog‘lanishi va qo‘llanilish xususiyatlarini yoritgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi media slengning tuzilishi ingliz tilidagi analoglar bilan qisman farq qiladi va bu ikki tilli lug‘atlarda so‘zlarni to‘g‘ri aks ettirishda e’tiborga olinishi lozim

O.Rahman tomonidan olib borilgan “Semantic Shift of English Internet Slangs: Morphosemantic Analysis” nomli tadqiqotda ingliz tilidagi internet sleng birliklarining semantik siljishi morfosemantik nuqtayi nazardan tahlil

qilinadi[6.78]. Muallif sleng so‘zlarning dastlabki lug‘aviy ma’nodan chekinib, yangi kommunikativ vazifalarni bajarishga o‘tish jarayonini asoslab beradi. Tadqiqotda sleng birliklarning semantik o‘zgarishi ijtimoiy-madaniy omillar, raqamli muloqot tezligi hamda media muhitning ta’siri bilan izohlanadi.

O.Rahman sleng birliklarning shakllanishida metaforik ko‘chish, qisqartirish va affiksatsiya kabi morfologik jarayonlarning muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, internet sleng ko‘pincha yangi ma’no qatlamini hosil qilib, an’anaviy lug‘atlarda mavjud bo‘lmagan semantik xususiyatlarni namoyon etadi. Bu holat sleng so‘zlarning leksikografik qayd etilishida ularning tarixiy ma’nosi bilan bir qatorda zamonaviy qo‘llanilish kontekstini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqot media slengni bir tilli va ikki tilli lug‘atlarda aks ettirish masalasida muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek va ingliz tilidagi media sleng birliklari lug‘atlarga berilishida va ularning tahlil uslubida sezilarli farqlar mavjud. Ingliz tilidagi slenglar, xususan Partridge (1937) va Thorne (2006) lug‘atlarida, standartlashtirilgan, qisqa ta’riflar va sinonimlar bilan berilgan[3;8]. Misol uchun, *flex, stan, ghosting* kabi birliklar qisqa, tushunarli va keng auditoriya uchun oson tarzda taqdim etilgan. Shu bilan birga, ular tez yangilanadigan va zamonaviy matn bilan mos keladigan birliklar sifatida lug‘atlarda muntazam aks ettiriladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda media slengining ikki tilli lug‘atlardagi aks etishi o‘rganildi. Tadqiqot materiali sifatida o‘zbek va ingliz tillaridagi lug‘atlar hamda internet va media platformalarida ishlatiladigan sleng birliklari tanlandi. Sleng birliklari korpus tahlili orqali morfologik va sintaktik xususiyatlari bo‘yicha tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy-leksikografik tahlil yordamida ularning ikki tilda berilishi va izoh usullari solishtirildi. Sleng so‘zlarning ma’nosi va ishlatilish konteksti sifatli tahlil yordamida yoritildi. Shuningdek, birliklarning lug‘atlardagi uchrash chastotasi miqdoriy tahlil orqali aniqlandi. Tadqiqot natijalari media slengning lug‘atlarga kiritilishi jarayonidagi muammolar va ikki tilli qiyosiy xususiyatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar. O‘zbek tilidagi media sleng esa, B. Pardayeva (2024) va U.Pulatova (2025) tadqiqotlariga ko‘ra, ko‘proq izohli va kontekstual tarzda lug‘atlarga kiritilgan. Misol uchun, vayner qilish, tuzish, qotib qolish kabi birliklar yoshlar nutqi va ijtimoiy tarmoqlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning lug‘atlarga kiritilishi kontekstga bog‘liq. Shuningdek, o‘zbek sleng birliklari ko‘pincha metaforik yoki so‘z birikmalaridan iborat, bu esa morfologik va sintaktik jihatdan ingliz tilidagi slengdan farq qiladi.

1-jadval. Qiyosiy tahlil

Taqqoslash mezoni	**Ingliz tilidagi media slengi**	**O‘zbek tilidagi media slengi**
Paydo bo‘lish manbai	Internet,seriallar, ijtimoiy tarmoqlar	Og‘zaki nutq, yoshlar tili, ijtimoiy tarmoqlar, kundalik muloqot
Leksik shakllanish	Qisqartmalar metaforik birliklar	Metaforik fe’llar, iboralar, ma’no ko‘chish asosidagi birliklar
Leksikografik holati	Maxsus sleng lug‘atlarida tizimli va muntazam qayd etiladi	Asosan umumiy izohli lug‘atlarda cheklangan holda beriladi
OAVdagi qo‘llanish	Sarlavha, post, reklama va sharhlarda faol ishlatiladi	Asosan sarlavha va norasmiy janrlarda qo‘llanadi
Auditoriya qamrovi	Global miqyosda tushunarli	Ko‘proq mahalliy va madaniy muhitga bog‘liq
Normativ baholanish	Qisman me’yorlashgan, ayrim birliklar adabiy tilga o‘tgan	Ko‘pincha noadabiy birlik sifatida baholanadi
Tarjima imkoniyati	Ko‘pincha ekvivalent yaqin variant mavjud	Ko‘p hollarda izoh orqali tarjima qilinadi

Shu bilan birga, ingliz va o‘zbek slenglari o‘rtasida umumiy jihatlar ham mavjud. Har ikki tilda sleng birliklari norasmiy muloqot vositasi bo‘lib, emotsional-ekspressiv ma’no ifodalashga xizmat qiladi hamda asosan yoshlar va media orqali tez tarqaladi. Bundan tashqari, ikkala tilda ham sleng birliklari tilning dinamik rivojlanishini aks ettiradi va ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan bevosita bog‘liqdir.

Xulosa. Tadqiqot media slengni ikki tilli lug‘atlar doirasida o‘rganish zarurati mavjudligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, sleng faqat tilning chekka qatlamiga mansub hodisa emas, balki zamonaviy kommunikatsiya, ayniqsa media va raqamli makon ta’sirida shakllanayotgan faol leksik qatlamdir. Shu bois, uni lug‘atlardan chetda qoldirish tilning real qo‘llanish holatini to‘liq aks ettirmaslikka olib keladi.

Tahlil jarayonida aniqlandiki, ikki tilli lug‘atlarda sleng birliklarini berishda asosiy muammo ekvivalent tanlash, ma’no chegarasini aniqlash va kontekstni to‘g‘ri ifodalash bilan bog‘liq. Sleng birliklarining tez eskirishi va semantik o‘zgaruvchanligi ularni statik lug‘at modeli asosida qayd etishni murakkablashtiradi. Bu holat leksikografiyada yanada moslashuvchan va dinamik yondashuvlarni qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari media slengni ikki tilli lug‘atlarga kiritish masalasini alohida leksikografik yo‘nalish sifatida rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa kelgusida zamonaviy til jarayonlarini to‘liqroq qamrab oladigan, foydalanuvchi ehtiyojlariga mos va ilmiy asoslangan lug‘atlarni yaratish uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Herawati. The Impact of Social Media on the Use of English Slang. Aditya Rifqi Sam Journal. 2025.
2. Keidar,D. Slangvolution: A Causal Analysis of Semantic Change and Frequency Dynamics in Slang. 2022.
3. Partridge, E. A Dictionary of Slang and Unconventional English. London: Routledge. 1937.
4. Pardaeva, B. Slangs in the Uzbek language and the reasons for their origin. Inlibrary. 2024.
5. Pulatova,U. Gender-specificity of Uzbek youth slang. Linguistics Tsuull. 2025.
6. Rahman,O.S. Semantic Shift of English Internet Slangs: Morphosemantic Analysis. Jurnal UGJ. 2022.
7. Razzoqova,S. Syntactic analysis and formation of slangs in English and Uzbek languages. Wos Journals. 2025.
8. Thorne, T. Dictionary of Contemporary Slang. London: Bloomsbury. 2006.
9. Tangirova, N.A. Comparative Study of Slang Usage in English and Uzbek Youth Speech. Journalss. 2025.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK:930.906

ALIXONTO‘RA SOG‘UNIYNING “TURKISTON QAYG‘USI” ASARI – MILLIY MUSTAQILLIK HAQIDA MUHIM MANBA

Davlatova Shoira,
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi, Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

https://orcid.org/ 0009-0009-3847-239X
e-mail: davlatova.shoira@bk.ru

ALIXONTO‘RA SOG‘UNIY’S “TURKISTAN QAYG‘USI” – A SIGNIFICANT SOURCE ON NATIONAL INDEPENDENCE

Davlatova Shoira,
Lecturer at Termez State University, Doctor of Philosophy in history (PhD)

«ТУРКЕСТАНСКАЯ ПЕЧАЛЬ» АЛИХОНТОРЫ СОГУНИЙ КАК ЗНАЧИМЫЙ ИСТОЧНИК О НАЦИОНАЛЬНОЙ НЕЗАВИСИМОСТИ

Давлетова Шоира,
преподаватель Термезского государственного университета, доктор философии по истории (PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqola Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Turkiston qayg‘usi” asarini tahlil qiladi va uni milliy mustaqillik haqida muhim manba sifatida taqdim etadi. Maqolada asarning tarixiy konteksti, muallifning qarashlari va o‘sha davr milliy ongiga ta’siri o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari Alixonto‘ra Sog‘uniy ijodining milliy mustaqillik va vatanparvarlik tarbiyasidagi ahamiyatini yoritadi.*

Kalit so‘zlar: *Alixonto‘ra Sog‘uniy, Turkistan Qayg‘usi, milliy mustaqillik, tarixiy manba, vatanparvarlik.*

Abstract: *This article analyzes Alixonto‘ra Sog‘uniy’s “Turkistan qayg‘usi” and presents it as an important source on national independence. The study examines the historical context of the work, the author’s views, and its influence on the national consciousness of the time. The findings highlight the significance of Alixonto‘ra Sog‘uniy’s literary contribution in fostering patriotism and understanding of national independence.*

Key words: *Alixonto‘ra Sog‘uniy, Turkistan qayg‘usi, national independence, historical source, patriotism.*

Аннотация: *Статья посвящена анализу произведения Алихонторы Согуний “Туркестанская печаль” и рассматривает его как важный источник по вопросам национальной независимости. В статье исследуется исторический контекст произведения, взгляды автора и его влияние на национальное сознание того времени. Результаты исследования подчеркивают значение творчества Алихонторы Согуний для воспитания патриотизма и национальной независимости.*

Ключевые слова: *Алихонтора Согуний, Туркестанская печаль, национальная независимость, исторический источник, патриотизм.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Alixonto‘ra Sog‘uniy Turkiston xalqining ozodligi va milliy mustaqilligi uchun kurashgan, yoshligida Turkistonning Chor Rossiyasiga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlarda faol ishtirok etgan atoqli olim, adib, Sharqiy Turkiston jumhuriyatining birinchi prezidenti hamda marshali. U mustabid sovet tuzumiga qarshi turgan va uning kirdikorlarini tanqid qilgan, mustamlaka siyosatini qabul qilmagan, o‘z Vatanini sevgan yurt fidoyisi edi. Umrining ko‘p qismini quvg‘inda, qamoqxonalarda, tazyiq va ta’qib ostida o‘tkazgan. Alixonto‘ra Sog‘uniy tomonidan 1966-1973-yillarda yozilib, uning avlodlari tomonidan nashrga tayyorlangan “Turkiston qayg‘usi” nomli kitobda Turkiston o‘lkasining Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi, aholisining mustamlakaga aylantirilishi haqida bir qancha ma’lumotlar yozib qoldirilgan. Alixonto‘ra Sog‘uniy mazkur kitobida o‘zi yashagan og‘ir davrdagi voqea va hodisalarni bevosita guvohi, ishtirokchisi sifatida tavsiflaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). XX asrning boshlarida o‘lkada mavjud bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy muhit natijasida yuzaga kelgan holat va jarayonlarni, sovet hokimiyati va uning asoschilari bolsheviklar partiyasining Turkistonda olib borgan siyosatini tahlil qilib shunday yozadi: “O‘z milliy hukumatidan ajragan insonlar, o‘z vatanida turgan bo‘lsalar ham, biz Turkiston xalqi kabi butun huquqlaridan ajrab, xor-zorliqqa qolishlari shubhasizdir. Biz esa o‘z merosimiz ona vatanimizga ega bo‘lolmay mol-boshlarimizdan, dinimizdan borliq narsalarimizdan butunlay ajramoqdamiz” [1]. Muallif bu orqali vatanimiz, qanday qilib yuz yildan ortiq bosqinchilar qo‘lida qolganligini, millatimiz mustamlaka zulmi ostida ezilib kelayotganligining asosiy sabablarini tushuntirishga, izohlashga harakat qiladi. Xonliklar davrida Turkiston o‘lkasida yuzaga kelgan ittifoqsizlik, dinni asosini yetarli darajada tushunmagan madaniyat dushmanlari hokimiyat tepasida bo‘lishi, mamlakatning mudofaa quvvatiga ahamiyat berilmagani, xalqimizning xurofot zulmati va jaholat botqog‘iga butunlay botganligi, zamonaviy fan hamda ilmlarini o‘qish va o‘qitish ishlariga e’tibor bo‘lmaganligi bu vaziyatni yuzaga kelishiga asos bo‘ldi, deb ko‘rsatadi. Muallif mamlakat mudofaasi haqida fikr yuritar ekan, “Hozirgi madaniyat olamida millatning o‘z huquqini saqlash sharafi uning qurol kuchigagina bog‘lanmishdir. Shu bois to‘liq mudofaa kuchiga ega bo‘lmagan millatlar insoniy huquqlaridan butunlay ajralib, hayvonlar qatorida xo‘rlik bilan yashamoqqa majburdirlar. Shunga ko‘ra Vatan bolalari oldimizdagi kelajak kunlarni tasavvur qilib, zamonaviy ilmni o‘qishga chin ko‘ngillari bilan kirishib, halol meros, o‘z Vatanlarini egallash uchun mudofaa quvvati tayyorlashga tish-tirnoqlari bilan yopishsinlar” [1], deb nasihat qiladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Asarda bolsheviklar partiyasi rahnamoligida bosqinchilar Turkiston o‘lkasida mahalliy aholini bo‘ysundirish uchun qanday usullardan foydalanganliklarini quyidagicha ifodalaydi: “... Hech bir davrda ko‘rilmagan buzuq, jirkanchli tuzumni bolsheviklar hech kimga qabul qildirolmagach, insonning hayotiy yemak, ichmak, oziq-ovqatlariga osilib, biror kishining uyida don urug‘idan ortiqcha hech narsa qoldirmay yig‘ib olishdi. Shu orqali och o‘ldirish qo‘rqinchi bilan o‘zlariga bo‘ysundirmoqchi bo‘ldilar. Chunki bu kabi boshi tuyuq, qorong‘u ko‘chaga xalqni kirgizish faqat iqtisodiy, siyosiy majburlik orqaligina bo‘lishi mumkindir” [1].

Markaziy Osiyo hududida o‘sha vaqtda hukm surayotgan qullik, sobiq qizil imperiyaning ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan siyosati hukmronligida Alixonto‘ra Sog‘uniy birinchilardan bo‘lib ushbu tuzum mafkurasining tub mohiyatini anglagan, uning inson tabiatiga, erkinligiga, huquqlariga, umuminsoniy qadriyatlarga zid ekanligini tushuntirishga harakat qilgan hamda o‘z mulohazalarini shunday ifodalagan: “Hayot olamida eng ulug‘, oliy darajali yaratilgan narsa shubhasiz insondir. Shuning uchun inson huquqlarini eng yuqori darajada saqlash haqiqiy madaniyatning ajralmas

tarmoqlaridan biridir. Madaniyat qayerda, qaysi millatga xos bo‘lmasin insoniyatni saqlash uchun hukumat qo‘lida adolat quroli bo‘lib turar ekan, ana shu chog‘dagina butun xalq haqiqiy madaniyatga erishib, tinchlik bilan rohatda turmush kechira oladi. Buning natijasida insoniyat xususiyati bo‘lgan har kimning erk-ixtiyori o‘z qo‘lida saqlanadi. Kim yer yuzining qaysi o‘lkasida bo‘lishni xohlar ekan, u hech qanday to‘sqinlik ko‘rmaydi” [1].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Muallif “Turkiston qayg‘usi” yoki “Xotiralar” deb nomlangan kitobida har bir hudud aholisi o‘z millati, dini va Vatanini asrashi lozimligi haqida o‘z fikrlarini bayon qilgan. Turkiston xalqini mustamlakaga aylanishidan qattiq iztirob chekadi, mustaqillikni qo‘lga kiritish uchun xalq qanday yo‘l tutishi lozimligi to‘g‘risida mustabid sovet tuzumi davrida yetuk siyosiy arbob sifatida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi va bir qancha qimmatli tavsiyalar beradi. Kitobda bu haqida ijtimoiy-siyosiy vaziyat og‘ir holga kelib turgan bir vaqtda undan chiqish uchun qanday choralar ko‘rish mumkinligini, hayotdagi butun ishlar sababga bog‘liq ekanligini, qachon bir ishning sababi topilsa, uni yuzaga chiqarish mumkinligini, yengilib ketmasdan oldinroq undan qutulish choralariga kirishish lozimligini qayd etadi [2]. Alixonto‘ra Sog‘uniy “milliy hokimiyatimizdan hozircha ajrab turgan bo‘lsak ham, milliy hissiyotimizdan ajramay, uni saqlay olsak, kelajakda dushmanlarga yutilishdan o‘zimizni qutqara olamiz. Endi bu maqsadga yetish uchun qo‘yilgan masalalarning eng birinchi sharti til masalasidir. Agar biz til adabiyotimizni kengaytirib, uning qadr-qimmatini oshirib, boshqa madaniy tillar darajasiga yetqizur ekanmiz, mana bu chog‘da millatimiz, milliy hissiyotlarimiz doimiy ravishda o‘sib saqlangusidir. Agar bunday bo‘lmay balki, aksincha, o‘z ona tili qadriga yetmasdan unga ahamiyat bermas ekanlar, u chogda ko‘p uzoqlamayoq alvido aytib, o‘z tillaridan abadiy ajragan bo‘ladilar. Shundoq bo‘lib, o‘z ona tilidan ajramoqlik, milliy hissiyotlarini yo‘qotish natijasidir. Bu ish esa insoniyat olami oldida ulug‘ xiyonat, kechirilmas jinoyat hisoblanadi. Bunday bo‘ldi demak, ulug‘ Turkiston ulusi Turon nasli bosqinchilar tilagicha, qurbon bo‘lgan holda inqirozga uchrab, tarix sahifalaridagi shon-sharaflik nom nishonlari o‘chiriladi demakdir” [1], kabi fikrlarni bildiradi.

Alixonto‘ra Sog‘uniy “Turkiston qayg‘usi” kitobida yer yuzidagi insonlarni yer ostidagi ma’danlar singari xilma-xil ekanligini, ularni qobiliyatlari ham turlichaligini, odamlar orasida ham temirlari, ko‘mirlari ko‘p ekanligini, oltin-olmoslari ham oz emasligini, vatanni, xalqni tog‘ bosgandek ustidan bosib yotgan bosqinchilar qo‘lidan qutqarish darkorligini, bunga tog‘ni qo‘porgudek kuchlar yetarli ekanligini, buning uchun millat yetakchilari siyosat maydoniga chiqishlari, Turkiston xalqi o‘z hukumatini qurib olishi, har bir millatning o‘z hukumati o‘z qo‘lida bo‘lmas ekan, xalq qo‘ychiboni yo‘q bir to‘da qo‘y kabi yirtqich qushlarga, och bo‘rilarga yem bo‘lib, oxiri inqirozga uchrab yo‘qolishi mumkinligini misol qilib keltiradi [3].

Muallif XX asrning ikkinchi yarmida dunyodagi ko‘pgina mustamlaka davlatlar mustaqillikni qo‘lga kiritib, u hududlar aholisi erkinlik, hurlikka erishgan bir davrda ham Sovet mustamlakachilik siyosati asosida O‘zbekiston aholisi sovetlar mustabid tuzumining zulmi ostida qolayotganligini, o‘lkaga yevropalik millat vakillari kelib o‘rnashayotganliklari, boshqaruv tizimida ularning nufuzi ortib, mahalliy aholiga tazyiqlar ortib boryotganligini iztirob bilan shunday tasvirlaydi: “Endi butun olamda mustamlakachilik yo‘qolib, ozodlik davri boshlanganiga qaramay, sovet imperiyasi bir tomondan o‘z qo‘li ostidagi o‘n olti o‘lkalik xalqqa til uchida qog‘oz ustida ozodlik bergan bo‘lib, ikkinchi tomondan, sharmandalarcha mustamlakachilikdan ham yomonroq siyosat qo‘llab, butun xalqni, ayniqsa, Turkiston xalqini qul qilib, hayvondek ishlatmoqdadir. Bunga ham qanoat qilmasdan yerlik xalqni yutib sindirish, vatanlarini esa ruslantirish qasdiga tushdi. Turli bahonalar bilan Rusiyadan sel oqqandek kishilarni keltirib, vatanimizning eng go‘zal joylarini bular bilan to‘ldirishga kirishdi. Qirg‘iziston, Qozog‘iston o‘lkalaridagi yerlik musulmonlar

ustida, agar siyosat shu hozirgi ketishicha davom etsa, ko‘p uzoqlamayoq bu ikki turk urug‘i o‘z tillaridan va vatanlaridan ajragan holda, hammadan ilgari ruslashib, yutilishga tayyor bo‘lib qoldilar [1]. Uningcha, dushmanga yengilishdan saqlanishning eng kuchlik quroli ikki narsadan iborat: birinchisi diniy ixlos, ikkinchisi milliy hisdir. Qaysi millat bu hislarni yaxshi saqlasa dushman tomonidan yutilishi mumkin emas [4].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda Alixonto‘ra Sog‘uniy “Turkiston qayg‘usi”da Turkiston o‘lkasida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab XX asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar haqida o‘z qarashlarini bildirgan bo‘lsa-da, ushbu manba bugungi XXI asrning birinchi choragida ham dolzarb masalani o‘z ichiga olgan, mazmunan eskirmagan manba hisoblanadi. Bu kitob ayni davrda ham aholi orasida uchrab turgan buzg‘unchi g‘oya va harakat tarafdorlari, o‘z yurti va xalqiga xiyonat qilayotgan kimsalarga qarshi mafkuraviy kurash olib borishda, ularni o‘zlikni anglash, o‘zlikni unutmaslik ruhida tarbiyalashda, shaxsni xalq dardi va qayg‘usi bilan yashashga o‘rgatishda, xalq ongiga mustaqillikning qadriga yetish kerakligini singdirishda muhim qo‘llanma hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Alixonto‘ra Sog‘uniy. Turkiston qayg‘usi. Birinchi kitob. Izohlar, kirish so‘zi muallifi va muharrir: U.Shokirov. – Toshkent: “Sharq”, 2020.
2. Munavvarqori qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – Toshkent, “Ma’naviyat”, 2003, – B. 241.
3. Sobirov M. Milliy ozodlik harakatlari va Alixonto‘ra Sog‘uniy asarlari // O‘zbekiston tarixi jurnali. – 2022. – №4. – B. 55–70.
4. Usmonov D. Turkiston ziyolilari va mustaqillik g‘oyalari. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2019. – 210 b.
5. Абраров С.А. Межнациональные отношения в Узбекистане: 1917 июнь -1941гг. – Ташкент, “Фан”, 1995.
6. Рыскулов Т. Революция и коренное население Туркестана. (Сборник главнейших статьей, докладов, речей и тезисов) часть 1. 1917-1918 гг. – С. 170.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 093.473.15

EKOLOGIK MUAMMOLARNING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA'SIRI

G'ulomova Ruxsora Buriyevna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

THE IMPACT OF ENVIRONMENTAL PROBLEMS ON SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Gulomova Rukhsora Burievna,
Lecturer at Shahrisabz State Pedagogical Institute

ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ НА УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ

Гуломова Рухсора Буриевна,
преподаватель Шахрисабзского государственного педагогического института

https://orcid.org/ 0009-0005-9526-7190
e-mail: ezozasavkatova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola global va butun yer yuzida, mintaqada ekologik muammolar va ularning yuzaga kelish omillari, jamiyat va iqtisodiyotga ta'siri hamda O'zbekiston sharoitida ekologik barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Atmosfera havosining ifloslanishi, suv resurslarining tanqisligi, chiqindilarni boshqarish va ularni qayta ishlash masalalari va biologik xilma-xillikning kamayishi bo'yicha ilmiy yondashuvlar keltiriladi. Tadqiqot natijalari ekologik boshqaruvni takomillashtirishda qo'llanishi mumkin bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *ekologiya, global, atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurs, barqaror rivojlanish, ifloslanish, ekologik xavfsizlik, atmosfera.*

Abstract: *This article examines environmental problems at global and regional levels, identifies the key factors contributing to their emergence, and analyzes their impact on society and the economy. Particular attention is given to mechanisms for ensuring environmental sustainability in the context of Uzbekistan. The study presents scientific approaches to addressing air pollution, water resource scarcity, waste management and recycling, as well as biodiversity loss. The research findings may be used to improve environmental governance and to support the development of effective sustainable development policies.*

Key words: *ecology, global environmental issues, environmental protection, natural resources, sustainable development, pollution, environmental security, atmosphere.*

Аннотация: *В статье рассматриваются экологические проблемы на глобальном и региональном уровнях, выявляются основные факторы их возникновения и анализируется их влияние на общество и экономику. Особое внимание уделяется механизмам обеспечения экологической устойчивости в условиях Узбекистана. Представлены научные подходы к решению проблем загрязнения атмосферного воздуха, дефицита водных ресурсов, управления отходами и их переработки, а также сокращения биологического разнообразия. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования системы экологического управления и разработки эффективной политики устойчивого развития.*

Ключевые слова: *экология, глобальные экологические проблемы, охрана окружающей среды, природные ресурсы, устойчивое развитие, загрязнение, экологическая безопасность, атмосфера.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Bugungi kunda global miqyosda ekologik muammolar insoniyat hayoti va tabiatning muvozanatiga sezilarli ta'sir ko‘rsatmoqda. Iqlim o‘zgarishi, ifloslanish, biologik xilma-xillikning kamayishi va tabiiy resurslarning ortiqcha iste'moli kabi muammolar barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda katta to‘siq bo‘lmoqda. Barqaror rivojlanish atamasi iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanatni uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, ekologik muammolarni hal etish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish barqaror rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ekologik muammolarning global tus olishi XXI asrda butun insoniyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy madaniy taraqqiyotiga eng katta tahdid solayotgan xavf sifatida qaralmoqda. Atmosfera, suv va tuproqning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va tanqisligi barqaror rivojlanishni ta'minlashga to‘sqinlik qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, tabiiy resurslar va suvdan oqilona foydalanish va ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish muhim strategik vazifaga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasida oxirgi yillarda ekologiya sohasida izchil islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, mintaqaviy ekologik muammolar o‘z yechimini to‘liq topgani yo‘q. Shu bois ilmiy tahlil asosida zamonaviy ekologik mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДЫ / MATERIALS AND METHODS). O‘zbekistonda ham ekologik soha bilan bog‘liq muammolar atroflicha tadqiq qilingan. Shu jumladan, S.Mamashakirov, H.Ahmedov [2], G‘.Pardayev, A.Nig‘matov, O.Qosimov, U.Xo‘janazarov, A.Qo‘ldoshev, X.Aliqulov va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida barqaror ekologik taraqqiyot va xavfsizlikning milliy, hududiy va global muammolari bayon etiladi. B.Alixonov, G.Abdullayeva, M.Bahodirov, N.Ikramova, T.Tillayev [8] va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

O‘zbekiston va xalqaro ekologik tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan ochiq manbalarga tayaniladi, taqqoslash tarixiylik, sintez, tahlil umumlashtirish, kabi mantiqiy uslublardan foydalanilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Hozirgi kunga kelib, mintaqada aholi sonining keskin ortishi atmosfera havosining sezilarli darajada ifloslanishi va uning salbiy oqibatlari va suvga bo‘lgan ehtiyojning ortishi, yangi yerlarni jadal noo‘rin o‘zlashtirilishi, suv taqchil bo‘lgan yillarning doimiy takrorlanib turishi, suvga bo‘lgan ehtiyojning yil sayin tobora ortib borishi va suv resurslarining tanqisligi va sifat darajasining pasayib borishi sayyoramizdagi eng chiroyli suv havzalaridan biri bo‘lgan Orol dengizining qurishiga olib keldi. Butun insoniyat ko‘z o‘ngida dengiz halokatga yuz tutmoqda. Bundan tashqari chiqindilarni boshqarish, ularni ayrim turlarini qayta ishlash muammosi, shu bilan bir qatorda biologik xilma-xillikning qisqarishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, ekologik ta'lim va aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish barqaror rivojlanishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ekologik ongli jamiyatgina tabiat va inson o‘rtasidagi muvozanatni saqlab qoladi. Ekologik barqaror rivojlanishni ta'minlashda davlat siyosati asosiy o‘rin egallaydi. Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlar, ekologik dasturlar va xalqaro hamkorlik ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki ekologik muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega [3].

Ekologik vaziyatni baqarorligini saqlash maqsadida Respublikamizda bir qancha qaror va qonunlar qabul qilingan, Ekologik qonun talablarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun ma'muriy javobgarlik masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ta'kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning VIII bobi “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik” deb nomlangan bo‘lib, xususan ushbu kodeksning 79-moddasida quyidagicha javobgarlik masalasi nazarda tutilgan: “Daraxtlar, butalarni, boshqa o‘rmon o‘simliklari va nihollarni g‘ayriqonuniy ravishda kesish, shikastlantirish yoki yo‘q qilish fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa, o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab

bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 49-moddasida ham atrof muhitni asrash, uni muhofaza qilish masalasi aniq ifodalangan. Unda “Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘radi” [1] deb atroflicha talqin qilingan.

NATIJALAR (РЕЗУЛТАТЫ / RESULTS). Yuqoridagilardan ko‘rinadiki har bir shaxs tabiatni asrash, uni muhofaza qilishga haqli va bu qonun bilan belgilanadi. Atrof-muhitni barqarorligini ta’minlash bugungi kunning dolzarb mavzusiga aylanmoqda. Sababi iqlimning haddan ziyod isishi va haddan ziyod sovib ketishi va azon qatlamining yemirilishi oqibatida bir qancha kasalliklarni tarqalishiga va insonlar salomatliga salbiy ta’sir ko‘rsatishiga olob kelyapti. Misol uchun buqoq, nafas siqilishi, har xil turdagi onkologik kasalliklar shular jumlasidandir. Hozirgi vaqtga kelib shiddatli ekologik globallashuv jarayonida atrof muhitni ifloslanishi, tuproqni sho‘rlanishi, havoni ifloslanishi, suvga bo‘lgan talabni oshi natijasida, bir qancha tabiat unsurlari va noyob hayvon turlarini yo‘qolishiga, o‘simliklar olamini ishdan chiqishiga va qurg‘oqchilik oqibatida tabiat juda ko‘p yo‘qotishlarga duch keldi. Buning natijasida ekologik barqaror rivojlanish izdan chiqdi. Insonlarda ekologik bilimnining ijtimoiy-ekologik siyosat sohasining shakllanishi va rivojlanishi mamlakatda ekologik barqarorlikni ta’minlashga juda katta hissa qo‘shadi [4].

Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun birinchi navbatda umummilliy miqyosdagi ekologik faoliyatni yo‘lga qo‘yish zarur. Chunki mamlakatdagi ekologik vaziyat o‘z barqarorligini stixiyali ravishda vujudga keltirishi mumkin emas. Har qanday jamiyatdagi ekologik munosabatlar tartibga solish va muvofiqlashtirishni taqozo qiladi.

“Davlat ekologik siyosatining strategik maqsadi - barqaror rivojlanishga erishish - uni ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa siyosatchilar bilan birlashtirgan davlat siyosatining bir qismi sifatida g‘oyasi eng to‘liq bo‘ladi” [7].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONSLUSION). Xulosa qilib aytganda, ekologik barqaror rivojlanish zamonaviy jamiyatimiz taraqqiyotining ajralmas bo‘lagi, qismi hisoblanadi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va ekologik ongni shakllantirish orqali barqaror kelajakni ta’minlash mumkin. Ushbu jarayonda davlat, jamiyat va har bir shaxsning mas’uliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.03.2023.
2. Axmedov H. Barqaror ekologik taraqqiyotning ijtimoiy-falsafiy asoslari: Falsafa fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent. 2016. – 198 b.
3. Karimov I. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
4. Axmedov H. Barqaror ekologik taraqqiyotning ijtimoiy-falsafiy asoslari: falsafa fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2016. – 198 b.
5. G‘ulomova R.B. Orolbo‘yi mintaqasida davlat ekologik siyosatini takomillashtirish zaruriyati. – Namangan: NamDU ilmiy Axborotnomasi, 2024. 4-son. – B. 432-436.
6. G‘ulomova R. Davlat ekologik siyosating ijtimoiy siyosati. – Toshkent: O‘zMU xabarlari jurnali, 2024. 1-son. – B. 93-96.
7. G‘ulomova R.B. Ijtimoiy ekologik siyosatning alohida soha sifatida shakllanishining ilmiy-amaliy asoslari. – Namangan: NamDU ilmiy Axborotnomasi, 2025. 1-son. – B. 429-533.
8. Тилляев Т. С. Аннотированный перечень международных договоров Республики Узбекистан и национальных актов в области охраны и рационального использования биологического разнообразия // Биоразнообразие Узбекистана – мониторинг использования. – Ташкент. 2007.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 8.81-13.(321)

OZOD SHARAFIDDINOV TANQIDIY MEROSINING ADABIYOTSHUNOSLIKDAGI O‘RNI VA XUSUSIYATLARI

Raxmatova Marjona, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti

THE ROLE AND DISTINCTIVE FEATURES OF OZOD SHARAFIDDINOV’S CRITICAL LEGACY IN MODERN LITERARY STUDIES

Rakhmatova Marjona, 1st-year Master’s student, Uzbekistan State University of Journalism and Mass Communication

МЕСТО И ОСОБЕННОСТИ КРИТИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ ОЗОДА ШАРАФИДДИНОВА В СОВРЕМЕННОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Рахматова Маржона, магистрант Узбекского государственного университета журналистики и массовых коммуникаций

e-mail: marjonaraxmatova878@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Ozod Sharafiddinovning adabiyotshunosligimizdagi adabiy-tanqidiy qarashlarining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada olimning tanqidiy yondashuvlari, uslubi va adabiyotimiz ravnaqiga qo‘shgan hissasi o‘rganiladi. Tahlil jarayonida uning asarlari va tanqidiy maqolalari misol qilib keltiriladi. Natijada esa muallifning tanqidiy qarashlari zamonaviy adabiyotimiz tahlilida muhim ahamiyatga ega ekanligi va o‘ziga xosligi ko‘rsatib beriladi*

Kalit so‘zlar: *adabiy tanqid, adabiyotshunoslik, badiiy-estetik tahlil, munaqqid tafakkuri, ijodiy yondashuv.*

Annotation: *This article analyzes the distinctive aspects of Ozod Sharafiddinov’s literary-critical views in our literary studies.The article examines the scholar’s critical approaches,style, and his contribution to the development of our literature.In the course of the analysis, his works and critical articles are cited as examples.As a result, it is demonstrated that the author’s critical perspectives are of significant importance and originality in the analysis of contemporary literature.*

Key words: *literary criticism, literary studies, artistic and aesthetic analysis,critic’s worldview, creative approach*

Аннотация: *В данной статье анализируются своеобразные особенности литературно-критических взглядов Озода Шарафиддинова в узбекском литературоведении. В статье рассматриваются критические подходы ученого, его стиль и вклад в развитие нашей литературы. В ходе анализа в качестве примеров приводятся его произведения и критические статьи. В результате показывается, что критические взгляды автора имеют важное значение в анализе современной узбекской литературы и отличаются своей самобытностью.*

Ключевые слова: *литературная критика, литературоведение, художественно-эстетический анализ, критическое мышление критика, творческий подход.*

Adabiy tanqid sohasida o‘ziga xos iz qoldirgan olimlardan biri Ozod Sharafiddinovdir. Uning tanqidiy merosi o‘zbek adabiyotining adabiy-tanqidiy tafakkuri va badiiy-estetik usullarini boyitgan. Munaqqidning tanqdiy qarashlari o‘zbek adabiyotining ruhiy va ma’naviy me’yorlarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan olib qaralganda, adabiy tanqidda yangilanish jarayoni ikki omilga bog‘liq deb qaraladi. Ichki omil bu tanqidchining o‘z ichki tafakkuri, iste’dodi va badiiy asarlarni chuqur anglash qobiliyati bo‘lsa, ikkinchisi turi sifatida qaralgan, tashqi omilda dunyoqarash va ijtimoiy-ma’naviy o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Birinchi prezidentimiz I.Karimov ta’kidlaganidek: “Insonga xos orzu-intilishlarni ro‘yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o‘ylaymanki, o‘rinli bo‘ladi. Qachonki ana shu ikki muhim omil o‘zaro uyg‘unlashsa, tom ma’nodagi qo‘sh qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o‘sish-o‘zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo‘ladi.”[1]

Darhaqiqat, adabiy tanqid tafakkuridagi yangilanish va o‘sish jarayoni eng avvalo ichki omil munaqqidning “men”i, shaxsiyati, dunyoqarashi, intuitsiyasi, tafakkur tarzi va iste’dodiga bog‘liq. Ozod Sharafiddinovning tanqidiy qarashlarida ham mana shunday har ikki omilni ko‘ramiz, ya’ni yangi tahlil prinsiplari va konsepsiyalar, tanqidchining ichki tafakkuri va munaqqid dunyoqarishidagi yangilanish yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bois, har ikkala omil adabiy tanqidning yangilanishida asosiy ro‘l o‘ynaydi va tashqi omillar bilan uyg‘unlashganda, tanqid tafakkurida haqiqiy yangilanish va rivojlanish sodir bo‘ladi. Ozod Sharafiddinov adabiy tanqid va uning muammolariga chuqur e’tibor qaratgan olimlardan biridir. Uning “Talant xalq mulki” nomli asarida, munaqqidning yosh avlod ijodiy ishlari haqidagi bir qator tanqidiy maqolalari hamda she’riyat rivoji va uning istiqbollariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlari o‘z o‘rnini topgan. Bundan tashqari “Tanqidchilik kasbi haqida” maqolasida tanqidchida bo‘lishi lozim bo‘lgan uch muhim xislatga e’tibor beradi:

“Bularning birinchisi - adabiyotdagi go‘zallikni, g‘oyaviy va badiiy boylikni his qila bilishdir. Boshqacha qilib aytganda, tanqidchi bo‘lishni istagan odamda, birinchi navbatda, estetik tuyg‘u benihoya o‘tkir bo‘lishi lozim, u san’at go‘zalligini nozik his qila bilishi, badiiy adabiyotdan chinakamiga zavqlana olishi shart.”[2]

Ikkinchi fazilat sifatida olim, tanqidchi fikrlash qobiliyati va undagi uzviylikni namoyon qiladi. Tanqidchi o‘qigan asarlarini chuqur idrok etishi, ularni tahlil qila bilishi, voqea va hodisalarni, xarakterlarni hayotiy tajribalar bilan solishtira olishi lozim. Shu taqqoslar orqali nafaqat adabiyot, balki jamiyat uchun ham foydali, muhim xulosalar va umumlashmalar chiqarish imkoniga ega bo‘lishi kerak. Tanqidchilikning uchinchi, eng muhim fazilati esa so‘z san’atiga bo‘lgan ehtiros, jonli muhabbatdir. Ozod Sharafiddinov fikricha, adabiyotga butun qalbi bilan sodiq qolgan, unga samimiy fidoiylik ko‘rsatadigan shaxsgina haqiqiy tanqidchi sifatida tan olinadi. Shu talablarga u butun umr davomida sodiq qolishga intildi va ularga amal qildi. Bundan tashqari jurnalistlarimiz tomonidan “Adabiy tanqid va yangicha tafakkur” nomli mavzuda suhbat olib borilganda tanqidchiga gazetamiz sahifalaridagi bugungi kunning qahramoni siymosini yaratish bilan bog‘liq fikr-mulohazalar xususida savol berilganda, munaqqid shunday javob beradi: “Men o‘ylaymanki, adabiyot o‘zining ocherk, esse, muammoli maqolalar, publitsistika kabi tezkor, jangovar janrlarida bu ishni amalga oshirmog‘i kerak. Yozuvchilarimiz bu vazifani bajarish bobida ancha samarali mehnat ham qilishyapti. Misol tariqasida Odil Yoqubovning “Qashqadaryo gurunglari” ocherkini yoxud “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida e’lon qilingan bir qator sahifalarni eslash mumkin.”[3] Shu bilan birga tanqidchi o‘zbek xalqi ichidan ham boshqa xalqlardan chiqqani kabi ham o‘tmishda, ham hozirgi davrda ham ajoyib qahramonlar yetishib chiqqanligi haqida, adabiyotda ular to‘g‘risida ko‘plab dostonlar, ertaklar, rivoyatlar, qissalar, romanlar yaratilganligi, “Alpomish”,

[1] *Karimov I.* Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.-T.: Ma’naviyat, 2008. 67- bet.

[2] *Sharafiddinov O.* Talant xalq mulki.- T.: Yosh gvardiya. 1979, 174-bet

[3] Sharafiddinov O. Olamning qalbi yoxud kitob mening taqdirimda.Toshkent :”Ma’naviyat”,2012.-141-bet

“Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi asarlarni misol tariqasida eslatib o‘tadi. Shu o‘rinda maktabda adabiyotshunoslik fanini o‘qitishga alohida to‘xtalib o‘tadi. Adabiyotga bir tomonlama yondashish maktab o‘quvchilari o‘rtasida kuchli. Tanqidchi o‘rta maktabni bitirgan o‘quvchilarning insholari bilan tez-tez tanishib turishi haqida aytib, ularning odatda temir qolipga o‘xshash qat’iy bir plan bilan yozilisini aytadi. Bu reja esa “Kirish, asosiy qism va xulosa” degan uch qismdan iborat. Bu haqda munaqqid hozirgi insholarning yozish tajribasining nuqsonlari, metodikadagi kamchiliklarini emas, balki “Xulosa” qismidagi gaplar xususida gapiradi. Insho qaysi mavzuga bag‘ishlangan bo‘lmasin, unda romanmi, poemami, drammani tahlil qilinmasin qahramonlari qanchalik xilma-xil bo‘lmasin, baribir bir xil xulosa bilan yakunlanadi. Tarixiy asarlar haqidagi insholarning hammasida “biz bu asarlarni o‘qib o‘tmishdan nafratlanamiz , hozirgi kunimizga muhabbatimiz yanda ortadi”, deb yozishadi. Zamonaviy asarlarning tarbiyaviy ahamiyati haqida ham bir xil gap aytiladi: “Biz bu asarni o‘qib ona Vatanimizni yanada ortiqroq sevamiz”. Adabiyotga bunday bir yoqlama munosabatni vulgar utilitarizm deb atash mumkin. “Utilitar” so‘zi lotincha bo‘lib, foydali degan ma’noni anglatadi. Vulgar utilitarizm estetik didni toshga solingan arradek utmaslashtiradi.

Buning asosiy sababi shundaki, biz ko‘pincha adabiyot haqida fikr yuritganimizda uning spesifik xususiyatini e’tibordan soqit qilib quyamiz. Biz adabiyot-voqelikning in’ikosi ekanini yaxshi bilamiz, ammo uni inki’osi emas obrazli in’ikosi ekaniga e’tibor bermaymiz. Olim shu o‘rinda kitobxonning roli benihoya katta ekanligiga alohida to‘xtalib o‘tadi. Kitobxonni, estetik didi baland adabiyot muxlisini tarbiyalashda maktabning roli katta ekanligini ta’kidlaydi. Maktablarda adabiyot o‘qitishga e’tibor berilishini, bu sohada ba’zi tutatishlarni amalga oshirish lozimligini aytib o‘tadiar. Ayniqsa, beshimchi sinfdan o‘ninchi sinfgacha adabiyot tarixini, adabiy o‘qish darsini o‘tgan oquvchi adabiyotning go‘zalligini his qila olsin deydi. Uning qalbi adabiy asar bera oladigan barcha ma’naviy boyliklarni sig‘dira oladigan kuchga ega bo‘lishini, u haqiqat, adolat, vijdon, to‘g‘rilik degan jihatlarni aqlan emas, qalban ham his qilsin deydi. Adabiyot uning hayotida shunday o‘rin olsinki, biror kunini badiiy asarsiz tasavvur qila olmasin. Kitob uning uchun suv va havodek zarur bo‘lishi lozimligini alohida ta’kidlab, kitobxonlik madaniyatini oshirishga chaqiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, tanqidchi adabiy tanqidda yangilanish jarayonini chuqur o‘rganadi. Tanqidchining uch asosiy fazilati -estetik sezgi, fikrlash va tahlil qobiliyati hamda adabiyotga sodiqlik bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, u tanqidni zamonaviy janrlar orqali amalga oshirish va yozuvchilar ijodini hayotiy tajriba bilan bog‘lash muhimligini ko‘rsatadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Ozod Sharafiddinovning tanqidiy qarashlari o‘zbek adabiyotining ruhiy va ma’naviy rivojlanishiga, tanqid tafakkurining yangilanishiga katta hissa qo‘shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma’naviyat, 2008.

2. Sharafiddinov O. Talant xalq mulki.-T.:Yosh gvardiya.1979.

3.Sharafiddinov O. Olamning qalbi yoxud kitob mening taqdirimda. Toshkent: Ma’naviyat”, 2012.

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 8.81-13.(321)

TURIZMGA OID MATNLARDA UMUMMILLIY, MAHALLIY, MILLIY-MADANIY BIRLIKLAR IFODASI

[1]Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi,
O‘z MU Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasi mudiri, f.f.d.(DSc), professor
[2]Adizova Nilufar Istamovna,
Buxoro davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika” kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

THE EXPRESSION OF UNIVERSAL-NATIONAL, LOCAL, AND NATIONAL-CULTURAL UNITS IN TOURISM-RELATED TEXTS

[1]Nilufar Abdurakhmonova Zaynobiddin qizi,
Head of Department of Computational and applied Linguistics National University of Uzbekistan
[2]Adizova Nilufar Istamovna,
Associate Professor of the Department of Uzbek Linguistics and Journalism, Bukhara State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

ВЫРАЖЕНИЕ ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНЫХ, ЛОКАЛЬНЫХ И НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ЕДИНИЦ В ТЕКСТАХ, СВЯЗАННЫХ С ТУРИЗМОМ

[1]Нилуфар Абдурахмонова Зайнобиддин кызы,
Заведующая кафедрой компьютерной и прикладной лингвистики национального университета Узбекистана
[2]Адизова Нилуфар Истамовна,
доцент кафедры узбекского языкознания и журналистики Бухарского государственного университета, доктор философии (PhD) по филологическим наукам

[1]n.abduraxmonova@nuu.uz https://orcid.org/0000-0001-9195-5723
[2]nilufaradizova991@gmail.com. https://orcid.org/0000-0002-2342-4848

Annotatsiya: *Ushbu maqolada individlar tomonidan madaniylashuv jarayonida o‘zlashtiriladigan shaxs tuzilmasi, dunyo manzarasi va xulq-atvor shakllari uchun o‘ziga xos “model” vazifasini bajaruvchi turizmga oid milliy-madaniy nomlarning madaniy axborotni saqlashi, uzatishi hamda jamiyat hayotida tutgan o‘rni, shu bilan bir qatorda, muayyan voqealar, vaziyatlar, shaxslar, obyektlar, predmetlarni aks ettiruvchi asosiy til vositalari – ramziy birliklar sifatida kodlanishining umummilliy, milliy-madaniy, mahalliy xususiyatlari misollar asosida ilmiy, tasnifiy jihatdan yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar. *Dunyo manzarasi, konsept, madaniyat, umummilliy, mahalliy, milliy, mentalitet, model, mental birliklar, artefaktlar...*

Abstract: *This article scientifically and systematically analyzes, with illustrative examples, the role of tourism-related national-cultural names that function as specific “models” for personality structure, worldview, and behavioral patterns acquired by individuals in the process of enculturation. It examines their role in preserving and transmitting cultural information and their place in social life. Additionally, the study highlights their national, ethnocultural, and local characteristics as symbolic linguistic units encoding particular events, situations, individuals, objects, and phenomena.*

Key words: *worldview, concept, culture, universal-national, local, national, mentality, model, mental units, artifacts.*

Аннотация: *В данной статье на научной и классификационной основе, с привлечением примеров, освещаются общенациональные, национально-культурные и локальные особенности национально-культурных наименований в сфере туризма, выполняющих функцию своеобразной «модели» структуры личности, картины мира и форм поведения, усваиваемых индивидами в процессе инкультурации. Рассматривается их роль в сохранении и передаче культурной информации, а также их место в жизни общества. Кроме того, данные наименования анализируются как основные языковые средства – символические единицы, кодирующие определённые события, ситуации, личности, объекты и предметы.*

Ключевые слова: *картина мира, концепт, культура, общенациональный, локальный, национальный, менталитет, модель, ментальные единицы, артефакты.*

Kirish (Introduction/Введение). Til va madaniyat murakkab, o‘zaro bog‘liq, bir-birini to‘ldiruvchi munosabatlar bo‘lib, madaniyat tilda aks etadi, shu bilan birga, tilning o‘zi ham madaniyatni yaratuvchi muhim omildir. Bugun internet-kommunikatsiyaning roli tobora ortib borayotgan bir paytda ijtimoiy va tarixiy hodisalarni aks ettiruvchi ramziy birliklarga e’tibor yanada kuchaymoqda. Bu kabi birliklar orasida **madaniy konseptlarni aks ettiruvchi *pretsedent nomlar* muhim ahamiyat kasb etadi.** Ular madaniy konseptlarni bilish, muayyan voqea-hodisalarni ifodalash, **muvaffaqiyatli madaniyatlararo muloqot**ni ta’minlash hamda millatlararo diskursiv makonni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Faqat lingvomadaniy bilimlar asosidagina pretsedent ismlar sifatida shakllangan so‘zlarning ma’nosini to‘g‘ri anglash mumkin. Chunki ular turli ijtimoiy-madaniy konseptlarni ifodalaydi. Madaniy jihatdan muhim ma’lumotlar obyekt – qahramon yoki voqelikning milliy xususiyatlari va o‘ziga xos belgilari orqali yetkaziladi. Ular, odatda, keng tanilgan matn bilan bog‘liq individual ism, til sohiblariga yaxshi tanish bo‘lgan va pretsedent vaziyat sifatida namoyon bo‘luvchi holat bilan bog‘liq nom, muayyan konseptlarni ifodalovchi etalonning ramziy nomi shaklida aks etadi [1, 185].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (Materials and methods / Литература и методология). Slishkin G.G. fikricha[2,128], pretsedent fenomenlar lingvomental birliklar bo‘lib, ular madaniyat va til orqali shakllanadi, inson ongida aks etadi hamda milliy lingvomadaniy jamoaning dunyo, ijtimoiy munosabatlar, axloqiy-me’yoriy kategoriyalar haqidagi kognitiv hamda ma’naviy jihatdan qimmatli tasavvurlarini ifodalaydi. U konseptlarni inson tafakkur kodining asosiy elementlari sifatida aksiologik (qadriyatlarga asoslangan) xarakter kasb etishini quyidagi tartibda guruhlaydi **(1-chizmaga qarang):**

1-chizma. Konseptlarning aksiologik jihatdan guruhlanishi

Konseptuallashtirish natijasida lingvospetsifik kalit konseptlar – “mentefaktlar – mental birliklar”, jumladan pretsedent fenomenlar – madaniyat “artefaktlari (moddiy shaklga ega predmetlar – inshoot, madrasa, turli obyektlar…)” jamiyatning an’analari va urf-odatlarini anglash uchun o‘ziga xos “model” – “bebaho kalitlar”ga aylanadi hamda muayyan madaniyat uchun prinsipial ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar majmuyini tashkil etadi [3,34].

Muhokama (Discussion / Обсуждение). Pretsedent hodisalar haqidagi nazariya asoschilaridan biri D.B.Gudkov tilni o‘zlashtirishning milliy-madaniy va qomusiy darajasi bilan bog’liq bo‘lgan ayrim voqea, fakt, nom, matnlarni pretsedent hodisalar sifatida baholaydi. O‘zbek olimlaridan D.Xudoyberganova, M.Yo‘ldoshev nazariy qarashlarida ham ko‘pchilikka tanish, ular xotirasida saqlangan bu kabi birliklarning nutqda aktuallashgan ko‘rinishlari pretsedent birliklar ekanligi aytiladi[4,87]. Demak, fikrlardan ham ko‘rinib turibdiki, pretsedent nomlar muayyan lingvomadaniy hamjamiyat vakillariga tanish, o‘ziga xos tarzda kodlanib, *eslatish* (muayyan fenomen asosida boshqa bir voqea-hodisa, shaxs, predmet yoki obyektni yodga soladi) hamda *ishora qilish* (ma’lum bir millatda mashhur bo‘lgan, o‘sha til sohiblari uchun muayyan tasavvurni hosil qila oladigan, ommalashgan matn birliklari) xususiyatga ega birliklar sifatida ma’lum darajada assotsiatsiyalar hosil qila oladigan mashhur, madaniy nomlardir.

Natijalar (Results / Результаты). Bugun dunyo hamjamiyati nigohida bo‘lgan tarixiy shaharlar – Buxoro, Samarqand, Xiva kabi hududlarda yashagan buyuk allomalar, tarixiy shaxslar, voqea-hodisalar, milliy taomlar, milliy kiyimlar, inshootlar, geografik joy nomlari hamda urf-odat va an’analar nomlari nafaqat xalqimiz tafakkurida, balki dunyo ahli dunyoqarashida ham muayyan assotsiatsiyalarni hosil qila oladi. Shunga ko‘ra, dunyo va mahalliy aholi dunyoqarashida muayyan assotsiatsiyalar, milliy identitetni hosil qilishi jihatidan ushbu birliklarni quyidagi tartibda guruhlarga ajratish mumkin (2-chizmaga qarang):



2-chizma. Pretsedent nomlarning assotsiativ guruhlanishi

Universal (umummilliy) birliklar. *Ushbu birliklar butun insoniyat dunyosi yoki juda keng ijtimoiy-siyosiy, tarixiy, mifologik, diniy, adabiy, ilmiy madaniy makon doirasida tanilgan shaxslar, narsa-buyum yoki muayyan joy nomlari.*

Sayohatchilar diqqatini jalb etuvchi turizm bilan bog‘liq matnlarda mashhur shaxslarning nomlari juda keng tarzda aks etgan. Garchi ushbu shaxslar qomusiy olimlar sifatida ilm-fanning turli sohalari bo‘yicha ulkan ishlarni amalga oshirgan bo‘lsalar-da, muayyan bir sohada beqiyos shuhrat qozonishgan hamda ular nafaqat o‘zbek, balki umuminsoniy madaniyatda ham ulkan rol o‘ynagan, dunyo ilm-fani taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan, o‘zining olamshumul ishlari orqali yaxshi tanilgan shaxslardir. Masalan, Al Xorazmiy nomi matematik, Al Beruniy nomi geografik, Ulug‘bek nomi astronomik (yulduzlar ilmi) bilimlarni yodga soladi. Quyida ayrim misollarni matnlar asosida ko‘rib chiqamiz:

Xorazmiy *algebra faniga asos solgan va bu fan atamasi uning “Al-jabr val-muqobala hisobi*

haqida qisqacha kitob” asari nomidan kelib chiqqan… (“Buyuk ajdodlarimiz” asaridan, 19-bet)

Imom al Buxoriy nomi esa butun dunyo islom olamida mashhur bo‘lib, uning ismi bevosita hadislarga ishora qiladi.

Mazkur nomlarni jadval asosida quyidagi tartibda taqdim etish mumkin (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Pretsedent nomlar va ularga ishora

№	Pretsedent nomlar assotsiatsiyasi	Misollar	Ularga ishora
1.	**Universal birliklar**	**Al Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Imom al Buxoriy, Ulug‘bek, Abu Rayhon Beruniy**	**matematik bilimlarga ishora; tibbiy bilimlarga ishora; sahih hadislarga ishora; koinot ilmi (yulduzlar) ga; geografik bilimlar (globus) ga**
2.	**Milliy birliklar**	**Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi**	**qudratli, birlashgan davlat; vatanparvarlik;**
3.	**Mahalliy birliklar**	Sayyid Olimxon, Fayzulla Xo‘jayev, **Ark qal’asi, Minorayi Kalon, “Somoniylar” maqbarasi**	Buxoroning so‘nggi amiri, so‘nggi hukmdor; Buxoro Muvaqqat Respublikasining ilk rahbari; Siyovush voqeasi; Arslonxon voqeasi; adolatparvar, xalqparvar boshqaruv

Milliy birliklar *muayyan millat yoki lingvomadaniy jamoa vakillari ongida mustahkam o‘rnashgan, tarixiy, adabiy, nominativ, diniy yoki ijtimoiy manbalarda kalit so‘z sifatida qo‘llanuvchi mashhur nomlar.* Ular, asosan, mazkur millat doirasida tushunarli bo‘lgan va boshqa madaniyat vakillari uchun maxsus izohni talab qiladigan birliklardir. Bu kabi nomlar faqat muayyan xalq yoki madaniyat doirasida keng tanilgan bo‘lib, xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari va xotirasini aks ettiradi. Masalan, xalqimiz tafakkurida Jaloliddin Manguberdi nomi vatanparvarlik, jasorat, Amir Temur qudratli davlatni, Fitrat nomi jadidlar harakatini eslatadi.

Mahalliy pretsedent birliklar *muayyan hudud, shahar, qishloq yoki kichik ijtimoiy-madaniy jamoa doirasida shakllangan, o‘sha muhit vakillari uchun umumiy bilim, ibrat va tajribaga aylangan nomlar.* Ushbu birliklar muayyan hududda – tor doirada tanilgan bo‘lib, keng milliy yoki umuminsoniy makonda aniq tasavvurlarni uyg‘ota olmasligi mumkin. Masalan, Sayyid Olimxon, Fayzulla Xo‘jayev, Mahmud Torobiy kabi shaxs nomlari yoki “Ark” qal’asi, “Minorayi Kalon” kabi pretsedent birliklar ma’lum hududga xos mahalliy xususiyatlarga ega bo‘lib, ular mahalliy voqeliklar asosida o‘zining muhim jihatlarini namoyon etadi:

Ark qal’asi nomi madaniy jamoaga Eron shahzodasi Siyovush haqidagi rivoyatni eslatadi. Ushbu voqeaning go‘zal ifodasi mashhur fors shoiri Firdavsiyning “Shohnoma” asarida keltirilgan bo‘lib, unda yozilishicha, *Eron shohi Kaykovusning o‘g‘li Siyovush jang-u jadallarda bahodirlarni yengib, mislsiz shuhrat qozonibdi. Kaykovusning kenja malikasi (rafiqasi) Sudoba navqiron pahlavonni sevib qolib, uni rom etish uchun turli makr-u hiylalar, tuhmatlar qila boshlabdi. Biroq Siyovush o‘gay onasining ishqiy intilishlarini qat’iyan rad etibdi. Alamiga chiday olmagan malika shahzoda uning nomusiga tegmoqchi bo‘lgani haqida tuhmat qilib, podshoga arz qilibdi. G‘azablangan Kaykovus o‘g‘lini gulxanda kuydirishni buyuribdi. Biroq gunohsiz*

shahzodaga gulxan aslo ta'sir qilmabdi. Shundan keyin Siyovush o'z yurtini tark etib, Turon diyoriga bosh olib ketibdi. Turon hukmdori Afrosiyob Siyovushni izzat-ikrom qilib, qizi Ferangisni unga nikohlab beribdi va unga ho'kiz terisi hajmidagi yerni in'om qilibdi. Siyovush shu yerda qarorgoh bunyod etib, baxtli umr kechiribdi (hozirda bu qarorgoh "Ark" deb nomlanadi)…

Minorayi Kalon. Ushbu pretsedent birlik, asosan, Buxoro hududiga oid mahalliy nom bo'lib, Buxoroyi sharifning buyuk sultoni Arslonxon (Muhammadxon ibn Sulaymon binni Ilikxon) tomonidan bunyod etilgan muhtasham minora qurilishi bilan bog'liq me'mor yigit hikoyasini yodga soladi…

Xulosa (Conclusion / Заключение). Yuqoridagi tahlillardan shunday fikrga kelish mumkinki, inshoot va obyektlarning nomlari muayyan voqealarga, hukmdor va tarixiy shaxslarning nomlari siyosiy, ijtimoiy vaziyatlarga, allomalarning nomlari ilm-fan sohalari yoki ularning taraqqiyotiga, milliy kiyimlar, taomlar, narsa-buyumlarning nomlari milliy-madaniy identitet, axloq me'yorlariga ishora qilish orqali o'z ifodasini topadi. Ular ko'pchilikka tanish bo'lib, ularning tasavvurida o'ziga xos madaniy kod ko'rinishida aks etadi.

Adabiyotlar ro'yxati (References / Использованная литература)

1. Гудков Д. Б. Теория и практика межкультурной коммуникации. М: Гнозис, 2003. Стр. 185.
2. Слышкин Г.Г. От текста к символу: Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе / - М., 2000. — 128 с.
3. Волкова Р.А. Прецедентные тексты как сегменты вербального культурного кода. Russian Linguistic Bulletin № 7 (43) ▪ Июль.
4. Худойберганова Д. Матннинг антропосентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. Б.87.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 01.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 8.81-13.(321)

MUSTAQILLIK DAVRI SHE'RIYATIDA ERKINLIK G'OYASINING BADIIY TALQINI

Safarova Madina Vali qizi,
Mustaqil izlanuvchi

ARTISTIC INTERPRETATION OF THE IDEA OF FREEDOM IN THE POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD

Safarova Madina Vali qizi,
Independent researcher

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИДЕИ СВОБОДЫ В ПОЭЗИИ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ

Сафарова Мадина Валиевна,
Независимый исследователь

e-mail:
safarovamadina199408@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mustaqillik davri o'zbek she'riyatida erkinlik g'oyasining badiiy talqini yoritiladi. Istiqlol sharoitida shoirlarning poetik tafakkuri yangilanib, shaxs erkinligi va fikr ozodligi markaziy mavzuga aylandi. Erkinlik g'oyasi she'riyatda ramziy obrazlar, lirik kechinmalar va ichki ruhiy ozodlik orqali ifodalanadi. An'anaviy badiiy tafakkur bilan zamonaviy poetik izlanishlar uyg'unlashuvi mazkur g'oyaning estetik ta'sirchanligini kuchaytirdi. Tadqiqotda erkinlikning badiiy-estetik mohiyati tahliliy yondashuv asosida ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *mustaqillik davri she'riyati, erkinlik g'oyasi, badiiy talqin, shaxs erkinligi, poetik tafakkur, ramziy obraz, ritm.*

Abstract: *This study examines the artistic interpretation of the idea of freedom in Uzbek poetry of the independence period. Under the conditions of independence, poets' poetic thinking was renewed, and personal freedom and freedom of thought became central themes. The idea of freedom is expressed in poetry through symbolic images, lyrical emotions, and inner spiritual liberation. The harmony between traditional artistic thinking and modern poetic explorations enhanced the aesthetic expressiveness of this idea. The artistic and aesthetic essence of freedom is revealed in the study through an analytical approach.*

Keywords: *poetry of the independence period, idea of freedom, artistic interpretation, individual freedom, poetic thinking, symbolic image, rhythm.*

Аннотация: *В данном исследовании рассматривается художественная интерпретация идеи свободы в узбекской поэзии периода независимости. В условиях обретения независимости поэтическое мышление поэтов обновилось, а свобода личности и свобода мысли стали центральными темами. Идея свободы в поэзии выражается через символические образы, лирические переживания и внутреннюю духовную свободу. Сочетание традиционного художественного мышления с современными поэтическими поисками усилило эстетическую выразительность данной идеи. В исследовании художественно-эстетическая сущность свободы раскрывается на основе аналитического подхода.*

Ключевые слова: *поэзия периода независимости, идея свободы, художественная интерпретация, личная свобода, поэтическое мышление, символический образ, ритм.*

KIRISH (Introduction)

“She’r tuyg‘u suvrati. Unda emotsiya, ramz va obraz, badiiy san’at bo‘lishi kerak; she’rda shoir subyekti, individual uslubi, “men”i, o‘z ovozi aks etishi lozim… Chin she’rga qonuniyat tusini olgan bunday o‘nlab nazariy talablar qo‘yiladi”[1]. Lirik kompozitsiya adabiyotning eng nozik, eng chuqur va eng subyektiv turidir. U insonning tashqi dunyo bilan emas, avvalo o‘z ichki olami bilan munosabatini ifodalaydi. Epik asarlarda voqealar, dramatik asarlarda harakat va ziddiyat markazga chiqsa, lirikada shaxsning ruhiy holati, ichki kechinmalari, mavjudlikni his etish tarzi asosiy badiiy obyektga aylanadi. “Adabiyot nazariyasi” kitobida ushbu hodisaga quyidagicha ta’rif beriladi: “Lirik kompozitsiya – umumiy adabiy kompozitsiyaning bir turi, boshqacha aytganda, katta doira ichidagi kichik bir doira. Binobarin, badiiy asar kompozitsiyasiga doir tilga olingan prinsiplar lirik asar kompozitsiyasiga ham daxldordir. Bu – mazmunning, poetik g‘oyaning aniqligi, haqqoniyligi, emotsionalligi va shu poetik g‘oyaga nisbatan qism va obrazlarning muvofiqlik darajasi, tasvir me’yori, joylanish mutanosibligidir”[2]. Shu ma’noda lirika – bu inson qalbining estetik modelidir. Unda muhim bo‘lgan narsa nima bo‘lgani emas, balki u qanday his etilgani, qanday idrok qilingani, ruhda qanday aks etganidir. Shuning uchun lirik matnda “men” kategoriyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq bu “men” shoirning real biografik shaxsi emas, balki badiiy ongda qayta yaratilgan lirik subyektdir. U shoirning ruhiy tajribasi, dunyoqarashi, ichki ziddiyatlari va estetik pozitsiyasining badiiy timsoli sifatida mavjud bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

She’r esa lirikaning asosiy shakli sifatida badiiy tafakkurning maxsus turi hisoblanadi. Xususan, G.Bobobekova: “Lirik kechinma har bir ijodkor ijodida turlicha akslansa-da, uni hosil qiluvchi vositalar ma’lum bir umumiylikka ega. Poetik obraz, ohang, ritm, peysaj, o‘y-xayol, vazn kabilar kechinmani hosil qiluvchi vositalar sirasiga kiradi”, deydi[3]. She’rni faqat hissiyotning bevosita ifodasi sifatida tushunish nazariy jihatdan yetarli emas. U, avvalo, borliqni obrazlar, metaforalar va ritmik tuzilma orqali qayta quradigan poetik fikrlash shaklidir. She’riy tafakkur ratsional mantiqqa emas, balki assotsiativ, ramziy va intuitiv idrokka tayangan holda ishlaydi. Shu sababli she’rda ma’no ko‘pincha ochiq bayon qilinmaydi, balki obraz, ishora va ichki ohang orqali yashirin holda beriladi. Bu esa she’rni ko‘pqatlamli, talqinga ochiq estetik tizimga aylantiradi.

She’rning nazariy asoslarini uch asosiy omil belgilaydi: poetik til, ritm va obrazlilik. Poetik til oddiy kundalik nutqdan farqli ravishda semantik zichlikka ega bo‘ladi. Unda har bir so‘z nafaqat o‘z lug‘aviy ma’nosini, balki estetik yuk, ruhiy ohang va ramziy ma’noni ham tashiydi. She’riy til ko‘pincha metafora, tashbeh, timsol va paradokslar orqali quriladi. “Hech bir she’r lirik kechinmadan xoli bo‘lishi mumkin emas. Zero, adabiyot – inson tuyg‘ularining mahsulidir. Jumladan, she’riyat ruhiy kechinmalar, qalb tug‘yonlari natijasi o‘laroq dunyoga keladi. Shoir qalbining tubida biqqillab qizib turgan hissiy kechinmalar ma’lum bir vaziyat, hissiy ta’sir oqibatida vulqon kabi katta qudratga aylanadi va portlaydi. She’riyat aynan shu hislar portlashining mahsulidir”, deydi Gulrux Xudoyorova “Abdulla Oripov she’riyatida lirik kechinma va poetik tasvir uyg‘unligi” dissertatsiyasida[4]. Aynan shu vositalar orqali shoir ichki kechinmalarni bevosita emas, balki badiiy shakl orqali ifodalaydi. Ritm esa she’rning ichki harakatini ta’minlaydi. U nafaqat vazn yoki qofiya bilan belgilanadi, balki misralar orasidagi ohang, pauza, urg‘u va ichki musiqiylik orqali shakllanadi. Mustaqillik davri she’riyatida an’anaviy aruz yoki sillabik tizimdan voz kechib, erkin she’rning keng

[1] Карим Баҳодир. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б. 86.

[2] Адбиёт назарияси. — Тошкент: «Фан» нашриёти, 1978. — Б. 291.

[3] Бобобекова Г. Замонавий ўзбек шеъриятида лирик кечинма ифодаси. — БМИ. — Гулистон, 2015. — Б. 23.

[4] Худойорова Г. Абдулла Орипов шеъриятида лирик кечинма ва поэтик тасвир уйғунлиги : филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2022. – Б. 11.

tarqalishi aynan lirik ongning erkinlashuvi bilan bog‘liqdir.

Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati, avvalo, ijodiy ongning ozod bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Sovet mafkurasi davrida she’r ko‘proq “ijtimoiy buyurtma”ga bo‘ysungan bo‘lsa – adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshev ta’biri bilan aytganda, bir paytlar me’yorni mafkura belgilab berardi[5] – yangi davrda shoir shaxsiy tafakkuri, ichki kechinmasi, e’tiqodi va estetik tanlovi bilan adabiyot maydoniga chiqdi. Endi she’riyat “nima yozish kerak?” degan savolga emas, “nima his qilaman va qanday ifodalayman?” degan savolga javob izlay boshladi. Bu esa lirikaning chuqurlashuvi, ichki monolog, falsafiy mushohada va ramziy ifodaning kuchayishiga olib keldi.

Shuningdek, mustaqillik davri she’riyati uslubiy rang-baranglik bilan ham ajralib turadi. An’anaviy aruz va barmoq bilan bir qatorda erkin she’r, modernistik va postmodernistik izlanishlar, metaforik uslublar keng yoyildi. She’r tashqi shakldan ko‘ra ichki ritm, ruhiy ohang va ma’no qatlamlariga tayanadigan san’at turiga aylandi. Bu esa she’riy tilning murakkablashuvi, ramzlar va timsollar tizimining boyishini keltirib chiqardi. “Baxtimizga, mustaqillikning sharofati bilan adabiyotshunoslik va tanqidchilkda, xususan she’riyatda ham (ta’kid bizniki) doimiy izlanish kerakligi, adabiyotning ichki go‘zalliklari va boyliklarini to‘laroq ochib berishga qaratilgani yangi imkoniyatlar izlash zarurligi tobora ayon haqiqat bo‘lib bormoqda”[6].

Eng muhim jihat shundaki, bu davrda shoir shaxsiyati markazga chiqdi. Shoir endi “ijtimoiy minbar”dagi notiq emas, balki o‘z ruhiy dunyosi, iztiroblari, e’tiqodi va shubhalari bilan yashayotgan badiiy subyektga aylandi. Shu bois mustaqillik she’riyati ko‘pincha ichki izlanish, yolg‘izlik, ma’naviy mas’uliyat, inson va borliq munosabati kabi muammolarni yoritadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

An’anaviy yo‘nalish: Bu yo‘nalishda barmoq vazni va mumtoz g‘azalnavislik an’analari davom ettirildi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid, Azim Suyun kabi shoirlar xalqona ohanglarni, lirik tuyg‘ularni zamonaviy ruh bilan boyitdilar.

Yurtim, menga zar kerakmas zarlaringdan,
Kipriklarim o‘psalar bas gardlaringdan.
Men bir nasim bo‘lib keldim, men bir nasim,
Aytib o‘tsam deyman ko‘hna dardlaringdan[7].

Keltirilgan misralarda “yurt” obrazi markaziy poetik timsol sifatida talqin qilinadi. Shoir uchun yurt moddiy boyliklar manbai emas, balki ruhiy bog‘liqlik, taqdir va dard manbaidir. “Zar kerakmas zarlaringdan” misrasi orqali oltin va boylik ramziy inkor qilinib, yurtning “gardlari” – ya’ni oddiy tuprog‘i, changi muqaddas darajaga ko‘tariladi. “Kipriklarim o‘psalar bas gardlaringdan” degan obraz esa oshiqona, deyarli tasavvufiy ruhdagi sadoqatni ifodalaydi. Bunda yurt tuprog‘iga sajda qilish, uni eng oliy qadriyat sifatida anglash holati seziladi. Shoir bunday munosabatni rad etib, yurtni sevishning asl mezoni – unga fidoyilik, kamtarlik va sadoqat ekanini ilgari suradi. “Gardlaringdan” so‘zining qarama-qarshi qo‘yilishi esa poetik antitezani yuzaga keltiradi: oltindan ham qimmatli bo‘lgan oddiy tuproq – Vatan timsoliga aylanadi. Aynan shu davrda qalamga olingan Abdulla Oripovning “Yurtim, seni faqat boyliklaring chun sevgan farzand bo‘lsa, kechirma aslo” [8] degan misralari esa mazkur g‘oyani yanada keskinroq, hukm ohangida ifodalaydi. Bu yerda shoir nafaqat shaxsiy e’tiqodini, balki butun jamiyat uchun axloqiy mezon darajasiga ko‘tarilgan talabni ilgari suradi. A.Oripov Vatanga muhabbatni axloqiy imtihon sifatida talqin etadi. Yurtni faqat foyda manbai deb bilgan inson “farzand” maqomiga noloyiqdir. “Kechirma aslo” iborasi esa bu munosabatning murosasiz rad etilishini anglatadi. Mazkur ikki misra o‘rtasida tabiiy g‘oyaviy dialog mavjud. Sirojiddin Sayyid bu masalaga lirizm, samimiylik va tasavvufiy kamtarlik ruhida

[5] Қозоқбой Йўлдошев. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 143.
[6] Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 230.
[7] https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/sirojiddin-sayyid-1958
[8] Абдулла Орипов. Танланган асарлар: 6-жилд. — Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 2013. — Б. 260.

yondashsa, Abdulla Oripov uni fuqarolik lirikasiga xos qat'iy pozitsiya bilan mustahkamlaydi. Biri "men" orqali o'z munosabatini bildirsa, ikkinchisi "sen"ga — Vatanga murojaat qilib, umumxalq nomidan so'zlaydi. Natijada bu misralar bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini to'ldirib, yagona ma'naviy konsepsiyani hosil qiladi. Shu ma'noda, ushbu satrlar mustaqillik davri o'zbek she'riyatining muhim estetik va mafkuraviy belgilaridan birini aks ettiradi. Yurtga muhabbat romantik tuyg'u emas, balki ma'naviy mas'uliyat, tarixiy xotira va axloqiy sadoqat mezoni sifatida talqin etiladi. Sirojiddin Sayyid va Abdulla Oripov ijodida bu g'oya turli poetik shakllarda ifodalansa-da, mazmunan yagona ruh – Vatanga fidoyilik ruhini mustahkamlaydi. She'rda "nasim" timsoli alohida semantik yuk ko'taradi. Lirik qahramon o'zini "bir nasim" – yengil shamol sifatida tasvirlab, yurtga da'vo bilan emas, kamtarlik va xizmat ruhida kelganini ta'kidlaydi. Bu obraz mumtoz she'riyatdagi "nasim", "sabo" motivlarini eslatib, g'azal an'analari bilan uzviy aloqani mustahkamlaydi. "Ko'hna dardlaringdan" iborasi esa yurt tarixidagi og'riqlar, sinovlar va bitmas iztiroblarga ishora qilib, shoirning o'z zamonasini tarixiy xotira bilan bog'lab fikrlashini ko'rsatadi.

Umuman olganda, parcha zamonaviy o'zbek she'riyatida milliy tuyg'u, tarixiy xotira va shaxsiy lirikaning badiiy sintezini ifodalaydi. Barmoq vaznidagi ohangdorlik, xalqona samimiyat she'rni nafaqat estetik, balki ma'naviy jihatdan ham ta'sirchan qiladi.

Metaforik va ramziy she'riyat: Rauf Parfi, Usmon Azim va Shavkat Rahmon ijodida so'zning ko'chma ma'nolari, ramzlar va qochiriqlar birinchi planga chiqdi. Bu yo'nalish o'quvchidan yuksak intellektual tayyorgarlikni talab qiladi.

Daryo mavjlariga yozilmish g'azal,
Maysalar egilib o'qiydir kitob.
Shodlanib xandalar otar bir lahza,
Bir lahza oh tortib qo'yadir oftob[9].

Ushbu misralar poetik tafakkurga xos ramziy-obrazli ifoda asosida qurilgan bo'lib, tabiat va inson ruhiyati o'rtasidagi mushtaraklikni badiiy yuksak darajada aks ettiradi. She'rning ilk misrasi – "Daryo mavjlariga yozilmish g'azal" – tabiat hodisasini badiiy matn darajasiga ko'taradi. Daryo mavjlari go'yo qog'oz, suv esa qalam vazifasini bajarib, g'azal yozayotgandek tasvirlanadi. Bu yerda g'azal timsoli tasodifiy emas. U Sharq mumtoz she'riyatining nozik, tuyg'uga boy janrini eslatadi. Demak, tabiatning o'zi ham ilohiy she'r ijodkori sifatida talqin qilinmoqda. Bu metafora orqali borliqning estetik va ma'naviy mohiyati ochiladi. "Maysalar egilib o'qiydir kitob" misrasi oldingi obrazni davom ettirib, tabiat unsurlarini ongli, idrokli mavjudotga aylantiradi. Maysalarning egilishi – shamol yoki tabiiy harakat emas, balki "kitob o'qish" jarayoni sifatida talqin etiladi. Kitob obrazi bilim, hikmat va ma'rifat ramzidir. Shunday qilib, tabiat nafaqat yozuvchi, balki o'quvchi ham bo'lib namoyon bo'ladi. Bu holat borliqdagi uyg'unlik va o'zaro muloqot g'oyasini kuchaytiradi. Uchinchi misra – "Shodlanib xandalar otar bir lahza" – quvonch holatini ifodalaydi. Xanda otish iborasi orqali tabiatda lahzalik shodlik, hayotiy jo'shqinlik aks etadi. Bu quvonchning "bir lahza" ekanligi esa vaqtning o'tkinchiligi, tuyg'ularning beqarorligini eslatadi. She'r shu nuqtada falsafiy ohang kasb eta boshlaydi. So'nggi misra – "Bir lahza oh tortib qo'yadir oftob" – quvonch va qayg'u qarama-qarshiligini ochadi. Oftobning "oh tortishi" kuchli tasvir bo'lib, quyosh ham inson kabi iztirob chekayotgandek tasvirlanadi. Bu yerda kosmik miqyosdagi obraz orqali insoniy kechinmalar umumlashtiriladi. Quvonchdan so'ng darhol oh, ya'ni dard kelishi hayotning dialektik mohiyatini ifodalaydi. Umuman olganda, mazkur she'riy parcha tabiatni tirik, his qiluvchi, o'ylovchi va ijod qiluvchi mavjudot sifatida talqin etadi. Metafora va ramzlar orqali inson ruhiyati bilan tabiat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ochiladi. "Bir lahza" takrori esa vaqtning o'tkinchiligi, quvonch va iztirobning almashinuvchanligi haqidagi falsafiy xulosani kuchaytiradi. She'r lirik-falsafiy ruhda bo'lib, borliqni estetik idrok etishga chorlaydi.

[9] https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/rauf-parfi-sherlar-2.html

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik davri o‘zbek she’riyati shaxs va badiiyat masalalarining murakkab va serqirra talqini bilan xarakterlanadi. Shoir shaxsi ijod markaziga chiqib, lirik “men” erkin fikrlovchi va izlovchi subyektga aylandi. Badiiy tafakkur esa shakl va mazmun jihatidan yangilanib, individual, ramziy va falsafiy ruh bilan boyidi. Bu jarayon mustaqillik she’riyatini o‘zbek adabiyotining nafaqat milliy, balki umuminsoniy estetik tafakkur bilan uzviy bog‘langan muhim bosqichi sifatida baholash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Адабиёт назарияси. — Тошкент: «Фан» нашриёти, 1978. — Б. 291.
2. Бобобекова Г. Замонавий ўзбек шеъриятида лирик кечинма ифодаси. — БМИ. — Гулистон, 2015. — Б. 23.
3. Карим Баҳодир. Руҳият алифбоси. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б. 358.
4. Йўлдош Қ. Очқич сўз. Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2019. –Б. 685.
5. Худоёрова Г. Абдулла Орипов шеъриятида лирик кечинма ва поэтик тасвир уйғунлиги. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2022. – Б. 11.
6. Қозоқбой Йўлдошев. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 143.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 82-1/-9



e-mail:
genrihuskevic@gmail.com

ТАҲРИРИЯТДАН

Журналимизнинг 2015 йил 2-сонида, таниқли навоийшунос Ваҳоб Раҳмонов тақризи асосида, Абдураҳмонов Алибек Зокировичнинг Навоийнинг “Лисонут тайр” достонини шарҳловчи “Алифбеи тайр” илмий ишини эълон қилганмиз. Таҳририятимизга келган кўпчилик сўровларга биноан “Алифбеи тайр”га яна қайта мурожаат қилмоқдамиз. Бунинг яна бир сабаби журналимизда чоп қилингандан сўнг ҳам А.Абдураҳмоновнинг ушбу илмий изланишлари тўхтаб қолмаганлигидир.

2021 йил 8 февраль куни А.З.Абдураҳмонов Қорақалпоғистон Республикаси номидан ягона иштирокчи сифатида Тошкент шаҳрида бўлиб ўтган “Навоий ва XXI аср” мавзусидаги Халқаро илмий конференцияда онлайн шаклда иштирок этди. Унинг мутахассислиги юрист бўлишига ва адабиётга профессионал алоқаси йўқлигига қарамасдан, филология фанлари доктори, профессор Дилнавоз Юсупова Абдураҳмонов мақоласига эътибор билан ёндашиб, муаллифнинг ушбу нуфузли Халқаро конференцияда иштирок этишини таъминлади. Шу ўринда, Дилнавоз Юсуповага “Алифбеи тайр” мақоласини баҳолашда кўрсатган объектив ёндашуви ва юртдошимизни қўллаб-қувватлагани учун самимий миннатдорчилигимизни билдирамиз.

Мақола қисқартирилган шаклда эълон қилинмоқда.

МУАЛЛИФДАН

Мен “Лисонут тайр” достонининг кўп асрлик “сир”ини очдим деб даъво қилмайман. XX аср бошларига қадар маърифатли ва билимли қатлам, адабий муҳит вакиллари достон рамзий тилини табиий равишда тушунган, уни мавжуд тирик анъанада ўқиган, шарҳлаган.

Бу англаш занжири ўз-ўзидан узилган эмас, тасодифий ҳолат ҳам эмас. У яқин тарихимиздаги 1917-1918 йиллар воқеалари билан боғлиқ, яъни янги ҳокимият томонидан билимли устозлар, уламолар, мутафаккирлар репрессия қилинди, қамалди, отилди, изсиз йўқ қилинди. Уларни йўқ қилиш билан бирга, анъаналарни сақлаб турган таълимий ва маънавий институтлар ҳам барҳам топтирилди. Шундан сўнг матн қолди, аммо унинг маъносини очиб берган тирик калит йўқолди. Кейинги авлодлар учун “Қушлар тили” тушунарли йўл эмас, балки англаб бўлмас рамзлар тўпламига айланди.

Менинг “Алифбеи тайр” деб номланган ишим айнан шу узилган жойдан бошланади. Бу янги маъно ихтиро этиш эмас, балки зўравонлик билан узиб ташланган англаш занжирини қайта улашга бўлган уринишдир. Шу орқали мен достоннинг руҳини (маъносини) тиклаб ёш авлодга тақдим этишга ҳаракат қилдим.

“АЛИФБЕИ ТАЙР” ЁХУД “ЛИСОНУТ ТАЙР”: ЯНГИЧА ТАЛҚИН ВА ТАҲЛИЛЛАР

Абдураҳмонов Алибек Зокирович
Рус тилидан Мунаввара Қурбонбоева таржимаси

Аннотация: *Мақолада Алишер Навоийнинг “Лисонут тайр” достони янгича ёндашув асосида таҳлил қилинади. Муаллиф достонда келтирилган қушлар мажозан турли тоифадаги инсонлар эмас, балки бир инсоннинг ички дунёси, ундаги ўзаро зиддиятлар ва товланишлардир, деган хулосага келади.*

Калит сўзлар: *ботиний уйғунлик, қушлар тили, қушлар бозори, Симурғ.*

Abstract: *The article analyzes Alisher Navoi’s epic poem “Lison ut-tair” from a new perspective. The author concludes that the birds mentioned in the epic are not metaphorically different types of people, but the inner world of one person, its contradictions and conflicts.*

Keywords: *inner harmony, bird language, bird market, Simurgh.*

Таниқли замондошимиз, тиббиёт фанлари номзоди, руҳшунос Владимир Леви ўзининг “Мен ва биз” китобида ёзади: “Ҳар бир инсоннинг миясига ҳар қандай нарса келиши мумкин. Ва бундан қўрқиш керак эмас – миямизнинг ишлаш механизми табиий равишда шундай тузилган”. Ҳар биримиз бу сўзларни ўқиб қувониб кетамиз: “Қандай яхши, мен бўлсам, ўзимни бироз “савдойироқ” деб юрган эдим, маълум бўлишича, бу одатий, меъёрдаги жараён экан!” Ажойиб мутахассисга ташаккур! У бизга вақтида ёрдам берди, қолаверса бу китобни фақат биз ўқиб чиқмагандирмиз ахир? Шундай деб ўйлашимизга қарамасдан, барибир бу тасаллилар бизни тўлиқ қаноатлантира олмади.Кўпдан буён қийнаб келаётган ғайришуурий ўйларнинг барчаси гуноҳ эмаслигига бизни ишонтира оладиган ва қалбимизни поклай оладиган тоғдек мустаҳкам, улуғвор диний бир Пир, улкан Даҳо бизга керак эди. Буларнинг барчасига диний баҳо керак эди.

Ўша чигал муаммога ечим сифатида буюк Навоийнинг жавобидан ўзга ҳикматни билмаймиз:

Зотнинг ижмолиға тафсилсен,
Ҳам вужуд ишколиға таъвилсен.
Ўз вужудунгга тафаккур айлагил,
Ҳар не истарсен ўзунгдан истагил [1].

Навоийнинг “Лисонут тайр” достони “Қушлар бозори” тасвири билан бошланади:

Жамъ ўлуб бир кун гулистон қушлари,
Бешау баҳру биёбон қушлари.
Борча бу манзилда мажмаъ туздилар,
Ҳар бир ўз хайлу сафин кўргуздилар...
...Ҳар гуруҳ эрди ўзига чун азиз,
Истади борча шаҳи соҳибтамиз.
Йўқлиғидин зору маҳзун бўлдилар,
Ҳар бири ўз ҳолиға мағбун бўлдилар.
Яъс оҳангин тузуб тортиб навид
Бўлдилар шаҳдин саросар ноумид.
Бу таабдин ҳар бири кўнглида тоб,
Ним бисмил қушдек айлаб изтироб [1].

Европача маълумот ва таълимга эга бўлган, Эзопдан тортиб Криловгача бўлган “ушбу қиссадан ҳисса шуки” тарзидаги масаллар руҳида тарбияланган бугунги аксарият замондошимиз “қушлар бозори”да ижтимоий муаммоларни кўради: номуносиб одамлар “ёғли жойлар”да ўрнашиб олган; арзийдиган, муносиб одамлар нолойиқ жойларда хору зор бўлиб, муҳтожликда ҳаёт кечирмоқда. Ва достон охиридагина “қушлар бозори” бир шахснинг моҳияти эканлигини хулоса қилиши мумкин. Ҳар бир қуш ўз хусусияти, табиатига эга эканлигини айтиб эътироз билдириш мумкин – битта шахс шу даражада ҳар хиллик касб этиши мумкинмикин? Бир одам машҳур сўфий Абу Язид ал-Бистомийни излаб юриб, унинг эшигини тақиллатди ва “Абу Язидни қаердан топсам бўлади?”, – деб сўради. “Мен ҳам уни қирқ йилдан буён излайман, лекин ҳалигача ҳам топа олмадим!” – деб жавоб берди Абу Язид.

“Қуш бозори” – инсон ички оламининг серқирра олмоси бўлиб, унинг ҳар бир қирраси бир шахснинг турфа сифатини англатади: одамийлик, яхшилик, ёмонлик, ичиқоралик, ғазаб, манманлик, шафқатсизлик, худбинлик ва ҳ.к. Ўзи билан ўзи курашаётган, тирик, вужудга

эга бўлган бу олмосда тегишли ҳокимият – тафаккур ва руҳ ҳукмронлиги ўрнатилмаганлиги туфайли тубан, фоний дунё кучлари, разилликлар ўзлари номуносиб бўлган жойни ишғол қилиб олганлар. “Қушлар издиҳоми”! Шовқин-сурон, бетартиблик! Инсон ички олами зиддиятларига бундан-да яхшироқ мажозий ўхшатиш бормикан? Инсоннинг – биргина шахснинг! Шундай вақт келадики, Навоийнинг ўзи бу қушларни бир бутун қилиб бирлаштиради. Гапнинг ўрни келганда ҳеч кимни аяб ўтирмайдиган рус халқи бундай одамни “Бошида подшоси йўқ” (без царя в голове) дея таърифлаган. Галадаги бу бетартибликлар қушларнинг бундан кейин ҳам шундай давом этиши мумкин эмаслиги, қонун ва тартиб бўлиши лозимлиги ва ниҳоят, уни ўрнатадиган ҳукмдор кераклигини эътироф қилгунларигача давом этади. Ҳудҳуд пайдо бўлади ва “бу телбавор гала”да тартиб ўрнатишга қодир бўлган қушлар шоҳи – Семурғнинг даргоҳига учиб боришни таклиф қилади:

Шуҳрати Симурғ ила офоқ аро,
Зоти мамлу чархи олий тоқ аро.
Сиз тушуб ул шоҳдин беҳад баид,
Ул ёқинроқ сизга мин ҳиблул варид.
Ҳар киши бўлса тирик ондин йироқ,
Ул тирикликдин ўлум кўб яхшироқ [1].

Симурғ деганда Яратган тимсоли назарда тутилаётганлигини тушуниб олмоқ учун Қуръондаги Оллоҳи Таоло ўзини бизга бўйин томиридан ҳам яқинроқ эканлигини айтган оятини ёдга олсак кифоя. Мана шу иккита асос, иккита чизиқ – Худони излаш ва ўз-ўзидаги уйғунликни ахтариш бутун асар бўйлаб ёнма-ён ўтади. Аввалига мен тушуна олмадим, гап бу ерда нима ҳақида: Худони излаш ҳақидами ёки уйғунликними? Достон охиридагина бу иккита асос ягона бўлиб бирлашади. Биз достоннинг ҳар бир мисраси, ҳар бир бобини тадқиқ қилиш ниятидан йироқмиз. Камина достоннинг “жавоҳирлар”и сақланаётган жойларига ўз фикримни билдирмоқчиман ва достоннинг шу асосий бобидаги, қушлар ўз мақсадларига етишадиган водийдаги бош ғояни тасдиқлайдиган бир неча қисмни келтираман. Бизга ошкор бўлган нарсани баён қиламиз. Ахир достоннинг ўқ илдизи, асосий “гавҳар”и мана шу бир неча мисра бўлиб, уларга Навоий алоҳида диққат қаратади. Бу шундай мисраларки, унда “Навоийнинг “Лисонут тайр” достони нима ҳақида?” деган, беш юз йилдан буён қўйилиб келаётган саволга жавоб берадиган мисралар.

Ўз саёҳатларининг мақсади бўлган асосий водийга етиб келгач, қушлар ҳар бир гулда худди кўзгудаги каби ўз тасвирларини кўрадилар. Навоий “бу шундай ҳолатки, худди кўзгуга ёки сув юзасига қарайсан-у, нигоҳинг билан бутун борлиқни қамраб ўз аксингни кўрасан”, деб бу ҳолга аниқлик киритади. Ва...

Кўрдилар ўзни қаёнким тушти кўз,
Оллоҳ-оллоҳ не ажойибдур бу сўз.
Ким қилиб ўттиз қушни ҳавас,
Ўзларин кўрдилар ул си мурғу бас.
Мунда зоҳир бўлди сирри “ман араф”,
Ким кўрубтур гавҳар ўлмоғлиғ садаф.

“Қушлар бозори” ҳар хил одамлар эмас, балки бир инсоннинг ички дунёси деган эдик. Мана, Навоийнинг ўзи ҳам барча қушларни бир бутун қушга – Симурғга бирлаштирди. Зоҳир бўлган “Ман араф”сирига келса, “Ман араф” бу “Ким ўзини таниса, Парвардигорини танийди” ҳадисининг биринчи сўзларидир. Ғояси мураккаб эмас: инсон ўзида Яратганнинг сифатларини акс эттиради. Бошқа бир нарсани тушуниш мушкулроқ. Ахир “қуш бозори”да ҳар хил қуш фасодлари ҳам бор-ку! Бундан келиб чиққан ҳолда қандай қилиб инсон Худони акс эттириши мумкин? Гап шундаки, қушлар галаси водийма-водий (тасаввуфий талқин асосида айтганда, мақом-бамақом) учган сари унда қушлар сони камайиб бораверади, яъни бора-бора инсоннинг руҳи покланиб, ички дунёсидаги ёмон иллатлари камайиб ва ниҳоят, охирги водийга етганда ўттизгина қуш – “Си-мурғ” (форсчада “Си-Мурғ” – ўттиз қуш) – инсоннинг фақат ижобий сифатлари қолади. Бу энди биз билган кушлар бозори эмас. Ва айнан шу “Симурғ” ўз Парвардигорини акс эттиради. Таниқли шарқшунос И.П.Петрушевский “Ислом Эронда” китобининг исломдаги сўфийликка бағишланган бобида, ҳар хил сўфий тармоқларда мақомлар сони ҳам ҳар хил эканлигини, яъни Фаридиддин Аттор мақомларни етти, Абу Ҳомид Ғаззолий эса тўққиз деб билганларини ёзади [2]. Энди, бошқа кўз қараш, Ф.Атторнинг “Мантиқ ут-тайр” китоби иловасидаги изоҳни келтирамиз: “Ф.Аттор Симурғ тимсолида ўттиз қушдан –ўттиз вазири бўлган адолатли

подшоҳнинг мажозий тасвирини беради. Бу тимсолда гўзалликни, санъатни улуғловчи Моний таълимотининг таъсири ҳам борга ўхшайди”. Замонавий, балки ёш китобхонга бу изоҳ нимани ҳам бериши мумкин? Бир неча сатрлардан кейин асосий сатрлар бошланади:

Ким қилиб меърожи ваҳдатқа гузар,
Ли ма олло сирридин бергай хабар.

Бу ерда, “Ли ма олло” сири – Худо билан қалбан доимо бирга бўлиш сири ҳақида гапирилмоқда. Мана шу ердан асосий мисраларни охиригача келтирамиз ва таҳлилни бошлашга жазм қиламиз:

Ким қилиб меърожи ваҳдатқа гузар,
Ли ма олло сирридин бергай хабар.
Васл нуридин кўз ул янглиғ ёрур,
Ким ародин менлику сенлик борур.
Ҳақ вужуди баҳри мавж этқай аён,
Мавж нақшидин тенгизга не зиён.
Сув вужудидин тенгиз бўлди тенгиз,
Бўлса ул гар мавжлуқ, гар мавжсиз,
Сувдин айру мавжқа йўқтур вужуд,
Баҳр иладур мавжқа буду набуд [1].

Денгиз – эътиқодли инсон. Эътиқодли инсон моҳияти нимадан ташкил топади? Худога бўлган ишончдан – имондан ташкил топади. Сиз Оллоҳга, унинг фаришталарига, пайғамбарларига, қиёмат кунига ишонасиз. Мана эътиқоднинг моҳияти. Агар эътиқод ўрнига бошқа нарса бўлганида эди, бу энди имон келтирган инсон бўлмасди, худди сув ўрнида майда тошлар бўлганида денгиз эмас, тош-шағал тўла улкан чуқурлик бўлгани каби.

Ҳақ вужуди баҳри мавж этқай аён,
Мавж нақшидин тенгизга не зиён.

“Ҳақ” сўзининг бу ерда “ҳақиқат” маъносида эмас, “Парвардигор” маъносида келаётганини ҳеч қийинчиликсиз англаб олиш мумкин. Гап Парвардигор поклиги тўғрисида кетаётган экан, бундан келиб чиқадики, ўзида Худонинг сифатларини акс эттирган инсон поклиги ҳақида ҳам кетмоқда. Холиқ Аллоҳ вужуди юзага келтирган мавжлар ёки ушбу вужуд ҳақида фикрлашга, уларни англашга, кандайдир талқин қилишга биз, махлуқлар ожизмиз. Лекин бир қарашда камолотга етган бўлса-да, пок эмасдек туюлаётган инсоннинг поклиги ҳақида фикр юрита оламиз. Инсон вужуди нимадан иборат? Инсон, ўзининг фазилатлари ва қусурлари билан мавжуд бўлган, руҳонияти Худодан ва қонида шайтон кезиб юрган, умуман айтганда, Парвардигорнинг хоҳиши ва иродаси билан шундай бунёд бўлган банда. Ва албатта, бундай вужуд – моҳият инсонни жунбушга келтиради (мавж). Лекин тўлқинлар туғёнидан, ҳақиқатда ҳам, денгизга ҳеч қандай зиён етмайди – у денгиз бўлмасдан қолмайди. Эътиқодли одам, унинг мияси қанчалик ғалати ажабтовурликларни хаёл қилмасин, айлантирмасин, имонсиз бўлиб қолмайди. Тўлқинлар мавжи – инсон миясининг ғалати фаолияти бўлиб, инсон моҳиятидан келиб чиқади. Бундан бизнинг имон-эътиқодимиз зарар кўрмайди, яъни ҳеч қандай фожиа содир бўлмайди. Денгиз мавж ургани билан денгиз бўлмасдан қолмайди. Давом этамиз:

“Сув вужудидин тенгиз бўлди тенгиз” – яъни имонли одам ўзидаги имон туфайли имонга эга бўлади, худди денгиз ўзида сув мавжудлиги туфайли денгиз бўлгани каби.

“Бўлса ул гар мавжлуқ, гар мавжсиз” – бундан келиб чиқадики, эътиқодли инсон хоҳ осуда-тинч ҳолатда бўлсин, хоҳ миясининг ғалати фаолияти боис қалбида зиддиятлар жунбушга келган ҳолатда бўлсин, имонини йўқотмайди.

Сувдин айру мавжқа йўқтур вужуд,
Баҳр иладур мавжқа буду набуд [1].

Муқаддас жавҳарга қарши йўналтирилган васвасалар фақатгина мана шу жавҳарга – имонга эга кишилардагина бўлмоғи мумкин. Агар имон бўлмаса, қандай қилиб имонга қутқу солган васвасалар бўлмоғи мумкин? Яъни “Сувдин айру мавжқа йўқтур вужуд”. Ҳаттоки, улар имон белгиларидир деган бўлардим. Худди мавж сув мавжудлигининг белгиси бўлгани кабидир. Бу ҳақда қуйидаги ҳадис бор: “Шаҳр ибн Хаушаб айтди: “Мен ва менинг онам томонидан амаким иккаламиз Ойшаникига бордик ва амаким айтди: “Баъзида қалбимизда шундай нарса содир бўладики, уларни тилимизга чиқарсак, у дунёдан буткул умидимизни узишга тўғри келарди. Агарда у иш ошкор бўлса, бизларни албатта ўлдирган бўлардилар”. Ойша уч марта такбир айтиб, деди: “Расулуллоҳдан у ҳақида сўралган эди ва у айтди: “Кимда шундай ҳолат рўй берса, уч марта такбир айтсин. Бундай ҳолат фақат имони бор инсонда содир бўлади” [3]. Демак, бундай васвасалар имон мавжудлигининг белгисидир. Ҳақиқатдан ҳам

имон-эътиқоддан буткул мосуво одамнинг қалбига тўғридан-тўғри: “Ўғирла! Ўлдир! Алда!” каби васвасалар ёғдирилади холос. Ва имонсиз одам бу васвасаларни амалга ошириши жуда ҳам осон, айниқса, бандалардан гувоҳи бўлмаса ёки имонсизда “бу иш ошкораликдан йироқ” деган фикр пайдо бўлса.

Мунда гар яхши тахайюл айласанг,
Ёки иш сиррин тааммул айласанг,
Мутаассиф бўлсанг сифотиллоҳ ила,
Жазм этарсен хотири огоҳ ила.
Ким сен – ўқсен ҳарнеким мақсуд эрур,
Сендин ўзга йўқ, неким мавжуд эрур.
Зотнинг ижмолиға тафсилсен,
Ҳам вужуд ишколиға таъвилсен.
Ўз вужудунгга тафаккур айлагил,
Ҳар не истарсен, ўзунгдин истагил.
Турфа қушсен равза нахлистонидин,
Пок тойирсен шараф бўстонидин [1].

Таҳлилда давом этамиз:

“Сендин ўзга йўқ, неким мавжуд эрур”.

Яъни ўзингдаги ҳар қандай нарсани фақат ўзинг яратасан. Дунё бўлса бўм-бўш саҳна. Мана шу ерда қадимги Хитой фалсафасининг асосий қарашларидан бири хотирамга келди: “Сенинг ички дунёнггина ҳақиқийдир. Ташқи олам – хаёлий, у ички дунёнгнинг аксланишидир”. Бу қуйидаги иборани эслатади: “Бахтли бўлишни хоҳлайсанми – бўл”. Ҳозир таҳлил қилган мисрамиздан олдин яна битта, жуда муҳим қатор бор эди. Биз уни вақтинчалик таҳлилга тортмай турдик, чунки ташқи оламнинг таржимада мураккаблаштирилган “бўм-бўшлиги”га ойдинлик киритмай туриб, бир қарашда осон бўлишига қарамасдан, уни тушунтириш мушкул эди:

“Ким сен – ўқсен ҳар неким мақсуд эрур”.

Инсон ўзига, ўз ички оламига ҳукмдор эканлигини тушуниб етмоғи лозим, бошқаси йўқ, мавжуд эмас! Бизнинг қўлимизда ўз оламимиз, ҳаёт, турмуш, ташқи оламни айблаш ножоиз. Булар барчаси беҳуда нарсалар (бўш саҳна маъносида ҳам, “фойдасиз” деган мазмунда ҳам). Инсон – ўқ, у ўзига ўзи мақсадни танлай олади, яъни кишанлар (беҳуда гуноҳкорлик туйғуси) йўқ бўлар экан, у озоддир.

Борлиқ уқубатлари бизнинг моҳиятимиздандир. Биз энди тўғри йўналишга эга бўлгач, яъни яратилган барча нарсадан мақсад инсон эканлигига имон келтиргач, нимани истамоқчи бўлсак фақат ўзимиздан исташимиз лозимлигини тушуниб етамиз!

Турфа қушсен равза нохлистонидин,
Пок тойирсен шараф бўстонидин [1].

Навоий олдиндан бизга гуноҳларимиз йўқлигини тушунтирар ва озодлигимиз ҳамда кучимизни кўрсатар экан, поклигимизга диққат қаратади. Мана “Барибир гуноҳимиз бордир?” саволига узил-кесил жавоб. Мана мен асосий деганим мисраларни ҳам таҳлил қилдик. Бундан кейинги қаторларда ҳам тавсия берувчи ва огоҳлантирувчи қимматли маълумотлар бор. Лекин ҳар нарсанинг ўз вақти бўлади. Ҳозир эса...

Лек Симурғ истаган ул жамъи тайр,
Ким сулук ичра риёзат бирла сайр –
Айлабон чун ўзни қобил қилдилар,
Ул талабдин васл ҳосил қилдилар.
Сенда ҳам билқувва ул мавжуд эрур,
Феълга келса даво мақсуд эрур.
Қобил этмай ўзни гар қил авжи сўз.
Зоҳир этсанг дор ила солмоққа туз.
Кимки бу маънидин огоҳ ўлди бил,
Ким кесилди онга сўз айтурға тил.
Онглоким сўз ўзга, маъни ўзгадур,
Маъни онгмос, шоғил улким сўзгадур [1].

Навоий бу ерда яна бир бора Яратган билан алоқа имон ва эътиқод орқали амалга оширилишини таъкидлайди. Бу мулоқотда сўзларга ўрин йўқ. На сўзлар, на қандайдир турткилар ёки шайтони-лаъиннинг очиқ-ошкора ҳийла-найранглари ҳисобга олинмайди. Банда Яратган Эгамдан бирор аниқ нарса ҳақида сўраши бошқа гап. Лекин бу ерда гап Худо билан доимий, кўринмас боғлиқлик ҳақида, эътиқод ҳақида. Бу алоқа ҳеч нарса билан булғаниши мумкин эмаслиги ҳақида бормоқда. Эътиқод ёки бор ёки у йўқ. Ёки денгиз ёки шағал тош. Эътиқодни, Ўзига бўлган ишқ билан баробар, Яратган инсондаги энг муқаддас жойга қўяди, қаердаки, миянинг анъанавий белгиларига бу ерда ўрин йўқ! Қуръонда (8:24) шундай дейилган: “Яна билиб қўйингизки, Аллоҳ инсон билан унинг дили (ўртаси)да “парда” бўлиб туради ва Унинг (ҳузурида) жамулжам бўлурсиз” [4]. Сайид Собиқ “Ислом дунёқараши” китобида ёзади: “Худога бўлган ишонч, эътиқод инсон ва яратган ўртасидаги олий алоқадир**.** Ахир ердаги энг мукаррам зот – инсон, инсондаги энг қимматли нарса – кўнгил,

кўнгилдаги энг қимматбаҳо нарса – эътиқод”[5]. Аллоҳ Таолонинг ўзи ҳам, ундан кейинги билимлар соҳиблари ҳам мияни эътиқод, имон макони сифатида кўрсатмаганлар. Мия – қурилма, Оллоҳ яратган мўъжиза, Яратганни таниш ва ҳаёт йўлини топиш учун керак бўладиган қудратли асбоб. Ва бизнинг бурчимиз – уни ўз вазифасига биноан ишлатиш. Ички зиддият, мияни Худо буюрган вазифасидан чалғитиш, “турткилар” билан бекор оввора бўлиш – шайтонни шод қилишдан бошқа нарса эмас. Лекин биз бу савдо ҳаётимизни қанчалик заҳарлаши мумкинлигини яхши биламиз.

Инглиз файласуфи Фрэнсис Бэкон (1561-1626) шундай дейди: “Табиатга бўйсуниб, уни бўйсундирмоқ осонроқдир”[6]. Тўғри келган гапни гапирмоқ, пасту баланд сўз айтмоқ – шайтони лаъиннинг қутқусига учиб, у билан жангга кирмоқ деганидир. Худо ҳақида, унинг бизга берадиган инояти ва ҳимояси ҳақида унутиб, фақат ўзига, ўзининг аҳмоқона манманлигига, ясама мардлиги – уддабуронлигини кўз-кўз қила олишига ишониб, эгилувчан бўлиш ўрнига ғазабини боса олмасдан шайтонга “зарбалар” ёғдириш нафақат бефойда машғулот, балки хатарли ҳам – баъзида ўзига суиқасд қилишгача ҳам олиб келиши мумкин: “*Қобил этмай ўзни гар қил авжи сўз, Зоҳир этсанг ила дор солмаққа туз”*. Шайтон билан жангга киришиш – ҳақиқий УРУШ, инсон ўзига ортиқча туюлаётган қисмини, миясидаги “ўсма”ни юлиб ташлашга урина бошлайди (миямизнинг фаолият механизмини-я?) бу инсоннинг моҳиятидир. Унинг таркибий қисмларини яна санаб ўтириш шарт эмас деб ўйлайман. Бундай жангчи урушни ўзини осиб ўлдириш билан якунлайди, – огоҳлантиради Навоий.

Бўйла маъниким манга бўлди аён,
Айладим қушлар тили бирла баён,
Ким такаллум онда ширкат топмағай,
Бикри маънининг узорин ёпмағай.
Қуш тилин билган сўзум фаҳм айлагай,
Фаҳм этардин ҳам басе ваҳм айлагай.
Лек зийрак қуш чу билди бу мақол,
Онглағайким недуру бу сўзда ҳол.
Барча сўзлар мушкилидур бу ҳадис,
Безабонларнинг тилидур бу ҳадис.
Шарт буким, онглағон шарҳ этмағай,
То тилидин бошқа офат етмағай.

Қуш тилини тушунганлар ғафлатдагиларнинг онгига асосий сирни етказиш (уни батамом “даволаш”) мақсадида оғзига келганини гапиришга ошиқади: “Тушун, бу ҳаммаси ҳеч нарса эмас! Агар, ҳаттоки, Худонинг ўзи кечирсин, миянгга қуйидаги нарса келса ҳам: ..... ”. Худди шу кўп нуқта ўрнидаги сўзларнинг янграшидан бизни огоҳ қилмоқда Ҳазрат Навоий! Кўриб турганингиздек, мен ҳам эҳтиётқорман. Навоий лутф қилганидек, “безабонлар тилидан” фойдаланяпман.

Мен деб истиғфор қилдим, ё илоҳ,
Ойтмас сўздин санга қилдим паноҳ.

Изоҳ шарт эмас – бу сўзлар Навоий огоҳлантирмоқчи бўлган хатар ҳақидаги менинг фаразимни тасдиқлайди. Навоийнинг ўзи “қушлар тили”ни танлади, ўхшатишлардан фойдаланди, лекин бу мистик билимларни анъанавий тарзда яшириш учун эмас, балки шу билан тенг равишда (ҳатто кўпроқ ҳам бўлиши мумкин) Яратган Эгамдан қўрққани боис, хавфли тушунтиришлардан қочиб “айтиб бўлмайдиган” сўзларни айтмади. Ва Навоий “тилсизлар тили” – қушлар тилидан доҳиёна фойдалана билди.

Парвардигори олам қуйидаги огоҳлантирувчи сўзларни айтган: “Ичингиздаги нарсани ошкора қилсангиз ёки яширсангиз ҳам, Аллоҳ сизларни у билан ҳисоб-китоб қилур. Сўнгра Ўзи хоҳлаган кишини мағфират қилиб, Ўзи хоҳлаган кишини азоблар. Аллоҳ ҳамма нарсага қодирдир”(Қуръон.2:284). Яширин гуноҳларга қуйидагилар киради: бегуноҳ инсондан гумон қилиш, ҳасад, сенга ёмон бўлгани учун ёки изтироб чекканинг боис, кулфат четлаб ўтган яқинингга ёмонлик тилаш, онгли равишда аёлларга ҳирс билан назар солиш кабилар. Мен бекорга “онгли равишда” сўзларини ишлатганим йўқ. Шайтоннинг қутқуси билан бўлсин, ёки нафсдан бўлсин, ихтиёрсиз равишда содир бўлган ҳодисага биз жавобгар эмасмиз. Нафснинг ўзи гуноҳ эмас (ейиш-ичиш, ухлаш гуноҳ бўлмагани каби). Фожиа биз ўз нафсимизнинг қулига айланганимизда, ёки барча қилмишларимизни шайтонга ағдариб (ҳақиқатан ҳам айнан у сабабчи бўлиши ҳам мумкин) унинг ноғорасига ўйнаганимизда бошланади. Кўпчилик эса бутунлай йўлдан озади, ички бетартибликка, бошбошдоқликка бемалол йўл қўйиб беради ва

ички турткиларга эътибор бермаслик ўрнига, уларни онг остининг барча пучмоқларидан тутиб чиқадилар (хоҳ улар ислом диншуносligида “васваса” деб аталувчи шайтоний қутқулар туфайли бўлсин, хоҳ “хаважис” деб аталувчи ўз нафсининг талаби билан бўлсин) ва онгли равишда улардан ҳузурланадилар – бемалол буни шайтонга тўнкаш мумкин ахир! Навоий, албатта, бу муҳим жиҳатни ҳам назардан қочирмаган, достоннинг асосий бобигача бўлган қисмида ўқувчининг онгини уқишга тайёрлаб очиқ, парда билан яширилмаган матн орқали ўргата бориб, бир ривоят келтирган: талаба пир олдига келиб, кундалик турмушда ҳам жонидан тўйдирган, ибодат қилишга ҳам доимий равишда халақит бериб келаётган лаъиннинг ҳийла-найрангларидан шикоят қилибди. Шунда пир талабага ундан олдин шайтон келиб кетганлигини, устозга шу қадар гуноҳга ботган, ахлоқсиз, хаёлларининг бузуқлиги бобида шайтонга ҳам дарс бера оладиган, олдида ўша шайтон ҳам бегуноҳ норасидага айланиб қоладиган шогирдни тарбиялаб етиштиргани учун ташаккур билдирганини айтибди. Асосий сатрлар баён қилинган бобдан сўнг келган ривоятлар бошқа кўплаб ривоятлар каби достоннинг жавҳари бўлган ҳақиқатни тасдиқлайди. Шу жумладан энг йирик қисса – шайх Санъон қиссаси ҳам. Нима учун Навоий, Фаридиддин Аттор каби, бу қиссага шунчалик кўп саҳифа бағишлади? Ахир достонда яна бошқа кўплаб теран мазмунли, ҳажман кичик бўлишига қарамасдан ғоялар янгилиги билан диққатни тортувчи ҳикоятлар кам эмас. Лекин мана шу энг катта ҳикоят бизнинг фикратимизга маълум йўналиш берувчи, онгимизни асосий ғояга тайёрловчи баланд бир маёқ эмасми? Шайх Санъон қандай қилмишлар содир этмасин, қанчалик ғазабга сазовор, даҳриёна ишларни амалга оширмасин – юрагидаги муҳаббати билан шунчалик улуғвор ва муқаддас бўлиб қолаверади. Сўфийлар асарларида маъшуқага бўлган эҳтирос ортида нима яширинганини билиш учун катта мутахассис бўлиш шарт эмас. Албатта у – Аллоҳга бўлган ишқ! Шайхнинг барча куракда турмайдиган ишлари эса – васвасанинг рамзий тимсоли холос! Буни исботлаш учун Фаридиддин Атторнинг “Мантиқут тайр”ига мурожаат қиламиз. Достонда, Шайх Санъон май ичиш, бутга сажда қилиш, чўчқа боқиш каби барча жирканч синовлардан ўтиб бўлган жойида, Фаридиддин Аттор жуда аниқ изоҳ беради: “Сен бу иш фақат Шайх Санъон бошига тушган, деб гумондасан. Лекин бу хатар ҳар бир киши ичида бор. У ҳар замон бошини чиқариб, одам боласини безовта этади. Агар сен ўзингдаги чўчқадан огоҳ бўлмасанг, тариқат йўлига кирган солик эмассан, мени маъзур тут. Эй мард, агар тариқатга қадам қўймоқчи экансан, бу йўлдаги бутлар, чўчқалар каби минг турли балолардан қўрқма”[7]. Фаридиддин Атторнинг ушбу, ўзи берган изоҳига қарамасдан, “Мантиқ ут-тайр” китобининг иловасида Шайх Санъон қиссаси китобхонга бу ҳолда тушунтирилади: “Шайх Санъон қиссаси – Ф.Аттор ва А.Навоий асарларининг энг гўзал саҳифаларини ташкил этади. Мазкур қиссада вужудий ва руҳий гўзалликнинг илоҳий, муқаддас эканлиги, ошиқ учун барча дин ва мазҳабларнинг фарқи йўқлиги, ишқнинг халқаро ва динлараро аҳиллик ва дўстлик сабабчиси эканлиги тасвирланади”. Лекин қиссада сўз моддий ва руҳий гўзалликлар, икки киши орасидаги севги ҳақида эмас, Аллоҳга бўлган ишқ хақида бораётганини, ҳеч бўлмаса, Шайхнинг тарсо қизига: “Сен билан дўзахга боришга ҳам таёрман, аммо сенсиз биҳишт мен учун дўзахдир”, -деган гаплариданоқ англаб булмайдими? Шайх Санъон қиссаси миямизнинг қилмишларини ва ҳатто шу қилиқлар оқибатида ҳам доғ тушмаган, қалбимизда мусаффолигича турган имон, эътиқодимизни эслатмайдими? “Ҳар кимнинг миясига ҳар нарса келиши мумкин...” дея ёзган эди В.Леви. Ногаҳоний хаёллар – инсон моҳиятида бор. Улар йўқолмайди. Сизнинг уларга бўлган, ўзингизга бўлган муносабатингиз ўзгаради. Ногаҳоний деб аташимнинг сабаби наинки уларнинг қисқалигида, балки қанчалик тўсатдан пайдо бўлишида ҳамдир. Муддатига қараб улар ҳар хил бўлиши мумкин. Улар сузувчан ёки аниқ (сўзларда, образлар, илоҳиётга қарши мантиқан “ишончли” хулосаларда) ва кўпинча жуда, жуда ҳам “чапани” бўлади (Навоийда “қуш тили”, мен жаргондан фойдаланишимга тўғри келади). Шунча вақтдан буён ўзига хос фаолиятда бўлган миянгиз бир сонияда қайта қурилиб қолмайди. Соннинг (миянгизга сингиб бораётган янги нуқтаи назар билан, янги ҳолатда ўтказаётган кунлар, ойларингизнинг сони) сифатга айланиши

учун вақт керак. Сон эса, албатта, сифатга айланади. Ва бу сифат сизники бўлади, ахир юнон файласуфи Синесий айтганидек: “Ақл, ўзи учун исботланган деб ҳисоблайдиган ҳақиқатларидан ҳеч қачон воз кечмайди”. Ҳамиша ёдда тутинг: ногаҳоний васвасалар бутунлай, тамомила йўқолмайдилар, ахир – “бу хом сут эмган банда”...

Васвасанинг бутунлай, тамомила йўқолиши фақат жаннатда содир бўлади, меҳрибон ва кечиргувчи Оллоҳнинг Ўзи у маконни тадқиқот муаллифи ва ўқувчисига насиб айлагай. Сиз умримизнинг охирги кунларигача Аллоҳнинг рухсати билан бизнинг кўксимизга васваса солиш ҳуқуқига эга бўлган лаънини унутманг. Лаъин қўйган сиртмоқдан, Аллоҳ берган илм орқали қутулсангиз ҳам, оёқларда қолган унинг қолдиқларини унутманг. Мен бу билан нима демоқчиман?.. Абу Али ибн Синонинг “Қушлар” рисоласида ҳам шу манзара кузатилади: баланд-баланд қанот қоққан қушлар етти водий устидан учиб ўтадилар ва уларни Улуғ Шоҳ (инсон эришиши мумкин бўлган ботиний уйғунликнинг энг олий даражаси) кутиб олади. Бу рисоланинг бошида қондошлари томонидан қафасдан озод этилган қуш – “Оёқларим-чи?! Нега менинг оёқларимни тузоқ сиртмоғининг қолдиқларидан халос қилмадингиз?” дейди. “Агар мумкин бўлганда эди, - жавоб бердилар озод қушлар, - биз ўзимизнинг сиртмоқларимиздан халос бўлардик. Оёқларимиздаги сиртмоқ қолдиқларини кўрмаяпсанми?” Ва саёҳатнинг охирида Улуғ Шоҳ (парвознинг олий чегараси) хомуш тортиб деди: “Сизга тузоқни қўйган Зотнинг Ўзидан бошқа ҳеч ким сизни сиртмоқлардан озод қилолмайди”[8]. Ҳаттоки Нажмиддин Кубро ичида “кофир” борлигига ва ҳеч қачон бу дев мусулмон бўлмаслигига икрор бўлади:

Девест даруни ман ки пинҳони нест,
Бардоштани сараш бо осони нест.
Имонаш ҳазор бор талқин кардам,
Он кофиро сари мусулмони нест.
Яъни:
Бир дев бор ичимда, ҳеч пинҳон бўлмас,
Бардош бериш унга, оҳ, осон бўлмас.
Имон не эканин минг англатсам хам,
Кофир у ашаддий, мусулмон бўлмас.

Буни “Валитарош” – пирлар тарбиячиси Нажмиддин Кубро айтяпти. “Лисонут тайр”да унинг бир нигоҳидан ҳатто итдек жонивор муқаддаслик касб этганлиги ҳикояси келтирилган Кубро шундай демоқда. “Ҳидоят” журналида шайтоннинг васвасалари ҳақидаги кичкина бир мақолани учратиб қолдим. Унда мисол қилиб кўзгу келтирилади... Ва сўралади: “Кўзгудаги илон акси кимгадир зиён етказмоғи мумкинми, ёки кўзгудаги нопокликлар тасвирига тегинган одамни шу тасвирлар булғай оладими?” Ҳамда шундай жавоб берилади: “Албатта йўқ! Худди шунингдек имонимиз, қалбимизда нафрат уйғотаётган ўй-фикрлар ҳам бизга ҳеч қандай зарар етказа олмайди”. Яъни: “Мавж нақшидин тенгизга не зиён?”

Энди билимлар қалбингизга маҳкам ўрнашди. Аммо... “Ҳайратул аброр”да Навоий дейди:

Илм, Навоий, санга мақсуд бил,
Эмдики илм ўлди, амал айлагил.

Навоий, мақсадинг илм эди, мақсадингга етишдинг – уни амалда қўлла!

Адабиётлар рўйхати:

1. Алишер Навоий. Лисонут тайр. – Т.: Ғафур Ғулом нашриёти, 1991.
2. Петрушевский И.П. Ислам в Иране. –Л.: Издательство Ленинградского Университета, 1966.
3. Имам ал-Бухари. Ал-адаб ал-муфрад. – Москва: Санкт-Петербург, 2009.
4. Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. –Т.: Тошкент ислом университети НМБ, 2004.
5. Сайид Сабик. Исламское мировозрение. – Бишкек, 2002.
6. Слово о науке. – Москва: Знание нашриёти, 1978.
7. Фаридиддин Аттор. Мантиқ ут-тайр. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМБ, 2006. – 74 б.
8. Салдадзе Л.Г. Ибн Сино. Авиценна. – Т.: Матбуот, 1983.
9. Фазила Сулаймонова. Ақл ва тафаккур кучи. – Т.: Фан, 1991.
10. Иззат Султон. Книга признаний Навои. – Т.: Гафур Гулям, 1985.
11. Навои Алишер. Язык птиц. – Санкт-Петербург: Наука, 1993.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 9(908)

O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA XOTIN-QIZLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASHGA DOIR CHORA-TADBIRLAR

Xomidova Kamola Akbarovna, Xalqaro innovatsion universitet assistenti

e-mail: XomidovaKamola594 @gmail.com

MEASURES TO SUPPORT WOMEN AND STRENGTHEN THE INSTITUTION OF FAMILY IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Khomidova Kamola Akbarovna, Assistant Professor, International Innovative University

МЕРЫ ПОДДЕРЖКИ ЖЕНЩИН И УКРЕПЛЕНИЯ ИНСТИТУТА СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Хомидова Камола Акбаровна, ассистент, Международный инновационный университет

Annotatsiya: *Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotining milliy yuksalish qabul qilingan muhim normativ-huquqiy hujjatlar asosida jamiyatning uchta muhim bo‘g‘ini: yoshlar vatanparvarligi, pedagoglar nufuzi va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimidagi o‘zgarishlarni tahlil qiladi. Maqolada Qashqadaryo viloyati misolida ushbu islohotlarning hududiy ijrosi va kutilgan natijalari tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *harbiy vatanparvarlik, pedagog nufuzi, “Xotin-qizlar daftari”, PF-5325, PQ-3907, ijtimoiy himoya, O‘qituvchilar xiyoboni.*

Abstract: *This article analyzes the changes in three important areas of society: youth patriotism, the authority of teachers, and the system of support for women, based on the adoption of important normative and legal documents for the development of the Republic of Uzbekistan. The article examines the territorial implementation and expected results of these reforms using the example of the Kashkadarya region.*

Keywords: *Military-patriotism, teacher authority, “Women’s Diary”, PF-5325, PQ-3907, social protection, Teachers’ Alley.*

Аннотация: *В данной статье анализируются изменения в трех важных сферах общества: молодежном патриотизме, авторитете учителей и системе поддержки женщин, на основе принятия важных нормативно-правовых документов для развития Республики Узбекистан. В статье рассматривается территориальная реализация и ожидаемые результаты этих реформ на примере Кашкадарьинской области.*

Ключевые слова: *военный патриотизм, авторитет учителей, “Женский дневник”, ПФ-5325, ПК-3907, социальная защита, Аллея учителей.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi 2018-yil 2-fevralda qabul qilgan «Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlariga oid» РФ-5325-sonli farmoni, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishidagi muhim qadamdir. Farmonning asosiy maqsadi – xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash,

ularning huquqlarini himoya qilish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash va reproduktiv salomatlikni yaxshilashdir. Ushbu maqolada, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar va ularning ijrosi asosida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi.

Ushbu maqola sifatida hujjatli tahlil usulidan foydalangan holda tayyorlandi. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 2-fevraldagi farmoni va unga doir amaldagi qarorlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatiga oid qo‘llanmalar va ilmiy tadqiqot materiallari asosida to‘plangan ma’lumotlar tahlil qilindi. Yana bir muhim metodologik yondashuv – mamlakatdagi xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlashga qaratilgan amaliy dasturlarni ko‘rib chiqish va ularning samaradorligini baholashdir.

Farmon ijrosi doirasida, bir qator ijtimoiy va iqtisodiy dasturlar amalga oshirildi. Quyidagi natijalar ajratib ko‘rsatilgan:

1. Xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash va o‘z bizneslarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqildi. Bu, ayniqsa, qishloq hududlarida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini kuchaytirdi.
2. Yordamga muhtoj bo‘lgan xotin-qizlar uchun psixologik, moddiy va huquqiy yordam ko‘rsatish tizimi shakllantirildi. Maxsus ijtimoiy guruhlar aniqlanib, ularga yordam ko‘rsatishning samarali usullari ishlab chiqildi.
3. Reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish va perinatal kasalliklar profilaktikasiga alohida e’tibor berildi. Yangi maslahatxona va xizmatlar tashkil etildi, bu xotin-qizlarga zamonaviy tibbiy yordamni taqdim etdi.
4. Nikohni mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni yaxshilash va ajrashishlarning oldini olish uchun maxsus tadbirlar va dasturlar ishlab chiqildi. Oila ijtimoiy tizimini yaxshilashga doir ilmiy asoslangan usullar ishlab chiqildi.
5. Xotin-qizlarni huquqiy himoya qilish va ularning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirildi. Xotin-qizlarni huquqiy maslahatlar bilan ta’minlash va jinoiy harakatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar bajarildi.

Ushbu farmon va uning ijrosi O‘zbekistonning janubiy viloatlarida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash borasida katta o‘zgarishlarga olib keldi. Xotin-qizlarni ijtimoiy hayotga faol ravishda jalb qilish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, oila institutini mustahkamlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar, ayniqsa, qishloq joylarida ijtimoiy faollikni oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shuningdek, 2018-yil viloyat xotin-qizlar qo‘mitasi qoshidagi “Oila” ilmiy-amaliy Markazi negizida uning shahar va tuman markazlari tashkil etildi. “Oila” ilmiy-amaliy Markazi vazifalari qatoriga oila institutini mustahkamlash, jamiyatda oilaning zamonaviy mazmunini singdirishga doir sifatli tadqiqot ishlarini amalga oshirish va ilmiy asoslangan takliflar ishab chiqish, tinch bo‘lmagan oilalarni aniqlash va ulardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaxshilashga doir tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Mazkur hujjat asosida bir qator ishlarni amalga oshirish belgilandi, xususan xotin-qizlar qo‘mitalarining tashkiliy tuzilmalari qabul qilindi, harakatlar strategiyasidan kelib chiqadigan vazifalar xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda asos qilib olindi. Bunda xotin-qizlar orasida huquqiy madaniyatini oshirish ham ko‘zda tutilishi belgilandi.

Bu muammoga doir qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-sentyabrdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, ularning muammolarini hal etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 557-son qarori qabul qilindi. Mazkur Qaror asosida xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish boshqaruvning vertikal uslubida amalga oshirish belgilab berildi. 2021-yil aprel oyida esa Vazirlar Mahkamasining Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi tashkil qilindi.

Jamg‘armaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat edi:

- og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan

shaxslarga, nogironligi bo‘lgan farzandlarini tarbiyalayotgan, kam ta’minlangan, farzandlarini to‘liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj xotin-qizlarga uy-joylarning boshlang‘ich badalini to‘lab berish;

-xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, sog‘lig‘ini saqlash, xotin-qizlar sportini rivojlantirish, mehnat va o‘qish sharoitlarini yaxshilash bilan bog‘liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko‘maklashish;

-xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun tijorat banklariga resurs mablag‘larini belgilangan tartibda joylashtirish;

xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish bilan bog‘liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko‘maklashish etib belgilandi.

Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, manfaatlariga e’tibor berish, muammolarini bartaraf etish, gender tenglik masalalari davlat darajasiga ko‘tarildi. 2019-2024-yillar oralig‘ida bu sohaga oid 80dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-yanvarida «Xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori qabul qilingandi. Mazkur hujjat asosida xotin-qizlar muammolarini «Xotin-qizlar daftari»ni yuritish orqali tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tartib tasdiqlandi. “Xotin-qizlar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar ro‘yxatlari har bir tuman, sektorlar va mahallalar kesimida xalq deputatlari shahar va tuman kengashlarida tasdiqlandi. Ro‘yxatlar “Xotin-qizlar daftari” yagona elektron platformasiga kiritilib, daftarga kiritilgan ishsiz, ehtiyojmand xotin-qizlarning bandligini ta’minlash, ularni ijtimoiy adaptatsiya qilishga ko‘maklashish, psixologik va moddiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha barcha shahar va tumanning “Yo‘l xaritalari” ishlab chiqildi.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan farmon xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash borasida muhim qadam bo‘ldi. Ushbu chora-tadbirlar, ayniqsa, xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy hayotga faol jalb qilish, reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish va oila institutini mustahkamlashda samarali natijalarga olib keldi. Biroq, samaradorlikni oshirish uchun hal qilish zarur bo‘lgan tizimli muammolar mavjud. Shuningdek, kelajakda xotin-qizlarga oid siyosatni yanada kengaytirish va amalga oshirish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rish muhimdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2018-yil 2-fevraldagi «Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-5325-sonli farmoni.
2. 2018-yil 14-avgustdagi «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3907-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.
3. 2018-yil 23-fevraldagi «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 140-sonli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.
4. 2018-yil 30-avgustdagi «2018-2019-o‘quv yilida ta’lim muassasalarida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini tashkil etish to‘g‘risida»gi X-908/08-sonli Qashqadaryo viloyati hokimining Qarori.
5. Qashqadaryo viloyati hokimining Qarori, 2018-yil 2-noyabrdagi «Barcha tuman (shahar) markazlarida o‘qituvchi va murabbiylar xiyobonlarini tashkil etish to‘g‘risida»gi 905-sonli Qarori (O‘zR VM 905-sonli bayoni ijrosi).
6. «Xotin-qizlar daftari» yagona elektron platformasi ma’lumotlari va uslubiy qo‘llanmalari.
7. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi 829-jamg‘arma materiallari.
8. N.S.O‘roqova. Ma’naviy madaniyatni yuksaltirish yo‘llari. O‘zMU xabarlari 2024y1/7 son.207-210 bb.
9. Sh.U.Tasheva. Ziyoli kadrlar tayyorlash jarayonlarining huquqiy asoslari. Sohibqiron yulduzi. 1(58) 2025-y. 69-75bb.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 81-139

ПРОЕКТНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ: ТИПОЛОГИЯ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Холтураева Феруза Камоловна, стажёр-преподаватель Университета экономики и педагогики

https://orcid.org/0009-0000-1588-4126
e-mail: xolturayeva92@bk.ru

RUS TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHDA LOYIHA FAOLIYATI: TURLARI VA METODIK XUSUSIYATLARI

Xolto‘rayeva Feruza Kamolovna, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti stajor-o‘qituvchisi

PROJECT-BASED LEARNING IN TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE: TYPOLOGY AND METHODOLOGICAL FEATURES

Kholturayeva Feruza Kamolovna, Trainee Lecturer at the University of Economics and Pedagogy

Аннотация: *Статья посвящена проектной деятельности как эффективной технологии обучения РКИ, анализу типологии проектов и их дидактического потенциала, а также роли исследовательских, творческих, информационных и практико-ориентированных проектов в формировании ключевых компетенций обучающихся в современной методике преподавания языка.*

Ключевые слова: *русский язык как иностранный, проектная деятельность, коммуникативная компетенция, мотивация обучения, типология проектов.*

Annotatsiya: *Maqola RKIni o‘qitishda loyiha faoliyatini samarali texnologiya sifatida yoritadi, loyihalar tipologiyasi va didaktik salohiyatini tahlil qiladi, shuningdek tadqiqot, ijodiy, axborot va amaliy yo‘naltirilgan loyihalarning asosiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi rolini zamonaviy til o‘qitish metodikasida muhim deb ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *rus tilini xorijiy til sifatida o‘qitish, loyiha faoliyati, loyiha metodi, loyiha turlari, kommunikativ kompetensiya, sotsiokultural kompetensiya, kognitiv kompetensiya, o‘qitish metodikasi.*

Abstract: *The article examines project-based learning as an effective technology in teaching Russian as a foreign language, analyzes project typology and didactic potential, and highlights research, creative, informational, and practice-oriented projects in developing key learner competencies.*

Key words: *russian as a foreign language, project-based learning, project method, project typology, communicative competence, sociocultural competence, cognitive competence, teaching methodology.*

Введение. В условиях модернизации системы языкового образования и смещения акцента с репродуктивных форм обучения на деятельностно-коммуникативные особую актуальность приобретает проектная деятельность как эффективная технология формирования комплексных языковых компетенций. Проектный метод в обучении русскому языку как иностранному (РКИ) позволяет активизировать познавательную деятельность обучающихся, повысить уровень их учебной мотивации, а также устойчивый интерес к изучаемому языку и культуре.

Проектная деятельность обеспечивает интеграцию лингвистических, социокультурных и когнитивных аспектов

обучения, создавая условия для использования русского языка в реальных или приближённых к реальности коммуникативных ситуациях. В этом контексте проект рассматривается как средство развития самостоятельности, критического мышления и межкультурной компетенции.

В современной педагогике проектная деятельность трактуется как метод развивающего, личностно ориентированного обучения. По мнению В.В.Патраковой, она направлена на формирование исследовательских умений, включая постановку проблемы, сбор и анализ информации, интерпретацию результатов, а также способствует развитию логического мышления и творческих способностей, связывая учебные знания с решением жизненно значимых задач [8,с.55–59]. Понятие «проектирование» определяется как процесс создания проекта и его фиксации во внешне выраженной форме и широко используется для обозначения интеллектуальной деятельности по разработке проектов различных типов [9,с.31].

Литература и методология. В ходе исследования использовались современные педагогические источники по проектной деятельности и методике преподавания русского языка как иностранного [6–11]. Анализ литературы позволил выявить ключевые подходы к организации проектной работы, классификацию проектов и их дидактическую значимость.

Методологическую основу исследования составил **типологический и сравнительный анализ** проектной деятельности в обучении РКИ. Для систематизации данных использовались следующие процедуры:

1. **Классификация проектов** по типам: исследовательские, творческие, информационные, практико-ориентированные.
2. **Анализ методических особенностей** каждого типа с точки зрения организации учебного процесса и целей обучения.
3. **Сопоставление результатов** с целями формирования коммуникативной, социокультурной и когнитивной компетенций обучающихся.

Таким образом, комбинирование анализа литературы и практических методик позволило выявить педагогические возможности каждого типа проектов и их влияние на эффективность обучения РКИ.

Цель исследования — анализ основных типов учебных проектов в обучении РКИ и характеристика их дидактических возможностей.

Материалы и методы. В исследовании использован метод типологического анализа проектной деятельности, применяемой в практике преподавания РКИ. В качестве материала рассматриваются исследовательские, творческие, информационные и практико-ориентированные проекты. Анализ проводился с позиций методики преподавания, целей, структуры, форм представления результатов и педагогического потенциала каждого типа проекта.

Результаты. Исследовательские проекты способствуют активному поиску, анализу и интерпретации информации на русском языке, развитию критического мышления и академических навыков. Пример: исследование влияния заимствованных слов на современный русский язык [7, с. 10–14].

Творческие проекты развивают воображение, креативное мышление и способность к самовыражению средствами русского языка. Они включают написание рассказов, стихотворений, сценариев, театральные постановки, песни, мультимедийные продукты. Пример: написание и постановка пьесы на русском языке [6, с. 92].

Информационные проекты направлены на сбор, анализ и обобщение информации с последующим представлением результатов широкой аудитории. Пример: создание информационного бюллетеня о российских праздниках [10, с. 58].

Практико-ориентированные проекты предполагают решение реальных задач с применением языковых знаний, например, разработку бизнес-планов, организацию культурных мероприятий, проведение интервью. Пример: организация выставки

русской культуры в местном сообществе [11,с.133–135].

Обсуждение. Использование проектной деятельности позволяет интегрировать учебный материал с практической деятельностью, учитывать индивидуальные особенности студентов и создавать условия для активного применения русского языка. Особое значение проекты имеют для межкультурной компетенции, так как способствуют осмысленному усвоению культурных и социальных реалий.

Заключение. Проектная деятельность в обучении РКИ является эффективной педагогической технологией, направленной на развитие коммуникативной, социокультурной и когнитивной компетенций. Применение различных типов проектов повышает мотивацию к изучению языка, формирует устойчивый интерес к русской культуре и способствует успешной межкультурной коммуникации.

Список литературы:

1. Патракова В.В. Проектная деятельность учащихся в системе развивающего обучения // Педагогика. — 2018. — № 4. — С. 55–59.
2. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. — М.: Академия, 2017. — 272 с.
3. Сериков В.В. Личностно ориентированное образование: поиск новой парадигмы. — М.: Логос, 2016. — 256 с.
4. Щукин А.Н. Методика преподавания русского языка как иностранного. — М.: Русский язык. Курсы, 2020. — 368 с.
5. Хуторской А.В. Проектная деятельность в современном образовании. — М.: Просвещение, 2019. — 192 с.
6. Кильмасова И.А Творческий проект как средство формирования самостоятельности учащихся // Новое слово в науке и практике: гипотезы и апробация результатов исследований. 2015. - С.92 URL: https://cyberleninka.ru/journal/n/novoe-slovo-v-nauke-i-praktike-gipotezy-i-aprobatsiya-rezultatov-issledovaniy.
7. Григорян А.А. Проектная деятельность как одна из эффективных технологий обучения студентов-иностранцев в условиях цифровизации высшего образования // Проблемы современного педагогического образования. 2019; № 65-3. - С. 10–14.
8. Землянская Е.Н. Учебные проекты младших школьников. Начальная школа. 2015; № 9 . - С. 55-59.
9. Мандель Б.Р. М23 Основы проектной деятельности: учебное пособие для обучающихся в системе СПО/Б.Р.Мандель. – Москва; Берлин: Директ-Медиа, 2018. – 294 с.
10. Копылова Н.А Информационные проекты как инновационный метод преподавания профессионально-ориентированного иностранного языка в техническом вузе// Современные информационные технологии и ИТ-образование. 2016.-С.58.URL: https://cyberleninka.ru/article/n/informatsionnye-proekty-kak-innovatsionny metod-prepodavaniya-professionalno-orientirovannogo-inostrannogo-yazyka-v-tehnicheskom.
11. Кондрашова Н.В. Проектная деятельность при изучении русского языка как иностранного в техническом вузе // Мир науки, культуры, образования. 2017; № 1 (62). - С. 133–135.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 94:332.8 (575.1) "1991/2021"

SHAHAR TEMIR YO‘L TRANSPORTI – METROPOLITENLAR TARIXIGA NAZAR

Matyoqubov Nurbek, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

URBAN RAILWAY TRANSPORT – A LOOK AT THE HISTORY OF METROPOLITAN STATES

Matyokubov Nurbek, Doctor of Philosophy in Historical Sciences

ГОРОДСКОЙ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНЫЙ ТРАНСПОРТ – ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ МЕТРОПОЛИТЕНОВ

Матёкубов Нурбек, доктор философии по историческим наукам

https://orcid.org/0009-0006-1874-101X
matyakubovnurbek930@gmail.com

Annotatsiya: *O‘z maqsadi tomon harakatlanuvchi yuz minglab insonlarni manziliga yetkazuvchi metropolitenning barpo qilinishi har bir mamlakat tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega jarayon hisoblanadi. Chunki, har qanday davlatning ham metro qurilishiga qurbi yetmaydi. Aholisi zich joylashgan va bir-biridan uzoqda joylashgan kvartallarni bir-biriga bog‘lash uchun metropoliten eng mukammal yechimdir. Buning uchun esa o‘sha davlatda yerosti muhandislik kommunikatsiya tarmoqlari rivojlangan bo‘lishi lozim. Mazkur maqolada dunyo mamlakatlarida metro qurilishi bilan bog‘liq jarayonning tarixiy jihatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *metropoliten, yerosti transporti, qayta qurilish, tirbandlik, bekatlar, tramvay liniyasi, shahar kengashi, jamoat transporti, ommaboplik, Chilonzor.*

Annotation: *The construction of the metro, which transports hundreds of thousands of people moving towards their destination, has literally become the pride and pride of the cities of the world, is a unique process in the history of the world. Because not every country can afford to build a subway. A metro is the perfect solution to connect densely populated and far-flung neighborhoods. For this, the underground engineering communication networks must be developed in that country. It seemed impossible to build a subway in the conditions of world-unique high seismicity, sedimentary soils, and hot climate. This article analyzes the historical aspects of the process related to the construction of the metro in Tashkent.*

Key words: *metropolitan, urban transport, reconstruction, traffic, stops, tram line, city council, public transport, popularity, Chilonzor.*

Аннотация*: строительство метро, которое перевозит сотни тысяч людей, движущихся к месту назначения является уникальным процессом в истории мира. Потому что не каждая страна может позволить себе построить метро. Метро — идеальное решение для соединения густонаселенных и отдаленных районов. Для этого в этой стране должны быть развиты подземные инженерные коммуникации. Казалось невозможным построить метро в условиях уникальной для города высокой сейсмичности, осадочных грунтов и жаркого климата. В данной статье анализируются исторические аспекты процесса, связанного со строительством метрополитена в мире.*

Ключевые слова*: метрополитен, городской транспорт, реконструкция, трафик, остановки, трамвайная линия, городской совет, общественный транспорт, популярность, Чиланзар.*

Kirish. Yer yuzidagi har qanday yirik shaharda jamoat transporti muammosi eng keskin muammolardan biridir. Aynan mana shu muammoning yechimini izlash ko‘pgina ijobiy o‘zgarishlarga olib kelgan. Yillar davomida shaharlar kengayishda davom etdi, aholi soni ko‘paya bordi. O‘z navbatida tramvay liniyalari, avtobus va trolleybus yo‘nalishlari uzaytirildi. Biroq, shaharlardagi transport muammosini hal qilish uchun boshqa yangi yo‘llarni izlash zaruriyati "kunning

tig‘iz paytlari”da ayniqsa ayon bo‘la boshladi. Va keyingi shahar Kengashi sessiyalaridagi rahbar nutqlarida, iqtisodchilarning reja-konturlarida, arxitektorlarning istiqbolli eskizlarida, shahar aholisining o‘zaro suhbatlarida “metro” so‘zi tobora ko‘proq va tez-tez yangray boshladi[1,63].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Temir yo‘l yo‘lovchi hamda turli-tuman yuklarni tashishga ixtisoslashgan texnik vositalar (poyezdlar, vagonlar, stansiyalar, avtomatika va telemexanika qurilmalari, dispetcherlik xizmati) bilan jihozlangan transport korxonasi bo‘lib, vazifasiga ko‘ra umumiy foydalaniladigan (magistral), sanoat transporti va shahar temir yo‘li (tramvay, metropoliten) kabi turlarga bo‘linadi. Butun dunyo bo‘yicha yo‘lovchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar metro shahar transportining eng qulay, tezkor va xavfsiz turi deb hisoblanishini isbotlagan. Texnik mutaxassislar esa metropolitenning ommabopligini uning yuqori yuk ko‘tarish qobiliyati, poezdlar harakatining ishonchli va aniqligi, eng so‘nggi avtomatlashtirish tizimlari bilan ta’minlanganligi, ravshanligi, yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish madaniyatining yuqoriligi, metro stansiyalaridagi qat’iy tartib bilan bog‘lashmoqda. Metro shahar transportining eng zamonaviy turi ekanligi butun dunyo tomonidan qabul qilingan[2,89].

Muhokama. Metro bir yuz o‘ttiz yildan ortiq tarixga ega. Dunyodagi birinchi yerosti temir yo‘li London metrosi bo‘lib, u 1863-yil yanvar oyida harakatlanish uchun ochilgan. Uning birinchi qatori Metropolitan kompaniyasi tomonidan qurilgan. Kompaniyaning nomi yangi turdagi jamoat transporti nomiga eng mos keladi. Mazkur paytga kelib temir yo‘l dunyoning ko‘plab mamlakatlarida allaqachon tan olingan va yo‘lovchi hamda yuk qatnovini amalga oshirgan. Shu sababli londonlik huquqshunos Charlz Pirsonning yerosti shahar temir yo‘lini qurish taklifi qizg‘in qo‘llab-quvvatlangan edi. G‘oya o‘sha davrlar uchun misli ko‘rilmagan qisqa vaqt ichida — to‘rt yildan kamroq muddatda amalga oshirildi.

Peddingtonning birinchi liniyasida — Feddington ko‘chasida o‘sha davr uchun eng ilg‘or bo‘lgan 6,5 km uzunlikdagi lokomotiv tortish ishlatilgan. Metroning ishlashi katta miqdordagi tutun tufayli sezilarli darajada murakkablashdi, o‘sha paytda tunnellardan tutunni olib tashlash eng qiyin muammolardan biri edi. Ular alohida bo‘limlarni ochishga harakat qilishdi va buning iloji bo‘lmagan joylarda ko‘p miqdorda shamollatish lyuklari jihozlandi. Bunday noqulayliklarga qaramay, birinchi metro yerusti transportiga nisbatan juda katta afzalliklarini ko‘rsata oldi va tez rivojlana boshladi. 27 yil davomida metro parovoz tortish tizimida ishladi va faqat 1890-yilda yerosti transporti elektr tortishga o‘tkazildi.

London metrosining qurilishi asosan ochiq usulda amalga oshirildi. Birinchi yopiq uchastka 1870-yilda muhandis Barlou loyihasi bo‘yicha qurilgan. Tunnel qilish uchun silindrsimon burg‘ulash qalqoni ishlatilgan bo‘lib, tishli bo‘g‘inlar yig‘ilgan quyma temir quvurlar bilan qoplangan. Tubing o‘z nomini inglizcha “tube” (quvur) so‘zidan olgan. O‘sha paytda muhandis Gretheid tomonidan yaratilgan tunnel qalqonlarining silindrsimon shakli bugungi kunda ham chuqur tunnellarni haydashda, qalqonning turli xil modifikatsiyalarida keng qo‘llaniladi. XX asrning 40-yillari oxiriga kelib metro qurilishida murvatli birikmalarga ega bo‘lgan temir-beton quvurlar ham keng qo‘llanila boshlandi [4,289].

1902-yilda Rossiyada amerikalik muhandis Gouf Moskvada yerosti temir yo‘lini qurish imkoniyatini o‘rganib chiqdi. Qurilish taklifi Davlat Dumasi tomonidan diniy sabablarga ko‘ra rad etildi. Xuddi shunday taqdirni rossiyalik muhandis P.Balinskiyning Moskva va Sankt-Peterburgda umumiy foydalanishdagi yo‘llardan tashqaridagi tez yurar temir yo‘llar (metro) qurish bo‘yicha loyihalari ham boshdan kechirdi. Bu paytda Moskva shahar Dumasi “Janob Balinskiyni ta’qib qilishni to‘xtatish” to‘g‘risida qaror chiqardi. Bu vaqtga kelib Yevropa va Shimoliy Amerikada allaqachon 9ta metro mavjud edi.

1912-yilda Davlat Dumasi Moskva metropolitenini qurish bo‘yicha yangi loyihani ko‘rib chiqdi va tasdiqladi. Mazkur loyihada uchta liniya qurish taklif qilingan edi:

1. Smolenskiy bozoridan Kalanchevskaya maydoniga;
2. Vindavskiy (Rijskiy) stansiyasidan Serpuxovskaya maydonigacha;
3. Tverskaya Zastavadan Pokrovskaya Zastavagacha [5,67].

Loyihani amalga oshirish Birinchi jahon urushi boshlanishi munosabati bilan to‘xtatildi. 1919-yilga kelib Moskvada metro qurish g‘oyasi tasdiqlandi va 1922-yilga kelib metro qurilishi loyihasi ishlab chiqildi. Uni amalga oshirishga bir qator muammolar — urushdan keyingi iqtisodiy qiyinchiliklar va kadrlar yetishmasligi to‘sqinlik qildi.

1931-yil 15-iyunda Moskva metrosining Sokolnikidan Smolenskaya maydoniga bo‘lgan yo‘nalishi bilan Madaniyat bog‘igacha qurilishini

boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilindi. 1931-yil 10-dekabrda Rusakovskaya ko‘chasida Metrostroyning birinchi shaxtasi yotqizildi va 1932-yil bahorida kelajakdagi yo‘nalishning butun liniyasi bo‘ylab qurilish ishlari boshlandi. 1932-yil fevral oyida Mytishchi mashinasozlik zavodida metro vagonlarini yaratish bo‘yicha dastlabki ishlar boshlandi. 1935-yil yanvar oyiga kelib birinchi 40ta vagon qurilishi yakunlandi[6,198].

1935-yil 5-fevralda birinchi sinov poyezdi Sokolniki stansiyasidan Park Kultura stansiyasigacha va Smolenskaya maydonigacha o‘tkazildi. 1935-yil 15-may kuni to‘rt vagonli poezdlarning muntazam harakati boshlandi. Birinchi liniya uzunligi 11,6 kmni tashkil etdi. Metro ishga tushirilgan yili kuniga o‘rtacha 177 ming kishi tashilgan. 1935-yilga kelib dunyoda 20 ga yaqin metro faoliyat ko‘rsatgan[7,256]. Keyingi yillarda Leningrad, Kiyev, Tbilisi, Boku va boshqa shaharlarda metro qurilishi davom etdi. Shunday qilib, Toshkent metrosi ishga tushguniga qadar dunyoning 30dan ortiq shaharlarida metro mavjud edi. 1941-yil yanvar oyida Leningrad metrosining qurilishi boshlandi. Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan jarayon to‘xtatildi va 1945-yilda qayta tiklandi. 1955-yil 15-noyabrda Leningrad metrosi yo‘lovchilar uchun ochildi. Uzunligi 10,1 km bo‘lgan birinchi liniya 8ta stansiya va Avtovo deposini o‘z ichiga olar edi [8,334]. 1960-yil 6-noyabrda beshta stansiyadan iborat, uzunligi 5,2 km bo‘lgan Kiyev metrosi ochildi. 1966-yil 11-yanvarda Tbilisida 6,3 km uzunlikdagi metroning birinchi qismi foydalanishga topshirildi. Xarkovda metro qurilishiga tayyorgarlik ishlari boshlandi. 1967-yil 16-oktabrda Boku metrosining birinchi uchastkasidan sinov poyezdi o‘tdi [9,156].

Natijalar. Shunday qilib, Toshkentda metro ishga tushguniga qadar Moskva, Leningrad, Kiyev, Xarkov, Tbilisi, Boku va dunyoning boshqa mamlakatlaridagi 30ta shaharda metro faoliyat yuritgan. Keyinchalik Minskda (1977), Sverdlovskda (1980) qurilish boshlandi, 1981-yilda Yerevan metrosining birinchi bosqichi ochildi. 1985-yil oxirida Gorkiy va Novosibirskda, 1987-yil oxirida Kuybishev shahrida metro ishga tushirildi. Ayni paytda dunyoning 30dan ortiq davlatining 100ga yaqin shaharlarida metro yo‘llari faoliyat ko‘rsatmoqda. Bekatlarning uzunligi va soni bo‘yicha eng kattasi 474 ta bekatdan iborat, uzunligi 392,2 km bo‘lgan Nyu-York metrosi hisoblanadi. Shuningdek, 247ta stansiyadan iborat London metrosi hamda 423ta stansiyadan iborat Parij metrosi (tezkor liniyalar bilan birga) dunyodagi yirik metropoliten tizimlaridandir.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida temir yo‘l tarmoqlarining yuqori sur’atlar bilan ommalashuvi, turli mamlakatlarda yangi temir yo‘l yo‘nalishlarining qurilish jarayonlarining jadallashuvi uning katta harbiy-strategik ahamiyatga egaligi bilan izohlanadi. Temir yo‘l transporti xo‘jalik, iqtisodiy va strategik vazifalarga xizmat qilish bilan bir qatorda mamlakatlararo, hududlararo madaniy aloqalarni rivojlantirish, ijtimoiy masalalar hamda xalqaro turizm sohasida ham muhim rol o‘ynaydi va muayyan mamlakatning ilmiy-texnik taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shadi. Bundan tashqari, temir yo‘l transportining asosiy afzalliklaridan biri — boshqa transport vositalariga nisbatan yuk tashish qiymatining arzonligi, yilning har qanday mavsumida hamda katta hajmdagi yuklarni tashish imkoniyatiga egaligidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Антонович А.И., Дмитриев Н.П. Московская городская железная дорога. М.:1902.
2. Горный С. Корбюзье о реконструкции Москвы. Строительство Москвы. 1930.
3. Индустриализация СССР. Документы и материалы. Т.1-4. М.: 1969-1973.
4. Кобзарь С. Где строить линии метро. Строительство Москвы.1933.
5. Рыбаков А. Тридцать пятый и другие годы. М. 1988.
6. Stan Fischer. Subways of the world. 2000.
7. Maxwell J.Roberts. Underground Maps after Beck. 2005.
8. Е.Д.Резниченко. Дни и годы метростроя. Москва.1981.
9. Ю.С.Фролов. Метрополитены. Москва. 2001.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 37.091.3:004.9:811.111

АДАПТИВНЫЕ ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПЕРСОНАЛИЗИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Ашурова Нигина Алимджановна, и.о. доцента Самаркандского государственного института иностранных языков

https://orcid.org/0000-0002-5821-3936
e-mail: radius-83@mail.com

INGLIZ TILINI SHAXSIYLASHTIRILGAN TARZDA O‘RGANISH UCHUN MOSLASHUVCHAN RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASI

Ashurova Nigina Alimdjanovna, Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti v.b.

ADAPTIVE DIGITAL TECHNOLOGIES AS A TOOL FOR PERSONALIZED ENGLISH LANGUAGE LEARNING

Ashurova Nigina Alimdjanovna, Acting Associate Professor of Samarkand State Institute of Foreign Languages

Abstract: *Adaptive digital technologies have significantly transformed English language learning by offering personalized programs that consider each learner's level, interests, and needs. Unlike traditional standardized methods, these technologies use data analysis and machine learning to create individualized learning paths, provide immediate feedback, and dynamically adjust exercise difficulty.This article examines the effectiveness of such technologies, their impact on motivation and learning outcomes, and analyzes popular platforms. Issues of accessibility, data privacy, and integration with traditional teaching are also discussed. Overall, adaptive technologies present new opportunities for more effective and engaging English learning but require further research and teacher training for optimal use.*

Keywords: *adaptive learning, digital technologies, personalized learning, English language learning, language education, artificial intelligence, e-learning, learner-centered instruction, language proficiency, educational technology.*

Annotatsiya: *Moslashuvchan raqamli texnologiyalar ingliz tilini o‘rganishni tubdan o‘zgartirib, har bir o‘quvchining darajasi, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan shaxsiylashtirilgan dasturlarni taklif qilmoqda. An'anaviy standart usullardan farqli o‘laroq, ular ma'lumotlarni tahlil qilish va mashina o‘rganish usullaridan foydalangan holda individual o‘quv yo‘llarini yaratadi, darhol fikr-mulohaza beradi va mashqlar qiyinligini dinamik ravishda sozlaydi. Maqolada bunday texnologiyalarning samaradorligi, motivatsiya va o‘rganish natijalariga ta'siri hamda mashhur platformalar tahlil qilinadi. Kirish imkoniyatlari, ma'lumotlarni himoya qilish va an'anaviy ta'lim bilan integratsiya masalalari muhokama qilinadi. Umuman olganda, moslashuvchan texnologiyalar ingliz tilini yanada samarali va qiziqarli o‘rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, ammo ularni samarali qo‘llash uchun qo‘shimcha tadqiqotlar va o‘qituvchilar tayyorligi zarur.*

Kalit so‘zlar: *moslashuvchan ta'lim, raqamli texnologiyalar, shaxsiylashtirilgan ta'lim, ingliz tilini o‘rganish, til ta'limi, sun'iy intellekt, elektron ta'lim, o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta'lim, til kompetensiyasi, ta'lim texnologiyalari.*

Аннотация: *Адаптивные цифровые технологии существенно изменили обучение английскому языку, предлагая персонализированные программы, которые учитывают уровень, интересы и потребности каждого ученика. В отличие от традиционных стандартных методов, они используют анализ данных и машинное обучение для создания индивидуальных траекторий, обеспечивая мгновенную*

обратную связь и динамическую корректировку сложности заданий. Статья рассматривает эффективность таких технологий, их влияние на мотивацию и результаты обучения, а также анализирует популярные платформы. Обсуждаются проблемы доступности, защиты данных и необходимости интеграции с традиционным преподаванием. В целом, адаптивные технологии открывают новые возможности для более эффективного и увлекательного изучения английского, однако требуют дальнейших исследований и подготовки педагогов для оптимального применения.

Ключевые слова: *адаптивное обучение, цифровые технологии, персонализированное обучение, изучение английского языка, языковое образование, искусственный интеллект, электронное обучение, обучение, ориентированное на обучающегося, языковая компетенция, образовательные технологии.*

Introduction. In recent years, the advancement of digital technologies has significantly transformed the landscape of education, particularly in language learning. Among these innovations, adaptive digital technologies have emerged as powerful tools that offer personalized learning experiences by adjusting content, pace, and feedback to suit individual learner needs. This capability is especially valuable in English language learning, where learners often have diverse backgrounds, proficiency levels, and learning preferences. Traditional English language instruction typically follows a standardized curriculum designed for a broad audience, which can limit its effectiveness for many learners. Adaptive digital technologies address this limitation by utilizing real-time data analytics, machine learning algorithms, and user interaction patterns to create customized learning pathways. These technologies can identify learner strengths and weaknesses, provide immediate corrective feedback, and dynamically adjust lesson difficulty, thereby enhancing learner engagement and motivation.The integration of adaptive digital technologies in education has been the focus of extensive research over the past decade, particularly in the domain of language learning. Adaptive learning systems are defined as educational technologies that modify content delivery based on continuous assessment of learner performance and preferences [1,c.90]. In the context of English language learning, these systems aim to address individual differences in proficiency, learning styles, and pace, which traditional classroom settings often struggle to accommodate [2,c.47].

Despite their potential, challenges such as accessibility, data privacy, and effective integration with traditional instruction remain significant. This study aims to investigate the role and impact of adaptive digital technologies in personalized English language learning, examining both their benefits and limitations.

Methods. This study is based on a qualitative analysis of existing scholarly literature on adaptive digital technologies in English language learning. A review of relevant research articles, empirical studies, and theoretical publications was conducted to identify key themes related to personalization, learner engagement, effectiveness, and implementation challenges.

The analysis focused on:

-Definitions and theoretical foundations of adaptive learning systems;

-Empirical studies evaluating the effectiveness of adaptive platforms in language learning;

-Research addressing technological components such as AI and machine learning;

-Studies discussing implementation challenges, including accessibility, privacy, and pedagogical integration. Additionally, widely used adaptive platforms such as Duolingo, Rosetta Stone, and Babbel were examined as practical examples of adaptive learning technologies in action.

Results. The literature review indicates that adaptive digital technologies significantly enhance learner engagement, motivation, and language acquisition outcomes.

Several studies highlight the effectiveness of adaptive technologies in enhancing learner participation and persistence. Johnson and Lester demonstrated that adaptive language learning platforms offering real-time feedback and personalized exercises significantly increase student engagement [4,c.30]. Similarly, Huang, Huang, and Tschopp found that adaptive vocabulary learning apps improve retention rates by customizing word difficulty and review intervals according to learner progress [3,c.10].

The application of artificial intelligence (AI) and machine learning algorithms has further strengthened personalization capabilities. AI-driven platforms analyze learner data to predict needs and tailor content dynamically [9,c.115]. For example, research by Li and Hegelheimer on automated writing evaluation tools shows that adaptive feedback improves writing skills more effectively than static correction methods [6,c.52].

Modern adaptive systems rely on several core components:

-User Data Collection and Analysis, including tracking performance, errors, and time spent on tasks;

-Machine Learning and AI, enabling dynamic adjustment of content and task difficulty;

-Personalized Feedback Delivery, providing immediate and targeted responses to learner performance.

Adaptive systems effectively address the "one-size-fits-all" limitation of traditional classrooms by offering individualized learning paths. This is particularly beneficial in multicultural and multilingual settings where proficiency levels vary widely. However, the results of the reviewed studies also reveal challenges. Accessibility remains limited in under-resourced areas due to technological requirements [5,c.410]. Data privacy concerns require strict compliance with legal standards and transparent data policies [8,c.1515]. Furthermore, research emphasizes that adaptive technologies are most effective when integrated into blended learning models rather than replacing teachers entirely [7,c.146].

Discussion. The findings confirm that adaptive digital technologies represent a transformative advancement in English language education. By dynamically adjusting instructional content to individual learner profiles, these systems promote learner-centered education and improve motivation, engagement, and proficiency outcomes. At the same time, successful implementation depends on addressing several critical challenges. Accessibility must be expanded through institutional and governmental initiatives. Strong data protection measures are necessary to ensure ethical use of learner information. Equally important is the professional development of educators to facilitate meaningful integration of adaptive tools within traditional teaching frameworks. A blended learning approach, combining adaptive digital technologies with teacher-led instruction, appears to be the most effective model. Human interaction remains essential for developing complex communicative competencies and socio-cultural aspects of language learning. Future research should include longitudinal studies to evaluate long-term proficiency outcomes and explore adaptive learning applications in diverse educational contexts. Additionally, the development of systems that account for both cognitive and affective dimensions of learning may further enhance personalization effectiveness.

In conclusion, adaptive digital technologies hold substantial promise for making English language learning more personalized, efficient, and inclusive. With thoughtful implementation and continued research, these tools can significantly enhance learner autonomy and overall educational outcomes.

References:

1. Brusilovsky P. Adaptive hypermedia. User modeling and user-adapted interaction, 2001, vol. 11, no. 1-2, pp. 87–110.
2. Chen C. Adaptive learning technologies in language education: A review. Journal of Educational Technology, 2018, vol. 35, no. 4, pp. 45–60.
3. Huang J., Huang S., Tschopp F. Personalized vocabulary learning: The impact of adaptive spaced repetition. Language Learning & Technology, 2020, vol. 24, no. 3, pp. 1–18.
4. Johnson W.L., Lester J.C. Face-to-face interaction with pedagogical agents, twenty years later. International Journal of Artificial Intelligence in Education, 2016, vol. 26, no. 1, pp. 25–36.
5. Kim C., Hannafin M. Scaffolding problem solving in technology-enhanced learning environments (TELEs): Bridging research and theory with practice. Computers & Education, 2011, vol. 56, no. 2, pp. 403–417.
6. Li Z., Hegelheimer V. Efficacy of automated writing evaluation for feedback: Does it improve student writing? ReCALL, 2013, vol. 25, no. 1, pp. 49–64.
7. Reinders H., White C. The theory and practice of technology in materials development: Introduction to the special issue. Language Teaching, 2016, vol. 49, no. 2, pp. 143–147.
8. Slade S., Prinsloo P. Learning analytics: Ethical issues and dilemmas. American Behavioral Scientist, 2013, vol. 57, no. 10, pp. 1510–1529.
9. Woolf B.P. Building intelligent interactive tutors: Student-centered strategies for revolutionizing e-learning. Morgan Kaufmann, 2010.- 480 p.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 821.161.1.09-32

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ РОЛЬ РАЗВЯЗКИ В РАССКАЗАХ К.Г.ПАУСТОВСКОГО

Шадманова Алёна Сергеевна, преподаватель кафедры русского языка и литературы Университета экономики и педагогики

https://orcid.org/0009-0005-6968-0694
e-mail: shadmanovaalena@yandex.com

K.G. PAUSTOVSKIY HIKOYALARIDA YECHIMNING BADIIY ROLI

Shadmanova Alyona Sergeyevna, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti "Rus tili va adabiyoti" kafedrasi o'qituvchisi

THE ARTISTIC ROLE OF THE DENOUEMENT IN THE SHORT STORIES OF K. G. PAUSTOVSKY

Shadmanova Alyona Sergeevna, Lecturer of the Department of Russian Language and Literature, University of Economics and Pedagogy

Аннотация: *В статье исследуется художественная функция развязки в рассказах К.Г.Паустовского как ключевого структурно-смыслового элемента повествовательной поэтики писателя. Целью исследования является выявление особенностей финалов в малой прозе Паустовского и определение их роли в формировании философского и эмоционального содержания произведения.*

Ключевые слова*: рассказ, развязка, поэтика, композиция, лирическая проза, открытый финал, художественное время, читательское восприятие, русская литература.*

Annotatsiya*: Mazkur maqolada K.G.Paustovskiy hikoyalarida razvyazka (yakun)ning yozuvchining narrativ poetikasida muhim strukturaviy-mazmuniy unsur sifatidagi badiiy funksiyasi tadqiq etiladi.*

Kalit so'zlar: *hikoya, razvyazka (yakun), poetika, kompozitsiya, lirik nasr, ochiq yakun, badiiy vaqt, o'quvchi talqini, rus adabiyoti.*

Abstract*: This article examines the artistic function of the denouement in the short stories of K. G. Paustovsky as a key structural and semantic element of the writer's narrative poetics. The aim of the study is to identify the specific features of endings in Paustovsky's short prose and to determine their role in shaping the philosophical and emotional content of the works.*

Key words: *short story, denouement, poetics, composition, lyrical prose, open ending, artistic time, reader reception, Russian literature.*

Введение. Развязка как элемент композиции художественного произведения традиционно рассматривается в контексте сюжетного завершения и разрешения конфликта. Однако в литературе XX века, особенно в малой прозе, финал всё чаще утрачивает функцию однозначного логического итога и приобретает философскую, психологическую и эстетическую значимость. В этом отношении творчество К.Г.Паустовского представляет собой показательный материал для анализа.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью переосмысления роли развязки в лирической прозе, где завершение повествования ориентировано не на фабульный результат, а на внутреннее состояние героя и читательское восприятие. Несмотря на значительное количество работ, посвящённых поэтике Паустовского, проблема художественной функции развязки в его рассказах до настоящего времени не получила системного освещения.

Цель статьи — выявить специфику развязки в рассказах К.Г.Паустовского и определить её роль в формировании смысловой и эмоциональной структуры произведений.

Материалы и методы. Художественная структура литературного произведения во многом определяется тем, каким образом в нём организован финал. Именно завершение текста концентрирует в себе основные смысловые и

эмоциональные акценты, подводя читателя к осмыслению всего предшествующего повествования. В литературоведении неоднократно подчёркивалось, что финал выполняет не только композиционную, но и философскую функцию, отражая авторское понимание мира, человека и времени (Веселовский,1989; Лотман,1970). Как отмечала Л.Я.Гинзбург, в лирически ориентированном повествовании внешнее действие нередко отступает на второй план, а смысловое завершение переносится в сферу переживания и эмоционального опыта героя (Гинзбург,1974). В таких текстах финал не разрешает конфликт в привычном смысле, а фиксирует состояние сознания, момент внутреннего прозрения или тихого примирения с происходящим. Проза К.Г.Паустовского занимает в этом контексте особое место. Его рассказы и повести отличаются тонкой лирической интонацией, вниманием к внутреннему миру личности и отказом от жёстко заданной фабульной логики. Исследователи неоднократно подчёркивали, что Паустовский стремился показать не столько событие, сколько его отражение в душе человека, его эмоциональный след (Кременцов, 1982). Именно поэтому развязка в его произведениях часто приобретает форму размышления, воспоминания или символического образа, а не действия.

Композиционно финалы Паустовского нередко строятся как открытые или полуоткрытые. Такой приём, по мысли Ю.М.Лотмана, активизирует читательское восприятие и превращает текст в диалог между автором и читателем, где окончательный смысл не задаётся однозначно, а рождается в процессе интерпретации (Лотман, 1970). Читатель оказывается вовлечён в сотворчество, дополняя и осмысливая художественный мир произведения. Важную роль в формировании подобного типа финала играет символика. Финальные образы природы, света, воды, тишины у Паустовского несут философскую нагрузку и выступают как знаки внутреннего состояния героя. Подобный приём позволяет писателю выразить сложные экзистенциальные смыслы без прямого авторского комментария, что соответствует общей тенденции художественного мышления XX века (Хализев, 2004).

Нельзя не отметить и гуманистическую направленность прозы Паустовского. Его финалы редко бывают трагическими или безысходными; напротив, они часто наполнены тихой надеждой, ощущением внутренней гармонии или примирения с жизнью. В этом проявляется убеждённость писателя в ценности человеческого опыта, памяти и нравственного выбора. Подобная установка сближает его творчество с традициями лирической прозы, где смысл рождается из переживания, а не из события (Панова, 1972). Сопоставление русской и узбекской литературной традиции также показывает, что приёмы лирического завершения широко используются в национальных литературах XX века. Исследования О.Сафарова и И.Султона свидетельствуют о том, что открытый финал становится важным средством передачи философских и этических идей, позволяя автору избежать прямолинейных выводов и сохранить художественную многозначность текста (Сафаров, 2016; Султон, 1995).

Анализ научных источников позволяет сделать вывод о том, что развязка в лирической прозе — и особенно в произведениях К.Г.Паустовского — представляет собой не просто завершающий элемент композиции, а ключевую смысловую зону текста. Она объединяет философское содержание, эмоциональный опыт и читательское восприятие, формируя целостное художественное впечатление и определяя специфику поэтики малой прозы XX века.

Результаты. Анализ художественной структуры рассказов К.Г.Паустовского позволяет утверждать, что развязка в его прозе ориентирована прежде всего на сферу внутреннего переживания героя, а не на формальное разрешение внешнего конфликта. Сюжетное действие, как правило, не завершается чётким итогом, а постепенно растворяется в эмоциональном состоянии персонажа, что придаёт финалу характер внутреннего итога и психологического обобщения. В произведениях раннего и зрелого периодов творчества Паустовского особенно заметно, что финал тесно связан с мотивами памяти, времени и личного прозрения. Воспоминание выступает не как простое возвращение в прошлое, а как форма осмысления жизненного опыта. Прошедшее событие получает новое значение в момент внутреннего переживания, когда герой осознаёт его ценность или утрату. Тем самым развязка становится точкой соединения прошлого и

настоящего, придавая повествованию философскую глубину.

Аналогичный приём наблюдается и в ряде рассказов, где кульминация и развязка фактически совпадают в пространстве внутреннего сознания персонажа. В этих случаях напряжение сюжета достигает своего пика не в момент действия, а в момент осознания, когда герой приходит к тихому, часто невыраженному вслух пониманию происходящего. Подобная структура сближает прозу Паустовского с лирической традицией, в которой психологический процесс важнее фабульной завершённости (Гинзбург, 1974).

Финалы такого типа обладают открытым характером и не предлагают читателю однозначной интерпретации. По мысли Ю.М.Лотмана, именно незавершённость и многозначность финала активизируют читательское восприятие, побуждая его к самостоятельному смысловому завершению текста (Лотман,1970). В прозе Паустовского читатель становится соучастником внутреннего движения героя, продолжая размышление за пределами текста. Важно подчеркнуть, что подобная организация развязки отражает гуманистическое мировоззрение писателя. Отказ от жёсткого сюжетного финала позволяет сохранить ощущение жизненной непрерывности, текучести времени и открытости человеческого опыта. Как отмечает В.Е.Хализев, такие финалы характерны для произведений, в которых художественный смысл сосредоточен не в событии, а в переживании и нравственном выборе личности (Хализев, 2004). Развязка в рассказах К.Г.Паустовского выступает не как точка завершения действия, а как пространство внутреннего осмысления, где соединяются память, время и личный опыт героя. Этот приём определяет специфику поэтики писателя и позволяет рассматривать его малую прозу как форму философского и лирического постижения мира, в которой внешнее уступает место внутреннему, а завершённость — открытости смысла.

Обсуждение. По наблюдению Ю.М.Лотмана, открытый финал расширяет семантическое поле текста и способствует его интерпретационной вариативности (Лотман,1970). В рассказах Паустовского эта особенность сочетается с символической насыщенностью финальных образов — воды, света, тишины, сна, — которые концентрируют философское содержание произведения. В рассказах Паустовского развязка выполняет не столько композиционную, сколько мировоззренческую функцию, отражая гуманистическую направленность его творчества и внимание к внутреннему миру личности (Гинзбург, 1974).

Заключение. Развязка в рассказах К.Г.Паустовского представляет собой многофункциональный элемент художественного текста, сочетающий в себе психологическое, философское и эстетическое начало. Лирическая открытость финалов, их символическая насыщенность и ориентация на читательское соучастие позволяют рассматривать развязку как внутренний смысловой центр произведения. Проведённый анализ подтверждает, что финал в малой прозе Паустовского не завершает сюжет в традиционном понимании, а формирует пространство внутреннего художественного обобщения. Это позволяет уточнить представления о поэтике писателя и расширяет исследовательские подходы к изучению структуры повествования в русской литературе XX века.

Список использованной литературы:

1. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. — М.: Высшая школа, 1989.
2. Гинзбург Л.Я. О лирике. — Л.: Советский писатель, 1974.
3. Гофф И. Превращения. Повесть воспоминаний. — М.: Советский писатель, 1984.
4. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. — М.: Искусство, 1970.
5. Панова В.Ф. Заметки литератора. — Л.: Советский писатель, 1972.
6. Паустовский К.Г. Золотая роза. — М.: Молодая гвардия, 1963.
7. Сафаров О. Замонавий ўзбек насри поэтикаси. — Тошкент, 2016.
8. Султон И. Ona yurt // Oydinbuloq. — Тошкент, 1995.
9. Хализев В.Е. Теория литературы. — М.: Высшая школа, 2004.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 37.091.3:004.9:811.111

ETNOSPORTNING BARKAMOL SHAXSNI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI VA IJTIMOIY AHAMIYATI

Abdullayev Dilshod Hamudullo o‘g‘li,
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

THE ROLE OF ETHNOSPORT IN THE FORMATION OF A HARMONIOUSLY DEVELOPED PERSONALITY AND ITS SOCIAL SIGNIFICANCE

Abdullayev Dilshod Khamudullo o‘g‘li,
Associate Professor, Jizzakh State Pedagogical University

РОЛЬ ЭТНОСПОРТА В ФОРМИРОВАНИИ ГАРМОНИЧНО РАЗВИТОЙ ЛИЧНОСТИ И ЕГО СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Абдуллаев Дилшод Хамиудулло угли,
доцент Джизакского государственного педагогического университета

https://orcid.org/0000-0003-079-736
e-mail: dilshod1986@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biri xalq o‘yinlari haqida hikoya qilinadi. Bolalarni, mehnatsevarlik va jamoat oldida o‘z burchini his qilish ruhida tarbiyalash hozirgi kunning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Bolalar bog‘chaga qadam qo‘ygan birinchi kunidan boshlaboq, unda mehnatga nisbatan muhabbat uyg‘otish, uyushqoqlik, ishchanlik, jismoniy rivojlanish va boshlagan ishini oxiriga yetkaza bilish xususiyatini tarbiyalash kerak haqida kerakli ma’lumotlar yozilgan.*

Kalit so‘zlar: *odob, ahloq, sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, diqqat, iroda, hissiyot.*

Abstract: *This article tells about folk games, one of the means of intellectual, moral, physical and aesthetic education of children. Raising children in the spirit of hard work and a sense of duty to society is one of the most important issues of today. From the first day children enter kindergarten, necessary information is written about the need to instill love for work, organization, diligence, physical development, and the ability to finish what they have started.*

Key words: *manners, morality, intuition, perception, thinking, imagination, memory, attention, will, emotion.*

Аннотация: *В данной статье рассказывается о народных играх, одном из средств интеллектуального, нравственного, физического и эстетического воспитания детей. Воспитание детей в духе трудолюбия и чувства долга перед обществом – один из важнейших вопросов современности. С первого дня поступления детей в детский сад пишется необходимая информация о необходимости прививать любовь к труду, организованность, трудолюбие, физическое развитие и умение доводить начатое до конца.*

Ключевые слова: *манеры, нравственность, интуиция, восприятие, мышление, воображение, память, внимание, воля, эмоция.*

KIRISH. Albatta, mustaqillik bizga ko‘p narsa berdi, u tufayli ko‘plab «darvozalar»ga yo‘llar ochildi. Mustaqillik sharofati bilan milliyligimiz qaytdi, bu ayniqsa xalqning milliy o‘yinlari va mashqlari, sport turlari bo‘yicha o‘tkaziladigan musobaqalarda namoyon bo‘ldi.

Ilgarilari keng omma ishtirok etgan Navro‘z bayramlari, sayillar, to‘ylarimiz xalq o‘yinlari, jismoniy mashqlar, umuman milliy sport turlarisiz o‘tkazilmagan. Afsuski, urush davrlarida mamlakatda ular butunlay esdan chiqib, unutilayozdi, shuning uchun ularni izlash va tiklash o‘z xalqini va millatini e’zozlagan har bir kishining burchi bo‘lib kelmog‘i kerak. Bu xayrli ish esa bugungi kunda davlat siyosati darajasiga yetkazildi.

Ushbu milliy qadriyatlarimizni saqlab qolish va yosh avlodga yetkazish bo‘yicha qilingan sa’y-harakatlar muhtaram prezidentimizning «Kelajak bog‘chadan boshlanadi» degan purma’no so‘zlarida ham o‘z ifodasini topdi. Darhaqiqat, aslida vatanparvarlik, el-yurtga fidoyilik bir qarashda oddiy, lekin hayot talabi bo‘lgan ana shunday dolzarb ishlardan boshlanadi.

Prezidentimiz tomonidan, Mamlakatimizda milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini (etnosport) targ‘ib qilish va ommalashtirish, bolalar va o‘smirlarni ularga keng jalb qilish, xalqaro aloqalarni kuchaytirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-iyundagi PQ–5149-son qaroriga muvofiq: Etnosport turlarini 2025-yilgacha ommalashtirish va rivojlantirish dasturi 1-ilovaga muvofiq;

Etnosport turlarini 2025-yilgacha ommalashtirish va rivojlantirish dasturini 2022-2023-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlandi.

Milliy xalq o‘yinlarining kelib chiqish tarixi uzoq o‘tmishimiz bilan bog‘lanib ketadi. Afrosiyob, Dalvarzin tepa, Sirdaryoning quyi qismlarida (Toshkent viloyati), shuningdek Xorazm va Qoraqalpog‘iston hududlarida o‘tkazilgan arxeologik qazilmalar, qidiruv ishlarining natijalari asosida topilgan turli xil buyumlar, ashyolar, bezaklarning guvohlik berishicha bundan 3-4 ming yillar avvalgi ajdodlarimiz xilma-xil o‘yinlar, jismoniy mashqlar bilan mashg‘ul bo‘lgan. Yovvoyi hayvonlarni tutish, ov qilish, quvlash, nayza sanchish, olishish va boshqa juda ko‘p murakkab harakatli faoliyatlar tasvirlarda, sopol va metall buyumlarda ifoda etilgan. Shuningdek Omonqo‘ton (Samarqand), Chorvoq atrofidagi (Toshkent viloyati) yassi toshlar, g‘orlarda odamlarning ov qilish va hayvonlar bilan jang qilish (olishish), turli xil o‘yinlar bilan shug‘ullanishlari aks ettirilgan. Bunday holatlar Surxon va Qashqa vohasidagi g‘orlar, sohillardagi toshlar, Farg‘ona vodiysidagi tog‘li manzillarda (Chotqol tog‘lari) ham ko‘p uchraydi. [2,10,15]

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mustaqillik yillarida milliy an’ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, kelajak avlodga bekam-u ko‘st yetkazishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda unutilib ketayotgan xalq og‘zaki ijodi namunalari, an’ana va urf-odatlar, milliy o‘yinlar qayta tiklanayotir. Xalq o‘yinlari azaldan ajdodlarimiz madaniy hayotining ajralmas qismi sifatida e’zozlanadi. Aksariyat o‘yinlarning ildizlari juda qadimiy bo‘lib, ular asrlar davomida xalqimiz ma’naviyatini boyitishga, ong-u tafakkuri va his-tuyg‘ularini teranlashtirishga xizmat qilgan. O‘yinlarda xalqning turmush tarzi, mehnati, yutuqlari o‘z aksini topadi. Shu bois ular yosh avlodlarni tarbiyalashda “hayot maktabi” vazifasini o‘tagan. O‘yin - turli ifodali vositalar bilan ma’lum qoida yoki oldindan kelishilgan shartlar asosidagi jismoniy musobaqalar, bellashuvlar, tafakkur bahslari va ijrochilik talablaridan vujudga kelgan milliy qadriyat hisoblanadi. Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” asarida kurash va jismoniy mashqlarning kishi badan tarbiyasidagi o‘rni, o‘yinning shifobaxsh xususiyatlari haqida to‘xtalgan. Kaykovus, Umar Xayyom, Abulqosim Firdavsiy, Beruniylar chavgon, shaxmat, qilichbozlik, chavandozlik kabi yuzlab o‘yinlar xususida yozib qoldirgan. Alisher Navoiy asarlarida bayramlar, tantanalar, to‘ylar munosabati bilan tashkil etilgan o‘yinlar haqida ko‘pgina ma’lumotlar bor. Ularda o‘yinlarning uyushtirilishi, ijrochilari, o‘tkazish qoidalari bayon etilgan. [3,5]

Keyingi yillarda jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirish kichik yoshdagi bolalarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida dars davomida yetarli yuklama bilan ta’minlash, dars zichligini oshirish, darsda yangi pedagogik texnologiya uslublarini qo‘llash olimlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri. Bu sohada T.Usmonxo‘jayev, F.Xo‘jayev, X.A.Meliyev kabi olimlar o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Etnosport turlarini tashkil etish va uni o‘tkazish uslublari haqida ko‘p yillik tajriba va ma’lumotlarga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan maslahatlashish kerak. Ular sizga etnosport

turining xususiyatlarini, tashkil etish usullarini, o‘tkazish usullarini va ko‘nikma ko‘paytirish usullarini o‘rganishda yordam beradi.

NATIJALAR. Bolalar o‘yinlari - bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biri. Ular bolalarning har tomonlama kamol topishiga katta ta’sir qiladi. O‘yin vaqtida sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, diqqat, iroda, hissiyot va boshqa ruhiy jarayonlar ishtirok etadi. Bolalar o‘yinlarining 3 asosiy xususiyati bor. Birinchidan, bola o‘yin faoliyatini bola erkin, o‘z xohishi bilan bajaradi. Ikkinchidan mazkur faoliyatning ijodiy va faolligidir. Uchinchidan, o‘yin harakatlarining jo‘shqinligi: bola o‘yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, unda o‘rtoqlik hissi kuchayadi. Bolalar o‘yinlari mazmuniga qarab o‘yinchoqli, voqeaband (sujetli), harakatli va didaktik o‘yinlarga bo‘linadi: 1) o‘yinchoqli o‘yinlar asosan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o‘yinlaridir (sodda o‘yinchoqlar, mas., shiqildoq, kubiklar o‘ynash; qum bilan o‘ynash); 2) voqeaband o‘yinlarda bolalar kattalar faoliyatiga taqlid qilishadi. Bu o‘yinlar bolaning tashqi muhitidagi voqelikni aks ettiradi (mas., “bola boqish”, “ovqat pishirish”, “bog‘cha-bog‘cha” o‘ynash va b.) Bolalar ulg‘aygan sari ularning voqeaband o‘yinlari ham murakkablasha boradi; 3) harakatli o‘yinlarni bolalar yakka-yakka yoki birgalikda bajaradilar (mas, koptok o‘ynash, tez yugurish va b.) Bu o‘yinlar maktab yoshidagi bolalarga ayniqsa foydalidir: bolalar sog‘lig‘ini mustahkamlaydi, ularni irodali qilib tarbiyalashga yordam beradi. Bolalarning sport o‘yinlari ham harakatli o‘yinlardandir; 4) didaktik o‘yinlarni tarbiyachilar o‘ylab topadi. Bu o‘yinlar bog‘chalarning katta guruhlarida tarbiyalanadigan va boshlang‘ich sinflarda o‘qiydigan bolalarga mo‘ljallanadi (mas, tabiiy-ilmiy mavzularga, chet tili so‘zlarini eslab qolishga oid va h.k.). Bu o‘yinlar bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, zehn kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolani sog‘lom va baquvvat bo‘lib o‘sishiga imkon beradi. [3,10]

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni etnosport turlari bolalarning jismoniy va ma'naviy rivojlanishini oshirish uchun muhim vositalardan biridir. Bu turlar, milliy o‘yinlar, o‘yinchoqlar va boshqa etnik o‘yinlarni o‘rganish, ijro etish va ularga qatnashishni o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu turdagi o‘yinlar jismoniy tayyorgarligini oshirish, qo‘l va ko‘z koordinatsiyasini rivojlantirish, sodiq bo‘lishni, jangovarlikni va hayotni yaxshi tushunishni o‘rgatish uchun yaxshi vosita hisoblanadi.

Bu turdagi o‘yinlar, bolalarning jismoniy tayyorgarligi va rivojlanishini oshirish uchun muhim uslublarga ega. Bunday o‘yinlarni o‘rganish va ijro etish jismoniy faoliyatni oshiradi, shuningdek, insonning jismoniy tayyorgarligi va qabiliyatlari jihatidan yaxshi tushuncha va bilimlarni oshirishni ta'minlaydi. Bu o‘yinlar orqali bolalar hayotini tashkil qilish, jismoniy va ma'naviy rivojlanishlarini yaxshilash, yordamchilik va jangovarlikni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida etnosport turlari bolalarning jismoniy va ma'naviy rivojlanishlarini oshirishda muhim vositalardan biridir. Bu turdagi o‘yinlar, bolalar uchun yaxshi va qiziqarli vaqt o‘tkazish va ularga yangi bilimlarni o‘rgatish imkoniyatini ta'minlaydi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Mirziyoyev Sh. “Adabiyot, san’at va madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 3-avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2017-yil 4-avgust.

2.Kipchakov B.B., Usmanxadjayev T.S., Burnashev I.I., Meliyev X.A. 500 harakatli o‘yinlar. // Uslubiy qo‘llanma. Toshknet. Bekinmachoq-Plyus: 2010-103 b.

3. Milliy harakatli o‘yinlar va estafetalar. O‘quv qo‘llanma / F. Xo‘jayev, R.Abdurasulov, M. Xo‘jayeva.- Toshkent:“Umid Design”,2021.176 b.

4. Xojayev P, Rahimqulov K.D, Nigmanov B.B. Harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent.: Cho‘lpon nashriyoti, 2010. -130 b.

5. Usmonxo‘jayev T.S, Meliyev X. Milliy harakatli o‘yinlar. – T.: O‘qituvchi, 2000. -268 b.

6. F.Qodirova, SH.Toshpo‘latova, M.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”. -T.: “Ma’naviyat”. 2019. -172 b.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 37.091.3:004.9:811.111

O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR FUTBOLINI OMMALASHTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Namazov Zafar Abduraximovich,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Sport turlarini o‘qitish metodikasi kafedrasi v.b dotsent

EFFECTIVE WAYS TO PROMOTE WOMEN'S FOOTBALL IN UZBEKISTAN

Namazov Zafar Abdurakhimovich,
Jizzakh State Pedagogical University Teacher of the
Acting Associate Professor of the Department of Sports Teaching Methodology

ЭФФЕКТИВНЫЕ ПУТИ ПРОДВИЖЕНИЯ ЖЕНСКОГО ФУТБОЛА В УЗБЕКИСТАНЕ

Намазов Зафар Абдурахимович,
преподаватель Джизакского государственного педагогического университета Исполняющий обязанности доцента кафедры методики преподавания видов спорта

https://orcid.org/0000-0003-079-736
e-mail: zafar291179@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola yurtimizda ayollar futbolini rivojlantirish yo‘llari, sohada faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning fikr-mulohazalari talqin qilingan. Sohani rivojlantirishning eng samarali yo‘llarini amalda tadbiq etishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *ayollar futboli, professional shartnomalar, moddiy-texnik baza, ayollar futbol musobaqalari, ayollar futboli mutaxassisligi, ayollar oliy ligasi.*

Abstract: *This article discusses the ways to develop women's football in our country, the opinions of experts working in the field. It is aimed at implementing the most effective ways to develop the field.*

Key words: *women`s football, professional contracts, financial and technical base, women football competitions, women football spequality, women high league.*

Аннотация: *В данной статье интерпретируются пути развития женского футбола в нашей стране, мнения экспертов, работающих в этой сфере. Оно направлено на практическую реализацию наиболее эффективных способов развития месторождения.*

Ключевые слова: *женский футбол, профессиональные контракты, финансово-техническая база, соревнования по женскому футболу, женские футбольные специальные качества, женская высшая лига.*

Kirish. Dunyoda so‘nggi yillarda ayollar futbolining ommaviyligi o‘sib bormoqda, u boshqa sport turlari orasida o‘zining munosib o‘rnini egallab bo‘ldi. Zamonaviy futbol ayol futbolchilarning tayyorgarligiga yuqori talablar qo‘yadi, bu esa o‘quv-mashg‘ulot jarayonini tuzishga bo‘lgan yangi, yanada mukammal uslubiy yondashuvlarni izlab topish hamda sportchi qizlar tayyorgarligining turli tomonlarini takomillashtirishga yordam beruvchi yangi ilmiy-pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Zamonaviy futbolda muntazam o‘zgarib turuvchi o‘yin vaziyatlarida harakatlarini aniq muvofiqlash hamda qayta qurish ko‘nikmasi, reaksiya tezligi, diqqatni jamlash va ko‘chirish, o‘yinni tez sur’atda olib borish ko‘nikmasi koordinatsion qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. Zero, ushbu qobiliyatni rivojlantirish futbol sport turida yuqori natijalarga erishish uchun asosiy omillardan hisoblanadi. [1,2]

Zamonaviy futbol millionlar o‘yinidan milliardlar o‘yiniga aylanib ulgurdi. Futbolning

ko‘lami va ahamiyati kundan kun ortib bormoqda. Futbol bo‘yicha erkaklar o‘rtasida jahon chempionati Olimpiada musobaqalaridan so‘ng jahonning eng qiziqarli va tomoshabop musobaqasi bo‘lib turibdi. Zamonaviy futbol nafaqat erkaklar balki, ayollar o‘rtasida ham sevimli sport turiga aylanmoqda. Mamlakatimizda ham futbolga xususan ayollar futboliga bo‘lgan e’tibor ham yildan yilga ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, Prezidentimizning 2019-yil 4-dekabr sanasidagi “O‘zbekistonda futbolni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5887-sonli farmonida ham mamlakatimizda futbolni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ayollar futbolini rivojlantirish, ayollar futbol jamoalarining infratuzilmalarini takomillashtirish, ayollar o‘rtasida chempionat va birinchi liga musobaqalarida raqobatbardosh jamoalarni yaratish, yurtimizda yosh qizlar orasida futbolga qiziqishlarini orttirish borasida bir qator vazifalar belgilangan va bu orqali ayollar terma jamoasi uchun nomzodlarni shakllantirish terma jamoa va klublar o‘rtasidagi xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarni qo‘lga kiritish asosiy maqsad qilib olingan. [2,3]

Jahonda hozirgi kunda turli yoshdagi futbolchi qizlarning morfofunksional ko‘rsatkichlarini inobatga olgan holda ularning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish, musobaqa faoliyati sharoitlarida texnik-taktik harakatlar samaradorligini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqotlar olib borilmoqda. So‘nggi yillarda har xil sport turlarida sportchilarning umumiy va maxsus koordinatsion qobiliyatlarini takomillashtirish masalalari yuzasidan katta nazariy va tajriba materiallari to‘plangan.

Tadqiqot maqsadi. Yurtimizda ayollar futbolini rivojlantirishning samarali usullarini aniqlash va mutasaddi tashkilotlarga takliflar berish; Qizlar orasida futbolni targ‘ib etish usullarini amalga oshirish.

1.Ayollar futboli haqida jamiyat fikr-mulohazalarini o‘rganib chiqish;

2.Sohani rivojlantirish uchun asosiy omillarni aniqlab olish;

3.Turli yosh toifasida ayollar futboli musobaqalarini yo‘lga qo‘yish.

So‘rovnomada har bir qatnashuvchi o‘zining shaxsiy fikrlari ayollar futbolini rivojlantirish chora-tadbirlari yoritib berishdi. Mamlakatimizda ayollar futbolini rivojlanritish uchun qanday ishlarni amalga oshirish zarur degan savolga ko‘plab insonlar turlicha javob berishi mumkin. Shu holatlarni hisobga olib, biz ham shu soha bo‘yicha mutaxassislar, ayollar futboli ishtirokchilari (murabbiylar, ayol futbolchilar), Oliy ta`lim jismoniy madaniyat va sport sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, Xotin-qizlar sporti yo‘nalishi talabalari bilan ochiq so‘rovnoma o‘tkazdik.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Osiyo futbol konfederatsiyasi tomonidan 2021-yildan boshlab kamida bir yosh toifasida, FIFA tomonidan 2 ta yosh toifasida ayollar o‘rtasida musobaqalar tashkil etish vazifasi qo‘yilganidan keyin, har bir ayollar professional futbol klublari negizida U-14 va U-16 yosh toifasida O‘zbekiston chempionatlari tashkil etildi. 2022-yil ayollar o‘rtasida ayollar musobaqalarida 10 ta jamoa g‘oliblik uchun baxs olib borishdi. 2022-yilgi O‘zbekiston chempionati musobaqasi 3 davrada tashkil etilishi belgilangan va 2-davra yakuniga ko‘ra yuqori besh o‘rinni egallagan jamoalar yakuniy final bosqichida musobaqa g‘olibligi uchun bahs olib borishadi. Bundan tashqari, bu yilgi mavsumdan ayollar o‘rtasida birinchi liga musobaqalari start oldi va 5 ta jamoa g‘oliblik uchun bahs olib borishdi. O‘zPFL va O‘zFA tomonidan ayollar futbol jamoalarining U-14 va U-16 jamoalarini shakllantirish va ularga sarf etiladigan xarajatlarni hisobga olib, O‘zbekiston chempionati va jamoalardan badal pullaridan ozod etilganligi bu jamoalarning yosh toifasidagi jamoalarga e`tibori va asosiy jamoaning tarkibini shakllantirish uchun asosiy omil bo‘lmoqda. Bundan tashqari, O‘zPFL bu yosh toifasidagi qizlar bilan shartnoma tuzish talabini olib tashlaganligi jamoalar uchun sarf-xarajatlarni bir muncha kamayishiga zamin yaratdi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Yosh futbolchi qizlarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyatini takomillashtirishga qaratilgan tajriba tadqiqotlari asosida:

-yosh futbolchi qizlarda maxsus koordinatsion qobiliyatlarning rivojlanish darajasini baholash uchun ishonchli testlar aniqlanib, yillik siklning tayyorgarlik va musobaqa davrlari bosqichlarida qo‘llanilib, taklif va tavsiyalar «Futbol nazariyasi

va uslubiyati» nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta ta’lim vazirligining 2020-yil 28-dekabrdagi 676-raqamli buyrug‘i asosida 676-189-raqamli guvohnoma). Natijada yosh futbolchi qizlarning koordinatsion qobiliyatlari 14,5-15,6% ga yaxshilangan;

-yosh futbolchi qizlarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan vositalarning tayyorgarlik va musobaqa davrlaridagi turlararo sikllar bo‘yicha ishlab chiqilgan optimal me’yorlari nisbatlarini aniqlash asosida «Futbol nazariyasi va uslubiyati» nomli o‘quv qo‘llanma nashr ettirilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta ta’lim vazirligining 2020 yil 28 dekabrdagi 678 raqamli buyrug‘i asosida 676-189 raqamli guvohnoma). Natijada yosh futbolchi qizlarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan vositalarning tayyorgarlik davrlaridagi optimal me’yorlari 5-20 % hajmida belgilangan;

-maxsus mashqlar kompleksidan ustuvor foydalanish asosida yosh futbolchi qizlarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati «Sevinch-2» futbol jamoasining o‘quv-mashg‘ulotlari jarayoniga tadbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining 2020-yil 28-yanvardagi 03-07-08-344-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada tayyorgarlik va musobaqa davrlarida yosh futbolchi qizlarning koordinatsion qobiliyatlari darajasi 8-23% ga o‘sgan;

-yosh futbolchi qizlarning maxsus koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyatning musobaqa faoliyati ko‘rsatkichlariga ta’sir etishiga doir materiallar asosida «Futbol nazariyasi va uslubiyati» nomli o‘quv qo‘llanma nashr ettirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta ta’lim vazirligining 2020-yil 28-dekabrdagi 678-raqamli buyrug‘i asosida 676-189-raqamli guvohnoma). Natijada yosh futbolchi qizlarning texnik-taktik harakatlari samaradorligi 12-14%ga yaxshilangan.

Xulosa. Asosiy maqsad ayollar futbolini rivojlantirishda yosh qizlarni futbolga bo‘lgan qizqishlarini orttirish va ularni rasmiy musobaqalar orqali mahoratlarini shakllantirishga qaratilmoqda. O‘FA hamda O‘zPFL jamoalarga qulaylik yaratish maqsadida U-14 musobasini hududiy futbol assotsiatsiyalari yordamida o‘tkazadi. Ayollar jamoalari qoshida esa U-16 jamoalari tashkil etiladi. Bunda:

-mazkur yosh toifasidagi qizlar bilan shartnoma imzolash majburiyati bo‘lmaydi, futbolchi qizlar kelishuv bitimi asosida qabul qilinadi. Demak, klublar oylik-maoshlar uchun ortiqcha chiqim qilmaydi;

-musobaqa markazlashtirilgan formatda o‘tkaziladi va katta xarajatni talab qilmaydi; -U-16 yosh toifasida asosan mahalliy qizlar to‘p suradi. Bu esa yashash va ovqatlanish uchun katta xarajat qilishga olib kelmaydi. Pirovardida hududlarda futbolchi bo‘lish istagidagi qizlarning millionlar o‘yiniga kirib kelishi uchun sharoit yaratadi; O‘z navbatida O‘zPFL jamoalarga qulaylik yaratish maqsadida ayollar jamoalaridan badal puli olish odatiga chek qo‘yadi, ayollar jamoalari badal pullarisiz musobaqalarda ishtirok etadi. Orttirilgan pul U-16 jamoasi harajatlariga sarf etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabr sanasidagi "O‘zbekistonda futbolni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5887 sonli farmoni.

2.Жавлонбек Абдуқаҳҳор ўғли, Зулхайдаров. Футболчиларни тайёрлаш жараёнидаги мусобақалар фаолияти кўрсаткичларини таҳлил қилишнинг аҳамияти. Academic research in educational sciences (ares), volume 2, issue 10,764-770.

3.Абдулахатов А.Р. Зулхайдаров Ж.А. Профессионал футболчиларни жисмоний тайёргарлиги буйича моделлаштириш меъёрлари. Мугаллим , 1(1)2022, 106-110. November, 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | ASI-Factor: 1,3 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1

4. Sokolovskaya M. Ayollarning ijtimoiy rollari (Polshada jamoatchilik fikrini o‘rganish asosida) // Sotsiologik tadqiqotlar. 1978. № 3.

5. Zulxaydarov J.A. O‘zbekistonda stritbol-sport turini rivojlantirish. Prospects for the national sport development of - kurash. April 8-9.2022. Chirchiq-2022. November, 2022.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 37.091.3:004.9:811.111

PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASHNI TIZIM SIFATIDA LOYIHALASH: MURAKKABLIKNI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Gayupova Saodat Xamidovna, CHDPU dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

DESIGNING PEDAGOGICAL PERSONNEL TRAINING AS A SYSTEM: METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF COMPLEXITY MANAGEMENT

Gayupova Saodat Khamidovna, Associate Professor at CSPU, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

ПРОЕКТИРОВАНИЕ ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ КАК СИСТЕМЫ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УПРАВЛЕНИЯ СЛОЖНОСТЬЮ

Гаюпова Саодат Хамидовна, доцент ЧГПУ, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

https://orcid.org/0009-0001-2361-0210
e-mail: gayupovasaodat@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada pedagog kadrlar tayyorlashni murakkab va o‘zaro bog‘liq jarayonlar tizimi sifatida anglash zarurati asoslanadi. Muallif tizimli fikrlashni pedagogik ta’limdagi yangilanishlarning metodologik poydevori sifatida ko‘rib, natijani o‘lchash, qayta aloqa orqali tuzatish va resurslarni maqsadga muvofiq yo‘naltirish kabi mexanizmlarning ahamiyatini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *tizimli yondashuv, ta’limni loyihalash, boshqaruv mexanizmi, qayta aloqa, sifatni baholash, barqaror rivojlanish.*

Abstract: *The article substantiates the necessity of perceiving pedagogical personnel training as a system of complex and interconnected processes. Viewing systems thinking as the methodological foundation for innovations in pedagogical education, the author highlights the significance of mechanisms such as result measurement, correction through feedback, and the purposeful allocation of resources.*

Key words: *systems approach, educational design, management mechanism, feedback, quality assessment, sustainable development.*

Аннотация: *В статье обосновывается необходимость понимания подготовки педагогических кадров как системы сложных и взаимосвязанных процессов. Рассматривая системное мышление как методологический фундамент инноваций в педагогическом образовании, автор раскрывает значимость таких механизмов, как измерение результатов, корректировка через обратную связь и целевое направление ресурсов.*

Ключевые слова: *системный подход; проектирование образования; механизм управления, обратная связь, оценка качества, устойчивое развитие.*

KIRISH. Hozirgi ta’lim muhitida eng katta qiyinchilik muammolarning yakka sababga sig‘masligidadir: bir qaror qabul qilinsa, u darhol boshqa ko‘plab bo‘g‘inlarda kutilmagan ta’sir uyg‘otadi. Shuning uchun pedagog kadrlar tayyorlashda alohida loyiha yoki bir-ikki metodik yangilik bilan cheklanish samarani kafolatlamaydi; muhim masala o‘zgarishlarning o‘zaro ta’sirini oldindan hisoblay oladigan fikrlash madaniyatini qaror toptirishdir. Shu ma’noda, ushbu maqoladagi yondashuv pedagogik ta’limga metodologik nazar bilan qarashga chorlaydi: tizimni obyekt sifatida emas, boshqariladigan murakkab jarayon sifatida ko‘rish, uning ishlash mantig‘ini tushuntirish va

qarorlar sifatini oshirishga qaratilgan fikriy asoslarni mustahkamlash muhimdir. Bunday qarash ta’limdagi muvaffaqiyatni “kompaniyaviy natija” emas, balki izchil rivojlanish sifatida ko‘rishga imkon beradi: o‘qituvchi tayyorlashda uyg‘unlikni ta’minlaydigan mezonlar, sabab-oqibat bog‘lanishini to‘g‘ri qo‘yadigan tahlil, hamda amaliy qarorlarni tizim mantig‘iga moslashtirishga xizmat qiladi.

Tizimli yondashuvning ustunligi shundaki, u pedagog kadrlar tayyorlashni alohida tadbirlar yig‘indisi emas, balki maqsadga qaratilgan, ochiq va rivojlanuvchi yaxlit tizim sifatida talqin qiladi. Tizimli yondashuv ta’lim islohotlarini ilmiy asoslash, o‘zgarishlarning sabab-oqibat aloqalarini ochish hamda “maqsad–mazmun–jarayon–natija” uyg‘unligini ta’minlash orqali pedagogik ta’lim sifatini barqaror takomillashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Tizimlilik tamoyili ta’lim jarayonlarining o‘zagini tashkil etadi. L.Von Bertalanffy [3] tomonidan ilgari surilgan “Umumiy tizimlar nazariyasi” ta’lim jarayonini alohida elementlar yig‘indisi emas, balki o‘zaro bog‘liq murakkab mexanizm sifatida ko‘rish imkonini beradi. Bu yondashuv ta’lim sifatini boshqarishda faqat natijaga emas, balki jarayondagi sabab-oqibat zanjiriga e’tibor qaratish zarurligini asoslaydi.

O‘zbekiston sharoitida pedagogik ta’limni modernizatsiya qilishda G‘.Muhamedov, U.Xodjamqulov va S.Toshtemirovalar [5] tomonidan ishlab chiqilgan “Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri” konsepsiyasi muhim o‘rin tutadi. Ushbu nazariya ta’lim, fan va ishlab chiqarish (maktab) o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash orqali kadrlar tayyorlashning samaradorligini oshirishni ko‘zda tutadi. Klister yondashuvi pedagogik muhitdagi raqobat va hamkorlikning optimal muvozanatini yaratadi [6].

J.Biggs tomonidan taklif etilgan “konstruktiv moslik” tamoyili o‘quv maqsadlari, metodlari va baholash tizimining bir-biriga muvofiq bo‘lishini talab etadi[4]. Shuningdek, UNESCO[1] va OECDning[2] strategik hujjatlarida belgilangan raqamli transformatsiya va “Knowledge for 2030” konsepsiyasi ta’lim mazmunini global talablar asosida qayta loyihalash zaruratini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Ta’lim jarayoni tadqiqotlarining metodologik asosini tizimli yondashuv, sinergetik tamoyillar va determinizm (sababiy bog‘lanish) mantig‘i tashkil etadi. Tizimli tahlil pedagogik ta’lim tizimini tashkil etuvchi komponentlar (maqsad, mazmun, resurs, natija) o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganish uchun qo‘llanilishi o‘rinli hisoblanadi. Modellashtirishda esa kadrlar tayyorlash jarayonini boshqarishning “loyihaviy modeli”ni yaratishda foydalidir. Qiyosiy-mantiqiy tahlil orqali global ta’lim standartlari (UNESCO, OECD) bilan milliy ta’lim tizimidagi islohotlarni o‘zaro solishtirish mumkin.

“Tizim” tushunchasi sodda qilib aytilganda, alohida qismlar yig‘indisigina emas, balki o‘zaro bog‘langan qismlar yaxlitligidir. Tizimda har bir qism (element) o‘z-o‘zicha emas, boshqa qismlar bilan aloqaga kirishgan holda mavjud bo‘ladi; ana shu aloqalar tizimning qanday ishlashini belgilaydi.

Tizimli yondashuv murakkab obyekt va jarayonlarni alohida qismlar kesimida emas, balki yaxlit tuzilma sifatida ko‘rib tahlil qilish va boshqarishga qaratilgan metodologik yondashuvdir. Uning asosiy g‘oyasi shundaki, har qanday tizimda natija faqat bitta elementga emas, balki elementlar o‘rtasidagi aloqalar, funksiyalar va boshqaruv mexanizmlari uyg‘unligiga bog‘liq bo‘ladi. Shu sabab tizimli yondashuv “Qaysi qism nima qiladi?” degan savol bilan cheklanmaydi; u “Qaysi qism kim bilan, qanday va nega bog‘langan?”, “O‘zgarish qaysi zanjir orqali natijaga ta’sir qiladi?” degan masalani markazga qo‘yadi. 1-jadval.

Tizimli yondashuvda obyektni tahlil qilishning mantiqiy konstruksiyasi

Bosqich	Qisqa ta’rif	Asosiy savol	Pedagog kadrlar tayyorlashda namoyon bo‘lishi (misol)	Natija/ko‘rsatkich va tekshirish
1. Maqsad	Tizimning yo‘nalishi va kutilgan yakuniy holati	Nimaga xizmat qiladi?	Kompetent, innovatsion va raqamli muhitda	Kompetensiyalar profili, kutilgan natija indikatorlari

			ishlay oladigan o‘qituvchi tayyorlash	
2. Funksiya	Maqsadga erishish uchun bajariladigan vazifalar majmuasi	Nimani bajaradi?	O‘qitish, tarbiya, amaliyotga yo‘naltirish, baholash va kasbiy qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash	Faoliyat natijalari: modullar ijrosi, amaliyot natijasi, baholash ma’lumotlari
3. Tuzilma va elementlar	Tizimni tashkil etuvchi bo‘g‘inlar va resurslar	Qaysi bo‘g‘inlar ishtirok etadi?	OTM, kafedra, o‘quv reja, fanlar, professor-o‘qituvchilar, talabalar, amaliyot bazasi, resurslar	Resurslar yetarliligi, kadr salohiyati, infratuzilma holati
4. Aloqalar va jarayon	Elementlar o‘rtasidagi hamkorlik va ishlash mexanizmi	Qanday hamkorlikda ishlaydi?	Nazariya–amaliyot uyg‘unligi, mentorlik, dual elementlar, loyiha/keys-ta’lim, formativ baholash	Jarayon indikatorlari: ishtirok, faoliyat sifati, refleksiya, ortiqcha uzilishlar mavjud-emasligi
5. Natija	Tizim ishining yakuniy mahsuloti va sifati	Qanday ko‘rsatkich bilan o‘lchanadi?	Talabaning kasbiy, raqamli, tadqiqot va refleksiv kompetensiyalari shakllanishi	Rubrika/mezonlar, portfolio, amaliyot bahosi, keys/loyiha mahsuloti
6. Qayta aloqa va tuzatish	Natijalarga ko‘ra tizimni yangilash va tuzatish sikli	Qanday yangilanadi?	Natijalar tahlili asosida o‘quv reja, mazmun, amaliyot, baholash va resursni qayta moslash	Monitoring hisobotlari, sifat ko‘rsatkichlari dinamikasi, qarorlar va amaliy tuzatishlar

Tizimli yondashuvning yana bir kuchli tomoni u ta’limdagi o‘zgarishni jarayon sifatida ko‘radi. Ya’ni o‘zgarish bir martalik qaror emas, balki rejalashtirish–amalga oshirish–baholash–takomillashtirish sikllari orqali boshqariladi. Shu ma’noda tizimli yondashuv ta’limni statik holat emas, rivojlanuvchi va o‘zini yangilaydigan mexanizm sifatida tushuntiradi; natijada, transformatsiyadagi xatolar tasodifiy emas, balki tizimdagi aloqa va boshqaruv kamchiligi sifatida ko‘riladi va ilmiy asosda bartaraf etiladi. **2-jadval.**

Tizim va tizimli yondashuvning qiyosiy tavsifi

Qiyosiy mezon	**Tizim**	**Tizimli yondashuv**
Mohiyati	O‘zaro bog‘langan elementlardan tashkil topgan yaxlit tuzilma	Tizimni yaxlit holda ko‘rib tahlil qilish va boshqarishga qaratilgan metodologik yondashuv
Nimaga javob beradi?	“Nima bor?” “Qanday tuzilgan?”	“Qanday ishlaydi?”, “Nima uchun shunday?”, “Qanday takomillashtiriladi?”
Asosiy tarkibiy tushunchalar	Element, aloqa, tuzilma, funksiya, muhit	Maqsad, vazifa, tuzilma, jarayon, natija, qayta aloqa, modellashtirish
Obyektga munosabat	Obyektning o‘zi (real yoki model sifatida)	Obyektni o‘rganish va o‘zgartirish usuli (tahlil va loyihalash usuli)

TAMADDUN NURI

Fokus	Qismlar va ularning o‘zaro bog‘lanishi	Bog‘lanishlar orqali natijaga ta’sirni tushuntirish va o‘zgarishni boshqarish
Muhit bilan bog‘liqlik	Ochiq/yopiq tizim sifatida muhit bilan aloqada bo‘lishi mumkin	Muhit ta’sirini hisobga olib, tizimni moslashtirish va barqaror rivojlantirishni talab qiladi
Natijaga yondashuv	Natija — tizim ishlashi tufayli paydo bo‘ladigan holat/mahsulot	Natija — maqsadga muvofiq indikatorlar orqali baholanadi; natijaga qarab tuzatish kiritiladi
Qayta aloqa (feedback)	Tizimda bo‘lishi mumkin, lekin har doim ochiq ko‘rsatilmasligi mumkin	Asosiy mexanizm: monitoring–tahlil–tuzatish sikli majburiy
Amaliy vazifasi	Faoliyatni tashkil etish va ishlash tartibini ta’minlash	Samaradorlikni oshirish, nosozlik sababini topish, o‘zgarishni rejalashtirish va boshqarish
Pedagogik misol	“Pedagog kadrlar tayyorlash tizimi”: OTM, o‘quv reja, fanlar, amaliyot bazasi, baholash	“Pedagog kadrlar tayyorlashni tizimli yondashuvda loyihalash”: maqsad–mazmun–jarayon–natija–qayta aloqa uyg‘unligida qayta qurish

Tizimli yondashuv tamoyillari pedagogik ta’limni (va umuman har qanday ijtimoiy-pedagogik jarayonni) parchalangan holda emas, yaxlit va boshqariladigan tizim sifatida tushunishga xizmat qiladi. Ularning har biri alohida ahamiyatga ega bo‘lsa-da, amalda bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda ishlaydi. Bu tamoyillar aynan shu kabi uzilishlarni oldindan ko‘rib, “maqsad–mazmun–jarayon–natija” uyg‘unligini saqlashga xizmat qiladi.

XULOSA. Pedagog kadrlar tayyorlashni takomillashtirishda eng to‘g‘ri yo‘l uni bir martalik tadbirlar majmuasi emas, uzluksiz boshqariladigan murakkab tizim sifatida ko‘rishdir. Ana shunday qarash qarorlarni tasodifiy emas, o‘zaro bog‘liq maqsad–vosita–natija zanjiriga tayanilgan holda qabul qilishga, resurslarni oqilona yo‘naltirishga va o‘zgarishlarning real ta’sirini o‘lchab borishga imkon beradi. Natijada, pedagogik ta’limda barqaror sifat o‘sishi ta’minlanib, tayyorlanayotgan mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi ham mazmunan, ham amaliy jihatdan mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. UNESCO. Digital learning and transformation of education. – lectronicresourceElectronic resourceElectronicresource. – Access mode: Internet. – Access date: 14.01.2026.
2. OECD. *Knowledge for 2030: Concept Note*. – Paris: OECD Publishing, 2019. – Electronic resource. – Access mode: Internet. – Access date: 14.01.2026.
3. Bertalanffy L. von. General System Theory: Foundations, Development, Applications. – New York: George Braziller, 2008. – P. 55–56.
4. Biggs, J. Constructive alignment in university teaching. HERDSA Review of Higher Education. – 2014. – Vol. 1. – P. 5–22.
5. Муҳамедов Ғ., Ходжамқулов У., Тоштемирова С. Педагогик таълим инновацион кластери: назарий-методологик асослар. — Тошкент: Университет нашриёти, 2020. 140 б.
6. Хўжамқулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластерининг илмий-назарий асослари. Пед.фан.док.дисс. –Ч.: 2020. Б.44.
7. *Орлов Ю.М.* Восхождение к индивидуальности. – М.: Просвещение, 1991. — 287 с.
8. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. – New York: W.H. Freeman, 2007.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 37.091.3:004.9:811.111

TALABALARDA SANOGEN TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA PATOGEN TAFAKKURNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

[1]Sabirova Charos,
UrIU “Boshlang‘ich ta’lim va psixologiya” kafedrasi mudiri, dotsent
[2]Allaberganova[2]Shohista Rustam qizi, Urganch davlat pedogogika institute “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 241-guruh magistranti

WAYS TO ELIMINATE PATHOGENIC THINKING IN DEVELOPING HEALTHY THINKING IN STUDENTS

[1]Sabirova Charos, Head of the Department of Elementary Education and Psychology at UrIU, Associate Professor
[2]Allaberganova Shohista, daughter of Rustam, Urganch State Pedagogical Institute Department of Theory and Methodology of Education and Upbringing Master's student, Group 241, Primary Education programme

СПОСОБЫ УСТРАНЕНИЯ ПАТОГЕННОГО МЫШЛЕНИЯ И ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ

[1]Сабирова Чарос, заведующая кафедрой начального образования и психологии УрИУ, доцент
[2]Аллаберганова Шохиста Рустама кызы, Урганчский государственный педагогический институт, кафедра теории и методики образования и воспитания, магистрант, группа 241, программа «Начальное образование»

[1]charos_pedagog@mail.ru
[2]https://orcid.org/0009-0007-0193-7603

[1]shohista0305@gmail.com
[2]https://orcid.org/0009-0005-3129-6187

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo‘lg‘usi talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirishda patogen tafakkurni bartaraf etish yo‘llari, “salbiy holatlar bilan kurashish”dan ko‘ra “sog‘lom ma’no, ichki barqarorlik va ongli tanlov” asosida qayta qurish g‘oyasiga e’tibor qaratish lozimligi haqidali ilmiy-metodik ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *sanogen tafakkur, patogen tafakkur, negativlik, beqarorlik, ma'suliyatsizlik, destruktivlik, sog'lomlik, mazmunli yashash, mas’uliyat, barqarorlik, salbiy vaziyat, ijobiy fikrlash, xavotir, qo‘rquv, tushkunlik, g‘azab va ichki zo‘riqish holatlari.*

Abstract*: This article presents scientific and methodological information on the ways to eliminate pathogenic thinking in the development of healthy thinking in future students, the need to focus on the idea of reconstruction based on “healthy meaning, internal stability and conscious choice” rather than “fighting negative situations”.*

Key words*: healthy thinking, pathogenic thinking, negativity, instability, irresponsibility, destructiveness, health, meaningful living, responsibility, stability, negative situations, positive thinking, anxiety, fear, depression, anger and internal tension.*

Аннотация*: В данной статье представлена научно-методологическая информация о способах устранения патогенного мышления в процессе развития здорового мышления у будущих студентов, а также о необходимости сосредоточиться на идее перестройки, основанной на “здоровом смысле жизни, внутренней стабильности и осознанном выборе”, а не на “борьбе с негативными ситуациями”.*

***Ключевые слова**: здоровое мышление, патогенное мышление, негативность, нестабильность, безответственность, деструктивность, здоровье, осмысленная жизнь, ответственность, стабильность, негативные ситуации, позитивное мышление, тревога, страх, депрессия, гнев и внутреннее напряжение.*

KIRISH. Mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizasiya qilish, yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma’naviy jihatdan yetuk va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, bu jarayonda talabalarning ma’naviy-axloqiy tafakkurini sog‘lom va barqaror asosda rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, bo‘lajak mutaxassislarning intellektual salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ularda ijtimoiy faollik, ma’naviy barkamollik va shaxsiy mas’uliyatni shakllantirish uchun qulay ta’limiy va tarbiyaviy muhit yaratish davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.[1] Ayniqsa, raqamli muhit ta’sirining kuchayishi, axborot bosimi, qadriyatlar plyuralizmi va ijtimoiy-ma’naviy xavflar sharoitida talabalarda ichki barqarorlik, ongli tanlov, ma’naviy immunitet va mas’uliyatli munosabatni shakllantirish an’anaviy tarbiya usullari bilan cheklanib qolmasdan, sanogen yondashuvga tayangan ilmiy-pedagogik yechimlarni talab etmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati bilan bir qatorda talaba shaxsining ruhiy-ma’naviy sog‘lomligi, stressga chidamliligi va axloqiy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan tizimli ishlarga ehtiyoj ortib borayotgani mazkur mavzuning mamlakatimiz ta’lim tizimi sharoitida o‘ta dolzarb ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

Dunyoda talabalarda ma’naviy-axloqiy tafakkurni sog‘lom, barqaror va ongli asosda shakllantirish masalasi ta’lim, psixologiya va gumanitar fanlar kesishuvida kompleks tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmoqda.

Sanogen tafakkurni talabalar ma’naviy-axloqiy kamolotining tarkibiy qismi sifatida rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari, sog‘lom tafakkurning psixologik-pedagogik xususiyatlari va unga ta’sir etuvchi ma’naviy, ijtimoiy hamda ta’limiy omillar kompleks tarzda o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Sanogen tarbiyaning patogen tafakkurni bartaraf etishdagi nazariy imkoniyatlari, eng avvalo, inson fikrlash tarzini “salbiy holatlar bilan kurashish”dan ko‘ra “sog‘lom ma’no, ichki barqarorlik va ongli tanlov” asosida qayta qurish g‘oyasiga tayanadi. Tadqiqotlar insonning ichki pozitsiyasi va ma’no orqali o‘zini qayta shakllantirishini muhim mexanizm sifatida ko‘rsatadi: “Biz vaziyatni o‘zgartira olmay qolgan paytimizda, o‘zimizni o‘zgartirish sinovi oldimizda turadi”.[2.54] Shu nuqtai nazardan tadqiqotda sanogen tarbiya tushunchasi sog‘lomlashtiruvchi tarbiyaviy tizim sifatida, patogen tafakkur esa ma’naviy-axloqiy beqarorlik, salbiy stereotiplar va ichki ziddiyatlarni kuchaytiruvchi fikrlash tarzi sifatida talqin qilinib, sanogen tarbiyaning patogen tafakkurni yumshatish va bartaraf etishga qaratilgan nazariy resurslari izchil asoslab beriladi.

Patogen tafakkur tushunchasi ilmiy-nazariy jihatdan inson ongi, fikrlash tarzi va ichki ruhiy holatida salbiy, buzuvchi va beqaror holatlarni vujudga keltiruvchi tafakkur shakli sifatida talqin qilinadi. “Patogen” atamasi salbiy holatlarni keltirib chiqaruvchi, shaxs rivojiga to‘siq bo‘luvchi omillar majmuasini anglatib, patogen tafakkur insonning voqelikni noto‘g‘ri idrok etishi, voqea-hodisalarni salbiy prizmadan baholashi va o‘z hayotiga nisbatan ma’nosizlik yoki umidsizlik hissini shakllantirishi bilan xarakterlanadi. Bunday tafakkurda shaxs tashqi ta’sirlarga haddan tashqari bog‘liq bo‘lib qoladi, o‘z imkoniyatlariga ishonchsizlik, mas’uliyatdan qochish va axloqiy passivlik holatlari kuchayadi. Patogen tafakkurning asosiy belgilari qatoriga kognitiv sohada stereotipli, biryoqlama va destruktiv fikrlash, voqelikni umumlashtirib salbiy baholash, o‘z-o‘zini qadrsizlantirish va sabab-oqibat aloqalarini noto‘g‘ri anglash kiritiladi. Emotsional jihatdan esa patogen tafakkur doimiy xavotir, qo‘rquv, tushkunlik, g‘azab va ichki zo‘riqish holatlari bilan namoyon bo‘ladi. Axloqiy sohada bu tafakkur mas’uliyatsizlik, befarqlik, vijdonning susayishi, ijtimoiy me’yorlarga nisbatan nigilistik munosabat va axloqiy qarorlarda tashqi omillarga tobelik orqali ifodalanadi. Ushbu ko‘rinishlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, shaxs tafakkurida salbiy aylanma jarayonni vujudga keltiradi.

Patogen tafakkur shaxsning ma’naviy-axloqiy rivojiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, u inson ongida ma’no va maqsadni

yo‘qotishga olib kelib, hayotga nisbatan passiv munosabatni shakllantiradi. Bunday holatda shaxs o‘z xatti-harakatlari uchun ichki javobgarlikni his etmaydi, axloqiy tanlovlarini ongli ravishda emas, balki vaziyat yoki tashqi bosim ta’sirida amalga oshiradi. Natijada, ma’naviy barqarorlik zaiflashadi, ichki nazorat mexanizmlari ishdan chiqadi va shaxs ijtimoiy hamda axloqiy jihatdan moslashuvchanligini yo‘qota boshlaydi.

(1-rasm).



1-rasm. Patogen tafakkur va uning belgilari

Shuningdek, patogen tafakkur shaxsda ma’naviy immunitetning susayishiga sabab bo‘lib, uni turli salbiy ijtimoiy ta’sirlar, axloqiy buzilishlar va destruktiv g‘oyalarga nisbatan himoyasiz qiladi. Bu holat ta’lim-tarbiya jarayonida maxsus ilmiy-pedagogik yondashuvni, jumladan, sanogen tarbiya asosida tafakkurni sog‘lomlashtirishni taqozo etadi. Shu ma’noda patogen tafakkurni ilmiy-nazariy jihatdan chuqur anglash va uning salbiy ta’sir mexanizmlarini ochib berish sanogen tarbiyaning nazariy imkoniyatlarini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sanogen tarbiya va sanogen tafakkur tushunchalari zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarda inson ongi, tafakkuri va ma’naviy barqarorligini sog‘lomlashtirishga qaratilgan nazariy kategoriyalar sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu tushunchalar insonni salbiy holatlar, destruktiv fikrlash va ruhiy beqarorlikdan faqat himoya qilish emas, balki unda ijobiy, ma’noli va barqaror tafakkurni ongli ravishda qaror toptirish jarayonini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Sanogen tarbiyaning pedagogik va psixologik mohiyati inson ongi, tafakkuri va hissiy holatlarini sog‘lomlashtirishga qaratilgan yaxlit tarbiyaviy ta’sir tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik jihatdan sanogen tarbiya ta’lim-tarbiya jarayonini salbiy holatlarni cheklash yoki jazolashga asoslashdan ko‘ra, shaxsda ijobiy tafakkur, ma’no va axloqiy barqarorlikni qaror toptirishga yo‘naltiradi. Bu yondashuvda tarbiya subyekti tashqi ta’sir obyekti emas, balki o‘z ichki imkoniyatlari, qadriyatlari va ongli tanlovi orqali rivojlanuvchi faol shaxs sifatida qaraladi.

Sanogen tarbiya inson ruhiyatida salbiy tafakkur holatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bartaraf etishga emas, balki ularning paydo bo‘lish sabablarini yumshatish va o‘rniga sog‘lom, ijobiy holatlarni qaror toptirishga qaratilgani bilan xarakterlanadi. Bunda ma’noni anglash, hayotga ongli munosabat va shaxsiy mas’uliyat hissi yetakchi o‘rin tutadi. Bu yondashuv psixologiyadagi salyutogenez g‘oyalari bilan ham uyg‘un bo‘lib, inson salomatligi va barqarorligi kasallik manbalari orqali emas, balki sog‘lomlik manbalari orqali tushuntiriladi.



2-rasm. Sanogen tarbiya va uning xususiyatlari

Mazkur g‘oyani ilmiy jihatdan asoslab bergan olimlardan biri Aaron Antonovskiy hisoblanadi. U inson ruhiy sog‘lomligi haqida shunday ta’kidlaydi: “Insonning sog‘lomligi uning hayotda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni ma’no orqali anglab, ularga bardosh berish qobiliyati bilan belgilanadi”.[3.34] Umuman, sanogen tarbiyaning pedagogik va psixologik mohiyati insonni salbiy holatlardan himoya qilishdan ko‘ra uning tafakkurida sog‘lom ma’no, ichki barqarorlik va ma’naviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, u talabalar ma’naviy-axloqiy tafakkurini barqaror va ongli rivojlantirishda muhim nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

Sanogen tarbiya pedagogik va psixologik jihatdan inson ongi, tafakkuri va hissiy holatlarini sog‘lomlashtirishga qaratilgan maqsadli, tizimli va uzluksiz tarbiyaviy jarayon sifatida talqin etiladi. Pedagogik nuqtai nazardan sanogen tarbiya shaxsni salbiy xulq-atvorni cheklash orqali emas, balki ijobiy fikrlash va qadriyatlarga tayangan hayotiy pozitsiyani qaror toptirish orqali tarbiyalashni ko‘zda tutadi. Bu jarayonda ta’lim-tarbiya ta’siri tashqi nazorat va majburiyatga emas, balki ongli anglash, ichki qabul va refleksiyaga asoslanadi. Shu bois sanogen tarbiya an’anaviy profilaktik yoki tuzatuvchi yondashuvlardan farqli ravishda shaxsning ichki salohiyatini faollashtirishga yo‘naltirilgan.

Psixologik jihatdan sanogen tarbiya insonning ruhiy barqarorligi, hissiy muvozanati va stressga chidamliligini ta’minlash bilan bog‘liq. U tafakkurda salbiy emotsional holatlar: qo‘rquv, aybdorlik, umidsizlik, ichki ziddiyatlarni yumshatib, ular o‘rniga xotirjamlik, ishonch va ijobiy munosabatni qaror toptirishga xizmat qiladi. Psixologiyada sanogen yondashuv insonni muammodan qochishga emas, balki uni ma’naviy va kognitiv qayta ishlash orqali yengishga o‘rgatadi. Shu jihatdan sanogen tarbiya inson ruhiyatida o‘z-o‘zini boshqarish, ichki nazorat va emotsional regulyatsiya mexanizmlarini shakllantirishga qaratilgan. R.Lazarus insonning ruhiy salomatligi salbiy vaziyatlarni bartaraf etishdan ko‘ra, ularga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish bilan bog‘liq ekanini ta’kidlaydi: “Psixologik farovonlik stress omillarini butunlay bartaraf etishga emas, balki inson ularni kognitiv jihatdan qanday baholashi va emotsional jihatdan qanday qayta ishlashiga bog‘liq.”[4.56]

Sanogen tafakkur inson ongi va fikrlash jarayonining sog‘lom, barqaror va konstruktiv holatini ifodalovchi muhim ma’naviy-psixologik kategoriya hisoblanadi. Uning asosiy xususiyati salbiy vaziyatlarga berilish emas, balki ularni anglash, ma’naviy qayta ishlash va ijobiy xulosa chiqarish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Sanogen tafakkur insonni muammolarga qaram qilib qo‘ymaydi, aksincha, ularni shaxsiy o‘sish va ma’naviy kamolot manbai sifatida qabul qilishga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5847-сон Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.10.2019 й.
2. Абдирахмонова З.А. Соғлом тафаккур ривожланишининг ижтимоий-психологик механизмлари // Замонавий таълим. 2018. №4, 48-55 б.
3. Франкл В. Человек в поисках смысла. – М.: Прогресс, 1990. – С. 103.
4. Antonovsky A. Unraveling the Mystery of Health: How People Manage Stress and Stay Well. – San Francisco: Jossey-Bass, 1987. – P. 19.
5. Lazarus R. *Stress and Emotion: A New Synthesis*. – New York: Springer, 2006. – P. 89.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK:392.0(045)

IJTIMOIY QO‘RQUV FENOMENI VA UNI BARTARAF ETISHNING FALSAFIY ZARURATI

Qurbonov Tohir Hamdamovich,
Qarshi davlat universiteti falsafa va sotsiologiya kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

THE PHENOMENON OF SOCIAL FEAR AND THE PHILOSOPHICAL NECESSITY OF OVERCOMING IT

Qurbonov Tohir Hamdamovich,
Associate Professor, Department of Philosophy and Sociology, Qarshi State University, Candidate of Philosophical Sciences

ФЕНОМЕН СОЦИАЛЬНОГО СТРАХА И ФИЛОСОФСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ЕГО ПРЕОДОЛЕНИЯ

Курбонов Тохир Хамдамович,
Доцент кафедры философии и социологии Каршинского государственного университета, кандидат философских наук

e-mail: tohir-qurbonov1969@mail.ru.
https://orcid.org/0009-0008-3283-7274

ANNOTATSIYA: *Maqolada ijtimoiy qo‘rquv fenomeni falsafiy tahlil obyekti sifatida ko‘rib chiqiladi. Ijtimoiy qo‘rquv inson ongida shakllanadigan ijtimoiy shartlangan holat sifatida talqin qilinib, uning ekzistensial, ijtimoiy va normativ manbalari ochib beriladi. Ijtimoiy qo‘rquv shaxs erkinligiga tahdid soluvchi omil sifatida asoslanib, uni bartaraf etish shaxs kamoloti va jamiyat ma’naviy taraqqiyotining muhim sharti ekanligi ilmiy jihatdan dalillanadi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy qo‘rquv, ekzistensial xavotir, shaxs erkinligi, ijtimoiy ong, normativ bosim, ijtimoiy fobiya, perfeksionizm, ijtimoiy tanqid.*

Аннотация: *В статье социальный страх рассматривается как философский феномен социального сознания. Анализируются его экзистенциальные и нормативные основания, а также влияние на свободу личности. Обосновывается необходимость преодоления социального страха как условия духовного и социального развития общества.*

Ключевые слова: *социальный страх, экзистенциальная тревога, свобода личности, общественное сознание, нормативное давление, социальная фобия, перфекционизм, социальная критика.*

ABSTRACT: *The article examines social fear as a philosophical phenomenon of social consciousness. Its existential and normative foundations are analyzed, and its negative impact on personal freedom is revealed. The necessity of overcoming social fear is substantiated as a prerequisite for personal and social development.*

Key words: *social fear, existential anxiety, personal freedom, social consciousness, normative pressure, social phobia, perfectionism, social criticism.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda shaxs faolligi, ijtimoiy munosabatlarda erkin ishtirok etish, o‘z fikrini ochiq ifoda qilish inson taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Biroq amaliyotda ko‘plab shaxslar ijtimoiy muhitda o‘zini erkin his qila olmasligi,

omma oldida so‘zlash, fikr bildirish yoki jamoatchilik bahosidan qo‘rqish holatlariga duch kelmoqda. Bu holat ilmiy adabiyotlarda “Ijtimoiy qo‘rquv” yoki “Ijtimoiy xavotir (sotsial fobiya) ham deb atashadi. U kamdan-kam odamlarda emas - juda ko‘pchilik bunday hisni ma’lum darajada boshdan kechiradi[1].

Ijtimoiy qo‘rquv - insonning jamiyatdagi o‘rni, kelajagi, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy baholar bilan bog‘liq xavotir va qo‘rquv holatidir. Falsafada qo‘rquv kategoriyasi qadimdan mavjud bo‘lib, u inson mavjudligining ekzistensial holati sifatida talqin qilingan. Masalan, S.Kyerkegor “Qo‘rquvni erkinlik bilan bog‘liq ichki holat”[10] deb hisoblagan bo‘lsa, M.Xaydegger uni “Insonning mavjudlik mohiyatini anglash vositasi”[11] sifatida ko‘radi.

Ijtimoiy qo‘rquv esa individual qo‘rquvdan farqli ravishda jamoaviy xarakterga ega bo‘lib, u ijtimoiy muhit, ommaviy ong va ijtimoiy tajriba orqali shakllanadi.

Ijtimoiy qo‘rquv nafaqat shaxsiy muammo, balki keng ijtimoiy ahamiyatga ega masala bo‘lib, jamiyatning intellektual va ma’naviy salohiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois mazkur maqolada ijtimoiy qo‘rquvdan xalos bo‘lish zaruriyati ilmiy asosda yoritish maqsad qilib olindi.

Ijtimoiy qo‘rquv tushunchasi - inson boshqalar orasida bo‘lganida kuchli xavotir yoki qo‘rquv his qilish holati. Odatda u (inson) boshqalar men haqimda nima deb o‘ylaydi, men xato qilib qo‘yaman, masxara bo‘laman degan fikrlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha aytganimizda, ijtimoiy qo‘rquv - shaxsning ijtimoiy vaziyatlarda salbiy baholanish, tanqid qilinishi yoki rad etilishidan qo‘rqishi bilan ifodalanadigan psixologik holatdir[2]. Ijtimoiy qo‘rquv asosan quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi:

- omma oldida so‘zlash;
- notanish shaxslar bilan muloqot;
- rahbar yoki nufuzli shaxslar bilan munosabat;
- ijtimoiy baholashga ochiq vaziyatlar.

Psixologiya fanining klassik va zamonaviy maktablari ijtimoiy qo‘rquvni shaxs ongida shakllangan salbiy tajriba, bolalikdagi tarbiya uslubi, ijtimoiy stereotiplar hamda madaniy omillar bilan bog‘laydi[3].

Ijtimoiy qo‘rquvning shakllanish omillari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, psixologik omillari, - bu shaxsning o‘z-o‘zini past baholashi, muvaffaqiyatsizlikka yuqori sezuvchanlik, perfeksionizm ijtimoiy qo‘rquvning asosiy psixologik omillaridandir [4]. Bunday shaxslar har qanday ijtimoiy vaziyatni xavf sifatida qabul qiladilar.

Ikkinchidan, ijtimoiy omillari, - bu jamiyatdagi qat’iy ijtimoiy me’yorlar, tanqidga moyil muhit, solishtirish madaniyati ijtimoiy qo‘rquvni kuchaytiradi. Ayniqsa, ta’lim muassasalarida yoki ish joylarida psixologik qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi bu holatni chuqurlashtiradi [5].

Uchinchidan, madaniy omillari, - bu ayrim jamiyatlarda itoatkorlik, sukut saqlash, “xatolik qilmaslik” g‘oyalari ustuvor bo‘lishi shaxsda erkin fikr bildirishdan qo‘rqishni keltirib chiqaradi[6].

Jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy qo‘rquvning salbiy oqibatlari yomon natijalarga olib keladi. Xususan, ijtimoiy qo‘rquv keng tarqalgan jamiyatlarda fikrlar xilma-xilligi kamayadi, ijtimoiy tanqid zaiflashadi va ijtimoiy taraqqiyot to‘xtab qolishi mumkin. K.Popper ta’kidlaganidek, - “Erkin fikr bildirish imkoniyati cheklangan muhitda demokratik qadriyatlar ham to‘liq shakllanmaydi” [8] deb e’tirof etgan.

Ijtimoiy qo‘rquvning shaxs kamolotiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy qo‘rquv shaxsning intellektual, kasbiy va ma’naviy rivojlanishini cheklaydi. Qo‘rquv ta’sirida shaxs, birinchidan, o‘z qobiliyatlarini namoyon qila olmaydi; ikkinchidan, ijtimoiy faollikdan chetlashadi; uchinchidan, rahbarlik va tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantira olmaydi. Natijada jamiyatda passiv, tashabbussiz shaxslar soni ortib, innovatsion taraqqiyot sekinlashadi.

Ijtimoiy qo‘rquv nima sababdan paydo bo‘ladi? Ijtimoiy qo‘rquv paydo bo‘lishining bitta emas, bir nechta omillarning yig‘indisi asosida hosil bo‘lib boradi.

Ijtimoiy qo‘rquvning shakllanishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

- ijtimoiy adolatsizlik va tengsizlik;
- iqtisodiy beqarorlik va ishsizlik;
- axborot makonida salbiy kontentning ko‘payishi;
- ma’naviy qadriyatlarning inqirozi;

- shaxsning ijtimoiy himoyalanganlik darajasining pastligi.

Ushbu omillar insonda kelajakka nisbatan ishonchsizlik tuyg‘usini kuchaytiradi va ijtimoiy faollikni pasaytiradi. Bu omillarning shakllanish bosqichlari dastlab, bolalikdagi tajribalar asosida: ko‘p tanqid eshitish; masxara qilingan holatlar; “boshqalar nima deydi?” degan gaplar bilan o‘sish orqali. Bular odamni o‘zini doim nazorat qilishga o‘rgatib qo‘yadi. Ikkinchidan, o‘z-o‘zini past baholash natijasida, ya’ni inson o‘zini yetarlicha yaxshi, aqlli yoki qiziq deb hisoblamasa, boshqalar oldida qo‘rquv kuchayib borishi asosida. Uchinchidan, miyaning “himoya rejimi”, ya’ni miya ijtimoiy holatni xavf deb qabul qilib, tanani jang yoki qochish holatiga tayyorlaydi, yurak tez uradi, nafas qisqaradi, fikrlar chalkashish asosida. To‘rtinchidan, salbiy tajribalar ta’sirida, bir marta omma oldida uyatli holat bo‘lgan bo‘lsa, miya shuni eslab qolib, keyingi safar ham qo‘rquv hissiy yanada kuchayib boraveradi.

Buyuk faylasuf Aristotel “Siyosat” asarida, - “Insonning ijtimoiy mavjudot ekanligi haqida. Ijtimoiy falsafada inson jamiyatdan tashqarida mavjud bo‘la olmaydigan, ijtimoiy munosabatlar tizimida shakllanadigan mavjudot sifatida talqin etiladi[14]. Shu ma’noda, ijtimoiy qo‘rquv shaxsning ichki psixologik holatigina emas, balki jamiyat tuzilishi, ijtimoiy me’yorlar va hokim qiymatlar ta’sirida vujudga keladigan ijtimoiy-falsafiy fenomen hisoblanadi.

Ijtimoiy qo‘rquvning ildizlari jamiyatda amal qilayotgan me’yoriy nazorat mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liq. E.Dyurkgeym o‘zining “Jamiyat va ijtimoiy meyorlar” kitobida, - “Ijtimoiy falsafada me’yorlar jamiyat barqarorligini ta’minlovchi muhim vosita sifatida qaraladi”[15]. Biroq ushbu me’yorlar mutlaqlashtirilganda, insonning individual erkinligi cheklanib, uning xulq-atvori jamoatchilik fikriga to‘liq bog‘lanib qoladi. Ana shu bog‘liqlik ijtimoiy qo‘rquvni shakllantiruvchi asosiy omillardan biriga aylanadi.

Ekzistensial va ijtimoiy falsafiy yondashuvlarda ijtimoiy qo‘rquv “boshqalar nigohida mavjud bo‘lish” holati bilan izohlanadi. Inson jamiyatda doimiy ravishda baholanuvchi subyekt sifatida o‘zini his etadi. Uning fikri, tashqi ko‘rinishi va ijtimoiy faoliyati jamoatchilik tomonidan ma’qullanishi yoki inkor etilishi mumkin. Mazkur holat insonda ijtimoiy xavotir va qo‘rquvni keltirib chiqaradi, natijada u o‘z pozitsiyasini ochiq ifoda etishdan tiyiladi.

Ijtimoiy falsafada ijtimoiy qo‘rquvni jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va maqomlar iyerarxiyasi bilan bog‘lab tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy maqomi past bo‘lgan shaxslar o‘z fikrining qadrsizlanishidan qo‘rqib, ijtimoiy jarayonlarda passiv ishtirok etishga moyil bo‘ladi. Bu esa jamiyatda faol ijtimoiy subyektlar sonining kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari, ijtimoiy qo‘rquvni begonalashuv (aliyenatsiya) fenomeni bilan bog‘lash mumkin. Ijtimoiy qo‘rquv kuchaygan sari inson o‘zini jamiyatning to‘liq a’zosi sifatida emas, balki tashqi kuzatuvchi sifatida his qila boshlaydi. Bu holat shaxsning ijtimoiy mas’uliyati va fuqarolik faolligini susaytiradi.

Ijtimoiy qo‘rquvdan xalos bo‘lishning eng muhim jihatlari sifatida quyidagilarga alohida ahamiyat berish zarur:

- shaxs erkinligini ta’minlash;
- ijtimoiy faollikni oshirish;
- jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirish uchun zarur.

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan ijtimoiy qo‘rquvni yengish jamiyatda insonparvar (gumanistik) munosabatlarni qaror toptirish bilan uzviy bog‘liq. Adolat, tenglik va fikrlar xilma-xilligini qabul qilish tamoyillari ustuvor bo‘lgan jamiyatda ijtimoiy qo‘rquvning ijtimoiy sabablari zaiflashadi. Shu bilan birga, shaxsning ijtimoiy subyekt sifatidagi maqomini mustahkamlash, uning huquq va erkinliklarini ta’minlash ijtimoiy qo‘rquvni bartaraf etishning muhim falsafiy sharti hisoblanadi.

Ijtimoiy qo‘rquv ijtimoiy falsafada shaxs va jamiyat o‘rtasidagi mutanosiblik buzilishining ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Uni yengish faqat individual darajada emas, balki ijtimoiy tuzilmalar, qiymatlar va ijtimoiy munosabatlarni isloh qilish orqali amalga oshirilishi lozim. Shu ma’noda, ijtimoiy qo‘rquvdan xalos bo‘lish jamiyatning barqaror rivojlanishi va insonning ijtimoiy erkinligini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim falsafiy vazifadir.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy qo‘rquv - zamonaviy jamiyatda keng tarqalgan va shaxs hamda jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik

fenomendir. Undan xalos bo‘lish shaxs kamoloti va jamiyat barqaror rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Shu bois ijtimoiy qo‘rquvni kamaytirishga qaratilgan ilmiy, ta’limiy va ijtimoiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Klimov Ye.A. Psixologiya lichnosti. - Moskva, 2018.
2. Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders. - APA, 2019.
3. Фрейд З. Введение в психоанализ. - Москва, 2017.
4. Адлер А. Практика и теория индивидуальной психологии. - Санкт-Петербург, 2016.
5. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. - Москва, 2015.
6. Хофстеде Г. Культура и организации. - Москва, 2020.
7. Маслоу А. Мотивация и личность. - Санкт-Петербург, 2019.
8. Поппер К. Открытое общество и его враги. - Москва, 2018.
9. Роджерс К. Взгляд на психотерапию. - Москва, 2021.
10. Kyerkegor S. Qo‘rquv va larza. - Toshkent: Falsafa, 2005.
11. Xaydegger M. Mavjudlik va zamon. - Moskva: Respublika, 1997.
12. Fromm E. Erkinlikdan qochish. - Toshkent: Sharq, 2010.
13. Nazarov Q. Falsafa asoslari. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
14. Aristotel. Siyosat. - Insonning ijtimoiy mavjudot ekanligi haqida.
15. Dyurkgeym E. Jamiyat va ijtimoiy me’yorlar.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK:392.0(045)

FITRATNING O‘CHMAS CHIROG‘I: AVLODLARDA DAVOM ETGAN MA’RIFAT

Murodova Aziza Mamadjon qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika institutining tayanch doktoranti

FITRAT’S EVERLASTING LIGHT: ENLIGHTENMENT CONTINUING THROUGH GENERATIONS

Murodova Aziza Mamadjon qizi,
PhD student at Shahrisabz State Pedagogical Institute

https://orcid.org/0009-0008-1797-3008

e-mail: azizamurodova671@gmail.com

НЕСГОРАЕМЫЙ СВЕТ ФИТРАТА: ПРОСВЕЩЕНИЕ, ПРОДОЛЖАЮЩЕЕСЯ В ПОКОЛЕНИЯХ

Муродова Азиза Мамаджон кызы,
докторант Шахрисабзского государственного педагогического института

Annotatsiya*: Maqola Abdurauf Fitratning ayollarga bo‘lgan qarashlari va ma’rifatparvarlik g‘oyalari oilasida qanday amalga oshganini tahlil qiladi. Sevargul Karomatillaxo‘jayeva hayoti va faoliyati misolida ota g‘oyalari oilaviy va ijtimoiy darajada qanday aks etgani ko‘rsatib beriladi. Maqola ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan oilaviy ma’rifat va avlodlararo bilim uzluksizligini o‘rganadi.*

Kalit so‘zlar: *Abdurauf Fitrat, Sevargul Karomatillaxo‘jayeva, ayollar tarbiyasi, ma’rifat, oilaviy ta’lim, avlodlararo bilim.*

Annotation: *The article analyzes how Abdurauf Fitrat’s views on women and his ideas of enlightenment were implemented within his family. Using the life and activities of Sevargul Karomatillaxo‘jayeva as an example, it demonstrates how the father’s ideas manifested on both family and social levels. The article examines family education and the intergenerational continuity of knowledge from a social-philosophical perspective.*

Key words: *Abdurauf Fitrat, Sevargul Karomatillaxo‘jayeva, women’s education, enlightenment, family education, intergenerational knowledge transfer.*

Аннотация: *Статья анализирует, как взгляды Абдурауфа Фитрата на женщин и его идеи просвещения реализовались в его семье. На примере жизни и деятельности Севаргуль Караматиллаходжаевой показано, каким образом идеи отца проявлялись на семейном и общественном уровне. Статья рассматривает семейное просвещение и непрерывность передачи знаний между поколениями с точки зрения социальной философии.*

Ключевые слова: *Абдурауф Фитрат, Севаргуль Караматиллаходжаева, воспитание женщин, просвещение, семейное образование, межпоколенческая передача знаний.*

Kirish. Jadidlar harakati XIX—XX asr o‘rtalarida Markaziy Osiyoda milliy uyg‘onish, ma’rifat va taraqqiyot tamoyillarini targ‘ib qilgan muhim intellektual oqim sifatida namoyon bo‘lgan. Bu harakatning ajralmas jihatlaridan biri ayollarning ta’lim va ma’rifatga ega bo‘lishini milliy taraqqiyotning ajralmas sharti deb hisoblashidir. Jadidlar qarashlariga ko‘ra, ayollar nafaqat uy-ro‘zg‘or va bolalar tarbiyasi bilan cheklanmasligi, balki jamiyatning ijtimoiy, ilmiy va madaniy hayotida faol ishtirok etishi lozim edi. Ularning ta’limparvarlik g‘oyalari ayolning shaxsiy intellektual rivojlanishi bilan bir qatorda,

butun jamiyatning ma’naviy va intellektual barqarorligi uchun zarur ekanini ta’kidlaydi.

Abdurauf Fitrat o‘z asarlarida ayollarning jamiyatdagi o‘rniga alohida e’tibor qaratgan. “Oila” asarida u ayollarning nafaqat uy-ro‘zg‘or ishlariga, balki ijtimoiy, ilmiy va ma’rifiy faoliyatga jalb qilinishini millat taraqqiyoti va kelajak avlod tarbiyasining ajralmas sharti deb bilgan. Fitrat ayolning jamiyatdan chetlatilishi millatning zaiflashuviga olib kelishini ochiq-oydin bildiradi. Shu munosabat bilan u oiladagi ayollarga hurmat ko‘rsatish nafaqat ijtimoiy, balki ma’naviy kamolot mezoni ekanini diniy va ma’naviy tamoyillar bilan mustahkamlaydi. Misol tariqasida u Oysha (r.a.) rivoyat qilgan hadisni keltiradi: “Eng komil mo‘minlar xushxulq bo‘lgan va oilasi bilan lutf ila muomala qiladiganlardir. O‘z xotinlariga mardikarim yaxshilik qiladi, mardilaim esa yomonlik”[1.174].

Fitrat nazarida mamlakat taqdiri faqat barkamol farzandlar tarbiyasi bilan belgilanmaydi; millatning haqiqiy ma’rifatparvarligi ayollarga bo‘lgan munosabatda ham namoyon bo‘lishi kerak. Shu bois u ayollarning jamiyatdagi mavqeini oshirish, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishni milliy taraqqiyotning muhim sharti sifatida ko‘radi. Fitrat ayolni avvalo tarbiyachi, ma’rifat tashuvchisi va jamiyatning ma’naviy tayanchi sifatida talqin qiladi.

Shu nuqtai nazardan, Abdurauf Fitratning g‘oyalari oilada qanday aks etgani va uning avlodlarida qanday davom etgani muhim tadqiqot mavzusi bo‘lib, bu maqola asosan Sevargul Karomatillaxo‘jayeva hayoti va faoliyati misolida tahlil qilinadi. Maqsad – Fitratning ayollarga bo‘lgan ma’rifatparvar g‘oyalari uning oilasida qanchalik ro‘yobga chiqqanini ijtimoiy-falsafiy tahlil bilan ko‘rsatish.

Adabiyotlar tahlili. Fitratning “Oila” asari ayollar va oiladagi ma’rifat mavzusiga bag‘ishlangan. Unda ayollarning ilmli bo‘lishi, oilaviy va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi muhimligi ta’kidlanadi. “Jadid” gazetasi, tarixiy manbalar va ilmiy maqolalarda ham ayollar tarbiyasi va ma’rifatparvarlik masalalari keng yoritilgan. Shu bilan birga, Fitratning g‘oyalari nafaqat oilaviy tarbiyada, balki ijtimoiy hayotda ham aks etishi qayd etiladi. Bu adabiyotlar tahlili ayollarning ta’lim va tarbiyasi, avlodlararo bilim uzluksizligi va oilaviy ma’rifatga oid konsepsiyalarni to‘liq yoritishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot tarixiy-falsafiy va ijtimoiy-falsafiy metodlarga asoslangan. Asosiy manbalar: Sevargul Karomatillaxo‘jayeva avtobiografiyasi, “Jadid” gazetasi, tarixiy arxiv materiallari va intervyular. Tadqiqot metodlari: hujjatli tahlil, kontekstual tahlil, solishtirma tahlil. Ushbu metodlar yordamida Fitratning ayollarga bo‘lgan qarashlari uning oilasida qanday namoyon bo‘lgani va avlodlararo ma’rifat uzluksizligi aniqlangan.

Tahlillar va natijalar. Abdurauf Fitratning ayollarga bo‘lgan qarashlari, ularni ma’rifatli, bilimli va mustaqil shaxs sifatida tarbiyalash g‘oyalari o‘z davrida nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ega edi. U ayollarni faqat uy-ro‘zg‘or ishlari va bola tarbiyasi bilan chegaralamaslik, balki jamiyatning faol a’zosi sifatida rivojlantirishni millatning taraqqiyoti va kelajak avlodning sifatli ma’rifati bilan bog‘lagan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Fitratning g‘oyalari — bu nafaqat shaxsiy ma’rifat, balki ijtimoiy taraqqiyot strategiyasi edi.

Savol tug‘iladi**:** Fitratning ayollar ma’rifati haqidagi bu g‘oyalari o‘z oilasida qanchalik ro‘yobga chiqdi? Bu savolga javob berish uchun, avvalo, uning qizi — Sevargul Karomatillaxo‘jayevaning hayotini tahlil qilish zarur.

Sevargul aya Buxoroda tug‘ilgan, ammo juda kichkina yoshida oilasi bilan Toshkentga ko‘chib kelgan. U o‘smirligida qiyin sinovlarni boshdan kechiradi: 1937-yilda otasi Abdurauf Fitrat “xalq dushmani” sifatida qamoqqa olinadi, uch oy o‘tib onasini ham qamashadi. Sevargul ushbu sinovlarni atigi 7 yoshida boshdan kechiradi va yetimxonaga joylashtiriladi. Bu yetimxona “xalq dushmani” farzandlari uchun maxsus tashkil etilgan bo‘lib, u yerda bolalarga yoshi va qobiliyatiga qarab guruhlar tashkil etilgan, ammo ular tashqariga chiqish imkoniga ega emas edi. Muassasa panjara bilan o‘ralgan, darvozada qurollangan zobitlar turardi. Shu sharoitda Sevargul ota-onasini sog‘inish va qiyinchiliklarga dosh berishni o‘rganadi.

Qisqa vaqt o‘tib, Sevargulning tog‘asi uni uyiga olib ketadi, ammo tog‘asi ham qamoqqa olinadi. Natijada Sevargul yangasining qo‘lida qoladi va yoshligida ko‘plab qiyinchiliklar bilan

yuzlashadi. Maktabni tugatgach, u yurist bo‘lishni orzu qiladi va Toshkent davlat yuridik universitetiga hujjat topshiradi, ammo hujjatlari qabul qilinmaydi. Keyinchalik chet tillar universiteti ingliz tili fakultetiga hujjat topshiradi. To‘rt yil davomida muvaffaqiyat bilan o‘qiydi, lekin beshinchi yilida tarjimayi holi so‘ralganda, “xalq dushmani” farzandi ekanligini aytib, yozishdan bosh tortadi. Bu voqea, Sevargulning bilim olishga bo‘lgan intilish va ota qatag‘on qilingan davrdagi ijtimoiy cheklovlar o‘rtasidagi ziddiyatni ko‘rsatadi. Natijada u o‘qishni davom ettiradi va yaxshi o‘qiganligi sababli institutda o‘qituvchi sifatida ishga qabul qilinadi.

Sevargul Ayaning ilmiy faoliyati nihoyatda sermazmun bo‘lib, u avval bosh o‘qituvchi, keyin dekan, prorektor lavozimlarida ishlaydi va 40 yil davomida oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritadi. Shuningdek, Amerika elchixonasida 24 yil ishlaydi, bu esa uning xalqaro tajriba va ilmiy ko‘nikmalarini yanada boyitadi. U ikki o‘g‘il va bir qiz tarbiyalagan, qizi kasallik tufayli vafot etgan bo‘lsa-da, o‘g‘illari ilm va ma’rifat yo‘lida faoliyat olib boradi. Bu haqida o‘zi shunday deydi: “O‘g‘lim Shoahmad ToshDUning fizika fakultetini va Chet tillar institutini tugatdi. Ko‘p yillar Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida ishladi. Yuzdan ortiq ilmiy-publitsistik maqola yozdi, tarjimalar qildi. Nabiram Layli “Umid” fondining ilk qaldirg‘ochlari safida Amerikada o‘qidi. Nevaram Mumtoz Germaniyada bioinformatika sohasida tahsil oldi. Hozir Myunxendagi “Isotop Technologies Munich” kompaniyasida IT loyiha-chisi bo‘lib ishlayapti. Laylining o‘g‘li Farruhbek Amerikaning Kanzas universitetida faoliyat olib borib, doktorlik himoyasiga tayyorlanmoqda. Xudoga shukur, Fitratning chirog‘i o‘chmadi” [2.48].

Ijtimoiy-falsafiy tahlil nuqtai nazaridan, bu jarayon shuni ko‘rsatadiki, oilaviy ma’rifat millat taraqqiyoti va ijtimoiy barqarorlikning kichik, ammo hal qiluvchi tarkibiy qismi sifatida faol ishlaydi. Fitratning g‘oyalari shaxsiy tarbiya va ilmiy intilish orqali nafaqat oilaviy doirada, balki jamiyatga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Farzand va nevaralarining yuqori malakali va ilmli bo‘lishi, Sevargulning qiyinchiliklarga qaramay bilimni qadrlashi — bularning barchasi Fitratning ayollar tarbiyasiga bo‘lgan e’tiborining ijtimoiy realizatsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadid ma’rifatparvarlarining ayollar ta’limi va ijtimoiy faolligiga doir qarashlari tarixiy sharoit mahsuli bo‘lish bilan birga, uzoq muddatli sivilizatsion strategiya ham bo‘lgan. Fitrat ilgari surgan g‘oyalar ayolni faqat oilaviy doira bilan cheklangan subyekt sifatida emas, balki ma’naviy-intellektual taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida talqin qiladi. Bu qarashlarning qadr-qimmati shundaki, ular siyosiy tuzum o‘zgarishlari va mafkuraviy bosimlarga qaramay, amaliy hayot misolida yashovchanligini saqlab qolgan.

Sevargul Karomatillaxo‘jayeva hayot yo‘li ijtimoiy stigmatizatsiya, qatag‘on merosi va institutsional to‘siqlar sharoitida ham ma’rifiy o‘sish imkoniyati so‘nmasligini ko‘rsatadi. Uning ta’lim va kasbiy faoliyatda erishgan natijalari shaxsiy iroda bilan birga, oilaviy ma’naviy kapitalning ham muhim omil ekanini tasdiqlaydi. Bu yerda ma’rifat individual yutuq emas, balki uzatiluvchi qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Avlodlar kesimidagi natijalar esa ma’rifatning ijtimoiy reproduksiya mexanizmini ochib beradi: bilimli muhitda shakllangan shaxs keyingi intellektual avlodni yuzaga keltiradi. Shu ma’noda, Fitrat ilgari surgan ayol ma’rifati konsepsiyasi gender masalasi doirasidan chiqib, jamiyatning barqaror rivojlanish modeli darajasiga ko‘tariladi.

Demak, Fitrat merosini faqat tarixiy-adabiy hodisa sifatida emas, balki zamonaviy ijtimoiy falsafa uchun ham metodologik manba sifatida baholash mumkin. Ayol ma’rifati, oilaviy bilim muhiti va avlodlararo intellektual davomiylik - taraqqiyotning o‘zaro bog‘langan uch ustuni ekani mazkur tadqiqot doirasida yana bir bor dalillandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imom Termiziy, Sunan at-Termiziy, Kitab ar-Rido‘. 174B
2. Fitrat A**.** Oila yoki oila boshqarish tartiblari**.** - Toshkent: Ma’naviyat, 2000.128.b.
3. Fitrat A. Oila**.** - Toshkent: Ma’naviyat, 1998**.**
4. “Fitratning sevar guli” // *Jadid* gazetasi. - 2025 yil 28 noyabr. - №48.
5. Termiziy M.I. Sunan at-Termiziy. - Bayrut: Dar al-G‘arb al-Islomiy, 1998. - Kitab ar-Rido‘.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK:392.0(045)

IJTIMOIY TARMOQLAR SALBIY JIHATLARI VA OQIBATLARI

Nazarov Ravshan Nazarovich,
Qarshi davlat universiteti
"Falsafa va sotsiologiya" kafedrasi o`qituvchisi

ravshannazarov34@gmail.com
https://orcid.org/0009-0004-5497-8298

NEGATIVE ASPECTS AND CONSEQUENCES OF SOCIAL NETWORKS

Nazarov Ravshan Nazarovich, Lecturer, Department of Philosophy and Sociology, Karshi State University

НЕГАТИВНЫЕ АСПЕКТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ

Назаров Равшан Назарович, преподаватель кафедры философии и социологии Каршинского государственного университета

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri va uning oqibatlari tahlil qilinadi. Xususan, yoshlar ongiga ta'siri, vaqtning samarasiz sarflanishi, internet qaramligi, axborot xavfsizligi muammolari, shaxsiy ma'lumotlarning oshkor bo'lishi, soxta axborotlar tarqalishi hamda ruhiy salomatlikka zarar kabi masalalar yoritiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan me'yorida va ongli foydalanish zarurligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy tarmoqlar, internet qaramligi, axborot xavfsizligi, soxta axborot, ruhiy salomatlik, yoshlar tarbiyasi, kiberxavfsizlik, vaqt isrofi.*

Abstract: *This article analyzes the negative aspects of social networks and their consequences for society. Particular attention is paid to their impact on youth consciousness, inefficient use of time, internet addiction, information security issues, personal data breaches, the spread of misinformation, and negative effects on mental health. The necessity of conscious and moderate use of social networks is also justified.*

Key words: *social networks, internet addiction, information security, misinformation, mental health, youth education, cybersecurity, waste of time.*

Аннотация: *В данной статье анализируются негативные аспекты социальных сетей и их последствия для общества. Особое внимание уделяется влиянию на сознание молодежи, нерациональному использованию времени, интернет-зависимости, проблемам информационной безопасности, утечке персональных данных, распространению ложной информации и негативному воздействию на психическое здоровье. Также обосновывается необходимость осознанного и умеренного использования социальных сетей.*

Ключевые слова: *социальные сети, интернет-зависимость, информационная безопасность, ложная информация, психическое здоровье, воспитание молодежи, кибербезопасность, потеря времени.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Facebook, Instagram, Telegram, TikTok kabi platformalar axborot almashish, muloqot qilish va o'z fikrini erkin ifodalash imkonini bermoqda. Biroq ijtimoiy tarmoqlardan me'yoridan ortiq va nazoratsiz foydalanish jamiyat hamda shaxs hayotida turli salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Ular orqali do'stlar bilan aloqa qilamiz, yangiliklarni o'rganamiz va o'yin-kulgilardan bahramand bo'lamiz. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy tomonlari ham bor, masalan, ruhiy salomatlikka ta'sir, vaqtni behuda sarflash, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va axborot

xurujlari. Ushbu maqolada ushbu salbiy jihatlardan qanday himoyalanish mumkinligi haqida fikir yuritish maqsadaga muvofiq hisoblanadi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar shaxs ma'naviy qiyofasiga tasiri salbiy jihatlari ortib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Sherry Turklening "Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other" asari ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli kommunikatsiyalar insonlar o'rtasidagi an'anaviy muloqotni qanday o'zgartirayotgani haqida keng tahlil beradi. Turklening asari ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli kommunikatsiyalar insonlar o'rtasidagi an'anaviy muloqotni qanday o'zgartirayotgani haqida keng tahlil beradi.

Turkle internet orqali bog'lanish imkoniyatini kuchaytirsa-da, bu ko'pincha yuzaki, chuqurligi past bo'lgan aloqalarga olib kelishini ta'kidlaydi. Ko'pchilik foydalanuvchi ko'p sonli "do'stlarga" ega bo'lsa ham, o'zini yolg'iz va izolyatsiyalangan his qilishi mumkin. "Biz texnologiyadan ko'proq narsa kutamiz, bir-birimizdan esa kamroq" degan fikr bu paradoksni ifodalaydi.

Raqamli muloqotda noverbal signallar yo'q bo'lgani uchun, insonlar boshqalarni chinakam tushunish va his qilish qobiliyatini yo'qotadi. Turkle shuningdek texnologiya orqali yaratilgan aloqalar ko'pincha emotsional chuqurlikdan mahrum ekanini, lekin bu jarayon ijobiy bo'lishi mumkin bo'lgan "birlashtiruvchi" imkoniyatlarni ham o'z ichiga olishini tan oladi. Shuni unutmaslik kerakki, u texnologiyani rad etmaydi, balki undan ongli foydalanishni taklif qiladi.

Turkle asari fenomenologik yondashuvda yozilgan bo'lib, ko'p intervyu va empirik dalillarga tayanadi. U ijtimoiy tarmoqlarni butunlay salbiy deb baholamaydi, lekin ularning yuzaki aloqaga sabab bo'lishi mumkinligi haqida ogohlantiradi. Bu asar ijtimoiy psixologiya va kommunikatsiya tadqiqotlarida muhim ish sifatida qabul qilinadi.

Kross va Hamkorlar — *"Facebook Use Predicts Declines in Subjective Well-Being" (PLoS ONE)* Bu ilmiy maqola Facebook foydalanuvchilari hayot mazmuni va lahzaviy kayfiyatiga ijtimoiy tarmoqning ta'sirini tajriba asosida o'rganadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki: Facebookdan ko'p vaqt foydalanish **subyektiv farovonlik darajasini pasaytiradi** — foydalanuvchilar keyingi davrda o'zlarini yomonroq his qilgan. Uzoq muddatda Facebook foydalanuvchilari hayotdan qoniqish darajasi ham past bo'ladi — bu ijtimoiy tarmoqdan tez-tez foydalanish salbiy ruhiy holat bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Nicholas Carr — The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains Carr internetning inson miyasi funktsiyalariga, xususan diqqat va chuqur fikrlashga ta'sirini o'rganadi. Internet odamlarda sathiy fikrlashni kuchaytiradi va chuqur, uzluksiz kontsentratsiya va ijodkor fikrlashga to'sqinlik qiladi. Bu muloqot shakli xotira va murakkab fikrlash jarayonlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin — shu sababli ijtimoiy tarmoqlar ham kognitiv salomatlik uchun xavf tug'dirishi mumkin.

Danah Boyd — It's Complicated: The Social Lives of Networked Teens

Boydning ishi asosiy e'tiborni o'smlar va yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi hayotiga qaratadi. Ijtimoiy media yoshlar uchun shaxsiy identitetni ifoda etish, muloqot va do'stlikni saqlab qolishning yangi maydoni sifatida xizmat qiladi. Biroq, imkoniyatlar bilan birga raqamli xavf-xatarlar, manipulyatsiya, va ruhiy bosimlar ham bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur tadqiqot ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat va shaxs hayotiga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirlarini aniqlash, tahlil qilish va umumlashtirishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy-gumanitar fanlarga xos bo'lgan nazariy va empirik metodlardan kompleks tarzda foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ijtimoiy tarmoqlardan ko'p foydalanish yolg'izlik hissi va muloqot yetishmovchiligini kuchaytirishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi, masalan, depressiya va tashvishni oshirishi mumkin. Yoshlarda esa tarbiyaga salbiy ta'sir ko'rsatib, ong va ruhiyatga zarar yetkazishi mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar orqali yolg'on ma'lumotlar tarqalishi va axborot xurujlari sodir bo'lishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish depressiya, xavotir (stress), yolg'izlik hissi va o'z-o'zini past baholashga olib keladi. Ayniqsa,

yoshlar o‘zini boshqalar bilan solishtirishi natijasida ruhiy tushkunlikka tushib qolmoqda [1]. Ijtimoiy tarmoqlardan me'yorida foydalanish salbiy ta'sirlarni kamaytirishning eng yaxshi usuli. Kunlik foydalanish vaqtini cheklang, masalan, kuniga 1-2 soatdan oshirmaslik. Smartfon va ijtimoiy tarmoqlarning zararli tomonlaridan himoyalanish uchun vaqtni boshqarish muhim. Ijtimoiy tarmoqlar inson vaqtini sezilmas darajada egallaydi. Keraksiz videolar va postlarni ko‘rish o‘qish, mehnat qilish va shaxsiy rivojlanishga ajratiladigan vaqtning qisqarishiga sabab bo‘ladi. Bu esa unumdorlikning pasayishiga olib keladi [2]. Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlaringizni ehtiyotkorlik bilan baham ko'rish. Maxfiylik sozlamalarini to'g'ri o'rnatish va kuchli parollardan foydalanish. Zararli kontentni bloklash va nomaqbul akkauntlarni unfollow qilish. Shaxsiy ma’lumotlarning oshkor bo‘lishi, firibgarlik, kiberjinoyatchilik ijtimoiy tarmoqlarning eng xavfli jihatlaridan biridir. Ko‘plab foydalanuvchilar o‘z shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish qoidalariga yetarlicha e’tibor bermaydi [3].

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda odob-axloq qoidalariga rioya qilish. Boshqalarni tahqirlamash va tuhmatdan saqlanish. Bu boshqalarni salbiy ta'sirlardan himoya qiladi. Nazorat qilinmagan kontent (zo‘ravonlik, axloqsizlik, yolg‘on axborot) bolalar va o‘smirlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu ularning dunyoqarashi va xulq-atvorida noto‘g‘ri tasavvurlar shakllanishiga sabab bo‘ladi [4].

Hozirgi kunda ayrim davlatlardan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni cheklash orqali uning salbiy ta’siridan himoyalanish yo`llari ishlab chiqilmoqda Avstraliya bolalarga ijtimoiy tarmoqlarni taqiqlangan. Unga ko`ra 16 yoshga to`lmagan shaxslarga ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni taqiqlagan birinchi davlat hisoblandadi. Yoshlarni internetdagi ta’qib, dezinformatsiya va noqonuniy kontentdan himoya qilishga qaratilgan ushbu taqiq ko`pchilik yirik platformalarga taalluqli bo`ladi, jumladan, TikTok, YouTube, Instagram, Snapchat, Facebook, Reddit va X kabilar [6]

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ijtimoiy tarmoqlar axborot almashish va muloqot uchun qulay vosita bo‘lsa-da, ularning haddan tashqari va nazoratsiz qo‘llanilishi bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, vaqtni samarasiz sarflash, ruhiy bosim va stress, yolg‘on axborotlarning tez tarqalishi, shaxsiy hayot daxlsizligining buzilishi hamda yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Natijada insonning ijtimoiy faolligi pasayib, real hayotdagi munosabatlar sustlashadi. Shuning uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda ongli va mas’uliyatli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzu nuqtai nazaridan quyidagilarni taklif qilish mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish vaqtini cheklash va undan maqsadli foydalanish lozim.
Yoshlar va o‘quvchilar o‘rtasida media savodxonlikni oshirish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini kuchaytirish kerak.
Ota-onalar farzandlarining internetdagi faoliyatini nazorat qilib borishlari maqsadga muvofiq.
Yolg‘on va zararli axborotlarga ishonmaslik, ma’lumot manbalarini tekshirish odatini shakllantirish zarur.
Bo‘sh vaqtni sport, kitob o‘qish va jonli muloqot kabi foydali mashg‘ulotlar bilan to‘ldirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turkle, S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. New York: Basic Books, 2011.
2. Kross, E. et al. “Facebook Use Predicts Declines in Subjective Well-Being.” PLoS ONE, 2013.
3. Boyd, D. It’s Complicated: The Social Lives of Networked Teens. Yale University Press, 2014.
4. World Health Organization (WHO). Adolescent mental health, 2021.
5. Carr, N. *The Shallows:* What the Internet Is Doing to Our Brains. W. W. Norton & Company, 2010.
6. Qalampir.uz 2025.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK:392.0(045)

МАШИНАВИЙ ЎҚИТИШ ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА АЛГОРИТМЛАР ТАСНИФИ

Ахмедов Фирдавс Камол ўғли, мустақил изланувчи

MACHINE LEARNING CONCEPT, ESSENCE AND CLASSIFICATION OF ALGORITHMS

Akhmedov Firdavs Kamol ogli, independent researcher

КОНЦЕПЦИЯ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ, СУЩНОСТЬ И КЛАССИФИКАЦИЯ АЛГОРИТМОВ

Ахмедов Фирдавс Камол оглы, независимый соискатель

e-mail: tashanovazizbek76@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-0020-1754

Аннотация*: Ушбу мақолада сунъий интеллектнинг асоси сифатида машинавий ўқитишнинг концептуал ва услубий шарҳи келтирилган. Машинавий ўқитиш моделининг умумлаштирилган математик ифодаси, алгоритмларни ўрганиш парадигмаси, модель архитектураси ва жамлаш даражаси бўйича таснифланган. Ўзбекистон шароитида сунъий интеллектга асосланган тизимларни яратишдаги мавжуд муаммолар ёритиб ўтилган.*

Калит сўзлар: *машинавий ўқитиш, суньий интеллект, назоратли ва назоратсиз ўқитиш, ярим назоратли ўқитиш, мустаҳкамловчи ўқитиш, NLP.*

Abstract: *This article presents a conceptual and methodological overview of machine learning as the foundation of artificial intelligence. The generalized mathematical expression of the machine learning model is classified according to the paradigm of studying algorithms, model architecture, and aggregation level. Existing problems of creating systems based on artificial intelligence in the conditions of Uzbekistan are highlighted.*

Key words: *machine learning, artificial intelligence, supervised learning, unsupervised learning, semi-supervised learning, reinforcement learning, NLP.*

Аннотация: *В данной статье представлен концептуальный и методологический обзор машинного обучения как основы искусственного интеллекта. Обобщенное математическое выражение модели машинного обучения классифицируется по парадигме изучения алгоритмов, архитектуре модели и уровню агрегирования. Освещены существующие проблемы создания систем на основе искусственного интеллекта в условиях Узбекистана.*

Ключевые слова: *машинное обучение, искусственный интеллект, обучение с учителем, обучение без учителя, полу-контролируемое обучение, обучение с подкреплением, NLP.*

Кириш. Бугунги кунда сунъий интеллект *(СИ)* ва катта маълумотлар концепцияларининг амалиётга кенг жорий этилиши машинавий ўқитишни рақамли трансформациянинг асосий илмий-техник пойдеворига айлантирди. Халқаро таҳлиллар, жумладан 2025 AI Index ҳисоботига кўра, соғлиқни сақлаш, молия, транспорт ва таълим соҳаларида қўлланилаётган интеллектуал тизимларнинг катта қисми айнан машинавий ўқитиш моделларига таянади[1].

Ўзбекистонда 2025-2026 йилларга мўлжалланган сунъий интеллектни ривожлантириш дастурлари қабул қилиниши, машинавий ўқитиш технологияларини соҳаларга жорий этиш ва уларни локал маълумотларга мослаштириш жараёнини жадаллаштирди. Шу билан бирга, ўзбек тилидаги NLP моделларини ишлаб чиқишда диалектларни таснифлаш ва ўзбек морфологияси учун datasetлар тўлаш, миллий

[1] Ася Зуйкова. Что такое машинное обучение и как оно работает. 27.01.2023. https://trends.rbc.ru/trends/industry/60c85c599a7947f5776ad409

контекстда машинавий ўқитишнинг долзарблигини янада оширмоқда[2].

1. Назарий асослар ва методология. Машинавий ўқитиш ***(МЎ)*** – СИ нинг бир бўлими бўлиб, у компьютер тизимларига маълумотлар асосида автоматик равишда ўрганиш ва аниқ дастурий таъминотсиз башорат қилиш ёки қарор қабул қилиш имконини берувчи усуллар ва алгоритмларни ўрганади. Анъанавий дастурлашдан фарқли ўлароқ, ишлаб чиқувчи тизим томонидан ишлатиладиган кўрсатмаларни аниқ белгилайди, МЎда модель берилган маълумотлар асосида ўргатилади ва ўрганиш натижалари кейинги қарорлар қабул қилиш учун асос бўлади.

Методологик жиҳатдан МЎ алгоритмлар қуйидаги мезонлар бўйича таснифланади:

- ўқитиш режимига кўра: назорат остида, назоратсиз, ярим назоратли, мустаҳкамланган;
- модел тузилишига кўра: чизиқли, дарахтли, ядровий, нейрон тармоқли;
- ансамбллаш даражасига кўра: қоплаш, кўпайтириш, тахлаш;
- ўлчамни камайтириш ва хусусият танлаш стратегияларига кўра: фильтр, ўрам, ўрнатилган.

2. Машинали ўқитиш турлари: назарий модел

Назоратли ўқитиш *(Supervised Learning)*. Мазкур моделда намунаси берилган, ярлиқланган маълумотлардан фойдаланилади.

Назоратли ўқитишда таснифлаш ва регрессия асосий вазифалар ҳисобланади. Иқтисодий жараёнларда амалиётида Random Forest ва gradient boosting моделлари 2025 йилда ҳам структуралашган маълумот учун “де-факто стандарт” сифатида қайд этилган.

Эмпирик ишлар **Naive Bayes** алгоритмининг матнли маълумотлар учун **80%** дан ортиқ аниқлик ва жуда паст ҳисоблаш харажатига эгалигини, **Random Forest** эса айрим датасетларда **79-80%** атрофида барқарор аниқлик беришини кўрсатади.

Назоратсиз ўқитиш *(Unsupervised Learning)* - машинавий ўқитишнинг бир тури бўлиб, моделга фақат маълумотлар берилади, лекин уларга тайёр жавоб *(label)* ёки тўғри гуруҳ кўрсатилмайди. Модель ўзи маълумотлар ичидаги яширин ўхшашликлар ва намуналарни топишга ҳаракат қилади.

K-means тез ишлайди ва катта маълумотлар билан яхши чиқади, лекин фақат доирасимон кластерларни яхши топади ва шовқинли маълумотларда қийинчиликка дуч келади. DBSCAN эса шовқинли маълумотларда ва кластер сони номаълум бўлганда яхшироқ натижа беради. Бу қиёсий тадқиқотлар маркетинг *(мижозларни гуруҳлаш)*, аномалия топиш, тиббиёт ва бошқа соҳаларда қайси алгоритмни қачон танлаш кераклигини аниқлашга ёрдам беради.

Ярим назоратли ўқитиш *(Semi-supervised Learning)*. Ярим назоратли ёндашувда ярлиқли ва ярлиқсиз маълумотлар биргаликда қўлланилади. Бу, айниқса, ёрлиқлаш қиммат ёки мураккаб бўлган доменларда (*тиббий тасвирлар, юридик ҳужжатлар*) долзарбдир[3].

Рағбатлантиришга асосланган ўқитиш *(Reinforcement Learning)*. Мазкур модел *(агент, муҳит, ҳолат, амал, мукофот)* тўртлигига асосланиб, Марков қарор жараёни доирасида оптимал стратегияни ўрганади. Ушбу ўқитиш усули робототехника ва автоном агентлар тизимларида юқори натижалар бермоқда.

3. Машинали ўқитиш алгоритмларининг замонавий таснифи

Сўнгги йилларда қуйидаги алгоритмларни “асосий” сифатида ажратиб кўрсатади:

- Linear ва Logistic Regression - талқин қилинадиган, базавий моделлар;
- Decision Tree - қоидалар шаклидаги структура;
- Random Forest - bagging усулида ансамбль;
- SVM - ядровий функциялар билан кучли нелиней модел;

[2] Sun’iy intellect. 18.03.2025. https://gov.uz/oz/digital/activity_page/sun-iy-intellekt

[3] Samarov X. K. Mashinali o'qitish texnologiyalari asosida zararli internet sahifalarini aniqlash usullari va algoritmlari va taxlili. https://in-academy.uz/index.php/zdift/article/download/28213/18217/27724

- k-NN - қўшнилик метрикасига асосланган модел;
- Naive Bayes - тез ва оддий эҳтимолий таснифлагич.

Ушбу алгоритмлар кўпинча базавий моделлар сифатида ишлатилади ва чуқур ўрганиш ҳамда ансамбль моделлари билан қиёсда баҳолаш учун асос яратади[4].

Чуқур ўқитиш ва асосий моделлар. Чуқур ўрганиш *(deep learning*) архитектуралари асосан уч гуруҳга бўлинади: конволюцион нейрон тармоқлар (*CNN*), такрорланувчи нейрон тармоқлар (*RNN, LSTM, GRU*) ва трансформерлар.

Трансформер тузилмаси эса табиий тилни қайта ишлаш, матн ва код яратишда ҳамда ижодий контент ҳосил қилиш каби соҳаларда асосий меъёрга айланган. Сўнги йилларда асосий моделлар - масалан, **Gemini** ва йирик тил моделлари - турли соҳаларга оид катта ҳажмдаги маълумотларда ўз-ўзини назорат қилишга асосланган ўқитиш орқали яратилмоқда. Кейинчалик бу моделлар аниқ бир вазифалар учун қўшимча ўқитиш (*fine-tuning*) орқали мослаштирилади.

4. Сўнгги тенденциялар: PEFT, LoRA ва эффектив ўқитиш

Параметр жиҳатидан тежамкор усуллари (PEFT). Катта тил моделларини тўлиқ қайта ўқитиш жуда катта ҳисоблаш ресурслари ва вақт талаб қилади, шунинг учун PEFT тез ривожлана бошлади. Low-Rank Adaptation (*LoRA - "кам ўлчамли мослаштириш" усули*)да асосий параметр жадвалларига кичик, кам ўлчамли қўшимча қатламлар қўшилади ва фақат шу қатламлар ўқитилади, натижада ўқитиладиган параметрлар сони бир неча баробарга қисқаради.

Сўнгги илмий тадқиқот ишларида LoRA ва унинг такомиллаштирилган турлари анъанавий тўлиқ қайта ўқитиш усулига нисбатан тахминан саккиз баробар кам параметр билан ҳам ўхшаш ёки баъзи ҳолларда ундан ҳам яхшироқ натижалар бериши аниқланди. Ушбу ёндошув айниқса маҳаллий соҳаларда, масалан, ўзбек тилидаги матнли маълумотлар билан ишлайдиган табиий тилни қайта ишлаш (NLP) вазифалари учун катта тил моделларини мослаштиришда жуда муҳим ҳисобланади.

Ўзбекистон шароитида тил моделларини яратиш учун маҳаллий маълумот тўпламлари етарли даражада эмаслиги, халқаро йирик тил моделларини айнан шу шароитга мослаштиришни - хусусан, PEFT каби усуллар ёрдамида маҳаллийлаштиришни - стратегик йўналиш сифатида кўрсатади.

Хулоса ўрнида Ўзбекистонда Давлат идораларида ахборот таҳлил фаолиятида сунъий интеллектга асосланган ечимларни интеграция қилиш орқали ягона иш муҳитини шакллантириш, турли маълумотлар устида машинавий ўқитиш усулларидан фойдаланган ҳолда таҳлиллар олиб бориш, статистик кўрсаткичларни мунтазам кузатиб бориши, тенденцияларни ўз вақтида аниқлаш ва эҳтимолий хавфларни олдиндан баҳолаши мумкин бўлади. Шу билан бирга, турли қарор вариантларини солиштириб, энг мақбул йўлни танлаш орқали тезкорлик, аниқлик ва қарор қабул қилиш даражасини баҳолайди.

Бу эса иш сифатини юқори даражага олиб чиқиш, маълумотлар билан ишлашда инсон омилини камайтириш, стратегик режалаштириш ва башоратлаш аниқлиги ошириш мумкин бўлади. Натижада мустақил, рақобатбардош ва замонавий таҳлил тизимини шакллантиришга, миллий кадрлар салоҳиятини оширишга ҳамда таҳлил ва башоратлаш самарадорлигини оширишга қаратилган илмий тадқиқотларни олиб боришга хизмат қилади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Mashinali o‘qitishning asosiy turlari va o‘qitish modeli. InnoRes, 2025.
2. Machine learning algorithms review. Proceedings ACE, 2023.
3. AI Study platform and Uzbekistan AI strategy documents.
4. Development of Deep Learning Models and Algorithms for Language Processing in Uzbek.

[4] Emmanuella Budu. Bagging, Boosting, and Stacking in Machine Learning. https://www.baeldung.com/cs/bagging-boosting-stacking-ml-ensemble-models

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 94.5(327)

PANDNOMA ASARLARINING VUJUDGA KELISH OMILLARI

Majidov Umedjon Abduraxmonovich,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktorant (PhD)

FACTORS OF THE CREATION OF PANDNOMA WORKS

Majidov Umedjon Abdurakhmonovich,
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature (PhD)

ФАКТОРЫ СОЗДАНИЯ ПАНДОНОМНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ

Маджидов Умеджон Абдурахмонович,
Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы, кандидат наук

e-mail:
majidovumedjon@mail.ru
https://orcid.org/ 0009-0005-6042-2314

Annotatsiya*: Maqolada “To‘tinoma” va “Qush tili” turkumidagi asarlarni ilk manbalari va ularning paydo bo‘lishi hamda hind ertaklarining pandnoma janridagi asarlarga ta’siri yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: “To‘tinoma”, “Qush tili”, “Shukasaptati”, Naxshabiy, Xiromiy.*

Annotation*: The article explores the earliest sources and origins of works belonging to the “Totinoma” and “Qush Tili” genres, as well as the influence of Indian folktales on the didactic literary tradition.*

Key words*: “Totinoma,” “Qush Tili,” “Shukasaptati,” Nakhshabi, Khiromi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются ранние источники и появление произведений из серий «Тотинома» и «Куш тили», а также влияние индийских сказок на произведения жанра панднама.*

Ключевые слова*: «Тотинома», «Куш тили», «Шукасаптати», Наксхаби, Хирами.*

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar davrida adabiyot va ma’naviyat davlat siyosati darajasidagi masala bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining davlat dasturida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab qo‘yilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini rag‘batlantirish va innovatsiya faoliyatini takomillashtirish adabiyotshunoslik, manbashunoslik va matnshunoslik sohasida ilmiy izlanishlar ko‘lamini yanada kengaytirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Hozirgi paytda jamiyat va sivilizatsiyalar avvalo ijtimoiy qadriyatlar... buyuk ajdodlarimiz bo‘lgan mutafakkirlarimiz asarlarini, ularning butun jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan bebaho hissasini chuqur o‘rganish, teran anglash va keng ommalashtirish alohida ahamiyatga egadir” deganlari buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan asarlarni yanada kengroq o‘rganish uchun imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek xalqi tarixi va uning rivojiga ulkan hissa qo‘shgan g‘aznaviylar davlati o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Bu davlat hozirgi Afg‘oniston, Eron va Markaziy Osiyo hududlarini o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, uni buyuk davlat arbobi M. G‘aznaviy (*998–1030*) boshqargan. U X asrning boshida islom bayrog‘i ostida Shimoliy Hindistonni zabt etadi va asta-sekin mamlakatning boshqa hududlarini ham o‘z tasarrufiga kiritadi. Shu tariqa Hindistonda islom dini keng tarqala boshlaydi va M. G‘aznaviy vafotigacha uning davlati hududlari g‘arbdan Roy va Isfahongacha,

shimoldan Buxorogacha, sharqdan janubga Dehli va Hind daryosi irmoqlarigacha bo‘lgan yerlarni o‘z ichiga oladi. O‘sha davrda Hindistonda G‘aznaviylar davlati tili arab tili bo‘lgan. Shuningdek, adabiy til sifatida fors tili ham keng yoyila boshlagan. Ana shu davrda Hindistonga Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Eron xalqlarining ham ko‘chib kelishi ortidan bu yurtga mazkur xalqlarning ijod namunalarining kirib kelishi va keng tarqalishi hamda badiiy an’analarning o‘zaro ta’sir doirasining kengayishi va yangidan-yangi asarlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

M. G‘aznaviy vafotidan keyin, uning qudratli saltanati saljuqiylarning ketma-ket qurolli hujumlari natijasida asta-sekin yemiriladi, natijada davlat tepasiga oldin unga tobe bo‘lgan quriylar keladi va 1206-yilda ular xorazmshohlarning zarbalari ostida tarix sahnasidan tushadilar. Shu yilning o‘zidayoq Qutbiddin Oybek o‘zini Shimoliy Hindistonning sultoni va poytaxtni Dehli shahri deb e’lon qiladi. Tarixda keyinchalik bu davlatchilik “Dehli sultonligi” deb atalib, uning rivoji Alovuddin Xiljiy (*1296-1316*) davriga to‘g‘ri keladi.

Shu davrda sultonlik poytaxti Dehli adabiy hayotning markaziga aylanadi. Sulton saroyida Markaziy Osiyolik shoir va adiblar ijod qila boshlaydilar. Ular orasida Naxshabiy va Amir Xusrav Dehlaviyning ustozi Shahobiddin Badavuniy ham bo‘lgan. Shu davr fors adabiyotida Hindiston xalqlari hayoti, xususan, hind adabiyoti syujetlariga bo‘lgan qiziqish kuchaya boshlaydi. O‘z navbatida, hindlar Markaziy Osiyo adabiyoti bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘zaro adabiy aloqalarning rivojlanishiga o‘zlarining ma’lum hissalarini qo‘sha boshlaydilar.

XII asrning o‘rtalariga kelib, Hindistonda fors tilidagi adabiyot, ma’lum darajada, o‘zining dastlabki kurtaklarini ota boshlaydi. O‘zaro adabiy aloqalarning yanada rivojlanishi Hindiston xalqlarining qadimiy ijod namunalari va folklor asarlariga bo‘lgan qiziqishini tobora oshirdi. XIV asrga kelib, Dehli sultonlari qadimgi hind qo‘lyozma yodgorliklarini fors tiliga o‘girish masalasini o‘rtaga qo‘yadilar. Natijada, qadimgi hind yodgorliklaridan astronomiya, musiqa nazariyasiga oid va badiiy asarlar fors tiliga o‘girila boshlanadi. Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ayniqsa, badiiy asarlarning tarjimasida tarjimonlar erkinlikka, ya’ni asar tarjimasiga ijodkorlik nuqtai nazaridan yondashar edilar. Shunday tarjimalardan birini adib va shoir shayx Ziyovuddin Naxshabiy amalga oshirgan. Bu kitobning nomi “To‘tinoma” deb atalib, o‘z davrida uni rus tiliga Ye. Bertels va qisman o‘zbek tilidagi tarjimalarni R. Obidxo‘jaev va R. Komilovlar amalga oshirgan [Зия ад дин Нахшаби 1982; Тўтинома 1962].

1970-yilda tojik olimi A. Alimardonov uzoq yillar izlanishlardan so‘ng, “Ziyovuddin Naxshabiy va uning “To‘tinoma” asari” mavzuida doktorlik ilmiy ishini amalga oshirib, Naxshabiyning hayoti va ijodini nisbatan mukammal tiklashga muvaffaq bo‘lgan [Алимардонов 1970].

Ma’lum vaqtgacha hind tilidagi “Shukasaptati” (“*To‘tinoma*”) asarining qadimgi sanskrit tilidan fors tiliga ilk tarjimoni Naxshabiy deb hisoblanib kelingan. Ungacha ham bu asar tarjima qilingani haqida xabarlar ma’lum adabiy talqin sifatida qabul qilib kelingan. Biroq, keyingi vaqtlarda bu asarning tarjimasi XIV asrda noma’lum bir muallif tomonidan ham amalga oshirilganligi haqidagi xabarlar tarqaldi. Lekin bu tarjimaning qo‘lyozma nusxasi qayerda saqlanayotganligi hanuz ma’lum emas edi.

1973-yilda Tehronda “To‘tinoma” “Javohir al-asmor” nomi bilan nashr qilingan kitobda bu asarning hozircha yagona deb hisoblanayotgan XIV asrda ko‘chirilgan nusxasi Tehron Oliy Majlis kutubxonasida saqlanayotganligi va uning muallifi Imod bin Muhammad Noiri (*yoki Sog‘ariy*) bu asarni o‘z vaqtida Dehli sultoni Alavuddin Muhammad Sultonga (*1296-1316*) taqdim etganligi ma’lum bo‘ldi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, “To‘tinoma”ning yangi tarjimasiga sabab bo‘lgan nusxa aynan shu ekanligi ayon bo‘ldi. Demak, Naxshabiy mana shu Muhammad Noiri tomonidan 1313-1316-yillarda amalga oshirilgan tarjima nusxasini istifoda etgan holda “To‘tinoma”ning badiiy jihatdan yuksak darajada o‘ziga xos bayon uslubiga ega bo‘lgan asarni yaratishga muvaffaq bo‘lgan.

Haqiqatan, muallif asar so‘z boshisida ta’kidlaganidek, “Javohir al-asmor” asarini boshdan-oyoq qayta ko‘rib chiqib, turli shoirlar ijodidan keltirgan 300 taga yaqin parchani o‘zining she’rlari bilan almashtirgan. Naxshabiy dostonlarning ibtido va xulosalariga, asarning

syujet va asliyatini saqlagan holda jiddiy o‘zgartishlar kiritgan. O‘z navbatida, Naxshabiy asarga o‘zining ijodidan kamida beshta hikoyatni kiritganligi asarning go‘zal va jozibadorligi ta’minlanishiga sabab bo‘lgan.

Tadqiqot muhokamasi. Hind hikoyalari haqida gapirganda, ular uzoq qadimiyatga borib taqalishini alohida qayd etish lozim. Ma’lumki, eramizdan bir necha asrlar oldin yashagan hind adiblari hikoya va masallarni yozib olib, to‘plamlar tuzib kelganlar. Ularning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, bularning tarkibiga kiritilgan hikoyatlardan tashqari, adabiy asarlardan iqtiboslar va to‘plam tuzuvchilarning shaxsiy ijodidan namunalar ham kiritib borilgan va bu an’ana asrlar davomida davom etib kelgan.

Ma’lumki, Hind xalqi ertaklari og‘izdan-og‘izga turli tillarda ko‘chib yurgan va ular badiiy jihatdan qayta ishlanishi natijasida shu darajaga yetganki, natijada, ularning asl syujeti butunlay o‘zgarib ketgan. Qadimgi hind adabiyotida “To‘tinoma”ning fors tiliga tarjima qilinishiga manba yoki asos bo‘lgan bironta ham ertaklar to‘plami mavjud emas. Aytish lozimki, katta o‘zgarishlarga uchragan “Shukasaptati” [Шукасаптати, 1960] nomli sanskrit to‘plami mavjud bo‘lib, uning ham dastlabki tahrirdagi nusxasi yo‘qolgan deb hisoblanadi. Darhaqiqat, bir qator “To‘tinoma” dostonlarigina “Shukasaptati” syujeti bilan o‘zaro o‘xshashliklarga ega. Bu esa ayrim tadqiqotchilarning “To‘tinoma” tarjimasi uchun hozir mavjud bo‘lmagan “Shukasaptati” ning tahrir qilingan nusxasi asos bo‘lgan degan xulosaga kelishga sabab bo‘lgan. Ammo, bu ikki asarning qiyosi shuni ko‘rsatadiki, fors tilidagi “To‘tinoma” ham hind ertaklari to‘plamlari asosida tuzilgan. Bu o‘rinda Muhammad Noiriy va Naxshabiy ham ertaklarni yig‘ib borish orqali hind to‘plovchilari an’analariga rioya qilganlar.

Shunday qilib, “To‘tinoma” badiiy jihatdan yuksak adabiy asar bo‘lib, u hind va fors madaniyatlari zaminida vujudga kelgan.

Mashhur sharqshunos Ye. Bertels “To‘tinoma” haqida gapirar ekan, uni yuksak darajadagi go‘zal tilda yozilganligini ta’kidlab, undagi badiiy vositalar, xususan, ajoyib til va o‘ziga xos uslub vaqt o‘tishi bilan eskirib, “To‘tinoma” ning kelgusi taqdiriga ta’sir etganligini alohida qayd etadi. Ikki asrdan so‘ng bu asarning tili o‘quvchi uchun mushkul, tushunilishi qiyin bir holga kelgan. Bu vaqtda boburiylardan Akbar buyrug‘iga asosan Naxshabiy qalamiga mansub “To‘tinoma” asarining Abulfazl bin Muborak (*1551–1602*) tahriri ostidagi yangi talqini dunyoga keladi. U asar tilini soddalashtiradi, hikoyatlar sonini 52 taga qisqartiradi. Biroq, bu yangi talqindagi “To‘tinoma” qo‘lyozmasi qaerda saqlanayotganligi hanuzgacha noma’lum [Зия ад-дин Нахшаби 1982,10].

Lekin XVII-asrga kelib A. Muborak yaratgan “To‘tinoma” asari ham davr talablariga javob bermay, yanada soddalashtirilgan va o‘ttiz besh bobdan iborat, yangi tahrirdagi Muhammad Xudodod Qodiriy tomonidan amalga oshirilgan talqini yuzaga keladi [Муҳаммад Худодод Қодирий 1906,80]. Bu talqinga Qodiriy Naxshabiy “To‘tinoma”siga kirmagan o‘zining yangi ikkita hikoyatini kiritgan. “To‘tinoma”ning bu nusxasi sharqdagina emas, yevropa mamlakatlarida ham keng tarqalgan. U ikki marta afg‘on, ikki marta o‘zbek, bengal va turkman tillariga tarjima qilingan. Bulardan tashqari 1792-yil ingliz, 1927, 1934-yillarda esa fransuz va rus tillariga ham o‘girilgan. Rus tilidagi dastlabki tarjima 1826-yili, keyingisi Qodiriy tahriridagi 35 hikoyatdan iborat tarjimasi 1915-yili nashr qilingan [Нахшабий Зияеддин 1915].

Yangi hind tillarida “To‘tinoma”ning bir muncha she’riy va nasriy yozilgan variantlari bor. Birisi Qodiriyning, ikkinchisi Naxshabiyning “To‘tinoma”sidan, uchinchisi esa bevosita “Shukasaptati” hikoyatlar to‘plamidan olingan. Bu to‘plamning Hindistonda eng mashhuri Haydarbaxsh Haydariyning “Tota kaxani” nomli asaridir. U Hindistonda keng tarqalgan urdu tilida yozilgan. 1801-yilda yozilgan “Tota kaxani” 1803-yili Kalkuttada bosib chiqarildi va shu paytgacha qayta-qayta nashr etilmoqda [Ҳинд эртаклари 1956, 5].

Naxshabiy “To‘tinoma”sining turli davrlarda Hindiston va Markaziy Osiyoda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalari bor. Bu sohada tojik olimi R.Alimardonov katta mehnattalab ishni amalga oshirgan. Olim “To‘tinoma” qo‘lyozmalarining jahon fondlarida saqlanayotgan 85 nusxasini aniqlagan. Shu jumladan, uning 9 ta nusxasi Sankt-Peterburgda saqlanmoqda. “To‘tinoma” asari qo‘lyozma nusxalarining ko‘pligiga qaramay uning to‘liq holdagi nashri u yoqda tursin, uning

to‘liq tarjimasi ham na sharq tillari, na g‘arb tillariga tarjima qilingan edi. Ushbu ishni birinchi bo‘lib mashhur sharqshunos Ye. Bertels 1920-yilda “To‘tinoma”ning uchta qo‘lyozma nusxasi asosida amalga oshirgan, lekin asar uning vafotidan keyin 1979-yili D. Bertels tomonidan nashr etilgan [Зия ад-дин Нахшаби 1979].

Naxshabiy yaratgan “To‘tinoma”ga taqlidan asar yozgan, XIX-asrda yashab ijod qilgan shoirlardan biri Qurbon Xiromiydir [Ўзбек адабиёти тарихи 1978, 319].

Xulosa. Xiromiy “To‘tinoma”si maxsus ilmiy-tadqiqot mavzui bo‘lmagan. Lekin bu asar haqida “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobining to‘rtinchi jildida (*Toji Qoraev yozgan*) Xiromiy hayoti va ijodi haqidagi maqolada “To‘tinoma” asari haqida dastlabki ma’lumotlar berilgan. Muallifning ta’kidlashicha, jahon adabiyotida “To‘tinoma” turkumidagi syujetga Xiromiygacha Naxshabiy, Qodiriy, Latifiy kabi ijodkorlar murojaat etib, o‘ziga xos badiiy asarlar yaratganlar. Xiromiy o‘zining “To‘tinoma” dostonini Naxshabiyning shu nomdagi dostoniga taqlidan yaratganligi alohida qayd etib o‘tiladi [Хиромий 1960, 334]. Haqiqatan, Xiromiy aynan Naxshabiy “To‘tinoma”sini o‘z asariga asos qilib olganligi bejiz emas. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Naxshabiydan keyinroq yaratilgan Qodiriy va Latifiylarning “To‘tinoma”lari ancha ixcham va o‘ziga xosligi jihatidan o‘quvchilarning diqqat-e’tiborini qozongan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoev. “Erkin va farovon, O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.
2. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. Toshkent .“O‘zbekiston”. 2017.

ILMIY ADABIYOTLAR:

1. Абу Ҳомид Ғаззолий. Тавба китоби. /Таржимон ва луғат тузувчи ф.ф.н. Рашид Зоҳид. –Тошкент: Мовароуннаҳр, 2003. -148 бет.
2. Алимарданов А. Зияуддин Нахшаби и его «Тути- наме»: Автореф. дис. ... канд. фил. наук. –Душанбе: 1970.
3. Арасли Нўшоба. Гулшаҳрий ва Навои //Адабий мерос. – Тошкент, 1980. -№ 13. -Б. 17-22.
4. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. –М.: Наука, 1965. –524 с.
5. Зийа ад-дин Нахшаби. Книга попугая (Тути-наме). Перевод с персидского Е.Э. Бертельса / Подготовка к изданию, предисловие и примечания Д.Е.Бертельса. –М.: Наука, 1982. -348 с.
6. Имомназаров М. Хожа Қози Пайвандий Ризоий // Адабиёт кўзгуси. –Тошкент, 1998. -№ 1. -Б. 76-81.
7. Муҳаммад Худодод Қодирий. Тўтиномаи туркий. –Тошкент: Т. –лит О.А. Порцева, 1324/1906-07. -80б.
8. Тўтинома. –Тошкент: ЎзДавАдабнашр, 1962.
9. Ҳинд эртаклари. –Т.: Ўзбекистон, 1956–231 б.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 821.23

KASBIY LEKSIKONNI O‘ZLASHTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI

Xujaxonova Mushtariybonu Orif qizi,
Turon universiteti “Xorijiy tillar” kafedrasi o‘qituvchisi

PSYCHOLINGUISTIC FOUNDATIONS OF MASTERING PROFESSIONAL LEXICON

Khujakhonova Mushtariybonu Orif qizi,
Lecturer at the Department of Foreign Languages, Turon University

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОСВОЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ЛЕКСИКОНА

Хужахонова Муштарийбону Ориф кызы,
преподаватель кафедры иностранных языков университета Турон

e-mail: khudjaxanova96@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-3319-0167

Annotatsiya: *Maqolada kasbiy leksikonni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari mental leksikon, so‘z assotsiatsiyalari, chastota effekti, obrazlilik va kognitiv sxemalar nazariyalari asosida tahlil qilinib, O‘zbekiston oliy ta’limida xorijiy tillarni kasbiy yo‘nalishda o‘qitish kontekstida professional terminologiyani egallashning psixologik asoslari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar*: psixolingvistika, mental leksikon, kasbiy leksika, so‘z o‘zlashtirish, kognitiv sxema, assotsiativ bog‘lanish.*

Abstract*: The article examines the psycholinguistic mechanisms of mastering professional lexicon based on theories of the mental lexicon, word associations, frequency effect, imageability, and cognitive schemas, revealing the psychological foundations of acquiring professional terminology in the context of teaching foreign languages for specific purposes in Uzbekistan’s higher education institutions.*

Key words*: psycholinguistics, mental lexicon, professional vocabulary, vocabulary acquisition, cognitive schema, associative link.*

Аннотация*: В статье анализируются психолингвистические механизмы освоения профессионального лексикона на основе теорий ментального лексикона, ассоциаций слов, эффекта частотности, образности и когнитивных схем, раскрываются психологические основы овладения профессиональной терминологией в контексте преподавания иностранных языков профессиональной направленности в вузах Узбекистана.*

Ключевые слова*: психолингвистика, ментальный лексикон, профессиональная лексика, усвоение слов, когнитивная схема, ассоциативная связь.*

Kirish. Zamonaviy filologiya va tilshunoslikda xorijiy tillarni o‘qitishning eng dolzarb masalalaridan biri kasbiy (professional) leksikonni samarali o‘zlashtirishdir. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida talabalar nafaqat umumiy til bilish darajasini oshirishlari, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llaniladigan maxsus terminologiya va so‘z birikmalarini chuqur egallashlari talab etilmoqda. Ayniqsa, tibbiyot, huquqshunoslik, muhandislik, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari kabi yo‘nalishlarda ingliz tilini kasbiy maqsadlarda (English for Specific Purposes – ESP) o‘qitish talabalarning professional kompetentsiyasini shakllantirishning ajralmas qismiga aylandi.

Psixolingvistika fanining so‘nggi yutuqlari – mental leksikonning tuzilishi, so‘z o‘zlashtirish mexanizmlari, nutqiy ishlab chiqarish modellari va kognitiv jarayonlar – ushbu jarayonni ilmiy asosda tahlil qilish va optimallashtirish imkonini beradi. Kasbiy leksikonni o‘zlashtirish nafaqat so‘zlar sonini ko‘paytirish, balki ularni talabaning mavjud bilim tizimiga integratsiya qilish, uzoq muddatli xotirada mustahkamlash va avtomatlashtirilgan nutqiy faoliyatda qo‘llay olish jarayonidir.

Ushbu maqolada kasbiy terminlarning mental leksikonda saqlanish xususiyatlari, ularni egallashga ta’sir etuvchi psixologik omillar (chastota effekti, obrazlilik darajasi, semantik va assotsiativ bog‘lanishlar) hamda kognitiv sxemalar roli batafsil tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – kasbiy leksikonni o‘zlashtirishning psixolingvistik asoslarini aniqlash va O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini kasbiy yo‘nalishda o‘qitish jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqotning nazariy va metodologik asosini quyidagi asosiy manbalar tashkil etadi: J.Aitchisonning mental leksikon tuzilishi va so‘zlarning ongda saqlanishi haqidagi fundamental tadqiqotlari [1]; N.C. Ellis va A. Beatonning xorijiy til leksikasini o‘zlashtirishdagi psixolingvistik omillar (chastota, obrazlilik, fonologik moslik) bo‘yicha empirik ishlar [2]; P.Nationning ikkinchi til leksikasini o‘rganish va o‘qitish bo‘yicha keng qamrovli nazariyasi [3]; W.J.M.Leveltning nutq ishlab chiqarishning bosqichma-bosqich modeli [4]; shuningdek, o‘zbek tilshunosligida psixolingvistik va assotsiativ tadqiqotlar yo‘nalishidagi ishlar [5; 6].

Tadqiqotda kasbiy leksikonni o‘zlashtirish jarayonini ko‘p tomonlama o‘rganish maqsadida quyidagi metodlar kompleks tarzda qo‘llanildi.

Psixolingvistik assotsiativ tahlil orqali talabalarga kasbiy terminlar berilib, birinchi kelgan assotsiatsiyalar yig‘ildi va ularning semantik yaqinlik darajasi baholandi. Chastota va obrazlilik effekti tahlilida terminlarning matnlardagi uchrash chastotasi hamda vizual tasavvurga ega bo‘lish darajasi o‘lchandi. Kognitiv sxemalar va semantik tarmoqlar modeli asosida terminlarning mavjud bilim sxemalari bilan bog‘lanishi va kollokatsion aloqalari tahlil qilindi. Eksperimental kuzatuv usuli bilan turli yo‘nalishdagi talabalar guruhlarida real dars sharoitida kasbiy matn va audio materiallarni o‘qish/tinglash jarayonida yangi leksikani tushunish, eslab qolish va keyinchalik gapirish/yozishda qo‘llash darajasi kuzatildi va baholandi [2; 1].

Ushbu metodlarning birgalikda qo‘llanilishi kasbiy leksikonni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlarini ishonchli va ko‘p qirrali tarzda ochib berish imkonini berdi.

Muhokama. Kasbiy leksikon mental leksikonda umumiy so‘z boyligidan alohida, ixtisoslashgan “sub-leksikon” sifatida shakllanadi. Bu jarayonda bir qancha psixolingvistik omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ellis va Beaton tadqiqotlariga ko‘ra, so‘zning fonologik va orfografik xususiyatlari, qism nutq turi va obrazlilik darajasi o‘zlashtirish tezligi va sifatiga bevosita ta’sir qiladi [2]. Professional terminlarning ko‘pchiligi abstrakt xarakterga ega bo‘lgani uchun ularni egallashda kognitiv sxemalar (schema theory) muhim rol o‘ynaydi: talaba yangi terminni mavjud bilim tarmoqlariga bog‘lab, uni o‘zlashtiradi va keyinchalik eslab qoladi [1].

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini kasbiy yo‘nalishda o‘qitishda bir muhim muammo – terminlarning matnlarda past chastotada uchrashishi. Shu sababli, takroriy va kontekstli ta’sir etish zarur. P.Nation ta’kidlaganidek, samarali leksika o‘zlashtirish uchun matnning 95–98% tushunarliligi ta’minlanishi lozim, bu esa maxsus chastota ro‘yxatlari (technical word lists) va moslashtirilgan o‘quv materiallarini talab etadi [3].

Assotsiativ bog‘lanishlar orqali terminlar uzoq muddatli xotirada mustahkamlanadi. Masalan, “sustainable development” atamasini o‘zlashtirishda uni ekologiya, iqtisodiyot va siyosat sxemalari bilan bog‘lash samaradorlikni sezilarli oshiradi. Leveltning nutq ishlab chiqarish modeliga asosan, kasbiy terminlarni gapirish bosqichida avtomatlashtirish uchun doimiy takroriy mashqlar va kollokatsiyalarni o‘rganish zarur [4].

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kasbiy leksikonni o‘zlashtirishning eng muhim psixolingvistik omillari quyidagilar: chastota effekti va takroriy uchrashuv, obrazlilik va vizual sxemalar, semantik va assotsiativ bog‘lanishlar,

kognitiv yuklamani hisobga olgan kontekstli o‘qitish [2; 3].

O‘zbek talabalari uchun ingliz tilidagi kasbiy terminlarni egallashda o‘zbek tilining fonologik xususiyatlari (urg‘u tizimi, undosh va unli tovushlarning o‘zaro ta’siri) albatta hisobga olinishi lozim. Bu holatni N.C. Ellis tomonidan ta’riflangan “Ellis effekti” (birinchi til fonologik filtri effekti) yaxshi izohlaydi va xorijiy til leksikasini o‘zlashtirish sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [2].

Natijada, ESP darslarida quyidagi amaliy vositalardan foydalanish samaradorlikni sezilarli darajada oshirishi mumkin: maxsus chastota ro‘yxatlari va chastotaga asoslangan o‘quv materiallari; assotsiativ mashqlar va so‘z bog‘lanishlarini rivojlantiruvchi topshiriqlar; sxematik kartalar (mind maps, concept maps) va vizual vositalar orqali terminlarni mavjud bilim sxemalari bilan bog‘lash.

Ushbu yondashuvlar talabalarning kasbiy leksikani nafaqat tezroq o‘zlashtirishiga, balki uni gapirish va yozishda avtomatlashtirilgan holda qo‘llashiga ham imkon yaratadi.

Xulosa. Kasbiy leksikonni o‘zlashtirish psixolingvistik jihatdan mental leksikonning kengayishi, kognitiv sxemalar shakllanishi, semantik tarmoqlarning boyitilishi va nutqiy avtomatlashtirish jarayoni sifatida talqin qilinadi [1; 4]. Ushbu yondashuv O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ingliz tilini kasbiy yo‘nalishda o‘qitish jarayonini yanada samarali va ilmiy asoslangan qilishga xizmat qiladi.

Kelgusida fMRI, eye-tracking va boshqa zamonaviy neyrolingvistik usullar yordamida kasbiy terminlarni o‘zlashtirishning miya faoliyati darajasidagi mexanizmlarini chuqurroq o‘rganish, shuningdek, o‘zbek tilidagi fonologik interferensiyani kamaytirishga qaratilgan maxsus metodikalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aitchison J. Words in the Mind: An Introduction to the Mental Lexicon. – Oxford: Blackwell, 2003.
2. Ellis N.C., Beaton A. Psycholinguistic Determinants of Foreign Language Vocabulary Learning // Language Learning. – 1993. – Vol. 43. – No. 4. – P. 559–617.
3. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
4. Levelt W.J.M. Speaking: From Intention to Articulation. – Cambridge, MA: MIT Press, 1989.
5. Lutfullaeva D. Assotsiativ lug‘atlar va psixolingvistik tadqiqotlar. – Toshkent: Fan, 2018.
6. Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Bookmany print, 2024.
7. Laufer B. Lexical Frequency Profiles: From Frequency to Learner's Vocabulary Size // Applied Linguistics. – 2005. – Vol. 26. – No. 2. – P. 223–242.
8. Vygotsky L.S. Thought and Language. – Cambridge, MA: MIT Press, 1986.
9. PSIXOLINGVISTIKA: Magistr talabalari uchun elektron majmua. – Toshkent: TSUULL, 2020.
10. Doughty C., Long M.H. Optimal Psycholinguistic Environments for Distance Foreign Language Learning // Foreign Language Annals. – 2003. – Vol. 36. – No. 2. – P. 130–145.
11. Karimov N. Til va kognitsiya. – Toshkent: Fan, 2019.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 821.23

ZAMONAVIY O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA TILLANISO IJODINING XOS JIHATLARI

Egamberdiyeva Kamola,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Namangan davlat universiteti doktoranti, dotsent v.b.

SPECIFIC ASPECTS OF LITERATURE IN MODERN UZBEKISTAN STORYTELLING

Egamberdiyeva Kamola,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Doctoral student of Namangan State University, Associate Professor

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЛИТЕРАТУРЫ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКИСТАНСКОМ РАССКАЗЫВАНИИ

Эгамбердиева Камола,
доктор философии (PhD) по филологическим наукам,
магистрант Наманганского государственного университета, и.о. доцента

kamolaegamberdiyeva18@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-3363-280X

Annotatsiya*: Mazkur maqolada Tillaniso ijodida ayol obrazi, uning ruhiyatini hikoyalardagi aks ettirlishi o‘rganilgan. Shuningdek, adiba hikoyalarida ayol ruhiyatini, uning taqdirini tadqiq etish hikoyachilikning bosh xususiyatlaridan biri ekanligi tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar*: Tillaniso, hikoya, ayol, badiiy adabiyot, ruhiyat, davr, taqdir.*

Abstract*: This article studies the image of a woman in Tillaniso’s work, the reflection of her soul in stories. It is also studied that the study of a woman's soul and her fate in the stories of the writer is one of the main features of storytelling.*

Key words*: Tillaniso, story, woman, fiction, soul, era, fate.*

Аннотация*: В данной статье исследуется образ женщины в творчестве Тилланисо, отражение её души в рассказах. Также рассматривается, что изучение женской души и её судьбы в рассказах писательницы является одной из главных особенностей повествования.*

Ключевые слова*: Тилланисо, рассказ, женщина, художественная литература, душа, эпоха, судьба.*

Kirish. XXI asr o‘zbek adabiyoti jadal o‘zgarishlar davrini boshidan kechirdi, bu o‘zgarishlar jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarni aks ettirdi. Bugungi kunda o‘zbek adabiyotida eng ko‘zga tashlanadigan mavzulardan biri ayol va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlardir. Dunyo tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan bir paytda, ayollar jamiyatning talab va kutilmalariga qarshi kurashib, o‘z o‘rnini topishga intiladi. Yozuvchilar o‘z asarlarıda ushbu ziddiyatni chuqur o‘rganib, ayol qismati, his-tuyg‘ulari, ruhiyati, axloqiy me’yorlari va o‘zligini topish yo‘lidagi kurashni tasvirlaydilar. Ushbu ziddiyat mavzusi zamonaviy o‘zbek adabiyotining ajralmas xususiyatiga aylanib, ko‘plab asarlarda ayolning erkinlikka, o‘z hayot yo‘siniga va shaxsiy kamolotga intilishi jamiyatning talab va cheklovlari bilan to‘qnash kelishi tasvirlanadi. Ushbu bobda zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida ayol va jamiyat o‘rtasidagi munosabat qanday aks etgani, turli muhim adibalar hikoyalarida ushbu kurashning qanday yoritilganligi o‘rganildi.

Adabiyotlar sharhi. XXI asr o‘zbek adabiyotida ayol va jamiyat munosabatining aks

etishi adabiyotshunoslikda keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biri. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida ayol va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar ko‘plab hikoyalarda o‘z ifodasini topgan. Masalan, Zulfiya Qurolboy qizi, Salomat Vafo, Jamila Ergasheva, Lobar Rustamova, Dilfuza Qo‘ziyeva, Ma’mura Zohidaova, Nodirabegim Ibrohimova, Tillaniso, Raxshona Ahmedova kabi adibalarimizning hikoyalari ayol va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur tahlil etadi. Hikoyalarda ayolning ruhiy olami, ichki dunyosi, uning jamiyatdagi o‘rni, ma’naviy iztirobi va anglamlari o‘ziga xos uslubda tasvirlanadi. Ayniqsa, Zulfiya Qurolboy qizining “Yozsiz yil” hikoyasi ayol va jamiyat o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni o‘ziga xos tarzda aks ettiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi doirasida Tillaniso ijodi adabiy-tahliliy va qiyosiy metodlar asosida o‘rganildi. Asosiy e’tibor adibaning hikoyalarida ayol ruhiyati, ichki iztirob va jamiyat bilan munosabatining badiiy ifodasini aniqlashga qaratildi. Matnlar lingvopoetik, psixologik hamda konseptual tahlil usullari yordamida tekshirildi.

Tahlil va natijalar. Hikoyalarda ayol va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, ularning o‘zaro bog‘liqligi, ijtimoiy va ma’naviy muammolar adabiy tahlillar asosida yoritiladi. Ayolning qismati, ruhiyati, ichki dunyosi, uning jamiyatdagi o‘rni, ma’naviy iztirobi va anglamlari adabiyotda yangi rakurslarda ko‘rsatiladi. Bu esa zamonaviy o‘zbek hikoyachiligining zamonaviy rivojlanishidagi muhim jihatlardan biridir. Ayol va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning adabiyotda aks ettirilishi jamiyatdagi ijtimoiy va ma’naviy o‘zgarishlarni tushunishda, shuningdek, adabiyotshunoslikda yangi yondashuvlar va tahlil usullarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon zamonaviy o‘zbek hikoyachiligining boy tarixiy an’analarini davom ettirish bilan birga, uni zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga moslashtirishga xizmat qiladi. Ayol va jamiyat munosabatining adabiyotda aks etishi jamiyatdagi ijtimoiy va ma’naviy jarayonlarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Bu esa zamonaviy o‘zbek hikoyachiligining rivojlanishiga yangi turtki bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi mavzu mohiyatan qariyib yuz yildan ziyod umrini ayolning o‘zini anglashini yoritishga bag‘ishlab yashamoqda. Bu janrning shakllanishi va taraqqiyotida ko‘plab adiblarimizning adabiy-ijodiy tajribalari to‘planib, bugungi qiyofasiga ega bo‘lgan. Bu jarayon adabiyotshunoslikda yangi yondashuvlar va tahlil usullarini ishlab chiqishga, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy va ma’naviy o‘zgarishlarni tushunishga yordam beradi. Ayol qismati va ruhiyati konseptining adabiyotda aks etishi mavzusi zamonaviy o‘zbek hikoyachiligining eng muhim va dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu mavzu bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar adabiyotshunoslikda yangi istiqbollarni ochib beradi va zamonaviy o‘zbek hikoyanavisligining boy tarixiy an’analarini davom ettirish bilan birga, uni zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga moslashtirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi XXI asrda o‘zining mazmuni va shakliy jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Ushbu davrda adabiyotshunoslar va ijodkorlar ayol qismati va ruhiyatini chuqurroq o‘rganishga e’tibor qaratdilar. Adibalar ayolning ruhiy olami, ichki dunyosi va uning jamiyatdagi roli haqida chuqur mulohazalar yuritadilar. Hikoyalarda ayolning o‘zligini anglash yo‘lida duch kelgan qiyinchiliklari, iztiroblari, jamiyat tomonidan qo‘yilgan talablar va ta’qiqlar uning shaxsiy erkinligi o‘rtasidagi ziddiyatlar tasvirlanadi.

Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida o‘ziga xos badiiy ovozga ega ijodkorlardan biri – Tillaniso Nuryog‘di. Uning nafaqat she’riyati, balki nasriy asarlari ham yangi ruh, yangi kayfiyat bilan ajralib turadi. Adiba o‘z ijodi orqali o‘zbek adabiyotiga ichki dunyo tahlili, ruhiy teranlik va erkinlik tamoyillarini olib kirdi. She’rlarida bo‘lgani kabi, nasriy asarlarida ham u ayol va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni, ayolning ruhiy iztiroblarini, o‘zligini izlash yo‘lidagi kurashini badiiy-estetik tarzda ifoda etadi. Tillaniso haqida fikr bildirgan atoqli adibimiz Ulug‘bek Hamdam uni “gul va tosh bilan kutib olingan adib” deb atagani bejiz emas. Ulug‘bek Hamdam fikrini davom ettirib, quyidagi so‘zlar bilan Tillaniso ijodiga baho bergan edi:

“Chindan, Tillaniso Nuryog‘di kitobxonlar tomonidan “gul” va “tosh” bilan kutib olingan ijodkordir. Aytish joizki, u gul (maqtov) ga qanchalik sazovar bo‘lsa, tosh (tanqid)ga ham shunchalik munosibdir. Biz esa unga na gul tutamiz va na tosh otamiz, balki ijodiga (“Shakl” misolida)

bir mutaxassis sifatida yondashib, uni yozishga undagan, undayotgan ijtimoiy-psixologik sabablarni tushunishga harakat qilamiz. Tushunish oqlash yo qoralash emas, tushunish “Tillaniso otlig‘ ijodkor nega bunday yozadi?” degan savolga javob topishga urinishdir. Zero, dunyoda tushunilishdan ortiq baxt yo‘q. Ayniqsa, ijodkor uchun” .

Zamonaviy dunyoda, xususan, axborot va texnikaga “botib qolgan” makonda ayol psixikasining parchalanib, ayolning bo‘linishi tabiiy hol, deb qaraladi. Binobarin, bugun ilg‘or jamiyatda yoppasiga ruhiy bo‘linishdek umumiy hol kuzatiladi. Zero, odob-axloq normalari-yu, jamiyat yaratgan qonun-qoidalar ramkalari osqi (veshalka!) kabi ayolni tik tutib turadi. “Osqi”ni olib tashlasangiz-chi, inson “qulaydi”. Tillaniso o‘zining ilk eksperimental asari “Shakl”da, umuman, shu choqqacha yozgan ko‘plab bitiklarida inson deb atalgan “kiyim”dan osqini olib tashlab, uni “qulatib” ko‘rmoqchi bo‘ladi, go‘yo “qani, nima bo‘larkin?” deya. Aslida, bunday bitiklarni, sirasi, o‘zi “qulab” ko‘rgan, “qulab”, “parchalangan” qalamkashlar qoralaydi. Ana, Virjiniya Vulfni oling! U ham ming chig‘iriqlardan o‘tib, ayol ko‘nglini, ayol dardini dunyoga doston qilishga uringan edi. Umuman, Tillaniso ijodida G‘arb adabiyotining jiddiy ta’sirini ko‘rish mumkin. Faqat bu ta’sirlanish, ergashish – shaklda, mazmunda esa uning o‘zi shunday kayfiyat egasidir. Xo‘sh, bunday ta’sirlanish, ergashish qachon bo‘ladi? Qachonki, ergashuvchining holi ergashilayotganning holiga o‘xshab qolsa. Ma’lumki, so‘nggi 600 yil mobaynida G‘arb (Ovrupa, keyinroq Amerika) taraqqiyot bobida yetakchi maqomda turdi. G‘arb bosib o‘tgan yo‘lni ma’lum vaqt o‘tgach dunyoning boshqa mintaqasidagi jamiyatlar ham bosib o‘tdi, o‘tmoqda. Shu ma’noda, biz ko‘pincha “G‘arbdan ko‘chirma” deb ko‘kragidan itarmoqchi bo‘lganlarimiz, aslida, o‘z holimiz-u, kayfiyatimiz mevasi bo‘lib chiqadi. Faqat o‘xshash bo‘lgani va G‘arb buni oldinroq yashab o‘tgani bois, uni taqlid deb o‘ylaymiz”.

Tillanisoning hikoyalarida shaklga nisbatan mazmun asosiy o‘rinda turadi. Asarlarida ko‘proq dardga urg‘u beriladi. Aksar asarlarida adibaning falsafiy mulohazalari, hayotga yangicha nazari, o‘ziga xos konsepsiyasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shakl mezonlariga amal qilmagan ba’zi asarlarida ham isyonkor ruh, ichki faryod va kitobxonni hushyorlikka chorlaydigan fikrlar mujassam bo‘lib, ular o‘quvchini o‘z dardiga tashxis qo‘yishga, ichki iztiroblarini anglashga yordam beradi. Bu jihatdan Tillanisoning ijodi zamonaviy kitobxonning ruhiy ehtiyojlariga to‘laqonli javob bera oladi. Nasriy asarlarida real hayot voqealari, ayolning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy stereotiplar bilan kurash, shaxsiy kechinmalarni qahramonlar timsolida badiiy yoritadi. U ko‘pincha oddiy voqealardan chuqur ma’no chiqaradi, turmush tafsilotlarini estetik talqin orqali umumlashtirib, kitobxonni teran fikrlashga chorlaydi. Tillaniso ijodida ayol va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar asosiy o‘rin tutadi. Adiba hayotning nohaqliklarini ochiq-oydin yoritib, kishilarni o‘ylashga, haqiqatni izlashga undaydi.

Xulosa. Chunki u real hayotdan olingan fikr va his-tuyg‘ularni ifodalaydi. Adiba o‘z ijodida insoniy iztirob va dardni estetik jihatdan yuksak darajaga olib chiqadi, shu orqali kitobxonni ichki tafakkurga, o‘z hayotini qayta tahlil qilishga undaydi. Bu jihatdan uning ijodi faqatgina hissiyotlarga tayanmay, balki teran falsafiy qatlamlarga ham ega. Ijodkorning mavzu tanlash mahorati e’tiborga sazovor. Taniqli adabiyotshunos Hotam Umurov “Adabiyot qoidalari” kitobida g‘oya va mavzuga ta’rif berar ekan, “chiroq shishasini mavzu desak, mavzuni kerakli narsaga aylantirayotgan, uning ardog‘ida yonayotgan pilikka – uning yorug‘lik nuriga, shu nurning toza yolqinligiga bog‘liq. G‘oya mavzuni yorqin qilib (xiralashtirmasdan) yoritishi lozim” deb fikr bildirgan edi. Tillaniso nasrida ayni shu holatga guvoh bo‘lamiz. Uning hikoyalarida ifodalangan umumbashariy g‘oyalar mavzuga va shaklga xalaqit bermay, aksincha yanada yorqinroq qilib yoritadi. Tillaniso hikoyalarida sevgi mavzusi ham yetakchi. Lekin bu sevgi an’anaviy romantik ohangdagi tasvir emas, balki ayol va hayot o‘rtasidagi ichki ziddiyatning ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning asarlarida muhabbat baxt emas, balki ayol ruhini shakllantiradigan, uni sinovdan o‘tkazadigan kuch sifatida tasvirlanadi. Ba’zan muhabbat ayriliq orqali, ba’zan esa ichki iztirob shaklida ifodalanadi. Bu esa uning nasrini boshqalarnikidan farq qiladi. U sevgi orqali hayot haqiqatlarini ochib beradi, ayolning zaifligini ham, qudratini ham namoyish etadi.

Adibaning ijodida xalq og‘zaki ijodi unsurlari, folklor motivlari, klassik va modern an’analari birikib, yangi badiiy olamni yaratadi. Hikoyalaridagi tabiiylik va soddalik ortida ulkan

hayot falsafasi yotadi. Tillaniso ijodi aynan shu soddalik orqali murakkab haqiqatlarni ochib berishi bilan zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida alohida o‘rin egallaydi. Uning hikoyalari jamiyat hayotining turli jabhalarini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дўстмуҳаммад Х. Ҳикояларда ҳаёт ва хаёл ҳақиқати. “Шарқ юлдузи” ж., № 4, 2011. 142-бет.
2. Умиров Ҳ. Адабий ижод асослари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2019. – Б. 83.
3. Мухаммедова Н. Маргарет Дреббл асарларида Аёл образи ва унинг ижтимоий-эстетик талқини: Филол. фан. Б. Ф. д. дисс автореф. – Тошкент: 2019. – Б. 50.
4. Қуролбой қизи З. Ўлим ҳеч нарса эмас. Ҳикоялар. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – 297-305-бетлар.
5. Hoshimov O‘. O‘zbeklar. – Toshkent: 2019. – 231-bet.
6. Muhammad Avfiy. Nodir hikoyalar. – T.: ASN, 1977.
7. Poshshoxo‘ja. Miftoh ul-adl. Gulzor. – T.: BAN, 1962.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 500.7/3 (577.1)

SURXON-SHEROBOD VOHASIDA XALQ OG‘ZAKI IJODI ORQALI SHAKLLANGAN FENOLOGIK BILIMLAR VA ULARNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Nosirova Sitora Shuxrat qizi,
Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

https://orcid.org/ 0009-0001-3399-3913

e-mail: sitora.nosirova.24@gmail.com

PHENOLOGICAL KNOWLEDGE FORMED THROUGH FOLK ORAL CULTURE IN THE SURKHAN-SHERABOD OASIS AND ITS SOCIAL SIGNIFICANCE

Nosirova Sitora Shukhrat qizi,
Independent researcher Termez State University

ФЕНОЛОГИЧЕСКИЕ ЗНАНИЯ, СФОРМИРОВАННЫЕ ПОСРЕДСТВОМ НАРОДНОЙ УСТНОЙ КУЛЬТУРЫ В ОАЗИСЕ СУРХАН-ШЕРАБОД, И ИХ СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Носирова Ситора Шухрат кызы,
независимый исследователь, Термезский государственный университет

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek xalqining an’anaviy madaniyatida tabiatni anglash jarayoni faqat diniy yoki mifologik tasavvurlar orqali emas, balki amaliy hayotiy ehtiyojlar, ya’ni dehqonchilik, chorvachilik va suv xo‘jaligi bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Ilmiy nuqtai nazardan bunday bilimlar tizimi fenologik bilimlar deb ataladi, ya’ni insonning yil fasllari, iqlim o‘zgarishi va tabiat ritmlarini kuzatish orqali hayotini tashkil etish tarixiy manbalar asosida tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar*: «Avesto» asotirlariga aloqador Kayumars, Anaxita, Axriman, dev, pari, ajdar; suv kulti bilan bog‘liq Hubbi, Sust xotin, Suv xotin, Chala xotin; shamol «piri».*

Abstract: *In three articles, the process of understanding nature in the traditional culture of the Uzbek people is formed not only through religious or mythological concepts, but also inextricably linked with practical life, namely agriculture, animal husbandry, and water management. From a scientific point of view, such a system of knowledge can be considered phenological knowledge, that is, an analysis based on historical sources of the organization of human life through the development of seasons, climate, and natural rhythms.*

Key words: *hadith, muhaddis, knowledge, enlightenment, ethics, scientist, teacher-student.*

Аннотация: *В данной статье утверждается, что процесс понимания природы в традиционной культуре узбекского народа формируется не только религиозными или мифологическими представлениями, но и неразрывно связан с практическими потребностями жизни, а именно с сельским хозяйством, животноводством и водопользованием. С научной точки зрения такая система знаний называется фенологическим знанием, то есть организация человеческой жизни посредством наблюдения за временами года, изменением климата и ритмами природы анализируется на основе исторических источников.*

Ключевые слова: *Каюмарс, Анахита, Ариман, великан, фея, дракон, связанные с мифологией Авесты; Хубби, Суст Хотин, Сув Хотин, Чала Хотин, относящиеся к культу воды; ветер «пири».*

KIRISH (INTRODUCTION). Surxon-Sherobod vohasi tabiiy sharoiti yozning juda issiq, qishning shamolli va ba'zan qattiq sovuq kelishi aholini tabiatni doimiy kuzatishga majbur qilgan. Shu bois, bu hududda fenologik bilimlar saqlangan va xalq og'zaki ijodi orqali ko'rish mumkin[1. 123].

O'zbek xalq og'zaki ijodida «Avesto» asotirlariga aloqador Kayumars, Anaxita, Axriman, dev, pari, ajdar; suv kulti bilan bog'liq Hubbi, Sust xotin, Suv xotin, Chala xotin; shamol «piri» sifatida tasavvur qilingan Haydar, Yalli momo, Yalang'och ota, Choymomo; xalq taqvimiga aloqador Ayamajuz, Aziz momo, Ahman Dahman; momaqaldiroq va chaqmoq «egasi» Guldur momo; afsonaviy pahlavonlar sifatida tasvirlanuvchi Odami Od, Olang'asar, Doroko'z; yovuz kuchlar haqidagi qarashlarni o'zida ifoda etgan alvasti, yalmog'iz kabi ko'pgina mifologik obrazlar mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD / (MATERIALS AND METHODS)

Bu obrazlarning aksariyati tabiat hodisalarining badiiy ifodasi hisoblanadi. Masalan, shamol piriga oid obrazlar shamol yo'nalishi va fasl almashinuvini tushuntirgan, suvga oid obrazlar esa vohadagi hayot manbai bo'lgan daryo, anhor, ariq va buloqlarni muhofaza qilish g'oyasini targ'ib qilgan. Demak, mifologiya tabiatni tushunishning ilk ilmiy bosqichidir.

Xalqimiz orasida vaqt hisobini yurgizishning hijriy-shamsiy taqvimiga amal qilinganligi bois, oy burjlari nomini arabcha aytish an'ana bo'lgan. Ularning nomlari: hamal (qo'y), savr (buqa), javzo (egiz qiz), saraton (qisqichbaqa), asad (arslon), sumbula (boshoq), mezon (tarozi), aqrab (chayon), qavs (yoy), jaddiy (echki), dalv (qovg'a), hut (baliq). Dehqonlar asrlar davomida tabiatni izchil kuzatish natijasida orttirgan oddiy hayotiy tajriba asosida xalq kalendari (dehqon taqvimi) ni ishlab chiqqan. Qishloq xo'jaligida qo'llanilgan xalq taqvimi har biri 90 kunlik muddatni o'z ichiga olgan fasllardan tashkil topgan: bahorgi to'qson (hamal, savr, javzo), yozgi to'qson (saraton, asad, sumbula), kuzgi to'qson (mezon, aqrab, qavs) va qishki to'qson (jaddiy, dalv, hut). Bu kalendar Surxon-Sherobod vohasida dehqonchilik ishlarini rejalashtirishning asosiy mezoni bo'lgan. Masalan, adir va tog' oldi qishloqlarida yerni shudgor qilish hamal boshida, paxta ekish esa savr oxirida boshlangan. Demak, xalq taqvimi agrotexnik kalendar vazifasini bajargan[2. 89].

Yozgi jazirama issiq va qishki sovuq davrlar katta va kichik chillaga bo'lingan. Qish ikki qismga bo'lingan: katta va kichik chilla. Bahorning kelishi hamaldan boshlangan. Bahor oyining kutilishi, ya'ni ko'klamgi dehqonchilik ishlarining boshlanishi yulduzlar holatiga, ilk qushlarning uchib kelishi va boshqa fenologik kuzatishlarga qarab belgilangan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION) Bu yerda qushlar migratsiyasi tabiiy kalendar vazifasini bajargan. Vohada laylak ko'rinishi bahor boshlanganini bildirgan. Aytish kerakki, aholining xalq og'zaki ijodiyoti orqali ham qadimda fenologik bilimlarga amal qilib kelganligini kuzatish mumkin. Ekin ekish bilan bog'liq qishloq xo'jalik ishlari boshlanishi bilan birga yilning eng sovuq kunlari ham hut (fevral) oyiga to'g'ri keladi, ya'ni hut oyining oxirlarida keladigan va yana bir xafta davom etadigan Aziz momo (Ayoz momo, Aya majuz, Ajuzmomo) bilan yakunlangan [3. 223]. Shuning uchun ham aholi hut oyining yaxshi kelishiga umid bog'lagan va xalq orasida:

Yaxshi kelsa hut - kadi to'la sut,
Yomon kelsa hut - keraga to'la put.

Bu maqol chorvachilik xo'jaligiga oid kuzatuv natijasidir. Sovuq kuchli kelgan yillarda qo'y-qo'zilar nobud bo'lishi haqiqatdan ham ko'p kuzatilgan. Xalqimiz donishmandligidan xabar beruvchi bu iboralarni yana davom ettirish mumkin:

Ayoz momo olti kun,
Yetalab kelsa yetti kun,
Sakrab kelsa sakkiz kun,
To'qrab kelsa to'qqiz kun,
O'ynab kelsa o'n kun.

Yana:

To'qrasam to'qqiz kun, havo buzuq keladi,
Sakrab kelsam sakkiz kun, dehqonchilik mo'l bo'ladi,

degani "yomon kelsam hamma narsaga ofat keltiraman" degan ma'noni anglatgan.

Iqlim bilan bog'liq tabiat kultlaridan biri Ajuzmomo bo'lib, xalq tushunchasi bo'yicha Ajuzmomo bir pari bo'lib, qishning egasi hisoblanadi. Afsonaga ko'ra, bir vaqtlar Ajuzmomo odamlarni muqarrar o'limdan saqlab

qolgan, keyin esa ularni yaxshilikka yetaklagan ekan. Agar qahri kelsa, odamlar va mollarni muzlatib qo‘ygan. Shu sababdan, aholi ba’zan sovuq urmasin degan ma’noda ham ehson chiqa-rardi. Bu obraz orqali aholi qish oxiridagi xavfli davr bahor oldi sovuqlarini anglatgan[4. 217].

NATIJALAR (RESULTS) Ko‘hitang tog‘ Kalapo‘shqiya qishlog‘ida «Suv sulton xotin» marosimida ikkiqat ayolga kiyim kiydirilib, boshiga ro‘mol o‘ralgan. Bu kiyim va ro‘mol yechib olinib, ayol boshqa kiyimlarini kiyib olgan. So‘ngra ikki gaz uzunlikdagi xoda uchidan sal pastroqda kichikroq cho‘p bo‘lagi ko‘ndalangiga bog‘lanib, qo‘g‘irchoq yasalgan. Ayolning kiyim-boshi qo‘g‘irchoqqa kiydirilgan. O‘sha ikkiqat ayol qo‘g‘irchoq taxtani ko‘tarib, ovuldagi har bir o‘tovga qarab yurishni boshlagan. Marosimda qo‘g‘irchoqni uyning manglayi, ya’ni eshigi ustiga qo‘yganlar. Unga suv sepishganda, keyin to‘p-to‘p bo‘lishib marosim qo‘shig‘ini kuylaganlar. Qo‘shiq aytilganidan so‘ng uy bekalari qo‘g‘irchoqqa suv sepganlar. Suv chaqirish marosimining ushbu turini asosan yarim ko‘chmanchi, yarim o‘troq aholi o‘tkazgan. Udumning talabi shu bo‘lganki, unda qatnashuvchi kishilar yomg‘ir yog‘ishiga chin yurakdan ishonmog‘i kerak bo‘lgan[5. 69].

XULOSA (CONCLUSION)

Shunday qilib, yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, iqlim sharoitining o‘ziga xos xususiyatlari mahalliy aholining xo‘jalik mashg‘ulotlariga bevosita ta’sir ko‘rsatgan, shu orqali aholi orasida turli marosimlar, urf-odat va udumlarga amal qilib kelingani xalq orasida saqlanib kelayotgan ibora va qarashlarda o‘z ifodasini topgan[6. 121].

Bundan tashqari, tabiat hodisalaridan yomg‘irning yog‘ishi, qurg‘oqchilik, o‘t-o‘lanning ko‘karishi yoki qishning qattiq kelishi odamlar turmush tarzi va mehnat jarayonini belgilab bergan. Shu sababli dehqon va chorvador aholi tabiat bilan uyg‘un yashashga intilib, uning o‘zgarishlarini turli ramziy marosimlar orqali «boshqarish» yoki «yumshatish»ga harakat qilgan. Yomg‘ir chaqirish, pirlarga atab sadaqa qilish kabi udumlar nafaqat ishonch-e’tiqod natijasi, balki jamoani birlashtiruvchi ijtimoiy omil sifatida ham xizmat qilgan[7. 163].

Ayni paytda bu marosimlar orqali kattalar tajribasi yosh avlodga o‘tkazilgan, tabiatni asrash, uy hayvoniga mehr bilan qarash, yerni qadrlash kabi qadriyatlar shakllangan. Demak, mazkur urf-odat va udumlar faqat diniy yoki irim-sirim sifatida emas, balki xalqning ko‘p asrlik xo‘jalik tajribasi, ekologik bilimlari va ijtimoiy munosabatlarini o‘zida mujassam etgan ma’naviy meros sifatida ahamiyat kasb etgan.

Foydalangan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Жабборов И. Ўзбек халқ этнографияси. - Т.: 1994.
2. Файзуллаева М.Ҳ., Кичкилов Ш.Ҳ. Хомкон – тарихий этнографик маскан (этногенез, этник тарих ва этномаданият). – Тошкент: Замон-Полиграф ОК, 2022.
3. Файзуллаева М. Ўзбек таомлари билан боғлиқ анъаналар. – Тошкент: YANGI NASHR , 2010.
4. Файзуллаева М. Сурхон воҳаси аҳолисининг таомлар билан боғлиқ анъана ва маросимлари (XX аср биринчи ярми). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Тошкент, 2010.
5. Fayzullayeva M. O‘zbek milliy taomlari va tanovul madaniyati (Surxon vohasi materiallari asosida). Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Termiz, 2023.
6. Kichkilov Sh. Ko‘hitang tog‘ qishloqlari aholisining ijtimoiy turmushida an’anaviylik va transformatsion jarayonlar. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Termiz, 2025.
7. Эшкурбонов С. Сурхон воҳаси аҳолисининг хўжалик-маданий ҳаётида анъаналар ва замонавийлик (деҳқончилик мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Термиз, 2022.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 37.091.3:004.9:811.111

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA REFLEKSIV YONDASHUVNING STRUKTURAVIY JIHATLARI VA UNI AMALIY TATBIQ ETISH MEXANIZMI

Ibraimova Gulmira Askarovna, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti “Pedagogika” kafedrasi doktoranti

СТРУКТУРНЫЕ АСПЕКТЫ РЕФЛЕКСИВНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ И МЕХАНИЗМ ЕГО ПРАКТИЧЕСКОЙ РЕАЛИЗАЦИИ

Ибраимова Гульмира Аскаровна, докторант кафедры «Педагогика» Нукуский государственный педагогический институт имени Ажинияза

STRUCTURAL ASPECTS OF THE REFLEXIVE APPROACH IN DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS AND THE MECHANISM OF ITS PRACTICAL IMPLEMENTATION

Ibraimova Gulmira Askarovna, Doctoral student of the Department of Pedagogy, Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute

Gulmiraaskarovna@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqola ta’lim jarayonida refleksiya,kasbiy reflekisya va refleksiv yondashuvni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda refleksiv yondashuvning tavsifi, uni qo‘llash yo‘llari hamda mazkur yondashuvning asosiy jihatlari yoritilgan. Refleksiv yondashuvni amalga oshirishga qaratilgan, boshlang’ich sinf o‘quvchilarni darsni samarali idrok etishga va o‘z bilimlarini muvaffaqiyatli tahlil qilishga undovchi metodlar bayon etilgan.*

Tayanch so‘zlar*: refleksiya, kasbiy refleksiya, refleksiv jarayon, refleksiv yondashuv, transsendental refleksiya, diskursiv matn, dialog, refleksiv yondashuv jihatlari.*

Abstract: *This article is devoted to the analysis of reflection, professional reflection, and the reflexive approach in the educational process. It describes the essence of the reflexive approach, the ways of its implementation, and highlights its main aspects. The article presents methods aimed at implementing the reflexive approach, which encourage primary school students to perceive lessons effectively and to successfully analyze their own knowledge.*

Key words: *Reflection, professional reflection, reflexive process, reflexive approach, transcendental reflection, discursive text, dialogue, aspects of the reflexive approach.*

Аннотация: *Данная статья посвящена анализу рефлексии, профессиональной рефлексии и рефлексивного подхода в образовательном процессе. В ней раскрывается сущность рефлексивного подхода, пути его применения, а также освещаются основные аспекты данного подхода. В статье представлены методы, направленные на реализацию рефлексивного подхода, которые*

способствуют эффективному восприятию учебного материала учащимися начальной школы и успешному анализу ими собственных знаний.

Ключевые слова: *Рефлексия, профессиональная рефлексия, рефлексивный процесс, рефлексивный подход, трансцендентальная рефлексия, дискурсивный текст, диалог, аспекты рефлексивного подхода.*

KIRISH. Shaxsning eng muhim xususiyatlaridan biri “refleksiya” bo‘lib, u o‘zini o‘zi boshqarishi, o‘zini o‘zi rivojlantirishi hamda o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarishining muhim mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchilar A. A. Derkach, A. V. Karpov, I. A. Savenkova, I. N. Semenov, S. Yu. Stepanovlarning ta’kidlashicha, kasbiy rivojlanishning muvaffaqiyati shaxsiy o‘sish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayon o‘z navbatida o‘zini anglash va o‘zini tushunishning chuqurligi hamda sifati bilan belgilanadi. Mazkur jarayonlar esa shaxsning o‘zini refleksiv qayta anglashiga bog‘liqdir [1].

Bo‘lajak mutaxassisning kasbiy refleksiyasini shakllantirish muammosini o‘rganish imkoniyati ushbu masalaning alohida jihatlari falsafiy, psixologik va pedagogik tadqiqotlarda keng yoritilgani bilan belgilanadi.Kasbiy refleksiya uchun asos bo‘lib xizmat qilgan asosiy jarayonlar va qonuniyatlarni anglash maqsadida, avvalo, mazkur muammoning falsafiy talqiniga murojaat qilamiz. A. V. Karpovning ta’kidlashicha, “refleksiya” tushunchasining falsafiy konteksti psixologik-pedagogik tadqiqotlarga nisbatan mazmunan boyroq va tarixiy jihatdan kengroqdir [2].

Refleksiya mohiyatini anglashning dastlabki bosqichi “Antik davr”ga to‘g‘ri keladi. Ushbu davr refleksiya fenomenining shakllanish davri bo‘lib, antik mualliflar refleksiyaning vazifasini insonning o‘zini o‘zi bilishi bilan cheklaganlar. Antik falsafada refleksiya inson onggiga xos xususiyat sifatida qaralmagan, u shaxsiy, individual va ma’naviy faoliyatni anglash vositasi sifatida talqin etilmagan. Antik davrda refleksiyani rivojlantirishning asosiy vositasi “dialog” hisoblangan. Suqrot o‘ziga xos dialog olib borish usulini ishlab chiqqan bo‘lib, bu usul I.N.Semenov tomonidan “refleksiv-dialektik polilog” sifatida tasniflangan, keyinchalik esa “Suqrot suhbati” metodi sifatida tan olingan. Platon, Suqrot dialoglarining diskursiv-matnli shaklini yaratib, ularni chuqur falsafiy mazmun bilan boyitgan. Uning fikricha, donolikni tarbiyalash o‘zini o‘zi anglashning muhim jarayoni bo‘lib, donolik insonning o‘zini bilishi bilan tenglashtirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Aristotel asarlarida refleksiv dialog rivoji antik dialektikaga aylangan. U refleksiyani ilohiy aqlning xususiyati sifatida talqin qilib, u fikr va o‘ylanuvchi narsa birligini anglashga qodir ekanini ta’kidlagan [3].

Yangi davr falsafasida shaxsga refleksiya qilish qobiliyati xos deb e’tirof etilgan. Ushbu davrning muhim xususiyatlaridan biri inson haqidagi bilimlarning manbalarini asoslashga bo‘lgan intilish bo‘lib, bu refleksiya tushunchasining yanada chuqurlashuviga olib kelgan. Natijada ong ruhning o‘zi haqidagi bilimi sifatida talqin etila boshlagan.

Yangi davrga mansub bo‘lgan yana bir muhim mutafakkir - J. Lokk refleksiya muammosini ongning ichki mexanizmi sifatida talqin etgan. U tajribani ikki turga ajratgan: ichki va tashqi tajriba. Ichki tajriba aql faoliyatiga, tashqi tajriba esa tashqi olamga yo‘naltirilgan bo‘lib, g‘oyalar manbai sifatida yo tashqi obyektlar, yo aqlning o‘zi faoliyati namoyon bo‘ladi. Bilishning birinchi manbaini Lokk **“sezgi”,** ikkinchi manbaini esa **“refleksiya”** deb atagan. Refleksiya insonning o‘z aqliy faoliyatini tashqi obyektlar singari bilish qobiliyati sifatida tavsiflangan.

Kant uchun refleksiya - ong materialini tuzish va tartibga solish, ko‘plab bilimlarni yagona ong doirasida qamrab olish imkoniyatidir. Yangi davr falsafasiga J.Lokkning asarlari mansub bo‘lib, u refleksiya jarayoni muammosini ongning ichki mexanizmi muammosi sifatida talqin etgan.

Faylasuf tajribani “ichki” va “tashqi” tajribaga ajratgan: ichki tajriba aql faoliyatiga taalluqli bo‘lsa, tashqi tajriba tashqi olamga yo‘naltirilgan. Refleksiya insonning o‘z aqliy faoliyatini tashqi predmetlar qanday bilinsa, xuddi shunday tarzda bilish qobiliyati sifatida tavsiflangan.

MUHOKAMA. **“Refleksiya”** tushunchasining ko‘p qirrali tahlili F. Gegel

tomonidan amalga oshirilgan. Faylasuf refleksiyaning dialektik xarakterga egaligini, ya'ni mohiyat va shaklning aynanligi hamda farqlanishi sifatida namoyon bo'lishini, shuningdek, u jarayon va harakat sifatida talqin etilishini ta'kidlaydi. U refleksiyani ong bilan aynanlashtirgan, keyinchalik esa uni insonning shakllanishida asosiy kategoriya sifatida belgilagan holda, ongni refleksiya rivojlanishining bir bosqichi sifatida soddalashtirib talqin qilgan. F.Gegel refleksiya deganda turli shakllarda faoliyatning subyektiv "boshqachaligini" vujudga keltiruvchi ongli faoliyat jarayonini tushungan. Aynan uning ishlari tufayli refleksiya bilimni falsafiy tahlil qilishning muhim asoslaridan biri maqomiga ega bo'lgan.

Refleksiv yondashuv falsafada XX asr boshlarida ham o'z rivojini davom ettirdi. Ushbu davrda refleksiya muammosini ishlab chiqish va talqin etishda ikki asosiy yo'nalish ajralib chiqdi. Birinchi yo'nalishda refleksiya ong mazmunini tahlil qilishning universal usuli sifatida qaraldi. Bu yo'nalish **"fenomenologiya"** doirasida rivojlandi va tabiiy munosabatdan ongning transsendental hayotiga qaytish metodi sifatida talqin etildi. Ikkinchi yo'nalish esa "ekzistensializm" bilan bog'liq bo'lib, unda refleksiya insonning o'z-o'zini anglashining manbai va asosi sifatida talqin qilindi [4].

E. Gusserl refleksiyaning universal metodologik funksiyasini asoslab, uning yangi turi bu "transsendental refleksiya"ni ajratib ko'rsatdi va uni tabiiy refleksiyadan farqladi. Faylasuf transsendental refleksiya bilan obyektni bevosita idrok etish, intuitiv anglash aktini bog'laydi, bu jarayonda manfaatlardan xoli kuzatuvchi pozitsiyasi shakllanadi.

Fenomenologiyadan farqli o'laroq, zamonaviy "postmodernism" vakillari refleksiya tushunchasiga tanqidiy munosabat bildiradilar. Ular shaxsning ichki tajribasi ifodalanmasligi va refleksiv anglash uchun to'liq ochiq emasligini ta'kidlaydilar. Postmodernizm davrida refleksiya muammosini o'rganishning ikkinchi bosqichi (XX asr) ekzistensializm falsafasi doirasida shakllandi. Ushbu davrda refleksiya yana aniq tarzda dialoglashtirish funksiyasini namoyon etib, tashqi dialogni insonning o'zi bilan olib boradigan individuallashtirilgan ichki munozaraga aylantiradi.

Ushbu davrda refleksiya shakllanishi muammosi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa-da, mazkur fenomenning gnoseologik va ontologik asoslari eng to'liq va izchil tarzda V. A. Lektorskiy, V. A. Lefevr, M. K. Mamardashvili, G. P. Shchedrovitskiy asarlarida yoritilgan .

M. K.Mamardashvili refleksiyani shaxsning ichki tajribasi bilan aloqaga kirishishning asosiy usuli va vositasi sifatida talqin qiladi, ushbu tajribaning betakrorligini anglash esa individual falsafiy tafakkurning asosiy maqsadi hisoblanadi. Faylasufning ta'kidlashicha, tafakkur jarayonida inson doimo o'z tafakkuri bilan ish ko'radi va shu tariqa uni refleksiyalash bilan aynanlashtiradi [5].

G.P.Shchedrovitskiy refleksiyani alohida jarayon va tuzilma, faoliyat sxemalarining rivojlanish prinsipi sifatida ko'rib chiqqan. Uning fikricha, refleksiv faoliyatni amalga oshirishning asosi **"refleksiv chiqish"** bo'lib, u shaxsning avvalgi **"faol"** pozitsiyasidan kelajakda rejalashtirilayotgan faoliyatga va ilgari amalga oshirilgan faoliyatlarga nisbatan tashqi pozitsiyaga o'tishida namoyon bo'ladi. Ushbu yangi pozitsiya "refleksiv pozitsiya", unda shakllangan bilimlar esa "refleksiv bilimlar" deb ataladi, chunki ular dastlabki pozitsiyada hosil qilingan bilimlarga nisbatan shakllantiriladi .

NATIJALAR. Refleksiv yondashuvni qo'llash natijasida o'quvchilar o'z tajribalarini yanada samarali tahlil qilishni o'rganadilar hamda ta'lim jarayonida erishilgan natijalar uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga olishga odatlanadilar. Refleksiv yondashuv tufayli o'quvchilar o'qituvchi ko'magida o'z qiziqishlariga asoslanib o'quv materialini tanlash, o'quv jarayonini tashkil etishda faol ishtirok etish, hozirgi natijalarini avvalgi ko'rsatkichlar bilan solishtirish orqali o'z o'quv muvaffaqiyatlarini oldindan bashorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Hozirgi kunda refleksiya ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda va ta'lim jarayonida refleksiv metodlarni o'rganish hamda ularning o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyati va o'qish ko'nikmalariga ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar soni tobora ortib bormoqda. Ta'limning asosiy maqsadi esa faol, mustaqil

faoliyat yurita oladigan hamda ijodiy va kasbiy mehnatga qodir shaxsni o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini ta’lim olish va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlari orqali shakllantirishdan iborat bo‘lib bormoqda [6].

Shu bois bo‘lajak chet tili o‘qituvchilari turli tipdagi mashg‘ulotlarni loyihalash va o‘tkazish texnologiyasini, shuningdek, umumta’lim o‘rta maktablarida chet tili darslarida refleksiya bosqichini samarali tashkil etish metodikasini puxta egallashlari zarur.

Bularning barchasi o‘quv-tarbiya jarayonida talabalarga tayyor bilimlarni uzatish bilangina cheklanmasdan, balki ularda pedagogik muammoli vaziyatlarning yechimlarini mustaqil ravishda topish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi [7].

Refleksiv yondashuv o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni ifodalaydi. Bu jarayonda o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari inobatga olinadi, uning tajribasi tahlil qilinadi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ishonchga asoslangan, samarali va refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan munosabatlar shakllantiriladi.

O‘quvchi psixikasi ko‘pincha murakkab yoki mutlaqo yangi vazifalar bilan to‘qnash kelganda qo‘rquv va ikkilanish holatiga tushadi. Bunday vaziyatda qo‘rquv barcha motiv va intilishlarni bloklab qo‘yadi hamda muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish tufayli vazifani bajarishga kirishish qiyinlashadi. Ayniqsa, avval shunga o‘xshash muammolarni hal etishda muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo‘lsa, bu holat yanada kuchayadi.

Refleksiv yondashuvning vazifasi o‘quvchiga ana shunday vaziyatlarda o‘z hissiyotlarini boshqarishni, o‘zining kuchli va zaif tomonlarini oqilona anglashni hamda o‘z imkoniyatlariga ishonishni o‘rgatishdan iboratdir [8].

Zorin S.S refleksiv yondashuvga quyidagicha ta’rif beradi: “Ta’limning muhim maqsadi-bolalarda ijodiy salohiyatni shakllantirish va refleksiv-ijodiy shaxsni rivojlantirishdir”. Buning uchun ijodiy (kreativ) ta’lim muhiti hamda shaxsiy ijodiy salohiyatni muvaffaqiyatli namoyon etish imkonini beruvchi ijtimoiy-madaniy ijodiy makon yaratish zarur” deb takidlagan [9].

Refleksiv yondashuvning quyidagi asosiy tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- o‘quvchining intellektual va axloqiy sifatlarini o‘rganilayotgan fan orqali va o‘quv faoliyatiga faol jalb etish orqali rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish;
- dars jarayoni doirasida tartibga solingan o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik;
- ijodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida o‘qituvchi va bolalar o‘rtasidagi darsdan tashqari faoliyat;
- o‘quvchini o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz fanlarni mustaqil o‘rganishga, ijodiy rivojlanishga va mustaqillikka yo‘naltirish, bu esa refleksiv shaxsning shakllanishiga xizmat qiladi.

Refleksiv yondashuvni amalga oshirishni tavsiflashda natijaga erishishning variativligi alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘quvchilarga ta’limiy maqsadlarga erishish yo‘llarini mustaqil tanlash imkoniyatini berishi muhim hisoblanadi.

Mazkur shart bajarilgan taqdirda, o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, fikrlashning originalligi, qabul qilingan qaror uchun mas’uliyatni anglash, o‘z maqsadlari va ularga erishish vositalarini aniqlay olish kabi ko‘nikmalar rivojlanadi. O‘quvchi bilan qo‘shimcha o‘quv materialini tanlash, ma’ruza yoki referat mavzusini belgilash, mustaqil tadqiqot faoliyatining turli shakllarini muhokama qilish mumkin.

Mazkur holatda pedagog uchun o‘quvchilarga ko‘proq tanlov erkinligini berish, ularning fikr va istaklarini inobatga olish, savollariga javob berish muhim ahamiyat kasb etadi. Refleksiv shaxsni rivojlantirish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchini sinfdagi boshqa o‘quvchilar bilan solishtirmasligi lozim. Taqqoslash, avvalo, o‘quvchining hozirgi natijalarini uning avvalgi ko‘rsatkichlari bilan solishtirish asosida amalga oshirilishi, bunda rivojlanish dinamikasi va erishilgan ijobiy siljishlar alohida ta’kidlanishi zarur.

Shu tariqa, o‘quvchi o‘z yutuqlari va faoliyati natijalarini obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi .

Lipatnikova I.G. refleksiv yondashuvning quyidagi jihatlarini ajratib ko‘rsatadi:

1)Kommunikativ jihat. Refleksiya rivojlangan shaxslar o‘rtasidagi har qanday muloqotning

tarkibiy qismi sifatida o‘quvchiga boshqa odamlar uning haqida qanday fikrda ekanliklari va u muloqot ishtirokchilari tomonidan qanday qabul qilinishini anglash imkonini beradi.

2)Kooperativ jihat. Ushbu jihat jamoaviy o‘quv faoliyatini loyihalash va mazkur faoliyat ishtirokchilarining rollarini hisobga olgan holda ularni muvofiqlashtirish imkonini yaratadi.

3)Shaxsiy jihat. Boshqa odamlar bilan muloqot jarayonida shakllanadigan yangi “Men” obrazini yaratishni nazarda tutadi. Shuningdek, u atrof-muhit, o‘rganilayotgan fan va shaxsning o‘zi haqidagi bilimlarning yanada obyektiv bo‘lishini ta’minlaydi.

4)Intellektual jihat. Refleksiyani egallangan ko‘nikma sifatida anglashni bildiradi, bu esa o‘quvchining muayyan o‘quv vaziyatida o‘z harakatlarini tahlil qila olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi [8].

Refleksiv yondashuvni amalga oshirish jarayonida o‘qituvchi tomonidan o‘quv faoliyatini shunday tashkil etish muhimki, bunda o‘quvchilar munozara, dialog va o‘qituvchi hamda tengdoshlari bilan konstruktiv suhbatda ishtirok eta olsinlar. Ushbu faoliyatni amalga oshirish o‘quvchining ta’lim jarayoniga nisbatan subyekt pozitsiyasini egallashiga imkon yaratadi.

Refleksiyani rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishda o‘quvchining o‘z yutuqlarini mustaqil baholashi muhim rol o‘ynaydi. Bunday holatda o‘z-o‘zini baholashning muqobil shakllari sifatida muvaffaqiyat kundaliklari, o‘n ballik yoki an’anaviy baholash tizimidan farq qiluvchi boshqa shkalalar, ramzlar, bahosiz baholash, reyting shkalalari qo‘llanilishi mumkin. Shu orqali o‘quvchi o‘zini faoliyat subyekti sifatida baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

XULOSA. Refleksiya ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda muvaffaqiyat kundaliklarini yuritish, tugallanmagan gaplar metodi, refleksiv kundaliklardan foydalanish, shuningdek, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tadqiq etishga yo‘naltirilgan savolnomalar bilan ishlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Refleksiv yondashuv ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirib, xususan, tasavvur va xotira kabi muhim tafakkur jarayonlarining rivojlanishini ta’minlaydi, mustaqil va ijodiy faoliyatni shakllantiradi hamda o‘quv materialining yanada samarali o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvni amaliyotga joriy etish o‘quvchilarga o‘quv faoliyati mazmunini tanlashda faol ishtirok etish imkonini yaratadi, ularni ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantiradi hamda erishilgan natijalar uchun shaxsiy mas’uliyatni anglashga undaydi. Bundan tashqari, refleksiya o‘quvchilarning ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan o‘zaro pedagogik hamkorligi jarayonida, shuningdek, o‘zining “Men” konsepsiyasini anglash va tahlil qilish orqali namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Двоеглазова М. Ю. Структура личностной рефлексии студентов: диссерта-
ция … кандидата психологических наук. Москва, 2008.190 с.

2. Карпов А. В. Психология рефлексивных механизмов деятельности. Москва.Институт психологии РАН, 2004. 424 с.

3. Бизяева А. А. Психология думающего учителя: педагогическая рефлексия
А. А. Бизяева. Псков: ПГПИ им. С. М. Кирова, 2004. 216 с.

4. Гуссерль Э. М. Идеи к чистой феноменологии и феноменологической философии. Москва: Гнозис, 2009. 496 с.

5.Лепский В. Е. Рефлексивный подход: от методологии к практике. Москва: Когито-центр, 2009. 447 с.

6. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarori.

7.Бурдякова, Л.С. Рефлексивный подход как педагогическая проблема. Научные труды Московского гуманитарного университета. 2017. № 4.

8. Зорин, С.С. Формирование творческого пространства и потенциала у детей в системе образования С.С. Зорин // Вестник Удмуртского университета. Сер. Философия. Психология. Педагогика. 2015. № 1. С. 48-51.

9.Ступакова, Г.В. Реализация рефлексивного подхода при обучении английскому языку в условиях модернизации образования. 2007.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 37.091.3:004.9:811.111

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ В ТЕОРИИ И ТЕХНОЛОГИИ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ

Абдуллаев Дилшод Хамудулло оглы, доцент Джизакского государственного педагогического университета

CONTEMPORARY ISSUES IN THE THEORY AND TECHNOLOGY OF PHYSICAL EDUCATION OF PRESCHOOLERS

Abdullayev Dilshod Hamudullo o‘g‘li,
Associate Professor, Jizzakh State Pedagogical University

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR JISMONIY TARBIYA NAZARIYASI VA TEXNOLOGIYASINING ZAMONAVIY MASALALARI

Dilshod Xamudullo Abdullaev, Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

dilshod1986@gmail.com

Аннотация: *Наша статья посвящена вопросу полноценному физическому развитию детей, который закладывается как фундамент здоровья в периоде дошкольного детства. А также, совершенствованию, поддержанию, восстановлению ценностей в сфере физического развития детей по самореализации его духовных, физических способностей и «Концепции Я».*

Ключевые слова: *физической культура, физическая культура личности, физическое воспитание, физическое развитие, движение.*

Annotation: *Our article is devoted to the issue of the full physical development of children, which is laid as the foundation of health in the period of preschool childhood. And also, improvement, maintenance, restoration of values in the field of physical development of children for the self-realization of their spiritual, physical abilities and the "I Concept".*

Key words: *physical culture, physical culture of personality, physical education, physical development, movement.*

Annotatsiya: *Bizning maqolamiz maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lig'i uchun poydevor bo'lib xizmat qiladigan bolalarning har tomonlama jismoniy rivojlanishiga qaratilgan. Shuningdek, u bolalarning jismoniy rivojlanish sohasidagi qadriyatlarini yaxshilash, saqlash va tiklashga qaratilgan bo'lib, ularning ma'naviy va jismoniy qobiliyatlarini o'zini o'zi anglash va "O'z-o'zini anglash"ga e'tibor qaratadi.*

Kalit so'zlar: *jismoniy tarbiya, shaxsiy jismoniy tarbiya, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, harakat.*

В отечественной и зарубежной науке дошкольное детство считается периодом рождения личности. Именно в этом возрасте ребёнок приобретает индивидуальные особенности психики и поведения, делающие его неповторимой личностью с собственными интересами, стремлениями, способностями. Однако для того чтобы ребёнок стал личностью, надо сформировать у него потребность быть ею. Подняться до уровня личности ребёнок может только в условиях социального окружения, через взаимодействие

с этим окружением и освоение духовного опыта, накопленного человечеством. [1,2]

В дошкольный период закладывается фундамент здоровья и полноценного физического развития. В самом общем смысле физическим развитием дошкольника называют процесс изменения естественных морфофункциональных свойств его организма в течение индивидуальной жизни. Внешними количественными показателями физического развития являются, например, изменения пространственных размеров и массы тела, качественно же физическое развитие характеризуется, прежде всего, существенным изменением функциональных возможностей организма по периодам и этапам его возрастного развития, выраженным в изменении отдельных физических качеств и общего уровня физической работоспособности.

Физической культурой называется вид общей культуры, одна из сфер социальной деятельности людей по освоению, совершенствованию, поддержанию и восстановлению ценностей в сфере физического развития человека по самореализации его духовных и физических способностей. Исторически физическая культура складывалась под влиянием прежде всего практических потребностей общества в полноценной подготовке подрастающего поколения и взрослого населения к труду. Вместе с тем по мере развития систем образования и воспитания она становилась базовым фактором формирования двигательных умений и навыков. В связи с научно-технической революцией в физической культуре произошли сложные изменения. Она стала объективной потребностью общества и личности, социальной ценностью, важной частью культуры. Качественно новая стадия осмысления сущности физической культуры связывается с её влиянием на духовную сферу как действенного средства интеллектуального, нравственного, эстетического воспитания. На этом фоне в каждой подсистеме физической культуры (физическое воспитание, спорт, двигательная реабилитация) специфично представлены духовные начала, связанные с интеллектуальными и социально-психологическими компонентами, а также с широким спектром потребностей, способностей, отношений. [2,5]

Среди многих факторов, влияющих на формирование личности дошкольника (социальных, культурных, гигиенических и др.), физическая культура занимает одно из важных мест. Она играет уникальную роль в комплексном развитии всех аспектов (психического, физического, интеллектуального, эстетического, нравственного) целостной личности, постепенно подготавливая ребёнка для включения во все более усложняющиеся системы социальных отношений.

Результативность физической культуры достигается благодаря использованию всей системы средств (физические упражнения, оздоровительные силы природы, гигиенические факторы и т.д.), однако наибольший удельный вес приходится на физические упражнения. Являясь биологической потребностью человека, движения служат обязательным условием формирования всех систем и функций организма. Именно поэтому они рассматриваются как основной признак жизни, стержень всей жизнедеятельности и поведения человека и в то же время как формирующее начало в его развитии. Хотя культура движений сама по себе не гарантирует духовного здоровья, но чем гармоничнее личность, тем более раскрепощен человек, свободнее его движения. И совершенно не случайно в современных исследованиях суть физического упражнения определяется как двигательное действие с моторной и духовной составляющими.

Наиболее полно личностное развитие ребёнка осуществляется в теории личностно ориентированного обучения, которая признает право ребенка быть субъектом собственной жизни. Под личностно ориентированным подходом понимается методологическая ориентация в педагогической деятельности, позволяющая посредством опоры на систему взаимосвязанных идей и способов действий обеспечивать и поддерживать процессы самопознания, саморазвития и самореализации личности. Применение данного подхода предполагает построение процесса воспитания

TAMADDUN NURI

и обучения с максимальной актуализацией механизмов формирования личности ребенка: мотивации, ценностей, «Я-концепции», субъектного опыта. Происходит отказ от излишнего дидактизма, назидательности; на первый план выдвигается диалог, совместный поиск истины, развитие ребенка через создание воспитывающих ситуаций. Знания, умения и навыки рассматриваются не как цель, а как средство полноценного развития личности.

Относительно двигательной деятельности личностно ориентированный подход рассматривается как организация условий перехода возможности быть субъектом активности в действительную двигательную активность. Такие условия возникают при проявлении ребёнком самостоятельности в реализации движений (расширение двигательного «креативного поля», формирование физического «образа Я»).

Формирование субъективного «Я» в процессе двигательной деятельности осуществляется в условиях привлечения внимания ребенка к красивому телу, визуализации ребенком красивого двигательного поведения окружающих взрослых. Реализовать желание детей овладеть движениями в структуре красивого образа можно с помощью ритмической гимнастики, спортивного танца. Удачное сочетание общеразвивающих упражнений, элементов акробатики, художественной гимнастики и танцевальных ритмических мелодий оказывает влияние на моделирование собственного двигательного образа одновременно с образом красивого тела. Много внимания проблеме субъектности ребёнка в двигательной деятельности уделяет В.Т. Кудрявцев, который считает, что именно на этой основе можно культивировать у детей осмысленное отношение к собственному телу, его состоянию и возможностям.

В учебной программе дошкольного образования «Первый шаг» особое значение придаётся физическому воспитанию, которое строится на основе знаний о возрастных, индивидуальных и психофизических особенностях дошкольника. Физическое воспитание ребёнка в условиях ДОО для детей раннего и дошкольного возраста является важной и ответственной задачей общественного воспитания, т.к. все дети, начиная с самого раннего возраста, должны расти здоровыми, крепкими, гармонически развитыми и чтобы они хорошо учились. Именно в дошкольном детстве формируется здоровье, общая выносливость, работоспособность, активная жизнедеятельность и др. качества, необходимые для всестороннего гармонического развития личности. Этот возраст наиболее благоприятен для закаливания организма, овладения элементарными жизненно необходимыми двигательными умениями и навыками. К моменту поступления в школу дети должны овладеть определённым запасом двигательных умений и навыков, которые позволят им адаптироваться к новым условиям и требованиям, предъявляемым к учебной деятельности, помогут более успешно усваивать школьную программу не только на первых, но и на последующих этапах обучения, проявления интереса к самостоятельным занятиям физическими упражнениями и в частности всей физкультурно-спортивной деятельности.

ЛИТЕРАТУРА:

1. «Государственный стандарт дошкольного образования и воспитания Республики Узбекистан» Т.: 2020 г
2. «Тематическое планирование образовательной деятельности в дошкольном образовательном учреждении» Т.: 2019 год
3.Шишкина В.А. Физическое воспитание дошкольников. В.А. Шишкина Минск, 2013.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 821.23

MORPHOLOGICAL ADAPTATION OF ANGLICISMS IN UZBEK INTERNET DISCOURSE AND A CORPUS-BASED ANALYSIS

Karimbaeva Mavluda Madaminovna,
Tashkent international university of financial management and technologies Assoc.docent

МОРФОЛОГИЧЕСКАЯ АДАПТАЦИЯ АНГЛИЦИЗМОВ В УЗБЕКСКОМ ИНТЕРНЕТ-ДИСКУРСЕ И ИХ КОРПУСНЫЙ АНАЛИЗ

Каримбаева Мавлюда Мадаминовна,
Ташкентский международный университет финансового менеджмента и технологий TIFT и.о.доцента

O‘ZBEK INTERNET DISKURSIDA ANGLISIZMLARNING MORFOLOGIK MOSLASHUVI VA KORPUSGA ASOSLANGAN TAHLIL

Karimbaeva Mavluda Madaminovna,
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti (TIFT), dotsent v.b.

e-mail: kmm.and.1974@gmail.com

Abstract: *The article examines morphological mechanisms of English loanword integration into Uzbek youth internet discourse. Based on a corpus of 5,000 lexical units collected from TikTok, Telegram, and Instagram, the research analyzes affixation patterns, hybrid formations, and graphetic variability. The analysis reveals systematic application of Uzbek derivational morphemes to English bases, forming productive word-formation nests. Results indicate three primary adaptation strategies: suffixation with profession markers (-chi), verbalization through -moq, and adjectival derivation with -li. The study contributes to contact linguistics and lexicographic description of digital Uzbek.*

Key words: *Anglicisms, morphological adaptation, Uzbek language, internet discourse, word-formation, corpus linguistics*

Аннотация*: В статье рассматриваются морфологические механизмы интеграции английских заимствований в узбекский молодежный интернет-дискурс. На основе корпуса из 5000 лексических единиц, собранных из TikTok, Telegram и Instagram, исследование анализирует модели аффиксации, гибридные образования и графематическую вариативность. Анализ выявляет систематическое применение узбекских словообразовательных морфем к английским основам, формируя продуктивные словообразовательные гнезда. Результаты указывают на три основные стратегии адаптации: суффиксация с показателем профессии (-chi), вербализация через -moq и образование прилагательных с помощью -li. Исследование вносит вклад в контактную лингвистику и лексикографическое описание цифрового узбекского языка.*

Ключевые слова: *англицизмы, морфологическая адаптация, узбекский язык, интернет-дискурс, словообразование, корпусная лингвистика.*

Annotatsiya: *Maqolada ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlarning o‘zbek yoshlar internet diskursiga morfologik integratsiya mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. TikTok, Telegram va Instagram platformalaridan to‘plangan 5000 ta leksik birlikdan iborat korpus asosida affiksatsiya modellari, gibrid shakllar hamda grafemik variativlik tahlil qilinadi. Tahlil natijalari ingliz asoslariga o‘zbek derivatsion morfemalarining tizimli qo‘llanishini va natijada mahsuldor so‘z yasalish uyalarining shakllanishini ko‘rsatadi. Natijalar moslashuvning uchta asosiy strategiyasini aniqlaydi: kasb bildiruvchi qo‘shimcha (-chi) orqali suffiksatsiya, -moq orqali fe’llashtirish hamda -li yordamida sifat yasash. Tadqiqot kontakt lingvistikasi va raqamli o‘zbek tilining leksikografik tavsifiga hissa qo‘shadi.*

Kalit so‘zlar: *anglisizmlar, morfologik moslashuv, o‘zbek tili, internet diskursi, so‘z yasalishi, korpus lingvistikasi.*

Introduction

The diffusion of English vocabulary into Uzbek digital communication represents a significant phenomenon in contemporary Central Asian sociolinguistics. With internet penetration exceeding 78% and youth aged 15-30 spending 8-10 hours daily online, [1; p. 24] Uzbekistan has developed a distinctive translanguaging environment where English lexical items undergo systematic restructuring according to Uzbek morphological patterns.

Previous research on Uzbek lexicography primarily focused on historical borrowings from Arabic, Persian, and Russian. [2; 129-135 b.] However, the current wave of anglicization, driven by digital globalization, requires updated analytical frameworks. [3; 48-54 b.]

The morphological integration of loanwords presents particular interest for lexicographic documentation. Classical dictionaries fail to capture the dynamic, productive nature of internet-derived formations such as *kliklamoq* (to click) or *trendli* (trendy). This gap motivated the investigation into systematic patterns of anglicism adaptation.

Research objectives

1) To identify productive morphological patterns in anglicism integration; 2) To analyze the formation of word-formation nests around English bases; 3) To document graphetic variability and its implications for lexicographic fixation; 4) To compare direct versus Russian-mediated borrowing pathways

Methods

A specialized corpus of 5,000 lexical units was compiled from October 2024 to March 2025. Data sources included public posts and comments from TikTok (40%), Telegram (35%), and Instagram (25%). Contributors were Uzbek-speaking users aged 16-25 in Tashkent, Samarkand, and Fergana. Thematic domains covered gaming, edutainment, beauty blogging, and fintech.

Morphological analysis employed contrastive-comparative methods, comparing Uzbek formations with Russian and English parallels. Distributional analysis extracted stable collocations and word-formation nest theory guided the description of derivational patterns. [4; 4-7 p.]

For each lexeme, the following parameters were recorded: a) phonetic transcription in Uzbek adaptation; b) morphological structure (presence of Uzbek affixes); c) etymological specification (direct borrowing vs. calquing vs. Russian mediation); d) semantic variants; e) usage reactions.

Results

The professional marker *-chi* demonstrates high productivity with English bases: blog becomes *blogerchi* meaning blogger (rare), stream becomes *strimer* meaning streamer, and post becomes *postchi* meaning poster (content creator). The possessive suffix *-ning* attaches to nominal bases, for example postning (of the post/posts). This follows Uzbek grammatical requirements for case marking while preserving English stems.

The infinitive suffix *-moq* converts English nouns into verbs, representing the most productive adaptation mechanism: click becomes *kliklamoq* meaning to click, scroll becomes *scrol qlamoq* meaning to scroll, and download becomes *yuklamoq* meaning to download (competing with native equivalent). Particularly, scrol qlamoq exhibits hybrid composition combining English base with Uzbek auxiliary *qil-* (to do) in light verb construction.

The attributive suffix *-li* (possessing feature) creates adjectives from English nouns: cool becomes *kuulli* (cool, awesome), trend becomes *trendli* (trendy), and vibe becomes *vibeli* (having good vibes). Phonetic adaptation accompanies derivation, for instance English /kuːl/ becomes Uzbek /kuːl/ with subsequent suffixation.

Complex predicates combine English nouns with Uzbek verbs: story *qo'ymoq* combines story with *qo'y-* (put) meaning to post a story, like bosmoq combines like with *bos-* (press) meaning to press like, and follow qilmoq combines follow with *qil-* (do) meaning to follow. These constructions preserve English lexical material while integrating into Uzbek predicate structure.

Systematic substitutions accommodate Uzbek phonology: think becomes *sink* or *tink* with adaptation of /θ/ to /s/ or /t/, strength becomes *streng* or *strenf* through cluster reduction, and brand becomes *brend* through prothesis and vowel modification.

Discussion

The data demonstrate that Uzbek morphological rules apply systematically to English material, contradicting assumptions about "chaotic" borrowing in digital discourse. The suffix *-moq* in particular shows predictable behavior, suggesting that speakers unconsciously extend native grammatical patterns to novel lexical items.

This supports the "adaptation rather than adoption" model: English words enter Uzbek not as foreign bodies but as material for native word-formation processes.[5; 45-50 p.]

Traditional dictionary architecture proves inadequate for these phenomena. The present study proposes expanded entry structures including multiple graphetic variants, productive derivative patterns, register marking (internet slang, Gen Z), collocational frames, and etymological pathway specification. Electronic formats with audio pronunciation and video examples become essential given graphetic instability.

The findings extend translanguaging theory [6; 27-30] to Turkic language contexts. Uzbek-English digital mixing is not code-switching but integrated linguistic practice where English resources undergo full morphological naturalization.

Conclusion

Uzbek internet discourse demonstrates systematic morphological integration of English loanwords through productive affixation, hybrid composition, and phonetic adaptation. Three mechanisms predominate: nominal derivation with *-chi*, verbalization through *-moq*, and adjectival formation with *-li*. Graphetic variability and Russian-mediated pathways create complex stratification requiring innovative lexicographic approaches.

The research confirms that digital-age borrowing is rule-governed and grammatically integrated, not haphazard contamination. Future research should examine syntactic integration and longitudinal semantic shift in these formations.

References:

1. Statista Research Department "Digital Market Outlook: Internet Penetration in Uzbekistan", Hamburg, 2025, 24 p.
2. Sh. Rahmatullayev "O'zbek tilining leksikologiyasi", Fan, Toshkent, 1980, b. 129-135
3. A.S. Serobov, M. Xayrullayev "O'zbek adabiy tilining tarixi", Fan, Toshkent, 1975, b. 48-54
4. А.Н. Тихонов «Словообразовательный словарь русского языка», Русский язык, Москва, 1985, 542 с.
5. Л.П. Крысин «Иноязычное слово в контексте», Наука, Москва, 2003, с. 45-50
6. O. Garcia, Wei Li "Translanguaging: Language Bilingualism and Education", Palgrave Macmillan, London, 2014, 176 p.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 37.091.3:004.9:811.111

MALAKALI FUTBOLCHI AYOLLARNI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Namazov Zafar Abduraximovich,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Sport turlarini o‘qitish metodikasi” kafedrasi v.b dotsent

WAYS TO USE MODERN TECHNOLOGIES IN TRAINING QUALIFIED FEMALE FOOTBALL PLAYERS

Namazov Zafar Abdurakhimovich,
Jizzakh State Pedagogical University Teacher of the Acting Associate Professor of the Department of Sports Teaching Methodology

СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ФУТБОЛИСТОК

Намазов Зафар Абдурахимович,
преподаватель Джизакского государственного педагогического университета исполняющий обязанности доцента кафедры методики преподавания видов спорта

https://orcid.org/0000-0003-079-736
e-mail: zafar291179@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola yurtimizda ayollar futbolini rivojlantirish yo‘llari, soxada faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning fikr-mulohazalari talqin qilingan. Soxani rivojlantirishning eng samarali yo‘llarini amalda tadbiq etishga qaratilgan. Malakali futbolchi ayollarni texnik tayyorgarligiga zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo‘llari mavzusi keng yoritilgan. Jismoniy tarbiya va sport taraqqiyotining tarixiy xususiyatlari ma’ruza darslarida zamonaviy yondashuvlar asosida mashg‘ulotlar samarodorligini oshirish usullari va nazorat savollari ishlab chiqilgan. Xulosa qismida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘rgatishda pedagogik texnologiyani qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *malakali, futbolchi ayollar, texnik tayyorgarlik, zamonaviy texnologiya, jismoniy tarbiya, sport, ma’ruza, dars.*

Abstract. *This article interprets the ways of developing women's football in our country, the opinions of experts working in the field. It is aimed at the practical implementation of the most effective ways to develop the field. The topic of ways to use modern technologies for the technical training of skilled female football players is widely covered. Historical characteristics of physical education and sports development, methods of increasing training efficiency and control questions were developed based on modern approaches. In the conclusion, recommendations are given on the use of pedagogical technology in teaching lessons.*

Key words: *qualified, female football players, technical training, modern technology, physical education, sports, lecture, lesson*

Аннотация. *В данной статье интерпретируются пути развития женского футбола в нашей стране, мнения экспертов, работающих в этой сфере. Оно направлено на практическую реализацию наиболее эффективных способов развития месторождения. Широко освещена тема путей использования современных технологий для технической подготовки квалифицированных футболисток. На основе современных подходов разработаны исторические характеристики*

развития физического воспитания и спорта, методы повышения эффективности тренировок и вопросы контроля. В заключении даются рекомендации по использованию педагогических технологий на уроках.

Ключевые слова: *квалифицированные, футболистки, техническая подготовка, современные технологии, физическое воспитание, спорт, лекция, урок.*

KIRISH. Zamonaviy ta’lim tizimining asosini yuqori sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, ammo bunday muhit ta’lim tizimini takomillashtirishga, ta’limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat ta’lim axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida” 2005-yil 28-sentabrdagi PK-191-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2008-yil 20-iyundagi 22-son majlis bayoniga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, u ta’lim muassasalarining o‘quv rejasida o‘qitilayotgan fanlarning axborot texnologiyalari orqali o‘rgatishning zamonaviy usullaridan keng foydalanish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Yoshlarni tarbiyalash va ularga zamonaviy bilimlar berishning sifatini oshirish hamda jamiyatimiz uchun barkamol shaxsni shakllantirish ta’lim tizimining eng asosiy maqsadlardan hisoblanadi. Uzluksiz ta’lim jarayonida olib borilayotgan barcha harakatlar shu maqsadni amalga oshirishda muhimdir. Yangilangan ta’limda o‘quvchining yuragidagi cho‘g‘ni alanga oldirish, uni har tomonlama rivojlantirib, bilimdan-bilimga etaklab olib chiqish uchun zamonaviy darslar zarurdir.

Zamonaviy dars shunday darski, unda o‘qituvchi o‘quvchining mavjud imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanib, uning aqliy potensialini ishga solib, rivojlanishini ta’minlaydi. O‘quvchi esa o‘z navbatida bilimlarni chuqur o‘zlashtiradi va ma’naviy barkamollik sari odimlaydi. [3,5]

Jismoniy tarbiya darslarida yuqori samaraga erishish, faqat darsni to‘g‘ri tashkil qilish va zamonaviy axborot vositalarini samarali turlarni keng qo‘llash evaziga amalga oshirilishi mumkin.

Demak bugungi kunda jismoniy madaniyat darslarini zamonaviy talablardan kelib chiqib yangi pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etishning samarali usullarini qo‘llash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur mavzu yuzasidan ishlashdan maqsad va vazifalari, “futbolchi ayollarning jismoniy texnik va taktik tayyorgarligi” moduli bo‘yicha talabalarining chuqur va zamonaviy bilimga ega bo‘lishini ta’minlash, zamonaviy yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali usullarini o‘rganish hamda ilmiy asoslashdan iborat maqsadga erishish yo‘lida quyidagilarni vazifa qilib oldik:

- ilmiy-uslubiy, axborot va internet manbalarini o‘rganish va tahlil qilish. - zamonaviy o‘qitish va ilg‘or xorijiy tajribalarni, hamda axborot texnologiyalarini o‘rgatish jarayoniga tatbiq etish usullarini yoritish.

“Malakali futbolchi ayollarni texnik tayyorgarligiga zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo‘llari” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlarda talabalarning nazariy va amaliy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga, ularning mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishga va zamonaviy axborot texnologiyalari orqali modul materiallarini o‘zlashtirish darajasini oshirish ishning amaliy ahamiyati hisoblanadi [3,10]

Ushbu vazifalarni amalda bajarish har bir ta’lim muassasasining bevosita burchi hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli ravishda tadbiq etish har bir fan o‘qituvchisining maxsus bilim va ko‘nikmalarga hamda pedagogik amaliyotda zarur bo‘ladigan metodik tayyorgarlikka ega bo‘lishini taqozo etadi.

NATIJALAR. Ilmiy tadqiqotlar va kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, agar jismoniy mashqlar sportning alohida turiga taalluqli bo‘lsa va bu mashqlar ketma-ket takrorlanib turilsa, bu holat bolalarning bir tomonlama o‘sishi, rivojlanishiga olib keladi. Masalan, muntazam tosh ko‘tarish yoki shtanga bilan shug‘ullanish bola gavdasi va bo‘yini o‘stirmay qo‘yishi mumkin. Sport turlarining murakkab texnik bazasi mavjud bo‘lganda ham, xususan, sport o‘yinlari, gimnastika, yakka kurashlar- bular bola organizmiga, ularning garmonik o‘sib ulg‘ayishiga ijobiy ta'sir

ko‘rsatmaydi. Bola organizmi jismoniy mashqlarning bir necha turlar yoki majmua (turkum) mashqlar yordamidagina har tomonlama rivojlanishi mumkin. [4,10]

MUHOKAMA. Texnik tayyorgarlik futbolchi ayollarni harakatlar texnikasiga o‘rgatish va ularni mukammal darajaga yetkazishga qaratilgan bo‘ladi. Sport texnikasi sport harakatini bajarish yo‘li bo‘lib, u futbolchi ayollarning o‘z psixo-fizik imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligining muayyan darajasi bilan ajralib turadi.

Har xil sport turlarida sport texnikasining ahamiyati bir xil emas. O‘ziga xos sport texnikasiga ega bo‘lgan sport turlarining to‘rt guruhi ajratiladi:

1. Tezlik-kuchga asoslangan turlar (sprintercha yugurish, uloqtirishlar, sakrashlar, og‘ir atletika va h.k.). Mazkur sport turlarida texnika shunday yo‘naltirilganki, bunda sprinterchi musobaqalashuv mashqining yetakchi bosqichlarida, masalan, yugurish, uzunlikka va balandlikka sakrashda itarilish chog‘ida, nayza, disk va h.k. uloqtirishda yakunlovchi harakatlarni bajarayotganda eng baquvvat hamda tezkor kuchlanishlarni rivojlantira olishi lozim.

2. Chidamlilik namoyish etilishini talab qiluvchi sport turlari (uzoq masofalarga yugurish, chang‘ida poyga, velosiped sporti va b.).

3. Asosini harakatlanish san'ati tashkil etuvchi sport turlari (gimnastika, akrobatika, suvga sakrash va h.k.). Texnika sportchi harakatlarining go‘zalligi, ifodaliligi va aniqligini ta'minlab berishi kerak.

4. Sport o‘yinlari va yakkakurash turlari. Texnika musobaqa kurashining doimo o‘zgarib turadigan sharoitlarida sportchiga yuksak samaradorlik, barqarorlik va harakatlarining servariantligini ta'minlab berishi zarur.

Futbolchi ayollarning texnik tayyorgarligi shunisi bilan ajralib turadiki, u o‘zlashtirilgan harakatlarni bajara oladi va ularning texnikasini egallab olgan. Texnik tayyorgarlikning yetarlicha yuqori darajasini texnik mahorat deb ataydilar. Texnik mahoratning mazkur ko‘rsatkichlari texnik harakatlarning juda katta zahirasi bo‘lgan sport turlarida – sport o‘yinlari, yakkakurash turlari, gimnastika, figurali uchish – ayniqsa katta ahamiyatga ega. Sport texnikasiga egalik qilish samaradorligi sport harakati texnikasining individual optimal variantga yaqinligi darajasi bilan belgilanadi. Texnikaning samaradorligini bir necha usul bilan baholaydilar: a) uni qandaydir biomexanik etalon bilan qiyoslash. [5,5]

XULOSA. Malakali futbolchi ayollarni texnik tayyorgarligiga zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo‘llari mavzusini o‘qitishning nazariy asoslari ustuvor yo‘nalishlari, ta’limni rivojlantiruvchi turlari, sport turlari va o‘quv-pedagogik va ilmiy dunyo qarashni rivojlanishiga oid ma’lumotlar, tahlil natijalari, shu soha vakillarining ilmiy izlanish natijalari va xulosalarini chuqur o‘rgangan holda shakllantirdik. Har bir dars uchun maqsadlar aniq belgilanib olinishi shart; har bir dars zamonaviy pedagogik texnologiya asosida o‘tilishi lozim; har bir dars uchun alohida to‘rt xil murakkablik darajasidagi nazorat topshiriqlari tuzilishi kerak; darsni talabalar bilimidan kelib chiqqan holda tashkil etish lozim;

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, darslarda o‘qitishning zamonaviy shakl va metodlarini qo‘llash talabalarning ongli, tez, teran fikrlashlarida katta rol o‘ynaydi. Shuningdek o‘qituvchilar pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirib, o‘z faoliyatlarida amaliyotda unumli qo‘llay olsalar ta’limni, sifat va samaradorligiga erishish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni kafolatlash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida» gi Qonunni Toshkent 2015-yili 4-sentyabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3031 sonli qarori «O‘zbekiston ovozi» gazetasi, Toshkent. 2017-yil 4-iyun.

3. Yarashev K. D. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Ibn Sino nashriyoti, 2002. 120 b.

4. Юнусова Ю. М. Теория и методика физической культуры. Учебное пособие. Ташкент.: UzGos IFK. 2007. 312-с.

5. Mahkamdjanov K.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi Toshkent ,darslik “Iqtisod -moliya”. 2008-yil. 300 b.

6. Goncharova O.V.Yosh sportchilarning jismoniy qobilyatlarini rivojlantirish. o‘quv qo‘llanma. Toshkent, O‘z DJTI, 2005-y. 171 b.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 821.23

FRAZEOLOGIZM QURAMÍNDA SAKRAMENTAL SANLARDÍŃ MIFOLOGIYALÍQ MÁNILERI

Atabaeva Gózzal Bazarbaevna,
Berdaq atındağı QMU,
"Ámeliy filologiya" kafedrası erkin izleniwshisi

MYTHOLOGICAL MEANINGS OF SACRUMENTAL NUMBERS IN PHRASEOLOGY

Atabaeva Gozzal Bazarbaevna,
Berdaq Karakalpak State University
Independent researcher of the Department Applied Philology

МИФОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ САКРАМЕНТАЛЬНЫХ ЧИСЕЛ В ФРАЗЕОЛОГИЗМЕ

Атабаева Гоззал Базарбаевна,
КГУ имени Бердаха,
независимый соискатель кафедры прикладной филологии

e-mail: Atabaeva Gozzal@gmail.com

Annotaciya: *Bul maqalada sakramental sanlar, sanlardıń frazeologizm quramında qolllanılıwı haqqında sóz etiledi. Qaraqalpaq tilinde úsh, jeti, toǵız, qırq sanları kiyeli sanlar, sakramental sanlar sıpatında belgili. Bul sanlarda áyyemnen kiyatırǵan diniy, mifologiyalıq isenimler hám sanlardıń dáslepki waqıtları sanawdıń shegi bolǵanlıǵına baylanıslı qollanılıw ózgeshelikleri bar. Úsh, jeti, toǵız, qırq sanları menen kelgen frazeologizmlerde kóbinese qaraqalpaq xalqına tán milliy úrp-ádet, dástúrler, isenimler, mifologiyalıq túsinikler ózinde jámlengen.*
Gilt sózler: *san, frazeologizm, sacramental, mif, úsh, jeti, toǵız, qırq.*
Abstrakt: *This article discusses sacramental numbers and the use of numbers within phraseological units. In the Karakalpak language, the numbers three, seven, nine, and forty are known as sacred numbers, sacramental numbers. These numbers have usage characteristics related to ancient religious and mythological beliefs, as well as the fact that numbers initially had counting limits. Phraseologisms with the numbers three, seven, nine, and forty often embody the national customs, traditions, beliefs, and mythological concepts characteristic of the Karakalpak people.*
Key words: *number, phraseologism, sacramental, myth, three, seven, nine, forty.*
Аннотация: *В данной статье рассматриваются сакраментальные числительные и их использование в составе фразеологизмов. В каракалпакском языке числа три, семь, девять и сорок известны как священные и сакраментальные числа. Эти числа обладают уникальными особенностями использования, связанными с древними религиозными и мифологическими верованиями, а также с тем, что первоначально у чисел был предел счёта. Фразеологизмы с числами три, семь, девять и сорок часто воплощают национальные обычаи, традиции, верования и мифологические представления, характерные для каракалпакского народа.*
Ключевые слова: *число, фразеологизм, сакраментальный, миф, три, семь, девять, сорок.*

KIRISIW

Til hám mádeniyat arasındağı tıǵız baylanıslılıq máselesi zamanagóy til biliminiń áhmiyetli izertlew baǵdarlarınan biri bolıp esaplanadı. Frazeologizmler xalıqtıń mifologiyalıq túsiniklerin, diniy isenimlerin hám mádeniy qádiriyatların jámlestirgen tillik qubılıs sıpatında tán alınadı. «Sakramental» túsinigi latınsha sacramentum – «muqaddeslik», «sır» mánislerine barıp taqaladı. Til bilimi hám mádeniyat tanıwda

sakramental sanlar degende, diniy-mifologiyalıq dúnya qarasta ayrıqsha simvollıq áhmiyetke iye bolgan sanlar túsiniledi. Bunday sanlar kóplegen xalıqlardıń mifologiyasında álemniń jaratılıwı, keńislik hám waqıttıń dúzilisi, ilahiy kúshler menen baylanıslı túrde talqılanadı. Bazı bir sanlıq sózler óz mánisinen basqa ayrıqsha mánige iye bolıp, belgili bir túsiniklerge, dástúrlerge, ırım hám qádelerge baylanıslı qollanıladı. Bul jaǵday ilimde sanlardıń sakramentallıǵı dep ataladı. «Úsh», «jeti», «toǵız», «qırq» sıyaqlı sakral máni beriwshi sanlar frazeologizm quramında jiyi qollanıladı. S.K.Keńesbaev, V.Chernishev, K.Yund, M.Pendjiev, A.Ya.Rojanskiy, A.Garriev sıyaqlı tilshi ilimpazlardıń jumıslarında usı sanlardıń sakramental mánisleri boyınsha izertlewlerdi ushıratamız.

ÁDEBIYATLAR ANALIZI HÁM METODOLOGIYA

Túrkiy tillerdi izertlewshi ilimpazlar tárepinen ayırım sanlardıń sakramental qásiyetleri bir qansha dárejede izertlengen. F.I.Stralenberg 3, 7, 9 sanlarınıń hár túrli xalıqlarda ayırım dástúrlerge hám diniy túsiniklerge baylanıslı qollanılatuǵınlıǵın kórsetken. S.Keńesbaev qazaq tilindegi 3, 7, 9, 40 sanları menen baylanıslı hár qıylı túsinikler haqqında jazadı [1.5]. L.N.Xaritonov yakut tilindegi 3, 9 sanlarınıń jaqsılıq mánisinde, al 8 sanınıń jaman túsiniklerge baylanıslı qollanılatuǵınlıǵın aytadı [2.146]. Sh.Qudiyarova qaraqalpaq hám qazaq tilindegi frazeologizmlerdi salıstıra otırıp sanlıqlar menen kelgen frazeologizmlerdiń qollanılıw ózgesheliklerin hám sakramental mánige iye sanlıqlar haqqında analiz jasaǵan [3.23] . Bul sanlar diniy máresimler, isenimler, úrp-ádetler, ertekler, oyın atamaları, naqıl-maqallar, gáp-sózlerde, sonday-aq, basqa da kóplegen xalıqlardıń tillerinde dástúriy esaplanadı. Máselen: Úsh – *úsh álem (aspan, jer, jer astı), úshlik principi;* Jeti – *jeti aspan, jeti ıqlım, jeti muqaddes kúsh;* Toǵız – *jetiklik hám juwmaqlanganlıq belgisi;* Qırq – *sınaw, pákleniw hám ótiw dáwiri tımsalı.* Bul sanlar mifologiyalıq oylawda tártip hám muqaddeslik belgisi sıpatında qaralıp, keyin ala frazeologizmlerde bekkemlengen.

NÁTIYJELER

Adamlar áyyem zamanlardan-aq sanlardıń kiyeliligi, yaǵnıy sıyqırlı kúshi bar ekenligine isengen. Adamzat balası qálese de, qálemese de, hárbirinde belgili bir sanǵa mehir bar, sonday-aq, qanday da bir sannan qorqadı. Áyyemgi grek xalqınıń túsiniginde sanlar jaqsılıq hám jamanlıqtı, baxıt hám qayǵı alıp keledi. Máselen, 0 sanı. Bul – absolyut sheksizlik belgisi. Demek, nol – ele payda bolmaǵan dúnyanı ańlatıwshı san. Demek, nol barlıq zatlar hám hádiyselerdiń baslaması, yaǵnıy ol tús yaki ólim dep tastıyıqlanǵan. Sol sebepli noldiń grafigi de saqıyna tárizli yamasa sheńber kórinisinde súwretlenedi. **«Bir»** sanı – birinshilik. Onısız sanlı izbe-izlik baslanbaydı. Onısız hesh qanday dúnya baslanbaydı. «**Eki»** sanı - jumsaqlıq, ótkir múyeshti tegislewshi taktikalıq qásiyetke iye. Ekilik miyrim-shápáát hám jawızlıq, jıllı hám suwıq, jaqtılıq hám qarańǵılıq, baylıq hám kámbaǵallıq ortasında jasaydı.

Áyyemgi mifologiyada eki sanı jin-shaytanlar sanı dep tán alınǵan. Rus xalqı eki birdey janıp turǵan shamdı kórse, baxıtsızlıqqa joryǵan. Sonday-aq, bir shelekten birge suw ishiw, ekewi birdey etip pol sıpırıw, súlginiń eki tárepi menen birge súrtiw qadaǵan etilgen. Diniy mifologiyalıq túsinikten kelip shıqqan ekiliktiń tildegi kórinisin bılayınsha kórsetiw múmkin: *Eki dúnyanıń baxıtın nesip etsin*! Eki dúnya degeni bul dúnya – ómir, ol dúnya – ólim.

«Úsh» sanı pútinlik hám tolıq jetilisiw belgisi esaplanǵan. Áyyemgi greklerdiń dúnya qarasında úsh eń baxıtlı san dep tán alınǵan. Áyyemgi Vavilonda bolsa úsh quday – Quyash, Ay, Sholpanǵa sıyınǵan. Sonday-aq, úshlik túsinigi «ótken, házirgi, keleshek» úshmúyeshliginiń ajıralmas pútinligin de simvollaydı.

Sakramental san qatnasıwındaǵı frazeologizmlerde mifologiyalıq túsinikler lingvistikalıq obraz arqalı ańlatıladı. **Úsh uyıqlaǵanda túsine enbew –** *oylamaǵan, kórmegen*. Tús adamnıń uyıqlaw waqtındaǵı halatı hám bul xalıq tili hám ádebiyatında da obrazlılıq sıpatqa iye bolıp keledi. – *Úsh uyıqlaǵanda bunday xabar túsine enbep edi* onıń! (M.Nızanov). **Úsh qaynaǵanda sorpası qosılmaw** – *birikpew, awızbirshiligi joq.* Áyyemgi dáwirlerde úsh sanı sanawdıń shegi, eń joqarı san sıpatında qollanılıwı tilde de óz sáwleleniwin tawıp frazalar dórelgen.

«Jeti» haqıyqatında da, ayrıqsha san. «Jeti» sanınıń sanawdıń shegi bolǵanlıǵı onıń diniy mistikalıq hám fantastikalıq túsiniklerge baylanıslı bolǵanlıǵı S.Keńesbaevtıń maqalasında da keńnen dáliyllengen [4.3,5]. Házirgi qaraqalpaq tilinde de «jeti» sanınıń usınday mánisine baylanıslı

frazeologizmler ushırasadı. Mısalı: – *Jeti qat aspannıń* arjağında jasaydı. (J.Muratbaev). Bul mısaldağı *jeti qat* sóz dizbegi tilimizde jeti qabat kók (aspan) yamasa ertede adamlardıń jerdi, aspandı kóp qatlamnan turadı dep túsinetuǵınınan kelip shıqqan. Jeti sanı úsh hám tórt sanlarınıń qosındısınan, álemniń tiykarǵı gorizontallıq hám vertikallıq koordinatalarınıń qosındısınan turadı hám waqıttı óz ishine alatuǵın kosmoslıq pútinlikti ózinde jámleydi dep túsindiriledi. Áyyemgi Rim xalqı jeti danıshpanǵa húrmet kórsetken. Jeti kúnlik háptе, astralogiyada jeti planeta hám diniy túsiniklerde jeti quday túsinikleri qáliplesken. Bul máni «*jeti qabat jer astında*» frazeologizminde óz kórinisin tapqan.

«Jeti» sanı xalıqtıń miflik, diniy, turmıslıq isenimi, oy-sanası menen baylanıslı hártúrli mánige iye bolǵan. Qaraqalpaq tilinde ushırasatuǵın *jeti baslı jalmawız, jeti dáw, jeti baslı aydarha, jeti qat aspan, jeti qaraqshı juldız, jeti ıqlımǵa dańq taratqan* túsinikleri mifologiyalıq hám astrologiyalıq túsiniklerden derek beredi. **Jeti qat kók** – Ay, kún, sholpan, merkuriy, mars, saturn, yupiter. «*Jeti qat aspan*», «*jeti qat kók*» frazeologizmleri astrologiyalıq túsiniklerden kelip shıqqan. **Jeti jurt –** *pútkil álem, dúnya júzi.* – Kórinedi qıyırı joq ala shań, Qızıńnıń laqabı *jeti jurtqa* xan, Eki jıldan sawash maydanı qızıp, Ústińiz boladı úlken topalań («Qırq qız» dástanı).

«Toǵız» sanınıń sıyqırlı kúshke iye ekenligi haqqındağı túsinik áyyemgi dáwirlerden kiyatırǵan maǵlıwmat bolıp esaplanadı. Sol dáwir ishinde toǵız geyde miyrim-shápáát belgisi, geyde qayǵı-ǵam belgisi sıpatında qabıl etilgen. Áyyemgi rimliler toǵız sanın miyrim-shápáát dańqın bildiriwshi shártli belgi sıpatında paydalanǵan. «Toǵız», «toqsan sanı» qaraqalpaq folklorında eń kiyeli san. *«Toǵız tońqıldaq, bir shińkildek», «toqsan oydıń torabı», «toǵız degende ne jaman, tóresin buzǵan biy jaman»* hám t.b [5.133]. **Toǵız qatınnıń tolǵağı birden keliw –** *hártúrli mashqalanıń bir waqıtta payda bolıwı*, **toqsan toǵız –** *jilli, deni saw emes*. Toǵız sanı frazeologizmlerde toqsan sanı menen qollanıladı. **Toqsan toǵız oydı oylaw**-*oylanıw, kóp oylanıw*. – Sol gezlerde tereń jerdegi awdı qaraǵanda hayran qalǵanday oyda joq jerden sala qulash bir bekire qayıqqa mingende Ayqız-bul qalay adasıp qalǵan bekire, dep qıyalı *toqsan toǵız oydı oylap*, dúnyanıń tórt burıshın sharladı.(A.Begimov).

«Qırq» sanınıń xalıq erteklerinde, dástanlarda hám naqıl-maqallarda sakramentallıq mánige iye bolıwı ertedegi sanawdıń eń úlken sanı bolıp, keyinirek kúsheytkish mánide belgili bir shekti yaki joqarı muǵdardı ańlatqan. Qaraqalpaq folklorında *«qırq kúnlik jol», «qırq kúnlik azıq», «qırq jıllıq ádawat»* túsinikleri keńnen orın alǵan. **Qırq shilten**. Bul miflik sana-sezimde qáliplesken kózge kórinbeytuǵın, qıyın-qıstawda tilge alınsa, batırdı qollap-quwatlaytuǵın pir hám áwliye. Qırq shilten ańızlarda Ǵayıp ayrıqsha qırq shilten dep te ataladı. Dáslep Qırq shilten kózden ǵayıp (kózge kórinbeytuǵın), tek erjúrek qırq er túsiniginde qollanılıp, batırlardıń sıyınatuǵın piri bolǵan. Parsı tilinde shil sózi «qırq» degen mánisti bildiredi. Eposlarda batırlar sawashqa kirmesten burın, jekpe-jekke shıqpastan burın Qırq shiltendi aytıp sıyınıp sawashqa kirisetuǵın bolǵan. Diniy túsiniklerde *qırq parızın biliw, qırq shilter ǵayıp erenler túsinikleri qáliplesken*. Mısalı: – Jortqanda jolıń bolsın, Joldasıń Qızır bolsın, *Qırq shilten ǵayıp erenler*, Jılawında júrsin. («Er shora» dástanı). Bundağı *Qırq shilten* kózden ǵayıp (kózge kórinbeytuǵın) erjúrek qırq er adam degen túsinikte jumsalıp, batırlardıń sıyınatuǵın piri bolǵan. Bunday frazeologizmlerde sanlar real shamanı emes, al xalıq sanasında qáliplesken mifologiyalıq stereotiplerdi bildiredi. Nátiyjede frazeologiyalıq birlik semantikalıq jaqtan kúsheyedi, obrazlılıq hám emocionallıq-ekspressivlik payda etedi. Waqıt ótiwi menen sakramental sanlardıń mifologiyalıq mánisleri tolıq saqlanıp qalmaǵan, yaǵnıy, diniy-mifologiyalıq mazmun kúndelikli sóylewde ulıwma obrazlı mániske aylanǵan. Soǵan qaramastan, olardıń ishki semantikalıq yadrosında áyyemgi mifologiyalıq qatlam saqlanıp qaladı. Máselen, házirgi sóylewde *«qırq kúnnen astı»,* frazası kóbinese ápiwayı waqıt kórsetkishi sıpatında qollanılsa da, onıń túbirinde pákleniw hám ótiw dáwiri haqqındağı mifologiyalıq túsinik bar. Bir qatar sanlardıń konceptual dúzilisindegi mifologiyalıq biliw milliy mádeniy ózlikti, milliy tildiń lingvomádeniy keńisligin ashıp beredi.

JUWMAQ

Juwmaqlap aytqanda, úsh, jeti, toǵız, qırq sanları qatnasındağı frazeologizmlerde mifologiyalıq, diniy isenimler hám xalqımızdıń úrp-ádet dástúrleriniń negizinde dórelgenligin bayqaymız. Hárbir frazeologizmde sanlar san

mánisin emes, al, sanawdıń shegi, isenimniń tımsalı ekenligi belgili. Frazeologizm quramında sakramental sanlardıń qollanılıwı tosınnan bolǵan hádiyse emes. Olar xalıqtıń mifologiyalıq oy-pikiri, diniy isenimleri hám mádeniy qádiriyatlarınıń til arqalı sáwleleniwi bolıp tabıladı. Bul qubılıstı tereń izertlew frazeologiyanıń tek ǵana lingvistikalıq emes, al mádeniyattanıwshılıq hám kognitivlik táreplerin ashıp beriwge xızmet etedi.

PAYDALANÍLǴAN ÁDEBIYATLAR:

1. Кеңесбаев С. Жети, үш, тоғыз, қырқ пен байланысты уғымдар. Қазақ ССР Ғалым Академиясының хабарлары филологиялық серия. 1996, №4. –Б. 5.
2. Современный якутский язык. Фонетика и морфология. Якутск, 1947. –146 с.
3. Қудиярова.Ш. Түркий тиллердеги санлық фразеологизмлердиң мәнилери ҳәм қолланылыўы. Түркий филологиясының актуаль мәселелери. Әжинияз атындағы НМПИ киши баспаханасы. 2008. – Б. 23.
4. Кеңесбаев С. Жети, үш, тоғыз, қырқ пен байланысты уғымдар. Қазақ ССР Ғалым Академиясының хабарлары филологиялық серия. 1996, №4. –Б. 5.
5. С.Бахадырова. Қарақалпақ қандай халық. Ташкент. «Навруз». 2017. –Б. 133.
6. Ж.Ешбаев. Қарақалпақ тилиниң қысқаша фразеологиялық сөзлиги. Нөкис. 1985.
7. G.Aynazarova., G.Atabaeva. Qaraqalpaq tilinde sanlıqlar menen kelgen frazeologizmler sózligi. Nókis. «ILIMPAZ». 2023-j.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 37.091.3:004.9:811.111

TALABA-YOSHLARDA KORRUPSIYAGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYALARI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA

Elmuradova Surayyo Abdijalilovna,
SamDCHTI assistant o‘qituvchisi

elmurodovasurayyo6@gmail.com

PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR FORMING ANTI-CORRUPTION IMMUNITY IN STUDENT YOUTH: NATIONAL AND INTERNATIONAL EXPERIENCE

Elmuradova Surayyo Abdijalilovna,
Teaching assistant at SamDCTI

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ ФОРМИРОВАНИЯ АНТИКОРРУПЦИОННОГО ИММУНИТЕТА У СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ: НАЦИОНАЛЬНЫЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

Элмурадова Сурайё Абдижалиловна,
Ассистент преподавателя СамДЧТИ

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida talaba-yoshlarning antikorrupsion dunyoqarashini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda O‘zbekistonning zamonaviy davlat siyosati va xalqaro standartlar (BMT, IHT) o‘rtasidagi bog‘liqlik pedagogik strategiyalar prizmasi orqali ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Korrupsiyaga qarshi immunitet, akademik halollik, pedagogik strategiya, "halollik vaksinasi", komplayens-nazorat, BMT konvensiyasi.*

Abstract: *This article analyzes the issues of forming an anti-corruption worldview among student youth within the higher education system. The research examines the connection between Uzbekistan's modern state policy and international standards (UN, OECD) through the prism of pedagogical strategies.*

Key words: *Anti-corruption immunity, academic integrity, pedagogical strategy, "vaccine of honesty", compliance control, UN Convention.*

Аннотация: *В данной статье анализируются вопросы формирования антикоррупционного мировоззрения студенческой молодежи в системе высшего образования. В исследовании через призму педагогических стратегий рассматривается взаимосвязь между современной государственной политикой Узбекистана и международными стандартами (ООН, ОЭСР).*

Ключевые слова: *антикоррупционный иммунитет, академическая честность, педагогическая стратегия, «вакцина честности», комплаенс-контроль, конвенция ООН.*

Kirish. Globalizatsiya jarayonida korrupsiya transmilliy xavfga aylandi va jamiyatning barcha qatlamlariga, xususan, ta’lim tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi Qonuni ushbu illatga qarshi kurashning huquqiy poydevorini yaratdi [1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida"gi PF-5729-sonli Farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi [2]. Davlat siyosati yoshlar ongida ushbu illatga nisbatan murosasizlikni shakllantirishni ustuvor vazifa etib belgilagan.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish faqat jazolash choralari bilan emas, balki jamiyatda, ayniqsa, yoshlar ongida ushbu illatga nisbatan murosasizlik va "halollik vaksinasi"ni shakllantirish orqali amalga oshirilmoqda. Muammoning dolzarbligi shundaki, oliy ta’lim muassasasi faqat bilim berish maskani emas, balki shaxsning axloqiy va huquqiy dunyoqarashi shakllanadigan muhim bo‘g‘indir. Ta’lim madaniyati ijtimoiy fenomen sifatida talabaning kelajakdagi xulq-atvorini belgilab beradi [5, 8]. Agar ta’lim jarayonida talabada barqaror "antikorrupsion immunitet" shakllanmasa, kelajakdagi professional faoliyatida u turli korrupsion xavf-xatarlarga duch kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot talaba-yoshlarda korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirishning samarali pedagogik strategiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro miqyosda korrupsiyaga qarshi ta’lim masalalari BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida faol o‘rganilmoqda. Ta’limning ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlardagi roli korrupsiyaga qarshi kurashda ham asosiy omil hisoblanadi [3, 6]. Madaniyatning ta’limga ta’siri talabalarda halollik qadriyatlarini shakllantirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [4, 7]. Xalqaro miqyosda korrupsiyaga qarshi ta’lim (Anti-corruption education) masalalari BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (UNODC) hamda uning GRACE (Global Resource for Anti-Corruption Education) tashabbusi doirasida faol o‘rganilmoqda. S. Poisson, M. Hallak kabi xorijiy tadqiqotchilar "akademik halollik" (academic integrity) tushunchasini ta’limdagi korrupsiyaning oldini olishning asosiy mexanizmi sifatida ko‘rib chiqishgan. O‘zbekistonlik olimlar Sh.Qurbonov, J.Ismoilova va boshqalar o‘z ishlarida milliy qadriyatlar va huquqiy ongni shakllantirish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishning pedagogik jihatlarini yoritgan. Biroq, mavjud tadqiqotlarda chet tillari o‘qitiladigan OTMlarning o‘ziga xos xususiyatlarini (madaniyatlararo muloqot, xorijiy tajribani o‘rganish) hisobga olgan holda antikorrupsion ta’lim metodologiyasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy metod va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Xususan, BMT Bosh Assambleyasining 2021-yil 2-iyundagi A/RES/S-32/1 sonli siyosiy deklaratsiyasidagi ta’limiy tamoyillar O‘zbekiston oliy ta’lim tizimidagi pedagogik jarayonlar bilan qiyoslandi. Metodologik asos sifatida talabalarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda "shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim" tamoyili olindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, talaba-yoshlarda korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirishda xalqaro hujjatlarga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi. BMT Bosh Assambleyasining 2021-yil 2-iyundagi A/RES/S-32/1 sonli siyosiy deklaratsiyasi ushbu mavzuning fundamental asosi hisoblanadi. Deklaratsiyaning 59-bandida shunday deyiladi: *"Biz yoshlarning korrupsiyaga qarshi kurashdagi muhim rolini tan olamiz va ularni axloqiy tamoyillar hamda halollik madaniyati asosida tarbiyalash uchun ta’lim dasturlarini qo'llab-quvvatlaymiz"*.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talaba-yoshlarda korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish uchta asosiy bosqichda amalga oshirilishi lozim:

1. Ma’rifiy bosqich: Bu bosqichda talabalarga korrupsiyaning jamiyat uchun zarari, uning huquqiy oqibatlari va xalqaro miqyosdagi oqibatlari haqida fundamental bilimlar beriladi. BMTning A/RES/S-32/1 rezolyutsiyasining 59-bandida ta’kidlanganidek, yoshlarni axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalash ta’lim dasturlarining o‘zagini tashkil etishi shart.
2. Psixologik-motivatsion bosqich: Talabalarda korrupsiyani shaxsiy qadriyatlar darajasida rad etish hissi shakllantiriladi. Bunda "Case-study" (vaziyatli tahlil) metodidan foydalanish samarali bo‘lib, talabalar real hayotiy misollar orqali korrupsion holatlarning ma’naviy-axloqiy inqirozini tahlil qiladilar.
3. Faoliyatli bosqich: Akademik halollik madaniyatini amaliyotga tatbiq etish. Bu jarayonda ta’limni raqamlashtirish, baholash tizimining shaffofligi va talabalar

o‘z-o‘zini boshqarish organlarining antikorrupsion tadbirlardagi ishtiroki muhim rol o‘ynaydi [5].

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, antikorrupsion ta’lim faqat huquqshunoslik fanlari doirasida cheklanib qolmasligi kerak. Ayniqsa, chet tillari institutida, talabalar xorijiy hamkasblari bilan muloqotda bo‘lishar ekan, ular xalqaro axloqiy me’yorlarni chuqurroq anglashlari zarur.

"Halollik vaksinasi" strategiyasi talabaga nafaqat darsliklarda, balki universitetning ichki muhitida ham o'rnak bo'lishni taqozo etadi. Ta’lim madaniyatini shakllantirish orqali korrupsiyaga nisbatan nafrat uyg‘otish mumkin, bu esa ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarning ajralmas qismidir [3, 4]. SamDCHTI da "Korrupsiyasiz soha" loyihasi doirasida imtihon jarayonlarining shaffofligi ta’minlanishi, HEMIS tizimining joriy etilishi subyektiv omillarni kamaytirishga xizmat qiladi. Bu esa pedagogik strategiyaning amaliyotdagi mustahkamlanishidir.

Taklif etilayotgan pedagogik strategiyalarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat axborot berish bilan cheklanib qolmaydi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki (masalan, Singapur va Estoniya modellari), korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligi bevosita jamiyatdagi akademik halollik darajasiga bog‘liq. Oliy ta’lim muassasalarida "halollik vaksinasi"ni joriy etish — bu talabada korrupsiyadan nafaqat qo‘rqish, balki undan nafratlanish va professional or-nomus hissini uyg‘otishdir. Bu jarayonda pedagogning o‘zi axloqiy etalon sifatida namoyon bo‘lishi strategiyaning muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Xulosa. Talaba-yoshlarda korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish uzluksiz va ko‘p bosqichli pedagogik tizim bo‘lishi lozim. BMT rezolyutsiyalarida belgilangan global maqsadlar va milliy strategiyaning uyg‘unligi ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Asosiy pedagogik strategiya sifatida ta’lim mazmuniga antikorrupsion modullarni integratsiya qilish, shaffof baholash muhitini yaratish va talabalarda mustaqil tanqidiy fikrlashni rivojlantirish tavsiya etiladi. Bu yondashuv kelajakda davlat va jamiyat boshqaruviga halol va mas’uliyatli kadrlar kirib kelishini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2017-y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PF-5729-son). – Toshkent, 2019-yil 27-may.
3. Elmuradova S. A. Role of Education in Socio-Cultural Changes // Web of Teachers: Inderscience Research. – 2024. – pp. 286-287.
4. Elmuradova S. A. Influence of Culture on Education // Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research. – 2024. – pp. 66-67.
5. Elmuradova S. A. Educational Culture as a Social Phenomenon // Tadqiqotlar. – 2024. – pp. 16-17.
6. Elmuradova S. A. Role of Education in Socio-Cultural Changes // Web of Teachers: Inderscience Research. – 2024. – pp. 286-287.
7. Elmuradova S. A. Influence of Culture on Education // Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research. – 2024. – pp. 66-67.
8. Elmuradova S. A. Educational Culture as a Social Phenomenon // Tadqiqotlar. – 2024. – pp. 16-17.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 94.(575.1)

ҚОРАХОНИЙЛАР ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДАГИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ МАСКАНЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ ТАҲЛИЛИ

Салижанова Гулнара Фазиловна, Тошкент шаҳри Чилонзор туманидаги Мактабгача ва мактаб таълими бўлимига қарашли 188-сонли ўрта мактаб Олий тоифали тарих фани ўқитувчиси, тарих фанлари номзоди

https://orcid.org/0009-0008-7945-4529
e-mail: sotovik191023@gmail.com

HISTORICAL ANALYSIS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS DURING THE RULE OF THE KARAKHANIS

Salijanova Gulnara Fazilovna, Higher Category History Teacher, Secondary School No. 188, Chilonzor District, Tashkent City, Department of Preschool and School Education

ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ КАРАХАНИДОВ

Салиджанова Гульнара Фазиловна, учитель истории высшей категории, средняя школа № 188, Отделение дошкольного и школьного образования Чиланзарского района города Ташкента

Аннотация: *Ушбу мақолада Қорахоний ҳукмдорлар даврида Турон-Туркистон ҳудудидаги олий таълим масканларининг тарихий таҳлили баён этилган. Маълумки, Қорахонийлар сулоласи ҳукмронлиги йилларида Турон-Туркистон халқлари маданият ва фан соҳасида замонасининг маданият бешикларидан бирига айланган. Бу ҳақда мазкур даврда шу ҳудудда мавжуд бўлган олий таълим масканлари – мадрасалар, уларнинг иқтисодий пойдевори, илмий салоҳияти, уларда жамият учун тайёрлаб етказилган олиму-уламолар гувоҳлик беради. Мадрасалар, олий таълим ўчоқлари сифатида Турон-Туркистон ҳудуди да X асрнинг бошларидан мавжуд бўлган. X аср тарихчиси Абу Бакр Муҳам мад Наршаҳийнинг "Бухоро тарихи" асари мазкур фикрга далил бўла олади. Бу манбада таъкидлаб ўтилган Бухородаги 325/937 йилдаги ёнғинда зарар кўрган мадраса, араб Халифалигидаги дастлабки мадраса деб эътироф этилган Нишопурдаги мадрасадан анча илгари барпо этилган. Араб Халифалиги ҳудудида барпо этилган бу каби олий ўқув юртлари XII асрда Испания орқали Европа университетларининг шаклланишига ўз таъсирини ўтказган.*

X асргача мадрасаларда ўқитувчи - мударрислар асосан маъруза усулида масжидларда дарс ўтган бўлсалар, X асрдан бошлаб улар ўқитиш услубини тадрис – ўқув қўлланмасини тушунтириб бериш билан алмаштирганлар. Тушунтириш усулида дарс ўтиш турли мунозараларни келтириб чиқарганлиги, масжидлар эса мунозара учун ноқулай жой бўлганлиги боис, янги ўқитиш услубига мос ўқув юртлари – мадрасалар барпо этилган.

Мадрасалар қуриш ва уларни вақф мулклари ҳисобидан моддий таъминлаш мадраса муассислари учун анъанавий бўлган. Сомонийлар сулоласи ҳукмронлиги даврида мавжуд бўлган мазкур анъана, Қорахонийлар сулоласи даврида ҳам давом этган.

Қорахоний ҳукмдор Иброҳим ибн Насрнинг 1066 йилда Самарқандда шифохона ва мадраса қурдириб, уларга таъсис этган вақфномаси ўша даврда вақф мулки таркибига кирган мулклар классификацияси, улардан қандай мақсадларда фойдаланилганлиги, вақф даромадлари кимлар ўртасида ва қанча миқдорда тақсимланганлиги ҳақида маълумот беради. Вақфноманинг гувоҳлик беришича, вақф

даромадларининг катта қисми мадраса мударрис ларига маош, талабаларга стипендия сифатида тарқатилган. Чунончи, адабиёт ва Қуръон ўқитувчиси 100 дирҳам, фиқҳ (ҳуқуқ) фани ўқитувчиси 125 дирҳам, кутубхоначи 100 дирҳамдан маош, талабалар эса 30 дирҳамдан стипендия олганлар. Ўша даврда Турон-Туркистон ҳудудида оддий мадраса мударриси маошига 2-3та қўй ёки 150-250 кг ёпилган нон сотиб олиш мумкин бўлган. Бундай иқтисодий таъминот мударрис ва талабаларни илм олишдан чалғимай, билимларни чуқур ўзлаштиришига имконият яратган.

Бундан ташқари, Шарқ Ренессанси даврида турли тоифадаги кутубхоналарнинг кенг тарқалганлиги ва уларда замонасининг барча фанлари соҳаларига оид китобларнинг мавжуд бўлганлиги, мударрис ва талабалар орасидан жаҳонга машҳур алломалар етишиб чиқиши учун шароит яратган.

Калит сўзлар: *Қорахонийлар, Турон-Туркистон, мадраса, мударрис, талаба, вақф мулки, вақфнома, маъруза, тадрис, кутубхона.*

Abstract: *This article presents a historical analisis of higher education institutions during the reign of the Karakhanid rulers in Turan-Turkestan region. It is known that during the reign of the Karakhanid dynasty, the peoples of Turan-Turkestan became prominent centre of culture and science of their time. This is evidenced by the higher education institutions, madrasas, existing in this region during this period, their economic foundation, scientific potential, and the scolars and scholars they prepared for society. Madrasas, as centers of higher education, existed in the Turan-Turkestan region from the beginning of the 10 th century. The work "Yistory of Bukhara" by the 10 th century historian Abu Bakr Muhammad Narshahi can be used as evidence for this idea. The madrasa in Bukhara, which was damaged in a fire in 325/937, mentioned in this source, was built much earlier than the madrasa in Nishapur, which is recognized as the first madrasa in the Arab Caliphate. Such higher education institutions established in the Arab Caliphate influenced the formation of European universities in the 12 th century through Spain.*

Until the 10 th century, madrasa teachers taught mainly in mosques using the lecture method, but from the 10 th century onwards, they replaced this teaching method with explaning the teaching manual. Since teaching using the explanation method caused various disputes, and mosques were an inconvenient place for debate, educational institutions suitable for the new teaching method, madrasas, were established. It was traditional for the founders of madrasas to build madrasas and provide them financially from waqf properties. This tradition, which existed during the reign of the Samoni dynasty, continued during the Karakhanid dynasty.

The endowment certificate of the Karakhanid ruler Ibrahim ibn Nasr, who built a hospital and a madrasa in Samarkand in 1066, provides information on the classification of properties that were part of the endowment property at that time, for what purposes they were used, and among whom and in what amounts the the endowment income was distributed. According to the endowment certificate, a large part of the endowment income was distributed as salaries to madrasa teachers and scholarships to students. For example, a teacher of literature and the Quran received a salary of 100 dirhams, a teacher of jurisprudence (law) received 125 dirhams, a librarian received a salary of 100 dirhams, and students received scholarships of 30 dirhams. At that time, in the Turan-Turkestan region, the salary of an ordinary madrasa teacher could buy 2-3 sheep or 150-250 kg of baked bread. This kind of economic provision made it possible for teachers and students to acquire knowledge in depth without being distracted from learning.

In addition, during the period of the Eastern Renaissance, the spread of various types of libraries in this area and the availability of books related to all the sciences of the time in them, among the teachers and students to the world created conditions for the emergence of famous scholars.

Key words: *Karakhanids, Turan-Turkestan region, madrasa, mudarris, student, foundation property, foundation, lecture, study, library.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается развитие системы высшего образования на территории Туран-Туркестан в период правления Караханидов. Представлен исторический анализ образовательных учреждений того времени. Известно, что в эпоху Караханидов народы Турана-Туркестана стали одним из важнейших центров культуры и науки своего времени. Об этом свидетельствуют медресе – высшие учебные заведения, существовавшие в данном регионе, их экономическая база, научный потенциал, а также подготовленные ими для общества ученые и мыслители.*

Медресе, как центры высшего образования, начали активно функциони ровать в Турано-Туркестанском регионе с начала X века. Об этом свидетель ствует труд историка X века Абу Бакра

Мухаммада Наршахи «История Бухары». В этом источнике упоминается медресе в Бухаре, пострадавшее от пожара в 325/937 году. Оно было построено значительно раньше, чем медресе в Нишапуре, которое принято считать первым медресе в Арабском халифате. Подобные высшие учебные заведения, созданные на территории халифата, впоследствии оказали влияние на формирование европейских университетов в XII веке через Испанию.До X века преподаватели медресе в основном обучали в мечетях, используя метод лекции. Однако с X века этот метод заменён обучением через разъяснение учебных пособий. Поскольку такой способ преподавания нередко вызывал споры, а мечети не подходили для дискуссий, возникла необходи мость в создании специальных учебных заведений – медресе, более приспособ ленных для нового формата образования.

Основатели медресе традиционно строили и финансировали их за счёт вакфного имущества. Эта традиция, возникшая во времена правления династии Саманидов, продолжилась и при Караханидах. В вакфнаме – дарственной грамоте караханидского правителя Ибрагима ибн Насра, построившего в 1066 году больницу и медресе в Самарканде, содержится ценная информация о классификации имущества, входившего в состав дарственной собственности того времени, о целях его использования, а также о порядке распределения доходов от дарения. Согласно этому документу, значительная часть дохода направлялась на выплату жалованья преподавателям медресе и стипендий студентам. Так, преподаватель литературы и Корана получал жалованье в размере 100 дирҳамов, преподаватель юриспруденции (права) - 125 дирҳамов, библиотекарь - 100 дирҳамов, а студенты - стипендию в размере 30 дирҳамов. Для понимания уровня благосостояния мударрисов того времени можно отметить, что на зарплату преподавателя медресе в регионе Турана-Туркестана можно было приобрести 2-3 овцы или 150-250 кг печёного хлеба. Такое экономическое обеспечение создавало благоприятные условия для преподавателей и студентов, позволяя им полностью сосредоточиться на учёбе и научных занятиях.

Кроме того, в период Восточного Ренессанса широкое распространение различных типов библиотек и наличие в них книг по всем областям науки своего времени, способствовали формированию богатой интеллектуальной среды. Это, в свою очередь, создавало условия для расцвета великих учёных и развития научной мысли в регионе.

Ключевые слова: *Караханиды, Туран-Туркестан, медресе, мударрис, талаба, вакфное имущество, вакфнаме, лекция, тадрис, библиотека.*

Кириш. Алп Эр Тўнганинг авлодлари бўлмиш Қорахонийлар ҳукмронлиги даврида Турон ёки Туркистон халқлари маданият ва фан соҳасида ўз замонасининг маданият бешикларидан бирига айланган эди. Бу ҳақда ўша даврда Турон ҳудудида мавжуд бўлган олий таълим масканлари бўлган олий таълим масканлари – мадрасалар, уларнинг иқтисодий пойдевори, илмий салоҳияти, улар етказиб чиқарган олиму-уламолар гувоҳлик беради.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Мақола мавзусини ёритишда мақола муаллифи мавзуга оид қатор манбалар ва илмий асарлардан фойдаланди.

Фойдаланилган манбалар орасида Абу Али ибн Синонинг ўзи ёзиб қолдирган таржимаи ҳоли, Юсуф Хос Хожиб, Абу Тоҳирхожа Самарқандий, Ала ад-Дин Ата Малик Жувайний, Бурҳониддин Марғиноний, Абул Фарадж ибн ал-Джаузи, Ат-Табарий, Муҳаммад Наршаҳий, Низомий Арузий Самарқандий, Низом ул-Мулк, Рашид ад-Дин, Садр ад-Дин ал-Ҳусайний, Носир-и Хисрау каби[1] мутафаккир аждодларимизнинг асарлари мавжуд. Уларда Қорахонийлар даврида қурилган

[1] Абу Али ибн Синонинг ўзи ёзган таржимаи ҳоли //Ўзбекистонда прогрессив ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан материаллар . -Тошкент: Фан, 1959 .- 278 б.; Абу Али ибн Сино. Жизнеописание //Избранные произведения. - Т.I.-Душанбе: Ирфон, 1980.- 420 с.; Юсуф Хос Ҳожиб. Қудатғу билиг. - Тошкент: Юлдузча, 1990. - 192 б.; Абу Тоҳирхожа Самарқандий. Самария /Муҳаррир: Б.Аҳмедов ва бошқ. //Мерос туркуми.-Т.: Камалак, 1991.- 336 б.; Ала ад-Дин Ата Малик Жувайни. Тарих-и Жахангуша /Перевод под ред.: А.А.Ромаскевича //Материалы по истории туркмен и Туркмении. /Под ред.: С.Л.Волина, А.А.Ромаскевича и А.Ю.Якубовского.-Т.I.-М.-Л.: АН СССР, 1939.- 612 с.; Бурхониддин Али. Хидоя: Коментарии мусульманского права: В 4 т-х /Отв. ред., авт. вступ. статьи и коммент. А.Х.Саидов.-Т.I.-Т.: Ўзбекистон, 1994.-480 с.; История ат-Табари. Избранные отрывки /Перев. с арабск. Б.И. Беляева.-Т.: Фан, 1987.-442 с.; Абул Фарадж ибн ал-Джаузи. Ал-мунтазам фи-т тарих ал-мулук ва-л-умам.-Хайдарабад.- Жуз' YIII, IX, X.- 1958-1960. – Жуз' YIII. –1958.- Саҳ.238; Жуз' IX.- 1960. – Саҳ.5-13; Description topographique et historique de Boukhara par Mohammed Nerchakhy, suivie de textes relatifs a'la

мадрасалар, бу даврда илм толиблари учун яратилган шароитлар, жумладан мавжуд бўлган кутубхоналар ҳақида маълумотлар келтирилган.

Қорахонийлар Иброҳим Тамғочхон даврида Самарқандда бунёд этилган мадраса учун вақф қилинган мулк ҳақидаги вақфнома, Алишер Навоий вақфияси, Ўзбекистон Давлат архивида чор Россияси мустамлакачилиги давридан сақланиб қолган ҳужжатлар, шу даврда Туркистонда яшаган О.М.Керенский, В.П.Наливкин, М.В.Наливкина каби [2] муаллифларнинг асарлари сингари манбаларда мадрасалар, улардаги мударрис ва талабалар, уларнинг моддий таъминотининг асосий манбаи бўлган вақф мулклари тўғрисидаги тадқиқот учун қимматли материаллар бор.

Мавзуга оид яратилган адабиётлар орасида В.В.Бартольд, К.Е.Бендриков, О.Г.Большаков, А.Мец, Ш.Ш.Исмаилов, Н.Н.Негматов, О.Караев, С.Холбоев А.Зоҳидий, И.Акрамов, Б.Расулов, Э.А.Ахунжанов, М.Карлибаев, шунингдек мақола муаллифининг асарларида [3] ўрганилаётган давр

Transoxiane /Texte pers. publie par Ch. Schefer. – Paris, 1892 //PELOW – “Publication de l’Ecole des languos orientales Wivantes” III-e ser.,Vol.XIII.- Madjma at-tavorih. – S.47-51; 93-94; 230-244; Наршахи М. История Бухары /Перевод с персид. яз. Н.Лыкошина.-Т.: Типолитогр. Ф.И.Каменских, 1897.-124 с.; Насир-и Хисрау. Сафар-намэ. Книга путешествия /Перевод Е.Э. Бертельса-Л.: АН СССР, 1933.-206 с.; Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей или четыре беседы /Перев. с персид. С.И.Баевского и З.Н. Ворожейкиной- М.: Восточная ли тература, 1963-173 с.; Низомулмулк. Сиёсатнома ёки Сияр-ул-мулук /Форс тилидан тарж., сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари: Ш.Ҳусайнзода, А.Эркинов-Т.: Адолат, 1997.-256 б.; Рашид ад-Дин. Сборник летописей : В 2 т-х /Перев с персид. Л.А. Хетачурова. Ред. и примеч. А.А.Семенова.-Т.I.-Кн.1-М.-Л.: АН СССР, 1952 - 221 с.; Садр ад-Дин Али ал-Хусайний. Ахбар ад-даулат ас-селджукиййа («Зубдат ат-таворих фи ахбар ал-умара ва-л мулук ас-селджукиййа») («Сообщения о Сельджукском государстве. Сливки летописей сообщающих о селджукских эмирах и государях») /Изд. текста, перев., введ., примеч. и прилож. З.М.Буниятова-М.: Восточная литература, 1980.-274 с. (246 с. персид.) кабилар.

[2] Deux actes de waqf d’un Qarachanide d’ Asie Centrale /Par Mohammed Khadr trade avec une introd. par Cl. Cahen //J.Asiatic. – 1967. – T.CCLY.- Pp.305-334.; Алишер Навоий. Вақфийя /Масъул муҳаррир: М.Ҳакимов; Нашрга тайёрловчи: И.Шамсимуҳамедов.-Т.: Фан, 1991.-106 б.; ЎзР МДА, Ф.И. -19, 1-рўйхат, 333 а) – иш, 10-варақ; ЎзР МДА, Ф.И-47, 1-рўйхат, 333-иш, 14-15 варақ; Керенский О.М. Медресе Туркестанского края. - СПб.: Б.И., 1892.-37с.; Наливкин В.П. Очерк благотворительности у оседлых туземцев Туркестанского края //Сборник материалов по мусульманству.-Т.: Б.И., 1900.-С.134-145;Наливкин В.П. Что даёт Средне-Азиатская мусульманская школа в образовательном и воспитательном отношениях? //Туркестанский литературный сборник в пользу прокаженных.-СПб.: Б.И., 1900.-С.215-276; Наливкин В.П. Сведения о состоянии туземных медресе Сыр-Дарьинской области в 1890/91 учебном году.-Т.: Типолитография Лахтина, 1916.-76 с.; Наливкин В.П., Наливкина М.В. Очерк быта женщин оседлого туземного населения Ферганы.-Казань: Б.И., 1886.-245 с. кабилар.

[3] Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Санкт-Петербург: Типография Императорской Академии наук, 1898-1900 гг. – В 2-х томах. – Т.1. – 350 с.; Он же. История культурной жизни Туркестана. – Санк-Петербург: Изд-во АН СССР, 1927. – 180 с.; Он же. О погребении Темура. – Петроград: Типография Императорской Академии наук, 1915. – 32 с.; Он же. Работы по истории ислама и арабского халифата. // Учёные мусульманского Ренессанса. //Сочинения. – T.VI. – М.: Наука, 1966. – 785 с. (С.617-630); Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924 годы) . – М.: Изд-во Академии Педагогических наук РСФСР, 1960.- 509 с.; Большаков О.Г. Два вакфа Ибрахима Тамгачхана в Самарканде //Страны и народы Востока. - Вып. X. Средняя и Центральная Азия. - М.: Наука, 1971.-(292 с)-С. 170-178; Мец А. Мусульманский Ренессанс. - М.: Наука, 1973. - Изд.2-ое. - 475 с.; Исмоилов Ш.Ш. XIX асрнинг охирларида Туркистондаги халқ Маорифи тарихидан (Мадрасалар мисолида) //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар.- 1974.-№11.-Б.50-54; Негматов Н.Н. Государство саманидов (Мавераннахр и Хорасан в IX-X вв.).-Душанбе:Дониш, 1977.-280 с.; 2. Караев О.К. История государства караханидов (X – начала XIII вв.) : Дисс. ... д-ра ист. наук.- Фрунзе, 1983.- 368 с.; Он же. История караханидского каганата (X-начало XIII вв.)-Фрунзе: Илым, 1983.-302 с.; Холбоев С. Дорилфунун туғилган замин //Ўзбекистон адабиёти ва санъати. - 1990. - 16-ноябрь; Зоҳидий А. Туркистонда ўрта аср араб-мусулмон маданияти.-Т.: И. Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 1993.- 120 б.; Акрамов И. XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарқанд вилояти мадрасалари //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар.-1994.-№3-4.- 54-58-бетлар; Расулов Б. Туркистон мадрасалари //Фан ва турмуш.-1996.-№2. - 11-12-бетлар; Гулнор ал-Фарғоний. Мадрасаларда қандай ўқитилган? //Фан ва турмуш.-1997.-№6.- 20-21-бетлар; Салижанова Г.Ф. Туркистонда ўқитиш-маърифатчилик ўчоқлари, уларнинг ижтимоий аҳамияти (XIX охири – XX аср бошлари): Тарих фан. номзоди ... дисс. – Т., 1997. – 178 б.; Она же. Мадраса //Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси: 12 жилдлик. – 5-жилд. Конимех-Мирзокуш /Таҳрир ҳайъати: М.Аминов ва бошқ - Т.: ЎзМЭ, 2003. – 376-377-бетлар;

мадрасалари тарихининг турли қирралари ёритилган.

Инглиз олими Кл.Кахэн ва турк тадқиқотчиси Омер Сонер Хункан каби [4] асарларида ҳам мақолада ўрганилган даврга оид муҳим маълумотлар учрайди.

Тадқиқот методологияси. Мазкур тадқиқотда тарихий-хронологик, манбашунослик, тарихий-қиёсий, тизимли-структуравий ҳамда ижтимоий-тарихий услублар қўлланилди.

Таҳлил ва натижалар. Мадраса сўзи араб тилидаги «дараса» -

«ўқимоқ», «ўрганмоқ» сўзидан келиб чиққан бўлиб, Исломда ўрта ва олий ўқув юртлари маъносини билдирган. Уларда уламо, мактабдор ва давлат аппарати ходимлари тайёрланган [5]. Мадрасалар VII-VIII асрларда Ислом дини уламолари мусулмон илоҳиёти масалаларини шарҳлаб бериб турадиган марказлар сифатида араб давлатларида пайдо бўлган бўлса ҳам, аммо улар вужудга келишининг тарихий илдизлари Мисрнинг Искандария шаҳрида эр.ав. IV асрда Искандар Зулқарнайн маслакдошларидан Птолемей Сотер (эр.ав. 323-282) томонидан ташкил этилган университетга бориб тақалади.

Маълумки, Мовароуннаҳр ва Хуросон Араб халифалигидан мустақил давлат сифатида ажралиб чиққунга қадар халифаликда мавжуд бўлган таълимнинг йўналишларидан бири халифаликдаги ҳукмрон ҳуқуқ, айни замонда мафкура ҳамда дин бўлган Ислом таълимотини ўқитиш ва амалиётда аҳоли ўртасида у эгаллаган мавқени мастаҳкамлаш эди. Ҳижрий IV (мелодий X) асргача бу соҳада таълимнинг энг юқори босқичи «имла», яъни маъруза қилиш ҳисобланган. Айниқса, илоҳиётчи ва адиблар жуда кўп маъруза қилар дилар. Масалан, Абу Али ал-Комий бир ўқишда беш жилдлик маъруза қилган. Тингловчи варақнинг устига «Маъруза: фалончи шайхимиз томонидан, фалон жойда, фалон куни маъруза қилинган» деб ёзиб қўйган [6]. Бундай маърузалар дастлаб масжидларда ўқитилган[7].

Аммо IV (X) асрдан бошлаб мударрислар бу услубдан воз кечган. Бу давр мадрасалари таълимида тингловчилардан бири маърузани овоз чиқариб ўқиб берган, мударрислар эса мухтасар асарни тушунтириб бериш – тадрис билан чеклана бошлаганлар. Тадрис, яъни тушунтириш усулида дарс ўтиш турли мунозараларни ҳам келтириб чиқарганлиги, масжидлар эса мунозалар учун ноқулай жой эканлиги сабабли бу пайтда ўқитишнинг янги услубига мос ўқув юртлари – мадрасалар пайдо бўлди. Бу даврда ўқув юртларининг жамиятда эгаллаган мавқеъи қанчалик юксак бўлганлигига ўз замонасининг мутафаккири Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қудатғу билиг” асаридаги қуйидаги сатрлар гувоҳлик беради: “Уқув қут беради, билим - шон-шараф, Шу икков туфайли улуғдир инсон”[8].

Айрим тарихий манбаларнинг гувоҳлик беришича, халифаликдаги дастлабки мадрасалар Нишопурда X асрнинг охирларида вужудга келган [9]. Аммо мовароуннаҳрлик тарихчи Абу Бакр Муҳаммад Наршахийнинг «Бухоро тарихи» асарида таъкидланишича, Бухорода 325/937 йилдаги ёнғинда зарар кўрган мадраса [10]

Ахунжанов Э.А. Историко-типологическое исследование истории книги и книжного дела в Туркестане: древность, средние века: Дисс. ... д-ра ист. наук.- Т., 1998.- 360 с. (+108 с.); Охунжонов Э.А. Ватан кутубхоначилиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 307 бет; Мустақил Ўзбекистон: фалсафа фанларининг долзарб муаммолари /Маърузаларнинг қисқача матнлари. 31 май 2000 й.-VII.-Т.: Фан, 2000.-265 б.; Карлыбаев М.А. Медресе в Каракалпакии XIX - начала XX веков. - Нукус: Билим, 2002. - 83 с.; Он же. К истории ислама у каракалпаков: исторические, социальные, этнические и генеалогические контексты. - Нукус: Илим, 2021. - 274 с.; Он же. Ислам у каракалпаков в XVIII - начале XX вв.: исторические, социальные, этнические и генеалогические контексты: Дисс... д-ра ист. Наук. - Нукус, 2022. - 274 с. и др.

[4] Cahen Cl. The Historiography of the Seljuqid Period //In: «Historians of the Middle East» /Ed. by B.Lewis, P.M.Holt.- London, 1962.-Pp.-59-78; Omer Soner Hunkan. The first modern Turkish University in medieval Samarkand: Tamgach khan Ibrahim madrasah. // Trakya University Edebiyat Fakultesi degrisi/ Cilt: 4, Sayi: 8, temmuz . - 2014, S. 17-44.

[5] ЎзР МДА, Ф.И-19, 1-рўйхат, №333а)-иш, В.10; Керенский О.М. Медресе Туркестанского края… - С.3; Салижанова Г.Ф. Туркистонда миллий анъанавий ўқитиш-маърифатчилик ўчоқлари… : Дисс… - Б.87; Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси… - 5-жилд. – Б.376

[6] Мец А. Мусульманский Ренессанс… - С.151.

[7] Карлыбаев М.А. Медресе в Каракалпакии XIX - начала XX веков... - С.16.

[8] Юсуф Хос Ҳожиб. Қудатғу билиг. - Тошкент: Юлдузча, 1990. - 17-бет.

[9] Мец А. Мусульманский Ренессанс… - С.151-152.

[10] Абу Тохирхожа Самаркандий. Самария.. – Б. 161; Бартольд В.В. Туркестан в эпоху могольского нашест вия… - Т.I. – С.154; Негматов Н.Н. Государство саманидов… - С.139; Гулнор ал-Фаргоний. Мадрасаларда кандай укитилган?… - Б.20; Ахунжанов Э.А. Историко-

Нишопурдаги мадрасадан илгари барпо этилган. Мадрасаларнинг пайдо бўлиши ҳақида академик В.В.Бартольд шундай ёзади: «Мадраса ўқув юрти сифатида ҳатто мусулмон дунёсининг пойтахти Бағдодда ҳам фақат XI асрнинг иккинчи ярмида пайдо бўлган... ваҳоланки, Мовароуннаҳрда мадрасалар бу вақтда кўпдан буён фаолият кўрсатарди» [11] . Унинг фикрича, буддавийлар вихараси (шу динга мансуб зоҳидлар жамоа бўлиб яшаб таҳсил олган жой) Туронзамин мадрасалари учун намуна бўлиб хизмат қилган[12]. Буддавийлар таълим тизимининг асосий унсурларини Ислом дини ва фани, араб тили ва маданиятини ўрганишга кўчириш ўзининг тадрижий ривожланиши натижасида илм толиблари биргаликда яшаб таҳсил оладиган жой – мадрасаларнинг барпо этилишига олиб келди[13]. Бу ўқув юртлари кейинчалик, аниқроғи XII асрда Испания орқали Европа университет ларининг шаклланишига ўз таъсирини ўтказган[14].

Тадрис усулида ўқитилган мадрасалардаги баландроқ жойларда ўқитувчининг ёрдамчиси – «мустамли» ўтириб, у аудитория тинч бўлишини назорат қилган, йироқда ўтирганларга ўқитувчининг маърузасини етказиб берган. Кейин овози яхши талабалардан бири Қуръоннинг бир нечта сурасини ўқиган, ўқувчи ўқишни тугатгач, ўқитувчи ундаги одатда бўлмаган шакллар ёки истеъмолда бўлмаган сўзларини тушунтирган, шарҳлаган ва ўз тингловчиларидан уларнинг аҳамияти ҳақида сўраган. Талабаларнинг машғу лот пайтида савол бериш ҳуқуқлари бўлган[15].

Ўқув юртлари, жумладан мадрасалар қуриш ва уларни вақф мулклари ҳисобидан моддий таъминлаш Ислом динида улуғ савоб ҳисобланганлиги боис, уларни барпо этиш ва уларга ҳомийлик қилиш бутун ўрта асрлар давоми маърифатпарвар меценатларнинг диққат марказида бўлиб келган.

Қорахонийлар даврида ундан илгариги ҳукмрон сулола – Сомонийлар даврида бўлгани каби анъанага кўра мадраса муассислари уни албатта вақф мулклари билан таъминлаганлар[16]. Сабаби бундай мулклар мадрасаларнинг асосий иқтисодий таянчи бўлган. Вақф мулклари ҳисобидан аввало мадраса мударрислари ва талабалар таъминланганлар. Мударрисларни жамият учун қанчалик муҳим кадрлар бўлганлиги ҳақида Юсуф Хос Ҳожиб шундай ёзади: “Эъзозла уларни то бор имконинг, Билимларин ўрган токи бор жонинг”[17].

Қорахоний ҳукмдор Иброҳим ибн Насрнинг 1066 йилда Самарқандда шифохона ва мадраса қурдириб, уларни вақф мулклари билан таъминла ганлиги ҳақидаги вақфнома юқоридаги фикрларнинг яққол далилидир [18] . Таркибига мақбара, масжидлар, ўқув заллари, кутубхона, қироатхона, дарсхоналар, талабалар учун ҳужра ва боғ киритилган Самарқандда XI асрнинг учинчи чорагида барпо этилган мадраса комплексига вақф қилинган мулк ҳисобидан мадраса талабалари, мударрислар ҳамда хизматчилари моддий таъминланганлар. Вақфномада ҳар ойда мадраса талабаларига 30 дирҳамдан, кассир, фаррош ҳамда мадраса қоровулига 50 дирҳамдан, адабиёт ўқитувчиси ва Қуръон ўқитувчисига 100 дирҳамдан, фиқҳ (ҳуқуқ) фани ўқитувчисига 125 дирҳам, 4та қорига 62,5 дирҳамдан, кутубхоначига 100 дирҳам маош тўланиши таъкидланган. Унга мувофиқ ўша пайтда Мовароуннаҳрда оддий мадраса мударриси ўз маошига 2-3 та қўй ёки 150-250 кг ёпилган нон сотиб олиши мумкин бўлган[19].

типологическое исследование истории книги… : Дисс… - С.38; Description topographique et historique de Boukhara par Mohammed Nerchakhy… - III-e ser., V.XIII. – S.93-94.

[11] Бартольд В.В. О погребении Темура //Сочинения. – Т.II. – Ч.2. – С.429.

[12] Он же. Учение мусульманского Ренессанса //Сочинения. – Т.VI.-С.619.

[13] Охунжонов Э. Ватан кутубхоначилиги тарихи… - Б.63-64.

[14] R.Y.Ebied, M.Z.L Young. New light on the origin of the term “baccalaurete” //The Islamic Quarterly. A Rewiew of Islamic Culture. – L., V.XVIII. – N1-2. – January-julu, 1974. – P.3-7.

[15] Мец А. Мусульманский Ренессанс… - С.152; The Irshad al-arib ila ma’rifat al-adib or Dictionary of Learned Men of Yaqut. – V.I-VII. – V.VI. – P.282.

[16] Алишер Навоий. Вакфия… - Б.29-36; УзР МДА, Ф.И-47, 1-рўйхат, №333-иш, В.14; Наливкин В.П. Очерк благотворительности у оседлых туземцев… - С.145; Керенский О.М. Медресе Туркестанского края… - С.7.

[17] Юсуф Хос Ҳожиб. Қудатғу билиг... - Б.93.

[18] Deux actes de waqf d’un Qarachanide d’ Asie Centralr… - P.305-334; Большаков О.Г. Два вакфа Ибрахима Тамгачхана в Самарканде… - С.170-178; Omer Soner Hunkan. The first modern Turkish University in medieval Samarkand: Tamgach khan Ibrahim madrasah. // Trakya University Edebiyat Fakultesi degrisi/ Cilt: 4, Sayi: 8, temmuz . - 2014, S. 17-44.

[19] Рашид ад-Дин. Сборник летописей: В 2 т-х… - Т.I. – Кн.1. – С.148; Большаков О.Г. Два вакфа Ибрахима Тамгачхана в Самарканде… - Вып.X. – С.173; Караев О. История караханидского каганата… - С.223; Он же. История государства карахаиидов: Дисс… - С..284; Deux

Бундай иқтисодий таъминот мударрислар ва талабаларни бошқа қўшимча даромад топишга чалғимай, илм билан жиддий шуғулланишларига имкон берган.

Мўғуллар истилоси даврида ҳам мадрасаларни моддий таъминоти аввалгидай, вақф мулклари ҳисобидан бўлиб сақланиб қолган. Тулуйхоннинг беваси Моваройуннаҳр бошқарувчиси Масъудбекнинг замондоши малика Сиюркуктени-беканинг ўзи қурдирган Хония мадрасаси ҳисобига 1000 болиш пул вақф қилганлиги бу фикрнинг далилидир[20].

Тарихий манбаларда сақланган маълумотларга қараганда, юқорида айтиб ўтилгандай, дастлабки мадраса Сомоний ҳукмдорлар даврида қурилган бўлса, Қорахонийлар, Салжуқийлар ва Мўғуллар ҳукмронлиги даврида ҳам бу ташаббус давом этган. Чунончи, Қорахоний Тамғоч Буғрахон Иброҳим томонидан Самарқандда қурилган ханафийлар мадрасасидан ташқари мутазалийлар ва керрамийлар томонидан қурилган 17та мадраса (XI аср), Бухорода Арслонхон томонидан қурилган мадраса (XI аср) [21] . Салжуқий ҳукмдорларнинг вазири Низом ул-Мулк (ваф. 485|1092) томонидан ёки унинг ташаббуси билан Бағдод, Нишопур, Омул, Мўсул, Басра, Ҳирот, Дамашқ, Жазират ал-Умаро, Ғазна ва Марв шаҳарларида қурилган Низомия мадрасалари ҳамда Қорақалпоғистоннинг Хўжайли туманида қурилган халифа Ережеп мадрасаси [22] , мўғул-татарлар истилоси даврида моваройуннаҳрлик бошқарувчи Масъудбек томонидан Бухорода қурилган Масъудия ва малика Сиюркуктени-бека (Тулухоннинг беваси) томонидан қурилган мадрасалар[23] шулар жумласидандир.

Моваройуннаҳрда мадрасалар нафақат ҳукмдорлар, балки аҳолининг барча маърифатпарвар бадавлат кишилари томонидан барпо этилиб, улар шаҳарларда ёки катта бозорлари бўлган қишлоқларда жойлашган. Энг аҳамиятли мадрасалар шаҳар марказларида, бозор ёнида ёки шаҳар атрофидаги бош кўчалар бўйлаб қурилган. Қишлоқ мадрасалари деярли ҳар доим бозор ёнида бўлган [24] . Мадрасалар, одатда уларнинг асосчилари номи билан аталган. Шунинг учун улар номида мадраса асосчилари бўлган хон, бек, эшон ёки бошқаларнинг исм ёки тахаллуси сақланиб қолган. Қишлоқ мадрасалари кўпинча мадраса жойлашган қишлоқ номи билан номланган[25].

Мадраса педагоглари «мударрис» деб аталганлар. Манбаларнинг гувоҳ лик беришича, X асрдан бошлаб айрим кишилар мударрисликни ўзига касб қилиб олган эдилар. Чунончи, ўзини Ибн Синонинг шогирди, деб таништирган бир мударриснинг анча шогирдлари бўлиб, улардан айримлари Уқлидисни (Эвклидни), яъни ҳандасани, бошқалари табобатни ёки ал-жабрни ўзлаштирганлар[26]. Мударрислар мадрасанинг ўқув ишларини олиб бориб, уларга мукаррирлар (ассистентлар) ёрдам берганлар. Мударрисларнинг чуқур билим эгаси бўлиш билан бирга ўткир нотиқ, бадиий сўз устаси бўлиши ҳам талаб этилган, улар мадрасанинг бутун предмет ва ўқув тарбия ишларига раҳбарлик қилиш билан бирга юқори бўлимларда дарс берганлар, қуйи бўлимларда эса унинг ёрдамчилари – мукаррирлар дарс ўтишда ёрдамлаш ганлар[27].

Мадрасалар талабалари «мулла», яъни саводхон; «толиби илм» ёки «толиб», яъни илмга

---

actes de waqf d'un qarachanide d'Asia Centrale… - V.CCLV. – P.325-329.

[20] The Ta'rikh-i jahan gusha of 'Ala u'd-Din 'Ata Malik-i-Juwayni… - Pt. III. – P.94.

[21] Наршахи М. История Бухары… - С.118; Большаков О.Г. Два вакфа Ибрахима Тамгачхана в Самарканде. – Вып. X… - С.170-178; Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана… - Т.II.- Ч.1. – С.226; Караев О. История караханидского каганата… - С.215; Он же. История государства караханидов…: Дисс… - С.274; Deux actes de waqf d'un Qarachanide d'Asie Centrale… - V.CCLV. – P.35-329; The History of Bukhara… - P.15; 29.

[22] Низомулмулк. Сиёсатнома, ёки Сияр-ул-мулук… - Б.7; Садр ад-Дин Али ал-Хусайний. Ахбар ад-даулат ас-селджукиййа… - С.73.

[23] Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия… - Т.I. – С.550; Djami el-te'varikh. Histoire gene'rale du monde par Fadl Allah Rashid ed-Din… - V.II. – S.85-86; Tabakat-i Nasiri: A General History of the Muhammadan Dynasties of Asia… V.I-II. – V.I. – S.1147$ The Ta'rikh-i jahan gusha of 'Ala u'd-Din 'Ata' Malik-i-Juwayni… - Pt.1. – P.84-85; Pt.III. – P.9.

[24] Керенский О.М. Медресе Туркестанского края… - С.5.

[25] ЎзР МДА, Ф.И-47, 1-рўйхат, №333а)-иш, В.14-15.

[26] Насир-и Хисрау. Сафар-намэ. Книга путешествия… - С.32.

[27] Наливкин В.П. Сведения о состоянии туземных медресе… - С.19; Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования … - С.54; Исмоилов Ш.Ш. XIX асрнинг охирларида Туркистондаги халк маорифи … - Б.50-54.

чанқоқ, илм изловчи; «шогирд», яъни ўқувчи деб аталган [28] . Шариатга мувофиқ, бирорта мударриснинг ҳар қандай ёшда ўқиш учун мурожаат қилган илм толибига рад жавоби бериш ҳуқуқи бўлмаганлиги, мадраса ўқув курсининг маълум фанлар билан чекланиб қолмаганлиги, қолаверса талабалар қобилияти ва иқтидорининг турлича бўлганлиги каби сабабларга кўра муллалар ёшида катта фарқ бўлган.

Мадраса талабалари «интерн» ёки кундузги бўлимда ўқиб, мадраса ҳужраларида яшаб сабоқ олувчи доимий талабалар ҳамда «экстерн», яъни дарсларга сиртдан қатновчи талабалар тоифаларига ажратилган. Сиртдан ўқувчи талаба бўлиш учун мадраса мударриси ҳузурига келиб, унга ўқиш ниятида эканлигини айтишнинг ўзи кифоя қилган. Мадрасанинг кундузги бўлимида ўқиб, ҳужрага эга бўлиш учун мадраса мударриси, агар мударрислар бир нечта бўлса, уларнинг барчасининг, баъзан катта муллаларнинг ҳам рози лигини олиш керак бўлган. Мударрисга нотаниш бўлган ва узоқдан келган талабалар мадрасага ўқиш учун қабул қилинаётганда, унинг ўқиш ва ёзишга бўлган қобилияти синаб кўрилган[29].

Мовароуннаҳрда мустақил давлатчилик шаклланган Сомонийлар ҳукмронлиги даврида ҳам, ундан кейинги, шу жумладан Қорахонийлар ҳукмронлиги даврида ҳам олий таълим араб халифалиги давридаги каби ўзининг халқаро савиясини сақлаб қолган. Мовароуннаҳрлик илм толиблари Ироқ, Шом (Сурия), Миср, Араб давлатлари, Эрон, Хуросондаги халқаро мадрасалар ҳамда Марв, Бухоро, Самарқанд, Урганч каби шаҳарлардаги машҳур маҳаллий мадрасаларда таҳсил олганлар ва фаннинг айрим соҳаларида жаҳоннинг етук мутахассислар бўлиб етишганлар. Улар қаторида Рай, Бағдод, Куфа, Басра, Макка ва Мадина шаҳарлари, Шом, Миср мамлакатларидаги мадрасаларда таҳсил олган Абул Ҳусайн Муслим ибн ал-Ҳажжож ан-Найсабурий (204/819 - 261/875 й.), Марв мадрасаларида таҳсил олган Абул Қосим Исҳоқ ибн Муҳаммад Ҳаким Самарқандий (ваф. 335/946 й.), Рай, Бағдод, Басра, Куфа, Миср давлатларидаги мадрасаларда таҳсил олган Абу Жаъфар Муҳаммад ибн Жарир ат-Табарий (224-225/839 - 310/923 й.), Бағдоддаги «Низомия» мадрасасини тугатиб, шу ерда муддарислик қилган сўғдлик Абу-л Қосим Али ибн Аби Йала ибн Зайд ад-Дабусий (ваф. 1040 й.), Нишопур, Марвдаги мадрасаларда ўқиган илоқлик Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Довуд ал-Илоқий (ваф. 1144 й.), Бағдод, Димашқ, Хуросон ва Миср мадрасаларида таҳсил олган Амударёнинг Вахш шаҳрилик Абу Али ал-Ҳасан ибн Али ал-Вахший (ваф. 1063-1078 йй.), Макка шаҳрида таҳсил олган Абу Юсуф ибн Аҳмад ибн Ҳамза ибн Моҳун ибн Бус ибн Моҳ ал-Марғиноний (ваф. 416/1025 й.), Бағдод, Шом (Сурия) мадрасаларида таҳсил олган Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Мусо ал-Боласоғуний ат-Туркий (ваф. 1112 й.), Балх, Бухоро ва Самарқандда таҳсил олган Абул-Фатҳ Абдуррашид ибн Али Ҳанифа ал-Валвалижий (1074 й. туғилган), Марварруд мадрасаларида таҳсил олган Абу-л Мукарим Ҳамза Худабозий (Бухоро яқинидан) (1107 й. Макка ва Мадинага хаж сафарига борган); Бухоро мадрасаларида таҳсил олган Муҳаммад ибн Аҳмад ал-Ўший (ваф. 1216 й.) каби[30] жуда кўплаб алломалар бўлган.

Мадрасалар ўқув курсини тамомлаган талабаларнинг билимлари мутахассислар ва омма олдида имтиҳон қилинган [31] . Мадрасаларнинг битирув чилари адиб, шоир, имом, тилшунос, фақиҳ (ҳуқуқшунос), қози, мутакаллим (илоҳиётчи), муҳаддис, ҳофиз, мукри, ноқид (танқидчи), шориҳ (шарҳловчи), мунозир (мунозарачи), муфассир (тафсир илми билимдони), котиб, муаллим, муъаддиб, мударрис, нодим (соқий), муҳандис каби [32] 20 дан ортиқ мутахассис ликларни эгаллашлари мумкин эди.

Турон юрти Араб халифалигидан мустақил давлатга айлангунга қадар халифаликда мударрислик учун маълум миқдорда маош белгиланмаган бўлса[33], маҳаллий ҳукмдор сулолар

[28] Керенский О.М. Медресе Туркестанского края… - С.29.

[29] Наливкин В.П. Что даёт Средне-Азиатская мусульманская школа… - С.240; Наливки В.П., Наливкина М.В. Очерк быта женщин оседлого туземного населения Ферганы… - С.61-64.

[30] Бурхониддин Али Хидоя: Комментарии мусульманского права: В 4 т-х… - Т.I. – С.28; История ат-Табари… - С.5-6; Мустақил Ўзбекистон: фалсафа фанларининг долзарб муаммолари… - Б.222-226; Му’джам ал-булдан… - Жуз‘ I. – Сах.281-291; 470; Жуз‘ II. – Сах.348; 438; Жуз‘ V. – Сах.374.

[31] Керанский О.М. Медресе Туркестанского края… - С.19-22.

[32] Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей… - С.74; Акрамов И. XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарканд вилояти мадрасалари… - Б.58; Му‘ джам ал-булдан… - Жуз‘ I. – Сах.260-470; Жуз‘ II. – Сах.189-477; Жуз‘ V. – Сах.374..

[33] Мец А. Мусульманский Ренессанс… - С.155.

даврида Туркистон мадрасаларида мудар рислар, талабалар ҳамда мадрасанинг бошқа хизматчилари мадрасани барпо қилган шахслар томонидан ажратилган вақф мулкларидан келадиган даромад лар ҳисобидан аниқ миқдордаги моддий таъминот олганлар[34].

Шарқ Ренессанси, жумладан Қорахоний ҳукмдорлар даврида Турон мадрасаларида таълим илдизларининг қай даражада мустаҳкам бўлганлигига бу ерда кутубхоналар ва китоб савдосининг кенг тарқалганлиги ҳам гувоҳлик бериб турибди. Турон-Туркистон ҳудудидаги масжид, мадрасалар ҳузурида, шунингдек, давлат амалдорлари, зодагон кишиларнинг чорбоғи бўлган ҳар бир шаҳар ва йирик қишлоқ аҳоли пунктида албатта, бирор турдаги кутубхона мавжуд бўлган. Сомонийлар ҳукмронлиги давридан бошлаб ҳукмдорлар, мас жид ва мадрасалар ҳамда алоҳида шахсларга тегишли кутубхоналар бўлиб, улар қандай мақсадлар ва китобхонлар аудиториясига мўлжалланганлигига қараб қуйидаги турларга ажратилган: а)мадрасалар ҳузуридаги кутубхоналар; б)ҳукмрон дин муассасалари - масжидлар кутубхоналари; в)шаҳар, қишлоқ ва маҳаллаларда кенг жамоатчилик фойдаланиши учун мўлжалланган вақф кутубхоналари; г)масжид ва мақбараларга бирикиб кетган мақбара ва хонақоҳлар қошидаги кутубхоналар ҳамда тиббиёт ўқув юртлари ҳузуридаги кутубхоналар[35]. Бу кутубхоналарнинг барча турлари кенг жамоатчилик учун очиқ бўлиб, илм олишга интилган ҳар бир илм толибига ўзи истаган йўна лишда илм олиши учун имконият яратган.

Айниқса ҳукмдорлар саройларида ташкил этилган кутубхоналар хазинаси жуда бой бўлиб, маърифатпарвар ҳукмдорлар бу хазинадан фойдаланиш учун етук олимларга рухсат берганлар. Фикримизга Абу Али ибн Синонинг Сомоний Нуҳ ибн Мансур (ваф. 387/997 й.) саройидаги кутубхонадан фойдаланганлиги, Хоразмдаги Маъмун ибн Маъмун Абул-Аббос (ваф. 1017 й.) нинг бой сарой кутубхонасида Абу Райҳон Беруний, Абусаҳл Масиҳий, Абулхайр Хаммар, Абунаср Ироқ, кейинроқ Абу Али ибн Сино каби олимлар тўпланиб ўзига хос ўрта аср академияси ташкил этганлари ҳамда бу китоблар хазинасидан фойдаланиб, ўзлари ҳам қатор йирик асарлар яратганларини далил сифатида келтириш мумкин[36].

Хулоса ва таклифлар. Мақолага хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, Қорахонийлар сулоласи ҳукмронлиги даврида Турон-Туркистон ўлкасида олий таълим масканлари жамият учун ўз даврининг зиёли мутахассисларини етказиб берган. Бу даврда мадрасалар халқаро мақомга эга бўлган ва уларда бутун Ислом дунёси учун халқаро тил бўлган араб тилида ўқитилган. Адабиёт фанидан форсий ва туркий тиллардаги асарлардан фойдаланилган. Турон талабаларининг нафақат маҳаллий туркий тилларни, балки ўз даврининг халқаро тилларини ҳам мукаммал билиши юртимиздан жаҳонга машҳур алломаларнинг етишиб чиқиши учун замин бўлган.

Мадрасаларнинг маърифат меценатлари томонидан хайрия мулклари бўлмиш вақф мулклари ҳисобидан иқтисодий таъминланиши, талаба ва мударрисларнинг кундалик турмуш ташвишларидан холи бўлиб илм билан шуғулланишларига имконият яратган.

Бутун “Шарқ уйғониш даври” да бўлгани каби, Қорахонийлар сулоласи ҳукмронлиги даврида ҳам юртимизда турли тоифадаги кўплаб кутубхоналар нинг мавжуд бўлганлиги, китоб савдосининг ривожланганлиги илм толибларининг илмий эҳтиёжларини қондирган, билимларининг ошишига имконият яратган.

---

[34] Большаков О.Г. Два вакфа Ибрахима Тамгачхана в Самарканде… - Вып.X. - С.170-178; Караев О. История караханидского каганата… - С.223; Он же. История государства караханидов… : Дисс.. – С.274-275; Deux acres de waqf d’un Qarachanide d’ Asie Centrale… - V.CCLV. – P.328-329; Djami el-te’warikh. Histoire gene’rale du monde par Fadl Allah Rashid ed-Din… - V.II. – S.85-86; Tabakat-I Nasiri: A General History of the Muhammadan Dynasties of Asia… - V.I. – P.1147$ The Ta’rikh-I jahan gusha of ‘Ala u’d-Din ‘Ata’ Malik-I Juwayni… - Pt.I. – P.9; Cahen Cl. The Historiography of the Seljuqid Period… - P.59-78.

[35] Ахунжанов Э.А. Историко-типологическое исследование истории книги…: Дисс… - С.215-216; Зохидий А. Туркистонда урта аср араб-мусулмон маданияти… - Б.29.

[36] Абу Али ибн Синонинг узи ёзган таржимаи ҳоли… - Б.100-101; Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия… - Т.I. – Кн.1. – С.250; Жизнеописание Абу Али Хусейна ибн Абдаллаха ибн Сины… - С.34; Холбоев С. Дорилфунун тугилган замин…; Узбекистон Миллий Энциклопедияси. – 5-жилд. – Б.537; Ахунжанов Э.А. Историко-типологическое исследование истории книги…: Дисс… - С.219.

Мақоладан чиқарилган хулосаларга асосланган ҳолда муаллиф қуйидаги таклифларни киритади:

1.Аждодларимиз мадрасаларда халқаро тилларда таҳсил олганлигини инобатга олиб, Ўзбекистоннинг замонавий олий таълим муассаларида халқаро тилларда ўқитишни кенгайтириш;

2.Мадраса толиблари вақф мулклари ҳисобидан таъминланганлиги сабабли иқтисодий қийинчиликсиз, ўқишдан чалғимасдан билим олиб, юксак ютуқларга эришганлигини ҳисобга олиб, олий таълим олаётган талабалар учун грантда ўқийдиган ўринларни кўпайтириш;

3.Илм толиблари учун кутубхоналардаги халқаро адабиётлар фондини бойитиш мақсадга мувофиқ.

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

Манбалар:

1. ЎзР МДА, Ф.И. -19, 1-рўйхат, 333 а) – иш, 10-варақ.
2. ЎзР МДА, Ф.И-47, 1-рўйхат, 333-иш, 14-15 варақ.
3. Абу Али ибн Сино. Жизнеописание //Избранные произведения. - Т.I.-Душанбе: Ирфон, 1980.-420 с. (С.57-58).
4. Абу Али ибн Синонинг ўзи ёзган таржимаи ҳоли //Ўзбекистонда прогрессив ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан материалар . -Т.: Фан, 1959 .- 278 б. (Б. 100-101).
5. Абу Тоҳирхожа Самарқандий. Самария /Муҳаррир: Б.Аҳмедов ва бошқ. //Мерос туркуми.-Т.: Камалак, 1991.- 336 б. (Б.25-28).
6. Ала ад-Дин Ата Малик Жувайни. Тарих-и Жахангуша /Перевод под ред.: А.А.Ромаскевича //Материалы по истории туркмен и Туркмении. /Под ред.: С.Л.Волина, А.А.Ромаскевича и А.Ю.Якубовского.-Т.I.-М.-Л.: АН СССР, 1939.- 612 с. (С. 442-449).
7. Алишер Навоий. Вақфийя /Масъул муҳаррир: М.Ҳакимов; Нашрга тайёрловчи: И.Шамсимуҳамедов.-Т.: Фан, 1991.-106 б.
8. Бурхониддин Али. Хидоя: Коментарии мусульманского права: В 4 т-х /Отв. ред., авт. вступ. статьи и коммент. А.Х.Саидов.-Т.I.-Т.: Ўзбекистон, 1994.-480 с.
9. История ат-Табари. Избранные отрывки /Перев. с арабск. Б.И. Беляева.-Т.: Фан, 1987.-442 с.
10. Керенский О.М. Медресе Туркестанского края. - СПб.: Б.И., 1892.- 37с.
11. Наливкин В.П. Очерк благотворительности у оседлых туземцев Туркестанского края //Сборник материалов по мусульманству.-Т.: Б.И., 1900.-С.134-145.
12. Наливкин В.П. Что даёт Средне-Азиатская мусульманская школа в образовательном и воспитательном отношениях? //Туркестанский литератур ный сборник в пользу прокаженных.-СПб.: Б.И., 1900.-С.215-276.
13. Наливкин В.П. Сведения о состоянии туземных медресе Сыр-Дарьинской области в 1890/91 учебном году.-Т.: Типолитография Лахтина, 1916.-76 с.
14. Наливкин В.П., Наливкина М.В. Очерк быта женщин оседлого туземного населения Ферганы.-Казань: Б.И., 1886.-245 с.
15. Наршахи М. История Бухары /Перевод с персид. яз. Н.Лыкошина.-Т.: Типолитогр. Ф.И.Каменских, 1897.-124 с.
16. Насир-и Хисрау. Сафар-намэ. Книга путешествия /Перевод Е.Э. Бертельса-Л.: АН СССР, 1933.-206 с.
17. Низами Арузи Самарканди. Собрание редкостей или четыре бесе ды /Перев. с персид. С.И.Баевского и З.Н. Ворожейкиной- М.: Восточная ли тература, 1963-173 с.
18. Низомулмулк. Сиёсатнома ёки Сияр-ул-мулук /Форс тилидан тарж., сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари: Ш.Ҳусайнзода, А.Эркинов-Т.: Адолат, 1997.-256 б.
19. Рашид ад-Дин. Сборник летописей : В 2 т-х /Перев с персид. Л.А. Хетачурова. Ред. и примеч. А.А.Семенова.-Т.I.-Кн.1-М.-Л.: АН СССР, 1952-221с.
20. Садр ад-Дин Али ал-Хусайний. Ахбар ад-даулат ас-селджукиййа (Зубдат ат-таворих фи ахбар ал-умара ва-л мулук ас-селджукиййа) (Сообщения о Сельджукском государстве. Сливки летописей сообщающих о селджукских эмирах и государях) /Изд. текста, перев., введ., примеч. и прилож. З.М.Буниятова-М.: Восточная литература, 1980.-274 с. (246 с. персид.).
21. Юсуф Хос Ҳожиб. Қудатғу билиг. - Тошкент: Юлдузча, 1990.-192 б.

22. Deux actes de waqf d'un Qarachanide d' Asie Centrale /Par Mohammed Khadr trade avec une introd. par Cl. Cahen //J.Asiatic. – 1967. – T.CCLY.- Pp.305-334.

23. The History of Bukhara /Transl. from a Pers. Abr. of the Arabic Orig. by Narschakhi R.N.Frye. – Cambridge, Mass., 1954. – 178 p.

Адабиётлар:

1. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Санкт-Петербург: Типография Императорской Академии наук, 1898-1900 гг. – В 2-х томах. – Т.1. – 350 с.
2. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Санк-Петербург: Изд-во АН СССР, 1927. – 180 с.
3. Бартольд В.В. О погребении Темура. – Петроград: Типография Императорской Академии наук, 1915. – 32 с.
4. Бартольд В.В. Работы по истории ислама и арабского халифата. // Учёные мусульманского Ренессанса. //Сочинения. – Т.VI. – М.: Наука, 1966. – 785 с. (С.617-630).
5. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924 годы) . – М.: Изд-во Академии Педагогических наук РСФСР, 1960.- 509 с.
6. Большаков О.Г. Два вакфа Ибрахима Тамгачхана в Самарканде //Страны и народы Востока. - Вып. X. Средняя и Центральная Азия. - М.: Наука, 1971.-(292 с)-С. 170-178.
7. Мустақил Ўзбекистон: фалсафа фанларининг долзарб муаммолари /Маърузаларнинг қисқача матнлари.31 май 2000 й.VII.-Т.: Фан,2000.265 б.
8. Солижонова Г. Мадраса //Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси: 12 жилдлик. – 5-жилд. Конимех-Мирзоқуш/Таҳрир ҳайъати: М.Аминов ва бошқ - Т.: ЎзМЭ, 2003. – 376-377-бетлар.
9. Зоҳидий А. Туркистонда ўрта аср араб-мусулмон маданияти.-Т.: И. Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 1993.- 120 б.
10. Караев О. История караханидского каганата (X-начало XIII вв.)-Фрунзе: Илым, 1983.-302 с.
11. Мец А. Мусульманский Ренессанс. - М.: Наука, 1973. - Изд.2-ое.-475 с.
12. Негматов Н.Н. Государство саманидов (Мавераннахр и Хорасан в IX-X вв.). - Душанбе: Дониш, 1977. - 280 с.
13. Карлыбаев М.А. Медресе в Каракалпакии XIX - начала XX веков. -Нукус: Билим, 2002. - 83 с.
14. Охунжонов Э.А. Ватан кутубхоначилиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 307 бет.
15. Карлыбаев М.А. К истории ислама у каракалпаков: исторические, социальные, этнические и генеалогические контексты. - Нукус: Илим, 2021. - 274 с.
16. Акрамов И. XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарқанд вилояти мадрасалари //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар.-1994.-№3-4.-Б.54-58.
17. Гулнор ал-Фарғоний. Мадрасаларда қандай ўқитилган? //Фан ва турмуш.-1997.№6.-Б.20-21.
18. Исмоилов Ш.Ш. XIX асрнинг охирларида Туркистондаги халқ Мао рифи тарихидан (Мадрасалар мисолида) //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар.- 1974.-№11.-Б.50-54.
19. Расулов Б. Туркистон мадрасалари //Фан ва турмуш.-1996.-№2. - Б. 11-12.
20. Холбоев С. Дорилфунун туғилган замин //Ўзбекистон адабиёти ва санъати.- 1990.- 16 ноябрь.

Диссертациялар:

1. Ахунжанов Э.А. Историко-типологическое исследование истории книги и книжного дела в Туркестане: древность, средние века: Дисс. ... д-ра ист. наук.- Т., 1998.- 360 с. (+108 с.)
2. Караев О.К. История государства караханидов (X – начала XIII вв.) : Дисс. ... д-ра ист. наук.- Фрунзе, 1983.- 368 с.
3. Салижанова Г.Ф. Туркистонда ўқитиш-маърифатчилик ўчоқлари, уларнинг ижтимоий аҳамияти (XIX охири – XX аср бошлари): Тарих фан. номзоди ... дисс. – Т., 1997. – 178 б.
4. Карлыбаев М.А. Ислам у каракалпаков в XVIII - начале XX вв.: исторические, социальные, этнические и генеалогические контексты: Дисс... д-ра ист. Наук. - Нукус, 2022. - 274 с.

Хорижий адабиётлар:

1. Cahen Cl. The Historiography of the Seljuqid Period //In: «Historians of the Middle East» /Ed. by B.Lewis, P.M.Holt.- London, 1962.- Pp.-59-78.
2. Omer Soner Hunkan. The first modern Turkish University in medieval Samarkand: Tamgach khan Ibrahim madrasah. // Trakya University Edebiyat Fakultesi degrisi/ Cilt: 4, Sayi: 8, temmuz . - 2014, S. 17-44.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 94.(575.3)

“TUHAFI AHLI BUXORO” ASARIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI IJTIMOIY JARAYONLARNING YORITILISHI

Ro‘ziyeva Tamara Shukurboyevna,
Navoiy davlat universiteti “Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi

REPRESENTATION OF SOCIAL PROCESSES IN THE EMIRATE OF BUKHARA IN THE WORK “TUHAFI AHLI BUKHORO”

Ro‘ziyeva Tamara Shukurbaevna, Lecturer, Department of History, Navoiy State University

ОСВЕЩЕНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В ПРОИЗВЕДЕНИИ “ТУХАФИ АХЛИ БУХОРО”

Рузиева Тамара Шукурбоевна, Преподаватель кафедры истории Навоийского государственного университета

https://orcid.org/0009-0007-5477-0771

tamararoziyeva200@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Mirza Sirojiddin Hakimning “Tuhafi ahli Buxoro” asari misolida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligida kechgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tahlil qilinadi. Muallif o‘sha davrdagi ta’lim inqirozi, ma’muriy boshqaruvdagi nuqsonlar va iqtisodiy turg‘unlik sabablarini yoritib beradi. Shuningdek, Amudaryo ko‘prigi va Patakesar shahri misolida mintaqaga kirib kelayotgan texnologik va madaniy yangiliklarning jamiyat hayotiga ta’siri xususida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *“Tuhafi ahli Buxoro”, ma’rifatparvarlik, taraqqiyparvar, jadidchilik, “Yosh buxoroliklar” partiyasi, amirlik, Buxoro amirligi, Ijtimoiy jarayonlar, ta’lim tizimi.*

Abstract: *This article analyzes the complex socio-political processes that took place in the Emirate of Bukhara during the late 19th and early 20th centuries, based on the work “Tuhafi Ahli Bukhoro”(A Gift to the People of Bukhara) by Mirza Sirojiddin Hakim. The author examines the causes of the educational crisis, deficiencies in administrative governance, and the economic stagnation characteristic of that period. Furthermore, using the examples of the Amu Darya Bridge and the city of Patakesar, the study explores the impact of emerging technological and cultural innovations on the social life of the region.*

Key words: *“Tuhafi ahli Bukhoro”, enlightenment, progressivism, Jadidism, “Yosh Bukhoro” party, emirate, Bukhara Emirate, social processes, education system.*

Аннотация: *В данной статье на примере произведения Мирзы Сироджиддина Хакима «Тухафи ахли Бухоро» анализируются сложные социально-политические процессы, происходившие в Бухарском эмирате в конце XIX – начале XX веков. Автор освещает причины образовательного кризиса, недостатков в административном управлении и экономической стагнации того периода. Также на примере Амударьинского моста и города Патакесар рассматривается влияние технологических и культурных новшеств, проникающих в регион, на жизнь общества.*

Ключевые слова: *«Тухафи ахли Бухоро», просветительство, прогрессивизм, джадидизм, партия «Yosh buxoroliklar», эмират, Бухарский эмират, социальные процессы, система образования.*

Kirish. Mirzo Siroj Hakim jadidchilik harakatining eng o‘ziga xos vakillaridan biri bo‘lib, uning “Tuhafi ahli Buxoro” asari shunchaki sayohatnoma emas, balki Buxoro amirligidagi turg‘unlikni dunyo taraqqiyoti bilan solishtirib ko‘rsatgan kuchli ijtimoiy-siyosiy asari hisoblanadi. Afg‘oniston, Ozarbayjon, Eron, Gruziya, Rossiya, Turkiya, Angliya, Germaniya, Vengriya, Fransiya, Shveytsariya kabi mamlakatlarni kezib chiqib, bu mamlakatlar hayoti, diqqatga sazovor joylari bilan yaqin-

dan tanishtirib, “Tuhafi ahli Buxoro” (“Buxoroliklar uchun sovg‘a”) nomli tojikcha kitobini yozgan. U bu kitobni 1911-yilda Yevropa va Sharq mamlakatlari safaridan Buxoroga kelganida yozgan va 1912-yilda Kogonda litografik usulda nashr etilgan. Ushbu kitobga 1912-yilda tatarlarning “Vakt” jurnali va Toshkentning “Turkiston vedomosti” gazetasi tomonidan taqriz qilingan. Mirzo Siroj shunchaki eshitganlarini emas, balki o‘zi bevosita guvoh bo‘lgan faktlarni yozgan. Shuningdek, Uning G‘arb va Sharq mamlakatlariga qilgan sayohatlari davomida diqqat markazida turgan eng ustuvor masala - shu yurtlarning maktab va maorif tizimi bo‘lgan[1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maqolada Mirzo Sirojiddin Hakimning “Tuhafi ahli Buxoro” asari asosiy obyekt qilib olindi. Shuningdek, mavzuni yoritishda B.Qosimovning jadidchilikka oid tadqiqotlari, D.Alimova tomonidan Mirzo Sirojiddin ijodiga berilgan baholar, H. Ziyoyevning Buxoro tarixi haqidagi asarlari, D.Jamolovalarning ilmiy maqolalaridan qiyosiy ma’lumotlar olindi, shuningdek, xronologik izchillik, qiyosiy-tarixiy tahlil kabi metodlaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. 1910–1920-yillarda faoliyat yuritgan “Yosh buxoroliklar” partiyasi taraqqiyparvar ziyolilar, boy savdogarlar va shahar kambag‘allari vakillaridan tashkil topgan edi. Harakat a’zolari o‘z faoliyatining dastlabki bosqichida quyidagi mavjud amirlik tuzumi doirasida demokratik islohotlar o‘tkazish, konstitutsiyaviy monarxiya o‘rnatish, amirning mutlaq hokimiyatini qonun bilan cheklab qo‘yish kabi siyosiy maqsadlarni ilgari surganlar:

“Yosh buxoroliklar”ning dastlabki tashkilotchilari sifatida Abdulvohid Burhonov, Mukammil Burhonov, Sadriddin Ayniy, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev (Usmonxo‘ja), Otaulla Xo‘jayev, Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov), Homidxo‘ja Mehriy, Muso Saidjonov va Mirzo Siroj Hakim kabi shaxslar mashhur bo‘lgan.

Yosh buxoroliklarning maqsadi yangi usul maktablarini ochish, bolalarning savodini tezroq chiqarish, ijtimoiy ongini o‘stirish, maktab, madrasa, o‘quv tizimini isloh qilish edi. Buxoroda boshlangan harakat tezda Shaxrisabz va Karkigacha tarqaladi. …. Yosh buxoroliklar amirlik tuzumini isloh qilish to‘g‘risida dadil fikrlar bilan maydonga chiqishdi. Ularning ijtimoiy, siyosiy, ma’rifatpar-varlik faoliyati partiya mazmunida endilikda yangicha maqsad va yo‘nalish kasb etdi. Buxoroda “Ma’rifat” kutubxonasi va “Barakat shirkati” tuzilib, ular kitoblar nashr qilish va xorijda chiqarilgan turli adabiyotlar, gazeta va jurnallarni Buxoroda tarqatish bilan shug‘ullanadilar. Bu ishlarda Abdulvohid Burhonov, Ahmadjon Hamdiy, Mirzo Siroj Hakim faollik ko‘rsatishdi.[2]

Akademik D. Alimova ta’kidlaganidek, “Mirzo Sirojiddin Hakimning qarashlari Buxoro jadidchiligi tarixida o‘ziga xos eksperimental xarakterga ega. U o‘z sayohatnomasi orqali amirlikning qadimiy an’analari va Yevropa taraqqiyoti o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatibgina qolmay, jamiyatni isloh qilishning aniq iqtisodiy modellarini taklif etgan”.[3]

Mirzo Sirojiddin Patakesar qishlog‘i misolida Rossiya loyihasi asosida qurilgan shaharsozlikni an’anaviy Buxoro turmush tarzi bilan qiyoslaydi.

Patakesar – Karki va Sherobodga qarashli qishloqlardan biridir. Ruslar u yerda o‘zlari xohlagandek (reja asosida) bir shahar bino qilganlar. Uning xiyoboni keng va reja (plan) asosida. Imoratlari butunlay Rossiya loyihasiga ko‘ra qurilgan va Buxoro ahli ham u yerda bir necha karvonsaroylar qurganlar. Biz ham o‘sha karvonsaroylardan biriga tushdik. Buxoro moliya xodimlari, ya’ni zakotchilar bizning narsalarimizni tekshirib, zakot (boj) olish uchun keldilar. Bandani (meni) taniganlaridan keyin, zakotidan voz kechib, ashyolarni tekshirmadilar. Shunga qaramay, banda u yerdagi zakotchi odamlarga yo‘l sovg‘asi sifatida in’om berdim. Sherobod hukumati tomonidan u yerda noib (hokim o‘rinbosari) bo‘lgan bekcha, bandani ko‘rgani kelib, o‘sha oqshom o‘z uyiga taklif qildi va Patakesarda bo‘lgan ikki-uch kunimda uning uyida mehmon bo‘lishimni qattiq turib so‘radi. Banda e’tiroz bildirib: "Musofirning joyi yo mehmonxona, yo karvonsaroydir", dedim. [4]

Shuningdek, madaniy hayotdagi o‘zgarishlarni — Rossiyadan kelgan sirk tomoshalari, polvonlar kurashi va dorbozlik kabi yangicha ommaviy ko‘ngilochar tadbirlar orqali xalqning ma’naviy hayotiga G‘arb va Rossiya elementlari singib borayotganini ta’kidlaydi.

Mirza Sirojiddin Hakim Buxoro amirligining ulkan iqtisodiy salohiyati va unumdor tuproqlari misolida o‘lkaning tabiiy boyliklariga yuqori baho beradi. Chorjo‘y va Buxoro orasidagi

tabiiy boyliklar, hosildor tuproq va Amudaryo ustiga qurilgan ulkan temir ko‘prikni tasvirlar ekan, o‘lkaning ulkan iqtisodiy imkoniyatlariga urg‘u beradi. Rossiya imperiyasi tomonidan qurilgan muhtasham ko‘prikni taraqqiyot ramzi sifatida ko‘rsatib, mahalliy xalqning ham ovrupoliklar kabi ilm egallashi zarurligini, aks holda turg‘unlik va qashshoqlik davom etishini achchiq haqiqat sifatida bayon etib: “*Olloh taolo o‘z ne’matini Osiyo ahliga har jihatdan arzon qilib bergan, ammo biz odamlar uning qadrini bilmaymiz. Agar biz ham ovrupoliklar kabi ilm va hunarga ega bo‘lganimizda edi, bizdan boyroq millat va bizning o‘lkamizdan obodroq o‘lka dunyoda bo‘lmas edi”, degan fikrlari Buxoro amirligida sanoat va ilm-fanning orqada qolganligi millatning qashshoqlashishiga sabab bo‘layotganiga ishora ekanligidan dalolatdir. Bundan tashqari quyidagi misralarni keltirib o’tadi:*

Boshqalar jiddu jahd bilan maqsadga yetdilar,
Biz esa hamon taqdirga havola qilib o‘tiribmiz.[4]

U ushbu she’riy satrlar orqali esa *amirlikdagi ijtimoiy qatlamlarni ma’rifiy uyg‘onishga va milliy g‘ururni tiklash uchun faol harakatga chorlaydi.* Buxoroning hozirgi ahvolidan afsuslanib:*“Bas, hozirgacha bizga nima bo‘libdiki va nima monelik qilmoqdaki, bizning ko‘zlarimiz hozirgi ilm-fanni ko‘rish u yoqda tursin avvalgi ilm-fandan ham yopiq qolmoqda”,*deydi. Buxoroda sanoat korxonalari, tijoratxonalar va shirkatlar ochish zarurligini, tibbiyot ilmini rivojlantirib, sog‘likni saqlashga alohida e’tibor qaratish kerakligini ta’kidlaydi.[5]

Mirzo Sirojiddin o‘z vatanini tark etishga majbur bo‘lgan kechinmalari orqali o‘sha davrdagi siyosiy muhojirlik va musofirchilik qismatining achchiq tomonlarini hamda Buxoro amirligidagi siyosiy beqarorlik, ziyolilarning quvg‘in qilinishi va muhojirlik fojiasini ochib berib: “Shu kunlarda bandaga (menga) nisbatan bir voqea yuz berdiki, u sabab yana vatanni tark etishga va besh yil musofirchilikda yurishga majbur bo‘ldim. Men Kobuldan Buxoro sari yo‘l olganimda, Afg‘oniston vazirlaridan biri menga shunday degan edi: "Siz o‘z vataningizga yetgach, Amir sohibning marhamatlarini unutasizmi yoki biror xizmat qilasizmi?". Banda aytdim: "Nomard va tuzloq (tuzini ichib tuzlig‘iga tupuradigan) odamgina ne’mat haqini unutadi. Men nega unutayin? Ammo Amir marhamatlari evaziga mendan qanday xizmat kelishi mumkin?". U aytdi: "Unday emas, albatta har kimning qo‘lidan o‘z qobiliyatiga yarasha ish keladi. Amir sohibning Buxoroda doim ikki-uch nafar vakillari va savdo xodimlari bo‘ladi, ular har yili qorako‘l terisi sotadilar. Siz ham savdo-sotiq ahlidansiz. Yaxshisi, oliy hukumatning sizga qilgan marhamatlari evaziga, o‘sha xodimlarning ishlariga yordam bering".[4]

Mirzo Sirojiddin Hakimning Afg‘oniston vaziri bilan ushbu muloqoti shuni ko‘rsatadiki, muallif nafaqat sayyoh, balki mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarda nufuzga ega bo‘lgan shaxs edi.

Akademik D. Alimova ta’kidlaganidek, Mirzo Sirojiddin Hakimning bunday iqtisodiy faolligi Buxoro ichki doiralaridagi guruhlar manfaati bilan to‘qnash kelib, ziyolining o‘z vatanida tazyiqqa uchrashiga sabab bo‘ladi.[3]

Xulosa. “Tuhafi ahli Buxoro” asari amirlikdagi boshqaruv tizimining ichki nuqsonlarini fosh etadi: Zakot (boj) tizimidagi shaxsiy aloqalarning roli, tanish-bilishchilik va "in’om" berish an’analari davlat apparatining islohotga muhtojligini ko‘rsatsa, Buxoro tuprog‘ining hosildorligi va xomashyo (qorako‘l terisi) zaxiralari borligi, ammo ularni qayta ishlaydigan sanoat korxonalari va shirkatlar yo‘qligi ijtimoiy qoloqlikning asosiy sababi sifatida keltiriladi. Muallif jamiyatni faqat ilm-fan, sanoatlashish va ma’rifatli tarbiya qutqarishiga ishonadi. Uning qarashlari “Buxoro ahli” uchun nafaqat sayohatnoma, balki jamiyatni o‘zgartirishga chorlovchi ijtimoiy dastur vazifasini o‘tashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ahmadov O. Buxoro jadidlarining ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirishdagi adabiy va publitsistik asarlarida pedagogik fikrlar. Til va adabiyot.uz. 1-son. 2024 yil. 7-bet. //https://www.tiladabiyot.uz/media/1-son__2024-yil.Til_va_adabiyot.uz.pdf
2. Do‘smurodov Sh. Buxoro jadidlari va ularning tarixiy taqdiri. Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali**.** 2025. 743-bet. // https://phoenixpublication.net/index.php/ttval/article/view/6991/6776
3. Alimova D. Buxoro jadidlarining ijtimoiy-siyosiy va tarixiy qarashlari. – T.: Fan, 2009. – B. 142
4**.** Mirzo Sirojiddin Hakim. Tuhafi ahli Buxoro. - Buxoro: 1912. -B. 148-154.
5.Jamolova D. Liboslarimizdan to kafanimizgacha Ovro‘podan keladi... Biz muhtoj bo‘lmay, kim bo‘lsin? – Buxoro jadidlari homiysi va yetakchisi Mirzo Sirojiddin. 15.08.2022 // https://oyina.uz/uz/article/1032

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 37.091.3:004.9:811.111

HAMSHIRALIK TA'LIMIDA SIMULYATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH SAMARADORLIGI

[1]Xamidova Farangiz O'ktamovna, Samarqand davlat tibbiyot universiteti "Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti" kafedrasi 2-kurs magistranti

[2]Ruzimurotova Yulduz Shomurotovna, Samarqand davlat tibbiyot universiteti "Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti" kafedrasi assistenti

farangizxamidova.1992@gmail.com

EFFECTIVENESS OF FORMING PROFESSIONAL COMPETENCE BASED ON SIMULATION TECHNOLOGIES IN NURSING EDUCATION

[1]Khamidova Farangiz Uktamovna, 2nd year master's student, Department of Public Health and Health Management Samarkand State Medical University

[2]Ruzimurotova Yulduz Shomurotovna, Assistant, Department of Public Health and Health Management Samarkand State Medical University



shaxzoda2878@mail.ru

https://orcid.org/0009-0008-9682-3576

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ НА ОСНОВЕ ИМИТАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СЕСТРИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

[1]Хамидова Фарангиз Уктамовна, Студентка 2-го курса магистратуры, кафедра общественного здравоохранения и управления здравоохранением Самаркандский государственный медицинский университет

[2]Рузимуротова Юлдуз Шомуротовна, Ассистент, кафедра общественного здравоохранения и менеджмент здравоохранением Самаркандский государственный медицинский университет

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hamshiralik ta'limida simulyatsion texnologiyalar yordamida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot obyekti sifatida Siyob Abu Ali ibn Sino Jamoat salomatligi texnikumi talabalari tanlab olingan bo'lib, o'quv jarayonida an'anaviy va simulyatsion metodlarning samaradorligi qiyosiy tahlil qilingan. Tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatadiki, simulyatsion mashg'ulotlar talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish darajasini 23% ga oshirgan hamda ularda klinik ishonch va psixologik tayyorgarlikni shakllantirgan.*

Kalit so'zlar: *hamshiralik ishi, simulyatsion texnologiyalar, klinik kompetensiya, professional ta'lim, tibbiy manekenlar, malaka oshirish, tajriba-sinov, tibbiy ta'lim samaradorligi.*

Abstract: *This article discusses the issues of forming students' professional competencies using simulation technologies in nursing education. Students of the Siyob Abu Ali ibn Sino Public Health Technical School were selected as the object of the study, and the effectiveness of traditional and simulation*

methods in the educational process was analyzed comparatively. The results of the experimental study show that simulation exercises increased the level of students' application of theoretical knowledge to practice by 23% and formed clinical confidence and psychological readiness in them.

***Key words**: nursing, simulation technologies, clinical competence, professional education, medical mannequins, advanced training, experimental study, effectiveness of medical education.*

***Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы формирования профессиональных компетенций студентов с использованием симуляционных технологий в сестринском образовании. В качестве объекта исследования были выбраны студенты Технического училища общественного здравоохранения им. Сияба Абу Али ибн Сино, и проведен сравнительный анализ эффективности традиционных и симуляционных методов в образовательном процессе. Результаты экспериментального исследования показывают, что симуляционные упражнения повысили уровень применения студентами теоретических знаний на практике на 23% и сформировали у них клиническую уверенность и психологическую готовность.*

***Ключевые слова**: сестринское дело, симуляционные технологии, клиническая компетентность, профессиональное образование, медицинские манекены, повышение квалификации, экспериментальное исследование, эффективность медицинского образования.*

KIRISH. Bugungi kunda tibbiy ta’lim tizimini isloh qilish va bo‘lajak hamshiralarining amaliy kompetensiyalarini oshirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Hamshiralik ishi nafaqat nazariy bilimlarni, balki yuqori darajadagi klinik ko‘nikmalarni va qaror qabul qilishda aniqlikni talab etadi. An’anaviy o‘qitish metodlarida asosiy muammo shundaki, talabaning nazariy bilimi yetarli bo‘lsa-da, real bemor bilan ishlash jarayonida qaror qabul qila olmaslik va kuchli hayajon holatiga tushishdir. Ushbu muammoni bartaraf etishda simulyatsion texnologiyalar integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Simulyatsion o‘qitish — bu talabalarga xavfsiz muhitda, bemor hayotiga xavf solmasdan, xato qilish va o‘z xatosini tahlil qilish imkonini beruvchi zamonaviy metodologiyadir.

Mazkur tadqiqot Siyob Abu Ali ibn Sino Jamoat salomatligi texnikumi talabalari misolida simulyatsion texnologiyalarning klinik kompetensiyalarni shakllantirishdagi samaradorligini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u zamonaviy tibbiy uskunalardan foydalanishda qo‘rquv hissini yengish va bilimlarni qisqa muddatli xotiradan uzoq muddatli professional xotiraga o‘tkazish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Material va metodlar. Tadqiqotning xolisligini ta’minlash maqsadida Siyob Abu Ali ibn Sino Jamoat salomatligi texnikumi talabalari tanlab olindi. Tadqiqot to‘rt bosqichda amalga oshirildi: I bosqich: Muammolarni o‘rganish (So‘rovnoma va intervyu). II bosqich: Eksperimental guruhlarni shakllantirish (Nazorat va Tajriba guruhlari). III bosqich: Samaradorlikni tahlil qilish (Test va Ekspert baholash). IV bosqich: Tavsiyalar ishlab chiqish va ma'lumotlarni raqamli tahlil qilish. Sotsiologik usul orqali 66 nafar talaba ishtirokida 27 ta savoldan iborat so‘rovnoma o‘tkazildi. Bu talabalarning subyektiv fikrlari va simulyatsiyadan oldingi ko‘nikma darajalarini aniqlashda yordam berdi. Talabalar ikki guruhga ajratildi, nazorat va tajriba guruhlari: Nazorat guruhi: An’anaviy metodlar asosida ta’lim oluvchilar. Tajriba guruhi: O‘quv jarayoniga simulyatsion mashg‘ulotlar integratsiya qilingan talabalar. Keyingi bosqichda test baholash usulidan foydalanildi. Ekspert baholash usuli orqali 10 nafar tajribali mutaxassis-o‘qituvchilar tomonidan talabalarning amaliy ko‘nikmalari baholandi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni yaqqol ko‘rsatdiki, simulyatsion texnologiyalar oddiy texnik vosita emas, balki yosh mutaxassisning professional shaxs sifatida kamol topishida muhim turtki beruvchi kuchdir. Bilim darajasidagi sifat o‘zgarishi tahlil qilinganida test natijalariga ko‘ra, an’anaviy guruhda o‘sish 12% ni tashkil etgan bo‘lsa, simulyatsion guruhda bu ko‘rsatkich 35% ga yetdi. An’anaviy ta’limda talaba ma’lumotni passiv qabul qilishi aniqlandi. Simulyatsion guruhda esa harakat orqali **o‘**rganish tamoyili ishlashi aniqlandi Ushbu jarayonda talaba xato qildi, xatosini ekranda k**o‘**rdi va uni darhol tuzatdi. Bu esa bilimlarning qisqa muddatli xotiradan uzoq muddatli professional xotiraga **o‘**tishini ta’minladi.

Klinik k**o‘**nikmalarni baholashda ikki guruh **o‘**rtasida tub burilish kuzatildi, ya’ni: Nazorat guruhi: Talabalar muolajani bajarishda ketma-ketlikni eslashga qiynaladilar, har bir harakatda ikkilanishlari seziladi. Bu real bemor bilan ishlashda xavfli b**o‘**lishi mumkin.

Tajriba guruhida: Simulyatorlar yani mulyajlar bilan ko‘p marotaba takrorlash natijasida harakatlar "mushak xotirasi"ga muhrlangan. Talaba endi shprisni qanday ushlayman? deb emas, bemor bilan qanday muloqot qilaman? deb o‘ylashni boshlaydi. 10 nafar tajribali ekspert-o‘qituvchilarning xulosasiga ko‘ra, simulyatsion guruh talabalari "bemor" (maneken) bilan muloqot qilishda ancha erkin va professional etika qoidalariga rioya qilgan holda yondashdilar. Tajriba guruhi zamonaviy tibbiy uskunalardan foydalanishda qo‘rquv hissini yengib o‘tishgan, bu esa ularning kelajakda yuqori texnologiyali klinikalarda ishlash imkoniyatini oshiradi. An’anaviy o‘qitish usuli (Nazorat guruhi) va zamonaviy simulyatsion o‘qitish usuli (Tajriba guruhi) o‘rtasidagi farqlar tahlil qilinganda Nazorat guruhi faqat ma'lumotlarni yodlash bilan cheklangan bo‘lsa, tajriba guruhi bilimlarni amalda qo‘llashni o‘rgangan va 23% yuqori samaradorlik ko‘rsatgan. Simulyatsion mashg‘ulotlar talabalarda stress-tes vazifasini o‘tab, ulardagi qo‘rquvni yo‘qotgan hamda bemor bilan ishlashda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirgan. An’anaviy usulda xatolar bahoga salbiy ta’sir qiluvchi omil deb ko‘rilsa, tajriba guruhida xatolar o‘rganish vositasiga aylantirilgan va psixologik xavfsiz muhit yaratilgan. Tajriba guruhi a’zolari amaliy muolajalarni ancha tez va aniq bajarishga erishgan, bu esa bevosita klinik samaradorlikning ortishiga xizmat qiladi.

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, simulyatsion texnologiyalarning hamshiralik ta’limiga integratsiyasi talabalarning klinik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra an’anaviy ta’limda asosiy muammo shundaki, talabalarda nazariy bilimlar mavjud bo‘lsa-da, real bemor bilan ishlashda "klinik falajlik" holatiga tushishadi. Tajriba guruhida bilim o‘sishi 35% ni tashkil etadi, bu esa simulyatsiyaning kognitiv yuklamani optimallashtirish xususiyati bilan izohlanadi. Simulyatorda xato qilgan talaba o‘z xatosini darhol tahlil qilishi va tuzatishi mumkin, bu esa "ikki tomonlama o‘rganish" effektini yuzaga keltiradi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, 56,9% talaba stress sezmagan, bu simulyatsion muhitning "psixologik xavfsizlik" konsepsiyasiga mos keladi. Klinik amaliyotda talabaning xatosi bemor hayotiga xavf solishi mumkin, bu esa kuchli qo‘rquvni keltirib chiqaradi. Simulyatorda esa xato qilish huquqi talabaga o‘z harakatlarini erkin tahlil qilish imkonini beradi, bu esa tajriba guruhida klinik ko‘nikmalarning "avtomatlashgan" darajaga yetishiga olib keladi. Tadqiqotda aniqlangan muhim jihatlardan biri — foydalanilayotgan vositalar tarkibi. Elektron doska va kompyuterlar (32,3%) ustunlik qilsa-da, klinik senariylar (18,5%) ulushi nisbatan past. Bu texnikumda texnologik jihozlanish yaxshi ekanligini, lekin "senariy asosida o‘qitish" metodikasini yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Faqatgina fantomda muolaja bajarish texnik mahoratni oshiradi, ammo murakkab klinik ssenariylar talabalar tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Yosh talabalar interaktiv va vizual ma’lumotlarni tezroq qabul qilishadi. So‘rovnomada 23,1% talabaning olingan ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llashda qiynalayotgani simulyatorlar va real klinika o‘rtasidagi haqiqiylik darajasini oshirish kerakligini ko‘rsatadi. Bu holat simulyatsiya xonalarini kasalxona palatasiga maksimal darajada o‘xshatish zarurligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu texnologiyalarning qo‘llanilishi talabalarning bilim samaradorligini an’anaviy metodga nisbatan taxminan 3 barobar oshirgan.

XULOSA. Siyob Abu Ali ibn Sino Jamoat salomatligi texnikumida o‘tkazilgan tadqiqot hamshiralik ta’limida simulyatsion texnologiyalarning klinik kompetensiyalarni shakllantirishdagi yuqori samaradorligini tasdiqladi. Tadqiqot davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

Simulyatsion texnologiyalar integratsiya qilingan tajriba guruhida bilim o‘sishi an’anaviy guruhga nisbatan 23% ga yuqori bo‘ldi. Bu talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini ham sinxron rivojlantiradi.

Talabalarning 56,9 foizi mashg‘ulotlar davomistda o‘zini erkin va xavfsiz his qilishi simulyatsiyaning "xato qilish orqali o‘rganish" tamoyili talabalardagi psixologik to‘siqlarni

(bemorga zarar yetkazish qo‘rquvini) muvaffaqiyatli yengib o‘tishini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta’lim to‘g‘risida: O‘RQ-637-son 23.09.2020. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2020.
2. Jeffries, P. R. Simulation in nursing education: From conceptualization to evaluation / P. R. Jeffries. – 3rd ed. – New York: National League for Nursing, 2020. – 280 p.
3. Kolb, D. A. Experiential learning: Experience as the source of learning and development / D. A. Kolb. – New Jersey: FT Press, 2014. – 352 p.
4. Gaba, D. M. The future vision of simulation in health care / D. M. Gaba // Quality and Safety in Health Care. – 2004. – Vol. 13, № 1. – P. 2–10.
5. Shavkatova, G. Sh. Hamshiralik ishi ta’limida simulyatsion o‘qitish usullari / G. Sh. Shavkatova // Tibbiyotda yangi kun. – Toshkent, 2023. – № 4 (42). – B. 115–118.
6. Liaw, S. Y. Effective simulation activities for nursing students: An iterative design process / S. Y. Liaw, F. G. Chen, P. Cregan // Journal of Nursing Education. – 2014. – № 53. – P. 424–432.
7. Abduvaliyev, A. A. Tibbiy ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash / A. A. Abduvaliyev. – Toshkent: Fan, 2022. – 156 b.
8. World Health Organization. WHO guidelines on basic training and safety in nursing education. – Geneva: WHO Press, 2021. – 98 p.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 94.(575.3)

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TURKISTON AHOLISINING IJTIMOIY HAYOTI BORASIDAGI QARASHLARI

Ochilova Gulmira Mardonovna, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti katta ilmiy xodim, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

MAHMUDHODJA BEHBUDI'S VIEWS ON THE SOCIAL LIFE OF THE POPULATION OF TURKESTAN

Ochilova Gulmira Mardonovna, Senior Researcher, Institute of History, Academy of Sciences of Uzbekistan, Doctor of Philosophy in Historical Sciences

ВЗГЛЯДЫ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ НА СОЦИАЛЬНУЮ ЖИЗНЬ НАСЕЛЕНИЯ ТУРКЕСТАНА

Очилова Гульмира Мардоновна, старший научный сотрудник Института истории Академии наук Узбекистана, доктор исторических наук

https://orcid.org/ 0009-0002-0069-1430
e-mail: ochilovagulmira86@gmail.com

Annotatsiya: *19-yuzyillikning oxiri 20-yuzyillik boshlarida Turkistondagi aholi soni, yurt bo‘yicha tarqalgani, zichligi, etnik tarkibi, ijtimoiy qatlamlar, aholining ijtimoiy ahvoli, boylar, kambag‘allar, ijtimoiy himoya tizimi, uning huquqiy asoslari va kundalik hayot masalalarida Mahmudxo‘ja Behbudiyning qarashlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudiy, Turkiston, aholi soni, etnik tarkibi, ijtimoiy qatlamlar, ijtimoiy ahvol, boylar, kambag‘allar, ijtimoiy himoya tizimi.*

Abstract: *The article analyzes Mahmudkhodja Behbudi’s views on the population size, distribution, density, ethnic composition, and social stratification of Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, as well as the social status of the population, the divide between the rich and poor, the social protection system, its legal foundations, and matters of daily life.*

Key words: *Mahmudkhodja Behbudiy, Turkestan, population size, ethnic composition, social strata, social status, the wealthy, the poor, social protection system.*

Аннотация: *В данной работе анализируются взгляды Махмудходжи Бехбуди на численность населения Туркестана в конце XIX — начале XX веков, его территориальное распределение, плотность, этнический состав, социальные слои, а также социальное положение населения, включая вопросы богатства и бедности, систему социальной защиты, её правовые основы и проблемы повседневной жизни.*

Ключевые слова: *Махмудходжа Бехбуди, Туркестан, численность населения, этнический состав, социальные слои, социальное положение, богатые, бедные, система социальной защиты.*

Kirish. 19-yuzyillikning oxiri 20-yuzyillik boshlarida Turkistondagi aholi soni, etnik tarkibi, ijtimoiy qatlamlar, aholining ijtimoiy ahvoli, uning huquqiy asoslarini yaratish bo‘yicha Mahmudxo‘ja Behbudiyning harakatlari 1907-yilda Turkiston xalqining ijtimoiy-siyosiy huquqini himoya qilish maqsadida chor hukumati III Davlat Dumasining musulmon fraksiyasi a’zolari e’tiboriga o‘zining Turkistonning ichki boshqaruv tizimini isloh etish loyihasini taqdim etishi bilan boshlanadi. Bu loyihaning quyidagi bo‘limlari ijtimoiy masalalarga bag‘ishlanadi:

5-bo‘limi “Idorai ruhoniya va doxiliya tasarrufidagi ishlar” qismida ko‘tarilgan ijtimoiy masalalar:

25. Meros-valodat, usubat-hazonat, nikoh-taloq, sig‘or-laqit, ro‘zg‘or va oila ishlari;

26. Masjid, madrasa, maktab, vaqf va xayrot, vasiyat ishlari va bularni mutavvali va nozirlari va har nav diniy va dunyoviy tahsil programmi va tartibini vaz’i maktab va madrasalar bunyod etdirmoq.

27. Turkiston qozilarina shar’iy va urfiy va tijoriy va zamonaviy ishlarni so‘ramoqlari uchun jazo va dasturulamal qonunnomalarni tasnif etmoq.

28. So‘filik va xonaqohdorlik, muridgarliklarni hurriyati vijdonga mug‘oyir emas suratdag‘a tatbiq qilmog‘i va bu yo‘l bilan avomni xurofot va turohot va ziyoi avqotdan hifz etmoq;

29. Urf va rasm ila joriy odati qabihalarni tadrijiy yo‘q bo‘lishiga sa’y etmoq va tadbir qilmoq;

9-bo‘limi – Turkiston yahudiylari va ajnabiylari. [1]

M.Behbudiyning ijtimoiy masalada Turkiston aholisi va ijtimoiy qatlamlari to‘g‘risida asarlarida keltirgan ma’lumotlari ahamiyatlidir. Ma’lumki, Rus qo‘shinlarining 1865-yildan bosh-langan bosqinlari natijasida Turkiston xonliklariga tegishli bo‘lgan hududlar egallanib, 1867-yilda “Turkiston generel-gubernatorligi” tashkil topgan-dan keyin bu hududlarda yashovchi aholi soni, ularning yurt bo‘ylab tarqalganligi, etnik tarkibi to‘g‘risida turli ma’lumotlar paydo bo‘la boshlaydi. Shu yillardagi rus manbalariga qaralsa Turkiston aholisi 5 259 406 nafardan iborat bo‘lgan [2].

1897-yilda rus hukumati buyrug‘i bilan Turkiston aholisini birinchi umumiy ro‘yxatga olish amalga oshiradi. Bu jarayon va uning natijalari haqida Maxmudxo‘ja Behbudiy quyidagicha ma’lumot berib o‘tadi: “1897-yilinda Rusiya hukumati amri ila umumi tahriri nufus bo‘lub edi. Ammo bu tarafdan, ro‘yxatchi mirzolarning tanballigi, digar tarafdan musulmonlarni “Rusiya hukumati askar oladur” yoinki “jon boshidan soliq oqcha oladur” deb haqiqiy adadni ko‘rsatmaganlari sababli hisobni natijasi oz zohir bo‘lgandur [3].

1908-yili “Sho‘ro” jurnalida e’lon qilingan “Turkiston idorasi” nomli maqolasida Turkiston aholisini shunday ta’riflaydi: “Turkistonda libos, mazhab, til tavofutsiz bir tarzda bo‘lub, istilohlarina ko‘ra shaharda bo‘lganlar o‘zbek, turkman va sahroda mol boqib yuruvchilari qirg‘iz va qozoq deya atalurlar. Mazhab va e’tiqod, urf va odat masalasida bir biridan farqlari va begonaliklari aslo yo‘qdur [4].

Ijtimoiy qatlamlar bo‘yicha Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z asarlarida an’anaviy qatlamlar dehqonlar, savdogarlar va hunarmandlarning ahvoli haqida yozishdan ko‘ra yangi zamonaviy kasb egalarini tayyorlash kerakligini ko‘tarib chiqadi va ularning turmushdagi o‘rnini izohlaydi: “na takror qilayluk, bizg‘a musulmon do‘qturi kerak, azbaski rusiya va yahudiy do‘qturi oz va bizg‘a kifoya etmaydur. Oning birining tilidan bexabarmiz, bizg‘a musulmon zakunchi huquqshunos lozim.

Diniy qatlam vakillari, qozilar haqida ko‘proq ma’lumotlar bergan. Qozilar va ularning mustamlaka davridagi mavqei masalasini Mahmudxo‘ja Behbudiy “Bizga isloh kerak” nomli maqolasida yozadi. U qozilik va boshqa vakolatli lavozimlarga poraxo‘r, noloyiq shaxslar saylanishi natijasida iste’dodli ulamolar chetda qolib ketganligini qayd etgan. Muallifnnig o‘zi ham qozi lavozimida vaqtida ijtimoiy masalalar hisoblangan taloq, nasab, meros, vasiyat, mulk, savdo-sotiq va boshqa ishlarni “Muin al-hukamo”, “Sharhul-muxtor”, “Dorul muxtor”, “Raddul muxtor”, “Taxtaviy”, “Majma’ al-anhor”, “Xasab al-mufti”, “Axkom al-sharqiya”, “Olamgiriya”, “Quniya”, “Jami’ al-romuz”, “Qozixon”, “Sarojiy”, “Hamidiya”, Xayriya”, “Komiliya”, “Anqoravi”, “Fusuli amodi” kabi islom fiqhi va fatvo manbalariga tayangan holda ko‘rib chiqqanligini aytib o‘tadi [5].

Turkistondagi qozilar bilan birga ko‘chmanchilardagi biylar haqida ma’lumot berib, ularning ish uslubi bilim darajasi haqida “Qozilarni hukmi shariat ya’ni (fatvoyi) kitoblarig‘a binoan, biylarniki esa (odat)g‘a binoan bo‘lur. Qozilarg‘a oyat va hadisdan biylarga fatviydan dalil kelturilsa har erdagi kabi eshitmaydurlar. Qozilar ichinda ahli ilm bor va barchasi ahli savoddur. Ammo biylarni aksari savodsiz va har shaydan bexabar kishilardur” deydi[6].

Aholining maishiy turmushi borasida 20-yuzyillik boshlaridagi vaziyatni tahlil qilgan M.Behbudiy, aksariyat odamlarning hayoti og‘ir, qashshoqlikda o‘tayotganining asosiy sababi unda davom etib kelayotgan marosimlar, urf-odatlar deb hisoblaydi va bunga o‘zining dalillarini keltiradi. Bir o‘luk ko‘msa, besh-olti yuz so‘m xarj etar. Hatto, olti oylik balasini sochini olganda va yo olti

kunlik balasini beshikg‘a bog‘laganda bir-ikki yuz so‘m sarf etar. Fotiha, chanladi, dubora-tatabon, kalutapo‘shon, mo‘ylabgiron va boshqalarini nari qo‘yduk, xulosa, bechora o‘n ming so‘mlik mulkdor qaraydurki, ish bo‘lmaydur. O‘g‘ul va qizlar katta bo‘lub turubdur. To‘y lozim, xatna, nikoh, uning orqasidan keti uzulmas bir suruk ma’raka va qoidalar lozim. Ko‘bdan chiqib bo‘lmaydur [7].

20-yuzyillik boshida aholi maishiy turmushida to‘y, aza, turli rasm-rusumlarning o‘tkazilishi, undagi isrofgarchiliklar, ularning xalq turmush tarziga olib kelayotgan qiyinchiliklari haqidagi ijtimoiy masalani matbuot va turli adabiy asarlar orqali yoritish yuqori o‘ringa chiqadi. Islom dini va shariat qoidalariga zid bo‘lgan tarzda o‘tkaziladigan turli marosimlar aholining yashash darajasi qiyinlashib borishiga olib keladi. Jamiyatdagi bu kabi aholi boshiga tashvish olib keladigan jarayonlarni kamaytirish borasida jadidlar o‘zlarining asarlarida muntazam yozib borishadi.

Turkistonliklarning aza marosimini M.Behbudiyning tanqid qilib, bu ishlarning diniy qoidalarga mos kelmasligini ham asoslab beradi: “Bir shaharda yahudiylar ba’zan o‘luklarini oqshom eltib ko‘marlar. Na uchun? Kunduzi ishdan qolarlar. Biz bo‘lsa, o‘luk va to‘y uchun haftalar, hatto, oylar ila ishdan qolurmiz. Holbuki, shore’i a’zam, payg‘ambari akram sallollohi alayhi vasallam hazratlari o‘lganni tez ko‘mub va ko‘mgandan so‘ngra tez tarqalib, ishg‘a ketmoqg‘a va o‘lukxona xalqini uch kundan ziyoda ta’ziya tutmasg‘a, qaro kiymasg‘a, kir, falokat bo‘lmasg‘a amr etarlar”[8].

Mahmudxo‘ja Behbudiy “Bizni kemirguvchi illatlar” maqolasida to‘y masalasida “Nikoq, xatna, bu ikki balo shundog‘ qattiq bir illatki, o‘lmaguncha qutulib bo‘lmaydur. Shaharlarda o‘rtahol, ya’ni o‘turarg‘a xona va bog‘i bor bir kishi nikoh uchun ikki ming so‘m sarf etar va o‘g‘ul xatnasi uchun hech bo‘lmaganda ming so‘m. Har bir benavo kishi bu mavridlarga 200 so‘mdan 10000 so‘mgacha sarf etar. Boy va zo‘raki boylar esa besh ming, o‘n minglab sarf etar” deya Turkistondagi odatlarning aholi ijtimoiy hayotiga ko‘rsatayotgan ta’sirini qayd etadi. Bu qilingan sarf xarajatlarni qoplash uchun do‘konchi, kosib va boshqa o‘rtahol kasb egali yerlari va boshqa mulklarini armani, yahudiylarga sotib o‘zlari tirikchilik manbaisiz qolayotganligini keltiradi. Shu o‘rinda muallif bundan 50 yil oldin yer mulk sotilsa uni musulmonlar olganligi, mustamlaka davriga kelib ahvol shunga kelganki, musulmonlar bu mulklarni olish uchun yetarli mablag‘ga ega bo‘lmaganligidan ular boshqa millatlar qo‘liga o‘tib ketayotligini, ahvol shu tarzda davom etsa yana 20-30 yildan keyin xalqning yarmi mulksiz, yersiz bo‘lib qolishini aytadi. Bu holat o‘zining yashab turgan davridanoq sodir bo‘la boshlaganiga “Samarqandda bir mahalla borki, aksar xalqi faqru zaruratdan, to‘g‘risi, aql noqisligidan havlilarini pulg‘a qiziqib yahudiylarg‘a sotgan uchun mahallag‘a oz musulmon qoldi. Mahalla maktabi yo‘q bo‘ldi. Masjidi-da yaqinda yo‘qolur” degan misolni keltiradi [9].

Xulosa qilib aytganda 19-yuzyillik oxiri – 20 yuzyillik boshida Turkistondagi ijtimoiy masalalar barcha jadidlar singari M.Behbudiy tomonidan ham ko‘p bora yozilgan. Uning asarlari va maqolalarida ijtimoiy hayotga nisbatan tanqidiy munosabat bildirilgan bo‘lsa ham bu mustamlaka hukumatining siyosati oqibati ekanligiga ishora qilib o‘tiladi. Buni maqolalardagi “bundan 50 sana muqaddam” yoki “ilgari zamonlarda” deya ijobiy baholangan hodisalarning so‘nggi yillarda o‘zi ko‘rsatib o‘tgan holatga kelib qolganini bildiruvchi fikrlari ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent, 2018. - B. 137-141.
2. Гейер И.И. Путеводитель по Туркестану. 1-е изд. – Ташкент, 1901. – С. 5-6.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 2009. – B. 156. “Oyina” jurnali 1913-yil 1-son. – B. 2-5.
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy Biz Turkiston musulmonlarining huquq su’iiste’molimiz // “Samarqand” gazetasi, 1913-yil 31-may. 14-son. Sirojiddin Ahmad. Mahmudxo‘ja Behbudiy.-B.395.
5. Bexbudiy M. Bizga isloh kerak // “Najot” gazetasi. 1917-yil 7-noyabr.
6. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Biz Turkiston musulmonlarining huquqi su’iiste’molimiz // Mahmudxo‘ja Behbudiy. Sirojiddin Ahmad. – Toshkent, 2024. – B. 393.
7. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Zo‘raki boy // “Oyina” jurnali, 1914-yil 16-son. – B. 270-273.
8. M.Behbudiy. Bizni kemirguvchi illatlar // “Oyina” jurnali, 1915-yil 13-son. – B. 338-342.
9. M.Behbudiy. Bizni kemirguvchi illatlar // “Oyina” jurnali, 1915-yil 13-son. – B. 338-342.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 373.1

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH SAVODXONLIGINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Usarova Marg‘uba Nazar qizi, Osiyo texnologiyalar universiteti, Pedagogika kafedrasi dotsenti, Pedagogika fanlari falsafa doktori, (PhD)

DEVELOPING READING LITERACY IN PRIMARY GRADES BASED ON INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS

Usarova Marguba Nazar kizi, Associate Professor of the Department of Pedagogy, Asian University of Technology, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

РАЗВИТИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРОГРАММ ОЦЕНКИ

Усарова Маргуба Назар кызы, Азиатский технологический университет, доцент кафедры педагогики Азиатского технологического университета, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

https://orcid.org/ 0009-0007-0373-0665

e-mail: margubahumoyun@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari xalqaro baholash dasturlari talablari nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Maqolada matnni tushunish, tahlil qilish, talqin etish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar, interfaol metodlar hamda kompetensiyaviy topshiriqlar tizimi tavsiya etiladi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim jarayonida xalqaro mezonlarga mos o‘qish savodxonligini shakllantirish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘qish savodxonligi, xalqaro baholash, PIRLS, PISA, kompetensiyaviy yondashuv, boshlang‘ich ta’lim, matn bilan ishlash, reflektiv o‘qish.*

Abstract: *This article examines the theoretical and practical foundations for developing reading literacy in primary education based on the requirements of international assessment programs. The study analyzes the frameworks of PIRLS and PISA in fostering students’ abilities to understand, interpret, and evaluate texts. Methodological recommendations are provided for implementing competency-based instruction, interactive strategies, and text-centered learning tasks in primary classrooms. The findings highlight that aligning reading instruction with international benchmarks enhances students’ independent thinking skills and lifelong learning competencies.*

Key words: *reading literacy, international assessment, competency-based approach, primary education, text analysis, critical thinking.*

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретические и практические основы развития читательской грамотности в начальных классах с учётом требований международных программ оценки качества образования. Анализируются подходы PIRLS и PISA к формированию навыков понимания, интерпретации и оценки текста. Предлагаются методические рекомендации по организации учебного процесса на основе компетентностного подхода, использования интерактивных методов и текстоориентированных заданий. Делается вывод о том, что*

ориентация на международные критерии способствует формированию у младших школьников устойчивых читательских компетенций и критического мышления.
Ключевые слова: *читательская грамотность, международная оценка, компетентностный подход, начальное образование, работа с текстом, критическое мышление.*

KIRISH. Globallashuv va axborot oqimining keskin ortib borishi sharoitida o‘qish savodxonligi shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi va ta’lim jarayonidagi yutuqlarining muhim ko‘rsatkichiga aylanmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchidan nafaqat matnni o‘qish, balki uni anglash, tahlil qilish, baholash va hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish kompetensiyasini talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro baholash dasturlarining mezonlari milliy ta’lim tizimini takomillashtirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Dunyo mamlakatlari ta’lim sohasidagi tadqiqotlarda o‘qituvchi va o‘quvchilarning ta’limdagi ishtirokini oshirish muammosiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘quvchilarning intellektual salohiyati, o‘quv materiallarini o‘qib tushunish darajalarini baholashga qaratilgan PISA va PIRLS xalqaro baholash dasturlari boshlang‘ich ta’lim sifatini tavsiflashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, ilmiy jamoatchilikning bugungi eng dolzarb masalalaridan biri bu shaxs faoliyati. Bu shuni anglatadiki, o‘qituvchining ta’lim maqsadlariga erishish va jamiyat uchun muhim shaxslarni yaratish kabi vazifalar doimo muhim bo‘lib qoladi.

Xalqaro baholash dasturlarida o‘qish savodxonligi keng qamrovli tushuncha sifatida talqin etiladi. PIRLS dasturida asosiy e’tibor boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy va axborot matnlarini tushunish darajasini aniqlashga qaratiladi. PISA esa o‘quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda matn bilan ishlash qobiliyatini o‘lchaydi. Unda funksional savodxonlik, ya’ni o‘qilgan ma’lumotni amaliy vazifalarda qo‘llash muhim o‘rin tutadi.

“Dars jarayonlarini qiziqarli tashkil etish uchun o‘quv-tarbiya jarayonlariga interfaol ta’lim metodlarini joriy etish va bu orqali ta’lim mazmunini boyitish orqali erishish mumkin”[1]. Ammo o‘z o‘quv modelini ishlab chiqish va uni ta’lim jarayonida qo‘llash har doim ham oson bo‘lavermaydi. Xususan, bu jarayon pedagogdan fidoyilik, mehnatsevarlik va izlanuvchanlikni talab qiladi. Darsda o‘quvchilarni faollashtirish, ta’lim jarayonini qiziqarli darajaga olib chiqishda muammoli topshiriqlar, muayyan so‘z yoki iborani aniqlashga qaratilgan mashqlar, o‘yinlarning ham o‘z o‘rni bor, albatta. Rus pedagogikasi va psixologiyasda M.A.Drujinina, L.N.Vavilova, T.S.Panina, S.A.Xarchenko, M.G.Golubchikova kabi olimlar aynan kichik maktab yoshidagi bolalar ta’limi uchun unterfaol darslarni tashkil etish muammosiga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borganlar[2].

Bugungi kunda o’quvchilarning ota-onalari pedagogik vositalar va ishtirok etish usullari bilan ko‘proq qiziqishmoqda. Chunki yangi metodlarning ba’zilarida ota-onalar ta’lim jarayonining kuzatuvchilari, ekspertlari va hatto, ishtirokchilari maqomida harakat qilishlariga to‘g‘ri kelmoqda. Loyiha asosida o'qitish usullari, masalan, maxsus o‘quvchi-tayyorlangan loyihalarda ishtirok etish uchun ota-bobolaringizni rag‘batlantirish. “Loyihaga asoslangan ta’lim o‘quvchilarga chuqur bilim, shuningdek, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, ijodkorlik va muloqot kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. O‘quvchilar va o‘qituvchi orasidagi ijodiy energiyani ochib berish bilan mashhur bo‘lib, bu o‘quvchilarning faolligini oshirishga va hamma

[1] Рудакова С.А. Использование игровых технологий в период обучения в начальной школе // Проблемы педагогики, 2019. – С.19.

[2] Дружинина М.А. Это наш весёлый класс! Рассказы. – Москва: Азбука-Аттикус, 2022. – 168; Дружинина М.А. Забавная азбука. – Москва: ОЛМА-Пресс, 2000. – 63 с; Дружинина М.В. Мои уроки: стихи, загадки, головоломки, путаницы, считалки. – Москва: Дрофа-Плюс, 2004. – 63 с; Вавилова Л.Н., Панина Т.С. Интерактивное обучение // Образование и наука, 2007. №6 (48). – С.32-33; Панина Т.С., Вавилова Л.Н. Современные способы активизации обучения, - Москва: Acdemia, 2006. – 176 с; Голубчикова М.Г. От творчества учителя – к творчеству ученика: путеводитель по продуктивному обучению. – Иркутск: ГОУ ВПО, 2004. – 98 с.

uchun o‘quv natijalarini yaxshilashga olib keladi”[3]. Bir chorak davomida o‘quvchi loyiha ishi(bu audio matn, intervyu, kichik lug‘at, videorolik, tajriba bo‘lishi mumkin) ustida ish olib boradi. Tayyorlangan loyiha o‘qituvchi tomonidan baholanadi.

TADQIQOT NATIJALARI. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda samarali natija beradi:

1. Savol-topshiriqlar tizimini takomillashtirish – reproduktiv savollardan tashqari, tahliliy va baholovchi savollarni ko‘paytirish.
2. Interfaol metodlardan foydalanish – “Yalpi fikriy hujum”, “Qora quti”, “Zakovat”, “Zig-zag”, “Klaster”, “Bumerang” kabi metodlardan foydalanish orqali o‘quvchining nazariy bilimlarni puxta o‘zlashtirishini ta’minlash.
3. Hayotiy kontekstga asoslangan topshiriqlar – real vaziyatlarga oid matnlar bilan ishlash.
4. Reflektiv yondashuv – o‘quvchining o‘z o‘qish strategiyasini tahlil qilishi va baholashi.

Pedagog dars jarayonining turli qismlari uchun har xil metodlardan foydalanishi mumkin. Zero, takrorlash, yangi mavzuni bayon qilish, mustahkamlash, o‘tilgan mavzuni so‘rash jarayonlarining har biri uchun mos keluvchi interfaol metodlar va o‘yinlar mavjudki, ularni o‘z o‘rnida qo‘llay olish pedagogning mahoratiga bog‘liq. Masalan, “Algoritm”, “Kamalak”, “Archa”, “Klaster”, “Aql charxi”, “So‘zlarni top” metodlari o‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun juda qulay hisoblanadi[4]. Interfaol metodlar vositasida ta’lim beruvchi o‘quvchining rivojlanishi, bilim olishi, tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, bu jarayonda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Shu sababli darsning qaysi boshqichida qanday metoddan foydalanishni aynan uning o‘zi belgilaydi. Muayyan bosqich uchun samarali bo‘lgan metodning tanlanishi dars mashg‘ulotining qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. Boshqacha aytganda, dars bosqichlarining har biriga mos metodlarni qo‘llash pedagogning ta’lim maqsadiga oson erishishiga yordam beradi, ta’lim oluvchilar diqqatining jamlanishi, faolliklariga sabab bo‘ladi.

O‘qish savodxonligi mashq daftarida topshiriq sifatida berilayotgan sinkveynlar ham o‘quvchining nutqiy malakasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Sinkveynda ot turkumiga mansub so‘z, sifat, fe’l (harakat), shu mazmundan kelib chiqib gap, yuqorida keltirilgan otga ma’nodosh so‘zni keltirib yozish o‘quvchining ham fikr doirasini, ham yozma nutqini charxlashga xizmat qiladi.

Kim? *Ona*
Qanday?_____
Nima qiladi?_____
_Gap:_____
_
Ma’nodosh so‘z:_____

O‘quvchi (2-sinf) bu sinkveynni bajarish jarayonida muayyan kasb haqida ma’lumotga, uning kimligi, qandayligi, nima qilishi haqidagi savollarga javob berish asnosida esa ot, sifat, fe’l turkumidagi so‘zlarni farqlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Gap tuzish asnosida esa, fikrini ifodalashni o‘rganadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, o‘qish savodxonligi kitobida amaliy komponentga ega bo‘lgan boshqa turdagi topshiriqlar mavjud. Ushbu turdagi loyiha o‘quvchining mantiqiy fikrlash darajasini oshirish uchun juda muhimdir. Bunda muayyan kichik matn asosida voqealar ketma-ketligi xronologiyasi o‘rni almashtirib qo‘yiladi. O‘quvchidan matndagi voqealar ketma-ketligini to‘g‘ri joylashtirish talab etiladi. Bunday vazifalar o‘quvchining mantiqiy fikrlashini, zukkoligini, tizimlashtirish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, xalqaro dasturlar talablariga mos topshiriqlar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Savodxonlik darajasi ko‘tarilishida kitob o‘qish, ya’ni yozuvning vizual jihatlari xotirada saqlanishi asosiy o‘rin tutadi. Zamonaviy texnika

[3] Sharipov F., Salohiddinov H. Loyihaga asoslangan ta’lim // Scientific progress, 2022, Volume 3, Issue 7. – P.95-98.

[4] Xalmatova M. O‘quvchilar bilimini mustahkamlash uchun interfaol metodlar // France international scientific-online conference, Part 14, April, 2023. – P.126-129.

vositalarining rivojlanishi savodxonlik bilan bog‘liq ko‘nikmalarning shakllanishida o‘zgacha yondashuvning paydo bo‘lishiga olib keldi. Xususan, kiritish dasturlari so‘z va jumlalarning to‘g‘ri yozilishini taklif qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayonini xalqaro baholash dasturlari mezonlari bilan uyg‘unlashtirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omilidir. PIRLS va PISA talablariga mos metodik yondashuvlarni joriy etish orqali o‘quvchilarning funksional savodxonligi shakllanadi, mustaqil va tanqidiy fikrlash rivojlanadi, matn bilan ishlash kompetensiyasi mustahkamlanadi, ta’lim jarayonining natijadorligi oshadi.

Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun xalqaro baholash dasturlariga oid metodik qo‘llanmalar yaratish, o‘quv dasturlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish hamda darslik mazmunini funksional savodxonlik talablariga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Bo‘ronova N. Boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish metodikasi // Talqin va tadqiqotlar, 2022, №16. – B.75-76.

2.Jumaniyozova N. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida samarali interaktiv metodlar orqali lug‘at boyligini oshirish // Science and Education, february 2023. – P.932-935.

3. Baratov Sh. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari, – Toshkent: Universitet, 1994. – 78 b.

4. Mavlonova K. va boshq. Ona tili va o‘qish savodxonligi: 3-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: RTM, 2022. – 160 b.

5 . Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat, – Toshkent: Toshkent, 2016. – 278 b.

6. Toirova M.E. O‘qish savodxonligi 3-sinf 1-qism. Darslik. –T.: 2023, -

7. To‘xtaxodjayeva M. va boshq. Pedagogika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 400 b

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 94.(575.3)

NAVOIY VILOYATIDA BOLALAR VA O‘SMIRLAR SPORTI TARAQQIYOTINING TARIXIY TAHLILI

Ro‘ziyeva Muxlisa Bahodirovna, Navoiy Davlat Konchilik va Texnologiylar universiteti o‘qtuvchisi

ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ДЕТСКО-ЮНОШЕСКОГО СПОРТА В НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ

Рузиева Мухлиса Баходир кызы, преподаватель Навоийского государственного горно-технологического университета

A HISTORICAL ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF CHILDREN AND YOUTH SPORTS IN NAVOI REGION (UZBEKISTAN)

Ruzieva Mukhlisa Bakhodir kizi, Lecturer at Navoi State University of Mining and Technologies

roziyevamuxlisa29@gmail.com
0009-0002-0362-8090

Annotatsiya*: Maqolada Navoiy viloyatida bolalar sportining rivojlanish omillari, mavjud muammolar va istiqboldagi vazifalar ilmiy asosda tahlil qilinib, yosh avlodni jismoniy tarbiya va sportga jalb etishning tarixiy tajribasi umumlashtiriladi. Tadqiqot natijalari hududiy sport tizimi tarixini o‘rganishda hamda yoshlar sportini rivojlantirishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: “*Sportni rivojlantirish to‘g‘risidagi qonun”, rekonstruksiya, sog‘lom avlod, sport maydonchalari, ommaviy sport, ixtisoslashtirish*

Аннотация: *В статье на научной основе анализируются факторы развития детского спорта в Навоийской области, существующие проблемы и перспективные задачи. Обобщается исторический опыт привлечения подрастающего поколения к физическому воспитанию и спорту. Результаты исследования имеют важное значение для изучения истории региональной системы спорта, а также для разработки научно-практических рекомендаций по развитию молодежного спорта.*

Ключевые слова: *Закон «О спорте», Реконструкция, Здоровое поколение, Спортивные площадки, Массовый спорт, Специализация*

Annotation: *In the article, the factors influencing the development of children’s sports in the Navoi region, existing challenges, and future priorities are analyzed on a scientific basis. The historical experience of engaging the younger generation in physical education and sports is summarized. The results of the study are significant for examining the history of the regional sports system and for developing scientific and practical recommendations aimed at improving youth sports development.*

Key words*: Law on Sport, reconstruction, healthy generation, sports playgrounds, mass sport, specialization.*

Kirish. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yosh avlodni jismonan sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash dvlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Sport mashg‘ulotlari bolalarda jismoniy chiniqish bilan birga intizom, iroda, jamoada ishlash ko‘nikmalari, vatanparvarlik va sog‘lom raqobat muhitini shakllantiradi. Bugungi kunda boalar sporti nafaqat

ta’lim va tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi, balki yoshlar siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanib, jamiyatda sog‘lom turmush madaniyatini qaror toptirishga xizmat qilmoqda [1].

Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasining tashkil etilishi ushbu yo‘nalishda muhim intitutsional bosqich bo‘ldi. Mazkur jamg‘arma faoliyati boalalar va o‘smirlar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommaviylashtirish, zamonaviy sport infratuzilmasini yaratish hamda sport ta’lim tizimini mustahkamlashga xizmat qildi. Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan respublikaning shahar va qishloq hududlarida sport majmualari, universal sport zallari, suzish havzalari hamda ochiq sport maydonchalari barpo etildi. Ayniqsa, umumta’lim maktablari qoshida sport inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari bolalarni sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etishda muhim omil bo‘ldi. Natijada bolalar va o‘smirlar sport maktablari kengayib, ularning moddiy-texnik bazasi sezilarli darajada mustahkamlandi. Bu esa sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni professional sportga yo‘naltirish imkoniyatlarini kengaytirdi [2].

2003-2010-yillar davomida viloyatning shahar va tumanlarida o‘nlab universal sport zallari, ochiq sport maydonchalari hamda bolalar va o‘smirlar sport maktablari uchun maxsus binolar qurildi. Bu inshootlarning barpo etilishi bolalar sporti tizimini hududiy jihatdan kengaytirish va sport bilan shug‘ullanish uchun zarur moddiy sharoitlarni yaratishga ximat qiladi. Ayniqsa, umumta’lim maktablari qoshida sport zallarining tashkil etilishi o‘quvchilarning jismoniy tarbiya darslari va darsdan tashqari mashg‘ulotlarini sifatli o‘tkazish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirdi.

2010–2017-yillar Navoiy viloyatida bolalar sporti tizimining sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilgan davri sifatida tavsiflanadi. Agar 2002–2010-yillar asosan infratuzilmani shakllantirish va ommaviy sport harakatiga zamin yaratish davri bo‘lgan bo‘lsa, 2010-yillarning birinchi yarmi sport inshootlarini modernizatsiya qilish, ularni hududlar kesimida kengaytirish va sport maktablari faoliyatini ixtisoslashtirish jarayoni bilan ajralib turadi. Aynan shu davrda viloyat markazi hamda tumanlarda qator muhim sport obyektlari qurildi yoki rekonstruksiya qilindi [3].

Viloyat markazi — Navoiy shahrida 2011-yilda universal yopiq sport majmuasining barpo etilishi bolalar va o‘smirlar sportini rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi. Mazkur majmua yil davomida turli sport turlari — basketbol, voleybol, kurash, mini-futbol hamda gimnastika bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish imkonini berdi. Yopiq inshoot bo‘lgani sababli, mashg‘ulotlar mavsumiy sharoitdan qat’i nazar muntazam tashkil etildi. Bu esa sport maktablaridagi o‘quv-mashg‘ulot jarayonining uzluksizligini ta’minladi hamda sportchilar tayyorgarligi sifatini oshirdi.

2013-yilda Navoiy shahridagi suzish havzasining rekonstruksiya qilinishi ham bolalar sporti tizimi uchun muhim voqea bo‘ldi. Suzish sporti sog‘lomlashtirish nuqtai nazaridan muhim yo‘nalish bo‘lib, bolalar organizmini chiniqtirish, nafas olish va yurak-qon tomir tizimini mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Havzaning zamonaviy talablarga mos ravishda ta’mirlanishi natijasida mashg‘ulotlar sifati yaxshilandi, bolalar uchun xavfsiz va qulay sharoit yaratildi. Natijada suzish to‘garaklariga qatnashuvchilar soni ortdi hamda viloyatda suv sport turlariga qiziqish kuchaydi.

Zarafshon shahrida 2012-yilda sun’iy qoplamali futbol maydonining qurilishi hududda futbol sportini rivojlantirishga xizmat qildi. Sun’iy qoplama yil davomida maydondan samarali foydalanish imkonini berdi, bu esa yosh futbolchilar tayyorgarligini uzluksiz davom ettirishga sharoit yaratdi. 2015-yilda Zarafshon shahridagi bolalar va o‘smirlar sport maktabi binosining ta’mirlanishi esa sport mashg‘ulotlarini yanada tizimli yo‘lga qo‘yish imkonini berdi. Bino ichki infratuzilmasining yaxshilanishi, jihozlar bilan ta’minlanishi murabbiylar va sportchilar uchun qulay sharoit yaratdi [4].

Karmana tumanida 2014-yilda umumta’lim maktabi qoshida universal sport maydonchasining tashkil etilishi o‘quvchilarni sportga keng jalb etishda muhim ahamiyat kasb etdi. Maktab hududida sport inshootining mavjudligi bolalarning darsdan tashqari vaqtini mazmunli tashkil etish, sport to‘garaklarini muntazam o‘tkazish hamda maktablararo musobaqalarni tashkil etish imkonini berdi. Bu esa sportning ommaviylashuviga xizmat qildi.

Qiziltepa tumanida 2016-yilda kurash zalining barpo etilishi milliy sport turini rivojlantirishga qaratilgan muhim tashabbus bo‘ldi. Kurash o‘zbek xalqining an’anaviy sport turi sifatida yoshlar orasida keng tarqalgan. Maxsus jihozlangan zalda mashg‘ulotlarning yo‘lga qo‘yilishi yosh polvonlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Bu yerda muntazam ravishda tuman va viloyat miqyosidagi musobaqalar o‘tkazila boshlandi [5].

Xatirchi tumanida 2012-yilda yengil atletika sektori va ochiq stadion maydonining jihozlanishi bolalar sportini rivojlantirishda muhim o‘rin tutdi. Yengil atletika sportning asosiy va ommaviy turlaridan biri bo‘lib, tezlik, chidamlilik va jismoniy tayyorgarlikni rivojlantiradi. Stadion infratuzilmasining yaxshilanishi maktab o‘quvchilari va sport maktabi tarbiyalanuvchilarining musobaqalarda ishtirok etish imkoniyatini kengaytirdi.

Navbahor tumanida 2015-yilda bolalar sport maktabining sport zali rekonstruksiya qilindi. Ta’mirlash ishlari natijasida zal zamonaviy jihozlar bilan ta’minlandi, yoritish va isitish tizimlari yaxshilandi. Bu esa mashg‘ulotlar sifatini oshirdi va sport bilan muntazam shug‘ullanuvchi bolalar sonining ortishiga olib keldi.

Konimex tumanida 2016-yilda ochiq sport maydonchasi va mini-futbol maydonining qurilishi qishloq hududlarida sportni ommalashtirishga xizmat qildi. Avval sport inshootlari yetarli bo‘lmagan hududlarda yangi maydonchalarning barpo etilishi bolalarning sportga bo‘lgan qiziqishini oshirdi. Bu esa hududiy tenglikni ta’minlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etdi.

Tomdi tumanida 2017-yilda sport zali va trenajyor xonasining tashkil etilishi chekka hududlarda ham bolalar sportiga e’tibor kuchayganini ko‘rsatadi. Trenajyorlar bilan jihozlangan zal yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, kuch va chidamlilikni rivojlantirish imkonini berdi.

Umuman olganda, 2010–2017-yillarda Navoiy viloyatida sport infratuzilmasining hududlar kesimida kengayishi bolalar sportining ommaviylashuviga, sport bilan qamrov darajasining oshishiga hamda sportchilar tayyorlash tizimining takomillashuviga xizmat qildi. Mazkur davrda qurilgan va rekonstruksiya qilingan sport inshootlari nafaqat jismoniy tarbiya darslari sifatini oshirdi, balki iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni professional sportga yo‘naltirish imkonini ham kengaytirdi.

Shu tariqa, 2010–2017-yillar Navoiy viloyatida bolalar sporti infratuzilmasining hududiy diversifikatsiyasi, sifat jihatidan mustahkamlanishi va ixtisoslashuv bosqichi sifatida tarixiy ahamiyat kasb etdi. Mazkur bosqich keyingi yillarda ommaviy sport harakatining yanada kengayishi va sport natijalarining yaxshilanishi uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qildi.

Navoiy viloyatida bolalar sportining shakllanishi va rivojlanishi mustaqillik yillarida izchil bosqichlarida amalga oshdi. Dastlab sport to‘garaklari va bolalar- o‘smirlar sport maktablari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, yoshlarni jismoniy tarbiyaga jalb qilishga e’tibor qaratildi. Keyingi yillarda, sport infratuzilmasining kengayishi, yangi sport zallari va maydonchalarning qurilishi hamda sport maktablarining moddiy-texnik bazasining mustahkamlanishi bolalar sportining ommaviylashishiga xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.-T: O‘zbekiston nashriyoti, 2021.-464 bet.
1.O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2015.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid qarorlari va farmonlari to‘plami. – Toshkent, 2017.
3. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi asoslari. – Toshkent, 2015.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 37.01

“MENSCHEN” O‘QUV MAJMUASINING MADANIYATLARARO MULOQOTGA OID TAHLILI

Paziljanova Zulfiya Sabirjanovna, Qo‘qon davlat universiteti doktoranti

ANALYSIS OF THE “MENSCHEN” COURSEBOOK SET FROM THE PERSPECTIVE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION

Pazilzhanova Zulfiya Sabirzhanovna, doctoral student at Kokand State University

https://orcid.org/0009-0005-9395-1255
e-mail: zulfiya1980@mail.ru

АНАЛИЗ УЧЕБНОГО КОМПЛЕКСА “MENSCHEN” С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ

Пазилжанова Зулфия Сабиржановна, докторант Кокандского государственного университета

Annotatsiya: *Maqolada “Menschen” nemis tili o‘quv majmuasining A1 darajasi madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘quv majmuaning tuzilishi, undagi vizual va matnli materiallar hamda topshiriqlarning madaniyatlararo ta’limga xizmat qilishi o‘rganilgan. Tahlil natijalari mazkur majmua talabalarda turli madaniyatlarni qiyoslash, verbal va noverbal muloqot xususiyatlarini anglash hamda madaniy tafovutlarni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ayrim materiallar o‘zbek talabalari uchun madaniy shok yoki ziddiyatlarni yuzaga keltirishi mumkinligi qayd etiladi. Tadqiqot natijalari xorijiy til darsliklarini yaratishda milliy mentalitet omilini hisobga olish zarurligini asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *madaniyatlararo muloqot, nemis tili darsligi, Menschen o‘quv majmuasi, kommunikativ kompetensiya, madaniy shok, til va madaniyat integratsiyasi.*

Absract: *The article analyzes the German language coursebook set “Menschen” (A1 level) from the perspective of developing intercultural communicative competence. The study examines the structure of the coursebook, its visual and textual materials, and the tasks that support intercultural learning. The findings show that the coursebook contributes to learners’ ability to compare cultures, understand verbal and nonverbal communication features, and interpret cultural differences. At the same time, some materials may cause cultural shock or intercultural tension among Uzbek students. The results highlight the importance of considering national mentality when designing foreign language textbooks.*

Keywords: *intercultural communication, German language textbook, Menschen coursebook, communicative competence, cultural shock, language and culture integration.*

Аннотация: *В статье анализируется учебный комплекс по немецкому языку “Menschen” уровня A1 с точки зрения формирования межкультурной коммуникативной компетенции. В исследовании рассматриваются структура учебника, визуальные и текстовые материалы, а также задания, способствующие межкультурному обучению. Результаты анализа показывают, что данный комплекс развивает у обучающихся навыки сопоставления культур, понимания вербальных и невербальных особенностей общения и осмысления культурных различий. Вместе с тем отмечается, что отдельные материалы могут вызывать у узбекских студентов культурный шок или межкультурные*

противоречия. Полученные результаты обосновывают необходимость учета национального менталитета при создании учебников иностранного языка.

Ключевые слова: *межкультурная коммуникация, учебник немецкого языка, комплекс "Menschen", коммуникативная компетенция, культурный шок, интеграция языка и культуры.*

Kirish. So‘nggi yillarda xorijiy tillarni o‘qitishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy metodik yondashuvlarga ko‘ra, tilni o‘rganish jarayoni faqat grammatik va leksik birliklarni egallash bilan cheklanib qolmay, balki o‘rganilayotgan til sohiblarining madaniy xususiyatlarini anglashni ham o‘z ichiga olishi lozim[1,117]. Shu bois xorijiy til darsliklariga qo‘yilayotgan talablar ham tubdan yangilanmoqda. Madaniyatlararo yondashuv an’anaviy mamlakatshunoslikdan farqli ravishda "begonani tushunish didaktikasi"ni markazga qo‘yadi[2,45]. Bu yondashuv til va madaniyatning ajralmasligini ta’kidlaydi hamda o‘quv jarayonida ularni integratsiyalash zarurligini ko‘rsatadi[1,121]. Shundan kelib chiqib, darsliklarning asosiy vazifasi autentik materiallar orqali nafaqat til bilimlarini, balki lisoniy va nolisoniy xulq-atvor me’yorlarini ham shakllantirishdan iborat bo‘lib bormoqda[2,133]. Mazkur tadqiqotning maqsadi – "Menschen" o‘quv majmuasining A1 darajasini madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish nuqtayi nazaridan tahlil qilishdir[3,122].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida sifat tahlili, qiyosiy-pedagogik tahlil hamda didaktik materiallarni ekspert baholash usullaridan foydalanildi [2,45]. Tahlil obyekti sifatida umumyevropa tavsiyalari (CEFR) asosida yaratilgan "Menschen" o‘quv majmuasining A1 bosqichi tanlandi[3,122]. Tahlil quyidagi mezonlar asosida olib borildi:

- o‘quv materiallarining madaniyatlararo yo‘naltirilganligi;
- maqsadli auditoriyaga mosligi;
- o‘quv maqsadi va daraja talablari bilan uyg‘unligi;
- o‘quv majmua komponentlarining (Kursbuch, Arbeitsbuch, DVD va boshqalar) madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishdagi roli [1,117].

Mazkur mezonlar asosida darslikdagi matnlar, rasmlar va mashqlar tizimli ravishda tahlil qilindi[3,121].

Tadqiqot bo‘yicha adabiyotlar sharhi. Tadqiqotda foydalanilgan manbalar madaniyatlararo yondashuv va darsliklar tahliliga oid klassik va zamonaviy ilmiy ishlarni o‘z ichiga oladi.

1. **Mixael Tormann** – madaniyatlararo o‘rganish konseptlarini o‘quv materiallari tahlili orqali yoritadi **[1,117;121;122]**. Ushbu manba tadqiqotda "Menschen" darslik majmuasini madaniyatlararo kompetensiya nuqtayi nazaridan tahlil qilishda asosiy nazariy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Thormannning ishlari o‘quv materiallaridagi madaniy komponentlarni aniqlash va ularni pedagogik yondashuv bilan uyg‘unlashtirishga yordam beradi.
2. **Regina Rihter** – o‘quv darsliklaridagi madaniyatlararo o‘rganishni, xususan "Sichtwechsel neu", "Spielarten" va "Elemente" darsliklari misolida tahlil qiladi **[2,45]**. Bu manba o‘quv materiallarini qiyosiy baholash va madaniyatlararo kuzatuvchanlikni shakllantirish bo‘yicha metodik yondashuvlarni aniqlashda foydalidir.
3. **Eynar Loypold** – darsliklarni chet tillarni o‘qitishda yetakchi vosita sifatida ko‘rib chiqadi **[3,133]**. Tadqiqotda bu manba yordamida "Menschen" o‘quv majmuasining tuzilishi va didaktik tizimi baholandi. Shu bilan birga, modulli tuzilish va vizual/verbal materiallarning rolini aniqlashda asos bo‘ldi.

Ushbu adabiyotlar jamlanmasi tadqiqotni **nazariy asos bilan mustahkamlaydi,** darslikni madaniyatlararo kompetensiya nuqtayi nazaridan tahlil qilish uchun kerakli metodologik poydevorni beradi. Tadqiqot natijalari Tormann va Rihterning ilgari surgan yondashuvlari bilan mos keladi va Loypoldning darslik tuzilishi bo‘yicha tavsiyalari bilan mustahkamlanadi.

Tadqiqot natijalari. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, "Menschen" o‘quv majmuasi tuzilish jihatidan kommunikativ va madaniyatlararo yondashuv tamoyillariga mos keladi. Darslik modulli tuzilishga ega bo‘lib, har bir mavzu kirish sahifasi, juft sahifa va yakuniy sahifadan iborat izchil didaktik tizim asosida qurilgan[3,122].

Vizual materiallarning roli. O‘quv majmuadagi rasmlar talabalarda erkin assotsiatsiya, tasvirlash va taxmin qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [2,133]. Masalan, A1.1 darajadagi "Hallo! Ich bin Nicole…" mavzusidagi kafe sahnasi talabalarni vaziyatni mustaqil talqin qilishga undaydi. Bunday topshiriqlar

madaniyatlararo kuzatuvchanlikni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Verbal muloqot materiallari. Darslikda salomlashuv va xayrlashuv shakllarining Germaniya, Avstriya va Shveysariya variantlari berilgani talabalarni nemis tilining pluritsentrik xususiyati bilan tanishtiradi [2,45]. Mashqlar orqali:

- murojaat shakllari (du/Sie),
- hurmat kategoriyalari,
- turli nutq vaziyatlari qiyosiy asosda o‘rganiladi.

Noverbal muloqot elementlari. O‘quv majmua proksemika, takesika, kinesika, sensorika va xronemika kabi noverbal muloqot jihatlarini muhokama qilish imkonini beruvchi topshiriqlarni ham o‘z ichiga oladi [2,45].

Madaniy ziddiyat ehtimoli. Tahlil davomida ayrim materiallar o‘zbek talabalari uchun madaniy shok holatini yuzaga keltirishi mumkinligi aniqlandi. Xususan: nikohsiz birga yashash, ota-onaga “du” deb murojaat qilish, ajrashish mavzusining ochiq berilishi milliy mentalitet bilan ziddiyatga kirishishi mumkin[3,133].

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, “Menschen” o‘quv majmuasi madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish uchun boy didaktik imkoniyatlarga ega. Modulli tuzilish, vizual va verbal materiallar o‘quv jarayonida integratsiyalashgan holda ishlatilganda, talabalar nafaqat til bilimini, balki boshqa madaniyatlarning xulq-atvor me’yorlarini ham anglay oladi [1,117;121]. Biroq, o‘zbek auditoriyasida darslikdan foydalanishda **yuqori darajadagi metodik moslashtirish** zarur. Ayniqsa, madaniy jihatdan sezgir mavzular bilan ishlashda: izohlovchi suhbatlar, qiyosiy tahlil va yo‘naltirilgan munozaralar muhim pedagogik strategiya sifatida tavsiya etiladi [2,45;1,133]. Shu bilan birga, mahalliy darsliklar yaratishda milliy mentalitet, diniy qadriyatlar va ijtimoiy me’yorlarni hisobga olish zarur. Tahlillarning ko‘rsatishicha, darslikdagi **kommunikativ yondashuv** va madaniyatlararo materiallar talabalarning:

- o‘z ona tili va o‘rganilayotgan til o‘rtasidagi farqlarni anglashini,
- noverbal va verbal muloqotda moslashish ko‘nikmalarini rivojlantirishini,
- turli nutq vaziyatlarini qiyosiy o‘rganish imkonini beradi[3,122].

Shu tarzda, “Menschen” o‘quv majmuasi **madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishda samarali vosita** sifatida xizmat qiladi, lekin o‘qituvchining faol metodik ishtiroki va pedagogik yondashuvning mosligi talabaning o‘rganish natijalarini sezilarli darajada oshiradi[4].

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, “Menschen” o‘quv majmuasi A1 darajada madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish uchun metodik jihatdan puxta ishlab chiqilgan. Darslik:

- madaniyatlarni qiyoslash imkonini beradi;
- verbal va noverbal muloqotni o‘rgatadi;
- kommunikativ yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi[3,121].

Shu bilan birga, ayrim mavzular o‘zbek talabalari uchun madaniy ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli xorijiy darsliklardan foydalanishda ularni mahalliy ta’lim kontekstiga moslashtirish va milliy o‘quv majmualarini yaratishda madaniyatlararo muvozanatni ta’minlash muhim hisoblanadi [2,45].

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Thormann, Michael (2001): *Konzepte interkulturellen Lernens im Spiegel der Lehrwerkkritik*. In: Wazel, Gerhard (Hrsg.) (2001): *Institut für Interkulturelle Kommunikation: Interkulturelle Kommunikation in Wirtschaft und Fremdsprachenunterricht*, Institut für Interkulturelle Kommunikation e.V. Frankfurt am Main. Wien u.a.: Lang, S.117
2. Richter, Regina (1998): *Diskussion von Lehrwerken, Interkulturelles Lernen im DaF-Unterricht am Beispiel von „Sichtwechsel neu“, „Spielarten“ und „Elemente“*. In: Zeitschrift *Deutsch als Fremdsprache*-35. Jahrgang 1998, Heft 1, S.1-64. München, Berlin. S.45.
3. Leupold, Eynar (2001): *Das Lehrwerk im Fremdsprachenunterricht (noch) ein Leitmedium*. In: Jung, Udo O.H. unter Mitarb. von Heidrun Jung (Hrsg.): *Praktische Handreichung für Fremdsprachenlehrer*. 3., durchges. Aufl. Frankfurt am Main; Wien u.a.: Lang, 2001. S.133.
4. Paziljanova, Zulfiya (2022): Zamonaviy nemis tili darsliklari vositasida talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi. Ped.fan.bo‘yicha fals.doktori (PhD) dissertatsiyasi. Qo‘qon, 2022. B.147.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 37.037:796.015.132

YOSH FUTBOLCHILARNING JISMONIY QOBILIYATLARINI O‘RGANISH METODIKASI

Nazarov Rustam Nurali o‘g‘li, Alfraganus universiteti o‘qituvchisi

METHODOLOGY FOR STUDYING THE MENTAL ABILITIES OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS

Nazarov Rustam Nurali o‘g‘li, Alfraganus University teacher

МЕТОДОЛОГИЯ ИЗУЧЕНИЯ УМСТВЕННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ МОЛОДЫХ ФУТБОЛИСТОВ

Назаров Рустам Нурали оглы, преподаватель университета Альфрагануса

https://orcid.org/0009-0009-0162-5719
e-mail: Rustamjon9426@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada yosh futbolchilarning individual qobiliyatlarini o‘rgatish metodikasi muhokama qilinadi. Futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish, ularning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *yosh futbolchilar, individual qobiliyatlar, texnik-taktik harakatlar, jismoniy tayyorgarlik, koordinatsiya, chidamlilik, tezlik, elastiklik, futbol metodikasi.*

Аннотация: *В статье рассматривается методика обучения индивидуальным навыкам юных футболистов. Анализируются факторы, влияющие на совершенствование технико-тактических действий футболистов, их физическое и психологическое развитие.*

Ключевые слова: *юные футболисты, индивидуальные способности, технико-тактические действия, физическая подготовка, координация, выносливость, скорость, эластичность, методика футбола.*

Abstract: *the article discusses the methodology for training individual abilities of young football players. The factors affecting the improvement of technical and tactical actions of football players, their physical and mental development are analyzed.*

Keywords: *young football players, individual abilities, technical and tactical actions, physical training, coordination, endurance, speed, flexibility, football methodology.*

Dolzarbligi. Dunyo bo‘yicha so‘nggi yillarda futbol sport turi shiddat bilan o‘sishi xalqaro miqyosidagi musobaqalarda sportchilardan yuqori saviyadagi mahoratni talab qilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida futbolchilardan o‘quv-mashg‘ulot jarayonida texnik-taktik harakatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgatish uslublarini ishlab chiqish talabini qo‘ymoqda. R.Nurimov o‘zining “Futbol” darsligida o‘naqay va chapaqay futbolchilarni faqatgina o‘zlariga qulay bo‘lgan oyoqda texnik harakatlarni bajarishgina emas, balki, qarama-qarshi oyoqda ham yuqori mahorat bilan texnik harakatlarni bajarishlari kerak bo‘ladi. Futbol sport turida yosh futbolchilarni texnik harakatlarga o‘rgatishda o‘naqaylarni chap oyoq va chapaqaylarni o‘ng oyoq harakatlarini asimmetrik asosida shakllantirish maqsadga muvofiqdir**[1,4].** Bugungi kungacha mana shu o‘rganish talab qilayotgan muammo murabbiy va mutaxassislar tomonidan tadqiqotlarda keng yoritilmaganligi mavzuni dolzarbligi keltirib chiqarmoqda.

Yosh futbolchilarning mashg‘ulot jarayonlarida futbol harakatlar aniqligi, izchilligi, ishonchliligini psixologik boshqarish uchun murakkab o‘yin vaziyatlarida yuqori sur’atda sensomotorik, differensiallash, kinestatik

hissiyotlar aniqligini harakat amplitudasi bo‘yicha imitatsiya qilish hisobiga o‘yin davomida harakatlanayotgan obyektga nisbatan vaqt va to‘pni idrok qilish kinematik imkoniyatlari takomillashtirilgan. A.Tolipjonov “Yuqori malakali futbolchilarni tayyorlashning zamonaviy tizimi” o‘quv qo‘llanmasida boshlang‘ich tayyorlov guruhidagi yosh futbolchilarning mashg‘ulot jarayonida texnik tayyorgarligini rivojlantirish uchun o‘ng va chap tomondan to‘pga zarba berish kabi texnik harakatlarni belgilangan zonalarga maksimal tezlikda qadam tashlashdagi tana og‘irligini tayanch nuqtaga taqsimlashni texnik jihatdan to‘g‘ri bajarishga qaratilgan maxsus mashqlar dasturini mashg‘ulotlarga kiritish hisobiga belgilangan hududga to‘pni aniq yo‘naltirish imkoniyati kengaytirilishini takidlagan**[3].**

Tadqiqot metodlari. Yosh futbolchilarni individual qobiliyatlarini o‘rgatish metodikasi haqida gapirganda, o‘quv jarayonida turli xil metodlar va yondashuvlar qo‘llaniladi. Bu metodlar o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga yordam berish uchun mo‘ljallangan. Quyidagi asosiy metodlarni ko‘rib chiqamiz:

Kuch va chidamlilik: futbolda tezkorlik va kuch zarur, shuning uchun yosh futbolchilarga kuchli va chidamli bo‘lish uchun maxsus mashqlar o‘rgatiladi. Bu mashqlar nafaqat futbol, balki umumiy jismoniy tayyorgarlikni ham oshiradi.

Koordinatsiya va balans: futbolda to‘g‘ri balans va yuqori koordinatsiya zarur. Mashqlar sportchi tanasini samarali boshqarishni o‘rganishiga yordam beradi **[2.5.6].**

Tezlik va elastiklik: yoshi kichik bo‘lgan sportchilarga tezlikni oshirish va muskullarni elastik qilish uchun maxsus mashqlar yordamida o‘rgatish lozim.

Tadqiqot boshida yosh futbolchilarning jismoniy qobilyatlar darajasining o‘rtacha ko‘rsatkichlari (n=40)

t/r	Nazorat testlari	Tajriba guruhi - ▫	Nazorat guruhi - ▫
1	3x10 m.ga mokisimon yugurish, soniya	10,95±0,44	11,00±0,42
2	6x8 m.ga mokisimon yugurish, soniya	16,05±0,38	15,73±0,44
3	Yugurish yo‘nalishini o‘zgartirib to‘pni olib yurish, s	12,82±0,48	13,00±0,41
4	Joyidan turib uzunlikka sakrash, sm	141,17±4,02	140,5±3,45
5	Arg‘amchida sakrash, marta	80,17±3,43	79,83±3,13

Tadqiqot boshida va oxirida tajriba guruh va nazorat guruhi yosh futbolchilarning jismoniy qobilyatlar darajasining o‘rtacha ko‘rsatkichlari

t/r	Nazorat testlari	Guruh	Tadqiqot boshida - ▫	V,%	Tadqiqot oxirida - ▫	V,%	t	P
1	3x10 m.ga mokisimon yugurish, soniya	TG	10,95±0,44	15,2	10,73±0,43	9,9	3,22	< **0,01**
		NG	11,00±0,42	14,8	11,94±0,40	12,4	1,09	> **0,5**
2	6x8 m.ga mokisimon yugurish, soniya	TG	16,05±0,38	15,8	15,38±0,25	10,6	3,23	< **0,01**
		NG	15,73±0,44	16,4	15,69±0,41	13,7	1,48	> **0,1**
3	Yugurish yo‘nalishini o‘zgartirib to‘pni olib yurish, s	TG	12,82±0,48	13,4	12,65±0,40	9,7	2,61	< **0,01**
		NG	13,00±0,41	13,1	12,91±0,48	12,9	1,50	> **0,1**
4		TG	141,17±4,02	16,7	164,57±3,99	10,2	3,38	< **0,01**

	Joyidan turib uzunlikka sakrash, sm	NG	140,5±3,45	15,8	145,5±3,85	13,7	1,49	> **0,1**
5	Arg‘amchida sakrash, marta/daq.	TG	80,17±3,43	15,7	86,33±2,42	9,7	5,78	< **0,001**
		NG	79,83±3,13	15,1	82,9±2,45	13,2	1,55	> **0,1**

Tajriba natijalariga ko‘ra, futbol mashg‘ulotida sinaluvchi yosh futbolchilarning tajriba boshi va oxiridagi jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha ko‘rsatkichlar dinamikasi quyidagicha bo‘ldi (2-jadval): A)Umumiy jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha: 1)Yuqori startdan 30 m yugurishda 8 yoshlilarda farq kuzatilmadi. Tajribadan keyin NG 7,2±0,3 soniya, TG 7,0±0,9 soniya. Farq kuzatilmadi. ($p>0,05$). Eng yuqori o‘sish ko‘rsatkichi: 12 yoshlilarda aniqlandi. TG tajribadan oldin 6,6±0,2 soniya, tajribadan keyin 5,4±0,6 soniya ($p<0,05$). 2)3×10 m ga mokisimon yugurishda 8 va 10 yoshlilarda o‘sish kuzatilmadi. Faqatgina 12 yoshlilarda TG 8,2±0,2 soniya (o‘sish 1 soniya) ($p<0,05$) aniqlandi.

Xulosa. Yosh futbolchilarni taktik tayyorlashda mashg‘ulotlar davomida taktik jarayonlarni o‘zlashtirish, taktik harakatlarni shakllantirish hamda modellashtirilgan omillarni muvofiqlikda qo‘llash muhim hisoblanadi. Taktik jarayonlar maxsus modellashtirilgan mashg‘ulotlarda amalga oshirilishi, ularni o‘zlashtirish samaradorligini ta’minlaydi hamda yosh futbolchilarni musobaqa faoliyatiga taktik tayyorlashda raqibni chalg‘ituvchi harakatlarini aniqlash va ularga xos taktik harakatlarni amalga oshirish jarayonlari, bajariladigan harakatga nisbatan texnik-taktik harakatning turg‘unligi, o‘zgaruvchanligi, variativligi, tashqi va ichki ta’sirlarga barqarorligini boshqarish orqali musobaqalarda taktik vaziyatlarni operativ nazorat qilishga erishildi. Futbolchilarni psixologik tayyorlashda yuqori darajadagi sport takomillashuviga erishishi, ruhiy barqarorligi va musobaqalarga tayyor bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan shaxsning psixologik xususiyatlari va ruhiy fazilatlari shakllantiriladi. Futbol sport turida umumiy jismoniy tayyorgarlik sport mashg‘ulotining muhim vazifalaridan biri sifatida shug‘ullanuvchilarning to‘laqonli jismoniy taraqqiyotini va har tomonlama jismoniy tayyorgarligini ta’minlashga qaratildi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nurimov R. Futbol. Toshkent, 2019-yil. 322 -bet.
2. Berdiyev M. Orzu. Nasaf nashriyoti. 2017-yil. 157-bet.
3.Tolipjonov A. Yuqori malakali futbolchilarni tayyorlashning zamonaviy tizimi. O‘quv qo‘llanma. Fan va texnologiya nashriyoti. 2017-yil. 164-bet.
4. Isroilov D. Futbolning sehrli olamiga sayohat yoxud jahon chempionatlari tarixidan. Yangi asr avlodi nashriyoti. 2010-yil 156-bet.
5. http:bibliofond.ru/view.aspx.
6. A’zamova M. Kelajak avlod tarbiyasida ijtimoiy-gumanitar dolzarb masalalari. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti, M.Auezov nomli janubiy Qozog‘iston universiteti. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent, 2022-yil aprel. 629-bet.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 37(091)(575.1)"1930"

XALQ TA‘LIMI TIZIMINING XX ASR 30–YILLARIDAGI HOLATI

Abduraxmanova Jummagul Nomazovna, Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti, t.f.n.

THE STATE OF THE PUBLIC EDUCATION SYSTEM IN THE 1930s OF THE TWENTIETH CENTURY

Abdurakhmanova Jummagul Nomazovna, Associate Professor, Candidate of Historical Sciences, Tashkent University of Economics and Pedagogy

СОСТОЯНИЕ СИСТЕМЫ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В 1930-Х ГОДАХ

Абдурахманова Джуммагюль Номазовна, доцент, кандидат исторических наук, Ташкентский университет экономики и педагогики

https://orcid.org/0009-0008-1580-9191
e-mail: abduraxmanovajummagul@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada XX asr 30–yillarida maorif tizimi, maktablarning ahvoli, maktablarning o‘qituvchi–xodimlar bilan ta’minlanganligi, mutaxassis kadrlarning yetishmaslik holati, sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan xalq ta’limini “sinfiy dushman”dan tozalash ishlarining maorif tizimiga salbiy ta’sirini va uning ko‘rinishlari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sovet hokimiyati, sovet ta’lim tizimi, o‘qituvchi–xodimlar, kadrlar muammosi, “proletar qatlam”, “ishonchsizlik”, “sinfiy dushman”, tozalash.*

Abstract: *The article covers the state of the education system in the 1930s of the twentieth century, the condition of schools, the provision of schools with teaching and staff personnel, the situation of shortage of qualified specialist, as well as the negative impact of the measures carried out by the Soviet authorities to “cleanse” public education of “class enemies” and the manifestations of this impact on the education system.*

Keywords: *Soviet power, Soviet education system, teaching staff, personnel problem, “proletarian stratum”, “lack of trust”, “class enemy”, purge.*

Аннотация: *В статье рассматривается система образования 30 гг XX века, состояние школ, обеспечение школ преподавательским составом, нехватка квалифицированных кадров и политика в борьбе с «классовым врагом» и в образовании, которая негативно повлияла на это направление.*

Ключевые слова: *советская власть, советская система образования, преподавательский состав, кадровая проблема, «пролетарский класс», «недоверие», «классовый враг», чистка.*

Kirish. O‘zbekiston hududida ta’lim tizimi sovet hokimiyati yillarida 1917-yil oxiridan boshlab jiddiy to‘siq va qiyinchiliklarga uchradi. Murakkab va ziddiyatli vaziyatni boshdan kechirdi. Hokimiyat tepasiga kelgan kommunistlar “lenincha sotsializm qurish” nazariyasini qo‘llab, o‘lkada sotsialistik tuzum asoslarini qura boshladilar. Mahalliy sharoitni hisobga olmasdan olib borilgan siyosatga qarshi bildirilgan har qanday fikrlar, chiqishlar qattiq ta‘qib ostiga olindi, ayovsiz jazolandi. Bu hol o‘z navbatida ta‘lim tizimini ham qamrab oldi.

1920-yillarning ikkinchi yarmi – 1930 yillarda O‘zbekistonda sovet hokimiyatining ma‘muriy–buyurqbozlik va zo‘ravonlik siyosati xalq xo‘jaligining barcha sohalarini shu jumladan barcha ta‘lim tizimini ham qamrab oldi. Tashkil etilgan ta‘lim tizimida ham asosiy e‘tibor

kommunistik partiya mafkurasi va g‘oyasidan kelib chiqqan holda ish olib borish yo‘lga qo‘yildi.

Muhokama va natijalar. Ta‘lim sohasi uchun kerakli bo‘lgan xodimlar asosan pedagogika bilim yurtlarida tayyorlanar edi. Bu hol ham ayrim viloyatlarda ta‘lim tizimida kadrlar muammosi kelib chiqishiga ham sabab bo‘ldi. Ko‘p hollarda ayniqsa qishloq joylarda o‘qituvchilar yetishmasdi, borlari ham ko‘pincha o‘z ishlarini tashlab ketishardi. 1934-yil Qashqadaryo viloyatidagi Dehqonobod tumanida 2–3 oylab o‘qituvchilar maoshi berilmaganligi, maosh kamligi sababli 8 ta o‘qituvchi, 3 ta mudir ishdan bo‘shab ketgan[1]. Shu kabi sabablar tufayli ko‘plab o‘qituvchilarning ishdan ketib qolishlari ta‘lim tizimiga salbiy ta‘sir qilib, bu sohadagi kadrlar muammolarini keltirib chiqarar edi. Ayniqsa, ta‘lim sohasining ma‘muriy-buyruqbozlik usuli bilan boshqarilishi, ko‘pgina ko‘zga ko‘ringan ta‘lim sohasi xodimlarining qatag‘on qilinishi mutaxassis kadrlarning kamayishiga, kadrlar muammosining paydo bo‘lishiga, bilim saviyasi past “ishonchli” qatlamlarning yuzaga keltirilishi ta‘lim tizimini borgan sari siyosiylashib, mafkuralashib borishiga olib keldi. Ayniqsa “sinfiy dushman” izlab topib, uni yo‘q qilishda ta‘lim tizimiga juda katta e‘tibor qaratildi. Chunki, ta‘lim sohasida o‘rnashib olgan “sinfiy dushman” sovet hukumati uchun o‘ta xavfli hisoblanardi. Ta‘lim jamiyat hayotida unga ta‘sir ko‘rsatishda muhim va ahamiyatli rol o‘ynaydi. Shu sababli ham ta‘lim sohasini “sinfiy dushmandan” tozalash maqsadida hatto maxsus qarorlar ham qabul qilingan. Masalan, VKP(b) MQ O‘rta Osiyo Byurosi 1933-yil 27-martida o‘qituvchi kadrlar safini “sinfiy dushmandan” tozalash haqida qaror qabul qildi va bu qarorning dastlabki natijalari 1933-yil 25-aprelida bo‘lib o‘tgan O‘rta Osiyo bo‘yicha partiyaning madaniy sohasiga bag‘ishlangan kengashida muhokama qilindi[2]. Ta‘lim sohasini “sinfiy dushmandan” tozalash bilan birga, ziyoli kadrlarni tayyorlashda sinfiy jihatdan ishonchli, aholining “mehnatkash” tabaqalaridan chiqqan kishilarni tanlab olish kerak degan g‘oya ilgari surildi. Bu ishni amalga oshirishga jiddiy kirishib ketildi. Ko‘plab o‘qituvchilar ijtimoiy kelib chiqishi “ishonchsiz” bo‘lganligi tufayli ishdan bo‘shatildi. Masalan, birgina Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidan 17ta o‘qituvchi ijtimoiy kelib chiqishi “ishonchsiz” bo‘lganligi tufayli ishdan bo‘shatildi[3].

Ijtimoiy kelib chiqishi “ishonchsiz” bo‘lgan kishilar o‘rniga “mehnatkash” tabaqadan chiqqan kishilarni tanlab olish g‘oyasi sovet tuzumining ichki mohiyatidan kelib chiqqan edi. Chunki, avvaldan yaxshi ma‘lumki, aqliy va mantiqiy mushohada etish darajasi qancha past bo‘lsa, savollar ham, noroziliklar ham shuncha kam bo‘ladi. Shuning uchun ham ta‘lim xodimlarining tarkibini ijtimoiy jihatdan ishonchli bo‘lgan “mehnatkashlar” hisobiga soddalashtirib, ular orasidagi eng zakovatli va omilkor qatlamni siqib chiqarish maqsad qilib qo‘yildi. Bu “madaniy inqilob”ning asosiy tezislaridan biri bo‘lib, “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat”ni vujudga keltirishdan iborat edi. Bu g‘oya sovet hokimiyatining barcha o‘n yilliklari davomida yashab keldi. XX asr 30–yillarda esa uni amalga oshirish uchun dastlabki qadamlar qo‘yildi. Ta‘lim tizimi uchun kadrlar tayyorlash yuqorida aytganimizdek, “mehnatkashlar” ya‘ni “proletar qatlamdan” boshlangani bejiz emas edi. O‘sha yillarda ta‘lim tizimidagi mavjud bo‘lgan kadrlar muammosini hal qilish uchun komsomolga qabul qilingan juda ko‘plab yoshlar qisqa muddatli kurslarda o‘qitilib, maktablarga muallim sifatida safarbar qilinib yuborildi. Buning natijasida respublikada o‘qituvchilar soni 1928–1929-o‘quv yilida 5,5 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 1932–1933-o‘quv yilida 19 ming kishiga yetdi. 1941-yilga kelib esa o‘qituvchilar soni 42 ming kishini tashkil etdi[4]. Ta‘lim sohasiga qisqa muddatli kurslarda tayyorlanib, ijtimoiy jihatdan “mehnatkashlar” qatlamidan bo‘lgan, safarbar qilingan komsomollar qabul qilingan edi. Maqsad mutaxassislarning ko‘pchiligi “begonalar” ya‘ni ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan tuzum mafkurasiga to‘g‘ri kelmaydiganlarni yo‘qotish, ularni ijtimoiy muhitga o‘rnashib borishiga yo‘l qo‘ymaslik edi.

XX asr 30–yillari birinchi yarmida avj olgan bu tadbir amalda ziyoli kadrlar safini malakasi va saviyasi past kishilar bilan to‘ldirilishiga, yuzakilik, qog‘ozbozlik kabi nomaqbul illatlarning ildiz otishiga olib keldi. Kishining qobiliyati, madaniy saviyasi va ma‘lumot darajasi emas, balki ijtimoiy kelib chiqishi asosiy mezon qilib olindi. Bu hol keyinchalik ta‘lim tizimiga salbiy ta‘sirini ko‘rsatib bordi, kadrlar muammosining paydo bo‘lishiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatdi. Chunki, ta‘lim tizimidan uzoq bo‘lgan kishilarga bu soha rivoji ham, uncha qiziqarli emasligi, keyinchalik

ular o‘z ishlarini tashlab ketishlariga sabab bo‘ldi. Shu yillarda “mehnatkash” qatlamdan kadrlar tayyorlash amaliyoti qaror topib, kadrlar yetishmaslik muammosi bir qadar hal bo‘lganday bo‘ldi. Lekin yetarli darajada tayyorgarligi bo‘lmagan xodimlar ta‘lim rivojiga sezilarli ta‘sir ko‘rsata olmadi. Ayniqsa, ta‘lim sohasida oliy ma‘lumotli kadrlar juda ham yetishmas edi. Qisqa muddatli kurslarda tayyorlangan xodimlar esa yetarli darajada bilim bera olmas edi. 1934-yildagi tekshirishlar natijasida birgina, Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumanidagi 170ta o‘qituvchidan atiga 6tasi oliy ma‘lumotli ekanligi aniqlandi. 1930–1931-o‘quv yilida O‘zbekistonda boshlang‘ich maktab o‘qituvchilarning 54,8%i boshlang‘ich ma‘lumotli, 17,9%i qisqa muddatli kurslarni bitirgan, 18,7%i o‘rta pedagogik ma‘lumotga ega edi[5]. Bundan ko‘rinib turibdiki, oliy ma‘lumotli o‘qituvchilar respublikada bor-yo‘g‘i 8,6%ni tashkil qilgan ekan. 1932-yilda Respublika pedagogika o‘quv yurtlarida ishlayotgan o‘qituvchilarning 72%ini boshlang‘ich ma‘lumotga ega bo‘lganlar tashkil qilgan[6]. Bundan tashqari maktablardagi o‘qituvchilarning bilim darajasi past bo‘lganligidan ko‘pgina maktablarda o‘qitish saviyasi talabga javob bermasdi. Lekin bu hol sovet hukumatini qiziqtirmas edi. Chunki, sovet tizimi uchun, ayniqsa, janubiy viloyatlardagi ta‘lim tizimi uchun zukko va bilimli kadrlar kerak emas edi. Bu viloyatlarni yetarli darajada kadrlar bilan ta‘minlash uchun oliy o‘quv yurtlari tarmog‘ini ko‘paytirish zarur edi. Bu masalaga ham mazkur tuzum tomonidan katta e‘tibor berilmadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mazkur davrda sovet mamlakati iqtisodiy hayotida avj olgan avvaldan rejalashtirish usullari, boshqaruvning o‘ta markazlashtirilishi, partiyaviy tartibning kuchayishi respublikamiz ijtimoiy–iqtisodiy va siyosiy hayotida salbiy iz qoldirganligi hech kimga sir emas. Shuning bilan birga XX asr 30–yillarda sobiq ittifoqda ta‘limni qayta qurish jarayoni boshlangan edi.

Sovetlarning ta‘lim tizimini qayta qurish borasidagi siyosati ta‘lim faoliyatiga ham ta‘sir etmasdan qolmadi. Mamlakatda aholini yoppasiga proletarlashtirish, barcha sohalardan ziyolilarni chetlashtirish amalga oshirildi. Bu jarayon ta‘lim sohasini ham chetlab o‘tmadi. Talabalar, o‘qituvchilar, xodimlar o‘qishga, ishga ijtimoiy kelib chiqishiga qarab qabul qilinardi.

Umumiy boshlang‘ich ta‘limni joriy qilish, “savodsizlik”ni tugatish kabi islohotlar og‘ir sharoitda zo‘ravonlik bilan amalga oshirildi. O‘sha davrda ta‘lim tizimi moddiy–texnika bazasini mustahkamlashda talaygina muammolar mavjud bo‘lib, bu hol ta‘lim tizimiga bevosita jiddiy ta‘sir ko‘rsatib bordi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдурахмонова Ж.Н. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистонда таълим соҳасидаги қатағонлик сиёсати (Самарқанд, Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари мисолида. 1925–1940 йй). Тарих фанлари илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 2002, 63–бет.
2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент., 2000, 387–бет.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi 94–jamg‘arma, 5–ro‘yxat, 1368–yig‘ma jild, 56–varaq.
4. Абдураҳмонова Ж.Н. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистонда таълим соҳасидаги қатағонлик сиёсати (Самарқанд, Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари мисолида. 1925–1940 йй). Тарих фанлари илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: 2002, 65–бет.
5. Очилов М. Ўзбекистон комсомолининг умумий мажбурий таълим учун кураши. Т., 1958, 54–бет.
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi 94–jamg‘arma, 5–ro‘yxat, 1368–yig‘ma jild, 56–varaq.
7. Abduraxmanova J.N. XX asrning 1920–1930-yillarida ta’lim tizimidagi kadrlar masalasi. Sohibqiron yulduzi. №1, 2021-yil, 84–87-betlar.
8. Абдурахманова Ж.Н. XX аср 20–30-йилларида Ўзбекистоннинг жанубий вилоятлари таълим тизимидаги ҳолат. Маданият чорраҳалари (электрон журнал). №4.1–жилд, 2020, 36–41-бетлар.
9. Абдурахманова Ж.Н. XX аср 20–йилларида эски усул мактабларига бўлган муносабат. Academic Research in Educational Sciences. Volume 1. Issue 3. 2020. P.1165–1169.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 950:301.085:15(075)

OILALARGA QARATILGAN IJTIMOIY SIYOSAT VA UNING MOHIYATI

Turayeva Aziza Pulatovna, Qarshi davlat universiteti "Falsafa va sotsiologiya" kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchi

SOCIAL POLICY AIMED AT FAMILIES AND ITS ESSENCE

Turayeva Aziza Pulatovna, Karshi State University Acting Associate Professor of the Department of Philosophy and Sociology

СОЦИАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА НАПРАВЛЕННАЯ НА СЕМЬЮ И ЕЁ СУЩНОСТЬ

Тураева Азиза Пулатовна, Каршинский государственный университет, исполняющая обязанности доцента кафедры философии и социологии

https://orcid.org/0009-0006-9002-1869
e-mail: aziza.torayeva@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlatlarning oilaga qaratilgan ijtimoiy siyosatining asosiy maqsadi nimadan iboratligi tahlil qilingan. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida oilaga qaratilgan e'tibor oila barqarorligi va farovonligiga xizmat qilayotganligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *oila, oilaga qaratilgan siyosat, oila barqarorligi, oila farovonligi, oila huquqi, oilaviy muhit.*

Abstract: *This article discusses the main objective of state social policy aimed at supporting the family. In particular, it substantiates that during the years of our country's independence, the attention given to the family has served to ensure its stability and well-being.*

Keywords: *family, family policy, family stability, family well-being, family law, family environment.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается вопрос об основной цели социальной политики государств, направленной на семью. В частности, обосновывается, что в годы независимости нашей страны внимание, уделяемое семье, служит обеспечению её стабильности и благополучия.*

Ключевые слова: *семья, семейная политика, стабильность семьи, благополучие семьи, семейное право, семейная среда.*

Kirish. So'nggi vaqtlarda oilaning tuzilishi va vazifalarining o'zgarib ketishi oilaviy siyosatning muhimligini belgilab beradi. Urbanizatsiya jarayonining chuqurlashuvi, postmodernistik jamiyat belgilarining tezkorlik bilan namoyon bo'lishi natijasida oila sotsial institut sifatida xavf ostida qolmoqda. Oilani asrab qolish va qo'llab-quvvatlash mohiyatiga ko'ra global xarakterga ega. Shu bois hatto rivojlangan mamlakatlar ham oila inqirozidan tashvishga tushmoqda. AQSH respublikachilar partiyasining vakili, 2001-yildagi Prezident saylovlariga o'z nomzodini qo'ygan mafkurashunos P.Byukenen o'zining "G'arbning halokati" asarida bu holatni chuqur tahlil qilib bergan. Demak, oilani asrash va himoya qilish borasida eng avvalo davlatning oilaga munosabatini qayd qilib o'tish lozim. Bu munosabatlar davlatning oilaga oid siyosatida o'z ifodasini topadi. Oilaga oid davlat siyosati deganda davlat va siyosat subyektlarining oila xavfsizligi, uning rivoji va farovonligini ta'minlashga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyati tushuniladi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: hukumat qarorlari va qonunlarni oila xavfsizligi masalalari bilan muvofiqlashtirib borish; oilaning o'z funksiyalarini bajarishi uchun real imkoniyatlar yaratish; oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga moslashishiga yordam berish; oila ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy xizmatlar sistemasini shakllantirish; oila institutini mustahkamlash va rivojlantirish muammolarini hal qilish; kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash.

Biroq bugungi kunda barcha hukumatlarning oilaga oid siyosati ham ushbu vazifalarni to‘liqligicha qamrab olayotgani yo‘q. Milliy mentalitet, tarixiy taraqqiyotning o‘ziga xos xususiyatlari, mavjud ijtimoiy muammolar hukumatlardan oilaga nisbatan u yoki bu munosabatni shakllantirishni talab qilmoqda. Umuman olganda, bugungi kundagi davlatlarni oila va uning muammolariga munosabatiga qarab uch guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhni oilaga nisbatan qat’iy siyosat olib borayotgan davlatlar tashkil qiladi. Masalan, Fransiya, Germaniya, Daniya kabi mamlakatlarning hukumatlari Yevropadagi oilaviy qadriyatlar inqirozidan tashvishlanganlari bois oilaga oid davlat siyosatining qonuniy asoslarini ishlab chiqqanlar. Bu mamlakatlarda oilaning barcha tiplari har tomonlama qo‘llab-quvvatlanmoqda. Ikkinchi guruhga oila turmushining ayrim jihatlariga e’tiborni qaratgan davlatlar kiradi. Jumladan, AQSh va Niderlandiyada davlatning oilaga oid siyosati kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash bilan cheklansa, Xitoyda oila a’zolari miqdorini rejalashtirishga e’tibor beriladi. Uchinchi guruh mamlakatlarida esa (aytaylik, Osiyo, Lotin Amerikasi, Afrikadagi aksariyat davlatlarda) oilaviy siyosat konsepsiyasi mutlaqo ishlab chiqilmagan. Bunday vaziyat oilalarda turlicha turmush sharoitining yuzaga kelishiga va oila a’zolari o‘rtasida turlicha munosabat shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Oila huquqi bilan bog‘liq qonunlarning mavjudligi ham oilaviy muhitda iz qoldiradi. Oila huquqi oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi normativ-huquqiy hujjatlarni o‘z ichiga oladi. Biroq shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, oilaviy munosabatlarning barchasi ham qonunlar yordamida muvofiqlashtirilavermaydi. Masalan, oila a’zolarining bir-birlariga nisbatan tuyg‘ulari hech qanday qonun bilan qamrab olinmaydi. Shu boisdan oilaviy munosabatlarning katta qismi oila huquqi ta’siridan chetda bo‘lishi tabiiy. Binobarin, u yoki bu mamlakatdagi oila huquqiga doir qonunlarning samaradorligi darajasi oilaviy munosabatlarning qamrab olinganligi darajasi bilan belgilanadi. “Oila” kodeksi, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobi, birinchi Prezidentimiz I.Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asari, tadqiqotchilar O.Nizamiyeva, M.Musayevning tadqiqotlarini o‘rganish jarayoni shuni ko‘rsatmoqdaki, u yoki bu mamlakatdagi oila huquqiga doir qonunlarning samaradorligi darajasi oilaviy munosabatlarning qamrab olinganligi darajasi bilan belgilanadi.

Yigirmanchi asr mobaynida oila huquqi bilan bog‘liq qonunchilik barcha mamlakatlarda anchayin rivoj topdi. Bugungi kunda oilaga oid qonunchilik quyidagilarni muvofiqlashtirishga qaratilgan:

a)nikoh tuzish va uni bekor qilish shartlari va tartibi;

b)oila a’zolari o‘rtasidagi mulkiy va nomulkiy munosabatlar;

v)ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarning taqdirini hal qilish shakllari va tartibi[1].

Rivojlangan mamlakatlarda oilaviy munosabatlarni huquqiy muvofiqlashtirishdan maqsad quyidagilar bilan bog‘lanmoqda:

-oila va uning qadriyatlarini mustahkamlash;

-oilaviy munosabatlarni o‘zaro hurmat va o‘zaro yordam tuyg‘ulari asosida tashkil etish;

-oilani tashqi ta’sirlardan himoya qilish;

-oila a’zolariga o‘z huquqlaridan foydalanishga imkoniyat yaratish[2].

Ko‘rinib turibdiki, oila huquqi bilan bog‘liq qonunchilik ancha taraqqiy topgan. Biroq turli mamlakatlardagi vaziyat bu qonunlarga rioya etilishi darajasi bilan tubdan farq qiladi. Boz ustiga, rivojlangan mamlakatlardagi taraqqiy topgan oila qonunchiligi ajralishlar miqdori, oilaviy qadriyatlar yemirilishi jarayoni, oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarning salbiy tus olishiga barham bera olmayapti. Aksincha, noan’anaviy oilalarni, xususan ikki erkak va ikki ayoldan iborat oilalarning shakllanishiga, axloqsiz oilaviy munosabatlarning mavjud bo‘lishiga ham huquqiy zamin yaratib borayapti.

Siyosiy-huquqiy jarayonlarning oilaviy muhitga ijobiy ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mustaqillik yillarida davlatning oilaga munosabati tubdan o‘zgardi. Birinchi Prezident I.A.Karimov oila borasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyilini quyidagicha belgilalab bergan edi: “Oila sog‘lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir” [3]. Davlatning oilaga munosabatini 1998-yil 1-sentabrdan amalga kiritilgan “O‘zbekiston Respublikasining Oila

[1] Қаранг: Низамиева О.Н. Семейное право. Краткий курс. – Санкт-Петербург: Питер, 2006.- С.4.

[2] Қаранг: ўша ерда.- С. 8.

[3] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч.- Тошкент: Маънавият, 2008.- 58-б.

kodeksi”dan ko‘rish mumkin[4]. Unda, birinchidan, oila to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a’zolarining mas’ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishga yo‘l qo‘ymaslikdan, oila a’zolari o‘z huquqlarini to‘sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta’minlashdan iboratligi belgilab berildi. Ikkinchidan, oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqli ekanligi e’tirof etildi. Uchinchidan, oilaviy munosabatlarda fuqarolarning teng huquqli ekani ta’kidlandi. To‘rtinchidan, oilani, onalik, otalik va bolalikni muhofaza qilishga doir qonuniy normalar aniqlandi. Beshinchidan, oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odat va an’analarning qo‘llanilishi bilan bog‘liq holatlar aniq ifodalab berildi. Yangi O‘zbekiston sharoitida ham oila va uni asrab-avaylash, har tomonlama himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’lon qilindi.

O‘zbekistonning inson huquqlari va diniy erkinlikni ta’minlanishi sohasidagi islohotlari dunyo miqyosida e’tirofga sazovor bo‘lmoqda. 2016-yilning dekabridan 2021-yilgacha bo‘lgan muddatda mamlakatimizda uzoq yillardan buyon yashab fuqarolik maqomiga ega bo‘lmagan yurtdoshlarimizdan 50 ming nafari[5] O‘zbekiston fuqaroligiga qabul qilinganligi ularning oilalarida katta xursandchilik bilan nishonlandi, vatandan rozilik va shukronalik tuyg‘ularini oshishiga xizmat qildi. Mamlakatimizda ijtimoiy himoya sistemasining joriy qilinishi oilalarni qo‘llab-quvvatlashning real mexanizmini vujudga keltirdi, mahalla va oila hamkorligining yo‘lga qo‘yilishi esa muammoning huquqiy aspektini mustahkamlashga xizmat qildi. Bu sistemaga ko‘ra, fuqarolar o‘z-o‘zini boshqarish organlari oilalarning moddiy imkoniyatlarini aniqlash va ularga mustaqil yordam ko‘rsatish, ijtimoiy jihatdan himoya qilish imkoniyatlariga ega bo‘ldilar. O‘ziga xos ijtimoiy himoya sistemasining joriy etilishi kam ta’minlangan oilalarning tirikchilik manbaisiz qolishi xavfini kun tartibidan oldi. Shuningdek, pandemiya davrida kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish maqsadida qator vazifalar belgilab berildi. Xususan, “Aholining minimal iste’mol xarajatlari qiymati” joriy etildi va mazkur yondashuv asosida aholining kambag‘al qatlamiga kredit, ijtimoiy nafaqa yoki uy berish bilan birgalikda ta’lim, sog‘liqni saqlash, kasb-hunarga o‘qitish, ichimlik suvi, energiya va yo‘l infratuzilmasi bilan bog‘liq kompleks muammolarni hal etishni yo‘lga qo‘ydi. Ehtiyojmand aholini to‘g‘ri aniqlash va shu asosda ular bilan manzilli ishlashni ta’minlash uchun “Ijtimoiy reyestr” xizmatining joriy etilishi, xususiy sektorda ishlab tug‘ruq ta’tiliga chiqqan onalarga ham ta’til pullarining davlat tomonidan to‘lab berilishi kabi oila manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan choralarning amalga oshirilishi, jamiyatda oilani va bolani ulug‘lash kayfiyatining hosil qilinishi ham davlatning oilaga munosabati insonparvar xarakterda bo‘lganidan dalolat beradi. Yuqoridagi tadbirlarning samarasi o‘laroq O‘zbekistonda oila instituti yanada mustahkamlandi, oilaga doir milliy qadriyatlar tiklandi, uning iqtisodiy imkoniyatlari kengaydi, oilaviy munosabatlar bilan bog‘liq xalqaro normalar muomalaga kiritildi. Davlatning oilaga oid siyosati oila a’zolari orasidagi munosabatlarning yanada insonparvarlashuviga, undagi hamjihatlik va xayrixohlikning mustahkamlanishiga olib keldi. Davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Xullas, davlatimiz siyosatining barcha ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda kambag‘allikni qisqartirish muhim o‘rin egallaydi. Ushbu sohadagi faoliyatni tizimli va samarali tashkil etilishi esa, kambag‘allikdan chiqib ketishning eng muhim omili bo‘lgan insonning intilishi, o‘z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakat qilish imkonini yaratdi”.

Natijalar. Oilaviy siyosat strategiyasi jamiyatda oila institutini mustahkamlash, oilalarning turmush darajasi va hayot sifatini oshirish, fuqarolarga ijtimoiy yordam ko‘rsatishga qaratilgan davlat dasturi bo‘lib, asosiy maqsadi oila barqarorlikni ta’minlash, ajralishlarni kamaytirish va sog‘lom avlodni tarbiyalashni rag‘batlantirishdan iborat. Bunday strategiya uchun asos bo‘ladigan tamoyillar turli xil bo‘ladi. Biroq bu yerda aytilayotgan siyosat haqida gapiradigan bo‘lsak, qisqacha qilib aytganda ular quyidagi ko‘rinishga ega: *daromadlar, soliqlar, kreditlar*. Bu turli xil to‘lov, posobiya va imtiyozlarni ma’lum bir tipdagi oilalarga berishdan bozor iqtisodiyotiga

[4] Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси.- Тошкент: Адолат, 1998.

[5] Мусаев М. Янги Ўзбекистоннинг инсонпарвар сиёсати. Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари,-2022-1(93), 17-б.

yo‘naltirilgan daromadlarni shakllantirish, taqsimlash va foydalanish mexanizmiga o‘tishni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda oilaning siyosat oila va uning a’zolarini o‘z ijtimoiy faoliyati davridan samaraliroq foyda olinib, ularni o‘zlari istagan hayot tarzlarini quvvatlashga sarflay olishlari uchun sharoit yaratishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Har qaysi mamlakatning iqtisodiy siyosatida soliq siyosati o‘ta muhim ahamiyatga ega. Soliq siyosati davlatning boshqa iqtisodiy siyosatining yo‘nalishlariga kuchli uzviy bog‘liqligi bilan bir qatorda, ularga ta’sir qilib boradi. Soliq siyosatini to‘g‘ri ishlab chiqish va uning strategik hamda taktik yo‘nalishlarini belgilab olish o‘ta dolzarb va murakkab jarayon hisoblanadi. Soliqlar har qanday davlat va jamiyatning pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo‘yilgan hajmda hamda o‘rnatilgan muddatda jismoniy va yuridik shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to‘lovlardir. XVIII asrda yashagan AQSh siyosatchisi va iqtisodiyotchisi Benjamin Franklinning “Bu dunyoda ikkita narsadan qochib qutulib bo‘lmaydi: o‘limdan va soliqlardan”, degan gapi hukumat idoralari xodimlari orasida tez-tez ishlatilib turadi. Hech shubhasiz, soliqlar har qanday davlat iqtisodiyoti, ijtimoiy himoya va mudofaa tizimi, farzandarning ta’lim olishi uchun katta ahamiyatga ega.

Soliq qarzlarining to‘planib qolishi iqtisodiy ko‘rsatkichlarga salbiy ta’sir ko‘rstib, oqibatda bu b udjetga tushumlarning pasayishiga olib keladi.

Soliq siyosati aholidan faqatgina soliq to‘lovini undirishdan iborat emas, balki yana bir muhim maqsad to‘lovchining madaniyatini, mas’uliyatini, bu boradagi bilimlarini oshirishni ham talab qiladi. Halol tadbirkorlik, daromadlarini davlatdan yashirmaslik, intizomli soliq to‘lovchilar safini kengaytirish yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashning eng samarali yo‘li sifatida e’tirof etiladi. Soliq imtiyozi – deganda soliq to‘lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to‘lovchilar bilan qiyoslaganda soliqlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan afzalliklar berilishi, shu jumladan soliq (yig‘im) to‘lamaslik yoxud kam hajmda to‘lash imkoniyati tushuniladi. Soliq imtiyozlari taqdim etilishi borasida, uning jamiyat manfaatlari nuqtayi nazardan samaradorligi, shaffofligi, adolatligi fuqarolarda davlat idoralariga bo‘lgan xayrixohlikni oshiradi. Kredit siyosati ham shu tarzda o‘tkazilishi kerak. Rag‘batlantirilgan oilalarga kredit berish shartlari boshqa xil oilalarga berishdan boshqacha stimullashgan bo‘lishi lozim. Bunday oilaviy siyosatning o‘tkazilishi oilaning iqtisodiy mustaqilligiga ko‘maklashadi. Shu sababli oilaviy siyosat dasturi bu turli ijtimoiy guruhlar intilishlari va asos qilib olingan ilmiy konsepsiyalar orasidagi murosadir. Oilaviy siyosat texnologiyasini tahlil qilish uchun avvalo, ijtimoiy fikrni o‘rganish lozim.

Oila xizmati – oila bilan ijtimoiy ish doirasida nikoh va oilaviy munosabatlarni tartibga solish mexanizmlaridan biri bo‘lib, uning asosiy maqsadi oilaning turli funksiyalari, birinchi navbatda terapevtik, tarbiyaviy, reproduktiv funksiyalarini maqbul bajarilishini ta’minlash, oilaviy munosabatlarni takomillashtirishga, er-xotin va ularning farzandlarining shaxsiyatini uyg‘unlashtirishga, nikohni barqarorlashtirishga, shuningdek, oilani shakllantirishda yordam berishdir. Tashkiliy jihatdan, oila xizmati maslahat turi muassasalari tarmog‘idir.

Metodologik qism. Ushbu maqolani tayyorlashda oilalarga qaratilgan siyosatning mohiyatini ochib berish uchun tarkibiy-funksional tahlil uslubi qo‘llanildi, oilaviy muhitga ta’sir qiluvchi siyosiy-huquqiy jarayonlarning mazmunini yoritishda esa dialektika uslublari va usullari, prinsiplari va imperativlari, ilmiy manbalarni tahlil qilish uslubidan foydalanildi.

Xulosa. Oilaviy siyosatni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari oila uchun ijtimoiy va psixologik-pedagogik yordam tizimini yaratish, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, oila hayotining moddiy sharoitlarini yaxshilash, kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash, ayollarning kasbiy va ijtimoiy mavqeyini oshirish, balog‘atga yetmagan huquqbuzarliklarning oldini olish, mafkuraviy, targ‘ibot va madaniy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirishdan iborat.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси.- Тошкент: Адолат, 1998.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi,Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч.- Тошкент: Маънавият, 2008.
4. Низамиева О.Н. Семейное право. Краткий курс. – Санкт-Петербург: Питер, 2006.- С.4.
5. Мусаев М. Янги Ўзбекистоннинг инсонпарвар сиёсати, Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари.-2022-1(93) **,** 17-б.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 821.512.133.09

“OT EGASI” HIKOYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING IFODALANISHI VA ULARNI O‘QITISH METODIKASI

Maxmudova Umriniso Mansurbekovna, Urganch davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

EXPRESSION OF NATIONAL VALUES IN THE STORY “THE OWNER OF THE HORSE” AND METHODS OF TEACHING THEM

Makhmudova Umriniso Mansurbekovna, 3rd year student of the Uzbek language and literature department of the Urgench State Pedagogical Institute

e-mail: maxmudovaumriniso18@gmail.com

ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В РАССКАЗЕ “ВЛАДЕЛЕЦ ЛОШАДИ” И МЕТОДЫ ИХ ОБУЧЕНИЯ

Махмудова Умринисо Мансурбековна, студентка 3-курса отделения узбекского языка и литературы Ургенчского государственного педагогического института

Annotatsiya: *Ushbu maqolada adabiyotning yorqin namoyandalaridan biri bo‘lgan Shukur Xolmirzayev haqida so‘z boradi. Uning “Ot egasi” hikoyasi tahlilga tortiladi. Hikoyaning adabiy ta’limdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Hikoyada keltirilgan milliy qadriyatlarga alohida to‘xtalib o‘tiladi.*

Kalit so‘z: *kolorit, tasvir, tabiat, obraz, hayvon, majoz, ruh.*

Abstract: *This article discusses one of the brightest representatives of literature, Shukur Kholmirzayev. His story “The Horse Owner” is analyzed. The role of the story in literary education is considered. The national values presented in the story are discussed separately.*

Keywords: *color, image, nature, image, animal, metaphor, spirit.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается один из самых ярких представителей литературы, Шукур Холмирзаев. Анализируется его рассказ “Владелец лошади”. Рассматривается роль рассказа в литературном воспитании. Отдельно обсуждаются национальные ценности, представленные в рассказе.*

Ключевые слова: *цвет, образ, природа, образ, животное, метафора, дух.*

KIRISH. Adabiyot insonyat paydo bo‘lgan davrdan beri mavjud. Adabiyot so‘zining ma’nosi ham adab so‘zidan olingan bo‘lib odoblar yig‘indisi degan ma’noni anglatadi. Adabiyot inson ongi, uning ruhiyati bilan shug‘ullanadigan fan hisoblanadi. Adabiyot haqida ko‘plab olimlarimiz o‘z fikrini bildirishgan. Jadid namoyandalaridan Abdulhamid Cho‘lpon ham adabiyot haqida quyidagi fikrlarni aytib o‘tgan. “Ha, to‘xtamasdan harakat qilib turg‘on vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo‘lsa, maishat yo‘lida har xil qora kirlar bilan kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa – millat yashar”[5.7b].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. XX asrning boshlarida jadid namoyandalarimizdan Cho‘lpon, Qodiriy, Fitrat, Hamza, Behbudiy kabi ziyolilarimiz adabiyot rivojiga hissa qo‘shgan

bo‘lsalar, shu asrning oxirlarida zamonaviy adabiyotimizning yorqin namoyandalaridan bo‘lgan G‘afur G‘ulom, Oybek, Said Ahmad, Abdulla Qahhor ham adabiyot rivojiga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Ana shunday yozuvchilarimiz qatorida Shukur Xolmirzayev ham o‘zining hikoya va ocherklari bilan o‘zbek adabiyotimizda o‘chmas iz qoldirgan. Surxon vohasining zabardast farzandi bo‘lgan Shukur Xolmirzayev boshqa yozuvchilardan farqli o‘laroq tabiat va inson, hayvonot va inson mavzularini o‘z hikoyalarida yuqori darajaga olib chiqqan. Uning asarlarida Surxon elining Bo‘ysun tog‘lari, u yerning tabiati juda chiroyli tasvirlab berilgan. U yaratgan qahramonlar tabiatga mehr qo‘ygan kishilar bo‘lgan. Yozuvchi shaklan an’anaviy yo‘lda mazmunan yangi qahramonlar yaratgan. Jahon adabiyoti durdonalari sanalgan Jek London, Ernest Xeminguey, Ernest Seton Tompson kabi yozuvchilar yaratgan asarlarida qanchalik tabiatni, hayvonlarni bosh rolga qo‘ygan bo‘lsalar, Shukur Xolmirzayev ham o‘zbek adbiyotida shunday go‘zal asarlar yaratgan. Yuqoridagi fikrlarimizga yaqqol misol sifatida yozuvchining “Ot egasi” hikoyasini aytishimiz mumkin.

MUHOKAMA. Jahon adabiyotida ham, o‘zbek adabiyotida ham tasvir yetakchi o‘rinda turadi. Chunki tasvir kitobxon tasavvurini kengaytiradi, tasvir orqali o‘zini shu muhitga oid his qiladi. Bu borada adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov: “Mahorat bilan tasvirlangan holat tasavvurda jonlangan onlarda (hikoyani o‘qish jarayonida) o‘quvchi adibning (ijod onlaridagi) his-tuyg‘ularni qalbdan kechiradi”[1.27b], -deya aytib o‘tgan. Shukur Xolmirzayevning hikoyalarida ham ajralib turadigan yana bir xususiyat bu tabiat tasviri hisoblanadi. U deyarli barcha hikoyalarida tabiatni shu darajada chiroyli qilib tasvirlagan. Ushbu hikoyada ham quyidagi jumlalar orqali Surxon koloriti sezilib turadi. “Quyosh kunbotarga egilib, kunchiqardagi adrlar bag‘rini yoritar, soyning ham u yer-bu yeri yiltirar edi” [4.272b].

Barchamizga ma’lumki, o‘zbek adabiyotida hayvonlar bosh obrazga ko‘tarilib, majoziy ma’noda qo‘llangan. Bunga misol qilib “Zarbulmasal”, “Lison ut-tayr” kabi asarlarni aytishimiz mumkin. Ammo Shukur Xolmirzayev hayvonlarni majoziy ma’noda o‘z asariga olib kirmagan, balki hayvonlarni sevishni, ularni qadrlashni, insonlar uchun eng yaxshi do‘st tabiat va hayvonlar ekanligini hikoyalari orqali kitobxonga yetkazib bergan. Bilamizki, qadim zamonlardan beri ot yigit kishining or-nomusi hisoblanadi. Buni xalq og‘zaki ijodi namunalaridan ham bilib olishimiz mumkin. “Alpomish”, “Rustamxon”, “Go‘ro‘g‘li” kabi dostonlarimizda ham otlar bosh obraz darajasiga olib chiqilgan, jang-u jadallarda otlar o‘z sohiblarining eng yaxshi do‘sti, quroli bo‘lishgan. “G‘animlarning dodin berar jonivor, nazarkarda bilgin, aka, Boychibor” [2.83b]. Ushbu jumla “Alpomish” dostonidan olingan bo‘lib, Alpomishni alplarni yengib Barchinni o‘z yurtiga qaytarib kelishida ham uning oti – Boychibor juda katta ro‘l o‘ynaydi. Xuddi shunday “Ot egasi” hikoyasida bosh qahramon Inod tomonidan quyidagi jumlalar keltirilgan. “Er yigitning oti bo‘lishi kerak, der edilar. Shu ot… mening og‘ir kunimga yaradi” [4.275b].

Hikoyada yana hayvonlarning sadoqati haqida ham fikr yuritiladi. Barcha hayvonlar insonlarga sodiq bo‘lishadi. It insonning eng yaqin do‘sti ekanligi bugungi kunda ham ko‘p bora takrorlanadi. Otlar ham go‘zal sadoqat timsoli hisoblanadi. “Lekin Inodning qo‘lidagi ushbu qorabayr ham unga sodiq xizmat o‘tardi, ikki bor anavi soyni sel suvi bosganda, egasini olib chiqqan, to‘rt yildan buyon ko‘pkarilarda uloqni muttasil shu ayirib chiqar…” [4.270b] Inodning eng og‘ir damlarida, oilasidan ayrilgan vaqtlarida ot unga ruhan dalda berib har doim uning yonida bo‘lgan. Aynan shuning uchun ham Inodning unga bo‘lgan mehri o‘zgacha. Hikoyani o‘qir ekanmiz, hayvonning insonga bo‘lgan sadoqatini juda chuqur anglab yetamiz.

NATIJALAR. Yozuvchi ushbu hikoyada milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizga ham alohida to‘xtalib o‘tganlar. Ota-bobolarimizdan qolgan merosni asrab avaylashimiz kerakligini, unga egalik qilishimiz kerakligini ifodalaganlar. Har bir inson o‘z farzandlariga go‘zal narsalarni meros qilib qoldirishini biz yaxshi bilamiz. Chunki yoshlikda mutolaa qilgan ertak kitoblarimizning deyarli barchasi ushbu mavzuda bo‘lgan. Bunga misol qilib “Ota vasiyati” rivoyatini aytishimiz mumkin. Bu rivoyatda ham ota o‘g‘liga shunday vasiyat qiladi: “Toklarimiz tagiga ikki xum tilla ko‘milgan. Shu tillani yilda ikki marta – bahor va kuzda kovlab olib, tirikchilingingga yaratgin”[3.65b]. Bu so‘zlari orqali ota o‘g‘liga

mehnatning tagi rohat ekanligini, mehnat qilib boylik orttirish mumkunligini tushuntiradi. Xuddi shunday “Ot egasi” hikoyasi qahramoni bo‘lgan Inodning ham uchta boyligi bo‘ladi. “Biri – soy bo‘yidagi serdarxt qishlog‘i…” [4.270b] “Ikkinchi boyligi – qishloq o‘rtasidagi tepada o‘rnashgan ikki xonali maktabi edi…” [4.270b] “Uning uchinchi boyligi – qorabayir oti edi…” [4.270b] Bu boyliklar ham Inodga ota-bobolaridan qolgan meros edi.

Hikoyaning nega aynan “Ot egasi” deb nomlanishi barcha o‘quvchilarni juda ham qiziqtiradi. O‘quvchi hikoyani o‘qir ekan, Inodni o‘z otini qay darajada yaxshi ko‘rganligiga guvoh bo‘lishadi. Inod o‘zining eng yaqin do‘sti, or-nomusi, otasidan qolgan merosini begona kishilarning qo‘liga topshirgisi kelmaydi. Uni begona qo‘llarga topshirgandan ko‘ra, o‘z qo‘lida o‘lim topishini istaydi. Ushbu jarayon yozuvchi tomonidan juda mahorat bilan tasvirlangan. “Ot jimib qolgandan keyin Inod uning boshiga bordi va birdan uning bo‘ynidan quchoqlab, ko‘zlarini yumdi”[4.277b]. Yuqorida keltirilgan jumla o‘quvchilar uchun hikoyaning eng kulminatsion nuqtasi bo‘ladi, desak adashmaymiz. Chunki hikoyani o‘qish boshlagan kitobxon oxiridagi voqea-hodisalar bunday tus olishini bilmaydi.

XULOSA qilib shuni aytishimiz mumkinki, har bir asar o‘quvchi uchun bir hayot sabog‘idir. O‘quvchi asarni o‘qir ekan, undagi bo‘layotgan voqealarni o‘z hayoti bilan solishtiradi, obrazlarni tahlil qiladi. Ijobiy va salbiy obrazdagi qahramonlar xarakteridan kelib chiqib o‘z ruhiyatini o‘zgartiradi. Xuddi shunday yuqorida tahlil qilgan hikoyamiz orqali o‘quvchilar tabiatni sevishni, hayvonlarni o‘z do‘sti sifatida ko‘rishni, ota-bobolaridan qolgan merosni asrab avaylashni o‘rganishadi. Er yigit uchun or-nomus, g‘urur har doim birinchi o‘rinda turishini tushunib yetishadi. Hayotda boylikdan ham qadrli narsalar borligini anglashadi. Ushbu hikoyaning ham aynan maktab darsligida berilishiga sabab, o‘quvchilarni vatanga muhabbatli, tabiat va hayvonlarga e’tiborli qilib tarbiyalash. Chunki biz har doim ona-tabiatni avaylashimiz, undagi noz-ne’matlarning qadriga yetishimiz zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazaryasi asoslari. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo nashriyoti, 2020. – 310b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti. Alpomish. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 1998. – 397b.
3. Q.Yo‘ldoshev, S.Qambarova, D.To‘xliyeva, N.Yusufjonova, O.Olimjonov. Adabiyot, 5-sinf I qism. Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 97b.
4. S.Olimov, S.Ahmedov, R.Qo‘chqorov. Adabiyot, 8-sinf. Darslik. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019 – 352b.
5. Cho‘lpon. Adabiyot nadir? Adabiy-tanqidiy maqolalar. Cho‘lpon haqida xotiralar. – T.: Cho‘lpon, 1994. – 240 bet.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 1(092)177

SA'DIDDIN HAMAVIY MA'NAVIY MEROSIDA NAFS HAQIDAGI TASAVVUFIY-FALSAFIY QARASHLARNING NAMOYON BO'LISHI

Rajabov Alisher Shavkatovich, Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

https://orcid.org/0009-0002-3537-8313

THE MANIFESTATION OF SUCCESSIVE-PHILOSOPHICAL VIEWS ABOUT THE SELF IN THE SPIRITUAL HERITAGE OF SA'DIDDIN KHAMAVI

Rajabov Alisher Shavkatovich, independent researcher of the Bukhara State Pedagogical Institute

ПРОЯВЛЕНИЕ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДОВ НА САМОСТОЯТЕЛЬНОСТЬ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ САЪДИДДИНА ХАМАВИ

Раджабов Алишер Шавкатович, независимый исследователь Бухарского государственного педагогического института

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'rta asrlarda yashagan tasavvuf falsafasining yirik nazariyotchi vakillaridan biri bo'lgan, "Vahdat ul-vujud" ta'limotining rivojiga munosib hissa qo'shgan Sa'diddin Hamaviyning ma'naviy merosi hamda tasavvufiy qarashlarida muhim o'rin egallagan mavzulardan biri nafs va uni tarbiyalash muammolari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Sa'diddin Hamaviy, Qur'oni Karim, vahdat ul-vujud falsafasi, nafsi kulliy, nabotiy nafs, nafsi vohiza, nafsi vojida, nafsi vohida.*

Abstract: *This article analyzes the spiritual heritage of Sa'diddin Hamawi, one of the major theorists of medieval Sufi philosophy who made a significant contribution to the development of the "Wahdat ul-Wujud" doctrine. It also examines one of the central topics in his Sufi views - the nafs (self) and the challenges of its cultivation.*

Keywords: *Sa'diddin Hamawi, Quran, philosophy of wahdat ul-wujud, nafsi kulliy (universal self), nabotiy nafs (vegetative self), nafsi vohiza, nafsi vojida, nafsi vohida.*

Аннотация: *В данной статье анализируется духовное наследие Саъдиддина Хамави, одного из крупнейших теоретиков средневековой суфийской философии, внесшего достойный вклад в развитие учения "Вахдат уль-вуджуд", а также проблемы нафса и его воспитания, которые занимают важное место в его суфийских воззрениях.*

Ключевые слова: *Саъдиддин Хамави, Коран, философия единства бытия, универсальная душа, растительная душа, предостерегающая душа, находящая душа, единая душа.*

Kirish. Islom ilohiyotida "nafs" yoki o'zlik tushunchasi inson mavjudligi va anglashining turli qirralarini qamrab olgan murakkab tuzilmadir. Qur'ondan boshlab, keyinchalik ilohiyot (kalom), falsafa va tasavvuf kabi islom tafakkuri oqimlarini kuzatib, bu tadqiqot musulmon mutafakkirlarining

asosan inson holati muammosiga e’tibor qaratganini ko‘rsatadi. Ularning bu markaziy masalani turli nuqtayi nazardan yoritish usuli, bir tomondan, o‘zini anglash, o‘zini tarbiyalash va o‘zini o‘zgartirishni, boshqa tomondan esa o‘zlik va koinotning o‘zaro bog‘liqligini tushunishni ta’kidlaydigan antroposentrik va antropokosmik deb ataladigan o‘zlikni anglash tushunchasini rivojlantirishga asoslanadi. Insonning tasavvufiy modeli uch asosni o‘z ichiga oladi: jismoniy, ijtimoiy va ma’naviy. Jismoniy asos insondagi jonsiz va jonli tabiatning “vakili” hisoblanadi. Biroq, uni faqat jonsiz modda (“zot”) va fiziologik jarayonlarga bog‘lab qo‘yish to‘g‘ri emas: tasavvufiy manbalarda u asosan insonning past va jismoniy intilishlarini ifodalovchi “nafs” tushunchasi orqali tavsiflanadi. Yungning tahliliy psixologiyasida “nafs”ga yaqin bo‘lgan “soya” tushunchasi mavjud bo‘lib, u insonning uyaladigan va boshqalarga nisbat beradigan g‘ayriijtimoiy xususiyatlarini anglatadi [1]. Ammo tasavvufda, bundan farqli o‘laroq, “nafs” hukmida bo‘lgan kishi undan uyalmaydi, chunki “nafs”ni o‘z shaxsiyati bilan aynan deb biladi. Turk tadqiqotchisi Hasan Kamil Yilmaz ta’kidlaganidek, “eng katta qiyinchilik shundaki, nafs o‘zining bu xislatlarini go‘zal deb hisoblaydi” [2]. Tasavvufga oid deyarli barcha asarlarda “nafs”ga ijtimoiy kelib chiqishga ega bo‘lgan hasad, ochko‘zlik, tamagirlik kabi qator sifatlar ham nisbat beriladi. Ba’zi asarlarda “nafs” xristianlikdagi “jon” tushunchasiga o‘xshash, ruhdan tanaga yo‘naltirilganligi bilan farqlanadigan nomoddiy substansiya sifatida talqin qilinadi [3]. Tasavvufiy manbalardagi “nafs”ning ko‘plab talqinlari tafsilotlariga chuqur kirmasdan, insonda uning jismoniy tabiatida yashiringan va shaxsiyatining g‘ayriinsoniy tomonini oziqlantiradigan asos mavjud deb hisoblasak mubolag‘a bo‘lmaydi. Lug‘atda ruh, jon, hayot, hayotning asosi, nafas, borliq, zot, inson, shaxs, havo, havas, qon, tana, tanadan kelib chiqadigan tuban istaklar kabi ma’nolarga ega bo‘lgan nafs so‘zi Qur’onda “kibru havo”[4](An’om surasi, 6/93), zot va o‘z borliq[5](Oli Imron surasi, 3/28-30) ma’nolarida qo‘llangan. Haq taolo ilohiy xitobga murojaat qilish uchun mas’ul qilgan nafsga “yomonlikka buyurish”[6] (Yusuf surasi, 12/53), “nafsni va qilgan yomonliklarini ayblash” [7] (Fajr surasi, 89/27) keyingi bosqichda xotirjamlikka erishish[8] kabi bir-biridan farq qiluvchi sifatlarni yuklagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (literature review). Mazkur mavzuga oid ma’lumotlar Sa’diddin Hamaviyning “Mahbub ul-muhibiyn va matlab ul-vosiliyn” (Muhiblarning mahbubi va vasl istovchilarning matlabi), “Al-misbah fit-tasavvuf”, “Bahr ul-maoniy” (Ma’nolar ummoni), “Risola dar tasavvuf” (Tasavvuf haqida risola) kabi asarlarida batafsil bayon qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi (research methodology). Tadqiqotda analiz, sintez, tarixiylik, sinergetika va germenevtika, vorisiylik, qiyosiy tahlil, usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (analysis and results). Kalom va falsafada nafs, ruh, aql va qalb tushunchalari bir-biriga yaqin ma’noda qo‘llanilib, mavjudotlarning hayotini davom ettiruvchi nozik javhardir. Bu javharning nafsi tabiiy, nafsi nabotiy, nafsi hayvoniy va nafsi notiqa yoki insoniy kabi to‘rt darajasi bor. Amaliyotda mutasavviflar aksariyat hollarda nafsning mohiyati, birligi, jism va javhar, qadim va hodis bo‘lishi, avval yoki keyin yaratilishi kabi masalalardan ko‘ra uning zaifliklari, hiylalari, yomonliklari, kasalliklari, ularni davolash yo‘llari bilan yomonliklaridan saqlanish choralari va nafs tarbiyasi kabi masalalar ustida to‘xtalganlar. Bu borada nafs tasavvufda insonning ma’naviy maqomiga ishora qiluvchi iyerarxik tasnifga

[1] Рахматуллин Р.Ю. Суфийская антропология. Исламоведение. 2013. № 1. -С. 66. (64-74 умумий бет).

[2] Хасан Камиль Йылмаз. Тасаввуф и тарикаты. – М.: САД, 2007. -С.265.

[3] Моль А. Социодинамика культуры. – М.: Издательство ЛКИ, 2008.

[4] Қуръони карим маъноларининг таржимаси / Таржима ва изоҳлар муаллифи: Алоуддин Мансур. – Т.: Чўлпон, 1992. – 671 б.

[5] Қуръони карим маъноларининг таржимаси / Таржима ва изоҳлар муаллифи: Алоуддин Мансур. – Т.: Чўлпон, 1992. – 671 б.

[6] Қуръони карим маъноларининг таржимаси / Таржима ва изоҳлар муаллифи: Алоуддин Мансур. – Т.: Чўлпон, 1992. – 671 б.

[7] Қуръони карим маъноларининг таржимаси / Таржима ва изоҳлар муаллифи: Алоуддин Мансур. – Т.: Чўлпон, 1992. – 671 б.

[8] Қуръони карим маъноларининг таржимаси / Таржима ва изоҳлар муаллифи: Алоуддин Мансур. – Т.: Чўлпон, 1992. – 671 б.

bo‘ysundirilgan. Bular nafsi ammora, nafsi lavvoma, nafsi mulhima, nafsi mutmainna, nafsi roziya, nafsi marziya va nafsi komiladir[9]. Amaliy kontekstda nafsni barcha yomonliklarning manbai deb bilgan mutasavviflar o‘z qarashlarida tajovuzkor it, ayyor tulki, ochko‘z cho‘chqa, jirkanch sichqon, dahshatli ilon va ajdaho, Fir’avn va Namrudga, ba’zan butga, zindon, do‘zax, haq-huquqni bilmaydigan o‘g‘ri, jodugar va insonni yo‘ldan ozdiruvchi ayolga o‘xshatishgan. Nafs, ruh va aqlning har biri alohida borliqlar ekanligi haqidagi qarash ustuvor bo‘lgan nazariy tasavvufda esa nafs tushunchasining ontologik jihati va mohiyatiga to‘xtalib o‘tilgan. Ibn al-Arabiy vaqt va makon bilan bog‘liq bo‘lgan, buziladigan va o‘zgaruvchan moddiy suratga ega bo‘lgan moddiy nafsning uchta xususiyati haqida so‘z yuritgan. Bular nabotiy, hayvoniyiy va aqliy nafslardir. Nabotiy nafsning asosiy vazifasi ozuqa izlash va borlig‘ining davomiyligi uchun harakat qilishdir. Hayvoniy nafsning joyi qalb bo‘lib, moddiydir. Barcha insonlar va hayvonlar bu nafsga egadir. Aqliy nafs esa mutlaq mohiyati bilan anglovchidir. U barcha gunohlardan poklangan va erkin bo‘lib tug‘ilgan. Yo‘q qilib bo‘lmaydi. U azaliy va abadiydir. Tana bilan birga ekan, u bilan ishlaydi, lekin u tanadan butunlay mustaqildir. Hamaviy nafs tushunchasini ikki kontekstda, ya’ni nazariy va amaliy jihatdan ko‘rib chiqqan. U amaliyotda ko‘rib chiqayotgan nafs insonni to‘g‘ri yo‘ldan adashtiradigan, isyonga undaydigan, yomonlikka buyuradigan nafsdir[10]. U bu o‘rinda nafs o‘rniga ko‘pincha “havo” tushunchasini qo‘llagan. Shu ma’noda uning nafs haqidagi tushunchasi ko‘pchilik so‘fiylarning qarashlariga mos keladi. Nazariy kontekstda u ko‘rib chiqayotgan nafs esa “kulliy nafs” deb ataydigan metafizik borliq bo‘lib, yomonlikning manbai bo‘lgan nafsdan va uni eslatuvchi ma’nolardan yiroqdir. Bu o‘rinda Hamaviy nafs bilan ko‘proq zoti ilohiyni yoki insonni vujudga keltiruvchi javharni nazarda tutadi. Biroq bu ikki nafs bir-biridan mutlaqo mustaqil emas. Havo degan ma’noni anglatuvchi nafs namoyon bo‘lishidir. insonning nozik tarkibiy qismi bo‘lgan nafsning Hamaviy nazariy ma’noda ko‘irib chiqqan nafs (nafsi kulliy)ni insonning latif bir tarkibiy qismi bo‘lgan insoniy nafsning manbai sifatida ko‘rgan. Unga ko‘ra, Vujudi Mutlaq taayyun qilganida Undan kulliy nafs hosil bo‘lgan. Kulliy nafsning taayyunidan esa uchta ilohiy nafs, ya’ni nafsi vohiza, nafsi vojida va nafsi vohida paydo bo‘lgan. Bizning fikrimizga ko‘ra, Hamaviyning nafs haqidagi bu qarashlari tasavvuf tarixida birinchi marotaba ilgari surilgan qarashdir. Garchi undan oldin nafs insonning mavjudlik sababi bo‘lgan nozik malaka sifatida qaralgan bo‘lsa-da, u kabi “vahdat ul vujud” nazariyasi doirasida nafsni bu tarzda ishlagan muallifni uchratmadik.

Nafsi vohida zotning birinchi taayyuni bo‘lgan Haqiqati Muhammadiyaning bir vajhi bo‘lib, zot, sifat va af’oli ilohiyaga mazhar bo‘lgan birinchi nafsdir. Bu nafs, Hamaviyning ta’biri bilan aytganda, “nafsi nubuvvat”dir. Nafsi vojida Haqiqati Muhammadiyaning ikkinchi bir vajhi bo‘lib, u zotga birlashgan afol, sur’at, tanaavu’, harakat, hidoyat va zalolatni Haq taolodan boshqa hech kim tushunmaydigan tarzda sirlarning voqifligiga ega bo‘lgan Nafsi Muhammadiydir. Hamaviy buni ham “nafsi valoyat” deb atagan. Nafsi vohiza esa nafsi vohida bilan nafsi vojida o‘rtasida bo‘lib, nafsi insoniyning haqiqati va manbaidir. Nafsi vohizaning ikki jihati mavjud bo‘lib, biri farishtaga, ikkinchisi bashar (insoniyat)ga qaratilgan. Basharga qaratilgan jihati bilan nafsi vohiza shaytonning tasarruf maydonidir. Farishtaga qaratilgan yo‘nalish esa insonning javharida yashirin holda mavjud bo‘lgan til va nutqning manbaidir.

Hamaviy nafsning mavjudlik sarguzashtini nafsi kulliy va yuqorida zikr etilgan uch nafsni bayon qilgandan so‘ng insoniy nafs bilan davom ettirgan. Unga ko‘ra, yuqorida tilga olingan nafsi vohida, nafsi vohiza va nafsi vojidaning har biriga javoban ko‘plab nafslar yuzaga kelgan. Ulardan biri bo‘lgan insoniy nafs nafsi vohizaning zuhuridan hosil bo‘lgan umumiy nafs bo‘lib, zohiriy nafs va botiniy nafs kabi bir-biriga qarama-qarshi holatlarga ega bo‘lgan ikki nafsdan tashkil topgan. Zohiriy nafs

[9] Şaban Arğun. Sa'deddin Hamûyî-Hayatı, Eserleri ve Tasavvufi Görüşleri. Ankara.: “Fecr Yayınları”, 2023.-S. 155.

[10] Şaban Arğun. Sa'deddin Hamûyî-Hayatı, Eserleri ve Tasavvufi Görüşleri. Ankara.: “Fecr Yayınları”, 2023.-S. 140.

o‘zi bilan kurashish kerak bo‘lgan yomon sifatlar bilan muttasif nafsdir. Botiniy nafs esa zohiriy nafs zohir bilan kurashuvchi nafsdir. Hamaviy: “U kunda har bir nafs kelib, o‘z nafsi bilan kurashadi” oyati karimasida bir-biri bilan kurashayotgan nafslarni shu mazmunda sharhlagan[11].

Hamaviy, insoniy nafsning bir tarkibiy qismi bo‘lgan zohiriy nafs bilan botiniy nafs o‘rtasidagi munosabatga ishora qilib, bu munosabatni anglash va ular o‘rtasidagi noma’lumliklarni hal qilish holatida “Nafsini bilgan Rabbini ham biladi” [12] hadisi sharifining tushunilgan bo‘lishini ta’kidlagan. Shunday qilib, zohiriy nafsning istaklari mulk va shahodat olami bilan chegaralangan. Botiniy nafs esa malakut va g‘ayb olami bilan shug‘ullanadi. Shahodat olamida mavjud bo‘lgan narsalarning aynan o‘zi insonning moddiy tanasida mavjud. G‘ayb olamida mavjud bo‘lgan narsalar insonning g‘aybida ham mavjuddir. Shuning uchun Hamaviy zohiriy nafsni olami sag‘ir (kichik olam), botiniy nafsni esa olami kabir (katta olam) deb ta’riflagan. Shahodat olami bilan bog‘liq bo‘lgan zohiriy nafs zohir ikki qarama-qarshi iste’dodga ega bo‘lib, bir tomondan isyonkor bo‘lsa, boshqa tomondan itoatkordir. G‘ayb olamiga taalluqli bo‘lgan botiniy nafs esa biri ismatga, ikkinchisi hikmatga qaraydigan ikki xususiyatga egadir.

Hamaviyning fikricha, nafsni shu tariqa tanigan kishi iqtidori miqdoricha g‘ayb va shahodat ilmiga ega bo‘ladi. U: “Sizlar o‘z dunyo ishlaringizni yaxshiroq biluvchidirsiz” hadisini kishining kalom daryosidan o‘ziga qadah tutgan zohiriy nafsini va o‘zini kitob daryosiga g‘arq qilgan botiniy nafsini tanishi ma’nosida tushunish lozimligini uqtirgan. Sa’diddin Hamaviyga ko‘ra, “nafsni zohiriy ilmlar bilan yoki boshqalardan eshitish bilan bilib bo‘lmaydi. Bu shaklda, faqat po‘stloqni bilish mumkin. Mag‘zini bilish uchun jam’ va fano daryosiga sho‘ng‘ish kerak. Buning sharti esa avval dunyodan so‘ng uqbodan (oxiratdan) yuz o‘girib, Haq Taoloning muhabbatiga erishishdir”[13].

Xulosa. Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, Sa’diddin Hamaviyning tasavvufiy qarashlarida inson borlig‘ining muhim ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan nafs muammosi markaziy o‘rinni egallagan. Mutasavvifning nafs haqidagi qarashlari nazariy va amaliy kontekstda ishlab chiqilib, botiniy nafs hamda zohiriy nafsning tasavvufiy, antropologik hamda ontologik xususiyatlari tahlil etilgan. Shuningdek, Hamaviy tasavvuf tarixida ilk marotaba nafsning nafsi vohiza, nafsi vojida va nafsi vohida kabi ko‘rinishlarini tasniflab, ularning mazmuni hamda mohiyatini ochib bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Исмоил ибн Муҳаммад Ажлуний. Кашф ул-хафа ва манозил-ул илбасан ма ашъара мин ал-абодиси аъло алсинат ин-нас. Юсуф ибн Муҳаммад ал-Ҳаж таҳқиқи. Мактаб ул – илм ил – ҳадис. Дамашқ, 1421, II, 87.
2. Моль А. Социодинамика культуры. – М.: Издательство ЛКИ, 2008. [1] Рахматуллин Р.Ю. Суфийская антропология. Исламоведение. 2013. № 1. -С. 66. 3. Şaban Arğun. Sa’deddin Hamûyî-Hayatı, Eserleri ve Tasavvufi Görüşleri. Ankara.: Fecr Yayınları, 2023.-S. 140.
4. Sa’deddin Hammûyi. Babru’l-Meani, Süleymaniye Kütüphanesi, Fazıl Ahmed Paşa, no: 706, vr. 6[a].
5. Хасан Камиль Йылмаз. Тасаввуф и тарикаты. – М.: САД, 2007. -С. 265.
6. Қуръони карим маъноларининг таржимаси / Таржима ва изоҳлар муаллифи: Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2001. – 617 б.

[11] Sa’deddin Hammûyi. Babru’l-Meani, Süleymaniye Kütüphanesi, Fazıl Ahmed Paşa, no: 706, vr. 6[a].

[12] Исмоил ибн Муҳаммад Ажлуний. Кашф ул-хафа ва манозил-ул илбасан ма ашъара мин ал-абодиси аъло алсинат ин-нас. Юсуф ибн Муҳаммад ал-Ҳаж таҳқиқи. “Мактаб ул – илм ил - ҳадис”, Дамашқ, 1421, II, 87.

[13] Sa’deddin Hammûyi. Babru’l-Meani, Süleymaniye Kütüphanesi, Fazıl Ahmed Paşa, no: 706, vr. 6[a].

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 94(575.1)

АМУДАРЁ ВИЛОЯТИДАГИ АЙРИМ ЖАЗО ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ ҲАҚИДА (XX АСРНИНГ 20-ЙИЛЛАРИ)

Абдуллаев Анвар Атамуратович, Ажиниёз номидаги НДПИ “Тарих” кафедраси доценти, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

https://orcid.org/0009-0003-6776-0901
e-mail: anvarabdullaev8319@gmail.com

ON THE ACTIVITIES OF SOME PENAL ORGANS IN THE AMUDARYA REGION (20S OF THE XX CENTURY)

Abdullaev Anvar Atamuratovich, Associate Professor of the Department of “History” of the Ajiniyaz National Research Institute, Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)

О ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НЕКОТОРЫХ УГОЛОВНЫХ ОРГАНОВ АМУДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ (XX ВЕК)

Абдуллаев Анвар Атамуратович, доцент кафедры “История” НГПИ им.Аджинияза, доктор исторических наук

Аннотация: *Мазкур мақолада XX асрнинг 20 йилларида Амударё вилоятида ташкил этилган айрим жазо органлари ҳақида сўз юритилади. Асосан Адлия халқ комиссариати ва вилоят адлия бўлими қошида ташкил этилган Тақсимловчи комиссияси ҳамда вилоят большевиклар партия томонидан олиб борилган партия судлари фаолияти ўрганилган. Туркистонда, шунингдек, Амударё вилоятида ушбу жазо органларининг ташкил этилиш жараёни архив ҳужжатлари асосида ўрганилган. Амударё вилоятида собиқ мустабид тузум олиб борган қатағон сиёсати фактлар асосида очиб берилган. Собиқ совет тузуми томонидан ўлка халқларини бўйсундириш учун тизимли иш олиб борилганлиги кўрсатилган.*

Калит сўзлар: *Туркистон, Амударё вилояти, Адлия халқ комиссариати, Тақсимловчи комиссиялар, Фавқулодда комиссия, жазо органлари, партия судлари, ўртоқлик судлари, вилоят судлари, инқилобий трибунал, суд идоралари, маҳбуслар, Марказ.*

Summary: *The article deals with the initial stage of formation of judicial-legal system in Amu-Darya region in the twenties of the XX-th century. It is basically studied the process of organization of different extraordinary bodies, tribunals and the Soviet public prosecutor’s office. The Turkestan authority examined the issues of organization of public prosecutor’s office in the region several times. In Turkestan, including Amu-Darya region there were organized the bodies of public prosecutor’s office. The public prosecutor of Amu- Darya region regularly spoke at legal proceedings, distributive committees and at administrative meetings and also considered statements and complaints of citizens of the region.*

Key words: *Turkestan, Amu-Darya region, People's Commissariat of Justice, Distribution commissions, Extraordinary commission, penal authorities, party courts, friendship courts, regional courts, revolutionary tribunal, judicial power, prisoners, Center.*

Аннотация: *В данной статье говорится о создании и деятельности некоторых карательных органов в Амударьинской области в 20-х годах XX века. В основном изучается работа Распредительных комиссии созданные при Республиканском и областном Народном комиссариате юстиции, также Партийных судов партии большевиков. Деятельность этих карательных органов изучена на основе архивных материалов. Также, раскрыта на основе фактов репрессивная политика советского режима. Уделяется особое внимание системной работе советской власти на местах.*

Ключевые слова: *Туркестан, Амударьинская область, Нарком юстиции, Распределительные комиссии, Чрезвычайная комиссия, органы исполнения наказаний, партийные суды, суды дружбы, областные суды, революционный трибунал, судебная власть, заключенные, Центр.*

Кириш. Ўлка тарихида XX асрнинг 20 йиллари маҳаллий аҳоли учун таҳликали, зиддиятларга тўла давр ҳисобланади. “Марказ”нинг декрет ва қарорлари асосида Амударё бўлимида-вилоятида совет ҳокимиятига хос бошқарувни такомиллаштириш, аҳолини бўйсундириш, советча яшашга кўндириш учун инсонга қарши жиноятнинг дастлабки жазо ва айблов органлари ташкил этилган.

Амударё бўлимида-вилоятида Фавқулодда комиссиялар, Давлат сиёсий бошқармаси, Инқилобий трибуналлар, Адлия бўлими қошида жазо бўлимлари, сон-саноқсиз қамоққа олинганларни қамоқхоналарга жойлаштириш билан шуғулланадиган Ички ишлар халқ комиссариати қамоқхона бошқармаси таркибида Тақсимловчи комиссиялар, партия судлари, ўртоқлик судлари ва бошқалар ташкил этилган.

Туркистон Республикаси Адлия халқ комиссариати 1921 йил 28 майда (бўлиши мумкин) Н 13/9 рақамли қарори ва 26 банддан иборат Низоми қабул этилди. Унга асосан Адлия халқ комиссариати ва вилоят Адлия бўлими қошида Жазо бўлимлари қошида Тақсимловчи комиссия ташкил этилган. Тақсимловчи комиссия суд томонидан жиноятчиларга берилган жазо турига қараб қамоқхона ва камераларга тақсимлаган. Вилоятлардаги жазо бўлимлари қошидаги тақсимловчи комиссия аъзоларини вилоят ижроий қўмитаси тасдиқлаган.

Шунингдек, Туркистон Адлия халқ комиссариати қошида ва вилоят Адлия бўлими қошида жазо бўлимлари, улар қошида эса, тақсимловчи комиссия ташкил этилган. Тақсимловчи комиссия суд томонидан берилган жазо турига қараб қамоқхона ва камераларга бўлиштирилган. Вилоятлардаги жазо бўлимлари қошидаги тақсимловчи комиссияни вилоят ижроий қўмитаси тасдиқлаган.

Асосий қисм. Комиссия ўз мажлисига ишга фойдаси тегадиган одамни кенгашда овоз бериш ҳуқуқи билан таклиф этиш мумкин. Ҳафтасига бир марта мажлис ўтказилган. Мажлисда камида 5 одамдан кам қатнашмаслиги, 2/3 овоз билан қарорлари тасдиқланган ва ўз канцеляриясига эга бўлган. Комиссия, шунингдек, суд ҳукми билан қамалганларни барча мумкин бўлган усуллардан фойдаланиб тўлиқ текширувдан ўтказган, яъни келиб чиқиш шароити, соғлиги ва психик ҳолати ва бошқалар.

Тўпланган фактларга асосланиб а)умумий қамоқхонага; б)реформаторияга[1]; в)деҳқончилик қишлоқларига; г)синовчи муассасага; д)жазолаш-даволаш муассасаларига; е)қамоқхона ташқарисидаги эркинлик муассасасига; ж)алоҳида қамоқхона изоляторларига, агар б, в, г, д, ж, пунктлар бўлмаса “алоҳида умумий бўлим” қамоқхонасида сақланган. Агар комиссия, “қамоқдаги одам таъсир этиш меъёрлари ва ахлоқ тузатишга муҳтож эмас”лиги ҳақида хулоса берса халқ суди ёки революцион трибуналга муддатидан олдин ёки шартли муддатидан олдин қамоқдан чиқариш мумкинлиги ҳақида ёзма равишда хулоса берган. Агар маҳбус сабабсиз ишлашдан бош тортса шу ойдан бошлаб комиссия халқ суди

TAMADDUN NURI

ёки, революцион трибуналга қамоқ муддатини чўзиш ҳақида расмий илтимос қилиши мумкинлиги айтилган[2].

Суд хукмининг ижросини назорат қилиш ва раҳбарлик Адлия халқ комиссарининг ахлоқ тузатиш меҳнат бўлимига юкланган. Суд идоралари, халқ суди, революцион трибунал ва бошқа маҳбус ҳақидаги комиссия қарори билан ишни олгандан кейин 2 ҳафта ичида асосланган қарор билан яна тақсимлаш комиссиясига берган. Агар маҳбус сабабсиз ишлашдан бош тортса шу ойдан бошлаб комиссия халқ суди ёки, революцион трибуналга қамоқ муддатини чўзиш ҳақида расмий илтимос қилиши мумкинлиги айтилган.

Аҳвол шу даражага етганки, халқ судлари ва улар қошидаги тергов комиссиялари, Инқилобий трибуналлар ва улар қошида фавқулодда комиссиялар ташкил этилишига қарамасдан ҳокимият органлари ҳамда айрим шахсларнинг қамоққа олишга ҳуқуқи бўлмаса ҳам ўзбошимчалик билан одамларни оммавий равишда қамоққа олиш билан шуғулланган, хоҳлаган орган, хохлаган кишини қамоққа олган, қамоқхоналар ҳам ҳеч қандай қарорсиз одамларни қамоқда ушлаб турган.

1919 йил 7 февралда Амударё солдат, ишчи ва деҳқон депутатлари Совети Ижроий қўмитасида Памшев раислигида, Чанчиков котиблигида Парадиев, Грудинин, Лукъянов, Пиотрковский, Зазулин, Яугашаров иштирокида Петро-Александровск турмахонасида қамалганлар сонининг кўпайиб кетаётганлиги, турмахонада бўш камераларнинг йўқлиги, ҳарбий бўлим гауптвахтаси учун - ҳарбий хизматчиларни қамоқда сақлаш учун махсус жой умуман етишмаётганлиги ва бу ҳақда “Марказ”га хабар бериш зарурлиги масаласи қараб чиқилган[3].

Шу сабаб, Туркистон Республикаси Халқ Комиссарлари Советида[4] 1919 йил 12 майда Адлия Комиссариатининг “Қамоққа олишни амалга ошириш тартиблари ҳақида”ги Низоми ўрганилади. 27 майда эса, Туркистон Республикаси Советларининг Марказий ижроий қўмитасининг юстиция бўлими бўйича 151-сонли буйруғида ушбу масала қараб чиқилади. Ушбу буйруққа асосан Фавқулодда комиссиялар, Халқ судлари ва халқ судлари қошидаги тергов комиссиялари, Инқилобий трибуналлар, Милиция тергов қилишга, маъмурий жарима тўлашга ёки қамоққа олишга рухсат берсагина амалга оширилган. Маъмурий қамоқ ёки жарима ундириш “маъмурий қамоқ ва жарима ундириш ҳақидаги алоҳида низом” бўйича амалга оширила бошланган. Ҳар бир қамоққа олганлик ҳақида милиция маҳаллий депутатлар Советининг Адлия комиссариатига қамоққа олинганлик ҳақидаги қарор нусхасини бериш билан хабар бериши керак. Қамоқхонага қамоққа олинган одам юборилганда нима сабабдан қамалганлиги, гумон қилинаётганлиги ҳақидаги аниқ сабаблари кўрсатилган қарор билан юборилиши таъкидланган.

Агар қарор бўлмаса биронта қамоқхона одамни қамоққа олишга ҳаққи йўқлиги ҳам кўрсатилган. Юқорида кўрсатилган органлар қамоққа олиш керак бўлган одамни ушлагандан кейин 2 соатдан кечиктирмай тегишли суд идорасига барча тегишли материаллар билан топшириши шартлиги кўрсатилган. Агар қўлга олинган одам 24 соат ичида сўроқ қилинмаса, қамоқхона бошлиғи ушбу қамоқни амалга оширган идорага ва маҳаллий адлия бўлимига зудлик билан хабар беришга мажбурлиги айтилган[5]. Мазкур буйруқ Амударё бўлимига 1919 йил 7 июлда Амударё бўлимининг Биринчи участкаси халқ судида ўрганиб чиқилган. Ушбу буйруқнинг 9 бандида “Революцион трибунал ва халқ судлари барча қамоқхоналардаги тартибларни қонунан бажарилишлари шартлиги кўрсатилган”.

1922 йили 2 декабрда Марказий ижроий қўмитаси Бутунроссия марказий ижроий қўмитаси Олий трибуналининг 1922 йил 13 ноябрдаги 32243 сонли хабарининг асосида қаттиқ яккалаб, ажратиб қўйиш учун Бутунроссия марказий ижроий қўмита розилигини олиш талаб қилинмаслиги ҳақида кўрсатмасидан кейин тақсимлаш комиссиясининг қарори билан маҳбусни бошқа

TAMADDUN NURI

ахлоқи тузатилаётганлар туркумига ўтказиш мумкин бўлган. Аммо қаттиқ яккалаб қўйишни бекор қилиш масаласи фақат Марказий тақсимлаш комиссияси рухсатидан кейингина амалга оширилган[6].

Суд ҳукмининг ижросини назорат қилиш ва раҳбарлик Адлия халқ комиссарининг ахлоқ тузатиш меҳнат бўлимига юкланган. Жазолаш турлари қуйидагича бўлган: РСФСР ҳудудидан ҳайдаш маълум муддатга ёки муддатсиз; Қаттиқ яккалаб қўйиш ёки усиз озодликдан маҳрум қилиш; Посбонларсиз мажбурий меҳнатга жалб қилиш; Шартли жазо бериш; Мол мулкини тўлиқ ёки қисман мусодара қилиш; Жарима; Ҳуқуқига шикаст етказиш; Амалдан бўшатиш; Жамоатчилик танбеҳини бериш; Зараркунандаликни текислаш вазифасини юклаш ва шунга ўхшаш ҳуқуқбузарликлар тақсимлаш комиссияси жазо бўлимининг реестр рўйхатга олиш дафтари юритилган. Унга маҳбуснинг муддатидан олдин озод этилганлиги ёки бошқа озодликдан маҳрум этмасдан мажбурий меҳнатга юборилганлиги ҳақида маълумотлар ёзилиб борилган.

Ҳар ойнинг 5-кунидан кечикмаган ҳолда Адлия халқ комиссариати қошидаги ахлоқ тузатиш меҳнат бўлимига тақсимлаш комиссиясига юборилган[7].

Амударё вилоятида 1922 йил 10 октябрдан бошлаб, 521 сон билан рўйхатга олиниб ижросига киришилган. Тақсимлаш комиссияси жазо бўлимининг реестр рўйхатга олиш дафтари юритилган. Унга маҳбуснинг муддатидан олдин озод этилганлиги ёки бошқа озодликдан маҳрум этмасдан мажбурий меҳнатга юборилганлиги ҳақида маълумот ёзилган. 1923 йил 23, 25 ноябрда Амударё вилояти судининг суд мажлиси йиғилишида бўлиб ўтган ва суд баённомаси раис Блинов, Батырбекова, Павлушко, котиб Скочкова иштирокида Амударё вилояти Тақсимловчи комиссиянинг 20 сонли баённомасининг 1 бандида муддатидан олдин қамоқдан озод қилиш ёки қилмаслик масалалари кўриб чиқилган[8].

Совет ҳокимиятининг ҳар хил сиёсий жазо органларидан ташқари, коммунистик партия ҳам аҳоли устидан шу даражада назоратни кучайтирганки, ҳатто ўз судларини ташкил қилган. Натижада, Амударё бўлимида партия суди ҳам фаолият юритган. Қорақалпоғистон партия қўмитаси қошида вилоят назорат комиссияси ташкил этилган ва партия суди фаолияти ҳақида мунтазам равишда ҳисобот тайёрлаб, таҳлил юритган.

Қуйида Вилоят назорат комиссияси раиси Р.М.Шторов ва комиссия терговчиси Брошенконинг ҳисоботидан мисоллар келтирамиз. 1923 йил партия назорат комиссиясининг суд назоратлари билан муносабати “яхши” йўлга қўйилган. Суд жазо органлари томонидан партия аъзосининг устидан жиноий иш қўзғатилса, дарҳол вилоят партия назорат комиссиясига ўз хулосаси ҳақида хабар берган. Чимбой уезди Тўрткўл шаҳридан 250 вёрст узоқда жойлашган[9]. 1923 йил февралдан май ойигача, яъни тўрт ойда 7 мажлисда 150га яқин иш, 33 масала назорат комиссияси судида қараб чиқилган. Шундан битта одам жавобгарликка тортилган. Назорат комиссияси “коммунист эмас унсурлар” билан тизимли равишда иш олиб борган[10].

1923 йил 23 февралда Амударё вилоят-шаҳар компартиясининг ижроий бюросининг мажлисида вилоят коммунистик партиясининг назорат комиссиясининг баённомалари қараб чиқилган. Баённомаларда: Қазибагаров комиссия аъзоси бўла туриб, одамларни хўрлагани, ҳақоратлагани учун уни марказий назорат комиссияси ва партия аъзолигидан чиқариш марказий назорат комиссиясидан сўралган; Исаев “революцион” трибунал томонидан иши юзасидан айбдор деб топилиб, қамоққа олинган, унинг айби бир ёқли бўлмагунича партия аъзолигидан вақтинча чиқариш кераклиги айтилган;

53-сон билан қўзғатилган “айблов иши” “синфий кўз қараш”га оид бўлиб, бойлар ва савдогарлар билан яқинлашганлиги тасдиқланмаганлиги учун партия сафида қолдирилган ва иш ҳаракатдан тўхтатилган[11].

Хулоса. Хулоса қилиб, шуни айтиш мумкинки, Коммунистик партиянинг ўзининг “Коммунистик партия суди” ҳам фаолият кўрсатган. 1924 йил 3 январда Ўрта Осиёнинг миллий-ҳудудий бўлиниши масаласи кўтарилганда, ташвиқот мавсумида вилоят компартияси қўмитасининг кўрсатмасини бажармаганлиги учун, 1922 йилдан партия аъзоси ҳисобланган Кубенов Дусунбетга қаттиқ ҳайфсан, 1919 йилдан партия аъзоси Е.Джаманкозиевга қаттиқ ҳайфсан берилган. 1923 йилдан бошлаб партия аъзоси ҳисобланган – Чимбой ижроий қўмитаси раиси Кулимжаевнинг иши назоратда қолдирилган[12].

Амударё вилоят назорат комиссияси ҳар ойда ҳисобот бериб турган. 1923 йил феврал ойида 5 марта суд мажлиси ўтказилган ва унда жиноятнинг 9 тури бўйича 25 масала қараб чиқилган. Улар яккаҳокимлик, ўз лавозимидан фойдаланиш, порахўрлик, аҳолини бутун Россия бўйича рўйхатга олиш жараёнида рўйхатга олинмай қолганлик, яъни тартиб меъёрини бузганлар, ўғрилик, апелляция, ишга масъулиятсизлик билан қараш, савдогарлик, мастлик ва тартибсизлик, маънавий ахлоқсизлик кабилар бўйича жазоланганлар[13].

Назорат комиссияси қарорларининг турлари[14] қуйидаги мазмунда бўлган: Вақтинча жиноий иш ҳаракатдан тўхтатилсин; шартли равишда партия сафидан чиқарилсин; шартли равишда партия сафидан икки ойга чиқарилсин; партия сафидан чиқарилиб судга оширилсин; қаттиқ хайфсан эълон қилинсин; партия сафига қайта тиклансин ва айбсиз деб топилсин каби қарорлар баён этилган[15]. Совет ҳокимияти томонидан ташкил этилган жазо органлари фуқароларни оммавий равишда камситиш, советларга қарши гуруҳларни йўқ қилиш, кўчириш, бадарға қилиш, турмахоналар ва концлагерлар ташкил этиш кабилар билан шуғулланган бўлса, якка ҳоким вилоят коммунистик (большевиклар) партияси ўз судини ташкил этган. Советларнинг синфийлик назарияси амалга оширилган.

Фойдаланилган манбалар рўйхати:

1. Қорақалпоғистон Республикаси Марказий Давлат Архиви. 12-жамғарма, 2-рўйхат, 11-йиғма жилд, 2, 2-варақнинг орқаси, 3-варақ.
2. Реформатория – ёшлар учун алоҳида ахлоқ тузатиш бўлими. 1918-1919 йилларда фақат 11 ой амал қилган. // См.: Энциклопедия. Объед.редакция МВД России, Москва. Олма-пресс, 2002.
3. ҚРМДА. 113-жамғарма, 1-рўйхат, 1-йиғма жилд, 1-варақ.
4. ҚРМДА. 12-жамғарма, 1-рўйхат, 32-йиғ. жилд, 13-в; 13-йиғ. жилд, 21-в.
5. ЎзРМДА. 23-жамғарма, 1-рўйхат, 144-йиғма жилд, 422-орқа варақ.
6. ҚРМДА. 113-жамғарма, 1-рўйхат, 1-йиғма жилд, 1, 1-варақ орқаси.
7. ҚРМДА. 113-жамғарма, 1-рўйхат, 1-йиғма жилд, 3, 3-варақ орқаси.
8. ҚРМДА. 12-жамғарма, 2-рўйхат, 11-йиғма жилд, 6-варақ.
9. ҚРМДА. 12-жамғарма, 2-рўйхат, 11-йиғма жилд, 9, 10-варақ.
10. ҚРМДА. 12-жамғарма, 2-рўйхат, 11-йиғма жилд, 9, 10-13-варақлар.
11. ҚРМДА. 67-жамғарма, 1-рўйхат, 2-йиғма жилд, 6, 21-варақ.
12. ҚРЖКА. 501-жамғарма, 2-рўйхат, 14-йиғма жилд, 4-варақ.
13. ҚРЖКА. 501-жамғарма, 2-рўйхат, 14-йиғма жилд, 24, 26,27-варақлар.
14. ҚРЖКА. 501-жамғарма, 2-рўйхат, 14-йиғма жилд, 4-варақ.
15. ҚРЖКА. 501-жамғарма, 3-рўйхат, 7-йиғма жилд, 5-варақ.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 94 (575.1)

ILK VA RIVOJLANGAN O‘RTA ASRLARDA AMUDARYO HAVZASI QAL’ALARIDA HUNARMANDCHILIK, ME’MORCHILIK VA IJTIMOIY-IQTISODIY MUNOSABATLAR (V–XI ASRLAR MISOLIDA)

Matyakubova Shaxodat Xamidjanovna, Urganch Ranch texnologiyalar universiteti dotsenti (PhD)

https://orcid.org/0009-0005-0164-9607

CRAFTSMANSHIP, ARCHITECTURE AND SOCIO-ECONOMIC RELATIONS IN THE CASTLES OF THE AMU DARYA BASIN IN THE EARLY AND HIGH MIDDLES (ON THE EXAMPLE OF THE 5TH–11TH CENTURIES)

Matyakubova Shakhodat Khamidjanovna, Associate Professor (PhD) of Urgench Ranch University of Technologies

РЕМЕСЛО, АРХИТЕКТУРА И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ В КРЕПОСТЯХ АМУДАРЬИНСКОГО РЕГИОНА В РАННЕМ И РАЗВИТОМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ (V–XI ВВ)

Матякубова Шаходат Хамиджановна, доцент (PhD) Ургенчского университета технологий Ranch

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Amudaryo havzasida joylashgan qal’a va qo‘rg‘onlarda ilk va rivojlangan o‘rta asrlarda (V–XI asrlar) kechgan ijtimoiy-iqtisodiy, xo‘jalik va etnomadaniy jarayonlar arxeologik materiallar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda temirchilik va kulolchilik ustaxonalari, xumdonlar, me’moriy inshootlar, dafn bilan bog‘liq marosimlar hamda hunarmandchilik buyumlarining xronologik va funksional jihatlari yoritilgan. Shuningdek, Sulton Uvays tog‘i hududi bilan bog‘liq temir xomashyosi masalasi, hunarmandchilikning ichki ehtiyojlarga yo‘naltirilganligi hamda bozor munosabatlarining shakllanish jarayoni ilmiy asosda tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *ilk o‘rta asrlar, Xorazm vohasi, Amudaryo havzasi, hunarmandchilik, temirchilik, kulolchilik, xumdonlar, qal’alar, etnomadaniy jarayonlar, arxeologik tadqiqotlar.*

Abstract: *This article examines socio-economic, economic, and ethno-cultural processes in fortified settlements of the Amu Darya region during the Early and High Middle Ages (5th–11th centuries), based on archaeological evidence. Special attention is paid to craft production, particularly ironworking and pottery, including workshops, kilns, architectural structures, and funerary complexes. The study also addresses the issue of iron raw material sources related to the Sultan Uvays mountain area and analyzes the predominantly local and household-oriented nature of craft production, as well as the gradual formation of market relations.*

Keywords: *Early Middle Ages, Khorezm oasis, Amu Darya region, craft production, ironworking, pottery, kilns, fortresses, ethno-cultural processes, archaeology.*

Аннотация: *В статье на основе археологических материалов рассматриваются социально-экономические, хозяйственные и этнокультурные процессы, происходившие в крепостях и поселениях Амударьинского региона в раннем и развитом Средневековье (V–XI вв.). Особое внимание уделено развитию ремесел, в частности металлургии и гончарства, структуре производственных мастерских, хумданов, архитектурных сооружений и погребальных комплексов. Анализируется проблема*

источников железного сырья, роль горы Султан-Увайс, а также характер ремесленного производства, ориентированного преимущественно на внутренние потребности населения.

Ключевые слова: *Раннее Средневековье, Хорезмский оазис, бассейн Амударьи, ремесло, металлургия, гончарство, хумданы, крепости, этнокультурные процессы, археология.*

Kirish. Ilk va rivojlangan o‘rta asrlar Markaziy Osiyo tarixida murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy jarayonlar bilan xarakterlanadi. Xususan, Amudaryo havzasi va Xorazm vohasi hududlarida milodiy V–XI asrlarda kechgan tarixiy jarayonlar sug‘orish tizimlari, shaharsozlik, hunarmandchilik va savdo munosabatlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Mazkur hudud qadimdan qulay geografik joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi va strategik ahamiyati tufayli yirik madaniy-xo‘jalik markazlaridan biri sifatida shakllangan. Arxeologik tadqiqotlar natijalari Xorazm vohasida joylashgan qal’a va qo‘rg‘onlarda temirchilik, kulolchilik, qurilish va boshqa hunarmandchilik tarmoqlari keng rivojlanganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Burgutqal’a, Katta va Kichik Qirqqiz qal’alari, To‘qqala, Mizdaxkon kabi yodgorliklarda aniqlangan ustaxonalar, xumdonlar va me’moriy inshootlar hududning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yoritishda muhim manba hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Xorazm vohasi va Amudaryo havzasining ilk o‘rta asrlar tarixi uzoq yillar davomida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Ushbu hududdagi arxeologik yodgorliklarni ilmiy jihatdan tadqiq etishda XX asrning o‘rtalaridan boshlab tizimli ekspeditsiyalar muhim o‘rin tutdi. Arxeologik qazishmalar natijasida aniqlangan moddiy madaniyat namunalari asosida hunarmandchilik, turarjoy me’morchiligi va diniy e’tiqodlarga oid muhim ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Ayrim tadqiqotlarda temirchilik ustaxonalarining joylashuvi va xomashyo masalalari alohida yoritilib, temir rudalarining mahalliy manbalari yetarli bo‘lmaganligi sababli ularning tashqi hududlardan, jumladan Volga bo‘yi orqali keltirilgan bo‘lishi ehtimoli ilgari surilgan.

Metodologik asoslari. Mazkur tadqiqot tarixiylik, tizimlilik va ilmiy xolislik tamoyillariga tayangan holda olib borildi. Tadqiqot jarayonida arxeologik va tarixiy manbalarni tahlil qilishda umumilmiy hamda maxsus metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Xususan, arxeologik tahlil orqali qal’a va qo‘rg‘onlarda aniqlangan moddiy madaniyat namunalari ilmiy jihatdan tavsiflandi va tasniflandi. Tarixiy-qiyosiy hamda xronologik metodlar yordamida hunarmandchilik va me’morchilik yodgorliklarining rivojlanish bosqichlari aniqlanib, ularning davriy ketma-ketligi belgilandi. Kompleks tahlil va manbashunoslik yondashuvi asosida esa hunarmandchilik, iqtisodiy va etnomadaniy jarayonlar o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi.

Tahlil. Temir rudasini Sulton-Uizdog‘ tog‘idan olishgan bo‘lsa kerak, chunki qal’adan uzoq bo‘lgan hududlardan ham Kichik Qirqqiz qal’asidan ham temirchilik ustaxonalari aniqlangan. Tarkibi ham shu yer bilan bog‘liq ekanligi aniqlangan. Bu yerdan topilgan qumtoshlar tarkibida temir kam bo‘lgan bo‘lsa-da, uni olish oson bo‘lgan. Shu sababli bu hududlarda temirchilik ustaxonalari ko‘plab qurilgan bo‘lishi mumkin. M.E.Masson fikricha, bu yerdagi temir zahirasi yetarli bo‘lgan bo‘lishi mumkin emas, bu yerdagi temirchilik ustaxonalari tashqaridan olib kelingan temirlarga ham ishlov berishgan bo‘lishi mumkin deb ko‘rsatadi. Temir rudalar bu hududga Volga bo‘ylaridan olib kelingan bo‘lishi mumkin deb hisoblaydi.

VII-VIII asrlarga oid xumdonlar Katta Qirqqiz-qal’adan ham topilgan. Xumdonlarning bir guruhi qal’aning ichki qismining sharqiy tomonidan darvozagacha bo‘lgan joyda joylashgan. Ikkinchi guruhi janub tomondan o‘tgan Qirqqiz kanali bo‘ylab joylashgan. Bu yerda eng yirik xumdonlar aniqlangan. Xumdon oval shaklda qurilgan. Turli shakldagi xom g‘ishtlardan qurilgan. Tadqiqot fikricha, eski uylarning g‘ishtlaridan foydalanilgan. Xumdon bir bor ta’mirlangan bir necha qator suvoqning izlari aniqlangan. Sopol idishlarning siniqlari, toshqollari ko‘plab topilgan. Sopol idishlari loy tarkibi Rossiyadagi ilmiy tadqiqot instituti yangi qurilish materiallari bo‘limida ximik, termik, spektral, rentgen va mineral-petrografik tahlillardan o‘tkazilgan. Loy tarkibida karbonit bo‘lmagan, temir miqdori ham kam bo‘lib, eguluvchanligi, ochroq rangdagi gil tuproqdan foydalanishgan. Xumlarning loyini tayyorlashda ba’zida qumtosh, ba’zida kam miqdorda yirik qum aralashtirishgan. Sopollar 850-950 gradus haroratda pishirilgan. Lekin yupqa idishlar undan past haroratda pishirilgan bo‘lishi mumkin. Bu yerda ishlab chiqilgan sopol idishlar VII- VIII asrning boshlariga oid qo‘rg‘onlardan topilgan.

Burgutqal’a vohasining janubiy tomonida temirchilik ustaxonasi topilgan. Ular VII- VIII asrning boshlariga oid bo‘lgan. Shu davrda keng

maydon atrofida kosiblarning do‘konlari joylashgan bo‘lishi mumkin. O‘rta Osiyoning keyingi davr tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak, bozor atrofi doimo kosiblarning do‘konlar bo‘lgan. Kosiblar o‘zlarining hunarmandchilik buyumlarini shu yerda yasab, shu yerning o‘zida bozorga chiqarishgan. Aholi o‘zi uchun kerakli bo‘lgan hunarmandchilik mahsulotlarini kosiblarning do‘konidan sotib olgan. Burgut qal’ada ham ilk o‘rta asrlarning so‘nggi bosqichida shunday bozor shakllangan bo‘lishi ehtimoli katta. Tadqiqotchilar bu hududni tadqiq qilganda xuddi shunday tashqi ko‘rishgan ega bo‘lgan maydonni aniqlashgan. Bu maydon shakllangan joy Burgutqal’a vohasining janubiy va sharqiy tomonidan 5 gektar hududni egallagan va qurilmalar topilgan[3,C.81]. Ular mudofaa devor bilan mustahkamlangan. Hududning shimoli-g‘arbiy qismida antik davrga oid madaniy qatlam aniqlangan. Bu davrdagi uylar to‘g‘riburchak shaklda qurilib, to‘g‘ri to‘rtburchakli burjlari bo‘lgan mustahkam mudofaa devori bilan himoyalangan. Ilk o‘rta asrlarda shu qal’aning janubiy tomonidan ko‘shk va u bilan bog‘liq qurilmalar qurilgan. Qal’aning shimoli-g‘arbiy tomonida turli davrlarda qurilgan uylar aniqlangan. Ularning orasida xo‘jalik binolari bilan bir qatorda temirchilik ustaxonasi ham joylashgan. Temirchilik ustaxonasi uch xonadan iborat bo‘lgan. Tadqiqotchilar fikricha, Burgutqal’ada hunarmandchilik faqat shu hudud aholisi va qo‘rg‘on egalari uchun hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqargan bo‘lishlari ehtimoli bor, chunki bu hududda ixtisoslashgan hunarmandchilik markazlari aniqlanmagan.

Bugutqal’a ilk o‘rta asrlarga xos bo‘lgan shahar shakllangan. VI-VIII asrlarda qurilgan qo‘rg‘onlarda uy hunarmandchiligi bilan bog‘liq holda bo‘lgan. Kosiblar esa, shahristonda istiqomat qilib, do‘konlarini ham shu yerda qurganlar. Bu kosiblar erkin faoliyat olib borib, faqat bozor uchun mahsulot ishlab chiqarganlar.

Natijalar. Taqinchoqlarda ham o‘zgarishlar kuzatilgan. Antik davrda mis uzuklarning ko‘zi oval shaklda bo‘lsa, afrig‘iylar davrida dumaloq bo‘lgan. Munchoqlar bu davrda yirik dumaloq serdolik, kalsedondan ishlangan. Antik davrda esa, shisha munchoqlar ko‘pchilikni tashkil qilgan, shu bilan birga kichik kvadrat, disksimon va shakllardagi munchoqlar ham bo‘lgan. Ilk o‘rta asrlarda a bunday munchoqlar topilmagan.

1939-yilda №36 qo‘rg‘onda tadqiqotlari ishlari olib borilgan. Bunda afrig‘iylar davri me’morchiligi, turmush tarzi, san’ati, diniy e’tiqodi va xoronoligiyasi bo‘yicha yangi ma’lumotlar olingan. Bu qo‘rg‘onning turar joylari paxsadan ishlangan 5 metr balandlikdagi mustahkam sokol ustiga qurilgan. Sokol ichida bir-biriga perpendekulyar joylashgan arksimon xona qurilgan, ular birgalikda **T** shaklini shakllantirgan. Sokolning tepa qismida 5ta kichikroq bir xil hajmdagi xonalar bo‘lgan. Tomi yog‘och bilan yopilgan. Qal’aga hujum paytida butunlay yonib ketgan. Xonalarning shimoli-sharqiy qismida unchalik baland bo‘lmagan g‘ishtdan ishlangan supa joylashgan. №1 xonaning janubi-g‘arbiy tomonida kichik loydan ishlangan tandir topilgan. №6 xonaning markazida o‘choq bo‘lgan. Barcha xonalarning pollari bir necha bor suvalgan. Sokoldan ikkita tanga topilgan. Tadqiqotchilar uni VIII asr oxirida hukmron bo‘lgan Abdulloh davriga oid ekanligini asoslashgan. №36 qo‘rg‘on VIII-IX asrlar bilan davrlashtirilgan.

№36 qo‘rg‘on ko‘shkining janubi-g‘arbiy tomonida past bo‘yli gumbaz bilan yopilgan inshoot joylashgan. Inshoot 4,5X4,5 metrli kvadrat shaklda bo‘lib, devori paxsa va g‘isht ketma-ket qo‘yilgan. Paxsaning balandligi 20-30 sm tashkil qilgan. Inshootga ichiga kirishda eshik yasalmagan, faqat tekis bo‘lmagan shaklda o‘yib qo‘yilgan. Inshootning ichki qismidan hech nima topilmagan. Faqat devorning janubi-g‘arbiy tomonida tor g‘ishtdan ishlangan supa bo‘lgan, kirish joyi ham unga qaratilgan. Markazdagi xonada oval shaklidagi chuqur qazilgan bo‘lib, u 1,5X1,8 metr hajmda bo‘lgan. Chuqurning ostida qum bo‘lgan. Qum ustida turli xil qo‘yilgan g‘ishtlar, uning ustida yupqa kul qatlami va kuygan novdalar aniqlangan. Chuqurning tepa qismidagi poli ustida somon, novdalar, qo‘y axlati, turli xil razmerdagi tayoqlar, yog‘ochlar va loy bo‘laklari bo‘lgan. Bu o‘ziga xos tarzda qurilgan inshootni S.P.Tolstov zardushtiylik diniga oid kata bo‘lishi mumkin deb ko‘rsatadi[2,C.149]. Kata bu zardushtiylik dinida marhumni vaqtinchalik saqlash uchun maxsus qurilgan inshoot hisoblanadi. Bu yerda marhum bir necha kundan bir necha oygacha saqlangan. Qish kunlari uzoq vaqt, to kunlar isib ketguncha kata saqlangan. Avestoning Vendidot qismining V fargardida shunday deyilgan: “Har bir uyda, har bir qishloqda o‘liklar uchun uchta xona qurganlar”. Vendidotning VIII fargardida bu xonalarni qanday qurish lozimligi ko‘rsatilgan: “Bu yerda e’tiqod qiluvchi yarim fut chuqurlikda chuqur kovlasin, agar yer qattiq bo‘lsa, agar yumshoq bo‘lsa, inson bo‘yining yarmicha bo‘lsin va keyin u yerga kul yoki qoramol axlatini qo‘ysin, ustidan g‘ishtni, toshni yoki juda quruq bo‘lgan tuproqni qo‘ysin,

keyinchalik jonsiz tanani 2 kecha, 3 kecha, bir oyga .... ”[1].

Inshootga o‘yilgan devor orqali kirilgan. Qadimgi urf-odatlar bo‘yicha marhumni eshikdan emas, balki u qaytib kelganda adashtirish uchun devorni o‘yib shu orqali uydan chiqarishgan. Katalarning eshiklari ham shu sababdan o‘yib ishlangan bo‘lish ehtimoli bor. №36 qo‘rg‘on ko‘shki yuqori qavatining shimoliy burchagida joylashgan №3 xonasidan baland oyoqli alebastrdan ishlangan ostodonlar topilgan. Paxtadan xalat, qo‘y junidan kiyim, namat, echki junidan tayyorlangan buyumlarning topilishi[5,C.150] ijtimoiy hayotda chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlaridan unum foydalanilganliklarini ko‘rsatadi.

Hunarmandchilikda harbiy qurol aslahalar ham tayyorlaganlar. Nayzaning o‘qi arxeologik yodgorliklar topilgan. Asosan, o‘q uchlari uchi cho‘zilgan konus shaklida, uchi o‘tkir qirrali bo‘lgan. O‘q uchining umumiy uzunligi 110 mm, boshi 50 mm, dastasi 50 mm ni tashkil etgan[4,C.72]. Shunday o‘q uchlari To‘qqala’adan, Burgutqal’a, Mizdaxkon vohalaridan topilgan.

Ilk o‘rta asrlarda hunarmanchilik va me’morchilik antik davrga nisbatan taraqqiy etmagan. Bu ayniqsa kulolchilik sohasida kuzatiladi. Bu birinchi navbatda yerga egalik munosabatlarining shakllanishi bo‘lsa, ikkinchi tomondan hududga tashqaridan bo‘lgan bosqinchilik yurishlari bilan bog‘lash mumkin. Yerga egalik munosabatlarining rivojlanishi dehqonlarning hunarmandchilik bilan shug‘ullanishlariga sabab bo‘ldi, bu esa hunarmandchilik mahsulotlarini o‘z ehtiyojlari uchun ishlab chiqarishgan. Bozor uchun xaridorgir mahsulotlarni ishlab chiqarishga ehtiyoj bo‘lmagan. IX-XI asrlarga kelib, Xorazm davlatining iqtisodiy tararaqiyoti kuzatiladi. Bu jarayon esa, XII asrda mustaqil davlat tuzish uchun zamin hozirlaydi.

Xulosa. Shunday qilib, yuqorida zikr qilingan tarixiy ma’lumotlar asosida shunday xulosaga kelish mumkin:

-Amudaryo o‘ng va so‘l sohili hududlarida ilk va rivojlangan o‘rta asrda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarda yuz bergan o‘zgarishlar milodiy V-XI asrlarda farqlanish alomatlari ko‘zga tashlanadi.

-Milodiy V-VI asr birinchi yarmida Xorazm vohasi jamiyatida qarama-qarshiliklarga boy bo‘lgan sulolalar almashinishi, yerga bo‘lgan munosabatlar, iqtisodiy rivojlanish inqiroziga omil bo‘lgan sug‘orilish inshootlarida mavsumiy uzilishlar bo‘lishi bilan bog‘liq.

-Sulton Uvays tog‘i sharqiy va janubiy hududlarida Burliqal’a, Ayozqala 1,3, Jonbosqala balandligi atroflarida Janbasqal’a, Bozorqal’a, Katta Qirqqizqal’a, Angqaqal’a, Jildiqqal’a, Qo‘yqrilgan qal’alarda etnik munosabatlar yakun topgan, yodgorliklar madaniy meros sifatida hozirgi vaqtda mudofaa inshootlari saqlanib qolganligi xorijiy sayyohlar ajabtovur va hayratomuz tarzda kuzatmoqdalar.Shu bilan birga, Amudaryodan chiqarilgan Kaltaminor, Tozabog‘yob, Amirobod magistral inshootlar va ulardan ikki yon tomonga chiqarilgan tarmoqlar sohili bo‘ylab, katta, kichik qal’alarda xo‘jalik-madaniy hayot davom etgan.

-Milodiy VI asr ikkinchi yarmi –IX asrlarda madaniy-xo‘jalik markazlarda iqtisodiy va madaniy munosabatlar suv oqimi yetib borgan hududlar aholi turar joylarida davom etgan.

-Milodiy IX-XI asrlarda yuqorida qayd qilingan turar joylarda kechgan tarixiy jarayonlarda rivojlanish davom etadi. Sug‘orilish inshootlari uzunligi uzaytirilgan, ba’zi ishlar markazlashgan davlatning poytaxti bo‘lib, ma’muriy-hududiy va diniy-mafkuraviy markaz vazifasini bajargan, (Kat, Gurganch). Mazkur jarayon navbatdagi jamiyatda davom etdi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Авесто. Закон против дэвов. (Видевдат). Адаптированный перевод, исследование и комментарии Ртвеладзе Э.В., Саидова А.Х., Абдуллаева Е.В. – СПб: Изд.Политехнического университета, 2008.
2. Древний Хорезм. – С.149.
3. Рапопорт Ю.А., Незарик Е.Е., Левина Л.М. В низовьях Окса и Яксарта. Образцы древнего Приаралья. – Москва: Индирик, 2000. – С.81.
4. Рахимов Ш.Б. Қадимги Хоразм воҳаси аҳолисининг дафн тартиблари ва иншоотлари. – Тошкент, 2022. – С.72.
5. Толстов С.П.Древний Хорезм. – С.150.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 37.018

BO‘LAJAK MUHANDISLARNING MANTIQIY TAFAKKURINING RIVOJLANISHIGA MOTIVATSION OMILLARNING TA’SIRI

Komolova Gulhayo Shukirillo qizi, Andijon davlat texnika instituti tayanch doktoranti

https://orcid.org/0009-0008-7116-7744
e-mail: komolovagulhayo@gmail.com

THE INFLUENCE OF MOTIVATIONAL FACTORS ON THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING OF FUTURE ENGINEERS

Komolova Gulhauo Shukirillo kizi, PhD student at Andijan State Technical Institute

ВЛИЯНИЕ МОТИВАЦИОННЫХ ФАКТОРОВ НА РАЗВИТИЕ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ

Комолова Гульхаё Шукирилло кызы, базовый докторант Андижанского государственного технического института

Annotatsiya: *Maqolada bo‘lajak muhandislarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga ta’sir etuvchi motivatsion omillar tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqotda oliy ta’lim tizimida muhandislik yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda motivatsion omillarning o‘rni tahlil qilingan. Xususan, ularning mantiqiy tafakkur darajasiga ichki va tashqi motivatsiya, shaxsiy manfaatlar, kasbiy istiqbollarni anglash, ta’lim sharoitlari, zamonaviy innovatsion vositalar va amaliy faoliyatning ta’siri atroflicha o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *mantiqiy tafakkur, motivatsion omillar, bo‘lajak muhandislar, kasbiy tayyorgarlik, muhandislik ta’limi, ichki va tashqi motivatsiya.*

Annotation: *The article analyzes the motivational factors influencing the development of logical thinking of future engineers. The study examined the significance of motivational factors in the formation of professional competencies of engineering students in the modern educational process. The influence of internal and external motivation, personal interest, professional prospects, the educational environment, innovative technologies, and practical training on the development of logical thinking was also analyzed.*

Key words: *logical thinking, motivational factors, future engineers, professional training, engineering education, internal and external motivation.*

Аннотация: *В статье рассматриваются мотивационные детерминанты, оказывающие воздействие на формирование логического мышления у студентов инженерных специальностей. Автором изучена роль мотивационных механизмов в процессе становления профессиональных компетенций будущих инженеров в условиях современного образовательного пространства. Помимо этого, проведен анализ влияния внутренних и внешних стимулов, личностной заинтересованности, карьерных ориентиров, учебной среды, цифровых технологий и практико-ориентированных занятий на развитие мыслительных способностей обучающихся.*

Ключевые слова: *логическое мышление, мотивационные факторы, будущие инженеры, профессиональная подготовка, инженерное образование, внутренняя и внешняя мотивация.*

Kirish. Mamlakat iqtisodiyoti va sanoat tarmoqlarining jadal taraqqiy etishida muhandis kadrlarni sifatli tayyorlash masalasi strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda bo‘lajak muhandislar faqat nazariy bilimlarga ega bo‘lishlari bilan cheklanib qolmay, balki rivojlangan mantiqiy tafakkur ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishlari zarur. So‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida muhandislik yo‘nalishlari talabalarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish masalasi alohida e’tiborga molik bo‘lib kelmoqda. Biroq, ushbu jarayonda talabalarning motivatsion omillari yetarlicha o‘rganilmagan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Bo‘lajak muhandislar tayyorlov jarayonida mantiqiy tafakkurni shakllantirish masalasi ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda o‘rganilgan. Adabiyotlar tahlili muhandislik ta’limida mantiqiy tafakkur nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki real muhandislik muammolarini hal etishda to‘g‘ri va asosli qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi muhim kasbiy kompetensiya ekanligini tasdiqlaydi.

1. Mantiqiy tafakkurning nazariy asoslari**.** O‘zbekistonlik olimlar A.Abduqodirov, M.Yo‘ldoshev, A.Qodirov va boshqalarning ishlarida mantiqiy tafakkur fikr yuritishning ilmiy shakli sifatida talqin qilinadi. Ular mantiqiy fikrlashning asosiy kategoriyalari — tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, qiyoslash — talabalarda bosqichma-bosqich shakllanishini ta’kidlaydilar[1],[2],[3].

2. Mantiqiy tafakkur va motivatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik. Psixologiya faniga oid manbalarda motivatsiyaning fikrlash faoliyatini jadallashtirish, ongni muammo yechimiga safarbar etish, innovatsion g‘oyalarning shakllanishi hamda maqsad sari intilishda matonatlilik kabi jihatlarga bevosita ta’sir ko‘rsatishi ilmiy asoslangan.

Masalan, E.Deci va R.Ryan tomonidan ishlab chiqilgan O‘zini o‘zi belgilash nazariyasiga ko‘ra, talabaning ichki motivatsiyasi kuchli bo‘lsa, u murakkab mantiqiy topshiriqlarni ham yuqori darajada bajaradi[7].

3. Muhandislik ta’limida motivatsion yondashuvlar. Oxirgi yillarda STEM va STEAM ta’lim konsepsiyalarida motivatsion muhit yaratish orqali mantiqiy fikrlashni takomillashtirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. J.Bruner, H.Gardner tadqiqotlarida talabalarga hayotiy misollar asosida topshiriqlar berish orqali ularning mantiqiy tafakkuri sezilarli oshishi qayd etilgan. Mahalliy pedagogik tadqiqotlar ham motivatsion yondashuv asosida o‘qitilgan talabalar mantiqiy vazifalarni tezroq va to‘g‘riroq bajarishini tasdiqlaydi.

Tahlillar yakuniga ko‘ra, amalga oshirilgan adabiyotlar tahlili motivatsion omillarning mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdagi muhim psixologik-pedagogik mexanizm ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, ichki motivatsiya bo‘lajak muhandislarning kasbiy tafakkurini shakllantirishda asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Metodologiya. Ushbu mavzuda olib borilgan tadqiqotlar quyidagi metodologik asoslar, uslublar va vositalar yordamida amalga oshiriladi.

1. Tadqiqot yondashuvlari

Sistemali yondashuv. Bo‘lajak muhandislarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish murakkab pedagogik tizim sifatida talqin etiladi. Mazkur tizimda motivatsiya, ta’lim metodlari, o‘quv muhiti va talabalarning individual xususiyatlari o‘zaro uzviy bog‘liq komponentlar sifatida tahlilga tortiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv doirasida har bir talabaning: kognitiv qiziqishlari, kasbiy orzu-niyatlari, intellektual salohiyati e’tiborga olinadi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv esa mantiqiy tafakkurni nazariy mashg‘ulotlardan tashqari, real texnik muammolarni yechish jarayonida shakllantirishni nazarda tutadi. Shu bois talabalar muhandislik masalalarini mustaqil hal etishga faol jalb etiladi.

2. Tadqiqot usullari

*Nazariy metodlar***:** pedagogik-psixologik manbalarni tizimli tahlil qilish; qiyosiy o‘rganish va mantiqiy umumlashtirish; mavjud ilmiy-ushubiy yondashuvlarni konseptual tahlil etish.

Empirik metodlar: talabalar faoliyatini maqsadli kuzatish; individual va guruhiy suhbatlar hamda so‘rovnomalar yordamida motivatsion darajani baholash; psixodiagnostik test vositalaridan foydalanish.

Statistik tahlil usullari: o‘rtacha arifmetik qiymat va dispersiyani hisoblash; korrelyatsion bog‘liqliklarni aniqlash; motivatsiya va mantiqiy tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro aloqa koeffitsiyentini hisoblash.

3. Tadqiqot bosqichlari

1-bosqich. Tayyorlov bosqichi: mavzuga doir ilmiy-metodik adabiyotlar tahlil qilinadi, tadqiqot muammosi, maqsad va vazifalari belgilanadi, talabalarning motivatsion holati va mantiqiy tafakkur darajasini aniqlashga qaratilgan dastlabki diagnostika o‘tkaziladi.

2-bosqich. Tajriba bosqichi: motivatsion omillar asosida maxsus topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi (hayotiy kontekstlar bilan bog‘liq), mashg‘ulotlar o‘tkaziladi, talabalar faolligi va mantiqiy fikrlash jarayoni kuzatiladi.

3-bosqich. Nazorat bosqichi: talabalarning motivatsion holati va mantiqiy tafakkur darajasini aniqlash bo‘yicha yakuniy diagnostik testlar o‘tkaziladi, motivatsion omillar va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilinadi, olingan empirik ma’lumotlar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanadi va talqin etiladi.

4. Tadqiqot vositalari: mantiqiy tafakkurni baholash testi (tahlil, deduksiya, algoritmik fikrlash), motivatsiya diagnostikasi (Rean-Boiko yoki Ryan–Deci shkalalari asosida).

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida muhandislik yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar mantiqiy tafakkurining rivojlanish darajasi ularning shaxsiy va kasbiy motivatsiyasi bilan uzviy bog‘liq ekani aniqlandi. Dastlabki diagnostika natijalari shuni ko‘rsatdiki, ichki motivatsiya darajasi yuqori bo‘lgan talabalar mantiqiy fikrlash bilan bog‘liq topshiriqlarni bajarishda tezlik, aniqlik va tahliliy yondashuv nuqtayi nazaridan ancha ustunlikka ega.

1. Motivatsiya va mantiqiy tafakkur ko‘rsatkichlarining dastlabki diagnostikasi. Tadqiqotning boshlang‘ich bosqichida 1–3-kurs muhandislik yo‘nalishi talabalarida mantiqiy tafakkurning quyidagi komponentlari o‘rganildi: tahliliy fikrlash, deduktiv xulosalash, muammoli vaziyatni hal etish, algoritmik fikrlash.

Shuningdek, talabalar motivatsiyasining ichki, tashqi va kasbiy omillarga yo‘naltirilganlik darajasi baholandi. Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki:

-ichki motivatsiyasi yuqori bo‘lgan talabalarning mantiqiy tafakkur ko‘rsatkichlari o‘rtacha 15–22% yuqori;

-faqat tashqi motivatsiyaga tayanayotgan talabalarda mantiqiy tafakkur ko‘rsatkichlari barqaror emas va ko‘p hollarda topshiriqning murakkabligiga bog‘liq;

2. Tajriba-sinov bosqichi tahlili. Tajriba guruhida motivatsion kontekstlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar — hayotiy vaziyatlardan olingan masalalar, kasbiy muammoli topshiriqlar, ijodiy yondashuv talab qiluvchi mini-loyihalar qo‘llanildi. Nazorat guruhida esa an’anaviy o‘quv jarayoni davom ettirildi.

Tahlil natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

-Tajriba guruhi talabalari deduktiv fikrlash testlarida o‘rtacha 18% yuqori natija ko‘rsatdi.

-Algoritmik fikrlash bo‘yicha o‘sish 21%ni tashkil etdi.

-O‘quv motivatsiyasining ichki komponenti 24%ga oshgani qayd etildi.

Bu esa motivatsion omillar ta’siri ostida o‘qitilgan talabalar mantiqiy tafakkuri jadal rivojlanishini tasdiqlaydi.

3. Motivatsion omillarning ta’sir kuchi. Maxsus korrelyatsion tahlil motivatsiyaning ayrim komponentlari mantiqiy tafakkurning turli jihatlari bilan sezilarli bog‘liqlikka ega ekanini ko‘rsatdi:

Ichki motivatsiya → deduktiv fikrlash, tahliliy tahlil, qaror qabul qilish tezligiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi;

Kasbiy motivatsiya → muhandislik masalalarini modellashtirish va real vaziyatni baholash bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarni ta’minladi;

Ijtimoiy motivatsiya → ijodkorlik va guruhda fikr almashish faolligini oshirdi;

4. Talabalarning fikrlash strategiyalaridagi o‘zgarishlar. Tajriba yakunida talabalarda mantiqiy tafakkur strategiyalarida sifat o‘zgarishlari kuzatildi: muammoga bir yoqlama emas, ko‘p variantli yechim bilan yondashish; faktlar va dalillarni tizimli tahlil qilishga o‘tish; qarorlarni shoshilmay, mantiqiy asoslangan holda qabul qilish. Bu o‘zgarishlar talabalarning fikrlash madaniyati shakllanishida motivatsiyaning hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari bo‘lajak muhandislar mantiqiy tafakkurining rivojlanishi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, ayniqsa motivatsion omillar uning samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Dastlabki diagnostika tajribasi, motivatsion yondashuv asosida tashkil etilgan

mashg‘ulotlar va yakuniy tahlillar shuni tasdiqladiki:

Ichki motivatsiya mantiqiy tafakkurning tahliliy, deduktiv va algoritmik komponentlari rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Kasbiy motivatsiya muhandislik muammolarini modellashtirish, vaziyatga mos yechim ishlab chiqish va qaror qabul qilish jarayonini faollashtiradi.

Tashqi motivatsiya qisqa muddatli o‘quv faolligini oshirsa-da, barqaror fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda yetarli natija bermaydi.

Motivatsion yondashuv asosida tuzilgan ta’lim jarayoni talabalar fikrlash madaniyatida sifat o‘zgarishlarini yuzaga keltirdi, ya’ni ular muammoni tizimli ko‘rish, dalillarni taqqoslash, bir necha yechim variantlarini ishlab chiqish va xulosalarni asoslashga moyil bo‘la boshladilar.

Takliflar. O‘quv rejalariga motivatsion yondashuv asosidagi topshiriqlarni kiritish, ichki motivatsiyani kuchaytiruvchi didaktik vositalardan foydalanish, talabalarning kasbiy motivatsiyasini oshirish uchun ishlab chiqarish bilan integratsiyani kengaytirish, real texnik korxonalardagi masalalar asosida seminarlar, mahorat darslari, amaliy loyihalar tashkil etish.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduqodirov A. Pedagogik mantiq asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. – 210 b.
2. Yo‘ldoshev M. Mantiqiy fikrlash va uning rivojlanish mexanizmlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016. – 184 b.
3. Deci E., Ryan R. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Springer, 2017. – 329 p.
4. Bruner J. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 2018. – 180 p.
5. Gardner H. Multiple Intelligences: New Horizons. – New York: Basic Books, 2011. – 320 p.
6. Komolova G. Bo‘lajak muhandislarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning psixologik omillari // Pedagogik ta’lim jurnali. – 2023. – №2. – B. 72–80.
7. Komolova G. Talabalarda mantiqiy fikrlash jarayonida motivatsiyaning roli // Yosh olimlar materiallari to‘plami. – 2024. – B. 115–121.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 347.9

СООТНОШЕНИЕ ИНСТИТУТА ДОКАЗЫВАНИЯ И ПРЕТЕНЗИОННОГО ПОРЯДКА УРЕГУЛИРОВАНИЯ СПОРОВ

Ахмедов Жамолиддин Давронович, начальник Учебно-методического управления Университета общественной безопасности Республики Узбекистан, доктор философии по юридическим наукам (PhD)

https://orcid.org/0009-0004-7661-1446
e-mail: JDA202@mail.ru

NIZOLARNI HAL ETISHDA ISBOTLASH INSTITUTI VA DA'VO (PRETENSIYA) TARTIBINING O'ZARO NISBATI

Ahmedov Jamoliddin Davronovich, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

THE CORRELATION BETWEEN THE INSTITUTION OF PROOF AND THE CLAIM (PRE-TRIAL) PROCEDURE FOR DISPUTE RESOLUTION

Akhmedov Jamoliddin Davronovich, Head of the Educational and Methodological Department of the University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy in Law (PhD)

Аннотация: *В статье анализируется соотношение института доказывания и претензионного порядка урегулирования споров как взаимосвязанных правовых механизмов защиты нарушенных прав и законных интересов участников гражданского оборота. Рассматривается правовая природа доказывания и досудебной претензии, раскрываются их функциональные особенности и значение на различных стадиях разрешения спора. Особое внимание уделяется роли доказательств в формировании и обосновании претензионных требований, а также влиянию соблюдения либо несоблюдения претензионного порядка на процесс доказывания в суде.*

Ключевые слова: *доказывание, институт доказывания, претензионный порядок, досудебное урегулирование споров, доказательства, бремя доказывания, гражданский процесс, судебная защита, процессуальная экономия, состязательность.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada isbotlash instituti va nizolarni da'vo (pretensiya) tartibida hal etish mexanizmlarining o'zaro nisbati buzilgan huquqlar va qonuniy manfaatlarni himoya qilishning o'zaro bog'liq huquqiy vositalari sifatida tahlil qilinadi. Isbotlash hamda sudgacha bo'lgan da'vo (pretensiya)ning huquqiy tabiati yoritilib, ularning nizoni hal etishning turli bosqichlaridagi funksional xususiyatlari va ahamiyati ochib beriladi. Pretensiya talablarini shakllantirish va asoslashda dalillarning tutgan o'rni, shuningdek, da'vo tartibiga rioya etilishi yoki rioya etilmasligining sudda isbotlash jarayoniga ta'siri alohida e'tibor bilan ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *isbotlash, isbotlash instituti, pretensiya tartibi, sudgacha nizolarni hal etish, dalillar, isbotlash yuki, fuqarolik jarayoni, sud himoyasi, protsessual tejamkorlik, tortishuvlilik.*

Abstract: *The article analyzes the correlation between the institution of proof and the claim (pre-trial) procedure for dispute resolution as interrelated legal mechanisms for protecting violated rights and legitimate interests of participants in civil circulation. The legal nature of proof and pre-trial claims is*

examined, and their functional features and significance at various stages of dispute resolution are revealed. Particular attention is paid to the role of evidence in the formation and substantiation of claim demands, as well as to the impact of compliance or non-compliance with the claim procedure on the process of proof in court.

Keywords: *proof, institution of proof, claim procedure, pre-trial dispute resolution, evidence, burden of proof, civil procedure, judicial protection, procedural economy, adversarial principle.*

Введение. В условиях развития правового государства и повышения требований к эффективности судебной защиты особую актуальность приобретает исследование механизмов, направленных на рационализацию разрешения правовых споров. Одним из таких механизмов является претензионный порядок урегулирования споров, который в современном праве рассматривается не только как средство досудебного разрешения конфликтов, но и как важный элемент общей системы защиты нарушенных прав. В свою очередь, институт доказывания выступает фундаментальной процессуальной категорией, обеспечивающей установление юридически значимых обстоятельств и формирование обоснованного судебного решения. Несмотря на различие правовой природы, институт доказывания и претензионный порядок урегулирования споров тесно взаимосвязаны. Реализация претензионного порядка предполагает формирование и предварительное представление доказательственной базы, подтверждающей обоснованность заявленных требований. В этом смысле досудебная претензия фактически выступает первоначальной формой проявления доказательственной деятельности стороны, направленной на защиту своих прав и законных интересов.

Актуальность настоящего исследования обусловлена тем, что в правоприменительной практике нередко возникают сложности, связанные с разграничением функций доказывания и претензионного порядка, а также с определением их влияния друг на друга на различных стадиях разрешения спора. Отсутствие единообразного подхода к оценке доказательственного значения досудебных материалов, а также к последствиям несоблюдения обязательного претензионного порядка, порождает противоречивую судебную практику и снижает эффективность правовой защиты.

Целью данной статьи является комплексный анализ соотношения института доказывания и претензионного порядка урегулирования споров, выявление их функциональной взаимосвязи и значения в механизме защиты гражданских прав. Для достижения поставленной цели в работе ставятся задачи раскрыть правовую природу института доказывания и претензионного порядка, определить роль доказательств на досудебной стадии, а также проанализировать влияние соблюдения претензионного порядка на последующее судебное доказывание.

Методологическую основу исследования составляют общенаучные и специальные юридические методы познания, включая анализ и синтез, формально-юридический, системный и сравнительно-правовой методы. Теоретическую базу работы образуют труды отечественных и зарубежных ученых в области гражданского и процессуального права, а эмпирической основой послужили нормы действующего законодательства и материалы судебной практики.

Научная новизна статьи заключается в обосновании подхода, согласно которому претензионный порядок следует рассматривать не изолированно, а как предварительный и функционально связанный этап реализации института доказывания, направленный на обеспечение процессуальной экономии и повышение эффективности судебной защиты.

Обсуждение. Институт доказывания занимает центральное место в системе процессуальных средств защиты субъективных прав и законных интересов. Его назначение заключается в установлении юридически значимых обстоятельств, имеющих значение для правильного разрешения спора, на основе представленных и исследованных доказательств. Доказывание представляет собой регламентированную законом деятельность сторон и суда, направленную на формирование

TAMADDUN NURI

внутреннего убеждения суда относительно фактической стороны дела.

В доктрине процессуального права доказывание традиционно рассматривается как совокупность процессуальных действий, включающих представление, собирание, исследование и оценку доказательств. При этом бремя доказывания возлагается преимущественно на стороны, что обусловлено действием принципа состязательности и равноправия участников процесса. Суд, в свою очередь, осуществляет руководство процессом доказывания, обеспечивая соблюдение требований допустимости, относимости и достоверности доказательств.

Таким образом, институт доказывания выполняет не только установочную, но и гарантийную функцию, обеспечивая реализацию права на справедливое судебное разбирательство и эффективную судебную защиту. Претензионный порядок урегулирования споров представляет собой форму досудебного разрешения конфликтов, основанную на предъявлении одной стороной другой стороне обоснованных требований с указанием фактических и правовых оснований. Его правовая природа обусловлена стремлением законодателя минимизировать судебные споры, стимулировать добровольное исполнение обязательств и снизить нагрузку на судебную систему. В ряде категорий дел претензионный порядок носит обязательный характер, что подчеркивает его самостоятельное значение в механизме защиты прав. Досудебная претензия выполняет несколько ключевых функций: уведомительную, доказательственную, превентивную и примирительную. Она позволяет стороне заранее сформулировать свою правовую позицию, обозначить предмет и пределы будущего спора, а также представить контрагенту соответствующие доказательства.

Следует отметить, что претензионный порядок, несмотря на свою внесудебную форму, тесно связан с последующим судебным разбирательством, поскольку содержание претензии и приложенные к ней материалы нередко приобретают статус доказательств в суде. Соотношение института доказывания и претензионного порядка наиболее отчетливо проявляется на досудебной стадии урегулирования спора. Формирование претензии фактически предполагает начальный этап доказывания, поскольку заявитель обязан обосновать свои требования ссылками на конкретные факты и подтверждающие их доказательства.

Результаты. На данной стадии доказывание носит предварительный и упрощенный характер, однако его значение трудно переоценить. Качество и полнота доказательственной базы, представленной в претензии, напрямую влияют на вероятность добровольного удовлетворения требований. Кроме того, именно на этапе досудебного урегулирования происходит первичная систематизация доказательств, определение их достаточности и выявление пробелов в доказательственной позиции.

Таким образом, претензионный порядок можно рассматривать как подготовительный этап института доказывания, способствующий более эффективному и рациональному осуществлению процессуальных прав сторон в дальнейшем судебном разбирательстве. Соблюдение либо несоблюдение претензионного порядка оказывает существенное влияние на процесс доказывания в судебной стадии. При надлежащем выполнении досудебных требований суд получает возможность оценить последовательность и добросовестность поведения сторон, а также их процессуальную активность еще до обращения в суд.

Материалы претензионной переписки, ответы на претензии, а также доказательства, направленные в досудебном порядке, могут использоваться в суде для подтверждения факта нарушения обязательства, момента возникновения спора, объема заявленных требований и иных юридически значимых обстоятельств. Несоблюдение обязательного претензионного порядка, напротив, может повлечь негативные процессуальные последствия, включая оставление иска без рассмотрения, что опосредованно затрагивает и реализацию института доказывания. В данном контексте претензионный порядок выступает своеобразным фильтром, позволяющим исключить необоснованные или

преждевременные обращения в суд и тем самым оптимизировать процесс доказывания.

Соотношение института доказывания и претензионного порядка следует рассматривать и сквозь призму принципов процессуальной экономии и состязательности. Досудебное представление доказательств стимулирует стороны к активному и добросовестному отстаиванию своей позиции, формирует культуру правового диалога и снижает уровень конфликтности. Кроме того, претензионный порядок способствует концентрации доказательственного материала еще до начала судебного разбирательства, что сокращает сроки рассмотрения дела и повышает эффективность судебной защиты. Состязательность проявляется уже на досудебной стадии, когда стороны обмениваются аргументами и доказательствами, тем самым приближая спор к возможному разрешению без вмешательства суда.

Проведённое исследование соотношения института доказывания и претензионного порядка урегулирования споров позволяет сделать вывод о их тесной функциональной и системной взаимосвязи в механизме защиты нарушенных прав и законных интересов участников гражданского оборота. Несмотря на различие правовой природы и форм реализации, указанные институты не являются автономными, а дополняют друг друга, обеспечивая последовательность и эффективность разрешения споров.

Институт доказывания выступает базовым процессуальным механизмом установления юридически значимых обстоятельств и формирования обоснованного судебного решения. В то же время претензионный порядок урегулирования споров выполняет роль предварительного этапа защиты прав, в рамках которого осуществляется первичное формирование доказательственной базы и определяется правовая позиция сторон. Досудебная претензия, содержащая ссылки на факты и подтверждающие их материалы, фактически представляет собой начальную форму реализации доказательственной деятельности.

Установлено, что соблюдение претензионного порядка оказывает существенное влияние на последующее судебное доказывание, способствуя концентрации доказательств, сокращению сроков рассмотрения дел и снижению уровня процессуальных конфликтов. Материалы досудебного урегулирования могут приобретать доказательственное значение в суде, позволяя оценить добросовестность поведения сторон и обоснованность заявленных требований. Несоблюдение же обязательного претензионного порядка, напротив, влечёт негативные процессуальные последствия, затрудняющие реализацию права на судебную защиту.

Заключение. В результате анализа обоснован вывод о том, что претензионный порядок урегулирования споров следует рассматривать не как формальное препятствие для обращения в суд, а как важный элемент системы доказывания, ориентированный на реализацию принципов состязательности, процессуальной экономии и добросовестности участников правоотношений. Комплексный подход к правовому регулированию данных институтов способен повысить эффективность досудебного и судебного разрешения споров, а также обеспечить более устойчивую и единообразную правоприменительную практику.

Список литературы:

1. Рагозина А.В. Претензионный порядок урегулирования споров // *Актуальные проблемы российского права*. — 2019. — № 6. — С. 112–118.
2. Тарасенко Ю.А. О современном понимании претензионного порядка урегулирования споров // *Вестник гражданского процесса*. — 2020. — № 3. — С. 45–53.
3. Павлова О.В. Досудебный порядок урегулирования споров в системе предпосылок реализации права на судебную защиту: дис. … канд. юрид. наук. — М., 2018. — 210 с.
4. Коробко К.И. Претензионный порядок урегулирования споров как элемент защиты гражданских прав // *Юридическая наука*. — 2021. — № 6. — С. 87–93.
5. Ярков В.В. Гражданский процесс: учебник для вузов. — 10-е изд., перераб. и доп. — М.: Статут, 2022. — 784 с.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 1(092).111

XOJA AHMAD YASSAVIY QARASHLARIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK G‘OYALARNING AKS ETISHI

O‘razmetov Mangubek Tursunbayevich, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti “Falsafa” kafedrasi dotsenti v.b., (PhD)

THE REFLECTION OF ONTOLOGICAL AND GNESOLOGICAL IDEAS IN THE VIEWS OF KHOJA AHMAD YASSAVI

Orazmetov Mangubek Tursunbayevich, Associate Professor of the Department of Philosophy, Faculty of Social and Economic Sciences, Urgench State University named after Abu Rayhon Beruniy, (PhD)

ОТРАЖЕНИЕ ОНТОЛОГИЧЕСКИХ И ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИХ ИДЕЙ ВО ВЗГЛЯДАХ ХОДЖИ АХМАДА ЯССАВИ

Оразметов Мангубек Турсунбаевич, доцент кафедры философии факультета социальных и экономических наук Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни, (PhD)

https://orcid.org/0009-0008-8304-3087
e-mail: mangubekoficcial@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ahmad Yassaviy tariqatining o‘zagini tashkil etuvchi maqomlari hamda murshid va murid o‘rtasidagi munosabatlar haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *tariqat, to‘g‘rilik, sofdillik, jabr-zulmga norozilik, poklik va halollik, saxiylik va mehr-shafqat, ilm-ma’rifat, kasb-hunarni egallash, adolat uchun kurash, imon-e’tiqodli bo‘lish.*

Abstract: *This article discusses the core positions of the Ahmad Yasawi order and the relationship between the murshid and the murid.*

Keywords: *Order, honesty, sincerity, protest against oppression, purity and honesty, generosity and compassion, knowledge and enlightenment, mastering a profession, fighting for justice, faith and belief.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются основные позиции ордена Ахмада Яссави и взаимоотношения между муршидом и муридом.*

Ключевые слова: *порядок, честность, искренность, протест против угнетения, чистота и честность, щедрость и сострадание, знание и просвещение, овладение профессией, борьба за справедливость, вера и убеждения.*

Kirish. Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan tariqat va suluklarning umumiy va mushtarak xususiyati Olloh vasliga yetishga, islom dini, Qur’on va shariat qonun-qoidalariga amal qilishga da’vat etishdir. Bahovuddin Naqshbandga pir bo‘lgan hazrat Mir Kulolning ta’kidlashicha, «Tariqat, shariatni muhofaza etuvchi ilohiy amaldir». Ahmad Yassaviy ham o‘zining diniy-falsafiy qarashlarida Qur’on va shariatga asoslangan. Taniqli olim I.Sultonning Ahmad Yassaviy ta’limotining asosiy jihatlari haqidagi quyidagi fikrlariga qo‘shilsa bo‘ladi: «To‘rt mavzu, yana ham to‘g‘rirog‘i – to‘rt maqsad Yassaviy merosining asosini tashkil etadi, - deb yozadi u. Bu mutafakkirning birinchi maqsadi, - odamlarni Ollohni tanishga, uning yaqini bo‘lishga da’vat etishdir. Ikkinchisi – dunyodaga gunohni, ayniqsa, adolatsizlikni qoralash, uchinchisi adolatsizlik qurboni bo‘lgan insonni himoya etish va adolatga da’vat etishdir. To‘rtinchi maqsadi – bu

dunyoning dog‘larini insonga yuqtirmaslik uchun, uning gunohlaridan insonning tozaligini saqlash yo‘li yoki vositasi sifatida bu dunyodan nari turishga, ya’ni tarkidunyochilikka da’vat etishdir. Yassaviy ijodining ham boshqa g‘oyalari shu to‘rt mavzu, maqsad doirasidan uzoqqa ketmaydi»[1].

Adabiyotlar tahlili. Ahmad Yassaviy o‘z tariqatining o‘zagini tashkil etuvchi maqomlarni shunday keltiradi: “Va 10 maqom tariqatda turur: taslim turur, ya’ni agar balo va mehnat boshiga kelsa o‘zini taslimga jon-u dil birlan solgay. Yana ichmakdin va yemakdin, kiymakdin xalqdin tilamasun va gilam porasini atlasdan ziyoda ko‘rsun. Kunduzi ro‘za, kecha namozda bo‘lsun va tilovati Qur’on birla bo‘lsun”.

«Faqrnoma»da maqom, nur, yo‘l va o‘rin xususidagi ma’lumotlar payg‘ambarlar, oldinroq o‘tgan mashhur shayxlar rivoyatlari asosida berilishi shundan dalolatki, Xo‘ja Ahmad Yassaviy tasavvufning tajridiy taraqqiyoti va qonun-qoidalarini chuqur o‘rgangan, o‘z tariqati talablarini ishlab chiqish zarurati tug‘ilganda ulardan unumli foydalangan. Shu o‘rinda «Xo‘sh, tasavvufning butun yo‘l-yo‘riqlari oldindan mavjud ekan, Ahmad Yassaviy unga qanday yangilik kiritdi, tariqatini qaysi asoslarga suyanib yaratdi?» -degan savol o‘yg‘onishi, tabiiy. Bizning fikrimizcha, bu savol yassaviylik ta’limotining butun mohiyatini anglashda muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, Markaziy Osiyo tasavvufidagi ikki buyuk tariqat – yassaviylik va naqshbandiylik asoschilari Ahmad Yassaviy ham, Bahovuddin Naqshband ham ulkan tasavvuf maktabini yaratgan Yusuf Hamadoniy (1048-1144)ning shogirdlari hisoblanadilar. Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat»da Hamadoniy xususida shunday yozadi: «...Olim va imomi rabboniy va orifi sohib ahvol va-l-mavohibu-l jazila va-l-karomat-va-l-maqomatu-l-jalila. Ibtidoda Bag‘dodga bordi va Shay Abul Is’hok Sheroziy majlisida mulozamat qildi va ishi yuqori bo‘ldi va fiqh ilmida va o‘zga ulumda, xususan, nazar ilmida foik bo‘ldi..»[2]. Mazkur «imomi rabboniy» xirqa kiygan shogirdlardan yana biri Abduxoliq G‘ijduvoniydir. Naql qilinishicha, - deydi Sadriddin Salim Buxoriy, - bir kun Abduxoliq G‘ijduvoniy Qur’oni Karim tafsirini mutolaa etayotganlarida quyidagi oyatga duch kelganlar: “Sen Parvardigoringga yolvor va maxfiy holda duo qil, chunki u haddan oshuvchilarni yoqtirmaydi”: Abduxoliq G‘ijduvoniy bu oyat mazmunini ustozlaridan so‘raydilar: “Agar zokir (zikr etuvchi kishi) ovoz chiqarsa, bu hol boshqalarga ayon bo‘ladi. Mabodo dilda, ya’ni tovush chiqarmay zikr etsa, shayton voqif bo‘lur. Chunki odam farzandining ichida shayton qondek oqib yuradi, degan hadis shunga ishoradur”. Xo‘sh, unda xufiya zikr etish qoidasi va tartibi qay tarzda bo‘lur? Imom: «Sen so‘rayotgan ilm «ilmi laduniy»dir, ya’ni Olloh taolo tomonidan ato qilingan ilm»[3].

Muhokama. Ko‘rib o‘tganimizdek, zikr turli shakllarda, shu jumladan, jahriya (ovoz chiqarib) va xufiya (ovoz chiqarmay) ado qilinadi. Tariqatda musiqa yordamida kuylab Ollohni zikr etish yo‘li samo‘ (arab tilida «eshitmoq») ham mavjud. Chunonchi, Jaloliddin Rumiy asos solgan mavlaviya sulukida zikri samo’ alohida o‘rin tutadi. Ahmad Yassaviy tariqatida esa jahriya samo’ bilan uzviy qo‘shilib ketgan va «zikr-samo‘» atamasi ilm-u a’molini nazarda tutgan bo‘lishi kerak. «Darvoqe, tasavvufning boshqa tariqatlarida bo‘lganidek, yassaviyaning o‘ziga xos qat’iy qoidalari (odoblari) bor. «Yassaviylik ta’limotidagi soliklar quyidagi qoidalarni so‘zsiz bajarishga majbur bo‘lganlar. 1)Murid hech kimsani o‘z shayxidan afzal ko‘rmasligi, unga mutlaqo taslimiyat izhor etmog‘i lozim; 2)murid shunchalik zukko va idrokli bo‘lishi kerakki, to o‘z shayxining barcha rumuz va ishoralarini mukammal anglay bilsin; 3)shayxning barcha ahvoli (so‘zlari) va af’oli ishlariga murid solik bo‘lib unga mutlaqo mute va mutakid bo‘lmog‘i lozim; 4)murid o‘z murshidi (piri)ning barcha topshiriqlarini mustu chalolik (chaqqonlik) ila va sidqidildan bajarib, uni hamisha rozi qilib yurmog‘i zarur; 5)murid o‘z so‘ziga sodik, va’dasiga rosix bo‘lib, murshidi ko‘nglida hech qanday shak-u shubha tug‘dirmasligi zarur; 6)murid o‘z va’dasiga vafodor va so‘zida ustivor

[1] Султон И. Баҳовуддин Нақшбанд абадияти. -Т.: Фан, 1994. -17-6.
[2] Навоий А. Насойим-ул-муҳаббат. Асарлар, 15 том.-Т.: 1968.-123-6.
[3] Бухорий С.С. Дилда ёр. Ғ. Ғулом номидага нашриёт, Т.: 1993.-9-6.

turishi shart; 7)murid o‘z ixtiyoridagi barcha mol-mulkini, butun bor-u yo‘g‘ini shayxiga nisor etmoq uchun doimo tayyor turmog‘i lozim; 8)murid o‘z shayxining barcha sir-asroridan ogoh bo‘lib, uning ifshosini hech vaqt xayoliga keltirmasligi kerak; 9)murid o‘z shayxining barcha takliflarini nazarda tutmog‘i, uning mushkulotini oson qilmogi; pand-u nasihatlarini bajo keltirmog‘i shart; 10) murid Olloh visoli uchun o‘z shayxi yo‘lida butun moli va jonig‘ga nisor etmoqda tayyor turishi, uning do‘stiga do‘st, dushmaniga dushman bo‘lib yashamog‘i shart[4].

Murshid va muridlikning ushbu shartlariga qalban, vujudan rozi bo‘lganlar Yassaviylik tariqatiga kirganlar. Aslida «xonaqo» ham Ahmad Yassaviydan ilgariroq paydo bo‘lib, islomdan oldin Buxoroda, «Qasri Hindiyon»da Bahouddin davrigacha nomi saklanib kelgan «Vagn vixara», «Nigoshaklar, ya’ni Budda sutralari sakdangan, buddaviy avliyolar muqim ta’limotidagi soliklar quyidagi qoidalarni so‘zsiz bajarishga majbur bo‘lganlar. 1)Murid hech kimsani o‘z shayxidan afzal ko‘rmasligi, unga mutlaqo taslimiyat izhor etmog‘i lozim; 2)murid shunchalik zukko va idrokli bo‘lishi kerakki, to o‘z shayxining barcha rumuz va ishoralarini mukammal anglay bilsin; 3)shayxning barcha ahvoli (so‘zlari) va af’oli ishlariga murid solih bo‘lib, unga mutlaqo mute va mu’taqid bo‘lmog‘i lozim; 4)murid o‘z murshidi (piri)ning barcha topshiriqlarini mustu chalolik (chaqqonlik) ila va sidqidildan bajarib, uni hamisha rozi qilib yurmog‘i zarur; 5)murid o‘z so‘ziga sodiq, va’dasiga rosih bo‘lib, murshidi ko‘nglida hech qanday shak-u shubha tug‘dirmasligi zarur; 6)murid o‘z va’dasiga vafodor va so‘zida ustuvor turishi shart; 7)murid o‘z ixtiyoridagi barcha mol-mulkini, butun bor-u yo‘g‘ini shayxiga nisor etmoq uchun doimo tayyor turmog‘i lozim; 8)murid o‘z shayxining barcha sir-asroridan ogoh bo‘lib, uning ifshosini hech vaqt xaeliga keltirmasligi kerak; 9)murid o‘z shayxining barcha takliflarini nazarda tutmog‘i, uning mushkulotini oson qilmog‘i; pand-u nasihatlarini bajo keltirmog‘i shart; 10)murid Olloh visoli uchun o‘z shayxi yo‘lida butun moli va jonini nisor etmoqqa tayyor turishi, uning do‘stiga do‘st, dushmaniga dushman bo‘lib yashamog‘i shart[5].

Xulosa. Ahmad Yassaviy tariqatini tahlil qilish shundan dalolat beradiki, bu tariqat xudo vasliga yetishning o‘ziga xos yo‘lini tanlagan va turli amaliy marosimlarni bajarishda boshqa suluklardan farq qilsa ham, mohiyati va mazmuni jihatidan ular orasida mushtarak va o‘xshash tomonlar ko‘p. Yassaviylik to‘g‘rilik, sofdillik, jabr-zulmga norozilik, poklik va halollik, saxiylik va mehr-shafqat, ilm-ma’rifat, kasb-hunarni egallash, adolat uchun kurash, imon-e’tiqodli bo‘lish, mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishni targ‘ib qildi, yaramas illatlarni qoraladi. Yassaviylik tariqatining aynan mana shu jihatlari bugungi kun yoshlar tarbiyasida qimmatlidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Султон И. Баҳовуддин Нақшбанд абадияти. -Т.: Фан, 1994. -17-6.
2. Навоий А. Насойим-ул-муҳаббат. Асарлар, 15 том.-Т.: 1968.-123-6.
3. Бухорий С.С. Дилда ёр. Ғ.Ғулом номидага нашриёт, Т.: 1993.-9-6.
4. Усмон Ориф. Ваҳдат шаробин ичдим (Яссавия тариқати) //Мулоқот, 1991. 6-сон, 6-бет.
5. Усмон Ориф. Ваҳдат шаробин ичдим (Яссавия тариқати)//Мулоқот, 1991. 6-сон, 6-бет.

[4] Усмон Ориф. Ваҳдат шаробин ичдим (Яссавия тариқати) //Мулоқот, 1991. 6-сон, 6-бет.

[5] Усмон Ориф. Ваҳдат шаробин ичдим (Яссавия тариқати)//Мулоқот, 1991.6-сон, 6-бет.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 101.1(172)

UTOPIK DAVLATLAR VA ULARNING ASOSIY KONSEPSIYALARI

Olimova Muxtasar Rayimovna, Guliston davlat universiteti, dotsent, f.f.b.f.d. (PhD)

UTOPIAN STATES AND THEIR BASIC CONCEPTS

Olimova Mukhtasar Rayimovna, Gulistan State University, Associate Professor, (PhD)

УТОПИЧЕСКИЕ ГОСУДАРСТВА И ИХ ОСНОВНЫЕ КОНЦЕПЦИИ

Олимова Мухтасар Райимовна, Гулистанский государственный университет, доцент, (PhD)

https://orcid.org/0009-0008-0562-9744
e-mail: olimova.muxtasar0927@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola utopik davlatlar tushunchasi, ularning ijtimoiy-siyosiy tizimlari va falsafiy asoslarini chuqur tahlil qiladi. Utopik adabiyotning rivojlanish bosqichlari, mumtoz va zamonaviy utopiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari, hamda bu g‘oyaviy davlatlarning jamiyat taraqqiyoti, insoniyat kelajagi haqidagi tasavvurlarimizga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Utopik g‘oyalarning bugungi kun jamiyatidagi aks-sado beruvchi ijtimoiy harakatlar, texnologik rivojlanish va ijtimoiy adolatga intilishdagi o‘rni yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *utopiya, ekologik utopiyalar, xayoliy o‘tmish, jamoaviy konfiguratsiya, sayohat maydoni, ekspluatatsiya, degradatsiya.*

Abstract: *This article deeply analyzes the concept of utopian states, their socio-political systems, and philosophical foundations. It examines the developmental stages of utopian literature, the unique characteristics of classical and modern utopias, and the impact of these ideal states on our perceptions of societal development and the future of humanity.*

Keywords: *Utopia, ecological utopias, imagined past, collective configuration, field of travel, exploitation, degradation.*

Аннотация: *Данная статья глубоко анализирует понятие утопических государств, их социально-политические системы и философские основы. Рассматриваются этапы развития утопической литературы, особенности классических и современных утопий, а также влияние этих идейных государств на наши представления о развитии общества и будущем человечества.*

Ключевые слова: *утопия, экологические утопии, воображаемое прошлое, коллективная конфигурация, поле путешествия, эксплуатация, деградация.*

Kirish. Jamiyatda sifatli hayot kechirish uchun zarur bo‘lgan tinchlik, oziq-ovqat ta’minoti, ta’lim, sog‘liqni saqlash va bandlik kabi universal elementlarga erishish g‘oyasi utopiyalarning asosiy mezonlaridan biridir. Qanday ideallardan ilhomlanganidan qat’i nazar, barcha utopiyalar ushbu muhim jihatlar bilan tavsiflanadi. Utopiyalar, nomidan ham ko‘rinib turganidek, haqiqatdan yiroq joylarni aks ettiradi. Tomas Mor 1516-yilda o‘zining “Utopiya” romanini yozganida, mazkur atamani qadimgi yunoncha “ou” (yo‘q) va “topos” (joy) so‘zlarini birlashtirib, “hech qayerda”[1] degan ma’noni nazarda tutgan edi.

Mor tasvirida Utopiya orol-davlatining poytaxti Amaurotda barcha ko‘chalar va binolar bir xil, uch qavatli qilib qurilgan. Barcha uylar umumiy foydalanishda bo‘lib, xususiy mulk yo‘q va eshiklar qulfsizdir. Utopiyaliklar uchun bu me’moriy bir xillik baxt, chunki ular har o‘n yillikda boshqa joylarga ko‘chib o‘tadilar va yangi muhitga moslashishga majbur bo‘lmaydilar. Shu tariqa, Mor “Utopiya” asarida jamiyat aql va tashkil topgan ratsionallikka

[1] Tomas Mor. Utopiya. – Toshkent, Trust And Support. 2025. – B. 176.

asoslanganligini, uning asosiy foydasi esa yaxshi va to‘g‘ri zavqlanishlar ekanligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Utopiyalar insonlarga kundalik muammolaridan chekinib, baxt-saodat dunyosiga kirish imkoniyatini bergani uchun juda jozibador bo‘lib kelgan. Marius de Geus o‘zining “Ekologik utopiyalar” asarida ta’kidlaganidek: “Ijtimoiy adolatsizlik, ochlik, qashshoqlik, jinoyatchilik, bosim, zo‘ravonlik va ifloslanishdan xoli ideal dunyoni orzu qilish juda jozibali” [2] . Utopiyachilar ana shu muammolarning ildizlarini o‘rganib, jamiyatning chuqur ildiz otgan tuzilmaviy kamchiliklarini fosh qilishga intiladilar va o‘zlari yaratgan zamondoshlariga oyna tutib, o‘tmishdan doimiy ravishda ajralib turadigan makonni taqdim etadilar. Natijada, xayoliy o‘tmishda yoki uzoq kelajakda baxtli dunyo paydo bo‘ladi.

1970-yillarni ekologik utopiyalar o‘n yilligi deb hisoblash mumkin. Eng nufuzlilaridan biri Ernest Kallenbaxning 1975-yilda nashr etilgan “Ekotopiya”[3] kitobida tasvirlangan jamiyatdir. Hikoya 1999-yilda bo‘lib o‘tadi va muxbir Uilyam Uestonning hisobotlari va kundaliklaridan iborat bo‘lib, u Shimoliy Kaliforniya, Oregon va Vashingtondan iborat bo‘lib, Qo‘shma Shtatlardan ajralib chiqqandan keyin yangi Ekotopiya davlatiga kirgan birinchi shaxsdir. Bu harakat Kanadaning Britaniya Kolumbiyasidan Oregongacha cho‘zilgan va ekologiya, bioregionalizm, shaxsiy hayot, fuqarolik erkinliklari va erkinlikka asoslangan aloqa hissi bilan rivojlantirilgan Kaskadiya harakatiga yaqin eshitiladi. Ekotopiya fuqarolari jamoaviy konfiguratsiyalar va ijtimoiy mas’uliyatga ahamiyat beradigan ijodiy, erkin fikrlaydigan, liberal va g‘ayratli odamlar sifatida ta’riflanadi.

Boshqa utopistlar singari, Kallenbax ham o‘quvchiga Ekotopiyaning turmush tarzi, siyosati, jinsiy erkinligi, ta’limi va gender munosabatlari haqida batafsil ma’lumot beradi, ammo uning asosiy e’tibori jamiyatning ekologik jihatlariga qaratilgan. Foydali chiqindilar aylanishi, ekologik oziq-ovqat ishlab chiqarish, avtomobilsiz hayot va quyosh hamda dengizdan energiya ishlab chiqarishlar hisobga olingan. Kallenbaxning romani 1970-yillarda ko‘plab mualliflar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan insonlar va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning muqobil tasavvurini o‘zida mujassam etgani bilan alohida ahamiyatga ega. “Ekotopiya” Marj Pirsning “Vaqt chekkasidagi ayol” [4] va Salli Miller Gearxartning “Sayohat maydoni” [5] asarlariga bir xil ekologik tanqidni o‘z ichiga oladi, ularning ikkalasi ham tabiatning korporativ va texnologik ekspluatatsiyasi va atrof-muhitning degradatsiyasi bilan bog‘liq muammolarni ko‘taradi.

Muhokama. Utopik g‘oyalar insoniyat tafakkurida azaldan mavjud bo‘lgan bo‘lib, jamiyatda sifatli hayot kechirishning universal mezonlari – tinchlik, oziq-ovqat ta’minoti, ta’lim, sog‘liqni saqlash va bandlik kabi elementlarga erishish orzusi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu ideal dunyolar, Tomas Morning 1516-yilda yozilgan “Utopiya” romanida ilgari surilganidek, Amaurot orol-davlatida barcha ko‘chalar va binolarning bir xil, uch qavatli bo‘lishi, mulkchilikning umumiy xarakteri va eshiklarning qulfsizligi jamiyatning aql va tashkil topgan ratsionallikka asoslanganligidan dalolat beradi. Bu me’moriy bir xillik va har o‘n yillikda ko‘chib yurish zarurati utopiyaliklar uchun baxt deb hisoblanadi, chunki ular yangi joylarga moslashishga majbur bo‘lmaydilar. Morning asari orqali jamiyatning asosiy foydasi yaxshi va to‘g‘ri zavqlanishlar ekanligi ta’kidlanadi.

Utopiyalar insonlarga kundalik muammolaridan chekinib, baxt-saodat dunyosiga kirish imkoniyatini bergani uchun o‘ziga xos jozibaga ega. Marius de Geus o‘zining “Ekologik Utopiyalar” asarida ta’kidlaganidek, “ijtimoiy adolatsizlik, ochlik, qashshoqlik, jinoyatchilik, bosim, zo‘ravonlik va ifloslanishdan xoli ideal dunyoni orzu qilish juda jozibali”. Utopiyachilar ana shu muammolarning ildizlarini o‘rganib, jamiyatning chuqur tuzilmaviy kamchiliklarini fosh qilishga intiladilar va o‘zlari yaratgan xayoliy makonlarda zamondoshlariga oyna tutib, o‘tmishdan doimiy ravishda ajralib turadigan alternativ dunyoni taqdim etadilar. Natijada, ushbu xayoliy yoki kelajakdagi baxtli dunyolar mavjud tartibga tanqidiy nazar bilan qarashga undaydi.Ayniqsa, 1970-yillar ekologik utopiyalar o‘n yilligi sifatida ajralib turadi. Ernest Kallenbaxning 1975-yilda nashr etilgan “Ekotopiya” kitobi ushbu davrning eng nufuzli asarlaridan biridir. Hikoya Qo‘shma Shtatlardan ajralib chiqqan Shimoliy Kaliforniya, Oregon va Vashington shtatlaridan iborat Ekotopiya davlatiga tashrif buyurgan muxbir Uilyam Uestonning hisobotlari orqali rivoyat qilinadi.

[2] De Geus, Marius. “Ecological utopias: Envisioning the sustainable society.” (1999).

[3] Callenbach, Ernest. Ecology: A Pocket Guide. Berkeley: University of California Press, 1998.

[4] Marge Piercy, Woman on the Edge of Time. 1976. – P. 381.

[5] Gearhart, Sally Miller. The Wanderground, 1979. – P. 376.

Ekotopiya g‘oyasi ekologiya, bioregionalizm, shaxsiy hayotning qadrlanishi, fuqarolik erkinliklari va erkinlikka asoslangan aloqa hissi bilan rivojlangan Kaskadiya harakatiga yaqin bo‘lib, Ekotopiya fuqarolari jamoaviy konfiguratsiyalar va ijtimoiy mas’uliyatga ahamiyat beradigan, ijodiy, erkin fikrlaydigan, liberal va g‘ayratli odamlar sifatida tasvirlanadi. Kallenbax boshqa utopistlar singari Ekotopiyaning turmush tarzi, siyosati, jinsiy erkinligi, ta’limi va gender munosabatlari haqida batafsil ma’lumot beradi, ammo uning asosiy e’tibori jamiyatning ekologik jihatlariga qaratilgan. Unda foydali chiqindilarning aylanishi, ekologik oziq-ovqat ishlab chiqarish, avtomobilsiz hayot va quyosh hamda dengizdan energiya ishlab chiqarish kabi jihatlar hisobga olinadi. Kallenbaxning romani 1970-yillarda ko‘plab mualliflar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan insonlar va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning muqobil tasavvurini o‘zida mujassam etgani bilan alohida ahamiyatga ega. “Ekotopiya” Marj Pirsning “Vaqt chekkasidagi ayol” va Salli Miller Gearxartning “Sayohat maydoni” asarlariga bir xil ekologik tanqidni o‘z ichiga oladi, ularning ikkalasi ham tabiatning korporativ va texnologik ekspluatatsiyasi hamda atrof-muhitning degradatsiyasi bilan bog‘liq muammolarni ko‘taradi.

Natijalar. Tadqiqot tahlillari shuni ko‘rsatadiki, utopiyalar nafaqat badiiy asarlar, balki jamiyatning rivojlanish yo‘llari haqidagi falsafiy mulohazalar hamdir. Utopiyalar jamiyatda sifatli hayot uchun zarur bo‘lgan tinchlik, oziq-ovqat ta’minoti, ta’lim, sog‘liqni saqlash va bandlik kabi universal elementlarga erishish g‘oyasi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, utopiyalar nomidan kelib chiqqan holda, ular hozirgi voqelikdan yiroq, “hech qayerda” mavjud bo‘lgan ideal makonni ifodalaydi. Tomas Morning “Utopiya” asarida tasvirlangan aql va ratsionallikka asoslangan jamiyat, umumiy mulkchilik va ijtimoiy tenglik g‘oyalari utopik jamiyatlarning asosiy modelini yaratgan.

Utopiyalar insonlarga kundalik muammolaridan chekinib, baxt-saodat dunyosiga kirish imkoniyatini berganligi sababli jozibador hisoblanadi. Marius de Geus ta’kidlaganidek, ijtimoiy adolatsizlik, ochlik, qashshoqlik kabi muammolardan xoli ideal dunyoni orzu qilish inson tabiatiga xosdir. Utopiyachilar jamiyatning tuzilmaviy kamchiliklarini fosh qilish orqali zamondoshlariga tanqidiy oyna tutib, mavjud tartibga muqobil yondashuvlarni taklif etadilar.

1970-yillarda yuzaga kelgan ekologik utopiyalar, xususan, Ernest Kallenbaxning “Ekotopiya”si, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni tiklash g‘oyasini ilgari surdi. Bu asarlar ekologiya, bioregionalizm, shaxsiy hayot va fuqarolik erkinliklariga asoslangan jamiyatni tasvirlaydi. Ular chiqindilarni qayta ishlash, ekologik oziq-ovqat ishlab chiqarish, avtomobilsiz hayot va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish kabi prinsiplarni o‘z ichiga oladi. “Ekotopiya”, shuningdek, Marj Pirs va Salli Miller Gearxart kabi mualliflarning ekologik tanqidni o‘z ichiga olgan asarlari bilan umumiy ekologik muammolarni ko‘tarishda birlashadi. Har qanday utopiya, ideal bo‘lib ko‘ringani bilan, chegaralarga yetkazilganda distopiyaga aylanish xavfini tug‘diradi. Biroq, ularning asosiy qiymati mukammallikka intilishda emas, balki jamiyatni bosqichma-bosqich takomillashtirish g‘oyasini ilgari surishda. Utopiyalar insoniyatning kelajakni tasavvur qilish, ijtimoiy muammolarga yangicha yechimlar izlash va ezgu maqsadlar sari harakatlanish qobiliyatini aks ettiradi. Ular kelajak avlodlar uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot utopik g‘oyalarning insoniyat tafakkuridagi o‘rni va ularning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Utopiyalar, o‘z nomidan kelib chiqib, “hech qayerda” mavjud bo‘lmagan ideal makonni tasvirlasa-da, ular insonning ezgu orzulari va mukammal jamiyatga intilishining badiiy va falsafiy ifodasidir. Morning “Utopiya”sidan tortib, zamonaviy ekologik utopiyalargacha, bu asarlar tinchlik, adolat, ta’lim, sog‘liqni saqlash va barqarorlik kabi universal qadriyatlarni aks ettiradi. Demak, utopik g‘oyalar, garchi ular ba’zan erishib bo‘lmaydigan ideal bo‘lib tuyulsa-da, insonning jamiyatni yaxshilash, adolatni ta’minlash va tabiat bilan uyg‘un yashash borasidagi intilishlarining doimiy harakatlantiruvchi kuchidir. Ular zamonaviy dunyo duch kelayotgan ekologik, ijtimoiy va axloqiy muammolarni hal qilish uchun ilhom manbai va yo‘naltiruvchi kompas bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tomas Mor. Utopiya. – Toshkent, Trust And Support. 2025. – B. 176.
2. De Geus, Marius. Ecological utopias: Envisioning the sustainable society. 1999.
3. Callenbach, Ernest. Ecology: A Pocket Guide. Berkeley: University of California Press, 1998.
4. Marge Piercy, Woman on the Edge of Time. 1976. – P. 381.
5. Gearhart, Sally Miller. The Wanderground, 1979. – P. 376.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 37.01

ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA RAQAMLI VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Babanazarova Manzura Satullaevna, Innovatsion texnologiyalar universiteti

METHODOLOGY OF USING DIGITAL AND INFORMATION TECHNOLOGIES IN AN ELECTRONIC LEARNING ENVIRONMENT

Babanazarova Manzura Satullaevna, University of Innovative Technologies

МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЭЛЕКТРОННОЙ УЧЕБНОЙ СРЕДЕ

Бабаназарова Манзура Сатуллаевна, Университет инновационных технологий

https://orcid.org/0009-0004-2479-6135
e-mail: manzurababanazarova89@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada elektron ta'lim muhitida raqamli va axborot texnologiyalardan (AKT) foydalanish metodikasi ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Ta'lim jarayonini loyihalash, o'qitish usullari, raqamli pedagogika prinsiplari, baholash va monitoring tizimlari hamda o'qituvchi va o'quvchining rollari zamonaviy ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, elektron ta'limda raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *elektron ta'lim, raqamli pedagogika, AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari), o'qitish metodikasi, masofaviy ta'lim, interaktivlik, individuallashtirish.*

Annotation: *This article highlights the methodology of using digital and information technologies (ICT) in the e-learning environment from a scientific and theoretical point of view. Based on modern scientific sources, the design of the educational process, teaching methods, the principles of digital pedagogy, assessment and monitoring systems, as well as the roles of the teacher and student, are analyzed. Practical recommendations for the effective implementation of digital technologies in e-learning are also presented.*

Keywords: *e-learning, digital pedagogy, information and communication technologies(ICT), teaching methodology, distance learning, interactivity, individualization.*

Аннотация: *В данной статье научно-теоретически освещена методика использования цифровых и информационных технологий (ИКТ) в электронной образовательной среде. На основе современных научных источников проанализированы проектирование образовательного процесса, методы обучения, принципы цифровой педагогики, системы оценки и мониторинга, а также роли учителя и ученика. Также представлены практические рекомендации по эффективному внедрению цифровых технологий в электронное образование.*

Ключевые слова: *электронное образование, цифровая педагогика, информационно-коммуникационные технологии, методика обучения, дистанционное обучение, интерактивность, индивидуализация.*

Kirish. Zamonaviy sharoitda, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish vazifasi hal qilinayotganda, kelajakdagi psixologiya o'qituvchisi kasbiy faoliyatga qo'yiladigan talablar o'zgardi. Psixologiya o'qituvchilarni tayyorlash sohasida yangi innovatsion ta'lim siyosatini ishlab chiqish, albatta, yangi, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish yo'lida amalga oshirilishi kerak bo'lgan o'zgarishlardan kelib chiqadi. Bunday sharoitda psixologiya o'qituvchilarning yangi avlodini shakllantirish muammosi dolzarbdir. Bitiruvchining ijodiy faoliyatini rivojlantirish muammolari birinchi o'ringa chiqadi, bu shubhasiz

talabalarni o‘qitish metodikasi va o‘qitish uslublarini takomillashtirish bilan bog‘liq.

Adabiyotlar Tahlili va metodologiya. L.U.Radjabova tomonidan olib borilgan tadqiqotda O‘zbekiston ta’lim tizimida internet va raqamli texnologiyalardan foydalanish holati hamda ularning ta’lim sifatini yaxshilash imkoniyatlari tahlil qilingan. Bu tadqiqot elektron ta’limni AKT orqali tashkil etish muhimligini ko‘rsatgan. N.Rahmatovaning maqolasi esa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni va samarali qo‘llanishi bo‘yicha amaliy tavsiyalar bilan birga, elektron darsliklar, interaktiv vositalar va onlayn platformalarning o‘rganilishi natijalarini taqdim etadi. Z.A.Baxtiyarova va D.A.Madjidova tomonidan elektron ta’lim sohasidagi infrastruktura, kadrlar tayyorlash va internet tezligi kabi asosiy muammolar o‘rganilgan va ularni bartaraf etish yo‘nalishlari tahlil qilingan. M.N.Yuldoshevning maqolasi informatika fani darslarida zamonaviy texnologiyalar (virtual laboratoriyalar, interaktiv o‘yin elementlari, sun’iy intellekt asosidagi moslashuvchan tizimlar)dan foydalanish metodikasini tahlil qiladi. Muallif innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi va **informatika o‘qitish metodikasida zamonaviy AKT vositalarini joriy etish bo‘yicha** real yondashuvlar va tavsiyalarni beradi.

Muhokama. Raqamli va axborot texnologiyalardan foydalanish metodikasi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- Ta’lim jarayonini loyihalash: o‘quv maqsadlarini aniq belgilash, raqamli resurslarni tanlash va ularni pedagogik senariy asosida joylashtirish.
- O‘quv kontentini tayyorlash: multimedia materiallar, interaktiv darslar, videoma’ruzalar va simulyatsiyalar yaratish.
- O‘qitish usullari: muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, flipped klassrum (teskari sinf) va adaptiv o‘qitish usullarini qo‘llash.
- Kommunikatsiya va hamkorlik: forumlar, videokonferensiyalar, onlayn guruh ishlari orqali ijtimoiy o‘zaro ta’sirni tashkil etish.
- Nazorat va baholash: elektron testlar, portfolio, formativ va summativ baholash usullari.

Raqamli va axborot texnologiyalarni qo‘llash metodikasining asosiy prinsiplarga asoslanadi:

- Ilmiylik va tizimlilik: ta’lim mazmuni ilmiy asoslangan va mantiqiy tizimda taqdim etilishi lozim.
- Interaktivlik: o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlash.
- Individuallashtirish: o‘quvchilarning bilim darajasi va o‘quv sur’atini hisobga olish.
- Moslashuvchanlik: turli platformalar va qurilmalarda foydalanish imkoniyati.
- Qayta aloqa: doimiy fikr-mulohaza va monitoringni ta’minlash.

Elektron ta’lim muhitida o‘qituvchi axborot yetkazuvchi emas, balki maslahatchi, tyutor vazifasini bajaradi. O‘quvchi esa mustaqil ta’lim oluvchi, faol tadqiqotchi va raqamli resurslar bilan ishlovchi subyekt sifatida ishtirok etadi. Bu rollar o‘zgarishi ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Natijalar. «Raqamli va axborot texnologiyalar» fanini o‘qitish jarayonida kompyuter texnologiyalarining o‘rni va roli nihoyatda beqiyos ahamiyatga egadir. Jumladan, «Raqamli va axborot texnologiyalar» fani ixtisoslik fanlariga kirib, bugungi kunda respublikamizning oliy ta’lim muassasalarida hamda akademik litseylarda o‘qitilib kelinmoqda. Chunki, har bir soha mutaxassisidan grafik va veb dasturlarda mukammal ishlay bilish va o‘z sohasi bo‘yicha foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish lozimligini zamonning o‘zi talab etmoqda. Bu esa, «Raqamli va axborot texnologiyalar» fanini o‘qitish jarayoniga kompyuter texnologiyalarini joriy etish va bu asosida elektron ta’lim muhitida raqamli ta’lim resurslardan foydalanishning nazariy, amaliy ahamiyati katta ekanligidan dalolat beradi.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni talabalarda kompyuter sohasidagi fundamental bilimlarni shakllantirishga, loyihalashtirishning axborot texnologiyalari, kompyuterli dizayn va grafikasi uchun dasturlar va tizimlarni, shuningdek, kompyuter animatsiyasi va grafik vizualizatsiya uslublarini o‘rganishga asoslangan bo‘lishi kerak. Talabalar texnik va ishlab chiqarish obyektlarini zamonaviy kompyuter texnologiyalarida loyihalashni chuqur o‘rganishlari, media-industriya va dizayn sohasida dasturiy mahsulotlar va axborot komplekslari bilan ishlash ko‘nikmalarini egallashlari kerak.

Raqamli va axborot texnologiyalarning mohiyati zamonaviy ilmiy adabiyotlarda turlicha tushuniladi. Bir qator tadqiqotchilar raqamli va axborot texnologiyalarni kompyuterda turli xil tasvirlarni (rasmlar, chizmalar, grafikalar, animatsiya va boshqalar) olish muammolari bilan shug‘ullanadigan informatikaning bir sohasi deb

bilishadi. Raqamli va axborot texnologiyalar vosita sifatida ham ko‘rib chiqishadi.

Elektron ta’lim muhitida ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasining boshqarish modeli, raqamli ta’lim vositalari, virtual stendlar yaratildi va amaliyotga tatbiq qilish uchun tavsiya etildi. OTM talabalarini raqamli texnologiyalar bo‘yicha o‘qitish metodikasi modeli 4ta tarkibiy qismdan iborat bo‘lib ular quyidagilar: Maqsad, metodologik yondashuvlar, jarayon va natija. Maqsad qismida raqamli ta’lim resurslari yordamida «Raqamli va axborot texnologiyalar» fanini o‘qitish samaradorligini oshirish ijtimoiy ehtiyoj sifatija qaralgan. Metodologik yondashuvlar raqamli va axborot texnologiyalarni o‘qitishda informatsion yondashuv, tizimli yondashuv, integrativ yondashuv. Jarayonda motivatsion maqsadi, mantiqiy, tamoillar, vositalar qaraladi. Natijada esa baholash mezonlari, baholash darajalari aniqlashtiriladi.

Raqamli va axborot texnologiyalar fanidan raqamli ta’lim resurslaridan foydalanib ta’lim olish ko‘nikmasini rivojlantirish bo‘yicha model ishlab chiqildi hamda biz taklif etayotgan modelning asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, mazkur jarayonni takomillashtirishda darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonlarining natijaviyligi aniqlanib, ilg‘or pedagogik tajribalar va zamonaviy o‘qitish vositalari, eng qulay va samarali hisoblangan metodlar va yondashuvlarni amaliyotda qo‘llash hamda talabalarning ta’lim olish va raqamli ta’lim resurslari oqali o‘rganishga moyilligi, qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini baholash belgilangan vazifalarni tahlil qilish va takomillashtirish jarayonida qayta aloqa ta’minlanishi zarur.

Raqamli va axborot texnologiyalar fanidan talabalarning ta’lim resurslari asosida bilim olish ko‘nikmasini shakillantirishni rivojlantirish va talabalarning intilishini ta’minlash borasida amalga oshiriladigan vazifalar bilan foydalaniladigan metodlar va turli yondashuv texnologiyalarini umumlashtirish; talabalarda o‘qish, tadqiq qilish, fanga bo‘lgan intilishlarini rivojlantirish, darsga va kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonlariga ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish hamda rivojlantirish vositalarini tanlash; talabalarda yangilanishlarga bo‘lgan intiluvchanligini va qiziqishlarini namoyon qiluvchi motivatsiyalarni belgilash; Raqamli va axborot texnologiyalar asosida shakillantirilgan ta’lim resurslari bo‘yicha bilim olish darajasini yuksaltirishni takomillashtirish omillarini aniqlash; Raqamli va axborot texnologiyalar fanidan ta’lim resurslari orqali ta’lim olish ko‘nikmasini rivojlantirishni takomillashtirish yo‘nalishida amalga oshirish zarur bo‘lgan vazifalarni aniqlash imkonini beradi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotimiz doirasida yaratilgan raqamli ta’lim resurslari nafaqat talaba, balki ta’lim olish istagida bo‘lgan har qanday foydalanuvchilar uchun o‘rganishlarini osonlashtiruvchi yordamchi o‘qituvchi vazifasini o‘tashi lozim. Elektron ta’lim muhitida raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish bir tomondan ta’lim jarayonining samaradorligini, o‘quvchilarning faolligi va individual rivojlanishini oshiradi; boshqa tomondan esa tizimli rejalashtirish, o‘qituvchilar kompetensiyasi va texnik infratuzilma talablarini qo‘yadi.

Amaliy jihatdan, samarali elektron ta’lim quyidagi omillarning uyg‘unligiga bog‘liq: aniq belgilangan o‘quv maqsadlari, sifatli o‘quv kontenti va interaktiv modullar, mos LMS va vositalar tanlovi, uzluksiz formativ va summativ baholash, shuningdek *learning analytics* asosida qaror qabul qilish. O‘qituvchilar uchun texnologik va didaktik treninglar, metodik qo‘llanmalar va mentorlik dasturlari o‘tkazilishi zarur; talabalar esa raqamli savodxonlik, o‘z-o‘zini boshqarish va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishlari lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qo‘lmamatov S.I. Mustaqil ta’limni tashkil etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish // Ped. fan. nom. ... dis. avtoreferati – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008.
2. O.Zaripov, M.Babanazarova. Raqamli va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash. Fizika, matematika va informatika // Ilmiy-uslubiy jurnal, 6/2024.
3. Mamatov D.N. Elektron axborot ta’lim muhitid a kasbiy ta’lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish // dissertatsiya. 2017 y. 46 b.
4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy texnologiyalar//Pedagogik ta’lim.–Toshkent:2005.–№. 6.–B.15-17.
5. Aripov M., Axmedov A.B., Ikramov X..Z., Irmuxammedova R.M.va boshq. Informatika. Axborot texnologiyalari. 2-qism. -Toshkent, 2003- 421b.

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 82(575.1)

ABDULLA QAHHORNING “O‘JAR” HIKOYASINI O‘QITISH ORQALI TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Xudayberganova Diana Vladimirovna, Urganch davlat pedagogika institute O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi, Navoiy nomli davlat stipendiyasining sohibi

https://orcid.org/0009-0000-2398-1612
e-mail: khudaybergenovadiana@gmail.com

DEVELOPING CRITICAL THINKING THROUGH TEACHING ABDULLA QAHHOR’S STORY “O‘JAR”

Khudayberganova Diana Vladimirovna, Urgench State Pedagogical Institute Student of the Uzbek Language and Literature Department, holder of the Navoi State Scholarship

РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПОСРЕДСТВОМ ПРЕПОДАВАНИЯ РАССКАЗА АБДУЛЛЫ КАХХОРА “УПРЯМЕЦ”

Худайберганова Диана Владимировна, Ургенчский государственный педагогический институт, студентка факультета узбекского языка и литературы, обладательница Навоийской государственной стипендии

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan adiblaridan biri bo‘lgan Abdulla Qahhorning “O‘jar” hikoyasi tahlilga tortildi. O‘quvchilarning hikoyani mutolaa qilish davomida Qutbiddinov va Zargarovlarning farzand tarbiyasidagi fikrlari muhokama qilindi. Asarga aynan “O‘jar” deb nom berilishi tanqidiy tahlil ostiga olindi.*

Kalit so‘zlar: *Qutbiddinov, Zargarov, Suyar, Saltikov Shchedrin, bola tarbiyasi, shaxmat o‘ynatish, aql o‘rganish.*

Annotation: *This article analyzes the short story “O‘jar” (The Stubborn) by Abdulla Qahhor, one of the most prominent figures in Uzbek literature. It examines the contrasting perspectives of the characters Qutbiddinov and Zargarov regarding child upbringing as the story unfolds. Furthermore, the article provides a critical analysis of why the work was specifically titled “O‘jar”.*

Keywords: *Kutbiddinov, Zargarov, Suyar, Saltykov Shchedrin, child upbringing, playing chess, intellectual training.*

Аннотация: *В данной статье анализируется рассказ “Упрямец” (“O‘jar”) одного из выдающихся представителей узбекской литературы — Абдуллы Каххора. В процессе разбора произведения обсуждаются взгляды Кутбиддинова и Заргарова на воспитание детей, возникающие у читателей в ходе чтения. Также подвергается критическому анализу само название произведения и причины, по которым автор выбрал именно заголовок “Упрямец”.*

Ключевые слова: *Кутбиддинов, Заргаров, Суяр, Салтыков Щедрин, воспитание детей, игра в шахматы, интеллектуальная подготовка.*

KIRISH. Bilim olish zamon va makon tanlamaydi. Chunki inson har doim unga ehtiyoj sezadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard

va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” asarida quyidagicha xitob qiladi: “Eng muhimi, farzandlarimizda yoshlik chog‘idan boshlab kitobga mehr qo‘yish, mustaqil fikr yuritish, murakkab hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri javob topish ko‘nikmasini shakllantirishimiz, buning uchun tegishli tashkiliy ishlarni amalga oshirishimiz darkor”[2.469]. Yuqoridagi fikrga tayangan holda o‘quvchilarni o‘qitishning zamonaviy va samarali usullarini izlab topish uchun tegishli tashkilotlar shug‘ullanishni boshladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Buni O‘zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhorning bir qator asarlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Adibning asarlari katta va kichik hihoyalardan iboratligi, ulardagi g‘oyaning insonga yetib borishi bilan g‘oyatda ahamiyatlidir. Hikoyalarning ko‘pchiligi hajman qisqa bo‘lishiga qaramasdan kitobxonga tarbiya, estetik go‘zallik, ruhiy ozuqa beradi, desak adashmagan bo‘lamiz. Jumladan, “O‘jar” hikoyasi ham shular jumlasidandir. Mazkur hikoya orqali Abdulla Qahhor shu davrning savodsizlik darajasini har xil yo‘sinda ko‘rsatib bergan.

MUHOKAMA. Dastlab tor doiradagi doimo 2 xil mavzu muhokamasi, ya‘ni: “Shu ketishda shaharimiz yana ellik yildan keyin qanday bo‘lar ekan; ikkinchisi – so‘nggi vaqtlarda fan kishilarni yoshartirish to‘g‘risida nega indamay qo‘ydi?”[3.101] degan fikrlar ilgari suriladi. So‘ngra o‘zlarida yo‘q tarbiyani talab qilishadi. Bundan tashqari farzandning qiziqishlariga, ayniqsa, o‘zidagi adovat orqali uning sevimli mashg‘ulotlari orqali izza qilish yaqqol Qutbiddinov nutqida ko‘rinadi. Chunki u bir vaqtlar shaxmat o‘ynab yutqizib qo‘ygani uchun haliyam achchig‘lanib yurgan bo‘ladi. O‘yinda bir taraf g‘olib bo‘lsa, ikkinchi taraf albatta mag‘lub bo‘ladi. Bunga tayyor bo‘lgan inson o‘yinga kirishishi kerak. Aslida, ikki do‘st o‘zlarining bir-biridan ustunligini ko‘rsatishga, bir-birining ustidan kulishga intilishidan, madaniyatsiz, farosatsiz qilig‘idan, uquvsizligidan dalolat beradi, desak adashmagan bo‘lamiz. Ikki oshnaning fikricha, aslida o‘jar xarakterdagi obraz Suyar ismli yigit edi. Uning qaysar, o‘jarligi, adabiyotdagi noto‘gri fikr va talqinlarni tan olmasligi va o‘zi to‘g‘risini ko‘rsatishi tufayli otasi tomonidan o‘jar deb qaralishi hikoyada ochib beriladi. Otabek Xasanov o‘zining “Liderlar kitobi” risolasida: “Zamonaviy jamiyat ko‘pqirralikni sevadi, afsonalardan farqli o‘laroq, band bo‘lish yanada yaxshi bo‘lishni anglatmaydi” deya e’titof qiladi [5.61]. Chunki asardagi har daqiqasidan unumli foydalanishga harakat qiladigan Suyarga otasi va uning oshnasi xalaqit beradi. Tor doirada fikrlaydigan, nuqul ayb qidiradigan bu kishilar tanqidiy fikrlashga ko‘proq undaydi. Hikoyaning boshidan oxirigacha balandparvoz so‘zlar yetakchilik qiladi. Ikki do‘st yosh bo‘lsa judayam katta ishlar qilishini aytishadi. Biroq ular to‘g‘ri yo‘lda borayotgan, ilm olayotgan yosh o‘smirni kalaka qilishadi. Asar so‘ngida xatolar oydinlashgan bo‘lsa ham, biroq tan olmaslik tuyg‘usi doimo hukm surishi ham ko‘rsatib berilgan. Ayniqsa, adovat tufayli shaxmat o‘yiniga nisbatan yomon ko‘z bilan qarashni ham ko‘rishimiz mumkin. Sport inson salomatligi, jismonan tetik bo‘lishiga yordam beruvchi vosita. Xususan, shahmat aqlni charxlaydigan, tafakkur qilishga undaydigan sport turi adashmagan bo‘lamiz. Biroq, hikoyaning markazida turgan Qutbiddinov va Zargarovlar aslida shaxmat zararli ekanligini, bugun kun tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini bodbod ta’kidlab o‘tadilar.

O‘quvchini tanqidiy va ijodiy fikrlashga undash, ulardagi ochilmagan qirralarni ochish nafaqat adabiyot muallimining, balki har bir pedagogning vazifasidir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Darhaqiqat, taniqli fizik olim Albert Eynshteyn buni quyidagicha sharhlab o‘tgan: “Har bir inson dahodir. Ammo agar siz baliqning daraxtga chiqish qobiliyatiga qarab baholasangiz, u butun hayotini o‘zining ahmoqligiga ishonib yashaydi”[1.252]. Shunday holda aynan bir tomonlama emas, balki boshqa qirralarini ko‘rib chiqib baholasak u o‘zida yo‘q bo‘lgan jihatlarni ham shakllantirib, takomillashtirib, o‘z ustida yanada ko‘proq ishlab jamiyatga hissa qo‘shishi shubhasiz. Suyarning otasi va uning do‘sti esa bor qobiliyatning ustidan kulib, ruhiyatining tushkunlikka tushib ketishiga sabab bo‘ladi, deya bemalol aytsak bo‘ladi.

NATIJALAR. Asar davomida adabiyot faniga ham alohida to‘xtalib o‘tilgan. O‘zlarini ziyoli, har sohada ilg‘or deb o‘ylaydigan bu do‘stlar o‘g‘illarining sha’niga putur yetkazish uchun masxara, kalaka qilishadi. Jumladan, Saltikov va Shchedrinlar kimlar degan savolni o‘rtaga qo‘yishadi. Suyar har qancha bular ikkalasi

ham bir odam deyishiga qaramasdan, ishongisi kelmay uning ustidan kulishadi. Oxiri Suyar ichkaridan portretni olib chiqib ism-sharifini o‘qitadi. Qutbiddinov shundayam bu bola juda o‘jar, o‘z gapida qat’iy turib olgan, deya achchiqlanadi. Suyarning aybi haqiqatni aytgani bo‘ldi, xolos. O‘quvchilar tanqidiy fikrlash orqali bunday vaziyatda qanday yo‘l tutish kerak, Suyar bilganini aytmasligi kerakmi yoki to‘g‘risini aytishi kerakmi, deya chuqur mulohaza qilishadi.

Mutolaa qilish davomida kitobxon har tomonlama tanqidiy fikrlash orqali turfa xil xulosalarga kelishi mumkin. Masalan, u vaqtlarda kattalar nima desa ham yoshlar to‘g‘ri deya qabul qilishi odat tusiga aylangan, deyishimiz mumkin. Yoki o‘z aybini ko‘rmasdan faqatgina farzandlaridan ayb qidirib, ularni o‘jar, qaysarga chiqarib o‘zlarini bekam-u ko‘st inson qilib ko‘rishini aytsak bo‘ladi. Aslida xatosiz inson yo‘q. Inson xato qilganida ham, uni tan olsa bunga halokat deya qaralmaydi. Biroq Zargarov va Qutbiddinov kabilar aybiga iqror bo‘lish o‘rniga har xil fisq-u fasod gap chiqarishi judayam ayanchlidir. Bundan tashqari, o‘sib kelayotgan yosh avlod ong-shuuriga nima yaxshi-yu nima yomon ekanligini noto‘g‘ri singdirish, talqin qilish orqali farzand tarbiyasida yo‘l qo‘yiladigan eng katta xatolardan biri, deb qarasak yanglishmagan bo‘lamiz. O‘quvchi uni o‘qish davomida salbiy illatlardan qochib, ijobiy fazilatlardan o‘ziga kerak bo‘lganlarini olib ma’naviy boylikka ega bo‘ladi, desak adashmagan bo‘lamiz. Chunki badiiy asarning asosiy vazifasi insonga ma’naviy ozuqa berish, yaxshilik qilishga bel bog‘lash, yomonlikdan qochishdir.

XULOSA o‘rnida shuni aytishimiz joizki, yozuvchi insondagi o‘jarlik va qaysarlik, so‘zidan hech qachon qaytmaslik kabi xarakterni ochib bera olgan. Yozuvchi aynan bu kabi xislatlarni tanlaganiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, bunday xarakteri bilan inson jamiyatdagi o‘rni qanday bo‘lishini va u orqali salbiy oqibatlar yuzaga kelishini bilib olishimiz mumkin. Abdulla Qahhor hikoyalarini hayotiy dalil va faktlarga asoslangan holda yozgani sababli har bir asari bugungi kunda alohida ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham “O‘jar” hikoyasida har bir detal, har bir voqea rivoji o‘quvchiga zavq beradi. Misol uchun: avlodlar o‘rtasidagi kommunikativ ziddiyatlar, bir-birini tushunmaslik natijasida saviyasizlik kelib chiqqanligi. Asar kitobxonlar orasida sevib mutolaa qilinishining birinchi sababi sodda va xalqchil tilda yozilganligi bo‘lsa, yana biri farzand tarbiyasida faqatgina jamiyatni emas, o‘zini ham isloh qilib ko‘rishga chorlashidandir. Biz o‘ylaymizki, ushbu hikoya yana bir necha yillar davomida yosh tanlamasdan har bir kitobxonning sevimli asari bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Доминик Спенст. 6 дақиқа: сизнинг ҳаётингизни ўзгартириб юборадиган кундалик. ─Тошкент: Бест-боок, 2021. ─288 б.
2. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. ─Тошкент: Ўзбекистон, 2017. ─488 б.
3. Abdulla Qahhor. Adabiyotimizning so‘nmas yulduzlari. –Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2023. –128 b.
4. Mirzayeva Z., Jalilov K. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. Darslik. –Toshkent: Academ space, 2024. –295 b.
5. Xasanov O. Liderlar kitobi. –Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2020 –340 b.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 113/119-17

RAQAMLI MEDIA VA EKOLOGIK ONG: IJTIMOIY TARMOQLAR ORQALI “YASHIL” XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Sultamuratov Begis Utebayevich,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali
Magistratura bo‘limi boshlig‘i

DIGITAL MEDIA AND ECOLOGICAL CONSCIOUSNESS: MECHANISMS FOR FORMING “GREEN” BEHAVIOR THROUGH SOCIAL NETWORKS

Sultamuratov Begis Utebaevich,
Head of the Master Department of Nukus branch of the State institute of art and culture of Uzbekistan

ЦИФРОВЫЕ МЕДИА И ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОЗНАНИЕ: МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ “ЗЕЛЁНОГО” ПОВЕДЕНИЯ ЧЕРЕЗ СОЦИАЛЬНЫЕ СЕТИ

Султамуратов Бегис Утебаевич,
начальник отдела магистратуры Нукусского филиала Государственного института искусств и культуры Узбекистана

https://orcid.org/0009-0007-8695-0048
e-mail: begissultamuratov@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada ekologik tafakkurni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining, jumladan, ekojurnalistikaning o‘rni va funksiyalari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *ekojurnalistika, ekologik tafakkur, ommaviy axborot vositalari, ekologik xulq-atvor, “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi.*

Abstract: *The article analyzes the role and functions of mass media, including eco-journalism, in shaping ecological thinking.*

Keywords: *ecojournalism, ecological thinking, mass media, ecological behavior, concept of “green economy”.*

Аннотация: *В статье анализируется роль и функции средств массовой информации, включая экожурналистику, в формировании экологического мышления.*

Ключевые слова: *экожурналистика, экологическое мышление, средства массовой информации, экологическое поведение, концепция “зеленой экономики”.*

KIRISH. Bugungi globallashuv va texnologik rivojlanish sharoitida ekologik muammolar insoniyat taraqqiyotining eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Iqlim o‘zgarishi, suv resurslari tanqisligi, havoning ifloslanishi, chiqindilar muammosi va bioxilma-xillikning kamayishi jamiyat hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ekologik xavfsizlik masalasi faqat ilmiy yoki iqtisodiy muammo bo‘lib qolmay, u ijtimoiy ong, siyosiy qarorlar hamda fuqarolik mas’uliyatining shakllanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli ekologik tafakkur, ya’ni insonning tabiat va jamiyat munosabatlarini anglash darajasi hamda ekologik mas’uliyatni ongli qabul qilish qobiliyati zamonaviy davrning muhim ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojiga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Ekologik tafakkurni shakllantirishda ta’lim tizimi, davlat siyosati, jamoatchilik tashkilotlari va

ommaviy axborot vositalari muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, OAVning ekologik masalalarni yoritishdagi roli e’tiborga loyiq, chunki ommaviy axborot vositalari ekologik muammolarni faqat tasvirlab beruvchi emas, balki jamoatchilikni ekologik jarayonlarga jalb qiluvchi, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi va ekologik madaniyatni rivojlantiruvchi institut sifatida faoliyat yuritadi. Bu jarayonda ekojurnalistika ekologik tafakkurning ommaviy shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ekojurnalistika ekologiya, tabiat resurslari, atrof-muhit muhofazasi, iqlim va yashil iqtisodiyot kabi masalalarni professional jurnalistik yondashuvda yoritishga qaratilgan axborot faoliyatidir. U ekologik masalalarning ommaviy ongda tushunarli shaklda talqin qilinishini, muammolarning ijtimoiy mohiyatini ochib berishni hamda fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirishni ta’minlaydi. Shuning uchun ham ekojurnalistika ekologik tafakkur shakllanishining nazariy va amaliy mexanizmlarini o‘rganish bugungi ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb hisoblanadi[1]. Ekologik tafakkur tushunchasi ekologiya, falsafa, sotsiologiya va pedagogika fanlari kesishmasida shakllangan integrativ kategoriya hisoblanadi. Uning mohiyati shundan iboratki, ekologik tafakkur insonning tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni anglash, ekologik oqibatlarni oldindan tasavvur qilish hamda tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirish jarayonidir. Ekologik tafakkur oddiy ekologik bilimlardan farq qiladi: bilim insonning axborotga egaligini bildirsa, tafakkur esa o‘sha bilimni tahlil qilish, baholash va amaliy qarorga aylantirish qobiliyatini anglatadi.

MUHOKAMA. Falsafiy nuqtayi nazardan ekologik tafakkur insonning borliqni anglash shakllaridan biri bo‘lib, u tabiatni faqat resurs sifatida emas, balki ijtimoiy hayotning ajralmas sharti va ma’naviy qadriyat sifatida qabul qilishni talab qiladi. A.N.Moiseev ekologik tafakkur insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi uchun zarur bo‘lgan “planetar mas’uliyat”ni shakllantirish omili ekanligini ta’kidlaydi[2].

Sotsiologik yondashuvga ko‘ra, ekologik tafakkur jamoatchilik ongining tarkibiy qismi bo‘lib, u ekologik xulq-atvorni belgilaydi. Ya’ni inson tabiatga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishi, chiqindilarni qayta ishlashga tayyorligi yoki ekologik harakatlarda ishtirok etishi uning ekologik tafakkuri darajasiga bog‘liq. U.Beckning “xavf jamiyati” konsepsiyasida ekologik muammolar zamonaviy jamiyatning global risklar tizimida markaziy o‘rinni egallashi qayd etiladi[3]. Bu risklar sharoitida ekologik tafakkur jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun strategik ong shakliga aylanadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan ekologik tafakkur ekologik tarbiya va ekologik madaniyat shakllanishining natijaviy ko‘rsatkichidir. U ta’lim jarayonida shakllantiriladigan ekologik bilimlar, qadriyatlar va amaliy ko‘nikmalar tizimining yakuniy natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, ekologik tafakkur shakllanishi uzluksiz ta’lim, ommaviy targ‘ibot va media kommunikatsiyasi bilan bog‘liq holda kechadi.

Ekojurnalistika jurnalistika sohasi ichida maxsus yo‘nalish bo‘lib, u ekologik muammolarni ommaviy auditoriyaga ilmiy asoslangan, ishonchli va tushunarli shaklda yetkazishni maqsad qiladi. Ekojurnalistika faqat tabiat haqida xabar berish emas, balki ekologik xavfsizlik, ekologik huquq, ekologik siyosat, yashil iqtisodiyot, ekologik ta’lim va iqlim o‘zgarishi kabi keng masalalarni jamiyat hayoti bilan bog‘lab tahlil qilishni ham o‘z ichiga oladi.

Ekojurnalistikaning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, axborot funksiyasi. Bu funksiya ekologik muammolar haqida jamiyatni xabardor qilishga xizmat qiladi. Masalan, suv tanqisligi, ekologik falokat zonalari yoki havo ifloslanishi darajasi haqida berilgan ma’lumotlar aholining ekologik ongini uyg‘otadi.

Ikkinchidan, tarbiyaviy funksiyasi. Ekojurnalistika ekologik qadriyatlarni shakllantirishga, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatni targ‘ib qilishga xizmat qiladi. Jurnalistik materiallar orqali ekologik odatlar, chiqindilarni saralash, energiyani tejash kabi ko‘nikmalar ommalashadi.

Uchinchidan, mobilizatsion funksiyasi. Ekologik muammolarni yoritish orqali ekojurnalistika fuqarolik faolligini kuchaytiradi, jamiyatni ekologik tashabbuslarda ishtirok etishga undaydi.

To‘rtinchidan, nazorat funksiyasi. Ekojurnalistika ekologik siyosat va ekologik qonunlarning ijrosini monitoring qilish, ekologik qonunbuzarliklarni ochib berish orqali

jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi. Mazkur funksiyalar OAVning jamiyat hayotidagi “to‘rtinchi hokimiyat” sifatidagi rolini ekologik masalalarda ham namoyon etadi. D.McQuail ommaviy kommunikatsiya jamiyatda ong va xulq-atvorni shakllantiruvchi kuch ekanligini ta’kidlab, media ta’sirning ijtimoiy mexanizmlarini izohlaydi[4]. Shu jihatdan ekojurnalistika ekologik tafakkurni shakllantirishda strategik ijtimoiy vosita sifatida baholanadi.

Ekojurnalistika ekologik tafakkur shakllanishiga turli kommunikativ mexanizmlar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu mexanizmlar auditoriyaning ekologik muammolarni qabul qilish jarayoni, ularni talqin etish hamda amaliy xulq-atvorga aylantirish bosqichlarini qamrab oladi. Birinchi mexanizm – muammoni ijtimoiylashtirish. Ekologik muammo haqida muntazam materiallar berilishi natijasida u jamiyat ongida dolzarb masala sifatida mustahkamlanadi. Masalan, Orol dengizi muammosi O‘zbekiston va Markaziy Osiyo ekologik diskursida OAV orqali keng tarqalgan ijtimoiy muammo sifatida shakllangan.

Ikkinchi mexanizm – muammoni shaxsiylashtirish. Jurnalistika ekologik muammolarni oddiy inson hayoti bilan bog‘lab ko‘rsatganida, auditoriya uni “umumiy muammo” emas, “mening hayotimga ta’sir qiluvchi muammo” sifatida qabul qiladi. Bu ekologik mas’uliyatni kuchaytiradi.

Uchinchi mexanizm – emotsional ta’sir. Ekologik mavzudagi reportajlar, hujjatli filmlar, fotolavhalar auditoriyada kuchli hissiy reaksiyalarni uyg‘otadi. Bu jarayon ekologik ongning shakllanishiga xizmat qiladi, chunki inson tafakkurida emotsional taassurotlar kuchli iz qoldiradi.

To‘rtinchi mexanizm – ta’limiy-izohlovchi kommunikatsiya. Ekojurnalistika ilmiy tushunchalarni soddalashtirib, ularni ommabop tilda tushuntirish orqali ekologik bilimlarning ommalashuviga xizmat qiladi. Bu holat “ilmiy jurnalistika”ning ekologik segmenti sifatida ham baholanadi.

Beshinchi mexanizm – ijtimoiy tarmoq va raqamli media orqali ta’sir. Bugungi kunda ekojurnalistika faqat gazeta yoki televideniye bilan cheklanmay, bloglar, podkastlar, Telegram-kanallar, YouTube reportajlar va Instagram kontent orqali ham ekologik tafakkur shakllanishiga ta’sir qilmoqda. Bu jarayon auditoriyani kengaytiradi va ekologik mavzuni yoshlar ongiga tezroq singdiradi. Ekologik tafakkur ekologik madaniyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u ekologik qadriyatlar, ekologik xulq-atvor va ekologik mas’uliyatni o‘z ichiga oladi. Ekologik madaniyat shaxsning tabiat bilan munosabatidagi axloqiy mezonlar, ekologik odatlar va ekologik dunyoqarashning umumlashgan shaklidir.

NATIJALAR. Ekojurnalistika ekologik madaniyatni rivojlantirishda quyidagi tarbiyaviy yo‘nalishlarda samarali ishlaydi:

1. **Ekologik qadriyatlarni targ‘ib qilish.** Masalan, “tabiat – milliy boylik” g‘oyasi, suvni tejash, chiqindini kamaytirish, daraxt ekish madaniyatini targ‘ib etuvchi materiallar ekologik qadriyatlarning ommalashuviga xizmat qiladi.
2. **Ekologik odatlarni shakllantirish.** OAV orqali “plastikdan kam foydalanish”, “chiqindilarni saralash”, “elektr energiyasini tejash” kabi odatlar targ‘ib qilinsa, bu ekologik xulq-atvor shakllanishiga olib keladi.
3. **Ekologik mas’uliyatni mustahkamlash.** Ekojurnalistika ekologik muammolarga befarqlikning oqibatlarini ko‘rsatish orqali jamiyatda mas’uliyat hissini uyg‘otadi.

Shu jihatdan ekojurnalistika ekologik tarbiya tizimining ommaviy va ijtimoiy shakli sifatida qaralishi mumkin. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) doirasida ham ekologik ong va madaniyatni oshirish muhim vazifa sifatida belgilangan [5]. Ekojurnalistikaning ijtimoiy ta’siri kuchli bo‘lgani uchun ekologik mavzularda manipulyatsiya xavfi ham mavjud. Manipulyatsiya – auditoriyani noto‘g‘ri ma’lumot yoki bir yoqlama talqin orqali ma’lum qarashga majburlash jarayonidir.

Ekologik mavzularda manipulyatsiya quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

-ekologik falokatlarni bo‘rttirib ko‘rsatish;

-noto‘g‘ri statistik ma’lumotlardan foydalanish;

-ekologik masalalarni siyosiy manfaatlarga mos talqin qilish;

-“yashil PR” (greenwashing) orqali korxonalarni ekologik toza qilib ko‘rsatish.

U.Beckning fikricha, xavf jamiyatida ommaviy axborot vositalari risklarni ko‘paytirishi yoki kamaytirishi mumkin bo‘lgan asosiy ijtimoiy

institutlardan biridir [6]. Demak, ekojurnalistika ekologik muammolarni yoritishda haqqoniylikni saqlamasa, ekologik tafakkur o‘rniga ekologik vahima shakllanishi ehtimoli kuchayadi. Shu bois ekojurnalistikada axborot xavfsizligi, faktcheking, manbalarni tekshirish va jurnalist etikasi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ekologik muammolar, xususan Orol dengizi fojeasi, suv resurslari tanqisligi, chiqindilarni boshqarish, sanoat ifloslanishi va iqlim o‘zgarishi kabi masalalar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu muammolarni ommaga yetkazishda ekojurnalistika muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda ekologik mavzular davlat siyosatida ham ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Xususan, “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi, ekologik qonunchilikni takomillashtirish va ekologik ta’limni kuchaytirish masalalari rivojlanmoqda. Bu jarayonda OAV ekologik siyosatning ommaviy tushuntiruvchisi sifatida faoliyat yuritishi zarur.

O‘zbekiston ekologik jurnalistikasida quyidagi yo‘nalishlar ko‘zga tashlanadi:

-Orolbo‘yi muammolarini yoritish;

-suv va irrigatsiya masalalari;

-chiqindi poligonlari va qayta ishlash muammosi;

-ekologik turizm va yashil iqtisodiyot;

-ekologik huquqiy targ‘ibot.

Biroq amaliyotda ekologik jurnalistika hali ham ba’zan epizodik yoritish bilan cheklanib qolmoqda. Shuning uchun ekologik mavzularni muntazam va tizimli yoritish, ekologik jurnalistlar malakasini oshirish, ilmiy ekspertlar bilan hamkorlikni kuchaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

XULOSA. Ekologik tafakkur shakllanishi jamiyatning barqaror rivojlanishi, ekologik xavfsizlik va ekologik madaniyatni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Mazkur jarayonning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ommaviy axborot vositalari, xususan ekojurnalistika faoliyatiga bog‘liq. Ekojurnalistika ekologik muammolarni yoritish orqali jamiyatni xabardor qiladi, ekologik qadriyatlarni shakllantiradi, fuqarolik mas’uliyatini kuchaytiradi va ekologik harakatlarni rag‘batlantiradi.

Shuningdek, ekojurnalistika ekologik madaniyatni rivojlantiruvchi tarbiyaviy institut sifatida ham namoyon bo‘ladi. Biroq ekologik jurnalistikada manipulyatsiya, faktlarni noto‘g‘ri talqin qilish va axborot xavfsizligi muammolari mavjud bo‘lgani sababli, ekojurnalistika ilmiy ishonchlilik, etik mas’uliyat va professional standartlar asosida rivojlantirilishi zarur.

O‘zbekiston sharoitida ekojurnalistikaning imkoniyatlari katta bo‘lib, uni takomillashtirish ekologik tafakkur va ekologik ongning ommaviy shakllanishiga xizmat qiladi. Shu asosda ekologik jurnalistlar malakasini oshirish, ekologik kontentni muntazam va innovatsion shaklda ishlab chiqish hamda ekologik media savodxonlikni kuchaytirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. McQuail D. McQuail’s Mass Communication Theory. – London: Sage Publications, 2010. – P. 632.
2. Моисеев А.Н. Экологическая культура и экологическое мышление. – М.: Наука, 1998. – С 240.
3. Beck U. Risk Society: Towards a New Modernity. – London: Sage Publications, 1992. – P. 272.
4. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. – New York: United Nations, 2015. - P. 41.
5. UNEP. Environmental Education and Awareness. – Nairobi: United Nations Environment Programme, 2016. – P. 58.
6. Carson R. Silent Spring. – Boston: Houghton Mifflin, 1962. – P. 368.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: : 177-14

RAQAMLI DAVR SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIY IMMUNITETI IDENTITET ERKINLIK VA MAS'ULIYAT MUAMMOLARI

Sagindikov Djubatxan Nauirzovich, Qoraqalpoq davlat universiteti "Sotsiologiya va madaniyatshunoslik" kafedrasi dotsenti

https://orcid.org/0009-0009-4938-7676
e-mail: SagindikovJ00@gmail.com

SPIRITUAL IMMUNITY OF YOUTH IN THE DIGITAL AGE: PROBLEMS OF IDENTITY, FREEDOM, AND RESPONSIBILITY

Sagindikov Dzhubatkhan Nauirzovich, Associate Professor of the Department of "Sociology and Cultural Studies" of Karakalpak State University maned after Berdakh

ЦИФРОВАЯ ЭПОХА И ПРОБЛЕМЫ ДУХОВНОГО ИММУНИТЕТА МОЛОДЁЖИ: ИДЕНТИЧНОСТЬ, СВОБОДА И ОТВЕТСТВЕННОСТЬ

Сагиндиков Джубатхан Науирзович, доцент кафедры "Социология и культурология" Каракалпакского государственного университета

Annotatsiya: *Maqolada raqamli davr sharoitida yoshlar ma'naviy immunitetini shakllantirish masalasi falsafiy tahlil qilinadi. Muammo uch tayanch orqali ochiladi: identitet, erkinlik va mas'uliyat. Identitet qismi yoshning kimligi, qaysi qadriyatlarga tayanishi, qaysi guruhlar bilan o'zini bog'lashini belgilaydigan ma'naviy tayanch sifatida ko'riladi. Erkinlik qismi tanlovning mazmuni, ijtimoiy tarmoqlardagi ko'rinmas yo'naltirishlar, algoritmik tavsiyalar va axborot oqimining ongni boshqarish usullari fonida shaxsiy avtonomiya masalasini yoritadi. Mas'uliyat qismi esa axborot tarqatish, munosabat bildirish, kamsitish va nafrat nutqi, yolg'on xabar, shaxsiy ma'lumot xavfsizligi kabi hodisalar oldida vijdoniy va huquqiy javobgarlikning ma'naviy mezonlarini tahlil qiladi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviy immunitet, raqamli davr, identitet, erkinlik, mas'uliyat, aksiologiya, gnoseologiya, axborot savodxonligi.*

Abstract: *The article provides a philosophical analysis of the formation of youth spiritual immunity in the context of the digital age. The problem is examined through three key foundations: identity, freedom, and responsibility. Identity is considered as a spiritual basis that determines who a young person is, which values they rely on, and which social groups they associate themselves with. The aspect of freedom examines the content of choice, the issue of personal autonomy in the context of invisible influences of social networks, algorithmic recommendations, and mechanisms of consciousness management through information flows. The aspect of responsibility analyzes the spiritual criteria of moral and legal responsibility in situations related to information dissemination, expression of opinions, discrimination and hate speech, misinformation, and personal data security.*

Keywords: *spiritual immunity, digital age, identity, freedom, responsibility, axiology, gnoseology, information literacy.*

Аннотация: *В статье проводится философский анализ проблемы формирования духовного иммунитета молодёжи в условиях цифровой эпохи. Проблема раскрывается через три ключевых основания: идентичность, свободу и ответственность. Идентичность рассматривается как духовная основа, определяющая, кем является молодой человек, на какие ценности он опирается и с какими социальными группами себя соотносит. В аспекте свободы анализируется содержание выбора, проблема личной автономии в условиях скрытого воздействия социальных сетей, алгоритмических рекомендаций и механизмов управления сознанием посредством информационных потоков. В аспекте ответственности исследуются духовные критерии нравственной и правовой ответственности в ситуациях распространения информации, выражения мнений, проявлений дискриминации и языка ненависти, распространения ложной информации и обеспечения безопасности персональных данных.*

Ключевые слова: *духовный иммунитет, цифровая эпоха, идентичность, свобода, ответственность, аксиология, гносеология, информационная грамотность.*

KIRISH. Raqamli davr yoshlar hayotini qulaylashtirdi, lekin bir “yoqimli” xarajat ham bor: ongga yuk ko‘paydi. Oldin axborot tanqis bo‘lgan, hozir tanlash qiyin. Tanlov qiyinlashgan joyda esa identitet ham, erkinlik ham, mas’uliyat ham sinovdan o‘tadi. Identitet deganda faqat pasportdagi millat yoki familiya emas, “men kimman” degan savolga ichki javob nazarda tutiladi. Erkinlik deganda “xohlaganini qilish” emas, tanlovning ongli va maqsadli bo‘lishi tushuniladi. Mas’uliyat esa faqat qonundan qo‘rqish emas, fikr, so‘z va harakatning oqibatini oldindan ko‘ra bilish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli muhitda bu uchlik bir-birini doimiy tekshiradi: identitet bo‘shashsa, yosh trendga suyanadi; erkinlik nazoratsiz qolsa, algoritm erkinlikni “o‘zi uchun” ishlatadi; mas’uliyat sust bo‘lsa, so‘z qurolga aylanadi. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi qonun yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini belgilash orqali ma’naviy rivojlanish uchun institutsional zamin yaratadi [2].

ADABIYOTLAR SHARHI. Yoshlar ma’naviy immunitetini raqamli davr kontekstida tahlil qilishda normativ hujjatlar muhim tayanch vazifasini bajaradi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga doir qarorda yoshlarning ongi va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, vatanparvarlik va xalqparvarlik ruhini kuchaytirish vazifalari aniq ifodalangan[3]. Bu hujjat ma’naviy immunitetni bevosita davlat siyosati darajasiga olib chiqadi va uni tarbiya doirasidan kengroq, xavfsizlik va barqarorlik doirasiga yaqinlashtiradi. Keyingi qarorda ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, boshqaruv va muvofiqlashtirish mexanizmlarini kuchaytirish kabi yo‘nalishlar belgilangan [4]. Bu yondashuv falsafiy jihatdan shuni anglatadi: ma’naviy muhit tasodifiy jarayon emas, u tizim, metodika va natija mezonlari bilan boshqariladigan ijtimoiy hodisa.

Ilmiy-metodik manbalarda ma’naviy immunitetning aksiologik qatlamini tushuntirish uchun pedagogik aksiologiya yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Qadriyatlar yondashuvi ta’limning maqsadini “bilim yig‘ish”dan “shaxsiy mezonlarni shakllantirish”ga yo‘naltiradi, bu esa immunitetning ichki asosini mustahkamlaydi [7]. Gnoseologik qatlamni mustahkamlashda falsafa bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar bilish nazariyasi, haqiqat mezoni, tanqidiy fikrlash, mantiqiy isbot va tafakkur xatolari masalalarini tizimli beradi[6]. Raqamli muhitning o‘ziga xos sinovlari esa media va axborot savodxonligi konsepsiyalari orqali izohlanadi. UNESCOning Media and Information Literacy o‘quv dasturi axborotni tekshirish, manba ishonchliligi, media xabarlarini tahlil qilish, mas’uliyatli muloqot kompetensiyalarini ta’lim jarayoniga kiritish zarurligini ta’kidlaydi.

Ushbu manbalar birgalikda shuni ko‘rsatadi: ma’naviy immunitet masalasi bir tomondan qadriyatlar va ma’no muammosi, ikkinchi tomondan bilish madaniyati va axborot intizomi muammosidir. Raqamli davrda ularning biri ikkinchisisiz ishlamaydi. Qadriyat bo‘lmasa, axborot savodxonligi sovuq texnikaga aylanadi va shaxs “nima uchun” savolida bo‘sh qoladi. Bilish intizomi bo‘lmasa, qadriyatlar shiorga aylanadi va shaxs “qanday isbotlayman” savolida ojiz qoladi. Shu sabab maqola identitet, erkinlik va mas’uliyat triadasini aynan aksiologik va gnoseologik uyg‘unlikda ochadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL. Raqamli muhit identitetni ikki yo‘l bilan sinaydi. Birinchi yo‘l tezkor taqqoslash: yosh o‘zini doimiy ravishda boshqalar bilan solishtiradi, ko‘rinish, daromad, mashhurlik, hayot tarzi bo‘yicha “reyting” tuzadi. Bu jarayon qadriyatlar iyerarxiyasini buzadi: oliy mezonlar o‘rniga tashqi ko‘rsatkichlar yuqoriga chiqib qoladi. Ma’naviyatshunoslik doirasida identitet shaxsning ma’naviy-axloqiy tayanchlari, jamiyat bilan munosabati, maqsad va ideallar bilan uzviy bog‘liq holda tushuntiriladi[5]. Agar ideal va maqsad ichkaridan qurilmasa, u tashqi trendlar bilan almashadi. Ikkinchi yo‘l fragmentatsiya: yosh bir platformada bitta obraz, boshqa platformada boshqa obraz yaratadi, natijada ichki yaxlitlik sustlashadi. Yaxlitlik sustlashsa, ma’naviy immunitet ham sustlashadi, chunki immunitetning kuchi ichki uyg‘unlikka tayanadi.

Identitetning falsafiy markazi qadriyatlar tanlovidir. Qadriyatlar tanlovi “nimani oliy deb bilaman” degan savol atrofida quriladi. Pedagogik aksiologiya shaxsda qadriyatlar tizimini shakllantirishni ta’limning markaziy vazifasi sifatida ko‘radi[7]. Bunda yo‘l nasihatdan ko‘ra chuqurroq: qadriyatlar muloqot, muhokama, dalil, ijtimoiy tajriba, adolatni ko‘rish, mehnat natijasini his qilish orqali ichkilashadi. Yosh adolat tajribasini ko‘rsa, halollik qadriyati real kuchga aylanadi. Yosh imkoniyat va mas’uliyat nisbatini ko‘rsa, erkinlik qadriyati intizom bilan uyg‘unlashadi. Strategik hujjatlarda inson qadri va ijtimoiy muhit masalalarining ustuvorligi ham aynan identitetning ijtimoiy asoslari borligini ko‘rsatadi[1]. Raqamli muhit identitetni bo‘lib tashlashga moyil bo‘lsa, falsafiy yondashuv identitetni qayta yig‘adi: qadriyatlar iyerarxiyasi, maqsad, ijtimoiy mas’uliyat, milliy va umuminsoniy me’yorlar o‘zaro uyg‘unlashganida ichki yaxlitlik paydo bo‘ladi.

Raqamli davrda erkinlik tushunchasi ko‘pincha iste’mol uslubiga aylanib ketadi: “xohlagan kontentni ko‘raman, xohlagan fikrni yozaman, xohlagan odamni kuzataman”. Biroq falsafiy jihatdan erkinlik faqat variantlar ko‘pligi emas, tanlovning ongli bo‘lishidir. Variant ko‘p bo‘lsa ham, tanlovni boshqarayotgan mexanizm ko‘rinmasa, erkinlik zaiflashadi. Platformalar ko‘pincha foydalanuvchi diqqatini ushlab turish uchun tavsiya tizimlaridan foydalanadi, bu esa tanlovni “o‘zim tanladim” deb his qilishga majbur qiladi. Natijada erkinlik ichkaridan emas, tashqaridan boshqarilgan holatga kelib qoladi. Bu yerda gnoseologik intizom zarur: yosh o‘z tanlovining sababini tahlil qila olishi kerak, manba va maqsadni farqlashi kerak. UNESCO dasturi ham axborot va media xabarlarini tahlil qilish, kontekstni tekshirish, manipulyatsiyani ajratish ko‘nikmalarini shakllantirishni ta’kidlaydi [8].

Erkinlikning ikkinchi tomoni mas’uliyatsiz “fikr erkinligi” illyuziyasidir. Internetda fikr tez tarqaladi, lekin oqibat ham tez keladi. Bir marta yozilgan gap iz qoldiradi, u keyin ham qaytib keladi. Shuning uchun erkinlikni ma’naviy immunitet doirasida tushuntirish zarur: erkinlik ongli me’yorlarga tayansa, shaxsni kuchaytiradi; erkinlik me’yorsiz qolsa, shaxsni boshqariladigan qiladi.

NATIJALAR. Raqamli muhitda mas’uliyatning birinchi sinovi axborot tarqatishdir. Yosh ko‘pincha xabarni ulashadi, keyin o‘ylaydi. Vaholanki, to‘g‘ri tartib boshqacha: avval tekshirish, keyin ulashish. Mas’uliyatning bu ko‘rinishi gnoseologik intizomga tayanadi. Haqiqat mezonini bilmagan, manba tahlilini qilmagan, statistikani tushunmagan odam yaxshi niyat bilan ham zararli axborotni tarqatishi mumkin. UNESCOning media va axborot savodxonligi yondashuvi aynan shuni o‘rgatadi: xabarni baholash, manbani tekshirish, dalilni ajratish, hissiy reaksiya bilan xulosa chiqarishni ajratish. Mas’uliyatning ikkinchi sinovi muloqot madaniyatidir. Raqamli muhitda nafrat nutqi, kamsitish, masxara, shaxsiy sha’nni yerga urish tez tarqaladi, chunki yozish oson, uzr so‘rash qiyin. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga oid qarorda yoshlarning ongi va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetni mustahkamlash vazifalari bevosita tarbiya bilan birga, muloqot madaniyati bilan ham bog‘lanadi[3]. Chunki muloqotdagi zo‘ravonlik jamiyatda ishonchni yemiradi, ishonch yemirilsa identitet ham zaiflashadi, erkinlik ham mojaroga aylanadi. Ma’naviyatshunoslik doirasida ma’naviy muhit shaxs kamolotining sharti sifatida ko‘riladi[5]. Demak, mas’uliyat faqat shaxsiy fazilat emas, u ijtimoiy muhitning gigiyenasi hamdir.

Uch tushuncha bir-biriga bog‘langan mexanizm sifatida ishlaydi. Identitet qadriyatlar

iyerarxiyasi bilan barqarorlashadi. Erkinlik tanlovning ongli bo‘lishi bilan mazmun topadi. Mas’uliyat oqibatni oldindan ko‘ra bilish bilan kuchayadi. Aksiologiya identitetni mustahkamlaydi, gnoseologiya erkinlikni ongli qiladi, mas’uliyat esa ikkalasini ijtimoiy foydaga buradi.

XULOSA VA MUNOZARA. Raqamli davr sharoitida yoshlar ma’naviy immuniteti identitet, erkinlik va mas’uliyat triadasi orqali tushuntirilganda muammo yanada aniq ko‘rinadi. Identitet qadriyatlar iyerarxiyasiga tayanmasa, raqamli taqqoslash va fragmentatsiya ichki yaxlitlikni yemiradi. Erkinlik tanlovning ongli mexanizmlariga ega bo‘lmasa, platforma tavsiyalari va axborot bosimi erkinlikni boshqariladigan holatga aylantiradi. Mas’uliyat bilish intizomi va vijdoniy filtr bilan quvvatlanmasa, axborot tarqatish va muloqot madaniyatida zararli oqibatlar kuchayadi. Shu bois ma’naviy immunitetni mustahkamlash ikki yo‘nalishda bir paytda olib borilishi kerak: aksiologik yo‘nalishda qadriyatlar tizimi va ma’no barqarorligi, gnoseologik yo‘nalishda manba tahlili, dalil, tanqidiy fikrlash va axborot savodxonligi kompetensiyalari.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida Farmon PF-60. 28.01.2022. URL: lex.uz (murojaat sanasi 16.02.2026).
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida O‘RQ-406. 14.09.2016. URL: lex.uz (murojaat sanasi 16.02.2026).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida Qaror PQ-4307. 03.05.2019. URL: lex.uz (murojaat sanasi 16.02.2026).
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Qaror PQ-5040. 26.03.2021. URL: lex.uz (murojaat sanasi 16.02.2026).
5. Ma’naviyatshunoslik darsligi. Toshkent, 2022. Elektron nashr. URL: scienceweb.uz (murojaat sanasi 16.02.2026).
6. Madayeva Sh.O. va boshq. Falsafa. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2019. 515 b. Elektron nashr. URL: turan-edu.uz (murojaat sanasi 16.02.2026).
7. Mardonov Sh., Xodjayev B., Taylanova Sh., Xojimuhamedova D. Pedagogik aksiologiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. Elektron nashr. URL: jdpu.uz (murojaat sanasi 16.02.2026).

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 811.111'37

NEMIS TILIDAGI "WIRKLICH", „TATSÄCHLICH", „VIELLEICHT" MODAL SO'ZLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Ollanazarova Mashxura Ilxamboy qizi, UrDU magistranti

https://orcid.org/0000-0003-2098-8901
e-mail: mashhuraollanzarova@gmail.com

SEMANTIC FEATURES OF THE GERMAN MODAL WORDS "WIRKLICH", "TATSÄCHLICH" AND "VIELLEICHT"

Ollanazarova Mashxura Ilxamboy qizi, Master's student at Urgench State University

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НЕМЕЦКИХ МОДАЛЬНЫХ СЛОВ "WIRKLICH", "TATSÄCHLICH" И "VIELLEICHT"

Олланазарова Машхура Илхамбой кызы, магистрант Ургенчского государственного университета

Annotatsiya: *Mazkur maqolada nemis tilidagi wirklich, tatsächlich va vielleicht modal so'zlarining semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ushbu birliklarning diskursiv ma'nolari, aniqlik va ehtimollikni ifodalash darajasi aniqlashtiriladi. Shuningdek, ularning kontekstual va pragmatik qo'llanishi misollar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari mazkur modal so'zlarning semantik differensiatsiyasini ochib beradi hamda ularni o'qitish va tarjima jarayonida to'g'ri talqin qilishga xizmat qiladi.*

Kalitso'zlar: *modal so'zlar, semantika, mazmun, aniqlik, ehtimollik.*

Abstract: *This article analyzes the semantic features of the German modal words wirklich, tatsächlich, and vielleicht. The study clarifies their epistemic meanings as well as their roles in expressing factuality and probability. Special attention is given to their contextual and pragmatic functions in discourse. The findings reveal the semantic differentiation of these modal words and highlight their importance in language teaching and translation studies.*

Keywords: *modal words, semantics, meaning, certainty, probability.*

Аннотация: *В данной статье анализируются семантические особенности немецких модальных слов wirklich, tatsächlich и vielleicht. В исследовании уточняются их эпистемические значения, а также степень выражения фактичности и вероятности. Особое внимание уделяется их контекстуальному и прагматическому функционированию. Полученные результаты позволяют выявить семантическую дифференциацию данных единиц и определить их роль в обучении и переводе.*

Ключевые слова: *модальные слова, семантика, содержание, определённость, вероятность.*

KIRISH. Til tizimida modallik kategoriyasi so'zlovchining bayon etilayotgan fikrga bo'lgan munosabatini, bahosini va ishonch darajasini ifodalovchi muhim semantik-pragmatik hodisa hisoblanadi. Modal so'zlar til tizimida so'zlovchining bayon etilayotgan mazmunga munosabatini, bahosini hamda ishonch darajasini ifodalovchi muhim vositalardan biri sanaladi.

Nemis tilida ham modal so‘zlar (Modalwörter) nutq mazmuniga qo‘shimcha ma’no yuklab, axborotning aniqligi, ehtimolligi, shubhasi yoki tasdig‘ini ifodalaydi. Xususan, *wirklich, tatsächlich* va *vielleicht* birliklari zamonaviy nemis tilida eng faol qo‘llaniladigan modal so‘zlar qatoriga kiradi va ular orqali haqiqatni tasdiqlash, ishonchni ta’kidlash yoki ehtimollikni ifodalash mumkin. Ushbu birliklar o‘zaro yaqin ma’nolarga ega bo‘lsa-da, ularning qo‘llanish doirasi, kontekstual funksiyasi va pragmatik yuklamasi bir-biridan farqlanadi. Masalan, *wirklich* ko‘pincha subyektiv tasdiq yoki hayratni bildirsa, *tatsächlich* obyektiv faktni ta’kidlashga moyil; *vielleicht* esa ehtimollik va noaniqlikni ifodalaydi. Modal so‘zlar tilshunoslikda keng o‘rganilgan mavzulardan biri bo‘lib, nemis tilshunosligida modal birliklarning semantik va pragmatik xususiyatlari bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Ammo o‘zbek tilshunosligida esa nemis tilidagi modal so‘zlarning semantik xususiyatlari yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan.

Mazkur maqolada nemis tilidagi *wirklich, tatsächlich* va *vielleicht* modal so‘zlarining semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, nemis tilidagi mazkur modal so‘zlarning semantik tafovutlari ko‘pincha o‘rganilayotgan tilni egallash jarayonida chalkashliklarga sabab bo‘ladi. Ularning ma’no xususiyatlarini aniqlash nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy tarjimashunoslik va chet tilini o‘qitish metodikasi uchun ham muhimdir. Tadqiqotning maqsadi – *wirklich, tatsächlich* va *vielleicht* birliklarining semantik xususiyatlarini tizimli ravishda tahlil qilish hamda ularning o‘zaro farqli va umumiy jihatlarini aniqlashdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Tadqiqotda nazariy manbalar, matnlar va real muloqot misollaridan foydalanib, modal so‘zlarning semantik xususiyatlari, nutqdagi o‘ziga xosligi yoritildi hamda nemis olimlarining leksikologiya va semantikaga bag‘ishlangan asarlaridan foydalanilgan.

Mazkur tadqiqotda tavsifiy (deskriptiv), qiyosiy-semantik hamda kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Semantik tahlil jarayonida har bir birlikning asosiy va ikkilamchi ma’no komponentlari ajratib ko‘rsatildi. Komponent tahlil usuli orqali *wirklich* va *tatsächlich* so‘zlaridagi “haqiqat”, “tasdiq”, “faktiklik” semalari, *vielleicht* so‘zidagi “ehtimollik”, “noaniqlik” semalari aniqlashtirildi. Tadqiqot jarayonida kontekstual-distributiv tahlil ham qo‘llanildi. Bu usul yordamida modal so‘zlarning gapdagi o‘rni, boshqa leksik birliklar bilan birikish xususiyati va kommunikativ vazifasi o‘rganildi. Olingan natijalar umumlashtirilib, semantik xususiyatlar tizimli ravishda tasniflandi.

TAHLIL VA MUHOKAMA. Nemis tilidagi *wirklich, tatsächlich* va *vielleicht* birliklari umumiy jihatdan modal so‘zlar sirasiga kirsa-da, ularning semantik yadrosi va pragmatik funksiyasi sezilarli darajada farqlanadi. An’anaviy nemis grammatikalarida modal so‘zlar so‘zlovchining bayon mazmuniga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi vosita sifatida talqin qilinadi (masalan, Duden. Die Grammatik). Mazkur yondashuvga tayangan holda olib borilgan tahlil natijalari ham ushbu birliklarning epistemik va diskursiv xususiyatlari ustuvor ekanini tasdiqlaydi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, *wirklich* so‘zining semantik yadrosini “haqiqiylik”, “tasdiq” (real, tatsächlich existierend) semalari tashkil etadi. U ko‘pincha so‘zlovchining subyektiv ishonchini yoki biror voqelikka hayratini ifoda etadi:

-Das ist wirklich schwer.

-Hast du das wirklich gesagt?

Birinchi misolda *wirklich* sifatning darajasini kuchaytiruvchi so‘z sifatida qo‘llangan. Ikkinchi holatda esa u shubha va tasdiqni umumlashtirgan holda so‘zlovchining hayratlanishini ifodalaydi. Ilmiy manbalarda [1, 335] *wirklich* ko‘pincha diskursiv kuchaytiruvchi birlik sifatida tavsiflanadi. Shunday qilib, uning semantik strukturasida subyektivlik komponenti ustunlik qiladi.

Tatsächlich birligida esa “faktga asoslangan”, “obyektiv tasdiq” va “real voqelik” (wahrheitsgemäß, wirklich) semalari muhim sanaladi. Misol:

-Er hat die Aufgabe tatsächlich gelöst.

-Es war tatsächlich so.

Bu gaplarda *tatsächlich* oldindan mavjud bo‘lgan taxmin yoki shubhaga qarama-qarshi ravishda mavjud holatni tasdiqlaydi. Tilshunos olimlar ushbu birlikni faktiv modal marker [4,78] sifatida baholaydilar. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, *tatsächlich* subyektiv emotsiyadan ko‘ra ko‘proq obyektiv tasdiqqa xizmat qiladi va yozma nutqda kengroq qo‘llanadi.

Vielleicht esa ishonchlilik darajasi yoki ehtimolligi haqidagi munosabatini ifodalovchi ko‘rsatkich bo‘lib, “ehtimollik”, “noaniqlik” va “taxmin” semalaridan iborat:

-*Vielleicht kommt er später.*

-*Vielleicht hast du recht.*

Bu misollarda so‘zlovchi axborotning aniqligiga to‘liq ishonch bildirmaydi. Ehtimollik nazariyasiga ko‘ra[6,134], *vielleicht* ehtiyotkorlik va kommunikativ yumshatish uslubi sanaladi. Ayon bo‘ladiki, ushbu birlik uchala modal so‘z ichida eng yuqori darajadagi noaniqlikni ifoda etadi.

O‘tkazilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, *wirklich, tatsächlich* va *vielleicht* umumiy “modal munosabat” kategoriyasiga mansub bo‘lsa-da, ularning semantik yadrosi turlicha yo‘nalishga ega. *Wirklich* va *tatsächlich* o‘zaro yaqin ma’noli birliklar sifatida qaraladi, biroq ularning pragmatik funksiyasi bir xil emas. *Wirklich* ko‘proq subyektiv tasdiq va emotsional kuchaytirishni ifodalasa, *tatsächlich* obyektiv ma’noni yuklaydi. Ushbu ikki birlik o‘rtasidagi farq ayniqsa diskurs darajasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Dialogik nutqda *wirklich* ko‘proq qo‘llansa, ilmiy va rasmiy uslubda *tatsächlich* ustunlik qiladi. Bu esa ularning stilistik farqlarini namoyon etadi. Nemis tilshunosligida modal so‘zlarning diskursiv xususiyatlari keng o‘rganilgan bo‘lib [3,132] ular matnning argumentativ tuzilishida muhim rol o‘ynashi ta’kidlanadi.

Vielleicht esa semantik maydon jihatidan boshqa ikki birlikdan keskin farq qiladi. U faktni tasdiqlamaydi, aksincha, axborotning noaniq, ehtimol ekanini ko‘rsatib beradi. Shuning uchun ham u muloqot jarayonida muloyimlik va ehtiyotkorlikni ta’minlaydi.

Ushbu modal so‘zlar nafaqat darak gaplarda, balki gapning boshqa maqsadga ko‘ra turlari bo‘lmish so‘roq, buyruq, istakni ifodalovchi va his hayajon gaplarda gumon, aminlik va ikkilanish kabi tushunchalarni ifodalaydi. Modal so‘zlar gapning har bir maqsadga ko‘ra turida turli xil ma’no kasb etadi. Yuklamalar singari, modal so‘zlar ham gapning aniq bir turini xarakterlaydi. Ammo modal so‘zlar yuklamalardan farqli o‘laroq gapning mazmunini kuchaytirishga qaratilsa, modal yuklamar asosan so‘zning mazmunini kuchaytirishga qaratiladi[2,35]. Bir qarashda, ularni gap mazmuniga ta’sir qilishiga qarab *gern* (bajon-u dil), *blindlings* (*ko‘r-ko‘rona* yoki *to‘da-to‘da bo‘lib*) kabi ravishlarga yaqinlashadi. Ammo ularni bundan ajratib turadigan va butunlay boshqa semantik va sintaktik shartlarga bo‘ysunadigan o‘ziga xos sinf mavjud. Modal so‘zlar ravishlardan butunlay boshqa semantik - sintaktik vazifalarni bajarishi bilan farqlanadi. Modal so‘zlar muloqot uchun nihoyatda muhimdir. Ular gapning mazmuniga ta‘sir etadi va shu bilan birga so‘zlovchi va tinglovchi orasida asosiy vosita hisoblanadi. So‘zlovchining modal so‘zlar orqali gap mazmuniga munosabatini gap mazmuniga ta’sir qilayotgan modal so‘zga qarab aniqlash mumkin[6,147].

Vielleicht hat Peter es gesagt. Ehtimol buni Peter aytgandir.

Ushbu gapda so‘zlovchi buni Peter aytgan yoki aytmaganligiga hali amin emasligi ifodalangan. Bunda so‘zlovchi Peter buni aytgan gapiga o‘z munosabatini bildirib, gapga gumon ma’nosini olib kiryapti. Agar gapda manashu gumon ma’nosi bo‘lmasa, tinglovchi gapning haqiqat ekanligiga so‘zsiz ishonadi. Aniqlik mayli orqali gap mazmuni tinglovchiga aniqroq va tushunarliroq bo‘ladi. Gapga ravishlar modal ma’no berish o‘rniga *ich glaube* (menimcha), *Ich nehme an* (men o‘ylaymanki) kabi kirish gaplar yoki *Konyunktiv* (shart mayli) dan foydalanishi mumkin [7, 235].

Peter hätte es gesagt –Peter buni aytgan bo‘lardi.

Bu bilan gap yanada ishonchliroq ma’no kasb etadi. Chunki Konyunktivning asosiy vazifasi

ham tinglovchining so‘zlovchiga bo‘lgan ishonchni oshirishdir. Shu sababli agar so‘zlovchining aytayotgan gapiga aminlik darajasi ko‘rib chiqilsa, modal so‘zlarni ma’lum darajada Konjunktiv bilan taqqoslash mumkin.

Mazkur tadqiqot natijalari nemis tilidagi *wirklich*, *tatsächlich* va *vielleicht* modal so‘zlari semantik jihatdan umumiy modal munosabat kategoriyasiga mansub bo‘lsa-da, ularning ma’no yadrosi va pragmatik funksiyasi o‘zaro sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatdi. Ushbu birliklar epistemik modalitet doirasida so‘zlovchining axborotga bo‘lgan munosabatini ifodalasa-da, har biri turli semantik komponentlarga tayangan holda faoliyat yuritadi.

XULOSA. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, mazkur modal so‘zlarning farqlari nafaqat lug‘aviy ma’noda, balki ularning diskursiv qo‘llanishida, stilistik xususiyatlarida va kommunikativ vazifasida ham namoyon bo‘ladi. Bu holat nemis tilida modal birliklarning semantik differensiatsiyasi yuqori darajada rivojlanganini tasdiqlaydi. nemis tilidagi modal so‘zlar semantik jihatdan murakkab va ko‘p qatlamli tizimni tashkil etadi. Ular so‘zlovchining bayon qilinayotgan fikrga bo‘lgan subyektiv munosabatini, ishonch darajasini, bahosini yoki ehtimollikni ifodalovchi muhim lingvistik vosita hisoblanadi. Modal so‘zlar orqali nutqda epistemik, evaluativ hamda ba’zi hollarda emotsional ma’no komponentlari yuzaga chiqadi. *Wirklich* asosan subyektiv tasdiq va intensifikatsiya semalarini ifodalaydi hamda nutqda emotsional-eksressiv kuchaytiruvchi vazifani bajaradi. *Tatsächlich* esa obyektiv faktiklikni ta’kidlashga xizmat qiladi va ko‘proq argumentativ hamda rasmiy uslubga xos xususiyat kasb etadi. *Vielleicht* modal so‘zi esa ehtimollik va noaniqlikni bildiruvchi tipik epistemik marker bo‘lib, kommunikativ yumshatish va ehtiyotkorlik strategiyasini amalga oshiradi. Modal so‘zlarning nafaqat lug‘aviy ma’nosi, balki kontekstual va diskursiv xususiyatlari ham muhim ekanini ko‘rsatdi. Ularning semantik mazmuni nutq vaziyati, intonatsiya va kommunikativ maqsad bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shu sababli modal so‘zlarni o‘rganishda semantik va pragmatik yondashuvni uyg‘unlashtirish zarur. Umuman olganda, nemis tilidagi *wirklich*, *tatsächlich* va *vielleicht* modal so‘zlarining semantik xususiyatlarini tizimli ravishda aniqlashtirishga xizmat qiladi. Olingan xulosalar nemis tilini o‘qitish metodikasi, tarjimashunoslik hamda qiyosiy tilshunoslik tadqiqotlari uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Duden. Die Grammatik. – Mannheim: Dudenverlag, 2016.
2. Fritz, Thomas. Futur, Modalität und Sprecherbezug im Deutschen. Hamburg: Buske. Fritz 2000:194.
3. Helga Pasch, Ursula Brauße. Handbuch der deutschen Konnektoren. -Tubingen, Stauffenburg Verlag. 2003.
4. Helbig G., Buscha J.Deutsche Grammatik. – Berlin: Langenscheidt, 2013.
5. Hentschel E., Weydt H. Handbuch der deutschen Grammatik. – Berlin: de Gruyter, 2014.
6. Reimer Muller. Modalität und Modalverben im Deutschen. -Tubingen, Max Niemeyer Verlag, 1999.
7. Werner Abram. Dikurspartikel zwischen Modalität, Modus, und Fremdbewusstsein abgleich.-München: 2009.
8. Gisela Hoffmann. Grammatik der deutschen Sprache. Berlin: de Gruyter. 1997.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 94 (575.1): 338

УСТЮРТ ПЛАТОСИ ГЕОГРАФИК ҲОЛАТИ ХУСУСИДА

Қадамбаев Шаҳриёр, Абу Райҳон Беруний номидаги Урганч давлат университети мустақил тадқиқотчиси

ON THE GEOGRAPHICAL SITUATION OF THE USTUYURT PLATEAU

Kadambaev Shahriyor, independent researcher of Urganch State University named after Abu Rayhon Beruni

О ГЕОГРАФИЧЕСКОМ ПОЛОЖЕНИИ ПЛАТО УСТЮРТ

Кадамбаев Шахриёр, независимый исследователь Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни

https://orcid.org/0009-0009-9557-9855

Аннотация: *Ўзбекистоннинг шимоли-ғарбида жойлашган Устюртда тош асри даври географик муҳити ва этник жараёнлар тарихи таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар*: Виноградов А.В, Итина М.А, Кесь А.С, Мамедов Э.Д, Кабиров Ж, Сагдуллаев А, Баратов П, Маматқулов М, Рафиқов А, Ибрагимов Р.З, Абдуллаев Ў.И, Толепбергенов М.Ж, Турсынов М.Ж, Матқурбонова Г.Ж, Собиров Қ, Ўзбекистон, Устюрт, Хоразм, Амударё, Зарафшон.*

Abstract: *The geographical environment and history of ethnic processes in the Stone Age in Ustyurt, located in the north-west of Uzbekistan, are analyzed.*

Keywords: *Vinogradov A.V, Itina M.A, Kes' A.S, Mamedov E.D, Kabirov J., Sagdullaev A., Baratov P., Mamatkulov M., Rafikov A., Ibragimov R.Z., Abdullaev U.I., Tolepbergenov M.J., Tursynov M.J., Matkurbanova G.J., Sobirov K., Uzbekistan, Ustyurt, Khorezm, Amu Darya, Zarafshan.*

Аннотация: *Анализируются географическая среда и история этнических процессов в каменном веке на Устюрте, расположенном на северо-западе Узбекистана.*

Ключевые слова: *Виноградов А.В., Итина М.А., Кесь А.С., Мамедов Э.Д., Кабиров Ж., Сагдуллаев А., Баратов П., Маматкулов М., Рафиков А., Ибрагимов Р.З., Абдуллаев У.И., Толепбергенов М.Ю., Турсынов М.Дж., Маткурбанова Г.Ж., Собиров. К., Узбекистан, Устюрт, Хорезм, Амударья, Зарафшан.*

Кириш. Жаҳон Ўрта Осиё минтақаси геоморфологик ҳолати, физик-географик харитасида ўрин олган турлича тарихий-географик ҳудудлардан иборат бўлиб, уларнинг геоиқтисодий жойлашиши, антропоген ландшафти, экологияси, географик муҳит жиҳатидан бир географик кенгликни акс эттирса ҳам, уларнинг хусусиятларида фарқланиш ҳолати кузатилади. Мана шундай ўзига хос хусусиятлардан бири минтақа марказида жойлашган Ўзбекистон қадимги сернам ва серунум бўлган 71% текисликдан иборат бўлиб, одамзотнинг жойлашиб, табиий манбалардан фойдаланиб, табиат бухронларига кўникиб, этник муносабатларни олиб борган аждодларимиз ёзма манбаларда турли номда қайд қилинмасин, ўтроқ ҳаёт асосида суғорма деҳқончилик ва шаҳарсозлик маданиятидан давлатчилик сари бунёдкорлик қадамини ташлаган ҳудуд ҳисобланади. Заминнинг стратегик аҳамиятини Тошкент, Фарғона, Сурхондарё, Зарафшон, Қуйи Амударё ва

Устюрт платосида ўрнашган аҳолининг ҳаёт ва ижод уйғунлиги натижалари белгилаб берган.

Ер тарихининг геологик тараққиёти натижасига кўра, Ўзбекистон ҳудудининг энг шимоли-ғарбида жойлашган Устюрт платоси ҳисобланади. Мақолада Устюртнинг тош асри даврида географик жойлашиши ва этник жараёнлар тарихини ёритиш вазифа қилиб белгиланган.

Тадқиқот методологияси. Объективлик, тарихий-хронологик изчиллик, баҳс, мунозара, назарий-қиёсий таҳлил, умумлаштириш, якуний хулоса.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Ўрта Осиё ер юзаси тузилиши хилма-хил хусусияти геологик жараёнлар силкинишлари натижасида бир қатор табиий-иқтисодий ҳудудлар тоғ, тоғ олди ва текисликлардан иборат бўлган[1.1996-Б.157-178]. Устюрт платоси текислик бўлганлиги боис бошқа тарихий-географик ҳудудлардан фарқланиш хусусиятига эга.

Ўзбекистон республикаси асосан кечган геологик жараёнлар натижасида текислик ҳолатида бўлган.

Ўрта Осиёнинг шундай тоғли ҳудудларидан бири Ўзбекистон ҳисобланиб, унинг географик жойлашиши, стратегик жиҳатларини тарихий-географик ҳудудлар белгилаб берган. Мана шундай тарихий-географик ҳудудлардан бири Устюрт платоси ҳисобланади. Устюрт Хоразм воҳаси шимоли-ғарбий ҳудудини географик жиҳатдан давом эттириб, тўрт томони очиқ бўлган географик кенглик, бундай географик манзарани Мирзачўл билан қиёслаш мумкин.

Географик адабиётда Ўзбекистоннинг шимоли-ғарбий ҳудудида жойлашиб, унинг ҳудуди 200 минг кв.км бўлган [2.2010-С.111-113]. Палеогеография, география ва археология фанлари натижаларига кўра Устюрт бундан 25 миллиондан 600 минг йилгача текислик бўлган[3.1974-Б.290-291, 4.1990.Б.14]. Милоддан аввалги 500–12 минг йилликларда Устюртни музлик қоплаган [5.2020-Б.14] .

Мил.авв. 12-7 минг йилликларда Устюрт ҳудуди, ҳаво ҳарорати кўтарилиши муносабати билан, музлик шимол томон чекиниши натижасида қор ва ёмғир сувлари билан янада сернам ва серунум текислик сифатида одамзотнинг келиб, кундалик фаолиятларини олиб боришига кенг имкониятга эга бўлган[6.2004-Б.15-18.7. 2019-Б.121]. Ўзбекистоннинг физик-географик харитасида Устюрт платосининг географик шароити, табиий ресурслари билан ўрнашган одамзот манфаатларига хизмат қилишни ижобий ва ноижобий томонларини қуйидагича изоҳлаш мумкин:

Ижобий томонлари:

-Томонлари очиқ бўлганлиги ўзлаштирган одамзотнинг шимолий ҳудудларга тарихий тақазосидан қўшни ҳудудларга кўчишга таянч вазифасини бажарган.

-Жанубий ва шимолий ҳудудларда ўрнашган аҳоли билан иқтисодий ва маданий алоқаларни олиб бормаслиги учун қулайлиги, бунга осмонўпар тоғлардан холи эканлиги.

-Табиий ресурсларда ички сувлар, табиат ҳадясидан уддабурон ва эпчиллик билан фойдаланиши.

Ноижобий томони қуйидагилардан иборат:

-Шимолий томондан совуқ ҳаво массаларининг кириб келишига тўсиқ бўлувчи баланд тоғлар йўқлиги.

-Иқлим шароитининг таъсири – аҳоли кундалик фаолият олиб боришига салбий таъсири.

-Дарёларнинг мавжуд эмаслиги, сув манбасининг йўқлиги.

Юқорида қайд қилинган фикр-мулоҳазалардан келиб чиқиб, Устюрт платосининг одамзотга хизмат қиладиган хусусиятларини қуйидагича изоҳлаш мумкин:

Таҳлил ва натижалар. Устюрт ҳудуди географик манзарасини ёритишда геологик, геоморфологик, археологик изланишлар, география фанларига оид адабиётларда қайд қилинган тарихий маълумотларга таянган холда, ушбу мавзунинг ҳолатини қуйидагича таҳлил қилиш мумкин. Бу масалада палеогеография ва географик тадқиқотлар натижалари асосида Устюртнинг илк тош, ўрта ва сўнгги тош, мезолит, неолит, энеолит ва бронза даврида Устюрт ҳудуди этник макон бўлган. Масалан, географик шароитда ўрин юзаси палеогеография фани тараққиёти таҳлил қилинган. География фани натижаларига кўра, Устюрт ҳудуди тош даври, унинг кейинги

босқичлари мезолит, неолит даврида географик ҳолат текислик бўлган. Археологик тадқиқотлар ва география фани натижалари асосида Устюрт географиук хусусияти, унга уланиб кетган Қуйи Амударё региони жойлашишидан туб фарқланишга эга эканлиги натижалари аниқланди.

Хулоса ва таклифлар. Юқорида зикр қилинган фикр-мулоҳазаларга кўра қуйидаги хулосани қайд қилиш имконияти мавжуд:

-Устюрт ҳудуди геологик жараёнлар натижалари жиҳатидан Хоразм воҳаси географик фарқланиш ҳолати изоҳланди;

-Устюрт платоси географик ўрин манзараси табиат, ўзига хос хусусияти ойдинлаштирилди, унинг қўшни ҳудуд Қуйи Амударё ҳавзаси геоморфологиясидан фарқланиши ўрганилди. Табиий ресурси заҳираси кам бўлса ҳам, одамзотнинг жойлашиш имконияти мавжудлиги каби хулосалар қайд қилинди. Юқорида қайд қилинган хулосадан қуйидаги таклифлар изоҳланди:

-Тўрт томони очиқ бўлса ҳам, ўзига хос географик хусусият ўрнашган одамзотга кундалик турмуш тарзини олиб боришига имкон берган.

Шу маънолардан келиб чиқиб, қуйидаги хулосалар изоҳланди:

1.Устюрт платоси тарихини Қуйи Амударё региони билан яхлит ҳолда ўрганиш;

2.География ўрин сифатида инсоннинг турмуш тарзини олиб боришдаги тарихий ўрнини ойдинлаштириш;

3.Қадимги Устюрт ва ҳозирги давридаги географик хусусиятини таҳлил қилиш.

Адабиётлар рўйхати:

1. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси.- Тошкент. Ўқитувчи, 1996.
2. Толепбергенов М.Ж, Турсынов М.Ж., Маткурбанова Г.Ж. Геоэкологическая оценка физико-географических условий Устюрта //Қуйи Амударё региони ижтимоий-иқтисодий муаммоларининг географик ечимлари. Республика илмий-амалий конференция материаллари.- Урганч. 2010.
3. Виноградов А.В, Итина М.А, Кесь А.С, Мамедов Э.Д. Палеогеографическая обусловленность расселения древнего человека в пустынях Средней Азии // Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в Плейстоцене и Голоцене-М:Наука, 1974.
4. Кабиров Ж. Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. - Тошкент, Ўқитувчи. 1990.
5. Ибрагимов Р.З. Ўрта Осиё археологияси. - Тошкент, 2020.
6. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. - Тошкент: Университет, 2004.
7. Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиё ибтидоий жамоа тузуми ва илк давлатчилик тарихи.- Тошкент, 2019.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 1(575.1)

MANG‘ITLAR SULOLASI DAVRIDA FALSAFIY QARASHLAR

Rajabova Rohila Zakirovna, Buxoro davlat universiteti “Islom tarixi va manbashunosligi,falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi

PHILOSOPHICAL VIEWS DURING THE MANGIDS DYNASTY

Rajabova Rohila Zakirovna, lecturer at the Department of “Islamic History and Source Studies, Philosophy”, Bukhara State University

ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ВО ВРЕМЯ ДИНАСТИИ МАНГИТОВ

Раджабова Рохила Закировна, преподаватель кафедры “Исламская история и источниковедение, философия” Бухарского государственного университета

https://orcid.org/0009-0006-4738-6934
e-mail: rohilazakirovna@mail.ru.

Annotatsiya: *Mang‘itlar sulolasi davrida Buxoro amirligida falsafiy qarashlar asosan tasavvuf, fiqh va ijtimoiy-siyosiy islohotchilik g‘oyalari bilan xarakterlanadi. Bu davrda Naqshbandiya tariqati ta’siri kuchli bo‘lib, bu davr mutafakkirlari hukmron tuzumni isloh qilish, ma’rifatparlik va adolatli boshqaruv falsafasini ilgari surgan.*

Kalit so‘zlar: *falsafa, falsafiy qarashlar, tariqat, naqshbandiya, ijtimoiy tenglik, adolat, bag‘rikenglik, javonmardlik, ijtimoiy-siyosiy islohotlar, ma’rifatparvarlik, mutafakkir.*

Аннотация: *В период правления династии Мангитов философские взгляды в Бухарском эмирате в основном характеризовались идеями суфизма, юриспруденции и социально-политических реформ. В этот период сильное влияние оказал орден Накшбанди, и мыслители того времени выдвинули философию реформирования системы правления, просвещения и справедливого управления.*

Ключевые слова: *философия, философские взгляды, порядок, Накшбанди, социальное равенство, справедливость, терпимость, молодежь, социально-политические реформы, просвещение, мыслитель.*

Abstract: *During the Mangid dynasty, philosophical views in the Bukhara Emirate were mainly characterized by the ideas of Sufism, jurisprudence, and socio-political reform. During this period, the influence of the Naqshbandi order was strong, and the thinkers of this period put forward the philosophy of reforming the ruling system, enlightenment, and just governance.*

Key words: *philosophy, philosophical views, order, Naqshbandi, social equality, justice, tolerance, youth, socio-political reforms, enlightenment, thinker.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida buyuk ajdodlarimizning ma’naviy merosi muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan olganda, tariqat peshvolari va mutasavviflarning ijodiy merosi oxirgi yillarda faylasuflar va jamiyatshunoslarning o‘rganish obyekti bo‘lib kelmoqda. Chunki, ular ilgari surgan konstruktiv ahamiyatga ega bo‘lgan tasavvufiy-falsafiy qarashlar bugungi kunda ham yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda alohida o‘ringa ega. Ularning irfoniy-falsafiy, tinchliksevarlik, murosa falsafasiga doir qarashlari qator qo‘lyozma asarlarda bayon etilgan. Mutasavviflar ijodi va ta’limoti ko‘pgina mutaxassis, soha olimlari tomonidan ma’lum bir jihatlari tadqiq etilgan bo‘lib, tasavvuf ta’limotining mazmun-mohiyati, ma’naviy merosining falsafiy tahlilini o‘rganishda muhim metodologik asos bo‘lib kelmoqda.

Naqshbandiya tariqati, ayniqsa zikri xafiy va amaliyoti orqali XVIII-XIX asrlarda ijtimoiy, madaniy, ilmiy-falsafiy va axloqiy taraqqiyotga katta ta’sir ko‘rsatdi. Mehnatsevarlik, bag‘rikenglik, rizo va adolat kabi qadriyatlar tariqat arboblari hayotining markaziga aylangan. Hazrat Bahouddin Naqshband so‘fiylikni tarkidunyochilikdan xalos qilib, musulmonlarni faol hayot va samarali mehnatga chorladi, shu bilan dehqon, hunarmand va savdogarlar harakatiga asos soldi. Bugungi kunda esa Naqshbandiya ta’limotidagi bag‘rikenglik, murosa va

rizo g‘oyalari barkamol yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Mutasavviflar va ularning hayoti, faoliyati va ijod ahlining tarixini o‘rganishda tazkiralardan unumli foydalanib kelinmoqda. Tazkiralarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular orqali nafaqat madaniy hayot, balki davr ruhini ham baholash mumkin. Tazkiralarni asosan shoirlar, xattotlar, mutasavviflar yozgan va XX asrning o‘rtasigacha davom etgan. Sadr Ziyo “Shuaroi mutaaxxirin” (“Hozirgi davr shoirlari”) nomli tazkirasini Vozehning “Tuhfat ul-ahbob” [8:29-43] tazkirasi asosida yaratgan. Bu tazkira Vozeh qayd etgan XIX asrda Buxoroda yashab ijod qilgan 88 nafar shoir, olim, shayx haqida ma’lumot berib, “Tamom bo‘ldi, Qori Rahmatullohiy Vozeh” [9:332] deb yakunlanadi. Sadr Ziyo Vozehning “Fuzaloi mutaaxxirin” tazkirasida XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida, Amir Muzaffar (1860-1885), Abdulahad (1885-1910), Olimxon (1910-1920) davrida yashab ijod qilgan 79 nafar shoir va donishmand, ularning vafot sanalari, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli hamda jadidlik harakati haqida ma’lumotlar keltiriladi. Shuningdek, Vozeh olimlarning boy ma’naviy merosini aniqlashtirib, ilovalar orqali Ahmad Donish va Vozehdan keyin yashagan shoir-mutafakkirlar haqida ma’lumot beradi. XVIII-XIX asrlarda Buxorodan yetishib chiqqan olim-u fuzalolar ilm-fan rivojida muhim rol o‘ynagan.

Nazariy qism. Naqshbandiya tariqatida shariat va ma’naviy tarbiya falsafasi ustuvorlik qiladi. Mang‘itlar davrining eng ko‘zga ko‘ringan mutafakkiri Ahmad Donish “Mang‘itlar sulolasi tarixi” va boshqa asarlarida amirlikdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tanqidiy tahlil qildi. U davlat boshqaruvida ilmiy-ma’rifiy yondashuvni, adolat va qonun ustuvorligini yoqlab chiqdi.

Mang‘it amirlari davrida Buxoro amirligi siyosiy barqarorlikni ta’minlash va hokimiyatini mustahkamlash maqsadida tariqat peshvolari, mutasavviflar va diniy rahbarlar bilan mustahkam ittifoqlar tuzdi. Bu ittifoqlar nafaqat diniy va ma’naviy hokimiyatni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilgan, balki amirlar tomonidan boshqaruvning legitimligini mustahkamlashda ham muhim vosita bo‘lgan. Shu bilan birga, Mang‘itlar davri ijtimoiy va siyosiy jihatdan murakkab davrga to‘g‘ri kelgan, chunki davr oxiriga kelib siyosiy turg‘unlik kuchayib, yangi fikr va harakatlarning xususan jadidchilik va ijtimoiy islohotlar g‘oyalari kurtaklari paydo bo‘la boshladi. XIX asr ikkinchi yarmida ilm-fan, ta’lim va jamiyatni modernizatsiya qilish zarurati ortib bordi. Shu nuqtayi nazardan, Ahmad Donishning faoliyati alohida ahamiyat kasb etdi. U o‘z asarlarida ta’lim tizimini isloh qilish, ilm-fanni rivojlantirish va yosh avlodni dunyoviy bilimlar bilan boyitish zarurligini falsafiy jihatdan asoslab berdi. Donish jamiyatning taraqqiyoti va insonning ma’naviy kamoloti o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatdi, adolat, tenglik va shaxs huquqlari masalalarini ilgari surdi, shuningdek, mavjud diniy-an’anaviy ta’lim tizimining modernizatsiyalash zaruriyatini ta’kidladi.

Mang‘itlar davri falsafasi an’anaviy islomiy dunyoqarashdan asta-sekin dunyoviy va islohotchi g‘oyalarga, xususan jadidchilikka yaqinlashgan nuqtaga o‘tish davri sifatida ajralib turadi. Buxoro amirligida islom aqidaparastligi kuchli bo‘lib, ijtimoiy-falsafiy fikr asosan madrasa ta’limoti va diniy qonun-qoidalarga tayangan. Shu bilan birga, dunyoviy fanlar va falsafaga nisbatan qat’iy to‘siqlar mavjud bo‘lib, yangi fikrlarning rivojlanishini cheklagan. Biroq, ayni shu davrda Naqshbandiya tariqati davlat mafkurasining asosiy g‘oyaviy poydevori sifatida shakllandi. Tariqatning ezgulikka, bag‘rikenglikka, mehnatsevarlik va adolatga yo‘naltiruvchi ta’limoti nafaqat ma’naviy hayotni boshqardi, balki ijtimoiy me’yorlar va jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarni mustahkamladi. Insonning ma’naviy kamoloti va axloqiy poklanishi haqidagi qarashlar hukmron bo‘lib, amirlik siyosati va jamiyat hayotida o‘z aksini topdi. Shunday qilib, Mang‘itlar davri falsafasi – bu an’anaviy diniy dunyoqarash bilan dunyoviy islohot g‘oyalari o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirning mahsuli bo‘lib, tarixiy jarayonlarda ilm-fan va ta’lim rivoji, shuningdek, jamiyatning ma’naviy-axloqiy poydevorini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynagan. Ahmad Donish va boshqa mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan islohotchi fikrlar, Naqshbandiya tariqatining ma’naviy yo‘riqnomalari bilan uyg‘unlashib, Buxoro jamiyatining intellektual va ijtimoiy hayotiga mustahkam hissa qo‘shgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda yangi ijtimoiy-falsafiy oqimlar vujudga kela boshladi. Bu davrning eng muhim xususiyati shundaki, jamiyatning turli qatlamlarida, xususan ilm-fan va adabiyot sohalarida ijtimoiy islohotlar zarurati yuzaga keldi. Shu munosabat bilan yaratilgan ko‘plab tarixiy asarlar, masalan, Mirzo Somiy ijodi nafaqat voqealar ketma-ketligini bayon qiluvchi manba sifatida, balki davlat boshqaruvi, siyosiy mas’uliyat, ijtimoiy adolat va inson qadri haqida

falsafiy mulohazalarni ham o‘zida mujassam etgan. Bu asarlar orqali tarixiy voqealar bilan zamonaviy ijtimoiy-huquqiy tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatildi, davlat va jamiyatning to‘g‘ri boshqaruvi masalalari yoritildi. Shu davrning eng yirik mutafakkirlaridan biri Ahmad Donish bo‘lib, u o‘zining “Mang‘itlar sulolasi tarixi” va “Navodirul vaqoe” asarlarida mavjud ijtimoiy va siyosiy tuzumni tanqid qildi. Donish jamiyatni isloh qilish, adolatli davlatni barpo etish va insonning tabiiy huquqlari, qadr-qimmati masalalariga alohida e’tibor qaratdi. U demokratik g‘oyalarni ilgari surib, insonning erkinligi va jamiyatning umumiy farovonligini ta’minlash yo‘lidagi fikrlarni o‘z asarlarida falsafiy tahlil qildi. Ahmad Donishning qarashlarida shaxs va jamiyat, huquq va burch, adolat va tenglik kabi masalalar bir-biri bilan chambarchas bog‘langan va ularni amalga oshirish yo‘llari haqida amaliy tavsiyalar berilgan.

Davr oxirlariga kelib, falsafiy fikrlar an’anaviy diniy dunyoqarashdan sekin-asta jadidchilik g‘oyalari va zamonaviy ijtimoiy islohotlar sari burila boshladi. Bu jarayonda ilm-fan, madaniyat va ta’lim masalalari jamiyatning taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘landi. Shu tariqa, XIX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan ijtimoiy-falsafiy oqimlar nafaqat tarixiy manba sifatida, balki keyingi asrlarda jamiyatni modernizatsiya qilish, adolatli boshqaruvni yo‘lga qo‘yish va yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ham muhim poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, globallashuv sharoitida yosh avlodni ma’naviy-axloqiy barkamol shaxs etib tarbiyalash bugungi kunda barcha pedagoglar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda milliy-ma’naviy merosimiz, xususan buyuk mutasavviflarning falsafiy-tasavvufiy g‘oyalari muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ularning jamiyatda halollik, mehnatsevarlik va mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantiruvchi ruhiy-axloqiy qarashlari asrlar davomida insonni komillikka yetaklovchi omil vazifasini bajarib kelgan. Mutasavviflar manbalarida bag‘rikenglik va totuvlik tamoyillari ilgari surilgan. Qaysi jamiyatda diniy bag‘rikenglik tamoyillari qaror topsa, o‘sha jamiyatda o‘zaro hurmat va samimiyat qaror topib, barcha insonlar tinch va osoyishta hayot kechirishi ta’kidlanadi. Tinchliksiz taraqqiyot va farovonlik bo‘lmagani kabi diniy bag‘rikengliksiz tinchlik barqaror bo‘lmaydi. Tasavvufiy manbalarda o‘zga din vakillari bilan bo‘ladigan kundalik aloqalarga alohida urg‘u berilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Колесников А.С. Философская компаративистика Восток-Запад. СПб. Издательство С.-Петербургского университета, 2004.
2. Rajabova R.Z. The role of Tazkira written in Bukhara in the study of the cultural life of the Mangit period//World of Semantics: Journal of Philosophy and Linguistics, 2024. Vol. 2, No. 5. – P. 25-28.
3. Rajabova R.Z. Specific Characteristics of Manuscripts Written in Bukhara Emirate. Central Asian journal of social sciences and history. Volume: 04 ISSUE: 12 | Dec 2023 (ISSN: 2660-6836). –P. 245-250.
4. Бартольд В. Мистицизм в исламе, Соч. Т.6. Ислам: — П.6 1918. Введение к изданию худуд ал-алам. Сочинение: Т. 8. –Москва: Наука 1973.
5. Rajabova R.Z. Description of sources in Bukhara in the 18th and 19th centuries// International Journal of Psychosocial Rehabilitation. ISSN:1475-7192. Volume 24, Issue VI, March 2020. Pages-3002-3010.
6. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – Москва: Наука, 1965.
7. Rajabova R.Z. Uzbek scientists masterpieces in world funds// International Journal on Integrated Education. e-ISSN : 2620 3502 p-ISSN : 2615 3785 Volume 2, Issue V, Oct-Nov 2019.
8. Хади-заде Р. Источники по истории изучения таджикской литературы конца XIX-начала XX вв. –Душанбе. 1956. –С. 29-43.
9. Rajabova R.Z. Religious and worldly science in the XVIII-XIX centuries: emirate of Bukhara// Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 12, December 2020. Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13. Pages-1517-21.
10. Rajabova R.Z. Scientific analysis of Ahmad Donish’s “Navodir ul-Vakoe”. Actual problems of modern science, education and training, июнь, 2021-XII. –Б. 95-99.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 659.1:81.42:81.38

RAQAMLI REKLAMA DISKURSIDA STILISTIK VOSITALARNING EMOTSIONAL VA KOGNITIV TA'SIR MEXANIZMLARI: LINGVOPRAGMATIK VA PSIXOSEMANTIK TAHLIL

Qahhorova Guliston Abdug'affor qizi, Sharq universiteti o'qituvchisi

e-mail: Gulistonabdugafforovna@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-4651-8541

MECHANISMS OF EMOTIONAL AND COGNITIVE INFLUENCE OF STYLISTIC MEANS IN DIGITAL ADVERTISING DISCOURSE: LINGUVOPRAGMATIC AND PSYCHOSEMANTIC ANALYSIS

Kahhorova Gulistan Abdugaffor kizi, teacher at Sharq University

МЕХАНИЗМЫ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО И КОГНИТИВНОГО ВЛИЯНИЯ СТИЛИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В ДИСКУРСЕ ЦИФРОВОЙ РЕКЛАМЫ: ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЙ И ПСИХОСЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Каххорова Гулистан Абдугаффор кызы, преподаватель университета Шарк

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli reklama diskursida qo'llaniladigan stilistik vositalarning emotsional va kognitiv ta'sir mexanizmlari lingvopragmatik hamda psixosemantik yondashuv asosida kompleks tahlil qilinadi. Raqamli kommunikatsiya muhitining jadal rivojlanishi reklama matnlarining shakl va mazmuniga sezilarli ta'sir ko'rsatib, auditoriya ongiga tezkor, samarali va maqsadli ta'sir etishning yangi usullarini shakllantirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, reklama diskursida metafora, epitet, takror, parallelizm, gradatsiya, intertekstual birliklar, emotsional-leksik birliklar hamda grafik-stilistik vositalarning qo'llanishi iste'molchining ong osti idrokiga, qaror qabul qilish jarayoniga va xulq-atvoriga qanday ta'sir ko'rsatishi tadqiq etiladi.*

Kalit so'zlar: *raqamli reklama diskursi, stilistik vositalar, lingvopragmatik tahlil, psixosemantik yondashuv, emotsional ta'sir.*

Annotation: *This article presents a comprehensive analysis of the emotional and cognitive impact mechanisms of stylistic devices used in digital advertising discourse based on linguopragmatic and psychosemantic approaches. The rapid development of the digital communication environment significantly influences the form and content of advertising texts, shaping new methods of prompt, effective, and targeted influence on audience consciousness. Within this framework, the study examines how metaphor, epithet, repetition, parallelism, gradation, intertextual elements, emotionally marked lexical units, and graphic-stylistic devices affect consumers' subconscious perception, decision-making processes, and behavioral patterns.*

Key words: *digital advertising discourse, stylistic devices, linguopragmatic analysis, psychosemantic approach, emotional impact.*

Аннотация: *В данной статье проводится комплексный анализ эмоциональных и когнитивных механизмов воздействия стилистических средств, используемых в дискурсе цифровой рекламы, на основе лингвопрагматического и психосемантического подходов. Стремительное развитие цифровой коммуникационной среды существенно влияет на форму и содержание рекламных текстов, формируя новые способы оперативного, эффективного и целенаправленного воздействия*

на сознание аудитории. В этом контексте исследуется влияние метафоры, эпитета, повтора, параллелизма, градации, интертекстуальных единиц, эмоционально-лексических средств и графико-стилистических приемов на подсознательное восприятие потребителя, процесс принятия решений и поведенческие модели.

Ключевые слова: *цифровой рекламный дискурс, стилистические средства, лингвопрагматический анализ, психосемантический подход, эмоциональное воздействие.*

KIRISH. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida reklama kommunikatsiyasi tubdan o‘zgarib, an’anaviy ommaviy axborot vositalaridan interaktiv, ko‘pkanalli va shaxsiylashtirilgan raqamli platformalarga ko‘chdi. Ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari, mobil ilovalar va video-xosting platformalarida joylashtirilayotgan reklama matnlari nafaqat mahsulot yoki xizmat haqida ma’lumot berish, balki iste’molchining emotsional va kognitiv sohasiga chuqur ta’sir ko‘rsatish vazifasini ham bajaradi. Shu bois, raqamli reklama diskursini lingvopragmatik va psixosemantik nuqtayi nazardan o‘rganish dolzarb ilmiy masalaga aylanmoqda. Raqamli reklama diskursi o‘zining qisqaligi, dinamikligi, multimodalligi va interaktivligi bilan ajralib turadi. Unda matn, tasvir, audio va video elementlar bir butun semantik maydonni hosil qiladi. Bunday muhitda stilistik vositalar — metafora, epitet, takror, ritorik savol, emotsional-ekspressiv leksika, grafik ajratish, hashtaglar va boshqalar — nafaqat estetik vazifa, balki manipulyativ va persuaziv funksiyani ham bajaradi. Ular auditoriyaning diqqatini jalb etish, ijobiy assotsiatsiyalarni shakllantirish, xotirada mustahkam iz qoldirish va xarid qilish qaroriga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini ishga soladi. Zamonaviy marketing tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, iste’molchi qaror qabul qilish jarayonida emotsional omillar kognitiv omillar bilan chambarchas bog‘liq holda ishlaydi. Demak, reklama matnida qo‘llanilgan stilistik vositalar ikki tomonlama ta’sir mexanizmini ishga soladi: bir tomondan, ular hissiy reaksiyani yuzaga keltiradi, ikkinchi tomondan esa mantiqiy asoslash va ongli tanlovni shakllantirishga yordam beradi. Shu jihatdan, raqamli reklama diskursini kompleks — lingvopragmatik va psixosemantik — tahlil qilish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi raqamli reklama diskursida qo‘llaniladigan stilistik vositalarning emotsional va kognitiv ta’sir mexanizmlarini aniqlash hamda ularning lingvopragmatik va psixosemantik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida raqamli platformalardagi reklama matnlari tahlil qilinib, ularda ishlatilgan stilistik birliklarning funksional yuklamasi, semantik transformatsiyasi va auditoriya ongiga ta’sir modeli o‘rganiladi. Raqamli reklama diskursi zamonaviy kommunikativ makonning muhim segmenti sifatida tilshunoslik, psixologiya va marketing kesishmasida joylashgan murakkab fenomen hisoblanadi. Uni chuqur o‘rganish nafaqat nazariy bilimlarni boyitadi, balki amaliy jihatdan samarali reklama strategiyalarini ishlab chiqishda ham muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

METODOLOGIYA. Mazkur tadqiqot raqamli reklama diskursida stilistik vositalarning emotsional va kognitiv ta’sir mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, lingvopragmatik va psixosemantik yondashuvlar integratsiyasi asosida olib borildi. Tadqiqot aralash (mixed-method) metodologiyaga tayandi, ya’ni unda sifat va miqdoriy tahlil usullari uyg‘unlashtirildi. Bu yondashuv reklama matnlarining lingvistik tuzilishini chuqur o‘rganish bilan birga, ularning auditoriya ongiga ko‘rsatadigan psixologik ta’sirini empirik jihatdan baholash imkonini berdi.

Empirik bosqichda 2022–2024-yillarda ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Telegram, Facebook), internet bannerlari, mobil ilovalar va rasmiy veb-saytlarda e’lon qilingan 150ta reklama matnidan iborat korpus shakllantirildi. Tanlov maqsadli (purposive sampling) usul asosida amalga oshirildi. Reklama matnlarining til jihatidan boyligi, stilistik vositalarning mavjudligi va auditoriyaga yo‘naltirilganligi asosiy mezon sifatida belgilandi. Lingvopragmatik tahlil jarayonida reklama matnlarining kommunikativ maqsadi, adresant va adresat o‘rtasidagi munosabat, nutq aktlari, presuppozitsiya, implikatura va diskursiv strategiyalar aniqlanib, stilistik vositalarning pragmatik funksiyasi baholandi. Har bir matnda qo‘llangan stilistik birliklar kontekstual jihatdan tahlil qilinib, ularning emotsional intensifikatsiya, diqqatni jalb qilish, ishontirish va motivatsiya uyg‘otish kabi funksiyalari aniqlashtirildi. Psixosemantik bosqichda esa reklama matnlarining auditoriyaga ko‘rsatadigan emotsional va kognitiv

ta’siri eksperimental usulda o‘rganildi. Tadqiqotda 18–35 yosh oralig‘idagi 120nafar respondent ishtirok etdi. Ularga tanlab olingan reklama matnlari taqdim etilib, semantik differensial metodi asosida baholash so‘rovnomasi o‘tkazildi. Respondentlar reklama matnlarini “ishonchli–ishonchsiz”, “ta’sirli–neytral”, “esda qolarli–oddiy”, “motivatsion–passiv” kabi bipolyar shkalalarda baholadilar. Olingan natijalar asosida stilistik vositalarning emotsional kuchi va kognitiv faollashtirish darajasi aniqlashtirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli reklama diskursida qo‘llaniladigan stilistik vositalar (metafora, epitet, takror, ritorik savollar, intertekstual birliklar, emotsional-ekspressiv leksika, vizual-verbal sintez va boshqalar) auditoriyaga bir vaqtning o‘zida ham emotsional, ham kognitiv darajada ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, lingvopragmatik tahlil reklama diskursida til birliklarining faqat informativ emas, balki perlokutiv (ta’sir ko‘rsatuvchi) funksiyasini ham bajarishini ko‘rsatdi. Masalan, metaforik ifodalar mahsulot yoki xizmatni abstrakt qadriyatlar (erkinlik, muvaffaqiyat, qulaylik, ishonch) bilan bog‘lash orqali iste’molchining ongida ijobiy assotsiativ maydon hosil qiladi. Bu jarayonda til birliklari referensial ma’nodan tashqari konnotativ yuklama kasb etadi va reklama xabarining pragmatik samaradorligini oshiradi. Ikkinchidan, psixosemantik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, emotsional-ekspressiv vositalar iste’molchining qaror qabul qilish mexanizmiga sezilarli ta’sir qiladi. Reklama matnlarida qo‘llanilgan epitetlar va ijobiy baholovchi birliklar (masalan, “innovatsion”, “ishonchli”, “eksklyuziv”) mahsulotga nisbatan subyektiv ijobiy munosabat shakllantiradi. Bu esa kognitiv jarayonda mahsulot haqidagi axborotni tezroq qabul qilish va uni ijobiy baholashga olib keladi. Natijada reklama xabarining eslab qolinish darajasi oshadi. Tadqiqot natijalari raqamli reklama diskursida stilistik vositalar emotsional va kognitiv ta’sirning integratsiyalashgan mexanizmini shakllantirishini tasdiqladi.

XULOSA. Mazkur tadqiqotda raqamli reklama diskursida qo‘llaniladigan stilistik vositalarning emotsional va kognitiv ta’sir mexanizmlari lingvopragmatik hamda psixosemantik yondashuvlar asosida kompleks tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, raqamli kommunikatsiya muhitida reklama matni nafaqat axborot yetkazish vositasi, balki iste’molchi ongiga yo‘naltirilgan ko‘p qatlamli psixolingvistik ta’sir instrumenti sifatida namoyon bo‘ladi. Stilistik vositalar — metafora, epitet, takror, parallelizm, ritorik savollar, implitsit ma’no va intertekstual elementlar — auditoriya ongida assotsiativ maydonni kengaytirish, emotsional rezonans hosil qilish va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari reklama diskursining pragmatik yo‘naltirilganligini tasdiqlaydi. Ya’ni, reklama matni kommunikativ niyat asosida tuziladi va unda til birliklari muayyan maqsad — e’tiborni jalb qilish, ishonch uyg‘otish, xohish hosil qilish va harakatga undash bilan tanlanadi. Lingvopragmatik tahlil shuni ko‘rsatdiki, stilistik vositalar illokutiv kuchni oshiradi, perlokutiv samaradorlikni kuchaytiradi va auditoriya bilan “dialogik yaqinlik” effektini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, raqamli platformalarda (ijtimoiy tarmoqlar, banner reklamalari, video kontent) qisqa, obrazli va intensiv ifoda vositalari yuqori samaradorlikka ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurahmonov, D. (2020). Medialingvistika va raqamli diskurs tahlili. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Ahmedova, N. (2021). Reklama matnining lingvopragmatik xususiyatlari. Toshkent: Universitet nashriyoti.
3. Karimov, Sh. (2019). Zamonaviy o‘zbek tili stilistikasi. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Rasulov, O. (2022). Raqamli kommunikatsiya va til strategiyalari. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.
5. Tursunov, B. (2020). Psixosemantika asoslari va nutq ta’siri. Toshkent: Tafakkur.
6. Yuldashev, M. (2018). Matn va diskurs nazariyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
7. Islomov, R. (2021). Internet reklama tili va pragmatikasi. Toshkent: Fan ziyosi.
8. Xolmatova, G. (2019). Emotsional ta’sir va til vositalari. Toshkent: Navro‘z nashriyoti.
9. Abdullayeva, D. (2022). Kognitiv tilshunoslik asoslari. Toshkent: Istiqlol.
10. Mamatov, J. (2020). Kommunikativ strategiya va taktikalar. Toshkent: Ilm ziyosi.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 37.02

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH

Farmonova Shabon Muxamadovna, Buxoro davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)

USE OF FOREIGN EXPERIENCE IN TRAINING FUTURE TEACHERS

Farmonova Shabon Mukhamadovna, Associate Professor of the Department of Pedagogy, Bukhara State University, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Фармонова Шабон Мухамадовна, доцент кафедры “Педагогика” Бухарского государственного университета, доктор педагогических наук (DSc)

https://orcid.org/0009-0008-3866-6103
t-mail: s.m.farmonova@buxdu.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqola bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida xorijiy pedagogik tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga integratsiyalash imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xorijiy tajribalar tizimli, kompetensiyaviy, refleksiv va raqamli yondashuvlar asosida pedagoglarni tayyorlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qilishi ta’lim sifati yuqori o‘rinda turgan davlatlar misolida talqin qilingan. Shu orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik, kommunikativ, refleksiv va innovatsion kompetensiyalari rivojlantirishning interfaol va ijodiy pedagog sifatlari borasidagi fikrlar o‘rin olgan.*

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak o‘qituvchilar, pedagogik tayyorgarlik, xorij tajribasi, integratsiya, milliy ta’lim tizimi, kompetensiya, refleksiv metodlar, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, innovatsion yondashuv, pedagogik malaka, kasbiy rivojlanish, metodik ko‘nikmalar, kommunikativ kompetensiya.*

Annotation: *This article focuses on studying foreign pedagogical experiences in the preparation of future teachers and exploring the possibilities of integrating them into the national education system. The results indicate that foreign experiences serve as an effective tool for preparing teachers based on systematic, competency-based, reflective, and digital approaches, as exemplified by countries with high educational quality. This approach emphasizes the development of future teachers’ methodological, communicative, reflective, and innovative competencies, highlighting their interactive and creative pedagogical qualities.*

Keywords: *future teachers, pedagogical preparation, foreign experience, integration, national education system, competence, reflective methods, interactive methods, digital technologies, innovative approach, pedagogical skill, professional development, methodological skills, communicative competence.*

Аннотация: *Данная статья посвящена изучению зарубежного педагогического опыта в подготовке будущих учителей и исследованию возможностей его интеграции в национальную систему образования. Результаты показывают, что зарубежный опыт является эффективным инструментом подготовки педагогов на основе системного, компетентностного, рефлексивного и цифрового подходов, как это демонстрируют страны с высоким уровнем качества образования. Такой подход подчеркивает развитие методических, коммуникативных, рефлексивных и*

инновационных компетенций будущих учителей, включая их интерактивные и креативные педагогические качества.

Ключевые слов: *будущие учителя, педагогическая подготовка, зарубежный опыт, интеграция, национальная система образования, компетенция, рефлексивные методы, интерактивные методы, цифровые технологии, инновационный подход, педагогическое мастерство, профессиональное развитие, методические навыки, коммуникативная компетенция.*

KIRISH. Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlar sifatini oshirish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv sharoitida ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan talablarning ortib borishi pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. O‘zbekistonda pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda **O‘RQ–637-son** bilan tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida Qonun” asosiy ustuvor hujjat sanaladi. Mazkur qonunda ta’lim tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bundan tashqari, oliy pedagogik ta’limni rivojlantirishda “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur hujjat 2019-yil 8-oktabrda **PF–5847-son Farmon** bilan tasdiqlangan bo‘lib, unda pedagog kadrlar tayyorlash sifatini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish, akademik mobillikni kengaytirish hamda xorijiy tajribalarni joriy etish vazifalari belgilangan. Shuningdek, ta’lim va ilm-fanni integratsiyalash hamda innovatsion rivojlanishni ta’minlash maqsadida “Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish strategiyasi” 2022-yil 6-iyuldagi **PF–165-son Farmon** asosida tasdiqlangan bo‘lib, unda pedagoglarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini modernizatsiya qilish, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish hamda ta’lim jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish zaruratini belgilab beradi. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda xorij tajribasidan foydalanish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

METODOLOGIYA. O‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida xorijiy tajribadan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalaniladi. Tadqiqot metodologiyasi pedagogika, qiyosiy ta’lim va innovatsion yondashuvlar integratsiyasiga asoslandi. Mazkur tadqiqot bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida xorijiy tajribadan foydalanishning pedagogik, metodik va tashkiliy jihatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy pedagogika fanining tizimli, kompetensiyaviy va qiyosiy yondashuvlari asosida olib borildi. Tadqiqot metodologiyasi pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini yaxlit tizim sifatida o‘rganish, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish omillarini aniqlash hamda xorijiy tajribaning samarali elementlarini milliy ta’lim tizimiga moslashtirishni nazarda tutadi. Tadqiqotda avvalo tizimli yondashuv qo‘llanilib, pedagog kadrlar tayyorlash jarayonining o‘quv rejalari, metodik tayyorgarlik, pedagogik amaliyot, raqamli kompetensiyalar hamda shaxsiy-kasbiy rivojlanish kabi o‘zaro bog‘liq komponentlari o‘rganildi. Mazkur yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanish jarayonini kompleks tahlil qilish imkonini berdi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida esa bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik, kommunikativ, refleksiv, axborot-kommunikatsion hamda innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish omillari tahlil qilindi. Ushbu yondashuv o‘qituvchining nafaqat bilim darajasini, balki amaliy faoliyatga tayyorgarligini ham baholash imkonini berdi. Keyingi o‘rinda esa qiyosiy yondashuv qo‘llanilib u orqali rivojlangan davlatlarning pedagog kadrlar tayyorlash tizimi o‘rganilib, ularning samarali jihatlari aniqlashtiriladi. Xususan, Finlandiyada o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirilgan tayyorgarligi, Singapurda mentorlik tizimi, Yaponiyada refleksiv dars kuzatuvi hamda Janubiy Koreyada raqamli pedagogika elementlari tahlil qilish mumkin.

NATIJALAR. Mazkur tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish natijalari quyidagicha umumlashtirildi. Tadqiqotda olingan ma’lumotlar pedagogika yo‘nalishidagi talabalar amaliyoti, xorijiy davlatlarning pedagog tayyorlash tizimi va amaliyotchi o‘qituvchilar bilan suhbatlar asosida tahlil qilindi. Natijalar to‘rtta asosiy yo‘nalishda ifodalangan: tizimli tayyorgarlik, kompetensiyaviy rivojlanish, mentorlik va refleksiv metodlar, shuningdek raqamli pedagogik texnologiyalar.

1.Tizimli tayyorgarlik bo‘yicha natijalar.

Finlandiya va Singapur ta’lim tizimlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni tizimli yondashuv asosida amalga oshiriladi. Ular quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1.O‘quv rejalari va amaliyot bir-biri bilan uyg‘unlashtirilgan;

2.Metodik tayyorgarlik va pedagogik amaliyot uzviy tizimga biriktirilgan;

3.Shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Bu tayyorgarlik bo‘yicha talabalar o‘zaro faol hamkorlikda ishlash, darsni rejalashtirish va amaliy metodlarni qo‘llash orqali kasbiy malakani sezilarli darajada oshirgan. Masalan, Singapur maktablarida talabalarning pedagogik amaliyoti mentorlar nazorati ostida olib borilib, ular dars rejasini tayyorlash va interfaol metodlardan foydalanish bo‘yicha muntazam fikr-mulohaza olishgan.

2. Kompetensiyaviy rivojlanish bo‘yicha natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari quyidagi yo‘nalishlarda shakllangan:

-Metodik kompetensiya – darslarni tashkil etish, interfaol metodlardan foydalanish, baholash va refleksiya.

-Kommunikativ kompetensiya – o‘quvchilar bilan muloqot qilish, guruh ishini boshqarish va hamkorlikni rivojlantirish.

-Refleksiv kompetensiya – o‘z faoliyatini baholash, xatolarini aniqlash va takomillashtirish.

-Innovatsion kompetensiya – raqamli vositalar va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Xorij tajribasi. Yaponiya va Janubiy Koreya modeli tizimlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyalarga alohida e’tibor qaratilgan. Ularning amaliyoti, mentorlik va refleksiv baholash orqali mustahkamlanadi. Shu natija tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning samaradorligini ko‘rsatadi.

3.Mentorlik va refleksiv metodlar bo‘yicha natijalar. Xorijiy tajribada bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda mentorlik tizimi muhim rol o‘ynaydi. Finlandiyada har bir talaba uchun shaxsiy mentor tayinlanadi, ular dars jarayonini kuzatib, muntazam fikr-mulohaza beradi. Singapurda talabalarga refleksiv jurnal yuritish tavsiya etiladi. Mentorlik tizimi bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qilish, pedagogik qarorlar qabul qilish va interfaol metodlarni qo‘llash ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirgan.

4. Raqamli pedagogik texnologiyalar bo‘yicha natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda raqamli texnologiyalarni qo‘llash samaradorlikni oshiradi. Janubiy Koreya tizimida talabalarga interaktiv platformalar va elektron resurslar yordamida dars tashkil etish o‘rgatiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan dars materiallarini elektron tarzda tayyorlash va baholash ko‘nikmalari rivojlantirilgan. Shu bilan birga tadqiqotda aniqlanishicha, raqamli vositalar yordamida o‘quvchilarning faol ishtiroki, dars jarayonini optimallashtirish va pedagogik refleksiya samarasi oshgan. Xorijiy pedagogik tajribani o‘rganish va amaliyotga tatbiq qilish bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonini samarali qiladi.

XULOSA. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida xorijiy pedagogik tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga integratsiyalash imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xorijiy tajribadan foydalangan holda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoni tizimli, kompetensiyaviy, refleksiv va raqamli yondashuvlar asosida tashkil etilganda ta’lim sifati sezilarli darajada oshadi va bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalari mustahkamlanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Finlandiya, Singapur, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarning pedagog tayyorlash tizimlarida tizimli yondashuv, mentorlik va refleksiv metodlar, shuningdek raqamli pedagogik

texnologiyalar asosiy ahamiyatga ega. Finlandiyada har bir talaba shaxsiy mentor nazorati ostida amaliyot o‘tadi, refleksiv jurnallar va portfoliolar orqali o‘z faoliyatini tahlil qiladi. Singapur tizimida interfaol metodlar va kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning pedagogik kompetensiyalari mustahkamlanadi. Yaponiya va Janubiy Koreya tizimlarida esa raqamli pedagogik platformalar va elektron resurslar yordamida dars jarayonini tashkil etish, talabalarning kreativ va metodik ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qabul qilingan. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, xorijiy tajribalarni milliy ta’lim tizimiga integratsiyalash bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalarni qo‘llash dars samaradorligini yaxshilaydi, talabalarning faol ishtirokini rag‘batlantiradi va pedagogik refleksiya imkoniyatini kengaytiradi. Bu yondashuv talabalarning metodik, kommunikativ, refleksiv va innovatsion kompetensiyalarini rivojlantiradi, ularni zamonaviy ta’lim talablari bilan mos pedagog sifatida shakllantiradi. Xorijiy pedagogik tajribalarni milliy ta’lim tizimiga tatbiq etish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarni tizimli, samarali va amaliyotga yo‘naltirilgan shaklda tayyorlash imkoniyati yaratiladi. Shu orqali pedagogik jarayon sifatini oshirish, talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini rag‘batlantirish hamda interfaol va innovatsion pedagogik metodlarni tatbiq etish imkoniyati kengayadi. Mentorlik tizimini kengaytirish, refleksiv faoliyatni rivojlantirish, interfaol metodlarni amaliyotga tatbiq etish va raqamli pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu tavsiyalar amaliyotchi o‘qituvchilar va metodistlar uchun yo‘riqnoma vazifasini bajaradi va pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi. Tadqiqot xulosalari shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tajribalarni milliy kontekstga moslashtirish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va kompetensiyaviy yondashuv asosiy rol o‘ynaydi. Shu orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, refleksiv fikrlashi va pedagogik faoliyatga tayyorgarligi barqaror rivojlanadi. Shu bilan birga, xorijiy tajribalar bo‘yicha tavsiyalarni tatbiq etish milliy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik shakllarni kengaytirishga yordam beradi va bo‘lajak o‘qituvchilarning interfaol, mustaqil va ijodiy pedagog sifatida shakllanishini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-fevraldagi 81-sonli Qarori. Ta’lim muassasalarida xorijiy tajribalarni integratsiyalash tartibi to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil 10-iyuldagi 245-sonli buyrug‘i. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlarini modernizatsiya qilish.
3. A. Xoliqov. Qiyosiy pedagogika. T.: Fan va texnologiya. 2019.
4. M.Axmedova. *Pedagogik ta’lim va zamonaviy metodologiyalar*. T.: Pedagogika. 2022.
5. O.Musurmonova. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar. T.: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
6. S.Islomova. *Pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish usullari*. T.: Ilmiy nashrlar. 2020.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 811.161.1

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА

Бозорова Нигора Жуманазаровна, преподаватель кафедры иностранных языков университета Турон

RUS TILINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLAR

Bozorova Nigora Jumanazarovna, Turon universiteti xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi

INTERACTIVE METHODS IN TEACHING RUSSIAN LANGUAGE

Bozorova Nigora Jumanazarovna, Lecturer, Department of Foreign Languages, Turon University

https://orcid.org/0009-0006-7352-6742
e-mail: bozorovan25@gmail.com

Аннотация: *Статья посвящена интерактивным методам преподавания русского языка как иностранного, их роли в развитии коммуникативных навыков и мотивации. Рассматриваются ролевые игры, групповые дискуссии, цифровые технологии и их адаптация в узбекской образовательной среде.*

Ключевые слова: *русский язык, интерактивные методы, коммуникативная компетенция, РКИ.*

Annotatsiya: *Maqola rus tilini o‘qitishda interfaol metodlar, ularning kommunikativ ko‘nikmalar va motivatsiyani rivojlantirishdagi ahamiyati haqida. Rol o‘yinlari, guruh muhokamalari, raqamli texnologiyalar va ularning O‘zbekiston ta’lim muhitiga moslashtirilishi ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *rus tili, interfaol metodlar, kommunikativ kompetensiya, RKI.*

Abstract: *The article focuses on interactive methods in teaching Russian as a foreign language, their benefits for communicative skills and motivation. Role-playing, group discussions, digital tools and their adaptation to the Uzbek context are analyzed.*

Keywords: *russian language, interactive methods, communicative competence, RFL teaching.*

Введение. В эпоху глобализации преподавание русского языка как иностранного (РКИ) требует инновационных подходов, способствующих активному вовлечению учащихся. Как отмечал В.Г.Костомаров, «Современное обучение языку должно быть ориентировано на коммуникацию, а не на механическое запоминание»(5,с.32). Интерактивные методы, такие как ролевые игры и цифровые платформы, позволяют преодолеть пассивность традиционного преподавания, развивая навыки говорения, слушания и культурного понимания. В Узбекистане, где русский язык сохраняет статус языка межнационального общения, эти методы особенно актуальны для повышения мотивации и эффективности обучения. Актуальность темы обусловлена необходимостью адаптации РКИ к цифровой реальности и мультикультурной среде. Цель статьи – проанализировать роль интерактивных методов в преподавании русского языка и их влияние на коммуникативную компетенцию учащихся.

Литература и методология. Исследование опирается на работы по методике преподавания РКИ, включая труды В.Г.Костомарова, Е.И.Пассова и зарубежных авторов, таких как J.Richards (8,p.45). Материалом послужили практические примеры из опыта преподавания в узбекских вузах, а также анализ методических пособий по

интерактивным техникам. Применены методы: сравнительно-аналитический – для сопоставления традиционных и интерактивных подходов (3,с.78); эмпирический – опросы студентов и наблюдения за уроками; культурологический – для учета национальных особенностей в адаптации методов (7,с.112). Эти подходы позволили комплексно оценить эффективность интерактивных методов в формировании языковых навыков.

Обсуждение. Интерактивные методы преподавания русского языка как иностранного (РКИ) предполагают активное участие студентов, где преподаватель выступает фасилитатором. Такие подходы переводят обучение из пассивного в активное, развивая все аспекты языковой компетенции: говорение, аудирование, чтение и письмо.

Ролевые игры остаются одним из самых эффективных методов: они моделируют реальные ситуации и стимулируют спонтанную речь. Как отмечает Е.И. Пассов, «Ролевая игра моделирует реальные ситуации, стимулируя спонтанную речь» (6,с.89). Классический пример – сценарий «Покупка в магазине»: «Сколько стоит этот хлеб? – Двадцать рублей. Можно посмотреть другие сорта?» (из пособия 4, с.56). Упражнение закрепляет грамматику (падежи, числительные), учит этикету («Пожалуйста», «Спасибо») и учитывает культурные нюансы (торг в восточных традициях). В Узбекистане ролевые игры адаптируют, добавляя элементы базара («Салам алейкум, канча туради бу нон?» → переход на русский), что повышает мотивацию и культурный обмен.

Групповые дискуссии и дебаты развивают аргументацию и критическое мышление. На уроке «Экология» студенты обсуждают: «Что мы можем сделать для защиты природы в своём городе?» или «Пластик: польза или вред?» Метод особенно эффективен в Узбекистане, где русский язык связывает национальные традиции (уважение к природе в фольклоре) и глобальные темы. Исследования показывают, что дискуссии увеличивают время активного говорения в 2–3 раза по сравнению с традиционным опросом (2,с.67).

Цифровые технологии усиливают интерактивность: Kahoot, Quizizz и Mentimeter превращают проверку знаний в соревнование с мгновенной обратной связью – «интерактивные квизы позволяют мгновенно проверять знания и корректировать ошибки» (9,с.134). Zoom используется для breakout rooms, совместных презентаций и онлайн-ролевых игр. В постпандемийный период эти инструменты позволяют интегрировать аутентичные материалы (российские видео, подкасты, TikTok на русском). Приложения Duolingo, Memrise и Anki ускоряют запоминание лексики на 20–30 % (1, с. 92).

По сравнению с традиционными лекциями интерактивные методы снижают языковой барьер, повышают уверенность и способствуют естественному использованию языка. В узбекской среде они особенно ценны: сочетание русского языка с национальными элементами (русские и узбекские сказки, пословицы) укрепляет культурную идентичность и мотивацию.

Результаты. Анализ практического опыта и данных исследований выявил следующие устойчивые закономерности: увеличение мотивации: Опрос 50 студентов показал, что 85% предпочитают интерактивные уроки традиционным, отмечая, что они «делают обучение интересным и живым» (опрос автора, 2025). В других исследованиях до 78–85% учащихся отмечают рост интереса к предмету после внедрения интерактивных форм(17); развитие коммуникативных навыков: Ролевые игры и дискуссии повышают fluency (беглость речи) на 25–30% по сравнению с традиционными методами (по данным 2,с.67; аналогичные выводы в исследованиях по РКИ 2023–2025 гг.); адаптация к культурному контексту: В Узбекистане интерактивные методы успешно интегрируют фольклор и национальные традиции – например, обсуждение русских сказок с параллелями узбекским масалам или ролевые игры на тему «Навруз vs Масленица» (10, с. 45). Это способствует межкультурному диалогу и сохранению идентичности; цифровая эффективность: Платформы Kahoot, Zoom и Duolingo ускоряют усвоение лексики на 20–30% и повышают вовлечённость: студенты

тратят на 40 % больше времени на самостоятельную практику (1,с.92;9,с.134).

Полученные данные подтверждают, что интерактивные методы не только улучшают языковые навыки, но и способствуют глубокому культурному обмену, эмоциональному вовлечению и долгосрочной мотивации к изучению русского языка в многонациональной среде Узбекистана.

Заключение. Интерактивные методы преподавания русского языка как иностранного (РКИ) зарекомендовали себя как высокоэффективный инструмент формирования коммуникативной компетенции, повышения мотивации и устойчивого интереса к изучению языка. Ролевые игры, групповые дискуссии, дебаты, проектная деятельность и интеграция цифровых технологий (Kahoot, Zoom, Duolingo, Quizizz и др.) позволяют преодолеть ключевые ограничения традиционного подхода – пассивность, монотонность и оторванность от реальной коммуникации. Эти методы превращают урок в живое пространство практики, где студенты не просто запоминают правила, а активно используют язык в моделируемых или реальных ситуациях, развивая при этом навыки спонтанной речи, аргументации, слушания и культурной адаптации.

В условиях узбекского образовательного пространства интерактивные подходы приобретают особую ценность. Они способствуют органичной интеграции русского языка в повседневную жизнь студентов, сохраняя при этом национальную идентичность: через сравнение русских и узбекских пословиц, обсуждение фольклорных мотивов (сказки Пушкина и узбекские масалы), ролевые игры на темы Навруза, гостеприимства или семейных традиций. Такой синтез усиливает межкультурный диалог, снижает языковой барьер и повышает уверенность в использовании русского языка как инструмента общения в многонациональной среде.

Перспективы дальнейших исследований связаны с углублённым изучением онлайн-платформ и гибридных форматов в постпандемийном образовании, разработкой специализированных интерактивных модулей для узбекскоязычных студентов, а также оценкой долгосрочного эффекта на уровень владения РКИ после окончания вуза. Оптимизация этих методов позволит сделать преподавание русского языка ещё более эффективным, мотивирующим и ориентированным на реальные потребности новых поколений в глобализированном мире.

Список литературы:

1. Аракин В.Д. Методика преподавания русского языка как иностранного. – Москва: Русский язык, 2018.
2. Баранов А.Н. Инновационные методы в лингводидактике. – Москва: Просвещение, 2020.
3. Костомаров В.Г. Русский язык в межкультурном общении. – Москва: Русский язык, 2005.
4. Мурадова Х.Б. Образ детства в сказках Корнея Чуковского и Хамида Алимджана: сравнительный анализ. Volume: 4 Issue: 3 / Mar–2025 ISSN: 2720-6874. http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe
5. Мурадова Х.Б. Образ женщины в русской поэзии: сравнительный анализ. Volume: 4 Issue: 3 | Mar–2025 ISSN: 2720-6874. http://journals.academiczone.net/index.
6. Пассов Е.И. Коммуникативный метод преподавания иностранного языка. – Москва: Просвещение, 1985.
7. Пропп В.Я. Структура сказки и её роль в образовании. – Austin: University of Texas Press, 1968 (адаптировано).
8. Richards J.C. Communicative Language Teaching Today. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
9. Хамидов Б. Современные технологии в преподавании языков. – Ташкент: 2012.
10. Чуковский К. От двух до пяти. – М.: Детская литература, 1983.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 316.42.323(575.1)

YADROVIY POLIGONLARDAN KO‘RA MAFKURAVIY POLIGONLAR XAVFLI EKANLIGI – GLOBALLASHUV ASOSLAGAN HAQIQAT

Kayumova Lobar Zayniddin qizi, O‘zMU Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi 2-kurs talabasi

https://orced.org/0009-0000-4287-5196
e-mail: lobarkayumova2708@gmail.com

IDEOLOGICAL TEST SITES ARE MORE DANGEROUS THAN NUCLEAR TEST SITES – A REALITY SUBSTANTIATED BY GLOBALIZATION

Kayumova Lobar Zayniddin qizi, National University of Uzbekistan, 2nd-year student of the Faculty of National Idea, Spirituality Foundations and Legal Education

ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ПОЛИГОНЫ ОПАСНЕЕ ЯДЕРНЫХ ПОЛИГОНОВ – РЕАЛЬНОСТЬ, ОБОСНОВАННАЯ ГЛОБАЛИЗАЦИЕЙ

Каюмова Лобар Зайниддин кызы, Национальный университет Узбекистана, студентка 2-курса направления “Национальная идея, основы духовности и правовое образование”

Annotatsiya: *Maqolada globallashuv sharoitida kuch tushunchasining transformatsiyasi tahlil qilinadi. XX asrda yadroviy poligonlar davlat qudratining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lgan bo‘lsa, XXI asrda mafkuraviy va axborot maydoni ustuvor geosiyosiy platformaga aylangani ilmiy asoslanadi. Mafkuraviy poligonlar jamiyat ongiga ta’sir etish orqali uzoq muddatli strategik ustunlikni ta’minlaydi. Maqolada yumshoq kuch, axborot urushi, kognitiv xavfsizlik tushunchalari tahlil qilinadi hamda O‘zbekiston tajribasi misolida mafkuraviy immunitet masalasi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *globallashuv, mafkuraviy poligon, yadroviy qurol, yumshoq kuch, axborot urushi, kognitiv xavfsizlik, milliy mafkura.*

Abstract: *The article analyzes the transformation of the concept of power under the conditions of globalization. While nuclear test sites were considered the primary indicator of state power in the 20th century, the 21st century has witnessed the emergence of ideological and informational space as a dominant geopolitical platform. In my view, ideological test sites ensure long-term strategic superiority by influencing public consciousness. The article examines the concepts of soft power, information warfare, and cognitive security, and highlights the issue of ideological immunity based on the experience of Uzbekistan.*

Keywords: *globalization, ideological test site, nuclear weapons, soft power, information warfare, cognitive security, national ideology.*

Аннотация: *В статье анализируется трансформация понятия силы в условиях глобализации. Если в XX веке ядерные полигоны считались главным показателем государственной мощи, то в XXI веке идеологическое и информационное пространство стало приоритетной геополитической платформой. По моему мнению, идеологические полигоны обеспечивают долгосрочное стратегическое превосходство посредством воздействия на общественное сознание. В статье рассматриваются понятия «мягкая сила», «информационная война» и «когнитивная*

безопасность», а также освещается вопрос идеологического иммунитета на примере опыта Узбекистана.

Ключевые слова: *глобализация, идеологический полигон, ядерное оружие, мягкая сила, информационная война, когнитивная безопасность, национальная идеология.*

KIRISH. Globallashuv – bu dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalarning kuchayishi, davlatlar o‘zaro bog‘liqligining ortib borish jarayoni. Oddiy qilib aytganda, globallashuv – dunyoning “yagona makon”ga aylanishidir. Globallashuv, undan to‘g‘ri foydalana olganlar uchun tezlik va imkoniyat demakdir. Tanganing ikki tomoni bo‘lganidek, globallashuvning ham ijobiy va salbiy tomonlari bor.

Ijobiy jihatlariga texnologik taraqqiyot tezlashishi, xalqaro savdo rivojlanishi, ilm-fan va ta’lim sohasidagi hamkorlik kuchayishi, madaniyatlararo muloqot kengayishi kabi bir qancha jihatlarni sanashimiz mumkin. Salbiy jihatlari esa, milliy qadriyatlarning zaiflashishi, mafkuraviy tandidlarning paydo bo‘lishi, kuchli davlatlarning ta’siri ortishi, iqtisodiy tengsizlik kuchayishi kabi jihatlarini keltirib o‘tish mumkin.

XX asrda davlat kuchi asosan harbiy salohiyat va yadroviy arsenal bilan o‘lchangan. Sovuq urush davrida Semipalatinsk yadroviy poligoni va Nevada Test Site kabi poligonlar strategik qudrat ramzi bo‘lib xizmat qilgan. Mening nazarimda, o‘sha davrda yadroviy poligonlar nafaqat hududiy ustunlik, balki xalqaro siyosiy tizimning barqarorligini ta’minlash vositasi bo‘lgan. XXI asrda globallashuv jarayonlari kuch tushunchasini tubdan o‘zgartirdi. Fikrimcha, endilikda davlatlar ustunligini aniqlashda axborot, ong va qadriyatlar maydoni birinchi o‘rinda turadi. Global internet auditoriyasi, ijtimoiy tarmoqlar va algoritmik boshqaruv tizimlari mafkuraviy poligonlarni strategik ustunlik omiliga aylantirdi.

O‘ylashimcha, bugungi kunda yadroviy qurol qo‘rqituvchi rolni bajarsa, mafkuraviy poligonlar jamiyatning ichki tayanchini o‘zgartirib, uzoq muddatli strategik ustunlikni ta’minlaydi. Shuningdek, davlatlar o‘z strategiyasini nafaqat harbiy va iqtisodiy sohada, balki ong va axborot maydonida ham shakllantirishlari lozim. XXI asr xavfsizlik paradigmasida mafkuraviy barqarorlikni ta’minlash uchun milliy mafkura, axborot xavfsizligi va yoshlar ongini muhofaza qilish ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, maqola mafkuraviy poligonlarning strategik kuchini, ularning mamlakat qudratiga ta’sirini va O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan choralarni kengaytirilgan tahlil bilan yoritadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mafkuraviy poligonlarning strategik kuchini aniqlash uchun quyidagi metodlardan foydalandim:

Tizimli tahlil – globallashuv jarayoni va mafkuraviy poligonlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash. Mening nazarimda, bu metod mafkuraviy va harbiy ustunlikni solishtirish imkonini beradi.

Qiyosiy metod – yadroviy va mafkuraviy ta’sir mexanizmlarini tahlil qilish va ularning strategik natijalarini solishtirish. Fikrimcha, bu metod orqali mafkuraviy poligonlarning uzoq muddatli ijtimoiy ta’siri aniqlanadi.

Konseptual tahlil – J.Nayning “yumshoq kuch” konsepsiyasi, P.Pomeransevning posthaqiqat va axborot manipulyatsiyasi, shuningdek, kognitiv xavfsizlik tushunchalari o‘rganildi. O‘ylashimcha, bu konsepsiyalar mafkuraviy poligonlarning strategik qudratini tushuntirish uchun ilmiy baza beradi.

Normativ-huquqiy tahlil – O‘zbekiston tajribasi misolida milliy xavfsizlik va mafkuraviy immunitetni tartibga soluvchi qonun va normativ hujjatlar tahlil qilindi. Fikrimcha, mafkuraviy poligonlarni boshqarish siyosiy va huquqiy mexanizmlar bilan mustahkamlanadi.

Statistik va empirik ma’lumotlar tahlili – global internet foydalanuvchilari, ijtimoiy tarmoqlardagi axborot oqimi va kontent yetkazish tezligi o‘rganildi. Mening nazarimda, bu metod zamonaviy mafkuraviy kuchning samaradorligini aniq ko‘rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR. XXI asrda kuch tushunchasi tubdan o‘zgardi. Yadroviy poligonlar qisqa muddatli qo‘rqitish vositasi bo‘lsa, mafkuraviy poligonlar jamiyat ongini shakllantirib, uzoq muddatli strategik ustunlikni ta’minlaydi. 2023-yil holatiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha internet foydalanuvchilari 5,31 milliardni tashkil qiladi. Fikrimcha, bu global auditoriya mafkuraviy poligonning kuchini ko‘rsatadi. 2022–2023-yillarda ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan dezinformatsiya va soxta ma’lumotlar soni 120

milliondan oshgan. Mening nazarimda, posthaqiqat fenomeni mafkuraviy poligonning asosiy qudrat vositasidir. 2023-yil holatiga ko‘ra, dunyoda 4,7 milliard mobil foydalanuvchi mavjud, ularning 90% ijtimoiy tarmoqlarga ulangan.

O‘zbekistonda 2020–2023-yillarda 300dan ortiq maktab va oliy ta’lim muassasalarida axborot xavfsizligi va media savodxonlik darslari joriy etildi. Shuni hisobga olgan holda, demak, milliy-mafkuraviy immunitetni shakllantirish bo‘yicha muhim amaliy chora mavjud.

Fikrimcha, axborot tezligi va raqamli qamrov mafkuraviy poligonlarni strategik ustunlikka olib chiqadi. Posthaqiqat va dezinformatsiya mexanizmlari orqali jamiyat ongini shakllantirish uzoq muddatli barqaror strategik ustunlikni beradi. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ongini himoya qilish va ma’naviy immunitetni kuchaytirish milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

MUHOKAMA. Globallashuv jarayonida kuch tushunchasi tubdan o‘zgardi. O‘ylashimcha, davlatlar o‘rtasidagi raqobat bugungi kunda ong va axborot maydonida kechadi. Mafkuraviy poligonlar strategik ustunlikni uch asosiy mexanizm orqali ta’minlaydi: axborot tezligi, raqamli qamrov va psixologik ta’sir mexanizmi. Fikrimcha, posthaqiqat, dezinformatsiya va algoritmik boshqaruv orqali jamiyat ongini shakllantirish uzoq muddatli barqaror strategik ustunlikni beradi. Shuningdek, demak, mafkuraviy poligonning kuchi xalqaro siyosiy jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, milliy mafkuraviy barqarorlikni ta’minlash uchun axborot xavfsizligi, yoshlar ongini himoya qilish va ma’naviy immunitetni kuchaytirish ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda.

XULOSA. XXI asrda davlat kuchi va xavfsizligi nafaqat harbiy salohiyat bilan, balki mafkuraviy va axborot ustunligi bilan belgilanadi. Mening nazarimda: Yadroviy poligonlar qisqa muddatli qo‘rqitish vositasi, hududiy ustunlikni ta’minlaydi. Mafkuraviy poligonlar esa jamiyatning ichki tayanchini o‘zgartiradi, qadriyat va ongni shakllantiradi, demak uzoq muddatli strategik ustunlikni beradi. Fikrimcha, globallashuv sharoitida davlatlar o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun milliy mafkura, axborot suvereniteti va yoshlar ongini himoya qilishga alohida e’tibor qaratishlari lozim. Shuningdek, global axborot maydonida faol ishtirok etish va mafkuraviy poligonlarni samarali boshqarish XXI asr geosiyosiy ustunligining kaliti hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Huntington S.P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. — New York: Simon & Schuster, 1996. — 367 p.
2. Castells M. The Rise of the Network Society. — Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. — 597 p.
3. To‘raqulov B. Axborot xavfsizligi va mafkuraviy tahdidlar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. — 214 b.
4. Nye J. S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. — New York: PublicAffairs, 2004. — 191 p.
5. Jo‘rayev N. Milliy mafkura va globallashuv jarayonlari. — Toshkent: Akademnashr, 2015. — 240 b.
6. Statista. Internet Users Worldwide. — 2023. — URL: https://www.statista.com/statistics/617136/digital-population-worldwide
7. Pew Research Center. Digital Disinformation Report. — 2023. — URL: https://www.pewresearch.org
8. We Are Social. Global Digital 2023. — 2023. — URL: https://wearesocial.com

Qabul qilindi: 05.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK:37.013(22.123)

ERTA INSONIYAT TARIXI: ZHOUKOUDIAN, YANSHAO MADANIYATI VA LONGSHAN MADANIYATI MISOLIDA

Matyakubov Ikrom Botirovich,
"YANGI ASR" Universiteti "Umumta'lim fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

EARLY HUMAN HISTORY: A CASE STUDY OF ZHOUKOUDIAN, YANGSHAO CULTURE, AND LONGSHAN CULTURE

Matyakubov Ikrom Botirovich,
Lecturer, Department of General Education Subjects, "YANGI ASR" University

ikromatyakubov@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-1225-183X

РАННЯЯ ИСТОРИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА: НА ПРИМЕРЕ ЧЖОУКОУДЯНЯ, КУЛЬТУРЫ ЯНШАО И КУЛЬТУРЫ ЛУНШАНЬ

Матякубов Икром Ботирович,
преподаватель кафедры «Общеобразовательные дисциплины» Университета «YANGI ASR»

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Xitoy hududida insoniyatning eng qadimgi bosqichlari paleolit va neolit davrlari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida Zhoukoudian (周口店), Hetao tumani (河套地区), Yanshao madaniyati (仰韶文化) va Longshan madaniyati (龙山文化) arxeologik majmualari turadi. Maqolada "Sinantrop" (Peking odami), "Hetao odami" va "Shandingdong odami" qoldiqlari asosida inson evolyutsiyasining bosqichma-bosqich rivojlanishi yoritilgan. Shuningdek, tosh va suyak mehnat qurollari, sopol buyumlar, bezaklar hamda fol suyaklari kabi arxeologik topilmalar ibtidoiy jamiyatning xo'jalik faoliyati, ijtimoiy tuzilmasi va diniy tasavvurlarini tiklashda muhim manba sifatida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Paleolit davri, Neolit davri, Zhoukoudian (周口店), Sinantrop, Hetao, Shandingdong, Yanshao madaniyati (仰韶文化), Longshan madaniyati (龙山文化), ibtidoiy jamiyat, inson evolyutsiyasi, arxeologik topilmalar, qadimgi Xitoy mifologiyasi.*

Abstract: *This article analyzes the earliest stages of human history on the territory of China, focusing on the Paleolithic and Neolithic periods. The study centers on the archaeological complexes of Zhoukoudian (周口店), the Hetao region (河套地区), the Yanshao Culture (仰韶文化), and the Longshan Culture (龙山文化). Based on the remains of "Sinanthropus" (Peking Man), "Hetao Man," and "Shandingdong Man," the article highlights the step-by-step evolutionary development of early humans. The study also examines archaeological findings — stone and bone tools, ceramic artifacts, ornaments, and oracle bones — as important sources for reconstructing the economic activities, social structure, and religious beliefs of primitive society.*

Key words: *Paleolithic period, Neolithic period, Zhoukoudian (周口店), Sinanthropus, Hetao region, Shandingdong, Yanshao culture (仰韶文化), Longshan culture (龙山文化), primitive society, human evolution, archaeological findings, ancient Chinese mythology.*

Аннотация: *В данной статье анализируются древнейшие этапы истории человечества на территории Китая на примере палеолита и неолита. В центре исследования находятся археологические комплексы Джоукоудиан (周口店), Хетаоский регион (河套地区), культура Яншао (仰韶文化) и культура Луншань (龙山文化). На основе останков «синантропа» (пекинского человека), «человека Хэтао» и «человека из Шандиндуна» раскрывается поэтапное эволюционное развитие человека. Также анализируются археологические находки — каменные и костяные орудия труда, керамические изделия, украшения и гадательные кости — как важные источники реконструкции хозяйственной деятельности, социальной структуры и религиозных представлений первобытного общества.*

Ключевые слова: *Палеолит, неолит, Zhoukoudian (周口店), синантроп, Хэтао, Шандиндун, культура Яншао (仰韶文化), культура Луншань (龙山文化), первобытное общество, эволюция человека, археологические находки, древнекитайская мифология.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION). Insoniyat tarixining ilk bosqichlarini o‘rganish inson tafakkuri, mehnat faoliyati va ijtimoiy munosabatlarning shakllanish jarayonini anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Sharq sivilizatsiyasining qadimiy markazlaridan biri bo‘lgan Xitoy hududi bu borada noyob arxeologik yodgorliklarga boy bo‘lib, ular orqali ibtidoiy jamiyatdan ilk dehqonchilik va murakkab ijtimoiy tuzumlarga o‘tish jarayonini izchil kuzatish mumkin. Ayniqsa, Zhoukoudian yodgorligi, Yanshao va Longshan madaniyatlari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarini yoritib beruvchi muhim tarixiy-manbaviy asos hisoblanadi.

Zhoukoudian yodgorligi qadimgi odamlarning biologik va madaniy evolyutsiyasini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etib, bu hududdan topilgan arxeologik va paleoantropologik topilmalar ilk insonlarning yashash tarzi, mehnat qurollari va atrof-muhit bilan munosabatlarini ochib beradi. Yanshao madaniyati esa neolit davriga xos bo‘lgan dehqonchilik, sopol idishlar yasash va urug‘-qabila munosabatlarining rivojlanganligini ko‘rsatib, o‘troq hayot tarzining shakllanishini tasdiqlaydi. Longshan madaniyati esa ijtimoiy tabaqalanish, hunarmandchilikning yuksalishi va murakkab jamiyatga o‘tish jarayonlarini ifodalovchi muhim bosqich sifatida namoyon bo‘ladi [1].

Xitoy hududida insoniyat tarixi yuz minglab yillar avval boshlangan. Arxeologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qadimgi odamlar bu hududda Erta paleolit davridayoq yashaganlar. Pekindan janubi-g‘arbda joylashgan Chjoukoudian (Zhoukoudian 周口店) hududida 1927–1937-yillarda olib borilgan qazishmalar natijasida “Sinantrop” (Peking odami) qoldiqlari va uning madaniyatiga oid ko‘plab topilmalar aniqlangan. Bu topilmalar Xitoy hududida ibtidoiy odamlarning yashaganini, mehnat qurollari yasaganini va olovdan foydalanganini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Shuningdek, Ichki Mo‘g‘uliston va Xetao (Xuanxe daryosining katta burilishi) hududlarida topilgan “Hetao odami” qoldiqlari, shuningdek Chjoukoudian yaqinidagi Shandingdong g‘oridan topilgan “Shandingdong odami” suyaklari qadimgi odamlarning bosqichma-bosqich evolyutsion rivojlanishini ko‘rsatadi. Mazkur maqolaning maqsadi — Xitoy hududidagi paleolit va neolit davrlariga oid arxeologik topilmalarni tizimli ravishda tahlil qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayot va ibtidoiy jamoa tuzumining shakllanishidagi o‘rnini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДЫ/ LITERATURE REVIEW AND METHODS). Mazkur tadqiqotda arxeologiya, antropologiya va tarix fanlariga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Xususan, Chjoukoudian (Zhoukoudian 周口店) hududida olib borilgan qazishmalar, Xetao mintaqasidagi topilmalar hamda Yanshao (Yanshao 烟邵) va Longshan

TAMADDUN NURI

(Longshan 龙山) madaniyatlariga oid ilmiy tadqiqotlar asosiy manba sifatida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: Tarixiy-taqqoshlash metodi — turli davrlarga oid topilmalarni o‘zaro solishtirish; Arxeologik materiallarni tahlil qilish — tosh, suyak va sopol buyumlarning funksional va texnologik xususiyatlarini aniqlash; Madaniy-tipologik yondashuv — Yanshao va Longshan madaniyatlarining o‘ziga xos jihatlarini ajratish; Manbashunoslik tahlili — qadimgi Xitoy miflari va afsonalarini arxeologik dalillar bilan qiyoslash[1]. Mazkur metodlar orqali ibtidoiy jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari, xo‘jalik shakllari va ijtimoiy tuzilmasi qayta tiklandi[2].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/ DISCUSSION). Arxeologik topilmalar shuni ko‘rsatadiki, “Xitoy sinantropi” 500–600 ming yil avval yashagan bo‘lib, toshdan qo‘pol mehnat qurollari yasagan va olovdan foydalangan. Bu esa insoniyat taraqqiyotida muhim burilish nuqtasi hisoblanadi. Xetao hududida topilgan “Hetao odami” o‘rta paleolit davriga mansub bo‘lib, tosh parchalarga ishlov berish va retushlash texnikasini bilgan. Bu esa mehnat qurollari sifat jihatidan takomillashganini ko‘rsatadi. “Shandingdong odami” esa tashqi ko‘rinishiga ko‘ra zamonaviy odamga yaqin bo‘lgan. Uning suyak ignalar, munchoqlar va bezaklar yasay olgani ijtimoiy ong va estetik tafakkur rivojlanganidan dalolat beradi. Neolit davriga kelib esa xo‘jalik hayotida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Yanshao (Yanshao 烟邵) madaniyatiga mansub qizil sopol idishlar, sayqallangan tosh qurollar, chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishi o‘troq turmush tarzining shakllanganini ko‘rsatadi. Longshan (Longshan 龙山) madaniyatida qora sopol buyumlarning yuqori darajada nozik ishlanishi, fol suyaklarining mavjudligi diniy tasavvurlar va ijtimoiy murakkablashuv jarayonidan darak beradi [3]. Qadimgi miflar — Xuangdi (Huang Di 皇帝), Yao (Yao 药), Shun (Shun 顺) va boshqa afsonaviy shaxslar haqidagi rivoyatlar — qabila tuzumining shakllanishi, rahbarlarni saylash tartibi va qabila ittifoqlarining vujudga kelishi haqida tasavvur beradi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi: Xitoy hududida insoniyat tarixi kamida 500–600 ming yil avvalga borib taqaladi. Paleolit davridayoq mehnat qurollari va olovdan foydalanish amaliyoti mavjud bo‘lgan. O‘rta va so‘nggi paleolit davrlarida mehnat qurollari takomillashgan, bezak buyumlari paydo bo‘lgan. Neolit davrida chorvachilik va dehqonchilik shakllanib, o‘troq hayot tarziga o‘tilgan. Yanshao va Longshan madaniyatlari ibtidoiy jamoa tuzumining murakkablashuvi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim bosqichlari bo‘lgan. Qadimgi miflar arxeologik topilmalarni qisman tasdiqlaydi va ijtimoiy tuzilma haqida qo‘shimcha ma’lumot beradi[4].

XULOSA (ВЫВОДЫ/ CONCLUSION). Xitoy hududida paleolit va neolit davrlariga oid arxeologik topilmalar insoniyat taraqqiyotining muhim bosqichlarini yoritadi. “Sinantrop”, “Hetao odami” va “Shandingdong odami” qoldiqlari inson evolyutsiyasining izchil jarayonini ko‘rsatadi. Yanshao va Longshan madaniyatlari esa ibtidoiy jamoa tuzumidan o‘troq xo‘jalikka o‘tish, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va ijtimoiy tashkilotning murakkablashuvini tasdiqlaydi. Shunday qilib, arxeologik va mifologik manbalar uyg‘unligi asosida Xitoy hududida ibtidoiy jamiyatning uzoq davom etgan evolyutsion rivojlanish jarayoni ilmiy jihatdan asoslab berildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ/ REFERENCES):

1. Chang K. C. The Archaeology of Ancient China. – New Haven: Yale University Press, 1986. – 480 p.
2. Li X., Zhu Y. Early Human Evolution in China. – Beijing: Beijing University Press, 2010. – 356 p.
3. Underhill A. P. Craft Production and Social Change in Northern China. – New York: Springer, 2002. – 280 p.
4. Wu R. Zhoukoudian and Early Human Culture. – Beijing: Chinese Academy of Sciences Press, 1999. – 312 p.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 94(575.1)(092)

Ilmiy rahbar: Shoira Nurullayeva, tarix fanlari nomzodi, dotsent

ABU RAYHON BERUNIY HAQIDA

Fayzullayeva Gulrux Uchqunovna, UrDU Filologiya va san'at fakulteti talabasi

ABOUT ABU RAYKHON BERUNI

Fayzullayeva Gulrukh Uchqunovna, student of the Faculty of Philology and Arts, UrSU

ОБ АБУ РАЙХОН БЕРУНИ

Файзуллаева Гульрух Учкуновна, студентка факультета Филологии и искусства УрГУ

https://orcid.org/0009000123567259
e-mail: gulruxfayzullayeva57@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkiri "X asrning eng buyuk olimi" deya e'tirof etilgan Abu Rayhon Beruniyning jahon ilm-fan rivojiga qo'shgan beqiyos hissasi va uning zamonaviy fan uchun dolzarbligi tahlil qilinadi. Beruniyning o'rta arslar sxolastikasidan voz kechgan holda, "Tajriba – eng oliy hakam" tamoyiliga asoslangan obyektiv ilmiy metodologiyasi tadqiqotning markaziy yo'nalishini tashkil etadi. Tadqiqotda olimning "Hindiston", "Qonuni Mas'udiy", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va "Saydana" kabi fundamental asarlaridagi ilmiy yangiliklar zamonaviy fanning rivojlanish bosqichi bilan qiyoslanadi. Xususan, Beruniyning Yer kurrasining radiusini o'lchashdagi (Nandana qal'asi yaqinidagi hisob-kitoblar natijasida 6333 km ko'rsatkichga erishgan) va turli moddalarning solishtirma og'irligini aniqlashdagi mislsiz aniqligi dalillanadi.*

Kalit so'zlar: *Beruniy, astranomiya, geodeziya, qomusiy olim, O'rta Osiyo, trigonometriya, "Qonuni Mas'udiy", ilmiy metodologiya.*

Abstract: *This article analyzes the incomparable contribution of Abu Rayhan al-Biruni, a great thinker of Central Asia and recognized as the "greatest scientist of the 10 the century", to the development of world science. The central focus of the research is Biruni's objective and purely scientific methodology, which abandoned medieval scholasticism in favor of the principle that "experience is the ultimate judge".*

The study compares scientific innovations in the scholar's fundamental works, such as "India", "Al-Qanun al-Mas'udi", "The Remaining Sings of Past Generations" and "Saydana" with the development stages of modern science. Specifically, it substantiates Biruni's unparalleled accuracy in measuring the Earth's radius (achieving a result of 6333 km near the Nandana fortress) and determining the specific gravity of various substances.

Keywords: *Al-Biruni, astronomy, geodesy, encyclopedist, Central Asia, trigonometry, "Qanuni Mas'udi", scientific methodology.*

KIRISH. Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048) insoniyat tarixdagi eng buyuk ensiklopedist olimlardan biri bo'lib, u yashagan davr haqli ravishda "Sharq Uyg'onish davri" deb ataladi. Beruniyning ilmiy qiziqishlari doirasi hayratlanarli darajada keng bo'lib, u nafaqat tabiiy fanlar, balki gumanitar sohalarda ham inqilobiy yangiliklar yaratgan.

Olimning ilmiy merosi 150dan ortiq asarlarni o'z ichiga oladi, ulardan bizgacha 30ga

yaqini yetib kelgan bo‘lsa-da, bu asarlar o‘z davri uchun ham, hozirgi zamon fani uchun ham metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Beruniyning fanga bo‘lgan yondashuvi “Tajriba – eng oliy hakam” tamoyiliga asoslangan bo‘lib, u o‘rta asrlar sxolastikasidan voz kechgan holda, obyektiv voqelikni matematik hisob-kitoblar va kuzatuvlar orqali isbotlashga intilgan[1,B.12]. Uning Yer radiusini o‘lchashdagi aniqligi, qit’alar dreyfi haqidagi bashoratlari va turli xalqlarning madaniyatini xolis o‘rganishi uni zamonaviy ilmiy tafakkurning kashshofiga aylantirdi.

Uning materiklar dreyfi va Amerikaning mavjudligi haqida bir necha asr oldin aytgan bashoratlari, shunidek, sferik trigonometriya va astronomiya sohasidagi kashfiyotlari zamonaviy giodeziya va navigatsiya tamoyillari bilan solishtirilgan. Beruniy nafaqat tabiiy fanlar, balki madaniyatshunoslik va etnografiya sohalarida ham yuksak insonparvarlik namunasini ko‘rsatgan. Olimning turli dinlar va madaniyatlarga bo‘lgan xolis munosabati bugungi globallashuv davrida madaniyatlararo muloqotlar uchun yorqin namunadir. Beruniyning matematik aniqligi geografik kuzatuvchanligi va ijtimoiy xolisligi har bir tadqiqotchi uchun o‘rnak bo‘lishi zarurligi xulosa qilinadi. Uning ilmiy merosi insoniyatning intellektual xazinasi sifdatida o‘rganilib, fanga bo‘lgan ishtiyoqni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Beruniy ijodini o‘rganishda bizga J.Sarton, I.Y.Krachkovskiy, H.M.Abdullayev va A.Axmedov kabi olimlarning tadqiqotlari uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi[2,B.45]. Xususan, J.Sarton Beruniyni “X asrning eng buyuk olimi” deb tan olgan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tarixiy tahlil va mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalaniladi. Beruniyning “Hindiston” asari madaniyatshunoslik va etnografiya nuqtayi nazaridan, “Qonuni Mas’udiy” esa matematik astronomiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Metodologik jihatdan, olimning matematik modellashtirish orqali geografik kengliklarni aniqlash usullari zamonaviy geodeziya tamoyillari bilan solishtiriladi. Shuningdek, Beruniyning “Farmakognoziya” asaridagi kimyoviy-biologik tasniflash tizimi o‘rganildi[3, B8.8].

Beruniy o‘z davri uchun juda aniq bo‘lgan o‘lchov usullarini qo‘llagan. Xususan, u Xorazmda 15 ziro‘lik (taxminan 7,5-8 metr) doira yordamida astronomik o‘lchashlarni amalga oshirgani, uning tajribaviy metodologiyasining naqadar yuksak bo‘lganini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Beruniyning ilmiy faoliyati natijalarini ko‘rib chiqishda uning astronomiya va geodeziyadagi aniq hisob-kitoblariga e’tibor qaratish lozim. U Hindistonning Nandana qal’asi yaqinida Yer kurrasining radiusini o‘lchab, 6333 km natijaga erishgan, bu esa hozirgi zamonaviy ko‘rsatkichlardan atigi 15-20 km ga farq qiladi [4, B.56].

1-jadval. Beruniy asarlarining asosiy yo‘nalishlari

Asar nomi	Asosiy yo‘nalishlar	Ahamiyati
“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”	Xronologiya va tarix	Taqvimlar va bayramlar tarixi
“Qonuni Mas’udiy”	Astronomiya, matematika	Trigonometriya va sferik astronomiya
“Hindiston”	Etnografiya, dinshunoslik	Hind madaniyatining xolis tahlili
“Saydana”	Tibbiyot va farmakognoziya	Dorivor o‘simliklar ensiklopediyasi

Olimning mineralogiya sohasidagi izlanishlari ham diqqatga sazovordir. U qattiq jismlarning solishtirma og‘irligini aniqlash bo‘yicha o‘ziga xos asbob ixtiro qilgan va hozirgi davr natijalariga juda yaqin ma’lumotlarni keltirgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Beruniy fizika, dinshunoslik va aynan matematikaning o‘ziga oid 22 ta fundamental asar yozib qoldirgan.

2-jadval. Beruniy tomonidan aniqlangan solishtirma og‘irliklar (Hozirgi natijalar bilan qiyos)

Modda nomi	Beruniy natijasi	Zamonaviy natija
Oltin	19.05	19.30
Simob	13.58	13.55
Mis	8.83	8.85
Temir	7.74	7.79

Ushbu natijalar Beruniyning naqadar aniq tajribachi bo‘lganligini ko‘rsatadi. Uning dunyo okeani va materiklar haqidagi qarashlari, xususan, Amerikaning mavjudligi haqidagi gipotezalari o‘z davridan bir necha asr oldinga ketgan edi [5,B.102].

XULOSA. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi insoniyatning intellektual xazinasi hisoblanadi. Uning fanga qo‘shgan hissasi shunchalik ko‘p qirraliki, u bitta maqola doirasiga sig‘maydi. Birinchidan, Beruniy dunyoviy fanlarni din va xurofotdan ajratib, sof ilmiy metodologiyani shakllantirdi. Ikkinchidan, u sferik trigonometriya va astronomiya sohalarida fundamental formulalarni yaratib, koinotni anglashda yangi ufqlar ochdi. Uchinchidan, uning turli dinlar va madaniyatlarga bo‘lgan bag‘rikeng munosabati bugungi globallashuv davrida madaniyatlararo muloqot uchun yorqin namunadir.

Beruniyning asarlari nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo ilmiy tafakkurini boyitdi. Olimning “Ilm – bu koinotdagi eng buyuk ne’mat” degan g‘oyasi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Uning merosini o‘rganish yosh avlodda fanga bo‘lgan ishtiyoqni oshirish bilan birga, milliy o‘zlikni anglash va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Beruniyning matematik aniqligi, geografik kuzatuvchanligi va ijtimoiy xolisligi har bir tadqiqotchi uchun o‘rnak bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, Beruniy nafaqat o‘z davrining farzandi, balki kelajak avlodlar uchun hamisha yo‘lchi yulduz bo‘lib qolaveradi. Uning xatolari (agar mavjud bo‘lsa) ham o‘sha davr imkoniyatlari doirasidagi izlanish natijasi bo‘lib, ilmiy jasorat namunasi sifatida baholanishi lozim [6, B. 210].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev H.M. Abu Rayhon Beruniy va uning ilmiy merosi – Toshkent: Fan, 1973. – 156 b.
2. Sarton J. Introduction to the History of Science – Baltimore Williams & Wilkins, 1927. – 450 p.
3. Axmedov A. Beruniyning astronomik qarashlari. – Samarqand: Universitet nashiriyoti, 2012. – 120 b.
4. Krachkovskiy I.Y. Arabskaya geograficheskaya literatura – Moskva: Vostochnaya literatura, 2004. – 600 s.
5. SaidovA. Beruniy va Amerika: Tarixiy haqiqat va taxminlar – Buxoro: Bilim, 2015. – 140 b.
6. Jabborov I. O‘zbekiston xalqlari etnografiyasi – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – 320 b.
7. Ш.Нуруллаева, М.Эгамберганова. Научное наследие Бируни. –Н., Сибак, 2013.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 821.512.133.09

BOBUR OBRAZINING DRAMATIK TASVIRIDAGI O‘ZIGA XOSLIK

Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon qizi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch dokotranti

THE SPECIFIC FEATURES OF THE DRAMATIC PORTRAYAL OF BABUR’S IMAGE

Usmanova Ziyodakhon Ilkhomjon qizi, Doctoral Researcher at Chirchik State Pedagogical University

СВОЕОБРАЗИЕ ДРАМАТИЧЕСКОГО ИЗОБРАЖЕНИЯ ОБРАЗА БАБУРА

Усманова Зиёдахон Илхомжон кызы, базовый докторант Чирчикского государственного педагогического университета

https://orcid.org/0009-0000-5485-5643
e-mail: usmanovaziyoda1991@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Xurshid Davron ijodida Bobur obrazining o‘rni, tarixiy asarlar va obraz yaratish mahorati, yozuvchi ijodida Bobur shaxsiyatiga yondashish, “Bobur shoh” asari misolida dramatik tasvir qonuniyatlari, qahramonlar portreti, xarakteri va ruhiyatini badiiy to‘qima tasviridan kelib chiqqan holda baholangan.*

Kalit so‘zlar: *drama, tasvir, fakt, tarixiy shaxs obrazi, badiiy to‘qima.*

Abstract: *This article examines the role of Babur in the works of Khurshid Davron, his mastery of historical fiction and imagery, his approach to Babur's personality, and the principles of dramatic imagery, using the example of “Babur shah”. The portrait, character, and psyche of the characters are assessed based on the artistic texture of the image.*

Keywords: *drama, image, fact, historical figure, artistic texture.*

Аннотация: *В статье рассматривается роль образа Бабура в творчестве Хуршида Даврона, мастерство создания исторических произведений и образов, подход к личности Бабура в творчестве писателя, законы драматического образа на примере произведения “Бабуршах”, портрет, характер и психика героев оцениваются на основе образа художественной фактуры.*

Ключевые слова: *драма, образ, факт, образ исторической личности, художественная фактура.*

KIRISH. Xurshid Davron ijodida Bobur obrazi avvalo lirik turdagi asarlarida bo‘y ko‘rsatgan bo‘lsa, keyinchalik ham bu obrazni tugal, mukammal holatga keltirish xayoli shoirni tark etmadi. Buyuk sarkarda, nodir iste’dod egasi, mehribon ota siymolarini o‘zida jam qilgan Bobur unga doimo ilhom bag‘ishladi. Xayolidagi “Bobur”ga har tomonlama ishlov berish natijasida shoir dramaturgiya sohasida shoh va shoir hayotining so‘nggi yillaridagi eng muhim hodisalarni yorituvchi sahna asarini yozishga bel bog‘ladi. Bunda, albatta, Bobur obrazining o‘zigacha bo‘lgan barcha badiiy talqinlarni sinchiklab o‘rgandi. Ularni takrorlamaslik uchun yangi ijodiy uslub va badiiy topilmalar yaratishga harakat qildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ma’lumki, Bobur obrazini zamonaviy adabiyotimizga Oybek domla olib kirdi. Sovet mafkurasi bir muncha yumshagan davrlarda Oybek Bobur va Temur haqida dostonlar yozishga kirishdi, afsuski, bu dostonlar nihoyasiga yetmay qoldi. Ammo har ikki tugallanmagan asar o‘zbek zamonaviy adabiyotida tarixiy shaxslarni badiiy talqin etish borasida yangi bir bosqichning boshlanganiga ishora edi.

Keyinchalik bu urinish B.Boyqobilovning “Kun va tun”, P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” va “Avlodlar dovoni” X.Sultonning “Saodat sohili”

asarlarida o‘z badiiy takomiliga yetdi. Bu asarlar turli janr va hajmlarda yaratilganiga qaramay, ularning mohiyatida tarixiy haqiqatni badiiy bo‘yoqlarda to‘la aks ettirishga qaratilgan ulug‘ maqsadning ustuvorligini unutmasligimiz kerak. Badiiy adabiyotimizdagi adabiy an’analar haqida mulohaza yuritgan adabiyotshunos olim N.Rahimjonov: “…hayotdagi o‘zgarishlar o‘z-o‘zicha janr tabiatiga yangiliklar olib kirmaydi. Hamma gap hayot materialining badiiy talqinida, shoirning ijodiy nuqtayi nazari, qanday yondashishi va qay yo‘sinda yoritishda shoirlarning g‘oyaviy-estetik maqsadi, ijodiy konsepsiyasi va poetik mahoratiga bog‘liq,”[4.201] ekanligini ta’kidlaydi. Ayni nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, Xurshid Davronning Bobur haqida har xil janrlarda yozgan asarlarning asl mohiyatida ham yaxlit shaxs siymosini yaratishga bo‘lgan ishtiyoq namoyon bo‘ladi. Ijodkorning bu boradagi eng yirik asarlari “Samarqand xayoli” nasriy asari va “Menkim, Bobur yoxud sog‘inch” deb nomlangan to‘qqiz ko‘rinishli dramasi hisoblanadi. Ijodkor o‘z asarlarida salaflarining tajribalarini ijodiy qayta ishlab, mavjud tarixiy faktlar va “Boburnoma” asariga tayangan holda Bobur shaxsining shu davrga qadar ochilmagan qirralariga e’tibor qaratadi.

MUHOKAMA. Hech kim Vatan hasratini Boburchalik tortgan emas, buni uning hasbi hol tarzidagi she’rlari, “Boburnoma”dagi iqrorlari ham ko‘rsatib turibdi. Xurshid Davron Bobur shaxsini gavdalantirishda aynan g‘urbat motiviga ko‘p murojaat qiladi. Dramaning imkoniyatlari makon va zamon jihatidan cheklanganligini hisobga olsak, dramaturg qahramonlar hayotining eng muhim jihatlarinigina sahnaga olib chiqadi, xolos. Bu o‘rinda personajlarning ruhiy olami, psixologiyasida kechayotgan o‘zgarishlar, ichki his-tuyg‘ular, tashqi olam bilan munosabatlari, atrofdagi voqealarga reaksiyasini tasvirlash muhimdir. Bobur hayotini chuqur o‘rgangan ijodkor uning g‘am-anduhlarini o‘z tanasida his qiladi. Asarda bu holat Bobur tilidan quyidagicha bayon etiladi:

BOBUR: – G‘urbat orzusiga itoat qilgan kezlarim yosh edim, g‘ayratli edim. Hindni olaman deb farzandimg‘a Hindol deb nom berdim. Qilichim zo‘ri bila Hindni fath etdim, quvg‘indilarg‘a Vatan beray dedim-u… ammo… ammo mana, umrimning xazon faslida angladimki, ularga Vatan emas, boshpana bergan ekanman… Vatan o‘sha yoqda qolgan ekan.

Bu suhbatda ikki zid qutb – orzu va armon – ikkiligi o‘quvchi e’tiborini tortadi. Bobur farzandiga orzularining nomini berdi – Hindol. Hindni fath etishga jazm etganida aslida bobomeros yerning bir qismini egallash, keyinchalik Amir Temur saltanatini qayta tiklash orzusi bor edi. Chunki Afg‘oniston va Hindiston bir vaqtlar Amir Temur saltanatining bir qismi edi. Faqat Bobur zamonasiga kelib mamlakat sarhadlari qisqarib Vatan deganda faqat Xuroson-u Movoraunnahr tushuniladigan bo‘ldi. Matndagi “quvg‘indi” va “boshpana” so‘zlari ham o‘zida ancha zalvorli yuk tashiydi. Quvg‘indi deganda Bobur nafaqat o‘ziga ergashib kelgan safdoshlari, balki oilasi: onasi, ayollari, farzandlari, barcha yaqinlarini nazarda tutmoqda. Shu jumladan o‘zining ham quvg‘indi ekanligi, Hindiston uning uchun haqiqiy Vatan bo‘lolmasligi, bu yer vaqtinchalik yashash uchun boshpana ekanligiga ishora qilmoqda.

Taqdir Boburni nafaqat vatangadolik, balki farzand dog‘i bilan ham sinadi. Bu hol ayniqsa yosh nobud bo‘lgan go‘daklarning onalarida chuqur iz qoldirdi. Dramadagi Olur mirzoning bevaqt vafotidan kuyingan Dildorbegimning ruhiy holati bunga yorqin misol bo‘la oladi:

– Hazratim, Olur mirzoni ko‘rmadingizmu? Bog‘ni aylanamen, qidiramen, topolmaymen… Yosh bola bir o‘zi qayga ketadi, axir? Siz shohsiz, amr qiling, bolamni topib kelsunlar. Men uning to‘niga mana bu tumorni taqib qo‘ymoqchimen… Bolamga ko‘z tegmasin… Hazrati Bahovuddin mozorlaridan olib kelmishlar bu tumorni taqib qo‘ymoqchimen…

Hindol qani? Hindol! Nega uni hazrati volidangizga berdingiz, hazratim? Men ne azob bila tug‘samu! Bolamni bor-yo‘g‘i uch kungina emizdimu, tortib oldingiz! Nega menga umr bo‘yi azob berasiz! Endi nega Olur mirzoni olib ketdilar?! [1.10]

Ayol uchun jamiyatda qanday mavqeni egallashidan qat’i nazar “ona” degan nom eng oliy maqomligicha qolaveradi. Ammo temuriy malikalarning ko‘pchiligi bir xil taqdirga ega. Farzandini dunyoga keltiradi, ammo uning tarbiyasi boshqa malika qo‘liga o‘tadi. “Boburnoma”da aynan Hindol mirzoning tug‘ilishi va uch kun so‘ngra “onasi olidan xohi va noxohi olib” bosh malikaning ixtiyoriga topshirilgani haqidagi tarixiy faktlarni uchratamiz. Bu ham Dildorbegimning ruhiy sajiyasi faqat Olur mirzo vafotidan so‘ng izdan

chiqmaganiga bir ishora bo‘la oladi. “Temuriylar orasida Bobur ayol zotiga yuksak insoniy munosabati bilan alohida ajralib turadi. Xotinlari, farzandlariga munosabatini boshqa sultonlar qarashlari bilan qiyoslaganda ham uning ayollarga ehtiromi, ularning izzat-ikromini joyiga qo‘ygani, imkon qadar jamiyatdagi mavqeyiga o‘sha davr mezoni bilan odilona baho berganini ko‘ramiz”[5.301]. Farzand dog‘ini ko‘rish hayotdagi eng murakkab sinovlardan biri hisoblanadi. Bu epizodda ana shu sinovdan kechayotgan bir onaning iztiorblari tasvirlangan. Dildorbegim farzandining o‘limini qabul qilishni xohlamaydi, aqlan idrok etsa-da, buning bir dahshatli tush bo‘lib qolishini istaydi. Shuning uchun ham Boburga shoh ekanligini eslatib: “Siz shohsiz, amr qiling, bolamni topib kelsunlar”, - deya yozg‘iradi. Taqdirga chora yo‘qligini anglagani holda tushib qolgan vaziyatida atrofdagilarni ayblaydi. Xuddi shu vaziyatni tanasida his qilgan otaning ruhiy holati dramada quyidagicha aks etadi:

BOBUR: - Ba’zan... Ba’zan dunyog‘a kelg‘onimdan ham pushaymonmen… Olur mirzo qazosi aniq bo‘lgan kechasi volidasi “Qarab turishga toqatim qolmadi”, deb bolani quchog‘imga qo‘yib, o‘zi yig‘lab tashqariga chiqdi. Qayta kirishga chiday olmay, bog‘ aylanib yig‘lab yurdi… Men bo‘lsam, mavlono… men bo‘lsam, o‘g‘lim yuziga termilib o‘tirishdan, butun sabablardan qo‘l tortib qazoni kutishdan boshqa chora topa olmadim, mavlono! [1.11]

Mamlakatning eng malakali tabiblariga ega bo‘lgan shohning taqdiri ilohiy oldida ojiz qolishi inson bolasining naqadar zaif mavjudot ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Tabiatan oilaning tayanchi va himoyachi sanalgan ota mavjud vaziyatda, shahzodaning o‘limi va malika Dildorbegimning telbanamo harakatlarida o‘zini aybdor his qiladi, chuqur pushaymonlik hissini tuyadi. Bobur qalbidagi bu yara hech qachon bitib ketmaydi, yillar o‘tgan sari chuqur tomir otib boraveradi. Tarixiy faktlarni badiiylashtirishda “…yolg‘iz tarixiy ma’lumotlar, voqea-hodisalardan boxabarlikning o‘zi yetishmas ekan, kamlik qilarkan. Buning uchun tarix tuyg‘usidan tashqari moziyga faylasuf nigohi bilan nazar tashlovchi mutafakkir ham bo‘lish kerak ekan...”[3.14] Xurshid Davron dramada Boburning faqat jang -u jadallarga to‘la hayotiga emas, oilaviy muammolari, oddiy inson sifatidagi iztiroblariga ham keng o‘rin beradi.

NATIJALAR. “Dramada asar dialog va monologlardan tashkil topib, muallif asardan “chetlashtiriladi”, ya’ni dramaturg o‘z so‘zidan mahrum qilinadi”[2.24]. Ammo ijodkor o‘zi aytmoqchi bo‘lgan barcha fikrlarni qahramon tiliga ko‘chiradi. Ayniqsa, asar ijodkor haqida yaratilgan bo‘lsa muallif va qahramon orasida yashirin bog‘ paydo bo‘ladi. Mazkur dramada ham dramaturg o‘quvchiga Bobur tilidan o‘zining ham hasratlarini, dardlarini yetkazadi. Asarni yaratishda tarixiy manbalar, qo‘lyozmalar, arxiv materiallari, Bobur haqidagi jahon hamda o‘zbek adabiyotida yaratilgan barcha badiiy asarlar va “Boburnoma” matnidan unumli foydalanadi. Chindan ham “Boburnoma” shu vaqtga qadar yozilgan memuarlar ichida eng ishonarlisi hisoblanadi. Birinchidan, muallif o‘zi haqida yozgani uchun voqea sodir bo‘lgan vaqtdagi ichki kechinmalari, ruhiy holati, o‘y-xayollarini yaxshi biladi. Ikkinchidan, asarda Bobur yutuqlari bir qatorda xatolarini ham ro‘y-rost yozgan. Uchinchidan, asarni o‘qish davomida Boburning so‘zga mas’uliyati, badiiy mahorati, bilimi va dunyoqarashi kabi ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

XULOSA. Tarixiy shaxslar haqida yaratilgan dramalarning eng muhim xususiyati shundaki, qahramonni qiynagan muammolar barcha davrlar uchun dolzarbdir. Qahramonni qiynagan muammolarning salmog‘i, qilgan ezgu amallari, yo‘l qo‘ygan xatolari o‘quvchi uchun oyna vazifasini o‘taydi. Tarixiy shaxs taqdiriga yondashuv esa ijodkorning novatorligi va ijodiy saviyasini belgilab beradigan asosiy mezonlardan sanaladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Davron X. Menkim Bobur yoxud sog‘inch. – B. – 10.
2. Эгри Л. Искусство драматургии. Творческая интерпретация человеческих мотивов. – Москва: Альпина нон-фикшн, 2020. – С.24.
3. Jabborov I. Abdulla Oripov she’riyatida shaxs konsepsiyasi va lirik qahramon masalasi: Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2008. – B. 14.
4. Rahimjonov N. Lirikada epik tasvir qirralari. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 1-jild. – T.: Fan, 1991. – B. 201.
5. Qudratullayev H. Bobur armoni. – T.: Sharq, 2009. – B. 301.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2028 UDK: 94 (575.1)

XORAZM VILOYATIDA IRRIGATSIYA SANOATI TARIXIDAN

Avazov Ozod Rajabbayevich, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Falsafa" kafedrasi katta o'qituvchisi

https://orcid.org/my-orcid?orcid=0002-0954-3154
e-mail: ozodavazov@gmail.com

FROM THE HISTORY OF THE IRRIGATION INDUSTRY IN THE KHORESM REGION

Avazov Ozod Rajabbayevich, senior lecturer of the Department of "Philosophy" of Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

ИЗ ИСТОРИИ ИРРИГАЦИОННОЙ ОТРАСЛИ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

Авазов Озод Раджаббаевич, старший преподаватель кафедры "Философия" Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazm viloyati sanoat tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari, hududni sanoatlashtirish jarayonidagi tarkibiy o'zgarishlar hamda qayta ishlash sanoatining hozirgi holati tahlil qilingan. Shuningdek, Tuyamo'yin suv ombori va Amudaryo suv resurslarining mintaqa iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan. Viloyat sanoatining agrar yo'nalishga ixtisoslashgani, ayniqsa paxta xomashyosini birlamchi qayta ishlash ustuvorligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Xorazm viloyati, sanoatlashtirish, tarkibiy o'zgarish, qayta ishlash sanoati, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, paxta tolasi, yuqori qo'shimcha qiymat, mehnat unumdorligi, irrigatsiya, suv resurslari, investitsiya, eksport salohiyati, raqobatbardoshlik.*

Abstract: *This article analyzes the prospects for the development of industrial sectors in the Khorezm region, structural changes in the process of industrialization of the region, and the current state of the processing industry. It also highlights the role of the Tuyamoyin reservoir and the Amudarya water resources in the economic development of the region. The specialization of the regional industry in the agricultural sector, especially the priority of primary processing of cotton raw materials, is justified.*

Keywords: *Khorezm region, industrialization, structural change, processing industry, light industry, food industry, cotton fiber, high added value, labor productivity, irrigation, water resources, investment, export potential, competitiveness.*

Аннотация: В данной статье анализируются перспективы развития промышленных секторов Хорезмской области, структурные изменения в процессе индустриализации региона и текущее состояние перерабатывающей промышленности. Также освещается роль Туямойинского водохранилища и водных ресурсов Амударьи в экономическом развитии региона. Обосновывается специализация региональной промышленности в агропромышленном секторе, особенно приоритет первичной переработки хлопкового сырья.

Ключевые слова: Хорезмская область, индустриализация, структурные изменения, перерабатывающая промышленность, легкая промышленность, пищевая промышленность,

хлопковое волокно, высокая добавленная стоимость, производительность труда, ирригация, водные ресурсы, инвестиции, экспортный потенциал, конкурентоспособность.

Kirish. Tuyamo‘yin suv ombori – Amudaryoning quyi oqimidagi Tuyamo‘yin tor darasida qurilgan yirik gidrotexnika inshooti. Daryo suvini irrigatsiya va energetika maqsadlarida mavsumiy rostlash uchun xizmat qiladi. Gidrouzel qurilishi 1970-yildan boshlangan. 1978-yilda 1-navbati va 1983-yilda to‘liq ishga tushirilgan. Umumiy hajmi 7800 mln m³ suv ombori 4ta — 1ta o‘zanli va chap sohildagi tabiiy chuqurliklarda barpo etilgan, suv uzatilib to‘ldiriladigan 3ta ombordan (Kaparas, Sultonsanjar, Qo‘shbuloq) iborat.

Gidrouzel Amudaryoning chap va o‘ng sohillariga suv chiqarishni ta’minlaydi. Tuyamo‘yin suv ombori to‘g‘onlari suvni damlab, sathini ko‘tarilishga olib keladi. Bunda yuqori va pastki byeflardagi eng katta farq 18–24 m ga yetib boradi. Sultonsanjar pastligini suv bilan to‘ldirish uchun Tuyamo‘yin gidrouzelidan g‘arb tomonga qarab 2,5 km uzunlikda sarfi 50 m³/sek bo‘lgan kanal qurilgan. Tuyamo‘yin suv ombori Tuyamo‘yin GESning barqaror ishlashini ta’minlaydi. Amudaryodan Tuyamo‘yin suv omboriga har yili oqib keladigan 200 mln t loyqa oqiziqlarni chiqarib yuboradigan inshootlar barpo etilgan.

O‘ng qirg‘oqda kema qatnovini ta’minlovchi 18x80 m o‘lchamdagi shlyuz qurilgan, uning yuk o‘tkazish qobiliyati 535 ming tonnani tashkil etadi. Tuyamo‘yin suv omborining qurilishi bilan Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘istonning To‘rtko‘l tumani hamda Turkmanistonning Toshhovuz viloyatida yangi yerlarni o‘zlashtirish, sug‘oriladigan yerlarning suv ta’minotini yaxshilash imkoniyati yaratildi. Gidrouzel zonasida daryoning o‘ng qirg‘og‘ida Paxtaarna, Qozoqyob, Beshtom, Nayman va Qizilqal’a, chap qirg‘og‘ida Toshsoqa, Qilichniyozboy, Qipchoq-Bo‘zsuv, Xorazm viloyatida Pitnakarna, Urgancharna va boshqa kanallarga suv chiqargichlar barpo etilgan.

Toshsoqa Xorazm viloyatidagi yirik sug‘orish kanali. Amudaryoning chap qirg‘og‘idan boshlanadi. Daryoda suvning ko‘p-kamligiga qarab suv 2 kanaldan: 1939-40 yillarda qurilgan Eski Toshsoqa (uz. 34 km; suv sarfi 285 m³/s) va 1964-yilda qurilgan Yangi Tuyamo‘yin (210m³/s ga mo‘ljallangan, amalda 90 m³ suv oladi) kanallari orqali olinadi. Eski Toshsoqa kanalining 34 km da qurilgan suvayirg‘ich bilan tugaydi. Bu yerdan respublikalararo Shovot (uz. 150 km, bosh qismida suv sarfi 125 m³/s), Polvon G‘azovot (uz. 31 km, suv sarfi 170 m³/s) va xo‘jaliklararo Xonqaarna kanali (uz. 24 km, suv sarfi 11 m³/s) boshlanadi. T. suvi bilan Xorazm viloyatining Xonqa, Urganch, Bog‘ot, Shovot tumanlaridagi 138,4 ming ga, Turkmanistonning Taxti tumanidagi 94,1 ming ga yer sug‘oriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda hududlarni sanoatlashtirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Xususan, Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qabul qilingan strategik hujjatlarda hududiy sanoatni modernizatsiya qilish, yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport salohiyatini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida sanoat tarmoqlarini chuqur qayta ishlash asosida rivojlantirish, hududiy sanoat zonalarini kengaytirish, mahalliy xomashyoni qayta ishlash darajasini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Ilmiy adabiyotlar va zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda quyidagi yo‘nalishlar dolzarb deb e’tirof etilmoqda:

-Sanoatni diversifikatsiya qilish – hudud iqtisodiyotining bir tarmoqqa qaramligini kamaytirish;

-Klaster tizimini rivojlantirish – ayniqsa paxta-to‘qimachilik klasterlari orqali xomashyoni chuqur qayta ishlash;

-Raqamlashtirish va innovatsiyalar – ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda Industry 4.0 elementlarini joriy etish;

-Eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish – tayyor mahsulot ulushini oshirish orqali valyuta tushumini ko‘paytirish;

-Yashil iqtisodiyot tamoyillari – resurs tejovchi va ekologik toza texnologiyalarni qo‘llash.

Hududiy rivojlanish bo‘yicha olib borilgan zamonaviy tadqiqotlarda Xorazm viloyati agrar ixtisoslashuvga ega hudud sifatida qayd etilib, sanoatni rivojlantirishda asosiy imkoniyat mahalliy qishloq xo‘jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi. Xususan, paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyati natijasida xomashyoni eksport qilishdan ko‘ra tayyor mahsulot ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorlikni bir necha barobarga oshirishi ilmiy asoslangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Xorazm viloyati sanoat tarmoqlarining rivojlanish tendensiyalari, tarkibiy o‘zgarishlari va qayta ishlash sanoatining samaradorligi kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy iqtisodiy tahlil usullari hamda hududiy rivojlanish konsepsiyalariga tayangan holda shakllantirildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Statistik tahlil usuli*:* Hududning sanoat ishlab chiqarish hajmi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsuloti, tarmoqlar ulushi, mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar tahlil qilindi. Dinamik qatorlar asosida o‘sish sur’atlari va tarkibiy siljishlar aniqlashtirildi.

2. Qiyosiy tahlil usuli: Viloyat ko‘rsatkichlari respublika o‘rtacha ko‘rsatkichlari hamda boshqa hududlar bilan solishtirildi. Bu usul hududning raqobat ustunliklari va mavjud muammolarini aniqlash imkonini berdi.

3. Tizimli va kompleks yondashuv: Sanoat tarmoqlari o‘zaro bog‘liqlikda, ya’ni xomashyo bazasi – qayta ishlash – tayyor mahsulot – realizatsiya zanjiri doirasida o‘rganildi. Ayniqsa paxta-to‘qimachilik yo‘nalishida qiymat zanjiri (value chain) tahlili qo‘llanildi.

4. Klaster va diversifikatsiya tahlili: Hududda shakllanayotgan sanoat klasterlari samaradorligi, xususan qishloq xo‘jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash darajasi baholandi. Sanoatning bir tarmoqqa qaramlik darajasi va diversifikatsiya imkoniyatlari o‘rganildi.

5. SWOT-tahlil: hudud sanoatining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda tashqi tahdidlar aniqlanib, strategik rivojlanish yo‘nalishlari belgilandi.

Tahlil va natijalar. Xorazm viloyati sanoat tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari, viloyatni sanoatlashtirishdagi tarkibiy o‘zgarishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirib o‘tiladi. Shuningdek, Xorazm viloyati sanoatining qayta ishlash tarmoqlarining joriy rivojlantirish holati hamda uni yanada takomillashtirish bo‘yicha tavsiya hamda takliflar beriladi. Xorazm viloyati sanoat salohiyatining rivojlanish darajasi kundan-kunga rivojlanib borayotgan hududlar sirasiga kiradi. Viloyatning sanoat tarmog‘ida asosan qishloq xo‘jalik xomashyosini birlamchi qayta ishlash, xususan paxta tozalash sanoati ustunlik qiladi.

Xorazm viloyatning sanoat ishlab chiqarish darajasi (aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi) Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatiga qaraganda yuqori hisoblanadi. Hududda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o‘rtacha respublika ko‘rsatkichiga nisbatan 2000-yildan buyon sezilarli darajda o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda. So‘nggi uch yilda mazkur ko‘rsatkichning o‘sishi kuzatilayotganini va ayni paytda uning hajmi respublikada salmoqli ulushga egaligini aytishimiz joizdir. Viloyatda sanoatning qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida keyingi yillarda ushbu sohada mehnat unumdorligi o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda. Viloyatda yengil sanoat, shu jumladan paxta tozalash va un-yorma sanoati mehnat unumdorligi nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan asosiy tarmoqlardir[2]. Xorazm viloyati sanoatida mehnat unumdorligi, Viloyat iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi asosiy tarmoq sifatida shakllanganligi tufayli mintaqa qishloq xo‘jaligi xomashyosiga boy, lekin tabiiy xomashyo bazasining nihoyatda cheklanganligi sanoatning qishloq xo‘jalik mahsulotlariga birlamchi ishlov berish, xususan yengil va oziq-ovqat tarmoqlariga ixtisoslashuviga sabab bo‘lgan.

Paxta xomashyosini birlamchi qayta ishlash ayni paytda yetakchi tarmoq hisoblanadi. Bundan tashqari viloyatda yengil va oziq-ovqat sanoatining bir qancha turlari, shuningdek qurilish materiallari va yog‘ochni qayta ishlash tarmoqlarining tez sur’atlarda rivojlanishi natijasida sanoatning YaIMdagi ulushi orta boshladi. Oziq-ovqat sanoatida viloyat shakar va alkogolsiz ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha

respublikada yuqori o‘rinni egallaydi. Bundan tashqari mamlakatda ishlab chiqarilayotgan paxta tolasining 8,2 foizi, o‘simlik yog‘ining 7,9 foizi, unning 6 foizi Xorazm viloyati hissasiga to‘gri keladi. Shunga qaramasdan, Xorazm viloyati iqtisodiyoti agrar sohaga yo‘naltirilgan mintaqalar tarkibida hisoblanadi.

Yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuv ko‘p jihatdan ushbu tarmoq umumiy ishlab chiqarish hajmining 85 foizini tashkil etadigan 12 ta yirik korxona faoliyatiga asoslangan. Mazkur korxonalardan 8 tasi paxtani birlamchi qayta ishlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, ushbu korxonalar tomonidan mahalliy paxta xomashyosining 75 foizdan ortig‘i qayta ishlanadi. Bu esa viloyat sanoat mahsulotlarining 30,1 foizini tashkil qiladi. Xorazm viloyatini sanoatlashtirishdagi tarkibiy o‘zgarishi shu o‘rinda qayd etish joizki, paxta tolasi viloyatda eksport qilinadigan asosiy mahsulot hisoblanadi. Bugungi kunda paxta tolasini qayta ishlash asosida viloyatda tayyor mahsulot sifatida tibbiyot binti va paxtasi, paypoqlar, erkaklar kostyumi, ayollar ko‘ylagi, yotoq anjomlari, erkaklar ichki kiyimlari kabi mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, natural shaklda ip-kalava va mato ishlab chiqarishning o‘sishi (5,5 marta) bilan birgalikda tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ham ijobiy tendensiyalar (2,5 marta) kuzatilmoqda. Bugungi kunda yengil sanoat mahsulotlariga talab ortib borayotganini, mintaqaning mahalliy ishlab chiqarish hisobiga ichki bozor talabi sezilarli darajada qondirilayotganini ta’kidlash mumkin. Oziq-ovqat sanoati viloyat sanoat mahsulotlari tarkibida o‘z ahamiyati bo‘yicha ikkinchi o‘rinni egallab, sanoat ishlab chiqarish umumiy hajmining 38,6 foizini tashkil etadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Xorazm viloyati sanoat tarmoqlari so‘nggi yillarda barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, ayniqsa yengil va oziq-ovqat sanoati hudud iqtisodiyotida yetakchi o‘rin tutadi. Viloyat sanoati asosan qishloq xo‘jaligi xomashyosini birlamchi qayta ishlashga ixtisoslashgan bo‘lib, paxta-to‘qimachilik yo‘nalishi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanilmayotgani, tayyor mahsulot ishlab chiqarish ulushining nisbatan pastligi hamda yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar hajmining yetarli darajada emasligi mavjud muammolar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Hududda sanoatning agrar yo‘nalishga qaramligi saqlanib qolayotgan bo‘lsa-da, qayta ishlash tarmoqlarini chuqurlashtirish va diversifikatsiya qilish uchun yetarli xomashyo va infratuzilma salohiyati mavjud.

Zamonaviy iqtisodiy siyosat, xususan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida belgilangan vazifalar hudud sanoatini yangi bosqichga olib chiqish uchun muhim institutsional asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. 2014-yil yuqori o‘sish sur’atlari bilan barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yo‘li bo‘ladi. Xalq so‘zi gazetasi. 2014-yil 18-yanvar, №13.
2. Sodiqov A.M. Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi. –T.: IFMR. 2015. – 34 b.
3. Sodiqov A.M. Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi. – T.: IFMR. 2015. – 35 b.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 902.34

SUYAK O‘YMAKORLIGI SAN’ATI VA TARIXI

Azodov Azad Omonboy o‘g‘li, Xorazm Ma’mun Akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limi kichik ilmiy xodimi

THE ART AND HISTORY OF BONE CARVING

Azodov Azad Omonboy ogli, junior research fellow, Department of Social and Humanitarian Sciences, Khorezm Mamun Academy

ИСКУССТВО И ИСТОРИЯ РЕЗЬБЫ ПО КОСТЯМ

Азодов Азад Омонбой оглы, младший научный сотрудник, отдел социальных и гуманитарных наук Хорезмской академии Мамуна

https://orcid.org/0009-0000-8837-5138
e-mail: azadazodov5@gmail.com

Annotatsiya: *Tariximizning ilk davrlarida ajdodlarimiz nima bilan shug‘ullanishgani, qanday kun kechirishgani, nima iste’mol qilishgani bugungi kunda qanchalik qiziqarli va dolzarb bo‘lsa suyak o‘ymakorligi ham shunday tarixini o‘rganish muhim bo‘lgan hunarmandchilikning tarmoqlaridan sanaladi. Buni dunyo bo‘ylab olib borilayotgan arxeologik ekspeditsiyalar davomida topilayotgan turli xil suyakdan yasalgan buyumlar ham taqozo qiladi.*

Maqolada suyak o‘ymakorligi san’atining vujudga kelish tarixi va uning taraqqiyot bosqichlari, texnologik usullari va badiiy-estetik ahamiyati tahlil qilinadi. Xomashyoni tanlash bosqichidan boshlab buyumni tayyorlash va undan foydalanish jarayonigacha bo‘lgan suyak o‘ymakorligi texnologik jarayonlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: *suyak o‘ymakorligi, homo, mezolit, neolit, garpun, pichoq, igna, suyak bigiz, Baraktom I, Berkut qal’a, Qo‘yqirilgan qal’a, Tagisken.*

Annotation: *What did our ancestors do in the early days of our history? How did they live? What did they eat? No matter how interesting and relevant it is today, bone carving is one of the branches of craftsmanship whose history is important to study. This is also required by the various bone objects found during archaeological expeditions around the world.*

The article analyzes the history of the emergence of the art of bone carving and its stages of development, technological methods and artistic and aesthetic significance. The technological processes of bone carving, from the stage of selecting raw materials to the process of preparing and using the object, are studied.

Key words: *bone carving, Homo, Mesolithic, Neolithic, harpoon, knife, needle, bone hook, Baraktom I, Berkut Kal’a, Koykirilgan Kal’a, Tagisken.*

Kirish. Suyak o‘ymakorligi katta yoki kichik hayvon suyaklari, shoxlari hamda tishlarini maxsus asboblar yordamida kesish, yo‘nish, o‘yish va bezash orqali turli buyumlar tayyorlash san’ati va hunarmandchilik turidir.

Suyak o‘ymakorligi san’ati ming yillar davomida taraqqiy qilib kelayotgan hunarmandchilik san’atining noyob sohalaridan hisoblanadi. Bu sohaning tarixi insoniyatning ibtidoiy davrlari bilan bog‘liq. Qadimgi tosh davrlaridan odamzodning ilk ajdodlari tomonidan foydalanila boshlangan. Bu sohadan avvalo shimol xalqlari foydalangan. Buning asosiy sababi qilib ularning asosan ko‘chmanchi chorvadorlar ekanligini ko‘rsatish mumkin.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ayrim hududlarda qadimgi hunarmandchilik ishlab chiqarishini o‘rganish hunarmandchilikning o‘ziga

oid masalalardan ancha keng doiradagi muammolarni hal etishga xizmat qiladigan ma’lumotlarni olish imkonini beradi.

Tosh asrining yuqori bosqichiga kelib hozirgi zamon odam qiyofasi shakllandi, odamlar tabiiy g‘orlarni o‘zlashtira boshladilar, hayvonlar terisidan kiyimlar tayyorladilar. Ular endilikda toshdan tashqari suyak, yog‘ochdan o‘zlari uchun kerakli buyumlarni yarata boshladilar [Н.У.Абдуллаев, 2007,5 bet].

Germaniya, Fransiya, Rosssiya va Yaqin Sharqdagi topilmalar suyak o‘ymakorligini paleolit davrlariga borib taqalishini aniqlashtiradi. Keyingi mezolit va neolit davrlarida ham bu soha to‘xtab qolmay tarqqiy qildi. Dastavval homo(ilk ajdodlarimiz)lar tomonidan hayvon suyaklari qo‘pol usulda ishlov berilgan bo‘lib, ular asosan pichoq, igna, garpun, o‘q uchlari uchun o‘tkir uch, nayzalar uchun uch hamda turli xil mehnat qurollari tayyorlangan. Davrlar mobaynida takomillashgan sohada keyinchalik turli xil musiqa asboblari, haykaltaroshlik buyumlari, kiyim-kechak tayyorlashda bezaklar, munchoqlar ham tayyorlashgan.

Ibtidoiy odamlar o‘z mehnat va ov qurollariga, kundalik turmushda ishlatadigan buyumlarga turli belgi va chiziqlar chizib ularni go‘zalligini orttira boshladilar, o‘zlari uchun bezak-taqinchoqlar yaratishga harakat qilganlar. Obishir (Farg‘ona), Machoy g‘ori (Boysun)dan topilgan suyak bigizlar, turli taqinchoq-marjonlar, shuningdek, ayol haykallari shu davr kishilarining “nafosati” dalilidir. Tosh asrining dastlabki rasmlari qoya tosh yuzalari, g‘or devor va shiftlariga, suyak yuzalariga ishlangan. Ularda turli hayvon va qushlar tasviri aks ettirilgan. O‘zbekiston hududida shunday tasvirlar Toshkent, Surxondaryo, Farg‘ona, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida saqlanib qolgan. Tasvirlar chaqa qilish (ya’ni qattiq tosh bilan urib yuzada chuqurchalar hosil qilish), qattiq qurol bilan yuzani tirnash yoki chizish yo‘li yoki tabiiy bo‘yoqlar (rangli tuproqlar)ni mol yog‘i bilan aralashtirish asosida yuzalarga rasmlar ishlangan [Н.У.Абдуллаев, 2007,6 bet].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Tadqiqotchilarning fikricha, bu soha asosan shimol xalqlariga tegishli. Suyak o‘ymakorligi tarixini o‘rganayotgan Natalia Libakova va Yekaterina Sertakovalar ham shimoliy etnik guruhlar vakillari hayvon terisidan kiyimlar yasab, uni bezaklar va munchoqlar bilan bezab, naqshli uy-ro‘zg‘or buyumlari uchun yog‘och o‘yib ishlaganlar va ular, ayniqsa, suyak o‘ymakorligida mohir bo‘lishgan. Shuning uchun deyarli barcha erkaklar –ovchilar, baliqchilar va chorvadorlar bo‘sh vaqtlarida yoki yomon ob-havoda o‘ymakorlik bilan shug‘ullanishgan [Natalia M.Libakova va Yekaterina Sertakova,2015,750-768].

G.A.Xlopachev, J.B.Shetler, U.Popova, I.N.Uxanova, V.A.Subbotina, S.V.Rogachev, V.X Ivanov, V.G.Zavarzina kabi rus tadqiqotchilari va boshqa ko‘plab tadqiqotchilar san’at va hunarmandchilik, xususan, o‘ymakor suyakdan yasalgan buyumlar xalqning dunyoqarashini aks ettiradi, bu ularning mavjudlik tomoyillari uchun muhimdir, deb hisoblashadi. San’at va hunarmandchilik asarlari nafaqat oldingi avlodlarning ma’naviy tajribasini saqlaydi, balki etnosning jamoaviy va genetik bo‘lmagan xotirasini ham o‘zida mujassam etadi.

Insoniyat tarxidagi o‘zlaridan go‘zal va hashamatli madaniyatni yaratgan “Ellin madaniyati”da ham aynan suyak o‘ymakorligi rivojlanishining eng yuqori cho‘qqisida bo‘lgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu madaniyatga tegishli uy qoldiqlari ochib o‘rganilganda suyakdan qoshiqcha, to‘nog‘ich, parfyumeriya asboblari va shunga o‘xshash buyumlarning aylanasimon, zigzag shaklli, to‘lqinsimon tasvirlar o‘yilgan va kichkina teshikchalar ham hosil qilingan. Shuning bilan bu buyumlar yaxshi silliqlangan, bu esa buyumlarning sifatini ko‘rsatib beradi. [В.Ф.Гайдукевич. Ленинград-1987г. С.126].

O‘rta asrlar jamiyatida suyakdan yasalgan buyumlar xomashyoning keng tarqalganligi va ishlov berish jarayonining nisbatan osonligi tufayli maishiy anjomlar sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Tayyorlangan buyumlarning keng ko‘lami xomashyoning moslashuvchanligini tasdiqlaydi: oshxona anjomlari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, dehqonchilik qurollari hamda qurollar shular jumlasidandir.



1-rasm. Ural hududidan topilgan materiallar

XIX-XX asrlardan jahonda o‘tkazila boshlangan tadqiqotlar, jumladan, O‘rta Osiyoni o‘rgangan S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tomonidan o‘rganilgan yodgorliklar materiallari orasidan ham yuqorida ta’kidlangan buyumlardan namunalar mavjud. Bunday topilmalarni o‘rganish jarayonida mahsulotlarning qaysi sohalar uchun yasalgani, qanday usulda tayyorlangani, hunarmand buyumni yasashdan maqsadi, qaysi hayvonga tegishli suyak ekani va albatta bu bilan xo‘jalikda qanday hayvonlarning parvarishlangani oydinlashadi. Quyi Mozordan topilgan suyak plastinkasiga ishlangan rasmlar yuzasiga o‘tkir nayzali qurollar bilan chizib (o‘yib)ishlangan.

2-rasm. Suyak plastinkalar



Bu soha bilan bizning ajdodlarimiz ham shug‘ullanib kelishgan, buni esa S.P.Tolstov guruhi tomonidan Baraktom I, Berkut qal’a[MXE1, 1959.90-92,113-117b], Qo‘yqirilgan qal’a[MXE4,1960.13b], Tagisken[MXE5,961.47b] kabi yodgorliklarda aniqlangan suyak buyumlar ham ajdodlarimizning suyak o‘ymakorligida mohir bo‘lganliklarini ko‘rsatadi.

Natija. Suyakka ishlov berish jarayoni bir necha bosqichdan iborat bo‘lib, xomashyoni tanlash, dastlabki shakllantirish, o‘yish, teshish va silliqlash kabi amallarni o‘z ichiga oladi. Arxeologik tadqiqotlarda bu jarayonlar buyum yuzasida saqlanib qolgan izlar orqali aniqlanadi. Tadqiqotning kompleks xarakteri buyumlar (suyak o‘ymakorligining moddiy dalillari) va jarayonlarni (suyak o‘ymakorligini kundalik turmush tizimining bir qismi sifatida o‘rganish) har tomonlama tadqiq etishni nazarda tutadi. Suyak o‘ymakorligida materiallarni o‘rganishda hozirgi kundagi asosiy tadqiqot usullari yordamida amalga oshirildi. Bular qatoriga **umummilmiy usullar** (tahlil, sintez, sabab–oqibat aloqalarini aniqlash va boshqalar), arxeologiyaning **an’anaviy usullari** (tipologiya va tasniflash, miqdoriy tahlil, kartografiya, analogiyalar usuli va boshqalar), **paleoosteologik tahlili** (suyakning qaysi hayvon yoki qush turiga mansubligini aniqlash hamda muayyan hayvon suyak materialining xususiyatlarini o‘rganish), **izlar bo‘yicha tadqiqot usuli** (suyak o‘ymakorligi buyumlarini tayyorlash jarayonining bosqichlarini izlar orqali aniqlash), **eksperimental usullar** (olingan xulosalarni tasdiqlash maqsadida) va arxeologiya fanida qo‘llaniladigan **tabiiy-ilmiy usullar** kiradi. Suyakka ishlov berishning ham bir qancha turlari ma’lum bo‘lib, buyumlarning qaysi turga oid ekanini hamda, qanday usulda yaratilganini yuqorida sanab o‘tilgan tahlil usullari yordamida aniqlash mumkin.

Quyida ishlov berish texnikalaridan ba’zilari sanab o‘tilgan.

№	Ishlov berish turi	Ilmiy atamasi	Tavsif	Tayyorlangan buyumlar
I.	Qirqib shakllash	*Sectio / Incisio primaria*	Suyakni kesib birlamchi shaklga keltirish	Bigiz, igna, xanjar dastalari
II.	Chuqur o‘yma	*Caelatura profunda*	Yuzaga chuqur bezak va tasvirlar o‘yish	Tumorlar, marosim buyumlari
III.	Yuzaki o‘yma	*Incisio superficialis*	Sayoz geometrik yoki chiziqli naqshlar	Taroq, bezakli plastinalar
IV.	Teshib ishlash	*Perforatio*	Osma va bog‘lovchi buyumlar uchun teshish	Munchoq, kulon, tugmalar

V.	Silliqlash	*Politura*	Buyum yuzasini tekislash va sayqallash	Idish detallari, bezaklar
VI.	Bo‘rtma bezak	*Relief sculptura*	Suyak yuzasida bo‘rtma tasvir yaratish	Haykalchalar, diniy buyumlar
VII.	Aralash texnika	*Technica mixta*	Turli xil usulning ma’lum bir buyumda qo‘llanishi	Murakkab bezakli buyumlar

Xulosa. Suyakdan yasalgan buyumlar bir qator o‘ziga xos xususiyat va belgilarga ega bo‘lib, ularni nafaqat ma’lum bir davr odamlarining hayoti va kundalik faoliyatini tasvirlashda, balki fundamental tarixiy muammolarni hal etishda ham qimmatli manbaga aylantiradi. Jumladan, muayyan etnomadaniy muhitning shakllanishidagi tarixiy-genetik ildizlarni aniqlash, aholining mahalliy va etnik xususiyatlari, tabiiy-geografik makonni o‘zlashtirish jarayoniga bog‘liq holda etnik va madaniy jarayonlarning migratsiyasi hamda integratsiyasi, qadimgi jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi, yodgorliklarning xronologiyasini aniqlash kabi masalalar shular jumlasidandir. Bunday tadqiqotlar, ayniqsa, muayyan davrni tavsiflovchi yozma tarixiy manbalar mavjud bo‘lmagan va asosiy manbalar arxeologik tadqiqot materiallaridan iborat bo‘lgan hududlar uchun nihoyatda dolzarbdir. Asrlar davomida o‘yilgan suyak tasvirlari mavzulari etnik guruhlarning turmush tarzini, ularning e’tiqodlarini (animizm, shamanizm) va aholisining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirgan. Xorazm vohasi bo‘yicha suyak o‘ymakorligi buyumlarini kompleks tarzda tavsiflashga bag‘ishlangan alohida tadqiqot hozirgacha mavjud emas edi. Shu jihatdan ham bu yo‘nalish bo‘yicha tadqiqotlar dolzarbdir.

Arxeologik materiallar shuni ko‘rsatadiki, suyak buyumlar bir nechta asosiy maqsadlarda **xo‘jalik maqsadida** (igna, bigiz, pichoq dastalari),**marosim va diniy amaliyotda** (tumor, haykalcha, qurbonlik buyumlari), **bezak va estetik ehtiyojlar uchun** (munchoq, kulon, taroq), i**jtimoiy-ramziy ma’noda**gi (maqom va mavqeni bildiruvchi predmetlar) buyumlar sifatida ishlatilganligi bilan ham qadimgi jamiyatlarning moddiy va ma’naviy madaniyatini aks ettiruvchi muhim manbalar hisoblanadi. Texnologik tahlil asosida suyak buyumlarini tasniflash arxeologik yodgorliklarning xronologiyasi va madaniy aloqalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot suyak o‘ymakorligini mustaqil hunarmandchilik sohasi sifatida ilmiy jihatdan baholash imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Н.У.Абдуллаев. Ўзбекистон санъати тарихи. 2007. 5-bet.
2. Natalia M. Libakova and Ekaterina A. Sertakova. Formation of Ethnic Identiy of the Indigenous Peoples of the North in Arts and Crafts on the Example of Bone Carving. Journal of Siberian Federal University. Humanities & Social Sciences 4 (2015 8) 750-768.
3. В.Ф.Гайдукевич. Античные города боспора Мирмекий. Ленинград-1987г. С.126.
4. Материалы Хорезмской экспедиции (МХЕ). *Под общей редакцией, С.П.То летова.* Выпуск 1, 1959. Ст-90-92, 113-117.
5. Материалы Хорезмской экспедиции (МХЕ). *Под общей редакцией, С.П.То летова.* Выпуск 4, 1960. Ст-13.
6. Материалы Хорезмской экспедиции (МХЕ). *Под общей редакцией, С.П.То летова.* Выпуск 5, 1961. Ст-47.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 94 (575.1)

ЗАРЛЫК ИШАН-БАБА КАК АРХЕОЛОГИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК ПО ИСТОРИИ УРБАНИЗАЦИИ СРЕДНЕВЕКОВОГО ХОРЕЗМА

[1]Садуллаев Бахрам Пулатович, Хорезмская академия Мамуна, отдел социальных и гуманитарных наук, старший научный сотрудник (PhD), Хива, Узбекистан

[2]Azodov Azad Omonboy o‘g‘li, Хорезмская академия Мамуна, отдел социальных и гуманитарных наук, младший научный сотрудник, Хива, Узбекистан

https://orcid.org/0000-0001-9053-3385
e-mail: bakhram76@gmail.com

ZARLIQ ESHON BOBO O‘RTA ASR XORAZM URBANIZATSIYASI TARIXIGA OID ARXEOLOGIK MANBA SIFATIDA

[1]Sadullayev Baxram Pulatovich, Xorazm Ma’mun akademiyasi Ijtimoiy va gumanitar fanlar bo‘limi katta ilmiy xodimi, (PhD), Xiva, O‘zbekiston

[2]Azodov Azad Omonboy o‘g‘li, Ma’mun akademiyasi Ijtimoiy va gumanitar fanlar bo‘limi kichik ilmiy xodimi, Xiva, O‘zbekiston

ZARLYK ISHAN-BABA AS AN ARCHAEOLOGICAL SOURCE ON THE HISTORY OF URBANIZATION IN MEDIEVAL KHOREZM

[1]Bakhram Pulatovich Sadullayev, Khorezm Mamun Academy, Department of Social and Humanitarian Sciences, Senior Researcher (PhD), Khiva, Uzbekistan

[2]Azod Azodov Omonboy ogli, Khorezm Mamun Academy, Department of Social and Humanitarian Sciences, Junior Researcher, Khiva, Uzbekistan

https://orcid.org/0009-0000-8837-5138
e-mail: azadazodov5@gmail.com

Аннотация: *В статье рассматриваются результаты археологических исследований городища Зарлык Ишан-Баба, расположенного в южной части Хорезма. В ходе полевых работ были изучены особенности планировки и фортификационной системы памятника, стратиграфия культурного слоя и характер материальных находок. Полученные данные позволяют отнести городище к числу значимых центров сельской урбанизации средневекового Хорезма. Анализ строительных остатков и керамического комплекса свидетельствует о тесных связях поселения с другими пунктами региона и о его участии в процессах хозяйственного и культурного развития эпохи. Материалы исследования существенно дополняют представления о формировании сети средневековых поселений Южного Хорезма и служат важным археологическим источником для изучения урбанистических процессов региона.*

Ключевые слова: *Хорезм, Зарлык Ишан-Баба, археология, городище, урбанизация, средневековье, материальная культура, стратиграфия, фортификация.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Xorazmning janubiy qismida joylashgan Zarliq Eshon Bobo yodgorligining arxeologik tadqiqot natijalari tahlil qilinadi. Dala tadqiqotlari davomida yodgorlikning rejalashtirish xususiyatlari va mudofaa tizimi, madaniy qatlam stratigrafiyasi hamda moddiy topilmalar xarakteri o‘rganildi. Olingan ma’lumotlar ushbu shaharni o‘rta asr Xorazmining qishloq urbanizatsiyasi jarayonidagi muhim markazlardan biri sifatida baholash imkonini beradi. Qurilish qoldiqlari va sopol*

majmuasining tahlili shahar boshqa mintaqaviy markazlar bilan yaqin aloqada bo‘lganini hamda iqtisodiy va madaniy taraqqiyot jarayonlarida faol ishtirok etganini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari Janubiy Xorazmning o‘rta asr manzilgohlari tizimining shakllanishi haqidagi tasavvurlarni sezilarli darajada boyitadi va mintaqadagi urbanistik jarayonlarni o‘rganishda muhim arxeologik manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Xorazm, Zarliq Eshon Bobo, arxeologiya, shahar, urbanizatsiya, o‘rta asrlar, moddiy madaniyat, stratigrafiya, fortifikatsiya.*

Abstract: *The article presents the results of archaeological research at the Zarlyk Ishan-Baba site, located in the southern part of Khorezm. Excavations revealed the settlement's layout, fortification system, cultural layer stratigraphy, and material assemblages. The obtained data indicate that Zarlyk Ishan-Baba was one of the key centers of rural urbanization in medieval Khorezm. The analysis of architectural remains, ceramics, and small finds demonstrates the site's involvement in the economic and cultural life of the region. The materials significantly contribute to understanding the processes of urbanization and socio-economic development in medieval Khorezm.*

Keywords: *Khorezm, Zarlyk Ishan-Baba, archaeology, settlement, urbanization, Middle Ages, material culture, stratigraphy, fortifications.*

Введение. Городище Зарлык Ишан-Баба расположено на территории Кошкупирского района, в 11 км к юго-западу от Ургенча (Хорезмская область, Республика Узбекистан). Памятник впервые был обследован в 1973–1974 гг. сотрудниками Каракалпакского отделения Института истории, археологии и этнографии АН РУз под руководством М.Мамбетуллаева в рамках составления археологической карты Хорезмской области. Тогда был заложен стратиграфический шурф и снят топографический план. По результатам первоначальных работ городище было датировано VII–VIII и X–XIV вв. н.э. (3; 4).

М.Мамбетуллаев отождествил Зарлык Ишан-Баба со средневековым поселением Азрак, упомянутым в источниках Казвини, который помещает его между Хазараспом и Ардахушмитаном (3,с.72-77;5,с.511). Анализ географического положения позволяет подтвердить обоснованность данной идентификации.

Целью современных исследований являлось определение хронологии, этапов строительства оборонительных стен и уточнение характера застройки.

Материалы и методы. Полевые работы проводились в 2009-2011 годах (Рис.1). Были заложены:

-Траншея (№1) на северо-западной стене для изучения конструкции и датировки оборонительных сооружений;

-Раскоп (№1) на западном углу для выявления формы угловой башни;

-Шурф (№2) в центральной части городища с целью изучения стратиграфии культурного слоя. Методы включали стратиграфические раскопки с выделением ярусов по 0,5 м, фиксацию культурных слоев, отбор керамического материала, фотографирование и графическую документацию (планы, разрезы).

Результатыю. *Планировка и фортификация***.** Городище имеет подпрямоугольную форму (207×239 м), ориентировано по сторонам света. Вал крепостных стен высотой 2–3 м и шириной 8–10 м был усилен угловыми и промежуточными башнями (по четыре на каждой стороне). Въезд расположен в центре юго-западной стены. На северо-востоке выделяется цитадель (60×70 м, высотой до 2,7 м). Памятник окружён рвом, ныне превращённым в дренажный коллектор.



Рис.1. Общий вид на городища Зарлык Ишан-баба. Объекты исследования. Траншея №1

В 250 м к северо-востоку находится высокий вал длиной 300 м, шириной 20-24 м и высотой до 7 м, ныне занят останками поздних погребений, среди местного населения известен как кладбище «Нурджан Батыр». В северо-западной стене на расстоянии 50 м от угла была заложена траншея длиной 13 м, шириной 2 м и глубиной 3,56 м. Из-за уровня грунтовых вод материк не достигнут. Раскопки велись по ярусам в 0,5 м каждый (Расчёт снизу вверх).

Выделено более 20 культурных слоев. Нижние горизонты которой представляют пахсу коричневого цвета с зеленоватым оттенком, служившей платформой под стену. В верхних слоях (под слоем №8) выявлены участки кладки из сырцового кирпича (37×37×10 см).

На III и IV ярусе выявлена жилая поверхность, представляющая собой зеленый, сильно утоптанный (сл. №27; кв. E, F) слой с прослойками угля (сл. №28; кв. E) толщиной 4-8 см. Этот слой указывает на то, что оборонительная стена через некоторое время (IX в) потеряет свое функциональное назначение и будет использоваться под жильё. На этом уровне обнаружены 2 ямы (в конце III и IV яруса) хозяйственного характера, где зафиксированы фрагменты сосудов, стекла и угольки относящиеся к IX–XI вв. В одном из горизонтов выявлена кладка внутренней стены из сырцовых кирпичей (32×32×5 см) — вероятно, остатки жилого помещения.

Верхний горизонт слоев толщиной более 1 метра были образованы в результате поздних погребений и уничтожили оборонительную стену городища. Во время раскопок было обнаружено несколько погребений позднего времени (6, с.113-118).

Раскоп I (угловая башня). В ходе полевых исследований основное внимание было сосредоточено на выявлении формы западной угловой башни оборонительной стены городища и определении времени её строительства. С этой целью на западном углу памятника была проведена зачистка поверхности в пределах предполагаемого расположения башни.

В результате зачистки удалось выявить контуры башни и место её стыковки с основной линией оборонительной стены. Работы охватили около одной трети площади башни – с западной и южной сторон. Установлено, что башня имела вытянуто-овальную форму. Верхняя отметка сохранившейся части сооружения от уровня грунтовых вод составляет 4,5 м.

Следует отметить, что верхние горизонты башни (около 2 м) оказались нарушены поздними мусульманскими погребениями, что затрудняло проведение раскопок. На выступе башни зафиксирована гумусированная яма средневекового времени, заполнение которой содержало керамический материал, датируемый XI–XII вв. Среди находок преобладает сероглиняная керамика — горшки, кувшины и миски, встречаются также фрагменты мелкой глазурованной посуды. Аналогичные типы керамики известны по материалам из городских центров Хорезма XI–XII вв., что позволяет уверенно отнести данный комплекс к этому периоду.

Полученные данные позволяют предположить, что башня была возведена из пахсы значительно раньше указанного времени, вероятно, в раннесредневековый период. В последующие столетия, в развитом средневековье, оборонительная система утратила своё первоначальное значение, на что указывает наличие хозяйственной ямы, перекрывающей конструкцию башни (7, с.66-90).

Шурф II. В центральной, пониженной части городища Зарлык Ишан-баба был заложен разведочный шурф размером 1,5 × 1,5 м (Ш. №2). Работы доведены до материка на глубину 1,5 м.

Верхний, I ярус представлен поверхностным серым слоем под дерном, содержащим значительное количество солей. Ниже, во II–III ярусах, зафиксирован коричневый слой с зелёными оттенками. Под утоптанным коричневым горизонтом III яруса прослеживается серо-коричневый слой, перекрывающий материковый песчаный слой.

Архитектурные остатки в пределах шурфа не обнаружены, что позволяет предположить, что данная часть городища относилась к хозяйственному двору или незастроенному участку внутригородского

TAMADDUN NURI

пространства. На основании керамического материала можно заключить, что данный участок городища функционировал преимущественно в IX–XI вв (7, с.66-90).

Материалы, полученные при раскопках, позволяет выделить три хронологических этапа существования памятника.

Первая группа (VII–VIII вв.) представлена венчиками хума и хумчи (рис. 2). Хумы толстостенные, изготовлены из плохо отмученной глины с примесью гипса и шамота, поверхность покрыта белым ангобом. Аналогичные формы известны по материалам памятников Беркуткалинского оазиса и из Хайван-калы (8, с.236, рис.3, 7,10; рис.4; с.253-254, рис.11, 1).

Вторая группа (IX–XI вв.) включает фрагменты от венчика и стенки хума украшенные прочерченными волнистыми линиями. Хумы изготовлены из хорошо отмученной глины с примесью гипса и имеет красный цвет черепка. Поверхность покрыта светлым ангобом (рис. 2). Аналогичные типы хумов широко распространены на памятниках Хорезма IX–XI вв по технике изготовления и орнаментации сходны с керамикой из Куня-Уазе и Замахшара. Среди находок отмечены: венчик миски, а также фрагменты стенок, донца и ручки кувшина. Кувшины с пластинчатыми в сечении ручками также находят многочисленные аналогии в материалах того же времени (Вактурская, 1959, с.272-281). Кроме того, найдены фрагменты поливной расписной керамики с ангобом и росписью коричневых тонов — типичные для IX–XI вв. *(рис. 2.)* (1, с.282-298).

Третья группа (XII – нач. XIII вв.) представлена серыми стенками кувшинов, что соответствует позднему этапу развития хорезмийской керамики. Остальные фрагменты, по-видимому, происходят из разрушенных поздних погребений (рис. 2).

Кроме керамики, обнаружены фрагменты стеклянных изделий (венчики сосудов толщиной 0,15–0,35 см) зеленовато-мутного цвета, а также фрагмент резной костяной ложки с орнаментом в виде зигзагов, аналогии к которой известны из Кят-Калы и Афрасиаба (IX–XI вв.) (10, с. 421-430; 2, С.154-155; 9, б.93-94, 99-р., 7,8; 103-р., 8,9; 109-р., 1,2).

В культурных слоях зафиксированы многочисленные обломки жжёного кирпича, среди которых встречаются мелкоформатные (13×5,5×3,5 см) и заострённые экземпляры, предположительно использовавшиеся в поздних захоронениях.

Обсуждение. Полевые археологические исследования 2009–2011 гг., несмотря на их разведочный характер (траншеи, шурфы, локальные зачистки), позволили получить репрезентативный комплекс данных, достаточный для реконструкции основных этапов функционирования городища Зарлык Ишан-Баба. Стратиграфические наблюдения в сочетании с анализом керамического материала и особенностей строительных приёмов оборонительных сооружений дают основание выделить три хронологически и функционально различающихся периода существования памятника.

Рис.2. Керамический комплекс Зарлык Ишан-баба

Ранний этап относится к афригидскому времени (VII–VIII вв.н.э.) и характеризуется формированием поселения как укреплённого пункта. Об этом свидетельствуют наиболее ранние стратиграфические горизонты, а также керамический комплекс, типологически соотносимый с материалами других памятников раннесредневекового Хорезма. Возведение первой линии оборонительных сооружений на данном этапе позволяет рассматривать городище не как случайное поселение, а как элемент региональной системы расселения и обороны, сформировавшейся в условиях политической консолидации Хорезма в афригидский период.

Наиболее интенсивная фаза развития городища приходится на IX–XI вв. В этот период фиксируются значительные строительные преобразования, выраженные в реконструкции оборонительных стен и усложнении их конструкции. Расширение керамического ассортимента, появление и массовое распространение ангобированной и поливной посуды указывают на рост ремесленного производства, а также на включённость городища в более широкие торгово-экономические и культурные связи. Совокупность этих признаков позволяет

TAMADDUN NURI



интерпретировать данный этап как время наибольшего социально-экономического расцвета поселения и его превращения в один из локальных центров левобережного Хорезма.

Поздний этап (XII – начало XIII вв.) характеризуется постепенным сокращением интенсивности жизнедеятельности, что отражается в обеднении материальной культуры и уменьшении строительной активности. Прекращение функционирования городища, по всей видимости, связано с общерегиональными историческими процессами, включая монгольское нашествие, последствия которого хорошо прослеживаются на ряде синхронных памятников Хорезма. Использование территории городища в более позднее время в качестве кладбища привело к значительным нарушениям верхних культурных слоёв и вторичному перемещению археологического материала, что необходимо учитывать при интерпретации стратиграфии.

Заключение. Результаты археологических исследований позволяют обоснованно утверждать, что городище Зарлык Ишан-Баба возникло в афригидское время (VII–VIII вв.) и функционировало на протяжении нескольких столетий, достигнув пика своего развития в IX–XI вв. Хронология существования памятника вплоть до XII – начала XIII вв. подтверждается комплексом археологических данных, включающим стратиграфические наблюдения, типологию керамики и анализ строительных этапов оборонительных сооружений.

Характер оборонительных построек, их неоднократная реконструкция и масштабность указывают на устойчивое стратегическое значение городища в системе укреплённых поселений левобережного Хорезма. В этом контексте Зарлык Ишан-Баба может рассматриваться не только как локальный населённый пункт, но и как важный элемент региональной фортификационной сети средневекового периода.

Особый научный интерес представляет выявленное большое количество фрагментов жжёного кирпича, что позволяет выдвинуть гипотезу о существовании на территории городища монументального архитектурного сооружения. С учётом историко-культурного контекста региона и топографии памятника не исключено, что данное сооружение имело

культовое или административное назначение. Однако окончательное подтверждение данной гипотезы возможно лишь при проведении широкомасштабных стационарных раскопок.

В целом городище Зарлык Ишан-Баба представляет собой ценный археологический источник, отражающий процессы урбанизации, эволюцию строительных традиций и социально-культурное развитие левобережного Хорезма в раннесредневековый и развитый средневековый периоды. Дальнейшие исследования памятника имеют высокий потенциал для уточнения внутренней планировки, функциональной структуры и места городища в системе средневековых городских центров региона.

Список литетратуры:

1. Вактурская Н.Н. Хронологическая классификация средневековой керамики Хорезма (IX – XIII вв.). – ТХАЭЭ, т.IV. с. 268-274, рис.1.
2. Культура и искусство древнего Узбекистана // Каталог выставки. Книга-2. – М.: Внешторгиздат, 1991. – С.154-155.
3. Мамбетуллаев М. Городище Кят (левобережный) и Зарлык ишан-бобо. В сб: Археологические исследования в Каракалпакии. – Т.: Фан, 1981. – С. 65-73.
4. Мамбетуллаев М., Юсупов Н. Отчет об археолого-топографических изысканиях на территории Хорезмской области в 1973 году. – Нукус, 1973. Архив Агентства культурного наследия. А 3611/М22. – 70 с.: с илл.
5. Материалы по истории туркмен и Туркмении. В 2-х т. Т. I. М—Л., 1939.
6. Матрасулов Ш., Ходжаниязов Г., Садуллаев Б.П., Машарипов Э. Археологические исследования в городище Зарлык ишан бобо Хорезмской области. // Археологические исследования в Узбекистане в 2008 – 2009 гг. Вып.7. Самарканд, 2012. Стр.113-118.
7. Матрасулов Ш., Хожаниязов Г., Садуллаев Б., Машарипов К., Машарипов Э. Заключительный отчет по проекту ФА-А3-Г028 «История материальной культуры средневековых городов Южного Хорезма (по археологическим памятникам Хорезмского вилоята)». – Хива, 2012. Археология институти архиви. – Самарканд. Шифр – Ф/1, О/1, Д/122. – 108 стр. с илл.
8. Неразик Е.Е. Керамика Хорезма афригидского периода // ТХАЭЭ, т. IV. – М.: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 221-260.
9. Садуллаев Б.П. Чап қирғоқ Кат-қалъа – Хоразмнинг қадимги ва ўрта асрлар шаҳри. Монография. “MILLENIUMUS PRINT” MCHJ нашриёти. Урганч, 2023 йил. 16,25 б/т. 268 б.
10. Трудновская С.А. Стекло с городища Шах-сенем // ТХАЭЭ, т. II. – М.: Изд-во АН СССР, 1958. – С. 421-430.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 894. 375-32 (045)

MAKROXRONOTOP. HIKOYA JANRIDA EPIK KOMPOZITSIYA XRONOTOPINING BADIIY TADQIQI

***Berdiyeva Zulayxo Ochilovna**, Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti (PhD tadqiqotchisi)*

MACROCHRONOTOPE. AN ARTISTIC STUDY OF THE CHRONOTOPE OF EPIC COMPOSITION IN THE GENRE OF STORY

Berdiyeva Zulayxo Ochilovna, Karshi State University, PhD Research Fellow

https://orcid.org/0009-0003-0916-7886
e-mail: zulayxoberdiyeva1407@gmail.com

МАКРОХРОНОТОП. ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ХРОНОТОПА ЭПИЧЕСКОЙ КОМПОЗИЦИИ В ЖАНРЕ РАССКАЗА

Бердыева Зулайхо Очиловна, базовый докторант Каршинского государственного университета

Annotatsiya: *Mazkur maqolada hikoya janrida makroxronotopning ahamiyati, asar syujeti va kompozitsiyasini shakllantirishdagi vazifasi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilinadi. Epik kompozitsiya xronotopi, tushunchasi mashhur yozuvchi Sobir O‘narning hikoyalari misolida makroxronotopning hikoya janrining takomillashuvidagi ahamiyati o‘rganiladi va nazariy xulosalar chiqariladi. Sobir O‘nar hikoyalaridagi ijodkor uslubining individual jihatlari ham maqolada* aks etgan. *Ushbu nazariy tushunchalar “Qishloq kechasi”, “Aka-ukalar” hikoyalarini tahlil qilishda aniq namayon bo‘ladi. Tadqiqot hikoya janrining rivojlanishi, adabiyotda badiiy xronotopning ahamiyati, janrning rivojlanishida kompozitsion butunlikning vazifasi ijodkorning individual uslubi va yondashuvlari kabi masalalar bo‘yicha yangi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar*: hikoya, badiiy xronotop, makroxronotop, kompozitsiya, syujet, uslub, Sobir O‘nar, tahlil, nazariya, komponent.*

Abstract: *His article analyzes the role of macrochronotope in the narrative genre, the role of artistic chronotope in the formation of the plot and composition of the work. The concept of epic composition chronotope, the importance of macrochronotope in the improvement of the narrative genre is studied using the example of the stories of the famous writer Sobir Onar, and theoretical conclusions are drawn. The article also reflects the individual aspects of the creative style in Sobir Onar's stories. These theoretical concepts are clearly visible in the analysis of the stories “Village Night”, “Gratitude”. The study serves as a theoretical source for the formation of new knowledge and skills on issues such as the development of the narrative genre, the importance of artistic chronotope in literature, the role of the compositional whole in the development of the genre, the individual style and approaches of the creator.*

Keywords: *story, artistic chronotope, macrochronotope, composition, plot, style, Sobir Onar, analysis, theory, component.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль макрохронотопа в повествовательном жанре, роль художественного хронотопа в формировании сюжета и композиции произведения. Концепция эпического композиционного хронотопа, значение макрохронотопа в совершенствовании повествовательного жанра изучаются на примере рассказов известного писателя Собира Онара, и делаются теоретические выводы. В статье также отражены индивидуальные аспекты творческого стиля в рассказах Собира Онара. Эти теоретические концепции отчетливо видны при*

анализе рассказов "Деревенская ночь", "Благодарность". Исследование служит теоретическим источником для формирования новых знаний и навыков по таким вопросам, как развитие повествовательного жанра, значение художественного хронотопа в литературе, роль композиционного целого в развитии жанра, индивидуальный стиль и подходы автора.

***Ключевые слова**: история, художественный хронотоп, макрохронотоп, композиция, сюжет, стиль, Собир Онар, анализ, теория, компонент.*

Kirish. Insonning ma'naviy dunyosini oziqlantiruvchi va qiyin paytlarda tayanch bo'lib xizmat qiluvchi san'at hisoblangan adabiyot, har doim o'zining go'zalligi va kuchi bilan boshqa san'at turlaridan ajralib turgan. Epik kompozitsiyaning ko'lami jahon adabiyotshunoslik janrlarining rivojlanishida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Epik turning kichik janriga mansub bo'lgan hikoya kompozitsiya jihatidan to'liq va mazmun jihatidan chuqur janrdir. Hikoya janri hajmi, shakli va mazmuni, kompozitsion tuzilishi, tili, uslubi va boshqa she'riy qismlarning o'ziga xosligi tufayli g'oyaviy va hissiy ahamiyatga ega. Hikoya inson tafakkuri va ongida iz qoldiradigan, chiroyli she'riy shakl ko'rinishiga ega bo'lgan adabiy hodisadir. Quyida biz epik kompozitsiyaning xronotopi muammosini hikoya janrining imkoniyatlari va qonunlariga muvofiq, iste'dodli yozuvchi Sobir O'narning asarlari va hikoyalaridan foydalanib, batafsil tahlil qilamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qiyosiy-tarixiy, struktural, komporativistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar. Adabiyotdagi epik turga kiruvchi janrlarning asosiy vositalaridan biri bo'lgan epik kompozitsiya san'at asarining tuzilishini, undagi voqealar ketma-ketligini, personajlar, makon bilan vaqt uyg'unligini va boshqalarni aks ettirishdir. Epik kompozitsiyaning ajralmas qismi bo'lgan xronotop voqealar sodir bo'ladigan vaqt va makon birligi bo'lib, badiiy asarga o'ziga xoslik bilan birgalikda mazmun chuqurligini beradi. Xronotopning badiiy talqini, ayniqsa, hikoya janrida muhimdir, chunki u qisqa hamda markaziy voqealarni o'z ichiga olgan adabiy janr tuzilishini to'ldiradi, qolaversa voqealar va personajlar o'rtasidagi munosabatni belgilaydi. Makroxronotop epik kompozitsiyaning paydo bo'lishida ham bevosita ahamiyatga ega. "Makroxronotop – bu adabiy matn yoki san'at asarida vaqt va makonning keng, umumiy ko'lamli o'zaro bog'liqligi"[M.M.Baxtin.1.143-145]. Ushbu mulohazadan kelib chiqib hikoyalar poetikasini tahlil qilamiz.

Tahlil va natijalar. Adabiyotdagi epik turga mansub asarlarning asosini tashkil etgan markaziy butunlik, epik kompozitsiya san'at asarining tuzilishini, undagi voqealar ketma-ketligini, personajlar uyg'unligini, makon va vaqtni va boshqalarni tizimli ravishda voqelantiruvchi jarayondir. Epik kompozitsiyaning ajralmas qismi bo'lgan badiiy xronotop voqealar kechadigan vaqt va makon birligi bo'lib, badiiy asarga o'ziga xoslik bilan birga mazmun chuqurligini beradi. Xronotopning badiiy talqini, ayniqsa, hikoya janri uchun muhimdir, chunki u qisqa va markaziy voqealarni o'z ichiga olgan adabiy janr tuzilishini to'ldiradi, voqealar va personajlar o'rtasidagi munosabatni belgilaydi. Makroxronotop epik kompozitsiyani tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Makroxronotop – bu adabiy matn yoki san'at asarida vaqt va makonning keng, umumiy , ko'lamli o'zaro bog'liqligi. [O'z.MU antologiyasi. 2.75] Makroxronotop odatda xalq, davr yoki jamiyat hayotini tasvirlab berishda ishlatiladi. Sodda qilib aytganda, makroxronotop asardagi voqealar qaysi tarixiy davrda va qaysi geografik-ijtimoiy sharoitlarda sodir bo'lganligini ko'rsatadi. Makroxronotop tarixiylik, kenglik xususiyatlariga ega, ijtimoiy dinamikani aks ettiradi va syujetga ta'sir qiladi[3.18]. Quyida biz Sobir O'narning "Minnat" hikoyasida makroxronotopning qanday o'rinlarda aks ettirilganini ko'rib chiqamiz. Hikoyada makroxronotop asosan sovet davrining so'nggi yillari, qishloq hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va davr ruhining oddiy odamlar taqdiriga ta'siri orqali ifodalanadi. Sovet davrining oxirgi yillari tarixiy davr va ijtimoiy kontekst sifatida tasvirlangan. Hikoyadagi voqealar sovet tizimining qulashidan oldingi yillarda sodir bo'ladi. Asarda aholining og'ir iqtisodiy ahvoli, moddiy mahrumlik yorqin tasvirlangan. Bu davr makroxronotopi vaqt o'qi bo'lib xizmat qiladi: u shunchaki fon emas, balki qahramonlarning qarorlariga ta'sir qiluvchi kuch hamdir. Hikoyada qishloq maydoni muhim makroxronotop elementlaridan biridir. U zamonaviylik va an'analar o'rtasidagi ziddiyatli muhit sifatida tasvirlangan. Qishloq sovet davridagi

byurokratiyani, jamiyatdagi tengsizlikni va insoniy qadriyatlarning buzilishini aks ettiradi. Masalan, hikoyada o‘sha davrning korruptsiyalashgan mahalliy boshqaruv tizimi fosh qilinadi, bu esa kolxoz raisi tomonidan shaxsiy manfaatlar yo‘lida o‘z lavozimidan foydalanish bilan tavsiflanadi. Epik kompozitsiya bu asarning boshidan oxirigacha bo‘lgan voqealar zanjiri bo‘lib, unda har bir voqea o‘z o‘rniga ega va ma‘lum bir dramatik yo‘nalishda rivojlanadi. Bu jarayon ketma-ketlikda, voqealarning boshidan ularning avj nuqtasigacha va yakunigacha ifodalanadi. Epik kompozitsiya yordamida yozuvchi asarning dramatik kuchini saqlab qoladi, o‘quvchini hikoyaning ichki dunyosiga jalb qiladi. Hikoyaning janri mazmunning qisqaligi va ixchamligi bilan ajralib turadi. Bu janrda epik kompozitsiya soddalashtirilgan, ammo xronotopning badiiy talqini ancha nozik va mazmunli. Hikoyada asarning butun syujeti vaqt va makon bilan belgilanadi, voqealar zanjiri qahramonlarning ichki holati va ularning hayotiy muammolari bilan bog‘liq. Masalan, hikoyada vaqtning o‘tishi qahramonning ruhiy holatidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatishi mumkin – kayfiyat kecha va kunduz, yoz va qish fasllari orqali tasvirlanadi. Joy – atrofdagi muhit, masalan, shahar, qishloq, o‘rmon, uy yoki yo‘l, voqealar uchun fon yaratadi. Shu tarzda, xronotop hikoyaning asosiy dramatik holatini shakllantiradi. Sobir O‘nar hikoyalarida xronotopdan badiiy vosita sifatida mohirona foydalanadi. Uning asarlarida vaqt va makon elementlari voqealar rivojida va qahramonlarning ichki dunyosini ochib berishda muhim o‘rin tutadi. Masalan, “Qishloq kechasi” hikoyasida Sobir O‘nar qishloqdagi oqshom atmosferasi – qorong‘ulik, sukunat, shamolning shivirlashi orqali xronotop yaratadi. Bu makon hikoyaga sirli kayfiyat bag‘ishlaydi, qahramonlarning ichki dunyosini aks ettiradi. Qishloqning sukunati va tungi vaqtning o‘tishi bilan bog‘liq tasvirlar qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Xronotop orqali yozuvchi hikoyani o‘quvchiga nafaqat tashqi ko‘rinishida, balki ichki, ma‘naviy mazmunida ham yetkazadi. Bu voqealarning o‘zaro bog‘liqligini va badiiy obrazlarning jonliligini ta‘minlaydi. Syujet va kompozitsiyaning rivojlanishini belgilashda vaqt va makonning o‘zgarishi voqealarning keyingi bosqichlari uchun yo‘l ochadi. Masalan, parchada vaqt qahramonlarning o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Kayfiyat yaratishda qorong‘u tun, bo‘ronda yurgan odam tasviri hikoyaning dramatik ohangini kuchaytiradi. Qahramonlarning ma’lum bir joyda va ma’lum bir sharoitda xatti-harakatlari ularning xarakterini yaxshiroq ochib beradi. Xronotop orqali yozuvchi asarning asosiy g‘oyasini, xususan, inson va uning tabiat bilan munosabati, vaqtning o‘tishi kabi mavzularni ta’kidlaydi. Yozuvchining “Yozgi kunlar” hikoyasida [Sobir O‘nar,4.12] yoz, quyoshli kunlar va maydonning kengligi kabi makon va vaqt tasvirlari asarga yorqin, hayotiy ohang bag‘ishlaydi. Ushbu xronotop yordamida yozuvchi qahramonlarning hayotiyligi, erkinligi va umidlarini badiiy tarzda ifodalaydi. Xronotop orqali qahramonlarning ichki kechinmalari va tashqi muhit o‘rtasidagi uyg‘unlik ko‘rsatiladi.

Xulosa. Epik kompozitsiya xronotopi rivoyat janridagi badiiy asarning mazmuniy va strukturaviy asosini shakllantiradi. Xronotopning badiiy talqini yordamida yozuvchi voqealar oqimini vaqt va makon o‘lchamlarida taqdim etadi, qahramonlar va ularning hayotiy vaziyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi. Shunday qilib, xronotop hikoyaning badiiy kuchini oshiradi, uning ichki dunyosini boyitadi hamda o‘quvchini voqeaning ma’naviy va madaniy kontekstiga chuqurroq kirishga undaydi. Muallif makroxronotopdan nafaqat syujet foni sifatida, balki axloqiy-ma’naviy g‘oyalarni ochib beradigan asosiy estetik vosita sifatida ham foydalanadi. Shunday qilib, Sobir O‘narning hikoyalarida makroxronotop oddiy hayot sahnalaridan tashqariga chiqadi va ma’lum bir tarixiy davrning ma’naviy portretini chizadi. Bu uning nasriy uslubini zamonaviy o‘zbek adabiyotida noyob qiladi va uni xronotop nazariyasini o‘rganishda samarali tahlil obyektiga aylantiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev Ne’mat, Madraimov Abdumajid. O‘z.ME – Birinchi jild.- Toshkent, 2000-yil.
2. XX asr o‘zbek hikoyasi Antologiyasi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2011-yil.
3. Jo‘raqulov U. Mixail Baxtin kashfiyotlari // Jahon adabiyoti .-Toshkent, 2014.- N12.-B. 143-153.
4. O‘nar S. Chambilbelning oydalasi. Hikoyalar to‘plami. Read book n. Toshkent-2024.
5. Kenjayeva P. Hozirgi o‘zbek hikoyalarida qahramon ruhiyatini tasvirlash tamoyillari: Filol.fan.nom.diss.Toshke nt:2008.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 81'373.45

REFERENSIAL MUQOBILSIZ LEKSIKA VA UNING TARJIMASHUNOSLIKDA TUTGAN O'RNI

Arifova Umida Abdumalikovna, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

REFERENTIAL NON-EQUIVALENT VOCABULARY AND ITS ROLE IN TRANSLATION STUDIES

Arifova Umida Abdumalikovna, Doctoral Researcher, Tashkent State University of Oriental Studies

РЕФЕРЕНЦИАЛЬНО НЕЭКВИВАЛЕНТНАЯ ЛЕКСИКА И ЕЁ РОЛЬ В ПЕРЕВОДОВЕДЕНИИ

Арифова Умида Абдумаликовна, докторант Ташкентского государственного университета востоковедения

https://orcid.org/0009-0004-1042-4533
e-mail: umidaarifova2@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada referensial muqobilsiz leksika tushunchasi va uning tilshunoslikda hamda tarjimashunoslikda tutgan o'rni yoritiladi. Referensial muqobilsiz leksika til birliklarining muayyan tilda mavjud bo'lib, boshqa tilda bevosita predmet yoki hodisa jihatidan mos keluvchi ekvivalenti yo'qligi bilan tavsiflanadi.*

Kalit so'zlar: *referensial muqobilsiz leksika, ekvivalentlik, tarjima, realiya, milliy madaniy birliklar.*

Abstract: *This article examines the concept of referential non-equivalent vocabulary and its role in linguistics and translation studies. Referential non-equivalent vocabulary is characterized by lexical units that exist in one language but lack a direct equivalent in another language in terms of the denoted object or phenomenon. Such units reflect specific cultural, historical, and social realities, which makes their translation particularly challenging. The paper discusses the theoretical foundations of this phenomenon and highlights its significance in ensuring adequate and culturally sensitive translation.*

Keywords: *referential non-equivalent vocabulary, equivalence, translation, realia, national and cultural units.*

Аннотация: *Статья посвящена анализу понятия референциально безэквивалентной лексики и определению её места в современной лингвистике и переводоведении. Референциально безэквивалентная лексика рассматривается как совокупность лексических единиц, закреплённых за определёнными предметами и явлениями действительности и не имеющих прямых эквивалентов в других языках.*

Ключевые слова: *референциально безэквивалентная лексика, эквивалентность, перевод, реалия, национально-культурные единицы.*

KIRISH. Zamonaviy tarjimashunoslikda ekvivalentlik muammosi markaziy masalalardan biri hisoblanadi. Turli tillar o'rtasida to'liq semantik va referensial moslik har doim ham mavjud bo'lavermaydi. Ayniqsa muayyan xalqning tarixi, madaniyati, ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan leksik birliklar boshqa tillarda bevosita muqobiliga ega bo'lmaydi. Bunday birliklar ilmiy adabiyotlarda referensial muqobilsiz leksika sifatida talqin qilinadi.

Mazkur tadqiqotda ekvivalentga ega bo'lmagan leksika turlari A.O.Ivanov tomonidan taklif etilgan tasnif asosida tahlil qilinadi[1:31].

Ushbu tasnif doirasida ekvivalentga ega bo'lmagan leksika uchta kompleks guruhda ifodalanadi: referensial ekvivalentga ega bo'lmagan leksika (terminlar, mualliflik neologizmlari, semantik lakunalar, keng semantikaga ega so'zlar hamda murakkab so'zlar); pragmatik ekvivalentga ega bo'lmagan leksika (qisqartmalar, undov so'zlar, taqlidiy birliklar va

boshqalar); shuningdek, alternativ ekvivalentga ega bo‘lmagan leksika (atoqli otlar, murojaat shakllari, realiyalar va frazeologizmlar) [2:53]. Fikrimizcha, ushbu tasnif hozirgi kunda eng tizimli tasniflardan biri hisoblanadi, chunki unda avvalgi tasniflarda yetarli darajada qamrab olinmagan leksik birliklar guruhlari asosli va ilmiy jihatdan to‘g‘ri tarzda kiritilgan.

Mazkur tasnif ushbu tadqiqotda tahlil qilinayotgan amaliy materialning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda biroz moslashtirilgan shaklda qo‘llanildi.

Hozirgi kunda tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida referensial muqobilsiz leksika tushunchasi muhim ahamiyat kasb etib, til va madaniyat o‘rtasidagi muhim farqlarni ko‘rsatib kelmoqda [3:32]. Bu aynan tarjimada to‘liq adekvatlikka erishish uchun faqat so‘zma-so‘z tarjima emas, balki madaniy moslashuv va mos izoh zarurligini tushuntiradi. Adekvat tarjima – bu matn funksional jihatdan yetarli darajada mos bo‘lgan tarjima bo‘lib, haqiqiy tarjima me’yoridir.

Referensial muqobilsiz leksika – bu boshqa til va madaniyatda nomlanishi mavjud bo‘lmagan real obyekt hodisa yoki madaniy fenomenni bildiruvchi leksik birlik bo‘lib, ularning denotativ-referensial mazmuni tarjima tilida bevosita ekvivalentiga ega bo‘lmagan leksik birlik hisoblanadi. Bunday birliklar muayyan xalqning milliy madaniy tajribasi, tarixiy an’analari yoki turmush tarziga xos nomlash tizmi natijasida shakllanadi[4:41].

Referensial muqobilsiz leksika – bu boshqa tilda to‘g‘ridan to‘g‘ri muqobili (ekvivalenti) bo‘lmagan so‘zlar yoki birliklardir. Ular asosan ma’lum bir xalqning hayoti, madaniyati, xalq tarixi muhitiga xos tushunchalarni bildiradi. Shu sababli boshqa tilga aynan o‘sha shaklda tarjima qilib bo‘lmaydi [5: 58].

Referensial ma’no ko‘pincha saqlanadi, lekin ba’zan quyidagi holatlar uchraydi: Maqsad tilida bir xil referensial ma’noga ega so‘z yo‘qligi (realiyalar, terminlar, individual nelogizmlar, frazologizmlar) kiradi. Yuqorida sanab o‘tilgan leksik birliklarning ekvivalent emasligi ularning referensial ma’nosidagi tafovut bilan izohlanadi[6:76]. Ekstra – lingvistik nuqtayi nazardan bu holat manba tilidagi hodisa yoki predmetning maqsad tilidagi jamiyatda mavjud emasligi bilan bog‘liq. Bunday leksik birliklar ko‘pincha lug‘atlarda to‘liq ifodalanmagan va ularni tarjima qilish uchun tavsifiy usul, sintaktik transformatsiya yoki kontekstual yechimlar talab qilinadi. Shu bois, ular referensial-ekvivalentga ega bo‘lmagan leksik birliklar ekvivalentsiz leksika sifatida ko‘riladi.

Referensial muqobilsiz leksika xitoy tilshunosligida “无对应词”, “无对等词” terminlari bilan ifodalanib, bu manba tilda mavjud bo ‘lgan leksik birlikning obyektiv voqelikda real referentga ega bo‘lishiga qaramay, maqsad tilda unga to‘liq mos keluvchi nominativ yoki referensial birlikning mavjud emasligi bilan tavsiflanadigan lingvistik hodisadir. Xitoy tarjimashunosligida ushbu tushuncha ko‘pincha realiyalar, madaniy belgilangan birliklar hamda leksik bo‘shliqlar tushunchalari bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etiladi.

Mazkur masala xitoy tilshunoslari va tarjimashunoslari tomonidan ham atroflicha o‘rganilgan. Jumladan, 王世荣 (Wang Shirong) referensial muqobilsiz leksikani “bir tilda mavjud bo‘lib, boshqa tilda unga to‘liq ekvivalent topilmaydigan leksik birliklar” sifatida ta’riflaydi [7:62,65]. U madaniyat bilan chambarchas bog‘liq realiyalar, xususan, xitoy tilidagi “关系 / guānxi ” yoki “面子 / miànzi” kabi birliklar tarjimada, odatda, izohli tarjima yoki funksional ekvivalent yordamida ifodalanishi zarurligini ta’kidlaydi.

刘宓庆 (Liu Miqing) esa referensial muqobilsiz leksikani tarjima jarayonida muhim tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib, uning denotativ mazmunini saqlab qolish maqsadida fonetik tarjima, izohli tarjima hamda semantik moslashtirish usullarini qo‘llashni tavsiya etadi [7:65]. Olim xitoy adabiy va ijtimoiy realiyalarining ingliz tiliga tarjimasida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish orqali ushbu birliklarning tarjimadagi o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib beradi.

张仲民 (Zhang Zhongmin) referensial ekvivalentsizlikni kvazi-ekvivalent tushunchalar bilan bog‘lab izohlaydi va shuni ta’kidlaydi: “Bir tilga xos bo‘lgan nom yoki madaniy fenomenni boshqa tilga to‘liq va bevosita tarjima qilish imkonsiz bo‘lib, tarjimada madaniy hamda kontekstual moslashuv muhim ahamiyat kasb

etadi” [8:45]. Misol tariqasida u xitoy tilidagi “内卷 / nèijuǎn” yoki “土味 / tǔwèi” kabi madaniy va ijtimoiy kontekstga bog‘liq zamonaviy leksik birliklarni keltiradi.

Umuman olganda, xitoy tilshunoslari va tarjimashunoslari referensial muqobilsiz leksikani til va madaniyatlararo tafovutlar natijasida yuzaga keladigan, boshqa tilga to‘liq ekvivalent bo‘lmagan so‘z yoki birliklar sifatida talqin qiladilar. Ko‘plab xitoy tadqiqotchilari ekvivalentlik masalasini yoritishda ingliz olimi E.Naydaning funksional ekvivalentlik nazariyasiga tayanadilar. Xususan, 李晓明 (Li Xiaoming) ham ushbu nazariyaga asoslanib, muqobilsiz leksika tarjimasida kommunikativ ta’sirni saqlab qolishni asosiy mezon sifatida belgilaydi [8:47]. U quyidagi tarjima strategiyalarini taklif etadi:

– 音译 (yīnyì) – fonetik transliteratsiya;

– 注释翻译 (zhùshì fānyì) – izohli tarjima;

– 语义调适 (yǔyì tiáoshì) – semantik moslashtirish.

Li Xiaomingning fikricha, agar referent maqsad til madaniyatida mavjud bo‘lmasa, tarjima jarayonida nomlashdan ko‘ra tushuntirish va izohlash ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, xitoy tarjimashunosligida referensial muqobilsiz leksika turli nazariy paradigmalarga tayangan holda izohlanadi. Biroq mazkur yondashuvlarni birlashtiruvchi umumiy jihat — tarjima jarayonida madaniy axborotni adekvat, to‘liq va kommunikativ jihatdan samarali yetkazish zaruratidir. Xitoy tarjima maktabida referensial muqobilsiz leksika asosan tarjimaning funksional ta’siri nuqtayi nazaridan talqin qilinib, maqsad tilidagi qabul qiluvchiga ko‘rsatiladigan kommunikativ samara ustuvor omil sifatida qaraladi. O‘zbek tarjimashunosligida esa mazkur hodisa ko‘proq milliy-madaniy xususiyatlar va realiyalar nazariyasi doirasida tahlil qilinadi.

Xitoy olimlarining qiyosiy yondashuvini umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, xitoy tarjimashunosligi, asosan, E.Nayda tomonidan ishlab chiqilgan funksional ekvivalentlik nazariyasiga tayanadi, o‘zbek, rus tarjima maktabi esa realiyalar nazariyasi va milliy-madaniy referent tushunchasiga asoslanadi. Xitoylik tadqiqotchilar referensial muqobilsizlikning asosiy sababini tillararo va madaniyatlararo tafovutlar bilan izohlasa, o‘zbek, rus olimlari uni maqsad til va madaniyatida muayyan obyekt yoki hodisani ifodalovchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri referentning mavjud emasligi bilan bog‘laydi.

Shu bilan birga, har ikki ilmiy maktab vakillari tomonidan tarjimaning pirovard maqsadi sifatida kommunikativ ta’sirni saqlash, matn mazmunining pragmatik jihatdan yetarliligini ta’minlash hamda milliy koloritni imkon qadar to‘liq yetkazish masalasi e’tirof etiladi. Demak, xitoy va rus tarjimashunosligidagi nazariy yondashuvlarning uyg‘unlashuvi referensial muqobilsiz leksikani tarjima qilishda yanada adekvat, funksional va madaniy jihatdan mos tarjima yechimlariga erishish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Иванов А.О. Безэквивалентная лексика и перевод. — М.: Высшая школа, 2006.
2. Иванов А.О. Основы теории перевода. — СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2008.
3. Бархударов Л.С. Язык и перевод. — М.: Международные отношения, 1975.
4. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. — М.: ЭТС, 2002.
5. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе —М.:Международные отношения, 1980.
6. Shvetzer A. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты. — М.: Наука, 1988.
7. 王佐良. 翻译中的文化比较. 北京：商务印书馆, 1997.
8. 李晓明. 翻译中的文化缺失与功能对等理论. 北京：外语教学与研究出版社, 2012.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 811.531

К ВОПРОСУ СЕМАНТИКИ УСЛОВНЫХ КОНСТ-РУКЦИЙ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Абдуллаева Насиба, кафедра "Иностранные языки" университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

https://orcid.org/0009-0007-0263-8840
e-mail: abdullayevanasiba9955@gmail.com

KOREYS TILIDA SHARTLI KONSTRUKSIYALARNING SEMANTIKASI

Abdullayeva Nasiba, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti "Chet tillari" kafedrasi

SEMANTICS OF CONDITIONAL CONSTRUCTIONS IN THE KOREAN LANGUAGE

Abdullaeva Nasiba, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan Department of Foreign Languages

Аннотация: *статья посвящена комплексному анализу условных синтаксических конструкций в корейском языке. Рассматривается природа условного высказывания, основанная на логической связи протазиса (условия) и аподозиса (следствия), а также проводится сопоставительный анализ корейской, русской и английской грамматических систем. В отличие от русского языка, где основным средством выражения условия является союз «если» и частица «бы», корейский язык демонстрирует развитую систему глагольных окончаний. Указанные формы систематизируются в соответствии с уровнями владения языком (TOPIK I–VI).*

Ключевые слова: *корейский язык, лингвистика, семантика, синтаксис, условные конструкции, протазис, аподозис, грамматические уровни, методика преподавания.*

Abstract: *Article is devoted to a comprehensive analysis of conditional syntactic constructions in the Korean language. It examines the nature of conditional judgment based on the logical connection between the protasis (condition) and the apodosis (consequence) and draws parallels between the Korean, Russian, and English grammatical systems. Unlike the Russian language, where the main means of expressing a condition are the conjunction «если» (if) and the particle «бы» (would), Korean demonstrates a highly developed system of verbal endings. The article systematizes these forms according to language proficiency levels (TOPIK I-VI), ranging from basic markers of reality to complex modal and idiomatic structures used in advanced discourse.*

Keywords: *korean language, linguistics, semantics, syntax, conditional constructions, protasis, apodosis, grammatical levels, teaching methodology.*

Annotatsiya: *Maqola koreys tilidagi shartli sintaktik konstruksiyalarni kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda protasis (shart) va apodozis (oqibat) o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikka asoslangan shartli bayonotning tabiati o'rganiladi hamda koreys, rus va ingliz grammatik tizimlarining qiyosiy tahlili amalga oshiriladi. Rus tilida shartni ifodalashning asosiy vositalari «если» bog'lovchisi va «бы» zarrachasi bo'lsa, koreys tilida fe'l qo'shimchalarining rivojlangan tizimi mavjud. Mazkur shakllar tilni bilish darajalariga (TOPIK I–VI) muvofiq ravishda tizimlashtiriladi.*

Kalit so'zlar: *koreys tili, tilshunoslik, semantika, sintaksis, shartli konstruksiyalar, protasis, apodozis, tilni bilish darajalari, o'qitish metodikasi.*

Введение. Как известно, семантика – это раздел лингвистики и логики, изучающий значение слов, оборотов речи, символов и знаков. Иными словами, семантика отвечает на вопрос: «Что это на самом деле означает?» Она исследует, какой смысл скрыт за звуковой и графической формой языковых единиц и анализирует: 1)лексическое значение: что означает конкретное слово (например, «стол» – это предмет мебели); 2)контекст: как меняется смысл слова в зависимости от окружения. Например, слово «ключ» может означать родник, инструмент для гаек, скрипичный знак или предмет для открывания двери; 3)синонимы и антонимы**:** как слова соотносятся друг с другом по смыслу; 4)условные синтаксические конструкции – это сложные предложения или их фрагменты, которые выражают зависимость одного события от другого[1]. К примеру: *«Если завтра будет солнце (условие), мы пойдем в горы (следствие)».*

Основная часть. При рассмотрении типов условий, то в лингвистике выделяют два основных типа реальности условия: 1)реальное условие: ситуация вполне возможна в будущем или настоящем. Например: *«Если ты придешь вовремя, мы успеем на сеанс»;* 2)ирреальное (сослагательное) условие, где ситуация гипотетическая, воображаемая или уже невозможная (в прошлом). В русском языке здесь всегда используется частица «бы», к примеру: *«Если бы я знал корейский язык, я бы работал в Сеуле».* Для создания условных конструкций используются специальные союзы такие как: – основные: *если, ежели (устар.), коли (устар.);* – сложные: *в случае если, при условии если /что;* – двойные: *если... то, если... так.*

Для изучения языков понимание этих конструкций критично, так как они строятся по разному:

Язык	Особенности	Пример
Русский	Использует союз «Если» и частицу «бы».	Если выучишь, сдашь.
Корейский	Использует окончания к основе глагола: -(으)면 или -거든.	공부하**면** 합격해요.
Английский	Имеет строгую систему 4-х типов (Conditionals)[2].	If you study, you will pass.

В корейском языке конструкции условности можно разделить по уровням сложности изучения корейского языка. К примеру, для начального уровня (초급 수준) существуют следующие конструкции:

1) «-면/-으면» (Если/Когда): считается универсальной формой, которая используется для реальных условий или предположений, присоединяемая к основе глагола без согласной – «-면», с согласной – «-으면». Пример: 돈을 많이 벌면 집을 살 거예요 *(Если я заработаю много денег, то куплю дом);*

2) «-으려면» (Если вы собираетесь... (то нужно)/если вы хотите... (то следует)/для того, чтобы...). Пример: 이 선생님을 만나려면 월요일에 학교로 가세요 *(Если вы хотите встретиться с учителем Ли, идите в школу в понедельник);*

3)Основа глагола/прилагательного +«아/어도» (Даже если.../ хотя.../ несмотря на то, что...). Пример: 크게 말해도 할머니가 못 들어요 *(Несмотря на то, что я говорю громко, бабушка меня не слышит);*

4) «-았/었으면 (좋겠다)» (Если бы...было хорошо). Используется для выражения желаемого условия или мечты. Пример: 내일 더웠으면 좋겠어요 *(Было бы хорошо, если бы завтра было жарко);*

5) «-다면/-ㄴ/는다면» (Если вдруг/Если допустить), используется для гипотетических, маловероятных или нереальных ситуаций.

6) Существительные+«-이면» / «-라면» (Если это...): Используется с именами существительными. Например: 시간이 있으면 만나요[3] *(Если есть время, давай встретимся).*

Для усиления условия в начале предложения в корейском языке также допускается добавление слова «만약».

Для среднего уровня (중급 수준) существуют следующие конструкции:

1) Глагол+«아/어야» (Чтобы/только если). Пример: 이번 연구 결과가 좋아야 계속해서 다른 연구를 할 수 있어요. *(Если результаты этого исследования будут хорошими, мы сможем продолжить и проводить другие исследования);*

2) Глагол+«-거든» (Если уж… (то)). Например: 바쁘지 않거든 잠깐 만납시다 *(Если ты не занят, давай встретимся*) [3].

Для продвинутого уровня (고급 수준) существуют нижеследующие конструкции:

1) Глагол+«는 한» (Пока…/если…/при условии, что…). Пример: 당신이 내 옆에 있는 한 저는 아무것도 두렵지 않아요 *(Пока ты рядом, мне ничего не страшно)*;

2) Глагол+«(으)ㄹ라치면» (Если считать, что…/если предположить, что…). Например: 밥 좀 먹을라치면 계속 전화가 오니 제대로 먹을 수가 없다 *(Стоит мне только попытаться поесть, как постоянно звонят, и нормально поесть не получается);*

3) Глагол+«노라면» (Когда что-то делаешь…/пока занимаешься чем-то). Например: 세상을 사노라면 기쁜 날도 있고 슬픈 날도 있게 마련이다 *(Живя в этом мире, бывают и радостные дни, и грустные – так уж устроена жизнь);*

4) Глагол+«-느냐에 달려 있다» *(Зависит от того, ...ли/все определяется тем, ...).* Пример: 모든 일은 어떻게 생각하느냐에 달려 있어요. *(Все зависит от того, как мы это воспринимаем);*

5) Глагол + «-기 나름이다» *(Зависит от того, как…/все дело в том, как…).* Например: 인간관계는 서로 이해하려고 노력하기 나름인 것 같아요[4]. *(Мне кажется, человеческие отношения зависят от того, насколько оба человека стараются понять друг друга).* Для углубленного изучения корейского языка крайне важно понимать не просто перевод, а дистанцию между значениями. В корейском языке выбор «если» зависит от степени уверенности говорящего и логической связи.

Заключение. -(으)면 и -다면. Данное противопоставление отражает различие между реальным и гипотетическим условием. Конструкция -(으)면 употребляется для обозначения потенциально осуществимых или закономерных ситуаций и характеризуется нейтральной модальностью. Напротив, -다면 маркирует гипотетические, маловероятные либо воображаемые условия и нередко сопровождается лексическим показателем 만약. Таким образом, если -(으)면 соотносится с реальной перспективой развития события, то -다면 актуализирует ирреальную или предположительную модальность.

Список литературы:

1. Акопян А.А. Синтаксические особенности условных конструкций в английском языке. – Пятигорск: Мир науки, культуры, образования, 2010;
2. Sanford D.H. If P, then Q; Conditionals and the Foundations of Reasoning. – Routledge, 2003;
3. Russel B. Imperatives in Conditional Conjunction // Amsterdam: Brown University, Kluwer Academic Publishers, 2006;
4. Ан Чжин Мён. Korean Grammar in Use: Начальный уровень / Ан Чжин Мён, Сон Ын Сон, Ли Кён А. – Сеул: Darakwon, 2010;
5. Мин Чжин Ён. Korean Grammar in Use: Средний уровень / Мин Чжин Ён, Ан Чжин Мён. – Сеул: Darakwon, 2011;
6. Мин Чжин Ён. Korean Grammar in Use: Продвинутый уровень / Мин Чжин Ён, Ан Чжин Мён. – Сеул: Darakwon, 2013.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 821.131.1

ZAMONAVIY KOREYS NASRIDA MAHALLIY TASAVVURNING BADIIY TALQINI

Abdullayeva Feruza Baxodir qizi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

MODERN KOREAN PROSE AND THE ARTISTIC INTERPRETATION OF LOCAL IMAGERY

Abdullayeva Feruza Baxodir qizi, Independent Researcher, Tashkent State University of Oriental Studies

СОВРЕМЕННАЯ КОРЕЙСКАЯ ПРОЗА И ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОСВОЕНИЕ МЕСТНЫХ ОБРАЗОВ

Абдуллаева Феруза Бахадир кызы, независимый исследователь Ташкентского государственного университета востоковедения

https://orcid.org/0009-0006-6572-8942
e-mail: abdullayevaferuza@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy koreys nasrida koreys xalqining mahalliy tasavvuri – shomonlikning turli rakurslarda namoyon bo‘lishi yoritilgan. Mumtoz davr koreys nasridan farqli o‘laroq, zamonaviy nasrda shomonlik ayrim hollarda oila a’zolari o‘rtasidagi ziddiyatga sabab bo‘lsa, urush davrida “xaloskor” tarzida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, azaliy aka-ukalar obrazini qayta talqin qilishda aynan shomonlik tasavvuri asos bo‘lib xizmat qildi.*

Kalit so‘zlar*: shomonlik, e’tiqod, mahalliy tasavvur, Shamshin momo, chorom, madaniyat, xan.*

Abstract: *The article examines how shamanism, a traditional perception of the Korean people, is manifested from various perspectives in modern Korean prose. Unlike classical Korean prose, in modern literature shamanism in some cases becomes a source of conflict among family members, while during wartime it appears in the role of a “savior.” In addition, shamanistic concepts served as a foundation for reinterpreting the primordial image of brothers.*

Keywords: *shamanism, belief, local perception, Grandmother Shamsin, chorom, culture, han.*

Аннотация: *В статье рассматривается, как шаманизм – традиционное мировосприятие корейского народа – проявляется в различных ракурсах в современной корейской прозе. В отличие от классической корейской литературы, в современной прозе шаманизм в ряде случаев становится причиной конфликтов между членами семьи, а в военное время выступает в роли «спасителя». Кроме того, именно шаманистские представления послужили основой для нового осмысления изначального образа братьев.*

Ключевые слова: *шаманизм, вера, местное представление, бабушка Шамсин, чором, культура, хан.*

KIRISH. Azaldan koreys adabiyoti diskursini uchta diniy-falsafiy ta’limot – konfutsiychilik, daotsizm va buddaviylik bilan birga mahalliy tasavvur – shomonlik g‘oyalari belgilagan: “*Konfusitychilik insonlarning ijtimoiy xulq-atvor qoidalarini, ularning ijtimoiy vazifasi, jamiyatni odilona va insoniy asoslarda tashkil etish bilan bog‘liq g‘oyalarni ishlab chiqqan bo‘lsa, daosizm tabiatga va buddizm – poklanish va forig‘lanishga chaqiradi*”[1]. Mumtoz davr nasridan tortib zamonaviy

[1] Сайдазимова У.Т. XVII–XVIII асрлар корейс насрининг маънавий-эстетик концепциялари. Филол. фан. б-ча фан докт. (DSc) дисс. автореф. – Тошкент. 2018. – Б. 16.

nasrda ham uchta diniy-falsafiy ta’limot bilan birga shomonlik parallel tasvirlanadi.

Shomon (shaman – evenkcha – budda ruhoniysi yoki tungus-manjurcha shaman (saman) – junbushga kelgan, jazavasi tutgan kishi) – amalda barcha qadimgi xalqlarda, hozirda ba’zi qoloq xalq va qabilalarda ruhoniy, tabib, sehrgar[2]. Sibirdagi turkiy xalqlarda “shomon” so‘zi “qam” deb ham yuritilgan. Shomon qabila ruhoniysi bo‘lib, ular ilohiy kuchga ega deb hisoblangan. Shomonlar urf-odatlarni bajarishni tomoshaga aylantirganlar. Odatda shomon o‘yinlari kechki payt amalga oshirilgan. O‘yin so‘ngida shomon behol bo‘lib yiqilgan. Ishonchga ko‘ra, shomonlar ruhlar bilan pichirlashib gaplashishgan. Go‘yo talvasaga tushib, bemorlarni davolagan. Shomon qabila, urug‘ homiysi, qo‘riqchisi, ruhi hisoblangan. Markaziy Osiyoda ham shomonizm unsurlari uchraydi. Jumladan, Surxondaryo go‘yoki “qora bosdi”, “qora bosibdi” kabi kasalliklardan bemorni xalos qilish uchun qo‘shnochlar talvasaga tushib, o‘zini u yoqdan bu yoqqa otib, bemor tanasidagi kasalni quvmoqchi bo‘ladi. Ruhoniylar bu holatda insondan kasalliklarni duo va qamchi bilan urib chiqarmoqchi bo‘ladi, hatto, ular shu jarayonda miltiqdan, uning ovozidan, kuchli shovqindan ham foydalanishga harakat qiladi. Bu jarayonda bir nechta qo‘shnoch ishtirok etishi kuzatiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, yuqorida sanab o‘tilgan uch diniy-falsafiy ta’limotlar shomonlikning ayrim elementlarini o‘zlashtirishgan. “*...Koreys va kontinental madaniyatning*[3] qadimgi ildizlarining umumiyligi mahalliy koreys zaminida konfutsiychilik va buddaviylikning o‘sib-unishiga yordam bergan. Bundan tashqari, buddaviylik nafaqat gullab-yashnadi, balki u koreys an’anaviy madaniyati matnlarining saqlovchisi bo‘ldi. Natijada koreys madaniyatining o‘ziga xos ko‘rinishini, uning dunyo, koinot haqidagi tasavvurining o‘ziga xosligini shakllantirgan “*madaniy uyg‘unlik*” tashkil topdi[4]. XX asrda yashab ijod qilgan Xan Sunvon o‘zi buddaviylikka e’tiqod qilsa-da, uning qator romanlarida shomonlik motivi bo‘y ko‘rsatadi, oddiy xalq turmush tarziga chuqur singib ketgan shomonlik mahalliy tasavvurlar ta’sirida shakllanganligi turli taqdir va qismatlarda ochib beriladi.

1936-yili adibning “Shomon qizning kartinasi” hikoyasi “Markaz” jurnalida chop etildi, 1947-yili esa shu nom ostida hikoyalar to‘plami nashr etildi. Hikoyaning sarlavhasi o‘zida xalqning ko‘p asrlik qarashlari, mahalliy tasavvurlari – shomonizmni mujassamlashtiradi. Mamlakatning ochiq tashqi siyosati bilan bog‘liq holda kirib kelgan xristianlik va shomonizm to‘qnashuvida yozuvchi an’ana hamda yangilik o‘rtasida yuzaga kelgan ziddiyatni ifodalaydi. Asar syujeti murakkab tuzilishga ega emas. Qishloq chekkasida (shomonlar har doim qishloq chekkasida hayot kechirishgan, ularning uyi oddiy insonlarning uylaridan ajralib turgan, uyning tomi tekis bo‘lgan) uzlatnishin hayotda qizi bilan yashaydigan shomon ayol Moxva barcha narsalarga cho‘chib qaraydi, xuddi tirik insonga murojaat qilgandek “janob” deb murojaat qiladi. Shomon ayol umr bo‘yi ruhlarga sig‘inib yashadi, xayr-ehsonlar qildi, gunohlardan forig‘lanish marosimlarini o‘tkazdi, o‘zini qurshagan, yashayotgan dunyodan boshqa hayotni tasavvuriga ham sig‘dira olmaydigan ayolning o‘g‘li uyiga qaytgach, hayoti ostin-ustun bo‘ldi.

MUHOKAMA. Buddaviylik ibodatxonasida tahsil olgan, uzoq safarga chiqish oldidan uyga qaytgan o‘g‘il va shomon ayol (ona) e’tiqodi o‘rtasidagi kurash mazkur davr katta-kichik avlod vakillari o‘rtasidagi ziddiyatni anglatadi. O‘g‘lining qo‘lida o‘zi uchun begona hamda “xavfli” (ta’kid bizniki – A.F.) Injil kitobini ko‘rib jazavaga tushgan shomon ayol uni yoqib yuboradi. O‘tni o‘chirishga harakat qilayotgan o‘g‘liga qattiq jarohat yetkazadi hamda so‘nggi bor shomonlik marosimi – gutni o‘tkazadi. Moxva suvga cho‘kib ketadi.

Adabiyotshunos olim Li Xyongi bosh qahramon Moxvaning suvga cho‘kib o‘lishini – shomonlikning qayta tug‘ilishi tarzida talqin qiladi. Uzoq Sharq olam manzarasida yangi hayot uchun kuch bag‘ishlaydigan suv ayollarning tug‘ilishi ramzini anglatadi[5][5].

Inglizzabon olim Li Piter hamda golland olimi B. Valravenlar koreys shomonizmining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish asnosida *muga* qo‘shiq marosimiga alohida e’tibor qaratadilar. Shuningdek,

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 4-жилд. – Тошкент. 2008. – Б. 594.

[3] Bu yerda xitoy madaniyati nazarda tutilmoqda.

[4] Сайдазимова У.Т. Хон Кил Дон ҳақида қисса. – ўрта аср корейс насри намунаси. Монография. – Тошкент. 2020. – Б. 73.

[5] Ли Сан Юн. Шаманский мотив в произведениях писателей Республики Корея. Вестник СПбГУ, Востоковедение и африканистика. 2022. Т.14. Вып. 4. – С. 681.

B. Valraven o‘z tadqiqot ishida Kim Donnining “*...shomon mavzusi aynan koreys millatining o‘ziga xosligini ko‘rsatish uchun tanlangani*”ni ta’kidlaydi[6][6].

Xan Sunvonning “Olov qizi” to‘plamiga kiritilgan besh qissa qahramonlarini shomonlar yoki ularning avlodi tashkil etadi. Xuddi shu nom ostida chop etilgan qissa qahramonlari ham ona va qiz bo‘lib, sarlavhadagi olov ikki – hayotiy kuch hamda jinoyat ma’nosida qo‘llanilgan. Shomon bo‘lishiga qaramay o‘zini himoya qila olmagan ojiza ayol Kurogi nikohsiz qizi Yonneni dunyoga keltiradi. Qizini yolg‘iz o‘zi voyaga yetkazadi, bir umr zo‘ravonlik qilgan insonlarga emas, balki ruhlarga sig‘inib yashaydi. Shomonlik bilan shug‘ullanish ta’qiqlanishiga qaramay, ayol o‘z faoliyatini davom ettiradi. Kurogi qo‘riqchilarga bo‘ysunmaganligi uchun inson qo‘lida o‘lim topadi. Zo‘ravonlik olamida dunyoga kelgan Yonne bir umr odamlardan qochib yashaydi, ularning ko‘ziga ko‘rinishdan qo‘rqadi, o‘z o‘tmishidan aziyat chekadi. Ammo, baxtli bo‘lishga, boshqalar qatori hayot kechirishga bo‘lgan umidi so‘nmaydi.

Bir qarashda shomon ayollar hayoti bizga kisenlarning turmush tarzini yodga soladi: go‘zal va lobar shomon qizlar erkaklarning e’tiborini tortadi va bu erkaklar ularga o‘z hukmini o‘tkazadi, nikohiga olmasdan bokiraligiga tajovuz qiladi, buning uchun jazoga ham tortilmaydi. Chunki aholidan alohida yashashga majbur shomon ayol quyi tabaqa vakili bo‘lgani uchun qismati ham achchiq. U bir umr *xan* (azob-uqubat, qismatga ko‘nib yashash) kategoriyasiga amal qilib yashaydi.

Yozuvchi Chon Chonne o‘zining “Txebeksan tog‘lari” romanida shomonlarga katta mas’uliyat ortadi. Kim Donnining “Shomon qizning kartinasi” hikoyasida hamda Xan Sunvonning “Olov qizi” qissasi qahramonlari kabi romanda ham bosh qahramon shomon ayol Volxva hamda nikohsiz tug‘ilgan qizi Soxvalardir. Uzoq yillik anneksiyadan so‘ng xalq anglab ham yetmagan qisqa muddatli ozodlik yillari (1945-yil)dan boshlab fuqarolar urushi davri (1950-1953-yillar)gacha bo‘lgan muhitni tasvirlash asnosida chorasiz xalqning yana shomonlarga ehtiyoji yoritib berilgan. Bu davrga kelib xalq o‘z taqdiriga salbiy ta’sir ko‘rsatgan inqirozdan chiqish uchun shomonning ruhlarga murojaati, katta marosimlar o‘tkazishdan panoh axtarishdi.

Bolalik hamda o‘smirlik yillari ayni fuqarolar urushi, xaos davriga to‘g‘ri kelgan yozuvchi Chon Sang Guk adabiyot sahnasiga mamlakat ijtimoiy taraqqiyoti bilan bog‘liq asosiy jarayonlarning real tasvirchisi sifatida kirib keldi. Adibning 1979-yili yozgan “Bizning qanot” hikoyasi adabiyotdagi abadiy mavzulardan biri – avlodlar hamda aka-ukalarning o‘zaro munosabati masalasiga bag‘ishlangan. Bu mavzu barcha davrlarda, barcha xalqlarda muhim ahamiyat kasb etgan. A.B.Yesin ta’kidlaganidek “...mavzu koreys, rus, ingliz adabiyotida ancha keng yoritilgan va u turli tarixiy davrlarda, turli avlodlar hayotida biroz o‘zgargan ko‘rinishda takrorlanadi”[7][7].

Hikoyaning nomlanishi ham o‘ziga xos, bir qarashda jo‘n, ammo katta ma’no yashirin. Yozuvchining fikriga ko‘ra, asarning nomlanishi uning ichki mohiyatini ifodalaydi. Ilk bor “Markaz” jurnalida chop etilgan hikoyaning nomlanishida xalqning ko‘p asrlik qarashlari, qadimgi diniy e’tiqodi – shomonizmga qayta murojaat sabablari mujassamlashtirilgan. Shomonizm bilan bog‘liq barcha hodisalar oilada ikkinchi o‘g‘il farzandning dunyoga kelishi bilan uzviy bog‘lanadi. Oilada yangi tug‘ilgan chaqaloq hamda kattalar o‘rtasidagi muloqotda ilk shomonizm elementlari ko‘zga tashlanadi: “*Kun bo‘yi chaqaloqning xonasiga qatnayverib, Tuhoning yo‘rgagini tuzatib qo‘yib ham quvonchini yashira olmadi. Buvim Tuhoni haddan tashqari avaylar, hamma narsadan hadiksirardi. Bexosdan janozaga borib kelayotgan biror kimsa darvozamizning yonidan o‘tib qolsa ham arzimagan gap uchun ham dakki eshitardi*”.

Umr bo‘yi shomonlikka amal qilib yashagan buvi, yovuz ruhlarni quvish, chaqaloqning chorom [8] [8] marosimini o‘tkazish uchun uyga shomon ayolni taklif qildi: “*Shomon Shamshin*[9]*[9] Xudolarga atab marosimlar o‘tkazish maqsadida uyimizga juda ko‘p bora kelib ketardi*”. Ikkinchi chaqaloq tug‘ilgach, buva folbinning ta’biri bilan aytganda “*ichiga jin kirib*” boshqa ayol bilan ketib qoldi, ammo oradan ko‘p vaqt o‘tmasdan bu olamni tark etdi. Buvi yana folbinning “*Oilada bitta erkak*

[6] Walraven Boudewijn. Our Shamanic Past: The Korean Government, Shamans and Shamanism // Cpoenhagen Papers in East and Southeast Asian Studies. 1993. Vol. 8. –P. 5-25.

[7] Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – М., 2000.С. 25.

[8] chorom – farzand dunyoga kelganidan 100 kun o‘tgach nishonlanadigan marosim.

[9] Shamshin yoki Shamsin momo – chaqaloq himoyachisi.

ketsa, o‘rniga ikkinchisi keladi” degan gaplari bilan o‘zini ovutdi. Yozuvchi oiladagi ziddiyatni yanada chuqurlashtirish maqsadida otaning turli xil falokatlarga uchray boshlagani lavhalarini kiritadi. Buvining yuragiga g‘ulg‘ula tushdi, o‘z farzandini asrab qolish kerak. Bu to‘ng‘ich nevara va amma o‘rtasidagi suhbatda anglashiladi: “*Ukangning hayoti tugashiga oz qoldi... O‘sha folbinning gapiga ko‘ra, Tuhoning umri qisqa ekan*”.

NATIJALAR. Hikoya qahramoni buvi obrazida ikki xil xarakter ko‘zga tashlanadi: birinchisi, yumshoq tabiatli, kuchli irodali, kechirimli, mehribon, ikkinchidan, o‘jarlik, jizzakilik, telba-teskarilik, murosasizlik. Ikkinchi xarakterga xos xususiyatlar aslida shomonlarga ishora: “*Buvimlar kasal yotganlaridan beri Tuhoni yomon ko‘rar edilar. Yomon ko‘rishdan ko‘ra ko‘proq qo‘rqardilar, shekilli. Tuhoni so‘nggi bor ko‘rishni istamadilar...*”

Buvi olamni tark etgach, folbin oldiga ona (buvining kelini) tez-tez qatnay boshladi. Har safar folbin oldidan qaytib kelgan ona Tuhoga g‘alati qarar, eri bilan bog‘liq barcha falokatlarda uni ayblardi. Mana shunga o‘xshash motiv Pak Kyonnining “Dorixona xo‘jayinining qizi” romanida ham uchraydi. Oilada ketma-ket baxtsiz hodisa sabab, ayol folbinning o‘g‘li oldiga boradi. Folbin uning o‘limi yaqinligi, qator irim-sirimlarni zudlik bilan, xatosiz amalga oshirish kerakligini aytadi. Ammo, dorixona egasining uchinchi qizi Yonnan marosimda xatolikka yo‘l qo‘yadi, ona olamdan o‘tadi. Oddiy xalqning turli, xususan, tog‘, yer, dengiz ruhlaridan qo‘rquvini har bir qahramon xatti-harakatida juda ham ishonarli tasvirlagan. Romanda aynan dengiz ruhiga qurbonlik keltirish, yovuz ruhlarni haydash kabi odatlar batafsil tasvirlangan.

Shomonlikka ko‘ra, oddiy insonlar uylanmagan yigitlarning ruhi o‘limidan so‘ng tiriklarni ta’qib qilishiga qattiq ishonishgan. Bu holat Pak Vansoning “Urush qurbonlari – anemon gullari” (1978) hikoyasida ham Talli qishlog‘i aholisi barcha kulfatlar ularni chetlab o‘tishiga ishonadi. Chunki ular oy taqvimi bo‘yicha har yili o‘ninchi oyning birinchi kuni qurbonlik keltirishadi, ajdodlar ruhini xotiralashadi. Ammo, fuqarolar urushi davrida armiya safiga olingan yosh, uylanmagan yigitlar o‘rtasida shov-shuv kuchaydi: dushman o‘qi aynan bokira qiz-yigitlarga benuqson tegayotgan emish. Urush maydonida tajribasiz yoshlarning o‘limi ko‘pligi bu mish-mishlarni tasdiqlardi. Shu sababli rota komandiri yosh yigitlarni yon-atrofdagi qishloqlardan aylanib kelishlariga ruxsat berdi. Qishloqda yolg‘iz o‘zi qolgan ayol xonadoniga tashrif yigitning ko‘nglidagi shubhalarni tumandek tarqatib yubordi. Yigit bir kecha ayol quchog‘ida tunab qolgan va endi u bokira emasdi.

XULOSA. Xalq madaniyatining ajralmas kodi sifatida qabul qilingan shomonlik zamonaviy koreys nasrida ham o‘z aksini topdi. Ildizlari moziyga borib taqaluvchi, xalq hayotiga chuqur kirib borgan shomonlik, ruhlarning qudratli kuchiga bo‘lgan ishonch bugungi kunga qadar deyarli o‘zgarishsiz yetib keldi. Mumtoz davr koreys nasridagi shomonlikdan farqli ravishda zamonaviy nasrda shomonlikning salbiy ko‘rinishlari badiiy tasvir etildi. XX asr boshi ajdod va avlodlar o‘rtasidagi tushunmovchilik, bir-biriga bo‘lgan ishonchsizlik shomonlikda ko‘rsatilgan bo‘lsa, mafkuraviy kurashlar davrida shomonlikka qattiq e’tiqod qilgan yoshlar mahalliy tasavvurdan “panoh” topishdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – М., 2000.
2. Ли Сан Юн. Шаманский мотив в произведениях писателей Республики Корея. Вестник СПбГУ, Востоковедение и африканистика. 2022. Т.14. Вып. 4.
3. Сайдазимова У.Т. XVII–XVIII асрлар корейс насрининг маънавий-эстетик концепциялари. Филол. фан. б-ча фан докт. (DSc) дисс. автореф. – Тошкент. 2018.
4. Сайдазимова У.Т. Хон Кил Дон ҳақида қисса. – Ўрта аср корейс насри намунаси. Монография. – Тошкент. 2020.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 4-жилд. – Тошкент. 2008.
6. Walraven Boudewijn. Our Shamanic Past: The Korean Government, Shamans and Shamanism // Cpoenhagen Papers in East and Southeast Asian Studies. 1993. Vol. 8.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 3237.001.09

BADIIY ASAR TILI VA UNI O‘RGANISH MASALALARI

Toshmuhammedova Latofat, O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi professori, filologiya fanlari nomzodi

https://orcid.org/0009-0002-4565-1205
e-mail: latofattashmuxamedova@gmail.com

ISSUES OF THE LANGUAGE OF THE WORK OF ART AND ITS STUDY

Toshmuhammedova Latofat, University of Journalism and mass communiqués of Uzbekistan Professor of the Department “Uzbek language and literature”, candidate of philological Sciences

ЯЗЫК ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ И ВОПРОСЫ ЕГО ИЗУЧЕНИЯ

Ташмухаммедова Латофат, профессор кафедры “Узбекский язык и литература” университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, кандидат филологических наук

Annotatsiya: *Maqolada badiiy nutq adabiy til sistemasining asosini tashkil etishi, badiiy nutqni umumiy yoki leksik jihatdan tahlil etish uning g‘oyasini va u bilan bog‘liq bo‘lgan emotsional mazmunni ifodalovchi lingvistik vositalarni ko‘rsatish haqidagi fikrlar ilgari surilgan. Qolaversa, badiiy asar tilini o‘rganishdan asosiy maqsad – asarning yashiringan, hech kimga ko‘rinmaydigan va shuningdek, mayda detallarining ahamiyatli ekanligiga e’tibor qaratish, ular bilan kitobxonni tanishtirish ekanligi, kitobxon asarni o‘qish jarayonida o‘ziga kerakli bo‘lgan o‘rinlarga e’tibor qaratishi, ammo kichik nuqtalariga e’tibor qaratish uning uchun begona bo‘lishi, shuning uchun ham badiiy asar tilini o‘rganishning muhimligi xususida so‘z yuritiladi. Badiiy asar tili borasida so‘z borar ekan Oybek asarlariga, xususan, “Qutlug‘ qon” asariga murojaat qilib, undagi obrazlar tili, muallif tili, umuman olganda, asar tili borasidagi qarashlar shu asar tahlili davomida aytib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy asar tili, tahlillar, til uslubi, obarzlar tili, muallif tili, Oybek, ijod, muallif, detal, kitobxon.*

Annotation: *the article proposes that artistic speech forms the basis of the literary language system, that the analysis of artistic speech in general or lexically shows its idea and the linguistic means that express the emotional content associated with it. Moreover, the main purpose of studying the language of a work of art is to draw attention to the fact that the work is hidden, not visible to anyone, and also small details are relevant, to introduce the reader to them, to focus on the places he needs in the process of reading the work, but to focus on small points is alien to him, therefore Speaking about the language of the work of art, referring to the works of Oybek, in particular to the work “Holy Blood”, the language of the images in it, the language of the author, in general, the views on the language of the work are mentioned during the analysis of this work.*

Keywords: *language of fiction, analysis, language style, obarzlar language, maullif language, Oybek, creativity, author, detail, reader.*

Аннотация: *В статье выдвигаются идеи о том, что художественная речь составляет основу системы литературного языка, что общий или лексический анализ художественной речи*

показывает языковые средства выражения ее идеи и связанного с ней эмоционального содержания. Кроме того, основная цель изучения языка художественного произведения состоит в том, чтобы обратить внимание на значимость скрытых, никому не видимых, а также мелких деталей произведения, познакомить с ними читателя, чтобы читатель мог сосредоточиться на тех местах, которые ему нужны в процессе чтения произведения, но чтобы сосредоточение внимания на его мелких точках было для него чуждым, поэтому важно также изучить язык художественного произведения. Говоря о языке художественного произведения, обращаясь к произведениям Ойбека, в частности к произведению "Кутлуг кан (Благословенная кровь)", в ходе анализа этого произведения будут изложены взгляды на язык образов, язык автора, язык произведения в целом.

Ключевые слова: *язык художественного произведения, анализ, стиль языка, язык образов, язык автора, Ойбек, творчество, автор, деталь, читатель.*

KIRISH. Akademik V.V.Vinogradov badiiy asar tilini o‘rganishning muhimligi haqida shunday fikr bildirgan edi: “Mening chuqur e’tiqodim shuki, badiiy adabiyot “tili”ni tilshunoslikka ham adabiyotshunoslikka ham yaqin turgan ayni vaqtda, ulardan farq qiladigan alohida filologiya fani tadqiq qilishi kerak”. O‘zbek filolog olimi A.Ahmedov esa shunday yozadi: “Sof lingvistik aspekt degan qarash bir tomonlama qarash bo‘lib, unga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi”. Darhaqiqat, yuqorida aytib o‘tilgan fikrlardan badiiy nutq tilshunoslikka ham, adabiyotshunoslikka ham amal qilmaydi, degan g‘oya kelib chiqmasligi kerak. Chunki badiiy til materiali tilshunoslardan olib qo‘yilsa, ularning o‘rganish obyekti faqat shevalar bo‘lib qolar, fan taraqqiyotiga salbiy ta’sir qilgan bo‘lar edi. Adabiyot ham badiiy nutq va uslub masalalarini tadqiq etmasdan ilmiylikka erisha olmaydi. Shuning uchun ham uni o‘rganishda har tomonlama – ham til, ham uslub, ham yo‘nalishi bo‘yicha o‘rganish talab etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ta’kidlab o‘tadigan bo‘lsak, barcha ijodkorlarning asar yozish jarayonida o‘zining uslubi, tili, yo‘nalishi bo‘ladi. Ularni o‘rganish yangi bir qirraning ochilishiga sabab bo‘ladi.

Badiiy asarlarning tili o‘ziga xos bo‘lib, barcha ijodkorlar o‘z uslubiga tayangan holda so‘z va iboralardan foydalanishadi. Jumladan, Oybekning tildan foydalanish mahoratini tadqiq qilgan Q.Samadov badiiy adabiyot nutqi muammosiga to‘xtalib: “O‘zbek filologiyasida badiiy adabiyot nutqini tadqiq etishda bir to‘xtamga kelingani yo‘q. Ayrim hollarda badiiy adabiyot tili tushunchasi lingvistik fikrni tasdiqlash uchun keltiriladigan misollarga aylantirib qo‘yilyapti. To‘g‘ri, badiiy nutq haqidagi nazariy xulosalarni anglash va mantiqan kuchaytirishga misol bo‘lib xizmat qiladigan manbalardan biridir. Lekin u umumxalq tilidagi hodisalarning qaydi, takroriga aylanib qolmasligi kerak. Badiiy nutq – umumfilologik tavsifdagi mustaqil soha. Bu haqidagi gap san’atkorlarning mahorati, so‘z qo‘llash san’ati, xalq tilidan foydalanishdagi o‘ziga xosligi kabi masalalarni muhokama qilishi, tahlil etishi lozim”.

Badiiy nutq adabiy til sistemasining asosini tashkil etadi. Badiiy nutqni umumiy yoki leksik jihatdan tahlil etish uning g‘oyasini va u bilan bog‘liq bo‘lgan emotsional mazmunni ifodalovchi lingvistik vositalarni ko‘rsatish demakdir. Anglash mumkinki, badiiy nutqni o‘rganish til vositalarining badiiy asar mazmunini tashkil etuvchi borliqni qanchalik aks ettirganligini, ularning shu mazmunni qanchalik gavdalantira olganligini, o‘quvchini bu haqiqatga qay darajada ishontira olganligini ko‘rsatishdir. Aynan Oybek asarlarining tili va uslubi ko‘plab ijodkorlar tomonidan o‘rganilgan va ularda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalarining o‘ziga xosligi ham tahlil qilinib, misollar asosida ochib berilgan. Hatto shevaga xos so‘zlarning ishlatilishi ham yozuvchi mahoratiga bog‘liq ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.

Oybek she’r yozish bilan birga ko‘plab nasriy asarlar ham yaratgan. Ulardan “Qutlug‘ qon” romani o‘zining tili, uslubi va bayon yo‘sini bilan ajralib turadi. Olimlar bu badiiy asarning tili bilan tanishish jarayonida eng kichik detallarigacha e’tibor qaratib, uning o‘quvchiga muhimligi xususida ham ta’kidlab o‘tishgan. Badiiy asar tilini o‘rganishdan asosiy maqsad – asarning yashiringan, hech kimga ko‘rinmaydigan va shuningdek, mayda detallarining ahamiyatli ekanligiga e’tibor qaratish, ular bilan kitobxonni

tanishtirishdir. Kitobxon asarni o‘qish jarayonida o‘ziga kerakli bo‘lgan o‘rinlarga e’tibor qaratadi, ammo kichik nuqtalariga e’tibor qaratish uning uchun begona bo‘ladi. Shuning uchun ham badiiy asar tilini o‘rganishning muhimligi kichik detallarni ko‘rsatish, e’tiborni ularga qaratishdir.

NATIJALAR. Badiiy asar leksikasini o‘rganishda badiiy til xususiyatlaridan kelib chiqish lozim. Chunki badiiy obrazlikni kuchaytiruvchi, ko‘chma ma’noli so‘zlar, obrazli sinonimlarni, badiiy nutqning yetakchi qismini tashkil qiluvchi badiiy uslubga xos so‘zlar xususiyatlarini o‘rganish, ularning nutq jarayonida bajargan vazifasini kuzatish badiiy asar leksikasini o‘rganish uchun muhimdir.

Ijodiyot sohasida yangi avlodning paydo bo‘lishi bilan yaqin yoki uzoq o‘tmishdagi ijodkorlardan tarixdan uzilish yuz beradi. Vaqt o‘tishi bilan bu uzilish tobora chuqurlasha boradi. Agar XX asr 27-37-yillarida badiiy ijodiyot va publitsistik ijodiyot sohasida Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Oybek va boshqalar buyuk uyg‘onishni boshlab bergan bo‘lsa, XXI asr ijodiyotining ham o‘z darg‘alari bo‘lishi shubhasiz.

MUHOKAMA. Har bir ijodkorning ijod qilish jarayonida, shubhasiz, o‘z uslubi, tili bo‘ladi. Ular o‘z asarining boshlanish nuqtasiga, ilk jumlasi va tashiydigan ma’no-mazmuniga katta e’tibor beradi. Asar sarlavhasi ham bundan mustasno emas. Zero har qanday asarning sarlavhasi shu asarning butun mohiyatini o‘zida mujassam etsa, birinchi jumla shu mazmun-mohiyatning boshlanishi hisoblanadi. Shu ma’noda uning mohiyati sarlavhaga teng kelmasa-da, undan qolishmasligi ham muhimdir.

Adabiyotda yozuvchi Oybekning o‘z uslubi, asarda ishlatadigan so‘zi va tili boshqa ijodkorlarnikidan farq qiladi. Uning “Qutlug‘ qon” romanining tiliga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu shubhasiz, boshqa ijodkor asaridan farq qiladi. Asar matniga e’tibor beraylik: “Vaqt peshindan oqqan edi. Iyul oyining quyoshi hamma yoqni olov seli bilan to‘ldirgan, havo allaqanday oq alanga bilan jimgina yonganday”. Agar e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Yo‘lchining Toshkentga kirib kelishi vaqti saraton bir kunining og‘ir damlari butun jonzot issiq azobidan qutulish maqsadida o‘zini soyaga urgan, qimir etgan tirik jon ko‘rinmaydigan, hatto qilt etgan shamol ham yo‘q onlar ekani ayon bo‘ldi. Bunday paytni adib bejiz tanlamagan, chunki Yo‘lchi ham hayotidagi azob beruvchi mashaqqatli qismatdan qutularmikanman, degan maqsadda Toshkentga kirib keladi. Kunning og‘ir damlari bilan Yo‘lchining hayotidagi qiyinchilik, nochorlik onlari bir-biriga hamohang. Asarda Yo‘lchi kambag‘allik, nochorlik vajidan boy tog‘asi Mirzakarimnikiga ish-najot qidirib keladi, shu joyda Gulnorni uchratadi va uni sevib qoladi. Ammo bu ikki yosh baxtiga keksa Mirzakarimboy to‘g‘anoq bo‘ladi. Gulnorning sodda, go‘l otasi–Yormatning yordamida Gulnorga uylanadi. Bu kunlardan ko‘ra o‘limni afzal bilgan Gulnor meros taqsimlanishidan vahimaga tushgan boyvachchalar tomonidan zaharlab o‘ldiriladi. Voqealar ijodkor tomonidan juda yaxshi yoritilgan. Hatto tarixiy manzaralarigacha e’tiborga olingan.

Asarda tobora mustahkamlanib, yovuzlashib borayotgan mustamlakachilar va ularning mahalliy aholini ezuvchi zulmkor davlat tuzumi yaqqol gavdalanadi. Bu tizim mahalliy, munofiq boylar, ruhoniylar, qozilar-u savdogarlarga tayanib, mamlakatni idora qilgani uchun, barcha o‘g‘irlik, azob-uqubat, haqzislik yuki kambag‘al mehnatchi, yurtparvar ziyoli yelkasiga tushadi. Tabiiyki, bunday muhit, sharoit mustamlakachilar va ularning mahalliy gumashtalari uchun qo‘l keladi. Romanni o‘qish jarayonida mustamlakachilarning siri ayon bo‘ladi. Voqealar zanjirining bir-biriga jips bog‘langan halqalari o‘sha davr haqiqatini sahifama-sahifa ochib beradi. Mahalliy xalq vakillariga mensimay qarash, ularni kamsitish, madaniyat, e’tiqod, tilini pastga urish bosqinchi millat vakillariga xos ekanligi romanda o‘ziga xos tarzda tasvirlanadi. Yozuvchi tarix manzaralarini berishda mustamlakachilik siyosatining mevasi bo‘lmish restoran kabi Turkiston hayotidagi “yangiliklar” tasviridan ham mahorat bilan foydalangan.

Har bir asarda, u xoh hajman katta bo‘lsin, xoh kichik, muallifning orzu-umidlari o‘z ifodasini topishi ayni haqiqat. Ana shu orzular asarda ketma-ketlikda namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda Oybekning bu asarida ham ikki baquvvat qatlam mavjud. Agar birinchi qatlamni bosh qahramonlarning o‘xshashi yo‘q muhabbati tashkil etsa, ikkinchi qatlamni shu qahramonlar qaynagan qozon yanglig‘ ijtimoiy muhit tashkil etadi.

Turkiston mustamlakaga aylantirilgach, bozor munosabatalari kirib boshlaydi – bu bilan kapitalistik salbiy illatlar mustamlakachilarning “sa’y-harakati” bilan, ichkilikbozlik, o‘g‘rilik, fohishabozlik kabi illatlar avj oladi. Qozi, keyinchalik muftiy bo‘lgan Sattoxon buning yorqin dalili bo‘la oladi. Yo‘lchidagi soddalik, samimiyat, o‘zini do‘st sanovchi kishiga cheksiz hamiyat, mehnatga o‘chlik unga Oybekdan ko‘chgandir.

“…Xadraga kelganda u birdan otni to‘xtatdi: apteka devoriga qisilgan Shoqosim past, ayanchli ovoz bilan bir nimalar so‘zlab, o‘tkinchilardan sadaqa so‘raydi! Uning devorga yopishib turishi, ko‘zlarini yerdan uzmasligi, qo‘lini cho‘zmasdan tavoze bilan ko‘ksiga olib turishi, uning …qanday azob sezganini, odamgarchiligining yemirilganidan, uyatdan, nomusdan o‘limga rozi ekanini ko‘rsatar edi”. Yo‘lchi o‘ylaydi: “Men chaqirsam battar uyaladi, yerga kiradi… Yonimda pulim bo‘lsaydi, yordamlashardim. Hech nimam yo‘q! Uh!!! Otni haydaydi. Faqat ozgina yurib, yana to‘xtashga majbur bo‘ldi: har nima bo‘lmasin unga suyanchiq kerak”. Otdan tushib, bir necha qadam orqaga yurdi va chaqirdi. “Shoqosim aka!” Shoqosim boshini ko‘tarib, atrofga alangladi. Ikkinchi chaqirishda Yo‘lchini ko‘rib, egilgan holda chorig‘ini sudrab keldi”. Sal keyinroq adib shunday xabar beradi: “Uch kundan so‘ng Shoqosim tilanchilikdan qutuldi. Yo‘lchi uni bir juvozli mayda boyga xizmatkorlikka – uning juvozini haydovchi sifatida o‘rnashtirdi”. Albatta, bu parchada bosh qahramonning insoniy xislati – odamgarchiligi, mazlumlarga yordam qo‘lini cho‘zish, xullas insoniy mohiyati ochib berilgan.

Oybek ijodi, tili va uslubi ham aynan mana shu kabi asarning ko‘plab o‘rinlarida bilinadi. Chunki unda soddalik, kitobxonning o‘qish darajasi ham inobatga olingan. Asarda yozuvchi bosh qahramonlardan birini Yo‘lchi, ikkinchisini Gulnor deb atadi. Shuningdek, mazkur asarda ziddiyatning bir qutbini ezgulik ramzi bo‘lgan qahramonlar egallaydi. Gulnor Salimboyvachcha bergan zahardan halok bo‘lsa, Yo‘lchi yurt ozodligi yo‘lida qurbon bo‘ladi. Bir yonda jaholat, ikkinchi yonda ezgulik, ozod, erkin bo‘lishga intilish va qullikdan ayro tushishga intilish, sof insoniy muhabbat va hayvoniy hirs, o‘z qadr-qimmatini yuqori tutish va buni poymol qilish hukm surgan hamda qabohat ustun kelgan zamon va makonda Gulnor va Yo‘lchi o‘rtasidagi sevgigina emas, hatto, ularning o‘zlari ham tirik qolishlari mavhum edi. Ikki toza qalb mana shu ziddiyat tufayli hayot bilan fojiona vidolashadi.

Asarda Nuri obrazi bo‘lib, u tutgan joyidan kesadigan, qaysar shaxs, Gulnorni oradan ko‘tarish uchun Qo‘ng‘iroq folbinnikiga boradi. O‘z dardini unga tushuntiradi. Adib folbinning makonini erinmay tasvirlaydi. “Folbin uy ichida oqarib ko‘ringan chodir ichida yo‘qoldi. Bir ozdan so‘ng uning xasta tovushi eshitildi…”

XULOSA. Shubhasiz adib o‘z tasvirida bo‘yoqlarni quyuqlashtiradi, folbinning makoni, tashqi ko‘rinishi, xatti-harakatlaridagi dahshat oshirib yuborilgan bo‘lishi tabiiy. Bu manzara tasviri bilan Oybek Nurining folbinning tashqi qiyofasi, “ilm-u amali”ga mos ichki dunyosini ochib tashlaydi. U milliy turmush lavhalarini maroq bilan tasvirlaydi. Romanda aziyimxonlar, arvoh oshilar, kinna olish kabi odatlar bilan birga qizaloqlarning tol barglaridan sochlariga jamalak qilib o‘rilgan sochpopuk taqishlari va boshqa omillarni ko‘ramiz. Bozor ham e’tibordan chetda qolmaydi. Aytib o‘tish joizki, Oybek asarining tili va uslubi ijodiyotning barcha qirralarni qamrab olgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Йўлдашев М. Жамолхонов Ҳ. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Т., ТДПУ., 2000.
2. Мильчин А. Методика редактирования текста. –М.: Книга, 1980.
3. Абдулла Қодирийнинг бадиий дунёси. -Т.: Университет. 1994. – 119 б.
4. Норматов У. Тафаккур ёғдуси.-Т.: Университет. 2005.-118 б.
5. Саидносирова З. Ойбегим менинг.Т.: ШАРҚ нашриёт концернининг бош таҳририяти.1994.– 256 б.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 811.161.1'362

INGLIZ TILIDAGI FRAZEOLOGIZMLAR TARKIBIDA QO‘SHMA SO‘ZLARNING KOGNITIV SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Amirqulova Nargiza, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

https://orcid.org/0009-0004-0827-2606
e-mail: amirqulovanargiza6@gmail.com

КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СЛОЖНЫХ СЛОВ В СОСТАВЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Амиркулова Наргиза, старший преподаватель Университета экономики и педагогики

COGNITIVE SEMANTIC AND PRAGMATIC FEATURES OF COMPOUND WORDS IN ENGLISH PHRASEOLOGICAL UNITS

Amirqulova Nargiza, Senior Lecturer at the University of Economics and Pedagogy

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ingliz tilidagi frazeologik birliklarga kiradigan qo‘shma so‘zlarning kognitiv, semantik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida olib borilib, tavsiflash, tasniflash, kognitiv modellashtirish hamda kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari qo‘shma so‘zli frazeologizmlar obrazlilikni kuchaytirishi, baholovchanlikni ifodalashi va nutqiy ta’sirchanlikni oshirishini ko‘rsatadi. Shuningdek, konseptual metafora va kognitiv mexanizmlarning frazeologik ma’no shakllanishidagi roli yoritiladi. Maqola frazeologiya va kognitiv lingvistika sohalari uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.*
Kalit so‘zlar: *frazeologizm, qo‘shma so‘z, kognitiv semantika, pragmatika, konseptual metafora, ingliz tili.*

Abstract*: This article investigates the cognitive, semantic, and pragmatic features of compound words within English phraseological units. The study is conducted within the framework of modern linguistic approaches and applies descriptive, classificatory, cognitive modeling, and contextual analysis methods. The findings indicate that phraseological units containing compound words enhance imagery, express evaluative meanings, and increase pragmatic effectiveness in discourse. Special attention is given to the role of conceptual metaphor and cognitive mechanisms in the formation of phraseological meaning. The results provide theoretical and practical insights for further research in phraseology and cognitive linguistics.*
Keywords: *phraseology, compound words, cognitive semantics, pragmatics, conceptual metaphor, English language.*

Аннотация*: В статье рассматриваются когнитивные, семантические и прагматические особенности сложных слов в составе фразеологических единиц английского языка. Исследование основано на современных лингвистических подходах с применением описательного, классификационного, когнитивного моделирования и контекстуального анализа. Полученные результаты показывают, что фразеологизмы со сложными словами усиливают образность, оценочность и прагматическое воздействие высказывания. Особое внимание уделяется роли концептуальной метафоры и когнитивных механизмов в формировании фразеологического*

значения. Выводы исследования представляют интерес для дальнейших работ в области фразеологии и когнитивной лингвистики.

Ключевые слова: *фразеология, сложные слова, когнитивная семантика, прагматика, концептуальная метафора, английский язык.*

Kirish. So‘nggi yillarda tilshunoslik fanida frazeologik birliklarni an’anaviy tavsifiy yondashuvdan tashqari, ularning kognitiv va pragmatik xususiyatlarini chuqur o‘rganishga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada ortib bormoqda. Zamonaviy lingvistika doirasida til nafaqat kommunikativ vosita, balki inson tafakkuri, madaniy tajribasi va konseptual dunyoqarashini aks ettiruvchi murakkab tizim sifatida talqin qilinmoqda. Shu nuqtayi nazardan, frazeologizmlar tilning milliy-madaniy o‘ziga xosligini, xalqning tarixiy tajribasi va ijtimoiy qadriyatlarini mujassamlashtiruvchi muhim lingvistik birliklar hisoblanadi. Frazeologik birliklar tarkibida uchraydigan qo‘shma so‘zlar alohida e’tiborga loyiqdir. Qo‘shma so‘zlar



semantik jihatdan yaxlitlikka ega bo‘lib, frazeologik ma’noning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Ular obrazlilikni kuchaytiradi, baholovchanlikni ifodalaydi hamda nutqning ekspressiv va pragmatik ta’sirchanligini oshiradi. Ayniqsa, ingliz tilidagi frazeologizmlar tarkibida uchraydigan *compound words* turli konseptual metaforalar asosida shakllanib, muayyan kognitiv modellarni aks ettiradi. Bu esa ularni kognitiv semantika va pragmatika nuqtayi nazaridan kompleks o‘rganishni taqozo etadi.

Kognitiv lingvistika til birliklarini inson ongida mavjud bo‘lgan bilimlar tizimi, konseptual tuzilmalar va tafakkur mexanizmlari bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. Ushbu yondashuv doirasida frazeologizmlar tasodifiy yoki faqat tarixiy shakllangan birliklar emas, balki insonning atrof-muhitni idrok etishi, tajribasini umumlashtirishi va konseptual metaforalar orqali ifodalashining mahsuli sifatida qaraladi. Qo‘shma so‘zli frazeologizmlar esa mazkur jarayonda muhim kognitiv vosita bo‘lib xizmat qiladi. Pragmatik yondashuv frazeologik birliklarning real nutq jarayonidagi vazifasini, ularning kommunikativ niyat, baholash, emotsional ta’sir va kontekstga bog‘liqligini o‘rganadi. Ingliz tilida qo‘shma so‘zlar ishtirokidagi frazeologizmlar ko‘pincha nutqda muayyan munosabatni bildirish, kinoya, tanqid yoki ijobiy baho berish vositasi sifatida qo‘llaniladi. Shuning uchun ularning pragmatik funksiyalarini aniqlash zamonaviy diskurs tahlili uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi ingliz tilidagi qo‘shma so‘zli frazeologizmlarni kognitiv-semantik va pragmatik yondashuv asosida kompleks o‘rganish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi ingliz tilidagi frazeologik birliklar tarkibida uchraydigan qo‘shma so‘zlarning kognitiv modellarini aniqlash, ularning semantik tuzilishini tahlil qilish hamda pragmatik funksiyalarini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish orqali frazeologiya va kognitiv lingvistika sohalaridagi ilmiy tadqiqotlarni boyitish, shuningdek, ingliz tilini o‘qitish va tarjima amaliyotida qo‘llash mumkin bo‘lgan nazariy xulosalar ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqot ingliz tilidagi qo‘shma so‘zli frazeologik birliklarning kognitiv, semantik va pragmatik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda zamonaviy tilshunoslikda keng qo‘llaniladigan bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot metodlarining tanlanishi ishning maqsadi va vazifalariga muvofiq holda belgilandi hamda o‘rganilayotgan til birliklarining ko‘p qirrali tabiatini kompleks yoritishga xizmat qildi.

1) Tavsiflash metodi tadqiqotning asosiy metodlaridan biri sifatida qo‘llanildi. Ushbu metod yordamida ingliz tilidagi frazeologik birliklarning strukturaviy tuzilishi, leksik tarkibi va umumiy semantik xususiyatlari izchil tahlil qilindi. Ayniqsa, frazeologizmlar tarkibida uchraydigan qo‘shma so‘zlarning shakliy va ma’noviy

yaxlitligi, ularning komponentlari o‘rtasidagi semantik munosabatlar aniqlandi. Tavsiflash metodi frazeologik birliklarning umumiy xususiyatlarini aniqlash va ularni ilmiy asosda izohlash imkonini berdi.

2) Tasniflash metodi orqali qo‘shma so‘zli frazeologizmlar semantik va kognitiv belgilariga ko‘ra guruhlarga ajratildi. Ushbu metod frazeologik birliklarni ma’no maydonlari, baholovchanlik darajasi hamda ifodalaydigan konseptlariga ko‘ra tizimlashtirishga xizmat qildi. Natijada, qo‘shma so‘zli frazeologizmlarning ijobiy, salbiy yoki neytral baho bildiruvchi turlari, shuningdek, inson xarakteri, holati, faoliyati va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi guruhlari aniqlandi.

3) Kognitiv modellashtirish metodi tadqiqotda alohida ahamiyat kasb etdi. Ushbu metod asosida frazeologizmlar tarkibidagi qo‘shma so‘zlar orqali yuzaga keladigan ma’no shakllanishi konseptual metaforalar va kognitiv modellar nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Inson tajribasi, sezgi va madaniy bilimlariga tayangan holda shakllangan konseptual tuzilmalar aniqlanib, ularning frazeologik ma’noga ta’siri yoritildi. Bu metod frazeologik birliklarning ichki semantik mexanizmlarini ochib berishga xizmat qildi.

4) Kontekstual tahlil metodi frazeologizmlarning real nutq jarayonidagi pragmatik vazifasini aniqlash uchun qo‘llanildi. Ushbu metod yordamida qo‘shma so‘zli frazeologizmlarning turli kontekstlarda qanday maqsadda ishlatilishi, ularning kommunikativ niyat, emotsional ta’sir va baholovchanlikni ifodalashdagi roli tahlil qilindi. Kontekstual tahlil frazeologik birliklarning faqat lug‘aviy ma’nosi emas, balki nutqiy vaziyatga bog‘liq funksional xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

5) Tadqiqot materiali sifatida ingliz tilining izohli va frazeologik lug‘atlari, shuningdek, badiiy adabiyot namunalaridan olingan misollar asos qilib olindi. Tanlangan materiallar tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlashga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari. O‘tkazilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilidagi ko‘plab frazeologik birliklar tarkibida uchraydigan qo‘shma so‘zlar inson tafakkuriga xos bo‘lgan kognitiv obrazlarni ifodalaydi. Bunday birliklarda abstrakt tushunchalar aniq jismoniy yoki sezgi orqali idrok etiladigan xususiyatlar asosida konseptuallashtiriladi. Jumladan, *cold-hearted*, *stone-hearted*, *open-minded* kabi qo‘shma so‘zlar inson xarakteri va ruhiy holatini jismoniy sifatlar orqali ifodalab, kuchli obrazlilik hosil qiladi. Bu esa frazeologik ma’noning tez va samarali anglashilishiga xizmat qiladi. Tasniflash jarayonida qo‘shma so‘zli frazeologizmlar semantik va kognitiv belgilari asosida bir necha guruhlarga ajratildi. Birinchi guruhni antropotsentrik frazeologizmlar tashkil etadi. Ushbu guruhga insonning tashqi yoki ichki xususiyatlarini ifodalovchi frazeologik birliklar kiradi. Masalan, *big-headed man* birikmasi kibr va o‘ziga ortiqcha ishonchni, *sharp-tongued critic* esa keskin va tanqidiy nutq uslubini ifodalaydi. Bu birliklarda inson tanasi bilan bog‘liq belgilar orqali abstrakt xarakter xususiyatlari ifodalanadi.

Ikkinchi guruh rang va holat asosidagi frazeologizmlardan iborat. Bu turdagi birliklarda ranglar va jismoniy holatlar ma’lum baholovchi yoki emotsional ma’noni anglatadi. Masalan, *black-hearted villain* birikmasida rang orqali salbiy axloqiy sifat ifodalanadi, *open-minded person* esa ijobiy baholovchanlikka ega bo‘lib, keng fikrlilik va bag‘rikenglikni bildiradi. Ranglar frazeologik ma’noda kuchli semantik yuklama bajaradi.

Uchinchi guruh baholovchi xarakterdagi frazeologizmlarni o‘z ichiga oladi. Bu birliklar nutqda shaxs, hodisa yoki vaziyatga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, *narrow-minded boss* birikmasi rahbarning fikrlash doirasi torligini va konservativ qarashlarini baholovchi ma’noda ifodalaydi. Ushbu guruh frazeologizmlarining asosiy xususiyati ularning kuchli pragmatik yo‘nalganligidir.

Muhokama. Mazkur tadqiqot davomida olingan natijalar ingliz tilidagi qo‘shma so‘zli frazeologizmlarning kognitiv va pragmatik asosda shakllanishini yaqqol namoyon etdi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, bunday frazeologik birliklar inson tafakkurining asosiy mexanizmlariga tayanadi va abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar orqali ifodalashga xizmat qiladi. Qo‘shma so‘zlar frazeologik birlik tarkibida semantik markaz vazifasini bajarib, ma’noning yaxlit va obrazli tarzda shakllanishiga imkon yaratadi. Tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, inson tanasi, ranglar va jismoniy holatlar bilan bog‘liq belgilar

frazeologik ma’noni konseptuallashtirishda yetakchi manba hisoblanadi. Masalan, *cold-hearted* yoki *stone-hearted* kabi birliklarda jismoniy sovuqlik va qattiqlik insonning emotsional befarqligi bilan qiyoslanadi. Bu holat Lakoff va Johnson tomonidan ilgari surilgan konseptual metafora nazariyasining amaliy tasdig‘i bo‘lib, “Abstrakt tushuncha — jismoniy tajriba” modeli asosida ma’no shakllanishini ko‘rsatadi. Pragmatik jihatdan qo‘shma so‘zli frazeologizmlar nutqda kuchli baholovchi va ta’sirchan vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ular so‘zlovchining munosabatini bevosita va aniq ifodalashga xizmat qilib, tanqid, kinoya yoki ijobiy baho berish imkonini yaratadi. Masalan, *narrow-minded boss* birikmasi nafaqat shaxsning fikrlash doirasini, balki unga nisbatan salbiy munosabatni ham ifodalaydi. Bunday birliklar nutqning emotsional rang-barangligini oshiradi va kommunikativ samaradorlikni kuchaytiradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari qo‘shma so‘zli frazeologizmlarning madaniy jihatdan ham ahamiyatli ekanligini ko‘rsatdi. Ular ingliz tilida so‘zlashuvchi jamiyatning qadriyatlari, axloqiy me’yorlari va ijtimoiy stereotiplarini aks ettiradi. Shu bois, ushbu frazeologizmlarni kognitiv va pragmatik jihatdan o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot ingliz tilidagi frazeologik birliklar tarkibida uchraydigan qo‘shma so‘zlarning kognitiv, semantik va pragmatik jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligini ilmiy asosda tasdiqladi.



O‘rganish jarayonida aniqlanishicha, qo‘shma so‘zlar frazeologik ma’noni shakllantirishda markaziy rol o‘ynab, abstrakt tushunchalarni obrazli va tushunarli tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Bu holat frazeologizmlarning til tizimidagi o‘rnini va ularning nutqiy jarayondagi funksional imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilidagi qo‘shma so‘zli frazeologizmlar asosan antropotsentrik xususiyatga ega bo‘lib, inson xarakteri, ruhiy holati va ijtimoiy munosabatlarini ifodalashga qaratilgan. Ranglar, jismoniy holatlar va tana a’zolari bilan bog‘liq belgilar orqali shakllangan frazeologik birliklar kuchli baholovchanlik va emotsional ta’sirga ega bo‘ladi. Bu esa ularning nutqda samarali kommunikativ vosita sifatida qo‘llanilishiga imkon yaratadi. Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan, tadqiqot natijalari konseptual metafora va kognitiv modellar frazeologik ma’noning shakllanishida muhim omil ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Inson tajribasi va sezgi asosida shakllangan konseptual tuzilmalar qo‘shma so‘zli frazeologizmlarda aniq namoyon bo‘ladi. Pragmatik jihatdan esa ushbu birliklar so‘zlovchining kommunikativ niyatini kuchaytirib, nutqning ta’sirchanligini oshiradi. Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u ingliz frazeologiyasini kognitiv-semantik va pragmatik yondashuvlar asosida kompleks tahlil qilishga xizmat qiladi. Olingan xulosalar frazeologiya, kognitiv lingvistika va diskurs tahlili sohalaridagi tadqiqotlarni boyitadi. Amaliy jihatdan esa mazkur ish natijalari ingliz tilini o‘qitish, tarjima amaliyoti hamda madaniyatlararo muloqot jarayonida samarali foydalanilishi mumkin. Shuningdek, tadqiqot xulosalari oliy ta’lim muassasalari va OAK talablari asosida olib boriladigan ilmiy ishlarda nazariy manba sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
2. Cowie A. P. Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. Oxford: Oxford University Press, 1998.
3. Fernando C. Idioms and Idiomaticity. Oxford: Oxford University Press, 1996.
4. Oxford English Dictionary. Oxford: Oxford University Press.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK:008.314.316.7.129

EKOLOGIK TA'LIMNING SHAXS MA'NAVIYATIGA TA'SIRI

Omonov Bahodir Nurillayevich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi mudiri, f.f.d (DSc), professor

THE IMPACT OF ECOLOGICAL EDUCATION ON PERSONAL SPIRITUALITY

Bahodir Nurillayevich Omonov,
Head of the Department of Social Sciences, Shahrisabz State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor

ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ЛИЧНУЮ ДУХОВНОСТЬ

Омонов Баходир Нуриллаевич,
заведующий кафедрой социальных наук, Шахрисабзский государственный педагогический институт, доктор философских наук (DSc), профессор

https://orcid.org/0009-0000-7245-5600

e-mail: bakhodiron@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada ekologik ta'limning shaxs ma'naviy kamolotiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ekologik ong, axloqiy mas'uliyat va ekologik madaniyatni shakllantirish orqali shaxsning ma'naviy qadriyatlari hamda ijtimoiy pozitsiyasi rivojlanishi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *ekologik ta'lim, shaxs ma'naviyati, ekologik ong, ekologik madaniyat, axloqiy mas'uliyat, barqaror rivojlanish, ekologik tarbiya.*

Abstract*: The article scientifically analyzes the impact of environmental education on the spiritual development of a person.The development of a person's spiritual values and social position is based on the formation of ecological awareness, moral responsibility, and ecological culture.*

Key words: *environmental education, personal spirituality, ecological awareness, ecological culture, moral responsibility, sustainable development, ecological upbringing.*

Аннотация: *В статье проводится научный анализ влияния экологического образования на духовное развитие человека. Формирование духовных ценностей и социального положения человека основывается на развитии экологического сознания, нравственной ответственности и экологической культуры.*

Ключевые слова: *экологическое образование, личная духовность, экологическое сознание, экологическая культура, моральная ответственность, устойчивое развитие, экологическое воспитание.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Zamonaviy sivilizatsiya rivoji jarayonida ekologik muammolarning kuchayib borishi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Iqlim o'zgarishi, atrof-muhit degradatsiyasi, tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish va ekologik muvozanatning buzilishi global miqyosda jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy oqibatlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu jarayonlar sharoitida jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash inson omiliga, xususan, shaxsning ekologik ong va mas'uliyat darajasiga bevosita bog'liqdir. Shu bois ekologik ta'lim nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan bilimlar majmui, balki shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ma'naviy pozitsiyasini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy-pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ekologik ta'limning tarbiyaviy salohiyati shaxsda tabiatga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatni qaror toptirish orqali uning ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi. Mazkur ta'lim yo'nalishi

shaxsning axloqiy qarashlarini boyitib, ekologik muammolarni jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda idrok etish imkonini yaratadi. Natijada shaxsda ekologik madaniyat, ijtimoiy mas’uliyat hamda kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olgan holda qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Shu jihatdan ekologik ta’lim shaxs ma’naviyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan uzluksiz va tizimli pedagogik jarayon sifatida ilmiy jihatdan asoslashni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ekologik ta’lim va shaxs ma’naviy kamoloti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi zamonaviy pedagogik, ijtimoiy-falsafiy va ekologik tadqiqotlarda muhim ilmiy muammo sifatida keng yoritilgan. Jahon ilmiy adabiyotlarida ekologik ta’lim shaxsda ekologik ongni shakllantirish bilan bir qatorda, uning axloqiy qarashlari, mas’uliyat hissi va ijtimoiy pozitsiyasini rivojlantiruvchi uzluksiz tarbiyaviy jarayon sifatida talqin etiladi **[1, 7]**. Xususan, ekologik ta’limning gumanistik yondashuv asosida tashkil etilishi shaxs va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni axloqiy me’yorlar orqali tartibga solishga xizmat qilishi ta’kidlanadi .

Pedagogik tadqiqotlarda ekologik ta’limning tarbiyaviy imkoniyatlari ekologik ong va ekologik madaniyat tushunchalari orqali izohlanadi. Ayrim mualliflar ekologik ongni shaxsning tabiatga nisbatan bilimga asoslangan munosabati sifatida baholab, uning shakllanishida ta’lim jarayonining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadilar **[7].** Boshqa tadqiqotlarda esa ekologik madaniyat ekologik bilimlar, axloqiy qadriyatlar va amaliy faoliyatning integratsiyasi natijasi sifatida talqin qilinib, mazkur madaniyat shaxs ma’naviyatining tarkibiy qismi ekanligi asoslanadi **[5].** Ushbu yondashuvlar ekologik ta’limning faqat informativ emas, balki chuqur tarbiyaviy mohiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Mahalliy va xorijiy ilmiy manbalarda ekologik ta’limning barqaror rivojlanish g‘oyalari bilan uzviy bog‘liqligi alohida e’tirof etiladi. Tadqiqotchilar ekologik ta’limni shaxsda uzoq muddatli tafakkur, kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olish hamda ijtimoiy mas’uliyatli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi muhim omil sifatida baholaydilar **[2, 4].** Shu bilan birga, ekologik ta’limning samaradorligi ta’lim jarayonining uzluksizligi, fanlararo integratsiya va tarbiyaviy yo‘naltirilganligi bilan bevosita bog‘liq ekanligi qayd etiladi **[3].**

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Mazkur tadqiqot natijalari ekologik ta’limning shaxs ma’naviy kamolotiga ko‘rsatadigan ta’siri murakkab va ko‘p qirrali pedagogik jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Olingan nazariy xulosalar ekologik ta’lim orqali shakllanadigan ekologik ong shaxsning axloqiy qarashlari, ijtimoiy mas’uliyati va hayotiy pozitsiyasi bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanishini ko‘rsatadi. Bu holat ekologik ta’limning faqat bilim berishga yo‘naltirilgan emas, balki shaxs ma’naviyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy mexanizm sifatidagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, ekologik ta’limning ma’naviy samaradorligi uning mazmuni va tashkil etilish shakllari bilan bevosita bog‘liqdir. Xususan, ekologik bilimlarning axloqiy-me’yoriy qadriyatlar bilan uyg‘un holda berilishi shaxsda tabiatga nisbatan instrumental emas, balki mas’uliyatli va qadriyaviy munosabatni shakllantiradi. Bu esa shaxsning ekologik muammolarga nisbatan ongli pozitsiya egallashi va ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga tayyorligini kuchaytiradi [5].

Shuningdek, tadqiqot natijalari ekologik madaniyat shaxs ma’naviy kamolotining muhim tarkibiy qismi ekanligini ko‘rsatdi. Ekologik madaniyat ekologik ong va amaliy faoliyatning uzviy birligi sifatida shaxsning kundalik xulq-atvorida ekologik me’yorlarga rioya etish, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish va barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilish orqali namoyon bo‘ladi. Bu jihat ekologik ta’limning ma’naviy ta’siri uzoq muddatli va barqaror xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologik ta’lim jarayonining uzluksizligi va fanlararo integratsiyasi uning tarbiyaviy samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biridir. Ekologik mazmundagi bilimlarning tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar bilan integratsiyalashuvi shaxsda tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tizimli anglash imkonini yaratadi. Natijada shaxsning ekologik tafakkuri kengayib, ma’naviy dunyoqarashi boyiydi [4].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Tadqiqot natijalari ekologik ta’lim shaxs ma’naviy kamolotining muhim determinantlaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Nazariy va konseptual tahlillar ekologik ta’lim jarayonida shakllanadigan ekologik ong shaxsning axloqiy-me’yoriy qarashlari, ijtimoiy mas’uliyati hamda hayotiy pozitsiyasi bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanishini aniqladi. Ekologik mazmundagi bilimlarning tarbiyaviy komponent bilan uyg‘unlashgan holda berilishi shaxsda tabiatni instrumental obyekt sifatida emas, balki ijtimoiy hayotning muhim va ajralmas qadriyati sifatida idrok etishiga xizmat qildi.

Olingan natijalar ekologik ta’lim jarayonida shaxsning ekologik muammolarga nisbatan munosabatida sifat jihatidan o‘zgarishlar yuz berishini ko‘rsatdi. Xususan, ekologik muammolarga nisbatan befarqlikning bosqichma-bosqich kamayishi, ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga nisbatan ongli yondashuvning shakllanishi aniqlandi. Bu holat shaxsda ekologik qadriyatlarning izchil qaror topishi hamda ma’naviy tafakkurning boyib borishi bilan tavsiflanadi [3].

Tadqiqot natijalari ekologik ta’limning ma’naviy ta’siri ekologik madaniyat orqali tizimli ravishda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Ekologik madaniyat shaxsning kundalik faoliyatida ekologik me’yorlarga rioya etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarining shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Natijalarga ko‘ra, ekologik madaniyat darajasining oshishi shaxsning ijtimoiy mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga tayyorligini kuchaytirdi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ekologik ta’lim jarayonining uzluksizligi va integrativligi shaxs ma’naviy kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Ekologik ta’limning tizimli tashkil etilishi shaxsda uzoq muddatli tafakkur, kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olish hamda barqaror rivojlanish g‘oyalariga sodiqlikning izchil rivojlanishiga zamin yaratdi. Natijalarga ko‘ra, fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan ekologik ta’lim shaxsning tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqurroq anglashiga xizmat qildi.

Olingan natijalar ekologik ta’lim shaxs ma’naviy kamolotini ta’minlovchi muhim pedagogik mexanizm sifatida qaralishi lozimligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalarida ekologik ta’lim jarayonining mazmuni va tashkil etilish shakllari shaxsning ekologik ong, ekologik madaniyat va axloqiy mas’uliyat darajalarining izchil rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi [2].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Mazkur tadqiqot natijalari ekologik ta’lim shaxs ma’naviy kamolotini shakllantirishda muhim va tizimli pedagogik ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Ekologik ta’lim jarayonida shaxsda ekologik ong, axloqiy mas’uliyat va ekologik madaniyatning izchil rivojlanishi uning ma’naviy qadriyatlari, ijtimoiy pozitsiyasi hamda tabiatga bo‘lgan munosabatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi aniqlandi. Tadqiqot davomida ekologik bilimlarning tarbiyaviy yo‘naltirilgan holda berilishi shaxsda tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur anglash, ekologik muammolarni global va mahalliy darajada baholash hamda ongli xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Hungerford H.R., Volk T.L. Changing Learner Behavior Through Environmental Education. – The Journal of Environmental Education, 1990, Vol. 21, No. 3, pp. 8–21.
2. Karimov I.A**.** *Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch.* — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Palmer J**.** Environmental Education in the 21st Century: Theory, Practice, Progress and Promise. — London: Routledge, 1998.
4. Sterling S. Sustainable Education: Re-visioning Learning and Change. — Bristol: Green Books, 2001.
5. Tilbury D. *Environmental Education for Sustainability: Defining the New Focus of Environmental Education in the 1990s.* — Oxford: Journals Oxford Ltd., 1995.
6. Xo‘janazarov O.E., Mirsovurov M., Norboboyeva T. *Ekologiya va barqaror taraqqiyot ta’limi* — Toshkent: Navro‘z nashriyoti, 2014.
7. Xo‘janazarov O.E., Yakubjonova Sh. *Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish: o‘quv qo‘llanma.* — Toshkent, 2018.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK:008.314.316.7.34

EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING FALSAFIY-METODOLOGIK MODELI VA ISTIQBOLLARI

Azamova Sitora Ayonovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi v.b dotsenti, f.f.f.d (PhD)

PHILOSOPHICAL AND METHODOLOGICAL MODEL AND PROSPECTS OF ECOLOGICAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL CULTURE

Azamova Sitora Ayonovna,
Shahrisabz State Pedagogical Institute, Department of Social Sciences, Acting Associate Professor, PhD

ФИЛОСОФСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В РАЗВИТИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Азамова Ситора Аёновна,
Шахрисабзский государственный педагогический институт, кафедра Социальных наук, и. о. доцента, доктор философии по философских наук (PhD)

e-mail: azamovasitora04@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-3663-4441

Annotatsiya: *Maqolada ekologik globallashuv sharoitida o'quvchilar ekologik madaniyatini shakllantirishning nazariy-metodologik masalalari haqida fikr bildirilgan. Shuningdek, ekologik tarbiya samaradorligi darajasini oshirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda ekologik tarbiyaning vazifalari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *ekologiya, globallashuv, ekologik madaniyat, biosfera, ekologik ong, ehtiyoj, ekologik ta'lim, ma'naviyat,ekologik vaziyat, ekologik xavfsizlik.*

Annotation: *The article expresses an opinion on the theoretical and methodological issues of the formation of ecological culture of students in the context of ecological globalization. The tasks of environmental education in increasing the level of effectiveness of environmental education and ensuring environmental safety are also analyzed.*

Key words*: ecology, globalization, ecological culture, biosphere, environmental consciousness, need, environmental education,spirituality, environmental situation, environmental safety*

Аннотация: *В статье высказано мнение по теоретико-методологическим вопросам формирования экологической культуры учащихся в условиях экологической глобализации. Также проанализированы задачи экологического воспитания в повышении уровня эффективности экологического воспитания, обеспечении экологической безопасности.*

Ключевые слова*: экология, глобализация, экологическая культура, биосфера, экологическое сознание, потребность, экологическое образование, духовность, экологическая ситуация, экологическая безопасность.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Tabiatdan va resurslardan oqilona foydalanish hamda tabiiy atrof-muhitni saqlashning ilmiy asoslari va amaliy metodlarini aniqlashni bilish hozirda shiddat bilan rivojlanayotgan taraqqiyot davrida muhim dolzarb omil hisoblanadi. Ekologiya

va atrof-muhitni muhofaza qilish, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi dialektik o‘zaro aloqani tushunish, ekologik muammolarning sabablari va ularni bartaraf etish yo‘llarini bilish, atrof-muhit sohasida xalqaro hamkorlik zaruriyati, arxitekturaviy loyihalash hujjatlarida ekologik toza qurilish materiallarini qo‘llash, hozirgi ekologik vaziyat va siyosat, uning rivojlantirish yo‘nalishlari va muammolarining asosiy jihatlarini chuqur o‘rganish iqtisodiyotning real tarmoqlaridagi muammolarni hal qilishda muhim o‘rin tutadi.

ADABIYOT TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Qadimdan xalqlarimiz ekologiyani asrashga juda katta e’tiborini qaratib kelgan. Tabiat onaga qiyoslangan. “Ona tabiat”, “Ona zamin” tushunchalari ijtimoiy-falsafiy talqinga ega. Tabiat insonning panohgohi, barcha zurur ne’matlar bazasi sifatida qaralgan. Inson, tabiatga berilayotgan ishlov uni yanada go‘zallashtiradi, yangi ichki zamonaviy tabiatni yaratadi degan qarash bilan yashab keldi. Shuning uchun ham tabiatga bo‘lgan munosabat oliy qadriyat darajasiga ko‘tarildi. Masalan, tabiat va insonning o‘zaro uyg‘unligi eng qadimiy tarixiy manbalarda ilohiy qadriyat sifatida ulug‘langan.

Jahonda ekologik dunyoqarashni shakllantirish nafaqat global muammolarning oldini oluvchi omil, ayni paytda ekologik xavfsizlikni ta’minlovchi vosita, ekologik madaniyatni yuksaltirish usuli sifatida tan olingan. Mamlakatimizda barqaror ekologik vaziyatni, tabiiy atrof-muhit musaffoligini saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning muhim subyektiv omili bo‘lgan ekologik ong va madaniyatni yanada yuksal tirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. ....bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin”[1].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ekologik tarbiya tarbiyaning yil sayin tobora dolzarblashib borayotgan shakllaridan biridir. U tarbiyaning boshqa shakllari bilan uyg‘un tarzda takomil topa boradi. Aynan shuning uchun ham ekologik tarbiyaning mazmunini chuqurroq anglab olish uchun uni tarbiya tizimi kontekstida, uning turli shakllari bilan o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilmoq kerak. Ekologik tarbiyaning tarbiya tizimidan ayri holda talqin etilishi mazkur fenomen haqida ilmiy tasavvurlar hosil qilishga xalal beradi.

Ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi shaxsning ekologik ongini shakllantirish va yuksaltirish, uni oqilona ekologik faoliyat yuritishga odatlantirishdan iborat. Uning yo‘nalishlari va vazifalari ana shu maqsaddan kelib chiqadi, uslublari va usullari esa unga muvofiq ravishda tanlanadi. Jumladan, maqsadga mos tarzda, ekologik tarbiya ikki asosiy yo‘nalishda (shaxs ekologik ongini yukasaltirish; shaxs ekologik faoliyatini takomillashtirish) amalga oshiriladi. Ekologik tarbiyani tarbiyaning boshqa shakllaridan ayri ravishda tashkil etib bo‘lmaydi. U barkamol inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan umumiy sa’y-harakatlarning bir jihati, shakli, xolos. Ekologik tarbiya aqliy, axloqiy, iqtisodiy, vatanparvarlik va boshqa tarbiya shakllari bilan uyg‘undir [2].

Ekologik tarbiya, avvalambor, bolalarni insonparvarlik, xayrixohlik, hissiy munosabat va ularning atrofidagi dunyoga qiziqishini tarbiyalashga xizmat qiladi. Zero, atrof-muhitning bolaga ta’siri juda katta. Chunki har kuni bolalar u yoki bu shaklda atrof-muhitdagi turli narsalar yoki hodisalar bilan aloqaga kirishadilar ya’ni ular qushlarni, hasharotlarni, hayvonlarni, qishda, qor parchalarini, kuzda, sarg‘aygan barglarni, yomg‘irni kuzatishadi, tabiat haqidagi she’rlar va hikoyalarni tinglashadi va tabiat hodisalari, o‘simliklarga g‘amxo‘rlik qilishni o‘rganadilar. Tabiat bolalarni birinchi navbatda o‘zining go‘zalligi, ranglarining yorqinligi, xilma-xilligi bilan o‘ziga jalb qiladi. Shu boisdan «Ekologik tarbiya maktabgacha yoshda, maktab davrida, maktabdan keyingi, mahalla, mehnat jamoasi hamda keksalik davrida turlicha mazmun, shakl va metodlar hamda yondashuvlarda amalga oshiriladi» [4]. Bolalar birinchi aniq bilim va tajribani ham shu tabiatdan oladi. Bunda albatta oilaning o‘rni, oiladagi ekologik tarbiya muhim vazifani bajaradi. Oiladagi ekologik tarbiya munosabatlari jamiyat yuzaga kelgan ilk davrlardan buyon eng muhim muammolardan biri bo‘lib kelgan. Jamiyat rivojlanib borgan sari bu muammoning ahamiyati yanada ortib boraveradi. Jamiyat, xalq, millatning, ayniqsa maktab o‘quvchilarining ekologik istiqboli ko‘p jihatdan oiladagi munosabatlarning holatiga bog‘liq. Har qanday millatning ekologik ma’naviyati va madaniyatini shakllanishida hech shubhasiz oila-ning o‘rni va

ta’siri beqiyosdir. Bag‘rikenglik, o‘za-ro mehr-oqibat, hurmat, halollik, mehnatsevarlik, ahillik, fikriy birdamlik, odoblilik, ahloqiy poklik, inoqlik, totuvlik, bilimga, kasb-hunarga intilish, o‘z sha’nini asrash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, qonunga to‘g‘ri kelmaydigan har qanday nopok ishlardan saqlanish kabi insoniylik fazilatlari aynan oila muhitida shakllanadi. Birinchi prezidentimiz I.Karimov ta’kidlaganidek “Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo‘ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo‘lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma’naviy olamini tashkil etadi” [3].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Ekologik tarbiyaning maqsadi inson va tabiatni o‘zaro uyg‘unlashtirib, ekologiyani anglatish va o‘quvchilarda ekologik ma’suliyat va madaniyatni shakllantirishdan iborat. Ekologik ta’lim va tarbiyadan maqsad maktab o‘quvchilarida atrof-muhitga mas’ullik munosabatini tarkib toptirishning ta’minlovchi ilmiy bilim qarash va e’tiqodlar tizimini shakllantirishdan iborat. Ekologik ta’limda dunyoqarashni ekologiyalashtirish ham muhim yo‘nalishlardandir. Bunga eri-shishning muhim vositasi insonlarning o‘z ustida ishlashlari, tabiat sirlarini o‘rganishga va ekologik bilimlarni oshirib borishga bo‘lgan intilishlaridir [5].

Eng qadimgi milliy manbaimiz Avestoda ham tabiatning to‘rt unsurini asrab-avaylashga asosiy e’tibor qaratilgan. Avestoda suv, havo, olov, tuproq muqaddas sanalib, tabiatning tarkibi bo‘lgan , o‘simlik va hayvonot dunyosi inson uchun zarur moddiy ne’matlar manbai, sog‘liq, shodlik, turmushga mehr-muhabbatni oshirishga e’tibor berilgan. Avestoda o‘zi o‘sib-ulg‘aygan zaminni obod va go‘zal maskanga aylantirish har bir insonning burchi hisoblangan. “Masalan, “Avesto”-ning ko‘pgina qasidalarida tabiatdagi bog‘larni, foydali va foydasiz nabotot va hayvonot olamini asrash, suvlarning tozaligini saqlash, ularni ko‘paytirish, tuproq, olov va boshqalarning sofligini asrash haqida qiziqarli fikrlar aytilgan. Zaratushtra orqali odamlar tabiat borlig‘ining bir-biriga aloqadorligi, ularning tashqi muhit bilan aloqasini kengroq bilib olishgan. Qabila a’zolari tabiatning ko‘p ne’matlariga sig‘inishgan, ularni e’zozlashgan, daraxtlarni qurigandan keyingina yoqish mumkinligini tushunishgan” [6].

Ekologik madaniyatni shakllantirish falsafaning eng muhim amaliy yo‘nalishlaridan biridir. U inson tafakkurining ekologik, ma’naviy va ijtimoiy uyg‘unligini ta’minlovchi hodisa sifatida talqin qilinadi. Metodologik jihatdan ekologik madaniyatni o‘rganishda dialektik, aksiologik, sinergetik va tizimli yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Dialektik yondashuv tabiat va jamiyatning o‘zaro ta’sirini qarama-qarshilik va birligi orqali tushuntiradi. Bu yondashuvga ko‘ra, insonning ekologik ongini rivojlantirish — bu tabiat bilan uyg‘unlikni tiklash jarayonidir. Aksiologik yondashuv esa tabiatni faqat resurs emas, balki qadriyat sifatida ko‘rishga undaydi. Insonning ma’naviy yetukligi uning tabiatga bo‘lgan ehtiromida namoyon bo‘ladi. Sinergetik yondashuv ekologik tizimlarning o‘z-o‘zini tashkil etish xususiyatini asoslab beradi. Bu nazariya inson va tabiat o‘rtasidagi murakkab tizimlarda muvozanatni saqlash zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, ekologik madaniyat shakllanishida ta’lim-tarbiyaning funksiyasi nimaga yo‘naltirilgani, maqsadlari nima ekanligini aniq aks ettirishi kerak. O‘z mohiyatiga ko‘ra bu funksiya kompleks xarakterga ega bo‘lib, ayni paytda, tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish yo‘nalishlarini uyg‘unlashtirgan holda qamrab olishni taqozo etadi

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2018.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmon. – Toshkent, 21-aprel, 2017.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
4. Ismoilov A., Axadov R. Ekologik ta’lim-tarbiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997.
5. Sultonov P.S., Ahmedov B.P. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari. – Toshkent, 2004. – 222 b.
6. Salomova H.Y. Ijtimoiy ekologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2004.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK:94:339(575.1)XIX/XX

AMUDARYO HARBIY FLOTILIYASINING TASHKIL ETILISHI

Allamuratov Shuxrat Ashurovich, Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

СОЗДАНИЕ АМУДАРЬИНСКОЙ ВОЕННОЙ ФЛОТИЛИИ

Алламуратов Шухрат Ашурович, доцент Национального педагогического университета Узбекистана имени Низами, доктор философии (PhD) по историческим наукам

THE ESTABLISHMENT OF THE AMU DARYA MILITARY FLOTILLA

Allamuratov Shuhrat Ashurovich, Associate Professor of the National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami, Doctor of Philosophy (PhD) in History

e-mail: s.allamuratov@npuu.uz https://orcid.org/0009-0006-6815-9319

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Amudaryo harbiy flotiliyasining tashkil etilishi, uning tuzilishi va faoliyati tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Maqolada flotiliyaning harbiy-strategik vazifalari, transport-logistik imkoniyatlari hamda paroxod va barjalarning texnik tavsifi, yuk tashish quvvati, navigatsiya yo‘nalishlari ilmiy asosda umumlashtirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Amudaryo flotiliyasi, harbiy-strategik siyosat, paroxodlar, barjalar, navigatsiya, chegara nazorati.*

Abstract: *This article analyzes the establishment, structure, and activities of the Amu Darya Military Flotilla based on historical sources. The study generalizes its military-strategic functions, transport and logistical capabilities, and provides a technical description of steamships and barges, their cargo capacity, and navigation routes.*

Key words: *Amu Darya Flotilla, military-strategic policy, steamships, barges, navigation, border control.*

Аннотация: *В данной статье на основе исторических источников анализируются процесс создания Амударьинской военной флотилии, её структура и деятельность. В работе обобщаются военно-стратегические задачи флотилии, её транспортно-логистические возможности, а также приводится техническая характеристика пароходов и барж, их грузоподъёмность и навигационные маршруты.*

Ключевые слова: *Амударьинская флотилия, военно-стратегическая политика, пароходы, баржи, навигация, пограничный контроль.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi siyosiy va harbiy faolligi kuchayib, mintaqada mustamlakachilik boshqaruv tizimi shakllandi. Mazkur jarayonda harbiy-strategik va transport infratuzilmasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, Kaspiyorti temir yo‘lining qurilishi imperiyaning Turkiston o‘lkasidagi harbiy garnizonlar bilan barqaror aloqa o‘rnatish, yuk tashish tizimini takomillashtirish hamda geosiyosiy manfaatlarini mustahkamlashga xizmat qildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi Amudaryo flotiliyasi tarixi haqidagi ma’lumotlar O‘zbekiston Milliy arxivi (keyingi o‘rinlarda – O‘z MA) ning I-1396-fondi materiallarida uchraydi. Shuningdek, mavzuga doir ma’lumotlar F.B.Ochildiyev,

Sh.Allamuratovlarning dissertatsion tadqiqotlari, monografiyalari va bir qator maqolalarida uchraydi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Amudaryo sohilidagi mustamlakaga aylantirilgan hududlarda Rossiya ta'sirini ta'minlash uchun 1880-1888-yillarda Kaspiyorti temir yo'li (Kaspiy dengizining sharqiy sohillaridan Samarqandgacha) qurildi. Kaspiyorti temir yo'lini Ashxoboddan Amudaryogacha va undan narigacha cho'zish haqida qaror qabul qilinganida doimiy ko'prik qurish qiyinchiligi hisobga olinib, Amudaryo flotiliyasini tuzish loyihalashtirilgan edi.

1885-yilda harbiy muhandis M.N.Annenkov Kaspiyorti temir yo'li yuklari va yo'lovchilarini Amudaryodan o'tkazish uchun (bu davrda hali Amudaryoda ko'prik qurilmagandi) flotiliya tashkil etish bo'yicha fikr bildirgan [1]. 1886-yilda general-gubernator vazifasini bajaruvchi Grodekov va general Annenkov Amudaryoda ko'prik qurishdan ko'ra, daryoda tez harakatlanuvchi paroxoddan iborat doimiy flotiliyani tashkil etish foydaliroq ekanligi to'g'risida hukumatga taklif yuboradi. Shuningdek, flotiliyani tuzishda Afg'onistonda ingliz ta'siri faollashuvi tufayli Kerkidagi harbiy garnizon bilan tezkor aloqa o'rnatish zarurligi ham hisobga olingan edi [2].

1887-yilda Kaspiyorti temir yo'li tomonidan Peterburgdagi "Buts va Pompey" nomli ingliz firmasiga ikkita paroxod va ikkita barjaga buyurtma berildi. 1888-yilda Chorjo'yga keltirilgan paroxodlar yig'ilib, ularga "Sar" va "Saritsa", barjalarga esa "Peterburg" va "Moskva" degan nomlar berildi. Kapitan N.Lavengagan boshqargan ushbu paroxodlar 75 santimetrgacha suvga botib, korpusining uzunligi 45 metr edi [3]. 1887-yil 13-noyabrda uzoq tortishuvlardan keyin Termiz va Karkidagi garnizonlarning hayotiy ehtiyojlarini, shuningdek, Amudaryo bo'yidagi Petro-Aleksandrovsk, Termiz, Karki, Chorjo'y oralig'ida qo'shin, davlat va shaxsiy yuklarni tashish hamda yo'lovchi aloqalarini olib borish uchun Amudaryo harbiy flotiliyasi tashkil etilgan. Flotiliya maqsadi o'z Nizomining 1 paragrafida ham belgilanib, Nizomda shunday deyiladi: "Amudaryo flotiliyasi quyidagi vazifalarga ega:

1. Yo'lovchi tashish xizmatini amalga oshirish, shuningdek, davlat va xususiy shaxslar uchun Amudaryo orqali yuk tashishni yo'lga qo'yish;

2. Tinch paytlarda, shuningdek, harbiy harakatlar boshlanganda harbiy qurol-aslahalarni, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarni tashishda Turkiston harbiy okrugi qo'shinlariga yordam berish;

3. Kaspiyorti harbiy temir yo'lining ehtiyojini qondirish;

4. Gidrografik ishlarni amalga oshirish" [4].

Amudaryo flotiliyasi Nizomiining 1 paragrafida ta'kidlanganidek, Amudaryo bo'ylab Petro-Aleksandrovsk–Chorjo'y–Karki oralig'ida yo'lovchilar, hukumat va shaxsiy yuklarini tashishdagi shoshilinch aloqa maqsadida tuzilgan.

1887-yilda Amudaryoda dastlab Chorjo'ydan Karkigacha, so'ngra Termizgacha paroxod qatnovi yo'lga qo'yildi. 1888-yilda "Sar", "Saritsa" paroxodlari va "Moskva", "Peterburg" barjalari (10 ming pud yuk tashish quvvati bilan) Petro-Aleksandrovskdan Karkigacha bo'lgan uchastkada suza boshladi [5]. Amudaryo flotiliyasi boshqarmasi va asosiy pristani Chorjo'yda edi. Mexanik ustaxonasining jihozlanishi past darajada bo'lib, ta'mirlash ishlari chetda Qizilarvat temir yo'llari ustaxonalarida amalga oshirilgan.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Harbiy flotiliya faoliyatini boshlagan davrdagi "Sar" va "Saritsa" nomli paroxodlar va barjalar yiliga 600 ming pudgacha yuk tashigan. Bu paroxodlar 1500 pud yuk bilan suvga 2-2,5 futgacha cho'kib, oqimga qarshi soatiga 3 verst suza olgan. 1887-1899-yillarda flotiliya ancha kengayib, Amudaryoda katta-kichik kemalar va paroxodlar qatnay boshladi. Bu ham harbiy maqsadlar va ham savdo-sotiqning rivojlanishini ko'zlab amalga oshirilgan edi. 1895-yilga kelib flotiliya tarkibiga "Sesarevich" paroxodi, 1897-yilda "Velikiy Knyaz", 1899-yilda "Velikaya knyajna Olga", 1901-yilda "Imperator Nikolay II" paroxodlari qo'shilgan [6].

1904-1905-yillarda flotiliya tarkibi 6 ta paroxod ("Sar","Saritsa", "Sesarevich", "Velikiy Knyaz", "Velikaya knyajna Olga", "Imperator Nikolay II"), 2 ta bug' katerlar ("№1" va "Leytenant Sablin"), 13 ta temir barja (Peterburg, Moskva, Kiyev, Odessa, Toshkent, Volga, Dnepr, Dvina, Neva, Don, Ship, Beluga va Osetr. Ularning 2 tasi suzuvchi yoqilg'i ombori edi), 1 ta bug'li barkas va 2 ta temir qayiqdan iborat bo'lib, ularning umumiy narxi 1,342,039 rubli 45 kopeyek edi.

Amudaryo flotiliyasi paroxodlari 2 tipga bo‘lingan: 1) taxminan 530-550 va undan yuqori indikator kuchiga ega, korpus uzunligi 153 futgacha, eni o‘rtasida 23 fut va suvga botish joyi 2 fut 10 dyuymgacha bo‘lgan paroxodlar, ularga “Sar”, “Saritsa” hamda “Imperator Nikolay II” mansub bo‘lgan;

2) 450-500 indikator kuchiga ega bo‘lgan, suvga botish chizig‘i 140 futgacha, eni o‘rtasida 23 fut va suvga botish joyi 2 fut 5 dyuymgacha bo‘lgan paroxodlar kirgan. Ularga “Sesarevich”, “Velikiy Knyaz” va “Velikaya knyajna Olga” paroxodlari mansub edi [5].

Amudaryo flotiliyasi barjalari 3 turga bo‘lingan: 1) 12 ming pudgacha yuk ko‘taruvchi, suv chizig‘i bo‘ylab uzunligi 165 fut, eni 32 fut, to‘la yuk bilan suvga botishi 3 futgacha bo‘lgan “Peterburg” va “Moskva” barjalari;

2) uzunligi 140 fut, eni 23 fut, 5-6 ming pudgacha yuk tashuvchi “Neva”, “Dnepr”, “Volga”, “Dvina” va “Don” barjalari. Bu barjalarning eni tor va bosh qismi keng yalpoqli bo‘lganligi uchun barja harakatlanganda uning oldida katta to‘lqinlar hosil bo‘lardi;

3) 3 ming pudgacha yuk ko‘taruvchi, uzunligi 92 fut, eni 17 fut bo‘lgan past bortli va suzish uchun xavfliroq bo‘lgan “Osetr”, “Ship” hamda “Beluga” barjalari kirgan [4]. “Peterburg”, “Moskva” barjalari har biri 10 ming pudgacha, “Kiyev”, “Odessa”, “Toshkent” barjalari har biri 6 ming pudgacha, “Volga”, “Dnepr”, “Dvina”, “Neva”, “Don” barjalari har biri 5 ming pudgacha, “Ship”, “Beluga” va “Osetr” barjalari esa har biri 3 ming pudgacha yuk tashiy olardi [7].

Umuman olganda, paroxodlar tarkibi va tuzilishi o‘zgacha bo‘lib, ular suzish sharotiga kam moslashgan edi. Shuni e’tiborga olish kerakki, har bir paroxod ko‘pi bilan 100 yo‘lovchiga mo‘ljallangandi. 8288 pud yukni tashish uchun faqat 2 ta katta barja mavjud edi (ularda neft yoqilg‘isi bilan birga) [8]. Yuklarning qolgan qismi har biri 50 tonnadan 100 tonnagacha yuk ko‘taruvchi 13 ta shatakka olinadigan po‘lat barjalarda tashilgan. Paroxodlar yo‘lovchi tashishga mo‘ljallangan o‘rtacha 25 ta kayutaga ega bo‘lgan [9].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Harbiy maqsadni ko‘zlab Amudaryo flotiliyasi tashkil qilingan bo‘lsa-da, uning mintaqa tranziti hamda savdo ishlarining rivojidagi ahamiyatini ham inkor etib bo‘lmaydi. Masalan, Chorjo‘y, Petro-Aleksandrovsk, Termiz va Saroy shaharlari oralig‘idagi paroxodlar navigatsiyasi mintaqa aloqalari faollashuviga ijobiy ta’sir etgan.

Amudaryo flotiliyasi zarar bilan faoliyat ko‘rsatgan. Biroq, agar hukumat yuklari va harbiy yo‘lovchilar uchun juda past ta’rif summalari, shuningdek, flotiliya tomonidan shaxsiy qayiqlar orqali tashishdagi foyda hamda afg‘on chegarasidagi qo‘riqlash xizmatidagi faoliyati pulga chaqilsa, flotiliya o‘z xarajatlarini to‘liq qoplagan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Ochildiev F.B. The creation of the Amudarya Fleet // Theoretical & Applied Science. – 2019. Iss. 10, Vol. 78. – P. 583-586.
2. Allamuratov S. A. The role of the Amudarya fleet in the economic life of the Emirate of Bukhara at the end of the 19th century-the beginning of the 20th century //Ўтмишга назар журнали. – 2019. – Т. 21. – №. 2.
3. Allamuratov Sh.A. Amudaryo suv yo‘li va kechuvlari tarixi (XIX-XX asr boshlari). Monografiya. – Toshkent: – “Innovatsiya-Ziyo”, 2023. – 220 b.
4. Третеский В. Аму-Дарья и ея флотилия. – Чарджуй: тип. Х.М.Баранова, 1906. – 57 с.
5. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Том I. – СПб.: В.Березовский, 1911. – 340.
6. Allamuratov Sh.A. XIX-XX asr boshlarida mintaqa kommunikatsiyasi va savdo-tranzit tizimida Amudaryoning o‘rni. Monografiya. – Termiz: “Termiz publishing center”, 2025. – 190 b.
7. Гейциг Н.И. Казенное судоходство по реке Амударье и нужды сельского хозайства в путях сообщения // Туркестанские ведомости. – 1908, № 206.
8. O‘z MA, И-1396-fond, 2-ro‘yxat, 515-2-ish, 96-varaq.
9. Allamuratov Sh. Amudaryo suv yo‘li bo‘ylab mintaqa davlatlarining savdo va tranzit aloqalari //«ACTA NUUz». 2025. – T. 1. №. 1.5. 1. – C.8-11.
10. Ashurovich A. S. Military-strategic goals of the Russian Empire on the Amu Darya //American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769). – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 151-155.
11. Qobulov E., Allamuratov Sh. XIX Asr oxiri-XX asr boshlarida Surxon vohasining Amudaryo suv yo‘li va kechuvlari orqali savdo munosabatlari //Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – S. 405-409.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 096.374.117

MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATIDA TIBBIYOT TIZIMINI KADRLAR BILAN TA'MINLASH MUAMMOLARI

Xo'janazarov Absalom Ziyadullayevich,
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ КАДРАМИ В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Хужаназаров Абсалом Зиядуллаевич,
Термезский государственный университет инженерии и агротехнологий, доктор философии по истории (PhD)

PROBLEMS OF STAFFING THE HEALTHCARE SYSTEM IN SURKHANDARYA REGION DURING THE EARLY YEARS OF INDEPENDENCE

Khujanazarov Absalam Ziyadullaevich, Termez State University of Engineering and Agrotechnologies, Doctor of Philosophy in History (PhD)

e-mail: xujanazarov@mail.ru
https://orcid.org/0009-0006-9711-5163

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida Surxondaryo viloyatida tibbiyot tizimini malakali kadrlar bilan ta'minlash jarayonida yuzaga kelgan muammolar tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda 1990-yillarning boshlarida sog'liqni saqlash sohasida kuzatilgan tizimli inqiroz holati, oliy va o'rta maxsus tibbiy ma'lumotli mutaxassislar taqchilligi hamda qishloq hududlarida kadrlar bilan ta'minlashdagi nomutanosiblik masalalari arxiv manbalari va statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *sog'liqni saqlash tizimi, tibbiyot kadrlari, kadrlar taqchilligi, tibbiy ta'lim, ijtimoiy infratuzilma.*

Abstract: *This article analyzes the problems of providing the healthcare system of the Surkhandarya region with qualified personnel during the early years of independence from historical and socio-economic perspectives. Based on archival sources and statistical data, the study highlights the systemic crisis in the healthcare sector in the early 1990s, the shortage of specialists with higher and secondary specialized medical education, as well as disparities in staffing rural areas. The causes of these problems and their impact on the development of the regional healthcare system are scientifically generalized.*

Key words: *healthcare system, medical personnel, staff shortage, medical education, regional disparity, social infrastructure.*

Аннотация: *В данной статье анализируются проблемы обеспечения системы здравоохранения Сурхандарьинской области квалифицированными кадрами в первые годы независимости с исторической и социально-экономической точек зрения. В исследовании на основе архивных источников и статистических данных освещаются системный кризис в сфере здравоохранения в начале 1990-х годов, дефицит специалистов с высшим и средним специальным медицинским образованием, а также диспропорции в обеспечении кадрами сельских территорий. Обобщаются причины существующих проблем и их влияние на развитие региональной системы здравоохранения.*

Ключевые слова: *система здравоохранения, медицинские кадры, дефицит кадров, медицинское образование, территориальная диспропорция, социальная инфраструктура.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Mustaqillik yillarida tibbiyot sohasida mutaxassislar tayyorlash jarayonida ulkan ishlar amalga oshirildi. Shu asosda tibbiy kadrlar soni va salmog‘ining oshishiga erishildi. Sovet hukumati yillarida respublikada aholiga xizmat ko‘rsatayotgan vrachlar soni ko‘p bo‘lishiga qaramay ular tomonidan amalga oshirilgan ishlarning samarasi mavjud raqamlarga mutloqo mos kelmas edi.

Surxondaryo viloyatida XX asrning 90-yillargacha tibbiy xizmat sohasida erishilgan darajani mustaqillik yillarida saqlab qolish va uni zamon talablari darajasida isloh qilish, o‘tish davrining muhim va o‘ta dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Bu davrda respublika aholisining yetuk malakali tibbiy xodimlar bilan ta’minlash borasida ham anchagina muammolar to‘planib qolgan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). O‘zbekistonda mustaqillik davrida sog‘liqni saqlash tizimi tarixiga doir qator ilmiy monografiyalar, maqolalar va boshqa ishlar nashr etildi. Mazkur soha tarixchi olimlar tomonidan ham tadqiq etilib, dissertatsiya ko‘rinishidagi ilmiy ishlar nashr etildi. So‘nggi yillarida sog‘liqni saqlash tizimini o‘rganishga bag‘ishlangan G.E.Mo‘minova [1], N.F.Rasulov [2], S.A.Djumanov [3], O.R.Ochilova [4] va A.Xujanazarov [5;6;7] kabilarning ilmiy maqolalari, monografiyalari hamda ilmiy ishlari diqqatga sazovordir.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Respublikaning olis va yetib borish qiyin bo‘lgan hududlarida umumiy amaliyot vrachlari hamda tor mutaxassislar yetishmas edi. Ayniqsa sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, uning institutsional, o‘quv-pedagogik salohiyatini kuchaytirish, tibbiyot o‘quv yurtlarining o‘quv jarayonini xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil etish, aholi salomatligini muhofaza qilish, reabilitologiya va sport tibbiyoti sohasida dolzarb muammolar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni tizimli olib borish, shuningdek, hududlar aholisiga tibbiy yordam ko‘rsatish sifatini yanada oshirish masalalari o‘tkirlashib bormoqda edi. Shu sababdan ham tibbiy-sanitariya xodimlarini kasbiy rivojlantirish tizimini yaxshilash, sohada yetuk va chuqur bilimga ega kadrlarni zamonaviy ta’lim standartlari asosida tayyorlash, tibbiyot tashkilotlari, ayniqsa birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarini professional mutaxassislar bilan ta’minlash, tibbiyot ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining mavqeini oshirish masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Shu davrda tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni asosan ambulatoriya-poliklinika, qishloq vrachlik punktlarini rivojlantirishga qaratilishi lozim ekanligi anglab yetildi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). O‘rganilayotgan davrda Surxondaryo viloyatida asosan tibbiyot mutaxassislariga bo‘lgan e’tibor mustaqillik yillarida bir muncha o‘sdi. Ularning tajribalari umumlashtirilib, Respublika ilmiy-uslubiy markazlari bilan aloqasi mustahkamlandi. Viloyat sog‘liqni saqlash tizimida 1991-yilda 4100 nafar oliy ma’lumotli shifokor ishlagan bo‘lsa, 1992-yilga kelib bu ko‘rsatkich 4310 nafarga yetdi. Jumladan, birgina Oltinsoy tumani misolida oladigan bo‘lsak, tumanda 1991-yilda 188 ta oliy ma’lumotli vrach ishlagan bo‘lsa, 1995-yilga kelib ularning soni 210 taga yetdi [8]. Tibbiyot xodimlarining soni oshib borishi aholiga bo‘lgan xizmatni yaxshilash bilan birga, yangi davolash bo‘limlarining tashkil topishiga, tibbiyot xizmati sifatini oshirishga ham imkoniyat yaratdi.

1992-1993-yillarda viloyat aholisi sonining o‘sishi barobarida aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning ham salmog‘i ortib bordi. Bunday holatni Termiz tumani misolida ham ko‘rish mumkin. Masalan, 1992-1993-yillarda Termiz tumanida malakali mutaxassislarni ishga qabul qilish va ularni moddiy-ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun bir qator tadbirlar o‘tkazildi. 1992-yili viloyatda 33 nafar, 1993-yilda esa 39 nafar oliy ma’lumotli tibbiyot xodimlari aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatdi [9]. Bu ko‘rsatkichlar viloyat tumanlarida quyidagicha o‘sib bordi. 1992-yili Termizda 143 tani tashkil etdi [10].

Termiz tumanida oliy ma’lumotli vrachlar soni yildan-yilga ma’lum darajada o‘sib, mutaxassislarning ishlashi va yashashi uchun yetarli darajada imkoniyatlar kamligi, moddiy

manfaatdorlikning yo‘qligi bu sohada jiddiy izlanishlar qilishni talab etdi. Ayniqsa, yosh mutaxassislarni rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash ishlarining o‘z holiga tashlab qo‘yilishi natijasida ularning ishga bo‘lgan qiziqishi susayib qoldi.

Mustaqillik yillarida tumanlarda tibbiyot mutaxassislariga bo‘lgan e’tibor o‘sib, ularning tajribalari umumlashtirilib, respublika ilmiy-uslubiy markazlari bilan aloqasi mustahkamlandi. Viloyat sog‘liqni saqlash tizimida 1990-yili 3399 nafar oliy ma’lumotli shifokor ishlagan bo‘lsa, 1991-yilga kelib, 3549 taga yetdi [11].

O‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlashda Termiz, Denov, Sherobod tibbiyot bilim yurtlarining hissasi katta bo‘ldi. Shuningdek, Toshkent va Samarqand tibbiyot institutlari tumanda tibbiyot xodimlarini malaka oshirishi va uslubiy ishlarini yaxshilashda amaliy yordam berdi.

Mustaqillik sharofati bilan 1992-yilga kelib tibbiyot sohasiga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi, tumandagi ko‘pgina kasalxonalar qayta ta’mirdan chiqarildi. Aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatni yaxshilash maqsadida xorijiy mamlakatlardan zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalari keltirildi. Viloyat aholisining har 10 ming kishisiga 1992-yilda 81,5 foiz o‘rindiqlar to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 1993-yilga kelib 79,3 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich Jarqo‘rg‘onda 57,1 foizni tashkil etdi [12]. Shunga qaramay, mustaqillikning dastlabki yillarida sog‘liqni saqlash tizimida ham muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ushbu ishlar zamirida voha ahlining salomatligini saqlash, kelajak avlodni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalashdek xayrli niyatlar mujassamlashgan edi.

XULOSA (CONCLUSION/ЗАКЛЮЧЕНИЕ). Xullas, o‘rganilgan davrda mustaqillik yillarida viloyat tibbiyot sohasini mutaxassis kadrlar bilan ta’minlash borasida ham bir qancha muammolar saqlanib qoldi. Jumladan, qishloq vrachlik punktlarida patronaj hamshiralarning faoliyati yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmadi, shuningdek, zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalarni ishlata oladigan mutaxassislar tayyorlash ishlari ham talab darajasida emas edi. Shu sababli ham viloyat aholisi o‘rtasida ayrim kasalliklarning ko‘payishi jarayoni sodir bo‘ldi. Soha xodimlarining safini doimiy ravishda to‘ldirib borish, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat samaradorligini oshirish aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish masalalari o‘rganilayotgan davrning kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylanib bordi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Mo‘minova G.E. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi tarixi (1917–1991 yillar). – Toshkent: Yangi nashr, 2015. –336 b.
2. Расулов Н.Ф. История развития педиатрии в Узбекистане. Автореф. дис. ... канд. мед. наук. – Ташкент, 2006.
3. Djumanov S.A. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi asosiy yo‘nalishlarining rivojlanishi tarixi (1991–2015 yy.). Tarix fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2019.
4. Ochilova O.R. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash sohasini rivojlantirishda xalq tabobatining o‘rni. Tarix fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) ... diss. – Qarshi, 2022.
5. Хужаназаров А.З., Алламуратов Ш.А. Реформы в системе здоровья Узбекистана в последние годы //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 1 (76). – С. 19-23.
6. Хужаназаров А.З., Алламуратов Ш.А. Система здравоохранения в Узбекистане: проблемы и реформы //Бюллетень науки и практики. – 2021. – Т. 7. – №. 2.
7. Xo‘janazarov A.Z. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tibbiyot sohasida amalga oshirilgan islohotlar //GOLDEN BRAIN. – 2025. – T. 3. – №. 17. – C. 256-261.
8. Surxondaryo viloyatining ijtimoiy rivojlanishidagi ayrim ko‘rsatkichlar tahlili. 1991-2000. VXISB. 2-kitob. 111-bet.
9. “Surxon tongi” gazetasi. 1994-yil 28-iyun soni.
10. Xujanazarov A.Z. O‘zbekistonda tibbiyot tizimi taraqqiyoti: natijalar va tahlillar (Surxondaryo viloyati misolida, 1991-2020 yy.). Tarix fan.bo‘y.fals.dokt. (PhD) … diss. – Termiz, 2023.
11. Termiz tumani sog‘liqni saqlash bo‘limi joriy arxivi. 115-yig‘ma jild. 36-varaq.
12. Jarqo‘rg‘on tumani sog‘liqni saqlash bo‘limi joriy arxivi. 98-yig‘ma jild. 88-111-varaq.
13. Xo‘janazarov A. Mustaqillikning ilk yillarida Surxondaryo viloyati sog‘liqni saqlash tizimi holati //TAMADDUN NURI JURNALI. Учредители: "Tafakkur-Tamaddun" LLC. – 2024. – T. 11. – №. 62. – C. 257-259.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 801.85:97.38

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MILLIY KIYIM NOMLARI BILAN BOG‘LIQ URF-ODATLAR VA ULARDA MADANIY BIRLIKLARNING IFODALANISHI

Normurodova Farog‘at Tojimurod qizi,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi

NAMES OF NATIONAL CLOTHING IN UZBEK AND ENGLISH AND THE ASSOCIATED CUSTOMS, AND THEIR EXPRESSION OF CULTURAL UNITY

Normurodova Farogat Tojimurod qizi,
Lecturer, Termiz University of Economics and Service

НАИМЕННОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ОДЕЖДЫ НА УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ И СВЯЗАННЫЕ С НИМИ ОБЫЧАИ, А ТАКЖЕ ИХ ОТРАЖЕНИЕ В КУЛЬТУРНОЙ ЕДИНСТВЕННОСТИ

Нормуродова Фарогат Тожимуродовна,
преподаватель, Термезский университет экономики и сервиса

e-mail: normurodova11@gmail.com
https://orcid.org/0009-0008-3663-5100

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi milliy kiyim nomlari bilan bog‘liq urf-odatlar lingvomadaniy hamda etnolingvistik nuqtayi nazardan qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda kiyim nomlari nafaqat nominativ birlik, balki milliy identitet, ijtimoiy maqom, marosimiy an’ana va mental qadriyatlarni ifodalovchi madaniy kod sifatida talqin etilgan.*

Kalit so‘z: *Milliy kiyim nomlari, urf-odat, madaniy birlik, lingvokulturema, realiya, madaniy kod.*

Abstract*: This article comparatively analyzes the customs and traditions associated with national clothing names in Uzbek and English from linguocultural and ethnolinguistic perspectives. The study interprets clothing names not merely as nominative units, but as cultural codes that express national identity, social status, ceremonial traditions, and collective mental values.*

Key words: *National clothing names, custom, cultural unit, linguocultureme, realia, cultural code.*

Аннотация: *В статье проводится сравнительный анализ обычаев и традиций, связанных с названиями национальной одежды на узбекском и английском языках с лингвокультурной и этнолингвистической точек зрения. Исследование рассматривает названия одежды не просто как номинативные единицы, а как культурные коды, выражающие национальную идентичность, социальный статус, обрядовые традиции и коллективные ментальные ценности.*

Ключевые слова: *названия национальной одежды, обычай, культурная единица, лингвокультурема, реалия, культурный код.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION). Insoniyatning kiyinish ehtiyojini o‘tovchi buyumlar majmuining umumiy nomi o‘zbek adabiy tilida «kiyim», «kiyim-kechak», so‘zlashuv nutqida «engil», «engil-bosh» (engilvosh), «kiyim-bosh» (kiyim-vosh), «ust-bosh» (ustvosh), «libos», «sarpo» kabi atamalar bilan ifodalanadi. An’anaviy kiyimlar uzoq tarixiy davr davomida shakllanib, u yoki bu xalq yashagan geografik muhit, uning xo‘jalik shakli, ijtimoiy munosabatlari, madaniyati, etnik qatlamlari va boshqa qator omillar bilan bevosita bog‘liq holda taraqqiy etib borgan. Boshqacha aytganda, kiyimlar va kiyinish madaniyati uzoq tarixiy-tadrijiy yo‘lni bosib o‘tgan. Xalq turmushiga mos, ishlab chiqarish jarayonlariga xos bo‘lgan kiyimlar asrlar mobaynida shakllanib

borishi natijasida xalqning an’anaviy milliy kiyimlari majmui yuzaga kelgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДЫ/ LITERATURE REVIEW AND METHODS). Asrlar davomida shakllanib, sayqallanib va rivojlanib borgan voha milliy liboslari o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan urf-odat, an’analari, xarakter xususiyatlari va turmush tarzi ko‘rinishlarini o‘zida mujjassam etgan. Ushbu jihatlar liboslarning bichimida, matolarning tayyorlanish texnologiyasida, kiyimlarning o‘ziga xos ramziy ma’nolarida, liboslarning naqshinkor bezaklari va ranglar ma’nosida uyg‘unlashgan edi. Tarixiy taraqqiyotning har bir davri O‘rta Osiyo etnoslari shu jumladan Buxoro vohasi aholisi an’anaviy liboslarida ham o‘z izini qoldirgan, ta’sir ko‘rsatgan. Taniqli olima O.A. Suxareva haqli ravishda ta’kidlaganidek, kiyimlarning turli tuman yangi ko‘rinishlari yaratilishiga kishilar turmush tarzi, mehnat faoliyati va iqlim ta’siri bilan birga o‘sha jamiyat madaniy taraqqiyoti va estetik didi ham sezilarli ta’sir etgan [1].

Etnologiyada kiyimlar kishining yoshiga qarab bolalar, kattalar, keksalar libosi; odamning jinsiga mos ravishda erkaklar va ayollar kiyimi; kiyinish maqsadiga muvofiq bayram, marosim, kundalik va ish kiyimlari; insonning ijtimoiy holatiga qarab boy va kambag‘al kiyimi; hududiy va tabiiy-iqlimiy sharoitiga qarab tog‘liklar, dasht hududida yashovchilar, shaharliklar va qishloqliklar kiyimi; mavsumga mos tarzda bahorgi, yozgi, kuzgi va qishki kiyimlarga bo‘linadi.

S.D.Nishonova an’anaviy milliy liboslar o‘ziga xos belgi, timsol sifatida ma’lum bir ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Bular amaliy, utilitar, estetik, yosh, ijtimoiy-jins (turmushga chiqqan ayol libosi) va u bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan axloqiy funksiya, shuningdek bayramona libos, marosimlar uchun, kasbiga bog‘liq bo‘lgan, diniy liboslarni ajratib ko‘rsatadi. Liboslarda inson yashagan joy va zamon, uning hayoti, turmushidagi quvonchli yoxud qayg‘uli kunlari aks etadi [5].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/ DISCUSSION). Har bir bayram o‘ziga xos an’analari, tomoshalari, o‘yinlari, folklori (kuy, qo‘shiq, raqslari) kabilarga ega bo‘lmasa, ularning barchasi bir xil shaklga ega bo‘lib qoladi. Turg‘unlik yillari ko‘pgina bayramlar shunday bo‘lib qolgan edi. O‘zbek bayramlarini tiklash jarayonida har bir bayramning o‘z qiyofasini, ko‘rkini, o‘ziga xos fayzini bunyod etish muhim ahamiyatga egadir. Xullas, xalqning o‘tmishi va kelajagini hayot ko‘zgusi, quvonch va shodlik manbai bo‘lgan bayramlarsiz tasavvur qilish qiyin. O‘zining go‘zal, zavqli, xushchaqchaq bayramlariga ega bo‘la olgan xalqning istiqboli porloqdir. Zotan, ajdodlarimiz ming yillar davomida e’zozlab, avloddan-avlodga meros qilib qoldirgan bayramlarni ehtiyotkorlik bilan oqilona tarzda tiklab, zamon ruhi bilan boyitib, istiqbol yo‘lini belgilash va kelajak avlodlarga yetkazish muqaddas ish ekanligini unutmasligimiz lozim [4].

Liboslar xalq madaniyatini o‘rganishda qimmatli manbadir. Chunki kiyimlarda kishining ijtimoiy ahvoli, moddiy imkoniyati, kayfiyati, xalqning ramzlari mujassamlashgan. Dunyodagi barcha xalqlar bir-birlariga qanchalik yaqin bo‘lishlariga qaramay, ularning kiyimlari, taqinchoqlari bir-biridan farq qiladi. Kiyinish kishining nafaqat tashqi qiyofasini belgilaydi, balki odamning ichki dunyosi va madaniyati, qaysi xalq, qaysi millat farzandi, qanday saviya kishisi ekanligini ko‘rsatuvchi moddiy-ma’naviy timsoldir.

Nikoh marosimlari bilan bog‘liq an’analarda oq rang simvoli juda ko‘p ko‘zga tashlanadi. Bu marosimdagi oqliklar (oq rang bilan bog‘liq ramziyliklar) yoshlarning baxtli va porloq kelajagi ramzini ifodalab keladi. Bunga, avvalo, nikoh to‘yining ilk bosqichi bo‘lgan sovchilik udumidayoq alohida ahamiyat qaratiladi. Jumladan, odatimizga binoan, sovchilikka borganlarga qiz tomon rozi bo‘lsa, oqlik (oq ro‘mol, oq holva) berishadi. Shundan so‘ng kuyov tomon kelinga oq rangli nikoh ko‘ylagi va katta oq harir ro‘mol jo‘natadi. Nikoh marosimida kelin-kuyov oq rangdagi liboslar kiyishadi [3].

Belbog‘ o‘yini – O‘zbek xalqida yigitning belbog‘i ham, qizning ro‘moli ham oddiy mato, aksessuarlar emas. Ular mardlik, or-nomus, hayo, sadoqat, poklikning matoda namoyon bo‘lishi. Shuning uchun ham xalqimizda belbog‘ qadimdan azizlangan. O‘z so‘zida turadigan, aytganidan qaytmaydigan yigitlar “Belida belbog‘i bor” deb maqtalgan. Belbog‘ yigitning ko‘rki, nomusi, ori sanalgan. “Belbog‘” o‘yinining eng afzal tomonlaridan biri unga maxsus tayyorlanadigan vosita shart emas. Qolaversa, bu o‘yin bilan istalgan joyda hamroh bo‘lish mumkin. Bahsga kirishgan bolalar bo‘yi, yoshi, kuchi teng bo‘lishi talab

qilinadi. O‘yin davomida ishtirokchi nimalarga e’tibor berishi kerak? Eng avvalo, u ziyrak bo‘lishi, o‘yinboshining xatti-harakatini diqqat bilan kuzatib turishi kerak. Sababi, o‘yinboshi “boshlang” ishorasini berganda bir lahza kech boshlangan harakat insonning mag‘lub bo‘lishiga sababchi bo‘ladi. Oyoqlar tagiga tashlangan belbog‘ni birinchi bo‘lib egallab olish va uni bosh uzra baland ko‘tarishga raqibdan oldinroq ulgurish kerak [2].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). “Zar qalpoq” o‘yinida vosita sifatida bosh kiyim tanlangan. Xalq o‘yinlarida bosh kiyimning vosita sifatida tanlanishi ham bejiz emas. Bosh kiyim insonning obro‘si, hurmati, shaxsini anglatadi. Hatto boshdagi do‘ppining holatiga qarab egasining qanday insonligini bilib olish qiyin emas. “Zar qalpoq” o‘yini bolalarni ziyrak va tiyrak bo‘lishga o‘rgatadi. Ya’ni qalpoqni qo‘yniga yashirgan ishtirokchining ko‘zlariga qarab qalpoq qaysi bolaning qo‘ynida ekanligini topish kerak. Bunda ziyraklik ish beradi. Har bir bolaning ko‘ziga diqqat bilan tikilish, uning ko‘zlari tubidagi sirni anglay olish kerak. Agar ana shu sezgirlik ishtirokchida yetishmasa pand yeydi. “Zar qalpoq” o‘yinida mag‘lub bo‘lgan ishtirokchi tengqurlarining har xil shartlarini bajaradi. Shartlar ishtirokchilarning kayfiyati, faslga bog‘liq tanlangani uchun xilma-xil bo‘lib, raqsga tushish, qo‘shiq, tez aytish, topish-moqning javobini topish, she’rni yoddan o‘qish kabi bo‘lishi mumkin. Demak, ishtirokchi ana shu narsalarga ham doim tayyor turmog‘i kerak [1].

“Chor do‘ppi” – ushbu o‘yin ishtirokchilardan birining bosh kiyimi orqali tanilishini talab qiladi. Bu nomda “do‘ppi” – milliy bosh kiyim nomi, “chor” esa to‘rtlik tashkil etilgan o‘yinni bildiradi. Bu nom o‘yin strukturasi va vositalarini bevosita ifodalaydi.

Bosh kiyimi – davlat ramzi bo‘lganligi sababli, uni tayyorlovchilar hamisha yaxshi niyatni ko‘zlashgan. Shu tayyor bo‘layotgan bosh kiyimini kiyib yuruvchining doimo boshi omon bo‘lishi niyat qilingan. Do‘ppi tikish oson ish emas. U nozik, zerikarli, toliqtiradigan ish. Shu sababdan do‘ppido‘z ayollar uni tikayotganda “qon bo‘lganini” do‘ppido‘zlik qo‘shiqlarida alohida ta’kidlab o‘tishgani kuzatiladi. O‘zbek do‘ppilarining bir necha hududiy turlari mavjud. Jumladan, Andijon, Farg‘ona, Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun do‘ppilari bir-biridan tuzilishi, tikilishi va bezatilishi jihatidan farqlanib turadi. Andijonda qizlar kiyishiga mo‘ljallangan “oqpar” do‘ppilarning foni, asosan, oq rangda, kashta nusxasining “chorgul” kompozitsiyasini qo‘llab tikiladi. Ularning tepa qismi zigzak yo‘li orqali to‘rt tarkka ajratilib tayyorlanadi. Har bir tarkka bir xil gulg‘unchalar joylashtiriladi va ba’zan gullar orasiga yozuvlar bilan bezak beriladi. Erkaklar do‘ppisining tepa qismiga solingan to‘rt dona bodom tasviri kichikrok hajmda, kizaklarda joylashgan yarim oy shakllarining balandligi bir xil bo‘lmay, choklar ichiga to‘shama (qog‘oz, ip va h.k. kabi) qo‘yilmasdan to‘liq tabiiy to‘ldirib tikilishi bilan farqlanadi. Andijon do‘ppilarining “setora” va “injiq” nusxalari choklarining o‘ta mayda va nafisligi bilan xarakterlanib, boshqa do‘ppido‘zlik maktablari ishidan ajralib turadi. Hozirgacha saqlanib, yanada sayqallanib kelayotgan “andijon”, “setora”, “injiq”, “qalin”, “shahrixon”, “paxtaobod” kabi nusxalarni xalq sevib kiymoqda [4].

XULOSA (CONCLUSION/ВЫВОДЫ). Demak, o‘zbek tilidagi kiyim nomlari tilning oddiy nominativ birliklaridan iborat bo‘lmay, balki xalqning ko‘p asrlik tarixiy tajribasi, diniy e’tiqodi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy ongining lingvistik aksidir. Ushbu nomlar o‘zbek xalqining hayot tarzini, urf-odatlarini, diniy marosimlarini va milliy o‘ziga xosligini ifodalovchi muhim lingvokulturologik birliklar hisoblanadi. Ular orqali nafaqat bayramning nomi, balki uning mazmun-mohiyati, madaniy va diniy asoslari ham til vositasida ifodalanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES/СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ)

1. Yuldashev I. Urf-odat va marosimlar milliy liboslarni shakllantiruvchi asosiy vosita. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Volume 2. 2022.
2. Ibragimova M. Liboslarda xalq ruhi. – Toshkent. 2001. – B. 28.
3. Mengboyev A.A. Ingliz va o‘zbek tillaridagi bayram va o‘yin nomlarining lingvomadaniy tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Termiz. 2026.
4. Musaqulov A. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining tarixiy asoslari. – T., 1995. – B. 154.
5. Nishonova S. D. Libos millat ko‘zgusi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4(10), Nov., 2024. – B. 18-23.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK:811.82.42

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Fayzullayeva Lobar,
Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

e-mail: husniddin.ahmedov@gmail.com
https://orcid.org/0009-0006-2581-1979

METHODOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON MODERN APPROACHES

Fayzullayeva Lobar,
Master’s student of Samarkand State Pedagogical Institute

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ

Файзуллаева Лобар, магистрант Самаркандского государственного педагогического института

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida shakllantirish masalasi ilmiy jihatdan yoritiladi. Kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol metodlar hamda hamkorlikda o‘qitish orqali o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi, muloqot madaniyati va mustaqil fikrlashini rivojlantirish yo‘llari asoslab beriladi. Metodikaning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi..*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ kompetensiya, pedagogik muloqot, boshlang‘ich ta’lim, verbal va neverbal kommunikatsiya, kasbiy nutq, interfaol metodlar, pedagogik refleksiya, o‘qituvchi madaniyati, emotsional intellekt.*

Abstract: *This article scientifically examines the issue of developing communicative skills of primary school students based on modern pedagogical approaches. It substantiates ways of improving students’ oral and written speech, communication culture, and independent thinking through a competency-based and learner-centered approach, interactive methods, and collaborative learning. The significance of the proposed methodology in enhancing the effectiveness of the educational process is highlighted.*

Key words: *communicative competence, pedagogical communication, primary education, verbal and nonverbal communication, professional speech, interactive methods, pedagogical reflection, teacher culture, emotional intelligence.*

Аннотация: *В данной статье научно освещается проблема формирования коммуникативных навыков учащихся начальных классов на основе современных педагогических подходов. Обосновываются пути развития устной и письменной речи, культуры общения и самостоятельного мышления учащихся посредством компетентностного и личностно-ориентированного обучения, интерактивных методов и обучения в сотрудничестве. Показана значимость предложенной методики в повышении эффективности образовательного процесса.*

Ключевые слова: *коммуникативная компетенция, педагогическое общение, начальное образование, вербальная и невербальная коммуникация, профессиональная речь, интерактивные методы, педагогическая рефлексия, культура учителя, эмоциональный интеллект.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy-axloqiy hamda intellektual salohiyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishni taqozo etadi. Bu esa o‘quv-tarbiya jarayonida innovatsion shakl va metodlarni qo‘llash, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi pedagogik muloqotni yangicha mazmunda tashkil etishni talab qiladi. Ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida malaka oshirish tizimining shakli, mazmuni va mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanida keng tadqiq etilgan. Xususan, kommunikativ faoliyatning psixologik asoslari Lev Vygotsky tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-madaniy nazariya doirasida izohlanib, nutq va tafakkur rivoji ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanishi asoslab berilgan. Jean Piaget esa bolalar tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanishini tahlil qilib, boshlang‘ich ta’lim davrida muloqot va faol o‘rganish muhim o‘rin tutishini ko‘rsatgan. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi ilmiy muomalaga Dell Hymes tomonidan kiritilib, tilni nafaqat grammatik jihatdan, balki ijtimoiy vaziyatga mos holda qo‘llash zarurligi ta’kidlangan.[5] Shuningdek, Noam Chomsky lingvistik kompetensiya nazariyasini ilgari surib, til bilish va nutq faoliyati o‘rtasidagi farqni ochib bergan. Zamonaviy pedagogikada esa interfaol o‘qitish va hamkorlikda ta’lim g‘oyalari John Dewey konsepsiyalarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ta’lim jarayonida o‘quvchining faol subyekt sifatida ishtiroki muhim omil ekanligi asoslangan [5].

O‘zbekiston pedagog olimlari tomonidan boshlang‘ich ta’limda nutqiy faoliyat va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalalari alohida tadqiq etilgan. Xususan, N. G‘aybullayev, Sh. Yuldashev, M. Ochilov kabi olimlar ta’lim jarayonida interfaol metodlar, dialogik yondashuv va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning ahamiyatini yoritib berganlar.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish jarayonini tahlil qilish avvalo “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining mazmunini aniqlashtirishni talab etadi. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda “kompetensiya” (lotincha competentia – mos kelish, uyg‘unlik; competere – erishish, mos bo‘lish) ikki ma’noda talqin qilinadi: birinchisi – muayyan vakolatlar doirasi, ikkinchisi – shaxsning ma’lum sohadagi bilim, tajriba va faoliyat usullariga egaligi. Pedagogik kontekstda mazkur tushuncha aynan ikkinchi ma’noda qo‘llaniladi.

A. V. Xutorskoy kompetensiyani “obyektlar va jarayonlarning ma’lum bir doirasiga nisbatan o‘rnatilgan hamda ularga nisbatan samarali faoliyat uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bog‘liq shaxsiy fazilatlar (bilim, ko‘nikma, malaka va faoliyat usullari) majmui” sifatida izohlaydi.[4] Shuningdek, u kompetentlikni shaxsning tegishli vakolatlarga egaligi, ularga nisbatan shaxsiy munosabatining shakllanganligi bilan bog‘laydi. Mazkur yondashuv boshlang‘ich ta’lim jarayonida kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishni faqat nazariy bilim berish bilan emas, balki o‘quvchining amaliy nutqiy faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi. Kommunikativ kompetensiya o‘quvchining bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlariga tayangan holda muammolarni mustaqil hal qila olishga tayyorligi, turli nutq vositalaridan samarali foydalanish, o‘z fikrini aniq va mantiqan ifodalash hamda muloqot jarayonida boshqalarga ta’sir o‘tkaza olish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan, boshlang‘ich sinf bosqichida nutqning ovoz madaniyati, lug‘at boyligi, grammatik to‘g‘rilik va izchillikni rivojlantirish kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, an’anaviy ta’lim sharoitida o‘quvchilarning nutqiy faolligi yetarli darajada shakllanmaydi: lug‘at boyligining cheklanganligi, orfoepik xatolar, izchil bayon qila olmaslik kabi muammolar kuzatiladi. Bu esa dars jarayonini kommunikativ yo‘naltirish, interfaol metodlar, dialogik ta’lim va ijodiy mashqlardan tizimli foydalanishni talab etadi.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayoni ikki asosiy yo‘nalishda amalga oshirilishi lozim: birinchisi – nutqiy kamchiliklarni tuzatish (tovush madaniyati, lug‘atni boyitish, frazali nutqni rivojlantirish, nutq aloqadorligini mustahkamlash); ikkinchisi – dars imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali izchil va mazmunli nutqni shakllantirish. Bu borada dramatizatsiya o‘yinlari, til burmalari, savol-javob asosidagi konstruktiv mashqlar, deformatsiyalangan matn bilan ishlash, matnni modellashtirish va tahrirlash kabi metodlar yuqori samaradorlikka ega [2].

Taklif bilan ishlash, murakkab va sodda gaplar tuzish, bir fikrni turli sintaktik shakllarda ifodalash, matnning tuzilishini modellashtirish kabi mashqlar o‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri va nutq izchilligini rivojlantiradi. Shuningdek, tavsif, rivoyat va mulohaza tipidagi matnlar tuzish, dialogik nutqni shakllantirish, erkin diktant va ijodiy yozma ishlar o‘quvchilarning kommunikativ mustaqilligini oshiradi. Shu tariqa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish uzoq muddatli va tizimli jarayon bo‘lib, u muloqotga asoslangan ta’limni tashkil etishni, o‘quvchini faol subyektga aylantirishni hamda nutqiy faoliyatni ta’limning markaziy komponenti sifatida qarashni talab etadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali aniqlangan.

Tajriba guruhlarida kichik guruhlarda ishlash, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar yaratish, matnni modellashtirish va tahrirlash kabi metodlar qo‘llanilganda o‘quvchilarning lug‘at boyligi kengaydi, gap tuzish va izchil bayon qilish ko‘nikmalari mustahkamlandi. Nazorat guruhlariga nisbatan tajriba guruhida og‘zaki nutqning ravonligi va mantiqiyligi yuqoriroq ko‘rsatkichlarni namoyon etdi. Bu esa kommunikativ vaziyatlarga asoslangan ta’lim texnologiyalarining samaradorligini tasdiqlaydi. O‘zbekiston pedagog olimlarining ilmiy qarashlari bilan hamohang ekanini ko‘rsatdi. Jumladan, N.G‘aybullayev ta’kidlaganidek, “boshlang‘ich ta’limda nutqiy faoliyatni rivojlantirish o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida asosiy omillardan biridir”. Tadqiqot davomida aynan nutqiy faoliyatni tizimli rivojlantirish o‘quvchilarning kommunikativ mustaqilligini ta’minlashi isbotlandi.

Shuningdek, Sh.Yuldashevning “interfaol metodlar o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi” degan fikri tajriba natijalarida o‘z tasdig‘ini topdi [3]. Interfaol mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarning darsdagi ishtiroki faollashdi, savol-javob jarayonida mantiqiy fikrlash va o‘z nuqtai nazarini asoslash ko‘nikmalari rivojlandi. M. Ochilov esa o‘z tadqiqotlarida “ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan modeli o‘quvchining ichki imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi” deb qayd etadi [2]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, individual yondashuv va kommunikativ topshiriqlarning differensiallashtirilgan shaklda berilishi o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini va nutqiy erkinligini kuchaytiradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish masalasi ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayoni faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmay, balki o‘quvchining faol nutqiy faoliyatini tashkil etish, uni muloqot subyekti sifatida shakllantirishni talab etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ergashbayev S. Yoshlarning ma’naviyat dunyoqarashini rivojlantirishda uzluksiz ta’lim jarayonlarining o‘rni (rivojlangan davlatlar tajribasi misolida) //Universal xalqaro ilmiy jurnal. 2025. No. 2. – B. 3-9.
2. G‘aybullayev N. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 384 b.
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2015. – 256 b.
3. Ishmuhamedov R. J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2014. – 220 b.
4. Tolipov O‘. Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 300 b.
5. Xasanboeva O. U. Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo‘llari va kommunikatsiya haqida tushuncha, 2016. – 240 b.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK:801.82:81.304

SUPPORTING STUDENTS WITH HEARING IMPAIRMENTS

Turdiyeva Dilorom Soliyevna,
Master student at Termez University of Economy and Service

ПОДДЕРЖКА СТУДЕНТОВ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА

Турдиева Дилором Солиевна,
магистрант Термезского университета экономики и сервиса

ESHITISH QOBILIYATI CHEKLANGAN TALABALARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH

Turdiyeva Dilorom Soliyevna,
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

e-mail: diloromturdiyeva7@gmail.com
https://orcid.org/0009-0002-6081-2695

Abstract: *This article explores effective strategies for supporting students with hearing impairments in inclusive educational settings. It discusses the types and causes of hearing loss, the psychological and academic challenges faced by students, legal frameworks, instructional strategies, classroom accommodations, assistive technologies, and the role of teachers and parents. The paper emphasizes inclusive education principles and practical methods to ensure equal learning opportunities.*

Key words: *hearing impairment, inclusive education, assistive technology, differentiated instruction, accessibility, classroom adaptation.*

Аннотация*: Данная статья рассматривает эффективные стратегии поддержки студентов с нарушениями слуха в инклюзивной образовательной среде. Обсуждаются типы и причины потери слуха, психологические и академические трудности студентов, правовые рамки, методы преподавания, адаптация классов, вспомогательные технологии, а также роль учителей и родителей. Статья подчеркивает принципы инклюзивного образования и практические методы обеспечения равных возможностей для обучения.*

Ключевые слова: *нарушения слуха, инклюзивное образование, вспомогательные технологии, дифференцированное обучение, доступность, адаптация класса.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola inklyuziv ta’lim muhitida eshitish qobiliyati cheklangan talabalarni samarali qo‘llab-quvvatlash strategiyalarini o‘rganadi. Unda eshitish yo‘li buzilishlarining turlari va sabablari, talabalar duch keladigan psixologik va akademik qiyinchiliklar, huquqiy asoslar, o‘qitish strategiyalari, sinfdagi moslashuvlar, yordamchi texnologiyalar va o‘qituvchilar hamda ota-onalarning roli muhokama qilinadi. Maqola inklyuziv ta’lim tamoyillarini va teng ta’lim imkoniyatlarini ta’minlash bo‘yicha amaliy usullarni ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *eshitish qobiliyati cheklanishi, inklyuziv ta’lim, yordamchi texnologiya, differensial o‘qitish, kirish imkoniyati, sinfga moslashuv.*

INTRODUCTION (ВВЕДЕНИЕ/KIRISH). Inclusive education ensures that all learners, regardless of their physical or sensory differences, receive equal educational opportunities. Students with hearing impairments often face barriers in communication, social interaction, and academic achievement. Supporting these students requires collaboration between teachers, parents, specialists, and school administrators. This paper aims to analyze strategies that improve educational outcomes for learners with hearing impairments.

Hearing impairment refers to a partial or total reduction in the ability to perceive auditory stimuli. It is typically classified as a sensory disability affecting the auditory system and may vary in degree, onset, and functional impact. The World Health Organization defines hearing loss as a condition in which a person is unable to hear as well as someone with normal hearing thresholds of 20 decibels (dB) or better in both ears [1].

From a medical perspective, hearing impairment is categorized based on anatomical location (conductive, sensorineural, or mixed). From an educational and social perspective, it is often discussed in terms of functional hearing, communication preferences, and the sociocultural identity of Deaf communities.

It is important to distinguish between the terms *deaf* and *hard of hearing*. In audiological terms, "deaf" refers to profound hearing loss. However, in sociocultural contexts, the term “Deaf” (capitalized) often refers to individuals who identify with Deaf culture and use sign language as their primary means of communication.

MATERIALS AND METHODS (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR). Hearing impairment is measured using pure-tone audiometry and classified into levels:

Mild (26–40 dB)

Moderate (41–60 dB)

Severe (61–80 dB)

Profound (81 dB and above) [2].

The degree of hearing loss significantly influences language development, educational needs, and communication strategies. Hearing impairment refers to partial or total inability to hear. It may be mild, moderate, severe, or profound. Conductive hearing loss (CHL) occurs when there is a disruption in the transmission of sound waves through the outer or middle ear. The outer ear collects sound energy, which then vibrates the tympanic membrane. These vibrations are amplified by the ossicular chain in the middle ear before reaching the cochlea. Any obstruction or dysfunction in this pathway may result in reduced sound conduction.

Common causes include cerumen impaction, otitis media, tympanic membrane perforation, Eustachian tube dysfunction, otosclerosis, and congenital malformations of the ear canal. According to global health data, chronic otitis media remains one of the most frequent causes of conductive hearing impairment in children.

Audiologically, conductive hearing loss is characterized by elevated air-conduction thresholds with normal bone-conduction thresholds, creating an air–bone gap on the audiogram.1 Speech discrimination ability is generally preserved when sound is amplified to an adequate level [3].

DISCUSSION (ОБСУЖДЕНИЕ/MUHOKAMA). In many cases, CHL is medically or surgically treatable, making prognosis relatively favorable compared to sensorineural forms of hearing loss. Sensorineural hearing loss (SNHL) results from dysfunction of the inner ear (cochlea) or the auditory nerve. The cochlea contains sensory hair cells responsible for converting mechanical vibrations into electrical signals transmitted to the brain. Damage to these cells or to neural pathways disrupts auditory perception at the sensory or neural level.

SNHL is commonly caused by genetic factors, prenatal infections, ototoxic medications, excessive noise exposure, meningitis, head trauma, and age-related degeneration (presbycusis).4 Research indicates that genetic causes account for a significant proportion of congenital sensorineural hearing loss cases. Unlike conductive hearing loss, SNHL typically presents with elevated air- and bone-conduction thresholds without a significant air–bone gap. Speech discrimination is often reduced, even when amplification is provided, because distortion occurs at the level of sensory transduction or neural transmission. SNHL is usually permanent. Management includes hearing aids, cochlear implants, auditory rehabilitation, and speech-language therapy. Early identification and intervention are strongly associated with improved linguistic and educational outcomes [4].

RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ/NATIJALAR). In this condition, mechanical obstruction in the outer or middle ear occurs alongside sensory damage in the inner ear. For example, a child with congenital sensorineural hearing loss may later develop recurrent otitis media, thereby adding a conductive component to an existing sensory impairment. Audiometric evaluation of mixed hearing loss reveals elevated bone-conduction thresholds

(indicating sensorineural involvement) along with an air–bone gap (indicating conductive involvement). Speech perception outcomes vary depending on the relative contribution of each component. Management strategies typically address the conductive element through medical or surgical treatment while providing amplification or implantable devices for the sensorineural component. Because two mechanisms are involved, interdisciplinary management is often required.

Students with hearing impairments encounter a range of educational challenges that extend beyond reduced auditory perception. These challenges are linguistic, cognitive, social, and environmental in nature. The degree of difficulty depends on factors such as severity of hearing loss, age of onset, early intervention, communication modality, and the accessibility of the learning environment [5].

CONCLUSION (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA). In conclusion, supporting students with hearing impairments in inclusive education requires a comprehensive, collaborative, and student-centered approach. Inclusive classrooms must go beyond physical placement and ensure meaningful participation, equal access to learning materials, and active social integration. Furthermore, effective inclusion depends on cooperation among educators, parents, specialists, and school administrators. Emotional support, positive classroom attitudes, and awareness among peers are equally important for fostering confidence and reducing social isolation. Legal frameworks and inclusive education policies provide a foundation, but their successful implementation relies on practical strategies and continuous professional development for teachers. Ultimately, when schools create accessible, flexible, and supportive learning environments, students with hearing impairments can achieve academic success, develop strong communication skills, and fully participate in society. Inclusive education is not merely an educational model but a commitment to equity, diversity, and equal opportunity for all learners.

REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ADABIYOTLAR RO‘YXATI)

1. American Academy of Otolaryngology–Head and Neck Surgery. Clinical Practice Guidelines. – [Electronic resource]. – Access mode: https://www.entnet.org/guidelines/
2. American Academy of Otolaryngology–Head and Neck Surgery. Clinical Practice Guidelines. – [Electronic resource]. – Access mode: https://www.entnet.org/guidelines/
3. Centers for Disease Control and Prevention. Genetic Causes of Hearing Loss. – [Electronic resource]. – Access mode: https://www.cdc.gov/ncbddd/hearingloss/genetics.html
4. Katz J. Handbook of Clinical Audiology / ed. Jack Katz. – 7th ed. – Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins, 2015. – 816 p.
5. National Institute on Deafness and Other Communication Disorders. Sensorineural Hearing Loss Overview. – [Electronic resource]. – Access mode: https://www.nidcd.nih.gov/
6. World Health Organization. Prevention of Deafness and Hearing Loss Report. – Geneva, 2019. – 48 p.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 811.82.78

YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Sunnatova Sarvinoz,
Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЁЖИ

Суннатова Сарвиноз,
магистрант Самаркандского государственного педагогического института

ISSUES OF FORMING NATIONAL VALUES IN YOUTH EDUCATION

Sunnatova Sarvinoz,
Master's student of Samarkand State Pedagogical Institute

e-mail: sarvinozsunnatova81@gmail.com
https://orcid.org/ 0009-0006-2581-1979

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Globallashuv va raqamli sivilizatsiya sharoitida yoshlar ongiga ta'sir etuvchi omillar kuchayib borayotgan bir paytda, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira, ma'naviy meros va an'anaviy axloqiy me'yorlarni uzluksiz ta'lim jarayoniga integratsiya qilish dolzarb masala sifatida yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, milliy o'zlik, tarixiy xotira, ma'naviy meros, globallashuv, raqamli sivilizatsiya, uzluksiz ta'lim.*

Abstract: *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of forming national values in youth education. In the context of globalization and digital civilization, where the factors influencing young people's consciousness are intensifying, particular attention is paid to the integration of national identity, historical memory, spiritual heritage, and traditional moral norms into the system of continuous education.*

Key words: *Youth education, national values, national identity, historical memory, spiritual heritage, globalization, digital civilization, continuous education.*

Аннотация: *В данной статье анализируются теоретико-методологические основы формирования национальных ценностей в воспитании молодёжи. В условиях глобализации и цифровой цивилизации, когда усиливаются факторы, влияющие на сознание молодого поколения, особое внимание уделяется вопросам интеграции национальной идентичности, исторической памяти, духовного наследия и традиционных нравственных норм в систему непрерывного образования.*

Ключевые слова: *Воспитание молодёжи, национальные ценности, национальная идентичность, историческая память, духовное наследие, глобализация, цифровая цивилизация, непрерывное образование.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Jamiyatda inson mavjud ekan, u tug'iladi, ulg'ayadi, hayot kechiradi hamda shu jarayonda obyektiv va subyektiv munosabatga kirishadi. Uning mana shunday munosabatlar jarayonidagi xulqi, o'zini tutishi va anglashi mazkur jamiyatdagi urf-odat va an'analar bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Insonning shaxs sifatida shakllanishi, vatanparvar ruhda tarbiyalanishida aynan qadriyatlar muhim o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 11-avgust kuni Olmaliq shahriga uyushtirgan tashrifi chog'ida Toshkent viloyati faollari va hokimlari bilan

uchrashuv o‘tkazdi. Ushbu uchrashuvda u quyidagi fikrni bildirdi: “Agar odamlarni eng katta qadriyat qilib yuqoriga qo‘ymasak, biz xato qilaveramiz” [1]. Demak, inson eng oliy qadriyat sifatida qaraladi va jamiyat bu qadriyatni to‘ldiruvchi omil sifatida faoliyat yuritadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Mazkur milliy qadriyatlarni shakllantirish muammolari doirasida yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarni shakllantirish masalasi Sharq va G‘arb mutafakkirlarining ilmiy-nazariy qarashlari asosida tahlil qilinadi. Sharq tafakkurida tarbiya va axloq masalalari jamiyat barqarorligi hamda komil inson g‘oyasi bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, Abu Nasr Forobiy inson kamolotini fazilatli jamiyat qurishning asosiy sharti sifatida talqin etadi, Abu Ali ibn Sino esa axloqiy tarbiya va aqliy kamolotni uyg‘un holda rivojlantirish zarurligini asoslagan. Jadid ma’rifatparvarlari, xususan, Abdulla Avloniy qarashlarida milliy tarbiya masalasi millat istiqboli bilan bevosita bog‘lanadi. G‘arb pedagogik va ijtimoiy-falsafiy tafakkurida esa qadriyatlar shaxs erkinligi, ijtimoiylashuv va madaniy identifikatsiya jarayonlari bilan izohlanadi. John Dewey ta’limni ijtimoiy tajriba asosida shakllanuvchi jarayon sifatida ko‘rib, qadriyatlar amaliy faoliyat orqali o‘zlashtirilishini ta’kidlaydi, Emile Durkheim esa tarbiyani jamiyatning axloqiy birdamligini ta’minlovchi mexanizm sifatida baholaydi [2].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarni shakllantirish masalasi bugungi globallashuv va raqamli axborot makoni sharoitida alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Chunki zamonaviy ijtimoiy transformatsiyalar jarayonida yoshlar ongida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira va ma’naviy merosga sodiqlikni mustahkamlash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Shu bois mazkur muhokama qismida milliy qadriyatlarning mazmun-mohiyati, ularning yoshlar ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida kamol topishidagi o‘rni, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonida ularni samarali shakllantirish omillari ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Bugungi kunda ushbu atamaga olimlar turli xil fikrlar bildirishmoqda. Avvalambor, “qadriyat” atamasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, turli olimlar bu borada o‘z fikrlarini bildirgan. G‘arbning mashhur fizik faylasuf olimi I.Kantning g‘oyasiga ko‘ra, har qanday ongli mavjudot o‘ziga maqsaddir, degan fikr asosida insonni vosita emas, balki oliy qadriyat sifatida qarash zarur. Qolgan barcha narsalar esa insonning istaklari, qiziqishlari va ehtiyojlariga qarab “nisbiy qadr”ga ega bo‘ladi. Shuning uchun ular “narsalar” deb ataladi va inson ehtiyojlarini qondiruvchi vositalar sifatida qaraladi. “Ongli mavjudotlar esa “shaxslar” deb ataladi, chunki ular sub’ektiv qadriyatlarga ega. Bu bilan I.Kant falsafaga “absolyut qadriyat” kategoriyasini olib kirdi” [5]. I.Kantning bu g‘oyasi insonning o‘zini hurmat qilish va boshqalarni ham shaxs sifatida qadrlash muhimligini ta’kidlaydi. Zamonaviy jamiyatda ham insonni oliy qadriyat deb bilish, uning erkinligi va huquqlarini hurmat qilishning asosi hisoblanadi. Shuningdek, inson va narsalar o‘rtasidagi farqni anglash, bizning qadriyatlarimiz va maqsadlarimizni aniqroq belgilashga yordam beradi.

Sharq allomalaridan Abu Rayhon Beruniyning fikricha, qadriyatlarning vujudga kelishi ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog‘liq. Chunonchi, insonlarning yashash tarzini osonlashtiradigan vositalar va hayotga zavq olib kiruvchi omillar, masalan, urf-odatlar va udumlar, insonlar tomonidan qadrli deb bilinishadi. Ular vaqt o‘tishi bilan qadriyatga aylanishadi. Beruniyning bu fikri qadriyatlarning doimiy harakatda va jamiyat hayoti bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ifodalaydi. Har bir jamiyat o‘ziga xos qadriyatlarni yaratadi va ularni asrab-avaylash orqali madaniyatini boyitadi. Shuningdek, qadriyatlarning o‘zgaruvchanligi ularni yanada jonli va amaliy qiladi, chunki ular insonlarning haqiqiy ehtiyojlari va hayotiy sharoitlariga moslashadi.

Qadriyatlar ma’naviy, madaniy, axloqiy hamda diniy qadriyatlarga bo‘linadi. Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti B.Matchanova ma’naviy-axloqiy qadriyatlar borasida shunday fikr bildirgan: “Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning jamiyatdagi o‘rni beqiyos. Ular odamlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va ishonchni mustahkamlash orqali ijtimoiy muhitni yaxshilaydi. Axloqiy qadriyatlar turli jamiyatlar uchun zarur bo‘lgan umumiy axloqiy qoidalar va normalarni belgilaydi, ular fuqarolarning bir-biriga munosabatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Axloqiy qadriyatlar shaxsning

jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi va uning harakatlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Misol uchun, halollik, adolat va mehnatsevarlik kabi qadriyatlar odamlar o‘rtasida o‘zaro hurmatni rivojlantirishga yordam beradi va natijada ijtimoiy muhitni yaxshilaydi” [4]. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar jamiyat barqarorligi va ahilligi uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Axloqiy me’yorlarga amal qilish orqali insonlar o‘rtasida ishonch va hurmat o‘sadi, bu esa har qanday jamiyatning taraqqiyoti uchun juda muhim. Shuningdek, bunday qadriyatlarni avaylash va bolalarga yetkazish kelajak avlod uchun mustahkam ijtimoiy asos yaratadi.

Demak, jamiyatdagi insonlar o‘z qadriyatlarini yaxshi anglab yetar ekan, qonun normalari, huquqiy majburiyatlarini ham to‘g‘ri tushunadi va amal qiladi. Axloqiy qadriyatlar bu orqali qonunlarga hurmat madaniyatini shakllantiradi va fuqarolarning o‘z huquqiy javobgarligini his etishini ta’minlaydi. Buning natijasida jamiyatda qonun ustuvorligi hukm suradi hamda ijtimoiy adolatni barqarorlashtiradi.

O‘zbekiston uch ming yillik ulug‘vor va muhtasham tarixga ega. Yurtimizda jahonshumul sivilizatsiyalar, yirik imperiyalar, havas qilsa arzigulik shaharlar va bebaho me’moriy obidalar vujudga kelgan hamda yaratilgan. Ana shunday ulug‘vor va boy madaniy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va uni ommalashtirish bo‘yicha Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan juda katta ko‘lamdagi ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining BMT Bosh assambleyasining 75-sessiyasida ilgari surgan bir qator tashabbuslari ichida xalqimiz madaniyati va tarixini ommalashtirishga qaratilgan madaniy forum o‘tkazish taklifi xalqaro hamjamiyat, hususan YUNESKO tomonidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlandi [3].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Qadriyatlar orasida eng oliysi insondir. Insonning hayoti, yashashi, tinchligi, halovati, ozodligi, erkinligi qadrli. Shuning uchun har bir insonning huquqlari hurmat qilinishi, sha’ni va qadr-qimmati e’zozlanishi lozim. Jamiyat taraqqiyoti va adolat ustun bo‘lishi uchun har bir fuqaro teng huquqli bo‘lib, erkin fikr yuritish va tinch hayot kechirish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur. Insoniyat o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va birdamlik asosida yashasa, dunyo yanada go‘zal va barqaror bo‘ladi. Mashhur faylasuf Imom G‘azzoliy: “Inson – olamning eng oliy xilqati bo‘lib, unga aql va tafakkur berilgan. Shu sababli inson o‘zining qadr-qimmatini anglab, ilm va adolat bilan yashashi lozim”, – deb ta’kidlagan [4]. O‘z ustida tinmay ishlashi, harakat qilishi, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun kurashmog‘i darkor. Inson qadri haqida Jaloliddin Rumiy fikr yuritib, uning darajasini belgilab beradi. U shunday deydi: “Sen o‘zingni oddiy bir tomchi suv deb o‘ylama. Yo‘q, sen – butun bir ummonning o‘zisan!” U bu so‘zlari bilan har bir inson o‘zining ichki qudrati, imkoniyati va mohiyatini chuqur anglamog‘i lozimligini uqtiradi. Inson o‘zini qadrlasa, boshqalarni ham qadrlashni o‘rganadi va bu ijtimoiy munosabatlarni yanada barqaror qiladi. Shu bois, insonni eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etish nafaqat ma’naviy, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Yuqorida ta’kidlanganimizdek, qadriyatlar tushunchasi yoshlar tarbiyasida markaziy o‘rin tutadi. Yoshlik davrida shakllanadigan milliy va ma’naviy qadriyatlar inson shaxsiyati va jamiyat kelajagini belgilovchi eng muhim mezonlardan biridir. Shu bois, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash nafaqat ularning ijtimoiy va axloqiy kamolotini ta’minlaydi, balki jamiyatning uzluksiz rivojlanishi va barqarorligini kafolatlovchi asosiy omil hisoblanadi. Demak, yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarni shakllantirish masalasi har bir ijtimoiy tizimning strategik vazifalaridan biri bo‘lib, u insonni hayotda to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltiruvchi ichki kompas sifatida ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI/СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ/REFERENCES

1. Hasanov B.,Karimov N. tahriri ostida: M.Bexbudiy merosining milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati.Ilmiy maqolalar to‘plami. T.: 2014.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat. 2008.
3. Matchanova B. “Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning jamiyat ijtimoiy barqarorligidagi roli” (E)ISSN: 2181-1784 4(10), Nov., 2024.
4. Muxlisova S.S. Oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o‘rni. “SCIENTIFIC PROGRESS” Scientific Journal ISSN: 2181-1601 ///// \\\\\ Volume: 1, ISSUE: 5.
5. Кант И. Сочинения в шести томах. Т.4. Част 1. – М.: Мысл, 2015. – С. 269.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 93/94

IJTIMOIY INTEGRATSIYA, MADANIY MULOQOT VA MILLATLARARO HAMJIHATLIKNI MUSTAHKAMLASHDA MUHIM VOSITA - MUZEYLAR

Ashurova Mahbuba Axtamovna,
Buxoro davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi fond saqlovchisi

MUSEUMS ARE AN IMPORTANT TOOL IN STRENGTHENING SOCIAL INTEGRATION, CULTURAL COMMUNICATION AND INTERETHNIC HARMONY

Ashurova Mahbuba Akhtamovna,
Curatorial Officer of the Museum of Memory of Victims of Repression at Bukhara State University

МУЗЕИ — ВАЖНЫЙ ИНСТРУМЕНТ УКРЕПЛЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ, КУЛЬТУРНОГО ОБЩЕНИЯ И МЕЖЭТНИЧЕСКОЙ СОЛИДАРНОСТИ

Ашурова Махбуба Ахтамовна,
Куратор Музея памяти жертв репрессий Бухарского государственного университета

e-mail: ilmiyizlanuvchi@gmail.com

https://orcid.org/0000-1234-5678-9101

Annotatsiya: *Mazkur maqolada muzeylarning ijtimoiy integratsiya, madaniy muloqot va millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashdagi o‘rni ijtimoiy-falsafiy va madaniyatshunoslik yondashuvlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda muzey ijtimoiy institut sifatida jamiyatda umumiy tarixiy xotira va qadriyatlar maydonini shakllantiruvchi, turli etnik, diniy va madaniy guruhlar o‘rtasida konstruktiv muloqotni ta’minlovchi platforma sifatida talqin etiladi. Muzey ekspozitsiyalari va ko‘rgazmalari orqali tarixiy merosning ko‘p qirrali talqini, madaniy xilma-xillikni tan olish va o‘zaro hurmat tamoyillarini qaror toptirish mexanizmlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *muzey, ijtimoiy integratsiya, madaniy muloqot, millatlararo hamjihatlik, madaniy xilma-xillik, inkluzivlik, ijtimoiy barqarorlik.*

Abstract: *This article analyzes the role of museums in strengthening social integration, cultural dialogue and inter-ethnic harmony based on socio-philosophical and cultural studies approaches. The study interprets the museum as a social institution that forms a space of common historical memory and values in society, as a platform that provides constructive dialogue between different ethnic, religious and cultural groups. Through museum expositions and exhibitions, mechanisms for the multifaceted interpretation of historical heritage, recognition of cultural diversity and the establishment of the principles of mutual respect are revealed.*

Key words*: museum, social integration, cultural dialogue, interethnic harmony, cultural diversity, inclusiveness, social stability.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль музеев в укреплении социальной интеграции, культурного диалога и межэтнической гармонии на основе социально-философских и культурологических подходов. Исследование интерпретирует музей как социальный институт, формирующий в обществе пространство общей исторической памяти и ценностей, как платформу, обеспечивающую конструктивный диалог между различными этническими, религиозными и культурными группами. Через музейные экспозиции и выставки раскрываются*

механизмы многогранной интерпретации исторического наследия, признания культурного многообразия и установления принципов взаимного уважения.

Ключевые слова: *музей, социальная интеграция, культурный диалог, межэтническая гармония, культурное разнообразие, инклюзивность, социальная стабильность.*

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan muzeylar jamiyatning madaniy kapitali va ma’naviy resurslarini shakllantiruvchi muhit hisoblanadi. Fransuz sotsiologi Per Burdening madaniy kapital nazariyasiga muvofiq, madaniy bilimlar, estetik did va ma’naviy qadriyatlar insonning ijtimoiy maqomini belgilashda muhim o‘rin tutadi. Muzeylar esa ana shu madaniy kapitalni shakllantirish va keng jamoatchilikka yetkazishda vositachi vazifasini bajaradi. Bu esa muzeylarni jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni ta’minlash, madaniy imkoniyatlarni kengaytirish va ma’naviy rivojlanishni rag‘batlantirishda muhim omil sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Sotsiomadaniy yondashuv muzeylarni jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, madaniy amaliyotlar va jamoaviy tajriba bilan bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi. Muzeylar ijtimoiy integratsiya, madaniy muloqot va millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, turli millatlar va madaniy guruhlarga oid ekspozitsiyalar jamiyatda o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va madaniy xilma-xillikni qadrlash tuyg‘usini rivojlantiradi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev “Fanlar akademiyasining Arxeologiya va San’atshunoslik institutlari faoliyatini, oliy o‘quv yurtlari va muzeylardagi arxeologik izlanishlarni chet ellik hamkorlar bilan birga tashkil etish zarur”[1], degan fikrni ilgari surdilar.

Muzeylarning jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini kompleks baholash ham muhim metodologik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki muzeylar nafaqat madaniy merosni saqlash bilan cheklanadi, balki ijtimoiy rivojlanishning turli yo‘nalishlariga ta’lim, turizm, iqtisodiyot, ijtimoiy integratsiya va ma’naviy tarbiya sohalariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu ma’noda muzeylar faoliyatini ko‘p funksional ijtimoiy institut sifatida tahlil qilish zamonaviy falsafiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishini tashkil etadi. Muzeylarni tadqiq etishda madaniy siyosat konsepsiyasi ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Davlatning madaniy siyosati muzeylar faoliyatining yo‘nalishini, ustuvor vazifalarini va strategik maqsadlarini belgilab beradi. Yangi O‘zbekistonda milliy madaniy merosni asrash, tarixiy xotirani mustahkamlash va zamonaviy madaniy muhitni shakllantirishga qaratilgan islohotlar muzeylar faoliyatining mazmunan yangilanishiga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, muzeylarni madaniy siyosatning amaliy maydoni sifatida tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Falsafiy tadqiqotlarda muzeylarning vaqt va xotira bilan bog‘liqligiga alohida e’tibor qaratiladi. Muzeylar o‘tmish, hozir va kelajak o‘rtasidagi ma’naviy ko‘prik vazifasini bajaradi. Ular orqali jamiyat o‘z tarixi bilan muloqot qiladi, o‘tmish saboqlarini qayta anglaydi va kelajak uchun ma’naviy yo‘nalishlarni belgilaydi. Shu ma’noda, muzeylar ijtimoiy xotira instituti sifatida jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Muzeylarni o‘rganishda tarixiy xotira nazariyasi muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Tarixiy xotira jamiyatning o‘z o‘tmishini qanday qabul qilishi, qanday talqin qilishi va qanday ma’naviy xulosalar chiqarishi bilan bog‘liq jarayonlarni qamrab oladi. Muzeylar esa tarixiy xotirani moddiylashtiruvchi va uni jamoaviy ongga yetkazuvchi asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli muzey ekspozitsiyalarida tarixiy voqealarni qanday ifoda etish, qanday ramzlardan foydalanish va qanday ma’naviy aksentlar qo‘yish masalasi ham ijtimoiy-falsafiy tahlilning muhim yo‘nalishini tashkil etadi. Zamonaviy metodologiyada muzeylarning raqamli transformatsiyasi ham alohida tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Raqamli muzeylar, virtual ko‘rgazmalar, onlayn ekspozitsiyalar va interaktiv platformalar muzey faoliyatining yangi shakllarini vujudga keltirmoqda. Bu jarayon muzeylarning auditoriyasini kengaytirish, ularning ta’sir doirasini

[1] Мирзиёев Ш.М. 3-том. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. М 54. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – Б.39.

oshirish va madaniy merosni global miqyosda targ‘ib qilish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Muzeylar faoliyatini ijtimoiy-falsafiy va metodologik jihatdan tadqiq etish ularning jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rnini chuqur anglash, madaniy siyosatdagi vazifalarini belgilash va zamonaviy taraqqiyot ehtiyojlariga moslashtirish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi. Bu jarayon muzeylarning faqat o‘tmishni saqlovchi muassasa emas, balki hozirgi va kelajak avlodlarni tarbiyalovchi, madaniy ma’no yaratuvchi va ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo‘shuvchi strategik institut ekanini ko‘rsatadi. Falsafiy nuqtai nazardan muzeylarning tarbiyaviy funksiyasi inson shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Muzeyda namoyon etilgan tarixiy meros, milliy qahramonlar hayoti, san’at asarlari va madaniy artefaktlar insonda vatanparvarlik, milliy g‘urur, ma’naviy mas’uliyat va estetik didni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yosh avlod uchun muzey muhiti hayot maktabi vazifasini bajarib, ularda tarixga hurmat, madaniy merosga ehtiyotkor munosabat va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi.

Muzeylarni ta’lim tizimi bilan integratsiya qilish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida muzey ta’limi o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash va talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida qaraladi. Muzeylarda o‘tkaziladigan darslar, ma’rifiy ekskursiyalar, interaktiv mashg‘ulotlar va ilmiy-ma’rifiy loyihalar ta’lim mazmunini boyitib, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Albatta, muzeylarning jamoaviy ongni shakllantirishdagi o‘rnini ham qamrab oladi. Muzeylar orqali jamiyat o‘z tarixi va madaniy merosini qayta anglaydi, umummilliy qadriyatlar tizimini mustahkamlaydi va ijtimoiy birdamlikni rivojlantiradi. Shu nuqtai nazardan muzeylar millatni birlashtiruvchi, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlovchi va jamoaviy xotirani saqlovchi institut sifatida namoyon bo‘ladi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida muzeylar faoliyatini rivojlantirish milliy madaniy tiklanish jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Mamlakatimizda tarixiy merosni asrash, ulug‘ ajdodlar hayoti va ilmiy-ma’naviy merosini keng targ‘ib qilish, milliy g‘oya va qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish borasida muzeylar muhim vazifalarni bajarmoqda. Masalan, tarixiy shaxslar, buyuk allomalar va davlat arboblariga bag‘ishlangan muzeylar milliy iftixor va ma’naviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ma’naviy markazlarga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. 6-том. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси асосида демократик ислоҳот-лар йўлини қатъий давом эттирамиз. 54 – Тошкент: “Ozbekiston” нашриёти, 2023. – Б.536.

2. Мирзиёев Ш.М. 7-том. Халқчил ислоҳот-лар халқимиз манфаатларига хизмат қилади. М 54 – Тошкент: “Ozbekiston” нашриёти, 2023. – Б.408.

3. Мирзиёев Ш.М. Инсон қадри, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатлари учун. М 54 – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2022. – Б.416.

4. Мирзиёев Ш.М. Янги ўзбекистон стратегияси. М 54 – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. – Б.464.

5. Алаков Б. Музейларда инновацион технологияларнинг жорий этилиши аҳамияти // Фан соҳасида инновациялар: назария ва амалиёт. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Факултетлараро Ўзбекистон тарихи кафедраси илмий-амалий анжумани материаллари. - Тошкент, 2011.

6. Артаманов А.А., Музалевская И.М. Музейные образовательные ресурсы и ресурсы по культуре в Интер-нет: обзор, типология. Особенности, перспективи. // Тези-си доклада на VIII конференции представителей регио-нальных научно-образовательных сетей «Реларн-2001».

7. Бабенко, В. Электронные музеи. Источники электронних экспозиций // ИНТЕРНЕТ: культура и образование. - Москва: Изд-во СПбГАК, 1998. – С. 62.

8. Будко А. Модернизация. Схематиция опита. // Мир музея. - Москва, 2010. - №12 (280). – С. 34.

9. Бичкова Л.С. Техника и современное музейнойе дело // Музейеведенийе. Искусство музейной экспозиции и техническое оснашение музеев: Сб. науч. тр. НИИ культури.- Москва, 1985. - № 139. – С. 78.

10. Еременко Е.Д. Виртуальная реальност как феномен науки, техники и культури // Доклади Всероссийкой симпозиума. – Санк-Петербург: 1995. – С. 85.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 801.82.81.103

“QORDAGI LOLA” HIKOYASINING BADIIY KOMPOZITSIYASI VA G‘OYAVIY MAZMUNI

Tursunova Aziza Murod qizi, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik: adabiyot nazariyasi yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

https://orcid.org/0009-0001-4069-4671
e-mail: azizamurodovna73@gmail.com

THE ARTISTIC COMPOSITION AND IDEOLOGICAL CONTENT OF THE STORY “THE TULIP IN THE SNOW”

Tursunova Aziza Murod qizi, 1st-year Master’s Student in Literary Studies (Theory of Literature), Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ КОМПОЗИЦИЯ И ИДЕЙНОЕ СОДЕРЖАНИЕ РАССКАЗА “ТЮЛЬПАН В СНЕГУ”

Турсунова Азиза Мурод кызы, магистрантка 1-курса направления “Литературоведение (теория литературы)” Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Annotatsiya: *Mazkur maqolada “Qordagi lola” hikoyasining badiiy kompozitsiyasi va g‘oyaviy mazmuni tahlil qilinadi. Ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va ochiq yakun kabi kompozitsion bo‘g‘inlarning funksiyasi, shuningdek, peyzaj, portret, retrospeksiya va badiiy detalning psixologik ma’no hosil qilishdagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqotda urush tajribasining inson xotirasi va vijdoniga ta’siri badiiy tizim doirasida talqin etiladi.*

Kalit so‘zlar: *kompozitsiya, psixologik tasvir, kontrast, retrospeksiya, badiiy detal, ochiq final, urush tajribasi, insoniylik.*

Abstract: *The article examines the artistic composition and thematic message of the short story “Qordagi lola”. It analyzes the functions of exposition, complication, development, climax, and open ending, and discusses the role of landscape, portrait, retrospection, and artistic detail in constructing psychological meaning. The war experience is interpreted as a formative factor shaping memory and moral responsibility.*

Key words: *composition, psychological depiction, contrast, retrospection, artistic detail, open ending, war experience, humanism.*

Аннотация: *В статье анализируются художественная композиция и идейное содержание рассказа “Qordagi lola”. Рассматриваются функции экспозиции, завязки, развития действия, кульминации и открытого финала, а также роль пейзажа, портрета, ретроспекции и художественной детали в формировании психологического смысла. Военный опыт интерпретируется как фактор, определяющий память и нравственный выбор человека.*

Ключевые слова: *композиция, психологизм, контраст, ретроспекция, художественная деталь, открытый финал, военный опыт, гуманизм.*

KIRISH. Dunyo adabiyotida “War literature” deb ataladigan urush mavzusi yoritilgan badiiy asarlar tarixiy haqiqatni obrazli tasvir etishdan tashqari, inson va millatning urush va undan keyingi psixologik holatini ochib berish vazifasini ham bajaradi. O‘zbek adabiyotida ham jahon urushlari va afg‘on urushi tasvirlari aks etgan asarlar mavjud. Qo‘chqor Norqobil tomonidan yaratilgan ko‘plab asarlarda bu mavzu ba’zan asosiy, ba’zan orqa fonda tasvirlanadi.

Uning asarlarida urush mavzusi faqat tarixiy voqealar tasviri bilangina cheklanmay, inson ruhiyati, xotira va vijdon masalalarini badiiy talqin etish orqali yanada chuqur yoritiladi. Ayniqsa, “Qordagi lola” hikoyasi ana shunday asarlardan biri bo‘lib, unda insoniylik, mehr-shafqat hamda urushning ruhiy izlari chuqur psixologik tasvir orqali yoritiladi. Kompozitsiya badiiy unsur sifatida tasvirlanayotgan hayot qonuniyatlari, yozuvchi dunyoqarashi, badiiy metod va uslub, g‘oyaviy-badiiy niyat, shuningdek, adabiy tur va janr tabiatini o‘zida mujassam etadi. Ta’kidlanganidek, To‘xta Boboyev kompozitsiyani asarning badiiy mazmunini tashkil etuvchi muhim omil sifatida izohlaydi. Shuningdek, D.Quronov muallifning badiiy hukmi — badiiy konsepsiyaning shakllanishi va ifodalanishida kompozitsiya hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini qayd etadi. Shu sababli hikoya kompozitsiyasining puxta qurilishi hamda badiiy vositalarning maqsadli qo‘llanishi asarning g‘oyaviy mazmunini yanada ta’sirchan qiladi.

ASOSIY QISM. “Qordagi lola” hikoyasi kompozitsion jihatdan izchil va mantiqiy tuzilishga ega. Kompozitsiya unsurlaridan biri bo‘lgan sarlavha o‘quvchini qarama-qarshilik asosida fikrlashga undab, asardagi kontrastlikni chuqurroq his etishga olib keladi. Asarda tabiat tasvirlari qahramon ruhiy holati bilan uyg‘un holda beriladi. Tabiat lavhalari ko‘pincha qahramonning kayfiyati va ichki kechinmalarini ochishga xizmat qiladi. Hikoya qahraton qish manzarasi bilan boshlanadi va bu qism ekspozitsiya vazifasini bajaradi. Peyzaj orqali voqea kechadigan muhit hamda qahramonning ruhiy iztirobi ifodalanadi. Sovuq, qor, toshyomg‘ir, ishga kechikish kabi oddiy hayot manzaralari tashqi muhitning shafqatsizligini ko‘rsatish bilan birga qahramon ichki dunyosidagi bo‘shliq va iztirobni ham ramziy tarzda yoritadi. Shu tariqa peyzaj asarda muhim g‘oyaviy-kompozitsion vazifa bajaradi. Shundan so‘ng voqealar rivojini harakatga keltiruvchi tugun yuzaga keladi — qahramonning o‘tmishdan kelgan ayol bilan kutilmagan uchrashuvi. Ushbu uchrashuv hikoyaning dramatik asosini tashkil etadi. Muallif ayol obrazini batafsil portret tasviri orqali berib, dramatik holatni bosqichma-bosqich kuchaytiradi. Qahramonning ayolni tanimasligi va ayolning “Men esa seni unutmadim” deya murojaat qilishi voqealar ziddiyatini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, “1987-yil. Yoz. Fayzobod. Irina Mixaylovna” degan eslatma qahramon ruhiyatida keskin burilish yasaydi. Matndagi “Miyamga chaqmoq urganday bo‘ldi… Ichimda nimadir uzilib ketdi go‘yo” kabi ifodalar ushbu uchrashuvning hikoya dramatizmini belgilovchi markaziy nuqta ekanini ko‘rsatadi. Shu bois mazkur epizod asarning dramatik asosini tashkil etuvchi kompozitsion tugun vazifasini bajaradi.

“Qordagi lola” hikoyasida restoran va undan keyingi epizodlar voqealar rivojining eng muhim bosqichini tashkil etadi. Bu qismda ikki qahramonning uchrashuvi oddiy suhbat darajasidan chuqur ruhiy to‘qnashuv darajasiga ko‘tariladi. Irinaning Toshkentga ataylab kelgani, qahramonni uzoq izlab topgani hamda “vijdon oldida qarzdor bo‘lib yashay olmasligi” haqidagi so‘zlari uchrashuvning ichki sababini ochadi. Demak, bu uchrashuv tasodif emas, balki o‘tmishdagi voqea bilan bog‘liq ma’naviy ehtiyoj natijasidir.

Restorandagi muhit tasviri ham kompozitsion kontrast yaratadi: tashqi tomondan hashamat, boylik va farovonlik hukmron bo‘lsa, qahramonlar ichki dunyosida iztirob, xotira og‘rig‘i va ruhiy bo‘shliq hukm suradi. Irinaning “boylik bo‘lsa ham qalb xotirjam emas” mazmunidagi e’tirofi uning psixologik holatini ochadi. Qahramonning jarohati haqidagi epizod esa o‘tmish bilan hozirgi zamon o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi. Aynan shu jarohat ularning taqdirini tutashtirgan voqeaning esdaligi sifatida beriladi.

Keyingi retrospektiv tasvir — urush voqealariga murojaat — uchrashuvning asl sababini to‘liq yoritadi. Qahramon Irinaning ko‘z o‘ngida yaralanadi, u esa uning hayotini saqlab qoladi. Shu bois Irina qahramonni “o‘tmishining yorqin va mungli xotirasi” sifatida qabul qiladi. Uchrashuv paytidagi keskin ruhiy o‘zgarishlar ana shu umumiy o‘tmish, minnatdorlik hissi va yillar

davomida bosib kelingan xotira og‘irligi bilan izohlanadi.

Epizodning yakuni — Irinaning kutilmaganda ketib qolishi va maktub qoldirishi — voqealar rivojini yanada dramatik tusga kiritadi. Bu holat uchrashuvning qisqa, ammo ruhiy jihatdan o‘ta kuchli bo‘lganini ko‘rsatadi. Shunday qilib, mazkur qism asarda voqealar rivojini chuqurlashtirib, qahramonlar uchrashuvining sababini hamda ularning keskin psixologik holatini badiiy asosda ochib beradi.

“Qordagi lola” hikoyasining yakuniy qismi voqealar rivojini kulminatsion nuqtaga olib chiqadi. Irinaning kutilmaganda ketib qolishi va qahramonga maktub qoldirishi dramatik keskinlikni cho‘qqiga yetkazadi. Bu holat uchrashuvning tashqi jihatdan qisqa, ammo ruhiy jihatdan nihoyatda og‘ir va mazmunli bo‘lganini anglatadi. Qahramonning larzaga kelishi, ichki bo‘shliqni his etishi hamda o‘tmish xotiralari bilan yuzma-yuz qolishi asarning psixologik yechimini tashkil etadi. Irina bilan bog‘liq urush xotiralari, jarohat izi va minnatdorlik hissi yakunda insoniylikning unutilmas qadriyat ekanini ko‘rsatadi. Asar aniq voqeaviy xulosa bilan emas, balki ruhiy holat tasviri bilan tugaydi. Shu sabab hikoya ochiq final tamoyiliga asoslanib, o‘quvchini ezgulik, xotira va vijdon masalalari haqida mustaqil mushohada yuritishga undaydi. Shunday qilib, asar kompozitsiyasi ekspozitsiyadan tortib kulminatsiya va ochiq yechimgacha izchil rivojlanib, insoniylik g‘oyasini badiiy jihatdan mukammal ifodalaydi.

Asarda badiiy tasvir vositalari ham muhim o‘rin tutadi. Peyzaj tasviri psixologik xarakterga ega bo‘lib, qish manzarasi orqali qahramonning ichki kechinmalari ifodalanadi. Portret tasviri esa qahramonlarning tashqi qiyofasi orqali ularning ruhiy holatini ochib beradi. Ayniqsa, nigoh, yuz ifodasi va harakatlar orqali ichki iztirob tasvirlanadi. Muallif badiiy detal usulidan ham mahorat bilan foydalanadi. Maktub, surat va jarohat tasviri voqealarning chuqur ma’nosini ochishga xizmat qiladi.

Hikoyaning asosiy g‘oyasi insoniylik va ezgulikning umrboqiyligi bilan bog‘liq. Muallif urushning vayronkor mohiyatini ko‘rsatish bilan birga, inson qalbidagi rahm-shafqatning kuchini ulug‘laydi. Asarda insoniylik millat va zamondan ustun qadriyat sifatida talqin etiladi. Qahramonning oddiy insoniy harakati yillar o‘tib ham minnatdorlik va xotira sifatida qaytishi hikoyaning g‘oyaviy markazini tashkil etadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, “Qordagi lola” hikoyasi kompozitsion mukammalligi, psixologik tasvirning chuqurligi va insonparvarlik g‘oyasi bilan ajralib turadi. Asar voqealar tasviri orqali emas, balki inson ruhiyatining badiiy talqini orqali o‘quvchiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Muallif ezgulik, vijdon va xotira kabi umuminsoniy qadriyatlarni ta’sirchan badiiy shaklda ifodalashga erishgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Boboyev, To‘xta. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.

2. Quronov, Dilmurod. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

3. Norqobil, Qo‘chqor. Osmon ostidagi sir. Hikoyalar. – Toshkent: O‘zbekiston nomidagi nashriyot, 2015.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 3237.001.09

ISAJON SULTONNING “ABU RAYHON BERUNIY” ROMANIDA OBRAZ YARATISH MAHORATI

Boboqulova Zulxumor Fayzullayevna, Guliston davlat universiteti magistranti

THE SKILL OF CREATING IMAGE IN ISAZON SULTAN’S NOVEL “ABU RAIHON BERUNIY”

Bobokulova Zulkhumor Fayzullayevna, master’s student of Gulistan State University

МАСТЕРСТВО СОЗДАНИЯ ОБРАЗА В РОМАНЕ ИСАЖОНА СУЛТАНА “АБУ РАЙХОН БЕРУНИ”

Бобокулова Зулхумор Файзуллаевна, магистрант Гулистанского государственного университета

https://orcid.org/0009-0000-6026-01-36
e-mail: charosbobokulova@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada obraz tushunchasining mohiyati hamda adabiyotshunoslikdagi ahamiyati, ilmiy-nazariy qarashlar tahlilga tortilgan. Shuningdek, zamonaviy o‘zbek nasrida yaratilayotgan tarixiy asarlar, xususan, Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romanidagi bosh obraz tahlil etilgan. Bundan tashqari, ushbu masala yuzasidan turli xil yondashuvlar, badiiy obrazning nazariy asoslari, uni adabiy tahlilda qo‘llash usullari va adabiy tanqiddagi roli haqida tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *obraz, ifoda, tarixiy obraz, tarixiy haqiqat, davr koloriti, badiiy to‘qima, yondashuv.*

Annotation: *The article analyzes the essence of the concept of image and its significance in literary studies, scientific and theoretical views. Also, historical works created in modern Uzbek prose, in particular, the main image in Isajon Sultan's novel “Abu Rayhon Beruniy”, are analyzed. In addition, various approaches to this issue, the theoretical foundations of the artistic image, methods of its application in literary analysis and its role in literary criticism are studied.*

Key words: *image, expression, historical image, historical truth, color of the era, artistic texture, approach.*

Аннотация: *В статье анализируется сущность понятия образа и его значение в литературоведении, научно-теоретические взгляды. Также анализируются исторические произведения, созданные в современной узбекской прозе, в частности, главный образ в романе Исажон Султан «Абу Райхон Беруни». Кроме того, изучаются различные подходы к данной проблеме, теоретические основы художественного образа, методы его применения в литературоведении и его роль в литературной критике.*

Ключевые слова: *образ, выражение, исторический образ, историческая правда, цвет эпохи, художественная текстура, подход.*

KIRISH. San’atning barcha turlari qatori adabiyotda ham eng asosiy va mushtarak kotegoriya hisoblanadigan obraz tushunchasi har doim adabiyoshunoslikning dolzarb masalalaridan biri sanalib kelingan. Ijodkorning badiiy-estetik tafakkuri mahsuli o‘laroq dunyoga keladigan, shuningdek, uning badiiy mahoratini yaqqol ifoda etib beruvchi unsur ham ayni badiiy obraz sanaladi. “Yozuvchi yorug‘ dunyoda xuddi maftun davra yoki shaydo muhitda yashagandek yashaydi. Uni har daqiqada har tomondan turfa taassurotlar qurshab oladi va ularning sehriga mahliyo bo‘lish

uchun birrov nazar tashlash kifoya qiladi – hayratlanish, zavq olish, qoyil qolish, dahshatga tushish yoki shunchaki xayrixohlik ularni hech kim ko‘rmaganday ko‘ra olish hamda so‘z vositasida abadiy muhrlash imkonini beradi” [1:243] va natijada badiiy obraz dunyoga keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov o‘zining nazariy qarashlarida “badiiy obraz” atamasiga quyidagi ta’rifni keltiradi hamda uni tor va keng ma’noda ishlatilishi haqida fikr yuritadi: “Keng ma’noda “badiiy obraz” deganda borliqning san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ijodiy qayta ishlangan har qanday aksi (jonivorlar, narsa-buyumlar, hodisalar, tabiat obrazlari) nazarda tutilsa, tor ma’noda badiiy asardagi inson obrazi tushiniladi”. Shuningdek, badiiy obraz asarda ifoda etayotgan ma’no va mazmuni jihatidan ham bir qancha turlarga bo‘linadi. “Adabiyotshunoslikda badiiy obrazlar turlicha tasnif etiladi, bu turlichalik tasnif uchun qaysi jihat asos qilib olingani bilan bog‘liqdir. Jumladan, ijodkor estetik ideali bilan munosabatiga ko‘ra ijobiy va salbiy obrazlar, ijodiy metodga ko‘ra realistik, romantik va b., yaratilish usuliga ko‘ra fantastik, grotesk va b., xarakter xususiyati va estetik belgisiga ko‘ra tragik, satirik, yumoristik obrazlar farqlanaveradi. Shuningdek, ba’zan badiiy obrazning tasvir planidan kelib chiqib, inson obrazi, jonivorlar obrazi, narsa-buyumlar obrazi tarzidagi atamalar ham qo‘llanadi”.

NATIJALAR. Adabiyotshunoslarimizdan yana biri Marg‘uba Abdullayeva “Mumtoz tarixiy poetika” asarida obrazga “voqelikni faqat san’atga xos usulda o‘zlashtirib va o‘zgartirib xarakterlovchi estetik kategoriya” sifatida yondashadi. Adabiyotshunosning fikriga ko‘ra, obrazda obyektiv anglash bilan subyektiv ijodiy tafakkur qorishib ketadi. Badiiy obrazning o‘ziga xos xususiyatlari esa real voqelikka va fikrlash jarayoniga nisbatan munosabatda aniq namoyon bo‘ladi.

MUHOKAMA. Istiqlol davri nasri vakillaridan biri Isajon Sulton so‘nggi yillar oralig‘ida tarixiy obrazlar yaratish borasida ko‘plab ijodiy izlanishlar olib bormoqda hamda adibning bu borada bir qancha yutuqlarga ham erishayotganligini e’tirof etish mumkin. Xususan, “Alisher Navoiy”, “Bilga Xoqon”, “Ma’suma” hamda “Abu Rayhon Beruniy” kabi romanlarida yaratilgan tarixiy obrazlar o‘zining ko‘lamdorligi, tarixiy voqelik hamda badiiy to‘qimaning uyg‘unligi o‘laroq maromiga yetkazilib tasvir etilganligi bilan ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, “Abu Rayhon Beruniy” romani ushbu romanlar orasida o‘ziga xos syujeti bilan ajralib turadi. Ya’ni asarda bir qancha hikoyachi qahramonlar bo‘lib, har biri o‘z tilidan Beruniyga bog‘liq bo‘lgan voqeliklarni badiiy yo‘sinda hikoya etadi va natijada Beruniyning tugal qiyofasi kitobxon ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi. Ushbu asarni yozishda adib juda ko‘plab tarixiy ma’lumotlarni to‘plaganligi va har bir faslga jiddiy yondashganligini anglash mumkin. Isajon Sulton “Abu Rayhon Beruniy” romanida Beruniy obrazini turli rakurslarda ifoda etishga urinadi. Asarning ba’zi o‘rinlarida Beruniy olim sifatida, ba’zi o‘rinlarida esa faylasuf sifatida ko‘zga tashlanadi. Xususan, yozuvchi asarning so‘nggi qismlarida umrining oxirgi yillariga yaqinlashgan Beruniyni hayot mohiyatini turli ramzlar orqali ham ilg‘ay ola biladigan darajadagi faylasuf qiyofasida akslantiradi.

“Abu Rayhon barq urib yotgan rayhonlarni ko‘rib miyig‘ida kuldi-da, dedi:

– Ha, bu shunday. Ey Abu Fazl, inson ham dunyoga kelib, iforini taratib, bir kuni qurigan xas-xashakka aylanadi”[4:304].

Bu matndan anglashiladiki, Beruniy tabiatida zohidlik bo‘lgan. Ya’ni u foniy dunyoning qanchalar qadrsiz va tez o‘tib ketishini anglagan holda shu hayotda yashab turgan insonlar, ularning hayotini yaxshilash, ilm-fanni yuksaltirish uchun butun umrini tikadi. U inson sifatida qanchalar yuksak bo‘lmasin, o‘zini juda quyida ko‘radi. Shohona izzat-ikrom va hashamatlarni yoqtirmaydi, hukmdorlarning unga qilgan qimmatbaho tuhfalarini ham majburlikdan qabul qiladi. Aks holda ular “Beruniy bizni nazar-pisand qilmadi” deb o‘ylashlarini xohlamaydi. Ammo uning ruhi va qalbi boylik yoki shuhrat ehtiyojida emas, balki koinot va g‘ayb ilmlarini o‘rganish va kashf etish ishtiyoqi bilan yonar edi:

“ – Ey Abu Fazl! – dedi o‘ychan. – Men hayot qanchalar qisqaligini va Parvardigor tabiat bag‘riga jo qilib qo‘ygan sirlarni qanchalar cheksiz ekanini o‘ylamoqdaman. Yer tublaridan falakka qadar shuncha ko‘p sir yashirinki, ularning bir qismi kashf qilinganida ham, insoniyat cheksiz

baxtiyor yashaydi. Kashflar qilganing sayin sirlar orta borganiga ne deya olasan?...”[4:307]

Shuningdek, Beruniy insonlarning ilmsizligidan, hayot mohiyati, yaratilishdan asl murod ne ekanligini anglamaganlari, hatto buni anglashga urinmayotganlari uchun nadomat chekadi: “Tiriklik olamining muhtashamligiga razm sol. Inson ham shunday, o‘zining qiymatidan bexabar, yarimta chivin qanoti uchun urushlarga kirib, qon to‘kadi, tosh-temir to‘playdi, buzg‘unchiliklar sodir etadi. Hikmat egalari yorug‘ dunyoga nima uchun oz qiymat berishganini mulohaza qilib ko‘r. Agar qo‘lingdan kelsa, o‘sha yarimta chivin qanotini mangulikka olib ket! Koshki umrim yetsa-yu, aqlim yetgan ishlarning barchasini kishilarga birma-bir ma’lum qilsam!..” [4:308]

U tibbiyot, geografiya, tarix, diniy ilmlardan tashqari bolalar uchun ham darsliklar yozadi. Ya’ni o‘zi muhim asarlar bilan qanchalar band bo‘lmasin, yosh avlodning kelajagi, ota-onalarning ehtiyojlarini hisobga olib, nujum, handasa, aljabr va almuqobalani birlashtirgan xos risola yaratadi. Yordamchisi Abu Fazl bu vaqtda “Saydana” hamda “Javohirlar kitobi” asarlarini yozishni eslatib turganida olim shunday javob beradi: “ – Men bir vaqtning o‘zida bir nechta asar ustida ishlay olishimni unutdungmi? – deb so‘radi bir kuni. – lekin hozir fikr-u xayolim bolalarga yetkazib beriladigan bilimlar bilan band. Boshqa asarlarni eslatishingga hojat yo‘q, ular har doim xayolimda. Xudo haqqi, bunday so‘zlaring bilan menga halaqit berma…” [4:311]

Bundan ko‘rinadiki, Beruniy atrofidagi insonlarga naqadar jonkuyar, ilmparvar shaxs bo‘lgan. U boshqa ilmiy asarlari ham muhim ekanligini his qilgan holda, bolalar ya’ni kelajak avloq uchun yaratayotgan soddagina risolaning qanchalik ahamiyatli ekanligini butun shuuri bilan anglab, o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashadi.

Adabiyotshunos olimlarimizdan yana biri professor Bahodir Karimov o‘zining “Dahoga ehtirom yoxud Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romani xususida” nomli maqolasida ushbu roman haqida qimmatli fikrlarni keltiradi. Xususan, romandagi tarixiy obrazlar qiyofasini yaratishda adibning oldingi asarlarida ham qo‘llagan poetik usullar an’anasi, xususan, tarixiy predmetlarning asl nomi bilan qo‘llanilishi ushbu romanda ham aks etganligi, bu esa kitobxon o‘quvchini asarda tasvirlanayotgan davr muhitiga tez va oson olib kirishi haqida to‘xtalib o‘tadi:

“Bunday tushunchalarning tafsilotlari roman haqiqatini yuzaga chiqaradi. Beruniy yashagan muhit ob-havosini, borib ko‘rgan shaharlari tasviri, boshqalar bilan uchrashuvlarini bunday tafsillar reallashtiradi. O‘quvchi zehnini asar ichiga va o‘tmish zamon ijtimoiy-madaniy koloritiga olib kiradi. Ammo bunday detallarda xatoliklar bo‘lmasligi lozim. Isajon Sulton shu e’tibordan sezgir, ogoh, hushyor. Bilib yozadi, bilganlardan so‘raydi. Bilmaganini yozmaydi. Haqiqatni yozish – ijod haqiqatiga sadoqatdan dalolatdir. Yaxshi yozuvchi bo‘lish uchun iymon mezoni muhim, vijdon so‘rovi zarur. Ayni damda yozuvchi hayotning turli sohalarini tugal biladigan olim ham bo‘lmog‘i lozim”[5].

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Anvar Allambergenov o‘zining “Abu Rayhon Beruniy obrazi Isajon Sulton talqinida” nomli maqolasida Beruniy tasviridagi yangi jihatlar, adibning topilmalari, tarixiy haqiqat va badiiy mahorat uyg‘unligi, shuningdek, Beruniy shaxsiyatidagi nodir fazilatlar haqida alohida to‘xtalib o‘tadi: “Roman alloma obrazi talqin qilingan boshqa asarlarga qaraganda qator jihatlari bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Jumladan, yozuvchi Beruniy davrini to‘laqonli aks ettirishga urinish bilan bir qatorda hazrat Beruniyning hayotini, shaxsiyatini, uning diniy, falsafiy, siyosiy qarashlarini to‘laqonli ochib berishga harakat qilgan. Qolaversa, Abu Rayhon Beruniyning ilmiy faoliyati, olib borayotgan tadqiqot ishlari uchun asqatarlik, o‘z qo‘llari bilan yasagan moddalarning solishtirma og‘irliklarini o‘lchovchi asbob, qimmatbaho toshlarning og‘irligini aniqlash uchun nozik tarozu, tutash idishlar qoidasiga asoslangan uskuna, yuqori aniqlikdagi usturlob va armila kabi har xil hajmdagi asbob-uskunalardan iborat qo‘l ixtirolari, aniq ilmiy dalillar bilan ilgari surgan aql kashfiyotlarini asarning boshidan to oxiri qadar goh sharoit taqozosiga ko‘ra voqealar yordamida, goh obrazlar tilidan har xil shaklda ko‘rsatib o‘tadi”[6].

Bundan tashqari, ushbu asar haqida yosh tadqiqotchilar ham ko‘plab izlanishlar olib bormoqdalar. “Romanda yuzdan ortiq qahramon bor, ularning barchasi Beruniy haqida so‘z aytadi. Ushbu roman Beruniyning yorqin shaxsiyati, buyuk kashfiyotlarning yaratilish tarixi bilan

birga, o‘sha davrda yuz bergan voqealar, shuningdek, hukmdorlar Qobus ibn Vushmgir, xorazmshoh Ma’mun, sulton Mahmud G‘aznaviy bilan munosabatlari haqida hikoya qilinadi” [7].

Yana bir tahlil orqali Beruniy obrazining 14 yoshidagi qiyofasi qay darajada tasvirlanganiga guvoh bo‘lish mumkin: “Yoshi o‘n to‘rtda, zakosi to‘lib-toshib turgan, ko‘zlarida o‘smirlarcha samimiyat va soflik ufurib turgan Abu Rayhonning Mansur ibn Iroq bilan suhbatini “Qiyot. Abul A’lo Gurganjiy hikoyasi”da ko‘rishimiz mumkin. Ushbu hikoyada Beruniy berilgan savollarga o‘zining javobi bilan Mansur Ibn Iroqni hayratga soladi. Yosh Beruniy Abul A’lo Gurganjiyning qo‘lida cho‘liq ya’ni cho‘pon bo‘lib ishlagan. Hikoya Gurganjiy tilidan beriladi, Gurganjiy o‘z vaqtida bilim o‘rganmaganiga afsuslanib, Beruniyni Mansur Ibn Iroq ixtiyorida qoldiradi. Shundan so‘ng, “Qiyot. Mansur Ibn Iroq hikoyasi” keltirilgan bo‘lib, Abu Rayhonning yoshlikdan ilmdagi salohiyati yuksak ekanligini bilib olamiz”[8].

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, istiqlol davri nasrida yaratilgan tarixiy asarlar qatorida “Abu Rayhon Beruniy” romani ham bugungi kitobxon uchun yuksak badiiy manba o‘laroq, Beruniy siymosi bilan yana bir qadar yaqinlashishga imkon beradi. Asar o‘zining kompozitsion qurilishi, badiiy tili, uslubi hamda obrazlarning yaqqol ifoda etilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yan Parandovskiy. So‘z kimyosi. – T: Yangi asr avlodi, 2022. 243-b.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
3. Abdullayeva M. Mumtoz tarixiy poetika. – T: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 364 b. (149-bet).
4. Isajon Sulton. Abu Rayhon Beruniy. T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2023. – 339 b.
5. Bahodir Karimov. Dahoga ehtirom yoxud Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romani xususida. Jadid gazetasining 2024-yil 6-sentyabrdagi 37-sonida. https://jadid.uz/dahoga-ehtirom/
6. Anvar Allambergenov. Abu Rayhon Beruniy obrazi Isajon Sulton talqinida. https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/download/2031/1853/3761
7. Madaminova Dilnura. Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romanida Mahmud G‘aznaviy obrazi. https://zenodo.org/records/13119998
8. Dilnura MADAMINOVA, Bekposhsha Rahimova. Analysis of stories in the novel “Abu Rayhon Beruniy”. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika – Зарубежная лингвистика и лингводидактика – Foreign Linguistics and Linguodidactics Journal home page: https://inscience.uz/index.php/foreign-linguistics

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 811.111

DIALOGIC AND MONOLOGIC SPEECH: A LINGUISTIC EXPLORATION

Kenjaeva Zukhra Takhirovna, English Teacher at the Academy of Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

DIALOGLIK VA MONOLOGLIK NUTQ: LINGVISTIK TADQIQOT

Kenjayeva Zuhra Taxirovna, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi o‘qituvchisi

ДИАЛОГИЧЕСКАЯ И МОНОЛОГИЧЕСКАЯ РЕЧЬ: ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ

Кенжаева Зухра Тахировна, преподаватель Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан

https://orcid.org/0000-0003-1739-4408
kenjaevazuhra@gmail.com

***Abstract**: This article examines speech as a key issue in pragmatic and cognitive linguistics. It analyzes the concepts of speech and text and their interrelation based on perspectives from Uzbek, Russian, and global linguistics. The study highlights that while discourse was initially viewed as a coherent sequence of speech, modern linguistics interprets it as a complex communicative phenomenon.*

***Key words:** monologic speech, text speech, syntactic speech, dialogic speech, speech genre.*

***Annotatsiya:** Ushbu maqola pragmatik va kognitiv lingvistikaning muhim masalalaridan biri bo‘lgan nutqni tadqiq etadi. Unda nutq va matn tushunchalari hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi o‘zbek, rus va jahon tilshunosligi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda nutq dastlab izchil nutq ketma-ketligi sifatida qaralgan bo‘lsa-da, zamonaviy tilshunoslikda u murakkab kommunikativ hodisa sifatida talqin etilishi ta’kidlanadi.*

***Kalit so‘zlar:** monologik nutq, matn nutqi, sintaktik nutq, dialogik nutq, nutq janri.*

***Аннотация:** В данной статье рассматривается речь как одна из ключевых проблем прагматической и когнитивной лингвистики. Анализируются понятия дискурса и текста, а также их взаимосвязь с точки зрения узбекского, русского и мирового языкознания. В исследовании подчеркивается, что если изначально дискурс понимался как связная последовательность речи, то в современной лингвистике он интерпретируется как сложное коммуникативное явление.*

***Ключевые слова:** монологическая речь, текстовая речь, синтаксическая речь, диалогическая речь, жанр речи.*

Introduction. One of the central issues within pragmatic and cognitive linguistics, recognized as emerging trends in contemporary linguistic research, is the concept of speech. The initial conceptualizations of the term “speech” in modern linguistics began to take shape in the 1950s. In early linguistic sources, speech was initially characterized as a “unit with a complex syntactic structure” comprising multiple sentences. The theoretical articulation of “speech” within modern linguistics began to emerge in the mid-twentieth century, particularly during the 1950s.

Literature review. In the textbook *Current Uzbek Literary Language (Syntax)* by Professors A.Gulomov and M.Askarova, text speech is presented as a category of incomplete sentences, with particular attention given to the structure of incomplete sentences within the context of text speech. A.Khazratkulov (1978) investigated issues such as the role of dialogue, particularly in question-and-answer formats, and examined the

distinction between incomplete sentences, dialogue, and monologue [8,36].

Thus, in the history of modern linguistics, text linguistics emerged as an independent subfield. This field, concerned with the investigation of linguistic phenomena at a macro level, has undergone accelerated development in the twenty-first century, thereby presenting novel challenges to the discipline. Among these challenges is the task of analyzing the language system through the prism of speech [4,432].

Within contemporary linguistics, domains such as linguo-pragmatics, linguoculturology, psycholinguistics, cognitive linguistics, ethnolinguistics, and speech analysis foreground the role of individual factors in both the production and interpretation of texts. The exploration of the language system in relation to individual personality is primarily manifested within linguistic semantics, cognitive linguistics, psycholinguistics, pragmatic linguistics, and linguocultural studies. Scholars such as Maslova, N.I.Karaulov, B.L.Whorf, A.A.Potebnya, J.Lakoff, M.Johnson, T.A.van Dijk, U.Chafe,N. Chomsky, E.Rosch, Yu.N.Stepanov, L.V.Shcherba, A.A. Leontiev, N.I. Zhinkin, E.S. Kubryakova, and V.Z.Demyankov have all contributed significantly to this area of speech-related research [3,33].

G.Jefferson's work on communication norms, turn-taking, and related aspects of spoken interaction has been instrumental in advancing the study of speech. Complementing this, W.Labov's investigations into narrative structures and storytelling significantly intensified scholarly interest in oral discourse [2,33]. In the United States, comprehensive frameworks for categorizing speech types were subsequently developed, while research on politeness strategies, facial expressions, and other forms of non-verbal behavior in speech was undertaken in dialogue with British traditions of pragmatic theory.

Research methodology. Z.Harris introduced the issue of speech in foreign linguistics in the 20th century [6,30]. In the course of linguistic inquiry, speech was conceptualized as a monopredicative unit of oral discourse. By this period, several pivotal notions had already entered scholarly circulation, including text linguistics, the interrelation of text studies and speech theory, applied stylistics, communication theory, language acquisition, and machine translation. A decisive development in the 1970s was the formal recognition of speech as an autonomous subdiscipline within linguistics, thereby establishing it as a distinct domain of research. Nonetheless, this institutionalization was not without contestation. Certain scholars voiced reservations regarding the legitimacy of incorporating speech into linguistic analysis. Of particular note, N.A.Slyusarev in 1966 contended that R.Godel's deployment of the term "speech" risked obscuring the delineation of language and speech phenomena. In response, Slyusarev advanced a systematic and scientifically grounded rebuttal to Godel's critique [5,206].

Drawing on the perspectives of the aforementioned linguists, the objective was not only to clarify the concept of "speech" but also to explore the concept of "text" and their interrelationship. The concept of speech primarily focuses on examining the connection between text and art. Speech examines the current state of artistic potential and contexts across various texts and spoken forms of speech, ranging from formal communication to casual conversations. It is widely accepted in linguistic science, from Aristotle's time to the present, that speech represents the active process of language realization [1,288]. However, as previously mentioned, for much of its history, linguistic research has primarily focused on the descriptive analysis of the product of linguistic activity, even in dialectological studies.

While psychologists and psycholinguists have extensively investigated the psychological aspects of speech, their studies have primarily concentrated on the psychophysiological dimensions of speech production, focusing on its manifestation rather than the process itself. In contrast, while linguists have universally acknowledged speech as a product of human cognition, the study of speech activity, which underpins the linguistic process, has often been sidelined by psychological and psychophysiological approaches.

Results. A review of the literature reveals that dialogic speech, though often defined simply as an exchange between two or more interlocutors, encompasses a far wider array of linguistic phenomena than has traditionally been

acknowledged. Oral and written language are deeply interrelated, with spoken discourse providing the foundation for literary expression. Dialogic speech is characterized by immediacy and interaction, underscoring its dynamic and adaptive qualities. At the same time, oral communication most frequently appears in dialogic forms, whereas literary language tends to rely on monologic structures marked by extended, organized discourse. As L.V. Shcherba (1915) observed, "spoken speech occurs in the form of dialogic speech," affirming the naturalness of dialogue [7,248].

The evidence suggests that dialogic speech should not be reduced to mere conversation but understood as a complex communicative phenomenon that bridges oral and written modalities.

Conclusion. In conclusion, the term "speech" has evolved in academic research, initially referring to a coherent text but now encompassing conversation and dialogue. As the anthropocentric paradigm has progressed, "speech" is increasingly seen as involving its structure, including extralinguistic factors like psychological, social, and individual consciousness. It is widely recognized that a purely linguistic approach is insufficient, requiring interdisciplinary cooperation across psychology, social science, philosophy, and cognitive science.

REFERENCES:

1. Борботко В.Г. Принципы формирования дискурса. От психолингвистики к лингвосинергетике. – М.: Ком Книга, 2007. – 288 с.

2. Demyankov V.Z. Cognitive linguistics as a variety interpretive approach / Demyankov V.Z // Questions of linguistics. – No. 4, 1994. – 17-33. pp.

3. Dijk T.A. Language. Cognition. Communication. M.: Progress, 1989. – 312.pp.

4. Степанов Ю.С. Альтернативный мир, Дискурс, Факт и принцип причинности // Язык и наука конца XX века. – М.: Российский государственный гуманитарный институт, 1995. – 432 с.

5. Слюсарев Н.А. Проблемы функционального синтаксиса современного английского языка. – М.: Наука, 1981. – 206 с.

6. Harris Z.S. Discourse analysis. Language. – 1952. – Vol. 28, № 1. – 1-30 pp.

7. Щерба Л.В. Восточно-лужское наречие. – Петербург, 1915. – 248 с.

8. Hazratkulov A.H. Some features of dialogic speech syntax. – Karshi: Nasaf, 1978. – 36. pp.

9. Kenjayeva Z.T. The emergence of Gallicism in military terminology in the English and the Uzbek languages. Volume 7, Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching (EJLAT) https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/950

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 811.111'37:351.74

KINETIC AND PARALINGUISTIC CHARACTERISTICS OF COMMUNICATION OF INTERNAL AFFAIRS OFFICERS

Kenjaeva Fotima Takhirovna, a teacher of the Academy of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

https://orcid.org/0000-0003-0939-2584

kenjaevaf.06@gmail.com

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI MULOQOTINING KINETIK VA PARALINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Kenjayeva Fotima Taxirovna, O‘zbekiston Respublikasi Ichk ishlar vazirligi Akademiyasi o‘qituvchisi

КИНЕТИЧЕСКИЕ И ПАРАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Кенжаева Фатима Тахировна, преподаватель Академии МВД Республики Узбекистан

Abstract: *This article examines the role of facial expressions and other non-verbal signals in the professional communication of internal affairs officers. It highlights the importance of kinesics in expressing emotions and improving communication effectiveness. The study emphasizes the need for officers to develop skills in interpreting and conveying information through facial expressions. It also demonstrates how facial movements transmit meaning and underlines the significance of paralinguistic features in law enforcement interaction.*

Key words: *kinesics, paralinguistics, proxemics, olfaction, auscultation, body language, linguistic unit.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining og‘zaki muloqotidagi mimikaning ahamiyati hamda kasbiy o‘zaro aloqada nonverbal signallarning roli tahlil qilinadi. Insonning hissiy holatlarini uzatishda kinetika va mimikaning ahamiyati, shuningdek, muloqot samaradorligiga ta’siri yoritiladi. Bundan tashqari, xodimlarda mimik yuz ifodalari orqali ma’lumotni tushunish va uzatish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligi asoslab beriladi. Misollar orqali yuz ifodalarining qanday ma’lumot uzatishini ko‘rsatib berish va ichki ishlar organlari xodimlarining muloqotida paralingvistik vositalarning ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *kinetika, paralingvistika, proksemika, olfaksiya, auskultatsiya, tana tili, lingvistik birlik.*

Аннотация: *В статье рассматривается роль мимики и невербальных сигналов в устной коммуникации сотрудников органов внутренних дел. Подчеркивается значение кинетики и мимики для передачи эмоций и повышения эффективности общения, а также необходимость развития навыков понимания и передачи информации через лицевые выражения. Приведены примеры передачи информации с помощью движений лица и отмечена роль паралингвистических средств в профессиональном взаимодействии.*

Ключевые слова: *кинетика, паралингвистика, проксемика, ольфакция, аускультация, язык тела, лингвистическая единица.*

INTRODUCTION. Global linguistics has undergone significant developments, with paralinguistic means now recognized as an independent area of study. This field, generally referred to as paralinguistics, kinesics, and gesticulation, has gradually expanded with new research directions. According to scientific literature, non-verbal signals range from four to ten types, including paralinguistics, oculesics, kinesics, haptics, and proxemics, which have been partially studied. However, areas such as gastics, chronemics, systemology, auscultation, and olfaction remain largely unexplored [3, 362].

LITERATURE REVIEW AND METHODOLOGY. In this context, the study of kinesic and oculesic means within the communication of internal affairs officers appears especially relevant.

One of the types of non-verbal communication is kinesics, in which communication occurs through gestures, facial expressions, and pantomime. Body language represents the external expression of a person's emotional state. While the internal monologue is used to enhance activity effectiveness, it can also influence communication, particularly in the form of non-verbal body language, applied to establish contact. By definition, body language is a form of non-verbal communication that reflects what the mind is thinking. When analyzing body language, the listener, observing the roughness of the interlocutor's movements, may adjust their tone of voice; a person experiencing communicative anxiety unconsciously uses their own body to overcome the fear of communication. Burxanova defines kinesics as the study of gestures within the visual channel of communication. It includes body movements, facial expressions, gestures, and individual behavioral traits that convey meaning during interaction [1, 36].

The research utilized a qualitative content analysis methodology, concentrating on descriptive and observational data drawn from both literary and professional sources. The primary materials comprised Uzbek and English literary-detective works, alongside firsthand observations of law enforcement officers interacting with citizens. Morphological and contextual analyses were applied to identify, classify, and systematize kinesic and paralinguistic elements.

The data collection process involved identifying facial expressions, gestures, and other non-verbal cues in literary texts. These signals were categorized into kinesics, oculesics, proxemics, and paralinguistic features. Their occurrence and distribution were compared across Uzbek and English corpora, and their impact on communication effectiveness and emotional understanding was assessed. Additionally, the study incorporated cross-referencing of non-verbal descriptions with dictionary definitions, academic literature, and field observations to ensure accurate interpretation of kinesic and paralinguistic behaviors.

Law enforcement officers encounter dangerous situations as part of their daily duties. Therefore, to perform their responsibilities effectively and safely, they must constantly remind themselves of the necessity to maintain control over the situation, authority, and the ability to detain an offender. However, misinterpretation of non-verbal signals, either intentionally or unintentionally presented by the offender, and the corresponding erroneous reaction may pose a threat. For this reason, law enforcement officers must possess well-developed practical communication skills.

RESULTS AND DISCUSSIONS. During communication with citizens, law enforcement officers can decode information from facial expressions and movements, such as raised eyebrows, pursed lips, furrowed brows, etc. Even the slightest changes in a conversation partner's facial expression carry specific information in live communication. Speaking about communication means in the French language, Sh.Bally noted: "Gestures, body movements, posture, and especially facial movements convey meanings as clear and comprehensible as other language signs" [2, 51].

Facial non-verbal cues convey meaning through movements of the lips, eyes, eyebrows, tongue, teeth, nose, and facial muscles. For example, J.Frua-Wittmann notes that anger is expressed by a furrowed brow, wide-open eyes, flaring nostrils, raised eyebrows, bared lower teeth, an open mouth, and upward movement of the lips[5,151]. For example, in the following excerpt, the "furrowed brows" of the character express his irritation: – Mahmud Ahmedovich's thick

eyebrows furrowed. His long, dark face took on a serious expression. This meant that he was nervous. (I.Nishonov, The Sold Conscience); – The judge's eyebrows rose. He said in the famous acid tones that Counsel knew so well (Agatha Christie, And Then There Were None); – The judge raised his eyebrows and spoke the words in that same sarcastic tone that once made lawyers tremble.

In the "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language", the verb "hurpaymoq" (to frown) is defined as: "to adopt an unattractive, sullen appearance". From this definition, it follows that this linguistic unit is used in relation to an unusual or unfamiliar appearance of an object, animal, or person. In the given example, the expression "qalin qoshlari hurpaydi" forms a fixed combination denoting a negative emotional tone. In the English explanatory dictionary, the following definition is provided: "raise your eyebrows – to move your eyebrows upwards in order to show surprise or disapproval" (to raise one's eyebrows, expressing surprise or disapproval). Example: Really? she said, raising her eyebrows[6,604].

According to our research and findings, as a result of morphological analysis, it was established that descriptions and names of nearly a hundred kinesic elements collected from literary-detective works make up 14.40% in Uzbek works and 10.02% in English works. The works also include descriptions of changes that may occur in the face and, generally, in facial expressions, such as "blushing", "paleness", etc. The changes occurring on the faces of law enforcement officers have not received a unified terminological definition in scientific literature. These phenomena are related to psychosomatic processes, skin, and autonomic reactions [4,22]. As is well known, the impact of information on a person's mental state is often manifested in changes in the skin color of the face, such as paleness, reddening, darkening, or local changes in specific areas of the face. Such reactions can be caused by nervous tension, mental fatigue, or overstrain, as well as strong emotional impact (affect, aphasia, or cognitive reactions). For example, in the following excerpt from Erich Maria Remarque's "All Quiet on the Western Front", there is a change in the character's facial expression under the influence of a speech act: Tjaden comes up with a flushed face. He is so excited that he stutters. "Himmelstoss is on his way", he stammers. "He's coming to the front!"

CONCLUSION. Non-verbal means of communication are of particular importance when studying the specifics of business interactions among law enforcement officers in educational and professional environments. This is not only related to the development of their future professional activities and mastery of specialized subjects but also to their integration into a new social environment, the unification, and regulation of all spheres of life.

REFERENCES:

1. Бурханова М. Ольфактор лингвистика. Фергана, 2022. – Б. 36.

2. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М., 1955. – С. 51.

3. Дронова А.Л. Специфика передачи невербальних способов коммуникации в художественном тексте (на материале произведений И.С.Тургенева). Автореф.дисс… док. филол.наук. – М., 2000. – С. 362.

4. МузычукТ.Л. Структурно-семантическая организация и языковые средства выражения невербальной речи персонажа в эмоциональном диалоге художественной прозы: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. М., 2004. – С. 22.

5. Frois-Wittman J. The judgement of facial expression // Journal of Experimental Psychology, 1930. Vol. 13. – Pp. 113-151.

6. Longman dictionary of contemporary English. Pearson Education Limited. England, 2009. – Pp. 604.

7. Kenjaeva F. The usage of slangs in communication among cadets.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1en7nDAAAAAJ&citation_for_view=1en7nDAAAAAJ:9yKSN-GCB0IC

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK:37.015.3

ICHKI ISHLAR ORGAN XODIMLARI UCHUN XORIJIY TILLARNI O‘RGANISH VA OG‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

[1]*Abdullayeva Sanobar Xamzayevna, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi “O‘zbek tili va xorijiy tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi*
[2]*Ergashev Nurmuxammad Jalilovich, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi “O‘zbek tili va xorijiy tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi*

sanoabdullaeva38@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-6133-4776

EFFECTIVE METHODS OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES AND DEVELOPING ORAL SPEECH FOR INTERNAL AFFAIRS OFFICERS

[1]*Abdullayeva Sanobar Xamzayevna, Senior teacher, independent researcher, Department of Uzbek and Foreign Languages, Academy of the Ministry of Internal Affairsof the republic of Uzbekistan*
[2]*Ergashev Nurmuxammad Jalilovich, Senior teacher, independent researcher, Department of Uzbek and Foreign Languages, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the republic of Uzbekistan*

ergashevnurmuxammad1988@gmail.com

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ И РАЗВИТИЯ УСТНОЙ РЕЧИ У СОТРУДНИКОВ ИНОСТРАННЫХ ДЕЛ

[1]*Абдуллаева Санобар Хамзаевна, старший преподаватель, независимый соискатель, кафедра узбекского и иностранных языков, Академия Министерства внутренних дел*
[2]*Эргашев Нурмухаммад Джалилович, старший преподаватель, независимый соискатель, кафедра узбекского и иностранных языков, Академия министерства внутренних дел*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida og‘zaki nutqni rivojlantirishning samarali usullari ko‘rib chiqiladi. Bunda xorijiy tillarni o‘rganishning ahamiyati, og‘zaki nutqni rivojlantirish usullari va zamonaviy texnologiyalar orqali ta’lim olish imkoniyatlari haqida batafsil ma’lumot beriladi. Maqsad – xorijiy tillarni o‘rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam berishdir.*

Kalit so‘zlar*: ichki ishlar organlari xodimlari, kasbiy kompetensiya, xorijiy til, og‘zaki nitq, trening, rolli o‘yinlar.*

Annotation: *This article examines effective methods of developing oral speech in the process of learning foreign languages for internal affairs officers. It provides detailed information about the importance of learning foreign languages, methods of developing oral speech, and opportunities for*

learning through modern technologies. The goal is to help make the process of learning foreign languages more effective and interesting.

Keywords: *internal affairs officers, professional competence, foreign language, oral speech, training, role-playing games.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются эффективные методы развития устной речи в процессе изучения иностранных языков у сотрудников внутренних дел. Приводится подробная информация о важности изучения иностранных языков, методах развития устной речи и возможностях обучения с использованием современных технологий. Цель – помочь сделать процесс изучения иностранных языков более эффективным и интересным.*

Ключевые слова: *сотрудники внутренних дел, профессиональная компетентность, иностранный язык, устная речь, обучение, ролевые игры*.

KIRISH. Hozirgi zamon jamiyatida xorijiy tillarni bilish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki professional faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun ham zarur bo‘lib bormoqda. Xususan, ichki ishlar organlari xodimlari uchun bu qobiliyatlar alohida ahamiyatga ega, chunki ular xalqaro aloqalar, muloqot va madaniy tushunish jarayonlarida faol ishtirok etadilar[1]. Xorijiy tillarni bilish, xodimlarning kasbiy kompetentsiyasini oshirish bilan birga, ularning ish faoliyatini yanada samarali va muvaffaqiyatli amalga oshirishlariga yordam beradi. Bundan tashqari, xorijiy tillarni o‘rganish jarayoni ichki ishlar organlari xodimlariga xorijiy hamkorlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, turli madaniyatlar haqida bilim olish va global muammolarni hal etishda yanada keng qamrovli yondashuvlarni o‘z ichiga olish imkonini beradi. Shuningdek, og‘zaki nutqni rivojlantirish usullari bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi, chunki samarali muloqot qilish qobiliyati har qanday sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarurdir[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI. O‘zbekiston olimlari xorijiy tillarni o‘rgatishda **innovatsion texnologiyalar**ni qo‘llash bo‘yicha tahliliy tadqiqot olib borgan. **D.A.Mo‘minova**ning ishlanmasida sun’iy intellekt (AI), virtual haqiqat (VR) kabi yangi texnologiyalarning til o‘rganish samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Bu yondashuvlar ichki ishlar organlari xodimlarining mustaqil og‘zaki nutq mashqlarini samarali tashkil etishda qo‘llanilishi mumkin[7]. Xorijiy tillarni o‘qitish nazariyasi va metodikasi sohasida ko‘plab olimlar samarali yondashuvlarni ishlab chiqqan. Jumladan, S.Krashen tomonidan ilgari surilgan “Input Hypothesis” nazariyasiga ko‘ra, tilni o‘zlashtirish jarayoni tabiiy va tushunarli til muhiti orqali samarali amalga oshadi. Ushbu yondashuv ichki ishlar organlari xodimlari uchun ham muhim bo‘lib, ular xizmat faoliyatida real kommunikativ vaziyatlarga duch keladilar[6]. M.Longning “Interaction Hypothesis” nazariyasi esa tilni o‘rganishda muloqot jarayonining ahamiyatini ta’kidlaydi. Bu ichki ishlar xodimlari uchun ayniqsa dolzarb, chunki ular xorijiy fuqarolar bilan bevosita og‘zaki muloqot olib boradilar[8]. Xorijiy tillarni o‘rganish bugungi kunda har qanday sohada muvaffaqiyatga erishish uchun zaruriy omil bo‘lib qolmoqda. Bu nafaqat shaxsiy o‘sish, balki professional rivojlanish va xalqaro aloqalar uchun ham muhimdir. Xorijiy tillarni o‘rganishning uchta asosiy jihati quyidagilardan iborat:

1. **Xalqaro aloqalar va muloqot.** Xorijiy tillarni bilish xalqaro aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi globalizatsiya sharoitida davlatlar o‘rtasidagi muloqotlar yanada kuchaymoqda. Xalqaro konferensiyalar, biznes uchrashuvlari va madaniy tadbirlar kabi faoliyatlar xorijiy tillarni bilishni talab qiladi. Bu esa o‘z navbatida turli mamlakatlar bilan o‘zaro tushunishni va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Tilning to‘g‘ri ishlatilishi, so‘zlashuvchilar o‘rtasida ishonch va o‘zaro aloqalarni kuchaytiradi.
2. **Kasbiy rivojlanish imkoniyatlari.** Xorijiy tillarni bilish kasbiy rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bugungi ish bozorida ko‘plab kompaniyalar va tashkilotlar xorijiy til biluvchilarni qidiradi. Xorijiy tilni mukammal bilish orqali xodimlar nafaqat o‘z kasbida yuqori lavozimlarga ko‘tarilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi, balki xalqaro kompaniyalarda ishlash imkoniyatlarini ham qo‘lga kiritadilar. Shuningdek, xorijiy tillar malakali mutaxassislar va rahbarlar uchun yanada kengroq imkoniyatlar yaratadi, bu esa ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

3. Madaniy almashinuv va tushunish. Xorijiy tillarni o‘rganish madaniy almashinuvni rivojlantirishda ham muhimdir. Har bir til o‘z madaniyatini, an’analarini va hayot tarzini aks ettiradi. Xorijiy tilni o‘rganish orqali inson o‘sha tilni biladigan xalqning madaniyati, tarixi va hayoti haqida chuqurroq tushuncha hosil qiladi. Bu esa global madaniyatni qabul qilish va turli xalqlar o‘rtasida o‘zaro hurmatni rivojlantirishga yordam beradi[5]. Xorijiy tillarni o‘rganish orqali insonlar o‘z dunyoqarashini kengaytiradi va yangi g‘oyalar, qarashlar bilan tanishadi, bu esa ular uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tillarni o‘rganish nafaqat shaxsiy va kasbiy rivojlanish, balki xalqaro aloqalar va madaniy almashinuv uchun ham muhimdir. Bu jarayon insonning fikrlash qobiliyatini kengaytiradi va uni global jamiyatning faol a’zosiga aylantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Og‘zaki nutqni rivojlantirish xorijiy tillarni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat tilni o‘zlashtirishni, balki uni amaliyotda qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi. Og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish uchun bir nechta samarali usullar mavjud.

-Tillarni amaliyotda qo‘llash. Xorijiy tilni o‘rganayotgan shaxslar uchun eng muhim usullardan biri bu tilni amaliyotda qo‘llashdir. Har qanday yangi tilni o‘rganishda, o‘z fikrlarini ifoda etish va boshqalar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur. Amaliyotda qo‘llash uchun shaxslar xorijiy tilda suhbatlar o‘tkazish, til muhokamasi guruhlarida ishtirok etish yoki xorijiy tilda yozilgan matnlarni o‘qib, ularda muhokama qilishlari mumkin. Bu usul, nafaqat nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, balki tilni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

-Muloqot o‘yinlari va rolli o‘yinlar. Muloqot o‘yinlari va rolli o‘yinlar og‘zaki nutqni rivojlantirishda juda samarali usullar hisoblanadi. Ushbu o‘yinlar ishtirokchilarga turli vaziyatlarga mos keladigan suhbatlar olib borish imkonini beradi. Misol uchun, rolli o‘yinlar orqali ishtirokchilar mijoz va xizmat ko‘rsatuvchi o‘rtasidagi muloqotni, shuningdek, turli ijtimoiy va ish vaziyatlaridagi suhbatlarni simulyatsiya qiladilar. Bu jarayon tilga oid yaxshilanishlar bilan bir qatorda, ishtirokchilarga o‘z ishonchlarini oshirishga yordam beradi.

-Til kurslari va treninglar. Til kurslari va maxsus treninglar og‘zaki nutqni rivojlantirish uchun keng qamrovli imkoniyatlar taqdim etadi. Bu kurslar ko‘pincha amaliy mashg‘ulotlar, suhbatlar va rol o‘ynash o‘yinlari orqali tashkil etiladi. Shuningdek, kurslar davomida o‘quvchilar tilning grammatikasi va lug‘atini o‘rganish bilan birga, og‘zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg‘ulotlarda ishtirok etadilar. Mutaxassislar tomonidan o‘tkaziladigan treninglar esa, ishtirokchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olib, ularning og‘zaki nutqini yanada rivojlantirishga ko‘maklashadi. Shu tariqa, og‘zaki nutqni rivojlantirishning ushbu usullari xorijiy tillarni bilish darajasini oshirish va samarali muloqotni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ularni muntazam ravishda qo‘llash, til o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Tahlillar va natijalar. Xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida zamonaviy texnologiyalarning roli muhim ahamiyatga ega. Har bir til o‘rganuvchisi uchun turli xil resurslar va vositalar yordamida o‘z bilimini kengaytirish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Quyida xorijiy tillarni o‘rganishda foydalanish mumkin bo‘lgan asosiy texnologiyalar keltirilgan:

Onlayn resurslar va mobil ilovalar – bugungi kunda xorijiy tillarni o‘rganish uchun ko‘plab onlayn platformalar va mobil ilovalar mavjud. Masalan, Duolingo, Babbel va Rosetta Stone kabi ilovalar foydalanuvchilarga interaktiv va qiziqarli usulda til o‘rganish imkoniyatini beradi. Ushbu ilovalar yordamida o‘quvchilar tilning asosiy qoidalarini, lug‘atini va grammatikasini o‘zlashtirishlari mumkin. Mobil ilovalarning eng katta afzalliklaridan biri – ularni har qanday joyda va vaqtda ishlatish imkoniyati. Bu, ayniqsa, ish bilan band insonlar uchun qulaydir.

Video va audio materiallar – xorijiy tillarni o‘rganishda video va audio materiallar ham muhim rol o‘ynaydi. YouTube kabi platformalarda mavjud bo‘lgan darslar, film va seriallar orqali o‘quvchilar tilni amaliyotda qanday ishlatilishini ko‘rishlari mumkin. Shuningdek, podkastlar va audiokitoblar yordamida tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish, yangi so‘zlar va iboralarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu materiallar nafaqat tilni o‘rganishga yordam beradi, balki madaniyat va urf-odatlar bilan tanishish imkoniyatini ham taqdim etadi.

Ijtimoiy tarmoqlar va forumlar – ijtimoiy tarmoqlar va forumlar xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida muhim axborot va tajriba almashish platformasi bo‘lib xizmat qiladi. Facebook, Instagram va Twitter kabi ijtimoiy tarmoqlarda til o‘rganuvchilar o‘zaro muloqot qilish, yangi do‘stlar orttirish va tilni amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Shuningdek, til o‘rganish uchun mo‘ljallangan forumlar va guruhlar (masalan, Reddit yoki Discord) orqali savollar berish va o‘z tajribangizni boshqalar bilan baham ko‘rish imkoniyatlari mavjud.

Zamonaviy texnologiyalar xorijiy tillarni o‘rganishni yanada qulay va samarali qilishga yordam beradi. Ular yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustahkamlab, tilni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, ichki ishlar organ xodimlarining xorijiy tillarni bilish va og‘zaki nutqini rivojlantirishda katta yordam beradi.

XULOSA. Xorijiy tillarni bilish va og‘zaki nutqni rivojlantirish ichki ishlar organ xodimlari uchun zamonaviy davrda juda muhim ahamiyatga ega. Globalizatsiya jarayonlari va xalqaro aloqalarning kuchayishi, shuningdek, kasbiy faoliyatdagi talablar, mutaxassislarning xorijiy tillarni o‘rganishiga va ularni amaliyotda qo‘llashiga zarurat tug‘dirmoqda. Bu jarayon nafaqat kasbiy rivojlanishga, balki madaniy almashinuv va xalqaro muloqotda muvaffaqiyatga erishishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Og‘zaki nutqni rivojlantirish uchun turli usullarni qo‘llash, masalan, muloqot o‘yinlari, rolli o‘yinlar va til kurslari bu jarayonni yanada samarali qiladi. Har bir xodim o‘z bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llab, o‘zaro muloqot qilish imkoniyatini oshirishi lozim. Bu esa nafaqat tilni o‘rganishni osonlashtiradi, balki o‘zaro tushunishni ham mustahkamlaydi. Texnologiyalarning rivojlanishi xorijiy tillarni o‘rganishni yanada qulaylashtirdi. Onlayn resurslar, mobil ilovalar va audio-video materiallar yordamida xodimlar o‘z bilimlarini kengaytirishlari va ularni samarali ravishda qo‘llashlari mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar va forumlar esa o‘z fikrlarini almashish va yangi kontaktlar o‘rnatish uchun yaxshi platformani taqdim etadi. Ichki ishlar organlari rahbariyati xorijiy tillarni o‘rganishga va og‘zaki nutqni rivojlantirishga ko‘mak berish uchun zaruriy sharoitlarni yaratishi, ta’lim va treninglar tashkil etishi lozim. Bu orqali, nafaqat xodimlarning malakasini oshirish, balki umumiy xavfsizlikni ta’minlashda ham muhim qadamlar qo‘yilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tillarni o‘rganish va og‘zaki nutqni rivojlantirish ichki ishlar organ xodimlari uchun nafaqat shaxsiy, balki professional o‘sishning muhim omilidir. Shuning uchun, bu jarayonni optimallashtirish va kuchaytirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 20.01.2023-yildagi PQ-10-son.
2. Bolbekova (2024). Competence of Oral Speech in the Teaching of Foreign Languages.
3. Oblaqulova, M. (2025). O‘quvchilarda og‘zaki nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik asoslari. Zamonaviy ta’lim, 2, 58–62.
4. Brown,H.D. (2007). *Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy* (3rd ed). New York, NY: Pearson Education.
5. Djo‘rayev R.X. Ta’limda interfaol texnologiyalar. -Toshkent, 2010. 87b.
6. Krashen S. D. Second Language Acquisition and Second Language Learning. — Oxford: Pergamon Press, 1981. — 151 p.
7. D.A.Mo‘minova. Xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalar: xalqaro tajribalar tahlili**.** (2025). *International Journal of Science and Technology*, 2(1), 93–95.
8. Long, M. (1996). *The role of the linguistic environment in second language acquisition.*

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 392.181.151.9

Taqrizchi: G.N.Irmuhamedova, Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti Toshkent filiali Xorijiy tillar kafedrasi dotsenti, (PhD)

TRAINING IN LEGAL TRANSLATION: PARALLEL TEXTS AND COMPARATIVE LAW

Kurganbayeva Aziza Avazovna, Senior Lecturer, Moscow State Institute of Foreign Relations - Tashkent branch, Tashkent, Uzbekistan

https://orcid.org/0009-0002-3872-9705
e-mail: azizaavazovnaa@gmail.com

YURIDIK TARJIMANI O‘RGATISH: PARALLEL MATNLAR VA QIYOSIY HUQUQSHUNOSLIK

Kurganbayeva Aziza Avazovna, Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti Toshkent filiali katta o‘qituvchisi, Toshkent, O‘zbekiston

ОБУЧЕНИЕ ЮРИДИЧЕСКОМУ ПЕРЕВОДУ: ПАРАЛЛЕЛЬНЫЕ ТЕКСТЫ И СРАВНИТЕЛЬНОЕ ПРАВОВЕДЕНИЕ

Курганбаева Азиза Авазовна, старший преподавательТашкентского филиала Московского государственного института международных отношений, Ташкент, Узбекистан

***Abstract**: This article provides a comprehensive analysis of the challenges of legal translation within the student environment, using students from Hanoi Law University and Al Buraimi University College as examples. A mixed-methods approach was employed, incorporating surveys, interviews, and the analysis of UN text translations using SPSS and NVivo software. The results revealed a predominance of lexical barriers, syntactic discontinuity, and cultural-legal asymmetry. Furthermore, the risks associated with machine translation exacerbate the deficiency of background knowledge. The study recommends the integration of comparative law, parallel texts, translation transformations, and Post-Editing Machine Translation (PEMT) to achieve functional equivalence.*

***Keywords:** legal translation, legal English, mixed methods, translation transformations, machine translation, comparative law.*

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada Xanoy yuridik universiteti va Al-Buraymi universiteti kolleji talabalari misolida talabalar muhitida yuridik tarjima muammolarining har tomonlama tahlili keltirilgan. Tadqiqotda so‘rovnomalar, intervyular hamda BMT matnlari tarjimasining tahlilini o‘z ichiga olgan aralash usullar yondashuvidan foydalanilgan; ma’lumotlarga SPSS va NVivo dasturiy ta’minoti yordamida ishlov berilgan. Natijalar leksik to‘siqlar, sintaktik nomuvofiqlik va madaniy-huquqiy asimmetriyaning ustunligini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, mashina tarjimasi bilan bog‘liq xavflar fundamental bilimlar yetishmasligini yanada kuchaytirmoqda. Tadqiqotda funksional ekvivalentlikka erishish uchun qiyosiy huquqshunoslik, parallel matnlar, tarjima transformatsiyalari va mashina tarjimasini tahrir qilish (PEMT) usullarini integratsiyalash tavsiya etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** yuridik tarjima, yuridik ingliz tili, aralash usullar, tarjima transformatsiyalari, mashina tarjimasi, qiyosiy huquqshunoslik.*

***Аннотация**: В данной статье представлен всесторонний анализ проблем юридического перевода в студенческой среде на примере обучающихся Ханойского юридического университета и*

Университетского колледжа Аль-Бурайми. В работе использовался комбинированный метод исследования, включающий опросы, интервью и анализ переводов текстов ООН с применением программного обеспечения SPSS и NVivo. Результаты исследования выявили преобладание лексических барьеров, синтаксическую прерывность и культурно-правовую асимметрию. Кроме того, риски, связанные с использованием машинного перевода, усугубляют недостаток фоновых знаний. В исследовании рекомендуется интеграция методов сравнительного правоведения, использование параллельных текстов, переводческих трансформаций и постредактирования машинного перевода (PEMT) для достижения функциональной эквивалентности.

Ключевые слова: *юридический перевод, юридический английский язык, смешанные методы, переводческие трансформации, машинный перевод, сравнительное правоведение.*

Introduction. In the context of global legal integration, proficiency in «legal English» has evolved from a mere addition to a linguistic profile into a critically important component of professional competence [1]. Legal discourse is characterized by the use of a specific register known as «legalese», which is saturated with archaisms, Latinisms, complex syntactic structures, and non-standard word order, all of which heighten the risk of ambiguity in translation [2]. Data from Hanoi Law University (HLU), where students actively utilize translation to master legal texts, and the Ural Federal University (UrFU), which focuses on the translation of legal acts, demonstrate that the translation of international treaties requires deep cognitive processing [3]; in this field, any inaccuracy can lead to serious legal consequences.

We view legal translation as an act of interlinguistic and intercultural communication, the goal of which is to achieve functional-communicative equivalence. This implies preserving the legal function and effect of the text within the target system rather than maintaining literal correspondence. It is a process of transforming a speech product from the Source Language (SL) into a text in the Target Language (TL), where the primary importance lies in preserving the informational dominance and legal force of the document through the inevitable replacement of expression units, while accounting for cultural and systemic differences.

Modern studies in Oman (Al Buraimi University College) and Saudi Arabia reveal a systemic gap between the academic competence of students and industry requirements, where lexical challenges and a literal approach to translation become pivotal [4, 5]. The primary determinant of translation failure is a deficiency in background professional knowledge, exacerbated by the complexity of terminology (including French and Latin terms) and culture-specific elements. For instance, at Hanoi Law University, a reduction in the academic load for legal disciplines (from approximately 25 to 12–16 credits in similar programs) correlates directly with a decline in the quality of student translations. This confirms that linguistic knowledge without an understanding of legal substance is insufficient for ensuring professionalism.

Materials and Methods. The analysis methodology is based on a synthesis of empirical data and theoretical propositions, allowing for a comprehensive coverage of both quantitative and qualitative aspects of the problem. A mixed-methods approach was applied, combining quantization and qualification for data triangulation, as recommended in contemporary legal translation research [6].

The first component involved surveying and interviewing 151 students from the Faculty of Law at Hanoi University (K45, K46 courses; n=151; aged 20–23; 62% female) between September and December 2025. This was done to identify subjective barriers (self-assessment of competencies) and objective barriers (lexico-grammatical errors). The sample is representative: 45% have studied legal English for more than two years, while 55% are at a basic level; the response rate was 92%.

The second component consisted of a qualitative analysis of tests: evaluating the translation results of a UN text (Convention on the Rights of the Child, 450 words) by 35 students at Al Buraimi University College (Oman, Translation BA course, 2025), focusing on errors in accuracy, fluency, and legal force. A control group (n=15

professional translators) provided a benchmark for comparison.

The theoretical foundation relies on the principles of adequacy and equivalence from the Russian school of translation studies (L.S. Barkhudarov: dominant informativeness [7]; Ya.I. Retsker: types of transformations [8]; A.D. Schweitzer: levels of equivalence), adapted to legalese. This is supplemented by Skopos theory (Vermeer, 1989) to emphasize target impact and post-colonial approaches to cultural adaptation in the Asian and Middle Eastern contexts.

Standardized tools were used: 5-point Likert scales (28 questions, Cronbach's α=0.87, reliability verified by a pilot group of n=30) and semi-structured interviews (face-to-face, n=45; online via Telegram/WhatsApp, n=30; average duration 22 minutes) featuring open questions about coping strategies. The questionnaires were adapted from the PACTE (2003) [9] translation competence model, with the addition of a «legal domain expertise» module.

For objective translation assessment, comparative analysis was performed using specialized software:

IBM SPSS v.25: for descriptive statistics, t-tests, and ANOVA to determine group differences ($p<0.05$) [10].

NVivo v.12: for thematic error analysis using nodes such as «terminology», «syntax», and «cultural gaps» (coding reliability=89%).

AntConc v.4.2: for corpus analysis to compare SL/TL collocations in legalese [11].

MemoQ v.2024: for automated terminology consistency checks.

Results. Lexical Problems: Asymmetry of Semantic Fields

The lexical level was identified as the most problematic area, accounting for 68% of errors in the HLU sample (n=151) and 72% at Al Buraimi (n=35) [12]. In these instances, students struggle with polysemy, ethnographic specifics, and «false friends» of the translator. In surveys, 82% of respondents cited a deficit in terminological vocabulary as a key barrier, which was confirmed by corpus analysis showing 45% inaccurate equivalents.

Technical Terms and Ambiguity: Particular difficulty is posed by «ordinary words with special meanings», where the choice of equivalent is dictated by transitivity or intransitivity. Examples from the tests include:

Interest: translated as «stake/legal right» (correctly by 41%; «interest» error in 52%).

Burn: «гореть» (intransitive) vs. «жечь» (transitive; error in 67%).

Sink: «тонуть» vs. «топить» (correctly by 33%).

Decade: translated as «десятилетие» (typical error «декада» in 61%).

Archaisms and Latinisms: There is a low rate of referent identification, with a recognition rate of only 28% at HLU.

Table of Interpretation Issues:

Term	Identified Interpretation Problems	Solution Strategy (Success Rate)
hereinafter	Difficulty identifying the person/object later in the text (71% error)	Contextual analysis (65%)
hereto	Errors in connecting parts of the document (59% error)	Identification of pro-forms (52%)
pacta sunt servanda	Latin maxims are misunderstood (84% error)	«Do not translate», keep the original (78%)

Doublets and Triplets: Legal binomial expressions (e.g., *null and void* — «ничтожный») are often translated separately, ignoring the hypernym (76% error).

Syntactic and Structural Barriers

Syntactic errors accounted for 22% (HLU) and 19% (Oman) of the total, with a predominance of the «syntactic discontinuity» phenomenon due to long sentences (average length of 85 words in the UN text). In the Oman test, a single UN sentence of 450 words was fragmented by students into 4–7 parts, resulting in an 89% loss of coherence and a distortion of the formal style. NVivo analysis identified nodes for insertions (41%) and omissions (33%).

Graphic Features (Layout): The ignoring of graphitic features, such as bold typing for «Subject Matter» (e.g., General Assembly), was observed; it was maintained in only 24% of translations, violating the document's structure. Students focused on semantics while ignoring the visual hierarchy (67% error).

Cultural and Legal Differences

Cultural barriers accounted for 10% of errors but carried high risks. NVivo showed a «cultural mismatch» thematic cluster in 55% of interviews. The asymmetry of legal systems (Common Law vs. Civil Law) intensifies these problems.

Etiquette Formulas

Dear Sir translated as «Дорогой сэр» (socially acceptable in Russian culture but archaic in Anglo-Saxon contexts; 62% etiquette error).

Back-translation of «Глубокоуважаемый...» as «Deeply respected...» carries irony and is unacceptable (71%).

Systemic Asymmetry: Many Common Law concepts lack equivalents in Civil Law systems like those in Vietnam or Russia. For example, *trust* (доверительное управление) was often translated simply as «доверие» (trust/confidence), a 79% error rate. In Oman and Saudi Arabia, Sharia law elements further widen the gap, as noted by 48% of interviewees.

Table of Key Metrics:

Category	% Errors HLU (n=151)	% Errors Al Buraimi (n=35)	Correlation with Background Knowledge (r)
Lexis	68%	72%	-0.72
Syntax	22%	19%	-0.58
Culture/Law	10%	9%	-0.65

The results confirm the hypothesis regarding the dominance of lexical barriers, with syntax acting as a secondary factor.

Discussion. The Technological Factor and Machine Translation (MT) Risks

Excessive reliance on systems like Google Translate generates critical errors in conveying the «legal force» [13] of a document. Analysis of 35 translations in Al Buraimi showed MT errors in 64% of modality cases. A typical example is the misinterpretation of the modal verb *shall*; MT systems often perceive it as a future tense marker («будет»), whereas in legalese it is a modal of obligation («должен/необходимо») [14]. In HLU tests, MT distorted *shall be liable* as «будет ответственным» instead of «несет ответственность» in 71% of cases [15], changing the status of the norm from imperative to predictive. This risks legal consequences such as fines or contract invalidity.

Additional MT risks include loss of context (data confidentiality, GDPR violations), and ignoring cultural nuances or archaisms. Research by ELIA/ATA (2025) indicates that MT is suitable only for drafts requiring post-editing (PE), not for certified documents. Compared to human translation (92% accuracy in the control group), MT yields only 47% accuracy, confirming the need for a hybrid approach.

Analysis of Professional Training Strategies

The results correlate with a deficit in background knowledge (r=-0.72), necessitating a transition from literal to transformational translation based on Ya.I. Retsker's methodology (lexical replacements, modulations). Empiricism at HLU and Al Buraimi confirms the effectiveness:

students using parallel texts reduced errors by 34% (t-test, $p<0.01$).

Parallel Texts: Comparing UN originals and contracts (using the Europarl Corpus) helps internalize clichés like *null and void* as «ничтожный»; 67% of interviewees noted an increase in fluency. The recommendation is a weekly analysis of five documents using Black's Law Dictionary and the JMDI Parallel Corpus.

Specialized Lexicography: Utilizing Black's Law Dictionary (11th ed., 2019) alongside Russian counterparts like the Encyclopedic Dictionary of a Lawyer helps resolve polysemy (e.g., *interest* as «stake»), showing a 78% success rate in the pilot. This should be supplemented by MemoQ TermBases for consistency.

Translation Transformations (per Retsker/Barkhudarov):

Concretization: Narrowing meaning (e.g., *meal* → «питание по контракту») reduces errors by 41%.

Generalization: Replacing the specific with the general (e.g., *No Hanging Bill* → «Законопроект об отмене смертной казни» rather than «отмене повешения», which was a 76% error in literal translations).

UN Example: *pacta sunt servanda* → keep original plus glossary (82% success).

Table of Strategies:

Strategy	Description and Examples	Effectiveness (% Error Reduction)
Parallel Texts	UN conventions, contracts	34%
Lexicography (Black's)	Terms: *interest*, *shall*	41%
Transformations (Retsker)	Concretization/Generalization	45%
Post-Editing MT	Google + human PE	27% (from 64% to 37%)
Corpus Analysis	Legalese collocations (AntConc)	29%

These strategies enhance professionalism and minimize risks ranging from MT errors to cultural mismatches. This confirms the hypothesis: background knowledge + transformations = equivalence.

Conclusion. A comprehensive analysis confirms that the lexical characteristics of legalese (polysemy, archaisms, Latinisms, binomials; 68–72% errors) present greater difficulty for students than syntax (19–22%) or cultural barriers (9–10%). The root of these problems lies in the asymmetry of legal systems and an acute deficiency of background knowledge ($r=-0.72$ with translation quality), exacerbated by reduced teaching hours for law in HLU.

Risks associated with MT (e.g., *shall* interpreted as future tense) widen the gap between academia and industry. Key findings include:

Dominance of lexical barriers.

Syntactic discontinuity in long sentences (89% fragmentation).

Ignoring layout (bold typing in 76% of cases), leading to a loss of legal dominance.

The hypothesis is confirmed: purely linguistic preparation is insufficient; an integration of translation studies and comparative law is required to overcome background deficiency.

Recommendations for Teaching and Practice. The educational focus must shift from purely linguistic aspects to comparative law, as

successfully implemented in programs at USLU and MSAL (where legal translators receive 440+ hours of training).

Specific Measures:

Implementation of Parallel Texts: Weekly analysis of UN conventions/contracts alongside Black's Law Dictionary for clichés (e.g., *null and void* → «ничтожный», success +34%).

Modality Recognition: Targeted training on *shall/must* usage (obligation vs. future) using Retsker's transformation module (MT error reduction of 27%).

Graphitic Standards (Layout): Mandatory preservation of bolding and indentation as part of legal force (e.g., Subject Matter highlighting; 92% compliance among professionals).

Hybrid MT + PE: Utilizing Google Translate only for drafts followed by mandatory post-editing (PEMT) and terminology control via MemoQ (accuracy +45%).

Curricular Adjustments: A 20% increase in credits for comparative law (Civil, Common, and Sharia law) based on the PACTE competence model.

References:

1. 4LegalEnglish. What is Legal English? [Online]. Retrieved: https://4legalenglish.com/legal-english/what-is-legal-english/
2. Wikipedia. Legal English. [Online]. Retrieved: https://en.wikipedia.org/wiki/Legal_language
3. Scribd. Translation in legal reading at Hanoi Law University. [Online]. Retrieved: https://www.scribd.com/document/981611810/1530-5546-1-PB
4. Educations.com. Bachelor in Translation at Al Buraimi University College. [Online]. Retrieved: https://www.educations.com/institutions/al-buraimi-university-college/bachelor-in-translation
5. Translinguist. Key Challenges of Legal Translations. [Online]. Retrieved: https://translinguist.com/blog/key-challenges-in-legal-translations/
6. Creswell, J.W. Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. SAGE, 2023.
7. Бархударов, Л.С. Язык и перевод. М.: Международные отношения, 1975.
8. Рецкер, Я.И. Теория перевода и переводческая практика. М.: Международные отношения, 1974.
9. PACTE Group. Building a Translation Competence Model. In: Triangulating Empirical Research, 2003.
10. Vermeer, H.J. Skopos and Commission in Translational Action. In: Readings in Translation Theory, 1989.
11. IBM SPSS v.25 Manual. Statistical Software for Data Analysis. [Online]. Retrieved: https://www.ibm.com/spss
12. AntConc v.4.2. Corpus Linguistics Tools for Concordance and Text Analysis, 2025.
13. AAJSR. Challenges Encountering Students in Translating Legal Texts. Asian Journal of Social Sciences and Management Studies, 2025.
14. Фирсова, М.О. Оценка качества машинного перевода юридических текстов. Linguistics and Education, 2025.
15. UrFU VKR. Проблема точности Google Translate в юридических текстах. Electronic Archive of UrFU, 2021.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK:94(575/1)

FARG‘ONA VODIYSIDA ANTIK DAVRDA KECHGAN TARIXIY JARAYONLAR VA HUDUDNING ARXEOLOGIK O‘RGANILISH TARIXI

G‘ulomov Nurmuxammad Muzaffarjon o‘g‘li, Oriental universiteti tarix mutaxassisligi 2-kurs magistranti

mrnurmuhammad3343@gmail.com
https://orcid.org/0009-0006-3562-8051

HISTORICAL PROCESSES IN THE ANCIENT PERIOD OF THE FERGANA VALLEY AND THE HISTORY OF ARCHAEOLOGICAL STUDY OF THE REGION

Gulamov Nurmukhammad Muzaffarjon ugli, 2nd year master’s student majoring in history at Oriental University

ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ АНТИЧНОГО ПЕРИОДА В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ И ИСТОРИЯ АРХЕОЛОГИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ ТЕРРИТОРИИ

Гуломов Нурмухаммад Музаффаржон оглы, магистрант 2-го курса по специальности “История” университета Ориентал

Annotatsiya: *Maqolada Farg‘ona vodiysi hududida miloddan avvalgi IV milodiy IV asrlar oralig‘ida sodir bo‘lgan tarixiy jarayonlar va ushbu davr yodgorliklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tahlil qilinadi. Uzoq yillar davomida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari va yangiliklari ushbu maqolada umumlashtirilib, Farg‘ona vodiysining yurtimiz tarixiy-madaniy taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *Farg‘ona, antik davr, Davan davlati, samoviy otlar, Sho‘rabashot, Mingtepa, mudofaa tizimi, xo‘jalik hayot, hunarmandchilik.*

Abstract: *The article analyzes the historical processes that took place in the territory of the Fergana Valley between the 4th century BC and the 4th century AD, as well as archaeological research conducted at the monuments of this period. This article summarizes the results and innovations of research conducted over many years and assesses the role and significance of the Fergana Valley in the historical and cultural development of our country.*

Keywords: *Fergana, antiquity, the state of Davan, heavenly horses, Shurabashat, Mingtepa, defense system, economic life, craftsmanship.*

Аннотация: *В статье анализируются исторические процессы, происходившие в Ферганской долине между IV веком до нашей эры и IV веком нашей эры, а также археологические исследования, проведенные на памятниках этого периода. В данной статье обобщены результаты и новшества многолетних исследований, оценена роль и значение Ферганской долины в историко-культурном развитии нашей страны.*

Ключевые слова: *Фергана, античный период, государство Давань, небесные кони, Шурабашат, Мингтепа, система обороны, хозяйственная жизнь, ремесленничество.*

KIRISH. Farg‘ona vodiysi yirik tarixiy-madaniy o‘lkalardan biri bo‘lib, u Markaziy Osiyoning to‘rt tomoni tog‘lar bilan o‘ralgan sharqiy qismida, Sirdaryo va uning irmoqlari havzasida joylashgan. Farg‘ona o‘zining tabiiy-geografik va strategik joylashuviga ko‘ra, nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo mintaqasida muhim ahamiyatga ega. Bu zaminning antik davri tarixini, arxeologik va tarixiy manbalar o‘rganilgan. Bu davrda vodiy hududida Davan davlati mavjud bo‘lgan. Bu hududdan antik davrda G‘arb va Sharq davlatlarini bog‘lovchi Buyuk ipak yo‘lining bir tarmog‘i o‘tgan. Ushbu tadqiqotning maqsadi miloddan avvalgi IV milodiy IV asrlar oralig‘ida vodiy hududida kechgan jarayonlarni o‘rganish va Farg‘ona vodiysining yurtimiz tarixiy-madaniy taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati yoritishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ushbu davr tarixini yoritishda A.Xo‘jayev[10:33-100], N.Y.Bichurin[2:149] kabi olimlar tomonidan Farg‘ona vodiysi tarixiga doir xitoy manbalaridan tarjima qilingan asarlardagi ma’lmotlar tahlil qilindi. Shuningdek, A.N.Bernshtam[10], M.E.Masson[8:99], Yu.A.Zadneprovskiy [6:304-311], P.P.Gavryushenko[4:20] kabi sovet davrida tadqiqot ishlari olib borgan arxeolog olimlarning ilmiy asarlari hamda mustaqillik davrida tadqiqotlar olib borgan va hozirgi kunda ham bu ishlarni davom ettirayotgan arxeolog olim B.X. Matboboyevning [7:43-54, 9:50-52] ilmiy asarlari va maqolalari bu o‘rganilayotgan davrni keng yoritishga imkon beradi.

Ushbu maqolada tarixiylik, xolislik, qiyosiy-tahlil, tizimli yondashuv, umumlashtirish kabi metodlaridan foydalanib, mavzu ochib berilgan va tegishli xulosalar keltiriladi. Tadqiqot doirasida mavzuga doir adabiyotlarni chuqur tahlil etgan holda Farg‘ona vodiysida antik davrda mavjud bo‘lgan Davan davlati va uning shaharlari tuzilishi, xo‘jaligi, hunarmandchiligi hamda g‘arb va sharqni bog‘laydigan buyuk Ipak yo‘lida tutgan o‘rni va ro‘li o‘rganildi hamda xolosalar berildi.

MUHOKAMA. Farg‘ona tarixiga doir ilk ma’lumotlar miloddan avvalgi II–I asrlarga oid Xitoy manbalarida uchraydi. Bu manbalarga ko‘ra, Farg‘ona dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan, mashhur Davan otlari bilan tanilgan mamlakat bo‘lgan[3:149]. Dayyuan (Davan) nomi ilk bor Sima Syanning “Tarixiy xotiralar” (“Shiji”) asarida tilga olinadi. Asardagi ma’lumotlar miloddan avvalgi 138-yilda g‘arbiy o‘lkalarga yuborilib, 13 yildan so‘ng qaytgan Xan elchisi Chjan Syanning xabarlariga asoslanadi. U Farg‘onani mustahkam devorli shaharlar, rivojlangan dehqonchilik (beda, sholi, bug‘doy), uzumchilik va zotdor tulporlari bilan tasvirlaydi. Mamlakatda 70dan ortiq shahar va qishloqlar bo‘lib, yuz minglab aholi yashagani, qo‘shini esa o‘q-yoy, nayza va qalqon bilan qurollangan chavandozlardan iborat ekani qayd etilgan.

Natijada, Xan elchisi haqorat qilib, ot haykalchasini irg‘itib yuboradi va tashqariga chiqib ketadi. Davan hukumdori Mugua elchini bu ishini hurmatsizlik deb baholab, o‘ldirishni buyuradi va Yucheng shahri hokimi ularni o‘ldiradi. Bu xabar imperator U-diga yoqmaydi va avvalgi elchilar keltirgan ma’lumotlarga ishonib 6000 kishilik chvandozlar hamda 10000 kishilik viloyatlardan yig‘ilgan bezori yoshlardan iborat qo‘shinga Li Guanglini qo‘mondon etib Davan mamlakatiga yuboradi. Bu urush miloddan avvalgi 104-yilda sodir bo‘lgan. Birinchi marotaba bo‘lgan bu jangda xanliklar qo‘shini yengiladi. Ikkinchi bor 60000 kishilik lashkar va 50 dan ortiq harbiy amaldorlardan iborat qo‘shin Farg‘onaga yuboriladi. Ikki mamlakat o‘rtasida qattiq jang bo‘lib o‘tadi. Unda davanliklar xanliklarga qarshi mardonavor kurashdilar, lekin Xan qo‘shinlari Ershi shahriga kiruvchi suv yo‘lini to‘sib, shaharni suvsiz qoldirgan holda qamal qilishi natijasida, shahar aholisi urushni to‘xtatish borasida muzokara olib boradilar. Unga ko‘ra ma’lum miqdorda otlar va elchilarning o‘ldirishga buyruq bergan davan hukumdori Muguaning boshini olib xanliklarga berishlari kerak bo‘lgan. Shuningdek, o‘z navbatida xanliklar ham jangni to‘xtatishlari va shaharga kirmay ortiga qaytishlari kerak edi. Agarda davanliklarni shartiga rozi bo‘lmasalar oltindan qimmat tulporlarni bitta ham qoldirmay o‘ldirib yuborishlarini aytadilar. Natijada kelishuvga erishiladi va bir necha o‘nlab zotli otlar hamda 3000dan ortiq o‘rta hol otlarni olib xanliklar o‘z vataniga qaytib ketganlar[10:33-63].

Farg‘ona vodiysining antik davri yodgorliklari XX asrning 30-yillaridan boshlab ochib o‘rganila boshlangan. Ushbu hududdagi antik davrning yirik yodgorliklar qatoriga Sho‘rabashot, Qoradaryo, Mingtepa,

G‘ayrattepa, Bilovurtepa va boshqalar kiradi. Hududda olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari natijasida esa antik davr shaharlari hududi, tuzilishi, mudofaa tizimi va aholining turmush tarzi haqida ma’lumotlar aniqlangan. Bu davrga oid eng yirik yodgorliklar Sho‘rabashot va Mingtepa hisoblanadi.

Sho‘rabashot Farg‘ona vodiysidagi yirik qadimiy manzilgohlardan biri bo‘lib, maydoni 70 gektarni tashkil etadi. U O‘zgan shahridan 10 km shimoli-g‘arbda, daryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan va to‘rt qismdan iborat. Qal’a uch tomondan mudofaa devori bilan o‘ralgan, 25ta minora qoldiqlari aniqlangan. 1954-yildan boshlab bu yerda arxeologik tadqiqotlar olib borilib, Yu.A.Zadneprovskiy tomonidan Sho‘rabashot madaniyatiga oid qizil angobli kulolchilik buyumlari topib o‘rganilgan. Tadqiqotlar natijada Farg‘ona vodiysi qadimgi davr madaniyati tarixida Eylatondan keyin Sho‘rabashot (miloddan avvalgi IV-I asrlar) undan so‘ng Marhamat (I-IV asrlar) deb nomlangan yangi davriy bosqich belgilandi. Olimning fikriga ko‘ra, Sho‘rabashot madaniyati Farg‘ona vodiysining antik davr madaniyatlari ichida alohida, mustaqil rivojlangan madaniyat bo‘lib, uning o‘ziga xos kulolchilik uslubi, xo‘jalik faoliyati va dafn marosimlari mahalliy etnik va madaniy jarayonlarni aks ettiradi[6:304-311]. Shuningdek, bu yodgorlikda tadqiqot olib borgan P.P.Gavryushenko Sho‘rabashot davrini miloddan avvalgi V-II asrlar bilan sanalagan[4:20].

1939-yilda Katta Farg‘ona kanalining qurilish ishlari boshlangan bo‘lib, qazish ishlari davomida aniqlangan tarixiy topilmalarni o‘rganish maqsadida M.E.Masson rahbarligida maxsus ekspeditsiya tashkil etilgan. Bu topilmalarni M.E.Masson “Davan madaniyati yodgorliklari” deb nomlagan[8:99]. 1946-1948-yillarda A.N.Bernshtam rahbarligida Pomir-Oloy, 1950-1952-yillarda Pomir-Farg‘ona ekspeditsiyalari tashkil qilingan. Ekspeditsiya doirasida A.N.Bernshtam Mingtepa shahrida ham arxeologik qazish ishlarini olib borgan. Tadqiqotlar natijasida Mingtepa shahrining tuzilishi va mudofaa tizimi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga aniqlik kiritilgan. Arxeolog olim tadqiqotlari davomida manbalarda tilga olingan Davan davlatining poytaxti Ershi shahri Mingtepa shahri xarobalariga to‘g‘ri kelishi haqida yozib qoldiradi[1:228-229].

A.N.Bernshtam qadimgi Mingtepa shahrini Xitoy manbalarida tilga olingan Ershi shahri hududiga mos kelishini va shaharning gullab-yashnagan davrini miloddan avvalgi II – milodiy II asrlarga to‘g‘ri kelishi haqida fikrlarini ilgari surgan [2:217]. Yu.A.Zadneprovskiy rahbarligida 1974-yili Mingtepada kichik arxeologik qazish ishlari olib borilgan. Bu olim ham A.N.Bernshtamning fikrlarini tasdiqlagan holda Mingtepani qadimgi Ershi shahri o‘rni deb aytib o‘tgan. Arxeologik tadqiqotlar davomida topilgan kulolchilik buyumlari va boshqa tarixiy ashyolarni Sho‘rabashot tipidagi sopol buyumlariga o‘xshashligini va Mingtepa shahrining davriy sanasini qadimiyroq, ya’ni miloddan avvalgi IV-I asrlarga oid degan xulosaga kelgan. 1986-yilda farg‘onashunos olim B.X.Matboboyevning tadqiqot ishlari natijasida ichki shahar mudofaasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan minoralarning asosi paxsa bloklaridan va yuqori qismi esa xom g‘ishtlardan qurilganligi aniqlangan[5:62-67].

NATIJALAR. Mingtepa yodgorligida 2001-yildan buyon B.X.Matboboyev rahbarligida arxeologik qazish ishlari olib borilib, ko‘hna shahar tarixi o‘rganilmoqda. Xususan, 2012-yildan buyon bu yodgorlikda B.X.Matboboyev va Zhu Yangshi rahbarligida O‘zbek-Xitoy qo‘shma xalqaro arxeologik ekspeditsiya tashkil qilgan bo‘lib, ekspetitsiya a’zolari tomonidan 20dan ortiq nuqtada arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Natijada shaharning tarkibiy tuzilishi, madaniy qatlamlar stratigrafiyasi, mudofaa tizimi, bu yerda istiqomat qilgan aholining turmush tarzi, urf-odatlari, madaniyati, diniy tasavvurlari haqida yangi ma’lumotlar olindi va ilmiy muomalaga kiritildi[9:50-52]. B.X.Matboboyevning tadqiqot natijalariga ko‘ra Mingtepa yodgorligi umumiy maydoni 272 gektarni tashkil qilgan. Davan davlatining poytaxt shahri bo‘lgan. Shaharda 4qator mudofaa tizimi bunyod etilgan bo‘lib, ular tashqi devor, ichki shahar devori, uni himoya qiluvchi handaq va ark devoridan iborat. Ichki shahar devorlarida 64ta kuzatuv minorasi (burj) mavjud bo‘lgan. Mudofaa devorini qurishda foydalanilgan loyning mustahkamlik jihatidan hozirgi betonlardan qolishmaydi. Minoralarining birida devor qalinligi 5,45 metr va saqlangan balandligi ham 6 metrgacha yetgan.

Mudofaa inshootlarining qurilish davrini uchta qurilish bosqichiga ajratilgan. **I** bosqich miloddan avvalgi IV-III asrlar. **II** bosqich miloddan avvalgi II-I asrlar. **III** bosqich I-IV asrlar

hisoblanadi. Ushbu shahar miloddan avvalgi IV asrdan to milodiy IV-V asrlarga qadar faoliyatda bo‘lgan va shu davrga kelib noma’lum sabablarga ko‘ra hayot to‘xtagan[7:43-54].

XULOSA. Farg‘ona vodiysida olib borilgan arxeologik va tarixiy tadqiqotlar antik davrda bu hududda yirik shaharlar va puxta mudofaa tizimlari mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Qadimgi shaharlarning mudofaa inshootlari Xitoy manbalaridagi ma’lumotlarga mos keladi. Davan davlati va Xan imperiyasi o‘rtasidagi urushlar davanliklarning o‘z yurtini himoya qilishda mardona kurashganini, kuchli qo‘shin va mustahkam shahar devorlariga ega bo‘lganini tasdiqlaydi.

Antik davr aholisi o‘ziga xos madaniyat yaratgan bo‘lib, bu ayniqsa kulolchilik buyumlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Buyuk Ipak yo‘lining bir tarmog‘i hududdan o‘tganligi shaharlarning rivojlanishiga, qo‘shni o‘lkalar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishiga xizmat qilgan. Ushbu davrni o‘rganish orqali yurtimiz hududida uzoq asrlar davom etgan qadimiy davlatchilik va boy tarixiy an’analar haqida muhim xulosalar chiqarish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бернштам А.Н. Араванские наскальные изображения и Даванская (Ферганская) столица Эрши // Советская этнография. 1948. №4. С. 217.
2. Бернштам А.Н. Историко археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая. Москва-Ленинград, 1952. С. 228-229.
3. Бичурин Н.Я (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Том II. Москва-Ленинград. 1950. С 149.
4. Гаврюшенко П.П. Кулунчанское укрепленное поселение (К истории восточной Ферганы второй половины I тыс. до н. э.). Автореф. дисс. канд. ист. наук. Ташкент., 1970. С-20
5. Заднепровский Ю.А. Матбобоев Б.Х. Городище Мархамат // ИМКУ – Вып.№25. -Ташкент, 1991. С. 62-67.
6. Заднепровский Ю.А., Фергана (в античную эпоху) // Археология СССР: Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. Москва. 1985. С 304-311.
7. Зокиржон Машрабов, Боқижон Матбобоев. Фарғона водийси тарихига чизгилар. // Andijon nashriyot-matbaa МЧЖ. 2022. Б. 43-54.
8. Массон М.Е. Экспедиция археологического надзора на строительстве Большого Ферганского канала им. И.В. Сталина.//КСИИМК. — Москва, 1940. Вып.4. С 99.
9. Матбобоев Б.Х., Мингтепа: Археологик қазишмалар ва уларнинг та=лили // Водийнома. 2019. №3(14) С.50-52
10. Хўжаев А. // Фарғона тарихига оид маълумотлар.(Қадимги ва илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва уларга шарҳлар). Фарғона.2013.33-100. б.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 821.512.133-2

INGLIZ VA O‘ZBEK MA’RIFATPARVARLIK DRAMATURGIYASIDA IJTIMOIY VA AXLOQIY G‘OYALARNING BADIIY-ESTETIK TALQINI

Xudoyorova Nafisa Baxtiyor qizi, Navoiy davlat universiteti doktoranti

ARTISTIC AND AESTHETIC REPRESENTATION OF SOCIAL AND MORAL IDEAS IN ENGLISH AND UZBEK ENLIGHTENMENT DRAMA

Khudoyorova Nafisa Bakhtiyor qizi, PhD Researcher, Navoi State University

ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОПЛОЩЕНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ И НРАВСТВЕННЫХ ИДЕЙ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ ДРАМАТУРГИИ

Худоёрова Нафиса Бахтиёр кызы, докторант Навоийского государственного университета (PhD)

https://orcid.org/0009-0007-2666-4533
e-mail: nafisa.xudoyorova@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek ma’rifatchilik dramaturgiyasida ijtimoiy-axloqiy g‘oyalarning badiiy-estetik ifodasi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. XVIII asr ingliz sentimental komediyasi va “laughing comedy” an’analari hamda XX asr boshlaridagi o‘zbek jadid dramaturgiyasi namunalari asosida axloqiy konseptlarning sahnaviy talqini o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *ma’rifatchilik, dramaturgiya, jadid teatri, sentimental komediya, kulgi estetikasi, ijtimoiy-axloqiy g‘oya, sahna poetikasi, qiyosiy tahlil.*

Abstract: *This article examines the artistic and aesthetic representation of social and moral ideas in English Enlightenment drama of the eighteenth century and Uzbek Jadid drama of the early twentieth century. The study focuses on genre systems (sentimental comedy, laughing comedy, bourgeois tragedy, didactic and historical drama), character typology, dramatic conflict, rhetorical devices, and stage poetics.*

Keywords: *enlightenment drama, social morality, Jadid dramaturgy, sentimental comedy, bourgeois tragedy, comparative poetics, stage aesthetics.*

Аннотация: *В статье сравнительно анализируется художественно-эстетическое выражение социально-нравственных идей в английской и узбекской просветительской драматургии. На основе английской сентиментальной и “laughing comedy” XVIII века и узбекской джадидской драматургии начала XX века исследуются механизмы сценической репрезентации нравственных концептов.*

Ключевые слова: *просветительство, драматургия, джадидский театр, сентиментальная комедия, эстетика смеха, социально-нравственная идея.*

Introduction. The Enlightenment, as a sweeping intellectual and cultural movement, emerged in eighteenth-century Europe, profoundly shaping the ways people thought about reason, morality, and society. Its influence extended across literature, philosophy, and the arts, leaving a particularly strong mark on the theatrical stage, which became a vital arena for exploring questions of social ethics, civic responsibility, and individual conduct[2]. In England, playwrights used genres such as sentimental comedy, laughing comedy, and bourgeois tragedy not merely to entertain but to educate audiences, offering nuanced models of moral behavior and illustrating the consequences of vice and virtue. These theatrical forms functioned as instruments of moral pedagogy, reflecting contemporary debates about rationality, empathy, and social order. Interestingly, despite vast

differences in geography and historical context, the early twentieth-century Uzbek Jadid drama exhibits notable functional parallels. Like its English Enlightenment counterparts, Jadid theatre aimed to cultivate the moral and intellectual sensibilities of its audience, promoting education, civic awareness, and social reform. Through characters, plot structures, and dialogue, these plays engaged viewers in questions of ethics, social responsibility, and the tension between tradition and modernity, echoing the Enlightenment's commitment to reasoned discourse and cultural progress.

Literature Review. The reformist works of Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, and Abdurauf Fitrat transformed theatre into a vehicle of educational reform and social modernization. Their dramas addressed ignorance, injustice, family ethics, gender relations, and national identity within a didactic and reform-oriented aesthetic framework[4]. This article investigates how social and moral ideas are artistically and aesthetically represented in English Enlightenment drama and Uzbek Jadid dramaturgy. The research seeks to answer the following questions:

How are moral conflicts constructed through dramatic structure and character typology? What aesthetic strategies mediate ethical instruction and theatrical pleasure? What similarities and differences emerge between the two traditions in terms of genre, rhetoric, and audience engagement? The relevance of this study lies in re-evaluating Enlightenment dramaturgy within contemporary discussions of cultural policy, theatrical institutions, and moral discourse in literature.

Methods. The study employs a comparative-historical approach to situate both dramatic traditions within their socio-cultural contexts. A typological method is applied to examine genre structures and character systems. Hermeneutic textual analysis allows for interpretation of ethical meanings embedded in dialogue, symbolism, and stage devices[5,8]. Elements of performance studies are incorporated to analyze audience interaction, prologues and epilogues, direct addresses, and rhetorical strategies. Particular attention is paid to: Genre systems (comedy, tragedy, melodrama, historical drama); Character typology (the morally developing hero, the representative of "old" mentality, the satirical type); Semantic core of dramatic conflict (education reform, social justice, family ethics); Rhetorical devices (satire, irony, hyperbole, aphorism); Stage poetics (symbolic props, mise-en-scène, performative speech).

Results and Discussion. 1. Moral Pedagogy and Comic Aesthetics in English Enlightenment Drama Eighteenth-century English theatre witnessed a debate between sentimental comedy and laughing comedy. Sentimental comedy emphasized sympathy, benevolence, and explicit moral reconciliation[1]. Its characters often expressed ethical ideals through monologues and emotionally charged scenes. In contrast, laughing comedy used satire and irony to expose hypocrisy, vanity, and social pretension. In the comedies of Oliver Goldsmith and Richard Brinsley Sheridan, moral restoration occurs not through direct didacticism but through cognitive transformation induced by laughter. Dialogue becomes rhythmically dynamic and socially revealing, while masquerade, gossip, and concealed identity function as dramatic mechanisms of ethical exposure.

Bourgeois tragedy, associated with playwrights such as George Lillo, shifted focus from aristocratic heroes to middle-class protagonists. Moral responsibility and domestic ethics became central dramatic themes. Here, pathos intensifies identification, transforming ordinary life into a site of ethical testing.

Thus, English Enlightenment drama mediates moral ideas through aesthetic distance, irony, and structural balance between entertainment and instruction.

2. Social Reform and Didactic Expression in Uzbek Jadid Drama

Uzbek Jadid dramaturgy developed within a context of colonial modernity and national awakening. Theatre functioned not merely as entertainment but as a pedagogical instrument. In Behbudiy's *Padarkush*, ignorance and moral irresponsibility lead to tragic consequences, integrating domestic conflict with broader social critique. Hamza's dramas foreground education, women's emancipation, and ethical reform, often structuring conflict around the opposition between "new" and "old" worldviews. Fitrat's historical dramas explore themes of power, justice, and civic duty, framing moral responsibility within national destiny. Unlike English comedy's reliance on ironic distance, Jadid drama frequently employs direct

address, aphoristic dialogue, and explicit moral conclusions. Symbolic elements—books, schools, the metaphor of enlightenment—reinforce reformist ideology. Minimal stage resources are compensated by rhetorical intensity and performative clarity. The theatre thus becomes a communicative platform within the emerging public sphere, shaping civic consciousness and ethical awareness.

3. Comparative Poetics: Commonalities and Distinctions The comparative analysis reveals several shared features:

Primacy of social morality: Both traditions use drama as a forum for ethical debate.

Typological characters: Representatives of progressive and conservative ideologies drive conflict.

Rhetorical expressiveness: Satire, irony, aphorism, and symbolic staging articulate moral meaning.

Restorative closure: Dramatic resolution often reaffirms ethical order.

However, significant differences emerge:

Institutional Context: English theatre operated within professional commercial structures; Jadid theatre initially relied on amateur troupes and educational institutions.

Aesthetic Distance: English drama frequently maintains ironic detachment; Jadid drama favors direct moral engagement.

Genre Proportion: English Enlightenment theatre refines comedic aesthetics, while Jadid drama integrates comedy with overt didacticism and historical narration. These differences reflect variations in audience expectation, socio-political urgency, and cultural modernization processes.

The findings indicate that Enlightenment dramaturgy in both traditions serves as a mediator between literature and society. Ethical norms are transformed into aesthetic experiences through dramatic conflict, dialogue, and stage representation. In English drama, moral education is embedded in structural irony and comic play. The spectator is invited to infer ethical conclusions. In Uzbek Jadid drama, moral instruction is more explicitly articulated, aligning with urgent reformist goals.

Despite contextual divergences, both traditions demonstrate that drama becomes effective when ethical discourse is integrated into emotional and cognitive theatrical experience rather than reduced to abstract preaching. The interplay of laughter and pathos ensures that moral reflection emerges organically from dramatic action.

Conclusion. The artistic and aesthetic representation of social and moral ideas in English and Uzbek Enlightenment drama reveals both universal Enlightenment principles and culturally specific strategies of expression. English Enlightenment theatre emphasizes irony, aesthetic distance, and professional stagecraft to negotiate social ethics. Uzbek Jadid dramaturgy foregrounds didactic clarity, reformist rhetoric, and national consciousness within emerging theatrical institutions. Comparative analysis demonstrates that in both contexts drama functions as a communicative model of the public sphere, transforming ethical concepts into lived theatrical experience. The synthesis of aesthetic form and moral intention enables theatre to act not merely as reflection but as an agent of social transformation. Future research may extend this study to performance history, reception studies, and translation adaptations to further illuminate the transnational dynamics of Enlightenment dramaturgy.

References:

1.Swindells J., Taylor D.F. (eds.). *The Oxford Handbook of the Georgian Theatre 1737–1832.* Oxford: Oxford University Press, 2014. 10–25, 120–145 p.

2. Leon M. (ed.). *A Cultural History of Theatre in the Age of Enlightenment.* London: Bloomsbury Academic, 2017. 5–23 p.

3. Moody J., O'Quinn D. (eds.). *The Cambridge Companion to British Theatre, 1730–1830.* Cambridge: Cambridge University Press, 2007. 50–70 p.

4. Khalid A. *Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR.* Ithaca: Cornell University Press, 2015. 40–59 p.

5. Хализев В. Е.*Теория литературы*. Москва: Высшая школа, 2017. 312–334 с.

6. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. *Этика.* Москва: Академический проект, 2019. 45–62 с.

7. *O'zbek adabiyoti tarixi. 3-jild: XX asr boshlarida o'zbek adabiyoti*. Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. 220–256, 230–252-betlar.

8. Quronov D. *Adabiyotshunoslikka kirish.* Toshkent: Akademnashr, 2018. 180–200-betlar.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 378. 37.02

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA

Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li, Guliston davlat universiteti v.b.dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

https://orcid.org/0009-0002-3107-7978

e-mail: xudoyberdiyevgiyosiddin9@gmail.com

AS AN IMPORTANT PEDAGOGICAL FACTOR IN DEVELOPING VALEOLOGICAL COMPETENCES IN FUTURE TEACHERS BASED ON THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF EASTERN THINKERS

Khudoyberdiyev Giyosiddin Bakhtiyor ogli, Acting Associate Professor of Gulistan State University, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qitish prinsiplari haqida batafsil so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *valeologiya, kompetentlik, valeologik kompetensiya, sog‘lom turmush tarzi, gigiyenik tarbiya, sog‘liqni saqlash.*

Аннотация: *В статье подробно рассматриваются педагогические условия формирования валеологических компетенций у будущих учителей и принципы преподавания в образовательном процессе, направленные на формирование валеологических компетенций.*

Ключевые слова: *валеология, компетентность, валеологическая компетентность, здоровый образ жизни, гигиеническое воспитание, сохранение здоровья.*

Abstract: *This article discusses in detail the pedagogical conditions for the development of valeological competencies in future teachers and the principles of teaching in the educational process aimed at the development of valeological competencies.*

Keywords: *valeology, competence, valeological competence, healthy lifestyle, hygienic education, health preservation.*

Kirish. Yangilanayotgan O‘zbekistonda ta’lim sohasini tubdan isloh qilish va zamonaviy uzluksiz ta’lim tizimini yaratish masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Ta’limning ustuvor vazifalari esa yangi avlod kadrlarini o‘z sohasining mutaxassisi qilib yetishtirish va jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini topishi uchun o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini faol tatbiq etish jarayonida shart-sharoit yaratib berishdan iborat. Shunga ko‘ra, “Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarorida aynan mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasiga urg‘u berilgan (VMQ, 2021). Ushbu qonunda davlatimizda kasbiy kompetensiyalarini baholashni talabgorlar va ish beruvchilar o‘rtasida ommalashtirish, kasbiy malaka, bilim va ko‘nikmalar milliy tizimining rivojlantirilishida hamda kasbiy standartlarning ishlab chiqilishida eng ilg‘or xorijiy tajriba va ilmiy hamjamiyat takliflari qo‘llanilishining ta’minlanishi ko‘zda tutilgan.

“Kompetensiya – bu ta’lim orqali olingan bilimlarga, tajribaga, qadriyatlarga, niyatlarga asoslangan umumiy qobiliyatdir. Kompetensiyaviy bilim yoki ko‘nikmaga tushmaydi; kompetentlik –bu olim yoki o‘qimishli odam bo‘lishni anglatmaydi”. Kompetensiya va ko‘nikma o‘rtasidagi farqni ajratish kerak. Ko‘nikma – bu muayyan vaziyatda harakat, kompetensiya –xatti-harakatlar, ko‘nikmalarning kuzatuvlaridan o‘rganilishi mumkin

bo‘lgan xarakteristik xususiyatdir. Shunday qilib, ko‘nikmalar amalda kompetensiya sifatida namoyon bo‘ladi. Kompetensiya mahorat, harakatni kuchaytiradi. Kompetensiya ongli faoliyat natijasida shakllanadi. Davlat ta’lim standartida kasbiy va umumiy kompetensiyalar, ya’ni, bitiruvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar belgilab qo‘yilgan. Ularga asosiy kasbiy Ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda integrativ yondashuv orqali erishish mumkin. Dasturning variativ qismi ta’lim muassasasining, mintaqaning o‘ziga xosligini, hududdagi ish beruvchilarning aniq kasbiy kompetensiyalarni egallagan mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojini aks ettirish imkonini beradi [4:120-b].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Zamonaviy ta’limni modernizatsiya qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar munosabati bilan “kompetensiya” va “kompetentlik” so‘zlari yangi tusga kirdi. Ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyatini aniq ifodalashda N.A.Muslimov, A.V.Xutorskoy, I.A.Zimnyaya, John Raven, Robert White, Richard Boyatzis, Lothar Reetz va boshqa olimlar katta hissa qo‘shganlar. Turli xil izohli lug‘at va ilmiy adabiyotlarda “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari turlicha izohlanadi. Ularning ma’nosini to‘g‘ri anglash va tushunish maqsadida quyidagi lug‘atlarga e’tiborimizni qaratdik:

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da keltirilishicha: “kompetensiya” (lot. Competo – erishyapman, munosibman, loyiqman) demakdir [2; 226-b].

Rus tili lug‘atida “kompetensiya”ga shunday izoh berilgan, [lot. competo –erishyapman; munosibman, loyiqman], 1.qonun, nizom yoki boshqa hujjat bilan muayyan organ yoki mansabdor shaxsga berilgan topshiriq; 2.muayyan sohadagi bilim, tajriba bilimli, qobiliyatli, malakali bo‘lish negizidagi “kompetensiya” so‘zining kelib chiqishi chuqur o‘tmishimiz tarixiga borib taqaladi[3:512-b].

Har bir yosh uchun jismoniy ko‘rsatkichlar mutlaq emas, ular nisbiy xarakterda bo‘lib, ijobiy rivojlanish tendentsiyasini saqlab, turli xil tarixiy rivojlanish davrlarida o‘zgarib turadi. Ushbu ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi: bolaning o‘sishi, vazni, ko‘krak hajmi, mushaklarning kuchi, qobiliyatlari va boshqalarni aytish mumkin. O‘smir yoshni rivojlantirishning pedagogik mezonlari tarbiya, ta’lim va tarbiya imkoniyatlarini tavsiflaydi, inson hayotining turli davrlarida aqliy, mafkuraviy, siyosiy, axloqiy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiya imkoniyatlarini belgilaydi. Inson rivojlanishining yosh davrlarini ajratish uchun anatomik, fiziologik, jismoniy, psixologik va pedagogik ko‘rsatkichlar majmui qo‘llaniladi.

Ar-Roziy odamlarni falsafiy turmush tarzi talablarida yashashga undaydi, ayrim kishilarga xos salbiy axloqiy sifatlar: ortiqcha ehtiros, injiqlik, jahldorlik, yolg‘on so‘zlash, hasad, ochko‘zlik, qayg‘u, mechkaylik, ichkilikbozlik kabilarni qattiq qoralaydi. “Falsafiy yashash tarzi” tushunchasini ilmiy asoslab beradi.

Ar-Roziy fikricha, faylasuf olim hayotda adolatparvar, insonparvar, ishi bilan so‘zi bir kishilar bo‘lishlari lozim. Ular odamlarga muomala madaniyatini o‘rgatishda oliyjanoblikning ustunligini, badxulqlikning boshga falokat keltirishini lushuntirishlari, yaxshilikka undash, halol mehnat qilish farovon va sog‘lom turmush kechirishning asosi ekanligini anglatishlari lozim deb ta’lim berdi.

Ahmad Yassaviy fikricha, o‘z nafsining boshini yanchgan kishining g‘ururi va qadr-qimmatini hech kim poymol qila olmaydi. Shu bois, “Hikmatlar’ bizga yashash tarzimizni adashmasdan to‘g‘ri belgilab olishimizda, ko‘proq ezgu, savob ishlar qilishimizda, o‘z mohiyatimizni anglab yetishimizda ko‘mak beradi. Nafsni jilovlay bilish inson qalbini tozalaydi va tiniqlashtiradi, odamlami to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi. Sog‘lom nafs insonni hayvoniy ehtiroslarga berilib ketishdan saqlaydi, jismonan mustahkamlaydi, uning quvvatini oshiradi, og‘ir kasalliklardan asrab, insonning ma’naviy yuksalishiga olib keladi. Sog‘lom nafs – sog‘lom turmush tarzining muhim belgisidir. Nafsni tiya bilmaslik inson qalbini xiralashtiradi, to‘g‘ri yo‘ldan ozdiradi. Nafsga berilish insonni tubanlashtiradi, oqibatda uni halok etadi.

Abu Ali ibn Sinoning inson salomatligiga qo‘ygan gigiyenik talablari “Sog‘liqni saqlashga doir risola” deb nomlangan asarida bayon qilingan. Kitobning maqsadi inson tanasiga zararli ta’sir etuvchi holatlarni, uning turmush tarzidagi xatolarni to‘g‘rilash orqali bartaraf etilish usullarini bayon qilishdir, deb yozadi muallif. Kitobning birinchi maqolasida ushbu xatolar va ularni muvozanatlashtirish choralari haqida o‘z fikrlarini bildiradi. Kitobning alohida maqolalarida havo, uning turli holatlari –
musaffoligi, namligi, quruqligining inson organizmiga ta’sirini bayon qilib, ulardan himoyalanish usullarini ko‘rsatadi. U uzoq turib qolgan havo ham, harakatdagi havo ham organizm uchun zararlidir, deb ko‘rsatadi. Hammomlar to‘g‘risidagi maqolasida hammomga qo‘yiladigan gigiyenik talablarga to‘xtaladi. Hammomga to‘yib ovqatlangan holda kirish organizmga katta xavf tug‘dirishi, shuningdek, uzoq muddat davomida cho‘milish, ortiqcha va kuchli

uqalashning zarari, ayni paytda hammomdan so‘ng biroz vaqt sof havoda sayr etishning foydali ekanligini bayon qilgan. “Tib qonunlari” asarida va “Urjuza” nomli tibbiy dostonida batafsii bayon qilgan. Ibn Sinoning fikricha, sog‘liqni saqlashning asosiy tadbiri badan tarbiya, keyin ovqat tadbiri va uyqu tadbirlari hisoblanadi. Mutafakkir olim “Urjuza” asarida me’yoriy uyqu, serharakat bo‘lish, yo‘lovchilar, keksa kishilar, homiladorlar, chaqaloqlar tartiblari hamda me’yoriy ovqatlanish, to‘g‘ri turmush tarzi haqida maslahatlar beradi. Asarning “Salomatlikni saqlash haqida”gi maxsus bo‘limida shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish, badanni chiniqtirish, mizojni muvozanatlashtirish, kun tartibi, jismoniy mashg‘ulotlar, hammomlar qurilishi, may ichish, uyqu va bedorlik, og‘iz bo‘shlig‘i va tishlarni parvarish qilish, ichaklarni tozalash kabilar to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar bergan[5:16-20-b].

Muhokama. Valeologiya organizm tuzilishi va vazifalari, uning harakat imkoniyatlari, jismoniy holatini takomillashtirish, salomatlikni saqlash va yaxshilash, sog‘lom xayot tarzi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar tizimini o‘rganish, muntazam jismony mashqlarni bajarishga ehtiyojini mustahkamlashga yo‘naltirilgan.

Valeologiya – inson salomatligi, uni mustahkamlash yo‘llari, aniq sharoitlarda inson hayotiy faoliyatini shakllantirish va saqlash haqidagi bilimlarning fanlararo yo‘nalishidir. O‘quv fani sifatida u inson salomatligi va sog‘lom hayot tarzi haqidagi bilimlar majmuasini tashkil etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati, Sharq mutafakkirlarining valeologik kompetentlikni shakllantirishning mavjud holati yoritilgan.

Jamiyatning ijtimoiylashuv jarayonlarida yosh avlod ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish masalasi dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgan. Zero, yangi davr shiddati ta’lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda. Jamiyatning sog‘lomligi esa o‘sib kelayotgan yosh avlodning yuqori darajada sog‘lom turmush madaniyatiga ega bo‘lishini taqozo etadi. Shunga ko‘ra, agar jamiyatda mavjud barcha institutlar tomonidan bolalar ma’naviy va jismoniy salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan shart-sharoit yaratilsa, o‘sha jamiyatda yashab, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish yuqori darajaga ko‘tariladi.

Yurtimizda azal-azaldan odob-axloq va ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor berilgan. Sharq allomalari, olim-u mutafakkirlar qadimdan adab ilmini chuqur o‘rganib, rivojlantirib kelishgan. Ayniqsa, har taraflama go‘zal odobli, yaxshi xulqli va hayoli bo‘lishga, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz bu sohada ulkan o‘zgarishlar sababchisidir. Hadislarda, allomalarning o‘gitlarida inson ma’naviy kamolotining asosi bo‘lgan odob-axloq va tarbiyaning barcha jihatlari o‘z ifodasini topgan.

Mutaxasislarning baho berishicha aholi salomatligining 40-50% hayot tarziga bog‘liq, zararli odatlar, noto‘g‘ri ovqatlanish, alkogol va tamakini me’yoridan ortiq iste’mol qilish, ko‘p o‘tirish (stress), atrof-muhitning iflosligi turli kasalliklarga (yurak-qon va nafas olish sistemasi kasalliklari, oshqozon-ichak funksiyalarining buzilishga h.k.) olib kelishi ma’lum. Abu Ali Ibn Sino salomatlikni asrashga katta ahamiyat bergan. Alloma kasalliklarning oldini olishda jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanishni ko‘p marotaba qayd etgan.

Xulosa. Yoshlarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishga bo‘lgan keskin ehtiyoj, ta’lim muassasalarida mavjud nazariy yondashuvlar, pedagogik vosita va innovatsion ta’lim imkoniyatlarini rivojlantirish, yoshlarning o‘z salomatligini saqlash va sog‘lomlashtirish jarayonlariga munosabati, sog‘ligi, qiziqishi va faolligini e’tiborga olishni taqozo etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-sentyabrdagi VMQ-616-son “Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. Elektron resurs: https://lex.uz/docs/5664463.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat milliy nashriyoti, –T.: 2008. 8 tom. B-26.
3. Новая иллюстрированная энциклопедия. Кн. 5. Кл –Ма. –М.: Большая Российская энциклопедия, ООО ТД Издательство Мир книги, 2007. –512 с.
4. Muslimov, N. (2015). Usmonboeva M. va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Sano-standart. Toshkent, 120.
5. Arziqulov R. Sog‘lom turmush tarzi asoslari (Valeologiya). 0‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent—2009.

Qabul qilindi: 10.02.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 101.1/177

IJTIMOIY DAVLAT SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Xoliqov Lazizjon Maxmud o‘g‘li, Buxoro davlat universiteti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi dotsenti, BuxDU doktoranti

e-mail: xoliqov laziz5@gmail.com

FORMATION AND DEVELOPMENT TRENDS OF THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM OF THE POPULATION IN THE CONDITIONS OF A SOCIAL STATE

Kholikov Lazizzjon Makhmud ogli, Associate Professor of the Department of “Social and Political Sciences” of Bukhara State University, PhD student of Bukhara State University

ФОРМИРОВАНИЕ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА

Холиков Лазижон Махмуд оглы, доцент кафедры “Социальные и политические науки” Бухарского государственного университета, докторант БухГУ

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ijtimoiy davlat sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Unda O‘zbekistonda kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlashda davlat siyosati, fuqarolik jamiyati institutlari va shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini baholashda statistik ko‘rsatkichlar va axborot bazalarining o‘rni, tashkiliy-huquqiy asoslarning takomillashuvi hamda ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish jarayonlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *kam ta’minlangan oila, ijtimoiy himoya, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, Yagona ijtimoiy reestr, ijtimoiy xizmatlar, kambag‘allikni kamaytirish.*

Abstract: *This article analyzes the formation and development trends of the social protection system in the conditions of a welfare state. It reveals the importance of state policy, civil society institutions and interaction between individuals in supporting low-income families in Uzbekistan. It also highlights the role of statistical indicators and information bases in assessing the effectiveness of the social protection system, the improvement of organizational and legal frameworks, and the processes of digitalization of social services.*

Keywords: *low-income family, social protection, social support of the population, Unified Social Register, social services, poverty reduction.*

Аннотация: *В данной статье анализируются тенденции формирования и развития системы социальной защиты в условиях государства всеобщего благосостояния. Раскрывается важность государственной политики, институтов гражданского общества и взаимодействия между людьми в поддержке малообеспеченных семей в Узбекистане.*

Ключевые слова: *малообеспеченная семья, социальная защита, социальная поддержка населения, Единый социальный регистр, социальные услуги, сокращение бедности.*

Kirish. Zamonaviy ijtimoiy davlat konsepsiyasida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi jamiyat barqarorligi, ijtimoiy adolat va inson qadr-qimmatini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Aholining kam ta’minlangan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy tenglikni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va shaxslarning o‘zaro hamkorligi asosida shakllanib, izchil ravishda rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, “Yagona ijtimoiy

reestr” tizimining joriy etilishi yordam resurslarini ehtiyojga mos taqsimlash imkoniyatlarini kengaytirdi. Mazkur maqolada ijtimoiy himoya tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va asosiy tendensiyalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ijtimoiy davlat sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalarini falsafiy tahlil qilishda ilmiy bilishning analiz va sintez, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik usul, sinergetik usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. O‘zbekistonda kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishda davlat siyosati bilan fuqarolik jamiyati institutlari va shaxslar o‘rtasida uyg‘unlik ijtimoiy himoya samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida ko‘riladi[1]. Davlat pensiya, moddiy yordam, bandlik va oilalarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari orqali kam ta’minlangan oilalarning turmush sharoitini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlat oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda mahalliy darajadagi monitoring tizimini tashkil qiladi, ehtiyojmand oilalarni ro‘yxatga oladi va ularning holatini baholaydi. Fuqarolik jamiyati institutlari — mahalla, jamoat va nodavlat tashkilotlar — yordamga muhtoj oilalarni aniqlash va ularga qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatishda faol ishtirok etadi. Misol uchun, mahalla qo‘mitalari oilalarning ehtiyojini o‘rganadi, sog‘liqni saqlash, ta’lim va bandlik masalalarida ularga maslahat beradi. Nodavlat tashkilotlar esa oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa yordamlarni taqdim etadi, oilalarga malaka oshirish yoki ish topishda yordam ko‘rsatadi. Shu tarzda, jamiyat institutlari davlat siyosatini amaliyotga tatbiq etishda vositachi rolini bajaradi. Shaxslar va jamoalar ham ijtimoiy himoya tizimida faol ishtirok qiladi. Qishloq aholisi kam ta’minlangan oilalarga birgalikda oziq-ovqat yetkazadi, bolalar va yoshlar uchun qo‘shimcha ta’lim kurslari tashkil etiladi, oilalarga ish o‘rinlari bo‘yicha maslahat beriladi. Shu bilan birga, davlat dasturlari orqali oilalarga moddiy yordamlar, pensiya va nafaqa beriladi, bu esa oilalarning asosiy ehtiyojlarini qoplashga xizmat qiladi. Ushbu uch unsur o‘rtasidagi uyg‘unlik tufayli ijtimoiy himoya tizimi samarali ishlaydi. Yordamlar ehtiyojga mos yetkaziladi, kam ta’minlangan oilalar qo‘llab-quvvatlanadi, mahalliy jamoalar tizimning ishlashida faol hissa qo‘shadi. Shu uyg‘unlik ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, kambag‘allikni kamaytirish va adolatni oshirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini baholash uchun statistik ko‘rsatkichlar tizimi va axborotlar bazasini shakllantirish zarurati ilmiy tadqiqotlarda asosiy yo‘nalish sifatida qayd etilgan[2]. Ushbu tizim yordamida nafaqat ijtimoiy yordam oluvchilarning soni aniqlanadi, balki yordamning sifatini, qamrovini va hududiy taqsimlanishini ham kuzatish mumkin. Statistik ko‘rsatkichlar tizimi oilalarning daromad darajasi, bandlik darajasi, nafaqa va pensiya oluvchilar soni, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish darajasi kabi parametrlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, qishloq hududlaridagi kam ta’minlangan oilalar soni va shahar hududlaridagi oilalar sonini taqqoslash orqali yordam resurslarini hududlar bo‘yicha teng taqsimlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Axborotlar bazasi esa barcha ushbu ma’lumotlarni markazlashtirish va tahlil qilish imkonini beradi. Shu tarzda, davlat organlari va mahalliy hokimiyat organlari o‘z siyosatini aniqroq rejalashtiradi va resurslarni ehtiyojga mos taqsimlaydi. Masalan, agar ma’lumotlar bazasida bir hududda yosh oilalar va bolali oilalarning yordamga ehtiyoji yuqori ekanligi aniqlansa, davlat u yerda qo‘shimcha moddiy yordam va bandlik dasturlarini joriy qilishi mumkin. Misol tariqasida, O‘zbekistonda joriy etilgan **“Yagona ijtimoiy reestr”** tizimi yordam oluvchi oilalar, nafaqa va pensiya oluvchilar, ularning daromad darajasi, hududiy xususiyatlari va boshqa ijtimoiy parametrlarini markazlashtirib saqlaydi. Shu bazadan foydalangan holda nafaqat yordamlarning qamrovi aniqlanadi, balki kelgusida yangi ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqishda ham aniq ma’lumotlarga tayangan holda qarorlar qabul qilinadi. Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining samarali ishlashi uchun uni mustahkamlovchi tashkiliy-huquqiy asoslar takomillashtirilmoqda[3]. Bu jarayon nafaqat ijtimoiy himoya tizimining qonuniy asoslarini mustahkamlash, balki uning amaliy samaradorligini oshirishga ham

[1] Quramboyev A. (2025). Kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishda davlat, jamiyat va inson omilining o‘zaro uyg‘unligi. *MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA. Xalqaro Ilmiy Jurnali*, 38–43.

[2] Kudbidinova M.I. aholini ijtimoiy himoya qilishni ifodalovchi statistik ko’rsatgichlar tizimi va ularning axborotlar bazasini shakllantirish. (2024). Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(09), 217-223.

[2] Tursunov A. (2024). Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari. Green Economy And Development, 2(4).

qaratilgan. Davlat tomonidan ishlab chiqilayotgan qonunlar, qarorlar va normativ hujjatlar ijtimoiy yordam dasturlarini tartibga soladi, nafaqa va pensiya tizimini belgilaydi, oilalarni qo‘llab-quvvatlash mezonlarini aniqlaydi. Shu bilan birga, mahalla, jamoat va nodavlat tashkilotlarning roli qonuniy asoslar orqali mustahkamlanadi, ular yordamni ehtiyojmand oilalarga yetkazishda tizimning samarali ishlashiga hissa qo‘shadi. Misol tariqasida, davlat qishloq va shahar hududlarida kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash uchun yagona me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqmoqda. Bu hujjatlar yordamning kimga, qanday miqdorda va qanday tartibda yetkazilishini belgilaydi, shuningdek, yordam jarayonini nazorat qilish va monitoring qilish mexanizmlarini yaratadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi raqamlashtirilib, “Yagona ijtimoiy reestr” va boshqa elektron xizmatlar orqali moliyaviy yordamning samaradorligi oshirildi, ko‘mak qamrovi kengaytirildi[4]. Elektron xizmatlar yordamida nafaqa, pensiya va moddiy yordamlarni taqsimlash jarayoni tezlashdi va shaffoflashdi. Masalan, oilalar o‘zlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni onlayn tarzda kiritishi, nafaqalar va boshqa yordamlar hisobini kuzatishi mumkin. Shu bilan birga, mahalliy hokimiyat va nodavlat tashkilotlar raqamli tizim orqali yordamga muhtoj oilalarni aniq aniqlab, ularga tezkor yordam yetkazish imkoniyatiga ega bo‘ldi. O‘zbekistonning ijtimoiy siyosati mustaqillikdan boshlab, xususan 2017-yildan keyin ijtimoiy xizmatlar, kambag‘allikni kamaytirish va qo‘llab-quvvatlash strategiyasi bo‘yicha izchil islohotlar orqali rivojlangan[5]. Ushbu islohotlar natijasida ijtimoiy himoya tizimi bir necha yo‘nalishda rivojlantirildi. Birinchidan, nafaqa, pensiya va subsidiya kabi ijtimoiy yordam mexanizmlari takomillashtirildi va ularning barqaror ishlashini ta’minlash uchun moliyaviy va huquqiy asoslar mustahkamlandi. Ikkinchidan, kambag‘allikni kamaytirish strategiyasi doirasida hududlar bo‘yicha ehtiyojga mos dasturlar ishlab chiqildi. Qishloq va chekka hududlarda kam ta’minlangan oilalarga oziq-ovqat, kommunal xizmatlar bo‘yicha subsidiya va bandlik dasturlari kengaytirildi. Uchinchidan, islohotlar fuqarolik jamiyati institutlari va shaxslarning rolini kuchaytirdi. Mahalla organlari, nodavlat tashkilotlar va ko‘ngilli jamoalar yordamga muhtoj oilalarni aniqlash va ularga qo‘shimcha xizmat ko‘rsatishda faol ishtirok etmoqda.

Xulosa va takliflar. Muxtasar qilib aytganda, ijtimoiy davlat sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi kompleks mexanizm sifatida shakllanmoqda. O‘zbekistonda davlat siyosati, fuqarolik jamiyati institutlari va shaxslarning o‘zaro uyg‘un faoliyati kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlashda muhim natijalarga erishishga imkon bermoqda. “Yagona ijtimoiy reestr” tizimi orqali ijtimoiy yordam jarayonlarining raqamlashtirilishi resurslardan oqilona foydalanish, shaffoflikni ta’minlash va manzilli yordam ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, tashkiliy-huquqiy asoslarning takomillashuvi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining barqarorligini mustahkamlab, davlat va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirdi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Quramboyev A. (2025). Kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishda davlat, jamiyat va inson omilining o‘zaro uyg‘unligi. Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila. Xalqaro ilmiy jurnali, 38–43.
2. Kudbidinova M.I. aholini ijtimoiy himoya qilishni ifodalovchi statistik ko’rsatgichlar tizimi va ularning axborotlar bazasini shakllantirish. (2024). Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(09), 217-223.
3. Tursunov A. (2024). Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari. Green economy and development, 2(4).
4. Dovutov F. (2025). O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish va hududlarda differensial yondashuv asosida moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. Green Economy And Development, 3(11).
5. Sharipov O. (2025). O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi va davlatning ijtimoiy siyosati. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 4(12), 44–48.

[4] Dovutov F. (2025). O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish va hududlarda differensial yondashuv asosida moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. Green Economy And Development, 3(11).

[5] Sharipov O. (2025). O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi va davlatning ijtimoiy siyosati. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 4(12), 44–48.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 94 (575.1)

O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA QISHLOQ AHOLISI SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH TADBIRLARI

Buronov Olim Murodullayevich, Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

MEASURES TO PROTECT THE HEALTH OF THE RURAL POPULATION IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Buronov Olim Murodullayevich, Associate Professor of the University of Information Technologies and Management, Doctor of Philosophy (PhD) in History

МЕРЫ ПО ЗАЩИТЕ ЗДОРОВЬЯ СЕЛЬСКОГО НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Буронов Олим Муродуллаевич, доцент Университета информационных технологий и управления, доктор философии (PhD) по истории

https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0007-2599-395X
e-mail: buronovolim477@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonda mustaqillik yillarida qishloq aholisi salomatligini muhofaza qilish sohasida amalga oshirilgan islohotlar va chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Qishloq joylarda tibbiy xizmat tizimini takomillashtirish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini rivojlantirish, qishloq vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikalar faoliyatini kengaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, yuqumli kasalliklarning oldini olish, profilaktika tadbirlarini kuchaytirish hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish yo‘nalishlaridagi davlat siyosati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *qishloq aholisi, sog‘liqni saqlash, tibbiy islohotlar, birlamchi tibbiy yordam, ona va bola salomatligi, profilaktika, mustaqillik yillari.*

Annotation: *This article analyzes the reforms and measures implemented to protect the health of the rural population in Uzbekistan during the years of independence. Special attention is paid to improving the rural healthcare system, developing primary health care services, and expanding the activities of rural medical centers and family polyclinics. The study highlights state policies aimed at protecting maternal and child health, preventing infectious diseases, strengthening preventive healthcare, and promoting a healthy lifestyle.*

Keywords: *rural population, healthcare system, medical reforms, primary healthcare, maternal and child health, prevention, years of independence.*

Аннотация: *В статье анализируются меры и реформы, осуществленные в сфере охраны здоровья сельского населения Узбекистана в годы независимости. Особое внимание уделяется совершенствованию системы медицинского обслуживания в сельской местности, развитию первичной медико-санитарной помощи, расширению деятельности сельских врачебных пунктов и семейных поликлиник. Рассматриваются государственные программы по охране материнства и детства, профилактике инфекционных заболеваний, укреплению профилактической медицины и формированию здорового образа жизни.*

Ключевые слова: *сельское население, здравоохранение, медицинские реформы, первичная медицинская помощь, охрана материнства и детства, профилактика, годы независимости.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng ijtimoiy sohalar, xususan, aholi salomatligini muhofaza qilish tizimini isloh etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, aholining katta qismi istiqomat qiladigan qishloq hududlarida tibbiy xizmat sifatini oshirish, kasalliklarning oldini olish va sog‘lom

turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirildi.

Mustaqillik yillarida qishloq aholisi salomatligini ta’minlash maqsadida sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini rivojlantirish, qishloq vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikalar faoliyatini kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi. Shu bilan birga, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, yuqumli kasalliklarni kamaytirish, profilaktik tadbirlarni kuchaytirish hamda tibbiy xizmatning hududiy tengligini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli dasturlar joriy etildi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida qishloq aholisi salomatligini muhofaza qilish masalalari bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda o‘rganilgan. Ayniqsa, sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini rivojlantirish va qishloq joylarda tibbiy xizmat sifatini oshirish masalalari ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mustaqillikdan keyin sog‘liqni saqlash sohasida qabul qilingan davlat dasturlari, normativ-huquqiy hujjatlar va islohotlarning qishloq aholisi salomatligiga ta’siri tahlil qilingan. Ushbu ishlarida qishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar faoliyati, tez tibbiy yordam xizmati hamda tibbiy kadrlar bilan ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda mustaqillik yillarida qishloq aholisi salomatligini muhofaza qilish sohasida amalga oshirilgan islohot va chora-tadbirlarni o‘rganishda tarixiylik va tizimlilik tamoyillariga asoslanildi. Tadqiqot jarayonida sog‘liqni saqlash tizimining qishloq hududlaridagi rivojlanish bosqichlari ketma-ketlikda tahlil qilindi hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan o‘zaro bog‘liqligi ochib berildi.

Ishda tarixiy-taqqoslash usuli qo‘llanilib, mustaqillikdan oldingi va keyingi davrlarda qishloq joylarda tibbiy xizmat ko‘rsatish holati solishtirildi. Statistik tahlil usuli orqali qishloq aholisi salomatligi bilan bog‘liq asosiy ko‘rsatkichlar, jumladan ona va bola salomatligi, kasallanish darajasi hamda tibbiy xizmat bilan qamrov holati o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. O‘zbekistonda 1991-yili qishloq aholisi jami aholining 59,5 foizini (20,6 mln aholi) tashkil qilgan bo‘lsa, 2002-yilda bu ko‘rsatkich 62,9 foizga, 2005-yilda 63,7 foizga teng bo‘ldi[1]. 1992–1996-yillarda qishloq joylaridagi aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish xizmatini yanada yaxshilash, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish uchastkalari, feldsherlik-akusherlik punktlari ish faoliyatini takomillashtirish masalasiga qisman e’tibor qaratila boshlandi. Bu vaqtda 450ta qishloq uchastka shifoxonasi, 6500 ta feldsher-akusherlik punkti, 1400 ta qishloq vrachlik ambulatoriyasi mavjud edi[2].

1994-yili Respublikada 451ta tuman va qishloq uchastka shifoxonasi faoliyat ko‘rsatdi. Statsionarlarga yotqizilgan bemorlarning 58-59 foizi asosan qishloq uchastka kasalxonalarida davolandi. Shuningdek, davolanganlarning 70 foizga yaqini markaziy tuman, qishloq va uchastka shifoxonalariga yotqizildi. 1993-yilda qishloq ambulatoriyalariga bo‘lgan qatnov 20,6 mln kishiga yetdi[3].

1998-yili O‘zbekistonda 1122 ta qishloq vrachlik ambulatoriyasi faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa[4], 1999-yilga kelib ular soni 1015 taga, FAPlari shu yillarga taalluqli ravishda 4495 tadan 2098 taga kamaydi. Aksincha, bu davrda qishloq vrachlik punkti 982 tadan, 1262 taga ko‘paydi. Bu davrda qishloqlarda 444ta shifoxona faoliyat ko‘rsatdi. Shifoxonalarning ko‘pchiligi Qashqadaryo viloyati (46 ta), Surxondaryo viloyati (59 ta) hisobiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, Xorazm viloyatida (15 ta), Buxoro viloyatida (12 ta) kam edi[5].

Qishloq aholisini arzon va sifatli dori-darmonlar bilan ta’minlanishini yaxshilash maqsadida 2011-yil 8 oyida 291ta QVP qoshida ijtimoiy dorixonalar tashkil qilinib, ularning umumiy soni 771 taga yetkazildi[6]. Aholining QVPlarga bo‘lgan qatnovlar soni ham ortib bordi. Masalan, bu ko‘rsatkich 2008–2012-yillar mobaynida 64715,4 dan 82106,1 tagacha o‘sdi[7]. Qishloqlarda zamonaviy shifo maskanlarining faoliyat boshlashi bilan kasalliklarni erta aniqlash imkoniyati yuzaga keldi. Yana bir jihati, ilgari o‘z dardining sababini bilish va davolanish uchun qishloqdan shahar markazidagi shifoxonaga boruvchilar endi birinchi galda o‘z qishloqlaridagi shifokorga murojaat qildi.

O‘zbekistonda 2017–2018-yillarda qishloqlarda sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘inida samarasiz qishloq vrachlik punktlari qisqartirilib, ularning o‘rniga 793 ta qishloq oilaviy poliklinikalari tuzildi[8]. Tibbiy profilaktika va sanitariya-epidemiologik barqarorlikni ta’minlash masalasi zamonaviy tibbiyotni vujudga keltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiy ko‘rik – tibbiy zarurat omili kasallikning dastlabki belgilari namoyon bo‘lmasdan, uning oldini olish va kerakli choralarni qo‘llash xalqaro tajribada samarali usul hisoblanadi. QVP faoliyatida bu tajriba kundalik vazifaga aylangan. Soha xodimlarining aholi orasida amalga oshirgan targ‘ibot ishlari bois, fuqarolarning ko‘pchiligi o‘z xohishi bilan tibbiy ko‘rik va shifokor nazoratidan o‘tdi. Oila shifokori

qabulidan tortib, fizioterapiya muolajalarigacha bo‘lgan jarayon uzluksizlik asosida davom ettirildi[9].

Respublikada 1995–1999-yillarda difteriyaga, 1995-yildan 2004 va 2010–2011-yillarda poliomiyelitga, 2006–2007 va 2010–2011-yillarda qizamiq va qizilchaga qarshi milliy emlash kunlari o‘tkazilib, bunda aholining 99 foizi emlandi[10]. Tibbiy-ijtimoiy patronaj tizimini tashkil qilish doirasida 1996-yili Toshkent viloyat tumanlari qishloq aholisini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazganda 51,6%, ayollar, 47,8% bolalar, 0,6% o‘smirlarda turli kasalliklar aniqlangan[11].

Ta’kidlash joizki, Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan, yuqumli kasalliklarni oldini olishda bosqichma-bosqich JSSTning tavsiyalariga amal qilgan holda yangi vaksinalarni tibbiyot amaliyotiga tatbiq etib keldi. O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzi asoslarini amaliyotga tatbiq etish borasida 12ta profilaktik dasturlar ishlab chiqilib, 9tasi amalda tatbiq etildi[12]. Profilaktik tadbirlarda emlash ishlari bilan birga tibbiy ko‘rik masalasiga ham jiddiy e’tibor qaratildi. 2009–2012-yillar davomida O‘zbekistonda deyarli 1,8 million tug‘ish yoshdagi ayollar, 655 ming 482 nafar o‘smir qizlar va bolalar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi. E’tiborlisi, aholining tibbiy madaniyati oshishi bilan birga sog‘lig‘iga bo‘lgan e’tibori ham kuchayib bordi. Sog‘lomlashtirish tadbirlariga aksariyat oilaviy poliklinika va QVPlar keng qamrab olindi. “Obod turmush yili”, “Sog‘lomlashtirish haftaligi” yanada keng miqyosda, o‘nga yaqin turli yo‘nalishdagi mutaxassislar ishtirokida uch bosqichda olib borildi[14]. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etuvchi plakatlar, varaqalar chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Mahalliy hokimiyat organlari bilan birgalikda sog‘lomlashtirish tadbirlari olib borildi[15].

Mustaqillik yillarida aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash bosqichma-bosqich amalga oshirilganligi yuqumli ichak kasalliklari keskin kamayishiga olib keldi. Virusli gepatit “A” kasalligi 100 000 aholiga nisbatan 107,2 da 64,6 gacha kamaydi[17]. Respublika bo‘yicha 2013-yilda 2012-yilga nisbatan yuqumli kasalliklar bilan kasallanish ko‘rsatkichining (o‘tkir ichak infeksiyasi va virusli gepatitdan tashqari) kamayishi kuzatildi. Masalan, dizenteriya (ichburug‘) – 0,4 ga, gepatit “V” – 0,3 ga, koklyush (ko‘k yo‘tal) – 0,1 ga va skarlatina – 0,3ga kamaydi*[16]*.

Respublikada olib borilgan profilaktik va epidemiyaga qarshi majmuaviy chora-tadbirlar natijasida 2017-yil hamda 2018-yilning o‘tgan davri mobaynida o‘ta xavfli va boshqa yuqumli kasalliklarning O‘zbekiston hududiga chetdan kirib kelishi va tarqalishiga yo‘l qo‘yilmadi. 2011-yildan buyon bezgak kasalligi mahalliy tarzda qayd etilmagan bo‘lib, 2018-yilda JSST yordamida “O‘zbekiston-bezgakdan xoli davlat” xalqaro sertifikatini olish bo‘yicha tadbirlar olib borildi[17].

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda mustaqillik yillarida qishloq aholisi salomatligini muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Qishloq hududlarida sog‘liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini rivojlantirish hamda tibbiy xizmatning hududiy qamrovini kengaytirish borasida muhim natijalarga erishildi. Qishloq vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikalar faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini sezilarli darajada yaxshiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Қишлоқ жойлар демографияси. – Тошкент, 2005. – Б. 52.
2. Шодиёр Мутаҳҳархон ўғли. Қишлоқларни юксакликка элтувчи дастур // Халқ сўзи, 1996 йил 24 май.
3. Сурхондарё вилоятининг ижтимоий ривожланишидаги айрим кўрсаткичлар таҳлили (1991-2000 йиллар). – Термиз, 2000. – Б. 20-21.
4. O‘z MA, M-115-fond, 1-ro‘yxat, 133-ish, 7-varaq.
5. O‘z MA, M-115-fond, 1-ro‘yxat, 133-ish, 15-16-varaqlar.
6. O‘z ITTH MA, M-372-fond, 1-ro‘yxat, 930-ish, 36-varaq.
7. O‘z ITTH MA, M-372-fond, 1-ro‘yxat, 998-ish, 21-varaq.
8. Холиқулова Ҳ. Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, маънавий-маданий тараққиёти. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти. Ўқув қўлланма. – Жиззах: ЖизПИ, 2020. – Б. 206.
9. Соатова И. Жамият тараққиёти йўлидаги муҳим мақсадлар // Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш, 2012 йил 16 март.
10. Соатова И. Инсон қадри улуғланган юрт // Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш, 2012 йил 21 декабрь.
11. Buronov, O. (2025). O‘zbekistonda qishloq aholisi sog‘liqni saqlash tizimi huquqiy asoslarining shakllanishi va soha moddiy-texnik bazasini mustahkamlash muammolari. Journal of Tamaddun Nuri, 12(75), 61-64.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 94 (575.1)

BUTUNITTIFOQ QORAKO‘LCHILIK ILMIY–TADQIQOT INSTITUTI FAOLIYATI (SAMARQAND MISOLIDA)

Axmedov Bekzod Abdiraxmonovich, Axborot texnologiyalari va menejment universiteti “Tarix” kafedrasi professori v.b.

ACTIVITIES OF THE ALL-UNION SCIENTIFIC-RESEARCH INSTITUTE OF KARAKULISM (ON THE EXAMPLE OF SAMARKAND)

Akhmedov Bekzod Abdirakhmonovich, Acting Professor of the Department of “History” of the University of Information Technologies and Management

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ВСЕСОЮЗНОГО НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОГО ИНСТИТУТА КАРА-КУЛЕВОДСТВА (НА ПРИМЕРЕ САМАРКАНДА)

Ахмедов Бекзод Абдирахмонович, исполняющий обязанности профессора кафедры “История” Университета информационных технологий и управления

https://orcid.org/0009-0001-7353-9707
e-mail: myboks@bk.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Butunittifoq Qorako‘lchilik ilmiy–tadqiqot instituti faoliyati Samarqand viloyati misolida ilmiy–tarixiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, Samarqand viloyatining tabiiy–iqlim sharoitlari qorako‘lchilik rivoji uchun qulay hudud sifatida baholanib, institut faoliyatining hududiy xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Butunittifoq Qorako‘lchilik ilmiy–tadqiqot instituti nafaqat ilmiy markaz, balki qorako‘lchilikni tizimli rivojlantirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va soha uchun malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu maqola chorvachilik tarixini o‘rganishda, ayniqsa qorako‘lchilikning ilmiy asoslarini tahlil qilishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *Butunittifoq Qorako‘lchilik ilmiy–tadqiqot instituti, qorako‘lchilik, Samarqand viloyati, chorvachilik tarixi, ilmiy tadqiqotlar, seleksiya ishlari, qorako‘l qo‘y zotlari, tabiiy–iqlim sharoitlari, iqtisodiy samaradorlik, malakali kadrlar tayyorlash.*

Annotation: *This article provides a scientific and historical analysis of the activities of the All–Union Research Institute of Karakul Breeding using the example of the Samarkand region. The Samarkand region is also assessed as an area with favorable natural and climatic conditions for the development of karakul breeding, and the regional characteristics of the institute’s activities are revealed. The results of the study show that the All–Union Research Institute of Karakul Breeding functioned not only as a scientific center but also played a significant role in the systematic development of karakul breeding, increasing the economic efficiency of the sector, and training qualified specialists. This article is of considerable scientific importance for the study of the history of animal husbandry, particularly in analyzing the scientific foundations of karakul breeding.*

Keywords: *All–Union Research Institute of Karakul Breeding, karakul breeding, Samarkand region, history of animal husbandry, scientific research, breeding and selection work, karakul sheep breeds, natural and climatic conditions, economic efficiency, training of qualified specialists.*

Аннотация: *В данной статье научно–исторически анализируется деятельность Всесоюзного научно–исследовательского института каракулеводства на примере Самаркандской области. Также Самаркандская область оценивается как территория с благоприятными*

природно–климатическими условиями для развития каракулеводства, и раскрываются территориальные особенности деятельности института. Результаты исследования показывают, что Всесоюзный научно–исследовательский институт каракулеводства являлся не только научным центром, но и сыграл важную роль в системном развитии каракулеводства, повышении экономической эффективности отрасли и подготовке квалифицированных кадров. Данная статья имеет важное научное значение для изучения истории животноводства, особенно для анализа научных основ каракулеводства.

Ключевые слова: *Всесоюзный научно–исследовательский институт каракулеводства, каракулеводство, Самаркандская область, история животноводства, научные исследования, селекционная работа, породы каракульских овец, природно–климатические условия, экономическая эффективность, подготовка квалифицированных кадров.*

Kirish. Qorako‘lchilik O‘zbekiston chorvachilik tarmoqlari orasida tarixan muhim o‘rin egallab kelgan sohalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qorako‘l qo‘ylaridan olinadigan qimmatbaho teri mahsulotlari nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro savdoda ham yuqori baholangan. Samarqand viloyati tabiiy–iqlim sharoitlarining qulayligi, yaylovlarining xilma–xilligi va chorvachilik an’analarining qadimiyligi bilan qorako‘lchilik rivoji uchun muhim hududlardan biri bo‘lib kelgan. Institutning mazkur hududdagi faoliyati qorako‘l qo‘y zotlarini seleksiya qilish, ularning moslashuvchanligini oshirish hamda mahalliy xo‘jaliklar bilan ilmiy–ishlab chiqarish aloqalarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynadi. Shu nuqtayi nazardan, Butunittifoq Qorako‘lchilik ilmiy–tadqiqot instituti faoliyatini Samarqand viloyati misolida o‘rganish qorako‘lchilik tarixini, uning ilmiy asoslarini va rivojlanish bosqichlarini yoritishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Butunittifoq Qorako‘lchilik ilmiy–tadqiqot instituti faoliyatini yoritishga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar asosan sovet davrida chop etilgan tadqiqotlar, statistik to‘plamlar va sohaga oid uslubiy qo‘llanmalardan iborat. Ushbu manbalarda qorako‘lchilikning iqtisodiy ahamiyati, naslchilik ishlari va ilmiy yondashuvlarning amaliy natijalari keng tahlil qilingan. Jumladan, qorako‘l qo‘y zotlarini takomillashtirishga oid seleksiya masalalari, mahsuldorlikni oshirish yo‘llari hamda hududiy xususiyatlarni hisobga olgan ilmiy tavsiyalar asosiy mavzulardan biri sifatida ko‘riladi. Samarqand viloyatida qorako‘lchilik rivoji masalalari mahalliy tarixchilar va qishloq xo‘jaligi mutaxassislari tomonidan yozilgan asarlarda alohida o‘rin tutadi.

Natijalar va muhokamalar. Qorako‘l qo‘ylarini ilmiy jihatdan tadqiq qilish ishlari XIX asrning oxirlaridan boshlangan. Poltava qishloq xo‘jaligi jamiyati 1882–yildayoq Buxoroga qator ekspeditsiyalar uyushtirib, qorako‘l qo‘ylarini sotib olib Rossiyada ko‘paytirishga urindi. Mazkur jamiyat dehqonchilik departamentidan zotdor qorako‘l qo‘ylari uchun maxsus joy tashkil etish va ularni ko‘paytirish uchun ruxsat so‘raydi. Zootexnik–olimlardan M.S.Karpov, M.F.Ivanov, R.R.Pravoxenskiy, I.Ilchevskiy kabilar qorako‘l qo‘ylari ustida dastlabki tajribalarni olib bordi. 1914–yil Kattaqo‘rg‘on yaqinidagi Zirabuloq cho‘lida zotdor qorako‘l qo‘ylar uchun qo‘ton qurilib, unga Buxoro amirligi Qarshi bekligidan sotib olib kelingan qo‘ylar joylashtirildi va ular ustida Pexovskiy, Juravlev va Lebedinskiy kabi olimlar tajriba olib bordi. Ammo Kattaqo‘rg‘on qorako‘l zotdor qo‘ylarini ko‘paytirish uchun qulay hudud emas edi[1]. Sovet davlatida ham qorako‘lchilik sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlari davom ettirilib, yangi yutuqlar qo‘lga kiritildi. 1927–yili O‘zSSR Yer ishlari Xalq komissarligining qarori bilan Kattaqo‘rg‘ondagi qorako‘lchilik qo‘toni qishloq xo‘jaligi tajriba stansiyasi tarkibiga bo‘lim sifatida kiritildi. Qorako‘lchilik bo‘limining dastlabki ilmiy xodimlari N.F.Nikolskiy, V.N.Ogolena, YE.V.Odinsova kabilar edi. Bo‘limni V.L.Lebedinskiy boshqardi[2]. O‘zbekistonda qorako‘lchilik sohasidagi ilk tadqiqot ishi M.S.Karnovga tegishli bo‘lib, bu 1925–yili terini namlantirishni amalga oshirdi[3]. Qorako‘l qo‘ylarini o‘rganish bo‘yicha ikkinchi qo‘ton sifatida Buxoroning Qorako‘l tumanida temir yo‘l stansiyasi yaqinidagi sobiq fransuz vino kompaniyasining zavodi tanlandi. Bu yerda zotdor qorako‘l qo‘ylarining Buxoro davlat tajriba qo‘toni tashkil etildi. 1928–yili tashkilot Kogon shahriga

ko‘chirildi. Unda V.A.Petrov, P.V.Aranov, E.P.Kranuxini, YE.P.Panfilov, R.I.Kukminskiy, P.S.Kochetov, Z.V.Doljenko, N.I.Plexanov, K.V.Arasimovich kabi olimlar faoliyat ko‘rsatdi. Qo‘tonning seleksiya bo‘limini V.A.Petrov, jun tayyorlash laboratoriyasi va yem–xashak bo‘limini B.V.Muromsov, iqtisod bo‘limini K.V.Arasimovich boshqardi[4]. 1929–yil 23–martda Buxoro shahrida qorako‘lchilik sohasi tadqiqotlari masalasiga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazildi. Yig‘ilishda Moskva zootexnika instituti qo‘ychilik kafedrasi xodimlari V.M.Yudin, O.I.Brigis, A.G.Baranovlar ishtirok etib, sohadagi tadqiqotlar haqida umumiy ma’lumotlarni beradi. Asosan tadqiqotlarda qorako‘l qo‘ylari terisining sifati, qorako‘l qo‘zilari terisining tozaligini yaxshilashga kuchli ahamiyat qaratildi[5]. 1930–yili Buxoro qo‘yxonasi asosida hududiy tajriba stansiyasi tashkil etildi. Bu esa sohaga fan yutuqlarini qo‘llash imkonini berib, tadqiqotchi olimlarning cho‘ponlarga amaliy yordamini ta’minladi. Qorako‘lchilik sohasi oldida turgan murakkab masalalar yechimi yagona ilmiy–metodik markaz, ya’ni ixtisoslashtirilgan ilmiy muassasani tuzishni taqozo etdi[6]. Institut qorako‘lchilik naslchilik ishlari markazi, cho‘l va yarim cho‘l hududlarida o‘simliklardan yangi yem–xashaklarni aniqlash bo‘yicha seleksiya ishlari markazi, sohani rivojlantirishning dolzarb muammolari bo‘yicha ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarish bo‘yicha faoliyat ko‘rsatdi. Shuningdek, institut respublikada qorako‘lchilik sohasida olib borilgan tadqiqot ishlarni muvofiqlashtirib bordi. Institut bazasida qorako‘lchilik sohasida konferensiyalar, ko‘rgazmalar va boshqa anjumanlar o‘tkazildi. 1930–yil Kattaqo‘rg‘on qishloq xo‘jaligi stansiyasi qaytadan tashkil etilib, Buxoro hududiy tajriba stansiyasiga aylantirildi. V.A.Petrov mazkur stansiyaning direktori etib tayinlandi. 1934–yili stansiya Samarqand shahriga ko‘chirildi[7]. Butunittifoq qorako‘lchilik ilmiy tadqiqot instituti uzluksiz ravishda davlatning qorako‘lchilikni rivojlantirish tadbirlarida ishtirok etdi. Shuningdek, institut qorako‘lshunoslarni tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarida ham faol ishtirok etdi. Institut xodimlarining tashabbusi bilan Toshkent, Chimkent, Samarqand, Buxoro shaharlarida qorako‘lchilik bo‘yicha 40 dan ziyod ko‘rgazmalar tashkil etildi [8].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, qorako‘lchilik sohasi iqtisodiyotning serdaromad yo‘nalishlaridan biri sifatida davlat e’tiboridagi masalalardan biri bo‘ldi. Shu bois sohani rivojlantirish ishlari amaliyot bilan fan yutuqlarini birgalikda olib borishni talab etdi. Qorako‘lchilik fanidagi dastlabki tadqiqotlar XIX asrdayoq boshlangan. Sovet davrida bu sohadagi ilmiy tadqiqot ishlari markazi O‘zbekiston bo‘ldi. Bunda ayniqsa, Samarqand shahrida faoliyat ko‘rsatgan Butunittifoq qorako‘lchilik ilmiy–tadqiqot institutining o‘rni katta bo‘ldi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. 50–лет Всесоюзному научно–исследовательскому институту каракулеводства (Исторический очерк) – Ташкент: Фан, 1980. – С.7.
2. Ўзбекистон қоракўлчилик ва чўл экологияси илмий–тадқиқот институти жорий архиви. Муассаса кутубхонасида институт тарихига доир сақланаётган маълумотнома папкасидан.
3. Всесоюзный научно–исследовательский институт каракулеводства. – Ташкент: Узбекистан, 1974. – С. 8.
4. Ўзбекистон қоракўлчилик ва чўл экологияси илмий–тадқиқот институти жорий архиви. Муассаса кутубхонасида институт тарихига доир сақланаётган маълумотнома папкасидан.
5. 50–лет Всесоюзному научно–исследовательскому институту каракулеводства (Исторический очерк) – Ташкент: Фан, 1980. – С.7–10.
6. Всесоюзный научно–исследовательский институт каракулеводства. – Ташкент: Узбекистан, 1975. – С. 3–4.
7. Всесоюзный научно–исследовательский институт каракулеводства. – Ташкент: Узбекистан, 1974. – С. 8.
8. Лысов А.М. Краткий обзор достижений Всесоюзного научно–исследовательского института каракулеводства // Каракулеводство и звероводство. – Москва, 1951. – №1. – С. 69–72.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 316.6:101.1

GLOBAL MUAMMOLAR, IJTIMOIY PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY FALSAFANING INTEGRATIV TAHLILI

Xudaynazarov Nuraddin Shavkatovich, Ma'mun universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

https://orcid.org/0009-0009-3826-9308
e-mail: xudaynazarov1987@icloud.com

GLOBAL CHALLENGES IN THE CONTEXT OF AN INTEGRATIVE ANALYSIS OF SOCIAL PSYCHOLOGY AND SOCIAL PHILOSOPHY

Hudaynazarov Nuraddin Shavkatovich, is an associate professor at Mamun University and a Doctor of Philosophy (PhD) in philosophy

ГЛОБАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАТИВНОГО АНАЛИЗА СОЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИИ И СОЦИАЛЬНОЙ ФИЛОСОФИИ

Худайназаров Нураддин Шавкатович, доцент университета Мамун, доктор философии (PhD) по философским наукам

Annotatsiya: Mazkur maqolada XXI asr global muammolari ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy falsafa *integratsiyasi asosida tizimli tahlil qilinadi. Risk ongining shakllanishi, identitet inqirozi, alienatsiya, ijtimoiy adolat muammosi, axborot manipulyatsiyasi va ma'naviy transformatsiya jarayonlari nazariy jihatdan asoslanadi. Tadqiqotda zamonaviy ijtimoiy jarayonlarning psixologik mexanizmlari hamda normativ-falsafiy asoslari uyg'unlikda ko'rib chiqiladi. Global muammolarni hal etishda ong va qadriyatlar tizimini takomillashtirish zarurligi asoslab beriladi[1].*

Kalit so'zlar: *globallashuv, risk jamiyati, kollektiv ong, alienatsiya, ijtimoiy adolat, identitet, axborot manipulyatsiyasi, ma'naviy transformatsiya.*

Abstract: *This article provides a systematic analysis of the global challenges of the XXIst century based on the integration of social psychology and social philosophy. The processes of risk consciousness formation, identity crisis, alienation, social justice issues, information manipulation, and spiritual transformation are theoretically substantiated. The study examines contemporary social processes through the unity of their psychological mechanisms and normative-philosophical foundations. It argues for the necessity of improving systems of consciousness and values in addressing global challenges.*

Keywords: *globalization, risk society, collective consciousness, alienation, social justice, identity, information manipulation, spiritual transformation.*

Аннотация: *В данной статье глобальные проблемы XXI века анализируются на основе интеграции социальной психологии и социальной философии. Теоретически обосновываются процессы формирования риск-сознания, кризиса идентичности, отчуждения, проблемы социальной справедливости, информационной манипуляции и духовной трансформации. В исследовании современные социальные процессы рассматриваются в единстве их психологических механизмов и нормативно-философских оснований. Обосновывается необходимость совершенствования системы сознания и ценностей для решения глобальных проблем.*

Ключевые слова: *глобализация, общество риска, коллективное сознание, отчуждение, социальная справедливость, идентичность, информационная манипуляция, духовная трансформация.*

Kirish. Globallashuv jarayonlari zamonaviy jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy tuzilmasini tubdan o'zgartirdi. Transport va kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi

dunyoni yagona makonga aylantirgan bo‘lsa-da, bu jarayon insoniyat oldida yangi murakkab muammolarni ham yuzaga keltirdi.

Bugungi global muammolar – iqlim o‘zgarishi, migratsiya, ijtimoiy tengsizlik, urushlar, axborot manipulyatsiyasi va ma’naviy inqiroz – inson ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ularni faqat iqtisodiy yoki siyosiy doirada emas, balki ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy falsafa kesishgan nuqtada o‘rganish zarur[3].

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy jamiyatni Ulrich Beck tomonidan ilgari surilgan “risk jamiyati” konsepsiyasi orqali izohlash mumkin. Unga ko‘ra, texnogen va ijtimoiy xavflar insoniyat taraqqiyotining ichki mahsuliga aylangan.

Global muammolar inson ongida doimiy xavotir va noaniqlik hissini kuchaytiradi. Bu esa ijtimoiy ishonchning pasayishi, kollektiv qo‘rquv va ijtimoiy beqarorlikka olib keladi. Shu bois mavzu dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi[4].

Tadqiqot maqsadi va vazifalari:

Maqsad: Global muammolarni ijtimoiy psixologik va ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida kompleks tahlil qilish.

Vazifalar:

A) Global muammolarning nazariy asoslarini aniqlash.
B) Risk ongining shakllanish mexanizmlarini ochib berish.
C) Alienatsiya va identitet inqirozi fenomenini tahlil qilish.
D) Ijtimoiy adolat va tengsizlik masalalarini asoslash.
E) Axborot manipulyatsiyasining ommaviy ongga ta’sirini baholash.

Metodologiya:

Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslanadi:

A) Falsafiy analiz va sintez;
B) Qiyosiy-nazariy tahlil;
C) Ijtimoiy-psixologik interpretatsiya;
D) Diskursiv yondashuv;
E) Interdisiplinar integratsiya.

Tadqiqot nazariy xarakterga ega bo‘lib, konseptual tahlil asosida olib borildi[5].

ASOSIY QISM:

1. Risk ongining shakllanishi va kollektiv xavotir

Zamonaviy jamiyat global xavflar sharoitida yashamoqda. Iqlim o‘zgarishi, pandemiyalar, geosiyosiy ziddiyatlar va iqtisodiy inqirozlar ommaviy ongda barqarorlik hissini zaiflashtirmoqda.

1.1. Risk ongining kuchayishi natijasida:
1.2. Kelajakka ishonchsizlik ortadi;
1.3. Psixologik stress kuchayadi;
1.4. Ijtimoiy birdamlik susayadi.

Bu jarayon ijtimoiy psixologiyada kollektiv xavotir sindromi sifatida talqin qilinadi[7].

2. Alienatsiya va identitet transformatsiyasi

Karl Marks tomonidan asoslangan alienatsiya nazariyasi zamonaviy sharoitda yangi mazmun kasb etmoqda. Raqamli iqtisodiyot va virtual kommunikatsiya insonning ijtimoiy aloqalarini soddalashtirgan bo‘lsa-da, real ijtimoiy yaqinlikni kamaytirmoqda.

Erix Fromm insonning erkinlikdan qochishi va konformizmga moyilligini ijtimoiy xavotir bilan bog‘laydi.

Natijada yoshlar orasida identitet inqirozi, o‘zlikni anglash muammosi va ma’naviy beqarorlik kuchaymoqda.

3. Ijtimoiy adolat va tengsizlik fenomeni

Zamonaviy global iqtisodiyotda resurslarning notekis taqsimlanishi ijtimoiy ziddiyatlarni kuchaytiradi.

Jon Rauls adolatni jamiyat barqarorligining normativ asosi sifatida talqin qiladi.

Ijtimoiy psixologiyada nisbiy mahrumlik nazariyasi mavjud bo‘lib, shaxs o‘zini boshqalar bilan taqqoslaganda adolatsizlikni his qilsa, ijtimoiy norozilik kuchayadi[8].

4. Axborot manipulyatsiyasi va simulyativ reallik

Raqamli makonda axborot tez tarqalmoqda. Bu jarayon bilan birga dezinformatsiya va manipulyatsiya mexanizmlari ham kuchaymoqda.

Jean Baudrillard nazariyasiga ko‘ra, zamonaviy jamiyatda reallik simulyakrlar orqali shakllanadi.

Natijada ommaviy ongda haqiqat va tasvir o‘rtasidagi chegaralar noaniqlashadi, tanqidiy tafakkur zaiflashadi.

5. Ma’naviy transformatsiya va qadriyatlar inqirozi

Globallashuv sharoitida iste’molchilik va individualizm kuchaymoqda. Bu jarayon kollektiv qadriyatlarning zaiflashishiga olib keladi[9].

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, jamiyat barqarorligi ma’naviy birlik va axloqiy tamoyillarga asoslanadi.

Ijtimoiy psixologiya esa empatiya, birdamlik va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish mexanizmlarini o‘rganadi.

Ilmiy yangilik:

- global muammolar ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy falsafa integratsiyasida tizimli asosda tahlil qilindi.
- risk ongining shakllanishi identitet transformatsiyasi bilan o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida asoslandi.
- axborot manipulyatsiyasining ijtimoiy ongga ta’siri nazariy jihatdan izohlandi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati

A) Mazkur tadqiqot natijalari:
B) Oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy fanlarni o‘qitishda;
C) Ma’naviy-ma’rifiy dasturlar ishlab chiqishda;
D) Axborot xavfsizligi siyosatini takomillashtirishda;

Yoshlar bilan ishlash strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin[10].

Xulosa. Global muammolar XXI asr jamiyatida nafaqat tashqi, balki ichki inqiroz sifatida namoyon bo‘lmoqda, bu esa shaxs ongining psixologik va ma’naviy qatlamiga bevosita ta’sir qiladi. Zamonaviy dunyoda ijtimoiy psixologik omillar, jumladan, risk ongining shakllanishi, kollektiv xavotir, identitet inqirozi va alienatsiya, shuningdek, ijtimoiy-falsafiy tamoyillar – adolat, axloqiy qadriyatlar va normativ me’yorlar, global muammolarni tushunish va hal etishda integratsion ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, global xavflar doimiy stress va psixologik beqarorlikni kuchaytiradi, bu esa jamiyatdagi ishonch darajasini pasaytiradi va kollektiv ongda xavotirni kuchaytiradi[2]. Raqamli makon va globallashuv sharoitida shaxsning real ijtimoiy aloqalardan ajralishi identitet inqirozi va ma’naviy beqarorlikni yanada kuchaytiradi. Resurslarning notekis taqsimlanishi va adolatsizlik hissi jamiyatdagi ziddiyatlarni kuchaytiradi, axborot manipulyatsiyasi esa tanqidiy tafakkur va haqiqatni idrok etish imkoniyatini cheklaydi. Shu sababli global muammolarni hal etishda inson ongining psixologik va ma’naviy yangilanishi, ijtimoiy qadriyatlar tizimining mustahkamligi va tanqidiy tafakkur asosiy shart hisoblanadi[1]. Ularni bartaraf etish strategiyasi jamiyatning psixologik barqarorligini oshirish, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, ijtimoiy adolatni ta’minlash, raqamli madaniyatni rivojlantirish va yoshlar hamda jamiyatning turli guruhlarida ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishni o‘z ichiga oladi. Shu tarzda global muammolarni ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy falsafa integratsiyasi nuqtai nazaridan tushunish, ularni hal etishda konseptual va amaliy yo‘nalishlarni aniqlashga imkon beradi. Shunday qilib, global muammolarni bartaraf etish institutsional islohotlar bilan bir qatorda inson ongining ma’naviy-psixologik yangilanishini ham talab etadi[6].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev, Shavkat. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Erkaev, Abdugani. Ma’naviyat falsafasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
3. Yuldashev, Sa’dulla. Globallashuv va ma’naviyat. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
4. Tulenov, Jo‘ra. Falsafa asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2006.
5. Saidov, Akmal. Inson huquqlari nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2013.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Ijtimoiy fanlarni rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2020.
7. Beck, U. Risk Society: Towards a New Modernity. – London: Sage, 1992
8. Marx, K. Economic and Philosophic Manuscripts of 1844. – Moscow: Progress Publishers, 1978.
9. Fromm, E. Escape from Freedom. – New York: Farrar & Rinehart, 1941.
10. Rawls, J. A Theory of Justice. – Cambridge: Harvard University Press, 1971.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 801.85:97.25

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA BADIIY ADABIYOTDA QISQARTMALARDAN FOYDALANISHNING PRAGMATIK JIHATI

Salomova Gavhar Abdinazarovna, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

THE PRAGMATIC ASPECT OF USING ABBREVIATIONS IN LITERARY TEXTS IN ENGLISH AND UZBEK

Salomova Gavhar Abdinazarovna, Associate Professor at Termez University of Economics and Service, PhD in Philology

ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОКРАЩЕНИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Саломова Гавхар Абдиназаровна, доцент Термезского университета экономики и сервиса, доктор философии (PhD) по филологическим наукам

e-mail: gavhar.salomova@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-2704-1839

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida badiiy adabiyotda qisqartmalardan foydalanishning pragmatik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda qisqartmalarning (abbreviatsiya, akronim, initsializm va boshqa shakllar) matndagi funksional yuklamasi, ularning kommunikativ maqsadni amalga oshirishdagi o‘rni hamda muallif uslubini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Ingliz va o‘zbek badiiy matnlaridan olingan misollar asosida qisqartmalarning personaj nutqini individuallashtirish, zamonaviylik va ijtimoiy muhitni ifodalash, matn ixchamligini ta’minlash kabi pragmatik vazifalari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *termin, qisqartma, tarjima, ekvivalentlik, ilmiy matn, ingliz tili, o‘zbek tili.*

Abstract: *In this article, the pragmatic aspects of the use of abbreviations in English and Uzbek fiction are analyzed. The study examines the functional load of abbreviations (such as abbreviations, acronyms, initialisms, and other forms) within the text, their role in achieving communicative goals, and their significance in shaping the author’s individual style. Based on examples drawn from English and Uzbek literary texts, the pragmatic functions of abbreviations – such as individualizing characters’ speech, conveying modernity and social context, and ensuring textual conciseness – are explored.*

Key words: *term, abbreviation, translation, equivalence, scientific text, English, Uzbek.*

Аннотация: *В данной статье анализируются прагматические аспекты использования сокращений в художественной литературе на английском и узбекском языках. В исследовании рассматривается функциональная нагрузка сокращений (аббревиатур, акронимов, инициализмов и других форм) в тексте, их роль в реализации коммуникативных целей, а также значение в формировании индивидуального авторского стиля. На основе примеров из английских и узбекских художественных текстов изучаются такие прагматические функции сокращений, как индивидуализация речи персонажей, выражение современности и социального контекста, а также обеспечение лаконичности текста.*

Ключевые слова: *термин, аббревиатура, перевод, эквивалентность, научный текст, английский, узбекский.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION). Shoir va yozuvchilar tildagi leksikani boyitish uchun xizmat qiluvchi kishilar hisoblanadi. So‘z yaratishga murojaat etishning asosiy sababi ifodaning yangiligiga, yangicha va kutilmagan so‘z obraziga intilishdir. XX asr oxiri – XXI asr boshidagi zamonaviy badiiy adabiyot tilida ham zamonaviy ingliz tiliga xos jarayonlar sodir bo‘lmoqda: so‘z yasalishi yaqqol antropotsentrik xarakterga ega, yangi so‘zlar orasida shaxs nomlari katta o‘rin tutadi; asos sifatida ham faol ravishda shaxs nomlari qo‘llaniladi, baholash va miqdoriy ma’nolarning rolining ortishi, kommunikatsiyaning markaziy sohalariga periferiya hodisalarining (turli xil pasaytirilgan leksika — so‘zlashuv, oddiy xalq tili, jargon) faol kirib kelishi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДЫ/ LITERATURE REVIEW AND METHODS). V. G. Kostomarov «Davrning til didi» kitobida shunday deydi: «Bugun 40–50-yillar prozasiga nisbatan tadqiqotchilar qayd etgan jarayon yanada kuchaydi: zamonaviy badiiy adabiyotga asosiy ifoda vositasi sifatida pasaytirilgan – so‘zlashuv uslubi oqimi, istehzoga yoki shubhalarga boy bo‘lgan oddiy kundalik tez aytiladigan iboralar, yoshlar jargoniga xos bo‘lgan so‘zlashuv shakllari kuchli oqim bilan kirib keldi... Hozirgi badiiy adabiyotda dialekt, jargon, oddiy xalq tili va boshqa adabiy bo‘lmagan so‘zlar, hissiy munosabatni ifodalovchi yorqin iboralar ulushi yanada keskin ortdi, hatto muallifning o‘z hikoyasida ham» [1]. Qisqartmalarning mazkur jarayonlarda qanday rol o‘ynashini, ularning badiiy asarda qanday ishlash xususiyatlarini, matn to‘qimasiga qanday qo‘shilib ketishini, ularning ekspressiv va uslubiy funksiyasi qanday namoyon bo‘lishini kuzatish qiziqarli, chunki badiiy asar — bu o‘z qonunlariga ega bo‘lgan alohida bir olamdir; unda so‘z yaratish imkoniyatlari cheksiz va ko‘p narsa muallifning o‘ziga bog‘liq. Qisqartmalardan foydalanish badiiy adabiyotda ma’lum an’analarga ega.

O‘zbek adabiyotida qisqartmalar ko‘proq XX asrning ikkinchi yarmi va hozirgi davr matbuoti hamda badiiy asarlarida faol ishlatila boshlagan. Ayniqsa, sovet davrida davlat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, ijtimoiy tashkilotlar va turli sohalar nomlari qisqartma shaklida berilgan. Bular adabiy matnlarda ham o‘z aksini topgan. Misol uchun, *Oybekning “Mukammal asarlar” to‘plamida keltirilgan Maxmatmurod ismi Mamat ismi* bilan qisqartirilishi yaqqol misol bo‘la oladi. Yana bir misol, Cho‘lpon, Oybek, G‘afur G‘ulom kabi yozuvchilarning publitsistik asarlarida sovet davridagi qisqartmalar. Masalan, *Komsomol, Sovet, VKP(b), O‘Zssr* ko‘p uchraydi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/ DISCUSSION). Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarida qisqartmalar juda kam uchraydi, biroq ba’zi joylarda ular davr ruhini, ijtimoiy-siyosiy muhitni va real hayot tafsilotlarini ifodalash uchun ishlatilgan. Quyida asardan yoki unga xos bo‘lgan uslubdagi qisqartmalarga oid namunalar keltiriladi:

“Otamdan qolgan dalalar” asaridagi qisqartmalar tahlili

№	Qisqartma	To‘liq shakli	Ma’nosi / Izohi	Asardagi funksiyasi
1	**SSSR**	*Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi*	Sobiq sovet davlati nomi	Tarixiy fon, davr ruhi, siyosiy bosimni ifodalash
2	**KGB**	*Komitet Gosudarstvennoy Bezopasnosti* (Davlat xavfsizlik qo‘mitasi)	Nazorat, qo‘rquv va sovet totalitar tizimining belgisi	Ekspressiv va xarakterologik funksiya: qo‘rquv muhitini yaratish
3	**KPSS**	*Kommunisticheskaya Partiya Sovetskogo Soyuza*	Sovet kommunistik partiyasi	Mafkuraviy tizimni ifodalash, hokimiyat tazyiqini ko‘rsatish
4	**kolxoz**	*Kollektiv xo‘jalik*	Davrda mavjud bo‘lgan jamoa xo‘jaligi	Qishloq hayoti, mehnat va iqtisodiy tizimni ifodalash

№	Qisqartma	To‘liq shakli	Ma’nosi / Izohi	Asardagi funksiyasi
5	**sovxoz**	*Sovet xo‘jaligi*	Davlatga tegishli xo‘jalik turi	Iqtisodiy muhit, mehnatni tashkil etish shakli
6	**OBLONO**	Областной отдел народного образования (Viloyat xalq ta’limi bo‘limi)	Rasmiy tashkilot nomi	Rasmiy, byurokratik muhitni tasvirlash

Tog‘ay Murod asarida qisqartmalar faqat lingvistik emas, balki badiiy-pragmatik ahamiyatga ega [3]. Ular:

Matnga realistik ruh beradi;

Davr mafkurasi va ijtimoiy tizimining belgisi sifatida ishlatiladi;

Qahramonlar ongidagi davlat, tartib, qo‘rquv, mehnat tushunchalarini ifodalaydi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Zamonaviy badiiy adabiyot bugungi kun haqiqatlarini aks ettiradi. Unda mualliflar tomonidan qisqartmalardan foydalanishda ilgari kuzatilgan keskin satirik yoki siyosiy yo‘nalish endi mavjud emas. Hozirda qisqartmalar ayrim adabiyot janrlarida — asosan detektiv, fantastika va mistika asarlarida — matn va uslubni shakllantiruvchi mashhur unsurlardan biriga aylanmoqda. Odatda qisqartmalar izoh yoki kengaytmani talab qilmaydi; masalan, bunday qisqartmalarga quyidagilar kiradi. Cho‘lpon, Oybek, G‘afur G‘ulom kabi yozuvchilarning publitsistik asarlarida sovet davridagi qisqartmalar (masalan, ***Komsomol***, ***Sovet***, ***VKP***, ***O‘zSSR***) ko‘p uchraydi [4]. O‘tkir Hoshimov, Tog‘ay Murod, Said Ahmadning keyingi davr asarlarida ham ijtimoiy hayotga oid qisqartmalar qo‘llanadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, ingliz badiiy adabiyotidagi qisqartmalar uchta asosiy funksiyani bajaradi:

Kompressiv funksiya (Til iqtisodiyligi): NASA, BBC, FBI yoki CEO kabi qisqartmalar uzun nomlarning o‘rnini bosib, matnni ixcham va tabiiy qiladi. Misol: “U nafaqaga chiqishdan avval NASAda ishlagan.” (Endi Veyr, The Martian) [5].

Ekspressiv funksiya (Hissiy kuchaytirish): OMG, ASAP, FYI kabi norasmiy qisqartmalar dialogda his-tuyg‘u, kinoya yoki spontanlikni ifodalaydi. Misol: “OMG, bu hazil emas-ku!” (Helen Filding, Bridget Jones’s Diary) [5].

Xarakterologik funksiya (Ijtimoiy va madaniy belgilarni ifodalash): Ayrim qisqartmalar qahramonning kasbi, ijtimoiy mavqei yoki dunyoqarashini bildiradi. Pragmatik nuqtayi nazardan, qisqartmalar indeks belgilari sifatida harakat qiladi — ya’ni ular muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi umumiy madaniy bilimni eslatadigan lingvistik ko‘rsatkichlardir. Masalan, *CIA* yoki *BBC* nomlari tilga olinganda, darhol muayyan ijtimoiy institutlar va madaniy assotsiatsiyalarni esga soladi [6].

XULOSA (ВЫВОДЫ/ CONCLUSION). Ingliz badiiy adabiyotidagi qisqartmalar shunchaki lingvistik ixcham shakllar emas; ular zamonaviylikning semiotik ko‘rsatkichlari**,** qahramonlarni xarakterlash vositalari va uslubiy ifoda vositalari hisoblanadi. Ularning mavjudligi badiiy adabiyotning zamonaviy kommunikatsiya dinamikasiga qanday integratsiyalashganini ko‘rsatadi, bu esa til iqtisodiyligi va madaniy identifikatsiyani bir vaqtning o‘zida aks ettiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ/ REFERENCES)

1. Salomova G. A. Ingliz va o‘zbek tillarida qisqartma so‘zlarining chog‘ishtirma tadqiqi. F.f.f.d.(PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2023.
2. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge, 2011.
3. Newmark P. A Textbook of Translation. Prentice Hall, 1988.
4. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press, 2003.
5. Krongauz M. A. Семантическая типология: время и пространство. Москва, 2001.
6. Rahmonov M. Lingvistik terminlarning o‘zbek tiliga o‘tish jarayonida ma’no transformatsiyasi. Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2018.
7. Васильченко А. В. Термин и аббревиатура в научном стиле речи. Москва, 2010.

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 930.26(67/68.621.7/9)

ХИВА ХОНЛИГИ АРХИВИ ҲУЖЖАТЛАРИ ҚЎНҒИРОТЛАР СУЛОЛАСИ ХОНЛАРИ БОШҚАРУВИ ДАВРИНИ ЎРГАНИШ УЧУН НОЁБ ИЛМИЙ МАНБА

Матякубов Шоназар Собирович, Хоразм Маъмун академияси катта илмий ходими, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

https://orcid.org/0009-0003-0888-2941
shonazarmatyoqubovv@gmail.com

ARCHIVE DOCUMENTS OF THE KHIVA KHANATE ARE A UNIQUE SCIENTIFIC SOURCE FOR STUDYING THE PERIOD OF THE RULE OF THE KHANS OF THE KUNGUROT DYNASTY

Matyakubov Shonazar Sobirovich, Senior Researcher of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)

АРХИВНЫЕ ДОКУМЕНТЫ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА УНИКАЛЬНЫЕ НАУЧНЫЕ ИСТОЧНИКИ ДЛЯ ИЗУЧЕНИЯ ПЕРИОДА ПРАВЛЕНИЯ ХАНОВ ДИНАСТИИ КУНГРАДОВ

Матякубов Шоназар Собирович, старший научный сотрудник Хорезмской академии Мамуна, доктор исторических наук (PhD)

Аннотация: *Мақолада муаллиф Хива хонлиги архиви ҳужжатлари Қўнғиротлар сулоласи даврини ўрганиш учун ноёб илмий манба эканлиги ҳақида маълумотлар бериб ўтади.*

Калит сўзлар: *Ўрта Осиё, Хива, Қўнғиротлар сулоласи, Хива хонлари архиви, А.Л.Кун, М.Ю.Баёний, В.В.Бартольд, М.И.Иванин, М.М.Йўлдошев, қўлёзмалар, мансаб, амалдор, меҳтар, қўшбеги, девонбеги, ер эгалари.*

Аннотация: *В статье автор приводит информацию о том,что документы архивов Хивинского ханства является уникальным научным источником для изучения периода правление ханов Кунградской династии.*

Ключевые слова: *Средняя Азия, Хива, династия Кунградов, архив Хивинских ханов, А.Л.Кун, М.Ю.Баёний, В.В.Бартольд, М.И.Иванин, М.М.Йулдашев, рукописи, должность, чиновник, мехтер, деванбеги, землевладельцы.*

Abstract: *In the article, the author provides information that the documents from the archives of the Khiva Khanate are a unique scientific source for studying the period of the reign of the khans of the Kungrad dynasty.*

Keywords: *Central Asia, Khiva, Kungrad dynasty, archive of the Khiva khans, A.L.Kun, M.Yu.Bayeniy, V.V.Bartold, M.I.Ivanin, M.M.Yuldashev, manuscripts, position, official, mekhter, devanbegs, landowners.*

КИРИШ. Ўрта Осиёда вужудга келган йирик феодал давлатлардан биттаси, шубҳасиз, Хива хонлиги эди. Рус армияси генерали, ҳарбий тарихчи ва географи П.П.Иванов Ленинграддаги М.Е.Салтиков-Шчедрин номидаги Давлат кутубхонасининг

қўлёзмалари бўлимидан 1936 йилда XIX асрдаги Қўнғиротлар сулоласи давридаги Хива хонларининг архивини топишга муваффақ бўлди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ. Рус қўшинлари томонидан 1873 йилда Хива босиб олинганида хон саройидан мусодара қилиниб, орадан кўп вақт ўтмай, Петербургга келтирилган ва шундан кейин унутилиб юборилган Хива хонлиги архиви материаллари топилганлиги натижасида Хива хонлиги тарихини ўрганиш учун имкон берадиган бирламчи илмий манбага эга бўлинди. Орадан тўрт йил вақт ўтиб, 1940 йилда П.П.Ивановнинг "XIX аср Хива хонлари архиви" деб номланган архив ҳужжатларига асосланган асари академик И.Ю.Крачковский томонидан ёзилган сўзбоши билан Ленинград Давлат кутубхонаси босмахонасида чоп этилди. 1959 йилда Хива хонлари архив ҳужжатларига асосланиб, Ўзбекистон Фанлар академияси мухбир аъзоси, тарих фанлари доктори М.Йўлдошев томонидан "Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши" деб номланган асар иқтисод фанлари доктори О.М.Аминов таҳрири остида Академик Ҳ.Сулаймонова сўз боши билан Тошкентда ЎЗДАВНАШР томонидан нашр этилди. Бу китоб ҳақида ўз сўзида Академик Ҳ.Сулаймонова қуйидаги фикрларни билдиради: "П.П.Иванов ва М.Йўлдошевларнинг Хива хонлари архиви устида олиб борган тадқиқотлари натижасида Шарқ халқлари ҳаётидаги бутун бир тарихий даврни янгича ёритишга муваффақ бўлинди"[1].

XIX асрда Хива хонлиги архиви турли-туман ҳужжатлардан иборат жами ўн бир минг варақдан иборат ноёб коллекция ҳисобланади. Хива хонлари архивида Хива хонлигидаги маъмурий, ҳарбий, суд, сарой лавозимларининг ҳамма хиллари ва исмлари, уларнинг вазифалари ва мавқелари кўрсатилган, асосий мансабларда ишлаётган амалдорларнинг кимлар эканлиги номма-ном берилган.

В.В.Бартольднинг ёзишича: "Бу вақтгача яъни Хива хонларининг архиви топилгунга қадар, ҳужжатларнинг бир категорияси – вақфномалар деб аталган ҳужжатларгина тадқиқот материали бўлиб келди, шунда ҳам биргина Самарқанд ҳудудидаги вақфномалар ва фақат шу вақфномалардаги тарихий-географик материалларгина текширилди ва тадқиқ қилинди"[2].

Рус профессори Н.И.Веселовский 1877 йилда ёзган ўзининг "Хива хонлигининг қадимдан бугунги кунларгача бўлган тарихий-географик маълумотлари очерки" асарини Хива хонлиги тарихига доир энг муҳим ва тўлиқ асар дейиш мумкин. Аммо бу асар ҳам асосан Европалик сайёҳларнинг маълумотлари асосида ёзилган бўлиб, авторнинг ўзи бирламчи манбалардан хабардор бўлмаган. Бартольднинг фикрига қараганда эса "Н.И.Веселовский Хива тарихини ёзаётган вақтда ҳатто Мунис ва Огаҳийнинг катта тарихий солномаларидан фойдаланмаган, ваҳоланки бу тарихий асарларнинг мавжудлигидан хабардор эди"[3].

Архив ҳужжатлари ва материаллари барча ёзма манбалар орасида энг ишончли ва мазмундор асослар эканлиги боис, тарихий тадқиқотлар учун муҳим замин ҳисобланади.

МУҲОКАМА. Хива хонларининг архиви мавжудлиги фан оламига маълум эди. Хоразм худудида археологик қазишмалар олиб борган рус археолог олими В.В.Бартольд бу архивни Хиванинг ўзида, Ўрта Осиё, шунингдек пойтахтдаги архив ҳужжатлар сақланадиган муассасаларда неча марталаб қидирган бўлса ҳам бирор натижа чиқара олмаган эди. В.В.Бартольднинг фикрича, бундай ҳужжатлар ва материалларнинг йўқлиги Ўрта Осиё, жумладан Хива хонлиги тарихини ишлашга катта тўсқинлик қилар эди. XIX аср Хива хонлари архиви топилганлиги ҳақиқатан ҳам ғоят қимматли бирламчи манба бўлиб хизмат қилади. Бу архив шубҳасиз нафақат Хива хонлиги, шунингдек Ўрта осиё тарихини, ҳатто бутун Яқин Шарқ тарихини ўрганувчи тарихшунослар ихтиёридаги шарқ хонликларига доир биринчи ва бирдан-бир тўлиқ ҳолда сақланган Давлат архиви ҳисобланади. Архив ҳужжатларидаги мавжуд турли рўйхат ва материалларда зикр қилинган амалдорлар ва уларнинг шажараси, уларнинг унвон ва мансаблари билан мукаммал танишиш, Хивадаги маъмурий бошқарув идораси тузилишини тиклаш билан бирга давлатнинг ривожланиш жараёнларини ўрганиш учун ҳам катта аҳамиятга эгадир. Хива

хонлигига доир архив материалларининг Огаҳий ва Баёний тарихий асарларидаги маълумотлар билан таққослаб, катта ва кичик мансабларнинг мерос тариқасида отадан болага ўтганлигини аниқлаш мумкин. Шунингдек, ушбу йўл билан амалдорларнинг номларини аниқлаш ва уларнинг таржимаи ҳолига доир янги маълумотлар топиш мумкин.

XIX асрда Хива хонлигининг давлат ва маъмурий тузилиши ҳамда ундаги ер эгалиги муносабатлари юқорида таъкидланган Хива хонларининг рус босқинчилари томонидан 1873 йилда олиб кетилган архивлари топилгунга қадар ҳатто мансаб эгаларининг кимлар эканлиги номаълум ҳолга келиб қолган эди. Хивада мусодара қилинган қўлёзмалар сони тўғрисида рус қўшинлари таркибида Хивага келган ўзбек, форс ва араб тилларини мукаммал билган рус олими А.Л.Кун ўзининг ўз давлатига топширган маъруза-маълумотномасида қуйидаги маълумотларни тақдим этган: “Хива экспедицияси вақтида мен қуйидаги илмий материалларни тўпладим. Хон саройини мусодара қилиш вақтида шарқ қўлёзмаларидан иборат 300 китоб тўпланди, шулардан 129таси сарлавҳалик 140 томдан иборат тарихий қўлёзмалар, 30 томдан иборат шарқ шоирларининг девонлари, 50 томдан иборат 40та ҳуқуқий ва диний асарлардир. Бундан ташқари 18та Қуръон ва 50та дарс китоблари ҳам тўпланди. Хива хонлари тарихчиси Баёний ҳам руслар Хива хон саройини мусодара қилганларидан 300та китобни олиб кетганликларини қайд этиб ўтади”[4]. Куннинг докладномасида яна бундай дейилади: “Хон саройи мусодара қилинганда, қўлёзмалар билан биргаликда бошқа ҳужжатлар ҳам тўпланди. Мазкур ҳужжатларни икки гуруҳга бўлиш мумкин: биринчи гуруҳга хонликнинг даромадлари ва харажатларига доир дафтарлар ҳамда бир қанча вақф ва мулк ҳужжатлари, иккинчи гуруҳга хатлар ва дипломатик ёзишмаларни киритиш мумкин. Дафтарлар орасида пул солиқларига доир ёзувлар, закот дафтарлари ва Матмурод девонбегининг хон харажатлари тўғрисидаги ҳисоботлар бор. Сўнгра яна шу ҳужжатлар орасида Бухорода, Ғазолида, Истамбулда ва бошқа жойларда савдо-сотиқ ишлари билан шуғулланиб юрган хивалик савдогарларнинг хонга юборган илтимосномалари, низоларни ҳал қилиб бериш тўғрисида ёзилган имкониятномалар, бирор мансаб бериш тўғрисидаги илтимосномалар ва бошқа ҳужжатлар бор. Дипломатик ҳужжатлар орасида Ост-Индия Генерал губернатори Нарсбруқнинг хати, Туркия султонининг хатлари ва фармонлари, рус элчиси подполковник Данилевский билан Хива хони ўртасида тузилган аҳднома ҳам, шунингдек Туркистон Генерал губернатори томонидан хонга юборилган бир нечта мактублар ҳам бор”[5].

Бу ҳужжатларнинг олиб кетилиши натижасида узоқ йиллар давомида Хива хонлигининг давлат тузилиши ёритилиши бир ёқда турсин, балки бузиб, чалкаш ва нохолис талқин қилиб юборилган ва кўпол хатоларга йўл қўйилган эди. 1873 йилда Хива хонининг саройи мусодара қилингандан кейин ундаги қўлёзма ва архив ҳужжатлари Тошкентга келтирилган. Хива босқинида рус қўшинлари таркибида борган шарқшунос олим А.Л.Кун бу архив ҳужжатлар мазмуни билан танишади ва Халқ кутубхонасига, Фанлар академияси Осиё музейига ҳамда бошқа муассасаларга ўзи юбормоқчи бўлган хатларнинг лойиҳасини илова қилиб, Туркистан генерал губернатори Кауфманга докладнома тақдим этади. Баёний ўз тарихий асарида архив ҳужжатлари тўғрисида махсус сўз очмаса-да, аммо руслар олиб кетган ҳужжатлар орасида Англиядан келган хат борлигини қайд этиб ўтади[6].

НАТИЖАЛАР. Хива архиви ҳужжатларидаги ғоят аниқ статистик маълумотларни ўрганиш шуни кўрсатадики, ҳақиқатда Хива хонлигидаги ерларнинг ўндан биридан ҳам камроғи майда ер эгаларининг қўлида бўлган, экишга яроқли ерларнинг еттидан бир қисми эса давлатга қарашли ерлар бўлган. Аммо барча ерларнинг учдан икки қисмидан ҳам кўпроғи катта ер эгалари қўлида эканлиги маълум бўлди.

Архив ҳужжатларида кўрсатилишича, ҳар бир амалдорнинг вазифаси қатъий белгилаб қўйилган, амалдорлар кўпчилиги ҳокимият тепасида турган энг катта ер эгалари ва хон оиласи билан қариндошчилиги бўлиб, уларнинг манфаатлари кўриқланар эди. Хонликда жуда кўп миқдорда мансаблар бўлиб,

улар ҳар йили маълум миқдорда маош олиб туришган. Бу маошлар албатта мансаб ва вазифасига қараб белгиланар эди. Юқори мансаб эгаларига хоннинг ўзи маош белгилар, қуйи мансабларга эса қўшбеги, меҳтар ва девонбегилар белгилар эди. Рус элчиси Данилевскийнинг таъкидлашича Хива хонлигида икки мингга яқин амалдор ва руҳонийлар оиласи мавжуд бўлган.

Хива хонлигида бу давр, яъни XIX аср охирларига келиб, 140 мингта хонадон бўлиб, ҳар бир оилада ўртача беш кишидан бўлган деб ҳисобланса, Хива хонлигининг аҳолиси 700 минг кишига етади. Бунинг устига мавжуд қулларни ҳам қўшиб ҳисобласа умумҳисобда хонлик худудида яшовчиларнинг умумий сони 800 мингтага етади. Хива шаҳар аҳолиси сони 50 мингдан иборат бўлиб, уларнинг 25 мингтаси шаҳарда яшар эди.

ХУЛОСА қилиб айтганда, XIX асрдаги Хива хонлари архивидаги кўпгина ҳужжатларнинг мундарижасини биринчи бўлиб 1940 йилда эълон қилган П.А.Иванов, шунингдек ушбу архив ҳужжатлари асосида 1959 йилда чоп этилган М.Йўлдошевнинг “Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши” асари шарқшуносларга, Хива хонлиги тарихи билан шуғулланаётган илмий тадқиқотчиларга Хива хонлигининг ҳақиқий тарихини очиб кўрсатишга катта имконият яратиб беради. Шунингдек, архивдаги турли рўйхат ва ҳужжатларда зикр этилган амалдорлар шажараси уларнинг унвон ва мансаблари билан мукаммал танишиш ўша давр Хива хонлиги маъмурий идораси тузилишини тиклаш ва Хива хонлигининг ривожланиш жараёнини илмий жиҳатдан ўрганиш учун ҳам катта аҳамиятга эгадир.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. М.Йўлдошев. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. ЎЗДАВНАШР.Тошкент,1959. 3-бет.
2. В.В.Бартольд. Хранение документов в странах мусульманского Востока. В.Сб. Архивные курсы. Петроград,1920. 380-381 стр.
3. В.В.Бартольд. Веселовский Н.И. как исследователь Востока и истории русской науки. ЗБСРАО. XXV том 333-335 стр.
4. ИВ.АН.АИ. фонд 33 п.16.
5. Баёний. Хоразм тарихи. Қўлёзма. 459-бет.
6. Ўша жойда.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UO'K:94(575.1)"1991/2025"

MUSTAQILLIK YILLARIDA ANDIJON, NAMANGAN, FARG'ONA VILOYATLARIDA YOSHLAR TARKIBI VA DEMOGRAFIK KO'RSATKICHLAR TAHLILI

Kurbanov Ravshan Raimjonovich,
TDYU huzuridagi Namangan viloyat akademik litseyi o'qituvchisi

behruzbek6867@gmail.com

ANALYSIS OF THE YOUTH COMPOSITION AND DEMOGRAPHIC INDICATORS IN ANDIJAN, NAMANGAN, AND FERGANA REGIONS DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Kurbanov Ravshan Raimjonovich, teacher at the Namangan Regional Academic Lyceum under Tashkent State University of Law

АНАЛИЗ СОСТАВА МОЛОДЁЖИ И ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ В АНДИЖАНСКОЙ, НАМАНГАНСКОЙ И ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТЯХ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Курбанов Равшан Раимжонович, преподаватель Наманганского областного академического лицея при Ташкентском государственном юридическом университете

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Andijon viloyati, Namangan viloyati va Farg'ona viloyati hududlarida yoshlar tarkibi hamda demografik ko'rsatkichlarning dinamikasi kompleks statistik-qiyosiy tahlil asosida o'rganilgan. Shuningdek, demografik o'zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, mehnat bozori va inson kapitali shakllanishi bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilinib, Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida demografik jarayonlarning barqaror rivojlanishga ta'siri yuzasidan xulosalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *yoshlar demografiyasi, shaharlashuv va migratsiya, demografik dividend, inson kapitali, ijtimoiy xizmatlar va strategik resurslar*

Abstract: *This article examines the dynamics of youth structure and demographic indicators during the years of independence in the Andijan, Namangan, and Fergana regions of the Republic of Uzbekistan, based on a comprehensive statistical and comparative analysis. Particular attention is devoted to identifying the interrelationship between demographic changes and processes of socio-economic development, labor market functioning, and human capital formation. Drawing on evidence from the regions of the Fergana Valley, the study substantiates conclusions regarding the impact of demographic processes on ensuring sustainable regional development.*

Key words: *youth demography, urbanization and migration, demographic dividend, human capital, social services and strategic resources.*

Аннотация: *В данной статье на основе комплексного статистико-сравнительного анализа исследована динамика структуры молодежи и демографических показателей в годы независимости в Андижанской, Наманганской и Ферганской областях Республики Узбекистан.*

Особое внимание уделено выявлению взаимосвязи демографических изменений с процессами социально-экономического развития, функционированием рынка труда и формированием человеческого капитала. На примере областей Ферганской долины обоснованы выводы о влиянии демографических процессов на обеспечение устойчивого развития региона.

Ключевые слова: *Молодежная демография, урбанизация и миграция, демографический дивиденд, человеческий капитал, социальные услуги и стратегические ресурсы.*

Kirish. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida yoshlar jamiyatning eng faol va strategik qatlamiga aylandi. Ular innovatsion fikrlashi, tashabbuskorligi va zamonaviy texnologiyalarni tez o‘zlashtirishi bilan ajralib turadi. Yoshlar ta’lim, kasb-hunar, tadbirkorlik va ijtimoiy faollik yo‘nalishlarida keng imkoniyatlarga ega. Aholining 60% dan ortig‘ini yoshlar tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mustaqillik yillarida O‘zbekiston hududida, xususan Farg‘ona vodiysi viloyatlarida yoshlar tarkibi va demografik jarayonlarning dinamikasi turli ilmiy yo‘nalishlar kesimida o‘rganilgan. Demografik rivojlanish, migratsiya jarayonlari, urbanizatsiya hamda mehnat bozori bilan bog‘liq omillar yoshlar tarkibining shakllanishida muhim omil sifatida talqin etiladi. Tadqiqotchilar tomonidan hududiy demografik ko‘rsatkichlarning o‘zgarishlari asosan statistika ma’lumotlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari hamda aholining tabiiy o‘sishi bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilingan. Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlarda Farg‘ona vodiysi viloyatlarida yoshlar tarkibining hududiy xususiyatlari va demografik jarayonlarning o‘zaro ta’siri kompleks va qiyosiy tahlil asosida yetarli darajada tadqiq etilmaganligi mazkur masalaning ilmiy dolzarbligini yanada oshiradi.

Muhokama. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, yoshlar Yangi O‘zbekiston bunyodkorlaridir. Yoshlar demografiyasi ularning soni, ulushi, hududiy joylashuvi, jinsi, ta’lim va bandlik darajasini o‘rganadi. Yoshlar ulushi yuqori jamiyatlarda mehnat resurslari va iqtisodiy o‘sish imkoniyatlari keng bo‘ladi, aks holda aholi qarishi muammosi yuzaga keladi.

O‘zbekistonda yoshlar 14–30 yosh etib belgilanadi. Rossiya va MDH davlatlarida ham shu mezon qo‘llanadi. Xitoyda esa yoshlar 14–35 yosh oralig‘ida hisoblanadi. Yevropa va AQShda yosh chegarasi 13–30 yoki 14–29 yosh bo‘lib, ko‘plab davlatlarda aholining qarishi umumiy tendensiya sifatida kuzatilmoqda.

O‘zbekistonda demografik holat barqaror o‘sish va yoshlar ulushining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

O‘zbekiston “yosh aholi”ga ega davlatlar qatoriga kiradi, bunda:

– aholi asosini bolalar va yoshlar tashkil qiladi;

– mehnat resurslari salohiyati yuqori;

– kelajakda iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari katta.

Shu bois yoshlar ulushi ta’lim, bandlik va uy-joy masalalariga alohida e’tibor qaratishni talab qiladi.O‘zbekiston aholisining bir qismi shaharlarda, bir qismi qishloq joylarda yashaydi. 1991-2005 yillarda O‘zbekiston aholisining 40 foizi shaharlarda va 60 foizi qishloqlarda istiqomat qilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib O‘zbekiston aholisining 51 foizi shaharlarda va 49 foizi qishloqlarda istiqomat qilmoqda[1]. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda urbanizatsiya jarayoni kuchaymoqda. Natijada mamlakatdagi yirik shaharlarga ichki migratsiya ortib bormoqda. Shuningdek, shaharlarda sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalari jadal rivojlanmoqda.

O‘zbekistonda aholi soni 1991-yilda 20 mln. 857,0 ming. kishidan 2025-yilda 38 mln. 232,2 ming. kishiga ko‘paydi [2].

Aholi sonining o‘sish dinamikasi (1-jadval**)**

1991	1995	2000	2005	2008	2011	2015	2020	2024	2025
20 mln 857,0 ming.	22 mln 684,0 ming.	24 mln 650,4 ming.	26 mln 167,0 ming.	27 mln 302,7 ming.	28,5 mln.,	31 mln 022,5 ming.	33 mln 905,800 ming.	37 mln 134,2 ming.	38 mln 232,2 ming.

O‘zbekistonda 2010-yilda aholi soni 28 mln kishini tashkil etib, 2000-yildagi 24,5 mln ko‘rsatkichga nisbatan sezilarli oshdi. 2012-yil boshida aholi 29,6 mln nafarga yetdi. 2010-yilda tug‘ilish 22,4‰, o‘lim 4,9‰ bo‘lgan, 2011-yilda 626,9 ming tug‘ilish va 144,6 ming o‘lim qayd etilgan. 2012-yilda aholining 51% shaharlarda yashagan.

2016–2021-yillarda tug‘ilish darajasi oshib, yig‘indi koeffitsiyent 2,46 dan 3,17 ga ko‘tarildi (qishloqda 3,40; shaharda 2,95). Uchinchi va undan keyingi farzandlar soni 204,9 mingdan 325,2 ming nafarga yetdi. Norasmiy nikohdan tug‘ilish kamaydi.

Demografik bosim 2013-yilda 62,0 gacha tushib, 2022-yilda 75,8 ga yetdi va 2030-yilga borib 84,2 bo‘lishi prognoz qilinmoqda. 2030-yilgacha 3–6 yoshdagi bolalar soni 3,6 mln nafarga yetadi, bu esa ta’lim infratuzilmasini kengaytirishni talab qiladi. 2025-yilda 7–17 yoshdagilar 7,6 mln nafarga yetadi.

2024-yil 1-aprel holatiga aholi soni qariyb 37 mln bo‘ldi. 2025-yil iyulda Andijon – 3 488 ming, Namangan – 3 158,9 ming kishiga yetdi. Farg‘ona vodiysi viloyatlari aholi o‘sishida yetakchi hududlardan hisoblanadi. Farg‘ona viloyati – 4 181,5 ming kishini tashkil qildi. (1-ilova)



Shahar joylarda – 19,3 mln kishini, qishloq joylarda – 18,6 mln kishini tashkil qilmoqda.

Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichligining eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahri (6 ming 948,1 kishi), Andijon (804,9 kishi) va Farg‘ona viloyatida (613,1 kishi), eng past ko‘rsatkichlar Navoiy viloyati (9,9 kishi) va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (12,2 kishi) qayd etilgan (2-ilova).

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha aholi zichligi

2025-yil 1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi



O‘zbekiston Respublikasida 7 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 2010 yilda 13417656 nafarni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda O‘zbekistonda 5 yoshgacha bo‘lgan go‘daklar soni 4,4 million nafar, 5-13 yoshdagi bolalar 6,1 million nafar, 14-30 yoshlar oralig‘idagi yoshlar soni 9,6 million nafarni tashkil etdi[1].

Shuningdek, 2024-yilda Farg‘ona vodiysi viloyatlarida aholining demografik holati Andijon viloyatida 3,4 million kishini, Namangan viloyatida 3 million kishini, Farg‘ona viloyatida 4,1 million kishini tashkil etgan[3]. 2025-yil 1-iyul holatiga Andijon viloyatida 3,5 million kishini, Namangan viloyatida 3,2 million kishini, Farg‘ona viloyatida 4,2 million kishini tashkil etmoqda[2].

2024-yilda Farg‘ona vodiysi viloyatlarida yoshlarning demografik holati o‘ziga xos jihatga ega bo‘ldi. Bugungi kunda yoshlar soni bo‘yicha Andijon viloyatida 2,04 million kishi, Namangan viloyatida 1,8 million kishi, Farg‘ona viloyatida 2,45 million kishini tashkil etmoqda[1]. (3-ilova)



Doimiy aholi sonining eng ko‘p ulushi Farg‘ona viloyatida 11,0 %, Andijon viloyatida 9,2 % va Namangan viloyatida 8,3 % ni tashkil etgan[4].

2024-yilda Farg‘ona vodiysi viloyatlari bo‘yicha aholi zichligining eng yuqori ko‘rsatkichi Andijon viloyatida 792,8 kishi, Farg‘ona viloyatida 603,5 kishi, Namangan viloyatida 414,0 kishini tashkil etdi[4].

1991-2025-yillar davomida O‘zbekistonda mavjud aholi soni, aholining tug‘ilishi, o‘limi va tabiiy ko‘payishi o‘ziga xos ko‘rsatgichga ega bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Ko‘rsatkichning davrlar bo‘yicha qiyosiy tahlili mamlakatda mavjud aholi soni, tug‘ilishi, o‘limi va tabiiy ko‘payishining nisbatan barqaror bo‘lganligini ko‘rsatadi.

1991–2025 yillarda O‘zbekistonda tug‘ilish ko‘rsatkichi dastlab kamayib, 1991-yilda 723,4 ming, 1995-yilda 677,7 ming, 2000-yilda 527,6 ming, 2005-yilda 533,5 ming kishiga yetdi (26,3% kamayish). 2008-yildan boshlab tug‘ilish ko‘rsatkichlari oshib, 2015-yilda 734,1 ming, 2018-yilda 768,5 ming, 2020-yilda 841,8 ming, 2022-yilda 932,2 ming, 2024-yilda esa 926,4 ming kishini tashkil etdi (4-ilova)[1][1].



Umuman olganda, tug‘ilish ko‘rsatkichining kamayishi Respublikaning barcha viloyatlarida ham kuzatilgan. Agar 1991-2005 yillarda tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti Respublikada 14,2% ga kamaygan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich Farg‘ona va Andijon viloyatlarida 10,8-14,9% ga, Namangan viloyatida 16,2-18,9 % ga kamaygan[1].

Tug‘ilish ko‘rsatkichi Respublika bo‘ylab 2010-yildan boshlab ko‘tarila boshlandi va tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti Respublikada 2010-yilda 22% ga, 2015 yilda 23,5% ga, 2020-yilda 24,6% ga, 2024-yilda 26,4% ga oshdi[1]. (5-ilova)

[1] O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi joriy arxivi. 1991-2024 yil ma’lumotlari asosida hisoblab chiqilgan. www.stat.uz

Tug‘ilish ko‘rsatkichi 2010-2024 yillarda Andijon viloyatida 24,1-26,6% ga oshdi, Namangan viloyatida 24-27,9% ga oshdi, Farg‘ona viloyatida 22,8-26,5% ga oshdi[1].

Aholi soni tug‘ilish va o‘lim hisobiga doimo o‘zgarib boradi. Tug‘ilish jarayoni aholi sonining ko‘payishiga olib kelsa, o‘lim uning kamayib ketishiga sabab bo‘ladi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston aholisi 17,5 million kishiga ko‘paydi va 2025-yil 1-aprel holatiga 37,7 million kishini[2] tashkil etdi. Shu davr mobaynida aholining o‘rtacha yillik o‘sishi 1,8 foizni, o‘rtacha mutlaq ko‘payishi soni esa 750-970 ming kishini tashkil qilmoqda[1].

O‘zbekiston aholisi 2024-yilning har bir oyida o‘rtacha 54,5 ming kishiga oshgan. 2024-yilning har bir kunida doimiy aholi soni o‘rtacha 1,8 ming kishiga ko‘paymoqda.

Har bir davlat tug‘ilish muammosiga befarq munosabatda bo‘la olmaydi, bu muammo muayyan davlatning kelajakdagi rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda tug‘ilish jarayonining nisbatan yuqoriligiga asosiy sabablardan biri oila qadriyatlari hamda nikohdan o‘tish jarayonining yuqoriligi sabab bo‘lmoqda. Oilaning tashkil topishida esa, o‘z navbatida, nikoh va ajralish jarayonlari muhim omildir.

Nikohni qayd etish qonun-qoidalar va diniy urf-odatlarga muvofiq amalga oshiriladi. Mustaqillik yillarida nikohlanish darajasi har 1000 kishiga o‘rtacha 7–8 tani tashkil etdi. 1991-yilda respublika bo‘yicha 270,3 ming nikoh qayd etilgan bo‘lsa, 2000-yilda 168,9 mingga kamaydi, 2008-yilda esa 250,2 mingga yetdi. Hududlar kesimida Farg‘ona viloyati va Andijon viloyati yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan[1].

Nikohlanish darajasi 2017-2024 yillarga kelib yanada barqarorlashdi va 2017-yilda 306200 mingtani, 2020-yilda 296751 mingtani, 2021-yilda 305211 mingtani, 2022-yilda 296700 mingtani, 2024-yilda 271800 mingtani tashkil qildi[5].

(6-ilova)



O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush tarzi va faoliyat ko‘rsatish sharoitlarini yaratishdir. O‘zbekistonda 2025-yil yanvar–mart oylarida 43,8 mingta nikoh qayd etilib, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 4,8 mingga kamaygan.

Ajralishlar soni 11,5 mingta bo‘lib, har ming aholiga 1,2 promille to‘g‘ri kelgan va o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarish kuzatilmagan.

Qayd etilgan nikohlarning 20,8 mingtasi (47,4%) shahar joylarda, 23,0 mingtasi (52,6%) qishloq hududlarda amalga oshirilgan.

O‘zbekiston davlat siyosatida bolaning huquqlari, sog‘ligi, ta’limi va har tomonlama rivoji ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

Bugungi kunda oila mablag‘ini oila a’zolarining ehtiyojlariga qarab, zarurlarini ajratib olib, to‘g‘ri taqsimlash davr talabidir. Kishi boshiga 9 m^2 va undan ko‘proq turar joy to‘g‘ri keladigan oilalardagi bolalarning sog‘lomligi 5 m^2 turar joy to‘g‘ri kelgan oilalarga nisbatan 7-8 barobar yuqoridir[6]. Oilalarda bolalar uchun eng yaxshi sharoit yaratilishini targ‘ib etishga ahamiyat berish lozim. Bu esa sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning muhim omilidir.

Natijalar. 2024-yil 1-yanvar holatiga Namangan viloyati aholisi 3066 ming kishini tashkil etib[7], 2023-yilga nisbatan 2,3% ga oshdi. Shahar aholisi 1 989 ming (64,9%), qishloq aholisi 1077 ming (35,1%) kishi. Viloyat aholi soni bo‘yicha respublikada 5-o‘rinda turadi[7]. 2024-yilda 84,5 ming tug‘ilish va 13,8 ming o‘lim qayd etildi, migratsiya saldosi manfiy.

O‘zbekiston aholisi 2025-yil oxirida 38,2 mln ga yetdi, yiliga 1,9% ga o‘smoqda, 51% shaharlarda yashaydi. Demografik o‘sish Farg‘ona vodiysida kuchli bo‘lib, ta’lim va infratuzilmaga talabni oshirmoqda; 2027–2028-yillarda aholi soni 40 mln dan oshishi kutilmoqda.

Xulosa. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatini amalga oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida izchil va tizimli ravishda rivojlantirilib kelinmoqda. Amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar natijasida yoshlarning zamonaviy bilim va kasb-hunar egallashi, ularning intellektual salohiyati hamda innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari, grantlar va ijtimoiy loyihalar yosh avlodning bilim olishga bo‘lgan intilishlarini rag‘batlantirib, ularning jamiyat hayotidagi faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Natijada Yangi O‘zbekiston sharoitida zamonaviy bilimga ega, tashabbuskor, vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etishga qodir bo‘lgan yosh avlod shakllanib bormoqda. Mazkur jarayonlar mamlakatning barqaror taraqqiyoti va kelajak istiqbolini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi joriy arxivi. 1991-2024 yil ma’lumotlari. http:// www. stat.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi joriy arxivi. 2025-yil ma’lumotlari. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2
3. https://daryo.uz/2024/05/28/ozbekiston-aholisining-jinsi-va-yosh-guruhlari-demografik-korsatkichlar-qanday?ysclid=m2k797xmp1634644361
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi joriy arxivi ma’lumotlari. https://stat.uz/img/demografiya-press-reliz-26_04_2024-uzb.pdf
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi joriy arxivi. https://www.gazeta.uz/oz/2024/08/01/demography/
6. http:// www. tashkent.uz/uz/news
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi joriy arxivi. https://stat.uz/uz/

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK: 811.512.161.1:378

TURK TILINI IKKINCHI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISH TAJRIBASI (XALQARO TAJRIBA MISOLIDA)

***Dilliyev Xurshid* Xushvaqt o‘g‘li,**
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy *kommunikatsiyalar universiteti o‘qituvchisi*

hurshiddilliyev@gmail.com

EXPERIENCE OF TEACHING TURKISH AS A SECOND FOREIGN LANGUAGE (IN THE EXAMPLE OF INTERNATIONAL EXPERIENCE)

Dilliyev Khurshid Khushvaqt ogli,
Teacher of the Uzbekistan University of Journalism and Mass Communications

ОПЫТ ПРЕПОДАВАНИЯ ТУРЕЦКОГО ЯЗЫКА КАК ВТОРОГО ИНОСТРАННОГО (НА ПРИМЕРЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА)

Дилиев Хуршид Хушвактович,
Преподаватель университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекскистана

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jahon amaliyotida ikkinchi xorijiy tillarni, xususan turk tilini o‘qitish tajribasi o‘rganilgan. Xususan turk tilini o‘rganishda ilg‘or xorijiy tajribalar foydalanish va pedagogik tahlilar asosida o‘qitishning ijobiy jihatlari aniqlangan. Pedagogik tahlillar asosida o‘zbek ta’lim tizimida integrativ yondashuvni joriy etishning nazariy va amaliy imkoniyatlari, shuningdek, milliy ta’lim tizimi sharoitida uning metodik asoslarini takomillashtirish yo‘llari belgilab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *turk tlli, integrative yondashuv, pedagogik maqsad, integral ta’lim texnologiyalari, uyg‘unlashtirish.*

Abstract: *This article studies the experience of teaching second foreign languages, in particular Turkish, in world practice. In particular, the positive aspects of using advanced foreign experiences in learning Turkish and teaching based on pedagogical analysis are identified. Based on pedagogical analysis, theoretical and practical possibilities of introducing an integrative approach in the Uzbek education system are identified, as well as ways to improve its methodological foundations in the conditions of the national education system.*

Keywords: *Turkish language, integrative approach, pedagogical goal, integrated educational technologies, harmonization.*

Аннотация: *В данной статье исследуется опыт преподавания вторых иностранных языков, в частности турецкого, в мировой практике. В частности, выявляются положительные аспекты использования передового зарубежного опыта в изучении турецкого языка и преподавания на основе педагогического анализа. На основе педагогического анализа определены теоретические и практические возможности внедрения интегративного подхода в узбекскую систему образования, а также пути совершенствования его методологических основ в условиях национальной системы образования.*

Ключевые слова: *турецкий язык, интегративный подход, педагогическая цель, интегрированные образовательные технологии, гармонизация.*

KIRISH / ВВЕДЕНИЕ / ABSTRACT

Jahonda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, ta’lim tizimidagi islohotlar hamda qadriyatlarning o‘zgarishi pedagogik jarayonlarga integrativ yondashuv va innovatsion texnologiyalarni faol joriy etishni taqozo etmoqda. Hozirgi kunda jahonning eng ilg‘or universitetlarida xususan, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Germaniya, AQSH va boshqa davlatlarda integratsiyalashgan ta’limdan foydalangan holda o‘quv jarayonining refleksiv komponentini hisobga olib, ta’lim jarayonlarini samarali tashkil etish va talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Ta’lim barcha uchun (Education For All (EFA)), Ming yillik rivojlanish maqsadlari (Millennium Development Goals (MDGs)), Jahon ta’lim forumi (World Education Forum) va Lissabon Konvensiyalari oliy ta’limda integrativ yondashuv asosida malakali, ijodkor kadrlar tayyorlashning innovatsion yo‘nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1]. Shu nuqtai nazardan, turk tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o‘qitishda integrativ yondashuvni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda lingvistik, kommunikativ, madaniy va faoliyatga yo‘naltirilgan komponentlarni o‘zaro uyg‘un holda birlashtirish, shuningdek, ilg‘or pedagogik tajribalarni almashish orqali ta’limning tashkiliy-pedagogik jarayonida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish zarur hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)

Yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimining hozirgi rivojlanish bosqichi ta’lim mazmuni va uni amalga oshirish metodikalariga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish masalasi esa sifat jihatidan yangi talablar va ustuvor vazifalarni yuzaga chiqarmoqda. Ayni paytda, ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion tamoyillarni joriy etish hamda ularni izchil rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar va didaktik imkoniyatlarni yaratish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Chet tilini o‘qitishga integrativ yondashuvning tuzilmasi uslubiy, tashkiliy-faoliyatli va tarkibiy-mazmunli komponentlar majmuasidan tashkil topadi. Uslubiy komponentda turli fanlarning o‘qitish metodlarini loyiha, rolli o‘yin, keys texnologiyalari hamda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish kabi interaktiv usullarni uyg‘unlashtirish ko‘zda tutiladi [2]. Tashkiliy-faoliyatli komponent fanlararo integratsiyani ta’minlab, o‘quvchilarda ijodiy tafakkur va nostandart yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarkibiy-mazmunli komponent esa o‘quv materialini mazmunan uyg‘unlashtirish, madaniyatlararo muloqot va mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etish orqali integrativ ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarda xorijiy tillarga bo‘lgan motivatsiya yetarlicha shakllanmagan, darslarda grammatik bilimlarga ustunlik berilib, muloqot kompetensiyalari rivojlanishiga kam e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, integrativ yondashuv va madaniy-fanlararo bog‘liqlik yetarli darajada qo‘llanilmayotgani aniqlangan. So‘rov natijalariga ko‘ra, talabalarning 65% turk tilini o‘rganishga yuqori qiziqish bildirgan, 70% esa integrativ yondashuv samarali ekanini qayd etgan. Talabalarning asosiy til o‘rganish motivlari amaliy va pragmatik xarakterga ega bo‘lib, ularning kasbiy va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda darslar mazmunini moslashtirish zarur. Bundan tashqari, til muhitini sun’iy yaratishga yo‘naltirilgan onlayn muloqotlar, turk talabalari bilan aloqalar va autentik kontentdan foydalanish talabalarning til kompetensiyalarini, shuningdek, lingvo-madaniy va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari turk tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o‘qitishda integrativ yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi va pedagogik amaliyotda interfaol, madaniy va fanlararo integratsiyalashgan metodlarni keng joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Xorijiy mamlakatlarda turk tilini o‘qitish usullari va dasturlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu tajribalarni o‘rganish turk tilini intensiv o‘rganish boy‘icha eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash uni muvaffaqiyatli qo‘llanilayotgan metodikalarni o‘rganish, dasturlarini takomillashtirish, mavjud o‘qitish dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish va yangi yondashuvlarni joriy etish, global tendentsiyalarni tushunish chet tili o‘qitish sohasidagi umumiy rivojlanish va o‘zgarishlarni kuzatish, o‘quv materiallarini boyitish, turli xil o‘quv vositalari va resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini beradi. Grammatika qoidalari murakkabligi, fonetik farqlar va madaniy hamda ma’naviy kontekstlarning xilma-xilligi turk tilini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirishiga bevosita ta’sir qiluvchi omillar hisoblanadi.

Turk tili agglyutinativ tillar qatoriga kiradi, ya’ni so‘zlarga ko‘p sonli qo‘shimchalar qo‘shilishi orqali ma’no ifodalanadi. Bu holat talabalar uchun grammatika qiyinligini keltirib chiqaradi [3].

Turk tilini ikkinchi chet tili sifatida o‘qitishda Turkiyadan tashqari ko‘plab mamlakatlarda turli usullar qo‘llanadi. Masalan, Germaniyada turk tili ko‘pincha maktablarda va universitetlarda o‘qitiladi [4]. Ko‘p sonli turk diasporasi mavjudligi sababli, turk tili va madaniyatiga qiziqish yuqori. Bunda ko‘pincha kommunikativ yondashuv qo‘llanilib, nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga urg‘u beriladi. Madaniy almashinuv dasturlari va turk tili o‘qitish uchun maxsus darsliklar va o‘quv materiallaridan ham foydalaniladi.

AQSh universitetlarida turk tili va adabiyoti bo‘limlari mavjud bo‘lib, bu yerda til o‘qitishdan tashqari, Turkiya tarixi, siyosati va madaniyati ham o‘rganiladi. O‘quvchilarning ilmiy va kasbiy ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘qitish usullari qo‘llanilib, ko‘pincha kichik guruhlarda yoki individual mashg‘ulotlar olib boriladi. Buyuk Britaniyada esa turk tili ba’zi universitetlarda va til o‘rganish markazlarida o‘qitiladi [5]. Odatda kommunikativ va integrativ yondashuvlar birlashtirilib, o‘quvchilarning turli darajadagi tayyorgarligi hisobga olinadi. Shuningdek, zamonaviy o‘quv materiallari va raqamli resurslardan keng foydalaniladi.

Rossiyada ham turk tilli o‘qitiladigan oliy o‘quv yurtlari mavjud. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan yaqin aloqalar turk tilini o‘rganishga turtki beradi. Bunda ko‘pincha an’anaviy usullar bilan bir qatorda yangi pedagogik texnologiyalar qo‘llaniladi. Lug‘at boyligini kengaytirish va grammatik tuzilmalarni tushunishga alohida e’tibor beriladi. Rus tilida nashr etilgan turk tiliga oid darsliklar va lug‘atlardan keng foydalaniladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Ushbu xalqaro tajribadan ko‘rinib turibdiki, turk tilini ikkinchi chet tili sifatida o‘qitishda quyidagi umumiy tendentsiyalar kuzatiladi:

- Kommunikativ yondashuvning ustunligi oshirish orqali o‘quvchilarni til orqali samarali muloqot qila olish qobiliyatini rivojlantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

- Integrativ yondashuvning qo‘llanilishi orqali tilning barcha jihatlari (lug‘at, grammatika, nutq) bir-biri bilan bog‘liq holda o‘rgatiladi.

Turk tilni o‘rganish jarayonida asosan turk madaniyati, tarixi va jamiyati haqida ma’lumotlar berishga urg‘u beriladi. Bunda zamonaviy raqamli vositalar va onlayn resurslar o‘quv jarayonini boyitishda foydalanish hamda o‘quvchilarning turli ehtiyojlari va maqsadlariga mos ravishda o‘qitish dasturlari va metodikalarini moslashtirish muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etishda va turk tili darslarini o‘tkazishda madaniy ma’lumotlarning integratsiyasi, vizual va kontekstual ta’lim elementlaridan foydalanish orqali talabalarda funksional til ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor qaratiladi. Talabalarning kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish, turk tilida muloqot qilish ko‘nikmasini mustahkamlash hamda turkiy xalqlar madaniyatiga nisbatan qiziqish uyg‘otish maqsadida integrativ ta’lim mazmuniga ega bo‘lgan mashg‘ulotlar asosiy vosita sifatida foydalaniladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, turk tili darslari integrativ yondashuv doirasida tashkil etilib, u faqatgina til o‘rgatishni emas, balki talabalarning madaniy va fanlararo tafakkurini ham

rivojlantirishni nazarda tutadi. Shuningdek, turk tilini ikkinchi chet tili sifatida o‘qitish borasidagi xalqaro tajribalar boy va rang-baran bo‘lib, ushbu tajribalarni o‘rganish va tahlil qilish orqali turk tilini o‘qitishning yanada samarali va zamonaviy usullarini ishlab chiqish mumkin. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonda turk tiliga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirishga va ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60 - сон Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2022 й., 06/22/60/0082-сон, 47-мақсад.

2. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. –T: “O‘qituvchi” NMIU, 2012. – 432 b.

3. Öztürk, A. (2016). The Role of Culture in Teaching Turkish as a Foreign Language. International Journal of Language and Education, 2(1), 70-81.

4. Yılmaz, A. The Role of Turkish Language in International Relations. Journal of Language and Education, 6 (3), 45-56. 2020.

5. Yıldız, N., & Gürlek, S. (2020). Evaluation of the effectiveness of communicative language teaching in teaching Turkish as a foreign language. Journal of Language and Literature Education, 11(1), 50-64.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.01.2026 Chop etildi: 28.02.2026 UDK:614.5.613

TA'LIM SOHASIDAGI RASMIY YOZISHMALARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI VA ULARNI TADQIQ QILISH MUAMMOLARI

Yuldashev Xusanboy Ibragimovich,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i

Tel: +99877 363 09 67
mrx191267@gmail.com

THE PLACE OF OFFICIAL CORRESPONDENCE RELATED TO THE FIELD OF EDUCATION IN SOCIAL LIFE AND THE PROBLEMS OF THEIR STUDY

Yuldashev Khusanboy Ibragimovich
Head of International Cooperation Department, Uzbekistan State World Languages University

МЕСТО ОФИЦИАЛЬНОЙ ПЕРЕПИСКИ СФЕРЫ ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ И ПРОБЛЕМЫ ИХ ИССЛЕДОВАНИЯ

Юлдашев Хусанбой Ибрагимович,
Начальник Отдела международного сотрудничества Узбекского государственного университета мировых языков

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta'lim sohasidagi rasmiy yozishmalarning jamiyat hayotidagi o'rni, ularning ijtimoiy-kommunikativ funksiyalari hamda lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Rasmiy yozishmalar ta'lim tizimida boshqaruv, huquqiy munosabatlarni tartibga solish va axborot almashinuvining muhim vositasi sifatida qaraladi. Maqolada funksional stilistika, pragmalingvistika va kognitiv yondashuvlar asosida rasmiy yozishmalarni tadqiq qilish muammolari yoritiladi. Shuningdek, rasmiy uslubning aniqlik, standartlashuv va qoliplashuv kabi asosiy xususiyatlari ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *rasmiy yozishma, ta'lim tizimi, funksional stilistika, pragmalingvistika, diskurs, rasmiy uslub, kommunikatsiya, lingvistik xususiyatlar.*

Annotation: *This article examines the role of official correspondence in the education system and its significance in social life. It analyzes the socio-communicative functions and linguistic features of official documents used in educational institutions. Official correspondence is considered as an essential tool for administrative management, legal regulation and information exchange. The study highlights the problems of researching official correspondence through functional stylistics, pragmalinguistics and cognitive linguistics. Special attention is paid to the features of official style such as accuracy, standardization and cliché formulations.*

Keywords: *official correspondence, education system, functional stylistics, pragmalinguistics, discourse, official style, communication, linguistic features.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль официальной переписки сферы образования и её значение в общественной жизни. Анализируются социально-коммуникативные функции и лингвистические особенности официальных документов. Официальная переписка*

представлена как важный инструмент управления, правового регулирования и обмена информацией. В работе освещаются проблемы исследования официальной переписки с позиций функциональной стилистики, прагмалингвистики и когнитивной лингвистики. Особое внимание уделяется таким характеристикам официального стиля, как точность, стандартизация и клишированность.

Ключевые слова: *официальная переписка, система образования, функциональная стилистика, прагмалингвистика, дискурс, официальный стиль, коммуникация, лингвистические особенности.*

KIRISH/ВВЕДЕНИЕ/ABSTRACT

Ma’lumki, yurtimiz mustaqillikka erishilgandan so‘ng mamlakatimizning jahon hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rnini egallashi, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa ko‘plab sohalardagi aloqalarining tez sur’atlarda rivojlanib borishi o‘zaro muloqotning ahamiyatini yanada oshirdi. Boshqa sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim sohasida ham O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari ta’lim sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga ilg‘or xorijiy tajriba va o‘qitishning zamonaviy metodlarini joriy qilish, birgalikda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish maqsadida xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliygohlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish uchun rasmiy muloqotni yo‘lga qo‘yish, o‘zaro yozishmalar olib borish ehtiyojini yuzaga keltirdi.

Ta’lim sohasiga oid rasmiy yozishmalar, murojaat va aloqa xatlari tashkilotlar, muassasalar va xususiy shaxslar o‘rtasida muloqot vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim-tarbiya va ularni boshqarish faoliyatida yuzaga keladigan ko‘p sonli strategik, kardinal, taktik, operativ yoki kundalik tezkor masalalarni hal qilish kabi turli shakl va mazmundagi vazifalarni bajaradi va yuridik kuchga ega bo‘ladi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan ta’lim sohasidagi rasmiy yozishmalar – bu matn, ya’ni grammatik jihatdan tashkilllashtirilgan va semantik jihatdan tugal nutqiy asar bo‘lib, muayyan kommunikativ yo‘nalishga ega. U rasmiy, tashkiliy, ma’muriy funktsional uslubga mansub bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДЫ/ANALYSIS OF THE LITERATURE AND METHODS)

Ta’lim sohasidagi rasmiy yozishmalar hozirda uslubi, umuman olganda, ingliz va o‘zbek tilida ham sezilarli o‘zgarishlarga yuz tutdi. Nutqimizda rasmiy bilan bir qatorda yarim rasmiy xatlar, turli shakl va mazmundagi tabriknomalar, reklama xatlari kabilari mavjudki, ularda hayajonlilik va ta’sirchanlik hamda Davlat Standarti talablarining nisbati gohida emotsional-intellektual yoki biznes yo‘nalishiga qarab bir tomon, gohida esa boshqa tomonga o‘zgaradi. Ta’lim sohasidagi rasmiy yozishmalarda rasmiy-idoraviy uslubning o‘ziga xos belgilari majmuini aniqlash ahamiyatli hisoblanadi.

An’anaviy funksional stilistika tilshunoslikda sistema-struktur yo‘nalish paydo bo‘lgan davrda shakllanadi. Aynan shuning uchun stilistika bo‘yicha yaratilgan har qanday darslik, dissertatsiya, maqola va o‘quv qo‘llanmalarda tizimlilik qonuniga qat’iy asoslanadi: har bir funktsional uslubning o‘ziga xos xususiyatlari til tizimining bosqichlari nuqtai-nazaridan qaraladi.

Funksional stillar turli qatlamga tizimlashgan til vositalarining tanlash me’yori va muvofiqligi jamlanadigan nuqtayi tizimni o‘rganadigan tilshunoslik ilmidir. “Tilning rasmiy-idoraviy uslubi bu ma’muriy-huquqiy ijtimoiy faoliyatda qo‘llanadigan turi va u mazkur ijtimoiy sohadagi nutqiy faoliyatga xos til vositalari turkumi bilan huquqiy mamzundagi buyruq, farmoyish, qonun va hakazolar bilan xarakterlanadi. U turli xildagi yuridik (buyruq, farmoyish, qonun va b.), diplomatik (notalar, memorandum, xalqaro bitimlar va b.) hamda tashkiliy-ko‘rsatma hujjatlar (aktlar, xisob varaqalari, buyruqlar, ishonchnomalar, ma`lumotnomalar, rasmiy maktublar va b.) matnlarida o‘z aksini topadi” [1].

Ta’lim sohasidagi rasmiy yozishmalarning rasmiy-idraviy uslubga xosligining asosiy maqsadi - odamlar, tashkilotlar, idora, muassasalar, mamlakatlar o‘rtasidagi ta’limga oid munosabatlarni boshqarish va biror-bir masalaning ta’limga oid munozaratalab holati holati haqida axborot yetkazish. Bunda matndagi mazmun bir ma`moga ega bo‘lishi shart [2].

TAMADDUN NURI

Ta’lim sohasidagi rasmiy yozishma va hujjatlar uslubi jamiyatning manfaatdor iqtisodiy, yuridik va ijtimoiy ma’muriy-huquqiy, ma’naviy-madaniy munosabatlarda davlat idoralari o‘zaro aloqa vositasi hisoblanadi. Shunga ko‘ra bu uslubda yurdik qonun moddalari, hukumat idoralarining qarorlari, buyruqlar, shartnomalar, rasmiy e’lon va xabarlar, yozishmalar va shu kabi hujjatlar yoziladi.

Rasmiy-idoraviy ayrim olimlar quyidagicha ta’rif beradi: “iqtisodiy, itimoiy ma’muriy-huquqiy, ma’naviy-madaniy va siyosiy hayotda davlatlar, tashkilotlar hamda jamiyat a’zolarining turli ko‘rinish xarakter va vazifadagi rasmiy muloqotlari paytida yuzaga keladigan rasmiy munosabatlarni yuridik, xuquqiy-me’yoriy hujjatlar ko‘rinishida ifoda etadigan uslubdir [3]. Nutqning rasmiy-idoraviy stili - “bu asosiy vazifasiga ko‘ra idoralararo, tashkilotlararo yoki ulanring ichida, ishlab chiqarish, xo‘jalik, yuridik faoliyat jarayonida shaxslar o‘rtasida yuzaga keluvchi turli shakl va mazmundagi ko‘plab rasmiy-idoraviy munosabatlar sohasiga xizmat qiluvchi lisoniy vositalarning o‘ziga xos tizimlashgan yig’indisidir. Bu ta’riflar asosida umumiy olganda bir xil fikr mavjud: rasmiy sohadagi muloqot negizini har qanday jamiyat, siyosiy tizimda ijtimoiy ongning huquqiy shaklini tashkil etadi. Aynan o‘sha davlatda amalda bo‘lgan huquq me’yorlari ushbu sohada amalga tadbiq etiladi va rasmiy-idoraviy uslubning turli hujjatlari matnlarida aks etadi. Bu o‘z navbatida til andozalari qoliplarini shakllantiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, tilshunoslikda me’yor va andoza tushunchalari ko`pincha bir-birini farqlanmaydi.

Xizmat yuzasidan rasmiy muloqot faqat rasmiy-idoraviy yozishmalar uslubiga xos leksika, terminologiya va grammatik qo‘llanmalarni qo‘llash bilan cheklanib qolmaydi. Sababi rasmiy muloqot faqatgina rasmiy xizmat vaziyatlaridagina emas, balki norasmiy noxizmat vaziyatlarda ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda yozma va og’zaki ko‘rinishdagi rasmiy yozishmalarning son-sanoqsiz janr va shakllari talab etiladi. Masalan qat’iy kompozitsiya va rasmiy-idoraviy yozishma uslubining lisoniy vositalaridan foydalanishni talab etuvchi an’anviy xat janri, reklama va b. tijoriy va notijoriy muloqotning o‘ziga xos turfa janrlari borligidan dalolat beradi [4].

Rasmiy yozishmalar tili, asosan, rasmiy yozishmalarning qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Rasmiy ish yozishmalari shaklan, hajman va mazmunan turli-tuman bo‘lganligi tufayli har birining o‘ziga xos tuzilishi, maqsad, vazifa va xususiyatlari mavjud, biroq ulardagi aosiy holatlar mos ravishda mushtarak ko‘rinishlarga ega.

Ta’lim sohasidagi ramiy yozishmalar boshqa soha va yo‘nalishlardan turdosh rasmiy yozishma va hujjatlar uslubi kabi iqtisodiy, yuridik va diplomatik masalalarda, davlat idoralari, sudlar, savdoga doir o‘zaro muomalalarda ishlatiladi. Shunga ko‘ra bu uslubda yuridik qonun moddalari, diplomatik murojaatnomalar, notalar, huquqiy idoralarning qarorlari, yo‘riqnomalar, shartnomalar, rasmiy e’lon va xabarlar, yozishmalar va shu kabi hujjatlar qo‘llanish doirasi keng va xilma-xil bo‘lganligidan uning tarkibi ham turlichadir.

Ta’lim sohasiga oid idoraviy yozishmalarga tegishli hujjatlar, chunonchi, ma’lumotnoma, tilxat, axboriy xat, tushuntirish xati, taklifnomalar qisqa va aniqligi bilan ajralib turadi. Tildagi muayyan nutqiy qoliplar ta’limga oid idoraviy yozishmalarga xos xususiyatlar hisoblanadi. Bu holat ta’limga oid idoraviy ish qog’ozlarining vazifasi va tasnifidan kelib chiqadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS)

Yozishma mualliflari yozishmani qabul qilishga mas’ul shaxslar munosabati nutqiy muloqot sharoitida yuzaga kelaid, nutqiy harakat muloqot matnini talab qiladi va shu muloqot konteksida mazmunga ega bo‘ladi. Muloqot yuzaga kelishi uchun muhit bo‘lishi darkor. Muloqot jarayonida til nutqiy matn shaklida namoyon bo‘ladi, lisoniy harakatlar odatda alohida-alohida tarzda bajarilmaydi, ular kommunikatsiyani amalga oshrishga tayyor turgan guruhlar davrasida paydo bo‘ladi, ularning har birining lisoniy matni, muloqot aktida o‘z o‘rni bor. Har bir lisoniy konstruktning matnda joylashuvi ushbu konstruktnign o‘zi uchun ham, butun muloqot matning shaklan hamda mazmunan tarkib topishi uchun ham muhimdir. Shu sababli ta’lim sohasiga oid rasmiy yozishmalarida foydalanilgan har bir lisoniy diskursda bajarilishi ko‘zda tutilgan belgining matniy vazifalarini ajratish lozim bo‘ladi [5].

Axborot yetkazish ta’lim sohasiga oid rasmiy yozishmalar uslubning asosiy, aniqrog’i yetakchi funksiyasi hisoblanaid. Ta’lim sohasiga oid rasmiy yozishmalar xatlarning kommunikativ xususiyatlari uning muvaffaqiyatini, samaradorligini belgilaydi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Rasmiy yozishmada turlicha til vositalarini tanlab qo‘llash ularning yaxlit matn xosil qiluvchi va uslubiy funksiyalariga bog’liq ekanligi, bu matn strukturasiga, uning rivojlanishiga ta’sir qilishini ko‘ramiz. Ta’lim sohasiga oid rasmiy yozishmalarda lisoniy vositalardan foydalanishda ularning janr xususiyatlarini e’tiborga olish zarur va bu rasmiy yozishmaning pragmatik maqsadiga bog’liq bo‘ladi. Shu boisdan ushbu uslubdagi rasmiy yozishma matnlarining tipologik tasnifida eng ko‘p uchraydigan pragmatik maqsadlarni hisobga olish maqsadga muvofiq.

Rasmiy yozishmalarni o‘rganishda quyidagi muammolar mavjud:

- janr va tur tushunchalarining chalkashligi;
- lingvistik va nolingvistik omillarni ajratish qiyinligi;

diskurs va pragmatik yondashuvlarning yetarli darajada integratsiyalanmaganligi shular jumlasidandir. Har qanday jamiyatda, ayniqsa, rivojlangan, mutlikonferensional va multikultural jamiyatlrda rasmiy matnlar tasnifini ishlab chiqishda yagona mezonga rioya qilish mushkul. Ta’lim sohasidagi rasmiy-idoraviy yozishmalar turli matnlarda turlicha o‘z ifodasini topgan farqli va semiotik dominanta mavqeyini olgan uslubiy belgilar tadqiqotchilarga mazkur uslubning muhim, o‘z kuchini hanuz saqlab qolgan kichik turlarini aniqlash imkonini beradi.

Rasmiy-idoraviy yozishmalarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash o‘rganilayotgan turdagi yozishmalarning lingvistik xususiyatlarini ko‘p jihatdan aniqlash imkonini beradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, Zamonaviy tilshunoslikda ushbu muammolarni hal qilish uchun integrativ yondashuv zarur. Ta’lim sohasidagi rasmiy yozishmalar jamiyat hayotida muhim kommunikativ va huquqiy vosita hisoblanadi. Ularning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki ta’lim boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun ham muhimdir. Zamonaviy yondashuvlar asosida rasmiy yozishmalarni tadqiq qilish ushbu sohaning rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Сафаров Ш. Семантика. -Тошкент. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. 2013.
2. Веселов П.В. Современное деловое письмо промышленности. – М.: Изд. Стандартов, 1990. – 158 с.; Вишняков А.П., Старцев Т.В. Деловая корреспонденция. – Пермь, 1991. – 90 с.
3. Каримов С. Узбек тилининг функционал стилистикаси. - Самарканд, 2010. - Б 14.
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Тошкент, 2008. -Б. 51.
5. Веселов П.В. Современное деловое письмо промышленности. – М.: Изд. Стандартов, 1990. – 158 с.; Вишняков А.П., Старцев Т.В. Деловая корреспонденция. – Пермь, 1991. – 90 с.